

SH.Z. ABDULLAYEVA

BANK ISHI



H-15

ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA-MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

SH. Z. ABDULLAYEVA

BANK ISHI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi Muvofiqlashtirish kengashi tomonidan
darslik sifatida tavsiya etilgan*

+

105 435 2/3

TOSHKENT
«IQTISOD-MOLIYA»
2017

Taqrizchilar: *i.f.d., prof. N.Karimov;*
i.f.d., prof. M.Yuldashev

Sh. Z. Abdullayeva

A 15 Bank ishi: Darslik / Sh. Z. Abdullayeva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «Iqtisod-Moliya», 2017. – 732 b.

Mazkur «Bank ishi» darsligi kadrlar tayyorlash bo'yicha Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq ishlab chiqilgan namunaviy o'quv dasturi asosida yaratilgan.

Unda banklar faoliyati turli jihatlardan mujassamlashtirilgan bo'lib, bank tizimi va uning bo'g'inlari. Markaziy bank va tijorat banklari faoliyatini tashkil qilishning huquqiy va iqtisodiy asoslari. tijorat banklari faoliyatining Markaziy bank tomonidan muvofiqashtirilishi, shuningdek. tijorat banklarining passiv va aktiv operatsiyalari, ularning resurslari, kapitali, aktivlari va ularning sifati, tijorat banklarining valyuta va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari, daromadlari va xarajatlari, ularning foydasi kabi mavzular o'z ifodasini topgan. Darslikda tijorat banklari tomonidan kreditlashni tashkil etish, mijozning kreditga layoqatligini aniqlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash, kreditlarning ta'minlanganligi, tijorat banklarining lizing, faktoring, forfeyting operatsiyalari, foiz siyosati, tijorat banklarining likvidligi va to'lovga layoqatligi, bank risklari, banklarning yangi xizmatlari kabi mavzular ham yoritilgan. Mazkur darslikdan bankirlar, moliya, buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi bitiruvchilari, magistrlar va doktorantlar hamda bank xodimlari foydalanishlari mumkin.

UO'K 336.71(075.8)
KBK 65.262.1

MUNDARIJA

Kirish.....	8
I BOB.O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BANK TIZIMI VA BOSHQA KREDIT MUASSASALARI.....	13
1-§. Banklar va bank tizimining rivojlanish bosqichlari.....	13
2-§. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vazifalari va funksiyalari.....	26
3-§. Tijorat banklari va ularning tashkiliy tuzilishi.....	41
4-§. Tijorat banklarining funksiyalari va faoliyati tamoyillari.....	47
5-§. Boshqa kredit tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish asoslari.....	53
6-§. Bazi xorijiy davlatlar bank tizimi va ularning xususiyatlari.....	61
II BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TASHKIL QILISHNING HUQUQIY VA IQTISODIYASOSLARI.....	78
1-§. Tijorat banklari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari.....	78
2-§. Banklar faoliyatini tugatishning huquqiy asoslari.....	91
3-§. Banklarga vasiy tayinlash.....	95
III-BOB.TIJORAT BANKLARINING PASSIV OPERATSIYALARI VA BANK RESURLARINING TARKIBI.....	99
1-§. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari va uning turlari.....	99
2-§. Tijorat bankining resurslari va ularning tarkibi.....	102
3-§. Tijorat bankining o‘z mablag‘lari.....	107
4-§. Tijorat bank kapitali va uning tarkibi.....	115
5-§. Jalb qilingan mablag‘lar.....	128
6-§. Markaziy bankning tijorat banklarini qayta moliyalash operatsiyalari...	140
7-§. Xorijiy banklar amaliyotida banklarning resurs bazasini shakllantirish usullari.....	143
IV BOB. TIJORAT BANKLARINING AKTIVLARI, ULARNING TARKIBI VA SIFATI.....	150
1-§. Bank aktivlari, ularning mohiyati va tarkibi.....	150
2-§. Bank aktivlarining sifat darajasi.....	153
3-§. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari va ularni boshqarish.....	163
V BOB. TIJORAT BANKLARINING VALYUTA OPERATSIYALARI.....	174
1-§. Tijorat banklarning valyuta operatsiyalari va uning huquqiy asoslari....	174
2-§. Valyuta kursining mohiyati va uning turlari.....	176
3-§. Valyuta kursiga ta’sir etuvchi omillar.....	182
4-§. Ichki valyuta bozorida xorijiy valyutani sotish va sotib olish tartibi.....	184

5-§. Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning xorijiy valyutadagi hisob raqamini yuritish tartibi.....	186
6-§. Valyuta operatsiyalari va ularning turlari.....	192
7-§. Investitsiya loyihalarini erkin ayirboshlanadigan valyutada kreditlash tartibi.....	200
8-§. Eksport-import operatsiyalari bo'yicha valyuta nazorati.....	203
VI BOB. TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARI.....	207
1-§. Qimmatli qog'ozlar, ularning turlari va ahamiyati.....	207
2-§. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalari va ularning bank faoliyatida tutgan o'rni.....	211
3-§. Qimmatli qog'ozlar bozori va unda bank faoliyatining turlari.....	220
4-§. Banklarning qimmatli qog'ozlar portfelini tashkil qilish va boshqarish.....	225
VII BOB. KREDITLASHNI TASHKIL ETISH ASOSLARI.....	232
1-§. Tijorat banklarida kreditlashni tashkil qilish. Kreditlash tamoyillari.....	232
2-§. Kredit munosabatlarining obyektlari va subyektlari.....	235
3-§. Bankning kredit operatsiyalari va ularning xususiyatlari.....	240
4-§. Bank kreditlarining turlari va shakllari.....	242
5-§. Kreditlash uslublari va ssuda hisob varaqlarining shakllari.....	246
6-§. Xorijiy davlatlarda kreditlash amaliyoti.....	252
VIII BOB. AYLANMA MABLAG'LAR VA MIJOZLARNING KREDITGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASH USULLARI.....	258
1-§. Aylanma mablag'lar tushunchasi va ularning tarkibi.....	258
2-§. Aylanma aktivlarni tashkil qilish manbalari.....	261
3-§. Mijozning kreditga layoqatliligi va uni baholashning manbalari.....	266
4-§. Mijozning kreditga layoqatliligini baholashning asosiy ko'rsatkichlari.....	273
5-§. Kreditga layoqatlilikni baholashning qo'shimcha ko'rsatkichlari.....	281
6-§. Rivojlangan davlatlarda mijozning kreditga layoqatliligini baholash usullari.....	286
IX BOB. KREDITNING TA'MINLANGANLIGI VA UNING SHAKLLARI.....	324
1-§. Kreditning ta'minlanganligi to'g'risida tushuncha.....	324
2-§. Kafillik va uning ahamiyati.....	327
3-§. Bank kafolati va uning kreditlashdagi o'rni.....	333
4-§. Kreditning qaytarilishini ta'minlashda garovning ahamiyati.....	340

X BOB. KREDITLASH JARAYONLARI VA ULARNING BOSQICHLARI.....	354
1-§. Tijorat banklarining kredit siyosati va uning zarurligi.....	354
2-§. Kredit siyosatining mezonlari va o'ziga xos xususiyatlari	357
3-§. Kredit paketini tashkil qilish va kredit berishni hujjatlashtirish tartibi.....	362
4-§. Kredit shartnomasining mazmuni va ahamiyati.....	366
5-§. Kredit shartnomasining tarkibiy qismlari.....	370
6-§. Kredit shartnomalarini qo'llash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi.	377
7-§. Ssuda hisob varag'idan kredit berish va qaytarilish tartibi.....	379
8-§. Qisqa muddatli kreditni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlashda bank nazoratining roli.....	382
9-§. Kredit monitoringi va uning amalga oshirilishi.....	385
XI BOB. TIJORAT BANKLARINING KREDIT PORTFELI VA UNING SIFAT TAHLILI.....	390
1-§. Tijorat banklarining kredit portfeli va uning iqtisodiy mohiyati.....	390
2-§. Tijorat banklari kredit portfelinin sifati tahlili.....	393
XII BOB. TIJORAT BANKLARINING FOIZ SIYOSATI.....	403
1-§. Tijorat banklarining foiz siyosati to'g'risida tushuncha.....	403
2-§. Kredit bo'yicha foiz stavkalarining vujudga kelishi va unga ta'sir qiluvchi omillar.....	410
3-§. Foiz stavkasi va uning turlari.....	415
4-§. Bank marjasi va foiz stavkalariga ta'sir qiluvchi omillar.....	419
5-§. Xorijiy davlatlar banklarining foiz siyosati va foiz stavkalari.....	422
XIII BOB. ALOHIDA KREDIT TURLARI.....	429
1-§. Alohida ssuda hisob varag'idan kreditlash tartibi.....	429
2-§. Kontokorrent hisob varag'dan kreditlash.....	434
3-§. Overdraft bo'yicha kreditlash.....	437
4-§. Lombard krediti va undan foydalanish imkoniyatlari.....	440
5-§. Tijorat banklari tomonidan revolver kreditlari berish tartibi va uning ahamiyati.....	443
6-§. Iste'mol krediti. uning turlari va ahamiyati.....	446
7-§. Ta'lim kreditini berish tartibi va uning ahamiyati	450
8-§. Ipoteka kreditlari va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	452
9-§. Tijorat banklari tomonidan yosh oilalarga ajratiladigan kreditlar va ulardan foydalanish shartlari	457
10-§. Tijorat banklari tomonidan sindikatlashgan kreditlarni berish tartibi.....	460

XIV BOB. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KREDITLASH.....	464
1-§. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlashni tashkil qilish asoslari	464
2-§. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini mikroreditlash.....	468
3-§. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga dastlabki sarmoyani shakllantirish uchun beriladigan mikroreditlar.....	471
4-§. Bankning imtiyozli kreditlash jamg'armasi hisobidan kichik biznes subyektlarini kreditlash.....	473
5-§. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini byudjetdan tashqari jamg'armalarning kredit liniyalari hisobidan kreditlash.....	476
XV BOB. TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN QISHLOQ XO'JALIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH.....	481
1-§. Qishloq xo'jaligi subyektlarini kreditlashni tashkil qilish asoslari.....	481
2-§. Tijorat banklari tomonidan shaxsiy yordamchi xo'jaliklarga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun mikroreditlar berish tartibi.....	487
3-§. Tijorat banklari tomonidan shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga chorvachilikni rivojlantirish uchun imtiyozli maqsadli mikroreditlar berish.....	489
4-§. Xorijiy mamlakatlarda qishloq xo'jaligini kreditlash tajribasi.....	490
XVI BOB. TIJORAT BANKLARINING FAKTORING OPERATSIYALARI.....	498
1-§. Faktoring operatsiyalarining mohiyati, maqsadi va belgilari.....	498
2-§. Faktoringning turlari.....	501
3-§. Faktoring xizmati bo'yicha shartnoma va uning tarkibi.....	504
4-§. Tijorat banklarini faktoring operatsiyalari va ularning o'tkazilish tartibi.....	507
XVII BOB. TIJORAT BANKLARINING LIZING OPERATSIYALARI.....	511
1-§. Lizing operatsiyalari va uning asosiy elementlari.....	511
2-§. Lizingning turlari.....	517
3-§. Lizing qiymati va uni hisoblash usullari.....	521
4-§. Lizing operatsiyalari bilan bog'liq risklari va ularni boshqarishning ahamiyati.....	524

XVIII BOB. TIJORAT BANKLARINING YANGI XIZMAT TURLARI.....	528
1-§. Bank innovatsiyasining mohiyati va tarkibi.....	528
2-§. Plastik kartochkalar muomalasini tashkil etish va ular orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi.....	532
3-§. Bank hisob varaqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimi. Internet banking xizmati.	535
XIX BOB. TIJORAT BANKLARINING TRAST VA FORFEYTING OPERATSIYALARI.....	542
1-§. Tijorat banklarining trast operatsiyalari.....	542
2-§. Banklarning forfeyting operatsiyalari.....	546
XX. BOB. TIJORAT BANKLARINING DAROMADLARI, XARAJATLARI VA FOYDASI	555
1-§. Tijorat banklarning daromadlari va ularning turkumlanishi.....	555
2-§. Tijorat banklarining foizli va foizsiz daromadlari.....	558
3-§. Tijorat banklarining xarajatlari va ularning tarkibi.....	563
XXI BOB. TIJORAT BANKLARINING TO'LOVGA LAYOQATLILIGI VA LIKVIDLILIGI.....	570
1-§. Tijorat banklarining likvidliligi va to'lovga layoqatliligi haqida tushuncha.....	570
2-§. Tijorat banklari likvidliligini baholash.....	577
3-§. Tijorat banklari likvidliligini boshqarish.....	580
4-§.Tijorat banklarining aktiv va passivlarini boshqarishning bank likvidligiga ta'siri.....	586
XXII BOB. TIJORAT BANKLARI RISKLARI VA ULARNI BOSHQARISH USULLARI.....	592
1-§. Bank riski tushunchasi va uning turlari.....	592
2-§. Kredit risklari va ularni hisoblash usullari.....	605
3-§. Tijorat banklari faoliyatida risklarni boshqarish.....	616
Ilovalar.....	624
Glossariy.....	634
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	722

KIRISH

Bozor munosabatlarining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish zamirida iqtisodiyotni rivojlantirish, xalqaro bank tizimi talablariga mos keluvchi mahalliy banklar faoliyatini tashkil qilish va ular faoliyatini yanada takomillashtirish bugunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Yaxshi taraqqiy etgan bank tizimi va banklar faoliyatiga ega bo'lgan jamiyat sog'lom rivojlanishi mumkin.

O'zbekistonda bank ishi, kredit munosabatlari yildan yilga rivojlanib bormoqda. Xalqaro moliya tashkilotlarining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston "Biznesni yuritish", "Kredit olish" indeksi bo'yicha 2012-yilda 154-o'rin, 2014-yilda 105-o'rinni egallagan bo'lsa, 2015-yilda 42-o'ringa chiqdi. "Kredit axboroti" indeksi bo'yicha O'zbekiston 8 ballik baholash tizimidan 7 ballga ega bo'lgani respublikada kredit munosabatlarini tez sur'atlarda rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi.

Ozbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021 yillarga moljallangan Harakatlar Strategiyasida¹ mamlakatimiz bank tizimining barqarorligini ta'minlash, ularning capital etarililigini xalqaro talablarga moslashtirib borish, banklarda risk-menejmentni takomillashtirish sohasida qator vazifalarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Shu bois, iqtisodiyotni samarali boshqarish uning muhim subyekti bo'lgan banklar faoliyatini o'rganishni, ularning ishlash usullari, funktsiya va operatsiyalarini chuqur bilishni taqozo qiladi.

Kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lim standartlari asosida ishlab chiqilgan namunaviy o'quv dasturi asosida yaratilgan. «Bank ishi» darsligi «Pul, kredit va banklar» nazariy fanining davomi bo'lib, bu fanda mavzularni nazariy jihatdan yoritish bilan birgalikda ko'proq mavzularni amaliy jihatdan o'rganishga e'tibor qaratilgan.

Bu fan yosh bankirlarga va bank ishiga qiziquvchilarga mutaxassislik bo'yicha bilim berishga, jumladan, banklar faoliyatini tashkil qilish va olib borish, banklarning turli bozor subyektlari bilan

¹ Ozbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida. PF-4947-son. T., 2017 y. 7 fevral.

munosabatlarini va umuman bank ishini tashkil etish asoslarini o'rgatishga mo'ljallangan.

Bank maxsus muassasa sifatida o'ziga xos bo'lgan funksiya va operatsiyalarni bajaradi. U bajaradigan funksiya va operatsiyalar banklar faoliyatining qator boshqa bozor munosabati subyektlari faoliyatidan ajralib turishiga asos bo'ladi. Banklarning ish predmeti bo'lib pul mablag'lari hisoblanadi va ular bozor munosabatining boshqa subyektlari faoliyatida yuzaga keladigan pul munosabatlarining amalga oshirilishida vositachi sifatida maydonga chiqadi. Pul doimo o'zi bilan ehtiyotkorona muomalada bo'lishni va saqlashni, uni ko'paytirishga harakat qilishni, iqtisod bilan samarali va oqilona ishlatishni talab qiladi. Pulni tejab-tergab ishlatadigan subyekt doimo pulga ega bo'lishi, pulini hisobsiz sarflaydigan kishi undan tezda ajralib qolishi va nochor ahvolga tushishi mumkin.

Bank bozor munosabatlarining boshqa subyektlaridan farqli o'laroq, pul bilan ishlovchi, vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini o'zida yig'uvchi, uni pul zarur bo'lgan subyektlarga vaqtincha foydalanishga berib turuvchi va bu pul mablag'larini samarali ishlatish asosida o'z faoliyatini olib boruvchi muassasa hisoblanadi.

Bank ishini qonun va qoidalar asosida aniq va samarali olib borish nafaqat bank faoliyatini samarali qiladi, balki butun jamiyatning ravnaq topishiga, iqtisodiyotning rivojlanishiga va jamiyat a'zolarining ham boyishiga, turmush farovonligining oshishiga olib keladi.

Odatda, iqtisodiyotning holati banklar faoliyati bilan aniqlanadi. Banklar bozor munosabatlarining boshqa subyektlaridan farqli ravishda iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi muassasa hisoblanib, moddiy ishlab chiqarishni tashkil qilish va olib borishda vositachi sifatida, kapital aylanishining uzluksizligini ta'minlash, bo'sh pul mablag'larini yig'ish va ularni pul zarur bo'lgan subyektlar o'rtasida taqsimlash bo'yicha faoliyat olib boradi. Banklar faoliyatining boshqa subyektlardan farqli yana bir tomoni shundaki, ular asosan jalb qilingan mablag'larga tayanib ishlaydilar. Bu esa, o'z navbatida, bank ishining risklilik darajasini oshiradi. Chunki bank, bir tomondan, unga o'z jamg'armalarini ishonib topshirgan yuridik va jismoniy shaxslar oldida majburiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, bank o'z aksiyadorlari oldida majburiyatga ega. Shu sabab banklar mablag'larni doimo iqtisod qilib ish olib boradilar.

Bank ishi bozor munosabatlarining o'zgarishiga qarab o'zgarib boradi, lekin ular tarixiy rivojlanishining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarni, klassik funksiyalar va operatsiyalarni saqlab qolganlar. Qadimdan ham

banklar bo'sh turgan pul mablag'larini yig'ish, ularni saqlash, pul zarur bo'lgan subyektlarga vaqtinchalik qaytib berish va to'lovlilik sharti bilan mablag'larni berib turishi kabi operatsiyalarni bajarganlar. Hozirgi kunda ham bank faoliyati ko'lami, mijozlari va operatsiya turlari ko'paygan bo'lsada, aynan bankka tegishli bo'lgan yuqoridagi xususiyatlar saqlanib qolgan, bu funksiyalar yanada mustahkamlanmoqda.

Bank ishi faniga ilmiy-amaliy taraqqiyotni o'zida mujassamlashtiruvchi fan sifatida qarash mumkin. Hozirgi kundagi banklar oldingi banklardan ko'ra, ilg'or, yangi shakllarda va yangi texnologiyalar asosida iqtisodiyotning talablariga mos keluvchi operatsiyalar qo'llash orqali faoliyat olib bormoqda. Bu, o'z navbatida, fanni o'qitishda uning mazmunini boyitish, unda banklar faoliyatining yangi usul va uslublarini ifodalashni zarurat qilib qo'yadi.

Jahon amaliyotida banklar mijozlarga 300 dan ortiq turli xil operatsiyalarni tavsiya qiladilar.

O'zbekiston Respublikasida ham bank tizimini erkinlashtirish va isloh qilish amalga oshirilayotganda, shu bosqichda asosiy maqsad – banklarimiz faoliyatini xalqaro bank amaliyoti andozalariga yaqinlashtirishdan, banklarning kapitalini ko'paytirgan holda, ularni xususiyashtirish, banklar faoliyatida yangi zamonaviy texnologiyalar qo'llash va, umuman, banklar faoliyatining samaradorligi orqali iqtisodiyotning samaradorligi va barqarorligiga erishishdan iborat.

Mazkur «Bank ishi» darsligi banklar faoliyatining turli jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Darslikda dastavval «Pul, kredit va banklar» nazariy fanining oxirgi bo'limlarida ko'rib o'tilgan bank tizimi va uning bo'g'inlari Markaziy bank va tijorat banklari faoliyatini tashkil qilishning huquqiy asoslari, banklarning faoliyat ko'rsatishiga bo'lgan talablar, ularning faoliyatiga ruxsat berish va litsenziyani bekor qilish, tijorat banklarining asosiy maqsad, vazifalari va funksiyalari bilan bog'liq savollar, tijorat banklari faoliyatining Markaziy bank tomonidan muvofiqlashtirilishi bilan bog'liq mavzular yoritilgan. Banklar faoliyatini tashkil qilish va olib borish to'g'risidagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga izoh berilgan.

Darslikda, shuningdek, tijorat banklari faoliyatining iqtisodiy asoslari – banklarning passiv va aktiv operatsiyalari, tijorat banklari resurslarini tashkil qilish, ularning tarkibi va manbalari, bank kapitali, uning tarkibi, tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lari, tijorat banklarining aktivlari va ularning sifat darajasi tahlili, tijorat

banklarining valyuta va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari, daromadlari va xarajatlari, ularning foydasi kabi mavzular o'z ifodasini topgan, shuningdek, tijorat banklari tomonidan kreditlashni tashkil etish, aylanma aktivlar, mijozlarning kreditga layoqatlilikini aniqlashda qo'llaniladigan moliyaviy koeffitsiyentlar, qisqa muddatli kreditlash asoslari, alohida kredit turlari va ularni qo'llash imkoniyatlari, banklar tomonidan berilgan kreditlarning ta'minlanganligi, ta'minlanganlik turlari, iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlash xususiyatlari bayon qilingan.

Kredit munosabatlarining asosi bo'lgan kredit shartnoma, uning bajarilishi, tijorat banklarining lizing, faktoring, forfeyting operatsiyalari ko'rib chiqilgan.

Darslikda shu kun iqtisodiyotining dolzarb sohasi bo'lgan kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini kreditlash asoslari, tijorat banklarining likvidligi va to'lovga layoqatligi, bankning likvidligiga ta'sir qiluvchi omillar kabi masalalar ham keng yoritilgan. Bu bo'limda yana tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari, banklarning foiz siyosati, bank risklari va ularni boshqarish masalalari, banklarning yangi innovatsion texnologiyalari va xizmatlari bilan bog'liq mavzular yoritilgan.

Mazkur "Bank ishi" darsligi bir necha bor o'quv qo'llanma sifatida nashr etilgan va unda mahalliy iqtisodiyot va banklari faoliyatining bayon qilinishi bilan birgalikda xorijiy banklar amaliyoti, ularning xususiyatli va farqli tomonlari ham ko'rib o'tilgan, bank amaliyotida mavjud ba'zi muammolar to'g'risida ham fikr yuritilgan. Kitobda har bir mavzuning oxirida talabalar bilimini mustahkamlash uchun "tayanch so'zlar" va o'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar tavsiya qilingan. Qo'yilgan savollarga to'liq javob bera olish imkoniyatidan tashqari, talabalarga ba'zi mavzular bo'yicha yoki unda qo'yilgan muammolar bo'yicha o'z mustaqil fikrini bayon qilishga imkon beruvchi esselar, yozma xulosalar va boshqalar yozish vazifasi yuklatiladi.

«Bank ishi» fani to'liq hajmda Davlat ta'lim standartining «Bank ishi» ta'lim yo'nalishida o'qitiladi. Bu fan o'quv jarayonining VI, VII, VIII semestrlarida o'rganiladi. O'qish jarayoni ma'ruza, amaliy darslardan tashqari ish o'yinlari, aniq masalalar yechish, amaliy holat va masalalarni muhokama qilishni o'z ichiga oladi.

Mazkur fan bo'yicha kelgusida talabalar bitiruv malakaviy amaliyotini o'taydi va kurs ishi, fanni o'rganishning oxirida bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlaydilar.

Mazkur darslikdan nafaqat kelgusi bankirlar, balki moliya, buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi bitiruvchilari, magistrlar va doktorantlar hamda bank xodimlari foydalanishlari mumkin.

Darslikdan kadrlar malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlashni tashkil qilishda foydalanish mumkin.


Darslikni tayyorlashda mavzuning nazariy tomoni bilan birga banklar va mijozlarning amaliy materiallaridan, bank amaliyotida foydalaniladigan me'yoriy hujjatlardan keng foydalanilgan. Darslikda respublikada bank ishini tashkil qilishning asosiy yo'nalishlari bilan birgalikda alohida mavzular bo'yicha amaliy materiallar, bank ishi muhim terminlarining izohli lug'ati keltirilgan bank amaliyoti ham bayon qilingan. Darslik bo'yicha fikr-mulohazalaringiz bo'lsa Toshkent shahri, A.Temur shoh ko'chasi, 60-A uy, Toshkent moliya instituti «Bank ishi» kafedrasiga yuborishingiz mumkin.

Sizning fikrlaringiz mazkur darslikni qayta nashr qilish jarayonida, uning sifatini yaxshilashga yordam beradi, degan umiddamiz.

I BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BANK TIZIMI VA BOSHQA KREDIT MUASSASALARI

1-§. Banklar va bank tizimining rivojlanish bosqichlari

Dastlabki banklar qachon va qanday paydo bo‘lganligini to‘g‘risida aniq bir vaqt va xulosani aytish ancha ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab qiladi. Gap shundaki, hozirgi davrda banklar faoliyat yuritish xususiyatidan kelib chiqib turlicha bo‘lgan operatsiyalarni bajaruvchi universal moliyaviy tashkilotlarni o‘zida namoyon qiladi. Masalan, birinchi darajali toifaga kiruvchi chet el banklari o‘z mijozlariga 300 dan ortiq turli xil xizmatlarni ko‘rsatadilar. Bu operatsiyalar va xizmatlarning barchasi bir vaqt va bir joyda paydo bo‘lmaganligi sababli ham bank ishining “boshlang‘ich” nuqtasini aniqlash aniq tadqiqotlar olib borishni va ular asosida ma‘lum bir fikrlarni mujassamlashtirishni talab qiladi. Banklarning paydo bo‘lish tarixi bo‘yicha ba‘zi bir fikrlar to‘g‘risida siz tushunchaga egasiz. Bank ishi rivojlanishini bankning alohida operatsiyalari miqyosida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bank ishining tarixiy rivojlanishi quyidagicha borganini ko‘rishimiz mumkin:



1-rasm. Bank ishining rivojlanish bosqichlari

Banklar faoliyatining eng “qadimgi” operatsiyalari bo‘lib, pullarni saqlab berish bo‘yicha operatsiyalar hisoblanadi. Ma‘lumki, eng qadimgi davlatlarda ham omonatlarni qabul qilish operatsiyalari mavjud bo‘lgan. Ilk bor bunday ish bilan ma‘lum obro‘ga va ishonchga ega bo‘lgan puldor shaxslar, Yevropa mamlakatlarida cherkov muassasalari shug‘ullanganlar. Masalan, mashhur grek ehromlari (Delfiya, Efes ehromlari va b.) bir paytning o‘zida o‘ziga xos bank muassasalari bo‘lib xizmat qilgan. Yillar o‘tishi bilan o‘sha qadimgi davrlardan boshlab, ayrim hollarda qo‘yilgan pul yoki mulk bo‘yicha foizlar ham hisoblana boshlangan. Banklarning kelib chiqishiga bag‘ishlangan mavjud adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, banklar paydo bo‘lishining asosiy yoki boshlang‘ich zamini, birinchidan, pul mablag‘larini saqlab

berish bo'lsa, ikkinchidan. pul mablag'larini almashtirib berishdan iborat ekanligini ko'rish mumkin.

Banklarning paydo bo'lishi va faoliyat ko'rsatishining asosi - pul ayirboshlash bo'yicha ehtiyojning yuzaga kelganligidadir. Bunda Yevropani yorqin misol qilib ko'rsatish mumkin. O'rta asrlarda (pul) tangalarning yagona tizimi mavjud bo'lmagan. Savdo turli mamlakatlar, shaharlar, hatto, alohida shaxslarning tangalari orqali olib borilgan. Barcha tangalar turli vazn, shakl va nominalga ega bo'lgan. Shuning uchun tangalar bilan shug'ullanuvchi va ayirboshlashni olib bora oladigan mutaxassislar o'z ayirboshlash stollari bilan qizg'in savdo ketayotgan joylarga joylashishgan. Shu bois, "bank" so'zi italyancha "banco" - ayirboshlovchining oldidagi stol degan ma'noni anglatuvchi so'zdan kelib chiqqan. Bunga o'xshash operatsiyalar nafaqat Rimda, balki Gretsiya kabi Yevropaning boshqa mamlakatlarida, shuningdek, qator Sharq mamlakatlarida ham amalga oshirilgan.

Pulni saqlash va ayirboshlash bo'yicha operatsiyalar bilan shug'ullanuvchi shaxslar yig'ilgan boyliklar - pullar samarasiz, harakatsiz yotganini tushunishar va agar mavjud mablag'larning hech bo'lmaganda bir qismini bo'lsa ham vaqtinchalik foydalanishga berilsa, sezilarli foyda olish mumkinligini bilishar edi. Shunday qilib, pul mablag'iga ehtiyoj sezgan odamlarga garov asosida pullarni ma'lum muddatga qaytarish va foiz to'lash shartlari bilan berish asosida ssuda (kredit) operatsiyalari paydo bo'lgan. Bunda garov sifatida uylar, kemalar, qimmatli buyumlar, chorva mollari, hattoki, qullar qabul qilingan.


Pul mablag'larini saqlab beruvchi shaxs xizmatlaridan bir-biri bilan o'zaro hisob-kitoblar bilan bog'langan bir necha shaxslar foydalanishi mumkin bo'lgani uchun asta-sekin mijozlarga hisob-kitob xizmatini ko'rsatish operatsiyalariga ehtiyoj paydo bo'la boshladi. Dastavval ular quyidagicha amalga oshirilar edi: Har bir omonatchi pulni saqlab beruvchida uning ismi yozilgan jadval shaklidagi o'z hisob varaqasiga ega bo'lgan. Bu jadvalda pullarning harakati (kirim yoki chiqim) aks ettirilgan. Barcha operatsiyalarni pulni saqlab beruvchi omonatchining og'zaki yoki yozma buyrug'i bilan amalga oshirilgan. Bunda mos o'zgarishlar o'zaro hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi shaxslar jadvallariga kiritilar edi. Bu eng sodda xizmatlar naqd pulsiz hisob-kitoblarning dastlabki shakllarining yuzaga kelishiga zamin yaratgan.

Barcha yuqoridagi operatsiyalar dastlab alohida mavjud bo'lgan va keyinchalik ular biz bank deb nomlashga odatlangan bir xil tashkilotlar

chegaralarida birlashganlar. G'arbiy Yevropada oddiy ayirboshlash idoralaridan bank uylariga o'tish jarayoni XVI-XVII asrlarda ro'y berdi. Ko'pchilik iqtisodchilar bank mohiyatini ssuda (kredit) operatsiyalarida ko'rishga moyildirlar. Shuni hisobga olish kerakki, har bir davlatda bank faoliyati qonuniy ta'riflarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, bank ishining bir necha asrlik an'alariga ega bo'lgan Angliyada 1979-yilda banklar to'g'risida qabul qilingan qonunda "bank" atamasining ta'rifiga alohida e'tibor berilgan. Britaniyalik qonun chiqaruvchilar bank ta'rifini ancha soddalashtirganlar, ya'ni ular bank deganda Angliya Davlat banki bank deb tan olgan har qanday kompaniya tushunilishi mumkinligini qayd etganlar. To'g'ri, o'z navbatida, Angliya banki jahon tajribasi nuqtayi nazaridan umum tan olingan bank xususiyatlariga ega bo'lgan mezonlarni o'rnatgan. Xususan, bank maqomiga da'vo qiluvchi kompaniya omonatlar qabul qilayotgani, kreditlar berayotgani, eksport-import va boshqa moliya operatsiyalarini amalga oshirayotganligi, valyuta ayirboshlayotganligi, investitsion xizmat ko'rsatayotganligi va moliya bilan bog'liq masalalar bo'yicha maslahatlar berayotganligini isbot qilishlari ham kerak.

Uzoq yillar davomida jamiyatning rivojlanishi va unga mos tovar-pul munosabatlarining o'sib, takomillashib borishi banklarning operatsiyalari va ko'rsatadigan xizmatlari ko'lamining kengayib borishiga, jamiyat a'zolarining pulga bo'lgan talabining oshib borishiga olib kelgan. Davlat, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatini muvofiqlikda olib borish, davlat va jamiyat a'zolarining pul mablag'lariga bo'lgan talablarini qondirgan holda, davlatning iqtisodiy jihatdan o'sishi va barqarorligini ta'minlash maqsadida banklar o'rtasida bajariladigan funksiya va operatsiyalar ko'lami taqsimlana borgan, ya'ni davlat nomidan, davlat manfaatlarini himoya qilgan holda faoliyat ko'rsatuvchi banklar va alohida jamiyat a'zolari bilan ishlovchi banklar yoki yuqoridagi ikki yo'nalishni ham o'zida mujassamlashtirgan banklar (oxirigisiga sobiq Ittifoq davridagi Davlat bankini kiritish mumkin) shakllana borgan.

Hozirgi vaqtda jahonda banklar faoliyatida umum qabul qilingan tizim **ikki pog'onali** bank tizimi hisoblanadi va u davlat Markaziy banki va tijorat banklari tarmog'ini o'z ichiga oladi.



2-rasm. **Jahonda umumqabul qilingan bank tizimi**

Jahon amaliyotida har bir mamlakatning **Markaziy banki banklarning banki** sifatida bank va moliya muassasalari faoliyatining barqarorligini ta'minlaydi. Birinchi navbatda, u ko'pchilik moliya institutlari, banklarning faoliyatida moliyaviy jihatdan muammolar yuzaga kelganida, banklar omonatchilar oldidagi o'z majburiyatlarini bajarolmay qolgan holda moliyaviy sarosima paydo bo'lishining oldini olishi kerak. Bu masalani hal qilish uchun Markaziy bank, avvalo, ikkinchi pog'ona – tijorat banklariga nisbatan tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini bajaradi. Markaziy bank tijorat banklarining har kunlik faoliyatiga aralashmasligi lozim. Markaziy bank tijorat banklari faoliyatining me'yoriy jihatdan boshqarilishi, ularning to'lovga qobiliyatligi va likvidligini ta'minlanishini kuzatib borishi va omonatchilar manfaatlarini himoya qilishi zarur. Buning uchun Markaziy bank tomonidan nazorat me'yorlari ishlab chiqiladi va amalga oshirilishi uchun tijorat banklariga yetkaziladi.

Markaziy bank pul siyosatini o'tkazish yo'li bilan muomaladagi pul massasi ustidan nazoratni amalga oshiradi va inflyatsiya, ishsizlikning past darajasini ta'minlash hamda iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratishi lozim. Bunda Markaziy bank emission bank vazifasini bajaradi, ya'ni muomalaga pul belgilarini chiqarish va ularni muomaladan olish huquqiga ega bo'ladi.

Markaziy bank yana tijorat banklari o'rtasidagi hisob-kitoblarni olib borish imkoniyatiga ega.

Bank tizimining ikkinchi pog'onasi - iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga xizmat ko'rsatishda bosh bo'g'in bo'lgan mustaqil tijorat

banklarning tarmog'idir. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga shartnoma asosida turli hisob-kitob, kredit va investitsiya operatsiyalarini hamda boshqa turli bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiradilar.

Har bir mamlakatda tijorat banklarining soni turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, Shvetsiyada Davlat banki 40 ga yaqin tijorat banki faoliyatini nazorat qiladi, xolos, AQShda 13 mingga yaqin tijorat banklari mavjud, Shveysariyada esa har 10 ming aholiga bittadan moliya muassasasi to'g'ri keladi. Rossiyada 1995-yil boshiga kelib, Rossiya Markaziy banki tomonidan bank operatsiyalarini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo'lgan 2486 ta tijorat banki qayd qilingan bo'lsa, hozirgi kunda 3000 dan ortiq banklar faoliyat ko'rsatmoqda.

Bank tizimining rivojlanish tarixi to'g'risida fikr yuritganda, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin tashkil qilingan va takomillashib borayotgan mustaqil bank tizimi to'g'risida alohida to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

1991-yilning 1-sentyabrida respublika mustaqilligining e'lon qilinishi butun dunyo mamlakatlari tomonidan tan olingan bozor iqtisodiyoti dastaklarini bizning respublikamizga ham kirib kelishiga zamin yaratdi. Shuning uchun ham respublikamizdagi bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi zamonaviy bank tizimini yaratish zaruriyati tug'ildi.

Mustaqillikka erishilgunga qadar O'zbekiston bank muassasalari sobiq ittifoq bank tizimi tarkibiy qismiga kirar va bu banklar sobiq ittifoq bank tizimi doirasidan tashqarida faoliyat ko'rsata olmasdilar. Sobiq ittifoq bank tizimi 3 turdagi banklarni: SSSR Davlat banki, SSSR Qurilish banki va SSSR Tashqi savdo bankini va Davlat mehnat omonat-jamg'arma kassalarini o'z ichiga olardi. Mazkur bank tizimida Davlat banki monopol mavqega ega bo'lib, u bir vaqtning o'zida emissiya instituti, qisqa muddatli kreditlashtirish, xo'jaliklarga hisob-kitob operatsiyalari bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi markaz hisoblanardi. Mazkur bankning mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha funksiyalarni bajarishga monopollashuvi Davlat bankini davlat boshqaruv va nazorat organiga aylantirgan edi.

Ma'muriy buyruqbozlik davrida kredit munosabatlari iqtisodiyotni boshqarishda shaklan yuzaki xarakterga ega edi. Kredit va pul resurslari harakatini ham boshqarish, ham nazorat qilish davlat bankining monopol ta'siri ostida edi. Bular, o'z navbatida, sobiq ittifoq bank tizimining bir yoqlama rivojlanishiga olib keldi. Markazlashtirilgan bank boshqaruvi asosida faoliyat ko'rsatgan respublika banklari tor doirada pul resurslari

harakatini boshqarar, lekin uni boshqaruvchiligini nazorat qilish sobiq ittifoq Davlat banki qo'liga edi.

Iqtisodiyotni boshqarishning markazlashtirilgan usulidan voz kechish va bozor iqtisodiyoti tomon dastlabki qadamlar qo'yilishi bilan oq markazlashtirilgan bank tizimining qator kamchiliklari ro'yobga chiqdi. Bu esa bank tizimida tub o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etardi.

Bank tizimini qaytadan tashkil etish 1987-yilda boshlandi. Bu jarayonda bank tizimining tashkiliy tuzilmasini o'zgartirish, banklarning rolini oshirish, iqtisodiy tizimning rivojlanishiga ularning ta'sirini kuchaytirish, kreditni harakatdagi iqtisodiy dastaklarga aylantirish ko'zda tutilgandi.

Qayta tashkil etish jarayonining birinchi bosqichi davlat bankining yangi tuzilmasini tashkil etish bilan boshlandi.

Qayta tashkil etish modeli quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish: Markaziy emission bank va bevosita xo'jaliklarga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan davlat banklari;

- ixtisoslashtirilgan banklarni to'raligicha xo'jalik hisobiga va o'z-o'zini moliyalashga o'tkazish;

- iqtisodiy tizim doirasida yuridik va jismoniy shaxslar bilan bo'ladigan kredit munosabatlari, uslublari va shakllarini takomillashtirish v.b.

Bank tizimini takomillashtirish jarayoni davomida davlat banki o'zining kredit tizimidagi markaziy o'rni saqlab qolgan holda korxonalar va tashkilotlarga kredit berish va ular bilan hisob-kitoblarni olib borish funksiyasini maxsus ixtisoslashgan banklarga topshirdi. Ya'ni bankning emission faoliyatini kreditlash faoliyati bilan birga olib borish funksiyasiga chek qo'yiladi. Davlat banki ixtisoslashgan banklar faoliyatini boshqaruvchi, barcha banklar uchun bir xil pul-kredit siyosatini olib boruvchi muassasaga aylandi. Bank tizimining takomillashtirilishi natijasida vujudga kelgan maxsus ixtisoslashgan banklar: Sanoat qurilish banki, Uy-joy qurilish va ijtimoiy rivojlanish banki, Agrosanoat banki, Tashqi iqtisodiy faoliyat banki mavjud jamg'arma kassalar o'rniga Jamg'arma banki tashkil qilinib, xo'jaliklar bilan banklar o'rtasidagi aloqalar tobora yaqinlashtirildi. Ixtisoslashtirilgan davlat banklari o'zlarida ma'lum darajada boshqaruvchilik rolini saqlab qoldilar. Bank tizimini takomillashtirish jarayonida juda muhim natijalarga erishildi, lekin tashkil qilingan banklar iqtisodiy munosabatlarning xususiyatlarini to'liq ifoda qila olmasdi, shuning uchun ham bank tizimini yanada takomillashtirish obyektiv zaruriyatga aylandi.

1988-yildan boshlab ikki bosqichli bank tizimi tashkil etila boshlandi. Lekin bu davrda markazlashtirilgan rejalashda Markaziy bankning roli hali ham yuqori, sohalarning deyarli hamma qismi davlat tasarrufida edi.

O'zbekiston Respublikasida ikki bosqichli bank tizimini tashkil etishga real asos 1991-yil 15-fevralda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni asosida yuzaga keldi. Bu qonunga asosan davlat boshqaruv organlari respublika Markaziy banki faoliyatiga aralashmasliklari kerak edi. U faqat Respublika Oliy Majlisiga hisobot beradi. Bu qonunni amalga tatbiq etish, asosan, respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng boshlandi.

O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich yo'lini tanlaganligi bois, mamlakatimizda bank tizimini shakllantirishning birinchi bosqichida pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish borasida asosiy vazifalar belgilab olindi. Bular:

- Markaziy bank boshchiligida keng tarmoqli mustaqil tijorat va xususiy banklarni o'zida mujassamlashtirgan ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish, respublika hududida yirik chet el banklarining bo'limlari va vakolatxonalarini ochish uchun qulay sharoit yaratish;

- barqaror pul muomalasini ta'minlash;

- kredit va naqd pul massasining asossiz o'sishini keskin cheklash;

- O'zbekiston Respublikasining milliy pulini muomalaga kiritish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar hamda imkoniyatlarini yaratish v.b.

Shunday qilib, O'zbekistonda mustaqil bank tizimini yaratishning **birinchi bosqichi**, milliy valyutani muomalaga kiritish uchun iqtisodiy asos yaratish va ikki pog'onali bank tizimining poydevorini qurish jarayonlari bilan bog'liq 1991-yildan 1994-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda mamlakatimizning mustaqil bank tizimini yaratish bo'yicha olib borilgan tadbirlar 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi» qonuni asosida amalga oshirildi. Mazkur qonun bozor munosabatlariga o'tish davri vazifalariga mos keluvchi bank muassasalari shakllanishining huquqiy asoslarini belgilab berdi.

Ushbu qonunga muvofiq, sobiq SSSR Davlat bankining respublika muassasasi asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tuzildi va unga respublikada pul muomalasini tartibga solish, tijorat banklari tizimini vujudga keltirish va to'lov tizimini shakllantirish vazifalari yuklatildi. Iqtisodiyotning turli sohalarni kreditlash va ularni investitsiyalash

funksiyalari yangidan tashkil qilingan ixtisoslashtirilgan tijorat banklariga berildi.

Mustaqil pul va bank tizimini yaratishning **ikkinchi bosqichi** milliy valyuta (so'm) muomalaga kiritilgan va ikki pog'onali bank tizimining huquqiy asoslari yaratilgan 1994-1996-yillarni o'z ichiga oladi. 1994-yilda milliy valyuta – so'mning muomalaga kiritilishi mamlakatimizda mustaqil pul va bank tizimi shakllanishining poydevoriy bosqichi hisoblanib, bu bosqichda banklar oldida turgan vazifalarga yanada aniqlik kiritildi. Bu davrda Markaziy bank asosiy e'tiborini makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga va shu asosda iqtisodiy o'sish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratdi, mamlakatda sifat jihatidan butunlay yangi to'lov tizimini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Ixtisoslashgan tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishda Vazirlar Mahkamasining «Bank tizimini takomillashtirish va pul-kredit munosabatlarini barqarorlashtirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1994-yil 18-martdagi qarori muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda banklarning axborot infratuzilmasini yaratish va xalqaro bank amaliyotining ilg'or usullarini respublika bank amaliyotiga qo'llash orqali bank tizimini takomillashtira borish bo'yicha yo'l-yo'riqlar belgilab berildi. 1994-yildan boshlab yangi buxgalteriya hisobi tizimini ishlab chiqish va ularni banklarga tatbiq qilish jarayoni boshlandi.

1996-yilda Respublika Prezidentining «Bank auditi tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga asosan bank tizimida buxgalteriya hisobining xalqaro andozalarini joriy qilish jarayoni yanada takomillashtirildi va jahonning nufuzli auditorlik kompaniyalaridan «Artur Andersen», «Deloyt end tush», «Key Pi Em Ji (KRMG)», «Ernest end Yang», «Kupers end Laybrand» kabi kompaniyalar yetakchi tijorat banklari faoliyatini audit qilishga taklif qilindi. Mazkur davrda bank tizimini rivojlantirishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, bank tizimining huquqiy asoslarini mustahkamlash va zamon talablariga moslashtirish maqsadida «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi va «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunlarning yangi loyihasi ishlab chiqildi.

1995-yil 21-dekabrda bank faoliyatining huquqiy va me'yoriy tartibga solish qoidalarini belgilovchi «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida» va 1996-yil 25-aprelda «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunlarning qabul qilinishi bank tizimini jahon andozalariga yaqinlashtirish sohasida mustahkam qonuniy poydevor yaratdi.

1996-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki monitar boshqaruv va bank nazoratining to'la huquqli organiga aylandi hamda tijorat banklarining huquqiy asoslari mustahkamlandi, bank aktivlarini diversifikatsiyalash, xorijiy kapitalni jalb qilish asosida universal tijorat banklarini shakllantirishning prinsiplari mustahkamlanganligi mazkur bosqichning xususiyatli jihatlari hisoblanadi.

Bank tizimini shakllantirishning **uchinchi bosqichi** 1997-2000-yillarni o'z ichiga olib, unda banklarni xususiylashtirish va aksiyadorlik-tijorat banklarida boshqaruvning sifatini oshirish, banklar faoliyatida nazoratni kuchaytirish ko'zda tutildi.

Bu jarayon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 24-apreldagi «Xususiy tijorat banklari tashkil qilishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonning qabul qilinishi bilan yanada faollashdi. Mazkur farmonga ko'ra ustav kapitalida jismoniy shaxslarning ulushi 50 foizdan kam bo'lmagan holda tijorat banklarini ochish uchun bir qator imtiyozlar belgilangan edi. Natijada so'nggi yillar ichida xususiy banklarning soni keskin ko'paydi. Hozirgi paytda respublikada faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklarining deyarli yarimini xususiy banklar tashkil etadi.

Bank tizimiga xususiy kapitalni jalb etish bilan birga, banklarni korporativ boshqarish tizimini yanada mustahkamlashga doir chora-tadbirlar ham amalga oshirildi. Xususan, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aksiyadorlik tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1998-yil 2-oktyabrdagi farmonining qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur farmon tijorat banklarini boshqarishda aksiyadorlarning va bank kengashining rolini oshirishga doir chora-tadbirlar majmuyini belgilab berdi.

Ushbu farmon asosida amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimizda har tomonlama mustahkam bank tizimi, xalqaro andozalarga mos keluvchi zamonaviy bank nazorati va banklar faoliyatini tartibga solishning samarali mexanizmlari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bank tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1999-yil 15-yanvardagi qaroriga asosan bank tizimining barqarorligini oshirish, iqtisodiyotni kredit bilan ta'minlashda banklarning ishtirokini kengaytirish, bank xizmatlari sohasida raqobat muhitini rivojlantirish sohasida vazifalar belgilab berildi.

1991-2000-yillar mobaynida yuzaga keltirilgan bank tizimini yanada xalqaro andozalarga yaqinlashtirish maqsadida bank tizimini erkinlashtirish va isloh qilish chora-tadbirlarining boshlanishi bank tizimi rivojlanishining **to'rtinchi bosqichini** belgilab berdi. Bu bosqich O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2000-yil 21-martdagi farmoni va Vazirlar Mahkamasining «Bank tizimini isloh qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2000-yil 24-martdagi qarori qabul qilinishi bilan boshlandi.

Bu hujjatlarga asosan quyidagilar **mazkur bosqichning asosiy vazifalari** qilib belgilandi:

- bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish, tijorat banklari mustaqilligini oshirish;

- bank tizimi va uning bo'g'inlari rivojlanishini rag'batlantirish;

- bo'sh turgan mablag'larni bankka jalb qilish va omonatchilarning manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish;

- banklar tomonidan iqtisodiyotning real sektori korxonalari, xususan, dehqon, fermer xo'jaliklari hamda kichik va o'rta biznes subyektlarini kreditlash jarayonini kengaytirish;

- banklarni investitsiya jarayonlarining faol ishtirokchilariga aylantirish;

- banklarning mijozlar bilan o'zaro manfaatli sheriklik munosabatlarini shakllantirish;

- aholining bank-moliya tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish;

- xorijiy banklar va boshqa moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish, valyuta munosabatlarini erkinlashtirish va kengaytirish kabi vazifalar belgilandi va mazkur vazifalarni amalga oshirishning me'yoriy va huquqiy asoslari yaratildi.

2006-yildan boshlab respublika bank tizimini rivojlantirishning **beshinchi bosqichi** boshlandi. Bu bosqich banklar tomonidan aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarga xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish va bu sohani yangi bosqichga ko'tarishga me'yoriy va huquqiy asos solganligi bilan xususiyatlidir. Bu bosqichda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uni kreditlash, aholining iste'mol ehtiyojlarini va uy-joy qurilishini ipotekaviy kreditlash, mikrokredit tashkilotlari va mikromoliyalash tizimini takomillashtirishning qonuniy asoslari shakllantirildi. "Mikromoliyalash to'g'risida"gi, "Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi, "Iste'mol krediti

to'g'risida"gi, "Ipoteka to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi.

Ayniqsa, mamlakatda kichik biznes, xususiyl tadbirkorlik va fermerlikni rivojlantirish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni faollashtirish yo'li bilan yangi ish o'rinlari yaratish, qishloq joylarda aholi keng tabaqalarining mikromoliyaviy xizmatlarga bo'lgan talablarini qondirishga moliyaviy mablag'lar ajratish tizimini takomillashtirish maqsadida 2006-yil 5-mayda O'zbekiston Prezidentining "Mikrokreditbank aksioner tijorat bankini tashkil etish to'g'risida"gi farmoniga asosan OAT Mikrokreditbankning tashkil qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Aynan mazkur bosqichda kreditning ijtimoiy ahamiyati ortdi. 2008-yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining boshlanishi bank tizimi barqarorligini quyidagi sinovlardan o'tkazdi:

- ◆ yirik rivojlangan mamlakatlarning ko'p yillar davomida davlat buydjeti taqchilligi va salbiy tashqi savdo balansiga egaligi;

- ◆ davlat tashqi qarzi miqdorini YIMga nisbatan o'sish sur'atlarining jadallashishi;

- ◆ noratsional pul-kredit siyosati hamda qayta moliyalash stavkasining surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida qarzga yashash kundalik odatga aylanishi;

- ◆ ipoteka kreditlari berish talablarining asossiz bo'shashtirib yuborilganligi va uy-joy bozorida narxlarning qisqa muddat ichida keskin o'sishi jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining yuzaga kelishiga olib keldi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uning salbiy ta'siridan himoyalash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar va jarayonlar bank tizimini rivojlantirishning **oltinchi bosqichini** boshlab berdi. Jahon moliyaqiy iqtisodiy inqirozi tufayli jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan o'zgarishlar, albatta, O'zbekiston iqtisodiyotiga ham ta'sir ko'rsatishi muqarrar edi. Shu bois, O'zbekistonda mazkur inqirozning oldini olish choralari ko'rildi hamda ushbu choralarda asosiy e'tibor mamlakat bank tizimini mustahkamlash, banklarning kapitallashuvi, resurs bazasi, likvidligi, to'lovga qobiliyati va ularning kreditlash imkoniyatini oshirish masalalariga ustuvorlik berildi. Inqirozning salbiy ta'siridan himoyalash maqsadida prezident farmoni asossida yangidan tashkil etilgan "Mikrokreditbank"ning ustav kapital miqdori 72 mlrd so'mga oshirilib, uning hajmi 150 mlrd so'mga yetkazildi. Xuddi shunday Davlat tijorat banklari Asakabank va Xalq bankiga, Aksioner tijorat

banklari - Sanoatqurilishbank, Paxtabank, G'allabankning kapital bazasini mustahkamlash maqsadida byudjetdan mablag'lar ajratildi. Quyidagi jadvalda tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha ajratilgan mablag'lar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan:

1-jadval

Davlat byudjetidan banklar ustav kapitalini oshirish bo'yicha ajratilgan mablag'lar dinamikasi (mln so'm)

№	Bank nomi	E'lon qilingan ustav kapitali	Qo'shimcha aksiyalar emissiyasi va joylashirilishi					
			Jami	Shu jumladan				
				2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.
1.	Xalq banki	200	120	20	30	30	20	20
2.	Asaka banki	300	147	100	48	-	-	-
3.	O'zsanoatqurilish banki	100	65	63	2	-	-	-
4.	Mikroredit bank	150	72	54	18	-	-	-
5.	Paxtabank	100	50	22	28	-	-	-
6.	G'allabank	50	36	13	23	-	-	-
Jami		491	272	149	30	30	20	20

Mamlakat birinchi prezidenti I.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asarida mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha qabul qilingan inqirozga qarshi choralar dasturining asosiy yo'nalishlarida banklar ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh mablag'larini tijorat banklaridagi depozitlarga jalb qilishni rag'batlantirish vazifasi belgilandi. Mazkur yo'nalishda respublika bank-moliya tizimining barqarorligini ta'minlashning quyidagi tamoyillari:

- ◆ respublikamiz moliya bozoriga qisqa muddatli spekulyativ kapital kirishiga yo'l qo'ymasdan xorijdan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish;

- ◆ iqtisodiyotning ustuvor sohalarini moliyalashtirishda davlat kafolati ostida olingan kreditlarni faqat uzoq muddatlarga, ya'ni 20 yildan 40 yilgacha hamda imtiyozli stavkalarda, xususan, 0,5 foizdan 2 foizgacha bo'lgan miqdorlarda jalb qilish;

- ◆ banklar kredit siyosatini belgilashda ipoteka kreditlari berish me'yoriga va tartibiga alohida e'tibor qaratildi;

- ◆ O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini shakllantirish;

◆ respublika yetakchi banklarining kapitallashuv darajasini keskin oshirish vazifalari belgilab berildi.

Banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, resurs bazasini takomillashtirish, ular faoliyatining barqarorligini ta'minlash, chakana xizmatlarni rivojlantirish, iqtisodiyotning real sektori, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlashni kengaytirish va takomillashtirish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish bilan ahamiyatlidir. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish borasida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish, bank tizimini rivojlantirish, tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish, pul-kredit munosabatlarining qonuniy asoslarini yanada takomillashtirish, kreditlash mexanizmini soddalashtirish, aholining kam ta'minlangan qatlamlarining tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashni imtiyozli kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar hozirgi – **yettinchi bosqichning** muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Mazkur bosqichda 2011–2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlarida respublika moliya-bank tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, banklar va butun moliya-bank tizimi faoliyatiga yondashuvlarni hamda baholash tizimini tubdan o'zgartirish, xalqaro normalar, standartlar va baholash ko'rsatkichlariga muvofiq bank faoliyatini tashkil etishning yanada yuqoriroq darajasiga chiqishni ta'minlash borasida vazifalar belgilab olindi. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi bank tizimi taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshchiligida **26 tijorat banklari**, shundan **3 davlat tijorat banki**, **10 aksiyadorlik tijorat banki**, **8 xususiy bank** va **5 chet el kapitali ishtirokidagi banklarni** (1-ilovaga qarang) o'z ichiga oluvchi bank tizimi yuqorida belgilangan vazifalarni amalga oshirib, bozor islohotlarining faol qatnashchilari sifatida faoliyat olib bormoqda.

2-§. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vazifalari va funksiyalari

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank tizimining bosh banki bo‘lib, pul-kredit siyosatini, emissiya jarayonlarini olib boradi va milliy pulning barqarorligini ta‘minlovchi muassasa hisoblanadi. Markaziy bank o‘z faoliyatini 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni asosida olib boradi.

Markaziy bank maqomi va maqsadlari «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 1-moddasida belgilangan: «O‘zbekiston Respublikasi **Markaziy banki yuridik shaxs** bo‘lib, faqat davlat mulki hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki - iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa, o‘z xarajatlarini o‘zining daromadlari hisobidan amalga oshiradi». Qonunning 2-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yuridik shaxs sifatida ko‘chmas mulk va moliyaviy resurslarga egalik qiladi. Bu hol uning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlaydi va mustaqil pul-kredit siyosatini samarali o‘tkazish imkoniyatini beradi.

Qonunning 3-moddasida Markaziy bankning **bosh maqsadi** milliy valyutaning barqarorligini ta‘minlashdan iborat ekanligi qayd qilinadi. Narxlarning barqarorligini ta‘minlash va milliy pul birligini xorijiy valyuta bozorlarida ayirboshlash kursining barqaror bo‘lishiga erishishni ko‘zda tutuvchi bu maqsad davlatning iqtisodiy siyosatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o‘rni juda muhim ekanligini belgilaydi.

Mamlakatda pul muomalasi samarali bo‘lishi va moliya muassasalari faoliyatining ishonchligi pul-kredit, valyuta siyosati strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda uning mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlash zarurligini taqozo etadi. Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini kreditlash ko‘rsatkichlarini tijorat banklarini qayta moliyalashga doir kredit hajmlarini va foiz stavkalarini belgilash yo‘li bilan tartibga solish, valyuta-kredit siyosatini amalga oshirish, tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mustaqil siyosat sohasi hisoblanadi. Mustaqil siyosat esa pul va valyuta bozorida yuzaga kelayotgan vaziyatni, ichki bozordagi makroiqtisodiy shart-sharoitni, tashqi omillarni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu holat qonunning 6-

moddasida Markaziy bank o'z vakolatlari doirasida qarorlar qabul qilish borasida mustaqildir deb belgilab berilgan.


Davlat Markaziy bankning majburiyatlari yuzasidan, Markaziy bank esa davlatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

Qonunning 8-moddasida Markaziy bank faoliyatining tashkiliy jihatlariga e'tibor qaratilgan bo'lib, Markaziy bank yagona markazlashtirilgan boshqaruv tizimiga ega ekanligi, Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tegishli xizmatlar va muassasalar tashkil etilishi mumkinligi, jumladan, bu borada Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti, viloyatlarning markazlari va Toshkent shahrida yuridik shaxs maqomga ega bo'lmagan o'zining bosh boshqarmalarini tuzishi mumkinligining huquqiy asoslari keltirilgan.

Markaziy bank raisi bank boshqaruvning raisi hisoblanadi.

Markaziy bank raisi Markaziy bank va uning boshqaruvi faoliyatiga rahbarlik qiladi, bankning fondlarini tasarruf etadi va Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilishi uchun javobgar bo'ladi. Markaziy bank faoliyati masalalarini hal qiladi, Markaziy bank faoliyati va joriy operatsiyalarini operativ tarzda boshqarish bo'yicha harakatlarni amalga oshiradi.

Markaziy bankning boshqaruv tarkibini quyidagi rasmda aks ettirish mumkin:



3-rasm. **Boshqaruv tarkibi**

Oliy Majlisda, hukumatda, vazirliklar va idoralarda, sudlarda, banklar va muassasalarda, xalqaro va chet el tashkilotlarida bank

faoliyatiga doir barcha masalalar bo'yicha Markaziy bank nomidan ish ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki departament, boshqarma va bo'limlardan tashkil topgan (2-ilovaga qarang),

Shuningdek, qonunning 9-moddasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xalqaro moliya-kredit va valyuta munosabatlariga oid faoliyatni amalga oshirishda boshqa davlatlarning markaziy banklari, xalqaro banklar va boshqa moliya-kredit muassasalarida O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini himoya qilishga, moliya operatsiyalari bajarishga, shu jumladan, chet el hukumatlari, chet el markaziy banklari va pul-kreditni tartibga solish organlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lgan xalqaro tashkilotlarga bank xizmati ko'rsatish, xorijiy davlatlarda vakolatxonalar ochish, O'zbekiston Respublikasida chet el banklarining vakolatxonalarini akkreditatsiya qilishga haqli ekanligi belgilab berilgan.

Markaziy bank o'z faoliyatida foyda olishni maqsad qilib qo'ymaydi, ammo har bir moliya yil davomida olingan daromadlardan ishonchsiz, shubhali qarzlar va boshqa aktivlar bo'yicha chtimoliy yo'qotishlarni qoplash rezervlari shakllantirilgandan so'ng, barcha daromadlar va chiqimlar hisoblanganidan, shuningdek, aktivlar va passivlar amalda baholanganidan so'ng bank faoliyatining natijasi (foydasi) aniqlanadi.

Markaziy bankning foydasi boshqaruv belgilagan tartibda, yillik hisobotni tasdiqlash bilan bir paytda taqsimlanadi. Shuningdek, bank boshqaruvining qaroriga muvofiq foyda hisobidan aniq maqsadli rezervlar va fondlar ham tashkil etilishi mumkin.

Aniq maqsadga yo'naltirilgan rezervlar va fondlar tashkil qilinganidan yoki to'ldirilganidan keyin foydaning qolgan qismi respublika byudjeti daromadini to'ldirishga yo'naltiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobot beradi. Markaziy bankning hisobot davri 1-yanvar – 31-dekabr qilib belgilanadi. Yillik hisobot 15-maydan kechiktirilmay Oliy Majlis Senati ko'rib chiqishi uchun taqdim etilishi lozim.

Markaziy bankning oliy organi uning boshqaruvidir. Boshqaruv Markaziy bank siyosati va faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi, bankni boshqaradi.

Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tavsiyasi bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi.

Qonunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga vakolatlar berish bilan bir qatorda, uning uchun taqiqlangan faoliyat turlari ham aniq belgilab berilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga tijorat faoliyati bilan shug'ullanish, muassasa yoki tashkilotlarga moliyaviy yordam ko'rsatish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga korxonalar va tashkilotlar faoliyatida bank hamda yuridik shaxslar sifatida ishtirok qilishga ruxsat etilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'z vakolatlaridan foydalanishda barcha yuridik shaxslarni baravar ko'rishi lozim.

Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qator muhim vazifalarni hal etadi. Ulardan eng **asosiy vazifalar** sifatida quyidagilarni keltirish mumkin. Bular:

- monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatini shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash;

- banklar, mikro kredit tashkilotlar, lombardlar va kredit byurolar faoliyatini litsenziyalash hamda tartibga solish;

- banklar, mikro kredit tashkilotlar, lombardlar va kredit byurolari faoliyatini nazorat qilish, qimmatli qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishni litsenziyalash;

- O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valyuta zaxiralarini kelishuvga binoan hukumat rezervlariga qo'shgan holda saqlash va tasarruf qilish;


- davlat byudjetining kassa ijrosini Moliya vazirligi bilan birgalikda takshkil etishdan iborat.

Mazkur vazifalarni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki iqtisodiyotni pul-kredit vositasida boshqarish, avvalombor, kelgusi yil uchun O'zbekiston Respublikasi monetar siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'lgan iqtisodiy konyunkturaning tahlili va istiqbol ko'rsatkichlarini, muomalada bo'lgan pul massasining iqtisodiy jihatdan asoslangan chegaralarini, pul massasi yillik o'sish sur'atining aniq maqsadli ko'rsatkichlarini, shu jumladan, Markaziy bank ichki aktivlarining o'zgarishini, valyuta hamda foiz siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi va har yili keyingi moliya yili

boshlanishidan kamida o‘ttiz kun oldin Oliy Majlisning Senatiga bu haqda axborot beradi.

Markaziy bank pul taklifi hajmini o‘zgartirib, ishlab chiqarishning umumiy hajmiga, bandlik darajasiga va korxonalar faoliyatining o‘shish sur‘atlariga ta‘sir ko‘rsatadi. Iqtisodiyotdagi tanglik davrida pul taklifi hajmining oshirilishi iste‘mol va sarmoyaga bo‘lgan talabning o‘shishiga, binobarin, bandlik, ishlab chiqarish hajmi ortishiga yordam beradi. Pul yuqori sur‘atlarda qadrsizlanayotgan sharoitda Markaziy bank ularni sekinlashtirish zarurligidan kelib chiqib muomaladagi pul miqdorini cheklash siyosatini o‘tkazadi, natijada iqtisodiyotda unga bo‘lgan talab kamayadi, pul bozorlaridagi foiz stavkalari o‘zgaradi, pulning qadrsizlanishi kamayadi.


O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar siyosatining asosiy yo‘nalishlari, pul massasi o‘zgarishining aniq maqsadli mo‘ljallari va pul muomalasini tartibga solish vositalari ham qonunda yoritilgan bo‘lib, unda Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalari belgilab berilgan. Sxema tariqasida pul-kredit siyosatining strategik maqsadlarini quyidagicha ifodalash mumkin (4-rasm).



4-rasm. Pul-kredit siyosatining strategik maqsadlari

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlarini bir yilga ishlab chiqadi. Bu dastur iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish va oldindan aytishni, pul miqdorining yillik o‘shishi sur‘atlarining maqsadli ko‘rsatkichlarini, kredit, foiz va valyuta siyoatini

amalga oshirish yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Umumiy iqtisodiy tahlilning zarurligiga sabab shuki, monetar siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish barcha muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, pulning qadsizlanishi, milliy ishlab chiqarishning umumiy hajmi va mehnat resurslarining bandligi, to'lov balansi bilan chambarchas bog'langan. Pul muomalasini boshqarib borish vositalarini quyidagi rasmdan ko'rish mumkin.



5-rasm. Pul-kredit siyosati vositalari

Undan tashqari, Markaziy bank foiz (diskont) siyosatini, targetlash va boshqa usullardan foydalanib pul massasini boshqarib borishi mumkin.

Muomaladagi pul massasining hajmini, banklarning likvidligini muvofiqlashtirish va inflyatsiya sur'atlarini tushirish maqsadida Markaziy bank tijorat banklari uchun majburiy zaxiralar me'yorini o'rnatib berish siyosatini amalga oshiradi. Minimal zaxiralar tijorat banklari resurslarining Markaziy bankda majburiy saqlanishi zarur bo'lgan qismidir. Majburiy zaxira miqdori tijorat bankining yig'ilgan resurslariga nisbatan foizda belgilanadi. Bu zaxira bevosita banklarning kreditlash imkoniyatini chegaralasa-da, ularning minimal likvidligini ta'minlash omili bo'lishi mumkin. Majburiy zaxira me'yori hozirgi kunda resurslarning tashkil topish manbayiga qarab 10,5 foizdan 15 foizgachani tashkil etadi. Markaziy bank tomonidan zaxira miqdori ba'zi bir omillarni hisobga olgan holda o'zgartirilishi mumkin, u omonatlarning hajmi, turi, muddatiga, banklarning boshqa majburiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Banklar Markaziy bankda majburiy zaxiralarni deponentlash tartibiga rioya qilinishi uchun javobgardir. Markaziy bank o'zi belgilagan eng kam miqdorda rezervlar saqlash to'g'risida banklarga ko'rsatma beradi. Markaziy bankda depozitga o'tkaziladigan majburiy rezervlarning eng kam miqdori Markaziy bankning normativ hujjatlari

bilan belgilanib, u omonatlarning hajmi, turi, muddatiga, banklarning boshqa majburiyatlariga bog'liq bo'ladi. Majburiy rezervlarning miqdorlari jalb etilgan mablag'lar va omonatlarning har bir toifasi bo'yicha barcha banklar uchun bir xildir.

Majburiy rezervlar Markaziy bankda naqd pul yoki omonatlar ko'rinishida, Markaziy bank belgilaydigan tartibda depozitga o'tkaziladi.

2-jadval

**Majburiy rezervlar me'yorlari to'g'risida ma'lumot
(2017-yil yanvar holatiga, foizlarda)²**

Amal qilish muddati	Yuridik shaxslarning talab qilib olinguncha va 1 yildan ortiq bo'lmagan muddatli depozitlari uchun	Yuridik shaxslarning muddati 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan muddatli depozitlari uchun	Yuridik shaxslarining 3 yildan oshiq muddatli depozitlari uchun	Yuridik shaxslarining chet el valyutasidagi depozitlari uchun
1994-yil 1-maydan			10	30
1995-yil 1-yanvardan	30		10	25
1996-yil 1-iyuldan	25		10	
1997-yil 1-dekabr	25		10	
2000-yil 1-maydan	20	20		
2005-yil 1-fevraldan		15		5
2005-yil 1-avgustdan		15		8
2007-yil 1-sentyabr		13		
2007-yil 1-noyabr		15		
2009-yil 1-sentyabr	15	12	10,5	Chet el valyutasidagi depozitlar uchun ham shu me'yorlar o'rnatilgan

² cbu.uz

Majburiy rezerv talablarining normativlari yoki tarkibi belgilangani yoki o'zgartirilgani to'g'risidagi ko'rsatmalarda kamida bir oylik muddat ko'rsatiladi, rezervlarning tarkibi yoki miqdoriga doir yangi normativlarni banklar ana shu muddatgacha bajarishlari shart.

Markaziy bank majburiy zaxiralar bo'yicha foizlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qiladi. Zaxira talablarini hisob-kitob qilishda chet el valyutasidagi mablag'lar, jismoniy shaxslar depozitlari, depozit va jamg'arma sertifikatlari, ipoteka obligatsiyalari chiqarish yo'li bilan jalb etilgan mablag'lar hisobga olinmaydi. Majburiy zaxiralarni deponentlash bank vakillik hisob varag'idan pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Majburiy zaxiralarni turli foyda keltiruvchi aktivlar bilan qoplashga ruxsat etilmaydi. Bank majburiy zaxira talablarining eng kam miqdorini saqlab turish to'g'risidagi 28-modda qoidalarini bajarmagan taqdirda Markaziy bank qat'iy tartibda bu bankdan yetishmayotgan mablag' summasini, shuningdek, qayta moliyaviy ta'minlashning ikki barobar foizidan oshmaydigan miqdorda jarima undirib oladi.

Markaziy bankning hisob (diskont) siyosatining mohiyati shundaki, u tijorat banklaridan veksellarni sotib oladi. Markaziy bank qiymati to'lanishini banklar kafolatlagan qisqa muddatli xazina veksellari, shuningdek, tijorat veksellari hisobini yuritishi mumkin.

Hisob operatsiyalarini o'tkazish shartlarini, shu jumladan hisob stavkasi miqdorlarini Markaziy bank belgilaydi.

Markaziy bankning hisob stavkasi tijorat banklari o'rnatadigan hisob stavkasining eng past chegarasi hisoblanadi. Odatda, tijorat banklarining hisob stavkasi Markaziy bankning hisob stavkasidan yuqori bo'ladi. Markaziy bank o'z operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalarini mustaqil belgilaydi.

Markaziy bankning tijorat banklarini qayta moliyalashtirish siyosati to'g'ridan-to'g'ri kreditlash, veksellarni hisobga olish, qimmatli qog'ozlarni garovga olgan holda kreditlar berish va kredit auktsionlarini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bundan kelib chiqqan holda Markaziy bankning qayta moliyalashtirish operatsiyasi quyidagi usullarda olib borilishi mumkin:

- tijorat banklarining ixtiyoridagi veksellarni hisobga olish yo'li bilan kreditlash;

- tijorat banklari ixtiyoridagi qimmatli qog'ozlarni garovga olish yo'li bilan kreditlar berish. Bunday kreditlar **lombard kreditlar** deyiladi;

- to'g'ridan-to'g'ri kredit berish usuli.

Kredit tashkilotlari faoliyatida moliyaviy qiyinchiliklar bo'lgan hol-
larda ular Markaziy bankka kredit olish uchun murojaat qilishi va
Markaziy bank kreditidan foydalanishi mumkin. Qayta moliyalashtirish-
ning asosiy maqsadi, pul muomalasi va kredit munosabatlarining holati-
ga ta'sir ko'rsatishdan iborat.

3-jadval

**O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta
moliyalash stavkasi³**

Amal qilish muddati	%
28.06.2017 -- ...	14
01.01.2015 — 27.06.2017-y.	9
01.01.2014 -- 31.12.2014-y.	10
01.01.2011 — 31.12.2013-y.	12
15.07.2006 — 31.12.2010-y.	14
21.12.2004 — 14.07.2006-y.	16
05.07.2004 — 20.12.2004-y.	18
10.09.2003 — 04.07.2004-y.	20
16.07.2003 -- 09.09.2003-y.	24
01.01.2002 -- 15.07.2003-y.	30
01.07.2000 — 31.12.2001-y.	24
01.06.2000 — 30.06.2000-y.	27,6
01.05.2000 — 31.05.2000-y.	28,8
01.04.2000 — 30.04.2000-y.	30
01.01.1998 — 31.03.2000-y.	36
01.11.1997 -- 31.12.1997-y.	30
01.01.1997 -- 31.10.1997-y.	39,6
01.08.1996 -- 01.12.1996-y.	48
01.07.1996 -- 31.07.1996-y.	60
01.08.1995 — 30.06.1996-y.	84
01.07.1995 -- 31.07.1995-y.	120
20.03.1995 — 30.06.1995-y.	300
01.02.1995 -- 19.03.1995-y.	250
01.10.1994 — 31.01.1995-y.	225
02.05.1994 — 30.09.1994-y.	150

Qayta moliyalashtirish siyosatini olib bora turib, Markaziy bank oxirgi kreditor sifatida maydonga chiqadi. O'zbekiston Respublikasida Markaziy bank o'rnatgan qoidalarga asosan, quyidagi aktivlarni garovga olgan holda 3 oygacha bo'lgan muddatda kreditlar berishi mumkin:

- oltin, chet el valyutasi, xalqaro zaxiralar toifasiga kiruvchi valyuta boyliklari va boshqa boyliklar;

- davlatning qarz majburiyatlari va davlat tomonidan kafolatlangan boshqa qarz vositalari.

Bank faoliyatida riskning iqtisodiy asoslangan chegaralardan chiqib ketmaslik bank tizimi barqaror ishlashining muhim shartidir. Risk doiralari cheklab qo'yish Markaziy bank tomonidan tijorat banklari uchun rioya etilishi majburiy bo'lgan iqtisodiy me'yorlarni belgilab qo'yish orqali amalga oshiriladi. Markaziy bank banklar uchun majburiy bo'lgan iqtisodiy me'yorlarni, shu jumladan:

- kapitalning yetarlilik koeffitsiyentini;

- bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhiga tavakkalchilikning eng ko'p miqdorini;

- yirik kredit tavakkalchilik va investitsiyalarning eng ko'p miqdorini;

- likvidlilik koeffitsiyentlarini va boshqalarni belgilaydi.

Markaziy bank iqtisodiy me'yorlarning o'zgarishi to'g'risida kamida bir oy oldin e'lon qiladi. Banklar va ularning filiallari banklarga oid qonun hujjatlarini, belgilab qo'yilgan iqtisodiy me'yorlarni buzgan taqdirda Markaziy bank ulardan ustav kapitalining eng kam miqdorining 0,1 foizigacha jarima undirish yoxud ayrim operatsiyalarni o'tkazishni olti oygacha bo'lgan muddatga cheklab qo'yish huquqiga ega.

Hisob-kitoblarni va o'tkazish operatsiyalarini bajarish.

O'zbekiston Respublikasi hududida hisob-kitoblar naqd pulli va naqd pulsiz tarzda amalga oshiriladi. Jami pul aylanishining asosiy qismi naqd pulsiz to'lovlarga to'g'ri keladi. Bunda pulning harakati kredit muassasalaridagi hisob varaqlarga pul o'tkazish va o'zaro talablarni hisobga olish jarayonida sodir bo'ladi. Mahsulot sotish ishlarini bajarish, xizmat ko'rsatish yo'li bilan mablag' topish, milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash, bankdan qarz olish va uni qaytarish, aholiga pul daromadlarini to'lash va ulardan foydalanish kabi xo'jalik munosabatlarining sohalari vositasida naqd pulsiz pul oboroti xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob varaqlari amal qilayotgan bank muassasalari orqali o'tadi. O'zaro hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan va hamma bank hamda mijozlar uchun majburiy

bo'lgan qoidalar asosida olib boriladi. Ushbu qoidalarning bir tarzda qo'llanishi butun respublika hududida hisob-kitoblarning uzluksizligini ta'minlaydi.

Banklar faoliyatini tartibga solish va ularni nazorat qilishdan asosiy maqsad «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonunning 50-moddasiga muvofiq bank tizimining barqarorligini ta'minlash, omonatchi va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirishning asosiy vositalaridan biri bank faoliyatiga ruxsatnoma (litsenziya) berishdir. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maxsus komissiyasi bu faoliyat bilan shug'ullanishga da'vogarlarining birlamchi hujjatlarini ko'rib chiqadi, pul bozorida ularning muomalaga tayyorligini, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablariga javob berishini tahlil qiladi va qaror ijobiy bo'lgan taqdirda bank faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnoma beradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank muassasalarining rivojlanishini har tomonlama hisobga olib, kuzatib boradi. Kapitalning aynan bir xilligi, likvidlikka doir talablarni o'z ichiga oluvchi iqtisodiy me'yorlarni, shuningdek, kreditlash hajmi va limitlarini belgilaydi. Qonunda kredit tashkilotlarning hamma turlari uchun yagona mazmunga ega bo'lgan iqtisodiy me'yorlar guruhining bajarilishi nazarda tutiladi. Kapitalning yyetariligi, aktivlarning sifati, foydaliligi va likvidligiga qarab tijorat banklarining moliyaviy ahvoli baholanadi, nochor banklar aniqlanadi.

Rasmiy oltin-valyuta zaxiralarini saqlash. Xalqaro hisob-kitoblarda zaxiradagi aktiv va kafolatli sug'urta fondi vazifasini ado etish Markaziy bankning pul-kredit siyosatida valyuta-mablag'laridan sharoitga qarab foydalanish imkonini beribgina qolmay, balki dunyo moliya bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirish yo'li bilan mamlatimizning oltin valyuta zaxiralarining qiymatini saqlab turish imkoniyatini yaratadi. Boshqa moliya muassasalari, korxonalar va xususiy shaxslar ham xorijiy valyutaga ega bo'lish va valyuta operatsiyalarini o'tkazishga haqi borligiga qaramasdan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyuta zaxiralarini saqlovchi asosiy depozitariy bo'lib qolishi mumkin.

Hukumat maslahatchisi-xazina vakili vazifasi. Bu vazifa «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi qonunning 44-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi

Markaziy banki hukumat banki sifatida davlat muassasalari va tashkilotlarining hisob varaqlarini yuritadi, ana shu hisob varaqlarda mablag'larni jamg'aradi va ulardan to'lovlarni amalga oshiradi. davlat qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalarni o'tkazib turadi, davlatga bevosita qisqa muddatli ssudalar shaklida yoki davlat obligatsiyalarini xarid qilish tarzida kredit beradi, hukumat idoralarining topshirig'iga binoan oltin bilan yoki xorijiy valyutada operatsiyalar bajaradi.

45-moddada belgilab berilganidek, hukumat davlat sektoriga qarz ajratish masalalarida, kredit berishning ichki va tashqi manbalaridan mablag' olish rejaları to'g'risida Markaziy bank bilan maslahatlashadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hukumatning fiskal (xazina) agenti vazifasiga muvofiq hukumat hisob varaqlarini yuritarkan (47-modda), hukumatning moliya operatsiyalarini amalga oshirishda ko'maklashadi, byudjet kirimlari va chiqimlari masalalari yuzasidan maslahatlar beradi, davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishda vakil sifatida ishlaydi, ular bo'yicha hisob varaqlarni yuritadi, davlat qarzi majburiyatlari bilan bog'liq boshqa masalalarini hal etishda qatnashadi.

Tijorat banklariga kredit berish. Markaziy bank iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini bevosita kreditlamasada, u tijorat banklarining kredit zaxiralariга bozor usullari orqali samarali ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun pul bozorining turli bo'g'inlarida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki operatsiyalaridan, shu jumladan, valyuta intervensiyasidan, ikkilamchi bozorda davlat qimmatli qog'ozlari bilan bo'ladigan operatsiyalaridan, kredit kimoshdi savdolaridan foydalanadi. Markaziy bank o'zi belgilagan shartlarga binoan oltin, chet el valyutasi, xalqaro zaxiralar toifasiga kiruvchi valyuta boyliklari, davlatning qarzi majburiyatlari va hukumat kafolatlagan boshqa qarzi vositalari, Markaziy bankda depozitga o'tkazilgan va uning depozitariysi uchun maqbul bo'lgan, xarid qilinishi va sotilishiga ruxsat berilgan aktivlar, to'lanishiga banklar kafolat bergan tijorat veksellarini garovga olgan holda tijorat banklariga uch oygacha bo'lgan muddatda kredit berishi mumkin.

Tijorat banklariga kredit berishning eng ko'p tarqalgan bu turi banklarni qayta moliyaviy ta'minlash deb yuritiladi va u «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi qonunning 30-moddasiga asosan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklariga ta'minotsiz kreditlarni berish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2017-yil 17-iyundagi 13/1-son qaroriga

asosan tasdiqlangan **“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklariga ta‘minotsiz kreditlarni berish tartibi to‘g‘risida”gi nizom bo‘yicha** amalga oshiriladi. Ushbu nizomga asosan **ta‘minotsiz kredit** — tijorat banklari lahzali likvidlilik koeffitsiyenti bo‘yicha Markaziy bank tomonidan belgilangan minimal talabdan past bo‘lgan yoki keyingi bank ish kunida past bo‘lishi kutilayotgan banklarga, ularning likvidligini qo‘llab-quvvatlash va to‘lovlarning uzluksizligini ta‘minlash maqsadida ajratiladigan - ta‘minot talab etilmaydigan kredit hisoblanadi. Bu jarayonda kredit munosabatlarining subyektlari sifatida Markaziy bank va tijorat banklari ishtirok etadi. Bunda Markaziy bank kreditor va Markaziy bankka ta‘minotsiz kredit olish yuzasidan murojaat qilgan bank - qarz oluvchi bank deb yurutiladi.

Ta‘minotsiz kreditni olish masalasi Tijorat banki kengashi tomonidan ko‘rib chiqilishi lozim. Qarz oluvchi bank bank kengashini ta‘minotsiz kredit olish to‘g‘risida xabardor qilgandan so‘ng ta‘minotsiz kredit olish to‘g‘risida ariza bilan Markaziy bankka murojaat qiladi. Tijorat banki ta‘minotsiz kredit olish to‘g‘risidagi arizaga qo‘shimcha ravishda quyidagi hujjatlarni ilova qilishi lozim:

lahzali likvidlilik koeffitsiyenti bo‘yicha Markaziy bank tomonidan belgilangan minimal talabdan past ekanligi yoki keyingi bank ish kunida past bo‘lishi kutilayotganligi to‘g‘risidagi ma‘lumot;

moliyaviy ahvoli, shu jumladan, likvidlilik holatini yaxshilash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar rejasi.

Qarz oluvchi bank moliyaviy ahvolini, likvidlilik holatini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim:

a) kredit portfelini sog‘lomlashtirish, xususan, avval berilgan kreditlarni (aktivlarni) o‘z vaqtida to‘liq undirilishini ta‘minlash va muammoli kreditlar (aktivlar) qoldig‘ini keskin qisqartirish borasidagi tadbirlar;

b) aktivlar va passivlarning muddatlari o‘rtasidagi nomutanosiblikni keskin qisqartirish borasida ko‘riladigan qat‘iy choralar;

d) bankning moliyaviy faoliyati xususiyatidan kelib chiqqan holda boshqa zarur chora-tadbirlar.

Markaziy bank tomonidan ta‘minotsiz kredit ajratilishi uchun qarz oluvchi bank quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- majburiy rezerv talablarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi;

- bank ustav kapitali miqdori qonun hujjatlarida belgilangan me'yor talablaridan kam bo'lmashligi;

- bank majburiyatlarining bank aktivlari bilan to'liq qoplanganligi;

- xavfli va nosog'lom bank faoliyati amalga oshirilmayotganligi;

- omonatchilar tomonidan bankka ishonib topshirilgan mablag'lar butligiga real xavf mavjud bo'lmashligi;

- oxirgi uch oy mobaynida Markaziy bank tomonidan ajratilgan kreditlar bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizlardan muddati o'tgan qarzdorligi (qaytarish muddatini kechiktirish holatlari) mavjud bo'lmashligi zarur.

Qarz oluvchi bankka ta'minotsiz kredit ajratish masalasi Markaziy bankning Kredit qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Kredit qo'mitasi qarz oluvchi bankka ta'minotsiz kredit berish yoki bermaslik to'g'risida bir bank ish kuni davomida qaror qabul qiladi. Markaziy bankning Kredit qo'mitasi ta'minotsiz kredit ajratishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilganda, bu haqda qarz oluvchi bankni bir bank ish kuni ichida xabardor qiladi.

Kredit qo'mitasi tomonidan ta'minotsiz kredit ajratish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, Kredit qo'mitasi qarorida kredit shartnomasini tuzish hamda ta'minotsiz kredit ajratish sanasi, kredit summasi va foiz stavkasi belgilanadi.

Ta'minotsiz kredit kredit shartnoma asosida berilib, unda Markaziy bank tomonidan qarz oluvchi bankka kelishilgan miqdorda va shartlar asosida ta'minotsiz kredit berish, qarz oluvchi bank esa olingan ta'minotsiz kreditni qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

Markaziy bank tomonidan banklarga ta'minotsiz kreditlar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida muddatlilik, qaytarishlik, to'lovlilik va maqsadlilik shartlari asosida 3 oy muddatgacha qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz beriladi.

Ta'minotsiz kredit bo'yicha foiz stavka Markaziy bank boshqaruvi tomonidan kreditlarning muddatidan kelib chiqqan holda o'rnatiladi.

Ta'minotsiz kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni hisoblash kredit shartnomasida ko'rsatilgan miqdor va tartibda, kredit ajratilgan kundan boshlab, u to'liq qaytarilgan kundan oldingi kungacha bo'lgan

muddatga amalga oshiriladi. Ta'minotsiz kredit mablag'lari va unga hisoblangan foizlar qarzdor bank tomonidan kredit shartnomasida belgilangan muddatlarda qaytarilishi lozim. Bunda qarzdor bank ta'minotsiz kreditni muddatidan oldin to'liq yoki qisman qaytarishi mumkin. Bu holda tijorat banki tomonidan ta'minotsiz kreditlar bo'yicha foizlar faqat kreditdan foydalanilgan davr uchun hisoblanadi va to'lanadi.

Qarz oluvchi bankka ajratiladigan ta'minotsiz kreditlarning maksimal miqdori qarz oluvchi bankning milliy valyutadagi hisob varaqlar bo'yicha majburiyatlarining qoldiqlari jami summasining 30 foizidan oshmasligi (bundan vasiylik o'rnatilgan qarzdor banklar mustasno) lozim.

Kredit shartnomasida ko'rsatib o'tilgan sanada ta'minotsiz kredit mablag'lari qarz oluvchi bankning Markaziy bankdagi vakillik hisob varag'iga o'tkazib beriladi.

Qarzdor bank (Markaziy bank oldida ta'minotsiz kreditlar bo'yicha majburiyatga ega bo'lgan bank) ta'minotsiz kreditdan foydalanish davrida quyida keltirilgan shartlarni bir vaqtning o'zida bajargan taqdirda unga kredit (faktoring, lizing) ajratish bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirishga quyidagi holatlarda yo'l qo'yiladi:

a) kredit qo'yilmalari qoldig'ini kredit shartnomasi imzolangan kun holatidagiga nisbatan oshirmaslik;

b) ta'minotsiz kreditdan foydalanish davrida lahzali likvidlilik ko'effitsiyentini ketma-ket uch marta Markaziy bank tomonidan belgilangan minimal talabdan kamayib ketishiga yo'l qo'yimaslik;

v) qarzdor bankning moliyaviy ahvolini, shu jumladan, likvidlilik holatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ijro etishda ijobiy tomonga sezilarli o'zgarishning yuzaga kelishi.

Qarzdor bankning ta'minotsiz kreditdan foydalanish davrida yuqorida keltirilgan operatsiyalardan tashqari barcha aktiv operatsiyalar to'xtatiladi.

Markaziy bank mijozlarning to'lov hujjatlarining uzluksiz ijrosini ta'minlamagan va ta'minotsiz kreditni qaytarishga doir o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmagan qarzdor bankka nisbatan vasiylik o'rnatishga haqli.

Tijorat banklari va hukumat O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy mijozlaridir. Boshqacha aytganda, **O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki banklarning banki** hisoblanadi. Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi o'z hisob varaq-

laridan o'zaro hisob-kitoblar uchun foydalanadilar va undan tashqari naqd pul zarur bo'lganda ham ular Markaziy bankka murojaat qilishadi.

Pul emissiyasi. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ham pulni emissiyalash huquqiga ega, ya'ni u emissiya markazi hisoblanadi. Bu vazifa hozir ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega, chunki chakana savdoda mahsulot haqini to'lash hamda qarz majburiyatlarini uzil-kesil uzish uchun mablag'ga ega bo'lishini ta'minlash uchun naqd pul zarur.


Tijorat banklarining kassa zaxiralarini jamg'arish va saqlash. Muomaladagi pul miqdori hajmini boshqarish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki jalb qilingan pul mablag'lari hajmiga qarab tijorat banklarida zaxiralarning muayyan koeffitsiyentlarini belgilaydi. Pul-kredit vositasida boshqarishning samaradorligi, uning pul miqdori o'sish sur'ati va tuzilmasiga, shuningdek, pulning qadrsizlanish darajasiga ta'siri majburiy zaxiralash tizimining moslashuvchanligiga bog'liq. Ko'rib chiqilayotgan qonunning 28-moddasiga muvofiq majburiy zaxiralar alohida hisob varaqda naqd pul yoki omonatlar tarzida deponentga olinadi. Zaxiralash tizimi tijorat banklariga likvidlik bilan bog'liq qisqa muddatli muammolarni hal etish imkonini beradi. Ayrim hollarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qaroriga binoan majburiy zaxiralarga foizlar qo'shib qo'yilishi ham mumkin. Tijorat banklarining mablag'larini zaxiralash talablariga amal qilish borasida javobgarligini oshirish uchun qonunda moliyaviy sanksiyalar (53-modda) ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga to'lanmay qolgan pulni qonunda belgilangan tartibda so'zsiz undirib olish, shuningdek, jarimalar solish huquqi berilgan.

3-§. Tijorat banklari va ularning tashkiliy tuzilishi

Tarixiy taraqqiyot davomida banklar mablag'larni yig'ish, saqlab berish, kredit-hisob va boshqa turli xil vositachilik operatsiyalarini bajarib kelganliklari sabab, banklar kredit muassasa bo'lib, foyda olish maqsadida bank barcha risklarni o'ziga qabul qilgan holda operatsiyalarini amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-aprelda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunining 1-moddasiga asosan «**Bank – tijorat tashkiloti bo'lib**», bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuyini amalga oshiradigan, ya'ni:

- yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish;

- to'lovlarni amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxsdir. Demak, bank barcha riskni o'z zimmasiga olib, yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini jalb qilib, bank resurslarini tashkil qilgan holda, bu mablag'larni muddatida qaytarib berish, muddatlilik, to'lov va ta'minlash shartlari asosida o'z nomidan ularni joylashtiradi hamda yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi hisob-kitob va vositachilik operatsiyalarini olib boruvchi kredit muassasa hisoblanadi.



6-rasm. Pul mablag'lari harakati

Ba'zi adabiyotlarda «bank – bu korxonalar», deb ham izoh beriladi. Ma'lumki, bank yaxlit olingan korxonalar sifatida ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirmaydi. Tijorat banklarining faoliyatini korxonalar faoliyatiga shu jihatdan o'xshatish mumkinki, tijorat banklari ham korxonalar singari o'z faoliyatining o'z daromadini ko'paytirishga qaratadi, lekin korxonalar faoliyatidan farqli ravishda banklar shu asosida, birinchidan, o'z ta'sisчилari – aksiyadorlarining manfaatlarini, ikkinchidan, o'z mijozlarining manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi.

Shuningdek, tijorat banklari ssuda kapitali harakatini amalga oshiradi va shu asosda bank o'z aksiyadorlariga, paychilariga foyda olishni ta'minlaydi.

Tijorat banklari bank tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, kredit resurslarining asosiy qismi shu banklarda yig'iladi va bu banklar yuridik

va jismoniy shaxslarga kreditlar beradi hamda boshqa qator xizmatlarni ko'rsatadilar.

Bank shunday korxonaki, unda xomashyo bo'lib depozit va boshqa pul qo'yilmalari hisoblansa, oxirgi tovar – bu berilgan ssudalar. Depozit va qo'yilmalar jalb qilingan qarz pul mablag'lari, berilgan ssudalar esa joylashtirilgan mablag'lar hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar va turli mulkchilik shaklidagi korxonalar, tashkilotlardan pul mablag'larini jalb qilish uchun banklar qarzga jalb qilingan mablag'larning muddati va hajmiga qarab ularga ma'lum summani foizlar shaklida to'lash kerak. Bo'lmasa, mablag' qo'yuvchilar yoki boshqa bankni tanlaydilar yoki pul saqlashning boshqa shakllariga o'tadilar, masalan, oltin yoki valyuta sotib olish, boshqa moliyaviy vositachilar xizmatlaridan foydalanish v.b. Pul saqlash shaklini tanlashda mablag' qo'yuvchini ikkita muhim omil - moliyaviy vositachilarning ishonchli ekanligi va daromad olish darajasi (qarzga to'lanadigan foizlar) ko'proq qiziqtiradi.

Boshqa tomondan, bank ssuda berganda uning summasiga qarab foiz shaklida to'lov undiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining bozor munosabatlari subyektlari bilan aloqasi yanada kengayadi va chuqurlashadi. Bank bu holda barcha mablag'lar harakatini boshqarib boradi.

Bu ikki foiz stavkalari o'rtasida farq - bank daromadining asosiy manbasi bo'lib, iqtisodiy adabiyotlarda u "marja" nomi bilan yuritiladi.

Shunday qilib, marja – jalb qilingan mablag'lar uchun to'lanadigan va joylashtirilgan kreditlar bo'yicha olinadigan foiz stavkalari o'rtasidagi farqdir.

Bankning asosiy faoliyati vositachilik bilan bog'liq bo'lib, pul mablag'larni qarz beruvchidan qarz oluvchilarga o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni bajarishdan iborat. Banklar bilan bir qatorda pul mablag'lari harakatini boshqa moliyaviy va kredit tashkilotlari, investitsion fondlar, sug'urta kompaniyalari ham amalga oshiradilar. Biroq bankning moliyaviy risklarning subyekti sifatida yuqorida keltirilgan boshqa subyektlar faoliyatidan farq qiladigan ikkita o'ziga **xos xususiyati** mavjud:

- **birinchidan**, banklar faqat ular uchun xos bo'lgan qarz majburiyatlarini (depozit, omonat sertifikatlari v.b.) chiqaradilar va bu yo'l bilan yig'ilgan mablag'larni boshqa subyektlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar va qarz majburiyatlariga joylashtiradilar. Bankning bu xususiyati moliyaviy broker va dillerlar faoliyatidan farq

qiladi, chunki ular moliya bozorida o'z qarz majburiyatlarini chiqarmasdan faoliyat ko'rsatadi.

- **ikkinchidan**, banklar jismoniy va yuridik shaxslar oldida mijozlarning pul mablag'larini hisob varaqlariga qo'yish va jamg'armaga o'tkazish, depozit sertifikatlarini chiqarish va boshqalar orqali qat'iy belgilangan qarz majburiyatlarini oladi. Qat'iy belgilangan qarz majburiyatlar bilan faoliyat ko'rsatish banklar uchun riskli hisoblanadi, chunki banklar o'z kreditorlari oldida olgan majburiyatlarini to'liq bajarishlari lozim. Investitsion fondlar esa o'z aktivlari va passivlarining qiymati o'zgarishi bilan bog'liq risklarni o'z aksiyadorlari zimmasiga yuklaydilar.

"Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunga asosan O'zbekiston Respublikasida banklar universal faoliyatni amalga oshiradi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, turli xilda kreditlar berish, qimmatli qog'ozlar va xorijiy valyuta oldi-sotdisi bilan shug'ullanish, bo'sh turgan pul mablag'larni jalb etish, hisob-kitoblarni amalga oshirish, kafolat va garantiyalar berish va hokazolar tijorat banking asosiy faoliyat turlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy banklar va har qanday mulkchilik shakliga asoslangan banklar faoliyat ko'rsatishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari va ularning mulkchilik shakli to'g'risidagi ma'lumotlar 3-ilovada keltirilgan bo'lib, ular turli mulkchilikka asoslangandir.

Odatda, O'zbekistonda banklar aksionerlik jamiyat ko'rinishida tashkil etiladi. Shu bois tijorat banklarining tashkiliy tuzilishi aksioner jamiyat tuzilishiga o'xshashdir. Aksionerlar bankning ustav fondiga qo'shgan hissalariga qarab, bankning majburiyatlariga javobgardirlar. Aksionerlar bank faoliyatini boshlash bosqichida bankdan bank ta'sis qilinganda qo'shgan hissalarining qaytarilishini talab qilish huquqiga ega emas (ba'zi hollar bundan mustasno). Bu holat bank barqarorligini, ishonchligini tartibga solishda yordam beradi.

Bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun davlat organlarining mablag'lari, jamoa, birlashmalar va fondlarning mablag'lari, garov va kreditga olingan mablag'lardan foydalanish mumkin emas.

Tijorat banking oliy organi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Bu yig'ilishlarda aksiyadorlarning vakillari va aksiyador korxonalarining rahbarlari ishtirok etadi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ko'rib chiqishga qo'yilgan masalalar bo'yicha qaror qabul qilish uchun aksiyadorlarning kamida 3/4 qismi ishtirok qilishi lozim.

Bankning boshqaruvini direktorlar kengashi amalga oshiradi. Unga qo'shimcha tarzda bank boshqaruvini kuzatish va nazorat qilish mas'uliyati ham yuklatilgan. Direktorlar kengashi a'zolarining tarkibi va saylanish muddati tijorat bankining nizomi bilan belgilanadi.

Bank kengashi bank faoliyatining asosiy yo'nalishini, kredit siyosati va bankning boshqa rejalarini ko'rib chiqish, daromad, xarajatlar, foyda rejalarini tasdiqlash, shu'balarni ochish yoki yopish masalalarini ko'rib chiqish kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

Bank boshqaruvini bank faoliyatiga bevosita rahbarlik qiladi. Bank boshqaruvini aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va direktorlar kengashi oldida javobgardir. Bank boshqaruvini boshqaruv raisi, rais o'rinbosari va boshqa xodimlardan tarkib topgan. U o'z faoliyatini nizom va yo'riqlarga asoslangan holda amalga oshiradi.

Aksionerlarning umumiy yig'ilishi, bank kengashi va boshqaruvini bankning boshqaruv organlari hisoblanadi.

Bank kengashi omonatchilar va aksiyadorlarni himoya qilish maqsadida bank faoliyatini yuritish, jumladan, kredittash va mablag'larni investitsiyalash to'g'riligini nazorat qilish, bank rahbarlarini ishga tayinlash va ishdan bo'shatish, bank kapitalining bir tekis o'sib borishini ta'minlab turish, bank siyosatini ishlab chiqish, qonun hujjatlariga rioya qilishni ta'minlash va boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Bank kengashi a'zolari kamida besh kishidan iborat bo'lishi lozim. Aksiyadorlardan tashqari bank sohasi olimlari va mutaxassislari ham bank kengashi a'zosi bo'lishlari mumkin.


Bankka operativ rahbarlik qiluvchi va uning faoliyati uchun javob beruvchi bank boshqaruvini bankning ijroiya organi hisoblanadi. Boshqaruv bank kengashi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi oldida hisobdordirlar.

Tijorat banklarining tashkiliy tuzilishini respublika aksiyadorlik tijorat banki misolida quyidagi rasmda ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining aksariyat yetakchi aksioner tijorat banki bugungi kunda o'z tarkibida viloyat boshqarmasi, tuman bo'limlari va mini-banklar sifatida faoliyat yuritmoqda.

Keltirilgan bankning tashkiliy tuzilishi aksariyat banklar uchun o'xshash bo'lib tijorat banklarining joylashish o'rni, xizmat ko'rsatadigan mijozlarning faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqib ba'zi bir o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Bank boshqaruv majlisi doimo o'tkaziladi va majlislarda qabul qilinadigan qarorlar berilgan ovoz soniga qarab hal etiladi. Ovozlar tengligida bank boshqaruvchisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi. Agar boshqaruv a'zolari yoki boshqaruv raisi boshqaruv qabul qilgan qaroriga norozi bo'lsa, ular o'z fikr va mulohazalarini kengash yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga bildirishlari mumkin.



7-rasm. **Aksioner tijorat banking boshqaruv organlari**

Bu holatda kuzatuv kengashi qarori hal etuvchi hisoblanadi va bank boshqaruv raisi qarori bilan amaliyotga tatbiq etiladi.

Taftish komissiyasi aksionerlarning umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadi. Uning tarkibida kuzatuv kengash a'zolari va bank boshqaruv a'zolari bo'lishi mumkin emas. Bank boshqaruv taftish komissiyasiga taftish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etadi. Taftish natijalari bank boshqaruviga topshiriladi.

Tijorat banki taftish komissiyasining asosiy vazifasi bank xodimlarining o'z amallarini suiste'mol qilishlarining oldini olishga qaratilgan.

Taftish komissiyasi bankning yillik hisoboti va balansiga xulosa qiladi. Taftish komissiyasi bank balansi bo'yicha xulosa chiqarmaguncha u aksionerlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanishi mumkin emas.

Tijorat banklarda hisobot O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan qonun-qoidalar asosida amalga oshiriladi. Ular Markaziy bankka yoki uning joylardagi boshqarmalariga bankning oylik balansi, choraklik aylanma vedomostini va uning yillik buxgalteriya hisobotini har oyning 1 kunigacha taqdim qilishlari shart. Tijorat banklarining moliyaviy ahvolidan ularning aksiyadorlari va mijozlari xabardor bo'lmog'i lozim. Shu bois tijorat bankining faoliyat natijasi, moliyaviy holati to'g'risida mijozlarga axborot berish maqsadida ularning aksionerlar umumiy yig'ilishida tasdiqlangan yillik balansi hamda foyda va zararlar to'g'risidagi hisoboti, ularning haqqoniyligi to'g'risidagi auditorlik tashkilotlarining xulosasidan keyin matbuotda e'lon qilinishi lozim.

Tijorat banki kredit-hisob operatsiyalarining tezkorligini ta'minlash maqsadida hududdan uzoqda joylashgan mijozlar uchun bank filial va vakolatxonalarini Markaziy bank ruxsati bilan tashkil qilinishi mumkin. Banklarning vakolatxonalari bank joylashgan hududdan boshqa hududlarda ochilishi mumkin va ular mustaqil balansga ega bo'lmaydilar. Ular bank operatsiyalarini joylarda to'laqonli bajarilishi uchun zarurdir.

4-§. Tijorat banklarining funksiyalari va faoliyati tamoyillari

Tijorat banklarining iqtisodiy roli uning faoliyat doirasining keng bo'lishiga olib keladi. Bu sababli tijorat banklari **quyidagi funksiyalarni** bajaradi:

-vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larni yig'ish va ularni kapitalga aylantirish;

-korxonalar, tashkilotlar va aholini kreditlash;

-iqtisodiyotda hisob-kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish;

-moliya-valyuta bozorida faoliyat ko'rsatish;

-iqtisodiy-moliyaviy axborotlar berish va maslahat xizmatlarini ko'rsatish va boshqalar.

Banklar bo'sh pul mablag'larini yig'ish va ularni kapitalga aylantirish funksiyasini bajara turib mavjud bo'sh pul daromadlari va jamg'armalarini yig'adi. Jamg'aruvchi (bo'sh pul mablag' egasi) o'z mablag'larini bankka ishonib topshirgani uchun va bank bu

mablag'lardan foydalangani uchun ma'lum foiz hisobida daromad oladilar. Bo'sh pul mablag'lari hisobidan ssuda kapitali fondi vujudga keladi va bu fond iqtisodiyot tarmoqlarni kreditlash uchun ishlatiladi.

Bo'sh turgan mablag'larni jalb etish va ularni kapitalga aylantirish funksiyasi tijorat bankinging asosiy funksiyalardan hisoblanib, bu funktsiya yordamida tijorat banklarining resurslari shakllantiriladi. Jalb etilgan mablag'lardan olinadigan daromad qarz mablag'lariga bo'lgan talab va taklif asosida shakllanadi.

Tijorat banklarining yuridik va jismoniy shaxslarni kreditlash funksiyasi banklarning asosiy funksiyalaridan hisoblanadi va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, yalpi ichki mahsulot hajmining o'sib borishida muhim o'rin tutadi.

Bankning vositachilik operatsiyalari bozor iqtisodiyoti sharoitida subyektlar faoliyatida risk va noaniqlikning oldini olishga sharoit yaratadi. Pul mablag'lari bank vositachilgisiz ham kreditor va qarz oluvchi orasida muomalada bo'lishi mumkin, ammo buning natijasida mablag'larni yo'qotish bilan bog'liq risk darajasi oshadi va mablag'larni o'z vaqtida qaytarib berishda muammolar yuzaga keladi. Buning sababi kreditor va qarz oluvchi bir-birovi haqida yetarli darajada ma'lumotga ega emasligi, mablag'larga bo'lgan talabning taklif bilan doimo miqdoran va vaqt miqyosida mos kelmasligididir. Tijorat banklari vositachi sifatida mablag'larni depozitga jalb etishi, ssuda berishi mumkin. Bank o'z aktivlarini keng diversifikatsiya qilish orqali omonatlarni qaytara olmaslik riski darajasini kamaytirishi mumkin.

Jamg'arma mablag'larni shakllantirishda tijorat banklari depozit siyosatining ta'siri katta. Omonatchilarga yuqori foizlardan tashqari, bank kreditlariga yuqori kafolat va ishonchlilik kerak. Omonatlarni qo'yishda mijoz bankning xavfsizligi bilan bir qatorda mijoz tijorat bank faoliyati yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishi va bu bilan u bankning moliyaviy ahvoliga baho bera olishi mumkin.

Mijozlarga kredit berish va o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish uchun mablag' yetishmay qolgan taqdirda tijorat banklari kredit resurslari olishda Markaziy bankka murojaat qilishi mumkin.

Tijorat banklari operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalari ularning o'zlari tomonidan mustaqil belgilanadi. Ammo bu stavkalar davlat pul-kredit siyosatining bosh yo'nalishlarida belgilab beriladigan foiz stavkalari siyosatiga asoslangan bo'lishi lozim.

Banklarning keyingi funksiyasi mustaqil subyektlararo to'lov operatsiyalarini amalga oshirish funksiyasidir. Rejali iqtisodiyot

davrida barcha to'lovlar faqatgina davlat banki orqali amalga oshirilgan, hisob-kitoblarning bunday tizimida to'lovlarni amalga oshirishda davlat o'zi kafil bo'lgan. Mustaqil tijorat bank tizimini shakllantirish hisob-kitob tizimini takomillashtirdi va banklar o'z zimmalariga oladigan risk darajasini oshirdi. Bunday sharoitda tijorat banklari, mijozlar hisob-kitoblar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishilishi bo'yicha mas'uldir.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan barcha mamlakatlarda tijorat banklari iqtisodiyotning to'lov mexanizmidagi yetakchi o'rin tutadi.

Undan tashqari tijorat banklari moliya-valyuta bozorida faoliyat ko'rsatishi, ya'ni qimmatli qog'ozlar chiqarish va ularni joylashtirish, sotib olish bilan shug'ullanishi, mijozlarga har xil axborotlar, maslahatlar berish va boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin, biz keyingi paragraflarda bular haqida keng to'xtalamiz.

Tijorat banklari yuqorida keltirilgan funksiyalar asosida **quyidagi operatsiyalarni** bajaradi:

- passiv operatsiyalar;
- aktiv operatsiyalar;
- bank xizmatlari va vositachilik operatsiyalari;
- bankning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiradigan operatsiyalari va boshqa turdagi operatsiyalarni bajaradilar.

Tijorat banklarining mohiyati va ularning faoliyat ko'rsatish asoslari ular faoliyatini tashkil qilishning quyidagi **asosiy tamoyillarida** o'z ifodasini topadi:

1. Tijorat banklarining kredit resurslarini yaratishda chetdan jalb qilingan resurslarga tayanib ishlash tamoyili.

2. Tijorat banklarining haqiqatda mavjud mablag'lar chegarasida xizmat ko'rsatish.

3. Bank faoliyatining to'la iqtisodiy mustaqilligi.

4. Banklar faoliyatining tijorat tavsifi.

5. Mijozlar manfaatini himoya qilish.

6. Banklarning daromadligi va ular faoliyatining universallashtirishi.

Tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lar doirasida kredit resurslarini tashkil qilish va ishlash tamoyili bank faoliyatining poydevori hisoblanib, uning depozit va omonatlar jalb qilishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, passivlarni jalb qilish bo'yicha raqobat muhitining yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Undan tashqari chetdan jalb qilingan va qo'yilgan mablag'lar mutanosibli banklarda depozitlarni jalb etishga qiziqishni kuchaytiradi va bu mablag'lardan unumli foydalanishga asos yaratadi.

Tijorat bankining ikkinchi va asosiy tamoyillaridan biri **haqiqatda mavjud bo'lgan mablag'lar chegarasida xizmat ko'rsatishdir**. Tijorat banki boshqa bank vakillik hisob raqamiga naqd pulsiz to'lovni amalga oshirish, boshqalarga kredit xizmatini ko'rsatish va vakillik hisob varag'ida qolgan qoldiq chegarasida naqd pullik operatsiyalarni bajarishi mumkin. Tijorat banklarining haqiqatda mavjud mablag'lar chegarasida faoliyat ko'rsatishi deganda, bankning nafaqat o'z resurs va kredit qo'yilmalarining mutanosibligi, balki bankning aktivlari bilan uning jalb qilingan mablag'lari o'rtasidagi mutanosibligini ta'minlashi tushuniladi. Bunda, avvalambor, passivlar va aktivlar muddatlarining bir xilligi inobatga olinishi lozim. Binobarin, agar bank mablag'larni qisqa muddatga jalb etgan bo'lsa va bu mablag'larni uzoq muddatli ssudalarga joylashtirsa, bankning majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshira olishi bir muncha muammolar bilan bog'liq bo'lishi, bu esa, o'z navbatida, bankning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bank aktivida risk darajasi yuqori bo'lgan ssudalar miqdorining ko'payishi, bankning resurslari hajmida o'z mablag'lar hissasining oshirilishini taqozo qiladi. Shunga ko'ra, bank faoliyatini tartibga soluvchi iqtisodiy normativlarni aniqlashda bank aktivlarining passivlarga mutanosib bo'lishini inobatga olish lozim.

Bank qonun doirasida o'z resurslaridan mustaqil ravishda foydalanishi mumkin, lekin uning aktiv operatsiyalari hajmini ma'muriy taqiqlov usullari bilan chegaralash mumkin emas.

Ma'muriy cheklovlar bir martalik va favqulodda hollarda qo'llanilishi mumkin. Bu cheklovlarni doimiy tarzda qo'llash bankning tijorat asoslarining buzilishiga olib keladi. Shunga ko'ra, banklar faoliyatini tartibga solish uchun iqtisodiy me'yorlardan keng foydalaniladi. Tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lar doirasida kredit resurslarini tashkil qilish va ishlash tamoyili bank faoliyatining poydevori hisoblanib, uning depozitlar jalb qilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, passivlarni jalb qilish bo'yicha raqobat muhiti yuzaga kelishiga asos bo'ladi.

Undan tashqari jalb etilgan va qo'yilgan mablag'larning mutanosibligi tamoyili banklarda depozitlarni jalb etishga qiziqishini kuchaytirish va bu mablag'lardan unumliroq foydalanishga qaratilgan. Bu tamoyil asosida ishlash tijorat banklarining likvidligini oshirishga yordam beradi.

Uchinchi tamoyil **bankning to'la iqtisodiy mustaqilligidir**. Bu tamoyilga asosan bank o'z va jalb etilgan mablag'lardan mustaqil foydalanishi, mijozlar va omonatchilarni o'zi mustaqil ravishda tanlashi, kredit siyosatini mustaqil tuzishi va amalga oshirishi, foiz stavkalarini mustaqil o'rnatishi va o'zgartirishi, daromadlarni mustaqil ravishda taqsimlashi va boshqa faoliyat turlarini mustaqil bajarishi mumkinligi ko'zda tutiladi. Banklar faoliyati to'g'risidagi amaldagi huquqiy me'yorlarga asosan barcha tijorat banklari o'z fond va daromadlaridan iqtisodiy jihatdan mustaqil foydalanishlari mumkin.

Tijorat bankining soliq to'lagandan keyingi qolgan foydasi aksionerlarning umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq taqsimlanadi. Aksionerlarning umumiy yig'ilishi bankning har turligi fondlarga ajratmalarining norma va miqdorini, aksiyalarga to'g'ri keluvchi dividend summasini belgilaydi.

Majburiyatlari bo'yicha tijorat banki o'z mablag'lari va mol-mulki bilan javob beradi. Tijorat banki o'tkazadigan operatsiyalarning riskini o'z zimmasiga oladi.

Uchinchi tamoyil asosida tijorat bank va mijoz munosabatlari yotadi, ya'ni bank ssuda berayotgan bozor mezonlaridan daromad, risk va likvidlik darajalaridan kelib chiqqan holda beradi.

Tijorat banki faoliyatini olib borishning to'rtinchi tamoyili **bank faoliyatining tijoratlashuvi** bo'lib, bunda banklarning tijorat obyektiga vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'lari hisoblanadi. Bu pul mablag'lari bankka tegishli bo'lmagan bo'lsada, faoliyati davomida bank ularni o'z nomidan joylashtiradi.

Bank tijorati kam investitsiya qilib ko'proq daromad olish tamoyiliga asoslangani uchun uning majburiyatlarining passivlaridagi ulushi kam bo'lishi kerak.

Tijorat banki kredit berish va investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonida iloji boricha ko'p daromad olishni mo'ljallaydi.

Undan tashqari bank faoliyatining xavfsizligi ham bank tijoratining asosidan biri hisoblanadi. Bank har doim risk bilan bog'liq faoliyat ko'rsatadi. Bank faoliyatida risk darajasi qancha kam bo'lsa va xavfsizligi yuqori bo'lsa, bankning daromadi ham shuncha ko'p bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar faoliyatining yana bir muhim tamoyili shundaki, bank iqtisodiy tashkilot sifatida o'zining kapitali, daromadi bilan risk qilishi mumkin, lekin u mijozning daromadi yoki kapitali bilan risk qilishi mumkin emas. Qisqacha qilib aytganda, bank faoliyati "**hamma narsa mijoz uchun**" degan tamoyilga asoslangan

bo'lishi kerak. Bu tamoyil bank mijoz uchun to'laligicha javob berish zarurligini bildiradi, uning daromadini ta'minlaydi.

Mijozlar tomonidan qaraganda, bank har doim sherik tashkilot hisoblanadi. Sheriklik munosabatlari ikki tomonning o'zaro qiziqishlariga va roziliklariga asoslangan holda amalga oshirilishi lozimligi tufayli bank mijozlar manfaatini ta'minlashni birinchi o'ringa qo'yishi lozim.

Tijorat banklari faoliyatining keyingi tamoyili banklar ko'rsatadigan xizmatlar va operatsiyalarning **universallasuvi** va **diversifikatsiyasi** bo'lib, banklar faoliyatining turli tarmoq va sohalarni qamrab olishini kam risklilik asosida yuqori daromad olishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Banklar qaysi mulk shakliga asoslanganligidan qat'i nazar ularning faoliyati yuqoridagi tamoyillarga asoslanadi.

Oldingi paragrafda ta'kidlanganidek, banklar aksiyador jamiyat kabi ochiq turdagi yoki yopiq turdagi aksiyador banklar bo'lishi mumkin. Aksiyadorlar safiga kirish aksiyalarni sotib olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Huquqiy va jismoniy shaxslar banklarning aksiyadorlarini sotib olishi va aksiyadorlar bo'lishi mumkin.

Ba'zi tijorat banklari paylar (badallar) hisobidan tashkil qilinishi mumkin. Bu turdagi banklarning qatnashchilari ham huquqiy va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin.

Xususiy banklar – jismoniy shaxslarning pul mablag'lari hisobidan tashkil qilingan banklar hisoblanadi.

Bajaradigan operatsiyalariga qarab tijorat banklari universal va maxsus banklarga bo'linadi.

Universal banklar xilma-xil operatsiyalar bajarish, har xil xizmatlar amalga oshirish xususiyatiga ega bo'ladi. Maxsus banklar ma'lum yo'nalishlarga xizmat ko'rsatib, o'z faoliyatini shu yo'nalishlarda yutuqlarga, samaradorlikka erishishga bag'ishlaydi. Bunday banklarga tarmoqlarga xizmat ko'rsatuvchi banklar, eksport-import operatsiyalarini olib boruvchi banklar, investitsiya banklari, ipoteka-zamin banklarini kiritish mumkin.

Joylashish belgisiga qarab tijorat banklari: xalqaro, respublika, mintaqaviy, viloyat banklariga bo'linishi mumkin.

Tarmoqlarga xizmat ko'rsatishga qarab: sanoat, qurilish, qishloq xo'jalik, savdo va boshqa banklarga bo'linishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning roli, ularning iqtisodiyotga ta'siri o'sib bormoqda. Kredit muassislari, aholi, korxonalar, tashkilotlar, kompaniyalarning bo'sh pul mablag'larini yig'ish va joy-

lashtirishdan tashqari, korxonalarning xo'jalik faoliyatini takomillashtirishga yordam beradi va korxonalar faoliyatini kuzatib borishi mumkin.

Banklar va uning krediti yordamida mavjud kapital tarmoqlar o'rtasida, ishlab chiqarish va muomala sohasi o'rtasida taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Sanoat, transport, qishloq xo'jaligi sohasida qo'shimcha investitsiyaga bo'lgan talablarni moliyalashtirib, banklar iqtisodiyotda progressiv yutuqlarga erishishni ta'minlashi mumkin.

5-§. Boshqa kredit tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish asoslari

O'zbekiston iqtisodiyoti, respublika hududida faoliyat olib borayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga tijorat banklaridan tashqari boshqa kredit tashkilotlari tomonidan ham moliyaviy xizmatlar ko'rsatish uchun huquqiy va me'yoriy asoslar yaratilgan. Boshqa kredit tashkilotlari qatoriga bugungi kunda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan mikrokredit tashkilotlari, lombardlarni kiritishimiz mumkin. Mazkur kredit tashkilotlarining faoliyati "Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi, "Mikromoliyalash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mikrokredit tashkilotlari va lombardlar faoliyatini tashkil qilish va yuritishga oid me'yoriy hujjatlari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasida **mikrokredit tashkilotlari** faoliyati 2006-yil 20-sentyabrdan kuchga kirgan "Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni asosida olib boriladi.

Mazkur qonunning 3-moddasida mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish sohasida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi, O'zbekiston Respublikasi hududida bank hisob varaqlarini belgilangan tartibda ochishga haqli bo'lgan yuridik shaxs **mikrokredit tashkilot** deb yuritilishi belgilab qo'yilgan.

Mikrokredit tashkiloti o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishga ruxsat beruvchi litsenziyasiga ega bo'lishi va talab qilingan ustav fondini shakllantirishi lozim. Mikrokredit tashkilotlari ustav fondining eng kam miqdori **100 ming yevro ekvivalenti** miqdorida belgilangan.

Mikrokredit tashkiloti ustav fondining eng kam miqdori mikrokredit tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanada Markaziy bankning valyuta operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi, statistika va boshqa hisobotlarni yuritish uchun e'lon qilingan yevro kursi bo'yicha yuqorida belgilangan miqdordan kam bo'lmasligi kerak.

Ustav fondi ta'sischilar tomonidan pul mablag'laridan, shuningdek, ustav fondi miqdorining yigirma foizidan oshmaydigan boshqa mol-mulkdan shakllantiriladi, bunda kredit, garovga olingan mablag'lardan va boshqa jalb qilingan mablag'lar foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Ustav fondining eng kam miqdori litsenziya olish uchun murojaat qilingan kunga qadar faqat pul mablag'laridan shakllantirilgan bo'lishi kerak.

Mikrokredit tashkiloti litsenziya olish uchun ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bir oydan kechiktirmasdan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga yoki uning hududiy boshqarmalariga litsenziya berish haqidagi ariza, mikrokredit tashkilotining ta'sis hujjatlari, mikrokredit tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi, mikrokredit tashkiloti boshqaruv organlarining tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar, mikrokredit tashkilotining ustav fondi shakllanganligini tasdiqlovchi bank hujjatini taqdim etishi kerak.

Shuningdek, mikrokredit tashkiloti joylashgan binodagi kassa xonalari texnik jihatdan mustahkamlanishi va qo'riqlash – yong'indan saqlash signalizatsiya vositalari bilan jihozlanishi va bu to'g'risida Markaziy bankning tegishli hududiy boshqarmasining xulosasi olinishi lozim.

Markaziy bank tomonidan ariza va zarur hujjatlar kelib tushgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida ko'rib chiqiladi. Litsenziya berilgan vaqtdan boshlab olti oy muddat ichida mikrokredit tashkiloti o'z faoliyatini amalga oshirishga kirishishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki moliyaviy tizimning barqarorligini saqlash, qarz oluvchilar va kreditorlarning manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida mikrokredit tashkilotlari ustav fondining eng kam miqdorini, moliyaviy va kassa operatsiyalari o'tkazish, buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish qoidalarini, shuningdek, iqtisodiy me'yorlarni belgilash, ko'rsatilayotgan mikromoliyaviy xizmatlar uchun foizlarni hisoblash tartibini tasdiqlash, mikrokredit tashkilotlarining faoliyatini tekshirish va ularning faoliyatida aniqlangan mikrokredit tashkilotlari to'g'risidagi qonun

hujjatlari talablarining buzilishlarini bartaraf etishga oid bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish, mikroredit tashkilotining faoliyatini auditdan o'tkazishga doir talablarni belgilash, mikroredit tashkiloti ijro etuvchi organi rahbarining malakasiga doir talablarni belgilash, mikroredit tashkiloti tomonidan mikroredit tashkilotlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari va belgilangan iqtisodiy me'yorlar buzilgan taqdirda, ustav fondining belgilangan eng kam miqdorining bir foizigacha jarima undirish, mikroredit tashkiloti tomonidan ayrim moliyaviy operatsiyalar o'tkazishni uch oygacha bo'lgan muddatga cheklash, mikroredit tashkiloti litsenziyasining amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish yoxud litsenziyani qayta rasmiylashtirish va bekor qilish orqali mikroredit tashkilotlari faoliyatini tartibga soladi va nazorat qiladi.

Mikroredit tashkiloti faoliyatida kamchiliklar aniqlangan hollarda, masalan, mikroredit tashkilotlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari, shu jumladan, litsenziya talablari va shartlari buzilganda, uning faoliyatida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini yuklovchi qarorlar bajarilmaganda Markaziy bank tomonidan litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilishi mumkin.

Mikroredit tashkiloti to'lovga qobiliyatsiz bo'lib qolganda, mikroredit tashkilotlari to'g'risidagi qonun hujjatlarining, belgilangan iqtisodiy me'yorlarning talablari muntazam ravishda buzilganda va hisobot ma'lumotlari buzib ko'rsatilganda, mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish litsenziya berilgan paytdan e'tiboran olti oydan ortiq kechikkanda, Markaziy bank litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilishi mumkin.

Mikroredit tashkiloti mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishga, buyurtma beruvchiga mikromoliyaviy xizmat ko'rsatishni asoslantirilgan holda rad etishga, mikromoliyaviy xizmat ko'rsatish va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni buyurtma beruvchidan so'rab olishga, maqsadli mikroredit o'z vaqtida to'lanmagan yoki belgilangan maqsadda foydalanilmagan holda qarz oluvchidan majburiyatlar muddatidan ilgari bajarilishini talab qilishga, mijozlarga maslahat va axborot xizmatlari ko'rsatishga, qarz oluvchilar tomonidan majburiyatlar bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun shartnomaga muvofiq neustoyka (jarima, penya) miqdorini belgilashga, mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish uchun qonunga muvofiq mablag'lar jalb etishga haqli.

Mikrokredit tashkiloti buyurtma beruvchiga uning huquq va majburiyatlari to'g'risida, shu jumladan, shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi oqibatlari, mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq barcha xarajatlar to'g'risida, shuningdek, ko'rsatiladigan mikromoliyaviy xizmat bo'yicha foiz stavkasi haqida to'g'ri hamda to'liq axborotni yozma shaklda xabar qilishi, shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishi, shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida qarz oluvchiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplashi, belgilangan eng kam miqdordan past bo'lmagan ustav fondiga ega bo'lishi, moliyaviy va kassa operatsiyalari o'tkazish qoidalariga, shuningdek belgilangan iqtisodiy normativlarga rioya qilishi, qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobi, hisobotini va boshqa hujjatlarni yuritish va hisobotni belgilangan tartibda o'z vaqtida taqdim etishi, tekshirish o'tkazish uchun yuborilgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki vakillariga hujjatlar va mikrokredit tashkiloti faoliyati to'g'risidagi boshqa axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlashi shart.

Qonunning 13-moddasiga muvofiq mikrokredit tashkiloti mikrokreditlar yoki mikroqarzlarni berish, qarz majburiyatlarini sotib olish va sotish (faktoring), mikrolizing (moliya ijarasi) bilan shug'ullanishi, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turdagi mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan, iste'mol kreditlari berishi, boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq maslahat va axborot xizmatlari ko'rsatishi bo'yicha mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishi mumkin.

Ammo mikrokredit tashkiloti tomonidan qarz majburiyatlarini chiqarishga hamda yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar (depozitlar) qabul qilishga, jismoniy shaxslardan qarz mablag'larini jalb qilishga, o'z muassislarining majburiyatlari bo'yicha kafil bo'lishga yoki kafolat beruvchi bo'lishga, shuningdek, ularga o'z majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning boshqa usullarini taqdim etishga ruxsat etilmaydi.

Mikrokredit tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan mikromoliyaviy xizmatlar o'z mablag'lari, shu jumladan, olgan daromadlari, investorlar, shu jumladan, chet ellik investorlar tomonidan investitsiya shartnomalari asosida berilgan mablag'lar, banklarning kreditlari va davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'lari, xalqaro

moliya institutlari, nodavlat-notijorat tashkilotlarining, shu jumladan, chet el nodavlat-notijorat tashkilotlarining grantlari, qarz mablag'leri va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

Aktivlarining balans qiymati bir milliard so'mdan ortiq bo'lgan mikroredit tashkilotida mikroredit tashkiloti yuqori boshqaruv organining qarori bilan ichki audit xizmati tashkil etiladi.

Ichki audit xizmati mikroredit tashkilotining faqat yuqori boshqaruv organiga hisobdordir. Ichki audit xizmatining rahbari va boshqa xodimlari mikroredit tashkilotining yuqori boshqaruv organi tomonidan tayinlanadi. Ichki audit xizmati o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

Mikroredit tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda filiallar tashkil etishi mumkin. Filiallar o'z faoliyatini mikroredit tashkiloti uchun berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi.

Bugungi kunda 27 mikroredit tashkiloti o'z faoliyatini amalga oshirib, mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatib kelmoqda.

Lombard ixtisoslashgan tijorat tashkiloti bo'lib, mijozning ko'char mulkini garovga olib, qisqa muddatli kreditlar berish va ularni saqlab berish bilan shug'ullanadi.

O'z ixtisoslashuviga qarab lombardlar qimmatbaho buyumlar, avtotransport va boshqalar bilan ishlaydigan lombardlarga bo'linadi. Qimmatliklar va buyumlarning bahosi tomonlar kelushuviga asosan belgilanadi va ular o'rtasida tuziladigan shartnomada aks ettiriladi. Qarz oluvchi yoki mulk egasi o'z mulkini garovga qo'yib lombarddan kredit olgandan keyin shartnoma shartlarini lozim darajada bajarishi va o'z mulkini o'rnatilgan muddatlarda qayta sotib olishi mumkin. Bunda qayta sotib olish bahosi summasi lombardning mijozga bergan kredit summasi va lombardning xizmati uchun to'lanadigan foiz stavkasidan iborat bo'ladi. Lombard tomonidan berilgan kreditning muddati kelib garovga qo'yilgan mulk mijoz tomonidan qayta sotib olinmasa, bu mulk lombard tomonidan sotuvga qo'yilishi yoki auksion orqali sotilishi mumkin. Shuningdek, ba'zi mamlakatlarda lombardlar qimmatli metallar, toshlar va boshqa qimmatliklarni faqatgina sotib olish bilan shug'ullanadi. O'zbekiston Respublikasida lombardlar faoliyati "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi, "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi

Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 10-dekabrda 1291-son bilan ro'yxatdan "Lombardlar faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasida lombardlar ixtisoslashgan yuridik shaxs sifatida fuqarolardan o'z ehtiyojida bo'lgan ko'char mulkini garovga olgan holda qisqa muddatli kreditlar berish faoliyatini amalga oshiradi. Lombardlar o'z faoliyatini amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya)ga ega bo'lishi lozim. Lombardlar faoliyati O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan litsenziyalanadi. Yuridik shaxs litsenziya olgan kundan boshlab lombard sifatida faoliyatini boshlaydi. Litsenziya olish uchun yuridik shaxs lombard sifatida o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tishi, zarur bo'lgan ustav fondining minimal miqdorini shakllantirishi lozim. Lombard tashkilotining ustav fondi muassislarining faqat pul mablag'lari hisobidan shakllanadi. Ustav fondini kredit, garov mablag'lari va boshqa jalb qilingan mablag'lar hisobidan shakllantirishga ruxsat etilmaydi.

Lombard tashkilotlari faoliyatiga **litsenziya olish uchun** O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga quyidagi hujjatlarni taqdim qiladi:

- lombard faoliyatini amalga oshirishga litsenziya berish uchun ariza;

- davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida ma'lumotnoma nusxasi;

- biznes-reja;

- muassislar ro'yxati;

- lombard boshqaruv organlari tarkibi va strukturasi to'g'risida ma'lumot;

- lombard faoliyatini amalga oshirish uchun bino, qo'riqlash tizimi va sharoitlari to'g'risida ma'lumot;

- lombard va baholovchi tashkilotlar o'rtasida tuzilgan shartnoma;

- litsenziya uchun to'lovning kvitantsiyasi.

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 17-sentyabrdagi 402-sonli qaroriga asosan lombardlar faoliyatini litsenziyalash uchun eng kam ish haqi miqdorining 0,5 barobarida haq to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan mijozning hujjatlari 30 kalendar kuni ichida ko'rib chiqilishi lozim. Qabul qilingan qaror to'g'risidagi ma'lumot qaror qabul qilingandan keyin 3 kun ichida mijozga yetkazilishi lozim.

Hujjatlar talab darajasida rasmiylashtirilmagan, ularda xato va kamchiliklar mavjud bo'lgan va boshqa kamchiliklarga yo'l qo'yilgan

hollarda Markaziy bank litsenziya berishni rad qilishi mumkin. Bu to'g'risida rad etishning sabablari aniq ko'rsatilgan holda mijozga yozma ravishda raddiya xati yuboriladi. Ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf qilgandan keyin subyekt hujjatlarini takroran Markaziy bankka taqdim etishi mumkin. Hujjatlar 10 kun ichida qayta ko'rib chiqilishi lozim. Litsenziya beruvchi organ litsenziya talablariga rioya qilinmagan, faoliyatida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf qilmagan hollarda lombard faoliyatini to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qiladi. Lombard faoliyatini to'xtatib turish muddati olti oydan oshmasligi lozim.

Lombard tashkiloti faoliyatini to'xtatish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganda, u bankrot bo'lganda yoki tugatilganda, boshqa faoliyat yo'nalishi bo'yicha qayta tashkil etilganda, litsenziya talablariga doimiy va tizimli rioya qilmaganda, qonun talablarini buzgan hollarda litsenziyaning amal qilishi to'xtatiladi. Shuningdek, sud talablariga asosan ham litsenziyaning amal qilishi to'xtatilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki lombardlar faoliyatini nazorat qilish, lombardlarning faoliyati, operatsiyalari to'g'risida ma'lumot, hisobot olish, ular faoliyatini tekshirish, litsenziya talablariga rioya qilinmagan hollarda ularni ogohlantirish, ularga bajarilishi lozim bo'lgan talablarni yuborish va ular bajarilishini talab qilish huquqiga ega. Bu faoliyat Markaziy bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2011-yil 14-mayda 2209-son bilan ro'yxatdan o'tgan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan mikroredit tashkilotlari va lombardlar faoliyatini tekshirish tartibi to'g'risidagi nizom"ga asosan amalga oshiriladi. Bugungi kunda respublikamizda 45 dan ortiq lombardlar faoliyat olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrda "2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi" PQ-134-sonli qaroriga asosan mamlakatimizda moliya-bank tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, banklar va butun moliya-bank tizimi faoliyatiga yondashuvlarni hamda baholash tizimini tubdan o'zgartirish, hamma tomonidan qabul qilingan xalqaro normalar, standartlar va baholash ko'rsatkichlariga muvofiq bank faoliyatini tashkil etishning yanada yuqoriroq darajasiga chiqishni ta'minlash bo'yicha vazifalar belgilab olingan. Bu vazifalar quyidagi yo'nalishlarni o'zida mujassamlashtirgan. **Bular:**

- Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan xalqaro standartlar talablariga muvofiq, tijorat banklarini yanada kapitallashtirish, ushbu sohaga xususiy kapitalni jalb etish, resurs bazasini ko'paytirish, aktivlar sifatini yaxshilash, bank ishini takomillashtirish hisobiga banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidligini oshirish;

- omonatchilar uchun kafolatlarni kuchaytirish va bank tizimiga aholi hamda xorijiy investorlarning ishonchini yanada mustahkamlash, yangi jozibali omonatlar va depozitlarni tatbiq etish, ko'rsatilayotgan bank xizmatlarining turi va ko'lamini kengaytirish yo'li bilan aholi hamda xo'jalik subyektlarining bo'sh mablag'larini bank aylanmasiga keng jalb etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- yetakchi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qo'llaniladigan xalqaro normalar, mezonlar va standartlarga asoslangan hamda alohida banklar va umuman bank tizimining butun dunyoda qabul qilingan yanada yuksakroq baholash ko'rsatkichlari darajasiga chiqish yo'lidan olg'a siljib borishini xolisona baholash imkonini beradigan tijorat banklari va butun moliya-bank tizimi faoliyatini baholash va tahlil qilishning zamonaviy tizimini joriy etish;

- moliya-bank faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, zamon talablari va xalqaro normalar hamda standartlarga muvofiq holda amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda yangi qonun hujjatlari va me'yoriy hujjatlar qabul qilish;

- tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini kuchaytirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklari ishtirokini yanada kengaytirish, loyihalarni ekspertiza qilish va xatarni baholash tizimini takomillashtirish, kreditlar bo'yicha muammoli qarzlarning hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik borasida oldini olish choralarini ko'rish yo'li bilan tijorat banklarining kredit portfeli muttasil o'sishi hamda sifati yaxshilanishini ta'minlash;

- nobank moliya tashkilotlari, lizing, sug'urta va auditorlik kompaniyalarining rolini yanada oshirish hamda tarmog'ini rivojlantirish, xalqaro normalar va standartlarga muvofiq ularning barqarorligi va samaradorligini ta'minlash, ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar turi va ko'lamini kengaytirish, moliya bozori infratuzilmasi institutlarini mustahkamlash;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni moliyalashtirishning, aholi bandligi va farovonligini oshirishning g'oyat

muhim vositasi sifatida mikromoliyalash sohasi rivojlanishini rag'batlantirish;

- tijorat banklarida hisob-kitob va hisobotlarning yangicha yondashuvlarini shakllantirish hamda zamonaviy texnologiyalari va uslublarini joriy qilish, moliya-bank axboroti saviyasi hamda sifatini oshirish, yetakchi xalqaro reyting tashkilotlari talablariga muvofiq undan keng ko'lamda foydalanishni ta'minlash;

- respublika tijorat banklari va moliya institutlarini dunyoda qabul qilingan standartlar, uslubiyatlar va baholash ko'rsatkichlari tizimida ishlay oladigan, professional tayyorlangan yuqori malakali mutaxassislar bilan mustahkamlash, moliya-bank faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish;

- bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalarini, shuningdek, nobank kredit tashkilotlari faoliyati ustidan nazoratni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich tatbiq etib borish, ya'ni tijorat banklarining kapitali yetarililigiga nisbatan talablarni oshirish, tijorat banklari kapitali tarkibida ularning inqiroz holatlari ta'siriga barqarorligini ta'minlaydigan barqarorlashtirish zaxiralarini yaratish, nobank kredit tashkilotlari uchun qo'shimcha majburiy iqtisodiy normativlarni kiritish borasidagi ishlarni bosqichma-bosqich takomillashtirib borish vazifalari belgilab olingan.

6-§. Bazi xorijiy davlatlar bank tizimi va ularning xususiyatlari

Quyida biz ba'zi xorijiy davlatlarning bank tizimi to'g'risida fikr yuritmoqchimiz.

AQSh bank tizimi quyidagi asosiy muassalarni o'z ichiga oladi:

- Federal Zaxira Tizim – AQSh Markaziy banki;
- tijorat banklari;
- investitsiya banklari;
- jamg'arma banklari;
- ssuda yig'uvchi uyushmalar;
- pochta jamg'arma kassalari;
- moliyaviy kompaniyalar;
- kredit kooperativlari;
- sug'urta kompaniyalari;
- pensiya fondlari;

- ijtimoiy sug'urta fondlari;
- o'zaro kredit uyushmalari;
- depozitlarni sug'urtalash tashkilotlari va h.k.

AQShning bank tizimida an'anaga ko'ra kichikroq, jamoa banklari deb ataladigan tijorat banklari ham katta o'rin tutadi.

AQSh Federal zaxira tizimi (*Federal Reserve System-FRS*) (**FZT**) –mustaqil federal agentlik bo'lib AQSh Markaziy banki funksiyasini bajaradi. FZT tashkiliy jihatdan mukammal tashkil etilgan maxsus mavqega ega bo'lgan aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi. FZT ning kapitali aksionerlarning mablag'lariga asoslangani uchun FZTning mulkdorlari xususiy shaxslar hisoblanadi. Bu jihatdan AQSh Markaziy banki to'liq davlat mulkiga asoslangan Markaziy banklar (Angliya va Kanada) yoki davlat mulki ishtirokida tashkil etilgan (Belgiya, Yaponiya) kabi davlatlarning Markaziy bankidan tupdan farq qiladi.

AQSh Federal zaxira tizimi (FZT) 1913-yilning 23-dekabrda mustaqil agentlik sifatida – mamlakatda sog'lom iqtisodiy muhitni vujudga keltirish, banklar faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bular faoliyatni nazorat qilish maqsadida tashkil etilgan. Tashkil etilishining huquqiy asosi bo'lib 1913-yilda qabul qilingan "Federal zaxira to'g'risida" gi (*Federal Reserve Act*), qonun hisoblanadi.

FZT ni boshqarishda davlat asosiy o'rinni egallaydi. FZT faoliyatini Kongress nazorat qilib boradi. U Kongress oldida xisobot beradi. Boshqaruvi va moliyaviy mablag'lari nuqtai nazaridan FZT mustaqil tashkilot hisoblanadi. FZT Kongress tomonidan moliyalashtirilmaydi. U o'z byudjetiga ega hamda operatsiyalardan tushgan daromadlar va pul emissiyasidan kelgan foyda evaziga o'z faoliyatini moliyalashtiradi. O'z harajatlarini qoplaganidan va FZTga a'zo bo'lgan banklarga dividendlarni to'laganidan keyin, FZT har yili davlat hazinasiga 15 – 20 mlrd. AQSh dollariga teng miqdorda mablag'ni beradi.

AQSh FZT quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- AQSh markaziy bankining vazifasini bajarish;
- tijorat banklari hamda umummilliy manfaatlar muvozanatini ta'minlash;

-bank muassasalari faoliyatini nazorat qilish va tartibga solishni ta'minlash;

- iste'molchilarning kredit xuquqlarini himoya qilish;

-pul emissiyasini boshqarib borish (ishsizlikni kamaytirish, baholar barqarorligini ta'minlash, foiz stavkalarining mo'tadilligini ta'minlash):

-moliya tizimi barqarorligini ta'minlash, moliya bozorlaridagi tizimli risklarni nazorat qilish;

-depozitariylar, jumladan, AQSh hukumati va rasmiy xalqaro tashkilotlarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish;

-xalqaro va mamlakatdagi (ichki) to'lovlar tizimi faoliyatida ishtirok etish;

-likvidlilik bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish%;

-jahon iqtisodiyotida AQShning rolini mustahkamlash va boshqalar.

AQSh FZT talablariga javob bera oladigan barcha banklar uning a'zosi (aksioneri) bo'lishi mumkin. AQSh FZTning rahbar organi 7 a'zodan iborat Boshqaruvchilar Kengashi (*Board of Governors*) hisoblanadi va ular Senat ma'qullashi bilan Prezident tomonidan tayinlanadi. Kengashning har bir a'zosi 14 yilga tayinlanadi va bu muddat uzaytirilishi ham mumkin.

Kengash quyidagi funksiyalarni bajaradi:

-FZT tizimli faoliyat olib borishini nazorat qiladi;

-muvofiqlashtirish borasida qarorlar qabul qiladi;

-valyuta zaxiralarini shakllantirish bo'yicha talablarni shakllantiradi;

-FZT Boshqaruv Kengashi ruxsati bilan hisob stavkalarini o'rnatadi;

-mahalliy moliyaviy muassasalar faoliyatini monitoring qilib boradi;

-AQSh hukumati va boshqa depozitariylarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatadi.

FRT tarkibiga va Boshqaruv Kengashiga hududiy okruglarda joylashgan 12 ta yirik Federal banklar kiradi va ular "Federal zaxira banklar" deb ataladi hamda ularning har biri o'z boshqaruv kengashiga ega. FZT a'zolari bo'lgan 6 mingta tijorat banki (ularning umumiy soni taxminan 14 mingga yetadi) ulushiga barcha depozitlarning 70 %idan

ko'prog'i to'g'ri keladi. FZT ga a'zo bo'lgan banklar – bu juda yirik xususiy tijorat banklaridir. Ular FZBlarining aksiyadorlari va, ayni paytda, ushbu bankning mijozlari hamdir va o'zlarining aksiyadorlik sarmoyasi evaziga 6 % dividend oladilar.

FZT ga kiruvchi 12 ta mustaqil markaziy banklarning har biri FZB sifatida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- ikkilamchi bozorda davlat obligatsiyalarini sotish va sotib olish (ochiq bozor operatsiyalari);

- a'zo banklarga qarzlarni berish;


- banklarga kliring xizmatlarini ko'rsatish;

- yaroqsiz pullarni muomaladan chiqarib tashlash uchun yig'ish va ularni yangilariga almashtirish;

- a'zo banklar tomonidan qonuniy-me'yoriy hujjatlarga rioya qilish va zaxiraga ajratish talablarini bajarishini ta'minlash;

- hududda iqtisodiy va bank faoliyati amalga oshirilishi ustidan monitoring o'rnatish.

AQSh FZTning tarkibiy tuzilishini quyidagi chizmadan ko'rishimiz mumkin.



8-rasm. AQSh FZTning tarkibiy tuzilishi

FZTning yana bir muhim tarkibi Ochiq bozor bo'yicha Federal qo'mita(*Federal Open Market Committee - FOMC*), hisoblanadi. U FZT va FZBlar o'rtasidagi muhim tashkilot bo'lib u monitar siyosat uchun mas'ul hisoblanadi. FOMCning barcha qarorlari va faoliyati pul muomalasi va baholar barqarorligini ta'minlagan holda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan. Nyu-York Federal zaxira banki mintaqaviy banklar ichida asosiy o'rinni egallaydi va u ochiq bozor operatsiyalari va xalqaro moliya bozorida operatsiyalar uchun mas'ul hisoblanadi. Ochiq bozordagi operatsiyalarni FOMC ko'rsatmasiga asosan, Nyu-york federal rezerv banki amalga oshiradi. Boshqa federal banklardan farqli ravishda bu bank ochiq bozor bo'yicha Federal qo'mitada doimiy ovozga ega hamda uning boshqaruv kengashi prezidenti FZTda ikkinchi rahbar hisoblanadi.

Federal zaxira to'g'risidagi qonunga asosan FZT har yili AQSh Kongressi, va yilda 2 marta AQSh Kongressi Bank qo'mitasi oldida hisob beradi. Shuningdek, FZT faoliyati AQSh Hisob palatasi (**Government Accounting Office**) tomonidan audit qilinadi va mustaqil auditorlik firmalari ham uning faoliyatini tekshiradi.

FZT uch asosiy vosita orqali **monitar siyosatni** olib boradi. Bular **ochiq bozor operatsiyalari, hisob stavkasi (discount rate), a'zo banklar uchun zarur zaxiralar miqdorini belgilash**. Ochiq bozor operatsiyalarini olib borish uchun biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, FOMC tashkil etilgan. Hisob stavkasi (discount rate) va a'zo banklar uchun zarur zaxiralar miqdorini belgilash Boshqaruvchilar Kengashining vakolatlari hisoblanadi.

Ochiq bozor operatsiyalari asosan ochiq bozorda davlat qimmatli qog'ozlarini sotish va sotib olishdan iborat. Bu borada FZT bozorning boshqa ishtirokchilari kabi faoliyat olib boradi, unga hech qanday imtiyozlar berilmaydi. FOMC yilda ikki marta Kongressning banklar bo'yicha qo'mitasi oldida hisob beradi. Qo'mita a'zolari yilda sakkiz marta uchrashuv o'tkazishadi va unda mamlakatdagi moliyaviy-iqtisodiy holat(ahvol), monitar siyosatning maqsadi va asosiy strategiyasi aniqlanadi, mamlakatda baholar barqarorligi va uning iqtisodiy o'sishi bilan bog'liq holat va masalalar tahlil etiladi.

Hisob stavkasi (discount rate)- hisob foiz stavkasi bo'lib, FZT tomonidan boshqa moliya institutlari, tijorat banklariga beradigan kreditlari bo'yicha o'rnatiladigan foiz stavkasi hisoblanadi. Veksellarni hisobga olish va qayta hisobga olish ham ushbu foizlar asosida amalga oshiriladi. Hisob stavkasi (discount rate)- Federal zaxira tizimi tomonidan nazorat qilinadi. U foiz stavkalarining umumiy darajasi to'g'risida ma'lumot beradi va boshqa foiz stavkalari uchun mo'ljal bo'lib xizmat qiladi.

Praym-reyt – Prime Rate foiz stavkasi tijorat banklari tomonidan yirik mijozlar, korporatsiyalarga kredit berish bo'yicha foiz stavkasi. *Praym-reytning* miqdori FZT ning banklararo overnait kreditlari bo'yicha hisob stavkasiga asoslanadi va u, odatda, hamisha hisob stavkasidan ortiq bo'ladi. Hisob stavkasining oshishi praym-reyt stavkasining ham oshishiga olib keladi, lekin ba'zi hollarda hisob stavkasi pasayganda banklar praym-reyt stavkani pasaytirmasligi mumkin. Bu vaqtda banklar qo'shimcha spread olib, o'zlarini qo'shimcha foyda bilan ta'minlashlari mumkin.

Pul bozorining instrumentlari (money market instruments) ichida federal fondlar ko'proq ahamiyatga egadir (qayta sotish uchun sotib oladigan kelishuvlar va evrodollar shular jumlasidandir). *Federal fondlar (federal funds yoki Fed funds)* - federal rezerv banklarda ularning muntazam rezerv qoldig'i mavjud bo'ladi. Federal fondlarning qoldiq resurslari tijorat banklari va yirik korporatsiyalar tomonidan, odatda, tungi vaqtda bir birlariga kredit berish uchun keng ishlatiladi. FRT ularning darajasini belgilasada, ularning bahosi bozorga qarab o'zgarib turadi. Federal fondlarning mablag'lari doimiy operativ moliyaviy xizmat tarkibini ta'minlab turishi mumkin. Odatga ko'ra, treyderlar ular to'g'risida Reuters yoki Telerate tizimi bo'yicha bilib turadi. SHuning uchun federal fondlar bo'yicha stavkalar gohida valyuta bozori uchun savdo signali bo'lib hisobladi.

Qayta sotish uchun sotib olish kelishuvi (repo – repurchase agreements (repos) – FRT tomonidan har kuni amalga oshiriladigan kelishuvlardir. Qayta sotish uchun sotib olish kelishuvlari FRT va hukumat dilleri o'rtasida qimmatli qog'oz bilan amalga oshiriladi, bunda

FRT qimmatli qog'ozlarni (zudlik bilan yetkazib berish sharti bilan) va shu qimmatli qog'ozni. shu summaga kelishilgan bahoda va muddatda (odatda, 15 kundan kech qolmay hamda ma'lum foiz stavkasi ostida) qayta sotish sharti bilan sotib oladi.. Bu kelishuv bank tizimi rezervini vaqtinchalik ko'paytirishga olib keladi. Valyuta bozoriga buning ta'siri hammadan avval dollarning zaiflashishda yoki kursning pasayishida namayon bo'lada. Qayta sotish uchun sotib olish kelishuvi mijoz repositi va tizim repositida bo'lishi mumkin.

Qayta sotib olish uchun sotish kelishuvi (teskari repo – marched sale-purchase agreements) – qayta sotish uchun sotib olishga to'g'ridan-to'g'ri teskari keladigan kelishuv hisoblanib qayta sotib olish uchun sotiladi. FRT kelishuvni bajarayotganda, u qimmatli qog'ozni dillerga yoki xorijiy markaziy bankka зудlik bilan yetkazib berish, shunda mana shu qimmatli qog'ozni kelishilgan baho bo'yicha, kelgusida belgilangan kunda (7 kundan kech qolmay) sotib olish sharti bilan kelishuvni amalga oshiradi. Bu shartnoma vaqtinchalik rezervning bo'shab qolishiga olib keladi. Bu operatsiya valyuta bozorida dollarning barqarorlashuvida namoyon bo'ladi, ya'ni dollar qimmatlashadi. Bu turdagi operatsiyalar, odatda, savdo kuni boshlanishida sodir bo'ladi.

Ochiq bozordagi bu operatsiyalarni FOMC ko'rsatmasiga asosan. Nyu-York federal rezerv banki amalga oshiradi.

Evrodollarlar Qo'shma Shtatlardan tashqarida joylashgan tijorat banklarida dollarlarni depozitlarga o'tkazish hisoblanadi. Davlatdan tashqaridagi barcha valyutadagi depozitlari kelib chiqishi bilan evrovalyutalar deb ataladi. Evrodollarlar evrovalyuta bozorida eng ko'p ulushni tashkil etadi.

Evrovalyuta stavkalarini forvard bilan shug'ullanuvchi treyderlar forvard spreadini hisoblash uchun ishlatadilar. Forvard spreadi quyidagi formula bilan topiladi:

$$\text{Forvard spreadi} = \left[\text{spot} \times \left(\frac{\text{evrovalyuta} - \text{evrodollar}}{\text{stavkasi}} \right) \right] \times \frac{\text{Kunlar soni}}{360}$$

Agar olingan natija ijobiy bo'lsa, forvard spreadi mukofotni bildiradi va u spot stavkasiga qo'shiladi. Agar teskarisi bo'lsa, olingan natija salbiy chiqsa, unda forvard spreadi diskontni anglatadi va spot stavkasidan ayirib tashlanadi.

Banklarning banki bo'lgan FZT a'zo bo'lgan banklarga har tomonlama xizmat ko'rsatadi. FZ banklari a'zo bo'lgan banklar depozitlarini saqlaydilar. Ana shu depozitlar a'zo bo'lgan banklar barcha rezervlarining qonun bilan belgilab qo'yilgan miqdorining asosiy qismi hisoblanadi.

AQShda FZT a'zo bo'lgan tijorat banklari Federal hukumat tomonidan litsenziyalanadi, nazorat qilinadi. Boshqa bir qismi - FZTga a'zo bo'lmagan

xususiy banklar esa shtatlarning hokimiyati tomonidan nazorat qilinadi.

Faoliyatini tartibga solib turish nuqtai nazaridan Amerikaning barcha guruhlarini 4 ga bo'lish mumkin:

- milliy banklar;
- FZT ga a'zo bo'lgan shtatlarda joylashgan banklar;
- FZT ga a'zo bo'lmagan, depozitlarni sug'urtalash Federal korporatsiyasi (DSFK) tarkibiga kiradigan banklar;
- FZT ga a'zo bo'lmagan, omonatlari DSFK da sug'urtalanmagan banklar.

AQSh tijorat banklari mablag'larni depozitlarga qabul qiladilar (talab qilib olinguniga qadar omonatlari va muddatli omonatlar), qisqa, o'rta va uzoq muddatli qarzlarni beradilar, moliyaviy va trast xizmatlari ko'rsatadilar. Lekin Amerika banklari, qonunchilikka ko'ra qimmatli qog'olarning egalari bo'la olmaydilar. Amerika banklari xolding kompaniyalari (Xolding – aksionerlik jamiyatlarni birlashtirib, ularni boshqaruvchi korxonaga) orqali o'z mijozlariga elektron xizmatlar, yo'l cheklari, brokerlik xizmatlarini taklif etadilar; hazina, munitsipal va boshqa rasmiy qarzga doir dastaklarni joylashtirish, oldi-sotdisi bilan shug'ullanadilar, investitsiya bobida maslahat xizmatlari ko'rsatadilar.

Tijorat banklaridan farqli o'laroq, ixtisoslashgan kredit muassasalari xo'jalik faoliyatining muayyan sohalari va tarmoqlarini kreditlash bilan shug'ullanadilar.

Investitsiya faoliyati banklar ixtisoslashuvining muhim yo'nalishidir. Investitsiya banklari uzoq muddatli ssuda kapitalini safarbar etib, obligatsiyalar yoki qarzga olingan majburiyatlarning boshqa turlarini chiqarish va joylashtirish yo'li bilan mazkur kapitalni ishlab turgan sub'ektlar davlatga qarzga beradilar. Investitsiya banklarining klassik tipi AQSh ga mosdir. Bu mamlakatning qonunchiligi tijorat banklariga investitsiya faoliyati bilan shug'ullanishni taqiqlab qo'ygan (davlat va munitsipial obligatsiyalar bilan bo'ladigan operatsiyalar bundan mustasno). Hozirgi vaqtda AQSh da qariyb 700 ta investitsiya banki ishlab turibdi.

Moliyaviy kompaniyalar ham moliya-kredit muassasalarining bir turidir. Bu muassasalar ayrim tarmoqlarni kreditlash yoki kreditlarning ayrim turlarini berishga ixtisoslashgan. Bularga iste'mol, investitsiya kreditlari va boshqalarni kiritish mumkin. Bular AQSh, Kanada va Buyuk Britaniyada keng tarqalgan.

Moliyaviy kompaniyalarni 3 turga bo'lish mumkin:

- iste'mol kreditini beruvchilar;
- tijorat krediti tizimiga xizmat qiluvchilar;
- yakka qarz oluvchilarga mayda ssuda beruvchilar.

Iste'mol krediti beruvchi moliyaviy kompaniyalar kreditni bevosita iste'molchilarga bermasdan, balki ularning majburiyatlarini chakana savdogarlar va dillerlardan, odatda 7-10 % li chegirma bilan sotib oladilar. Moliyaviy kompaniyalar undirayotgan stavkalar oddiy bank ssudalari stavkalariga nisbatan yuqoridir.

Tovarlarni kreditga sotishga ixtisoslashgan moliyaviy kompaniyalarning yuridik maqomi ularga aholidan depozitlarni qabul qilib olishga imkoniyat beradi. Lekin xuddi ana shu maqom ularni «bank kompaniyalari» deb atalish huquqidan mahrum etgan. Bu esa ularni banklar ihtiyoridagi xuddi o'sha shartlar asosida mablag'larni jalb etish imkoniyatidan mahrum qiladi va bular banklar bilan raqobatga

kirishishga majbur bo'lib, kreditorlarga yana ham yuqoriroq foiz stavkalarini taklif etadilar.

Moliyaviy kompaniyalar resurslarining asosiy manbai 3 va 6 oylik muddatli depozitlardir. Ular sanoat va savdo firmalari, ayrim moliya muassasalari va ozroq aholi pul mablag'larini yig'adilar va bankdagiga qaraganda yanada yuqoriroq foiz to'laydilar.

Qurilish jamiyatlari deb atalmish kredit, qurilish kooperativlari alohida mavqeni egallaydi. Bular kapitalini o'z a'zolarining jamg'arma omonatlari evaziga shakllantiradilar va shu a'zolarga ipoteka krediti beradilar. Bu muassasalar kredit shirkatlari bilan birgalikda ishlaydilar va shaxsiy uylar qurilishini moliyalashtiradilar.

Kredit muassasalarining boshqa ko'pgina turlari (pensiya fondlari, ishonchli pay fondlari, ixtisoslashgan moliya muassasalari va shu kabilar) banklarning ayrim operatsiyalarini ado etadilar. Lekin ular o'zlarini bank deb atashlariga huquqlari yo'q hamda banklar bilan ham o'zaro raqobat maydoniga tushishga majburdirlar.

Buyuk Britaniya bank tizimi jahondagi eng qadimiy va rivojlangan bank tizimlardan biridir. Ingliz banklarning o'ziga xos xususiyati ularning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etishidadir. Eng yirik valyuta bozori, ko'p sonli banklar Londonda faoliyat ko'rsatadi.

Britaniya bank tizimining tuzilishi ko'p bo'g'inli bo'lib, u quyidagi moliya institutlarini o'z ichiga oladi: Angliya Banki; depozit banklar; savdo (aksept va emission) uylar; chet el banklari; qurilish jamoalari; hisob-kitob va moliya uylari; trast-jamg'arma banklari; Milliy jamg'arma banki; xalqaro bank konsorsiumlari.

Yuqorida keltirilgan bank tashkilotlari klassifikatsiyasi bilan bir qatorda Buyuk Britaniya banklarini boshqacha qilib guruhlashtirish mumkin, ya'ni chakana va ulgurji banklar.

Chakana banklar – tijorat (asosan depozit) banklar bo'lib. ular barcha mijozlarga xizmat ko'rsatadi va bo'limlarning kengroq tarmog'iga ega. Ulgurji banklar esa yirik shartnomalar asosida ish yuritib, odatda, alohida shaxslar bilan emas, balki savdo-sanoat korxonalari va moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qiladi. XX asr 70-

yillarigacha Buyuk Britaniyada bank ochish uchun Markaziy bank yoki boshqa bir nazorat qilib turuvchi tashkilotning alohida ruxsatnomasi shart emas edi. Banklarning tashkil qilinishi va faoliyatini tartiblab turishda barcha sohalar uchun umumiy bo'lgan 1948-yilda qabul qilingan "Kompaniyalar to'g'risida"gi qonun yetarli edi, unga muvofiq yangi tashkil qilinayotgan bank faqatgina ro'yxatga olinishi yetarli hisoblanardi.

Keyinchalik banklar faoliyatining kengayishi bank sohasidagi qonunlarning o'zgarishiga, bank deb ishonchligi katta bo'lgan, ko'p hajmdagi bank xizmatlarini ko'rsatadigan yoki ulardan bittasiga ixtisoslashgan va 5 mln. funt sterlingdan kam bo'lmagan ustav kapitaliga ega bo'lgan kredit tashkilotiga aytiladigan bo'ldi.

Buyuk Britaniya bank tizimining birinchi bo'g'ini Angliya Banki hisoblansa, ikkinchi bo'g'ini tijorat banklari va moliyaviy kompaniyalardan iborat. Angliya Banki Angliyada faoliyat ko'rsatuvchi banklarni 3ta katta guruhga bo'lib ko'rsatadi:

1. Depozit banklar (chakana banklar);
2. Hisob-kitob uylari;
3. Aksept uylar, chet el banklari va boshqa banklar.

Depozit banklar. Angliyaning eng asosiy depozit banklariga kliring banklari ham tegishli bo'lib, bu kliring shartnomasi asosida tuzilgan eng yirik aksioner banklar hisoblanadi. Barcha kliring banklarni Barclays, National Westminster, Midland va Lloydslardan iborat bo'lgan "katta to'rtlik" boshqaradi. Kliring banklarning asosiy vazifasi omonatlarni jalb qilish va kredit berishdan iborat.

Depozit banklarning keyingi guruhi savdo banklari (Merchant Banks) bo'lib, ular bank operatsiyalarini bajaruvchi savdo tashkilotlari asosida vujudga kelgan. Hozirgi paytda ayrim savdo banklari bank operatsiyalari bilan bir qatorda sanoat va savdo-sotik funksiyalarini ham bajarimoqda. Savdo banklar o'zining uzoq vaqt davom etadigan faoliyati bilan ajralib turadi va ba'zilar 100 yillik tarixga ega. Savdo banklarning kliring banklardan ajratuvchi asosiy xususiyati va bir paytning o'zida imtiyozi bu ularning o'z moliyaviy ahvoli va bajaradigan operatsiyalari

to'g'risidagi hisobotini e'lon qilish shart emasligidadir. Bu imtiyoz tu-fayli savdo banklar ko'p yillar davomida mustaqil ravishda taraqqiy etdi.

Savdo banklari asosan uchta sohada faoliyat ko'rsatmoqda:

1. Haqiqiy bank operatsiyalari (aksept-kredit opearsiyalari, funt sterlingdagi zayomlarni qabul qilish va chiqarish, eksportni moliya-lashtirish);

2. Tadbirkorlarga xizmat ko'rsatish (tashkilotlar birlashganda yordam berish, ularni moliyalashtirishning eng qulay imkoniyatlarini topish);

3. Qimmatli qog'ozlarni boshqarish (qimmatli qog'ozlarni saqlash, sanoat va savdo aksionerlik jamiyatlarini, investitsion kompaniyalarni, xususiy fondlarni boshqarish).

Hisob-kitob uylari. Angliya banklarining keyingi turi hisob-kitob uylari bo'lib, hozirgi paytda London shahrida bir nechta yirik hisob uylari va kichik ixtisolashgan makler-firmalar faoliyat ko'rsatadi. Hisob-kitob uylari kafolatlangan muddatsiz depozitlar orqali banklarning likvid fondlari realizatsiyasini amalga oshiradi. Bu fondlar turli xil aktivlarni (shu bilan birga, xazina obligatsiyalarini, tijorat vekselarini) sotib olish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, hisob uylar bu, veksellarning oldi-sotdi bozoridir. Ular Angliya Banki va butun Britaniya bank tizimi orasidagi vositachilik vazifasini bajarib, hisob-kitob uylari orqali Angliya Banki Britaniya bank tizimini moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi. Veksellarning qayta hisobga olish (diksonlash) orqali qarz vositalari bilan ta'minlash hamda portfel investetsiyalari sifatida turli shakldagi qisqa muddatli qo'yilmalarni taklif qilish hisob uylarining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Chet el banklari (Foreign Banks) Angliyadagi yirik bank guruhlarini hisoblanib, Londonda Nyu-York shahriga nisbatan ikki barobar ko'p chet el banklari filiallari joylashgan.

Angliyaning keyingi bank guruhiga konsorsial banklar kirib, bu shunday moliyaviy institutlarki, ularda kamida ikkita davlat qatnashib, ulardan hech biri kontrol paketga ega emas. Mazkur banklar rivojlangan davlatlar kapitali asosida tuzilganligi sababli, ular Evropa bozorida yirik miqdordagi mablag'larni uzoq muddatga jalb qila oladilar. Bundan

tashqari Buyuk Britaniyada banklarga o'xshagan ixtisoslashgan kredit-moliya institutlari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- ◆ jamg'arma institutlari (ishonchli jamqarma banklari, milliy jamg'arma banki, qurilish jamoalari);

- ◆ sug'urta kompaniyalari va nafaqa fondlari;
- ◆ investitsion trestlar;
- ◆ badalli ishonch fondlar;
- ◆ moliyaviy korporatsiyalar;
- ◆ venchurli moliyalashtirish firmalari.

Angliya banklari faoliyatining xususiyatlaridan biri korxonalarni qisqa muddatli kreditlashda **overdraft**ni keng qo'llashidir. Overdraft mijozning joriy hisob raqami bilan bevosita bog'liq bo'lib, mijozga hisob raqamidagi kredit qoldig'i doirasida o'rnatilgan limitlarga asosida chek olish huquqini beradi. Mijozning xarajatlari hisob raqamiga tushadigan mablag'lardan vaqtinchalik ortib ketsa (masalan, korxonada oborot kapitalini moliyalashtirishda), kreditning bu turidan foydalaniladi. Buyuk Britaniyada overdraft muddatlari bir necha oydan tortib, to bir necha yilgacha belgilanishi mumkin, ammo yilda bir marta kreditni to'liq qaytarish talab qilinadi. To'lanmagan qoldiq bo'yicha foiz har kuni hisoblab boriladi. Kreditning bu turi mijoz uchun eng arzon hisoblanadi, chunki bu yerda u faqat ishlatilgan mablag'lar uchun pul to'laydi.

Ssuda hisob raqami **bo'yicha kredit** kreditlashning boshqa an'anaviy turi hisoblanadi. Overdraftdan farqli ravishda mijozga alohida ssuda hisob raqami ochilib, uning debetiga bank tomonidan berilgan kredit summasi, kreditda esa shu mablag'lardan foydalanish aks ettiriladi.

Overdraftning zamonaviy shakli bo'lib, **byudjet hisob raqami** hisoblanadi. Qarz oluvchi hisob raqamiga ma'lum bir summalarni qo'yish majburiyatini olib, bank muntazam ravishda to'lovlarni olib boradi va kerak paytda kredit beradi. Kreditlashning limiti hisob raqamiga qo'yilgan mablag' miqdoriga bog'liq bo'lib, odatda, limit qo'yilgan mablag' miqdoridan 30 marta ko'p bo'ladi.

Uy-joy sotib olish uchun ingliz qarz oluvchilari qurilish jamiyatlari tomonidan 20-25 yil muddatga beriladigan ssudalardan foydalanishadi. Bunday ipoteka ssudalarning hajmi uy-joy qiymatining 100%ini tashkil etishi mumkin.

Ssudalarning qaytarish ikki usulda olib borilishi mumkin:

1. An'anaviy usul (har oy to'lovlarini to'lash yo'li bilan):
2. Foizlarni o'z vaqtida (har oyda) va qarz summasini bir vaqtda to'lash yo'li bilan.

Angliya Banki, boshqa davlatlarning markaziy banklari singari, davlatga xizmat qiladi. **Birinchidan**, u davlat hisob raqamlarini olib boradi, ulardan eng ko'zga ko'rinadigani bu g'azna hisob raqamidir. Evropaning ko'pgina mamlakatlarida (Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya) hisob raqamiga tushadigan mablag'lar hamda xarajatlar g'azna tomonidan olib boriladi, Markaziy bank esa ularni ro'yxatdan o'tkazadi xolos. Buyuk Britaniyada, boshqa davlatlar singari, g'azna o'z hisob raqamlariga ega, ammo ularga tushumlar va xarajatlar Markaziy bank tomonidan ta'minlanadi va olib boriladi. **Ikkinchidan**, Markaziy bank davlat va hukumat organlarini bevosita yoki bilvosita moliyalashtirib turadi.

Buyuk Britaniyada yaqin davrga qadar banklar faoliyatini nazorat qilish to'g'risida qonun mavjud bo'lmagan. Kredit muassasalari ustidan amalga oshirib kelingan nazorat esa norasmiy xarakterga ega edi. Nazorat tadbirlari bankning kerakli darajada kapitalga nisbatan eng kam operativ xavfsizligini, rezerv mablag'lar, likvidlik, buxgalteriya hisobi va boshqaruv xodimlari bilan suhbat o'tkazish orqali amalga oshirildi. Shuningdek, asosiy e'tibor bank kredit portfelining sifati, boshqaruvchining kompetentlik darajasi, bank tomonidan amalga oshirilgan barcha operatsiyalarning qonuniyligi kabilarga qaratiladi. Buyuk Britaniyada kredit institutlari ustidan nazorat boshqa mamlakatlarga nisbatan birmuncha engil holda olib boriladi.

Germaniya bank tizimining xususiyatlari. Germaniya bank tizimi 4 mingdan ortiq mustaqil kredit muassasalar va ularning 45 mingdan ortiq filiallarini o'zida mujassamlashtirgan. Shulardan 1 mingdan ortig'i o'rta va kichik banklar hisoblanadi.

Germaniya bank tizimi dunyoda eng rivojlangan bank tizimlaridan hisoblanib quyidagi tarkibda shakllantirilgan:

- 1) Doyche Bundesbank (Markaziy bank);
- 2) tijorat banklar;
- 3) jamg'arma banklar;
- 4) kooperativ markaziy banklar;
- 5) kredit kooperativlar;
- 6) ixtisoslashgan banklar (davlat va xususiy ipoteka banklari);
- 7) Pochta, kommunal. jamg'arma banklar;
- 8) turli boshqa ixtisoslashgan banklar.

Doyche Bundesbank Germaniyaning Markaziy banki bo'lib 9 ta yerlar markaziy banklari va ularning 200 ta bosh bo'linmalari va filiallariga ega. Nemis Federal banki nazorat funksiyasini bajaradi. uning pul va kredit siyosati bankning Markaziy Kengashi tomonidan belgilab beriladi. Bankning Markaziy Kengashi tarkibiga yerlar markaziy banklari prezidentlari kiradi. Nemis Federal banki Federal qonunchilik bo'yicha o'z faoliyatida mustaqil hisoblanib u federal hukumat tomonidan qo'yilgan topshirishlarni bajarishga o'zini majbur deb hisoblamaydi, u faqat mamlakatning iqtisodiy siyosatini olib borishda hukumatni qo'llab- quvvatlaydi va bu borada hukumat bilan hamkorlik qiladi. Federal bank Markaziy kengashi faoliyatida hukumat ovozga ega emas, lekin u bank Markaziy kengashining ba'zi bir qarorlarining kuchga kirishini 2 haftaga kechiktirish bo'yicha murojaat qilishi yoki talab qilishi mumkin. Mamlakatda cheklar va veksellar bilan o'tkaziladigan naqd pulsiz hisob-kitoblarning asosiy qismi Bundesbank va uning filiallari orqali amalga oshiriladi.

Tijorat banklari , Germaniyada universal banklar bo'lib quyidagi operatsiyalarni bajaradi:

- turli depozitlarni qabul qilish;
- mahalliy, federal hukumat tashkilotlariga, kichik va o'rta biznes sohasiga, yirik korporatsiyalarga qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlar berish;
- moliyaviy va trast xizmatlar ko'rsatish;
- mijozlarga elektron va brokerlik xizmatlari ko'rsatish:

- yo'l cheklari bilan xizmatlar ko'rsatish;
- mijozlarga hisob-kassa xizmatlarini ko'rsatish va boshqalar.

Germaniyada tijorat banklari yirik korporatsiyalarning kapitalida ishtirok qilishi, uning salmoqli qismiga ega bo'lishi, qimmatli qohozlar chiqarishi va ularni joylashtirishi, investitsion fondlar tashkil etishi va ular faoliyatini boshqarishi mumkin. Tijorat banklarini faoliyati turi va ixtisoslashuvidan kelib chiqib:

- yirik xususiy banklarga;
- jamg'arma kassalar va yer banklariga;

koorporativ banklarga bo'lish mumkin. Undan tashqari Germaniyada bu banklar bilan birm qatorda maxsus banklar va kredit muassasalar ham faoliyat ko'rsatadi.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Bank	To'lovlarda vositachilik
Bankning funksiyalari	Bank muassislari
Ssuda	Lombardlar
Kredit munosabatlari	Markaziy bank
Bo'sh pul mablag'lar	Tijorat banki
Jalb qilingan mablag'lar	Maxsus kredit institutlari
Mablag'larning kapitalga aylanishi	Investitsion banklar
Bank ishtiroki	Mikrokredit tashkilotlar
Kredit berish	Nobank tashkilotlar
Kredit olish	Investitsion fondlar
Xorijiy banklar	Aksionerlik banki
Universal banklar	Bank paychilari
	Bank tizimi

O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

- Bankning mohiyatini tushuntiring?
- Banklar qanday funksiyalarni bajaradi?
- Markaziy bankning asosiy bosh maqsadi nima?
- Tijorat banklarining vazifalari va funksiyalarini tushuntirib bering?
- Markaziy bank qaysi funksiyalarni bajaradi?

- Mikrokredit tashkilotlarining mohiyati va zarurligi, funksiyalari?
- O'zbekiston Respublikasi bank tizimi to'g'risida nimalarni bilasiz?
- Bank tizimining qanday xususiyatli tomonlari mavjud?
- Nobank tashkilotlarga qaysi tashkilotlar kiradi va ular nima uchun zarur?
- Banklar qaysi xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi?
- Bank tizimini erkinlashtirish deganda nimani tushunasiz va uni amalga oshirish yo'llarini ko'rsating?
- Pul-kredit siyosatining strategik maqsadlari nimalardan iborat?

II BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TASHKIL QILISHNING HUQUQIY VA IQTISODIY ASOSLARI

1-§. Tijorat banklari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari

Tijorat banklarining yuridik shaxs sifatida faoliyati omonatchilar, kreditorlar, umuman, davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy daxldor bo'lganligi tufayli uning tashkil topishi uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Shu vaqt ichida bo'lg'usi ta'sischi o'rtasida o'zaro munosabatlar o'rnatiladi, bank ustav kapitali uchun zarur bo'lgan mablag'lar tayyorlanadi, rahbar shaxslar zarur hujjatlar tayyorlaydi, tegishli tashkiliy ishlar amalga oshiriladi.

Tijorat banklarini tashkil etish va tugatishning huquqiy asoslari "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida ifodalangan. Shu qonunning 2-bobi "Banklar tashkil etish va ularning faoliyatini tugatish tartibi" deb nomlanib, u o'z ichiga 13 modda (7-19 moddalar)ni oladi.

Tijorat banklari respublika hududida o'z faoliyatlarini Markaziy bank tomonidan beriladigan **litsenziya asosida** amalga oshiradilar.

Banklarga litsenziya berish O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida", "Aksionerlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar va boshqa qator qonunlar hamda banklar faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi.

Tijorat banklari faoliyatiga ruxsat berish 1999-yil 11-fevralda qabul qilingan va 2015-yil 14-yanvarda oxirgi o'zgarishlar kiritilgan "Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi nizom asosida olib boriladi.

Ushbu nizomda O'zbekiston Respublikasi hududida banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi hamda shartlari belgilab qo'yilgan bo'lib, qonunchilikka muvofiq tijorat banklari ochiq yoki yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlari shaklida tashkil etilishi mumkin.

Bankni tashkil etish jarayoni quyidagi bir necha bosqichlarga bo'linadi:

1. Tayyorgarlik bosqichi

Bu davrda bank muassislari o'rtasida bank tashkil etishga kelishiladi, tashabbus guruhi tuziladi, har bir muassisning ustav kapitaliga qo'shilgan ulush miqdori belgilab olinadi. bankning ta'sis hujjatlari majmuyi tayyorlanadi, bankning nomi aniqlanadi. ta'sischi o'rtasidagi kelishuvlar dastlabki shartnoma tarzida rasmiylashtiriladi, uning asosida ta'sis shartnomasi tuziladi. Aksiyadorlik tijorat banklarining muassislari bank davlat ro'yxatiga olinganiga qadar yuzaga kelgan majburiyatlar yuzasidan birgalikda javobgar bo'ladilar (FKning 43-moddasi, O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari haqida»gi qonunning 3-moddasi).

“Banklar va bank faoliyati to'risida”gi qonunga asosan banklar, qoida tariqasida, mulkchilikning har qanday shakli asosida aksiyadorlik jamiyati tarzida tashkil etiladi.

Yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar bank muassislari bo'lishi mumkin.

Har bir aksiyadorning ustav kapitalidagi ishtirokining eng ko'p ulushi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Bank muassislari bank aksiyadorlari tarkibidan u ro'yxatga olingan kundan boshlab bir yil mobaynida chiqib ketish huquqiga ega emaslar.

2. Bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish bosqichi

Bu bosqichda bank ochish haqidagi ariza bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga murojaat qilinadi. Bunda arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

- yangi tashkil etilayotgan bankni ta'sis etish bo'yicha hujjat;
- muassislar tomonidan imzolangan va ularning muhrlari bilan hamda notarial tartibda tasdiqlangan ta'sis shartnomasi. Ta'sis etuvchilar jismoniy shaxs bo'lganlarida ularning imzolari notarial tasdiqlanadi;
- aksiyadorlar yig'ilishida tasdiqlangan va muassislar tomonidan imzolangan bank ustavi (uch nusxada);
- bank tashkil etish haqidagi qaror, ustav kapitalining miqdori va ustavni tasdiqlash, bank kengashi, taftish komissiyasi va boshqaruvini saylash haqidagi qarorlarni o'z ichiga olgan bank kengashi raisi tomondan tasdiqlangan ta'sis yig'ilishining bayonnomasi.

Qayd etib o'tilgan hujjatlarning loyihalari Markaziy bankning banklarni litsenziyalash departamenti tomondan ko'rib chiqiladi va mazkur departament hujjatlarni ma'qullaganidan keyingina ular imzolani va tasdiqlanadi.

Bulardan tashqari, Markaziy bankka: bank kengashi aʼzolari roʻyxati ularning Markaziy bank talablariga muvofiq kelishlarini tasdiqlovchi maʼlumotlar, yangi tashkil etilayotgan bankning tashkiliy tuzilishi, ichki audit toʻgʻrisidagi nizomi, kredit siyosati toʻgʻrisidagi nizomi, biznes rejasi, ariza topshiruvchining muassislar nomidan ariza topshirish vakolatini tasdiqlovchi hujjat, tashkil etilayotgan joydagi Markaziy bank bosh boshqarmasining bank tashkil etishning maqsadga muvofiqligi haqidagi xulosasi, muayyan hududida bank tashkil etish moʻljallanayotganligi haqida mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlariga berilgan bildirishnomaning nusxasi ham topshirilishi lozim.

Bank ustavida bankning toʻliq va qisqartirilgan nomi hamda uning joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili, bank operatsiyalarining roʻyxati, maqsadi va faoliyat muddati, ustav kapitalining miqdori, muassislar roʻyxati, ustav kapitalidagi ulushlarning taqsimlanishi, ustav kapitalini koʻpaytirish yoki kamaytirish tartibi, chiqarilayotgan aksiyalar turlari va soni, ularning nominal qiymati, har xil turdagi aksiyalarning nisbati, sof foyda va dividendlarni taqsimlash hamda zararlarini qoplash tartibi, zaxira fondini va boshqa fondlarni tashkil etish tartibi, bank aksiyadorlarining huquq va majburiyatlari, bankning boshqaruv organlari tuzilmasi, ularni tashkil etish tartibi, bank kengashi, taftish komissiyasi va ijroiya organi aʼzolarining soni, vakolatlari hamda vazifalari haqidagi maʼlumotlar, yillik hisobotlarni tuzish, tekshirish va tasdiqlash tartibi, bank auditori, shu jumladan, buxgalteriya hisobining xalqaro andozalariga muvofiq belgilangan hisobotlar va auditorlik dasturlarining maqsadlari, bankni qayta tashkil etish va tugatish tartibi, bank tomonidan aksiyalarni joylashtirish tartibi, shartlari va boshqa maʼlumotlar boʻlishi lozim.

Tijorat bankining joylarda filialini tashkil etish paytida ham ushbu hujjatlar (taʼsis hujjatlaridan tashqari) taqdim etilishi zarur boʻladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi tijorat banki tashkil etilayotganda yuqorida koʻrsatib oʻtilgan hujjatlarga qoʻshimcha ravishda yana quyidagilar taqdim etilishi talab etiladi:

- tegishli xorijiy muassisning bank tashkil etilishida ishtirok qilishi haqidagi qarori;

- norezident bankning Oʻzbekiston Respublikasining chet eldagi konsullik muassasasi tomonidan tasdiqlangan ustavi;

- bank joylashgan mamlakat bank nazorat organi tomonidan muassis bank faoliyatini yuritish uchun litsenziyaga egaligi va xususan,

qaytarib berish sharti bilan o'z mamlakatida pul depozitlari va boshqa boyliklarni qabul qilish huquqiga egaligini tasdiqlovchi xat;

- bank nazorati organining muassis bankning o'zi joylashgan va ro'yxatdan o'tkazilgan joyda nazorat ostida ekanligi haqidagi yozma tasdiqnoma;

- muassis bankning oxirgi uch moliya yili uchun tuzilgan, auditorlik firmasi tasdiqlagan yillik hisobotlari, shu jumladan, foyda va zararlar haqidagi konsolidatsiyalangan balansi va hisoboti;

- bank nazorati organi muassis bank tashkil etayotgan bankning ustav kapitalida ishtirok etishi uchun bergan yozma ruxsatnomasi yoki bunday ruxsatnoma muassis bank mansub bo'lgan davlatning qonun hujjatlariga muvofiq talab etilmasligining yozma tasdig'i.

Faoliyat yuritib turgan banklar ustav kapitalidagi hissa xorijiy shaxslar tomonidan sotib olinayotganda ham ushbu hujjat xorijiy shaxs tomonidan Markaziy bankka taqdim etilishi lozim bo'ladi.

Bulardan tashqari, xorijiy muassislari O'zbekiston Respublikasida yangi tashkil etilayotgan yoki faoliyat yuritayotgan banklarning ustav kapitalida ishtirok etgan taqdirda:

- xorijiy norezidentning to'lovga qobiliyatligi to'g'risida unga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan berilgan tasdiqnoma;

- O'zbekiston Respublikasi hududida bank tashkil etilishida ishtirok etish uchun mazkur mamlakat nazorat organining roziligi;

- muassis mansub mamlakatning savdo reyestridan ko'chirma yoki yuridik maqomini tasdiqlovchi boshqa muqobil hujjat.

Xorijiy kapital ishtirokidagi banklarda bank kengashining kamida bitta a'zosi O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank tashkil etish uchun zarur bo'lgan barcha zarur hujjatlarni talab qilishga haqli bo'ladi. Taqdim etilgan hujjatlar Markaziy bank tomonidan ikki oy muddat ichida ko'rib chiqilishi kerak.

Markaziy bank bank faoliyati bilan shug'ullanishi uchun dastlabki ruxsatnoma berish masalasini hal etish jarayonida tashkil etilayotgan bank muassislarning moliyaviy imkoniyatlari va nufuziga, bank rahbarligiga taklif etilayotgan shaxslarning kasbiy mahoratiga, biznes va moliyaviy reja ko'rsatkichlariga, tashkil etilayotgan bankning binolar va uskunalari bilan ta'minlanganlik darajasiga ham e'tibor qaratadi.

Bank ochilgunga qadar lokal, elektron tarmoq bilan ta'minlangan bo'lishi, dasturiy ta'minotning tarmoq variantining Markaziy bank tomonidan litsenziyalanishi, bank hisob-kitoblar markazi bilan barqaror

ishlaydigan alohida aloqa kanali bilan ta'minlanishi, kompyuterlarga, modemlarga, dasturiy ta'minot va texnikani ishlatish bo'yicha ta'lim olgan mutaxassislarga ega bo'lishi shart.

Banklar va ularning filiallari binolarining muhofazasi ta'minlanganligi hamda muhandis-texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlanganligi, dasturiy mahsulotlarning tayyorligi yuzasidan xulosa berish Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-martdagi 56-son qarori bilan tasdiqlangan binoning Markaziy bank talablariga muvofiqligi, asbob-uskunalar, kassa uzelinig tayyorligi va dasturiy-texnik vositalar bilan jihozlanganligi to'g'risida xulosa berish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

«Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 49-moddasiga asosan, yuridik yoki jismoniy shaxs yoxud o'zaro kelishuv bilan bog'langan yoki bir-birining mol-mulkini nazorat qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar guruhi tomonidan bir yoki bir necha bitim natijasida bank aksiyalarining 5 foizdan ortig'ini olish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xabardor qilinishini, 20 foizdan ortig'ini olish esa oldindan uning roziligini olishni talab qiladi.

Ovoz beruvchi aksiyalarning egasi bo'lgan aksiyadorlar soni o'ttiz kishidan kam bo'lgan aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan banklarda kuzatuv kengashi vazifasi bank ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi zimmasiga yuklanishi mumkin.

Aksiyadorlari soni 500 tagacha bo'lgan aksiyadorlik jamiyati shaklidagi banklarning kengashi tarkibi kamida besh a'zodan, aksiyadorlari soni 501 tadan 1000 tagacha bo'lgan banklarda kamida yetti a'zodan va aksiyadorlari soni 1000 tadan ortiq bo'lgan banklarda kamida to'qqiz a'zodan iborat bo'lishi lozim.

Tijorat banki aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilayotgan muassislardan biri yoki o'zaro bog'liq bo'lgan shaxslar tomonidan bank aksiyalarining 5 foizdan ortig'ini sotib olayotgani haqidagi xabar, agar bank aksiyalarining 20 foizidan ortig'i sotib olinayotganida esa bunga rozilik berishni so'rovchi iltimosnoma taqdim etilayotgan hujjatlar.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda bank operatsiyalarini amalga oshirishga litsenziya olish uchun muassislar oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- litsenziya berish va bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida vakolatlari muassislar tomonidan yozma ravishda tasdiqlangan vakil shaxs tomonidan imzolangan arizani taqdim etilishi;

- davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziya olish uchun berilgan barcha talablarni bajarish;

- barcha tashkiliy-texnikaviy tadbirlarni amalga oshirishlari, binolar va uskunalarni tayyorlashlari, bank operatsiyalarini avtomatik amalga oshirish maqsadida dasturiy-texnikaviy vositalarni tayyorlashlari, kassa uzelini Markaziy bank talablariga muvofiq tayyor holga keltirishlari;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan eng kam miqdordan kam bo'lmagan miqdorda ustav kapitalini to'lashlari va ustav kapitali to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishlari;

- bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun bank ustav kapitali eng kam miqdorining 0,1 foizi miqdorida, filiallar ro'yxatga olinayotganida esa ushbu mablag'ning yarmi miqdorida haq to'lanishi, ustav kapitalining 30 foizidan ortig'i xorijiy shaxslarga tegishli bo'lgan banklar va shu'ba banklarini ro'yxatdan o'tkazishda 5000 AQSh dollariga teng summada haq to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining tijorat banklari o'z ustav kapitalarini norezident hisobidan ko'paytirishlari yoki aksiyadorlar tomonidan aksiyalarning norezidentlarga sotilishi uchun belgilangan tartibda Markaziy bankning oldindan roziligini olishlari shart. Ushbu talabga rioya etilmay tuzilgan banklar haqiqiy emas deb topiladi va bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya bekor qilinadi.

Bankni ro'yxatdan o'tkazish va bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziya berish masalasi Markaziy bank talab qilgan barcha hujjatlar to'liq taqdim etilgan va tegishli talablar bajarilgandan keyin bir oy ichida hal etilishi kerak. Banklar Markaziy bankda ro'yxatga olingan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladilar.

Litsenziya berishdan oldin Markaziy bank arizachilarga bank tashkil etish sohasidagi faoliyatlarini davom ettirish imkonini beradigan dastlabki ruxsatnomani beradi.

Dastlabki ruxsatnomani berish to'g'risidagi qaror ariza va u bilan birga barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab ko'pi bilan uch oy ichida qabul qilinadi va muassislarning moliyaviy imkoniyatlarini hamda obro'sini, bank rahbarligiga taklif etilayotganlarning kasb malakalarini, biznes-rejani, moliyaviy rejani, kapitalning tuzilishini, tegishli bank binolari va uskunalar bilan ta'minlash imkoniyatlarini baholashga asoslanadi. Muassislar bank

tashkil etish uchun dastlabki ruxsatnomani olganlaridan keyin litsenziya olish hamda bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-texnikaviy talablarni bajaradilar. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan dastlabki ruxsatnoma bir yil davomida yuridik kuchga ega bo'lib, muassislar ushbu vaqt ichida barcha tashkiliy-tayyorgarlik ishlarini amalga oshirishlari va bankni davlat ro'yxatidan o'tkazishni yakunlashlari lozim.

Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish uchun muassislar dastlabki ruxsatnoma olingan kundan boshlab uzog'i bilan olti oy muddatda qonun hujjatlarida belgilangan talablarni bajarishlari lozim.

Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish haqidagi qaror Markaziy bank talablari bajarilgan kundan ko'pi bilan bir oylik muddatda chiqariladi.

Bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziya berish yuzasidan qaror qabul qilishda bank biznes rejasining maqbulligiga, bank kapitalining adekvatligiga, daromadlikning kelgusidagi istiqbollariga, ko'zda tutilayotgan rahbarning malakasi va obro'-e'tiboriga, bankni ochish uchun taqdim etilgan hujjatlarning amaldagi qonunchilikka muvofiqligiga e'tibor beriladi.

Tijorat banki O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida davlat ro'yxatidan o'tgandagina tashkil etilgan deb hisoblanadi va yuridik shaxs statusini oladi.

Banklar tomonidan chet elda o'z filiallari, vakolatxonalari va shu'ba banklarini ochish hamda banklarni tashkil etishda qatnashish uchun Markaziy bankning ruxsatnomasini olish Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-martdagi 56-son qarori bilan tasdiqlangan «Bank faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risida»gi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Bank ustavida bank faoliyatini amalga oshirish yo'nalishlari ko'rsatiladi. Har qanday yuridik va jismoniy shaxslar bank muassislari sifatida ishtirok eta oladilar. Har bir aksiyadorning ustav kapitalidagi ulushi "Banklarni ro'yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi to'g'risida"gi nizomda ko'rsatilishicha 2000-yilning 1-yanvaridan boshlab ustav kapitali umumiy miqdorining 20 foiz, 2001-yilning 1-yanvaridan boshlab 13 foiz, 2002 yilning 1 yanvaridan boshlab 7 foizdan oshmasligi belgilangan.

Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi, bank kengashi, bankning ijroiya organi, ya'ni bank boshqaruvi bankning boshqaruv organi hisoblanadi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bankning yuqori boshqaruv organi hisoblanadi. Bank aksiyalariga ega bo'lgan va bank aksiyadorlari reyestiriga kiritilgan yuridik va jismoniy shaxslar bankning aksiyadorlari hisoblanadi.

Bankning aksiyadorlari bank aksiyadorlarining reyestriga kiritilishi, depozitlaridagi depo hisob varag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish, bank foydasidan dividend olish, bank tugatilgan taqdirda o'ziga tegishli ulush olish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida va ovoz berish orqali bank boshqaruvida ishtirok etish, bankning moliya xo'jalik faoliyati to'g'risida axborot olish, o'ziga yetkazilgan zararining qoplashini talab qilish, o'ziga tegishli bo'lgan aksiyalarni boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga sotish yo'li bilan aksiyadorlar tarkibidan chiqish va boshqa huquqlarga ega.

Odatda, har moliya yili tugagandan keyin olti oydan kechiktirmasdan bank aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi lozim. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiini o'tkazish tartibi, vaqti, joyi aksiyadorlarga beriladigan materiallar bank kengashi tomonidan belgilanadi va aksiyadorlarga yig'ilish to'g'risida xabar beriladi.

Bank ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki bankning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash, bankni qayta tashkil etish, bankni tugatish, tugatuv komissiyasini tayinlash, oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash, bank kengashi va aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va vakolatlarini muddatidan oldin tugatish, e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash, bankning ustav kapitalini kamaytirish yoki ko'paytirish, bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, Bank kengashi tomonidan tayinlangan bank boshqaruv raisini tasdiqlash aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining vakolatlariga kiradi.

Shuningdek, bankning taftish komissiyasi bilan bog'liq masalalarni muvofiqlashtirish va uning xulosasini eshitish, yillik hisobotini tasdiqlash, foyda va zararni taqsimlash, aksiyalar, aksiyadorlar bilan bog'liq boshqa masalalarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish huquqiga ega.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi vakolatidagi masalalar bank kengashi va bank boshqaruvi tomonidan hal qilinishi mumkin emas.

Agar ovoz berish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning 50%dan ko'prog'i ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi

vakolatli (kvorunga ega) bo'ladi. Agar kvorum bo'lmasa, aksiyadorlarning takroriy yig'ilishini o'tkazish sanasi belgilanadi.

Bank kengashi – bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi (aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatidagi masalalar bundan mustasno).

Kengash o'z faoliyatini amalga oshirish uchun bank boshqaruviga malakali kadrlarni jalb qilish kengash a'zolarini tayinlash va yollash, boshqaruv bilan maslahatlashgan holda, bankning uzoq va qisqa muddatli faoliyati biznes-rejasini o'rganish, bank faoliyati strategiyasi, xavfsizligi, operatsion siyosatini qabul qilish, bank nazorati va siyosatiga asosan bank operatsiyalarining qonunchilikka mosligini nazorat qilish, bankning tezkor faoliyatini kuzatib borish huquqiga ega.

Bank kengashi a'zolari aksiyadorlar umumiy yig'ilishida bir yilga saylanadi va qayta saylanishi mumkin. Bank boshqaruv a'zolari va boshqaruv raisi bank kengashiga saylanishi mumkin emas. Bank kengashi bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga oid masalalarni tayyorlash va tashkil etish, bankning yillik biznes-rejasini tayinlash, ichki audit xizmatini tashkil etish, qimmatli qog'ozlar, bank aksiya obligatsiyalarini sotish, sotib olish, ularning hosilalarini chiqarish va boshqa qator vazifalarni amalga oshiradi.

Bank boshqaruv – bank ijroiya organi hisoblanib, bankning kundalik faoliyati uchun javobgar hisoblanadi va uni amalga oshiradi. Bank boshqaruv odatda 7 kishidan yoki toq sondagi a'zolardan iborat bo'ladi. Bank organini tuzish yoki uni tugatish bank kengashi qarori asosida amalga oshiriladi. Bank boshqaruv aksiyadorlar, umumiy yig'ilishining va bank kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi. Buning uchun bank boshqaruv raisi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishilgan holda bank kengashi qarori bilan lavozimga tavsiya etiladi va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida tasdiqlanadi. Boshqaruv raisi bankning joriy faoliyatiga rahbarlik qiladi va unga javobgar hisoblanadi.

Bankning ustav kapitali bank muassislari va aksiyadorlari to'lagan pul mablag'laridan tashkil topadi. Alohida hollarda qonun hujjatlariga muvofiq bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun byudjet mablag'laridan foydalanilishi mumkin. Banklar ustav kapitalining eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Eng kam ustav kapitali bank muassislari tomonidan uni ro'yxatga olish paytigacha to'lanishi kerak. Ustav kapitali uchun to'lanadigan

mablag'lar O'zbekiston Respublikasining Markaziy bankida yoki boshqa banklarida ochilgan jamg'arish hisob varag'iga o'tkaziladi. Ko'rsatilgan mablag'lardan depozit sifatida foydalanish mumkin.

“Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida”gi nizomga muvofiq yangidan tashkil etiladigan bank ustav kapitalining minimal miqdori 2011-yil 1-yanvardan boshlab:

- banklar uchun – 10 mln yevro ekvivalentida;

- xususiy, tijorat banklari uchun 5 mln yevro ekvivalentidagi mablag' miqdorida bo'lishi belgilab qo'yilgan.

4-jadval

Yangi tashkil etiladigan banklar ustav kapitalining minimal miqdoriga bo'lgan talablar

	Aholisi 0,5 mln kishidan ko'p bo'lgan shaharlarda ochilayotgan tijorat banklari uchun	Aholisi 0,5 mln kishidan kam bo'lgan shaharlarda ochilayotgan tijorat banklari uchun	Chet el kapitali ishtirokida ochilayotgan banklar uchun	Xususiy banklar uchun
1998-yil 1-yanvaridan	1,5 mln AQSh dollari ekvivalentida	0,75 mln AQSh dollari ekvivalentida	5 mln AQSh dollari ekvivalentida	0,3 mln AQSh dollari ekvivalentida
1999-yil 1-yanvaridan	2,0 mln AQSh dollari ekvivalentida	1,0 mln AQSh dollari ekvivalentida	5 mln AQSh dollari ekvivalentida	0,3 mln AQSh dollari ekvivalentida
2000-yil 1-yanvaridan	2,5 mln AQSh dollari ekvivalentida	1,25 mln AQSh dollari ekvivalentida	5 mln AQSh dollari ekvivalentida	0,3 mln AQSh dollari ekvivalentida
2002-yil 1-yanvaridan	2,5 mln AQSh dollari ekvivalentida	1,25 mln AQSh dollari ekvivalentida	5 mln AQSh dollari ekvivalentida	1,25 mln AQSh dollari ekvivalentida
2006-yil 1-yanvaridan	4 mln AQSh dollari ekvivalentida		5 mln AQSh dollari ekvivalentida	2,0 mln AQSh dollari ekvivalentida
2007-yil 1-yanvaridan	5 mln AQSh dollari ekvivalentida		5 mln AQSh dollari ekvivalentida	2,5 mln AQSh dollari ekvivalentida
2008-yil 1-yanvaridan	5 mln yevro ekvivalentida		5 mln yevro ekvivalentida	2,5 mln yevro ekvivalentida
2011-yil 1-yanvaridan	10 mln yevro ekvivalentida		5 mln yevro ekvivalentida	5 mln yevro ekvivalentida

Yangi tashkil etilayotgan banklar uchun ustav kapitalining eng kam miqdorining hisob-kitobi Markaziy bank tomonidan valyuta operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi, statistika va boshqa hisobotlarni yuritish uchun e'lon qilingan yevro kursining muassislar

tomonidan bank tashkil etish to'g'risidagi qaror qabul qilingan (ta'sis yig'ilishi o'tkazilgan) kundagi kursidan kelib chiqqan holda milliy valyutada amalga oshiriladi.

Buni quyidagi jadvalda ko'ramiz:

Respublikamizda tijorat banklari ustav kapitalining bosqichma-bosqich oshirilib borishi ijobiy holat. Chunki ustav kapitali yuqorida ta'kidlangandek, bank kapitalining eng yuqori barqaror manbayi hisoblanadi.

Markaziy bank chet el kapitali ishtirokidagi banklar oldiga qo'shimcha talablar qo'yishi, shu jumladan, chet davlatlar banklaridan ular o'zlari joylashgan va ro'yxatga olingan yerdagi tekshiruv organi nazorati ostida ekanliklarining tasdiqnomasini talab qilish huquqiga ega.

Chet el banklariga litsenziyalar, basharti, chet davlat banki o'z mamlakatida qaytarib berish sharti bilan pul depozitlari va boshqa boylıklarni qabul qilish huquqiga ega bo'lsagina beriladi.

Markaziy bank quyidagilarga asoslanib, bankni ro'yxatga olishni va unga litsenziya berishni rad etishi mumkin:

– bankni ro'yxatga olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar topshirilmaganligi;

– ta'sis hujjatlarining qonun hujjatlariga nomuvofiqligi;

– bir yoki bir necha muassisning moliyaviy ahvoli qoniqarsizligi;

– muassislar moliyaviy mablag'larining manbalari e'lon qilinmaganligi;

– bankni ro'yxatga olish paytigacha eng kam ustav kapitalining to'lanmaganligi;

– bank rahbari va bosh buxgalteri lavozimlariga nomzodlarning bu kasbga nomuvofiqligi. Bugungi kunda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari davlat aksiyadorlik, tijorat, xususiy va chet el kapitali ishtirokidagi banklarga bo'linadi

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2013-yil 12-oktyabrdagi 18-l sonli qaroriga asosan "Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi nizomga kiritilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar bo'yicha **xususiy bank** – ustav kapitalida muassislar (aksiyadorlar) bo'lgan jismoniy shaxslarning ulushi kamida ellik foizni tashkil etishi lozim bo'lgan bankdir. Bank o'z ustav kapitalini qonun hujjatlariga muvofiq shakllantira olmasligi sababli, o'z maqomini xususiy bankka o'zgartirishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bankni ro'yxatga olishni va unga litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qaror ariza beruvchiga rad etish sabablari ko'rsatilgan holda yozma shaklda yuboriladi.

Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish to'g'risidagi arizani takroran ko'rib chiqish ariza qabul qilingan kundan e'tiboran o'n besh kundan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

Markaziy bank talablarining bajarilmasligi, ta'xis hujjatlarining mavjud qonun talablariga muvofiq emasligi, bir yoki bir necha muassisning moliyaviy ahvoli qoniqarsiz ekanligi, muassis jinoiy shaxs bo'lganida o'z mablag'larining manbayi haqidagi ma'lumot bermaganligi, biznes reja va moliyaviy reja puxta tuzilmaganligi, bankni ro'yxatdan o'tkazish paytida eng kam ustav kapitalining shakllantirilmaganligi, bank rahbar xodimlari va bosh buxgalterning o'z kasbiga noloyiqligi, tashkiliy-texnikaviy tadbirlarning bajarilmasligi, Markaziy bank tomonidan bank tashkil qilish uchun berilgan dastlabki ruxsatnomaning amal qilish muddati tugaganligi litsenziya berish va bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi arizaning rad etilishiga asos bo'ladi.

Bank ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin o'n kunlik muddat ichida moliya-soliq organiga zarur hujjatlarni taqdim qilish zarur.

Bank ustaviga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish uchun bank aksiyadorlar yig'ilishi yoki muassislarning qaroriga muvofiq belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga murojaat qilinadi va quyidagi hujjatlar:

- ustavga o'zgarishlar kiritish haqida bank kengashi raisi imzolagan iltimosnoma;

- bank aksiyadorlarining ustaviga o'zgarish va qo'shimcha kiritish haqidagi majlisi bayoni (3 nusxada);

- bank kengashi raisi imzolagan ustaviga kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalar ro'yxati (3 nusxada) taqdim etiladi.

O'zgarishlar va qo'shimchalar Markaziy bankda ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi FKning 49-moddasiga ko'ra, bank muassasasini qayta tashkil etish (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish), uning muassislari yoki ta'xis hujjatlarida shunga vakil qilingan yuridik shaxs organi qaroriga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Bankni qayta tashkil etish aksiyadorlar umumiy yig'ilish qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ruxsati bilan amalga oshiriladi. Bu holda quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

- bank kengashi raisi tomonidan imzolangan iltimosnoma;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bankni qayta tashkil etish to'g'risidagi qarori;

- bankni qayta tashkil etishning taxminiy shartlari, shakllari, tartib va muddatlarini aks ettiradigan hujjatlar;

- qayta tashkil etishning natijalari haqidagi moliyaviy taxminlar, shu jumladan, bankning u qayta tashkil etilganidan keyin hisob-kitob balansi va bankni qayta tashkil etish natijasida vujudga keladigan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar.

Mazkur hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ikki oy davomida ko'rib chiqiladi.

Bank faoliyatini to'xtatish va banklarni tugatish "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunda hamda Markaziy bankning 240-sonli "Banklarni tugatish tartibi to'g'risida"gi nizom talablari asosida amalga oshiriladi. Aksiyadorlar yig'ilishining qaroriga ko'ra Markaziy bank litsenziyani qaytarib olganda, bankrot deb e'lon qilinganda o'z faoliyatini to'xtatadi. Bu holda bank Markaziy bank tomonidan banklarni Davlat ro'yxatiga olish daftaridan chiqariladi. Uning faoliyati to'xtatilganligi to'g'risida matbuotda e'lon beriladi.

Litsenziyaning bekor qilinishi tijorat banki tomonidan yo'l qo'yilgan qonun buzilishi holatiga nisbatan qo'llaniladigan qattiq huquqiy sanksiya bo'lib, qonun buzilish holatiga Markaziy bankning bildirilgan munosabati va bankning faoliyatini to'xtatish uchun asos hisoblanadi.

Litsenziya bekor qilingandan keyin bank mavjud bo'lib turadi, ammo bank operatsiyalarini amalga oshira olmaydi.

Litsenziyani bekor qilish Markaziy bank boshqaruvi tomonidan qo'llanadigan og'ir jazo chorasi hisoblanganligi sababli, boshqa jazo choralari natija bermagan quyidagi hollardagina qo'llaniladi:

- bank to'lov qobiliyatini yo'qotib, passivlari aktivlaridan ortib ketganida;

- litsenziya berilishga asos bo'lgan ma'lumotlarning haqiqiy emasligi aniqlanganda;

- bank o'z kreditorlari va omonatchilari oldidagi majburiyatlarini o'tashga qobiliyatsiz bo'lib qolganda;

- hisobot ma'lumotlari muntazam ravishda buzib ko'rsatilganda;

- bank operatsiyalarini qonunchilikka va litsenziya shartlariga xilof tarzda amalga oshirilganida;
- litsenziya berilganidan keyin bir yildan ortiq vaqt davomida bank operatsiyalarini amalga oshirishga kirishmasligi oqibatida;
- O'zbekiston Respublikasida shu'ba bank ochgan xorijiy bank litsenziyasining o'z mamlakati tomonidan bekor qilinganida.

Litsenziyaning bekor qilinishi tijorat bankining sudga murojaat qilmasdan majburiy suratda tugatilishi uchun asos bo'ladi. Buni Markaziy bank tomonidan tayinlangan tugatish komissiyasi amalga oshiradi.

Bank quyidagi hollarda o'z faoliyatini to'xtatadi:
aksiyadorlar yig'ilishining qaroriga ko'ra;
Markaziy bank litsenziyani chaqirib olganida;
bankrot deb e'lon qilinganida.

O'z faoliyatini to'xtatgan bank Markaziy bank tomonidan banklarni davlat ro'yxatiga olish daftaridan chiqariladi va bu haqidagi xabar matbuotda e'lon qilinadi.

2-§. Banklar faoliyatini tugatishning huquqiy asoslari

Bankni tugatish uning huquq va majburiyatlarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga o'tkazmasdan bank faoliyatini to'xtatishdan iborat. Bankni tugatishda bank aksionerlarining umumiy yig'ilishida Markaziy bank bilan kelishgan holda **tugatuv komissiyasi** yoki tugatuvchi tayinlanadi. Tugatuv komissiyasi tarkibiga Markaziy bank va uning hududlardagi boshqarmalar mutaxassisleri kiritilishi mumkin. Tugatish jarayonlarining asosiy maqsadi bank kreditorlari va omonotchilarining barcha talablarini tezroq qondirishga qaratilgan.

Quyidagilar **bankni tugatishga asos** bo'lishi mumkin:

- a) Markaziy bank tomonidan bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya olinganda;
- b) bankni ixtiyoriy tugatish bo'yicha aksionerlar yoki muassislar umumiy yig'ilishining qarori qabul qilinganda bankni tugatish masalasi ko'rib chiqilishi mumkin.

Markaziy bank boshqaruvi tomonidan litsenziyani chaqirib olish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab bankni tugatish jarayoni boshlangan hisoblanadi, bank operatsiyalarini va xorijiy valyutada operatsiyalarni amalga oshirish jarayoni to'xtatiladi hamda banklarni ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha Davlat kitobiga bank tugatish jarayonida

ekanligi to'g'risida yozuv qilinadi. Tugatuvchi qonunda belgilangan tartibda bankni tugatish jarayonlari bo'yicha o'zining rejasiga ega bo'lishi lozim. Mazkur rejada tugatuvchining amalga oshiradigan chora-tadbirlari, tugatuvchi va jalb qilinadigan ekspertlar va mutaxassislarga ish haqi to'lash bilan bog'liq jarayonlar o'z ifodasini topishi lozim. Tugatish bilan bog'liq barcha xarajatlar bank mablag'lari hisobidan qoplanadi. Tugatish bilan bog'liq xarajatlarni Markaziy bank mablag'lari hisobidan qoplashga yo'l qo'yilmaydi.

Litsenziya chaqirib olingan kundan boshlab ikki oy davomida tugatuvchi debitor qarzdorlik va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxiralar fondida zaxirada turgan bank mablag'larini undirib olish va ularni, birinchi navbatda, tugatilayotgan bank omonotchilarining omonotlarini qaytarishga yo'naltiradi.

Tijorat bankining moliyaviy holati qoniqarli bo'lib, u o'z kreditorlari va omonotchilari oldida majburiyatlarini bajara olish imkoniyatiga ega bo'lgan holda Markaziy bankning ruxsati bilan bank aksionerlarining umumiy yig'ilishi bank ixtiyoriy tugatish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalari, veb-saytlarda e'lon qilinishi lozim.

Bankni tugatish jarayoni **ikki xil** bo'lishi mumkin: **ixtiyoriy tugatish** yoki **majburiy tugatish**.

Bankni ixtiyoriy tugatish kreditorlar va omonotchilar oldida majburiyatlar bajarilishini ta'minlash imkoniga ega bo'lgan bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

Majburiy tugatish Markaziy bankning bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasini olish to'g'risidagi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Markaziy bank quyidagi hollarda:

- a) bankning passivlari aktivlaridan oshib ketganda va bank to'lovga layoqatsiz holga kelganda;
- b) litsenziya berish haqiqiy bo'lmagan ma'lumotlarga asoslangan bo'lsa;
- d) bank o'z omonotchilari va boshqa kreditorlari oldida o'z majburiyatlarini bajara olmay qolganda;
- e) hisobotlarda doimiy ravishda xatolarga yo'l qo'yilganda;
- f) bank faoliyati va operatsiyalarini amalga oshirishda qonun talablari buzilganda;

g) bank kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti Markaziy bank tomonidan o'ratilgan iqtisodiy me'yorning 75 foizidan kam bo'lsa;

h) bank oxirgi uch chorakning har oyi davomida regulyativ kapitalning 10 foizidan ortiq yoki davriga qaramasdan regulyativ kapitalning 50 foizidan ortiq zararga ega bo'lsa va boshqa hollarda bank kreditorlari va omonotchilarining talablarini qondira olmaydigan holatga tushganda, Markaziy bank tomonidan litsenziyani olish va bankni majburiy tugatish to'g'risida qaror qabul qilinganda bank majburiy tugatiladi. Banklarni tugatish to'g'risidagi nizomning 4-bo'limida tugatuvchi (likvidator) vakolatlari va majburiyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Tugatuvchi tayinlangan kundan boshlab bank boshqaruvi tugatuvchining ixtiyoriga o'tadi va har bir bajarilgan operatsiya va faoliyat uchun tugatuvchi javobgar hisoblanadi. Tugatuvchi bankning aktiv va passivlari ustidan quyidagi nazoratni amalga oshiradi:

- bankning barcha ishlarini bajarishga mas'ul hisoblanadi;
- kreditorlarning talabini qondirishga loyiq bahoda bank aktivlarini sotish;

- doimiy ravishda, lozim darajada bank hisobotini yuritish va Markaziy bankka hisobot berib borish;

- bank faoliyatiga yetkazgan zarari va noto'g'ri qaror qabul qilgan hollarda tugatuvchi javobgar hisoblanadi.

Tugatuvchi bankni boshqarish, bank nomidan ish ko'rish, bank aktivlarini aniqlash va ularni boshqarish, bank aktivlari va mulkini saqlash, zarur hollarda shartnoma asosida xodimlarni jalb qilish, bankning moliyaviy holatidan kelib chiqib xodimlarga ish haqi miqdorini belgilash, sudda tugatilayotgan bankning nomidan ishtirok etish va boshqalarni amalga oshirish huquqiga ega.

Barcha ishlar tugatilgandan keyin tugatuvchi Markaziy bankka amalga oshirgan ishlari bo'yicha hisobot va tugatuv balansini taqdim etadi.

Likvidator (tugatuvchi) Markaziy bank bilan kelishilgan holda aksionerlar umumiy yig'ilishi tomonidan bankni tugatish to'g'risidagi qaror kuchga kirgan kundan boshlab 3 kun mobaynida tayinlanadi. Tugatish jarayonining maqsadi bank omonatchilari va kreditorlari talablarini tezlik bilan qondirishdan iborat. Bankni tugatish jarayoni Markaziy bank boshqaruvining litsenziyalarni qaytarib olish to'g'risidagi qarori chiqqan kundan boshlangan deb hisoblanadi. Tugatilayotgan bankning Markaziy bank majburiy zaxiralari hisob varag'ida hisobda turgan mablag'lari tugatuvchi tomondan bankni

tugatish jarayoni boshlanganligi to'g'risidagi tasdiqnoma taqdim etilgandan so'ng bankning tugatish hisob varag'ida aks ettiriladi. Markaziy bank tomonidan tugatish jarayoni boshlangandan so'ng aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, boshqa organlar vakolatlari to'xtatiladi va boshqa cheklovlar kiritilishi mumkin. Bank hisobidan va nomidan hech qanday ish bajarilmaydi, qarz majburiyatlari muddati o'tgan hisoblanadi. **Bankning tugatilish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:**

- moddiy nazorat va inventarizatsiya;
- aktivlarni tekshirish;
- aktivlarni baholash va sotish;
- sotuvdan tushgan tushumlarni joylashtirish;
- tugatish jarayonini aniqlashtirish.

Bank tugatilishi boshlangandan so'ng Markaziy bank moddiy nazoratni o'rnatadi va likvidator inventarizatsiya o'tkazadi. Shuningdek, likvidator aktivlarni tekshirib tugatish hisobotini tayyorlashi lozim. Unda yakuniy balans, vakillik hisob varaqalari ahvoli to'g'risidagi hisobotlar, pul mablag'lari va valyuta hisobini yuritish, balans va kredit portfeli bo'yicha kreditor qarzdorligini tekshirish natijalari aks ettirilishi lozim. Likvidator bank aktivlari bo'lgan, ya'ni pul mablag'lari, ssudalar, qimmatli qog'ozlar, valyuta mablag'larini baholaydi va sotadi. Tugatuvchi aktivlarni tekshiruvdan o'tkazgandan keyin, vakillik hisob varaqlarining holati, pul va valyuta mablag'lari hisobini yuritadi, kreditor qarzdorlik va bank inventar vositalarini o'zida aks ettiruvchi yakuniy balansni tuzadi. Pul mablag'lari, ssudalar, qimmatli qog'ozlar, valyuta mablag'lari bankning moliyaviy aktivlari hisoblanadi. Pul mablag'lari, valyuta, monetalar, hisob raqamidagi mablag'lar nominal qiymati bo'yicha baholanadi. Qimmatli qog'ozlar fond birjasidagi holat bo'yicha baholanadi. Kredit portfelidagi kreditlar uchinchi tomonga sotiladi. Kreditlar bahosi ularning sifatiga bog'liq bo'ladi.

Muammoli kreditlar bo'yicha olingan ta'minot sotuvga qo'yiladi yoki sudda ko'rib chiqishga o'tkaziladi. Tugatuv jarayonida jismoniy shaxslarning omonotlari birinchi navbatda to'lanadi.

Likvidator nizomga asosan omonatchilar va kreditorlar talabini qondirish kerak. Tugatish ishlari yakunlangandan so'ng likvidator bajarilgan ishlar to'g'risidagi yakuniy hisobotni va tugatish balansini tuzadi va Markaziy bankka taqdim etadi. Markaziy bank likvidator taqdim etgan hujjatlarni o'rganib chiqib, bankni banklarni ro'yxatga olish Davlat kitobidan chiqarib tashlash to'g'risida qarorni qabul qiladi.

Tugatuvchi tomonidan qonunchilik talablari buzilgan hollarda Markaziy bank boshqa tugatuv komissiyasini yoki tugatuv komissiyasi a'zolarini tayinlashi mumkin. Tugatuv komissiyasi faoliyati va tugatuv jarayonlarini Markaziy bank doimo nazorat qilib boradi. Bankni tugatish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar mazkur bank hisobidan amalga oshiriladi.

3-§. Banklarga vasiy tayinlash

“Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunning 36-moddasiga asosan banklar faoliyatida muammolar yuzaga kelgan hollarda ularga vasiylar tayinlanishi mumkin. Vasiylarni tayinlash O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 19-dekabrda 570-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan “Banklarga vasiylik qilish to'g'risida”gi nizomga asosan amalga oshiriladi.

Vasiylik Markaziy bank tomonidan kompleks ma'muriy-huquqiy, tarkibiy, moliyaviy choralar ko'rish orqali tijorat bankining faoliyatini yaxshilash, qonun talablari asosida ish yuritilishini ta'minlash, agarda uni moliyaviy barqarorlashtirish iloji bo'lmasa, bankni qayta tashkil etish yoki uni tugatishga tayyorlash uchun tayinlanadi.

Bank tomonidan qonunchilik va Markaziy bank me'yoriy hujjatlari talablariga rioya qilinmasdan bank faoliyati xavfsizligi va sog'lomligi buzilgan, Markaziy bank talablari bo'yicha aniqlagan kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf qilinmasdan bankning zarar ko'rishiga, bank kreditorlari va omonotchilari manfaatlariga ziyon etishiga olib keladigan hollar yuzaga kelganda, bankning muvaqqat ma'muriyatini tayinlash yuzasidan qaror qabul qilinadi va Markaziy bank bank bo'yicha vasiy tayinlaydi hamda vasiylik qilish haqida farmoyish chiqaradi. Farmoyish matbuotda e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi. **Bankning faoliyati quyidagi hollarda** bankning kreditorlari va omonotchilari uchun xavfli hisoblanib **vasiy tayinlanishi lozim**:

a) barcha darajadagi kapital yetarliligi koeffitsiyenti Markaziy bank o'rnatgan ko'rsatkichdan 75% va undan yuqori darajada kamayganda;

b) bank o'z kreditorlari va omonotchilarining talablari bo'yicha to'lovlarni amalga oshira olmaganda;

d) bank ko'rgan zarar summasi oxirgi uch chorak davomida har bir kvartalda bankning umumiy regulyativ kapitalining 10 foizi miqdorida yoki qaysi davr bo'lishidan qat'i nazar bankning umumiy regulyativ kapitalining 50 foizi miqdorida bo'lganda;

e) omonotchilar mablag'lari saqlanishi va ular manfaatlariga ziyon keltirishi mumkin bo'lgan boshqa hollarda Markaziy bank banklarga vasiy tayinlash to'g'risida qaror qabul qiladi. Vasiy tayinlash to'g'risida qaror qabul qilishda Markaziy vasiylik mexanizmi orqali bankning moliyaviy holatini zarur ijobiy holatga olib chiqish, bank aktiv va passivlarini saqlab qolishga e'tibor qaratadi.

Vasiy mas'ul shaxs bo'lib, vasiylik davrida bankni muvaqqat ma'muriyat boshqaradi. Vasiylik rejimi boshida 12 oy muddatga tayinlanadi va bank bo'yicha vasiylik qilish xarajatlari to'liq bankning o'z mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Bankning vasiysi qonun doirasida ma'lum vakolat va huquqlarga ega bo'ladi va u vasiy bankning mansabdor shaxslari va uning aksiyadorlari vakolatlarini ko'rib chiqishi, bank ahvolini normallashtirish uchun zarur choralar ko'rish, jumladan, qonun hujjatlariga muvofiq filiallarni yopishi, mansabdor shaxslarni va xizmatchilarni ishdan bo'shatishi mumkin.

Vasiy istalgan paytda fuqarolarning depozitlari va investitsiyalari bir yildan ko'p bo'lmagan muddatga qisman yoki to'la to'xtatib qo'yilganligini e'lon qilishi mumkin, bunda vasiy depozitlar va investitsiyalarning taxminiy qiymatini saqlab qolish bo'yicha choralar ko'rish shart.

Basharti, vasiylik vaqtida yoki vasiylik davrining oxirida Markaziy bank tomonidan bankni sog'lomlashtirishning iloji yo'qligi aniqlansa, bank litsenzyasi chaqirib olinadi va u belgilangan tartibda tugatiladi.

Markaziy bank tomonidan vasiy sifatida yetarli kasbiy malaka va tajribaga ega bo'lgan Markaziy bank xodimlari, yuridik, konsalting firmalari xodimlari yoki boshqa mutaxassislar jalb qilinishi mumkin. Bankning aksioneri, kreditori, qarz oluvchisi yoki bank bilan bog'liq boshqa shaxslar vasiy bo'lishi mumkin emas. Vasiyning vazifasi qonunchilik talablari asosida bank kreditorlari va omonotchilarining manfaatlarini himoya qilish maqsadida bankning to'lovga layoqatligini tiklash va ta'minlashga qaratilgan choralar ko'rish, boshqaruv mexanizmini shakllantirish, yo'l qo'yilgan kamchilik va xatolarni bartaraf qilish va bank faoliyatini moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Vasiy tayinlangan paytdan boshlab:

a) bank boshqaruvi, kengashi va aksionerlar umumiy yig'ilishining vakolatlari to'xtatiladi va bu vaqtlar vasiyga o'tadi;

b) vasiylik o'rnatilgan bankning nomidan ish ko'radi.

Shuningdek, vasiy:

a) muvaqqat ma'muriyat uchun bank xodimlari ichidan, bank nazorati, faoliyatining huquqiy asoslarini, audit va buxgalteriya hisobini mukammal biluvchi mutaxassislarni yollashi;

b) bankning moliyaviy holatidan kelib chiqib xodimlar uchun ish haqi miqdorini belgilashi;

d) mehnat qonunchiligi talablariga muvofiq bank xodimlarini ishdan ozod qilishi;

e) bankning filiallari yopish to'g'risida qarorlar qabul qilishi va ularni yopish;

f) bankning aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari bo'yicha dividendlar to'lashni to'xtatishi, shuningdek, xodimlarni rag'batlantirishi;

g) bankning investitsiyalash va kreditlashga oid shartnomalariga o'zgartishlar kiritishi;

h) bank aktivlari va passivlarini sotishi, sudda bankning nomidan ish ko'rish mumkin.

Vasiyning yozma roziligisiz bankning nomidan va mablag'lari hisobidan ish ko'rish haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Markaziy bank tomonidan vasiy tayinlangan kundan boshlab bank aktivlari ustidan nazorat o'rnatish vasiyning zimmasida bo'ladi. Bu borada vasiy bankning mol-mulki, asbob-uskunalari, moliyaviy va moddiy mablag'lari, barcha qimmatliklar, jumladan, naqd pullar, qimmatli qog'ozlar, transport vositalari va boshqalarni saqlash, xavfsizlik tizimini ta'minlashi lozim. Shuningdek, vasiy vakillik raqamlarining holati bo'yicha hisobotni taqqoslab boradi, pul mablag'lari va valyuta mablag'larining hisobini yuritadi, bank mulkini inventarizatsiyadan o'tkazadi, bankning balansi va kredit portfelini tekshiradi, bank aktivlarini baholaydi va Markaziy bankka ma'lumotnoma tayyorlaydi.

Vasiylik muddati tugagandan keyin vasiy bankning moliyaviy holati va kelajakdagi faoliyat rejasi to'g'risida yozma hisobot taqdim etadi. Agar bankning moliyaviy ahvoli barqarorlashgan bo'lsa - bankning aksionerlari, bank boshqaruvi va kengashining vakolatlarini tiklash yoki vasiylik muddatini uzaytirish, bankning aktiv-passivlarini sotish yoki bankni qayta tashkil etish yoki bankning litsenziyasini qaytib olish va bankni tugatish to'g'risida o'z xulosasini beradi.

Vasiylik muddati davomida Markaziy bank vasiy ustidan nazorat olib boradi. Zarur hollarda vasiylik faolliyatini bo'yicha tavsiyalar va

yo'nalishlar beradi, bank faoliyatiga oid ma'lumotlar va hisobotlarni talab qiladi va tekshirib boradi, vasiy tomondan bajarilgan ishlar bo'yicha uning hisobotini eshitib boradi, lozim bo'lsa yana olti oygacha vasiylik muddatini uzaytirishi, bankka tayinlangan vasiylikni to'xtatishi, bankni tugatishi mumkin.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Bank ta'sischisi	Vasiy huquqlari
Bank aksiyadori	Ekvivalent mablag'
Bank manfaati	Bank ochish
Mijoz manfaati	Banklarni tugatish
Ochiq turdagi aksiyadorlik banki	Bankni majburiy tugatish
Yopiq turdagi aksiyadorlik banki	Bankni ixtiyoriy tugatish
Bank foydasi	Bank litsenziyasi
Bank zarari	Litsenziyani bekor qilish
Bank vasiysi	Litsenziyani qaytarib olish
	Litsenziyani to'xtatish

O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

- Tijorat banklari iqtisodiyotga qaysi jihatlari bilan ta'sir ko'rsatadi?
- Xususiy lashtirish sharoitida banklarning o'rni va rolini ko'rsating?
- Banklar faoliyatini erkinlashtirish deganda nimani tushunasiz?
- Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish asoslarini keltiring?
- Qanday shartlar bajarilganda banklar faoliyatini olib borishga litsenziya beriladi?
 - Litsenziya chaqirib olinishi mumkinmi?
 - Markaziy bank bilan tijorat banklarining munosabatlarini keltiring va asoslang?
 - Tijorat banklarining ustav kapitali minimal miqdoriga qo'yiladigan talablarni tushintirib bering?
 - Tijorat banklarining funksiyalarini keltiring?

III BOB. TIJORAT BANKLARINING PASSIV OPERATSIYALARI TARKIBI VA ULARNING JOYLASHISHI

1 -§. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari va uning turlari

Passivlar va aktivlar bo'yicha majburiyatlarni boshqarish bankning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Mablag'larni jalb qilish yoki ularni joylashtirish bilan bog'liq operatsiyalarning har ikkalasi ham banklar faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Ularni samarali tashkil qilish banklar faoliyatida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Bank resurslari uning passiv operatsiyalari orqali shakllanadi.

Shu bois bank resurslarini shakllantirish, uning passiv hisob raqamlari yoki aktiv-passiv hisob raqamlaridagi pul mablag'larini ko'paytirish bilan bog'liq operatsiyalar **banklarning passiv operatsiyalari** deyiladi.

Banklarning yetarli resursga ega bo'lishi o'ta dolzarb vazifalardan biri bo'lganligi uchun banklar passiv operatsiyalarini samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha o'z siyosatiga ega bo'ladi.

Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishda asosiy e'tibor bank balansi passividagi mablag'larning manbalariga qaratiladi. Ushbu mablag'lar ikkita yirik guruhga – majburiyatlar va kapitalga bo'linadi.

Majburiyatlar – bank tomonidan jalb etilgan mablag'lar hisobidan, kapital esa bankning o'z mablag'lari hisobidan shakllanadi. Ushbu mablag'larning barqaror manbalar hisobidan shakllantirilishi tijorat banklarining samarali ishlashi va iqtisodiy jihatdan baquvvatligini ta'minlaydi.

Tijorat banklarining **passiv operatsiyalarini** asosan **to'rt guruhga** bo'lish mumkin:

1. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlarini emissiya qilish orqali resurslarni yig'ish.

2. Bank foydasi hisobidan har hil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasini oshirish.

3. Kreditlar, qarzlari va boshqa kreditor – yuridik shaxslardan mablag'lar jalb qilish.

4. Depozit operatsiyalarni amalga oshirish.

Tijorat banklari tomonidan passiv operatsiyalarni amalga oshirishdan **maqsad:**

- bank faoliyatini resurslar bilan ta'minlash;
- iqtisodiyotga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha mablag'lar manbalarini shakllantirish;
- jalb qilingan mablag'larga bank foizlarini to'lash yo'li bilan aholi va yuridik shaxslar daromadlarini oshirish;
- o'z kapitali hajmini oshirib borish;
- bank operatsiyalarini riskdan himoya qilish uchun rezerv fondlarni tashkil qilish.

Tijorat banklarining resurslarini qaysi subyektga tegishli ekanligiga qarab, bankning **o'z mablag'lariga va jalb qilingan mablag'larga tasniflash** mumkin. Yuqorida keltirilgan passiv operatsiyalarning birinchi va ikkinchi shakllarida banklarning o'z mablag'lari yuzaga keladi, qolgan oxirgi ikki shaklda esa bankning jalb qilingan resurslari yoki bank uchun qarzga olingan – kredit resurslari yuzaga keladi. Shu bois bank passivlarining hajmi bankning o'z mablag'lari va uning majburiyatlari yig'indisidan iborat bo'ladi.

Banklar amaliyotining xo'jalik subyektlari faoliyatidan farqli xususiyati shundaki, agar korxonalar, tashkilotlar o'z faoliyatini olib borishda xarajatlarning aksariyat qismini o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirsa, banklar faoliyatida esa ularning o'z mablag'lari yoki kapitali u faoliyatining 15-20 foiz ehtiyojini qoplaydi. Bu holat bozor munosabatlarining faol ishtirokchisi bo'lgan banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidligi uning resurslari tarkibidagi o'z mablag'lari salmog'iga, faoliyatining ko'lami esa jalb qilingan mablag'larga bog'liqligini ko'rsatadi. Banklarning passiv operatsiyalarni amalga oshirish orqali resurslarni shakllantirish imkoniyati va huquqi, boshqacha qilib aytganda, chetdan mablag'larni jalb qilish chegarasi Markaziy bank tomonidan belgilanadi va muvofiqlashtiriladi hamda u bankning qanday tashkiliy-huquqiy shaklda subyekt sifatida faoliyat yuritayotganligi, uning o'z mablag'lari hajmiga bog'liq bo'ladi. Bank resurslari tarkibida davlat mablag'larining mavjud emasligi banklarning passiv operatsiyalari yordamida, ular resurslari hajmini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bankning passiv operatsiyalari yordamida xo'jalik oborotida bo'lgan bo'sh pul mablag'lari bank resurslariga jalb etiladi. Shu sababli passiv operatsiyalar nafaqat bank resurslarini shakllantirish uchun, balki pul muomalasining barqarorligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Banklarning o'z mablag'lari hajmining yuqori bo'lishi banklar faoliyati barqarorligini ta'minlashning asosi hisoblanadi. Bankni tashkil qilishning ilk bosqichidagi xarajatlar, bank

binosi, texnika-texnologiya, dasturiy ta'minotlari, xodimlarining ish haqi bilan bog'liq xarajatlarning barchasi bankning o'z mablag'lari hisobidan qoplanadi. Bank faoliyati uchun zarur bo'lgan rezervlar, fondlar ham bankning o'z mablag'lari hisobidan shakllanadi.

Banklarning o'z mablag'lariga – bankning ustav kapitali va unga tenglashgan mablag'lar, jumladan, zaxira kapitali, maxsus fondlar, moddiy rag'batlantirish fondi, boshqa har xil tashkil qilingan fondlar hamda taqsimlanmagan foydasi kiradi.

Jalb qilingan mablag'lar – depozitlar, jamg'armalar, qarzga olingan mablag'lar kontokorrent hamda korrespondent hisob varaqlarida o'z ifodasini topadi.

Moliyaviy menejment tizimida eng muhim yo'nalishlardan biri bank aktiv va passivlarini samarali boshqarish hisoblanadi. Aktivlarni boshqarish asosida o'z va jalb qilingan resurslarni joylashtirish tartibi va yo'llari yotadi. Tijorat banklarining passivlarini boshqarishda xalqaro bank amaliyotida "Bank passivlarini boshqarish" nazariyasidan keng foydalaniladi. Mazkur nazariyada asosiy e'tibor tijorat banklarining depozit bazasini yaxshilashga qaratiladi.

1960-70-yillardan boshlab bank likvidligini boshqarish borasida "passivlarni boshqarish" nazariyasi paydo bo'ldi va bank likvidlik muammosini yechish borasida o'z passivlariga, ya'ni majburiyatlariga e'tibor qarata boshladi. Bu nazariyaning paydo bo'lishiga iqtisodiyotda fond va pul bozorining shakllanishi hamda ikki pog'onali bank tizimining to'la shakllanishi bilan bank mablag'lari bozorining rivojlanishi turtki bo'ldi. Bu nazariy fikrga tayangan holda banklar o'z likvidligini pul bozori va sarmoya bozorida qarz olish, ya'ni mablag'lar jalb qilish orqali boshqara boshlashdi. Bu, asosan, Markaziy bankdan mablag'lar sotib olish, depozit sertifikatlari, qisqa muddatli tijorat veksellari va yevro, dollar kabi qarz majburiyatlarini muomalaga chiqarish shaklida amalga oshiriladi.

Ushbu nazariya himoyachilari bank resurslari yetarli bo'lmagan hollarda bank likvidligi muammosini bozordan qo'shimcha mablag'lar jalb qilish yo'li bilan hal qilinishi mumkin deb ta'kidlaydilar. Boshida bu nazariyani faqat yirik banklar ma'qullagan edi, lekin keyinroq bu nazariya banklar tomonidan tan olindi.

Passivlarni boshqarish nazariyasi orqali tijorat banklari likvidligini boshqarish quyidagi ikki xulosaga asoslanadi:

1. Tijorat banklari qo'shimcha mablag'larni kapital bozorlaridan jalb qilish yo'li orqali likvidlikka erishishi mumkin.

2. Tijorat banklari Markaziy bank, boshqa banklardan olingan pul mablag‘lari hisobiga likvidligini ta‘minlashi mumkin.

Ko‘plab rivojlangan mamlakatlar bank tizimida asosan “bank passivlarini boshqarish” nazariyasi asosida o‘z likvidligini ta‘minlaydi.

Bankning aktiv operatsiyalari ko‘lami, ular joylashtiradigan resurslar hajmi, miqdori, bankning passiv operatsiyalari, jalb qilingan mablag‘lar summasiga bog‘liq bo‘ladi. Bunday holat resurslarni jalb qilish bo‘yicha banklar o‘rtasida raqobatni keltirib chiqaradi.

Bank resurslari bank balansining passiv qismida aks ettiriladi.

Bankning ixtiyorida mavjud bo‘lgan resurslar uning amalga oshirilishi mo‘ljallanayotgan aktiv operatsiyalar uchun yetarli bo‘lmasa, zarur miqdordagi mablag‘larni Markaziy bankdan, nobyudjet fondlardan, pul bozoridan sotib olish yoki qarzga olish mumkin. Resurslarni jalb qilishda bank o‘z kapitalining yetarli darajasi miqdoriga ega bo‘lishi va uni me‘yor darajasida ta‘minlashi lozim.

Tijorat banki o‘z mijozlarining bo‘sh turgan mablag‘larini qarzga olish bilan, bir vaqtning o‘zida, bu mablag‘larni o‘z vaqtida qaytarilishini ta‘minlash majburiyatini ham oladi, shuning uchun bank barqaror likvidlikka ega bo‘lishi kerak. Ishonchlilik va likvidlilik tamoyillari tijorat banki faoliyatining zarur shartlaridan bo‘lib, ular aholining bo‘sh turgan pul mablag‘larining banklar sari oqimini ta‘minlaydi. Undan tashqari bankning ahvoli moliyaviy jihatdan kam samarali bo‘lgan holatda mijozlar o‘z mablag‘larini qaytarib olishlariga ishonch hosil qilishlariga zamin yaratadi.

2-§. Tijorat banking resurslari va ularning tarkibi

Tijorat banklari, boshqa xo‘jalik subyektlari kabi o‘zining xo‘jalik va tijorat faoliyatini ta‘minlash uchun ma‘lum miqdorda pul mablag‘lariga, ya‘ni resurslariga ega bo‘lishlari lozim. Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy talablariga asosan bank resurslarini tashkil etish bank faoliyatini bir maromda olib borishning birinchi darajali masalasi hisoblanadi. Buni shunday izohlash mumkin, ya‘ni iqtisodiyotning bozor modeliga o‘tishi bilan bank ishida davlat monopoliyasi tugatildi, ikki bosqichli bank tizimining shakllanishida bank resurslari xarakteri ijobiy tomonga o‘zgardi.


Bankning asosiy vazifalaridan biri bo‘sh pul mablag‘larini mumkin qadar ko‘proq jalb qilish va ularni foyda keltiruvchi aktivlarga joylashtirishdan iborat.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bank resurslarini ikki katta guruhga bo'lish mumkin. Bular – banklarning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar. Jalb qilingan resurslarni ba'zi hollarda ikkiga bo'lib qaraladi – jalb qilingan depozitlar, boshqa majburiyatlar va sotib olingan resurlardir. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi, ya'ni bank resurslari daromad olish maqsadida turli xil sohalarga joylashtiriladi. Bankning passiv va aktiv operatsiyalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli passivlarning tarkibi va xarakteri ko'p jihatdan banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga, resurslar xarakteriga banklar kreditlash siyosatining o'zgarishi ham ta'sir qiladi.

Bank resurslarining asosiy qismini bank mijozlarining mablag'lari tashkil qiladi. Boshqa resurslarni jalb qilish uchun bank o'z kapitalining yetarli darajasi miqdoriga ega bo'lishi va uni me'yor darajasida ta'minlashi lozim.

Tijorat banki o'z mijozlarining bo'sh turgan mablag'larini qarzga olish bilan bir vaqtning o'zida, bu mablag'larni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash majburiyatini ham oladi, shuning uchun bank barqaror likvidlikka ega bo'lishi kerak. Ishonchlilik va likvidlilik tamoyillari tijorat banki faoliyatining zarur shartlaridan bo'lib, ular aholining bo'sh turgan pul mablag'larining banklar sari oqimini ta'minlaydi. Undan tashqari bankning ahvoli moliyaviy jihatdan kam samarali bo'lgan holatda mijozlar o'z mablag'larini qaytarib olishga ishonch hosil qilishlariga zamin yaratadi.

Bank resurslarining aylanishini quyidagicha ifodalash mumkin.



9-rasm. **Bank resurslarining aylanish sxemasi**

Bank resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil qiladi va bu esa, o'z navbatida, banklar faoliyatining doimiyligiga asos hisoblanadi.

Alohida tijorat banklari uchun bank resurslari tarkibiy tuzilishi turli xillik bilan farqlanadi. Bu uning o'ziga xos xususiyatlari bilan

tushuntiriladi. Ikkita tijorat banki resurslarining tarkibiy tuzilishi quyidagi ma'lumotlar bilan xarakterlanadi.

5-jadval

Bank resurslari tarkibi

Ko'rsatkichlar	Bank №1	Bank №2
1. O'z mablag'lari – jami, jumladan	17.4	19.2
1.1. Ustav fondi	3.9	3.3
1.2. Boshqa fondlar	9.4	13.2
1.3. Joriy yildagi taqsimlanmagan foyda	4.1	2.7
2. Jalb qilingan mablag'lar – jami, jumladan	82.6	80.8
2.1. Muddatli depozitlar	76.9	70.1
2.2. Muddatsiz depozitlar	4.3	0.3
2.3. Aholi quyilmalari	0.3	0.4
2.4. Sertifikatlar, veksellar	1.1	-
2.5. Banklararo kreditlar	-	10.0

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, alohida tijorat banklarning resurslari tarkibi sezilarli farq qilmaydi. Tijorat banklari resurslarining tarkibi biz yuqorida keltirib o'tgan xulosa, ya'ni bank resurslari tarkibida asosiy o'rinni jalb qilingan resurslar egallashi to'g'risidagi fikrimizni tasdiqlaydi. Jalb qilingan resurslar ichida muddatli depozitlar salmog'ining yuqori ekanligi banklar resurs bazasining barqaror ekanligidan dalolat beradi.

Tijorat banklari resurslarini shakllantirishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular:

- banklararo kredit bozorida Markaziy bankning faol ishtirok etishi va bu, o'z navbatida, kredit riskini kamaytirishi;

- iqtisodiyotda noto'lovlar muammosining mavjudligi va kredit qaytarilmasligi oqibatida tijorat banklarining zarar ko'rish imkoniyatining oshishi;

- aholi qo'lidagi omonatlarining o'sishi;

- korporativ qimmatli qog'ozlar bozoringin yetarli darajada rivojlanmaganligi v.b.

Shunday qilib, bankning o'z mablag'lari va qarzga olingan yoki sotib olingan mablag'lari yigindisi tijorat banklarining resurs bazasini tashkil qiladi.

Xalqaro bank amaliyotida banklarning resurs bazasini shakllantiruvchi asosiy manbalarga o'z kapitalidan tashqari quyidagilar kiradi:

- yuridik va jismoniy shaxslarning depozit hisob varaqalaridan qoldiqlari;

- bank tomonidan yuridik shaxslar uchun muomalaga chiqarilgan veksellar va depozit sertifikatlar;
- olingan banklararo kreditlar;
- bank vakil tomonidan ochilgan «loro» depozit va valyuta hisob varaqasidagi mablag'lar va boshqa manbalar.

6-jadval

Tijorat banking resurs bazasi va uning tarkibi

Ko'rsatkichlar	Ming so'm	Foiz
Bankning resurs bazasi. Bankning o'z mablag'lari		
Bank kapitali – jami	226209	33.1
Shu jumladan:		
Aksiyadorlik kapitali	82739	12.0
Qo'shimcha kapital	0	0
Zaxira kapitali	40254	6.0
Taqsimlanmagan foyda	103216	15.1
Vositalar qiymatini baholashda yuzaga keluvchi ortiqchalik	0	0
Jalb qilingan depozitlar – jami	170989	25.1
Shu jumladan;		
Talab qilingunga qadar	109794	16.1
Jamg'arma depozitlar	10957	1.6
Muddatli depozitlar	17159	2.5
Mijozlarning boshqa depozitlari	1614	0.3
Boshqa banklarning depozitlari va vakilliklik h.v.dagi qoldiq	0	
Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	0	
Forvard – valyuta kursi	0	
Boshqa majburiyatlar	1259	0.2
Kliring transaksionalari		
Boshqa passivlar	0	
Bankning jami ixtiyorida bo'lgan resurs bazasi (1+2+3+4+5+6+7+8+9) qatorlar	30206	4.4
Sotib olingan resurslar – jami: sh.j.	397198	58.2
Markaziy bankdan		
Moliya vazirligidan	285674	41.8
Banklararo pul bozoridan	187333	27.4
Nobyudjet fondlardan	57911	8.5
xukumat hisob varaqlari	0	
Bankning jami resurs bazasi (III+ IV)	40430	5.9
	682872	100

Biz tijorat banki bo'limining ko'rsatkichlarini ifodalovchi quyidagi jadval ma'lumotlaridan bankning resurs bazasini tashkil qiluvchi elementlar va ularning tarkibini aniqroq ko'rishimiz mumkin.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, tijorat banki resurs bazasining 33.1 foiz bankning o'z mablag'lari, ya'ni bank kapital va taqsimlanmagan foydasidan iborat. Bank ixtiyorida bo'lgan resurslarning 25.1 foiz jalb qilingan depozitlarga to'g'ri keladi. Shunday qilib, bank ixtiyorida bo'lgan, o'zi yiqqan resurslar jami – 58.2 5 ni tashkil qiladi. Bank tomonidan sotib olingan resurslar esa 41.8 foizni tashkil qiladi. Undan 27.4 foiz Markaziy bankdan olingan kredit resurslarini, 8.5 foiz Moliya vazirligidan olingan resurslarni, 5.9 foiz hukumat hisobvarag'ida bo'lgan resurslarni tashkil qiladi.

Bank tomonidan tashkil qilingan resurs baza turli xil kreditlar berish va investitsiyalarni moliyalashtirish va boshqa aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun yo'naltirilishi mumkin. Tijorat banklari kredit potentsiali uning passiv operatsiyalari ko'lamiga bog'liq. Tijorat banklari faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri bu real mavjud resurslar doirasida ish yuritishdir. Bu degani tijorat banklari nafaqat o'z resurslari va kredit qo'yilmalari miqdori mos kelishini ta'minlashi, balki o'zining likvidligini ham ta'minlashi kerak. Agar bank mablag'larini qisqa muddatga jalb etib uzoq muddatga kredit beradigan bo'lsa, u holda bank likvidligi xavf ostida qoladi. Bank aktivlari tarkibida ko'p miqdorda risk darajasi yuqori ssudalarning mavjudligi bank o'z mablag'larining salmog'ini oshirishini talab etadi. Real jalb qilingan resurslar doirasida ishlash tamoyili – jalb qilingan depozitlarga bank qiziqishining o'sishiga, kredit resurslari uchun sof raqobat rivojlanishiga olib keladi. Passivlar uchun keskin kurash banklarning o'z resurslarini shakllantirishning samarali usullarini izlashni talab qiladi. Iqtisodiy mustaqillik bankning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larini mustaqil boshqarishni, mijoz va omonatchilarni erkin tanlashni, soliqlar to'lagandan keyin qolgan daromadga mustaqil egalik qilishni nazarda tutadi.

Tijorat banklarining resurs bazasi uning kredit potentsiali dakrajasini belgilaydi. Bankning kredit potentsiali - jalb qilingan mablag'larning kredit va bankning boshqa aktiv operatsiyalarini amalga oshirishning iqtisodiy chegarasi hisoblanadi. Iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larining tijorat banklari tomonidan jalb qilinishi ular iqtisodiy faoliyatining asosini tashkil etadi. Banklar tomonidan jalb qilingan mablag'larning barchasi kredit uchun ishlatilmasligi mumkin. Ko'p

banklarda jalb qilingan mablag'larning asosiy qismi muddatsiz depozitlar zimmasiga to'g'ri keladi. Bank tomonidan berilgan kreditlar to'xtovsiz harakatda bo'lib kredit multiplikatsiyasini tashkil etadi. Kredit multiplikatsiyasi orqali muomaladagi pul oqimi ko'payadi.

Umuman olganda, tijorat banklarining kreditlash potentsiali jalb qilingan mablag'lar, ya'ni depozitlarning umumiy summasi bilan majburiy zaxira hamda tijorat banklari tomonidan o'z likvidligini ta'minlash uchun ajratmalarga bog'liqdir.

Likvidlilik shartlarini hisobga olgan holda tijorat banklarining kredit potentsialini bank jami mablag'larining barqarorligidan kelib chiqib **3-guruhga** bo'lish mumkin:

1) Yuqori darajadagi barqaror mablag'lar:

a. Banklarning o'z kapitali.

b. Muddatli depozitlar.

d. Boshqa banklardan olingan kreditlar.

2) O'rtacha barqarorlikka ega mablag'lar:

Barcha muddatsiz depozitlar va jamg'armalar.

3) Barqaror bo'lmagan mablag'lar – banklarga vaqti-vaqti bilan (davriy) kelib tushadigan mablag'lar tushuniladi.

Tijorat banklari ustav kapitali ko'payishi, muddatli depozit va jamg'armalar miqdorining barqarorligi ularning kredit potentsialining barqarorligini ta'minlaydi.

3-§. Tijorat bankining o'z mablag'lari

Bankning o'z mablag'lari uning faoliyatining asosini tashkil qiladi, chunki ular jalb qilayotgan depozitlar, ya'ni real kredit resurslari hajmini pirovard natijada aktiv operatsiyalar hajmini belgilab beradi. Bankning o'z mablag'lari tijorat banklarining faoliyatini boshqaruvchi va ular ustidan nazoratni amalga oshiruvchi Markaziy bank uchun muhim ma'lumot manbai hisoblanadi.

Bankning o'z mablag'lariga ustav fond (kapital), zaxira fondi va bank foydasi hisobiga tashkil topadigan bank fondlari hamda yil davomida taqsimlanmagan foyda kiradi. Amaliyotda bank passivlarining 20 foizi banklarning o'z mablag'lariga to'g'ri keladi. Bankning o'z mablag'lari ichida asosiy o'rinni ustav kapitali egallaydi.

Bankning ustav kapitali – bank ishini tashkil qilishning asosiy tayanch nuqtasi hisoblanadi.

Markaziy bankning me'yoriy talablariga muvofiq bank kapitali asosiy (birinchi darajali kapital) va qo'shimcha (ikkinchi darajali) kapitaldan iborat. Tartibga solish funksiyasini asosan, birinchi darajali kapital bajaradi, chunki u asosan aksiyadorlar ulushidan tashkil topadi.

Bank kapitali uning faoliyat yuritish chegaralarini belgilab beradi, investorlar hamda aksiyadorlar va qolaversa, bankning o'zi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan moliyaviy barqarorlik darajasini ko'rsatib beradi.

Bankning tashkil topish shakliga qarab, ustav kapitalining shakllantirilishi turlicha bo'ladi. Agar bank aksionerlik jamiyati ko'rinishida shakllanayotgan bo'lsa, ustav fondi aksiyalarining nominal qiymati ko'rinishida tashkil topadi. Bunda aksiyalar ochiq obuna qilish yo'li bilan yoki ta'sischilarning ustav fondidagi ulushlariga qarab tarqatilishi mumkin.

Agar bank ma'suliyati cheklangan jamiyat ko'rinishida tuzilgan bo'lsa, ustav fondi ulushlarga bo'lingan holda bo'ladi. Ularning hajmi ta'sis hujjatlari bilan aniqlanadi. Bunda bank ishtirokchilari o'zlarining ulushlari me'yor chegarasida majburiyatlarni o'z zimmalariga oladilar.

Bankning tashkiliy-huquqiy shakliga qaramay, uning ustav fondi yuridik va jismoniy shaxslarning to'lovlari orqali shakllanadi va ta'sischilarning majburiyatlarini bajarish uchun xizmat qiladi. Ustav fondi faqat bank ishtirokchilarining xususiy mablag'lari hisobiga tashkil topishi mumkin. Jalb qilingan kredit, garovga olingan mablag'lar, boshqa yo'llar bilan jalb qilingan mablag'lar hisobidan bankning ustav fondini shakllantirishga yo'l qo'yilmaydi. Bankning ustav fondi faqat pul mablag'lari va moddiy aktivlar hisobiga tashkil topishi mumkin.

Respublika byudjeti mablag'lari, davlat nobyudjet fondlari mablag'lari va O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruv va mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoridagi bo'sh pul mablag'lari va boshqa obyektlar banklarning ustav kapitali shakllanishida qatnashmaydi. Qonunda ko'rsatilgan holatlarda bank ustav kapitalini shakllantirish uchun byudjet mablag'laridan foydalanish mumkin.

Agar aksiyadorlar ustav kapitalini shakllantirishda qarz mablag'idan foydalansa, ustav fondiga qo'shilgan mablag' aksiyadorga qaytarib beriladi va aksiyalar kelgusida sotish uchun bankka qaytariladi.

Tashkil etilayotgan bank kapitalining eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Markaziy bank faoliyat shartlari, biznes-rejada ko'rsatilgan operatsiyalar turi va hajmiga qarab, bank ustav kapitali miqdoriga qo'shimcha talablar qo'yish mumkin. Ustav fondin-

ing minimal miqdori bankning barqaror faoliyatini ta'minlash uchun o'rnatiladi.

Tashkil etilayotgan bank kapitalining yetarlilik darajasini belgilashda **quyidagi asosiy talablarga** rioya qilinadi:

- Markaziy bank belgilagan ustav kapitalining eng kam miqdori yuzasidan talablarga muvofiqligi;

- ko'zda tutilayotgan o'sishni qo'llab-quvvatlash darajasi;

- ko'zda tutilayotgan daromadlar va asosiy foizlar darajasi;

- muassislarning zarur hollarda qo'shimcha kapitallar kirita olish qobiliyati v.b.

Faoliyat ko'rsatayotgan banklar ustav kapitaliga talablar iqtisodiy ahvol va bankning moliyaviy holatidan kelib chiqib Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Bank ustav kapitali miqdorining o'zgarishi va o'zgarishni ro'yxatga olish tartibi Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi.

Banklarni ustav kapitalining minimal miqdori banklarni har xil risklardan saqlash maqsadida belgilanadi. Chunki bank ustav fondi qancha katta bo'lsa, uning resurslari ham ko'p bo'ladi.

Bankning tashkiliy shakliga qarab, ustav kapitali oshishi mumkin. Aksionerlik jamiyati ko'rinishidagi tijorat banklar o'z ustav kapitalini oshirishlari uchun qo'shimcha miqdorda aksiyalar chiqarishlari va ularni yuridik va jismoniy shaxslar orasida tarqatishi mumkin. Qo'shimcha mablag'larni jalb qilishda bu banklarga o'z qarz majburiyatlari, ya'ni obligatsiyalar chiqarish huquqi berilgan. Obligatsiyalar barcha aksiyalar to'la to'lanib bo'lgach, ustav fondining 20% dan oshmaydigan qiymati hajmida chiqarilishi mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat ko'rinishida tashkil topgan banklar o'zlarining ustav kapitalarini yoki qo'shimcha ishtirokchilarning ulushini oshirish orqali ko'paytirishlari mumkin.

Har yili har bir bank aksioneri (ishtirokchisi) o'zining ustav kapitalidagi ulushiga mos ravishda bank foydasining bir qismini dividend ko'rinishida oladi.

Dividendlar hajmi va uni hisoblash tartibi aksiya turi (oddiy yoki imtiyozli aksiyalar) va chiqarilishi shartlariga bog'liq bo'ladi

Aktiv operatsiyalar natijasida tijorat banklari har xil foizlarda ularning risk darajasiga qarab ajratib boradilar.

Zaxira fondi foydadan ajratmalar hisobiga shakllanadi.

Zaxira fond bilan bir qatorda tijorat banklarida ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish fondlari ham foyda hisobidan tashkil topishi

mumkin. Ularni shakllantirish va ishlatish tartibi tijorat hisob-kitoblari to'g'risidagi bank yo'riqnomalarida belgilanadi.

Bankning mijozlari oldidagi majburiyatlarini ta'minlash – bank mablag'larining asosiy funksiyasi hisoblanadi. Ularga o'z majburiyatlari bo'yicha javobgarlikni ta'minlovchi kattalik sifatida qaralishi mumkin. Bankning o'z resurslari miqdori uning faoliyat ko'lamiga bog'liq. Bankning o'z mablag'lari uning moddiy bazasini rivojlantirish manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Bank amaliyotida o'z kapitalining netto va brutto turlari farqlanadi. Bankning o'z kapitali – brutto – bankning barcha fondlari va balans bo'yicha taqsimlanmagan foydasi yig'indisiga teng. Bankning o'z kapitali – netto – bu kapital bruttodan, o'z mablag'laridan kapital xarajatlarning oshgan qismini, yo'l qo'yilgan va potensial zararlar, sotib olingan xususiy aksiyalar va muddati 30 kundan ortiq bo'lgan debitor qarzlarni chegirib tashlangandan qolgan summaga teng. Shunday qilib, kapital – netto naqd mavjud bo'lgan bank kapitalini o'zida aks ettiradi.

Tijorat bankining o'z kapitali miqdori ko'pgina **omillarga** bog'liq bo'ladi. Bu omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risidagi qonunga muvofiq, bankning o'z kapitali hajmi uning aktiv operatsiyalarining chegaraviy hajmini belgilab beradi. Shuning uchun mijozlarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan bank (misol uchun, tarmoq banki) belgilangan normativlarga rioya qilgan holda, o'z doimiy mijozlarining qarz mablag'lariga bo'lgan talablarini qondirishi lozim.

Ikkinchidan, bank uchun zarur bo'lgan o'z kapitali miqdorining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Mayda, lekin son jihatdan ko'pchilikni yirik kredit oluvchi korxonalarini tashkil qiluvchi bankda o'z mablag'lari nisbatan ko'p miqdorda kerak bo'ladi. Chunki yirik mijozlarga xizmat qiluvchi banklarda kreditning qaytarilmaslik riski katta bo'ladi.

Uchinchidan, tijorat bankining o'z kapitali miqdori, uning aktiv operatsiyalari xarakteriga bog'liq bo'ladi. Bank olib borayotgan operatsiyalari katta risklar bilan bog'liq bo'lishi, o'z mablag'larining nisbatan ko'p bo'lishini taqozo etadi. Bu hol, xususan, innovatsion banklarga tegishlidir. Agar bankning kredit portfelida minimum riskli ssudalar ko'pchilikni tashkil qilsa, bankning mablag'lari nisbatan kam bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bankning aktiv operatsiyalari xarakteriga qarab, bank kapitali va uning turli darajadagi riskli aktivlari o'rtasidagi normativlarni belgilab beradi.

To'rtinchidan, bank zaruriy kapitalining miqdori kredit resurslari bozorining rivojlanganlik darajasiga va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki olib borayotgan pul-kredit siyosatiga ham bog'liq. Bozor munosabatlarni rivojlantirish sharoitida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklariga mustaqil kredit siyosatini olib borishga yo'l ochib berishi natijasida tijorat bankining kredit resurslariga bo'lgan talabini qondirish osonlashdi va bankning zaruriy o'z mablag'lari darajasi kamayadi. Lekin yetarli darajada moliya bozorining rivojlanmaganligi, kredit resurslarga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi banklarning o'z mablag'larini doimiy tarzda oshirishini talab etadi.

Banklarning o'z mablag'lari tijorat banklari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bank ustav kapitali miqdorining o'zgarishi ustav kapitali miqdorining oshirilishi yoki kamaytirilishi shakllarida amalga oshirilishi mumkin.

Banklarning o'z mablag'lari miqdorini oshirishda **2 usul** ishlatilishi mumkin: qo'shimcha aksiyalar chiqarish va ularni joylashtirish yoki chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymatini oshirish. **Birinchi usul** bank ustav kapitali miqdorining oshirilishi qo'shimcha aksiyalarni chiqarish, ularni joylashtirish yoki aksiyalar nominal qiymatini oshirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu yo'l bilan foydani jamg'arish, bankning zaxira va boshqa fondlarini jadallashtirilgan tarzda shakllantirish va ularni keyinchalik kapitalga aylantirish shaklida ro'y beradi. Bunda yil oxirigacha foydaning bir qismi to'g'ri kapitalga aylanishi ham mumkin. Bu usul ancha arzon, yangi paychilar jalb qilish yoki aksiya chiqarish borasidagi qo'shimcha xarajatlarni talab etmaydi. Lekin foydani jamg'arish joriy yilda aksionerlarga to'lanadigan dividendlar miqdorining kamayishiga olib kelishi mumkin. **Ikkinchi usul**, aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan bank ustav kapitalini oshirish quyidagi usullar:

- moliyaviy yil yakuni bo'yicha ko'rilgan foydaning bir qismini yoki hammasini aksiyalar nominal qiymatini oshirishga yo'naltirish;
- aksiyadorlar tomonidan aksiyalar nominal qiymati oshirilgan qismining to'lanishi orqali bo'lishi mumkin.

Aksiyalar chiqarish yoki ularning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan bankning ustav kapitalini ko'paytirish Markaziy bankning litsenziyalash departamenti ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Ustav fondini oshirish uchun bank ustaviga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida ta'sischilar qaror qabul qiladilar.

Qo'shimcha aksiyalarni chiqarish yoki aksiyalar nominal qiymatini oshirish uchun tijorat banklari Markaziy bankning tijorat banklari faoliyatini litsenziyalash va tartibga solish departamentiga quyidagi hujjatlarni topshiradi:

- qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yoki aksiyalar nominal qiymatini oshirish to'g'risida bank vakolatli organining qarori;

- agar aksiya ochiq obuna yo'li bilan tarqatilsa, bank vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan emissiya prospekti;

- aksiya yopiq holda taqsimlansa, aksiyalarni chiqarish to'g'risida axborot beriladi;

- bank kengashi raisi imzolagan ustav kapitalini oshirish va aksiyalar emissiyasiga rozilik berish to'g'risida Markaziy bank nomiga berilgan iltimosnoma. Taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish va rozilik berish bir oy muddat ichida amalga oshiriladi.

Bank ustav kapitali aksiyalar nominal qiymatini pasaytirish yoki aksiyalar umumiy sonini qisqartirish, jumladan, keyinchalik ularni to'lash sharti bilan sotib olish orqali kamaytirilishi mumkin.

Agar bank ustavida ko'zda tutilgan bo'lsa, aksiyalarning bir qismini sotib olish va ularni to'lash yo'li bilan bank ustav kapitalini kamaytirishga ruxsat beriladi.

Agar kamaytirish natijasida ustav kapitalining eng kam miqdoridan kamayib ketsa, bank ustav kapitali miqdorini kamaytirishga ruxsat berilmaydi.

Aksiyalarning nominal qiymati pasaytirilganda, aksiya narxi va yangi nominal qiymat o'rtasidagi farq aksiyadorlarga qaytariladi.

Ustav kapitalini kamaytirish uchun tijorat banklar faoliyatini litsenziyalash va tartibga solish departamentiga iltimosnoma va ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori topshiriladi. Rozilik bir oy muddatda beriladi.

Ustav kapitalining kamaytirilishi yoki oshirilishi omonatchilar manfaatlariga va bank moliyaviy ahvoliga xavf solsa yoki bir aksiyador ulushi belgilangan normadan oshib ketsa, Markaziy bank ustav kapitalini kamaytirishga ruxsat bermaydi.

Shuni aytish kerakki, bank kapitalining asosiy maqsadi – riskni kamaytirish va kapitalning moliyaviy resurslar bozoriga kirish yo'lini ta'minlashdir.

Bank kapitali operatsion xarajatlarni moliyaviy bozorlarga erkin kirib borishini ta'minlash orqali kamaytiradi. Katta miqdordagi kapital bankning barqaror obro'sini va omonatchilar ishonchini ta'minlaydi.

Bank kapitalining aktivlarga nisbati, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan me'yorlar bilan yaqindan o'zaro bog'liq. Ya'ni kapital qarz olish bilan yangi aktivlar jalb qilinishini chegaralash orqali riskning oshib ketishini to'xtatadi yoki uni kamaytiradi. Agar banklar ssuda miqdorini oshirmoqchi yoki boshqa aktivlarni sotib olmoqchi bo'lsalar, yuqorida keltirilgan yo'llar bilan ular aksioner kapitalini qo'shimcha moliyalashtirishni ta'minlashlari kerak. Bu aktivlarning spekulyativ o'sishining oldini oladi va banklar o'z aktivlarini samarali boshqarish imkoniyatlarini saqlab qoladi.

Bankning o'z kapitali hissasining kamayishi ba'zi hollarda banklarning bankrot bo'lishiga, ayniqsa, iqtisodiy yoki bank inqirozlari davrida passivlar va ularni joylashtirish sohasida yetarli darajada o'ylab chiqilmagan siyosat banklarning sinishiga sabab bo'lishi mumkin.

AQShda kattaligi bo'yicha yigirmanchi o'rinda turuvchi "Franklin neshnl bank"ni sinishining sabablaridan biri – bankning o'z kapitali hissasining bank balansida keskin qisqarishi bo'lgan. Xuddi shu sabab, 1979-yil aktivida 250 mln AQSh dollari va 44 ming omonatchisiga ega bo'lgan AQShdagi "Dnuverz neshnl benk of Chikago" bankining sinishining asosi hisoblanadi.

1980-yillarning ikkinchi yarmida AQShda banklarning bankrotlik soni o'sdi. 1984-yilda AQShda birinchi o'nlikda turuvchi yirik banklardan biri bo'lgan "Kontinental Illinoys" banki sinish holatining, hukumatning maxsus dasturi orqali oldi olindi.

Tijorat banklari sinishlarining eng ko'pi 1988-yilga to'g'ri kelgan. 1994-yilda 13 ta tijorat banklari singan. 2008-yilda keng yoyilgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining asosiy sababi ham tijorat banklari kapitali va ularning amalga oshiradigan operatsiyalari orasida mutanosiblikka rioya qilinmaganligidadir.

Keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlarda surunkali byudjet taqchilligi va salbiy tashqi savdo saldosingiz kuzatilayotganligi jahon moliyaviy inqirozining vujudga kelishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi (7-jadval).

Jadvaldan ko'rinadiki, 1996-yilda rivojlangan mamlakatlar hissasi-ga 46,2 mlrd dollar hajmdagi ijobiy tashqi savdo saldosini to'g'ri kelgan bo'lsa, 2007 yilga kelib bu ko'rsatkich 798,8 mlrd dollar hajmdagi sal-biy saldoni, ya'ni taqchillikni tashkil qilgan. Bu davrda rivojlanayotgan

mamlakatlarning 87,5 mlrd dollar hajmdagi salbiy tashqi savdo saldosi 509,7 mlrd dollar hajmdagi ijobiy tashqi savdo saldosisiga aylangan.

7-jadval

**Dunyoning ayrim mamlakatlari tashqi savdo saldosisidagi
o'zgarishlar
(mlrd AQSh doll)**

Mamlakatlar	1996-yil	2007-yil
Rivojlangan mamlakatlar, jami	46,2	-798,8
AQSh	-120,2	-854,7
Yaponiya	65,4	81,0
Yevropa Ittifoqi	88,5	-228,0
Boshqalar	12,5	202,2
Rivojlanayotgan mamlakatlar, jami	-87,5	509,7
Xitoy	7,2	562,0
Yaqin Sharq va Afrika	5,9	311,0
Boshqalar	-100,6	-363,3

Jahon iqtisodiyotida kuzatilgan bunday nomutanosiblik holatlari, ya'ni rivojlanayotgan mamlakatlar savdo balansida ijobiy saldo o'sayotgan sharoitda ayrim rivojlangan mamlakatlar tashqi savdo balansidagi, yirik miqdordagi taqchilikning vujudga kelishi dunyo mamlakatlari valyuta zaxiralarining o'zgarishiga olib keldi. Xususan, keyingi yillarda Xitoy, Yaponiya, Yaqin Sharq mamlakatlari valyuta zaxiralari keskin o'sdi. Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi paytlarda xalqaro valyuta zaxiralarining 3,4 trln dollari, ya'ni jami zaxiralarning qariyb 59%i Osiyoning 10 ta yirik mamlakati hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ipoteka bozorlariga e'tiborsizlik, ipoteka kreditlari berish talablarining haddan ziyod erkinlashtirilishi natijasida bozorda ko'chmas mulklarga talab ortdi va uy-joy bozorida narxlarning qisqa muddat ichida keskin o'sishi kuzatildi.

Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining nomuvofiqligi natijasida banklar tomonidan kreditlash tizimi talablari o'ta yengillashib, bu holat kreditlardan foydalanishda to'lovga layoqatlilik darajasining hisobga olinmasligiga imkon yaratdi.

Shuningdek, mutaxassislar tomonidan amaldagi bank kapitalini xalqaro tartibga solish (Bazel II) tizimi moliyaviy inqirozning vujudga kelishi uchun zamin yaratganligi e'tirof etilmoqda. Ma'lumki, XX asr 90-yillarining boshida qabul qilingan bank kapitalini xalqaro tartibga solishning Bazel II tizimi tijorat banklari uchun talab qilinadigan kapital

yoki kapitalning yetarliligi aktivlarning investitsion sifatlari va ularni risk darajasi bo'yicha guruhlashni ko'zda tutadi. Natijada Bazel II bank kapitallarini reyting agentliklari xulosalariga asoslangan holda yuqori riskli aktivlarni sekyuritizatsiyalab, qimmatli qog'ozlarga aylantirishni rag'batlantirgan.

Shu bilan bir qatorda, asosan, yetakchi rivojlangan mamlakatlarda kuzatilgan quyidagi salbiy holatlar ham moliyaviy inqirozning vujudga kelishiga **asosiy sabablardan** hisoblanadi:

- noratsional pul-kredit siyosatini hamda qayta moliyalash stavkasining surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida qarzga yashashning odatga va kundalik holatga aylanishi;

- moliyaviy institutlarning majburiyatlari bilan ustav mablag'lari o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi;

- qimmatli qog'ozlar bo'yicha reyting tashkilotlari tomonidan soxta xulosalar berilishi;

- moliyaviy audit va professional etika tamoyillarining buzilishi va soxta audit xulosalari taqdim etilishi;

- moliyaviy rag'batlantirish uslubi sifat ko'rsatkichlariga emas, balki miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslanganligi;

- yuqori riskli va murakkab hosilaviy qimmatli qog'ozlarning vujudga kelishi va h.k.

4-§. Tijorat bank kapitali va uning tarkibi

Bank o'z kapitali tushunchasini keng ochib berish uchun shuni aytib o'tish kerakki, bank nazariyasida bank o'z mablag'i va o'z kapitali tushunchalari farq qiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan «**O'z mablag'i**» tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, u bankning ichki faoliyati jarayonida tashkil topgan barcha passivlarni (bankning ustav, zaxira va boshqa fondlari, bank tashkil qilingandagi zaxiralarni, taqsimlanmagan foyda va joriy yil foydasini) o'z ichiga oladi. **Bankning o'z kapitali** deganda, bankning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashga qaratilgan, maxsus tashkil qilinadigan fond va zaxiralarni tushunimiz kerak. Bank kapitaliga ustav kapitali, zaxira kapitali, ta'sis foydasi, bank ixtiyorida qoldirilgan o'tgan va joriy yilda taqsimlanmagan foydasi, turli risklarni qoplash uchun tashkil qilingan zaxiralar kiradi va u bank faoliyatida muhim funksiyalarni bajaradi.

Bankning o'z kapitali – hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadigan kattalik. U iqtisodiy ma'nosiga ko'ra bank kapitali funksiyalarini bajaradigan o'zlik mablag'larni ichiga oladi.

Bankning o'z kapitali – bank vaqtincha jalb qilgan qarz mablag'laridan farqli o'laroq, bevosita bankning o'ziga tegishli bo'lgan mablag'lardir. Bank kapitalining boshqa korxonalar kapitalidan farqi shundaki, bankning o'z kapitali aylanma mablag'larining 10 foizini, korxonalarda esa u taxminan 40-50 va undan ortiq foizni tashkil qiladi.

Bank kapitaliga bankning o'z mablag'larining asosiy elementlari kiradi, ya'ni qonunchilikka muvofiq tashkil topgan asosiy fondlar, bank faoliyatini ta'minlash maqsadida ichki manbalar hisobiga tashkil topgan zaxiralar kiradi. Ular **quyidagi shartlarga** javob berishi kerak.

- bank faoliyatining barqarorligi;
- kreditor huquqlari bo'yicha subordinatsiyalanganlik;
- qayd qilib yozilgan daromadlarning yo'qligi.

Tijorat banklari kapitalining minimal miqdori xalqaro Bazel qo'mitasining talablariga ko'ra **asosiy (birinchi darajali) va qo'shimcha (ikkinchi darajali) kapitaldan** iborat bo'lib, u **regulyativ kapital** deb ham yuritiladi. **Regulyativ kapital** – bank faoliyatini boshqarish va iqtisodiy me'yorlar hisob-kitobini o'tkazish maqsadida hisoblash yo'li bilan aniqlanadigan bank kapitalidir.

O'zbekiston Respublikasi banklari faoliyatida ham regulyativ kapital I darajali kapital va II darajali kapitaldan tashkil topgan. Amaliyotda I darajali kapital regulyativ kapitalning 75 foizini yoki undan ortig'ini tashkil etishi lozim. II darajali kapital miqdori I darajali kapital miqdoridan oshib ketsa, kapitalning oshib ketgan qismi kapital hisobiga olinmaydi yoki kiritilmaydi.

I darajali kapital (regulyativ kapitalni 60 % dank am bo'lmagan qismi) tarkibiga quyidagilar kiradi:

- a) to'liq to'langan va muomalaga chiqarilgan oddiy aksiyalar;
- b) nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar. Bu aksiyalar:
 - muayyan sotib olish sanasi va shartlariga ega emas;
 - egasining xohishiga ko'ra sotib olinishi mumkin emas;
 - bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq ularga doir dividendlar to'lanmasligi mumkin;
 - ular bo'yicha o'tgan davrdagi olinmagan (nokumulyativ) dividendlar to'lanmaydi;

d) qo'shimcha kapital (kapitalning ortiqcha qismi) — oddiy va imtiyozli aksiyalar bozor narxining ularning nominal qiymatidan oshib ketishi;

e) taqsimlanmagan foyda:

- kapital zaxiralar;
- avvalgi yillar taqsimlanmagan foydasi;
- joriy yil zararlari.

f) devalvatsiya zahirasi.

g) ozchilik aksiya egalarining birlashgan korxonalar aksiyadorlik hisob varaqlaridagi ulushi v.b.

II darajali kapital quyidagilardan iborat:

a) joriy yildagi sof foyda;

b) xatarni hisobga olgan holda, aktivlar summasining 1,25 foizi va hisob-kitoblardan so'ng I darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdordagi umumiy zaxira;

d) hisob-kitoblardan so'ng I darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdorda aralash turdagi majburiyatlar (aksiyadorlik va qarz kapitali tavsiflarini o'z ichiga olgan vositalar). I darajali kapitalga kiritilmagan aralash turdagi majburiyatlar, jumladan, imtiyozli aksiyalar agarda ular quyidagi shartlarga javob bersalar, II darajali kapitalga kiritilishi mumkin:

- to'liq to'langan bo'lishi kerak;
- garov bilan ta'minlanmagan;
- bank tugatilganda ularga doir talablar bank depozitorlari talablari qondirilganidan so'ng qondirilishi;
- aksiya egasining tashabbusi bilan va oldindan olingan Markaziy bank ruxsatisiz to'lanishi mumkin emas;
- bankning har qanday zarallarini qoplashi va bankni to'lovga qobiliyatsiz deb e'lon qilish huquqini bermasligi;
- agar bank oxirgi 3 chorak mobaynida foyda olmagan bo'lsa, emitent xohishiga ko'ra yoki oddiy va imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar (foizlar) to'lash to'g'risida qaror qabul qilishda ushbu majburiyatlarga doir dividendlar (foizlar)ni to'lash muddati kechiktirilishi mumkinligi;

e) subordinar qarz, bu bankning qarz majburiyatlari shakli bo'lib, bank kapitalini aniqlash maqsadida hisob-kitoblardan so'ng I darajali kapitalning 50 foizidan oshmasligi kerak. II darajali kapitalga kiruvchi subordinar qarz to'lash muddati etib kelgunga qadar, oxirgi 5 yil davo-

mida yiliga 20 foizga kamayib borishi shart. II darajali kapital tarkibiga kiruvchi subordinar qarz quyidagi talablarga javob berishi lozim:

garov ta'minotiga ega bo'lmalik;

- bank tugatilayotganda ushbu majburiyatlar bo'yicha talablar depozitorlar talablari qondirilganidan so'ng amalga oshirilishi;

- boshlang'ich to'lov muddati 5 yildan ortiq bo'lishi;

- bankning ustav kapitalidagi valyuta qismiga teng bo'lgan valyuta aktivlarini qayta baholanish hisobiga tashkil etilgan devalvatsiya uchun zaxiralar.

Kapitaldan chegirmalar kapital yetarliligi koeffitsiyentlari hisoblanguncha amalga oshirilishi kerak.

I darajali kapitaldan chegirmalar nomoddiy aktivlar, shu jumladan, Gudvillni o'z ichiga oladi. **"Gudvill"** – xaridor tomonidan bank sotib olinayotganda, uning sof aktivlari qiymatidan yuqori to'lanadigan summa sifatida ta'riflanadi (barcha aktivlarning bozor narxi va barcha majburiyatlarning bozor narxi o'rtasidagi farq gudvillni tashkil qiladi.).

Régulyativ kapitaldan chegirmalar quyidagilardan iborat:

- birlashmagan nobank shu'ba moliya korxonolari kapitaliga investitsiyalar, jumladan, bunday korxonalar kapitalini tashkil qiluvchi ularning har qanday aksiyalari va qarz majburiyatlari;

- birlashmagan nobank nomoliyaviy korxonalar kapitaliga investitsiyalar, jumladan, bunday korxonalar kapitalini tashkil etuvchi har qanday qimmatli qog'ozlar va qarz majburiyatlari;

- birlashmagan banklar kapitalining har qanday vositalariga investitsiyalar.

Banklarning rezerv kapitali yoki rezerv fondi foydadan ajratmalar hisobiga hosil bo'ladi va u ko'zda tutilmagan zararlar hamda qimmatli qog'ozlar kursining tushishi natijasidagi yo'qotishlarni qoplash uchun mo'ljallangan.

Shuningdek, **"Kapital zaxiralar"** tushunchasi – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan so'ng sof foyda hisobiga shakllangan zaxiralarni anglatadi. Zaxiralardan bank faoliyatida vujudga keladigan turli zararlarni ular yuzaga kelishi bilanoq hech qanday cheklashlarsiz qoplash uchun foydalaniladi.

Kapital yetarliligini hisoblashda, shuningdek, **"Umumiy zaxiralar"** tushunchasi ham ishlatiladi va u bank faoliyati davomida umuman yoki biror-bir faoliyat turi (kreditlash, investitsiyalash) natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash (masalan, yaxshi kreditlar

bo'yicha zarar ko'rib qolinsa) uchun, lekin ayrim muayyan operatsiyalar bo'yicha zararlarni qoplashga mo'ljallanmagan zaxiralar hisoblanadi.

“**Maxsus zaxiralar**”- «Substandart», «qoniqarsiz», «Shubhali» va «Umidsiz» deb tasniflangan kredit va lizing operatsiyalari yoki boshqa alohida muayyan aktivlar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun zaxira tashkil qilinadi.

Taqsimlanmagan foyda. Taqsimlanmagan foyda – rezerv fondiga ajratmalar va dividendlar to'langanidan so'ng qoladigan foydaning bir qismidir. Bu hisob varag'i bankning butun faoliyati davomida olgan foydasining taqsimlanmagan qismi hisobini yuritish uchun mo'ljallangan. O'z ichiga yillik, sof foyda; boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholanganda qo'shimcha qiymat. Hisob raqamlarni oladi. Agar bank moliyaviy hisobot yakunlariga ko'ra foyda bilan chiqsa, ushbu hisob raqam kredit qoldiq bilan yopiladi.

Boshlang'ich qiymatga nisbatan qayta baholangandan qo'shimcha qiymat hisob varag'i inflyatsiya natijasida bank asosiy vositalari qiymati qayta baholanganda, ularning boshlang'ich va bozor qiymatlar o'rtasidagi ijobiy farq, ya'ni boshlang'ich bahosiga nisbatan qo'shimcha qiymatining summasi aks ettiriladi.

8-jadval

Aksioner tijorat banki kapitali o'sishining dinamikasi

№	Kapital	01.01.2014.	01.01.2015.	1.01 2014 yilga nisbatan o'sish	
		Ming so'm	Ming so'm	Ming so'm	Foiz
1	Aksioner kapitali	468201	737778	269577	58.0
2	Zaxira kapital	3594	43432	39838	1108.0
3	Taqsimlanmagan foyda	16236	1286	-14950	-92.0
4	Sof foyda	65789	100169	34380	52.0
	Jami:	553820	882666	328845	59.0

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tijorat bankining aksioner kapitali va zaxira kapitali va joriy yilda o'tgan yilga nisbatan sezilarli oshgan. Bank foydasi taqsimlanishi natijasida tijorat banki tahlil qilina-yotgan davrda o'tgan yilga nisbatan 34380 ming so'm yoki 52.0 foiz sof foydaga ega bo'lgan.

Bank kapitalining **uchta asosiy funksiyalarini** ajratib ko'rsatishimiz mumkin. **Bular: himoya, operativlik va tartibga solish funksiyalari.**

Bank omonatchilari manfaatlarini himoya qilish bank kapitalining asosiy funksiyasi hisoblanadi. Chunki bank aktivlarining asosiy qismi omonatchilar hisobiga tashkil topadi.

Himoya funksiyasi zarar ko'rish xavfi tug'ilganda aktiv zaxiralari shakllantirish orqali bankning to'lov qobiliyatini saqlab qolish, mabodo bank tugatiladigan bo'lsa, omonatchilarga kompensatsiya to'lash imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida, bankning keyingi faoliyat ko'rsatishiga keng yo'l ochib beradi. Lekin shuni e'tiborga olishimiz kerakki, tijorat banklari ko'pgina korxonalaridan farqli o'laroq o'zlarining to'lovga qobiliyatligini joriy bank daromadi hisobiga ta'minlaydilar va faqatgina zararining bir qismi kapital hisobiga qoplanishi mumkin.

Kapital o'ziga xos himoya yostig'i rolini o'ynab, yirik, ko'zda tutilmagan xarajatlar sharoitida bankka o'z operatsiyalarini davom ettirish imkoniyatini beradi. Shu kabi chiqimlarni moliyalashtirish uchun bankning o'z kapitali ichiga kiruvchi turli xil zaxira fondlar mavjud. Lekin mijozlarning ssudalarni ommaviy qaytarilmasligi yuz berganda, zararni qoplash uchun aksionerlik kapitali bir qisminigina ishlatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bank o'z kapitalining mavjudligi uning ishonchligi va likvidililigining birinchi shartidir.

Bank kapitalining himoya funksiyasiga qaraganda, **operativlik funksiyasi** ikkinchi darajali bo'lib hisoblanadi. U bankning o'z mablag'larini yer, bino, inshoot jihozlarni qoplash uchun moliyaviy zaxiralarni shakllantirishga ajratishni o'z ichiga oladi. Bu moliyaviy resurslar manbayi bank ishi faoliyatining birinchi bosqichlarida, ta'sischilarning birinchi navbatdagi xarajatlarni amalga oshirishlarida juda keraklidir. Bank rivojlanishining keyingi bosqichlarida bank kapitalining roli muhim bo'lib, bu mablag'larning bir qismi to'g'ri zaxiralarni tashkil qilish uchun uzoq muddatli aktivlarga sarflanadi.

Garchi zararni qoplashning asosiy manbayi foyda jamg'arish bo'lsa ham zararni qoplash uchun yangi aksiyalar chiqarish yoki uzoq muddatli qarz olish mumkin.

Bank kapitali **tartibga soluvchi funksiyani** ham bajaradi. Bank kapitali ko'rsatkichi yordamida bank faoliyatiga baho berish va nazorat qilish mumkin. Odatda, bank kapitaliga uning minimal miqdori, aktivlar me'yori va boshqa bank aktivlarini sotib olish shartlari bo'yicha talablar

qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy me'yorlar, asosan, bankning o'z kapitali hajmidan kelib chiqadi. Tartibga soluvchi funksiyaga kapitalni ssuda va investitsion operatsiyalarni chegaralash maqsadida ishlatish ham kiradi.

9-jadval

Mamlakatimiz tijorat banklari ustav kapitali to'g'risida ma'lumot, (mln so'm)

№	Bank nomi	01.01.2012-yil holatiga	01.01.2013-yil holatiga	O'tgan yilga nisbatan	
				(+;-)	%
1.	Asaka banki	343 121	361 232	18 111	105,3%
2.	Sanoatqurilish banki	148 005	251 836	103 831	170,2%
3.	Xalq banki	180 000	200 000	20 000	111,1%
4.	Qishloq qurilish banki	171 097	181 113	10 016	105,9%
5.	Agrobank	126 201	167 377	41 176	132,6%
6.	Mikrokredit banki	156 750	160 200	3 450	102,2%
7.	Milliy bank	125 946	125 946	0 000	100,0%
8.	Ipoteka banki	87 484	109 355	21 871	125,0%
9.	Aloqabank	58 077	74 727	16 650	128,7%
10.	Aziya Alyans bank	15 441	50 850	35 409	329,3%
11.	Ipak Yo'li banki	35 600	44 000	8 400	123,6%
12.	Hamkor bank	29 000	38 400	9 400	132,4%
13.	Kapital bank	33 000	36 874	3 874	111,7%
14.	Savdogar bank	27 554	35 992	8 438	130,6%
15.	Turon bank	23 800	34 000	10 200	142,9%
16.	UT bank	24 024	25 912	1 888	107,9%
17.	O'zKDB bank	23 643	23 643	0	100,0%
18.	Invest Finans Bank	13 000	23 270	10 270	179,0%
19.	Saderat bank	-	21 798	-	-
20.	Transbank	17 000	21 000	4 000	123,5%
21.	Turkiston bank	13 259	15 913	2 654	120,0%
22.	Davr bank	-	15 000	-	-
23.	Hi-tech bank	12 000	14 400	2 400	120,0%
24.	Universalbank	12 798	14 043	1 245	109,7%
25.	Orient-finans bank	13 202	13 202	0	100,0%
26.	Ravnaq bank	11 092	12 429	1 337	112,1%
Jami		1 749 286	2 148 321	399 035	122,8%

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ–1438-sonli qaroriga asosan 2014-yilda qo‘shimcha aksiyalar va qarz qimmatli qog‘ozlarini chiqarish va joylashtirish, aholi va xo‘jalik subyektlarining bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish orqali tijorat banklarining umumiy kapitali hajmi 2013-yilga nisbatan 25 foizga oshib 2015-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra 6,9 trln so‘mni tashkil etdi. 2014-yilda tijorat banklari tomonidan bank ustav kapitalini oshirish maqsadida 525,2 mlrd so‘mlik, shu jumladan, “O‘z sanoatqurilishbank”ning 222,6 mlrd so‘mlik, “Agrobank”ning 30,0 mlrd so‘mlik, “Asakabank”ning 68,8 mlrd so‘mlik, “Ipoteka-bank”ning 43,2 mlrd so‘mlik, “Orient Finans”bankning 19,5 mlrd so‘mlik, “Asia Alliance Bank”ning 23,7 mlrd so‘mlik, va “Qishloqqurilish bank”ning 33,3 mlrd so‘mlik aksiyalari investorlar va nodavlat sektor subyektlari orasida joylashtirildi.

10-jadval

Mamlakatimiz tijorat banklari xususiy kapitali to‘g‘risida ma‘lumot
(mln so‘m)

№	Bank nomi	01.01.2012-yil holatiga	01.01.2013-yil holatiga	O‘tgan yilga nisbatan	
				(+;-)	%
1.	Milliy bank.	843 942	962 571	118 629	114,1%
2.	Asaka banki	488 695	586 454	97 759	120,0%
3.	Sanoatqurilish banki	224 949	335 040	110 091	148,9%
4.	Agrobank	236 726	297 810	61 084	125,8%
5.	Xalq banki	234 226	274 470	40 244	117,2%
6.	Qishloq qurilish banki	208 823	222 458	13 626	106,5%
7.	Ipoteka banki	156 842	193 689	36 847	123,5%
8.	Mikrokredit bank	171 292	175 929	4 637	102,7%
9.	Hamkor bank	78 655	105 491	26 836	134,1%
10.	Aloqabank	79 718	105 277	25 559	132,1%
11.	Ipak Yo‘li banki	59 66	78 510	18 850	131,6%
12.	O‘zKDB bank	62 114	77 942	15 828	125,5%
13.	Transbank	54 051	70 443	16 392	130,3%
14.	Aziya Alyans bank	27 519	60 229	32 710	218,9%
15.	Kapital bank	42 180	50 745	8 565	120,3%
16.	Savdogar bank	35 422	48 949	10 200	142,9%
17.	Turon bank	37 259	47 748	10 489	128,2%
18.	UT bank	38 748	45 590	6 842	117,7%

19.	Saderat bank	-	39 148	-	-
20.	Invest Finans Bank	16 576	26 670	10 094	160,9%
21.	Davr bank	-	21 861	-	-
22.	Orient-finans bank	14 835	21 822	6 987	147,1%
23.	Turkiston bank	14 592	17 641	3 049	120,9%
24.	Hi-tech bank	15 332	17 601	2 269	114,8%
25.	Universalbank	15 091	15796	705	104,7%
26.	Ravnaq bank	12 556	14 461	1 905	115,2%
Jami		3 242 365	4053 143	810 778	125,0%

Mamlakatimiz tijorat banklari xususiy kapitali 2013-yilda 2012-yilga nisbatan 20 foizga yoki 810,8 mlrd so'mga o'sgan va 4053,1 mld so'mni tashkil etgan. Shunisi xarakterliki, banklarning barchasida kapital o'sish kuzatilgan.

Banklar faoliyatida muammoli kreditlarning katta miqdori, sof zararlar, aktivlarning katta miqdorda o'sishi, foiz stavkalari bo'yicha yuqori darajali tavakkalchilikning yuzaga kelishi va boshqa tavakkalli holatlar banklarning kapital miqdorini talab qilingan miqdorda ushlab turishni taqozo etadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonunning 52-moddasi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi" qonunning 25-moddasiga muvofiq banklardan bank faoliyati, iqtisodiy vaziyat va moliyaviy ahvoriga xos risk (tavakkalchilik)ka qarab kapital yetarililigining yanada yuqori koeffitsiyentlari ta'minlanishini talab qilishi mumkin.

O'zbekiston tijorat banklari kapitali tarkibi va uning yetariliga qo'yilgan talablar Markaziy bankning 2013-yil 30-yanvarda tasdiqlangan 949-7-sonli "Tijorat banklari kapitalining yetarililigiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizom asosida tartibga solinadi.

Bank kapitalini tahlil etishda asosiy e'tiborlardan biri uning yetarlilik darajasini kuzatishga qaratilgan. Markaziy bank tomonidan banklar barqarorligini ta'minlash maqsadida uning kapitalining yetarililigini belgilovchi normativlar o'rnatilgan. Uning uchta ko'rsatkichi mavjud. Banklar normal faoliyat olib borishi uchun kapitalning yetarlilik darajasini aniqlash bo'yicha o'rnatilgan koeffitsiyentlar minimal darajada bajarilishi lozim.

Tijorat banklari kapitalining yetarlilik darajasi quyidagi koeffitsiyentlar yordamida aniqlanadi.

K_1 – umumiy kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti;

K_2 – I-darajali kapital yetarliligi;

K_3 – Leverej koefitsiyenti.

Tijorat banki umumiy kapitalining yetarlilik koefitsiyenti quyidagicha aniqlanadi:

$$K_1 = \frac{\text{TAKUS.}}{\text{TNOAUS}}$$

Bu yerda: TAKUS – tavakkalchilikka asoslangan kapitalning umumiy summasi, (bu summa chegirmalarni hisobga olgan holda 1-darajali kapital va 2-darajali kapital yig'indisidan iborat).

TNOAUS – tavakkalchilikni hisobga olgan holda (yoki riskka tortilgan) aktivlarning umumiy summasi. Bu summa chegirmalardan keyin tavakkalchilikni hisobga olgan holda balans va balansdan tashqari aktivlar yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Ushbu ko'rsatkich (K_1)ning yetarliligiga ruxsat etilgan darajasi mamlakatimizda 0,1 ga, ya'ni 10 foizga teng. "Bazel" qo'mitasi taklifida esa 8 foiz qilib belgilangan.

Tijorat banki I darajali kapitali yetarliligi darajasi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_2 = \frac{\text{I darajali kapital.}}{\text{TNOAUS}}$$

I darajali kapitalning (K_2 ning) yetarliligi 0,05 ga yoki 5 foizga teng bo'lishi lozim.

Leverej koefitsiyenti

Kapitalning yetarlilik darajasi talablari bilan bir qatorda tijorat banklari leveraj koefitsiyentiga ham rioya etishlari kerak:

$$K_3 = \frac{\text{I darajali kapital.}}{\text{Umumiy aktivlar}}$$

Umumiy aktivlar – nomoddiy aktivlar.

K_3 .. – Leverej koefitsiyenti – bu bank jami aktivlarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich. U birinchi darajali kapitalning nomoddiy aktivlar qiymati, jumladan, gudvillni chiqarib tashlagan holda umumiy aktivlar summasiga nisbati sifatida aniqlanadi.

K_3 ning ruxsat etilgan minimal darajasi 0,06 ga yoki 6 foiz teng. Ushbu kapital yetarliligi talablari faqat kapital yetarliligining eng kam darajasi va kredit tavakkalchiligini aks ettiradi. Bankning nomoddiy aktivlariga bankdagi dasturiy ta'minot, foydalanish huquqi, marketing va texnik ma'lumotlar va boshqalar kiradi. Gudvil yuqorida

ta'kidlaganimizdek, barcha aktivlarning bozor narxi va barcha majburiyatlarning bozor narxi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Kapital yetarililigini aniqlashda riskka tortilgan aktivlarning umumiy summasidan foydalanamiz. Ushbu ko'rsatkich bank aktivlarining qancha miqdori qay darajali riskka asoslanganligini anglatadi.

“Tijorat banklari kapitali yetarililigiga qo'yiladigan talablar to'g'risida”gi 949-7-son nizomga muvofiq balans aktivlari risk (tavakkalchilik) darajasi bo'yicha 0, 20, 50, 100 foizli to'rt guruhga bo'linadi. Har xil toifali aktivlar nisbiy tavakkalchiligi o'z zimmasiga majburiyatlarni qabul qilgan shaxs turi va garov yoki kafolat tavsifiga bog'liq. Masalan, naqd pul 0 foizli risk (tavakkalchilik) darajasiga ega bo'lsa, tijorat kreditlari 100 foizli risk (tavakkalchilik) toifasiga kiradi. Riskka tortilgan aktivlar umumiy summasini hisoblashda har bir aktiv balans summasini unga tegishli risk (tavakkalchilik) miqdoriga ko'paytirishi va tavakkalchilik bo'yicha aniqlangan aktivlar yig'indisi orqali topiladi.

2017-yil 1-yanvar holatiga banklarning jami kapitali 2016-yildagiga nisbatan 20,2 foizga oshib 9,4 trln. So'mni tashkil etdi va bu umumqabul qilingan xalqaro me'yorlar (8%)dan deyarli 3 barobar yuqoridir.

Banklar 2015 – 2019 yillarda sof foydadan ajratmalar ajratish orqali quyida keltirilgan ko'rsatkichlardan kam bo'lmagan miqdorda kapitalni ko'paytirishi lozim.

11-jadval

Kapitalga bo'lgan minimal talablar (%)

Yillar	Regulyativ kapital	I-darajali kapital	I-darajali asosiy kapital
1.01.2015yil	10	7,5	6
1.01.2016 yil	11,5	8,5	7
1.01.2017 yil	12,5	9,5	7,5

1.01.2018 yil	13,5	10,5	8,5
1.01.2019 yil	14,5	11	9,5

2015 – 2019 yillarda tijorat banklari sof foydadan ajratmalar ajratish hisobiga yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlardan kam bo‘lmagan miqdorda kapitallarini ko‘paytirishlari lozim. Bu borada tijorat banklari:

o‘z faoliyatida yuqori samara beruvchi va kam riskga moyil bo‘lgan operatsiyalar ko‘lamini kengaytirishlari;

o‘z qimmatli qog‘ozlarini chiqarish va joylashtirish bo‘yicha siyosatini qayta ko‘rib chiqishi va uni takomillashtirishi;

bank aksiyadorlarining salmog‘i va sifatini oshirishi va o‘zining dividend siyosatini takomillashtirishi;


depozit siyosatini takomillashtirishi, bank resurslarining barqarorligini ta‘minlash va jozibador depozitlar jalb qilish choralarini ko‘rishi;

tijorat banklarining turli zamonaviy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish borasidagi faoliyatini kengaytirish borasidagi ishlarini kengaytirishi lozim.

Yuqorida aytilgan bank kapitalining funksiyalaridan xulosa qilib aytsak, bankning o‘z kapitali – bank tijorat faoliyatining asosidir. U bank mustaqilligini va turli risklar bo‘yicha salbiy oqibatlarni oldini olish manbai bo‘lib, uning moliyaviy barqarorligini ta‘minlaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda tijorat banklari kapitalining yuqori sur‘atlar bilan o‘sish jarayoni kechmoqda. Bunday o‘sishga nafaqat davlat ulushi bor banklar, balki boshqa tijorat banklarining ham erishayotgani bank biznesi uchun mamlakatimizda qulay muhit yaratilganligini ko‘rsatadi.

Tijorat banklarining lami kapitali dinamikasi, mlrd so‘m



10-rasm. Respublikamiz tijorat banklarining jami kapitali, trln so‘m

Mamlakatimiz bank tizimining kapitallashuv darajasini oshirish, uning likvidligini yanada mustahkamlash, barqarorligini kuchaytirish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Natijada bank tizimida erishilgan ko‘rsatkichlar nafaqat xalqaro umumqabul qilingan me‘yorlarga, balki ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha undan ham yuqori ko‘rsatkichlarga erishildi.

Xususan, bugungi kunda bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi 24 foizni tashkil etib, u xalqaro bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi tomonidan 8 foiz qilib belgilangan talabga nisbatan qariyb 3 barobar ziyoddir. 2017-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, banklarning umumiy kapitali 9,4 trln so‘mdan oshib ketdi.

Bank tizimining joriy likvidlik darajasi bir necha yildan buyon 64,5 foizdan yuqori bo‘lib, bu ko‘rsatkich ham jahon amaliyotida umumqabul qilingan minimal ko‘rsatkichdan 2 barobar ortiqdir. Bank aktivlari 2015-yilning shu davriga nisbatan 23,3 foiz o‘sib, 2017-yilning 1-yanvar holatiga 80,4 trln so‘mdan oshdi.

O‘zbekiston bank tizimida Bazel 3 talablaridan kelib chiqib, tijorat banklarining regulyativ kapitaliga bo‘lgan talab: 2016-yil 1-yanvarda 11,5 foiz, 2019-yil 1-yanvarda 14,5 foiz bo‘lishi I darajali kapitalga bo‘lgan talab 2016-yil 1-yanvarda 7,5 foiz, 2019-yil 1-yanvarda 11,5 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan.

Yuqorida aytilgan bank kapitalining funksiyalaridan xulosa qilib aytganki, bankning o‘z kapitali – bank tijorat faoliyatining asosidir. U bank mustaqilligini va turli risklar bo‘yicha salbiy oqibatlarining oldini olish manbai bo‘lib, uning moliyaviy barqarorligini ta‘minlaydi.

5-§. Jalb qilingan mablag'lar

Jalb qilingan mablag'lar tijorat banklari resurslarining asosiy qismini tashkil etadi. Bular depozitlar, shuningdek, kontokorrent va korrespondent hisob varag'idagi mablag'lardir.

Ularning asosiy qismini talab qilib olinadigan qo'yilmalar muddatli hamda jamg'arma qo'yilmalari tashkil etadi.

Talab qilib olinadigan qo'yilmalar, shuningdek, joriy hisob varag'idan mablag'lar omonatchilarning birinchi talablari bilan olinadi.

Muddatli omonatlar – mijoz tomonidan bankka ma'lum muddatga qo'yiladigan qo'yilmalar bo'lib, ular orqali mijozlarga bank tomonidan yuqori foizlar to'lanadi. Bankning foiz stavkalari qo'yilmaning muddati va miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Jalb qilingan mablag'lar bankning real holatini ko'rsatib uning salohiyati to'g'risida xulosa qilishga zamin yaratadi. Real majburiyatlar bank balansida talab qilingunga qadar depozitlar, muddatli depozitlar, jalb qilingan banklararo kreditlar sifatida aks ettirilsa, balansdan tashqari majburiyatlar bank tomonidan beriladigan kafolatlar, mijozlarga ochilgan kredit liniyalarda namoyon bo'ladi. Majburiyatlarni bajarish manbasi bo'lib g'aznadagi mablag'lar, vakillik hisob varag'idagi qoldiqlar, likvid aktivlar, banklararo resurslar bozori yoki Markaziy bankdan olingan kreditlar xizmat qiladi. Bank resurslari nafaqat kredit berish uchun, balki bankning boshqa aktiv va vositachilik operatsiyalarini bajarish uchun ishlatiladi.

Bank resurslari tarkibida aholining omonat qo'yilmalari to'liq summada yoki bo'lib-bo'lib qo'yiladi va berilishi mumkin. Banklar to'lovlilik asosida turli xil maqsadli qo'yilmalarni, muddatli yoki talab qilib olish mumkin bo'lgan jamg'armalarni qabul qiladilar. Ular bank uchun qimmatga tushsada, ular kredit potensialini mustahkamlash manbasi hisoblanadi.

Banklar uchun muddatli qo'yilmalar juda qulaydir.

Banklar mijozlar mablag'laridan yetarli darajada uzoqroq foydalanishni amalga oshirishdan manfaatdordirlar. Shu sababli banklar obligatsiya qarzlari, bank veksellari va boshqalarni chiqarish yo'li bilan o'z resurslarining miqdorini ko'paytirib boradilar.

Obligatsiya qarzlari obligatsiyalar ko'rinishida emitentlashadi.

Hozirgi davrda chet el amaliyotida ikki valyutali obligatsiyalar uchraydi. Bu obligatsiyalar bo'yicha daromadlar obligatsiya egasi ixtiyoriga

ko'ra milliy valyuta yoki AQSh dollarida yoki boshqa chet el valyutasi-da to'lanishi mumkin.

Amaliyotda yirik tijorat banklarinig resurs-depozit bazasi mayda xususiy banklarga nisbatan ancha barqaror va mustahkam bo'ladi va ularning depozit operatsiyalari passivlarining 90 foizidan ortig'ini yuzaga keltirishga zamin yaratadi. Kichik xususiy banklarda ularning iqtisodiyotda tutgan o'rni, faoliyatining barqarorligiga qarab depozitlar salmog'i u yoki bu tomonga o'zgarishi mumkin.

Jalb qilingan mablag'lar aktiv operatsiyalarni, avvalo, kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun bankning pul resurslariga bo'lgan ehtiyojni qoplaydi. Yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo'sh mablag'larini jalb qilish orqali, tijorat banklari iqtisodiyot tarmoqlari va aholining qo'shimcha aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini kapitalga aylanishiga yordam beradi.

Banklarning pul mablag'larini jalb qilish imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, barcha mamlakatlarda bu jarayon Markaziy bank tomonidan tartibga solinib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank kapitali bilan jalb qilingan mablag'lar orasidagi nisbatni bir qator zaruriy me'yorlar yordamida tartibga soladi. Bular kapital yetarliligi, bir kredit oluvchiga to'g'ri keladigan maksimal risk miqdori, aholidan jalb qilingan depozitlarning maksimal miqdori v.b.

Xalqaro bank amaliyotida jalb qilingan resurslar ularni yig'ish usuliga qarab **quyidagi guruhlarga** bo'linadi:

- depozitlar;
- nodepozit resurslar.

Jalb qilingan mablag'larning asosiy qismini depozitlar tashkil qiladi.

Banklar maqsadlarini amalga oshirish uchun pul mablag'larini qo'yilmalarga jalb qiladilar. Depozitlar faqatgina omonatchiga emas, balki bankka ham manfaatlidir. Ko'pgina depozitlar orqali bankning ssuda kapitali shakllanadi, keyinchalik esa bank turli xo'jalik subyektlarini qulay shartlar asosida kreditlaydi. Depozit va kredit foizlari orasidagi farq bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va ssuda kapitalini joylashtirish borasidagi bank marjasi hisoblanadi.

Bankning «Oltin qoidasi»ga ko'ra, bank moliyaviy talablarining hajmi va muddati bank majburiyatlari miqdori va muddatiga mos kelishi kerak.

Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag'larini bankka jalb qilish bilan bog'liq operatsiyalar **depozit operatsiyalari** deyiladi. Depozit operatsiyalari yordamida tijorat banklarining 90 foizdan ortiq passivlari tashkil qilinishi mumkin. Depozit operatsiyalarini tijorat banklari o'zlarining depozit siyosatlarini asosida olib boradilar. 2017-yilning 1-yanvar holatiga banklardagi depozitlar miqdori 44,6 trln. so'mni tashkil etdi. Tijorat bankining depozit siyosati uning kredit siyosati, foiz siyosati va boshqa faoliyat turlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Depozit operatsiyalarini amalga oshirishda bu operatsiya turining obyekt va subyektini aniqlash lozim.

Depozit operatsiyalarning subyektlari bo'lib bir tomondan tijorat banklari qatnashsa, ikkinchi tomondan:

- davlat korxonasi va tashkilotlari;
- moliya, sug'urta, investitsion va trust kompaniyalar;
- xususiy korxonasi va tashkilotlar;
- aksioner kompaniyalar;
- banklar va boshqa kredit muassasalari;
- qo'shma korxonalar, kooperativlar;
- jamoa tashkilotlari va fondlar;
- alohida jismoniy shaxslar yoki ularning birlashmalari qatnashadilar.

Depozit operatsiyalarining obyektini ehtiyojdan ortiqcha pul mablag'lari (qo'yilmalar) hisoblanadi. Depozit operatsiyalarini tashkil qilishning asosi bo'lib, balans likvidligi, mijozlarning moliyaviy ahvolidan barqarorligidir. Depozit operatsiyalari tijorat banklarining **depozit siyosatini** amalga oshirish orqali:

- bank daromadining oshirishga yoki kelajakda daromad olishga sharoit yaratishi;
- bank balansining likvidligini saqlash maqsadida depozit siyosatini amalga oshirish;
- depozit operatsiyalarini amalga oshirishda muddatli qo'yilmalarga e'tibor qaratish;
- depozitlarni jalb qilish va ularni vaqtida qaytarib berish bilan bog'liq bank xizmatlarini rivojlantirish choralari ko'rish va boshqalar uchun amalga oshiriladi.

Pul qo'yuvchilar toifasidan kelib chiqqan holda, **depozitlar quyidagilarga bo'linadi:**

- yuridik shaxslar (korxonalar, tashkilotlar);
- jismoniy shaxslar.

Mablag'larni olish shakliga ko'ra depozitlar quyidagilarga bo'linadi:

- muddatli depozitlar;
- talab qilib olingunga qadar depozit mablag'lar;
- aholining jamg'arma qo'yilmalari.

O'z navbatida, bu guruhlarning har biri turli belgilariga qarab tasniflanadi. **Muddatli depozit mablag'lar** ularning muddatidan kelib chiqib tasniflanadi;

- 1) 3 oy muddatgacha depozitlar;
- 2) 3 oydan 6 oygacha depozitlar;
- 3) 6 oydan 9 oygacha depozitlar;
- 4) 9 oydan 12 oygacha depozitlar;
- 5) 12 oydan yuqori bo'lgan depozit mablag'lar.

Bank tomonidan jalb qilingan mablag'larning yuqori likvidlik darajasini ushlab turish va ma'lum yuqori daromad olish ehtiyojini belgilab beruvchi mavjud qonun va tartibga soluvchi aktlardan kelib chiqib turli aktivlarga joylashtiriladi.

Banklar orasidagi resurslarni jalb qilish uchun raqobatli kurashda muhim vosita bo'lib turlicha foiz siyosati hisoblanadi, chunki qo'yilgan mablag'larga daromad olish mijozlarni qo'yilma qo'yishga undovchi muhim omil hisoblanadi. Depozit bo'yicha foiz stavkalari darajasini har bir tijorat banki O'zbekiston Respublikasi markaziy qayta moliyalash stavkasi, pul bozori holati va o'zining depozit siyosatidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilaydi. Depozit bo'yicha daromad hajmi qo'yilma muddati, summasi, hisob varag'ini amal qilish xususiyati, xizmatlar hajmi va xarakteri va nihoyat mijozning qo'yilma shartnomasi shartlariga bog'liq.

Talab qilib olinguncha depozitlar – bu bankni oldindan ogohlantirmay mijoz tomonidan xohlagan vaqtda talab qilib olinadigan mablag'lardir.

Ularga joriy, hisob-kitob, byudjet va hisob-kitoblarni amalga oshirishi yoki mablag'lardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq hisob-varaqalardagi mablag'larni, boshqa banklarning vakillik hisobvarag'idagi qoldiqlarni kiritish mumkin. Talab qilinguncha depozitlar joriy hisob-kitoblar uchun mo'jallangan. Bu hisob varaqdagi mablag'lar harakati naqd pul, pul o'tkazish, boshqa hisob-kitob hujjatlari bilan rasmiylashtirilishi mumkin. Bank likvidligini boshqarish nuqtayi nazari-

dan qaraganda, joriy va byudjet hisob varaqlari, kapital qo'yimalarni moliyalashtirish bo'yicha hisob varaqlar, maxsus hisob varaqlar banklar uchun foydaliroq hisoblanadi. Chunki bu mablag'lar yuqori likvidlikka ega. Bu depozit turining mijoz uchun asosiy kamchiligi – ular bo'yicha juda kam miqdorda foizlarning to'lanishi yoki umuman to'lanmasligidir. Bank uchun esa bunday depozitlar uzoq muddatga kredit berish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan bank resurslari sifatida ishlatila olmasliklaridir. Bundan tashqari, joriy va byudjet hisob varaqa egalari aksariyat hollarda kredit olmaydilar, bu esa banklarga mablag'larni o'z rejalari asosida ishlatishga imkon beradi.

Talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlarga banklarning korrespondent banklarda ochilgan vakillik hisob varaqalaridagi mablag'larini ham kiritish mumkin. Bu hisob varaqalar ular hisob-kitoblarni va to'lovlarni bir tomonlama tartibda yoki bir birlarining topshiriqlari bo'yicha amalga oshirish maqsadida ochilgan. Mazkur bankning boshqa bankda ochilgan vakillik hisob varag'i «Nostro» schyoti, mazkur bankning boshqa bank uchun ochgan vakillik hisob varag'i «Loro» schyoti deb yuritiladi va bunday hisob varaqalarini ochish banklararo imzolangan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi. Bu hisob varaqalardan to'lovlar, qoidaga ko'ra, ulardagi mablag'lar hajmi chegarasida amalga oshirilishi kerak. Ular bo'yicha mavjud mablag'lardan ko'proq operatsiyalar o'tkazish zaruriyati tug'ilganda, vakilga alohida balans hisob varag'idan overdraft krediti berilishi mumkin.

Talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlarga kontokorrent hisob varag'i mablag'larini ham kiritish mumkin.

Xalqaro bank amaliyotida talab qilib olinguncha depozitlardan tashqari nau-hisob varaqalar (uchinchi shaxs foydasiga hisob hujjatlarini yozib berish), bank tomonidan belgilanadigan hisob cheklari ham kiritiladi.

Talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlar **quyidagi xususiyatlarga** ega:

- depozitning bu turida mijoz xohlagan vaqtida, xohlagan summada mablag'ni qo'yishi yoki olishi mumkin;
- depozit muddati chegaralanmagan;
- kam miqdorda foiz to'lanadi;
- bu turdagi depozitlar bo'yicha Markaziy bankka o'tkaziladigan majburiy zaxiralar salmog'i yuqori va h.k.

Talab qilinguncha bo'lgan depozitlar bo'yicha hisob varaqalari egalari tomonidan joriy operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatiladi

va ular qoldig'ining nomuntazamligi bilan xarakterlanadi. Yuridik shaxslarga ochilgan, talab qilinguncha hisob varaqalaridagi mablag'lar qoldig'i bo'yicha foizlar umuman to'lanmasligi mumkin. Bunday foyda, odatda, mijozlarni hisob kassa xizmatlari uchun to'lov mablag'larini talab qilinguncha hisob varaqalarda mablag'larni minimallashtirish va ortiqcha summalarni qo'yilmalarning daromadliroq shakllariga joylashtirishga undaydi.

Tijorat banklarida jalb qilingan mablag'lar tarkibida talab qilib olinguncha depozitlar turlicha hajmga ega. Bu, odatda, bank resurslarini shakllantirishning eng arzon manbayidir. Mablag'larning yuqori harakatchanligi tufayli talab qiluvchi hisob varaqalaridagi qoldiq doimiy emas, ba'zida juda o'zgaruvchan bo'ladi. Hisob varag'i egasi istagan paytda mablag'larni olish ehtimoli bank oborotida yuqori likvid aktivlarning hissasi ko'proq bo'lishini talab qiladi. Bu esa kamroq likvidlikka ega bo'lgan, biroq yuqori daromad keltiruvchi aktivlar hissasining qisqarishi evaziga yuz beradi. Shu sababli banklar talab qilgungacha hisob varag'i egalariga past foiz to'laydilar yoki umuman to'lamaydilar. Biroq talab qilguncha hisob varaqalardagi mablag'larning yuqori darajadagi harakatchanligiga qaramasdan, ularning minimal, doimiy qoldig'ini aniqlash va ulardan barqaror kredit resursi sifatida foydalanish imkoniyatiga banklar ega bo'lishi lozim.

Muddatli depozitlar – bu banklar tomonidan ma'lum muddatga jalb qilinadigan depozitlardir. Bu turdagi depozitlar qo'yilgan muddatda o'zgarmas bo'lishi lozim va ular joriy to'lovlar uchun ishlatilmaydi.

Muddatli qo'yilmalar mablag'larni shartnoma bo'yicha muddat va shartlarda to'liq bank ixtiyoriga berishni anglatadi, bu muddat tugashi bilan muddatli qo'yilma xohlagan paytda egasi tomonidan qaytarib olinishi mumkin. Muddatli qo'yilma bo'yicha to'lanadigan foiz miqdori depozit muddati, summasi va shartnomani pul qo'yuvchi tomonidan bajarilishiga bog'liq. Qo'yilmaning muddati va summasi qanchalik katta bo'lsa, foizi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, amaliyotda asosan 1, 3, 6, 9, 12 oy yoki yanada uzoqroq muddatga qo'yilmalar rasmiylashtiriladi. Bunday aniq chegaralar pul qo'yuvchilarni o'zlarining mablag'larini ratsional tashkil qilish va ularni qo'yilmalar qo'yishga rag'batlantiradi, shuningdek, banklarga o'zlarining likvidliklarini boshqarish uchun sharoit yaratadi. Pul qo'yuvchi tomonidan qo'yilma bo'yicha mablag'larni muddatidan oldin olinganda, u shartnomada ko'rsatilgan foizlardan to'liq yoki qisman mahrum bo'lishi mumkin. Odatda, bunday hollarda foizlar talab

qilgungacha, qo'yimalarga to'lanadigan foizlar hajmigacha pasaytiriladi.

Muddatli depozitlar depozitlarning boshqa turlariga nisbatan bankka barqaror resurs bazasini ta'minlaydi. Shu bois tijorat banklari muddatli depozitlar salmog'ini ko'paytirishga harakat qilishlari lozim.

Muddatli depozitlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- aniq muddatga ega va ular bo'yicha o'zgarmas (depozit siyosatida ko'rsatilgan) foiz to'lanadi;

- joriy hisob-kitoblar uchun foydalanilmaydi;

- mijoz tomonidan muddatidan oldin olinmasligi lozim, aks holda foiz to'lash bo'yicha shartnoma shartlari bekor qilinadi va talab qilib olinguncha depozit miqdorida foiz to'lanishi mumkin;

- mablag'lar sekin aylanadi, uzoq muddatli ssudalarga yo'naltiriladi;

- majburiy zaxira normasi nisbatan past bo'lishi mumkin va h.k.

Jamg'arma depozitlari aholi pul jamg'armalarining to'planishi uchun xizmat qiladi. Jamg'arma depozitlarga pul mablag'larini jamg'arish yoki saqlash maqsadida shakllantirilgan qo'yimalar kiradi. Ularning maxsus xususiyatli tomonlari – saqlashning rag'batlantirilishi va yuqori daromadlilik darajasi, ma'lum davr ichida jamg'arila borishi kabilar hisoblanadi.

Banklarimiz amaliyotda jamg'arma depozitlari deganda, faqatgina aholi mablag'larini muddatli qo'yimalar yoki talab qilgungacha hisob varaqalarida jamg'arilishi bilan bog'liq har qanday operatsiyalar tushuniladi.

12-jadval

Aksioner tijorat bankining mijozlar bo'yicha depozit shakllari to'g'risida ma'lumot

Depozit turlari	ming so'm	foiz
1. Talab qilib olinguncha depozitlar, jami	105022	78.9
Shu jumladan:		
a) hukumat	16481	12,4
b) jismoniy shaxslar	5352	4,0
d) davlat korxonalari	22025	16,5
e) qo'shma korxonalar	111	0,1
f) xususiy korxonalar, korporatsiya va jamoalar	54692	41,1
g) boshqa talab qilib olinguncha depozitlar	6361	4,8
2. Jamg'arma depozitlari, jami	10957	8.2
Shu jumladan:		

a) hukumat	0	0
b) jismoniy shaxslar	10957	8,2
d) davlat korxonalari	0	0
e) qo'shma korxonalar	0	0
f) xususiy korxonalar, korporatsiya va jamoalar	0	0
g) boshqa talab qilib olinguncha depozitlar	0	0
3. Muddatli depozitlar, jami	17159	12,9
Shu jumladan:		
a) hukumat	0	0
b) jismoniy shaxslar	11659	8,8
d) davlat korxonalari	5500	4,1
e) qo'shma korxonalar	0	0
f) xususiy korxonalar, korporatsiya va jamoalar	0	0
g) boshqa talab qilib olinguncha depozitlar	0	0
Jami depozitlar	133138	100

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tijorat banki tomonidan jalb qilingan depozitlar ichida asosiy o'rinni talab qilib olingungacha bo'lgan depozitlar tashkil qilib, ular salmog'iga 78,9 foiz depozitlar to'g'ri keladi. Muddatli depozitlar bankning barqaror kredit imkoniyatining asosi bo'lsada, ularning hajmi barcha depozitlarning 12,9 foizini tashkil qiladi. Talab qilib olingunga qadar bo'lgan depozitlar tarkibida asosiy o'rinni korxonalar, korporatsiya va jamoalar, davlat korxonalari, hukumat mablag'lari tashkil qilsa, muddatli depozitlar ichida asosiy o'rinni jismoniy shaxslar mablag'lari egallaydi. Tahlil qilinayotgan bankda aholi jamg'armalari salmog'i past bo'lib, u jami depozitlarning 8,2 foizini tashkil qiladi.

Markaziy bank emissiya markazi sifatida makroiqtisodiy darajadagi pul aylanishi hamda bank tizimining likvidligi nuqtayi nazaridan tijorat banklarining ular tomonidan jalb qilingan mablag'lardan foydalanish imkoniyatlarini doimiy ravishda tartibga solib turadi.

Nazariy jihatdan zamonaviy bank tizimida naqd pulsiz aylanishlarning rivojlanishi natijasida dastlabki shakllantirilgan depozitlarni cheklanmagan tarzda bir bankdan ikkinchi bankka o'tkazish, shu bilan birga, tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarni cheksiz oshirish imkoniyati mavjud. Xorijiy nazariyada bu jarayon depozit multiplikatsiyasi (ya'ni mablag'larning bir bankdan boshqasiga zanjirsimon shaklda o'tkazilishi) va kredit ekspansiyasi deb nomlanadi.

Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan majburiy zaxira talablari bank tizimida depozit va kreditlarni oshirishning bevosita cheklovchisi bo'lib xizmat qiladi.

**Multiplikatsiya jarayoni va uni majburiy zaxira tomonidan
cheklanishi quyidagi ko‘rinishga ega**

Banklar	Depozit	Kredit (2-4)	Zaxira (2*20/100)
1	2	3	4
Bank A	1000	800	200
Bank B	800	640	160
Bank V	640	512	128
Bank S	512	409,6	102,4
JAMI	5000	4000	1000

A bankdagi dastlabki depozit 1000 birlikning 20% i (200 birlik) majburiy zaxira sifatida Markaziy bankka o‘tkazilgandan keyin tijorat bankining kredit berish imkoniyati 800 birlikni tashkil qiladi. Bu kredit mijozga berilgandan keyin boshqa bankda depozitga aylanishi mumkin. Masalan, ushbu berilgan kredit summasi B bankining mijozi bo‘lgan mahsulot yetkazib beruvchining hisob varag‘iga sotuvdan tushum shaklida kelib tushadi. A bankning krediti B bankda depozitni vujudga keltiradi. B bank bu depozitdan kredit beradigan bo‘lsa, majburiy zaxirani hisobga olgan holda ($800 \cdot 20/100$) uning miqdori 640 ($800 - 160$) birlikka teng bo‘ladi. Ushbu jarayonni oxirigacha (ya‘ni depozit va kreditlarning to‘liq ishlatilishigacha) tasavvur qiladigan bo‘lsak, 1000 birlikda shakllantirilgan dastlabki depozit miqdori, majburiy zaxira darajasi 20% bo‘lganda barcha banklar bo‘yicha 5000 birlikkacha, 800 birlikka teng bo‘lgan dastlabki kredit miqdori esa 4000 birlikka o‘sishi mumkin.

Agar majburiy zaxira yo‘q deb taxmin qilinsa, nazariy jihatdan depozit multiplikatsiyasi va kredit ekspansiyasi cheksizlikka teng va teskarisi, majburiy zaxira 100% bo‘lgan taqdirda depozit multiplikatsiyasi 0 ga teng bo‘ladi.

Depozit (yoki kredit) multiplikatsiyasining maksimal miqdori yoki chegarasini hisoblash uchun quyidagi matematik formuladan foydalaniladi:

$$D = D_0 \frac{1}{R}$$

Bunda:

D – bank tizimida shakllantirilish mumkin bo‘lgan depozitning maksimal miqdori;

D_0 – dastlabki depozit;

R – depozit birligiga teng keladigan majburiy zaxira.

Yuqorida keltirgan misolimizda depozit multiplikatsiyasi koeffitsiyenti 5 yoki 5000 birlikka ($D=1000*(1/02)$), kredit multiplikatsiyasi koeffitsiyenti esa 4 yoki 4000 birlik ($K=800*(1/0,2)$)ka teng.

Multiplikatsiya darajasi majburiy zaxira darajasiga teskari mutanosib ravishda o'zgaradi, demak, majburiy zaxira darajasi oshsa, bank tizimining kredit salohiyati imkoniyatlari ham kamayadi.

Depozit multilikatsiyasi va kredit ekspansiyasi g'oyasi quyidagi iqtisodiy zaruriyatni keltirib chiqaradi: har qanday tijorat banki depozitlarni qabul qila turib, o'z mijozlari oldidagi majburiyatlarni bajarishlari uchun uning ma'lum bir qismini likvidlilik zaxirasi sifatida saqlashlari lozim. Shu bois tijorat banklarining kredit berish salohiyati miqdori bank tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslar, majburiy zaxira va likvidlilik zaxirasi hajmiga bog'liqdir.

Umuman olganda, tijorat banklarining kreditlash salohiyatini baholashda jalb qilingan mablag'lar, ya'ni depozitlarning umumiy summasi bilan majburiy zaxira hamda tijorat banklari tomonidan o'z likvidligini ta'minlash uchun ajratmalar salmog'iga e'tibor qaratish lozim.

Kredit potentsiali (salohiyati) miqdori (K_s)ni qisqacha holda quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$K_s = D - M_z - L_z.$$

Bu yerda:

D – jalb qilingan mablag'lar;

M_z – majburiy zaxira miqdori;

L_z – likvidlilikni ta'minlash bo'yicha zaxiralar.

Likvidlilik va mablag'lar barqarorligi bo'yicha shartlarini hisobga olgan holda tijorat banklarining kredit salohiyatini 3-guruhga bo'lish mumkin:

- barqaror mablag'lar:

a) banklarning o'z kapitallari;

b) muddatli depozitlar;

d) boshqa banklardan olingan kreditlar.

- o'rta barqaror mablag'lar:

jami muddatsiz jamg'armalar;

- barqaror bo'lmagan mablag'lar;

Barqaror bo'lmagan mablag'lar – banklarga vaqti-vaqti bilan (davriy) kelib tushadi.

Tijorat banklarining umumiy kreditlash salohiyatiga quyidagi omillar obyektiv ta'sir ko'rsatadi:

- bankda yig'ilgan jami mablag'larning umumiy hajmi;
 - kreditlash salohiyati manbalarining tarkibi va ularning barqarorligi;
 - Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan majburiy zaxiralar darajasi;
 - tijorat banklari joriy likvidligini ushlab turish uchun zaxiradan foydalanishga yo'l qo'yilgan hollarda undan foydalanish tartibi;
 - bank majburiyatlarining tuzilishi va umumiy summasi v.b.
- Quyidagi hollarda kreditlash salohiyatining samaradorligiga erishish mumkin:

- likvidlikning minimal darajasi ta'minlansa;
- kreditlash uchun mavjud barcha mablag'lardan foydalanilsa;
- kredit resurslardan maksimal darajada yuqori foyda olinsa;
- tijorat bankining kreditlash qudratini oshirishda;
- bank mijozlarining sonini oshirishda;
- bankning mavjud mijozlarining mablag'larini ko'paytirishda;
- bankning tashkiliy tarmog'ini kengaytirishda;
- bank muassislari mablag'larini biror maqsadda birlashtirish orqali ko'paytirish va uning samaradorligini oshirishga zamin yaratishda;

Bank aktivlariga yo'naltirilgan kredit resurslari barqarorligini ta'minlashda mablag'lar manbalari muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit resurslari ham an'anaviy ravishda o'z va qarz resurslar hisobidan tashkil topadi. Qarz mablag'lari asosiy o'rinni egallab, iqtisodiy belgisiga qarab depozit, jamg'arma omonatlari va pul bozori mablag'lari shaklida bo'lishi mumkin.

Tijorat banklarining nodepozit operatsiyalari deb, tijorat banklarining yirik pul bozorlaridan pul mablag'larini jalb qilish, qimmatli qog'ozlar, veksellarni, obligatsiyalar vositasini muomalaga qo'yish yo'li bilan mablag'larni jalb qilish sohasidagi operatsiyalariga aytiladi.

Jahon banki amaliyotida tijorat banklariga mablag'larni jalb qilishning keng tarqalgan nodepozit shakllari ham mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- banklararo bozordan qarz olish;
- qimmatli qog'ozlarni qaytib sotib olish sharti bilan sotish;
- bank akseptlarini sotish;
- tijorat qog'ozlarini chiqarish;
- evro-dollarlar bozoridan qarz olish;
- kapital notalar va obligatsiyalar chiqarish v.b.

Odatda, tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishda resurslarning nodepozit manbalaridan ham foydalanishga katta e'tibor beriladi. Ular bozorda raqobatchilik asosida vositachilar (brokerlar) orqali sotib olinadi. Nodepozit manbalardan asosan moliyaviy markazlarda joylashgan hamda moliya bozori mexanizmidan erkin foydalanish huquqiga ega bo'lgan yirik banklar keng foydalanadilar. Nodepozit mablag'lar yirik miqdorda sotib olinadi.

Qo'yilmalarga mablag'larni jalb qilish uchun tijorat banklari qo'shimcha ravishda chet el tajribasidan foydalanishi mumkin, xususan:

- aholi mablag'larini jalb qilish bo'yicha turli dasturlarni ishlab chiqish;

- mijozlar – pul qo'yuvchilarga turli-tuman, jumladan, nobank xizmatlarni ham ko'rsatish;

- qo'yilma muddati tugashi bilan mukofot berishda investitsion harakterdagi qo'yilmalardan yuqori foiz stavkasini qo'llash;

- doimiy pul qo'yuvchilarga "bankka sadoqati" uchun mukofot to'lash;

- mijoz va bank iqtisodiy qiziqishlarini optimallashtiradigan, aralash xarakterda amal qiluvchi NAU va SAPS tipidagi hisob varaqlarni qo'llashni amalga oshirishlari mumkin.

2002-yil aprelda «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi qonunini qabul qilinishi bilan aholining banklardagi omonatlarini himoyalash va kafolatlashning huquqiy asoslari yaratildi. Mazkur qonunda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 19-sentyabrdagi 326-sonli qarori bilan Fuqarolarning bankdagi omonotlarini kafolatlash fondi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat bankiga berilgan litsenziya chaqirib olinganda, mazkur fond bankdagi aholi omonatlari bo'yicha haq to'lashni kafolatlaydi. Barcha banklar, shu jumladan, chet el kapitali ishtirokidagi aholi omonotlarini jalb qiluvchi banklar fond bilan yozma bitim tizimini tuzishi majburiy qilib belgilab qo'yilgan. Fond yuridik shaxs sifatida tuzilgan bitimlar asosida faoliyat olib boradi. Banklar fondga bir yo'la va kalendar majburiy badallar to'lashadi. Bankning fondga bir yo'la to'laydigan badali bankning amalda shakllangan ustav kapitalining 0,1 foizini tashkil etadi.

Kalendar badallar har chorakda kafolatlanishi lozim bo'lgan omonatlarning amaldagi umumiy summasining 0,5 foizidan ko'p

bo'lmagan miqdorda belgilanadi. Fondning pul mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida saqlanadi.

Aholi omonatlarining kafolatlanishi aholining bankka bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

6-§. Markaziy bankning tijorat banklarini qayta moliyalash operatsiyalari

Tijorat banklari faoliyatida resurslar yetishmovchiligi yuzaga kelganda tijorat banklari Markaziy bankka murojaat qilishi mumkin. Tijorat banklarini qayta moliyalash uchun lombard kreditini berish Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Tijorat banklariga qayta moliyalash uchun kreditlar berish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan belgilangan me'yoriy hujjatlarga binoan kredit resurslari kimoshdi savdolarida shakllangan foiz stavkalarda beriladi..

Qayta moliyalash – Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan pulkredit siyosati vositalaridan biri bo'lib, u banklarning likvidlik holatini qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi.

Markaziy bankning qayta moliyalashtirish operatsiyasi quyidagi usullarda olib borilishi mumkin:

- tijorat banklarining ixtiyoridagi veksellarni hisobga olish yo'li bilan kreditlash;

- tijorat banklari ixtiyoridagi qimmatli qog'ozlarni garovga olish yo'li bilan kreditlar berish, ya'ni lombard krediti;

- to'g'ridan-to'g'ri kredit berish usuli.

Markaziy bank «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi qonuniga asosan oltin, chet el valyutasi, xalqaro zaxiralar toifasiga kiruvchi valyuta va boshqa boyliklar, davlat qarz majburiyatlari va hukumat kafolatlagan boshqa qarz vositalari, Markaziy bankda depozitga o'tkazilgan va uning depozitariysi uchun maqbul bo'lgan, xarid qilinishi va sotilishiga ruxsat berilgan qonun doirasida operatsiyalar o'tkazilishi mumkin bo'lgan aktivlar, to'lanishiga banklar kafolat bergan tijorat veksellari, shuningdek, Moliya vazirligining kafolatiga asoslangan holda banklarga qayta moliyalash kreditlarini beradi. Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan kreditlarning asosiy maqsadi banklarning likvidligini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Qayta moliyalash kreditlarini berayotganda Markaziy bank tijorat banklarining kredit potensialining joriy holatini doimiy kuzatib turadi.

Buning uchun u joriy monitoringlar o'tkazadi, ularning vakillik hisob varaqlarini tahlil qiladi va asosan o'zi kreditlarni joylashtirish va jalb etish uchun qatnashadigan banklararo kredit bozori – O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasi huzuridagi kredit resurslari kimoshdi savdosini kuzatib boradi.

Tijorat banklarining likvid holatini saqlashga yo'naltiriladigan, ularni qayta moliyalash uchun beriladigan kreditlar miqdori, shuningdek, qayta moliyalash stavkasi, Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatining joriy vaqtdagi aniq vazifalariga muvofiq hamda pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarini hisobga olgan holda belgilanadi. Bunda qayta moliyalash stavkasi inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan holda o'zgartirilishi mumkin.

Markaziy bank yuqorida aytilgan qonunga muvofiq, tijorat banklariga ta'minlanganlik, muddatlilik, to'lovlilik, qaytarib berishlik shartlari asosida milliy valyutada lombard kreditini berishi mumkin. Lombard krediti qayta moliyalash shakllaridan biri bo'lib, ushbu kredit davlat qisqa muddatli obligatsiyalarini garovga qo'yish yo'li orqali beriladi.

Qayta moliyalash kreditlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maxsus ko'rsatmalari bo'yicha, ularda belgilangan shartlar asosida Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmalari va tijorat banklari o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Kredit shartnomasida quyidagilar ko'zda tutiladi:

- tomonlar nomi;
- ularning o'zaro majburiyatlari va iqtisodiy ma'suliyati;
- kredit muddati va miqdori;
- aniq maqsad ko'zlanganligi;
- kredit berish va qaytarish tartibi;
- foiz stavkasi va uni o'zgartirish shartlari;
- ta'minlash shakllari;
- jarima solish va tomonlar shartlashuvining boshqa jihatlari.

Bu kreditni olgan tijorat banklari kreditdan foydalanish va uning holati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga ma'lumotnoma taqdim etib boradi.

Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga kredit berishda Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy me'yorlarga, majburiy zaxira talablariga rioya qilish e'tiborga olinadi.

Ayrim hollarda tijorat banklarining vakillik hisob varaqlarida mablag'lar umuman bo'lmagan yoki yetarli bo'lmagan holatlarda kechiktirib bo'lmaydigan to'lovlarni amalga oshirish uchun tijorat bankiga, istisno tariqasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ruxsati bilan uning hududiy Bosh boshqarmasi rahbari taqdimnomasi bo'yicha bank likvidligini qo'llab-quvvatlash uchun kredit berilishi mumkin.

Bu kreditni olish huquqiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining iqtisodiy normativlariga rioya etadigan, zaxira, majburiy zaxira shartlarini to'liq bajaradigan, tijorat banklariga beriladigan, ya'ni kreditni qaytmaslik riski yo'q va u muddatida foizi bilan to'liq qaytishi ta'minlangan holda beriladi. Kredit 7 ish kuni muddati bilan tijorat banki tomonidan kredit resurslarini tartibga solish fondiga o'tkaziladigan mablag'larning 30 foiz miqdorida beriladi. Kreditning o'z vaqtida, to'liq qaytmaslik hollari yuz berganda yoki kredit shartlari buzilgan hollarda Markaziy bank tijorat bankiga nisbatan kredit shartnomasida ko'rsatilgan choralarni qo'llash huquqiga ega. Agar kreditning qaytmaslik hollari yuz bersa Markaziy bank garov yoki boshqa mol-mulkini talab qilib olishga haqli.

Ushbu kredit bo'yicha foiz stavkasi Markaziy bank amaldagi qayta moliyalash stavkasiga bog'liq bo'ladi.

Tijorat bankida Markaziy bank tomonidan unga ilgari berilgan ushbu kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik vujudga kelgan hollarda, quyidagi ta'sir choralari qo'llaniladi:

- belgilangan foiz stavkasi 2 baravar oshiriladi;

- "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonunning 59-moddasiga binoan muddati o'tgan qarz bosh bank hisob varag'idan undirib olinadi. Agar bosh bank hisob varag'ida qarzlarni qoplaydigan miqdorda mablag'lar bo'lmasa, ushbu qarz to'la qaytarilmaguncha bank vakillik hisob varag'i bo'yicha operatsiyalar to'xtatiladi.

Muddatidan oldin bo'shagan qayta moliyalash kreditlarini o'z vaqtida qaytarmaganlik uchun tijorat banklariga nisbatan Markaziy bank garovga qo'yilgan mulkni sotish yoki kafolat xati bo'yicha talabnoma qo'yish orqali qarz summasini undirib olish huquqiga ega.

Banklar tomonidan aniq maqsadli kredit resurslaridan belgilangandan tashqari maqsadlarda foydalanilishiga yo‘l qo‘yilgan hollarda, ushbu kreditlar muddatidan oldin qaytarib olinadi.

Qayta moliyalash kreditlari bo‘yicha marja darajasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga berilgan qayta moliyalash kreditlarining hisobini yuritish bo‘yicha operatsiyalar balansdagi 12101-“Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli ssudalar” (Markaziy bankda) va 21602-“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olingan qisqa muddatli ssudalar” (tijorat bankida) balans hisobvaraqlarida aks ettiriladi.

Muddati kechiktirilgan qayta moliyalash kreditlari hisobi balansdagi 12109-“Boshqa banklarga berilgan muddati kechiktirilgan qisqa muddatli ssudalar” hisob varag‘ida aks ettiriladi.

Muddati o‘tgan qayta moliyalash kreditlari hisobi balansdagi 12105-“Boshqa banklarga berilgan muddati o‘tgan ssudalar” hisob varag‘ida aks ettiriladi.

7-§. Xorijiy banklar amaliyotida banklarning resurs bazasini shakllantirish usullari

AQShda resurs bazasining shakllanishiga qarab moliya institutlari 2 kategoriyaga bo‘linadi:

1. Depozit institutlar
2. Nodepozit institutlar.

Depozit institutlar

Tijorat banklari depozit institutlarga kiradi va hukumat agentlariga, tadbirkorlarga, jismoniy shaxslarga chek va jamg‘arma hisob raqamlarini ochadi. Tijorat banklari aksiyadorlarning kapitali asosida korporatsiya shaklida tashkil etiladi.

Jamg‘arma va ssuda assotsiatsiyalari ko‘chmas mulkni garov asosida kreditlash va jamg‘arma hisob raqamlarini yuritishga ixtisoslashgan. Tijorat banklari o‘z faoliyatini biznes sohasi va xususiy shaxslar bilan yirik operatsiyalar o‘tkazishga yo‘naltirsa, jamg‘arma va ssuda assotsiatsiyalari yakka tartibdagi mijozlarga xizmat ko‘rsatadi. Bu tashkilotlarning jamg‘arma va kreditlash xizmatlari foizli chek hisob

varaqlarini, kichik biznesga kreditlar, jamg'arma, investitsion va moliyaviy rejalashtirishni o'z ichiga oladi.

O'zaro jamg'arma banklar omonotchilarning mulki hisoblanadi va ko'chmas mulk garovi ostida kreditlash va jamg'arma hisob varaqlarni yuritish bilan shug'ullanadi. Ularning operatsiyalari bo'yicha olingan daromad omonotchilarning omonotlariga yuqori foizlar to'lash yo'li bilan ularga qaytariladi.

Kredit uyushmalar korporativ moliya tashkilot bo'lib uyushma a'zolari tomonidan tashkil etiladi va ular, odatda, kam foydaga ega bo'ladi. Kredit uyushma a'zolari bir sohaga taalluqli (ishchilar, baliqchilar, duradgorlar va h.k.)yoki bir hududda yashashadi.Kredit uyushmalar kreditlar va mijozlarga ko'rsatadigan xizmatlari bo'yicha past foiz stavkalar belgilashadi. Ular kredit kartalar, bankomatlar,depozit seyflar, investitsiyalar bo'yicha xizmat ko'rsatishi, ssudalar taqdim qilishi mumkin.

Nodepozit institutlar

Hayotni sug'urtalash bo'yicha kompaniya faoliyati yo'nalishida hayotni sug'urtalash polislarida sug'urtalangan jamg'arma va investitsiyalarni ifodalashi mumkin.

Investitsion kompaniyalar pul bozori fondlari orqali bank operatsiyalariga o'xshagan xizmatlar taklif qilishi mumkin. Mazkur kompaniyalar o'z mijozlarining mablag'larini qisqa muddatli moliyaviy vositalar sotib olishga yo'naltirishi mumkin.

Moliyaviy kompaniyalar asosan uzoq va qisqa muddatli iste'mol kreditlari berish va kichik biznes sohasiga kreditlar ajratish bilan shug'ullanadi. Moliyaviy kompaniyalarning kreditlari boshqa kreditorlarning kreditiga nisbatan yuqori foizga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Ipoteka kompaniyalari tomonidan uy-joy sotib olish uchun ipoteka kreditlari beriladi.

AQShda moliya institutlari yoki banklarining resurslari 2 guruhga bo'linadi: - o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar.Banklarning o'z mablag'lari tarkibi va miqdoriga bo'lgan talablar qonun bilan belgilangan bo'lib u kapital etariligi bo'yicha belgilangan me'yorlarda o'z ifodasini topadi.

Jalb qilingan mablag'lar AQSh moliya tizimida depozitlar deb nomlanadi. Pul mablag'lari va pul majburiyatlarining qaysi qismi

depozitlar qatoriga kiritilishi bo'yicha me'zonlar qonun bilan belgilab qo'yilgan.

O'z mablag'lariga to'langan aksioner kapital, foydadan shakllantirilgan turli fondlar, subordinar qarz kiradi. Tijorat banklarining o'z mablag'lari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- birinchi darajali yoki asosiy kapital. Bunga: oddiy aksiyalar, muddatsiz imtiyozli aksiyalar, taqsimlanmagan foyda, fondlar, emission daromad (muassis foydasi);

- ikkinchi darajali kapital. Bunga: muddatsizidan tashqari imtiyozli aksiyalar, subordinar qarzning bir qismi, gibrid investitsiyalar (obligatsiyalar, konvertirlanadigan aksiyalar), qayta baholash rezervlari (xorijiy valyuta, garov va boshqalar), ehtimoliy yo'qotishlar bo'yicha zaxiralar.

Tijorat banklari faoliyatida kapital va uning yetarli darajasiga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega

AQShning milliy qonunchiligiga asosan banklarda kapital yetarliligi 3ta asosiy ko'rsatkich orqali baholanadi.

- a) 1- darajali kapital yetarliligi bo'yicha me'yor min 4% bo'lishi;
- b) 2-darajali kapital yetarliligi bo'yicha me'yor 4% bo'lishi;
- c) kapital yetarliligi bo'yicha me'yor- 8% bo'lishi lozim.

Kapitalning yetarliligini hisoblashda Bazel qo'mitasi talablaridan kelib chiqib bank aktivlari risk darajasiga qarab 0%, 10%, 20%, 50%, 100% ga bo'linadi. Bunday bo'linish ko'pgina davlatlarning bank qonunchiligida o'z ifodasini topgan.

AQShda aktivlar 4 guruhga tasniflanadi.

1-guruh - 0% riskli aktivlar. Bularga: naqd pullar (FRT va bank-korrespondentlarning hisob raqamlari va boshqalarda bo'lgan mablag'lar) va AQSh hukumati to'g'ridan-to'g'ri qarzlari;

2-guruh – 20% riskli aktivlar. Bu guruhga AQSh hukumati tomonidan shartli kafolatlangan qarzlari;

3-guruh – 50% riskli aktivlar, Bularga: oilaviy uy-joylar uchun garov asosida berilgan kreditlar, birinchi zakladnoy va oddiy zakladnoy bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar, moliyalashtiriladigan loyihalar-dan olinadigan daromadlar bilan ta'minlangan obligatsiyalar;

4-guruh – 100% riskli aktivlar. 1-3 guruhga kirmagan barcha boshqa aktivlar.

AQSh da firmalar va jismoniy shaxslarning pul resurslari 2 guruhga bo'linadi:

-joriy xarajatlarga sarflanadigan pul mablag'lari;

-rezervlar va jamg'armalar, vaqtincha bo'sh turgan mablag'lar.

Birinchi guruhga turli hisob-kitoblar va to'lovlar uchun oborotda bo'lgan pul mablag'lari kirs, ikkinchi guruh tijorat banklari va nobank moliya institutlarining aktiv operatsiyalarini amalga oshirishning manbasi hisoblanadi.

AQShning qonunchiligiga asosan quyidagilar depozitlar deyiladi:

-pul oborotidan ortgan, depozit tashkilotlarida turgan to'lovlarga yo'naltirilmaydigan pul qoldiqlari;

-depozit tashkilotida bo'lgan pul mablag'lari

-berilgan kreditlar bo'yicha garovga olingan qimmatli qog'ozlar;

-AQSh hukumati qimmatli qog'ozlarini sotib olish uchun avans sifatida deponentlashtirilgan mablag'lar;

-bank xizmatchisi tomonidan imzolangan, lekin to'lanmagan veks, chek, to'lov topshiriqnomasi;

-mizoj mablag'lari hisobidan sotib olingan, lekin mijozga etib bormagan qimmatli qog'ozlar;

-kredit qoldiq, avans to'lovlar va boshqalar.

Depozitlar quyidagi belgilari bo'yicha tasniflanadi:

Hisobotda aks ettirilishiga qarab: talab qilib olinadigan, muddatli depozitlar va jamg'arma depozitlarga bo'linadi. Banklarni ko'proq "uzun pullar", yani muddatli depozitlar qiziqtiradi Chunki bu mablag'lar bankning barqaror resurs bazasini shakllantiradi.

Kelib chiqishiga qarab: depozitlar oddiy, maxsus va ixtisoslashgan depozitlarga bo'linadi:

Oddiy depozitlar – bular pullar yoki depozit hisob varag'i bo'yicha oborotda bo'lgan cheklar, akseptlarga, to'lov muddati kelgan veksellar, kuponlar, to'lov topshiriqnomasi, trattalar;

Oddiy depozitlar bank resurslari hisoblanadi va bank va omonotchi o'rtasida kreditor va qarzdor munosabati shakllanadi. Bank depozitlarning egasi sifatida maydonga chiqadi va pul mablag'larini deponentlashtiradi, bank omonotchiga puli o'rniga qimmati qog'ozlar berishi, qimmatli qog'ozlarga pul mablag'larini berishi mumkin. Mabodo bank bankrot bo'lsa, oddiy depozit egasi imtiyozli kreditorga aylanadi.

Maxsus depozitlar – ma'lum bir maqsad bilan kiritilgan depozitlar bo'lib depozitning bu turida bank ularni maxsus saqlab beruvchi hisoblanadi. Depozitning bu turlariga veksellarni so'ndirish uchun mo'ljallangan, qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun, akkreditivlarni

to'lash uchun mo'ljallangan pul mablag'lari kiradi. Maxsus depozitlar ham tijorat banklarining resurslari hisoblanadi.

Ixtisoslashgan depozitlar – bular puldan tashqari omonotchiga tegishli bo'lgan va uning mulki bo'lgan bankda saqlanayotgan turli qimmatliklar hisoblanadi. Bularga bankda saqlab berishga topshirilgan aksiyalar, obligatsiyalar, sug'urta polislari, qimmatbaho buyumlar va boshqalar kiradi. Omonotchi bu qimmatliklarni bankga topshirsada, u bu qimmatliklar bo'yicha egalik hamda mulkiy huquqlarga ega. Bank bankrotlikka uchraganda mazkur depozitlar tezda omonotchiga qaytariladi.

Omonotchining huquqi ta'minlanishiga qarab depozitlar ta'minlangan va ta'minlanmagan depozitlarga bo'linadi.

Depozitlar ma'lum turdagi qimmatli qog'ozlar garovi bilan ta'minlangan bo'ladi. Davlat hokimiyati organlari depozitlarini qabul qilgan bank ta'minot sifatida ma'lum obligatsiyalarni qo'yishi lozim. Bunday depozitlarning egalari ta'minlangan kreditorlar hisoblanadi. Ba'zi bir boshqa depozitlarning barchasi ta'minlanmagan depozitlar hisoblanadi.

Jalb qilinish muddatlariga qarab depozitlar muddatli va talab qilib olinadigan turlarga bo'linadi.

Depozitlar ishlatish xarakteriga qarab yakka tartibdagi va umumiy depozitlarga bo'linadi. Umumiy depozitlar shtat qonunchilik me'yorlariga asosan turli shakllarda bo'lishi mumkin:

- vafot etishi munosabati bilan mulkka egalik qilish huquqi shaklida;
- depozitni bo'lmasdan egalik qilish;
- birgalikda egalik qilish va boshqalar.

Depozit sertifikatlar bankdagi hisob varaqqa ma'lum miqdorda pul mablag'lari qo'yganlik to'g'risida guvohlik beruvchi hujjat bo'lib u oborotda aylanishi bo'yicha o'z xususiyatlariga ega. FRT boshqaruvchilari Kengashining qoidalariga ko'ra depozit sertifikatlar muomalada aylanadigan va aylanmaydigan turlarga bo'linib, unda ko'rsatilgan summa sertifikat egasiga yoki uning buyrug'i bo'yicha u ko'rsatgan shaxsga qaytarilishi lozim. Mablag'larni to'lab berish:

- depozit qo'yilgandan kamida 30 kun o'tganidan keyin aniq bir sanada qaytarilishi;
- 50 kun oldin pulni olish to'g'risida bildirishnoma berilganda;
- depozit sertifikatni bankga taqdim etganda amalga oshiriladi.

Eng ko'p tarqalgan depozit sertifikat turlaridan biri qaytib olinadigan depozit sertifikat bo'lib taqdim qilinganda to'lanishi kafolatlangan va ular bo'yicha odatda foizlar to'lanmaydi. Muddatli depozit sertifikatlarining muddati 30 kundan bir necha yilgacha bo'lishi mumkin va o'z egasiga ma'lum miqdorda daromad keltiradi. Muddatli depozit sertifikatlarining minimal nominal miqdori 1000 doll. dan kam bo'lmaydi. Yirik summadagi sertifikatlarining nominal miqdori 100.000 doll. dan ortiq bo'lishi mumkin. Keyingilar, odatda, qimmatli qog'ozlar bozorida muomalada ishtirok etadi va kreditlar bo'yicha ta'minot sifatida qabul qilinishi mumkin.

Depozit sertifikatlar shuningdek, suzib yuruvchi foiz stavkali depozit sertifikatlari va jarimasiz depozit sertifikatlari, aksiya kursi bo'yicha indeksitsiyalanadigan depozitlarga bo'linadi.

AQShda har qanday moliyaviy depozit institut yakka tartibdagi pensiya hisob raqamlarini ochishi mumkin va juda katta miqdorga ega bo'lgan bu mablag'lar tijorat banklari moliyaviy resurslarning muhim va salmoqli manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Nau-hisob varaqlar (**Now**) – jamg'arma hisob varaqlari bo'lib buyruq yoki chek yozish orqali to'lovlar amalga oshiriladi va ular bo'yicha foizlar to'lanadi..

AQSh banklari va boshqa moliya institutlari mijozlarning mablag'larini jalb qilish bo'yicha jamg'arish rejalarini ishlab chiqishadi. Omonotchi o'z mablag'larini omonotga qo'yishda kredit institutlari tomonidan taklif etilayotgan foiz stavkalari va ular bo'yicha oladigan daromad normasiga, omonotiga to'lanadigan foizning qancha daromad keltirishi (kompaund) yoki olgan foizning foiz ishlashiga, inflyatsiya darajasiga, soliqlarga, kredit va depozit institutlarining likvidliligi va xavfsizligiga va boshqa jihatlarga e'tibor qaratadi.

Jamg'arishning qaysi turini tanlash mijozning xohishiga bog'liq. Amaliyotda ko'proq Asosiy Jamg'arma Hisob varag'i (**Basic Saving Account**) va Pul Bozori Depoziti Hisob varag'i (**Money Market Depozit Account**)lari qo'llaniladi. Asosiy Jamg'arma Hisob varag'i (Basic Saving Account)da katta bo'lmagan miqdor (100 AQSh doll.dan boshlab)da mablag' qo'yilishi va undagi mablag'lar oqimi bo'yicha operatsiyalar ko'plab o'tkazilishi mumkin, ya'ni bu talab qilinib olinadigan hisob raqam rejimida ishlaydi, odatda, u bo'yicha har chorakda foizlar to'lab boriladi.

Pul Bozori Depoziti Hisob varag'i (*Money Market Depozit Account*)larini ochish uchun katta miqdorda (1000-3000 AQSh doll.) pul mablahlari qo'yiladi va bu hisob raqami bo'yicha cheklangan operatsiyalar o'tkaziladi, yuqori foizlar va mukofotlar to'lanadi. Shuningdek, aylanish muddati 90 kundan 5 yilgacha bo'lgan erkin aylanuvchi depozit sertifikatlari ham amerika banklari amaliyotida qo'llaniladi.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Kredit salohiyati	Depozitlar
Passiv operatsiyalar	Nodepozit
Bank resurslari	operatsiyalar
Kredit resurslari	Pul multiplikatsiyasi
Vositachilik	Banklararo kreditlar
operatsiyalari	Bankning
Bankning o'z	emintetlangan
mablag'lari	mablag'lari
Jalb qilingan	Muddatli depozitlar
mablag'lar	

O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

- Banklarning passiv operatsiyalari deganda nimani tushunasiz?
- Passiv operatsiyalarning shakllarini tasniflang.
- Bank resurslarining mohiyati va tarkibini ifodalang.
- Bank aktiv operatsiyalarining turlarini sanang.
- Jalb qilingan resurslarning tarkibini tushuntiring.
- Tijorat banklarining o'z mablag'lariga qanday mablag'lar kiradi?
- Tijorat banklari kapitali qanday tashkil qilinadi, tarkibi nimalardan iborat?
- Tijorat banklarning kapitali miqdori qanday aniqlanadi va unga ta'sir qiluvchi omillarni sanang.
- Depozitlar nima, ularning qanday turlarini bilasiz?
- Tijorat banklarida resurs yetishmovchiligini qanday yo'llar bilan hal qilish mumkin?
- Markaziy bank tomonidan tijorat banklarini kreditlash qoidasini tushuntiring.

IV BOB. TIJORAT BANKLARINING AKTIV OPERATSIYALARI TARKIBI VA ULARNING JOYLASHISHI

1-§. Bank aktivlari, ularning mohiyati va tarkibi

Tijorat banklari faoliyatida uning aktivlari va ular bilan bog'liq aktiv operatsiyalarining risklik darajasini aniqlash va bu jarayonlarni boshqarib borish muhim ahamiyatga ega. Respublikamiz tijorat banklarining aktivlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-son qaroriga ilova qilingan.

“Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida”gi nizomga asosan ta'riflanadi va tasniflanadi. Mazkur nizomda **aktivlar** — kredit, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog'ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag'lar, bo'lib-bo'lib to'lash shaklida sotilgan mulklar, balansdan tashqari moddalar (chaqirib olinmaydigan kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) hamda moliyalash bilan bog'liq barcha boshqa talablar sifatida ta'riflanadi.

Bank aktivlari tarkibi deyilganda, balans yakuniga nisbatan har xil sifatdagı aktivlar salmog'i tushuniladi. Tijorat banklari aktivlarini asosan **to'rt kategoriyaga** bo'lib o'rganish mumkin.

Bular:

- kassadagi pul mablag'lari va ularga tenglashtirilgan mablag'lar;
- investitsiya va qimmatli qog'ozlar;
- kredit va ssudalar;
- binolar va asbob-uskunalar.

Bank aktivlari – bankka tegishli hamda moddiy qiymatga ega bo'lgan qiymatliklar, naqd mablag'lar, qarzga berilgan mablag'lar, binolar va asbob-uskunalardan tashkil topadi. Bulardan tashqari bankda nomoddiy aktivlar ham mavjud bo'lib, bular o'zlarining moddiy shakliga ega bo'lmaydilar, ammo bankning asosiy faoliyatida faol ishtirok etadilar. Bank aktivlari tarkibining to'g'ri belgilab olinishi va ulardan maqsadli foydalanish banklarning samarali faoliyat olib borishiga asos hisoblanadi.

Tijorat banklarining aktivlari o'ziga xos belgilariga ko'ra likvidlik va risk darajasiga qarab hamda daromad keltirishiga qarab bir necha guruhlariga bo'linadi.

Banklar amaliyotida aktivlar bank balansida **likvidlik darajasiga** qarab aks ettiriladi va likvidlik darajasiga qarab ular quyidagi 3 guruhga: yuqori likvidli aktivlar, likvidli aktivlar, nolikvid (past likvidli) aktivlarga bo‘linadi.

1 guruh - yuqori likvidli aktivlar. Bularga:

a) naqd pullar, sof quyma oltin, qimmatli toshlar, moneta, cheklar va boshqa pul hujjatlari;

b) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan hisob varag‘idagi mablag‘lar;

d) bankning boshqa banklarda ochilgan hisob varag‘idagi mablag‘lar;

e) majburiy zaxira hisob varag‘i bo‘yicha mablag‘lar qoldig‘i;

f) qisqa muddatli (7 kungacha) banklararo kreditlar va depozitlar;

g) xalqaro reyting kompaniyalari yuqori baho bergan, risk darajasi past bo‘lgan mamlakatlar transmilliy kompaniyalarining qimmatli qog‘ozlari.

2 guruh - likvid aktivlar. Bularga:

a) berilgan kreditlar (jumladan, banklararo ham);

b) o‘z investitsiyalari;

d) boshqa qimmatli qog‘ozlar, muddati 30 kungacha bo‘lgan debitorlar.

3 guruh - nolikvid (past likvidli) aktivlar. Bularga:

a) muddati o‘tgan ssudalar;

b) muddati o‘tgan foizlar;

d) sud aralashuvi bilan o‘zlashtirilishi ko‘zda tutilgan ssudalar;

e) tugallanmagan ishlab chiqarish;

f) asosiy vositalar kiradi.

Mamlakatimiz tijorat banklari amaliyotida aktivlar likvidligi ta‘minot likvidligiga qarab baholanadi. Lekin ta‘minot kredit to‘lashning ikkilamchi manbasi hisoblanadi. Aslida beriladigan kredit korxonada moliyaviy holatining barqarorligiga, kredit obyekti bo‘lgan tovar-moddiy boyliklar, xizmatlar, investitsiyalarning daromadlilik darajasiga bog‘liq. Shu bois, tijorat banklari ta‘minotga kreditni qoplashning asosiy manbasi sifatida qaralmasligi lozim. Amaliyotimizda **bank aktivlari ta‘minotning likvidlilik darajasiga qarab 2 guruhga bo‘linadi**. Bular:

- yuqori likvidli ta‘minotga ega bo‘lgan aktivlar;

- yuqori likvidli bo‘lmagan ta‘minotli aktivlar.

Aktivlarning yuqori likvidli ta‘minotiga:

O'zbekiston Respublikasi hukumatining kafolati:

- tijorat banklarida ochilgan hisob varaqlardagi milliy va xorijiy valyuta shaklidagi garov;
- hukumatning qimmatli qog'ozlari shaklidagi garov;
- Markaziy bankning qimmatli qog'ozlari shaklidagi garov;
- qimmatbaho metallar shaklidagi oltin va kumush quymalari shaklidagi garov kiradi.

Aktivlarning yuqori likvidli bo'lmagan ta'minotiga:

- ko'chmas mulk, shu jumladan, yer uchastkasiga bo'lgan huquq;
 - ko'char mol-mulk;
 - xo'jalik jamiyatidagi ulushga bo'lgan huquq;
- ba'zi bir qimmatli qog'ozlar shaklidagi garov;
- yuridik va jismoniy shaxslarning kafolat va kafilliklari kiradi.

Ta'minotni tahlil qilishda tijorat banklari tomonidan uning likvidliligi e'tiborga olinishi lozim. Bunda tijorat banki ta'minotni sotishdan asosiy qarz va foiz summalarining qaytarilishini baholashi shart.

Bank doimiy tarzda o'zining likvidliligini ma'lum bir darajada saqlashi kerak, ya'ni o'zining to'lovga qobilligini shubha ostida qoldirmasligi kerak. Bankning aktivlari qanchalik darajada likvid bo'lsa shunchalik, ular bilan bog'liq risk kichik bo'ladi, ammo shunga javoban ularga to'lanadigan foiz ham shunchalik past bo'ladi.

Bank likvidlilikni ikki xil yo'l bilan ta'minlash mumkin:

- ortiqcha likvidli aktivlarni yig'ish orqali;
- jahon amaliyotida keng qo'llanilayotgan usul – likvidlilikni kam daromad keltiruvchi va tez sotiluvchi qimmatli qog'ozlarga investitsiyalash orqali ta'minlash mumkin.

Kassadagi pul mablag'lari – bankning kassasidagi saqlanayotgan va bank kunlik hisob raqamlar bo'yicha naqd pul berishga, pulni maydalab berishga, naqd pul shaklida kreditlar berishga, bank xarajati uchun haq to'lashga, xizmatchilarga ish haqi berishga va boshqa xarajatlarga ishlatish uchun zarur bo'lgan qog'oz pullar va tangalar hisoblanadi. Shuning uchun ham bank mijozning talabini qondirishda beriladigan qog'oz pullarga va tangalarga ega bo'lishi kerak. Ushbu kassadagi naqd pullarning qoldig'iga bir nechta omillar ta'sir qiladi, jumladan: mavsumiylik, bankning hududiy joylashishi v.b. Odatda, jahon amaliyotida bank aktivlarning naqd pul bo'limiga, kassadagi naqd pullar, majburiy zaxiralar fondiga ajratmalar, vakillik banklarga joylashtirilgan depozitlar hamda inkassatsiya qilinayotgan naqd pullar

qo'shiladi, chunki bu mablag'lar birinchi talab qilinganda naqd pulga aylanadi. Shuning uchun ham bu mablag'larni bankda "birinchi mudofaa chizig'i" deb atashadi, chunki mijoz tasodifan o'z depozitini yoki kredit so'rab kelganda aynan shu mablag'lardan foydalaniladi.

2-§. Bank aktivlarining sifat darajasi

Tijorat banki **aktivlarining sifatini baholashda** qarz oluvchining faoliyati **quyidagi mezonlar** asosida baholanadi:

- tarmoq (iqtisodiyot sektori) tendensiyasi va istiqboli;
- muayyan loyihaning texnik amalga oshiriluv va iqtisodiy raqobatbardoshligi;
- moliyaviy holati va kredit olishga qodirligi;
- kredit tarixi, kredit ta'minotining yomonlashuvi yoki likvidliligining pasayishi;
- muayyan loyihaning iqtisodiy jihatdan asoslanishi;
- rahbarining boshqarish qobiliyati (agar qarzdor yuridik shaxs bo'lsa).

Aktivlar sifatining tahlili va tasnifi natijalari yuqorida keltirilgan mezonlar tijorat banklarining kredit portfeli va boshqa aktivlaridagi risk darajasini aniqlash va baholashda qo'llaniladi.

Bank aktivlari tarkibida birinchi darajali likvidli aktivlar hissasi qanchalik ko'p bo'lsa, bank likvidligi shuncha yuqori bo'ladi. Lekin, shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, bunday aktivlar daromad keltirmaydi.

Risklik darajasiga qarab aktivlar, odatda, **to'rt guruhga** bo'linadi.

1-guruh - riskdan xoli bo'lgan aktivlar. Bularga: naqd pullar va turli kassa hujjatlari, chet-el valyutasi, Markaziy bank omborlarida saqlanayotgan oltin quyilmalar, Markaziy bankning vakillik va zaxira hisob varaqlaridagi mablag'lar. O'zbekiston Respublikasi hukumati va Markaziy bankiga bo'lgan talablar va ular tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, nomoddiy aktivlar v.b.

2-guruh - kichik (minimal) riskli aktivlar. Bularga: boshqa banklarning vakillik hisob varaqlaridagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar, qarzarlar, pul bozori vositalari, risk darajasi past bo'lgan mam-lakatlar banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlangan barcha aktivlar, xalqaro moliya tashkilotlariga bo'lgan talablar, bu tashkilotlar tomonidan kafolatlangan bank aktivlari, xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan muamalaga chiqarilgan qimmatli

qog'ozlar bilan ta'minlangan aktivlar, O'zbekiston Respublikasi hukumati, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, risk darajasi past bo'lgan mamlakatlar hukumati tomonidan chiqarilgan bozor qiymatida baholangan qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi garov bilan ta'minlangan aktivlar va balansdan tashqari majburiyatlar, hisob-kitoblar jarayonida bo'lgan pul hujjatlari va boshqalar kiradi. Bu aktivlar bo'yicha risk darajasi 20 foizga teng.

3-guruh - yuqori riskli aktivlar: jismoniy shaxslarga uy-joy sotib olish va qurish uchun berilgan va garov bilan ta'minlangan kreditlar. Bunda kreditning miqdori garov qiymatining 60 % dan oshmasligi lozim. Bu aktivlar bo'yicha risk 50 foizga teng.

4-guruh - yuqori darajadagi riskli aktivlar: banklar tomonidan berilgan barcha kreditlar, bankning asosiy vositalari va boshqa mulklari, foiz o'stirmaslik maqomi berilgan va qayta ko'rib chiqilgan kreditlar, bankda dastlabki garov huquqiga ega bo'lmagan kreditlar, milliy valyutaga denominatsiya qilinmagan va milliy valyutada moliyalashtirish summasidan oshgan aktivlar, risk darajasi past bo'lgan mamlakatlarning depozitar institutlari kapitali bo'lgan qimmatli qog'ozlar va boshqa aktivlar kiradi. Ushbu guruhga kiruvchi aktivlarning risk darajasi 100 % ni tashkil qiladi.

5-guruh - o'ta yuqori (maksimal) riskli aktivlar: bu aktivlarga sud jarayonidagi va belgilangan tartibda undirilmagan aktivlar, qarzni to'liq yoki qisman undirish uchun bank balansiga olingan ko'chmas mulklar, ikki yildan ko'p muddatga foydalanilmayotgan bank bino inshootlari, muddati bir martadan ortiq uzaytirilgan va shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar. Ushbu guruhdagi aktivlarning risk darajasi 150 % miqdorida belgilanadi.

Bu aktivlar bo'yicha risk darajasi maksimal bo'lib, u 100 foizga teng bo'ladi.

Tijorat bankining balans ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2015-yil 1-yanvarda bankning umumiy aktivlari 60,1 mlrd so'mni tashkil qildi. Shundan 14 foiz (ya'ni 8,5 mlrd so'mni) riskdan xoli bo'lgan aktivlar, 68 foiz (41 mlrd so'm) kam riskli aktivlar, 1 foiz (0,6 mlrd so'm) esa katta riskli aktivlarni, maksimal darajali riskli aktivlar 17 foizni tashkil qiladi. Riskni inobatga olganda barcha aktivlar 18,8 mlrd so'mni tashkil qilgan.

Xalqaro amaliyotda bank aktivlarinig risklilik darajasiga turli yondashuvlar mavjud. Masalan, Rossiya banklari amaliyotida bank aktivlari o'zining risklilik darajasi bo'yicha quyidagicha tasniflanadi.

Rossiya federatsiyasida risk darajasiga qarab aktivlarni taqsimlash

Risk darajasi	Risk koeffitsiyenti	Aktivlarning risklilik darajasi
I	0% dan 2% gacha risk	0% - Rossiya bankidagi mablag'lar 2% - kassadagi mablag'lar
II	2% dan 20% gacha risk	Hukumat kafolati ostidagi kreditlar, davlat qimmatli qog'ozlari, mahalliy davlat organlari kafolati ostida berilgan kreditlar
III	20% dan 50 foizgacha risk	Norezidentlarining bankdagi erkin ayirboshlanadigan valyutada mablag'lari Ularning kafolati ostida berilgan kreditlar, banklararo kreditlar
IV	50% dan 100% gacha risk	Norezident banklardagi vakillik hisob varaqlaridagi cheklangan konvertatsiyalanadigan mablag'lar
V	100% risk	Barcha qolgan aktivlar (nolikvid aktivlarga berilgan kreditlar, qimmatli qog'ozlar va h.k.)

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarning bank amaliyotida aktivlarning sifatini aniqlashning asosiy mezoni bo'lib, riskka tortilgan aktivlarning kapitalga nisbati maydonga chiqayapti va shunga asosan banklar reytingi belgilanadi. Reyting besh tipdagi baholar turkumiga ega.

1-reyting (kuchli)

Agar tortilgan aktivlarning aksioner kapitaliga nisbati 5 foizdan oshmasa, ba'zi hollarda bu nisbat 5 foizlik chegaradan ozroq oshsa ham, agar bankning moliyaviy holati barqaror bo'lsa va boshqaruv organlari o'zlarining muammoli kreditlar bilan ishlashda bilimdonligini ko'rsatsa, bu aktivni kuchli aktivlar sifatida tasniflash mumkin.

2-reyting (qoniqarli)

Zaxiraning o'rtacha tortilgan miqdori jami kapitalga nisbatan 15 foizdan yuqori bo'lmasligi lozim. Bu holda ham ssudalar bo'yicha muammolar bo'lmasa, bankning kredit siyosati talab darajasida olib borilsa shu guruhga kiritish mumkin.

3-reyting (o'rtacha)

Tortilgan aktivlar jami kapitalning 30 foizidan oshmasligi kerak.

4-reyting (muammoli)

Tortilgan aktivlar jami kapitalning 50 foizidan oshmasligi kerak.

5-reyting (qoniqarsiz)

Tortilgan aktivlar jami kapitalning 50 foizidan oshgan holda qo'llaniladi.

Daromad keltirishga qarab bank aktivlari: daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo'linadi.

Daromad keltiruvchi aktivlarga quyidagilar kiradi:

- a) barcha berilgan kreditlar (jumladan, banklararo kreditlar);
- b) investitsiyalar;
- d) xazina veksellari;
- e) davlat obligatsiyalari;
- f) qimmatli qog'ozlar.

Daromad keltirmaydigan aktivlarga quyidagilar kiradi:

- a) pul aktivlari;
- b) asosiy vositalar;
- d) kapital xarajatlar;
- e) barcha moddiy aktivlar va nomoddiy aktivlar;
- f) boshqa aktivlar.

Muddati kechiktirilgan, foizsiz ssudalar, muddati o'tgan ssudalar va foizlar to'lanmagan ijara va boshqalar aktivlarni sifatini pasaytiradi. Aktivlarning maqsadga muvofiq joylashishi bo'yicha umumiy ko'rsatkich - daromad keltiruvchi aktivlarning umumiy aktivlar summasiga nisbati orqali aniqlanadi. Tijorat banklarining daromad keltiruvchi asosiy aktivlari – mijozlarga berilgan kreditlardir. Banklarning ikkinchi daromad keltiruvchi aktiv turi – davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO)ga jalb qilingan banklararo kreditlar va investitsiyalar kichik salmoqni tashkil qiladi.

15-jadval

Daromad keltirish darajasiga qarab tijorat banki aktivlarini guruhlash

Aktivlar	01.01.2014	01.01.2015	farq +; -
Daromad keltiruvchi aktivlar			
Summa	17353	52593	+35240
Foiz	55	80,2	+25,2
Daromad keltirmaydigan aktivlar			
Summa	14224	1296	-1262
Foiz	45	19,8	-25,2
Jami	31577	65555	+ 33978

Muddati o'tgan aktivlarning salmog'i umumiy aktivlar hajmidan 3 foizdan oshmasligi lozim.

Agar bu aktivlar miqdori 2 va undan ortiq marta o'rnatilgan normadan ko'p bo'lsa, bank faoliyati juda muammoli, uning kredit siyosati juda zaif deb baholanadi.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2014-yilda 2015-yilga nisbatan bankning daromad keltiruvchi aktivlari 25,2 punktga oshgan, shunga muvofiq ravishda daromad keltirmaydigan aktivlar miqdori esa 1262 mln so'mga kamaygan.

Bu bankning moliyaviy ahvoli yaxshilanganligidan dalolat beradi.

Tijorat banklarida daromad keltiruvchi aktivlar qatorida kreditlardan tashqari qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasida jalb qilingan mablag'lar ham mavjud.

Agar aktivlar tarkibida daromad keltiruvchi aktivlar salmog'i qancha ko'p bo'lsa, bu holat bank o'z aktivlaridan daromad olish maqsadida samarali foydalanayotganini bildiradi.

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida investitsion institut, broker va diller sifatida ishtirok etadilar.

Tijorat banklari faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa qatnashchilaridan farqli o'laroq, shu bozorda ayni vaqtda eng salmoqli investorlar va eng ishonchli emitentlar sifatida o'zini namoyon eta oladilar.

Tijorat bankining aktivlari tahlil qilinganda, uning investitsiya portfeli (sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga yoki qaram xo'jalik jamiyatlariga va shu'ba xo'jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalar, so'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar) quyidagi omillar asosida tasniflanishi va belgilangan miqdorda ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash zaxirasi yaratilganligiga e'tibor qaratish lozim. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy talablariga binoan **tijorat bankining investitsiya portfeli quyidagicha tasniflanadi:**

- oxirgi bir yil davomida tijorat bankiga daromad keltirmagan investitsiya — «qoniqarsiz» sifatida;

- oxirgi ikki yil davomida tijorat bankiga daromad keltirmagan investitsiya — «shubhali» sifatida;

- oxirgi uch yil davomida daromad olinmagan investitsiya sifati — «umidsiz» sifatida.

Bazel 3 talablaridan kelib chiqib, tijorat banklarining investitsiya portfeli sifatini tasniflash, o'zaro aloqador shaxslar bilan bitimlarga qo'yiladigan talablarni kuchaytirish, 2016-yil 1-yanvardan likvidlikni

qoplash me'yor ko'effitsiyenti, sof barqaror moliyalash me'yor ko'effitsiyentlarini o'rnatish belgilanmoqda.

Agar tijorat banki tomonidan qilingan investitsiyani qayta baholash natijasida salbiy farq yuzaga kelsa, ushbu miqdorda ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash zaxirasi yaratilishi lozim. Investitsiyalarning sifati eng past toifada tasniflanishi kerak. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida kompaniya aktivlarining 40-80 foiz bank kapitali hisobidan ta'minlanadi, qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalardan tushadigan daromadlar esa bank foydasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Tijorat banklari o'z aktivlarini diversifikatsiyalash, qo'shimcha daromad olish va balansining likvidligini ta'minlash maqsadida DQMODan keng foydalanadilar. Bu qimmatli qog'ozlar bo'yicha olinadigan daromad kafolatlangan va ular yuqori likvidlikka egadir. Daromad keltirmaydigan aktivlar guruhiga kassa, Markaziy bankdagi «Nostro» vakillik hisob varag'idagi mablag'lar, asosiy vositalar kiradi. Bank aktivlari hajmida daromad keltirmaydigan aktivlar salmog'ining yuqori bo'lishi bankning resurslar bazasidan samarasiz foydalanayotganligini ko'rsatadi. Daromad keltirmaydigan aktivlarning ulushi jami aktivlarning **yetmish foizidan** ortiq bo'lishi bank kredit siyosati, kreditlar ajratish va ularni boshqarish jarayonining bo'shligini bildiruvchi ko'rsatkich hisoblanadi.

16-jadval

Tijorat banki aktivlarining likvidlilik darajasiga qarab guruhlanishi

Aktivlar	1.01.2014	1.01.2015	Farq +, -
Birinchi guruh aktivlar			
Aktivlar summasi	6614	9548	2934
foizda	21,0	14,6	- 6,4
Ikkinchi guruh aktivlar			
Aktivlar summasi	16639	45270	28631
foizda	52,7	69,0	+ 16,3
Uchinchi guruh aktivlar			
Aktivlar summasi	8324	10737	2413
foizda	26,3	16,4	- 9,9
Jami:	31577	65555	33978

Bankda daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarni tahlil qilish, ularning funksiyalari iqtisodiy sharoitga bog'liq holda ularning tarkibini o'zgartirib turish kerakligi to'g'risida xulosa

chiqarishga imkon beradi. Iqtisodiy beqarorlik sharoitida faoliyatsiz aktivlarning ko'pgina qismi faoliyat qilayotgan aktivlarning elementlariga aylanadi, ko'pincha, bu valyuta va harakatsiz aktivlarga tegishlidir. Agar tijorat banklari o'zlarining balanslari tarkibini o'zgartirsa, bu bank faoliyatida muammolar yuzaga kelishiga olib keladi.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, likvidlik darajasi bo'yicha ikkinchi guruh aktivlar asosiy o'rinni egallaydi va ularning salmog'i 69 foizni tashkil qiladi, ularning miqdori 2014-yilga nisbatan 2,7 marta o'sgan, yuqori likvid mablag'lar 14,6 foizni tashkil qilib ularning miqdori 1,4 marta o'sgan bo'lsa, uchinchi guruh aktivlar 16,4 foizni tashkil qilib yil davomida 1,3 marta o'sgan. Shu bilan birga birinchi va uchinchi guruh aktivlarining miqdori 1.01.2015-yilda 1.01.2014-yilga nisbatan mos ravishda 6,4 foiz va 9,9 foizga kamaygan.

Respublikamiz bank tizimida mijozlar quyidagi asosiy mezonlar bo'yicha baholanadi va bank aktivlari sifatining tahlili va tasnifi, kredit portfeli va boshqa aktivlaridagi tavakkalchilikni aniqlash va baholash ushbu mezonlarga asoslanadi. Bular:

- tarmoq (iqtisodiyot sektori) tendensiyasi va istiqboli;
- muayyan loyihaning texnik amalga oshiriluv va iqtisodiy raqobatbardoshligi;
- moliyaviy holati va kredit olishga qodirligi;
- kredit tarixi, kredit ta'minotining yomonlashuvi yoki likvidligining pasayishi;
- muayyan loyihaning iqtisodiy jihatdan asoslanishi;
- rahbarining boshqarish qobiliyati (agar qarzdor yuridik shaxs bo'lsa).

Yuqorida keltirilgan "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan tijorat banklarining aktivlari sifatiga ko'ra «standart», «substandart», «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» toifalarga tasniflanadi.

Qarz oluvchi moliyaviy holati barqaror bo'lib, u qarzlarni o'z vaqtida to'laydigan bo'lsa, aktivlar sifati **«standart»** deb tasniflanadi va bunday aktivlar qaytarilishida muammolar kuzatilmaydi. U yetarli miqdorda kapitalga, yuqori daromadlilik darajasiga hamda barcha mavjud majburiyatlarni, jumladan, mazkur qarzni qondirish uchun yetarli pul mablag'lari oqimiga, shuningdek, amalga oshirilishi mumkin

bo'lgan strategik rejaga, bozorda raqobatdoshlik qobiliyatiga, yaxshi mahsulotni ishlab chiqarishga va o'z mahsuloti bo'yicha marketing rejasiga ega bo'ladi. Standart aktiv sifatiga kiritilgan kredit yaxshi ta'minlangan, asosiy qarz summasining va foizlarining hech qanday qismi muddati o'tgan yoki shartlari qayta ko'rib chiqilmagan bo'lishi lozim. Zarur hollarda ta'minot turlari notarial jihatdan tasdiqlangan bo'lishi, tegishli mulk bitimini ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda ro'yxatga olinishi, shu jumladan, tijorat bankining garov mol-mulkiga doir huquqlari to'g'risidagi yozuv garov reestrada aks ettirilishi mumkin. Tijorat banki kredit qaytarilmagan holda cheklovlarisiz va erkin ravishda uni ta'minot hisobidan undirib olishga haqli hisoblanadi.

Tijorat banki zaxira kapitali tarkibida sifati «standart» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining bir foizi miqdorida sof foyda hisobidan standart aktivlarga zaxira shakllantiriladi.

Qarzdorning moliyaviy holati barqaror bo'lsada, lekin faoliyatida ba'zi bir salbiy holatlar yuzaga kelsa va u kamchiliklar bartaraf etilmasa, kredit olgan subyektning kreditni o'z vaqtida to'lashida shubha paydo bo'lganda aktivlar sifati «**substandart**» deb tasniflanadi. Shuningdek mijozning moliyaviy holatidan tashqari kredit ta'minoti, kredit hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilishi bo'yicha shubhalarning bo'lishi ham kreditning «substandart» deb tasniflanishiga asos bo'lishi mumkin. Sifati «substandart» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining o'n foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Agarda qarz oluvchining asosiy to'lov manbalari qarz to'lash uchun yetarli bo'lmasa;

- ta'minotga qo'yilgan mulkni va qarz oluvchining boshqa asosiy vositalarini sotish, to'lanishi lozim bo'lgan qarzlarni uzaytirishlarni hisobga olgan holda qo'shimcha to'lov manbalarini topish talab etiladigan bo'lsa;

- qarz oluvchining joriy moliyaviy holatida muammolar bo'lsa, uning kelajakda rivojlanish tendensiya va istiqbollari nobarqaror bo'lsa hamda pul mablag'lari majburiyatlarni qoplash uchun yetarli bo'lmasa;

- qarz oluvchining kapitali yetarli darajada bo'lmasa;

- ta'minot qiymati asosiy qarz summasidan oshmagan, hech bo'lmaganda asosiy qarzning to'lanmagan summasiga teng bo'lsa;

- asosiy qarz va foizlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik muddati 90 kundan oshmagan bo'lsa, aktivlarning sifati «qoniqarsiz» deb tasniflanadi.

Tijorat banki sifati «qoniqarsiz» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining yigirma besh foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Sifati «qoniqarsiz» deb tasniflangan aktivlarga xos barcha xususiyatlarga ega bo'lib, mavjud sharoitda aktivlarning to'liq qaytarilishini shubha ostiga va kam ishonchli qilib qo'yadigan, «qoniqarsiz» aktivlarning hech bo'lmaganda birorta ko'rsatkichi, shuningdek, ayrim boshqa salbiy tavsiflari mavjud bo'lsa (bozorda oson sotiladigan ta'minotning mavjud emasligi yoki ta'minlanmagan aktivlarning mavjudligi yoxud qarz oluvchining bankrot deb e'lon qilinishi);

- yaqin kelajakda aktivning qisman to'lanish ehtimoli mavjud bo'lsa;

- asosiy qarz va foizlar bo'yicha 90 kundan ortiq, lekin 180 kundan oshmagan muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa;

- aktivlar sifati «shubhali» deb tasniflanadi. Bunda yo'qotishlar ko'rish ehtimoli yuqori bo'lgan, lekin ayrim ijobiy omillari mavjud bo'lgan aktivlar sifati sharoit oydinlashguncha «umidsiz» deb tasniflanmaydi.

Tijorat banki sifati «shubhali» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining ellik foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan yoki qaytmasligidan dalolat beruvchi omillar yoki alomatlar mavjud bo'lgan hamda qaytmaydigan yoki qiymati juda pastligi tufayli hisobini balansda aktiv sifatida yuritilishi maqsadga muvofiq emas deb baholanadigan, aktivlarning undirilishi sud jarayonida bo'lgan;

- qarzdor va lizing oluvchidan undirilgan, garovga qo'yilgan mol-mulkka bo'lgan huquqlardan foydalanish yo'li bilan tijorat banki tomonidan balansga qabul qilingan kundan boshlab uch oy muddatda sotilmagan va bank faoliyatini kengaytirish uchun sotib olingan binodan ikki yil mobaynida foydalanilmagan hamda bank faoliyati uchun ortiq foydalanilmay qo'yilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida sotilmagan bo'lsa;

- aktivlarning to'lash muddati uzaytirilgan bo'lsa;

- asosiy qarz va foizlar bo'yicha 180 kundan ortiq kunga muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa, bunday aktivlar sifati «umidsiz» deb tasniflanadi. Tijorat banki tomonidan ta'minotga olingan mulkni sotish orqali bunday qarzdorlikni bartaraf etish yoki uni qaytarish choralari qo'llanishi lozim.

Tijorat banki sifati «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining yuz foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim. Aktivlarning sifat darajasiga qarab shakllantirilgan zaxiralarning yetarliligi davriy ravishda kamida oyiga bir marotaba tahlil qilinishi, zarur hollarda, qo'shimcha zaxiralar yaratilishi lozim.

Agar qarzdor bir nechta tijorat bankidan kredit olgan va ularning birida qaytarilishi lozim bo'lgan aktivlar sifati eng past toifada tasniflangan bo'lsa, boshqa tijorat banklari ham ushbu qarzdorga berilgan aktivlar sifatini mazkur toifada tasniflashlari lozim. Aktiv sifati «umidsiz» deb tasniflanishi bilan 3 ish kuni ichida uning hisobi balansdan tashqari moddalarda aks ettirilishi va tegishli maxsus zaxiralar kamaytirilishi lozim. Zararlar ular tan olingan davrda hisobdan chiqarilishi kerak.

Quyida keltirilgan omillardan hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lishi, Markaziy bank tomonidan muayyan aktivlar sifatini yanada salbiy tasniflash uchun asos bo'ladi:

- tijorat banki kredit portfeli umumiy holatining yomonlashuvi;
- tijorat bankida kreditlar berishga doir yetarli tahlil va tekshiruvlarning o'zgarishi yoki mavjud emasligi;
- tijorat banki shu tarmoq va sohaga berilgan kreditlar bo'yicha amalda zararlar ko'rganligi;
- yirik aktivlarning to'planishi;
- nomaqbul iqtisodiy yo'nalish va sharoitlar, xususan, qarzdorlarning bir yoki bir necha sanoat tarmoqlari yoki ma'muriy-hududiy birlikda katta miqdorda to'planishi;
- tijorat banki tomonidan taqdim etilgan hisobotni tahlil qilish yoki Markaziy bank tomonidan o'tkazilgan inspeksiya tekshirishlari natijasida aniqlangan qarzdorning yoxud tijorat bankining moliyaviy ahvoriga taalluqli boshqa holatlar.

Bunda Markaziy bank belgilangan miqdorda zaxiralarni qayta ko'rib chiqishni va (yoki) qo'shimcha zaxiralar shakllantirishni talab qilishi mumkin.

Aktivlar sifati bo'yicha shakllantiriladigan maxsus zaxira miqdori

Aktivlar sifati	Maxsus zaxira (qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasi miqdoridan kelib chiqib belgilanadi (foizda))
Standart	1
Substandart	10
Qoniqarsiz	25
Shubhali	50
Umidsiz	100

Sifati «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar **muammoli aktivlar** deyiladi. Tijorat banki balansida va balansdan tashqari moddalarda yuritilayotgan **muammoli aktivlarning ulushi** jami aktivlarning **o'n foizidan ortiq** bo'lsa, Markaziy bank tomonidan tijorat banki ijro rahbariyatining malakasi Markaziy bank talablariga muvofiq emas deb topishga hamda tijorat banki kengashi tomonidan bank faoliyati ustidan o'rnatilgan nazoratni yetarli emas deb hisoblanishi mumkin. Odatda, sifati «substandart», «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplashga mo'ljallangan majburiy zaxiralar shakllantiriladi va u banklar faoliyatida maxsus zaxiralar deb ataladi.

3-§. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari va ularni boshqarish

Daromad olish maqsadida resurslarni aktivlarga joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar tijorat banklarining aktiv operatsiyalari deyiladi. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari – bu, birinchi navbatda, ularning kredit operatsiyalari, investitsiya operatsiyalari, tijorat bankining mol-mulkini shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalar, kassa-hisob operatsiyalari v.b. Shuningdek, tijorat banklari aktiv operatsiyalari qatoriga vositachilik bilan bog'liq faktoring, lizing, forfeyting operatsiyalarini ham kiritish mumkin.


Tijorat banklari o'zining joriy faoliyatini amalga oshirish, muddati kelgan, jalb qilingan jamg'arma mablag'larini qaytarib berish, turli operatsion xarajatlarni, jumladan, xodimlarga ish haqi va boshqa

material hamda xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish uchun kassasida yetarli miqdorda pul mablag'iga ega bo'lishi lozim. Xorijiy davlatlar banklarida naqd puldagi kassa aktivlarining hajmi bizning banklardagiga qaraganda kam miqdorni egallaydi.

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari o'z shakli, ahamiyati va yo'nalishi, iqtisodiy mohiyati, likvidligi, risk va daromad darajasiga qarab turlicha o'rin va ahamiyatga ega.

Tijorat banklari aktivlari bilan bog'liq bo'lgan risklar ichida kredit operatsiyalar bo'yicha risklar asosiy o'rinni egallaydi. Kredit operatsiyalari tijorat banklarining yuqori riskli operatsiyalaridan hisoblansada, bankka yuqori foyda olishini ta'minlaydi. Bu aktiv operatsiyalar bilan bog'liq bo'lib, bu risklarga berilgan kreditlar hamda to'lov muddati kechiktirilgan ssudalar bo'yicha risklar kiradi.

Kredit riski nafaqat kredit obyektiga, balki kredit subyektiga yangicha yondashishi orqali ham o'sib boradi.



11-rasm. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari

Bu risk mijozning moliyaviy ahvoli og'irlashganda, ularning faoliyatida ko'zda tutilmagan qiyinchilik va muammolar yuzaga kelganda, bozorda noqulay sharoit yuzaga kelgani sababli paydo bo'lishi mumkin.

Xuddi shuning uchun ham, har bir tijorat banki o'z aktivlarini joylashtirishni va uni boshqarish usullarini o'zi ishlab chiqishi zarur. Ma'lumki, tijorat banklari aktivlarining qiymati va ulardan olinadigan foyda o'zgarib turishi mumkin. Aktivlar bilan bog'liq risklar aktivlar bahosining va ular orqali olinadigan foyda miqdorining kamayishi aktivlar bo'yicha risklar salmog'ining oshishiga olib keladi.

Bu masalani aktivlarni to'g'ri diversifikatsiya qilish yo'li bilan hal qilish mumkin. Chunki ba'zi bir aktivlar bo'yicha ular qiymatining pasayishi boshqa aktivlar qiymatining o'sishi bilan qoplanishi va natijada bank aktivlarining umumiy qiymatlarini saqlab qolishi imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin.

Bank aktivlarining qiymatini va ulardan keladigan daromadlarni to'g'ri hisob-kitob qilib rejalashtirish bank faoliyatining samaradorligiga olib kelishi, aktivlar qiymatini noto'g'ri hisoblash, ularni joylashtirish bankning moliyaviy ahvolidagi qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Forfeyting operatsiyalari ssuda operatsiyalarining bir turi bo'lib, veksellar va boshqa moliyaviy hujjatlarni sotib olishni ko'zda tutadi. Forfeyting ko'proq eksportni kreditlashda qo'llanilib, tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha kelajak davrda to'lanishi lozim majburiyat va qarz talabnomalarini sotib olishda ishlatiladi.

Faktoring operatsiyada bank yoki maxsus kompaniyalar tomonidan o'z mijoz bo'lgan mol yetkazib beruvchining mol sotib oluvchiga bo'lgan, yetkazib berilgan tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha talabini ma'lum haq evaziga sotib olinishi tushuniladi. Tijorat bankiga yuqori daromad keltiruvchi aktiv operatsiya turi – bu investitsiya operatsiyalari bo'lib, bank yuqori daromad olish maqsadida o'z va jalb qilgan mablag'larining ma'lum qismini uzoq muddatlarga qimmatli qog'ozlarga, investitsiyalarga yo'naltiradi. Bunda mablag'larni:

- to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalash;
- portfel investitsiyalash, ya'ni bir necha emitentning qimmatli qog'ozlari yagona paket sifatida boshqariladi;
- lizing operatsiyalari;
- bank faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bino-inshootlar, nomoddiy aktivlarga qo'yilmalar.

Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining xususiyatli tomonlari shundaki, u bankning passiv operatsiyalariga nisbatan ikkilamchidir. Chunki aktiv operatsiyalarni amalga oshirish, ularning muddati, miqdori passiv operatsiyalar yordamida jalb qilingan resurslar miqdori va muddatiga uzviy bog'liq. Tijorat banklarining resurslarni joylashtirish bilan bog'liq operatsiyalarning aktiv operatsiyalar deyilishini quyidagi jihatlar bilan asoslash mumkin:

Birinchiidan, tijorat banklarni jalb qilgan resurslarini mijozlar nomidan emas, balki bank nomi joylashtiradi, ya'ni bank mazkur mablag'ning egasi sifatida maydonga chiqadi.

Ikkinchidan, agar passiv operatsiyalarda bank mijozga resurs uchun foiz to'lovi to'lagan bo'lsa, aktiv operatsiyalarda banklar bu resurslar uchun foiz to'lovini olish imkoniga ega bo'lishadi;

Uchinchidan, banklar aktiv operatsiyalar orqali yuqori daromadga ega bo'ladi.

To'rtinchidan, banklar aktiv operatsiyalar bilan bog'liq xarajatlar va risklarni o'z zimmlariga oladilar.

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari orqali kreditning bahosi shakllanadi. Tijorat banklarining asosiy turi bo'lgan kredit operatsiyalari va ular bo'yicha o'rnatiladigan **foiz stavkalariga**:

- mijozlar tomonidan kreditga bo'lgan talab;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi;
- kreditning muddati;
- kreditning turi;
- jalb qilingan mablag'larning o'rtacha foiz stavkasi;
- mamlakatdagi pul muomalasining holati (odatda, inflyatsiya jarayonlari shiddat bilan o'sganda, kredit bo'yicha foiz stavkalar ham yuqori bo'ladi, deflyatsiya sharoitida u past darajada bo'ladi) ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari aktiv operatsiyalarining asosiy maqsadi yuqori foyda olish va bank faoliyati likvidligi hamda barqarorligini ta'minlashdan iborat. Biz keyingi mavzularda tijorat banklari aktiv operatsiyalarining turlarini yanada kengroq ko'rib chiqamiz.

4-§. AQSh tijorat banklarining aktivlari va ularning tarkibi

Bankning aktivlari deganda bankga kelajakda iqtisodiy jihatdan manfaat keltiruvchi amalga oshirilgan operatsiyalar, sotib olingan mulklar tushuniladi. Iqtisodiy manfaat bank aktivlarini vaqtincha foydalanishga berish, boshqa aktivlarga almashtirish, ularni qarz majburiyatlarini to'lashga yo'naltirish, ulardan foydalanish orqali foyda ko'rishda o'z ifodasini topadi.

Bankning aktivlari quyidagi hisob varaqlarida o'z ifodasini topadi:

1. Kassa va nostro hisob varaqlari – bular rezerv sifatida saqlanayotgan banknotalar va tangalar, korrespondent banklardagi depozitlar.

2. Sotilgan federal fondlar hisob raqami – FRTga a'zo bo'lgan banklar uchun FRT joylashtiriladigan, ularning rezervlar bo'yicha talabini qondiradigan depozitlar bo'yicha talablar; Federal fondlarni sotish va sotib olish orqali bozor qisqa muddatga muvofiqlashtirilib turiladi.

3. Xazina qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish bo'yicha hisob varaqlari – AQSh hukumatining majburiyatlarini bozorda sotiladigan majburiyatlari. Bu o'z ichiga xazina veksellarini, davlat qimmatli qog'ozlari va obligatsiyalari.

4. AQSh hukumati korporatsiyalari va boshqa idoralarning majburiyatlar bo'yicha investitsiyalari – Federal yer banki tomonidan chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlari.

5. Shtatlar va boshqa siyosiy bo'linmalarning majburiyatlar bo'yicha investitsiyalar – daromadi soliقدan ozod qilingan munitsipal obligatsiyalar.

6. Ko'chmas mulk uchun ajratilgan kreditlar.

7. Biznesni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar.

8. Iste'mol kreditlari.

9. Bino inshootlarni ta'mirlash va jihozlashga yo'naltirilgan mablag'lar.

AQSh banklari amaliyotida bularni barchasi tijorat *banklarining aktivlari portfelini* tashkil etadi. Boshqarish usullariga qarab bank aktivlarini to'rtta asosiy guruhga bo'linadi. Bular:

- kassadagi pul mablag'lari va unga tenglashtirilgan mablag'lar;
- qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar;
- kreditlar va lizing;
- bino, inshootlar va nomoddiy aktivlar.

Aktivlarni yuqoridagi yo'nalishlar bo'yicha oqilona boshqarish banklarga daromad olishni ta'minlasa, ularni to'g'ri joylashtirish bank ishida muammolarning yuzaga kelishiga olib keladi.

Amerika banklari amaliyotida ham aktivlarning daromadlilik darajasiga qarab ularni 2 guruhga ajratish mumkin.:

- Daromadli aktivlar (Earning Assets);
- Daromad keltirmaydigan aktivlar (Noearning Assets).

Daromad keltiruvchi aktivlarga ssudalar, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, hisobga olish operatsiyalari, bank investitsiyalari va boshqalar kiradi. Daromad keltiruvchi aktivlar salmog'ining oshishi bankda zarur rezervlarning bo'lishiga va bank tomonidan samarali depozit siyosatini olib borishga bog'liq. Aktivlarning to'g'ri va samarali joylashtirilishi banklarning kredit siyosatiga ham bog'liq. Banklarning kredit operatsiyalari bo'yicha kredit ekspansiyasini o'rnatish, kredit hajmini qisqartirish (rezerv talablar orqali), ochiq bozorda operatsiyalar olib borish, veksellarni qayta hisobga olish bo'yicha limit o'rnatish, hisob stavkaning yuqori chegarasini belgilash, ssudalar va investitsiyalar hajmini kamaytirish yoki oshirish orqali aktivlar bo'yicha daromadlarni oshirish va kamaytirish bankning kredit siyosatida belgilanadi.

Daromad keltirmaydigan aktivlar daromadsiz aktivlar deb ataladi. Ularga kassadagi va bank omboridagi naqd pullar, Federal rezerv bank yoki korrespondent banklardagi depozitlar, inkassatsiyada bo'lgan cheklar, asosiy fondlar va boshqalar kiradi.

AQSh tijorat banklarida aktivlar tijorat banklari faoliyatining rezervlari sifatida 2 kategoriyaga bo'linadi:

- birlamchi rezervlar;
- ikkilamchi rezervlar.

Birlamchi rezervlarga naqd shakldagi likvid aktivlar kiradi. Bu aktivlar yuqori likvidlikka ega bo'lsada daromad keltirmaydi. Ularga kassadagi va rezervdagi naqd pullar, Federal rezerv bank va korrespondentlik hisob varag'ida bo'lgan mablag'lar kiradi. Odatda, kassadagi mablag'lar bank mablag'larining bir qismi bo'lib bank kassiri tomonidan joriy to'lovlar uchun ishlatilsa, rezerv pullar bank tomonidan depozitlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishga yo'naltirishi mo'ljallangan banknotalar hisoblanadi.

AQSh qonunchiligiga muvofiq hech qanday muvofiqlashtiruvchi tashkilot bank tizimi va tijorat banklarida mablag'larni zaxiraga olib qo'yishga haqli emas.

Ikkilamchi rezervlar – bular pul shaklida bo'lmagan likvid aktivlar bo'lib ular tarkibiga davlat va munitsipal obligatsiyalar, tez to'lanishi lozim bo'lgan, muddati 30 kungacha bo'lgan kreditlar kiradi.

Ikkilamchi aktivlarning asosiy funksiyasi – birlamchi (kassa) aktivlarni ta'minlashga xizmat qilishdan iborat. Ikkilamchi aktivlarning zarur miqdori - rezervlar darajasining o'rtacha ko'rsatkichiga, bank tizimining ba'zi likvidlilik ko'rsatkichlariga, jumladan, kassa rezervlari va hukumat qimmatli qog'ozlarining bank tizimidagi umumiy depozitlar summasiga nisbati bilan aniqlanadi.

18-jadval

AQSh banklari aktivlari va ularining taqsimlanishi

Ko'rsatkichlar	Miqdori	Kreditlar ulushi (%)	Qimmatli qog'ozlar ulushi (%)
Aktivlar	100 mln.doll.dan ortiq	53,2	29,0
Aktivlar	1 mlrd.doll.dan ortiq	64,7	13,6

Bank aktivlarini boshqarish usullari

AQSh bank ishining nazariy asoslarida bank aktivlarini boshqarishning bir necha usullari bayon etiladi. Shulardan 3 tasini ko'rib chiqamiz.

Mablag'larning umumiy fondi usuli. Bu usulning asosiy g'oyasi bankning barcha mablag'lari o'z mablag'lari (kapital, fondlar va rezervlar) va jalb qilingan mablag'lar (turli depozitlar va qarz mablag'lar)ni birlashtirib boshqarish. Banklar birinchi navbatda, birlamchi va ikkilamchi rezervlarni shakllantiradi. Lekin bank balansida ular alohida qator sifatida ko'rsatilmaydi. Bu likvid mablag'lar tarkibida birlamchi rezervlar kassa rezervlari, ikkilamchi rezervlar nokassaviy rezervlar tariqasida ifodalanadi. Banklar qonunchilik bo'yicha majburiy me'yor talablaridan kelib chiqib rezerv mablag'larning umumiy summasini bank ixtiyorida bo'lgan barcha mablag'lar fondiga nisbatan foizlarda o'rnatadi. Mablag'larni umumiy fond usuli bo'yicha joylashtirishning keyingi bosqichi – kredit portfelini shakllantirish hisoblanadi. Bank aktivlari ichida ssudalar asosiy o'rinni egallaydi vakreditlar orqali bank o'zining asosiy daromadlarini shakllantiradi.

Kreditlardan ortgan mablag'larini banklar qisqa muddatli va uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarga joylashtirishi mumkin. Aktivlarni

boshqarishning mablag'larning umumiy fondi usulidan foydalanishda asosiy e'tibor bank likvidliligiga qaratiladi.

Aktivlarni taqsimlash usuli (mablag'lar konversiyasi usuli)

Bank uchun zarur bo'lgan likvid mablag'larning hajmi jalb qilingan mablag'larning manbasiga bog'liq. Bu usulda bank resurslari har bir turining aylanishi va majburiy rezerv me'yorlaridan kelib chiqib resurslar taqsimlanadi. Jalb qilingan har bir manba (resurs) alohida aktivlarning guruhlariga qarab taqsimlanadi. Bunda qoplash uchun rezerv talab qilmaydigan asosiy kapital asosiy vositalar va uzoq muddatli investitsiyalarga yo'naltirishi mumkin. Bu usulning ijobiy tomoni shundaki, resurslarning turlariga qarab ularni bank aktivlarining turlariga taqsimlash naqd pul shaklidagi likvid aktivlar salmog'ini kamaytiradi, bu o'z navbatida, foydaning oshishiga olib keladi.

Bu ikkala usulning kamchiligi shundaki, ularda mijozlarning kreditga bo'lgan ehtiyojini qondirish ga yetarli e'tibor qaratilmaydi. Kreditga bo'lgan mavsumiy ehtiyoj, kreditga bo'lgan talabdagi tarkibiy o'zgarishlar to'laqonli inobatga olinmaydi. Ikkala usul ham likvidlikning o'rtacha darajasiga asoslanadi. Mijozlarning hisob varag'idagi pul mablag'larining oqimini doimo tahlil qilib borish, mahalliy konuyukturaning xususiyatlarini bilish orqali bankning ma'lum davrda likvid mablag'larga bo'lgan ehtiyojini aniqlash mumkin.

Dasturlash usuli

Bu usul ma'lum qo'yilgan maqsad va masalaning optimal yechimini ta'minlashga yo'naltiriladi. Masalan, Maksimal foyda olish uchun resurslarni qanday taqsimlash lozim yoki mavjud sharoitda xarajatlarni qanday minimallashtirish mumkin. SHuningdek, aralash usul, ya'ni normativlar orqali passivlarni aktivlarga joylashtirish usuli ham qo'llanilishi mumkin. Qaysi usulni qo'llash yo'li bilan aktivlar portfelini samarali shakllantirish doimo bankning rahbariyatiga va ularning qabul qilgan qarorlarning sifatiga bog'liq.

AQSh tijorat banklarining kredit operatsiyalari

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari bank aktivlarining yetakchi qismini tashkil etib banklar daromadining asosiy manbasi hisoblanadi. Bugungi kunda biznes kredit vositasida olib boriladi. Kredit

mablag'lar aylanishining barcha bosqichlarida ishtirok etishi va mablag'lar aylanishida yuzaga keladigan uzulishlarning oldini olishi mumkin. Kredit ko'lamining kengayishi tadbirkorlikning kengayishining asosiy shartlaridan hisoblanadi. Kredit hajmining oshishi tadbirkorlarning sotib olish qobiliyatining oshishiga olib keladi, bu esa tovar zaxialari va materiallarning bahosining oshishiga olib kelishi mumkin.

Bank kreditlari turli belgilari bo'yicha tasniflanishi mumkin:

- maqsadi bo'yicha;
- ta'minoti va uning turlari bo'yicha;
- to'lash muddatlari bo'yicha;
- qarz oluvchilarning turlari va boshqa belgilar bo'yicha

tasniflanishi mumkin.

Tijorat banklarning investitsion faoliyati

Bank aktivlarini boshqarish usullariga asosan o'z likvidligini ta'minlash uchun daromadda olish maqsadida bank kreditga joylashtirish uchun zarur bo'lmagan mablag'larni qimmatli qog'ozlarga joylashtirishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni AQSh hukumatining Birja va qimmatli qog'ozlar bo'yicha Komissiya (*Securities and Exchange Commission*)si bo'lgan mustaqil idorasi mavjud qonunlarga asosan muvofiqlashtiradi.

Yuqori likvidli, birinchi sinfga kiruvchi qimmatli qog'ozlarga AQSh hukumatining qarz majburiyatlari bo'lgan davlat qimmatli qog'ozlari (**US Government Securities**) kiradi. Bu qimmatli qog'ozlar bo'yicha o'rnatilgan muddatlarda ularni to'lab berish majburiyati federal hukumat zimmasiga huquqiy jihatdan rasmiylashtiriladi va yuklanadi.

Davlat qimmatli qog'ozlarining quyidagi turlari mavjud.

G'azna veksellar (*Treasury bills*). Ular diskont bilan, nominal bahodan past summada chiqariladi va ular bo'yicha foizlar to'lanmaydi. Omonotchi g'azna veksellarini sotish va sotib olish bahosi o'rtasidagi farqdan foyda ko'radi. Diskont odatda, daromad yoki zarar tariqasida bo'lishi mumkin.

Uch va olti oylik g'azna veksellari bilan savdolar G'azna agentligining moliyaviy agentlari bo'lgan FRT joylardagi banklari orqali har hafta dushanba kunlari amalga oshiriladi. 52- haftalik veksellar bilan savdolar har to'rt haftada chorshanba kunlari amalga oshiriladi. G'azna veksellari juda katta miqdorda bloklarda bozor ishtirokchilariga minimal miqdori 10 mln.doll. dan kam bo'lmagan miqdorda taklif etiladi. G'azna veksellari minimal 10 ming doll. birligida chiqarilib ular ko'rsatilgandan kam summaga almashtirilishi mumkin.

G'azna biletlar (*Treasure notes*) 1 yildan kam bo'lmagan va 10 yildan ko'p bo'lmagan muddatlarda muomalada bo'ladi. Davlat g'aznasi ikki, to'rt, besh, etti, o'n yillik g'azna biletleri chiqaradi. Uch yillik biletlar kam chiqariladi. Ular bo'yicha aholi o'rtasida obuna tashkil qilish mumkin, muddati o'tganlarni yangisiga almashtirib berish mumkin. Treasure notes bo'yicha foizlar to'lanadi.

G'azna biletleri 1000 doll. (to'lash muddati 4 yildan kam bo'lgan xazina biletlaridan tashqari)dan eng yuqori nominal miqdori 1 mln., 100 mln., va 500 mln.doll. birlikda chiqariladi. G'azna biletlarini chiqarish AQSh xukumati G'aznasining moliyaviy amliyyotida eng ko'p tarqalgan emissiya qimmatli qog'ozi hisoblanadi.

Boshqa qimmatli qog'ozlar (*Miscellaneous issues*). Ularga bozorda qatnashmaydigan qimmatli qog'ozlar kiradi. Bularning ko'p tarqalgan turlari sifatida:

- hukumat agentliklari, trust-fondlari, va bank muassasalari uchun Davlat G'aznasi tomonidan chiqarilgan hukumat obligatsiyalari;

- Shtatlar, mahalliy tashkilotlar idoralari tomonidan investitsiyalarni qayta moliyalashtirish uchun chiqarilgan obligatsiyalar;

- Investitsion qimmatli qog'ozlar va xorijiy valyutadagi qimmatli qog'ozlar va boshqalar.

- Riskga tortilgan aktivlarning bank kapitaliga aloqasi qanday bo'lishi lozim? Daromad keltiradigan va keltirmaydigan aktivlarga tavsif bering.

- Riskka tortilgan aktivlar va ularni hisoblash tartibi.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Bank aktivlari	Standart aktivlar
Riskli aktivlar	Substandart aktivlar
Daromad keltiruvchi aktivlar	Qoniqarli aktivlar
Daromad keltirmaydigan aktivlar	Shubhali aktivlar
Bank aktivlari tarkibi	Umidsiz aktivlar
Yuqori likvidli aktivlar	Maxsus zaxiralar
Likvid aktivlar	Muammoli aktivlar
Nolikvid (past likvidli) aktivlar	Aktiv operatsiyalar
Bank aktivlarining sifati	Kichik va yuqori riskli aktivlar
Aktivlarning sifat darajasi	Aktivlarning risk darajasi

O'z bilimini tekshirish uchun savollar

- Bank aktivlari deganda nimani tushunasiz va ularni tasniflang?
- Bank aktivlari risk darajasiga qarab qanday guruhlariga bo'linadi?
- Bank aktivlari daromad keltirishiga qarab qanday guruhlariga bo'linadi?
- Likvidlilik darajasiga qarab bank aktivlari qaysi guruhlariga bo'linadi? Har bir guruhni eslang va ularning tarkibini izohlab bering.
- Bank aktivlarining sifat darajasi deganda nimani tushunasiz?
- Riskka tortilgan aktivlarning bank kapitaliga aloqasi qanday bo'lishi lozim? Daromad keltiradigan va keltirmaydigan aktivlarga tavsif bering.
- Riskka tortilgan aktivlar va ularni hisoblash tartibi.

V BOB. TIJORAT BANKLARINING VALYUTA OPERATSIYALARI

1-§. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari va uning huquqiy asoslari

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" hamda "Ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi qonunlar talablariga muvofiq. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan litsenziyaga asosan amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 30-iyundagi 449-sonli qaroriga asosan «Birjadan tashqari valyuta bozoridagi operatsiyalar» vakolatli banklar tomonidan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar asosida bozor kursi bo'yicha amalga oshirilishi belgilab berildi.

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari ularning mijozlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning tashqi iqtisodiy faoliyati va aloqalari orqali vujudga keladi. Mijozlar xalqaro aloqalarning quyidagi shakllarida ishtirok etadilar:

- xalqaro savdoda importyor va eksportyor sifatida;
- kapitalni olib kirish va olib chiqish, shu jumladan:
 - a) boshqa davlatlar hududida korxonalar qurish;
 - b) boshqa mamlakatlar hududida korxonalar faoliyatini moliyalashtirish;
 - d) qo'shma korxonalar tashkil etish;
 - e) xalqaro kreditlar, moliyaviy ko'maklarni taqdim etish yoki olish v.b.

Yuqorida ta'kidlangan barcha, shu kabi aloqalar pul (kapital) harakati bilan bog'liq bo'lib, bir valyuta boshqa valyutaga ayirbosh qilinadi. Bugungi kunda dunyo barcha davlatlarining talabini birdek qondira oladigan yagona pul birligi mavjud emas va har bir davlat shartnomadagi kelishuvga asosan o'z milliy pul birligi yoki boshqa davlat pul birligida xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishi mumkin.

Xorijiy valyuta importyorlarga xorijdan sotib olingan tovarlar va xizmatlarga to'lash uchun kerak bo'lsa, eksportyorlar valyutaga o'z to-

varlarini sotadilar va xizmatlar ko'rsatadilar. Tomonlar tijorat banklarining mijozlari bo'lganligi bois ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning hisob-kitoblari banklar tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonlarda banklar mijozlari hisobidan zarur hollarda o'z mablag'lari (kreditlar berish) hisobidan hisob-kitob, valyuta operatsiyalarini amalga oshiradilar.

Banklar o'z xalqaro operatsiyalarida turli davlatlarning xo'jalik subyektlari korxonalar, tashkilotlari, moliyaviy muassasalari bilan pul mablag'larini o'tkazish va qabul qilish, xalqaro kreditlarni taqdim etish va olish, valyuta almashtirish, xalqaro qimmatli qog'ozlarning savdo sotiq-lari va boshqalar bilan shug'ullanadilar.

Bunday bank operatsiyalari murakkab deb hisoblanib, bank va bank xodimlaridan maxsus tayyorgarlikni talab etadi. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari valyuta operatsiyalarni amalga oshirish uchun Markaziy bankdan valyuta operatsiyalarni olib borishga ruxsat beruvchi valyuta litsenziyasini olishi lozim. Litsenziya O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklariga chet el valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun litsenziyalar berish tartibi" asosan amalga oshiriladi. Litsenziya O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" hamda "Ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq tijorat banklarining arizasiga ko'ra, ularning chet el valyutasida operatsiyalar o'tkazishga tayyorligidan kelib chiqib beriladi. Tijorat banklarining litsenziya olish uchun topshirgan hujjatlariga (**Ilova**) asosan ularning valyuta operatsiyalarini o'tkazishga tayyorgarlik darajasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan talabnomalar asosida aniqlanadi. Bunda tijorat bankning faoliyati malakaviy (bank xodimlarining xalqaro iqtisodiy, valyuta, kredit, hisob-kitob va boshqa xalqaro moliyaviy munosatlar normalarini, xorijiy tillarni bilishi hamda tajribaga ega ekanligi va boshqa ko'nikmalar) va texnik talablar (bank texnik-texnologik va boshqa jihatlardan imkoniyati mavjudligi) jihatdan o'rganiladi.

Valyuta operatsiyalarini o'tkazishga ruxsat beruvchi **litsenziya** quyidagi **maxsus shartlarga** rioya etilgandagina beriladi:

- tijorat banki tashkil etilgandan boshlab bir yildan ortiq muddat faoliyat ko'rsatgan bo'lishi;

- tijorat banki Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan barcha normativlarni bajarishi;

- valyuta operatsiyalarini o'tkaza oladigan, jumladan, xorijiy tillarni biladigan malakali xodimlarga ega bo'lishi;

- bank valyuta operatsiyalarini o'tkazish unga kerakligini isbotlay olishi (o'z mijozlari talablari hisobiga);

- valyuta operatsiyalarini o'tkazish uchun kerakli moddiy-texnik bazaga ega bo'lishi (kassa, sklad, hisob-kitob markazi) lozim v. b.

Valyuta operatsiyalarini o'tkazish uchun beriladigan litsenziyalar **ikki turga** - Bosh litsenziya va Ichki litsenziyalarga bo'linadi.

a) **Bosh litsenziya** tijorat banklariga O'zbekiston Respublikasi hududida hamda chet elda xorijiy valyutadagi operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beradi.

b) **Ichki litsenziya** tijorat banklariga O'zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasidagi operatsiyalarni to'la yoki cheklangan doirada amalga oshirish uchun berilgan huquqdir.

Chet el valyutasida operatsiyalar o'tkazish uchun bosh yoki ichki litsenziyaga ega bo'lgan bank **vakolatli bank** deb ataladi va bu bank qonun talablariga muvofiq litsenziya shartlari asosida o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Banklar quyidagi **valyuta operatsiyalarini** amalga oshiradi:

- xorijiy valyutalarni sotish va sotib olish;

- mijozlar valyuta hisob raqamini yuritish va depozitlarga valyuta mablag'larini jalb qilish;

- valyutada xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish;

- valyutada kreditlar berish v.b.

Tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari rasmiy valyuta kursiga asoslanadi.

Chet el valyutasidagi bank operatsiyalari murakkabligi va tavakkalchiligining ortib borishi darajasiga qarab ham turlarga bo'linadi.

2-§. Valyuta kursining mohiyati va uning turlari

Tashqi iqtisodiy munosabatlar taraqqiyoti turli mamlakatlarning valyutalari qiymatining o'zaro nisbatini o'lchashni talab etadi. Shu sababli valyuta kursi o'rnatiladi va u valyuta tizimining muhim elementi hisoblanadi.

Yanada aniqroq qilib **valyuta kursining zaruriyatini** quyidagilarda ifodalash mumkin:

– tovarlar va xizmatlar bilan savdo qilishda, kapital va kreditlar harakatida valyutalarni o'zaro almashtirish uchun - bunda eksportyor

kelib tushgan chet el valyutasini milliy valyutaga almashtiradi. Chunki boshqa mamlakatlarning valyutalari mazkur davlat hududida qonuniy xarid qilish va to'lov vositasi sifatida muomalada aylana olmaydi. Importyor chet eldan sotib olgan tovarlarini to'lash uchun milliy valyutani chet el valyutasiga almashtiradi. Qarzdor esa tashqi qarz va u bo'yicha foizlarni to'lash uchun chet el valyutasini sotib oladi;

– jahon va milliy bozor baholarini taqqoslash, shuningdek, milliy va chet el valyutalarida ifodalangan turli mamlakatlarning baho ko'rsatkichlarini taqqoslash uchun;

– firma va banklarning chet el valyutasidagi hisob varaqlarini vaqti-vaqti bilan qayta baholash uchun valyuta kursi zarur.

Valyuta kursi – bu bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birligida yoki xalqaro valyuta birliklarda ifodalangan bahosidir. Tashqi valyuta kursi almashuv qatnashchilari uchun valyuta bozoridagi talab va taklif nisbati orqali aniqlanadigan bir valyutani boshqasiga qayta hisoblash koeffitsiyentidir. Valyuta kursining qiymat asosi bo'lib valyutaning xarid qobiliyati hisoblanadi. Valyutaning xarid qobiliyati investitsiya, tovar va xizmatlarning o'rtacha milliy narxlar darajasini ifodalaydi. Bu iqtisodiy (qiymat) kategoriya tovar ishlab chiqarishga tegishli bo'lib, u tovar ishlab chiqaruvchilar va jahon bozori o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi. Qiymat tovar ishlab chiqarish iqtisodiy shartlarining keng ko'lamli ifodasi bo'lgani uchun, turli mamlakatlarning milliy pul birliklarining taqqoslanishi qiymat munosabatiga asoslanadi va u ishlab chiqarish va almashuv jarayonlarida yuzaga keladi. Tovarlarni ishlab chiqaruvchilar hamda sotib oluvchilar valyuta kursi yordamida milliy narxlarni boshqa mamlakat narxlariga solishtiradilar. Valyuta kursi valyutaning real kurs nisbatlari ko'rinadigan milliy va jahon iqtisodiyotlarining o'zaro aloqasini ifodalaydi.

Tovarlarni jahon bozorida sotilayotganida milliy mahsulot qiymatini internatsional o'lchovlari asosida jahon bozori talablariga moslashishi zarur bo'ladi. Shuningdek, ushbu tovarlarning jahon xo'jaligi doirasida almashinishida valyuta kursi vositachi bo'ladi.

Valyuta kursining qiymat asosi shu bilan shartlanadiki, jahon narxlariga asoslangan ishlab chiqarishning internatsional bahosi jahon bozoriga tovar yetkazib beruvchi mamlakat ishlab chiqarishning milliy baholariga tayanadi.

Turli mamlakatlarning valyutalari va xalqaro pul birliklari asosida tuzilgan xalqaro bitimlarda xizmat ko'rsatish jarayonida valyuta kursi aniqlanishi mumkin.

Xalqaro kapital harakatining tez o'sishi bilan bog'liq ravishda valyuta kursini o'zgarishiga valyutaning tovarlarni xarid qilish qobiliyati bilan birga moliyaviy aktivlarni xarid qilish qobiliyati ham ta'sir ko'rsatadi.

Qonuniy normalarga asosan va amaliyot jarayonlarida birjada chet el valyutasining kursini, qimmatli qog'ozlar kursini, yoxud tovarlar bahosini o'rnatilishi yoki qisqacha qilib aytganda valyuta kursini o'rnatish **kotirovkalash** deb ataladi. Jahon amaliyotida kotirovkalashning 2 xil usuli mavjud:

1) to'g'ri kotirovkalash. Agar xorijiy valyuta birligining bahosi milliy valyutada ko'rsatilsa, ya'ni xorijiy valyutaning bir birligiga to'g'ri keladigan milliy valyuta miqdori ko'rsatilsa - bu **to'g'ri kotirovkalash** deb ataladi. Masalan, 2015-yilning 30-sentyabrida 1 AQSh dollariga nisbatan o'zbek so'mining kursi 2400,00 so'mni, 1 Rossiya rubliga nisbatan 50,00 so'mni tashkil etdi. Bu to'g'ri kotirovka bo'lib bunday kotirovkalash hozirgi vaqtda jahondagi ko'pchilik mamlakatlarda qo'llanilib kelinmoqda.

2) **egri (teskari) kotirovkalash**. Bunda bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutalardagi miqdori o'rnatiladi, ya'ni bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutadagi bahosi ko'rsatiladi.

Agarda ikki valyuta o'rtasidagi nisbat qandaydir uchinchi valyutaga nisbatan olingan kurslarida aniqlansa, bunday nisbatni **«kross-kurs»** deb ataladi.

Jahon amaliyotida oxirgi yillargacha uchinchi valyuta sifatida AQSh dollari qo'llanilgan, ya'ni barcha valyutalar jahon ayirboshlashida aynan shu valyutaga nisbatan kotirovka qilingan. Lekin oxirgi yillarda Yevroning muomalaga kiritilishi, xalqaro munosabatlarda keng qo'llanilishi kross-kursni aniqlashda valyuta sifatida Yevro ham kengroq qo'llanilishiga imkon yaratdi.

Kross-kursdan foydalanish ba'zi hollarda ancha murakkab va risklidir.

Oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirishda valyuta bozorida quyidagi valyuta kurslarining ko'rinishlaridan foydalaniladi;

«Spot-kurs» bu naqd (kassa) bitimlarining kursidir. Spot-kurs - bu bir mamlakat pul birligining shartnoma tuzilgan vaqtda o'rnatilgan baho bo'yicha boshqa mamlakatlar pul birliklarida ifodalangan bahosidir.

Bunda valyutani valyuta bitimi tuzilgan kundan boshlab 2 ish kunida almashtirib berish shart hisoblanadi.

«**Forvard**» kurs – bu muddatli valyuta bitimlarining kursidir.

Forvard kursi kelajakda valyutani aniq bir kunga yyetkazib berish sharti bilan sotilish va xarid qilish bahosini o'zida ifoda etadi.

Forvard bitimlari, odatda, valyuta kurslarining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalash orqali bartaraf qilish maqsadida ishlatiladi. Bitim tuzilayotgan paytda forvard kursda aniqlanadi va ana shu kurs bo'yicha valyuta sotiladi yoki sotib olinadi. Agar shartnoma muddati tugagan kunda valyuta kursi shartnomada ko'rsatilgan kursdan farq qilsa, unda bir tomon foyda ko'radi va ikkinchi tomon zarar ko'radi. Masalan, siz joriy yil 1-yanvarda yilning 1-iyun kuni $1\$ = 2200$ so'm kursida sotib olish bitimini tuzdingiz. Ammo joriy yilning 1-iyun kuni $1\$ = 2210$ so'mni tashkil etdi, natijada siz har bir dollarga 10 so'm miqdorida qo'shimcha foyda ko'rasiz.

Agar 1-iyun kuni $1\$ = 2195$ so'mni tashkil etsa, unda har bir dollardan 5 so'mdan zarar ko'rasiz. Forvard va spot kurslari valyuta bitimlarini amalga oshirish vaqti bilan bir-biridan farq qiladi.. Nazariy jihatdan forvard kursi spot kursiga teng bo'lishi mumkin, lekin amaliyotda u doimo past yoki yuqori bo'ladi. Agar forvard kursi spot kursidan yuqori bo'lsa, valyuta forvard bitimida **mukofot** bilan kotirovka qilinadi. Agar forvard kurs spot kursidan past bo'lsa, valyuta forvard bitimlarida **diskont** bilan kotirovka qilinadi. Odatda, forvard bitimlarida mukofot va diskontni umumiy tarzda ifodalash uchun **forvard farqlar yoki marja** tushunchasidan foydalaniladi.

Forvard farqlar spot kurs asosida forvard kurslarni aniqlash uchun foydalaniladi. Forvard farqlar bitimda qatnashayotgan ikki valyutaning foiz stavkalari o'rtasidagi farq sifatida namoyon bo'ladi. Forvard farqlar spot kursga qo'shiladi yoki chegiriladi. Agar forvard farqlar spot kursga qo'shilsa, forvard kurs mukofotli, agar forvard farqlar chegiriladigan bo'lsa forvard kurs diskontli deyiladi. Agar asosiy (bazaviy) valyutaning foiz stavkasi ikkinchi valyutaga nisbatan yuqori bo'lsa, forvard farq (marja) chegirib tashlanadi va bu holat forvard bozorida asosiy (bazaviy) valyuta diskont bilan savdoda ishtirok etayotganligini ko'rsatadi. Ikkinchi valyuta bu jarayonda forvard bozori savdosida mukofot bilan ishtirok etadi. Agar asosiy valyuta bo'yicha foiz stavkasi ikkinchi valyutaga nisbatan past bo'lsa, forvard farq qo'shib olinadi va bu holda forvard bozorida asosiy valyuta mukofot bilan savdoda qatnashadi, ikkinchi valyuta esa diskontga ega bo'ladi.

Joriy ayirboshlash kursi asosida forvard kursini topish uchun spot kursiga forvard farqlar (marja)ni qo'shish yoki chegirish lozim.

Bu qoidani quyidagicha ifodalash mumkin. Kotirovkalar tushsa - chegiriladi. Kotirovka ko'tarilsa - qo'shiladi.

19-jadval

Forvard kursini hisoblash metodikasi

Forvard farqlar (marja)	Asosiy (bazaviy) valyuta sotiladi	Forvard kursi =
Bazaviy valyuta bo'yicha yuqori foiz stavka – ikkinchi valyutada past foiz stavka	Diskontli	Spot-kurs -- (chegiruv) forvard farqlar
Bazaviy valyuta bo'yicha past foiz stavka – ikkinchi valyuta bo'yicha yuqori foiz stavka	Mukofotli (ustama)	Spot-kurs + (qo'shilgan) forvard farqlar

Muddatli bitimlar bo'yicha valyuta kurslari (report) ustama yoki diskont metodi bo'yicha kotirovka qilinadi va bu «autrayt» kurslari deb ataladi.

Forvard kurs autrayti = Spot kurs + (-) Forvard kurs (mukofoti) marjasi (Forward outright rate) = Spot kurs (Spot rate) + (-) Diskont (Forward points).

Yanada aniqroq tushunish uchun quyidagi misolni ko'rib chiqamiz. Bitim summasi - 1 mln AQSh dollari.

Bitim muddati - 90 kun.

Bitim valyutasidagi kreditning foiz stavkasi (USD) - 3,5 %. Baholovchi valyutadagi depozitlarga to'lanadigan foiz stavkasi - 5,5 %. Spot kurs = 1,5210-1,5220 Yevro

$$\text{Mukofot yoki Ustama/Diskont} = \frac{1,5210 \times (5,5 - 3,5) \times 90}{(360 \times 100) + (3,5 \times 90)} = 0,0075$$

Forvard kurs = 1,5210 + 0,0075 = 1,5285 (ustama) foiz.

Mukofot yoki diskont ekanligini foiz stavkalari o'rtasidagi farqdan bilish mumkin. Agar valyuta bitimi bo'yicha foiz stavkasi baholovchi valyutaning foiz stavkasidan past bo'lsa, bu valyuta yuqori kursda kotirovka qilinadi va chiqqan ko'rsatkich ustama hisoblanib, u sotilishi mumkin. Agar valyuta bitimining foiz stavkasi yuqori bo'lsa, bu ko'rsatkich diskont bo'ladi. Endi depozitlarga taalluqli holatni ko'rib chiqsak. Agar milliy valyutadagi depozitlarning foiz stavkasi bitim val-

yutasidagi kreditlarning foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, olingan natija diskont hisoblanadi va, aksincha, bo'lsa u ustama hisoblanadi.

Banklar valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda valyutani sotish va sotib olish kursini o'rnatadi. Bu kurslar sotuvchining kursi va xaridorning kursi deb ataladi.

Sotuvchi kursi - bankning valyutani sotish kursi.

Xaridor kursi - bankning valyutani sotib olish kursi.

Bu kurslar o'rtasidagi farq valyuta bo'yicha marja deb ataladi va u xizmat xarajatlarini qoplashga va ma'lum darajada foydani shakllantirishga yo'naltiriladi.

Valyutaning eng muhim sifat belgisi uning konvertirlanganligidir.

Konvertirlanganlik darajasiga ko'ra **valyuta kursi uchga** bo'linadi.

Erkin «suzib» yuruvchi, cheklangan darajada «suzib» yuruvchi va qayd etilgan valyuta kurslaridir.

Erkin «suzib» yuruvchi valyuta kursi ma'lum valyutaga bo'lgan bozor talabi va taklifi ta'sirida o'zgarib turishi mumkin. Masalan, AQSh dollari, Yaponiya iyenasi, Angliya funt sterlingi, yevro kabi valyutalar jahon valyuta ayirboshlashida keng ishtirok etadi.

Cheklangan darajada «suzib» yuruvchi valyuta kurslarining o'zgarishi ayrim valyutalar yoki bir guruh valyutalar (valyuta savati) kursi o'zgarishiga bog'liq. Misol uchun «uchinchi dunyo»ning ko'pchilik mamlakatlari o'z valyutalarini AQSh dollariga, Yevropa mamlakatlarining «EURO»siga va boshqa xorijiy valyutalarga bog'laydilar. Cheklangan darajada «suzib» yuruvchi valyuta kurslari kiritilgan mamlakatlar o'z valyutalarining tebranish chegarasini o'zlari hamkorlik qilayotgan mamlakatlar bilan kelishib oladilar.

Qayd etilgan valyuta kursi - bu xorijiy valyutada ifodalangan milliy pul birligining davlat tomonidan rasmiy o'rnatilgan bahosi bo'lib, unga valyuta bozorlaridagi talab va taklifning o'zgarishi ta'sir qilmaydi. Hozirgi vaqtda qayd etilgan valyuta kursi kam rivojlangan mamlakatlarda yoki iqtisodiy jihatdan tashqi bozorga yetarli darajada kirib bormagan mamlakatlarda, ularning moliya tizimini va milliy ishlab chiqarishini kuchli xorijiy raqabatchilaridan himoya qilish va ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'llaniladi.

Barcha mamlakatlar ma'lum muddatda o'z valyuta kurslari to'g'risidagi axborotni e'lon qilib boradilar. Masalan, O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi ish yakunlari matbuotda, televideniya e'lon qilib boriladi. Bunda nominal valyuta kursi belgilanadi. Lekin kuchayib borayotgan inflyatsiya sharoitida jahon bozorida milliy

mahsulotga bo'lgan talabni, uning raqobatdoshligini aniqlashda milliy va xorijiy tovarlar baholari o'rtasidagi nisbatini ham bilish kerak bo'ladi. Ya'ni milliy valyutaning real almashtirish kursini hisoblab chiqish kerak.

Real kurs = nominal kurs - o'z mamlakatida ishlab chiqarilgan tovarlar bahosi, xorijiy tovarlar bahosi. Bu tenglikni umumiy ko'rinishda shunday yozish mumkin. Real valyuta kursining nominal valyuta kursi baholar darajasi nisbatlari past valyuta kursida milliy tovarlar nisbatan arzonroq, xorijiy tovarlar esa nisbatan qimmatroq turishini ko'rsatadi. Shuning uchun eksport o'sib boradi, import esa qisqarib boradi. Va, aksincha, yuqori real valyuta kursida milliy tovarlar nisbatan qimmatroq, xorijiy tovarlar esa nisbatan arzonroq turadi. Natijada import o'sib, eksport qisqarib boradi.

3-§. Valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillar

Har qanday baho kabi valyuta kursi valyutaga talab va taklif ta'sirida asosiy qiymatidan (ya'ni valyutaning xarid qilish qobiliyatidan) nari-beri siljiydi. Bunday talab va taklifning o'zaro mosligi bir qator omillarga bog'liq. Valyuta kursining ko'p omilliligi uning boshqa iqtisodiy kategoriyalar, jumladan, qiymat, narx, pul, foiz, to'lov balansi va boshqalar bilan bog'liqligini aks ettiradi. Bu omillar ichida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. *Inflyatsiya sur'atlari.* Valyutalarning xarid qobiliyati bo'yicha ularning o'zaro nisbati o'zida qiymat qonunini aks ettirib, valyuta kursini aniqlash vositasidir. Shu sababli valyuta kursiga inflyatsiya sur'atlari ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatda inflyatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, milliy valyuta kursi shunchalik past bo'ladi (agar boshqa omillar qarshi ta'sir ko'rsatmasa).

Inflyatsiya oqibatida pul qadrsizlanishi mamlakatda pulning xarid qobiliyatining pasayishiga va inflyatsiya sur'atlari nisbatan past mamlakatlarning valyutalari kursidan tushib ketishiga sabab bo'ladi. Bunday moyillik, odatda, o'rta va uzoq muddatli rejada kuzatiladi. Valyuta kursining tenglashtirilishi, uni sotib olish qobiliyatining paritetiga moslashtirish o'rtacha ikki yil davomida amalga oshiriladi. Bu shu bilan izohlanadiki, valyuta kursining kundalik kotirovkasi faqatgina uni sotib olish qobiliyatiga asosan amalga oshirilmay, unga, shuningdek, boshqa omillar ham ta'sir etadi. XX asrning 80-yillarida ko'pincha valyuta kursining paritetidan 30% dan ortiq miqdorda siljishi yuz berib turgan. Le-

kin spekulativ va konyukturaviy omillar ta'siridan ozod bo'lgan valyuta kurslarining o'zaro nisbati qiymat qonuniga muvofiq tarzda pul birliklarining xarid qobiliyati o'zgarishi bilan o'zgaradi.

Valyuta kursining inflyatsiya sur'atlariga bog'liqligi, ayniqsa, tovar-xizmatlar va kapitallarni xalqaro ayirboshlash hajmi katta bo'lgan mamlakatlarda kuchliroqdir. Sababi shundaki, valyuta dinamikasi va inflyatsiya sur'ati o'rtasidagi kuchli bog'liqlik, valyuta kursini eksport baholarda hisob-kitob qilishda yuzaga keladi. Jahon bozori narxlari internatsional qiymatning puldagi ifodasini aks ettiradi. Import narxlariga kelsak, tegishli valyuta paritetida hisob-kitob qilish unchalik qulay kelmaydi, chunki uning o'zi valyuta kursi dinamikasiga bog'liq. Sanoati rivojlangan mamlakatlar bunday hisob-kitob uchun ulgurji baholar indeksidan foydalangani ma'qul bo'ladi. Chunki bu mamlakatlarda ulgurji ichki savdo va eksport ma'lum darajada mos keladi. Boshqa mamlakatlarda ushbu indeksga ko'pgina eksport qilinadigan tovarlar kirmaydi. Chakana narxlar asosidagi bunday hisob-kitob noto'g'ri talqin qilinishi mumkin, chunki u jahon savdo obyekti bo'lmagan bir qator xizmatlarni o'z ichiga oladi. Oxirgi navbatda jahon bozorida real xarid qobiliyatiga mos ravishda stixiyali tarzda milliy valyuta kurslarining tenglashishi yuz bermoqda. Real valyuta kursi ikki mamlakat narxlari darajasi nisbatiga ko'paytirilgan nominal kurs sifatida aniqlanadi.

2. *To'lov balans holati.* Aktiv to'lov balans milliy valyuta kursining ko'tarilishiga olib keladi, chunki unga chet el qarzdorlari tomonidan talab ortadi. Passiv to'lov balans milliy valyuta kursining pasayishiga moyillik yaratadi, unda qazdorlar milliy valyutani chet el valyutasiga o'z tashqi majburiyatlarini qoplash maqsadida sotadilar. To'lov balansining nobarqarorligi tegishli valyutaga talab va taklifning sakrash tarzida o'zgarishiga olib keladi. Zamonaviy sharoitlarda xalqaro kapital harakatining to'lov balansiga va natijada valyuta kursiga ta'siri ko'paydi.

3. *Turli mamlakatlarda foiz stavkalarining har xilligi.* Mamlakatda foiz stavkalarining o'zgarishi xalqaro kapital harakati shartlariga ta'sir qiladi. Boshqacha qilib aytganda, foiz stavkasining ko'tarilishi chet el kapitalining oqib kelishini, uning pasayishi esa kapitalning (milliy kapitalning ham) chet elga oqib chiqib ketishini rag'batlantiradi.

4. *Valyuta bozori faoliyati va spekulativ valyuta operatsiyalari.* Agar qandaydir bir valyuta kursi pasayishga moyil bo'lsa, firma va banklar vaqtdan unumli foydalanib, uni qimmatroq valyutaga sotadilar. Bunda kuchsizlashgan valyuta pozitsiyasi yanada yomonlashadi.

Valyuta bozorlari iqtisod va siyosatdagi o'zgarishlardan, kurs nisbatlari siljishidan tez ta'sirlanadi. Shu bilan birga, ular valyuta spekulyatsiyasi imkoniyatlarini va stixiyali tarzdagi «qaynoq» pullar harakatini kengaytiradi.

5. *Ma'lum bir valyutani yevrobozorda va xalqaro hisob-kitoblarda ishlatish darajasi.*

Masalan, bank operatsiyalarining 60-70% ni dollarda amalga oshirilishi shu valyutalarga bo'lgan talab va taklif masshtablarini belgilaydi. Valyuta kursiga valyutaning xalqaro hisob-kitoblarda ishlatilish darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. XX-asrning 90-yillari boshida xalqaro to'lovlarning 55% ni, neft uchun hisob-kitoblarning 86-90% ini, tashqi qarzdorlikning 70% i dollarda amalga oshirilgan. Shu sababli, neftga narxning o'sishi, hattoki dollarning xarid qilish qobiliyati tushgan sharoitlarda ham davlat qarzlari bo'yicha to'lovlarning o'sishi dollar kursining ko'tarilishiga imkon beradi.

6. *Valyuta kursi nisbatiga xalqaro to'lovlarning tezlashishi yoki sekinlashishi ham ta'sir qiladi.* Milliy valyuta kursining pasayishiga umid bog'lab, importyorlar kurs ko'tarilishi oqibatida zarar ko'rmaslik maqsadida, kontragentlariga chet el valyutasida to'lovlarni tezroq amalga oshirishga harakat qiladilar. Milliy valyutani mustahkamlashda esa ular chet el valyutasidagi to'lovlarni sekinlashtirishga harakat qiladilar. «Lidz end legz» nomli bunday usul to'lov balansi va valyuta kursiga ta'sir ko'rsatadi.

7. *Milliy va jahon bozorlarida valyutaga ishonch darajasi.* U mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy holat bilan, shuningdek, valyuta kursiga ta'sir qiluvchi yuqorida ko'rsatilgan omillar bilan aniqlanadi. Shuningdek, dillerlar nafaqat hozirgi vaqtdagi iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyatsiya, valyutaning xarid qobiliyati darajasi, valyutaga bo'lgan talab va taklif nisbatini, balki ularning dinamikasi istiqbollari ham hisobga oladilar.

4-§. Ichki valyuta bozorida xorijiy valyutani sotish va sotib olish tartibi

O'zbekiston Respublikasida chet el valyutasida ichki valyuta bozorida operatsiyalarni amalga oshirish valyuta operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha litsenziyaga ega bo'lgan banklar tomonidan o'tkaziladi.

Valyuta litsenziyasiga ega bo'lgan banklar chet el valyutasini sotish va sotib olish huquqiga egalar.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritish» qoidasida ochiq valyuta pozitsiyasi uchun quyidagi limitlar o'rnatilgan:

- ixtiyoriy valyutada ochiq valyuta pozitsiyasi limiti har bir operatsion kun oxirida valyutali banklarda o'z mablag'ining 50% idan oshmasligi va bankning umumiy ochiq valyuta pozitsiyasining limiti har operatsion kunning oxirida uning o'z mablag'larining 20% idan oshmasligi lozim;

- summar ochiq valyuta pozitsiyasi uzun valyuta pozitsiyasi ko'rinishida o'rnatiladi. Valyutani sotish va sotib olishda bank faqatgina ochiq valyuta pozitsiyasidan foydalanmaydi, kunora banklarda umumiy valyuta pozitsiyasi «Nostro» hisob varag'i bo'yicha olib boriladi. Agar to'lovlar kirim bilan qo'shilib ketsa, bir hisobdan boshqa hisob varag'i mablag'larni o'tkazishda xatolikka yo'l qo'yilsa, bunda bank kunora ochiq maxsus hisob varag'i bo'yicha tekshirish o'tkazadi.

Chet el valyutasini sotish va sotib olishda bank valyuta pozitsiyasi limitiga rioya qilishi kerak. Bank valyuta operatsiyalarini bajarganda valyuta zaxiralarining bir qismini sarflaydi. Bunda bankning xorijiy valyutalar bo'yicha majburiyati va talablari orasidagi nisbat o'zgaradi. Bankning xorijiy valyutalarni sotish va sotib olish jarayonidagi valyutalar bo'yicha talab va majburiyatlari nisbati holati banklarning **valyutaviy holati** yoki valyuta pozitsiyasi deyiladi. Valyutaviy holat **ochiq va yopiq** bo'lishi mumkin.

Xohlagan bir valyuta bo'yicha **ochiq valyuta pozitsiyasi** deganda bankning shu xorijiy valyuta bo'yicha aktivlarining majburiyatlaridan oshgan summasi tushuniladi. Ochiq valyuta pozitsiyasi 2 ga bo'linadi. Bular: uzun valyuta pozitsiyasi va qisqa valyuta pozitsiyasi. Agarda bankning sotib olgan valyutasi bo'yicha aktivlari va talablari uning shu valyuta bo'yicha passiv va majburiyatlaridan yuqori bo'lsa, bankda mazkur valyuta bo'yicha holat **uzun valyuta pozitsiyasi** deyiladi. Aksincha, aniq bir valyuta bo'yicha passivlar va majburiyatlar aktivlar va talablardan yuqori bo'lsa, ya'ni xorijiy valyutani sotish uni sotib olishdan yuqori bo'lsa **valyuta pozitsiyasi qisqa** bo'ladi.

Agar valyuta bo'yicha talablar va majburiyatlar teng bo'lsa, **valyuta pozitsiyasi yopiq** bo'ladi. Tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyasi doimo risk bilan bog'liq. Valyuta kursining o'zgarishi natijasida bank valyutani sotib olishda yoki sotishda yo'qotishlarga uchrashi mumkin.

Bu esa bankning ma'lum miqdorda mablag'ining yo'qotilganligidan dalolat beradi.

Valyuta pozitsiyasining umumiy summar holati (summasi) deganda barcha valyutalar bo'yicha uzun (qisqa) pozitsiyalar umumiy summasi tushuniladi.

Agar bank operatsion kun davomida valyuta operatsiyalarini olib borishda ochiq valyuta pozitsiyasi bo'yicha qo'yilgan limitdan ortiq operatsiya amalga oshirgan, ya'ni valyutani ko'p sotib olgan bo'lsa, u holda valyuta pozitsiyasi ortiq sotib olingan valyutani sotib yuborish yo'li bilan balanslashtirib yopiladi.

Vakolatli banklar ochiq valyuta pozitsiyasi limitiga hisoblangan foizlar, ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar va boshqa moddiy qiymatliklarni sotish yoki sotib olish bilan bog'liq valyuta operatsiyalarini ham amalga oshiradi. Vakolatli banklar o'zlarining joylaridagi filiallari uchun ochiq valyuta pozitsiyasining chegarasini mustaqil belgilashlari mumkin. Lekin filiallar bo'yicha belgilangan ochiq valyuta pozitsiyasining yig'indisi bank bo'yicha uning o'z mablag'larining 20% idan oshmasligi lozim.

Vakolatli banklar har oyda o'zining 3-kunigacha Markaziy bankka o'zlarining ochiq pozitsiyalari va unga rioya qilinganligi to'g'risida hisobot berishlari lozim.

5-§. Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning xorijiy valyutadagi hisob raqamini yuritish tartibi

Bank mijozlari bankda xorijiy valyuta talab qilib olinguncha depozit hisob varag'larini, shuningdek, xorijiy va milliy valyutalarda ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar, jamg'arma, muddatli va boshqa turli depozit hisob varaqlarini ochishi mumkin. Bu turdagi hisob varaqlarini ochish uchun tadbirkorlik subyektlari, tadbirkorlik subyektlariga aloqador bo'lmagan yuridik shaxslar-rezidentlar, shuningdek, budjet tashkilotlari, norezidentlar (jismoniy shaxslardan tashqari) **bankka quyidagi hujjatlar** taqdim etilishi lozim:

- hisob raqam ochish haqidagi ariza;
- davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi hujjat nusxasi;
- muhr va imzolar namunasi-kartochka;
- soliq organi tomonidan soliq to'lovchiga berilgan indentifikatsion raqami to'g'risida guvohnoma nusxasi

Mijozlarning valyuta hisob varag'ini ochish va yuritish bo'yicha operatsiyalari, ayniqsa, inflyatsiyaning yuqori darajasi sharoitida juda qulaydir, chunki xorijiy valyutani saqlab undan bank foyda olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mulk shaklidan qa'ti nazar barcha tashkilot, korxonalar va muassasalar-rezidentlar xorijiy valyuta mablag'larini O'zbekiston Respublikasi vakolatli banklaridagi valyuta hisob raqamlarda saqlashlari lozim. Vakolatli banklar yuridik va jismoniy shaxslar - rezidentlar va norezidentlarning chet el valyutasidagi talab qilib olinadigan depozit hisob varaqlarini yuritish qoidalari asosida o'zining valyuta faoliyatini amalga oshiradilar. Valyuta hisob varaqlarining ochilishi Markaziy bankning "O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisob varaqlari to'g'risida"gi yo'riqnomada belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Tijorat banklari tomonidan mijozlarning chet el valyutasidagi hisob raqamlarini yuritish, valyutani tartibga solishga doir qonunchilik va me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilgan holda olib boriladi. Bunda tijorat banki chet el valyutasida hisob-kitoblarni amalga oshirish, savdo bilan bog'liq bo'lmagan pul jo'natmalari, chet el banklari bilan vakillik munosabatlarini o'rnatish, tovar va xizmatlarni eksport-import qilish bilan bog'liq xalqaro hisob-kitob operatsiyalari, ichki valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish va sotish operatsiyalari, O'zbekiston Respublikasi hududiga valyuta mablag'larini jalb qilish va ularni joylashtirishga doir ssuda va depozit operatsiyalari, xalqaro pul bozorlaridagi kredit operatsiyalari, valyuta (depozit va konversion) operatsiyalarini o'tkazish bo'yicha Markaziy bank tomonidan qo'yilgan malakaviy va texnik talablarga javob bera olishi lozim.

Vakolatli banklar tomonidan to'lovlar valyuta hisob varag'ida mavjud mablag'lar, valyutali plastik to'lov va kredit kartochkalaridan foydalangan holda belgilangan overdraft limitlari doirasida amalga oshirilishi mumkin. Banklar va bank xodimlari o'zlarining mijozlari va korrespondentlari operatsiyalari, hisob varaqlari va omonatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning sir saqlanishini kafolatlaydilar. Vakolatli banklar amalga oshirayotgan operatsiyalari bo'yicha vositachilik haqi foiz stavkalari va ta'riflarini belgilaydilar va vositachilik haqini chet el valyutasida olish huquqiga egadirlar.

Rezident – yuridik shaxslarning chet el valyutasidagi mablag'lari, ya'ni ular tomonidan olinadigan chet el valyutasi, shu jumladan, tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportidan olingan valyuta tushumlari ularning O'zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatli banklarda ochilgan

valyuta hisob varaqlarida saqlanadi va ular tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq mustaqil ravishda ishlatilishi mumkin.

Davlat ro'yxatidan hali o'tmagan, xorijiy investitsiyalar ishtirokida ochilayotgan korxonalariga vaqtinchalik jamg'arma valyuta hisob varag'i ochiladi va unga qonun talablari asosida o'rnatilgan hajmlarda, xorijiy davlatlardan kelib tushadigan chet el valyuta mablag'lari kiritiladi.

Bu hisob varag'idagi mablag'lardan tashkil topayotgan korxonaning ustav fondiga badal to'lash uchun foydalaniladi. Agarda xorijiy korxonada davlat ro'yxatidan o'tkazilmasa ushbu mablag'lar egasi bo'lgan investorga qaytariladi.

Rezident – yuridik shaxslarning valyuta hisob varaqlariga chet el valyutasidagi tashqi savdo tushumlari, vakolatli banklar orqali O'zbekiston Respublikasi hududida sotib olingan mablag'lar, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olingan naqd chet el valyutasi, qonunchilikda belgilangan tartibda olingan kreditlar, chet el investitsiyalari va qarz bo'yicha o'tkazilgan mablag'lar hamda ularni amalga oshirish bilan bog'liq to'lovlar, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik shaxslarning ustav fondi (ustav kapitali)ga o'tkazilayotgan mablag'lar, plastik to'lov va kredit kartochkalari bo'yicha to'lovlarga, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda savdo bilan bog'liq bo'lmagan pul jo'natmalari va qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa holatlarda kelib tushgan mablag'lar summalari hisoblab yozib (o'tkazilib) boriladi.

O'zbekiston Respublikasida joylashgan norezident - yuridik shaxslar, shu jumladan, immunitet hamda diplomatik imtiyozlarga ega bo'lgan chet el diplomatiya va boshqa rasmiy vakolatxonalari, xalqaro tashkilotlar hamda ularning filiallari, shuningdek, xorijiy tashkilotlarning mamlakatimizda xo'jalik yoki boshqa tijorat faoliyati bilan shug'ullanmaydigan vakolatxonalari valyuta hisob varaqlarini ochishga haqlidir. **Norezident yuridik shaxs** – hisob varaq egasining nomiga chet eldan hamda mamlakatimizning boshqa banklarida ochilgan hisob varaqlaridan o'tkazilgan xorijiy valyuta, vakolatli banklar tomonidan xorijdan hisob varaq egasining nomiga yuborilgan chet el valyutasidagi to'lov hujjatlaridagi mablag'lar, hisob varaqning egasi chet eldan olib kelgan chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari, jumladan, plastik to'lov va kredit kartochkalaridagi valyuta mablag'lari, O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkazma yozuv kiritilmagan, chet el valyutasidagi egasining nomi yozilgan holda bankka taqdim etilgan to'lov hujjatlaridagi mablag'lar, vakolatli banklar ruxsati bilan chet el

valyutasida yozib berilgan boshqa to'lov hujjatlari asosida to'lanishi lozim bo'lgan chet el valyutasi, naqd chet el valyutasi, hisob varaq egasi nomiga chet eldan pochta jo'natmalari orqali yuborilgan yoki u tomonidan qonun talablariga rioya qilgan holda chet eldan keltirilgan, me'yoriy hujjatlariga muvofiq o'tkazilgan yoki naqd pulda olingan boshqa summalar ularning valyuta hisob raqamiga o'tkaziladi.

Norezident yuridik shaxslarning valyuta hisob varaqlaridagi mablag'lar ularning topshirig'iga asosan bank o'tkazmasi, akkreditiv, chek va hokazolarda xorijga o'tkazilishi, chet elga xizmat safariga yuborilishi bilan bog'liq (shu jumladan, naqd pul shaklidagi) xarajatlar to'lovi uchun, shuningdek, amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa maqsadlarga ishlatilishi mumkin.

Jismoniy shaxslar-rezident va norezidentlar xorijiy va milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisob varag'larini ochish uchun bankka hisob raqam ochish to'g'risidagi ariza, shuningdek, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar, pasport yoki boshqa shunga tenglashtirilgan hujjatlar taqdim qiladi.

Vakolatli banklar tomonidan chet el valyutasidagi:

- xorijdan hisob raqam egasi nomiga kelib tushgan valyuta o'tkazmalari, xorijdan hisobraqam egasiga yuborilgan valyutadagi to'lov hujjatlari, hisob varaqning egasi chet eldan olib kelgan chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkazma yozuv kiritilmagan, chet el valyutasida yuritiladigan plastik to'lov va kredit kartochkalari bo'yicha hamda egasining nomi yozilgan holda bankka taqdim etilgan to'lov hujjatlari asosida, vakolatli banklar ruxsati bilan chet el valyutasida yozib berilgan boshqa to'lov hujjatlari asosida to'lanishi lozim bo'lgan chet el valyutasi;

- hisob varaq egasi nomiga respublikasining boshqa banklaridan yoki rezident yuridik shaxslar topshirig'i bilan o'tkazilgan chet el valyutasi;

- naqd chet el valyutasi, shu jumladan, hisob varaq egasi tomonidan kiritilgan yoki pochta orqali yuborilgan naqd valyuta va xorijdan olib kelingan, shuningdek, vakolatli banklar, ularning filiallari va ayirboshlash shoxobchalari orqali sotib olingan valyutalar;

- xorijiy valyuta bo'yicha foizlar,

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki normativ hujjatlari va amaldagi qonunchilikka zid kelmaydigan, olingan va o'tkazilgan naqd shakldagi boshqa summalar jismoniy shaxs - mijozning hisob varag'iga o'tkazilib boriladi.

Rezident - jismoniy shaxslarning (shuningdek, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarning) hisob varaqlariga qo'yilgan mablag'lar hisob varaq egasining ko'rsatmasiga asosan ishlatilishi mumkin. Jumladan:

- xorijdagi jismoniy shaxslarning nomiga 5000 AQSh dollari ekvivalentdagi oshmagan miqdorda, xorijda to'lovnoma, inyoislar va boshqa tasdiqlovchi hujjatlar asosida o'qish, davolanish, sug'urtalanish, xorijda patentlar va mualliflik guvohnomalarini rasmiylashtirish, berish va ulardan foydalanish uchun bog'liq bo'lgan xarajatlarni to'lash, chet el davlatlari konsullik va boshqa rasmiy muassasalari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish, sud va notarial organlari hukmlari, qarorlari va ajrimlari asosida pul mablag'lari to'lovi uchun konkurslar, ko'rgazmalar va musobaqalarda ishtirok etish, shuningdek, shartnomalar bo'yicha ishga joylashish bilan bog'liq xarajatlar hamda nosavdo tUSDagi boshqa operatsiyalarni amalga oshirish, hisob varaq egasining O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga muvofiq chet el banklarida ochilgan hisob varaqlariga yoki O'zbekiston Respublikasi boshqa banklaridagi hisob varaqlariga o'tkazish uchun;

- naqd chet el valyutasida (chet el valyutasidagi to'lov hujjatlarida), shu jumladan, xorijga olib chiqib ketish (amaldagi me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan summa miqdorida) uchun to'lov amalga oshirish;

- amaldagi qonunchilik va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa maqsadlar uchun ishlatilishi, respublika hududida xorijiy valyutani amaldagi sotib olish kursi bo'yicha so'mda to'lovlarni to'lashi yoki o'tkazishi mumkin.

Norezident jismoniy shaxslar hisob raqamiga quyidagilar kirim qilinadi:

- hisob raqam egasi nomiga xorijdan yuborilgan yoki O'zbekiston Respublikasining boshqa banklarida ochilgan hisob varaqlaridan o'tkazilgan xorijiy valyuta, xorijdan hisob varaq egasining nomiga yuborilgan chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari aks ettirilgan mablag', hisob varaq egasi chet eldan olib kelgan chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari plastik to'lov va kredit kartochkalaridagi mablag'lar, O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkazma yozuv kiritilmagan, chet el valyutasida yuritiladigan hamda egasining nomi yozilgan holda bankka taqdim etilgan to'lov hujjatlaridagi mablag'lar, vakolatli banklar ruxsati bilan chet el valyutasida yozib berilgan boshqa to'lov hujjatlari asosida to'lanishi lozim bo'lgan chet el valyutasi, hisob varaq egasi chet eldan

olib kelgan va O'zbekiston Respublikasiga olib kirishda bojxona tomonidan ro'yxatga olingan yoxud hisob varaq egasi uchun vakolatli bank nomiga qiymati ko'rsatilib, xat jildda (paketda) yuborilgan, shuningdek, ilgari vakolatli banklarning tegishli ma'lumotnomasi asosida hisob varalardan berilgan naqd chet el valyutasi, O'zbekiston Respublikasiga olib kirishda bojxona deklaratsiyasini to'ldirish talab qilinmaydigan va bojxona tomonidan ro'yxatga olinmaydigan naqd chet el valyutasi, hisob varaq egasi nomiga chet eldan pochta jo'natmalari orqali yuborilgan naqd chet el valyutasi, xorijiy valyutadagi foizlar, amaldagi qonunchilik va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlariga muvofiq o'tkazilgan yoki naqd pulda olingan boshqa summalar hisoblab yozilishi mumkin.

Norezident - jismoniy shaxslarning hisob varaqlaridagi mablag'lar hisob varaq egasining ko'rsatmasiga ko'ra hisob varaq egasining O'zbekiston Respublikasi boshqa banklarida ochilgan hisob varaqlariga, shuningdek, bankda qabul qilingan shaklda (bank o'tkazmasi, chek va h.k.) xorijga o'tkazilishi, naqd chet el valyutasida (chet el valyutasidagi to'lov hujjatlarida to'langan), shu jumladan, me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan summa miqdorida xorijga olib chiqib ketish, xarid kursi bo'yicha respublika hududida so'mda to'lanishi yoki o'tkazilishi, amaldagi qonunchilik va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa maqsadlarda ishlatilishi mumkin.

Vakolatli banklar bajaradigan operatsilari uchun mijozlardan komission haq undiradilar.

Banklar aholidan valyutani talab qilib olguncha, muddatli, depozit va boshqa jamg'armalarga qabul qilishlari mumkin. Qo'yilmalar mahalliy va xorijiy fuqarolardan qabul qilinadi. Jarg'armalarning turini, ular bo'yicha minimal qo'yilma miqdorini, daromad darajasini, to'lash shartlarini bank mustaqil o'zi belgilaydi.

Bu operatsiyalar bo'yicha shartlarni bank o'zining strategiyasidan kelib chiqqan holda belgilaydi va odatda qo'yilmalar bo'yicha foizlar qo'yilma miqdori va muddatiga bog'liq bo'ladi.

Qo'yilmalar bo'yicha daromadlar soliقدan ozod etiladi va odatda chet el valyutasida yoki so'mda to'lanadi, muddatli omonatni muddatidan oldin olinsa foiz kam miqdorda to'lanadi yoki umuman to'lanmasligi mumkin.

Muddatli depozitlar bo'yicha daromadlar quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$D = \frac{S * FS * SM}{360 * 100}$$

Bu yerda:

D – daromad (foiz summasi);

S – qo'yilma summasi;

FS – foiz stavkasi;

SM – saqlash muddati;

Misol: muddatli depozitga 11 iyunda 10000 AQSh dollari miqdorida 3 oy muddatga 9% yillik to'lash sharti bilan qo'yildi.

Kelishilgan muddatda saqlangani uchun:

$$D_1 = 10000 * 9 * 90 / 360 * 100 = 225\$.$$

Banklar Markaziy bankning xorijiy valyuta kurslari byulletenida ko'rsatilgan valyutalarni sotish va sotib olish huquqiga egadirlar.

Jismoniy shaxslar bilan valyutani sotish va sotib olish operatsiyalari banklarning valyuta almashtirish shoxobchalari orqali amalga oshiriladi, sotish va sotib olish qiymati bank tomonidan belgilanadi. Almashtiruv shoxobchalarida bir vaqtning o'zida valyutani sotish va sotib olish operatsiyalari o'tkaziladi. Bunday operatsiyalarni, odatda, kassir va nazoratchi bajaradi. Valyutalarning haqqoniyligi umumiy qoidalar asosida tekshiriladi, valyuta almashtirish vaqtida mijozga valyuta nazorati hujjati taqdim etiladi, shu hujjat asosida mamlakatdan valyutani olib chiqib ketish mumkin.

6-§. Valyuta operatsiyalari va ularning turlari

Xalqaro iqtisodiy, shuningdek, valyuta-kredit va moliya munosabatlari qatnashchilari risk ostida faoliyat ko'rsatadilar. Bu tijorat risklariga quyidagilarni ki ritish mumkin:

- 1) shartnoma tuzilgandan so'ng narxning o'zgarishi;
- 2) import qiluvchining tovar qabul qilishdan bosh tortishi, ayniqsa, hisob-kitoblar inkasso shaklida bo'lganda;
- 3) hujjatlardagi yoki tovar uchun to'lovlardagi xatolar;
- 4) valyuta mablag'larini suiiste'mol qilish yoki o'g'irlash, ularni qalbakilashtirish;
- 5) haridor yoki qarzdorning to'lovga noqobilligi;
- 6) valyuta kurslarining nobarqarorligi;
- 7) inflyatsiya;
- 8) foiz stavkalarining o'zgaruvchanligi v.b.;

XX asrning 70-yillaridan boshlab valyuta va kredit risklarining oldini olish va qoplash uchun yangi usullardan foydalanila boshlandi. Ular qatoriga:

- valyutaviy opsion (birinchi marta 1973-yil Chikago birjasida qo'llanila boshlagan)

- banklararo "svop" operatsiyasi

- forvard valyuta operatsiyasi

- valyutaviy fyuchers (1973-yildan boshlab Nyu-York valyuta bozorida, 1972-yildan boshlab Chikago valyuta bozorida v.b.).

Yuqorida sanab o'tilgan operatsiyalarni bir so'z bilan muddatli valyuta operatsiyalari deb ham nomlash mumkin, banklarda esa ular asosan konversion operatsiyalar nomi bilan ataladi.

Xalqaro to'lov oborotida xorijiy valyuta naqd emas, balki naqdsiz amal qiladi. Tabiiyki, turli xil to'lov vositalari kurslari turlicha, chunki ularning ishonchligi va valyutaviy risk darajalari turlichadir. Telegraf o'tkazmasi bo'yicha valyuta kursi eng yuqoridir, chunki unda xorijiy valyuta shu zahoti yoki kelasi kuni to'lanadi. Bu operatsiya valyuta riskini deyarli chetlab o'tish imkonini beradi. Odatda, valyuta kurslari rasmiy byulleten va kotirovka jadvallarida e'lon qilinadi. Boshqa to'lov vositalari kursi u asosida aniqlanadi.

Valyuta bozorida turli turdagi shartnomalar amal qiladi. Ularning ko'pchiligi **spot shartlari** asosida amalga oshiriladi. Svop operatsiyalarining asosiy xususiyati shundaki, bitimni imzolash va bajarish vaqtlari qariyb mos keladi. Bu bitim bo'yicha valyuta sotuvchidan sotib oluvchiga shartnoma imzolanishi bilanoq (ko'pi bilan ikki ish kuni ichida) yetkaziladi. Spot shartnomalariga jami valyuta shartnomalarining 90% i to'g'ri keladi.

Valyuta shartnomasining ikkinchi turi – **muddatli shartnomadir**. Bunday shartnomalarning ikki xususiyati bor.

Birinchidan, shartnoma imzolanishi va bajarilishi orasida ma'lum vaqt bir haftadan olti-o'n ikki oygacha interval bor.

Ikkinchidan, valyuta kursi shartnoma imzolangan davrda belgilangani bo'yicha qabul qilinadi. Valyuta kurslari o'zgarishlari unga ta'sir qilmaydi. Muddatli shartnomalar valyuta risklaridan sug'urtalanish yoki valyuta spekulyatsiyasi maqsadida amalga oshiriladi. Eksportyor o'zini xorijiy valyuta kursining tushishidan sug'urtalash maqsadida kelgusi valyuta daromadini muddatli kurs bo'yicha sotishi mumkin. Importyor xorijiy valyuta kursi oshuvidan o'zini sug'urtalash maqsadida kelgusi valyuta tushumini ma'lum muddatga muddatli kurs bo'yicha

sotishi mumkin. Rivojlangan davlatlar valyuta bozorlarida valyuta kursining o'zgarishiga qarab ishlovchi valyuta vositachilarining asosiy maqsadi valyuta bozorida valyuta kurslarining o'zgarishidan katta foyda olishdan iborat. Valyuta kursining oshishi yoki pasayishiga qarab faoliyat ko'rsatuvchilarni xalqaro amaliyotda «ayiqqlar» va «buqalar» deb atashadi. Ular faoliyatining mohiyati quyidagilardan iborat. Agar amaliyotda valyuta kursi tushushi kutilsa, valyuta kursi pasayishiga o'ynovchilar (ularni xalqaro valyuta bozorida «ayiqqlar» deb atashadi) valyutani shartnoma tuzilgan davr (muddatli kurs) kursi bilan sotish to'g'risida muddatli shartnoma tuzadilar. Agar muddatli valyuta kursi tushsa, ayiqlar valyutani bozordan pasaygan kursda sotib olib, uni muddatli kurs bo'yicha sotadilar va kurslar o'rtasidagi farq miqdorida foyda oladilar.

Valyuta kursining ko'tarilishiga o'ynovchilar («buqalar») esa valyuta kursi ko'tarilganda, valyutani keyinchalik shartnoma tuzilgan vaqtdagi kurs bo'yicha sotib olishga kelishilgan muddatli shartnoma tuzadilar. Kurs oshganda esa valyutani muddatli shartnomada belgilangan (oldingi) narx bo'yicha sotib oladilar va oshgan – yuqori narxda sotib foyda ko'radilar

Forward valyuta shartnomasi – bu kelajakdagi belgilangan muddatda aniq xorijiy valyuta summasini sotish yoki sotib olish bo'yicha banklararo bitimni bajarish majburiyatidir. Bunda valyuta, summa, almashuv kursi va to'lov muddati bitim tuzilgan paytda belgilanadi. Forward bitim muddati 3 kundan 5 yilgacha bo'lishi mumkin, ammo uning 1, 3, 6 va 12 oylik muddatlari odatda ko'p uchraydi.

Forward shartnomasi bank shartnomasi hisoblanadi, shuning uchun u standartlashtirilmagan va biror aniq operatsiya ostida ham qo'llanilishi mumkin. Forward bitimlari bozori (6 oygacha bo'lgan muddat uchun) asosiy valyutalarda yetarli darajada barqaror, 6 oydan ko'proq muddatga esa nobarqaror, bunda ayrim operatsiyalar almashinuv kurslarining kuchli tebranishiga olib kelishi mumkin.

Biz oldingi paragraflarda ta'kidlaganimizdek, forward operatsiyasi «svop» operatsiyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar forward bitimining o'zigina qo'llansa, (ya'ni bir vaqtning o'zida «spot» operatsiyasini amalga oshirish bilan emas), u holda bu operatsiya autrayt (outright) deb nomlanadi.

Forward kursi va «spot» kursi o'zaro yaqin bog'langan. Nazariy nuqtayi nazardan valyutaning forward bahosi (FR) spot bahosi (SR) bilan

teng bo'lishi mumkin. Ammo amaliyotda bunday holat juda kam uchraydi. Agar forvard kurs spot-kursdan yuqori bo'lsa ($FR > SR$), u holda valyuta «mukofot» bilan kotirovka qilinadi; agar forvard kursi spot kursidan past bo'lsa, u holda valyuta «diskont» bilan kotirovka qilinadi.

Valyuta bo'yicha forvard diskonti yoki mukofoti qiymati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$FD(Pm; Dis) = \frac{FR - Sr}{Sr} \cdot x 100\% \cdot \frac{360}{t}$$

bu erda

FD (Pm;Dis) – forvard differensial (mukofot yoki diskont).

FR – forvard kursi;

SR – spot-kurs;

t – forvard shartnomasi amal qilish muddati (kunlarda).

Forvard bitimidan olingan daromadlar bilan boshqa pul bozorida olingan daromadni taqqoslab borish uchun valyuta bo'yicha mukofot va diskontlar yillik bazisga kiritib boriladi.

Har kuni The Wall Street Journal va Financial Times kabi xalqaro moliyaviy nashriyotlar 30, 90 va 180 kun uchun joriy «spot» kurs (spot rate)larni va forvard kursi (forward rate)larni chop etib boradi. Bundan tashqari «Reuters» agentligi ham yuqorida aytib o'tilgan axborotlarni berib boradi.

Forvard bozorida banklar tomonidan, shuningdek, valyutaning sotish va sotib olish kurslari kotirovka qilinadi va mos ravishda kross-kurs hisoblanadi. Bunda valyuta sotib olish kursi va sotish kursi orasidagi marja (AFR-BFR) forvard operatsiyasidagi nisbatan kattaroq va yillik 0,125-0,25% ni tashkil qiladi, «spot» kursi bo'yicha esa u bor yo'g'i yillik 0,08-0,1% ni tashkil qiladi.

Forvard kursi asosan 2 usul bilan kotirovka qilinadi:

«autrayt» usuli va «svop-stavka» usuli.

«Autrayt» usuli bilan kotirovkalashda banklar mijozlarga to'liq spot-kurs, forvard kursi, shuningdek, valyutani yetkazib berish muddati va summasini belgilab beradilar.

Ammo, ko'pgina hollarda, banklararo bozorda forvard kursi svop-stavka yordamida kotirovka qilinadi. Forvard marja (svop-stavka) quyidagi sabablarga ko'ra keng tarqaladi: a) ular odatda o'zgarishsiz qoladi, «spot» kursi esa juda tez o'zgarib turadi; shu sababli, mukofot va diskontni o'zgartirish uchun ehtiyoj kam bo'ladi; b) ko'rgina bitimlarni

tuzishda butun forvard kursini emas, balki forvard marjasining o'Ichamini bilish yetarli hisoblanadi.

Svop-stavka AQSh dollariga nisbatan mos valyutaning mutloq ulushini ifodalaydi. Svop-stavka usuli bilan forvard kursini kotirovka qilinganda faqatgina mukofot yoki diskont aniqlanadi. Ular to'g'ri kotirovkalashda faqatgina «spot» kursini ayirish yoki qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Teskari kotirovkalashda diskont qo'shiladi, mukofot esa «spot» kursidan ayirib aniqlanadi (1-jadval).

«Svop» stavka o'Ichami qatnashuvchi davlatlarning turli foiz stavkalar darajasi bilan aniqlanadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$"Svop" stavka = \frac{Dol.kursi * Foiz * Amal.osh.mud.}{(360 * 100) + (Xorijiy foiz * Amal.osh.mud.)}$$

Bank axborot tizimida kotirovka qilinuvchi svop-stavka faqat to'liq oy yoki boshqacha aytganda «ordinar» sanalar uchun beriladi. Valyutalashtirishning spot-sanasi o'yning oxirgi kunlariga to'g'ri kelib qolsa holat murakkablashadi. Bu holda «oy oxiri» qoidasi qo'llaniladi, unga ko'ra bu kabi spot kursda barcha forvard bitimlari valyutalashning oy oxiri kuni sanasiga ega bo'ladi.

Masalan, 6 oylik forvard bitimi 26-fevralda tuzilsin, u holda mos spot-sana 28-fevral bo'ladi, ya'ni oy oxiri. Demak, bundan kelib chiqdiki, forvard bitimi 28-avgust emas balki, 31-avgustda to'lanishi kerak.

Spot bitimlari kabi, forvard shartnomalari ham amerika pul birligi ishtiroki siz tuzilishi mumkin. Bu holda hisob-kitoblar uchun kross-kurslar qo'llaniladi.

Forvard shartnomasini tuzish bilan operatorning bozordagi valyuta riski oshadi, chunki belgilangan sanaga valyuta kursining kutilmagan o'zgarish ehtimoli oshadi. Shunday qilib bankning pozitsiya yopilishi bilan bog'liq risk bo'ladi. Xuddi shuning uchun forvard bitimini tuzishda mijozning hisobida bu riskni qoplash uchun qoldig'i bo'lishi yoki kredit liniyasi ochilishi kerak.

Forvard operatsiyalarini o'tkazishdan asosiy maqsad esa valyuta risklarini xedjirlashdan iborat. Forvard shartnomalari yordamida mijozlarning asosiy qismi ochiq valyuta pozitsiyalarini yopishga intiladilar.

Fyuchers operatsiyalari mohiyati forvard bitimikiga o'xshash. Fyuchers operatsiyalari ham bitim tuzgandan so'ng 3 kundan kechiktirmasdan valyutani yetkazish bilan amalga oshiriladi va bunda kelajakda

shartnoma amalga oshirish narxi bitim tuzilgan kunda belgilanadi. Forvard va fyuchers operatsiyalarining o'xshash tomonlari bo'lgani bilan bir-biridan farq qiluvchi belgilari ham mavjud.

Birinchidan, fyuchers opreatsiyalari, odatda, birja bozorida, forvard esa banklararo bozorda amalga oshiriladi. Bundan shu kelib chiqadiki, fyuchers shartnomalarini amalga oshirish muddatlari ma'lum sanalarga bog'liq bo'ladi va muddat, hajm hamda yetkazib berish shartlari bo'yicha standartlashtirilgan bo'ladi. Forvard shartnomalarida esa muddat va hajm o'zaro tomonlar kelishuvi bo'yicha belgilanadi.


Ikkinchidan, fyuchers operatsiyalari ma'lum chegaralangan valyuta birliklari bilan amalga oshiriladi (AQSh dollari, Yevro, yapon iyanasi, funt-sterling v.b.). Forvard shartnomalarida esa ko'proq turdagi valyutalardan foydalaniladi.

Uchinchidan, fyuchers bozorida yirik investorlar ham, shuningdek individual va kichik institutsional investorlar ham ishtirok etishi mumkin. Forvard bozorida esa uncha katta bo'lmagan firmalar ishtiroki chegaralangan, chunki ko'p hollarda forvard shartnomasini tuzish uchun minimal summa 500000 AQSh dollaridan iborat.

To'rtinchidan, fyuchers operatsiyalarining 95% ofset (qaytarish) bitimi bilan tugallanadi, bunda valyutani real yetkazib berish amalga oshirilmaydi, ishtirokchilar esa faqatgina shartnomalarning boshlang'ich narxi bilan qaytarish bitimi amalga oshirish kunidagi narx orasidagi farqigina oladilar. Forvardda esa 95% holda valyutani yetkazish shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Beshinchidan, shartnomalarning standartlashtirilgani shuni bildiradiki, fyuchers bitimlari individual mijoz va bank o'rtasidagi tuzilgan forvard bitimlariga qaraganda arzonroqqa tushadi. Xuddi shuning uchun forvard bitimlari odatda qimmatroq, ya'ni ularda sotish va sotib olishda katta spred kuzatiladi. Bu esa muddatdan ilgari ochiq pozitsiyani yopganda mijoz uchun katta xarajatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Grafik ko'rinishda forvard va fyuchers operatsiyalari orasidagi farqni quyidagicha ko'rsatish mumkin.



10-rasm. **Fyuchers shartnomasini tuzish sxemasi**

Valyuta opsini ham valyuta operatsiyalarining turi bo'lib, undan sotuvchi xaridor oldindan kelajakdagi muayyan muddatda qat'iy belgilangan narx bo'yicha muayyan miqdordagi xorijiy valyutalarni xarid qilish yoki sotish huquqini o'z zimmasiga oladi.

Opsionlarning quyidagi 2 ta asosiy turi mavjud:

- «**koll-op**sion» (**call option**) - sotib olinadigan opsi
- «**put-op**sion» (**put option**) - sotiladigan opsi
- «**koll-put**» (**call-put-option**) - ikki yoqlama opsi

Koll opsi

ning xaridori oldindan belgilangan narx bo'yicha muayyan valyuta yoki tovarni sotish huquqiga ega bo'ladi. Ushbu «huquq» xaridorga aniq tovarni sotib olish yoki sotish uning uchun foyda keltirmaydigan bo'lgan holda undan voz kechish imkoniyatini beradi.

Opsionning sotuvchisi koll-op

sion holatida opsini bajarishi, ya'ni sotishi lozim. Put-opsion holatiga ega opsixaridori buni talab qilsa, muayyan tovarni sotib olishi shart.

Valyuta opsi

onlarining quyidagi kamchiliklari mavjud:

a) baho mukofotning bahosi valyuta bilan qoplangan umumiy summaning 5% atrofini tashkil qiladi, shunday bo'lsa-da, summaning aniqligi kutilayotgan kursning ayriboshlanishi o'zgarishiga bog'liqdir;

b) «oldindan» to'lovning zarurligi. Valyuta opsi

onlari uning tuzilishi vaqtida to'lanadi. Bu barcha kompaniyalar uchun ham qulay emas, chunki ular opsini amalga oshirishni istasalar ham ular har doim naqd pulga ega bo'lmaydilar;

d) savdo opsi

onlarini barcha valyutalarga nisbatan olib bo'lmaydi, shunday bo'lsa-da birjadan tashqaridagi opsionlar har qanday erkin konvertirlanadigan valyutaga erkin tarzda sotiladi.

e) Koll-op

sion – opsion egasiga kelajakda valyuta kursi oshib ketishi mumkin bo'lgan valyutani nisbatan past strayk-bahoda xarid qilish huquqini beradi.

f) sotish uchun yoki put-op

sion egasi kelajakda kursi tushib ketishi mumkin bo'lgan valyutani nisbatan yuqori strayk bahoda sotish huquqini beradi.

g) put-koll opsi

on egasi bazis bahoda valyutani sotib olishi yoki sotishi mumkin.

Opsion bilan forvard bitimi orasidagi asosiy farqlar quyidagilardan iborat:

- xaridor apsayddan daromad oladi;
- xaridor daunsayddan himoyalangan;
- xaridor opsion uchun mukofot to'laydi.

Apsayd – almashinuv kursining strayk bahoga nisbatan o'sishi, daunsayd-strayk bahoga nisbatan pasayishi.

Svop operatsiyasi – bu bir vaqtning o'zida chet el valyutasini har xil sanaga turli hisob-kitoblar shartida teng summaga sotib olish va sotishdir. Ya'ni svop – bu valyutani kelajakda sotib yuborish garovi bilan qandaydir vaqtga sotib olishdir. Bunda bir vaqtning o'zida valyuta almashuvi bo'yicha 2 ta alohida bitim tuziladi. Bu bitimlar qarama-qarshi yo'nalishga va turli hisob-kitob sanasiga ega bo'ladi.

Svop opretsiyalari ko'pgina banklar tomonidan o'zlarining chet el valyutasidagi majburiyatlarini qoplash maqsadida foydalanadi. Svop operatsiyasi ikki bank tomonidan amalga oshirilganda bir bank ikkinchi bankka bir valyutani, ikkinchisi ikkinchi valyutani almashadi va qandaydir vaqt o'tishi bilan valyutalar qaytarib olinadi.

Asosiysi shundaki, svop bitimlari ochiq valyuta pozitsiyasini keltirib chiqarmaydi va vaqtincha kurs o'zgarishi bilan bog'liq riskdan xoli bo'lgan valyuta bilan ta'minlaydi. Svop bitimlari, odatda, 1 kundan 6 oygacha muddatga tuziladi, muddati 5 yilgacha bo'lgan svop bitimlari esa juda kam uchraydi.

Svop operatsiyalari tijorat banklari o'rtasida, tijorat banki va markaziy bank o'rtasida hamda mamlakatlar markaziy banklariaro amalga oshirilishi mumkin.

Umumiy qilib aytganda, kassa va forvard operatsiyalarini muvofiqlashtiruvchi valyuta shartnomasi svop shartnomasi hisoblanadi.

Valyuta arbitraj – bu valyutani sotish yoki sotib olish bo'lib, keyinchalik teskari bitim tuzib, valyuta kurslari farqi yordamida foyda olish maqsadida o'tkazishni ifodalaydi. Arbitraj operatsiyalarini o'tkazishning asosiy shartlaridan biri bozorning turli sigmentlariaro kapital oqimi erkin bo'lishi, ya'ni valyutalarning erkin konvertirlanishi, valyuta cheklolvarining yo'qligi va boshqalar hisoblanadi.

Arbitraj ikki xil – joylashuvga ko'ra va vaqtli bo'ladi. Ularning har biri ham o'z navbatida oddiy va murakkabga bo'linadi. Operatsiya ikki valyuta ishtirokida amalga oshirilsa – oddiy, uch va undan ortiq valyutalar bilan amalga oshirilsa – murakkab bo'ladi.

Joylashuvga ko'ra arbitraj banklarning turli valyuta bozorlaridagi kurs farqi orqali foyda olishini bildiradi. U valyuta risk bilan bog'liq emas, chunki valyuta savdosi bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Masalan, bank vakili Singapurda valyutani sotib oladi (sotadi) va shu vaqtning o'zida u o'zining Londondagi korrespondenti orqali shu valyutani sotadi (sotib oladi).

Vaqtli arbitraj vaqt o'tishi bilan valyuta kursi orasidagi farq orqali foyda olishdir. Valyuta arbitraji spot va forvard sharoitida amalga oshirishi mumkin va bu turdagi operatsiyalarda valyuta risklari mavjud bo'ladi.

Arbitraj operatsiyalari tijorat banklari dillerlari ishining asosiyalaridan hisoblanadi. Ko'pincha, arbitraj bitimlarini o'tkazish imkoniyatlari sanoqli daqiqalardagina to'g'ri kelishi mumkin, shuning uchun dillerlarning arbitraj operatsiyasini tezda baholash va hisoblashi qobiliyati foyda va zarar masalasini hal qilishi mumkin. Arbitraj operatsiyasini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun bozorni yaxshi o'rganish, kelajakni ko'ra bilish kabilar dillerlar uchun zaruriy shartlardan biridir.

Hozirgi vaqtda tijorat banklarining valyuta bozoridagi faoliyatining Markaziy bank tomonidan tartibga solinishi bank tizimidagi eng muhim va dolzarb masalalardan biridir. «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi qonunning 40-moddasiga muvofiq, Markaziy bank valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish davlat organi hisoblanadi.

Tijorat banklarining valyuta faoliyatlarini tartibga solishda ochiq valyuta pozitsiyasining yuritilishi haqidagi hisobot muhim o'rin tutadi. Bu hisobotni tahlil qilishning zarurati Markaziy bank tomonidan vakolatli banklarga chet el valyutasi bilan bog'liq operatsiyalarga limit o'rnatilishidir. Bu tartib bo'yicha bankning o'z mablag'lariga nisbatan 20% gacha valyuta sotib olishi va sotishiga ruxsat bor, ya'ni bir valyuta turi bo'yicha bu ko'rsatkich 5% qilib belgilangan. Limit o'rnatishning asosiy sababi, vakolatli banklar barcha aktivlarini chet el valyutalariga qo'ysa va bu valyutalarning kursi jahon valyuta bozorida tushib ketsa, bank aktivlari kamayishi va hatto bank bankrot bo'lishi mumkin va bu, o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qiladi. Shuning oldini olish maqsadida, bu limit barcha vakolatli banklar uchun joriy qilingan.

7-§. Investitsiya loyihalarini erkin ayirboshlanadigan valyutada kreditlash tartibi

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonunning 7- va 40- moddalari va "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunning 7-moddasi hamda investitsiyaga doir qator qonuniy-me'yoriy hujjatlarga asosan investitsiya loyihalarini erkin ayirboshlanadigan valyutada kreditlash asosan, vakolatli banklar

tomonidan amalga oshiriladi. Vakolatli banklar o'z ustavlaridan kelib chiqqan holda va Markaziy bank litsenziyasiga asoslanib, investitsiya loyihalari uchun yuridik shaxslarni chet el vayutalarida kreditlashni amalga oshiradilar. Bunda ular kreditlashning ta'minlanganlik, aniq maqsadga mo'ljallanganlik, muddatlilik, qaytarishlilik, to'lovlilik kabi shartlariga rioya etadilar. Xorijiy valyutada kreditlash ishlab chiqarishni kengaytirish, eksportga yo'naltiriladigan va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida foydalaniladigan tovarlar sifatini yaxshilash uchun mo'ljallangan uskunalar, materiallar, yangi buyumlar namunalari, boshqa moddiy boyliklar va texnologiyalarni chetdan sotib olish bilan bog'liq investitsiya loyihalarini moliyaviy ta'minlash maqsadlariga ajratiladi. Kredit shartnomasida bunday kreditlar berilishi va ular bo'yicha foizlar chet el valyutasida undirilishi ko'rsatiladi. Shuningdek, kredit berayotgan banklar kreditni o'z mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'lar hisobidan berishlari mumkin. Bu operatsiyalar Markaziy bank chet el valyutasida operatsiyalar bajarishi bo'yicha belgilangan iqtisodiy me'yorlariga rioya qilingan holda amalga oshiriladi. Bundan tashqari foiz stavkalarini belgilashda vakolatli banklar o'z kredit va valyuta siyosatidan kelib chiqqan holda mustaqil belgilaydilar. To'lanmagan kreditlar bo'yicha esa yuqori foiz stavkalari belgilanishi mumkin. Vakolatli banklar qarz oluvchilardan berilgan kreditning belgilangan muddatda foydalanmagan qismiga tegishli majburiyatlar uchun vositachilik haqini olishlari mumkin. Ya'ni, olinmagan, ammo ajratilgan kredit summalaridan ham vositachilik haqi undirilishi ko'rsatilgan. Kredit berish to'g'risidagi qaror bankning tegishli bo'limi tayyorlagan xulosa asosida qabul qilinadi. Mijoz sotib olgan uskunaning o'z vaqtida o'rnatilib, montaj qilinishi, ishga tushirilishi, uskunaning ishlab chiqarish quvvati va boshqa ko'rsatkichlar loyihada ko'rsatilgan darajaga yetkazish hamda kreditdan aniq maqsadga va samarali foydalanishni ta'minlashi shart. Kredit berish tartibida dastlabki bosqich, bu qarz oluvchining kreditlash uchun vakolatli bankka asoslab berilgan iltimosnoma bilan murojaat qilishidir. Qarz oluvchining iltimosnomasi va uning ilova qilinayotgan hujjatlarda quyidagi ma'lumotlar: kredit olishdan maqsad, qanday summada va qancha muddatga olinayotganligi chet eldan olinayotgan tovar tavsifi, qayerdan sotib olinishi, to'lov valyutasi, narx va korxonada faoliyati uchun zarur bo'lgan xomashyo bilan ta'minlash manbai, olinayotgan kreditning valyutada qaytarilishi asoslari va uning texnik iqtisodiy jihatdan asoslanishi kabilar keltirilishi lozim.

Bulardan tashqari, qarz oluvchi ishlab chiqarish quvvatlarini o'zlashtirilishining bugungi davrga mo'ljallangan ishlarining majmuaviy jadvalini va kreditdan foydalanish hamda uning muddatining hisob-kitobini taqdim etmog'i lozim. Kerakli paytlarda bank qo'shimcha ma'lumotlar olish imkoniyatiga, kredit berilishida, kreditning kafolatlanganligiga, ilgari berilgan kreditlar bo'yicha qarzdorlik yo'qligiga alohida ahamiyat beriladi. Vakolatli bank har bir kredit bo'yicha kredit paketini tashkil etadi va bu paketda kredit shartnomasi va tegishli boshqa hujjatlar saqlanadi. Ssuda hisob varaqlarini ochish bank farmoyishiga asosan olib boradi va unda har bir hisob varaqni yuritish tartibi belgilanadi. Chet el valyutasidagi kreditlarni to'lash, kredit bo'yicha qazrlar qarzdorning topshirig'i bilan uning talab qilib olinguncha saqlanadigan chet el valyutasidagi depozit hisob varag'idan to'lanadi. Birinchi navbatda, kreditdan foydalanganligi uchun foiz summasi undiriladi. Bu yerda alohida aytib o'tish lozimki, ko'zda tutilgan hollarda ichki valyuta bozorini so'mdagi mablag'larni konvertirlash yo'li bilan qarzni uzishga ruxsat etiladi, kredit shartnomasida kelishilgan muddatda kredit qaytarilmasa, uning muddati kechiktirilgan hisoblanadi. Ammo fors-major hollarda bank o'z ixtiyoriga ko'ra, kredit shartnomasining amal qilish muddatini uzaytirishi mumkin. Qarzdor kreditni o'z vaqtida to'lamasa, bank to'lanmagan kredit summasini qarzdorning joriy valyutadagi hisob varag'idan belgilangan tartibda hisobdan chiqarish huquqiga ega. Agar qarzdorning hisob varag'ida mablag'lar yetishmasa yoki mavjud bo'lmasa, kredit summasi kafolat beruvchining chet el valyutasidagi hisob varag'idan hisobdan chiqariladi.

Vakolatli banklar kreditlar bo'yicha nazoratni olib borishadi, ya'ni kredit shartnomasida belgilangan shartlarning bajarilishi, chet el valyutasida berilgan kreditlardan aniq maqsadda va o'z vaqtida foydalanganligi, ularning ta'minlanganligi, qarzdorning asosiy qarzni o'z vaqtida va to'liq to'lashi, majburiyat uchun foizlar va vositachilik haqi to'lanishini nazorat qiladilar.

Vakolatli banklar joylarda tekshiruvlar o'tkazish orqali berilgan kredit hisobidan sotib olingan uskunalarni qarzdorlar tomonidan belgilangan muddatda ishga tushirilishini nazorat qiladilar. Vakolatli banklar mijoz o'z majburiyatlarini bajarmagan hollarda jazo choralarini qo'llashlari mumkin.

Agar bu hol muntazam davom etsa, bank bergan barcha kreditlarini muddatidan oldin to'lashni talab qilishi mumkin. Bu borada vakolatli

banklar ham xorijiy valyutalarda kreditlash to'g'risidagi ma'lumot va axborotlarni Markaziy bankka taqdim etishlari lozim.

8-§. Eksport-import operatsiyalari bo'yicha valyuta nazorati

Valyuta nazoratining asosiy maqsadi eksport bo'yicha valyuta tushumining o'z vaqtida eksport qiluvchi tashkilot hisob raqamiga tushishini ta'minlash va import mahsulotlari uchun o'tkazilayotgan valyuta mablag'larining to'planishi, haqiqatda respublika hududida kelib tushgan mahsulot narxiga muvofiqligi, shuningdek, belgilangan tartibda ko'zda tutilgan hollarda, valyuta tushumidan majburiy sotuvni amalga oshirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo'mitalari valyutani nazorat qiluvchi organlar hisoblanadi. Tijorat banklari valyuta nazoratining agentlari hisoblanadi. Korxonalar va tashkilotlarning mulkchilik shaklidan qat'i nazar tuzgan eksport shartnomalari, ularning valyuta hisob raqami ochilgan vakolatli banki orqali o'tishi lozim.

Amaldagi qonunchilikka asosan, ro'yxatga olinishi lozim bo'lgan eksport shartnomalar Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bankda ro'yxatga olinadi.

Eksport shartnomasining summasi qat'iy valyutada belgilanishi lozim.

Eksport operatsiyalarini amalga oshirishni rejalashtirayotgan tashkilot belgilangan shaklda ariza, shartnoma taqdim etadi. Xizmat ko'rsatayotgan bank ikki ish kuni mobaynida shartnomani ko'rib chiqib, imzolab, shartnoma va uning nusxasining har bir varag'ini bank muhri bilan tasdiqlaydi, so'ngra eksport shartnomaga identifikatsiya nomeri o'zlashtirib belgilangan shaklda ma'lumotnoma beriladi. Shartnomaning bir nusxasi eksportyor tashkilotga beriladi, ikkinchi nusxasi ish yig'ma jildiga tikiladi.

Eksport shartnomalari «ko'zda tutilgan holatlar» 95497 - hisob varag'i shartnoma ro'yxatga olingan sanasiga spot kursi bo'yicha hisoblanib, so'mda hisobga olinadi. Eksport shartnomasining summasi 95497 – hisob varag'i bo'yicha debetlanadi.

Vakolatli banklar eksport-import operatsiyalari bo'yicha quyidagi hujjatlar tikiladigan yig'ma ish jildi ochishlari lozim:

- korxonaning arizasi;
- ro'yxatga olingan shartnomaning nusxasi;
- shartnomaga identifikatsiya nomeri berilganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- hisob-kitoblar ma'lumotnomasi;
- mahsulotlarning O'zbekiston Respublikasidan chiqarganligini tasdiqlovchi bojxona reyestori;
- haqiqatda eksportyor tashqi lotga valyuta tushumi kelib tushganligini tasdiqlovchi bildirishnoma. Belgilangan tartibda valyuta tushumidan majburiy sotuvni amalga oshirish va qoldiqni asosiy hisob varag'iga o'tkazish.

Zarurat bo'lganda xizmat ko'rsatayotgan vakolatli bank tomonidan ushbu shartnomaga tegishli bo'lgan har xil turdagi yozishmalar, yuqori tashqi lot bilan soliq idoralari, bojxona xizmatiga oid hujjatlar talab qilinishi mumkin.

Barter shartnomalari ham shu tartibda amalga oshiriladi. Barter shartnomalarini tuzish uchun tashkilotlar tegishli idoralar (Vazirlar Mahkamasi, hokimiyatlar)dan ruxsat olishlari kerak. Ruxsatnoma olganlaridan keyin barter shartnomasini 10 kun muddat ichida bankka taqdim etishlari lozim.

Bunaqa hisob yuritish eksport – barter shartnomalarining bajarilishini kerakli darajadan nazorat o'rnatish uchun valyuta tushumlarini o'z vaqtida va to'liq ravishda ta'minlash, shuningdek, belgilangan tartibda majburiy sotuvni amalga oshirishlari uchun zarur. Qonunda belgilangan muddatda tushum bo'lmasa yoki mahsulot kelib tushmasa, vakolatli bank bir hafta mobaynida chora ko'rish uchun tegishli organlarga xabar berishi lozim. Xat nusxasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tashqi aloqalar va valyutani boshqarish departamentiga, Davlat Soliq qo'mitasiga yuborilishi lozim.

Shuningdek, import shartnomalari tashkilotning valyuta hisob raqami ochilgan vakolatli banklarda ro'yxatga qo'yilishi kerak. Import shartnomalarini xizmat ko'rsatayotgan bankda ro'yxatga qo'yish uchun mijozlar belgilangan shaklda ariza, shartnomaning asl nusxasini, import

bitimi pasportini, TIAVning import shartnomaning ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi sertifikati kabilarni bankka taqdim etishlari lozim.

Shartnomalar O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligida import shartnomalarini ro'yxatga olish tartibining uchinchi bandiga asosan rasmiylashtirilishi lozim. Bundan tashqari, vakolatli banklar shartnomalarining majburiy shartlari bo'lgan - shartnomada chet ellik hamkorning to'liq rekvizitlari ko'rsatilgan bo'lishini (mamlakat, mol jo'natuvchining to'liq nomi, xizmat ko'rsatayotgan bank nomi, hisob raqamining nomeri v.b.), shartnoma summasining 15% da oldindan to'lov, chet el hamkorining bankidan bank kafolatnomasi mavjud bo'lishi, shartnomaning to'lov shartiga tegishli barcha o'zgarishlar tomonlarning qo'shimcha kelishuvida aks etirilganligi kabilarni tekshirishi lozim. Vakolatli bank taqdim etilgan hujjatlarni ikki kun mobaynida ko'rib chiqib, ro'yxatga oladi, agarda taqdim etilgan hujjatlar qonunda belgilangan tartibda javob bermasa, bank barcha kamchiliklarini ko'rsatgan holda yozma rad xatini beradi va hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish uchun mijozga qaytaradi.

Ro'yxatga olish vaqtida import shartnomalariga identifikatsiya nomeri beriladi. Shartnomaning asl nusxasiga, uning ko'chirma nusxalarining barcha varaqalariga va import bitimi pasportining barcha nusxalariga bank muhri bosiladi va vakolatli bank xodimi imzosi bilan tasdiqlanadi, shundan so'ng shartnomaning asl nusxasi mijozga qaytarilib, uning nusxasi bankda ish jildiga tikiladi.

Mahsulotlarni bojxona xizmatida rasmiylashtirish tartibiga asosan importyor kelib tushgan mahsulotlarni rasta qilish maqsadida hisob raqamida mablag'lari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnoma yoki kafolatnoma olish uchun bankka yozma murojaat qiladi. Mijozning yozma arizasiga asosan vakolatli bank amalga oshirilayotgan oldindan to'lov uchun ochilgan akkreditiv, bank kafolati berilganligi, ushbu shartnoma bo'yicha kelib tushgan molning pulini to'lash uchun boshqa mablag'lar zaxiralanganligi yoki o'z mablag'lari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnoma beradi.

Rezerv qilingan mablag'lardan faqat ushbu shartnoma bo'yicha kelib tushgan mahsulotlar va xizmatlarning pulini to'lash maqsadida foydalaniladi. Mablag'larni rezerv qilishning asosiy shartlaridan biri bu

mijozning byudjet oldida va har xil turdagi soliqlardan qarzi yo'qligini tasdiqlovchi soliq idoralar ma'lumotnomasining mavjudligi hisoblanadi.

Vakolatli bank tomonidan mijozlarga kafolatnoma berishning asosiy sharti Markaziy bank yo'riqnomasining talablariga muvofiq importyor foydasiga uchinchi shaxs tomonidan kafolatnoma berilishidir. Shuningdek, uchinchi shaxs tomonidan berilgan kafolatnoma bankning kredit komissiyasida ko'rib chiqilishi lozim. Ijobiy xulosaga kelishgandan so'ng vakolatli bank rahbari bojxona xizmatiga taqdim etish uchun kafolatnoma berishga ruxsat beradi.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Valyuta kursi	Sotuvchi kursi
Kotirovka	Xaridor kursi
Valyuta pozitsiyasi	Valyuta real kursi
Ochiq valyuta pozitsiyasi	SPOT
Kross-kurs	SVOP
Valyuta siyosati	Tratta kvota
Foiz dinamikasi	Forvard
Diskont	Fyuchers
Yopiq valyuta pozitsiyasi	Qisqa valyuta pozitsiyasi
	Uzun valyuta pozitsiyasi

O'z bilimini tekshirish uchun savollar

- Valyuta kursi nima va uning turlarini tushuntiring.
- Xalqaro hisob-kitob shakllarini sanang va ularning mohiyatini tushuntiring.
- Kotirovka nima, uning turlarini misollar yordamida tushuntiring.
- Valyuta sotish va sotib olish qoidalarini izohlang.
- Valyuta depozit hisob varag'ini ochish tartibini tushuntiring.
- Valyuta kursiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi.
- Naqd xorijiy valyutani sotish, sotib olish qanday amalga oshiriladi.

VI BOB. TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARI

1-§. Qimmatli qog'ozlar, ularning turlari va ahamiyati

Tijorat banklari respublika qimmatli qog'ozlar bozorining eng faol va asosiy ishtirokchilaridan hisoblanadi hamda Fond birjasi umumiy savdo aylanmasida tijorat banklari ulushining yuqoriligi bank qimmatli qog'ozlarining ishonchliligi, ular to'g'risidagi axborotlarning ochiq-ligidan dalolat beradi. Agar biz 2014-yilda fond birjasida savdo hajmi yuqori bo'lgan emitentlarni tahlil qiladigan bo'lsak, 10 ta yirik emitentdan 9 tasi tijorat banklari hisoblanadi. 2014-yil davomida birja savdolari orqali jismoniy shaxslar investitsiyalarining 93,4 foizi, yuridik shaxslar investitsiyalarining 86,3 foizi aynan tijorat banklari qimmatli qog'ozlariga yo'naltirilgan. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida bir vaqtning o'zida bir qancha vazifalarni bajarishi mumkin. Banklarning aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat yuritishi ularga qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi emitent sifatida fond bozorida faol ishtirok etishiga imkoniyat beradi. Shu sababli, tijorat banklarining birja savdolariga qo'yilayotgan qimmatli qog'ozlari mamlakatimizda pul aylanishini jadallashtirish, yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha turgan bo'sh pul mablag'larini jalb etib, ularni iqtisodiyotning asosiy tarmoqlariga investitsiya qilishga sharoit yaratadi. Bundan tashqari, tijorat banklari repo bitimlarini amalga oshirishda qimmatli qog'ozlar bozorida investor sifatida ishtirok etishlari mumkin. Ma'lumki, repo bitimlari qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yish yo'li bilan pul mablag'larini qarzga olishning ommabop usuli bo'lib, investitsiya kiritishning boshqa usullariga qaraganda xavfsiz hisoblanadi va investorlarning zarar ko'rish darajasini pasaytiradi. Shu bilan birga, tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida professional ishtirokchi sifatida qatnashish imkoniyatiga ega. Bugungi kunda tijorat banklari fond bozorida investitsiya vositachisi va maslahatchisi, aktivlarni ishonchli boshqaruvchi, transfer-agent va depozitariylik vazifasini ham bajarmoqda.

Bugungi kunda 20 ta tijorat bankining qimmatli qog'ozlari birja savdolariga qo'yilgan bo'lib, ularning aksariyati birja listingining yuqori "A" toifasiga kiritilgan. Mazkur banklarning qimmatli qog'ozlari birjada

muntazam kotirovka qilinadi, qator tijorat banklari esa qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirish uchun brokerlik idoralarini tashkil etgan holda fond bozorida samarali faoliyat yuritib, aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini sotish va sotib olish orqali ularning qo'shimcha daromad olishini ta'minlamoqda.

Qimmatli qog'oz – o'zi bilan bog'liq mulkiy huquqlarni aks ettiradigan hujjatdir, u daromad manbai bo'lib xizmat qiladi, fond bozorida muomalada yuritilishi va oldi-sotdi vositasi bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar bozori kredit munosabatlari bilan birgalikda, o'z qiymatiga ega bo'lgan, sotish, sotib olish va to'lovini amalga oshirish mumkin bo'lgan maxsus hujjatlar (qimmatli qog'ozlar)ga egalik qilish bilan ham bevosita bog'liq. Qimmatli qog'ozlar o'zida mulkchilik huquqini mujassamlashtirgan bozorda erkin aylanadigan, sotib olish-sotish va boshqa bitimlarning obyektini bo'ladigan, doimiy va bir martalik daromad olish manbai bo'lib xizmat qiladigan, pul kapitalining bir ko'rinishidagi hujjatdir. «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 2015-yil 4-iyunda e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasiga asosan **qimmatli qog'ozlar** – hujjatlar bo'lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi.

Qimmatli qog'ozlar turli subyektlar tomonidan chiqarilishi mumkin. Umumiy holda bu emitentlar 5 guruhga bo'linadi:

- hukumat;
- davlat korxonalari;
- xususiy sektor;
- Markaziy bank;
- chet el subyektlari.

Egaligi yoki emitentiga qarab qimmatli qog'ozlarni davlat, xususiy, xalqaro qimmatli qog'ozlarga ajratish mumkin. Xususiy sektor tomonidan chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlar tarkibida turli ishlab chiqarish korxonalari, tijorat banklari, investitsion banklar, investitsion fondlar va boshqalarning qimmatli qog'ozlari alohida o'rin tutadi. Xalqaro qimmatli qog'ozlar esa ularning hisoblanadigan valyutasiga qarab va emitentlari bo'yicha bo'linadi.

Qimmatli qog'ozlar muomalada bo'lish hududiga ko'ra regional (mahalliy), milliy va xalqaro qimmatli qog'ozlarga bo'linadi.

Yuqorida ta'kidlangan qonunga asosan, O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi turdagi qimmatli qog'ozlar chiqarilishi va muomala-da bo'lishi mumkin:

aksiyalar;

obligatsiyalar;

davlat qimmatli qog'ozlari;

depozit sertifikatlari;

veksellar;

qimmatli qog'ozlar hosilalari, ya'ni opsiyon va fyucherslar (ilovaga qarang).

Shuningdek, qonun bo'yicha O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari, emissiyaviy qimmatli qog'ozlar, egasining nomi yozilgan qimmatli qog'ozlar, korporativ obligatsiyalar, infratuzilma obligatsiyalari ham qimmatli qog'ozlarning turlari hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning 3-moddasiga asosan **aksiya** – o'z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozdir. Aksiya qimmatli qog'oz sifatida amal qilish muddati cheklanmagan, yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan aksionerlik jamiyatiga muayyan ulush qo'shganini va mazkur jamiyat mulkidagi ishtirokini guvohlovchi, aksiya bo'yicha dividend ko'rinishida foyda olish huquqini beruvchi aksiyadorning shu jamiyat boshqarish ishiga qatnasha olishini tasdiqlovchi yuridik hujjatdir.

Obligatsiya esa emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qat'iy belgilangan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi. «Oblig» – lotin tilida «qarz olish» mazmunini bildiradi. Obligatsiya munosabatida obligatsiya egasi tomonidan emitent faoliyatiga ma'lum summada pul mablag'i kiritiladi va emitent obligatsiyada ko'rsatilgan muddatda uning nominal qiymatini hamda u bo'yicha qo'shimcha foizni to'lab berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Aksiyadan farqli ravishda obligatsiya

uning egasiga emitentning ishini boshqarishda qatnashish huquqini bermaydi. Me'yoriy hujjatlarga asosan obligatsiyalar infratuzilma obligatsiyalari va korporativ obligatsiyalarga bo'linadi. Infratuzilma obligatsiyalari – ishlab chiqarish infratuzilmasini va boshqa infratuzilmani barpo etish va (yoki) rekonstruksiya qilishni moliyalashtirish uchun pul mablag'larini jalb etish maqsadida xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar hisoblansa, aksiyadorlik jamiyatlari va o'zining tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar tijorat banklari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar **korporativ obligatsiyalar** deyiladi.

O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari – emissiyaviy qimmatli qog'ozlar bo'lib, ular emissiyaviy qimmatli qog'ozlar egalari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga pul mablag'lari kiritganligini tasdiqlaydi va bu qimmatli qog'ozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida qat'iy belgilangan daromad olish huquqini beradi. G'azna majburiyatlari butun aylanish davrida aniq chegaralangan foizni to'lab berish majburiyatini guvohlovchi qimmatli qog'ozdir.

Depozit sertifikati – bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'ozdir. Depozit sertifikati bank tomonidan beriladi.

Veksel – veksel beruvchining yoxud vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda, veksel egasining vekselda ko'rsatilgan summani to'lab berishiga doir qat'iy majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz va to'lov vositasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari, odatda, **davlat qimmatli qog'ozlari** deb yuritiladi.

Qimmatli qog'oz hosilalari – bular shunday qimmatli qog'ozlarki, ularning foydasi yoki zarari bir nechta bozor ko'rsatkichlari bilan, ya'ni bozor indekslari bilan bog'liqdir. Qimmatli qog'ozlar hosilalari – «opsion» yoki «fyucherslar» ko'rinishida bo'ladi. **Opsion** – emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u o'z emitentining muayyan miqdordagi

qimmatli qog'ozlarini unda nazarda tutilgan muddatda, qat'iy belgilangan narx bo'yicha sotib olishga bo'lgan huquqini tasdiqlaydi

Hozirgi davrga kelib qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar tobora ko'payib bormoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda aksionerlashtirish va mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, korxonalar va tashkilotlarni xususiyashtirish orqali aksionerlik jamiyatlariga aylantirish va ular tomonidan har xil qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarishi fond bozorlarini rivojlantirishga turtki bo'lmoqda. Qimmatli qog'ozlar jahonning katta bir boyligi hisoblanib, boshqa boylıklarga nisbatan ham umumiy qiymati bo'yicha, ham hajmi bo'yicha oldingi o'rinlarga chiqmoqda.

Qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarib, pullarni bir necha o'n yillarga muddatsiz foydalanishga olish mumkin. Bu korxonalar va tashkilotlar uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etib, ularga ishlab chiqarish, hamda moddiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun bank ssudalaridan foydalanmasdan turib pul resurslarini jalb qilish imkoniyatini beradi. Qimmatli qog'ozlar aholi uchun ham juda katta ahamiyatga ega, ular pullarni ko'lda ushlab turmasdan, qimmatli qog'ozlarga egalik qilish yo'li bilan o'z jamg'armalari hisobiga daromad oladilar va korxonalarni boshqarishda amalda ishtirok etadilar.


Xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholi vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini omonatga qo'yishdan ko'ra qimmatli qog'ozlarga sarflashlari ma'lum afzalliklarga ega, masalan, sarflangan mablag'lar muddatidan ilgari foydalanish zarurati tug'ilganda uni sotishi hamda undan qulay va hech qanday sarf-xarajatsiz to'lov yoki kredit olish uchun garov vositasi sifatida foydalanishi mumkin.

2-§. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalari va ularning bank faoliyatida tutgan o'rni

«O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi va «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunlar hamda qimmatli qog'ozlar va fond birjasi faoliyatiga oid qonunlarga asosan tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida qonun talablari asosida qator faoliyat turlarini olib borishlari mumkin.

«Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunga binoan tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida:

- qimmatli qog'ozlar (veksel, aksiya, obligatsiyalar, depozit sertifikatlar v.b.)ni chiqarish;
- qimmatli qog'ozlar hisobini yuritish.



12-rasm. Qimmatli qog'ozlar bilan bank operatsiyalari

- qimmatli qog'ozlarni sotib olish, sotish, saqlash, ular bilan turli operatsiyalarni amalga oshirish;

- mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish;

- tovar yetkazib berish va xizmat ko'rsatishdan kelib chiqadigan talab huquqini olish, bunday talablarni inkassatsiya qilish;

- mijozlar ishonib topshirgan operatsiyalarni: mablag'larni jalb etish va joylashtirish va hokazo ishlarni bajarish;

fond bozori ishtirokchilariga bu borada bank faoliyati yuzasidan maslahatlar berish kabi operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin.

Bu faoliyat turlarini amalga oshirish borasida tijorat banklari uchun cheklashlar yo'qligi sababli ular fond bozorida haqiqiy qatnashchi-investitsion institut sifatida ish yuritadi. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari ko'p maqsadlarni ko'zlagan holda amalga oshiriladi. Shu bois banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatdan asosiy maqsadlari:

- qimmatli qog'ozlar chiqarish asosida kredit va hisob-kitob faoliyati yuritish uchun qo'shimcha pul resurslarini jalb qilish;

- qimmatli qog'ozlarga sarflangan va o'z investitsiyalaridan bankka to'lanadigan foiz va dividendlar evaziga va qimmatli qog'ozlarning kurs qiymati oshishi tufayli foyda olish;

- mijozlarga qimmatli qog'ozlar operatsiyalariga doir xizmatlar ko'rsatishdan foyda olish;

- erkin raqobat asosida bankning xizmat sohasini kengaytirish hamda korxonalar va tashkilotlarning kapitalarini boshqarishda ishtirok etish evaziga yangi mijozlarni jalb qilish;

- bankning qimmatli qog'ozlari orqali resurslarni jalb qilish va ulardan foydalanish;

- bankning likvidli mablag'lariga qo'yilmalarning daromadlilikini ta'minlagan holda likvidlik zaruriy zaxirasini saqlab borish;

- mijozlarning qimmatli qog'ozlarni me'yorida olib-sotishdan hamda moliyaviy risklarni qimmatli qog'ozlar hosilalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar orqali sug'urta qilish kabilardan iborat. **Depozitar operatsiyalar** – hisobga olish registrarida depozitar operatsiyalar standartlariga muvofiq bajariladigan operatsiyalar.

Netting – mijozning barcha pul talablarini uning barcha pul majburiyatlariga nisbatan hisobga olish orqali amalga oshiriladigan kliring usuli.

Tijorat banklari, odatda, bank mablag'lariga sotib olish rejalashtirilayotgan qimmatli qog'ozlar turlari, investitsiyalarni amalga oshirish muddatlari, emitentning moliyaviy ahvoli, qimmatli qog'ozlarga qilingan qo'yilmalarning risk darajasi, diversifikatsiyalanganligi, qimmatli qog'ozlarning sifati va barqarorligining kafolatlariga e'tibor berishi lozim.

Banklar qimmatli qog'ozlar emissiya qilganda emissiyaning maqsadi (masalan, ustav fondini shakllantirish, likvidlikni saqlash, qarz mablag'larini jalb qilish v.b.), bank chiqaradigan qimmatli qog'ozlar turlari va muddatlari, ularning likvidligi, qarz majburiyatlarining o'z vaqtida qoplanishi va boshqa jihatlarini chuqur tahlil qilishi zarur.

Avvalambor, bankning bir korxonaga ustav kapitaliga yoki uning boshqa qimmatli qog'ozlarga qo'yilmasining miqdori birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 15 foizdan oshmasligi kerakli bankning moliyaviy institutlardan tashqari korxonalar ustav kapitalining 20 foizdan ortig'iga ega bo'lmasligi: bankning oldi-sotdi uchun nodavlat qimmatli qog'ozlarga quyilmasi hajmi birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 25 foizdan oshmaslik shartlari qo'yilgan. Ushbu cheklanishlar banklar faoliyatida riskni kamaytirishga, bank aktivlarini diversifikatsiyalashga, moliyaviy va likvidlik holati belgilangan me'yorlar doirasidan chiqib ketmasligiga, pirovard natijada esa bank omonatchilari va kreditorlarining mol-mulkini himoya qilishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalariga nisbatan belgilangan muhim cheklashlardan biri bir bank tomonidan boshqa banklarning aksiyalarini sotib olish huquqining bekor qilinganligi hisoblanadi.

Ushbu cheklovning joriy qilinishida ko'zlangan maqsad banklarning ishlab chiqarish korxonalarining kapitalidagi ishtirokini kuchaytirish hisoblanadi.

Banklar qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiradigan operatsiyalari uchun qonun bo'yicha qimmatli qog'ozlar bozorini nazorat etuvchi organning maxsus ruxsati talab qilinmaydi, shu sababli, banklar bu operatsiyalarni banklar faoliyatini amalga oshirish uchun Markaziy bank tomonidan berilgan umumiy litsenziya asosida bajaradi. Qonunlarda tijorat banklariga aksiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlari va jamg'arma sertifikatlari, veksellari kabi qimmatli qog'oz turlarini chiqarishga ruxsat beriladi. Banklar ustav fondlarini shakllantirish maqsadida aksiyalar chiqaradi.

Banklar qarz mablag'lari jalb etish uchun o'zining qarz majburiyatlari – obligatsiyalar, depozit va depozit sertifikatlari, veksellar chiqaradilar. Bundan tashqari, ular qimmatbaho qog'ozlar hosilalari chiqarishi mumkin. Faqat yirik sanoat korxonalarining aksiyalariga bank qimmatli qog'ozlari bilan raqobatlasha oladi.

Bank qimmatli qog'ozlari uzoq muddatli manfaatlarni ko'zlaydigan investorlar uchun ham, vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini jamlovchilar uchun ham ancha manfaatli qo'yilma obyektidir. Uzoq muddatga mo'ljallangan maqsadlarni amalga oshirish ko'zlanganda yirik va o'rtacha tijorat banklarining aksiyalariga mablag' investitsiyalash eng yuqori samara berishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozorida moliyaviy broker sifatida banklar komission shartnoma yoki topshiriq shartnomasi asosida mijozning hisobidan amalga oshiriladigan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisida vositachilik vazifasini bajaradi.

Brokerlik operatsiyalari – o'z mijozlarining topshiriqlariga binoan banklar komissioner sifatida harakat qilib, komission operatsiyalarni amalga oshirishi, ya'ni o'z nomidan mijozning hisobidan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisiga oid bitimlarni tuzishi mumkin. Bunda, bank mijozning hamma ko'rsatmalarini bajarishi lozim hamda komission haq olishga, mijozning topshirig'ini bajarishda qilingan qo'shimcha sarf-xarajatlar kompensatsiyasini olishga haqlidir. Komission bitim quyidagi 2 shartnomaga asoslanadi:

- bank (komission) bilan mijoz (komitent) o'rtasidagi shartnoma;
- komissioner bilan bitimning uchinchi shaxs o'rtasidagi shartnoma.

Odatda, qimmatli qog'ozlar sotib olishga doir komission shartnoma tuzishdan oldin xaridor-komitentlar vositachi bankning tasarrufiga berish uchun o'z hisob-kitob raqamiga zaruriy qimmatli qog'ozlar sotib olishga yetarli pul summasini o'tkazadi. Qimmatli qog'ozlar sotishga oid komission shartnoma tuzishda sotuvchi-komitent o'zi sotmoqchi bo'lgan qimmatli qog'ozni vositachi bankka oldindan deponentlab qo'yadi.

Bank kreditidan foydalanib qimmatli qog'ozlar sotib olingan taqdirda (agar kredit boshqa bankdan olingan bo'lsa), mijoz uning uchun qimmatli qog'ozlar sotib olish operatsiyasini bajaradigan vositachi bankni bundan xabardor qilishi lozim.

Bank ishtirokidagi qimmatli qog'ozlar komissiyasi deganda, qimmatli qog'ozlarni mijozdan o'z mablag'lari hisobiga sotib olish yoki o'z portfelidan qimmatli qog'ozlarni sotish nazarda tutiladi. Bu bitimlarni amalga oshirishda bank o'z nomidan va o'z hisobidan harakat qiladi. Bank tartibga solinadigan fond bozorida rasmiy savdoga yoki fond birjalarining tartibga solinadigan bozorida ruxsat etilgan qimmatli qog'ozlar bilangina o'zining ishtirokidagi komission operatsiyalarni amalga oshiradi. Bunday operatsiya bajarilganda bank operatsiyasi

to'g'risida mijozga taqdim etadigan hisobotida bank yoki olgan narx rasmiy birja kursiga to'g'ri kelishini tasdiqlaydigan ma'lumotlarni keltirish lozim.

Tranzit komission bitimlar birjada qatnashish huquqiga ega bo'lgan banklar tomonidan boshqa, ya'ni bunday operatsiyalarda qatnashishga ruxsat berilmagan banklar va boshqa kredit institutlarining topshirig'iga binoan amalga oshiradigan operatsiyalar tushuniladi. Bunda, bank boshqa komissionerlarning buyrug'iga binoan komissioner rolini bajaradi. Dastlabki komissioner tranzit komissionerning to'g'ri tanloviga javobgar bo'ladi.

Banklarning topshiriq shartnomasi asosida brokerlik operatsiyalarida mijoz bankka uning nomidan qimmatli qog'ozlar sotib olish yoki sotish topshirig'ini beradi. Bu faoliyat topshiriq shartnomasi bo'yicha bir tomon bank nomidan muayyan yuridik harakatlarni amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Mijoz bankka haq to'lashi bilan bank tuzilgan shartnomaga binoan o'ziga berilgan topshiriqni bajarishi lozim. Bunda, bank berilgan topshiriqni faqat mijozning ko'rsatmalariga binoan bajarishi kerak.

Mijozdan olingan topshiriqnomada qimmatli qog'ozlarning birjada qabul qilingan nomi (qat'iy, foizli qimmatli qog'ozlarning chiqarilgan yili, seriyasi va foiz stavkasi), miqdori (aksiyalar yuzasidan – donalarda, qat'iy foizli qimmatli qog'ozlar yuzasidan – nominal qiymati bo'yicha so'mda), kurs cheklashlari (limit), topshiriqnomaning amal qilish muddati, topshiriq beruvchi mijozning nomi va to'liq manzili, mijoz hisob-kitob varag'i va depozit varag'ining raqami, qimmatli qog'ozlarni yetkazib berish va saqlash tartibi, topshiriqnomaga tuzilgan sana boshqalar bo'lishi shart.

Tijorat banklari investitsiya kompaniyalari sifatida faoliyat yuritganida emitent bilan kelishuv asosida qimmatli qog'ozlar chiqarishning tashkilotchisi sifatida harakat qilishi mumkin. Bank emitentning qimmatli qog'ozlarini chiqarishni tashkil etib, aslida qimmatli qog'ozlar emissiyasini amalga oshiradi, ya'ni vositachi sifatida harakat qiladi. Emitentlar va investorlar o'rtasida harakat qilganda bank imkon qadar foyda olishni ko'zlab harakat qiladi. Emissiyani tayyorlash jarayonida tijorat banklari emissiyasining turi, hajmi va shart-sharoitlari to'g'risida emitent bilan muzokaralar yuritib, bitim tuzadi.

Konsalting (maslahat) operatsiyalari. Tijorat banklari o'zining mijozlariga va boshqa fond bozorining ishtirokchilariga, aholiga qimmatli qog'ozlarning muomalada bo'lishi, fond portfelini

shakllantirish va qimmatli qog'ozlar bozorini tadqiq qilish va istiqbolini belgilash, huquqiy maslahatlar berish, kasbiy o'qitish va o'rgatish, qimmatli qog'ozlarni baholash, axborot xizmatlari ko'rsatish kabilar bo'yicha yordam va maslahat xizmatlarini ko'rsatadi.

Trast operatsiyalari. Trast – ingliz tilida “ishonch” degan ma'noni bildiradi. Bank jismoniy va yuridik shaxslardan pul mablag'larini ma'lum bir muddatga jalb qilib, shu muddat ichida ishonchga olingan mablag'ni yuqori foyda olib keladigan operatsiyalarga joylashtiradi. Trast operatsiyalari bank ishida va banklarning sanoat va iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan aloqalarida katta rol o'ynaydi.

Badavlat insonlar tomonidan hali balog'at yoshiga yetmagan farzandlari nomiga qoldirilayotgan mulk yoki boyliklarni, ularning vasiyati bo'yicha boshqarish muammosining yuzaga kelishi banklarning trast operatsiyalarini paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Banklar trast operatsiyasida ushbu mablag'larni farzandlar balog'at yoshiga yetgunga qadar, ishonchli tarzda boshqaradilar.

Trast operatsiyalari asta-sekin banklarning korporativ mijozlari bilan bo'ladigan munosabatlariga ko'chdi.

Mijozning qimmatli qog'ozlari portfelini yoki ushbu portfelning bir qismini hamda u bilan bog'liq bo'lgan pul mablag'larini boshqarish ham tijorat banklarining trast operatsiyalarini tashkil qiladi.

Tijorat banklari trast operatsiyalarini amalga oshirishi tufayli, birinchidan, qimmatli qog'ozlarni joylashtirish, birjadagi operatsiyalarda foydalanishi mumkin bo'lgan uzoq muddatli moliyaviy resurslardan bahramand bo'la oladi. Ikkinchidan, trast operatsiyalariga bog'liq bitimlarni banklar o'z mijozlarining shartnomalari asosida amalga oshiradi, shuning uchun bitimlar qonunlar bilan cheklanmaydi. Uchinchidan, bank qimmatli qog'ozlarni boshqarishdan komission mablag'lar olib, o'zi boshqarayotgan qimmatli qog'ozlardan tushayotgan foydadan o'z ulushini oladi. To'rtinchidan, bank o'z sarmoyalari bilan emas, balki o'zgalar sarmoyalari bilan operatsiyalar o'tkazadi va faqat trast shartnomasi doirasidagina javobgar bo'ladi, asosiy tavakkalchilik esa qimmatli qog'ozlar egasining zimmasida bo'ladi.

Tijorat banklari xilma-xil trast operatsiyalarini bajarishi mumkin: mijozlarning pul mablag'larini boshqarish, mijozlarning fond portfellarini shakllantirish va qimmatli qog'ozlar paketlarini boshqarish, meroslar va xususiy mablag'larni tasarruf etish, agentlik vazifalarini bajarish, obligatsiyalar chiqarish va to'lov muddati kelganda,

obligatsiyalarni to'lash fondlarini boshqarish, dividendlarni to'lash, qimmatli qog'ozlarni saqlash, ularning harakatini hisobga olish, ularni boshqa qimmatli qog'ozlarga almashtirib olishga oid agentlik vazifalarini amalga oshirish, qimmatli qog'ozlarga va qimmatli qog'ozlar operatsiyalariga oid tavakkalchilikni sug'urtalashda vositachilik qilish, qimmatli qog'ozlar operatsiyasi yuzasidan buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlar tuzish, qimmatli qog'ozlar emitenti uchun transfert bo'yicha agent (qimmatli qog'ozlarni ro'yxatga oluvchi) vazifasini bajarish v.b.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan aktiv operatsiyalari deganda, bank o'z yoki jalb qilingan boshqa mablag'larini har xil qimmatli qog'ozlarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan qo'yilmalar, mablag'larning bankdan chiqib ketishi va uning evaziga bankka bu mablag'lar qimmatli qog'ozlar sifatida qaytib kelishi tushuniladi.

Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq aktiv operatsiyalariga:

- aksiyalarga va korporativ qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish;
- davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bilan operatsiyalarni bajarish;
- qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun kredit berish va boshqalar kiradi.

Aksiyalarga va qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish har xil aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olishni anglatadi.

Ushbu operatsiyadan maqsad:

- birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini sotib olib, ulardan keladigan dividend orqali bankka daromad keltirish;
- ikkinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini arzonroq narx bo'yicha sotib olib, qimmatroq narxda sotish (spekulyativ operatsiyalar);
- uchinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari nazorat paketini sotib olib, ushbu aksiyadorlik jamiyati faoliyatini boshqarishda qatnashib, uning moliyaviy ahvolini yanada tiklab, yuqori foyda olishga erishishdan iborat.

Tijorat banklarini qimmatli qog'ozlar bilan passiv operatsiyalari deganda, bankning qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va ularni sotish evaziga bankka pul mablag'lari jalb qilish bilan bog'liq operatsiyalari tushuniladi.

Banklarning passiv operatsiyalariga:

- aksiyalarni emissiya qilish;
- depozit va jamg'arma sertifikatlarini chiqarish;
- veksellarni joylashtirish;
- obligatsiyalarni chiqarish;
- «Trast» operatsiyalarini bajarish va boshqalar kiradi.

Banklar veksellar bilan quyidagi operatsiyalarni amalga oshiradi:

- veksellarni hisobga olish;
- veksellar bilan ta'minlangan maxsus ssuda hisob varag'idan talab qilib olinadigan ssudalar berish;
- to'lovlarni olish va veksellar bo'yicha to'lovni muddatida amalga oshirish uchun veksellarni inkassoga qabul qilish;
- mijozlarning topshirig'i bilan veksellarga to'lov v.b.

Tijorat banklari depozit va jamg'arma sertifikatlarini sotishdan tushgan arzon pul mablag'larni har xil yo'nalishlarga joylashtiriladi. Bu jarayon naqd pul tushumini ko'paytiradi, buning hisobiga emissiya miqdori kamayadi.

Tijorat banklarining depozit (omonat) sertifikatlari.

O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonuni 3-moddasida **depozit sertifikati** - bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz sifatida ta'riflangan.

Depozit (omonat) sertifikatlarining o'ziga xos xususiyati va afzalligi shundaki, sertifikat egasida sertifikatda belgilangan muddatdan avval omonat summasini olishga zaruriyat tug'ilsa, u holda sertifikat blankasidagi uni boshqa shaxsga o'tkazish yozuvi (tsessiya)ni rasmiylashtirish orqali omonat summasi va sertifikatda shartlashilgan foizlarga ega bo'lish mumkin.

Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish va qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish maqsadida mamlakatimiz prezidentining 2014-yil 7-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-4609-sonli farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 2-iyulda 176-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomda qimmatli qog'ozlarga oid zaruriy ma'lumotlarni oshkor qilish tartibi belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda amalga kiritilgan «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunida aksiyadorlik jamiyatlari shakllari nazarda tutilmagan, ya'ni aksiyadorlik jamiyatlari "ochiq" yoki "yopiq" turda faoliyat ko'rsatishi belgilanmaganligi bois bugungi kunda tijorat banklarining nomida "ochiq" va "yopiq" so'zlari qo'llanilmaydi. Banklarning depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo'lish tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga muvofiq sertifikat egasi hisoblangan:

- yuridik shaxs tomonidan tuziladigan oldi-sotdi, hadya qilish, ustav fondiga kiritish, garov va egasi almashuviga olib keladigan boshqa bitimlarda bitim obyektini sifatida;

- jismoniy shaxslar tomonidan tuziladigan oldi-sotdi, hadya qilish, meros qilib olish, garov va egasi almashuviga olib keladigan boshqa bitimlarda bitim obyektini sifatida o'ziga tegishli sertifikatdan foydalanish huquqini beradi:

- banklar bevosita o'zlari yoki boshqa banklar tomonidan joylashtirilgan sertifikatlar bilan ta'minlangan kredit ajratishga haqliligi yuzasidan;

- sertifikatlarni chiqarish shartlari Markaziy bankda ro'yxatga olingandan so'ng, ushbu shartlarda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa:

- sertifikatlarga doir shartnomalarni imzolagan mansabdor shaxslar;
- bank va (yoki) sertifikat egasining joylashgan manzili;
- bankning tashkiliy-huquqiy shakli o'zgartirilmagan holda nomi, shu sertifikat egalari istalgan bankdan kredit olishda o'zlariga tegishli sertifikatlardan ta'minot sifatida foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Shuningdek, sertifikatlar bo'yicha bank va omonatchi o'rtasidagi tuzilgan shartnomalar, kelishuv munosabatlari va sertifikatlar egasining almashuviga olib keladigan bitimlar soddalashuvini ta'minlab, sertifikatlar muomalasining takomillashuviga xizmat qiladi.

3-§. Qimmatli qog'ozlar bozori va unda bank faoliyatining turlari

Fond birjasi – **qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdisi o'tkaziladigan joy.**

Fond birjasidagi qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni shartli ravishda 3 turga bo'lish mumkin:

- brokerlik operatsiyalari;

- dillerlik operatsiyalari;
- market-meykerlik.

Brokerlik operatsiyalari – mijozning topshirig‘iga asosan va uning pul mablag‘lari evaziga amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Dillerlik operatsiyalari – tashqi lot o‘z nomidan va o‘z pul mablag‘i evaziga amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Market-meykerlik fond bozorida emitentlarga ko‘rsatiladigan xizmat turi. Bu xizmatlarga quyidagilar kiradi:

- sotib olish va sotish kotirovkalarini bir maromda ushlab turish;
- aksiyalar likvidligini ushlab turish;
- moliyaviy maslahatlar;
- aksiyalarni emissiyaga va bozorga taklif qilishda boshqarish;
- maqsadli sotib olish yo‘li bilan aksiyalarga sun‘iy talabni tashkil etish;
- emitentning aksiyalarini sotib oladigan jiddiy investorlarini jalb qilish.

Fond birjasining asosiy vazifalari:

- qimmatli qog‘ozlarning bir maromda muomalada bo‘lishining zarur sharoitini ta‘minlash;
- qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan talab va takliflar o‘rtasidagi muvozanatni aks ettiruvchi narxlarni, ya‘ni bozor bahosini belgilash;
- qimmatli qog‘ozlar va qimmatli qog‘ozlar bozori qatnashchilarini kasb mahoratini yuqori darajada saqlab borish;
- muntazam ravishda narx aniqlanishiga, indeksatsiya o‘zgarishiga, savdo-sotiq vaqti, qimmatli qog‘ozlar, shartnomalarning miqdoriga va boshqa ko‘rsatkichlarga doir axborotlarni, birjaning holatini va uning rivojlanishiga doir taxminiy shartlarni e‘lon qilish.

Hozirgi vaqtda, rasmiy statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyoda 150 dan ortiq katta fond birjalari bo‘lib, ulardan o‘n ikkitasi eng yirik birja sifatida xalqaro qimmatli qog‘ozlar bozorining asosini tashkil etadi⁴, Bular Nyu-York, London, Tokio, Frankfurt, Tayvan, Seul, Syurix, Parij, Chikago, Kuala-Lumpur, Gonkong, Istanbul fond birjalaridir.

Xalqaro fond birjalarining infratuzilmasida yuzaga kelgan muhim o‘zgarishlardan biri birjalar o‘rtasida mijoz uchun raqobat kurashining kuchayganligi hisoblanadi. Uning isboti sifatida bozorning professional ishtirokchilari sonining tobora oshib borayotganligini ko‘rsatish mumkin.

⁴ Доронин И.Г. Мировые фондовые рынки: закономерности развития и современное состояние //Дик, №8, -2002. – С. 49.

Xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari va ularga xizmat ko'rsatuvchi kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi, pirovard natijada, ular o'rtasidagi raqobat muhitining keskinlashuviga olib keladi. Buning natijasida ko'satilayotgan xizmatlar uchun olinadigan to'lovlarning kamayishi yuz berdi. Ular mijozlarga an'anaviy birjalar yopilgandan keyin ham savdo qilish imkoniyatini yaratadi, investitsiyalar uchun turli xildagi instrumentlar foydalanishni taklif qiladi va kotirovkalarning sir tutilishini kafolatlaydi.

2000-yilning boshiga kelib g'arbiy Yevropadagi barcha yirik fond birjalari to'liq elektron birjalarga aylanadi. Bu esa, o'z navbatida, savdo ishtirokchilari sonini keskin oshirish, savdo chiqimlarini kamaytirish imkonini beradi.

Bir qator mamlakatlarda fond birjalari o'zlarining raqobat pozitsiyalarini mustahkamlamoqda. Bu holat moliyaviy bozorlarning xizmatlaridan foydalanuvchilar uchun bir necha xizmat turlarini bir joyda markazlashtirayotganligida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Parij, Amsterdam, Frankfurt, Xelsinki, Bryussel birjalari birlamchi va ikkilamchi bozorlarni, hosila institumentlari bozorlarini, kliring va hisob-kitoblarni birlashtiradi.

Ayni vaqtda, AQShning birjadan tashqari savdo tizimi **NASDAQ** global ahamiyatiga ega bo'lgan xalqaro qimmatli qog'ozlar bozoriga aylanib bormoqda. U Amerika bozorida muvaffaqiyatli tarzda faoliyat yuritish bilan birga, jahonning 10 ta yirik fond birjasidan biri sifatida e'tirof etilmoqda va u aksiyalar savdosining hajmi va o'sishi sur'ati bo'yicha Nyu-York fond birjasini ortda qoldirdi.

Fond birjalarida banklar listing operatsiyalari bilan ham shug'ullanadi. Listing – bu qimmatli qog'ozlarni birjaga qo'yish, ya'ni joylashtirishdir. Qimmatli qog'ozlar listingga qo'yilgan va birja ro'yxatidan o'tgan bo'lsa, ularni savdoga qo'yish mumkin.

Birjada qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdi operatsiyalarini faqat vositachilar bajaradi. Ularga jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, investitsiya kompaniyalari, brokerlik firmalarining topshirig'i bilan brokerlar bitimlarni amalga oshirib, qimmatli qog'ozlarni sotib oladi yoki o'zining hisobidan keyinchalik qayta sotish uchun xarid qiladi.

Birjada faqat listingda qayd qilingan qimmatli qog'ozlar sotiladi. Baho (**birja kotirovkasi** – bu birjada sotiladigan qimmatli qog'ozlarning e'lon qilingan narxi) fond birjasida talab va taklifdan kelib chiqqan holda ochiqdan-ochiq o'rnatilib, birja tablosida e'lon qilib turiladi. Birjada uch tomon qatnashadi. Bir tomonda birja, emitentlar va

tadbirkorlar, ikkinchi tomonda vositachilik haqi evaziga mijozlarning topshirig'ini bajaruvchi brokerlar va uchinchi tomon qimmatli qog'ozlarga muhtoj shaxslar. Har uchala tomonning manfaatini birlashtiruvchi joy – bu fond birjasidir.

Qimmatli qog'ozlarning birjadagi harakatini ifodalovchi ko'rsatkich **birja indeksleri** deyiladi.

Birjada qo'llaniladigan eng mashhur indekslardan biri bu – Dou-Jons indeksidir. U AQShdagi 30 ta yirik sanoat korporatsiyalari aksiyasining birjadagi kursi bilan belgilanadi. Dou-Jons indeksini hisoblash uchun kundalik bozor narxini o'sha davrdagi aksiyalar guruhidagi sonlarga ko'paytirib umumiy aksiyalar soniga bo'lish kerak:

$$\text{Dou-Jons indeksi} = \frac{\sum A_i P_i}{A}$$

Bunda, A_i – kompaniyalarda chiqarilgan aksiyalar soni;

P_i – tegishli kompaniyalar aksiyalarining bozor narxi;

A - umumiy aksiyalar soni.

Professional fond bozorida faoliyat ko'rsatish jarayonida turli «o'yinlarni» qo'llaydilar.

«Ayiqlar» o'yini – daromad olish maqsadida qimmatli qog'ozning bozor narxini pasaytirishga qaratilgan jarayon. Professional ma'lum qimmatli qog'ozning bozor narxining pasayishini oldindan sezgan holda uni ma'lum muddatga qarzga olib turadi. Qarzga olingan qimmatli qog'ozning narxi pasaymasdan payt poylab darrov sotib yuboriladi.

Qarz muddati yetib kelgan qimmatli qog'ozning narxi pasayib ketadi va shu pasaygan narx bo'yicha «ayiq» qarzga olgan qimmatli qog'oz uchun o'z qarzini to'laydi. Bunda, «ayiq»ning daromad qarzga olingan qimmatli qog'ozni sotish narxi va qarzni to'lash vaqtida uning bahosi tafovuti ko'rinishida ifodalanadi.

«Buqa» - qimmatli qog'ozlarni naqd pulga sotib oladi va ularni qimmatroq narxda sotish maqsadida bozor narxining ko'tarilishini poylab turadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida bank faoliyatining umumiy asoslari «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunda aks ettirilgan. Banklarning bank operatsiyalarini amalga oshirish to'g'risidagi litsenziyasi banklarga qimmatli qog'ozlarni chiqarish, sotish, sotib olish, hisobini yuritish, saqlash va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida banklar qonun doirasida faoliyat olib boradi.

Brokerlik faoliyatida banklar mijozning topshirig'iga asosan qimmatli qog'ozlar bo'yicha ishonchli shaxs sifatida bitimlar tuzadi, topshiriq shartnomasini amalga oshiradi.

Dillerlik faoliyatida qimmatli qog'ozlarni o'zining hisobidan sotish – sotib olish bitimini amalga oshiradi.

Banklar **depozitar faoliyatida** qimmatli qog'ozlar sertifikatlarini saqlash bo'yicha xizmat ko'rsatish yoki qimmatli qog'oz huquqini o'tkazish va hisobini yuritish bo'yicha xizmat ko'rsatadi. Depozitariya xizmatidan foydalanuvchi tomon deponent deyiladi. Deponent nomiga qimmatli qog'ozlar harakatining hisobini yurituvchi depo hisob varag'ini ochadi. Qimmatli qog'ozlar bilan banklararo operatsiyalarni amalga oshirish uchun banklar bir-birlarida depo («loro» va «nostro») hisob varaqlari ochiladi. Depozitar va mijoz o'rtasida ochiq yoki yopiq saqlash yo'llari aks ettirilgan shartnoma tuzilgan bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'ozlarni ochiq saqlash usuli – bu qimmatli qog'ozlarga egalik qilish huquqini shunday ro'yxatdan o'tkazish yo'liki, qaysiki, deponent depozitariya alohida nishonalarsiz (nomer, razryad, seriya) faqatgina ma'lum miqdordagi qimmatli qog'ozga topshiriq berishi mumkin. Saqlashning yopiq usulida depozitariy depo hisob varaqlarida mavjud qimmatli qog'ozlar bo'yicha deponentning barcha topshiriqlarini qabul qilish va bajarishga majbur.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, trast (agentlik) xizmatlari tijorat banklari bilan mijoz o'rtasidagi shartnoma asosida ko'rsatiladi, qimmatli qog'ozni saqlash uchun depo hisob varag'i ochiladi. Ko'rsatilgan xizmat uchun bank komission haq undiradi. Bank, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bilan bajarilgan operatsiyalar uchun to'lovni o'rnatadi. qimmatli qog'ozlar portfelining shakllanishi va uni boshqarish uchun ularga doimiy axborotlar oqimi va ish tahlili kerak bo'ladi, hamma investor ham bu muammoni o'zi hal qila olmaydi. Maxsus trast bo'limlariga ega bo'lgan banklar xavfsizlik, daromadlilik va likvidlilik talablariga javob beradigan qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirishga yordam beradi.

Kliring faoliyati – bu faoliyat o'zaro majburiyatlarni aniqlash bo'yicha (yig'im, taqqoslash, qimmatli qog'ozlar bo'yicha bitim axboroti, korrektirovkasi va bular bo'yicha buxgalteriya hujjatlarini tayyorlash) va qimmatli qog'ozlar taklifi bo'yicha hisobotdir.

Aksionerlik tijorat banki o'zining shaxsiy qimmatli qog'ozlarini ustav kapitalini oshirish yoki mablag'larni o'zlariga jalb qilish maqsadida chiqarishlari mumkin.

Shu yo'llar bilan banklar qimmatli qog'ozlar bozorida moliyaviy vositachi (broker), moliyaviy investor (diller) va qimmatli qog'ozlar emitenti sifatida qatnashishi mumkin.

4-§. Banklarning qimmatli qog'ozlar portfelini tashkil qilish va boshqarish

Banklarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa qatnashchilaridan farqli o'laroq, shu bozorda ayrim vaqtda eng salmoqli investorlar va eng ishonchli emitentlar qatorida bo'lishlari mumkin. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida investitsiya kompaniyalari aktivlarining 40-80 foizi bank mablag'lari hisobidan ta'minlanadi, qimmatli qog'ozlar bilan o'tkazilgan operatsiyalardan tushadigan daromadlar esa bank foydasini shakllantirishda muhim o'rin oladi.

Banklarning mutlaq ko'pchiligi aksiyadorlik shaklida bo'lganligi ham ularning qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish muammolariga doimo qiziqib qarashiga sabab bo'ladi, bu esa ularning o'z fond boyliklari bilan ham, shuningdek, boshqa emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan ham o'tkaziladigan operatsiyalarini takomillashtirishga alohida e'tibor berishni taqozo etadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida banklar faoliyatining eng muhim subyektiv shartlari jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- birinchidan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan ko'pchilik turdagi operatsiyalarni takomillashtirishda ishtirok etishlariga yo'l qo'yadi;

- ikkinchidan, banklarning nisbatan barqaror moliyaviy ahvoli va bank operatsiyalarining yuksak daromadliligi ularga bank xizmatlarining yangi turlarini o'zlashtirishga kattagina moliyaviy mablag' sarflash imkonini beradi, qimmatli qog'ozlar operatsiyalarining ko'pchiligi esa ayni shu mablag' bilan bog'liq;

- uchinchidan, banklar ixtiyoridagi texnika, axborot va kadrlar, keng tarmoqli filiallar va mijozlar bazasi ularni qimmatli qog'ozlar bozorining eng harakatchan qatnashchilariga aylantiradi;

- to'rtinchidan, banklar bilan boshqa moliyaviy-iqtisodiy muassasalar o'rtasida rivojlanib borayotgan raqobat, ko'pgina an'anaviy bank xizmatlari (kredit berish, moliya-valyuta, vakillik operatsiyalari)ning foyda berishi kamayib borayotganligi banklarni o'z faolligi markazini qimmatli qog'ozlar bozori sohasiga ko'chirishga majbur qiladi.

Mazkur shart-sharoitlar va qulay omillarning mavjudligi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishlari miqyosini kengaytirish uchun katta imkoniyatlar beradi. Bu amalda, birinchi galda, banklarning emissiya faolligida -aksiyalar, obligatsiyalar, depozit va jamg'arma sertifikatlar, veksellar va boshqa turdagi qimmatli qog'ozlar chiqarishda namoyon bo'ladi.

Banklar vositachilik asosida, emitentlar bilan kelishuviga binoan o'z zimmalariga qimmatli qog'ozlarni chiqarish va aylantirish xizmatini (anderryting, transfer agentlik xizmatlarini) olishlari mumkin.


Turli toifadagi investorlar uchun banklar mijozlarning investitsiya strategiyasini shakllantirishga, loyihani moliyalashni tashkil etishga ko'maklashishdan boshqa qimmatli qog'ozlar majmuyini boshqarish va sotib olingan aksiyalarning dividendlarini olishgacha bo'lgan maslahat xizmatlarining ko'pgina turlarini ko'rsatishlari mumkin.

Tijorat banklari qarz oluvchilardan berilayotgan qisqa muddatli kreditlar uchun garov sifatida qimmatli qog'ozlarni qabul qilishi mumkin. Kreditlarga ko'rsatiladigan ko'pdan-ko'p xizmatlar orasida banklarning veksellar bilan o'tkazadigan operatsiyalari ham bor.

Keyingi yillarda banklar yirik aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini boshqarish uchun vakolat olish, investitsiya va xususiylashtirish fondlari bilan ishlash kabi investitsiya faoliyatining obro'li yo'nalishlariga ko'proq e'tibor bermoqdalar.

Tijorat banklari obligatsiyalar, jamg'arma sertifikatlarini chiqarish yo'li bilan mamlakatning pul aylanmasini to'ldirmoqda, yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh turgan pul mablag'larini iqtisodiyotning ustivor tarmoqlariga sarflashga ko'maklashmoqda. Ular veksellarni muomalasiga xizmat qilish orqali o'zaro hisob-kitoblarni jadallashtirmoqda va to'lov intizomini mustahkamlamoqda.

Banklar diller va moliyaviy vositachi sifatida harakat qilib, investorlar tomonidan qimmatli qog'ozlarga bo'lgan doimiy talabni ta'minlamoqda.



13-rasm. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridaagi faoliyati va aloqadorligi

Banklar qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilariga depozitar xizmat ko'rsatish orqali emitentlarning depo hisob varaqlarini ochish va yuritish, qimmatli qog'ozlarni ishonchli saqlash va ularga bo'lgan huquqlarni aniq hisobga olish, qimmatli qog'ozlar bilan birjadan

tashqari bitimlarga tez xizmat ko'rsatish, aksiyadorlarning reyestrini yuritish, dividendlarni hisob-kitob qilish, yozish va to'lash ishlarini amalga oshiradilar.

Bank qimmatli qog'ozlar portfeli tarkibida rezidentlar va norezidentlar tomonidan chiqarilgan har xil davlat va korporativ qimmatli qog'ozlar bo'limi mumkin bo'lgan emissiyaning hujjatli shaklida qimmatli qog'ozlar egasi rasmiylashtirilgan qimmatli qog'ozlar sertifikatini keltirish asosida yoki depo hisob varag'iga yozuvlar asosida belgilanadi.

Bank diller sifatida o'z nomidan va o'zining hisobidan qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiradi hamda o'zining qimmatli qog'ozlar bo'yicha portfelini shakllantiradi.

Bankning qimmatli qog'ozlar portfeli tarkibiga har xil maqsadlarda chiqarilgan har hil qog'ozlar kiradi. Har xil moliyaviy instrumentlar ular harakatining hisobi va nazoratini tashkil qilish maqsadida ularning xususiyatlariga ko'ra guruhlariga ajratiladi. Bir xil xususiyatga ega bo'lgan moliyaviy instrumentlar – bu bir vaqtda quyidagi shartlarga javob beradigan instrumentlardir:

- bir emitent tomonidan chiqarilgan;
- bir xil bozor narxiga ega;
- bir xil foyda keltiruvchi;
- bir xil muddatga ega.

Bir mamlakatning rezidentlari emitent bo'lgan moliyaviy instrumentlarning majmuyi mamlakat portfelini tashkil qiladi.

Dividend yoki foiz shaklida foyda olish maqsadida aksiya va obligatsiyalarga mablag' qo'yish bilan investitsion portfel shakllanadi. Savdo portfeli tarkibiga kurs farqlari ko'rinishida foyda maqsadida keyinchalik sotish uchun olingan qimmatli qog'ozlar kiradi.

REPO operatsiyasi – bu qimmatli qog'ozlarni keyinchalik yuqoriroq bahoda sotish (sotib olish) majburiyati bilan sotib olish (sotish)dir. REPO shartnomasining birinchi qismida sotuvchi kreditlanadi va ikkinchi qismida pul mablag'lari egasiga ortig'i bilan qaytariladi. Qimmatli qog'ozlar egaligini huquqiy berish ma'lum vaqtga kreditni ta'minlangan qiladi va riskni kamaytiradi.

Haqiqiy REPO va sotuv turidagi REPO qayta sotib olish bilan farqlanadi. Haqiqiy REPO faqatgina tomonlar o'rtasida REPO bitimini tuzish to'g'risidagi bosh shartnoma bo'lgandagina tuziladi. Bunday shartnomada tomonlarning huquq va majburiyatlarini hamda ular o'rtasidagi hisob-kitob qoidalari aniq ko'rsatiladi. Haqiqiy REPOning foizli daromadlari sotish va qaytib sotib olish turidagi REPOnikidan yaqqol farq qiladi.

Banklar mustaqil ravishda investitsiya va savdo portfelini shakllantirish tartibini o'rnatadi, shu bilan birga, qimmatli qog'ozni bir portfeldan ikkinchisiga o'tkazishi ham mumkin.

Odatda, qimmatli qog'ozlar kutilgan daromadni keltirmasa va keltirishi kutilmasa, shuningdek, u o'z oldiga qo'yilgan vazifani bajarib bo'lsa yoki moliyaviy resurslarni ishlatishning yaxshiroq yo'llari paydo bo'lsa, ular sotiladi.

20-jadval

Bankning qimmatli qog'ozlar portfelining tarkibi

Qimmatli qog'ozlar portfeli		
Investitsiya portfeli	Savdo portfeli	
Foiz va dividend shaklida foyda olish maqsadida olingan qimmatli qog'ozlar	Qaytarib sotish bo'yicha qimmatli qog'ozlar	REPO operatsiyalari bo'yicha olingan qimmatli qog'ozlar

Bugungi kunda respublikamizda Repo bitimlarini tuzishda tijorat banklari va sug'urta kompaniyalari ulushi yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Hozirga qadar fond birjasida 48 ta emitentning aksiyalari ishtirokida 84,1 mlrd so'mlik 335 ta repo bitimi amalga oshirilgan bo'lsa, uning 60 foizga yaqini ushbu moliya muassasalari ulushiga to'g'ri keladi.

21-jadval

Qimmatli qog'ozlar qadrsizlanishi bo'yicha rezervlarni shakllantirish va boshqarish tartibi

Qog'ozning bozor narxi o'zgarish xarakteri	Qadrsizlanish bo'yicha rezerv tashkil qilish tartibi
Rezervlarning birlamchi tashkil qilinishi	
Qimmatli qog'ozlarning balans tannarxidan past bo'lgan bozor narxi	Pasaytirish narxi miqdorida rezerv tashkil qilinadi (balans tannarxi va

	qayta baholash narxi o'rtasidagi farq)
Rezervlarni boshqarish	
A) Rezerv tashkil qilishda qo'llaniladigan bozor narxi bazaviy narxdan oshib ketdi	Mablag'larning foyda hisobiga butunlay o'tkazilguniga qadar rezerv kamaytirib boriladi
B) Rezerv tashkil qilish uchun qo'llanilgan bozor narxi bazaviy narxdan tushib ketdi.	Narx tushganda rezervga qo'shimcha ki- ritiladi

Moliya bozorida ishtirok etuvchi subyekt bank boshqaruvining umumiy shartlariga bo'ysungan holda axborotlarni sir saqlaydi.

Agar qimmatli qog'ozlarga bank mablag'i qo'yilgan bo'lsa, hisobot oyi natijalari bo'yicha ularning qadrsizlanishiga rezervlar tashkil etish lozim bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha yuzaga keluvchi turli xil risklarni qoplash uchun tashkil qilinadigan rezervlarda, avvalambor, qimmatli qog'ozlarning tannarxidan past bo'lmagan bozor narxi bo'lishini e'tiborga olish kerak.

Bu holda qimmatli qog'ozlarning balans tannarxi va ularni qayta baholash bo'yicha narx o'rtasidagi farqdan kam bo'lmagan rezerv tashkil qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tashkil qilingan rezervlarni samarali boshqarishda turli usullarda foydalanish mumkin.

Bu usullarning barchasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan olib boriladigan operatsiyalarni unga yuqori daromad olib kelishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Qimmatli qog'ozlar	Veksellar
Aksiya	Qimmatli qog'ozlar hosilalari
Obligatsiya	Konosament
Ulgurji qimmatli qog'ozlar	Listing
Foizli qimmatli qog'ozlar	Delisting
Anderrayting	Konsalting
Kliring	Broker, diller, makler

Trast
Xazina majburiyatlari
Sertifikatlar

Market-meyker
REPO

O'z bilimini tekshirish uchun savollar

- Qimmatli qog'ozlarning mohiyati, zarurligi va turlarini tushuntiring.
- Qimmatli qog'ozlarni belgilari bo'yicha tasniflang.
- Investitsiya portfeli nima va unga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
- Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bilan qanday operatsiyalarni bajaradi?
- Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyati va uning turlarini tushuntiring.
- REPO operatsiyalari deganda nimani tushunasiz?
- Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarida uchraydigan risklarni aniqlang va uni muhokama qiling.

VII BOB. KREDITLASHNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

1-§. Tijorat banklarida kreditlashni tashkil qilish.

Kreditlash tamoyillari

O'zbekiston Respublikasi hududida xo'jalik yurituvchi subyektlarga kredit berish tijorat banklari tomonidan «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonun asosida va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Kreditlar O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi qonuniga asosan kredit o'z kapitali va mustaqil balansiga, yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektlarga beriladi. Kredit qarz oluvchi va qarz beruvchi o'rtasidagi pul mablag'ini to'lovlilik, muddatlilik, maqsadlilik va qaytib berishlik asosida vaqtincha foydalanishga berish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni o'zida ifoda qiladi. Tijorat banklari xo'jalik yurituvchi subyektlarga, ularning mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, shartnoma asosida qisqa va uzoq muddatli kreditlar beradi. Kredit mijozning hisob-kitob varag'i joylashgan bankda beriladi. Zarar ko'rib ishlaydigan, nolikvid balansga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga kredit berilmaydi, ilgari berilgan ssudalar esa belgilangan tartibda muddatidan ilgari undirib olinadi. Kredit resurslaridan uzoq muddatli moliyaviy nobarqarorlik, xo'jasizlik va zararlarni qoplash uchun foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Kredit iqtisodiy munosabatlarining belgilangan tizimi sifatida boshqa pul munosabatlaridan farq qiladi, ya'ni pulning xarajati qaytarib berish sharti bilan amalga oshiriladi.

Kreditlash jarayoni bir nechta tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- ◆ Kreditning muddatliligi
- ◆ Kreditning qaytarilishligi
- ◆ Kreditning ta'minlanganligi
- ◆ Kreditning to'lovliligi
- ◆ Kreditning maqsadlilikligi

Kreditlar muddatiga ko'ra qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli turlarga bo'linadi.

Qisqa muddatli kredit amal qilish muddati 12 oydan oshmaydigan ssuda bo'lib, uning muddatining uzaytirilishi kreditlanayotgan tadbirlarni o'tkazish muddati, ularning qoplanishi va boshqa shartlardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qisqa muddatli ssudalar kreditlarning

boshqa turlariga nisbatan likvidliroq hisoblanadi va 1yil muddatgacha beriladi. 1 yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar, odatda, uzoq muddatli kreditlar hisoblanadi. Ba'zi davlatlar amaliyotida 1 yildan 3 yoki 5 yilgacha berilgan kreditlar o'rtacha muddatli kreditlar, 5 yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar uzoq muddatli kreditlar deb qaraladi.

Kreditning muddatlilik tamoyili uning qaytarishlik tamoyili bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Kreditlashning muddatlilikigi ikki tomonlama xarakterga ega. Birinchidan, kreditning mohiyati vaqtincha foydalanishga berilgan mablag'larning qaytarilishinigina bildirib qolmay, balki bu qaytarilishning aniq muddatlarini belgilashni ham taqozo etadi. Kreditning muddati, **bir tomondan**, foydalanishga berilayotgan kredit resurslarining bo'sh turish muddati bilan belgilansa, **ikkinchi tomondan**, qarz oluvchining mablag'larga bo'lgan vaqtinchalik ehtiyojlarining muddatiga bog'liq. Kreditlash muddatlilikining bu ikki tomonlama xarakteri inobatga olinganda, vaqtinchalik foydalanishga berilgan mablag'larni to'liq va belgilangan muddatda qaytarilishini ta'minlash mumkin. Kreditning muddatlilikiga rioya qilish banklar uchun ham, qarz oluvchilar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Buning hisobiga bank kredit resurslarining aylanishini jadallashtirsa va ulardan oqilona foydalanishga erishsa, xo'jaliklar o'z daromadlarini ko'paytirish, o'z va qarz mablag'laridan foydalanish samarasini oshirishlari mumkin. Kredit muddatini uzaytirish aksariyat hollarda bankning ruxsati bilan amalga oshiriladi. Kredit muddati qarz olingan mablag'larning qaysi davrgacha foydalanishini hisobga olgan holda belgilanadi

Kreditni qaytarish tamoyili kredit xo'jalik subyekti oborotida qolib ketmasligi yoki unga tegishli emasligini va u mablag' egasiga qaytarib berilishi lozimligini aks ettiradi. Bank tomonidan mijozlarga beriladigan har bir so'm pul mablag'lari yana bankka qaytarilishi lozim. Qaytarib berishning iqtisodiy asosi sifatida mablag'larning uzluksiz doiraviy aylanishi hisoblanadi. Qaytarish tamoyilining shunday muhim xususiyati borki, kreditni boshqa tovar-pul munosabatlarining iqtisodiy kategoriyalaridan farqi bo'lgan iqtisodiy kategoriya sifatida ajratib turadi. Qaytarilish kreditning ajralmas atributi hisoblanadi.

Kreditning keyingi tamoyili - **kreditning ta'minlanganligidir**. Bunda ssudaning ta'minlanganligi kredit berilishiga asosan qarz oluvchining mulki, moddiy boyliklar zaxiralari, ko'chmas mulki yoki ishlab chiqarish xarajatlari summasiga mos kelishi bilan belgilanadi. Bu, o'z navbatida, kreditning o'z muddatida qaytarilishiga kafolat berilishini tasdiqlaydi. Olingan kredit mablag'lari korxonada ishlab chiqarish

zaxirasi, tugallanmagan ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot hamda mavjud moddiy boyliklarni ta'minlash uchun beriladi. Bu tamoyil asosan korxonalariga berilgan ssudalar yoki tomonlar majburiyatlari bilan real ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasida banklar faoliyatining xalqaro bank amaliyotiga yaqinlashib borayotgan sharoitda kreditning ta'minlanganligi sifatida tovar-moddiy bo'lik va xarajatlardan tashqari garov, kafolat va kafillik kabi shakllari ham amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Bu holat bank risklarini kamaytirgan holda kreditlarning bankka o'z vaqtida qaytishini ta'minlaydi. Ssudaning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash uchun kredit shartnomasiga ko'ra qarz oluvchi garovga ma'lum qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni qo'yib rasmiylashtiradi. Agar kredit oluvchi kreditni o'z vaqtida qaytara olmasa, u holda garovni sotish choralari ko'riladi. Kredit bo'yicha ta'minotning miqdori kredit miqdorining 125 foiziga teng bo'lishi lozim. Xo'jalik subyektlarining faoliyati yoki ta'minotga olinayotgan mulkning qiymati nobarqaror bo'lgan hollarda kredit miqdori garovga qo'yilgan mulk qiymatining 50-60 foizi miqdorida ham bo'lishi mumkin.

Kreditlashning yana bir tamoyili - olingan **kreditning to'lovliligidir**. Bunda shartnomaga ko'ra kredit oluvchi korxonaga o'z ehtiyoji uchun kreditga olgan pul mablag'laridan vaqtincha foydalanilganligi uchun bankka belgilangan haqni to'lashi lozim. Amaliyotda bu tamoyil bankning foiz mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Bankning foiz stavkasi bu kreditning «narxidir». Kredit uchun haq to'lash korxonalarini xo'jalik hisobiga, shu jumladan, resurslarning ko'payishiga hamda jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga ta'sir etadi. Bank muassasalari kredit foizi hisobidan o'z xarajatlarini qoplaydi. Kredit uchun haq to'lash tamoyili qarzga olingan mablag'lardan unumli foydalanish va kreditni qaytarish muddatini tezlashtirish maqsadida korxonaga iqtisodiy ta'sir ko'rsatish vositasidir. Bank foizi kredit turlariga qarab turlicha belgilanadi. Qaytarilish muddati o'tib ketgan kreditlar uchun oshirilgan miqdorda foiz olinadi, bu esa qaytarish muddati shartlariga qat'iy ravishda rioya qilishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit to'lovi miqdorini belgilashda ahamiyat beradigan quyidagi asosiy tamoyillar mavjud. Bular:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklariga beriladigan ssudalar bo'yicha o'rnatilgan bazaviy foiz stavkasi;

- banklararo kredit bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi, ya'ni aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun boshqa banklardan sotib olingan resurslar bo'yicha;

- turli depozit hisob varaqlar bo'yicha mijozlarga bank tomonidan ta'lanadigan o'rtacha foiz stavkasi;

- bank kredit resurslarining tarkibi (jalb qilingan mablag'lar hissasi yuqori bo'lganda kredit narxi ham yuqori bo'ladi);

- kreditga bo'lgan talab;

- talab qilinayotgan kredit muddati va kredit turi, ya'ni uning ta'minlanganligiga bog'liq ravishda risk darajasi;

- mamlakatdagi pul aylanishining muvozanati (inflyatsiya sur'ati yuqori bo'lsa kredit shunchalik qimmat bo'ladi, chunki pul qadrsizlanishi tufayli bankning o'z resurslarini yo'qotish riski ortadi) v.b.

Kreditning yana bir tamoyili sifatida **kreditning maqsadga yo'naltirilganligini** olish mumkin. Bunda aniq xo'jalik jarayonlarining kredit bilan bog'liqligi ta'minlanadi. Kreditning mijoz tomonidan maqsadli yo'naltirilishi tamoyili qarz oluvchi zimmasiga pul mablag'larini faqat kredit shartnomasida ko'rsatilgan maqsadlar uchun sarflashni ko'zda tutadi. Uzoq muddatli kredit maqsadli tarzda aniq qurilish obyektlari va asbob-uskunalarni sotib olish uchun beriladi. Kreditlar biznes-reja asosida beriladi. Kreditning maqsadli yo'naltirilishini ta'minlash uning o'z vaqtida qaytarilishi uchun real shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bu tamoyilga rioya qilish bank muassasalari tomonidan qarz oluvchi korxonalarining hisobotlari asosida nazorat qilinadi. Berilgan kredit qarz oluvchi tomonidan boshqa maqsadga ishlatilgan bo'lsa, u holda belgilangan tartibda kredit muddatidan ilgari qaytarib olinadi va boshqa choralar ko'rilishi mumkin.

Bankning kreditlash tamoyillari barchasining amaliyotda yalpi qo'llanilishi bank va uning aksionerlari hamda mijozlarining manfaatlarini himoyalashga, uning faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarning oldini olishda yordam beradi.

2-§. Kredit munosabatlarining obyektlari va subyektlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditning asosiy turi bo'lib, bank krediti, ya'ni tijorat banklari tomonidan beriladigan har xil turdagi va ko'rinishdagi kreditlar hisoblanadi. Kredit munosabatlari yuzaga kelishi uchun uning obyektlari va subyektlari bo'lishi lozim. Kreditlarning turiga qarab kredit munosabatlarining ishtirokchilari, ya'ni **kreditning**

obyekti yoki subyekti turli subyekt va obyektlar bo'lishi mumkin. Bank krediti sohasidagi **kredit munosabatlarining subyekti** bo'lib banklar xo'jalik subyektlari, aholi, davlat va boshqa subyektlar hisoblanishi mumkin. Ma'lumki, kreditlash jarayonida, bir tomondan, kredit beruvchi va ikkinchi, tomondan, qarz oluvchi o'rtasida kredit munosabatlari yuzaga keladi. Kreditorlar bo'lib, o'zining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini ma'lum bir muddatga qarz oluvchi ixtiyoriga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadilar.

Qarz oluvchi – o'ziga tegishli bo'lmagan mablag'ni vaqtincha ishlatib, uni belgilangan muddatda qaytarib berish va u bo'yicha foiz to'lash majburiyatini oluvchi tomondir. Bank kreditiga kelsak, kredit munosabatlarining subyektlari bo'lib, albatta, kredit beruvchi bank va turli yuridik va jismoniy shaxslar esa qarzдор bo'lib hisoblanadilar. Kreditning bu turi asosan banklarning jalb qilingan mablag'lar bilan ishlashiga bog'liq. O'zida jalb qilingan mablag'larni ehtiyoji borlarga pul mablag'larini qayta taqsimlash orqali banklar kreditor sifatida faoliyat ko'rsatadi.

XX asrning 80-yillarida iqtisodiyotda qayta qurish jarayonlarining boshlanishiga qadar sobiq ittifoqda bank kreditini qarzga oluvchi bo'lib asosan xo'jalik yurituvchi korxonalar va tashkilotlar qatnashganlar, ammo xo'jalik organlari va banklar orasida bank krediti sohasidagi amalga oshirilgan munosabatlar aksariyat hollarda bir xil turdagi davlat mulkchiligiga asoslangan subyektlar o'rtasida bo'lgan.

Mustaqillikning qo'lga kiritilishi va bozor munosabatlarining shakllanishi bilan O'zbekistonda kredit munosabatlari subyektlarining mavqeyi o'zgardi. Bu vaziyat mulkchilik munosabatlarining chuqur o'zgarishi bilan bog'liq bo'ldi. Bank sohasidagi mulkchilik munosabatlari qo'shimcha ravishda «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonun bilan tartibga solina boshlandi. Ishlab chiqarishni dekonstratsiyalash va mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish jarayonlarini joriy qilish, iqtisodiyotni demonopolizatsiyalash O'zbekistonda qabul qilingan qonunlar asosida to'g'ri amalga oshirilishi:

birinchidan – xo'jalik yurituvchi subyektlar va boshqa banklar sonining tez ko'payishiga;


ikkinchidan – ularning ko'pchiligida egalik qilayotgan davlat mulkchilik shaklini turli xil mulkchilik shakllariga o'zgartirilishiga olib keldi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasida xususiy, davlat, jamoa va kollektiv mulkchiligiga asoslangan korxonalar va tashkilotlar tuzilishi hamda faoliyat ko'rsatishiga, aralash mulkchilikka asoslangan korxonalarning tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishiga huquqiy asos yaratildi.

Ayniqsa, hukumat tomonidan xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni rag'batlantirish, aksiyadorlik tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish, ularni xususiylashtirish va faoliyatini erkinlashtirish borasida qonunlar va qator me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi kredit munosabatlari subyektlari ko'lamining oshib borishini jadallashtirmoqda.

Kreditlash obyekti – bu qarzga olingan summa va uning qaysi obyekt- tovar-moddiy boyliklar, xarajatlar va hokazolarga yo'naltirilganligini anglatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kreditlash tarkibini quyidagicha tasvirlash mumkin:



14-rasm. Kreditlash mexanizmi elementlari

Kredit subyekti, obyekti, ta'minoti, kreditlash metodlari va usullari, kredit monitoringini yuritish va boshqalar kredit mexanizmining asosiy elementlari hisoblanadi. Albatta, kredit mexanizmining mohiyatiga turlicha yondashuvlar mavjud, lekin shu bilan birga, yuqorida keltirilgan elementlar kredit mexanizmining asosini tashkil etadi. Kredit munosabatlari o'rnatishda mazkur elementlarning qaysi biridir muhim ahamiyatni o'zida mujassamlashtirishi va kreditorning qaror qabul qilishida hal qiluvchi omilga aylanishi mumkin. Masalan, obro'li va xalqaro bozorda o'z o'rniga ega bo'lgan kompaniya yoki firma, joriy faoliyatida moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelib bank kreditiga murojaat etdi. Bunda bank iloji boricha unga kreditni berishga harakat qiladi, chunki bunday mijozni yo'qotish bank uchun foydali emas. Yana

bir misol – korxonada kelajakda juda samarali va yuqori foyda keltiradigan, istiqbolli loyihasini bankka taqdim etib, bu loyihani moliyalashtirishni so‘rashi mumkin. Bank ushbu loyiha istiqboliga amin bo‘lib, yuqori foyda olish maqsadida kredit berishi mumkin.

Bu ikkala misolda, birinchi holda, kreditlash subyektiga, ikkinchi holda, kreditlash obyektiga e‘tibor berilmoqda. Bu hollarda kreditlash riskini inobatga olish muhim hisoblanadi. Shuning uchun kreditlash jarayonida kredit mexanizmining yuqorida sanab o‘tilgan bazaviy elementlarga umumlashgan holda e‘tibor berish lozim.

Endi kreditlash subyektiga yana qaytadigan bo‘lsak, qarz oluvchi bo‘lib mulkchilik turidan qat‘i nazar, bank ishonchini qozongan, ma‘lum moddiy va huquqiy kafolatlarga ega foiz to‘lash va kreditni o‘z vaqtida qaytarishga rozi bo‘lgan subyektlar bo‘lishi mumkin.

Kreditlash subyektlariga yanada aniqroq yondashadigan bo‘lsak, ularni quyidagilarga bo‘lish mumkin:

- davlat korxonasi va tashkilotlari;
- xususiy mulkchilikka asoslangan korxonasi va tashkilotlar;
- kichik biznes, xususiy tadbirkorlik subyektlari, kooperativlar;
- ishlab chiqarish subyektlari va savdo tashkilotlari;
- oilaviy tadbirkorlik, yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolar, fermerlar, mikrofirmalar, birlashmalar;
- boshqa banklar;
- boshqa xo‘jaliklar, xususan, hukumat korxonalarini, qo‘shma korxonalar, xalqaro birlashmalar va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Undan tashqari, qisqa muddatli kreditlarning yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko‘rsatayotgan yakka tadbirkorlar ham olishlari mumkin. Yuqoridagi subyektlar kredit oluvchi sifatida faoliyat ko‘rsatsa, tijorat banklari yoki boshqa kredit muassasalari kredit beruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Lekin shuni ta‘kidlash kerakki, banklar banklararo kreditlarda qarz oluvchi subyekt sifatida ham faoliyat ko‘rsatadilar.

Tor ma‘noda kreditlash obyekti, kredit (ssuda) aynan qaysi maqsad uchun berilsa, shu kredit obyekti hisoblanadi va kredit bitimi shu obyekt bo‘yicha tuziladi. Amaliyotda qisqa muddatli kreditlar ishlab chiqarish zaxiralarining turli elementlari uchun beriladi. Sanoatda, masalan, banklar xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg‘i, zaxiralar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va boshqalarni kreditlaydi. Savdoda kreditlashning obyekti bo‘lib, tovar oborotidagi tovarlar, xizmatlar hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida banklar dehqonchilik va chorvachilik xarajatlari; mineral o'g'itlar, yoqilg'i va boshqa xarajatlarni kreditlaydi. Umuman olganda, qisqa muddatli kreditlar quyidagi 3 ta asosiy obyektni kreditlashga yo'naltiriladi:

- tovar-moddiy boyliklar;
- ishlab chiqarish xarajatlari;
- hisob-kitoblar uchun zarur bo'lgan mablag'lar.

Tovar moddiy boyliklari yuqori salmoqqa ega bo'lgan kreditlash obyekti hisoblanadi. Korxonaning tovar moddiy boyliklarini ishlab chiqarishga joriy qilish, sotish jarayonlarida, mavsumiy korxonalarda tovar moddiy boyliklarni rejadan tashqari qabul qilinganda, import mahsulotlari kelib tushganda, ularning transportirovkasi bilan bog'liq xarajatlarni, savdo va ta'minot tashkilotlarida normativdan yuqori tovar zaxiralari yuzaga kelganda kreditlarga murojaat etadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarish bilan mablag'lar tushishi jarayoni bir-biriga mos kelmaganda, tugallanmagan ishlab chiqarish salmog'i oshib ketganda kelgusi davr xarajatlariga, ba'zi korxonalariga yangi turdagi mahsulotni ishlab chiqarish va korxonani qayta ta'mirlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni amalga oshirishda kreditlarga murojaat etiladi.

Chakana tovar oborotga kreditlar. Banklar avtomobillar, elektrmaishiy jihozlar, mebellar va boshqa uzoq muddat ishlatiladigan tovarlarni qarzga sotib olishni, qarzga sotish shartnomasini imzolaganidan so'ng paydo bo'ladigan debitorlik qarzini moliyalashtirish orqali kredit beradi. Bu kabi kreditlashni debitorlik qarzini sotib olish deb ham izohlash mumkin.

Aktivlar bilan ta'minlashga kredit. Bunday kreditlar firmalarning joriy ehtiyojlari uchun, aylanma mablag'larning aylanishini ta'minlash uchun, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun tez pulga aylanuvchi aktivlari garovi ostida, 12 oygacha bo'lgan muddatga beriladi. Ta'minot sifatida, odatda, xomashyo zaxiralari, tovar-moddiy zaxiradari, tayyor mahsulot va ko'p hollarda debitorlik qarzi hisoblanadi. Bu turdagi kreditning keng tarqalgan shakli faktoring hisoblanadi. Tijorat banklari firmalarga uning debitorlik qarzining 70 foizi miqdorida kredit beradi. Hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'lar korxonaning mol yetkazib beruvchilar bilan bo'ladigan hisob-kitoblarni amalga oshirishda, akkreditiv ochishda, ish haqi bo'yicha davlat korxonalariga kreditlar berishda, o'zaro qarzlarni kechishda kreditlarga murojaat etiladi.

Uzoq muddatli kreditlar quyidagi kreditlash obyektlariga yo'naltirilishi mumkin:

- ishlab chiqarish obyektlarini qurish uchun;
- ishlab chiqarish obyektlarini qayta ta'mirlash, texnik qurollantirish va kengaytirish uchun;
- texnikalar, asbob-uskunalar va transport vositalarini sotib olish uchun;
- yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish uchun;
- noishlab chiqarish sohasidagi obyektlarni qurish v.h.

O'rta muddatli kreditlarni kreditlash obyekti ham xuddi uzoq muddatli kreditlarning obyekti singari bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, kreditlarning turlariga qarab ularning kreditlash obyekti va subyekti farqlanadi. Masalan:

- **tijorat kreditida** – kreditlash obyekti tovar hisoblanib, subyekt esa sotuvchi bilan xaridor hisoblanadi;
- **bank kreditida** yuqorida ko'rib chiqqan barcha obyektlar bo'lishi mumkin;
- **iste'mol kreditida** – kreditlash obyekti iste'mol tovarlari hisoblanadi;
- **xalqaro kreditda** – kreditlash subyekti bo'lib asosan davlatlar hisoblanadi v.h.


3-§. Bankning kredit operatsiyalari va ularning xususiyatlari

Kredit operatsiyalari (lotincha «creditum» - ssuda degan ma'noni anglatadi) deganda shartlar asosida, ya'ni qaytarishlilik, muddatlilik va to'lovlilik shartlari asosida ma'lum bir miqdordagi pulni (yoki tovarni) qarzga berish tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, qarzdor qarzni belgilangan muddat ichida qaytarib berishi va undan tashqari qarz mablag'idan foydalangani uchun shartnomada kelishilgan summani to'lashi lozim. Bu summa qarzga olingan mablag'lar uchun to'lov bahosi bo'lib, u kredit uchun foiz deb ataladi.

Bank o'z tabiati jihatidan moliya-kredit tashkiloti bo'lib, uning uchun kredit operatsiyalari, bank xizmatlarinig bir ko'rinishi hisoblanib, u boshqa bank operatsiyalari (valyuta, qimmatli qog'ozlar, qimmatliklarni saqlash bo'yicha operatsiyalar v.b.) ichida asosiy o'rin egallaydi.

Bank kredit operatsiyalarni amalga oshirish uchun faqatgina o'ziga tegishli bo'lgan pul mablag'larini ishlatmay, balki vaqtincha jalb qilgan

mablag'larni ham ishlatadi. Bunda boshqa tijorat banklaridan (yoki Markaziy bankdan) olingan kredit bilan bir qatorda, bank, shuningdek, pul mablag'larini o'z omonatchilaridan va tashkilotlardan turli hisob varaqlarga jalb etadi. Bankda mablag'lar turli xil hisob varaqlarda (hisob-kitob, joriy, jamg'arma, talab qilinguncha, muddatli depozit, valyuta va mijozlarning boshqa hisob varaqlari) saqlanadi. Bunday pul mablag'larni jalb etish ham kredit xarakteriga ega, chunki u ham qaytarishlilik, muddatlilik va to'lovlilik shartlariga asoslanadi, bank esa bu yerda qarzdor sifatida namoyon bo'ladi.



15-rasm. Bankning kredit operatsiyalari sxemasi

Bank kreditlari muddatiga qarab turlicha bo'ladi (uzoq va qisqa); qarzdorning tashkiliy-huquqiy tuzilishiga qarab (davlat, xususiy va aksionerlik jamiyati, kooperativlar, uyushmalar, boshqa banklar, qo'shma korxonalar, fermerlar, xususiy shaxslar va h.k.); tarmoqqa qarab (sanoat qishloq xo'jaligi, kommunal kredit); maqsadiga qarab (mavsumiy xarajatlar uchun, to'lov hujjatlarni to'lash uchun, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun va boshqa asosiy aktivlar bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish), shuningdek, boshqa mezonlarga qarab yirik, o'rta va kichik kredit, mikrokreditlarga farqlanadi.

Bank kredit berish uchun jalb qilingan barcha mablag'larni va o'z mablag'larini ishlatishi mumkin. Tijorat banklari bu mablag'larning bir qismini majburiy rezervlar sifatida Markaziy bankka o'tkazishi kerak va, shuningdek, ularning bir qismini yuqori likvid mablag'lar (kassadagi naqd pullar) shaklida mijozlarga joriy xizmatlarni to'lash uchun yetarli

bo'lishi yoki qimmatli qog'ozlar, mol-mulkka ega bo'lish va boshqa operatsiyalarga ishlatish uchun saqlanishi lozim.

Mablag'lar qoldig'i bankning kredit potensialini ifodalab, kredit berish uchun ishlatiladi. Bank foyda ko'rib ishlashi uchun o'z kredit potensialidan samarali foydalanishi lozim. Bu esa bank va qarzdorning o'zaro munosabatlari shartnoma asosida tuzilishini anglatib, ikkala tomon ham teng huquqli va o'z maqsadlariga asoslangan holda ularni mujassamlashtirib faoliyat ko'rsatadilar. Qarzdor kredit olish uchun o'ziga munosib bankni tanlashi, bank ham, o'z navbatida, mijozlarni tanlash huquqiga ega va unga kredit berishda o'zlariga muhim va foydali deb topgan shartlarni qo'yishi mumkin.

4-§. Bank kreditlarining turlari va shakllari

Endi banklar tomonidan berilayotgan kreditlarning turli belgilari va shakllarini ko'rib chiqamiz.

Jahon amaliyotida bank kreditlarining yagona, umumlashgan tasnifi yo'q, chunki kreditlarni turli xil shakllari har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, ularning urf-odatlariga, aholi orasida ssudalarni berish va qaytarish tarixan shakllangan usullariga bog'liq bo'ladi. Shunday bo'lsa ham banklarning eng ko'p uchraydigan kredit operatsiyalarini turli xil mezonlar va o'lchovlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtirishga harakat qilib ko'ramiz:

1. Bank kreditlarini qarz oluvchilarning guruhlari bo'yicha: davlat, boshqa banklar, xo'jalik subyektlari, turli moliya tashkilotlari, aholi va boshqa subyektlarga tasniflash mumkin.

2. Kreditlar maqsadi yoki qaysi sohaga yo'naltirilishi bo'yicha: sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, investitsion, iste'mol va boshqa kreditlarga bo'linadi.

Bank kreditlari kapitalga yo'naltirilishiga qarab 2 xil bo'lishi mumkin: asosiy kapitalni moliyalashtirish uchun yoki aylanma kapitalni moliyalashtirish uchun ssudalar beriladi. Bular, o'z navbatida, ishlab chiqarish yoki muomala (savdo) sohasiga yo'naltiriladigan kreditlarga bo'linadi. Inflyatsiya sharoitida tijorat banklari amaliyotida savdo va spekulyativ (chayqovchilik) operatsiyalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan ssudalar aksariyat qismni tashkil etadi.

3. Hajmi bo'yicha kreditlar katta (yirik), o'rta, kichik va mikrokreditlarga bo'linadi. Lekin xalqaro amaliyotda kreditlarning hajmi bo'yicha umum qabul qilingan yagona o'lchov (mezon) mavjud

emas. XVf, ETTBning nuqtayi nazaridan 10000 AQSh dollarigacha bo'lgan summadagi kreditlar kichik kreditlarga kiradi.

22-jadval

O'zbekistonda kreditni qaytarish muddati bo'yicha tasniflash

Kredit turlari	Muddatlari
Qisqa muddatli kreditlar	1 yilgacha bo'lgan kreditlar
Uzoq muddatli kreditlar	1 yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar

4. Ta'minlanganligi bo'yicha kreditlar ta'minlanmagan va ta'minlangan kreditlarga bo'linadi. Ta'minlangan kreditlar ta'minlanganlik xarakteriga qarab garovli, kafolatlangan, sug'urtalangan va hokazolarga bo'linadi.

Kreditning sifati past bo'lganda, uning ta'minlanganligida muammolar bo'lganda bunday kreditlar ta'minlanmagan kredit deb yuritiladi va bunda kreditlar bo'yicha kreditning qaytmaslik riski yuqori bo'ladi. Shuning uchun bu kreditlar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantiriladi.

Banklar tomonidan moliyaviy holati barqaror, foyda bilan ishlaydigan, ijobiy kredit tarixiga ega bo'lgan mijozlarga bank ta'minot talab qilmasdan ishonchli (blankali) kreditlar berilishi mumkin. Bunday kreditlar qarz oluvchining obro'sini hisobga olgan holda va uning daromadlari darajasini baholagandan so'ng uning moliyaviy natijalari ijobiy bo'lgandagina beriladi.

5. Berilish usullari bo'yicha kreditlar qoplash uchun va to'lov uchun kreditlarga bo'linadi. Birinchi holatda kredit qarz oluvchining hisob varag'iga xarajatlarni qoplash uchun o'tkaziladi. Bunda yana avans xarakteridagi ssuda mablag'larining o'tkazilishi ham nazarda tutiladi. Ikkinchi holatda bank ssudasi bevosita naqd pulsiz hisob-kitoblarda hisob hujjatlarini to'lash uchun beriladi.

Shu bilan birga, bir martalik kreditlar ham bo'ladi, ya'ni shartnomada belgilangan muddat va summada taqdim etiladi. Biroq ko'pchilik mamlakatlarda kredit liniyalari keng qo'llaniladi.

6. Bank kreditlarini qaytarilish tartibi bo'yicha 2 guruhga ajratish mumkin. Talab qilib olinadigan va muddatli kreditlar.

Muddatli kreditlar qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlarga bo'linadi.

Shuningdek, qaytarishlik vaqtiga qarab, bir vaqtda qaytariladigan kreditlar va bo‘lib-bo‘lib to‘lanadigan kreditlar kiradi.

Odatda, yuridik shaxslar va aholiga joriy ehtiyojlarni qoplash uchun naqd pul mablag‘lari kerak bo‘lganda, beriladigan qisqa muddatli kreditlar, bir vaqtda qaytariladigan kreditlar hisoblanadi. Bu yerda asosiy qarz va foizlarni yagona summada kredit muddati tugashi bilan qaytariladi.

Bir necha muddatda qaytariladigan kreditlar bu ikki yoki undan ortiq to‘lovlar bilan amalga oshiriladigan ssudalar hisoblanadi. (odatda, har oy, har kvartal yoki har yarim yilda). Bu guruhga turli xil kreditlar: tijorat, ochiq schyot bo‘yicha, veksell, lizing, faktoring, forfeyting va boshqalar kiradi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda bir kecha muddatda qaytariladigan kreditlar yuridik va jismoniy shaxslarga tovarlar va ko‘chmas mulklarni sotib olish uchun beriladigan o‘rta va uzoq muddatli kreditlashda keng qo‘llaniladi.

23-jadval

Qaytarish muddati bo‘yicha kreditlarning tasnifi

Muddati	Rossiya	AQSh	B.Britaniya	Frantsiya	O‘zbekiston
Qisqa	1 yilgacha	1 yilgacha	3 yilgacha	1 yilgacha	1 yilgacha
O‘rta	1-3 yil	1-6 yilgacha	3-10	2-7yilgacha	-
Uzoq	3 yildan ortiq	6 yildan ortiq	yilgacha 10 yildan ortiq	7 yildan ortiq	1 yildan ortiq

Jahon moliya bozorlarida investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun kreditlar bir necha muddatlarda qaytarish sharti bilan beriladi.

7. Foiz stavkalarining turlari bo‘yicha bank kreditlarini 2 guruhga bo‘lish mumkin: qat‘iy foizlardagi kreditlar va suzuvchi foiz stavkalaridagi kreditlar.

Ssudalar kreditlashning butun muddatiga beriladigan va qayta ko‘rib chiqilmaydigan qat‘iy foiz stavkalari shartlarida berilishi mumkin.

Qarz oluvchi bu holatda foiz stavkalari bozorlarida konyunkturasi o‘zgarishiga qaramasdan kreditdan foydalanganligi uchun o‘zgarmas kelishilgan stavkada foiz to‘laydi. Bu ham kreditorga, ham qarz oluvchiga qulay, chunki ikkala tomon ham berilgan kreditdan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z daromad va xarajatlarini to‘g‘ri

hisoblab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qat'iy foiz stavkalari, odatda, qisqa muddatli kreditlashda qo'llaniladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda kreditlarni berishda qat'iy va suzib yuruvchi foiz stavkalari (bu kredit bozorlarida vujudga keladigan holatlarga bog'liq bo'lgan doimiy o'zgaradigan foiz stavkalari)ning har ikkalasi ham keng qo'llanilmoqda.

8. Kredit qaysi valyutada berilishiga qarab ham guruhlariga bo'linadi. Odatda, tijorat banklari kreditlarni milliy valyutada yoki chet el valyutasida berishi mumkin. O'zbekistonda milliy valyuta va chet el valyutasidagi kreditlar ko'p qo'llanilmoqda.

9. Kreditlar soni bo'yicha kreditlar quyidagi guruhlariga bo'linishi mumkin:

- yagona bank beradigan kreditlar;
- sindikatlashgan kreditlar;
- parallel kreditlar.

Amaliyotda bir bank tomonidan beriladigan ssudalar keng tarqalgan.

Biroq ayrim mamlakatlar va integratsion guruhlar iqtisodiyotning rivojlanish imkoniyatiga qarab yagona bank imkoniyati yetmaydigan yirik kreditlarga ehtiyoj sezilmoqda. Bu esa banklarning guruhlariga qo'shib sindikatlashgan kredit berishga undamoqda.

Sindikatlashgan kredit – bu birlashgan (konsortsium) 2 yoki undan ortiq kreditorlar bir qarzdorga kredit taqdim etadi. Bir guruh bank-kreditorlar ma'lum muddatga bo'sh turgan moliyaviy resurslarini ma'lum bir obyekt yoki qarzdorni kreditlash maqsadida birlashtiradi. Bir yoki yetakchi bank-koordinatorlarning katta bo'lmagan bir guruhi butun sindikat nomidan qarz oluvchi bilan kredit bitimi shartlari bo'yicha muzokaralar olib boradi, kerakli summa yig'ishini ta'minlaydi.

Amaliyotda ikki yoki undan ortiq banklar qarz oluvchiga parallel kreditlar berish holatlari ham bo'lishi mumkin. Sindikatlashgan kreditdan farqli o'laroq, bu holatda mijoz bilan har bir bank alohida ish olib boradi, so'ngra esa umumiy kredit shartnomasini tuzadi.

10. Kreditlar sifatiga ko'ra «standart», «substandart», «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» toifalarga tasniflanadi.

Shunday qilib, tijorat banklarining kreditlari qaysi belgilarga qarab tasniflanmasin, ularni berishdan maqsad mijozlarning mablag'ga bo'lgan ehtiyojini qondirgan holda bankka yuqori daromad keltirishini ta'minlashdan iborat.

5-§. Kreditlash uslublari va ssuda hisob varaqlarining shakllari

Kredit sohasidagi munosabatlar belgilangan ma'lum tizimga ega bo'ladi. **Bankning kreditlash tizimi** deganda, kreditlash jarayonini tashkil qiluvchi va uni kreditlash tamoyili bo'yicha tartibga solinishini belgilovchi elementlar majmuasi tushuniladi. **Kreditlash tizimining tashkiliy elementlari** sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- kreditlash jarayonida qarz oluvchining o'z mablag'larining qatnashish tartibi va darajasi;
- kreditning maqsadga yo'naltirilganligi;
- kreditlash uslublari;
- ssuda hisob varaqlarining shakllari;
- ssuda qarzini tartiblash usullari;
- ssuda mablag'larini maqsadli va samarali foydalanilishini hamda o'z vaqtida qaytarilishini nazorat qilish tartibi va shakllari.

Sobiq ittifoq davrida davlat bankining kreditlash tizimi xo'jalik organlarining o'z va qarz mablag'laridan foydalanish chegarasi qonun bilan qat'iy chegaralanishiga asoslangan.

Zamonaviy kreditlash tizimi davlat tomonidan xo'jalik organlarining o'z va qarz mablag'lari o'rtasidagi nisbat kabi me'yorlarni belgilamanligi bilan xarakterlanadi.

Faoliyat yuritishning bunday tijorat asoslari xo'jaliklarning o'z mablag'larini maksimal ishlatishga va qarz mablag'lari oldida to'liq mas'uliyatni sezishga majburlaydi. Shuningdek, qarz mablag'lari faqatgina bank krediti sifatida emas, balki xo'jaliklararo pul va tovar shaklida qatnashmoqda. Korxonalarining xo'jalik oborotidagi o'z mablag'larining hajmi olinishi mumkin bo'lgan kredit hajmiga va kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini hisoblashdagi mijoz faoliyatining samaradorlik darajasiga ta'sir qiladi.

Bozor munosabatlariga o'tishdagi aylanma mablag'larini bunday tashkillashtirish obyektini kreditlashdan subyektini kreditlashga o'tishga zamin yaratdi. Bu esa kreditlash mexanizmidagi yangi va samarali davrdir.

Bankning kreditlash tizimining asosiy elementi bo'lib kreditlash usullari hisoblanadi, chunki ular bu tizimning bir qator elementlari: ssuda schyoti turi, ssuda majburiyatini tartibga solish, qarz mablag'larini maqsadli ishlatish va ularni o'z vaqtida qaytarish tartibini va shaklini nazorat qilish kabilarni belgilab beradi.

Kreditlash usullari deganda, kreditlash tamoyillariga mos ravishda kreditni berish va qaytarish usullari tushuniladi.

Sobiq ittifoq bank amaliyotida kreditlashning 3 usuli: qoldiq bo'yicha, aylanma bo'yicha va aylanish-qoldiq usullari bo'yicha kreditlash tartibi qo'llanilgan. Qoldiq usuli bo'yicha kreditlashning mohiyati shunda ediki, kreditning harakati kreditlanayotgan moddiy qiymatliklarning, ya'ni tovar-mahsulotlar, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari, tayyor mahsulot va yuklab jo'natilgan tovarlarning qoldiq qiymati bilan bog'lanar edi. Zaxiralarning me'yordan oshishi kreditga talabni oshirish, kamayishi esa kredit ma'lum qismining qaytarilishi lozimligini ko'rsatardi. Shu bilan birga, kreditlash usullarida kredit qoplash xarakterga ega edi, chunki zaxira va xarajatlarning me'yordan ortiq qismi o'z mablag'lari bilan emas, balki kredit hisobidan qoplanar edi.

Aylanish usuli bo'yicha kreditlashning xususiyati shunda ediki, kredit harakati material qiymatliklarning aylanishi, ya'ni kelib tushishi va ishlatishi bilan belgilanar edi. Kreditlashning bunday usuli yangi kredit berish va ilgari berilgan kreditni qaytarish faqatgina vaqt bo'yicha mos kelishi mumkin edi. Bu yerda kredit to'lov xarakteriga ega edi, chunki ssuda bevosita ishlab chiqarish xarajatlari, xizmatlarni to'lab berish uchun yo'naltirilgan. Qarz mablag'lari doimiy ravishda xo'jalik oborotida ishtirok etib, to'liq oborotdan so'ng kreditni qaytarish rejaga asosan amalga oshirilgan. Kreditlashning ushbu usuli yordamida xo'jalik organlari to'lov oborotining uzluksizligini ta'minlashga erishilgan.

Qoldiq bo'yicha kreditlash usuli o'zining amaliy mohiyatini xo'jalik yuritishning bozor munosabatlari davrida yo'qotdi, chunki XX asrning 80-yillardagi bank islohotining birinchi bosqichida ko'pgina samarasiz obyektlarni kreditlashdan sog'lom obyektlarni yagona, umumlashtirilgan sxemada kreditlashga o'tildi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari yangi tijorat tuzilmalari, ya'ni mulkchilikning boshqa turiga asoslangan subyektlarga kredit berishda tijorat banklarining xorij amaliyotiga tayanib kreditlashning yangi usullaridan foydalanmoqdalar.

Xorijiy bank amaliyotida kreditlashning ikki usuli ma'lum.

Birinchi usulning ahamiyati har bir ssuda individual tartibda ko'rib chiqilishidadir. Ssuda ma'lum maqsaddagi mablag'ga bo'lgan ehtiyojini qondirishga beriladi. Ushbu usul aniq muddatga ssuda ajratishda qo'llaniladi.

Ikkinchi usulda ssuda bank tomonidan qarz oluvchiga oldindan belgilab qo'yilgan kredit limiti bo'yicha beriladi, bunda qarz oluvchi unga qo'yilgan to'lov hujjatini o'z vaqtida to'lash majburiyatini oladi.

Kreditlashning ushbu shakli kredit liniyasi deb ataladi. Ochilgan kredit liniyasi kredit hisobiga barcha hisob-kitob pul hujjatlarini bank va mijoz o'rtasidagi shartnomaga asosan to'lash uchun 1 yilga ochiladi, ammo kredit liniyasi undan qisqa muddatga ham ochilishi mumkin. Kredit liniyasi muddati davomida mijoz bank bilan qo'shimcha kelishuv tuzib, istagan vaqtida ssuda olishi mumkin. Lekin bank qarz oluvchining moliyaviy holatini zaiflashganini aniqlasa, mijozga belgilangan limit chegarasida ssuda berishdan bosh tortishi mumkin. Kredit liniyasi, odatda, moliyaviy barqaror va e'tiborli mijozlarga ochiladi. Mijoz iltimosiga binoan kreditlash limiti qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Davom ettiriladigan va ettirilmaydigan kredit liniyalari o'zaro farqlanadi. Davom ettirilmaydigan kredit liniyasi ochilib ssuda berilgan va qaytarilgandan keyin mijoz va bank o'rtasidagi aloqalar tugatiladi. Davomlashtiriladigan kredit liniyasida kredit belgilangan limit asosida avtomatik ravishda beriladi va qaytariladi. Agar bank tomonidan mijozga kredit liniyasi ma'lum tovarlarga bir shartnoma bo'yicha bir yil ichida pul to'lash uchun ochilgan bo'lsa, kredit liniyasi maqsadli bo'ladi.

Kreditlash usuli kredit berishda va qaytarishda ishlatiladigan ssuda hisob varag'ining shaklini tanlab beradi. Banklar kreditlash operatsiyalarini amalga oshirish uchun mijozga ssuda hisobvarag'ini ochadilar.

Aylanma-qoldiq usul bo'yicha to'lovlarni va kreditga layoqatli korxonalarini kreditlash yagona aktiv-passiv, ya'ni **kontokorrent** hisob varag'idan amalga oshiriladi. Ushbu hisob varaq mijozga bo'lgan yuqori ishonchni bildiradi. Hisob varaqning debetidan mijozning ishlab chiqarish faoliyati va foydani taqsimlash bilan bog'liq to'lovlari o'tadi, kreditga barcha tushumlar yoziladi. Hisob varaqning kredit qoldig'i korxonaning o'z mablag'i borligini, debet qoldig'i esa bankdan mablag' jalb qilinganini bildiradi.

Xo'jalik yuritishning bozor munosabatlari sharoitida oddiy ssuda hisob varaqlari keng tarqalgan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan xo'jalik subyektlarini alohida ssuda hisob varag'i ochish yo'li bilan kreditlanadi. Ba'zi tijorat banklarida kreditlar «kredit liniyasi ochib» yoki «kredit liniyasi ochmasdan» kreditlash yo'li bilan ajratilishi mumkin. Tijorat banklari tomonidan kreditlar tovar moddiy boyliklar,

bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning hisob-kitob hujjatlarini to'lash yo'li bilan beriladi. Muddati 30 kundan oshmagan davrga, qarzdorning asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan akkreditivlar ochish va boshqalar uchun ham kredit mablag'lari berilishi mumkin.

Kredit bank tomonidan kelishilgan muddatlarda so'ndirish muddati kelgan majburiyatlar bo'yicha mablag'larni mijozning hisob varag'idan undirib olish orqali, muddatidan oldin qarzdorning topshirig'iga ko'ra hisob raqamdagi bo'sh qoldiq mablag'larni so'rab olish, garov mulkini o'zlashtirish orqali so'ndirilishi mumkin.

Xo'jalik subyekting «kredit liniyasi ochib» kreditlash alohida hisob varaq orqali oldindan kelishib olingan kredit summasi doirasida amalga oshiriladi. Kredit liniyasining hisobidan qarzdorning asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tovar-moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha pul hisob-kitob hujjatlarining to'lovi amalga oshiriladi.

Kontokorrent hisob varag'i ochilganda mijozning boshqa hisob varaqlari yopiladi.

Kontokorrent hisob varag'ining debet qoldig'i bo'yicha mijoz bankka shartnomada kelishilgan stavkada foizlar to'laydi, kredit qoldig'i bo'yicha bank mijozga shartnomaga muvofiq foiz to'laydi.

Kontokorrent hisob varag'ining amal qilish muddati 12 oydan oshmasligi lozim. Muddat tugashi bilan mijoz kredit saldosi ta'minlashi kerak. Aks holda, muddat tugagach uni to'la so'ndirgunga qadar kredit berish to'xtatiladi.

Overdraft kontokorrent kreditning maxsus shakli hisoblanadi. Uning alohida xususiyati shundaki, bank mijozga uning hisob raqamida qisqa davr ichida debet saldoga ega bo'lishga ruxsat beradi.

Odatda, overdraftdan juda ishonchli mijozlarga foydalanishga ruxsat etiladi. Overdraftda overdraft hisob varaqqa kelib tushayotgan barcha summalar qarzdorlikni so'ndirish uchun yo'naltiriladi, natijada kreditning hajmi kelib tushayotgan mablag'lar hajmiga qarab o'zgarishi mumkin. Overdraftda qarzdor har oyning oxiriga overdraft qoldig'i bo'yicha kredit saldosi ta'minlanishi kerak. Agar mijozning shu bankda depozit hisob varag'i bo'lsa, undagi mablag'lar doirasida doimiy debet saldoga ega bo'lishiga ruxsat beriladi. Aksincha bo'lsa, mablag'lar berish kredit to'la so'ndirilgunga qadar to'xtatiladi.

Tovar moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar (asosiy faoliyatga tegishli bo'lgan)ni to'lash uchun alohida ssuda hisob varaqdan qimmatli qog'ozlar garovi ostida qisqa muddatli kredit

(lombard kredit) berilishi mumkin. Lombard kredit ta'minotiga davlat qimmatli qog'ozlari, boshqa emitentlarning aksiya va obligatsiyasi, depozit sertifikatlari kredit shartnomasiga asosan qabul qilinadi.

Lombard kreditining e'tiborli xususiyati shundaki, garov shartnoma imzolangan kungi nominal qiymati bo'yicha emas, balki uning kurs o'zgarishi riskini hisobga olgan holda uning ma'lum qismigagina baholanadi.

Banklarning o'zi tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlari garov sifatida qabul qilinishi mumkin emas.

Shu bois qimmatli qog'ozlarni garovga olib lombard krediti berish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda bank qarz oluvchining moliyaviy ahvoli va kredit qobiliyatini tahlil qilish bilan bir vaqtda kredit ta'minoti tarzida qabul qilinadigan qimmatli qog'ozlarning sifati, ularning kurs riski darajasini baholashga alohida e'tibor beradi.

Shu tariqa qimmatli qog'ozlar kotirovka qilinayotganda, ularning kurs riskini belgilab beruvchi qimmatli qog'ozlar bozorida birja kursi o'zgarishlari munosabati bilan qimmatli qog'ozlarning garov qiymati birja qiymatining 80 foizdan, kotirovkalanmaydigan qimmatli qog'ozlar garov qiymati esa nominal qiymatining 60 foizdan oshmasligi zarur.

Qimmatli qog'ozlarni garovga olib beriladigan kredit 12 oygacha muddatga yoki qimmatli qog'ozlar muomalada bo'lishi muddatiga berilishi lozim.

Qimmatli qog'ozlar kotirovkasining birja kursi kredit shartnomasida qayd etilganda fond birjasidagi oxirgi savdoda chiqarilgan kotirovka ma'lumotlari hisobga olinadi. Davlat qimmatli qog'ozlari reytingi, sifati yuqori darajada bo'lganligi bois ular garovga qabul qilinib beriladigan kreditning maksimal summasi ular garov qiymatining 90 foizigacha yetishi mumkin.

Lombard kreditini berish, qaytarish va ulardan foydalanganlik uchun foizlar to'lash tartibi umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlarni garovga olib kredit shartnomasi tuzilgandan keyin bank qimmatli qog'ozlar emitentiga uning qimmatli qog'ozlari bo'yicha garovga qo'yish bitimi tuzilganligini hamda qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar kiritilishi lozim bo'lgan depozit hisob varag'i nomerini ma'lum qiladi. Lombard krediti beriladigan hollarda garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha olinadigan daromadlar qarz oluvchining muddatsiz depozit hisob varag'iga qo'yiladi va, birinchi navbatda, ularni saqlash xarajatlarini qoplashga, shuningdek, kreditdan foydalanish uchun foizlarni to'lashga yo'naltiriladi.

Kreditlash jarayonida bank garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar kotirovkasi birja kursidagi o'zgarishlar to'g'risida teleks, kompyuter aloqasi va aloqaning boshqa turlari yordamida axborot to'plab boradi.

Kreditlash davomida fond birjasida o'tkazilgan savdo natijalariga ko'ra, garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar qiymati pasaygan bo'lsa, u holda kredit qo'mitasining qaroriga muvofiq qarz oluvchiga shu summada qo'shimcha ta'minot berish talabi bildirilishi yoki kredit miqdori qaytarilib, kreditning ta'minlanmagan qismi muddatidan oldin undirilib olinishi mumkin.

Lombard krediti bo'yicha barcha majburiyatlari bajarilganidan keyingina garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar va ular bo'yicha olingan daromadlar qarz oluvchiga qaytariladi.

Tovar (mol) garovi ostidagi lombard krediti. Lombard krediti uchun garov ko'rinishida faqatgina nisbatan baholi tovarlar, qaysiki ularning savdosi birjada yuritilishi, tovar partiyasining miqdori va sifatini belgilash bilan bir vaqtda bahosini ham aniqlash imkonini berishi shartlarida ishlatilishi mumkin. Masalan, kofega, bug'doyga, shakarga, paxtaga bu tegishli. Bu tovarlarning qiymat bahosini aniqlash uncha qiyin emas. Tovar turiga qarab garov bahosi 50 dan 66 gacha 2-3 foizga tebranib turadi. Garov sifatidagi tovarlar bank nomiga qaratiladi. Bankka tovarni saqlashlik guvohnomasi beriladi. Ayrim hollarda tovarlar mijozning o'zida ham qolishi mumkin. Lekin mijozning bank ruxsatisiz tovarlardan foydalanishga haqqi yo'q.

Lombard krediti belgilangan muddatlarda qaytarilmagan hollarda bank imtiyozli oy tugaganidan keyin garov to'g'risidagi amaldagi qonunga muvofiq o'z garov huquqidan foydalanadi. Lombardli kreditning kredit oluvchi uchun afzallik tomonlari quyidagilar hisoblanadi:

- likvidli mablag'larga kuchli ehtiyoj sezilgan taqdirda vaqtinchalik, qisqa muddatli pullarni yuzaga keltiradi;

- kreditning amal qilish muddati unga bo'lgan zaruriyatiga bog'liq ravishda o'rnatilishi mumkin;

- rentabelli qimmatli mulklar garovga qo'yilganda, ularni sotishga zarurat qolmaydi;

- garovga qo'yilgan buyumga mulkchilik huquqi saqlanib qoladi;

Kredit beruvchi tomon uchun afzalligi shundaki, lombard kredit – bu, avvalo, ishonchli kredit, ya'ni kredit to'lovi kechikib qolgan taqdirda kreditor garovni sotadi va tushumdan pulga ega bo'ladi.

Yo'ldagi tovar, ayniqsa, dengiz orqali tashiladigan tovarlar garovi ostidagi kredit keng tarqalgan hisoblanadi. Bunday paytda garov hujjati sifatida konosament ishlatiladi.

Konosament – bu yuklatilgan tovarga egalik qilish huquqini beradigan hujjat. Bu hujjatni yangi egasiga berish bilan u tovarlardan foydalanish huquqini ham oladi. Garov sifatida yuklangan tovarlarni ishlatishda yuk sug'urta hujjatlarining rasmiylashtirilishi muhim rol o'ynaydi.

Qimmatbaho metall garovi ostidagi kredit. Bu lombard kreditining eski usullaridan bo'lib, hozirda u juda kam ishlatiladi. Garovni baholashdagi qiymati bu asosan oltin tangalar, slitkalar, kumush, platina va boshqalar qariyb 95% foiz qimmatbaho metall narxiga mos keladi.

Talabnoma garovi ostidagi kredit, bunda har xil moliyaviy talablar, masalan, jamg'arma omonatlari, sug'urta shartnomasi bo'yicha talablar, ipotekalar va boshqalar kreditning garovi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Yuqorida biz ba'zi kredit turlariga ta'rif berib o'tdik, ba'zi kredit turlarining mohiyatini chuqurroq, keyingi paragraflarda ko'rib chiqamiz.

6-§. Xorijiy davlatlarda kreditlash amaliyoti

Xorijiy banklar kreditlash amaliyotida kreditlashga, ya'ni biznes uchun olinadigan tijorat kreditlari va alohida subyekt uchun beriladigan kreditlarga nisbatan ikki xil yondashuv mavjud. Yondashuvning fvrqi shundaki, bunday kreditlar kredit bitimining turi, kredit miqdori, shartlari, foizi, to'lash muddati va boshqalari bilan bir-biridan farq etadi. Banklar tomonidan ajratiladigan kreditlarning hajmi va dinamikasi ko'p omillar ta'sirida o'zgarishi mumkin va ular bank daromadlarini shakllantirishda muhim o'rinni egallaydi. Amerika yirik (aktivlari 1 mlrd. doll.dan ortiq) banklar operatsion daromadlarining 68-70% dan ortig'ini kredit va lizingdan tushgan to'lovlar bo'lsa, 14% dan ortig'i qimmatli qog'ozlar portfelidan olingan daromadlar hisoblanadi. Yaponiyaning ba'zi banklarida bu ko'rsatkich mos ravishda 48% va 15% ni tashkil etgan.

Kreditlar bank aktivlari tarkibida salmoqli o'rinni egallaydi. Kreditlarni qaysi maqsadga olinishiga qarab xorijiy amaliyotga 2 guruhga bo'linadi:

1. Jismoniy shaxslarning shaxsiy va ist'emol ehtiyojini qondiruvchi kreditlar;

2. Aksionerlik kompaniyalari, kichik biznes, tadbirkorlarga ishlab chiqarish va maxsulot realizatsiyasi uchun beriladigan kreditlar.

AQSh tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning 85% dan ortig'i quyidagi sohalarga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Bular:

- Savdo-sanoat korxonalariga berilgan kreditlar;
- Ko'chmas mulk uchun berilgan kreditlar;
- Yakka tartibdagi mijozlarga berilgan kreditlar.

AQSh tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning yarimidan ko'pi savdo-sanoat sohasiga beriladigan qisqa muddatli tijorat kreditlari hisoblanadi. Bu kreditlar asosan mazkur tarmoq korxonalarining aylanma kapitalini to'ldirishga, kapital xarajatlarni qoplashga yo'naltiriladi. Oziq-ovqat, engil sanoat korxonalari, chakana savdo, qayta ishlash korxonalari ham amerikada faol kredit oluvchi hisoblanadi. Banklar tomonidan ularga beriladigan kreditlarning bir qismi mavsumiy xarajatlarni qoplashga qisqa muddatga beriladi va ular tezda bankga qaytariladi, ba'zi korxonalar uzoq muddatli (8-10 yilga) kreditlarni jalb qilishi mumkin.

AQSh banklari ko'chmas mulkga kredit berishda xuddi shunday kreditlarni berishadi Xorijiy davlatlarda kreditga ega bo'lgan qator boshqa moliya institutlari (sug'urta kompaniyalari, ssuda-jamg'arma Assosiat-siyalari, kredit uyushmalar va boshqalar) raqobatda faoliyat olib boradi. Kreditlashning bu turida tijorat banklari qurilish tashkilotlariga qurilish ishlari bo'yicha odatda 2 yilgacha oraliq moliyalashtirish (temporary financing) kreditini ajratadi. Kreditni qaytarish muddati kelganda tashkilot kreditni sug'urta kompaniyalari, pension fond yoki boshqa moliya institutlaridan olgan uzoq muddatli kreditlari hisobidan amalga oshirishi mumkin. Undan tashqari ko'chmas mulkka beriladigan kreditlarga zaklad asosida uy-joy sotib olish uchun xususiy shaxslarga beriladigan kreditlar ham kiradi. Bunday kreditlar 25

yil va undan ortiq muddatga beriladi. AQShda davlat nazorati ostida zakladlar bo'yicha Federal Assotsiatsiya (**Federal Mortgage Association**) tashkil etilgan bo'lib tijorat banklari kredit bo'yicha olgan zaklad qog'ozlarini unga sotishi mumkin. AQSh tijorat banklari uchun beriladigan keng tarqalgan kredit turlaridan biri bu bankning kredit plastik kartochkalari asosida iste'mol va boshqa shaxsiy ehtiyoj uchun zarur bo'lgan tovar, vosita va buyumlarni kureditga sotib olish yo'li bilan aholiga beriladigan iste'mol kreditlaridir. Amerikada 80% ga yaqin iste'mol ehtiyoji uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlarni kreditga sotib olish mumkin.

Xorijiy davlatlarda banklarning kredit operatsiyalari ta'minlan-ganligi, kredit muddati va boshqa sifatlardan kelib chiqib tasniflanadi. Yaponiya banklari tomonidan berilgan kreditlar tasnifini quyida ko'rishimiz mumkin.

24-jadval

Yaponiya banklarida kreditning tasniflanishi

	Kredit turlari	Kredit foizi
1	Overdraft kreditlar (ta'minotsiz, qisqa muddatga beriladigan kreditlar)	12,8 - 13 %
2	Veksellarni hisobga olish shaklida beriladigan qisqa muddatli kreditlar	8,8 %
3	Veksellarni garov olish yo'li bilan beriladigan kreditlar	37,1 %
4	Qarzdorning qarz majburiyati asosida beriladigan o'rta va uzoq muddatli kreditlar	41,8 %

AQSh banklari Yaponiya va Evropa mamlakatlari banklaridan farqli ravishda kreditlarining birn, qismini o'z mijozlariga ta'minotsiz ajratadi. Odatda, bunday mijozlar moliyaviy jihatdan barqaror, foyda bilan ishlaydigan, obro'li, yuqori malakali va bilimga ega bo'lgan rahbariyatga ega, mamlakat moliya bozorining faol ishtirokchilari hisoblanadi. Bunday, birinchi sinf mijozlarga ta'minlanmagan kreditlar **bazaviy yoki boshlang'ich foiz stavka (prim rate)** da ajratiladi.

Jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, Yaponiya banklari tomonidan aksariyat kreditlar qarz majburiyatlari va veksellarni garovga olish orqali beriladi va ular muddati jihatdan ham far qiladi. AQSh tijorat banklari

o'z kreditlarini savdo va sanoat sohasini kreditlashga, shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirishga yo'naltiradi.

25-jadval

AQSh banklari tomonidan ajratiladigan ssudalarning turlari tasnifi

	Ssuda turlari	Salmog'i (%)
2	Savdo va sanoat kompaniyalariga ajratilgan ssudalarlar	31,6
3	Ko'chmas mulk sotib olishga berilgan ssudalar	36,8
4	Yakka tartibda qarz oluvchilarga berilgan ssudalar	19,3
5	Moliyaviy muassasalarga berilgan ssudalar	2,8
6	Fermerlarga berilgan ssudalar	1,5
7	Boshqa ssudalar	8,0
	Jami:	100

26-jadval

AQSh banklarida kreditlarning muddati bo'yicha tasnifi

	Kreditlarning turi	Muddati	SHartlari
1	Qisqa muddatli kreditlar	1 yilgacha	Kreditning bu turi caal loan- onkol deb yuritiladi va u 1 yil davomida xohlagan vaqtda bankning talabi yoki mijozning xohishiga qarab to'lanishi mumkin.
2	O'rta muddatli kreditlar	1 yildan 6 yilgacha	Aniq muddatga beriladigan kredit, kredit va u bo'yicha foizlarni to'lash muddati va shartlari kredit shartnomada aks ettiriladi.
3	Uzoq muddatli kreditlar	8 yildan 10 yil va ortiq	Ko'chmas mulk sotib olishga beriladigan kreditlar, shartlari kredit shartnomada kelishiladi.

Muammoli kreditlar yuzaga kelishining sabablaridan biri kredit axborotining yetarli emasligidadir. Kredit axborotisiz kreditlarni to'g'ri baholash va boshqarish mumkin emas. Shu sabab rivojlangan davlatlarda kredit byurolari tashkil etilgan bo'lib 1974-yilda AQSh va

Angliyada kredit qonunchiligi bo'yicha kredit byurosi xizmatining tashkil etilganligi bu mamlakatlarda kredit munosabatlarining samarali tashkil etilishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu qonunchilikga asosan mamlakat miqyosida qachondir bankga kredit uchun murojaat qilgan mijozlardan tortib barcha kredit olganlar to'g'risidagi axborotlar bir tizimda jamlandi va mijozlarning kredit tarixi yaratildi. Bugungi kunda AQShda kredit axboroti almashinuvi bo'yicha barcha sharoitlar mavjud bo'lib Kreditlarni boshqarish Milliy Assotsiatsiyasi rahbarligi ostida minglab kredit menejerlari axborot va tajriba almashadilar.

Kredit byurolar faoliyatining ijobiy jihatlari sanab o'tamiz:

1. Kredit byurolar mijozlarning moliyaviy ahvolini to'g'ri baholash va kredit ajratish bo'yicha banklarning ma'lumotlarga ega bo'lish darajasini oshiradi. Bu o'z navbatida bank tomonidan to'lovga layoqatli va kreditlarni o'z vaqtida qaytara oladigan mijozlarni aniqlashga, kreditlarning sifati oshishiga va kredit risklarning kamayishiga, muammoli kreditlar bo'yicha rezervlar tashkil etishga mablag'larni yo'naltirmaslikga, debitor qarzdorlikning kamayishiga, bankning likvidligining oshishiga olib keladi;

2. Mijoz faoliyati bilan bog'liq axborotlarni olish bo'yicha xarajatlarning kamayishiga, bu, o'z navbatida, kredit bahosining kamayishiga olib keladi. Banklararo kredit axboroti almashinuvi kreditlarning YAIMga nisbatining 20%dan ortiq oshishiga banklarning moliyaviy vositachilik munosabatlarining rivojlanishiga olib keladi;

3. Kredit byurolarining faoliyat ko'rsatishi axborotlarning tezkorligi va haqqoniyligini ta'minlash orqali mamlakat mavqei va undagi investitsion muhitning yaxshilanishiga zamin yaratadi.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Qisqa muddatli kreditlash	Kreditning obyekti
Moliyalashtirish	Kreditning subyekti
Investitsiyalar	Kreditor
Kreditning tamoyillari	Qarz oluvchi
Ta'minlanganlik	Kredit liniya
Kreditlash usullari	Konosoment

O'z bilimini tekshirish uchun savollar

- Kreditlashning asosiy tamoyillarini tushuntiring?
- Kreditning ta'minlanganligi deganda nimani tushunasiz?
- Kreditning obykti va subyektlari nimalardan iborat?
- Kreditlashning qanday usullarini bilasiz?
- Hozir O'zbekiston Respublikasi amaliyotida kreditlashning qanday usullaridan foydalaniladi?
- Kreditlashning qaysi usuli sizning fikringizcha samaraliroq va nima uchun?

VIII BOB. AYLANMA MABLAG‘LAR VA MIJOZLARNING KREDITGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASH USULLARI

1-§. Aylanma mablag‘lar tushunchasi va ularning tarkibi

Mamlakat iqtisodiyoti, real sektor va uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirishda aylanma mablag‘lar (aktivlar) muhim o‘rin tutadi. Iqtisodiyotni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish - pul muomalasini muvofiqlashtirish hamda milliy pul birligining barqarorligini ta‘minlashning asosiy omillaridan hisoblanadi. Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning samaradorligini oshirishga xomashyo, materiallar, yoqilg‘i, elektr-energiya va boshqa resurslardan to‘g‘ri foydalanish, ularni iqtisod qilish tamoyillariga rioya qilish, material xarajatlarini kamaytirish, arzon, lekin sifatli materiallarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali erishish mumkin. Shuni ta‘kidlashimiz lozimki, ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning samaradorligini oshirish, avvalombor, aylanma mablag‘lardan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq.

Har bir xo‘jalik subyekti o‘z ishlab chiqarishini tashkil qilish, ishlab chiqarish vositalarini sotib olish uchun ma‘lum qiymatni avanslashtirishi lozim. Ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta‘minlash uchun esa avanslashtirilgan qiymat ishlab chiqarish va muomala sferalarida doimiy ravishda aylanib turishi zarur. Avanslashtirilgan qiymat mehnat vositalari va predmetlarini sotib olishga sarflanishi mumkin. Shu jihatdan ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi predmet va vositalarni ikki shakldagi aktivlarga, ya‘ni uzoq muddat xizmat qiluvchi asosiy aktivlar va aylanma aktivlarga bo‘lish mumkin. Uzoq muddatli aktivlar ishlab chiqarishda uzoq yillar davomida qatnashadi. Eskirib borishi bilan uzoq muddatli aktivlar o‘z qiymatini qisman yangi yaratilayotgan mahsulotga o‘tkazib boradi.

Aylanma aktivlar uzoq muddatli aktivlardan farq qilib, ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashadi va yaratilgan mahsulotga o‘z qiymatini to‘la o‘tkazadi, shakli o‘zgaradi.

Agar biz klassik qarash bilan yondashadigan bo‘lsak, aylanma aktivlar aylanish jarayonida uch bosqichni bosib o‘tadi: pul mablag‘lariga ega bo‘lish, ya‘ni ularni avanslashtirish, ishlab chiqarish va tovarlarni sotish bilan bog‘liq bosqichlar.

Aylanma aktivlar aylanishining birinchi bosqichida ishlab chiqarish vositalari sotib olinadi (P-T(i/v)). Korxonalarining ajratilgan pul fondlari ishlab chiqarishning ashyoviy omiliga aylanadi. Birinchi bosqichning xususiyati shundaki, bu bosqichda ba'zi korxonalar o'z mablag'lari yetarli bo'lmagan hollarda bank kreditlarini o'z xo'jalik oborotiga jalb qilishlari mumkin.

Aylanma aktivlar aylanishining ikkinchi bosqichi - ishlab chiqarish bosqichi (T-i/ch-T') bo'lib, bunda ishlab chiqarish omillari (ish kuchi va ishlab chiqarish vositalari) qo'shilishi yuzaga keladi va bu jarayon aylanma aktivlari aylanishi iqtisodiy mohiyatini yanada chuqurroq ifodalashga yordam beradi. Chunki ikkinchi bosqich asosiy va hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda yangi qiymatga ega bo'lgan mahsulot yaratiladi. Ikkinchi bosqich, ishlab chiqarishda samaradorlikka erishish omillariga boy bo'lgan bosqich bo'lib, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun: ishlab chiqarishni moddiy resurslar bilan to'liq va o'z vaqtida ta'minlash, material resurslarini iqtisod qilgan holda ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxini arzonlashtirish, mehnat resurslaridan to'g'ri foydalanish zarur.

Aylanma aktivlar aylanishining uchinchi bosqichi, (T'-P')da yangidan yaratilgan mahsulot realizatsiya qilinadi. Oxirgi bosqichda aylanma mablag'lar yana boshlang'ich shakl - pul shakliga o'tadi va bu esa aylanish jarayonini boshidan boshlash imkonini beradi.

Aylanma aktivlar aylanishining uchala bosqichi bir-biri bilan chambarchas bog'liq va ularni o'rganish katta ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri tashkil qilish, uning uzluksizligini ta'minlash, aylanish bosqichlari bo'yicha aktivlarni to'g'ri taqsimlash ishlab chiqarishda samaradorlikka, korxonalar moliyaviy faoliyatining yaxshi natijalarga erishishiga olib kelishi mumkin.

Fondlar aylanishining asosiy shakli - pul shakli ishlab chiqarishni tashkil qilishda asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun ular aylanishining asosiy shakli, jarayon boshlanishida pul mablag'larini avanslashtirish va jarayon tugashida aktivlarning pul shakliga o'tishidir. Haqiqatda, pul mablag'larini avanslashtirmasdan turib fondlar aylanishini boshlash mumkin emas va shundan kelib chiqqan holda boshqa bosqichlar o'z-o'zidan amalga oshirilmaydi.

Avanslashtirishning xususiyati shuki, mablag'lar korxonada oborotida doimiy ravishda bo'lib turadi va aktivlarning aylanishiga qarab o'z shaklini o'zgartirib turadi. Aktivlarning aylanishi davomida aylanma mablag'lar pul shaklidan ishlab chiqarish zaxiralari shakliga, ishlab

chiqarish zaxiralari shaklidan tugallanmagan ishlab chiqarish (tayyor bo'lmagan mahsulot)ga, tugallanmagan ishlab chiqarishdan tayyor mahsulot shakliga o'tadi. Oxirgi bosqichda mahsulot sotiladi, ya'ni tovar shaklidan pul shakliga o'tadi va jarayon boshida avanslashtirilgan mablag'lar kelib tushgan tushum hisobidan tiklanadi. Aylanma aktivlar iqtisodiy kategoriya sifatida bir necha xususiyatlarga ega. Shulardan biri - aylanma ishlab chiqarish va muomala aktivlari uchun avanslashtirilgan qiymatlarni bir iqtisodiy kategoriya - aylanma aktivlar kategoriyasiga birlashishidir. Aylanma aktivlarning yana bir xususiyati - ularning tashkil qilinishi va ulardan foydalanishidir.

Aylanma aktivlar korxonada balansining aktiv qismida ko'rsatilib quyidagi tarkibiy guruhlarga bo'linadi.

I guruh. Tovar-moddiy boyliklar, bularga:

ishlab chiqarish zaxiralari;

tayyor mahsulot;

tovarlar kiradi.

II guruh. Ishlab chiqarish xarajatlari, bularga:

tugallanmagan ishlab chiqarish;

kelgusi davr xarajatlari va boshqalar kiradi.

III guruh. Pul mablag'lari, bularga:

qaznadagi pul mablag'lari;

valyuta mablag'lari;

hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari;

boshqa schyotlardagi pul mablag'lari kiradi.

IV guruh. Debitorlar, bularga:

xaridor va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar;

bo'nak to'lovlari;

budjet bilan hisob-kitoblar;

xodimlar bilan hisob-kitoblar;

shu'ba korxonalar bilan hisob-kitoblar;

uyushma korxonalar bilan hisob-kitoblar;

ta'sischilar bilan hisob-kitoblar;

boshqa debitorlar kiradi.

Aylanma aktivlar o'zining qaysi tarmoqqa qarashli ekanligiga qarab aylanishi davrida ma'lum xususiyatlarga ega bo'ladi.

Mavsumiy tarmoqlar (qishloq xo'jaligi, tayyorlov, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlar)da aylanma aktivlarning aylanishi bir tekisda kechmaydi.

Chunki bu tarmoqlarga aylanma aktivlarga bo'lgan ehtiyoj yilning fasliga, mavsumga qarab turlicha bo'ladi. Masalan, qishloq xo'jaligida qish, bahor oylarida aylanma aktivlarga bo'lgan talab oshishi, kuzga kelib aylanma aktivlarga bo'lgan talab kamayishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi va shunga o'xshagan boshqa mavsumiy tarmoqlarda aylanma aktivlarga bo'lgan talab bank kreditlarini jalb qilish yo'li bilan qoplanishi mumkin.

Mavsum bilan bog'liq bo'lmagan tarmoqlar (sanoat, savdo, ta'minot v.b.)da aylanma aktivlarning aylanishi (mahsulot sotib olish, ishlab chiqarish va sotish jarayonini amalga oshirish) bir maromda kechishi mumkin. Shunga qaramasdan nomavsumiy tarmoqlarda ham materiallarning mol yetkazib beruvchidan kelib tushishda, tovar ortiqcha yoki kam kelib tushganda, transport bo'yicha qiyinchiliklar bo'lganda, import mollar ko'p miqdorda kelib tushganda, tayyor mahsulotni sotish jarayoni va boshqalarda ularning aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyoji o'z mablag'lari yetarli bo'lmagan hollarda bank krediti hisobidan qoplanishi mumkin.

2-§. Aylanma aktivlarni tashkil qilish manbalari

Korxonalar va tashkilotlar o'zida mavjud zaxira va xarajatlar summasini xom cho't qilish asosida o'tgan davrda mavjud mablag'lar va kutilayotgan o'zgarishlarni hisob-kitob qilish yo'li bilan kreditga bo'lgan talabni aniqlaydilar.

Xo'jalik subyektlarining **aylanma aktivlari quyidagi manbalar** hisobidan tashkil qilinadi:

1. Korxonaning o'z mablag'lari.
2. Bank kreditlari.
3. Kreditor qarzlari.
4. Boshqa manbalar.

Xo'jalik subyektlari ishlab chiqarish va tovarlarni sotish jarayonini normal olib borish uchun tovar-moddiy boyliklar va ishlab chiqarish xarajatlarning minimal miqdorida o'z aylanma mablag'lariga ega bo'lishi kerak.

Korxonalarining **o'z aylanma mablag'lari** quyidagi manbalar:

- a) davlat korxonalarida budjetdan ajratmalar hisobidan;
- b) yuqori tashkilotlarning ajratmalari;
- d) ta'sisчилarning pay badallari;

e) aksiyador korxonalarda aksiyalar chiqarish va sotish yo'li bilan vujudga keladigan mablag'lar (kapitali) va boshqa manbalar hisobidan tashkil topadi.

Korxonaning o'z aylanma mablag'lari uning kapitalida o'z ifodasini topadi. Ustav kapitali asosan foyda hisobidan yoki qo'shimcha aksiyalar chiqarish va sotish hisobidan ko'paytirib boriladi. Korxonaning o'z kapitalining miqdori qancha yuqori bo'lsa, uning faoliyati shunchalik boshqa kreditorlarga bog'liq bo'lmaydi, ya'ni o'z aylanma mablag'larining yuqori salmog'i korxonaning moliyaviy jihatdan mustaqilligidan dalolat beradi.

Aylanma aktivlarning **ikkinchi manbasi - bank krediti** va boshqa qarz mablag'lari hisoblanadi. Korxonaning normal faoliyatini olib borish uchun o'z aylanma mablag'lari yetarli bo'lmasa, xo'jalik subyekti o'z faoliyatini normal olib borishi uchun oborotiga qisqa muddatli bank kreditlarini jalb qilishi mumkin. Xo'jaliklar faoliyatida bunday ahvol mavsumiy va vaqtinchalik zaxiralar va xarajatlarni qoplash, akkreditiv ochish va boshqa hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida va boshqa shunga o'xshash holatlarda yuzaga keladi.

27-jadval

Aylanma aktivlarni tashkil etish manbalari (foiz hisobida)

№	Manbalar	1.01.2010	1.01.2012	1.01.2014	1.01.2015
1	O'z aylanma mablag'lari	31	43	59	68
2	Bank kreditlari	45	38	30	20
3	Kreditor qarzlar	14	10	15	9
4	Boshqa manbalar	10	9	6	3
	Jami	100	100	100	100

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, oxirgi yillarda aylanma aktivlarni tashkil qilish manbalari ichida korxonaning o'z aylanma mablag'lari salmog'i oshib bormoqda. XX asrning 90-yillarida korxonalar aylanma mablag'larining 50-60 foizidan ortig'i bank krediti hisobidan tashkil qilingan bo'lsa, 2014-2015-yilga kelib korxonaning o'z mablag'lari miqdori qariyb 60-70 foizni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich xo'jalik faoliyatini olib borish mustaqilligidan dalolat beradi.

Xo'jalik subyektlarining aylanma aktivlarini tashkil qilishda kreditning rolini quyidagilar bilan ifodalash mumkin:

1. Kreditning xo'jalik oborotida ishtirok etishi aylanma mablag'larni iqtisod qilishga olib keladi.

2. Kredit xo'jaliklar faoliyatida uchrab turuvchi mavsumiy ehtiyoj, boshqa pul mablag'lari etishmasligi sababli yuzaga keluvchi salbiy holatlar bilan bog'liq bo'linishlarning oldini olishga yordam beradi.

3. Kredit ishlab chiqarish, tayyorlov va sotish jarayonini tezlashtiradi va hajmini oshiradi.

4. Kredit o'z vaqtida hisob-kitoblarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

5. Bank korxonalariga kredit berish yo'li bilan ularning faoliyatini yaxshilanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Aylanma aktivlarning **uchinchi manbasi - kreditor qarzlardir.**

Kreditor qarz shaklidagi mablag'lar korxonaga tegishli bo'lmagan mablag'lar bo'lsa-da, ular korxonaga oborotida doimo ishtirok etadi. Shu tufayli ular aylanma aktivlarning manbasi hisoblanadi. Kreditor qarzlarga quyidagilar kiradi:

1. Mol yetkazib beruvchilar bilan hisoblar.
2. Byudjet bo'yicha qarzlilar.
3. Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlilar.
4. Ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha qarzlilar.
5. Mulkiy va shaxsiy sug'urta bo'yicha qarzlilar.
6. Byudjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzlilar.
7. Shu'ba korxonalariga qarzlilar.
8. Uyushma korxonalariga qarzlilar.
9. Boshqa kreditorlar.

Aylanma aktivlarning boshqa manbalariga moddiy rag'batlantirish fondi va boshqa fondlar qoldiqlari kirishi mumkin. Korxonalarining moliyaviy ahvoli ijobiy bo'lsa, u o'z vaqtida bank kreditini to'lashi, mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitob qilishi, ish haqini to'lashi, byudjetga to'lovlarni, o'z vaqtida, amalga oshirishi mumkin.

Korxonaning moliyaviy ahvoli yomonlashganda to'lanmagan qarzlilar hosil bo'ladi. To'lanmagan qarzlilar:

- a) bank kreditlari bo'yicha;
- b) mol yetkazib beruvchilarga o'z vaqtida to'lanmagan qarzlilar;
- d) ish haqi bo'yicha to'lanmagan qarzlilar va boshqalar bo'yicha yuzaga keladi.

To'lanmagan qarzlilarining yuzaga kelish sabablari korxonaga ko'zlagan rejalarining amalga oshirilmaganligi, aylanma aktivlardan foydalanishida samaraga erisha olmaslik va boshqalar bo'lishi mumkin.

Aylanma aktivlardan foydalanishda bo'ladigan kamchiliklar:

• korxonalar o'z aylanma mablag'lari bilan yetarli ta'minlanmagan sharoitida;

• aylanma aktivlar aylanishi sekinlashganda;

• korxonada talabdan ortiqcha tovar moddiy boyliklar zaxiralari yig'ilib qolganda;

• aylanma aktivlar ko'zda tutilganidan boshqa maqsadlarga ishlatilganda yuzaga keladi.

Korxonada o'z aylanma aktivlarining holatini, ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini doimiy nazorat qilib borish lozim.

Aylanma aktivlardan foydalanishning **samaradorlik ko'rsatkichlari** bo'lib:

a) aylanma aktivlarning kunlarda aylanishi;

b) aylanma aktivlarning aylanish koeffitsiyenti;

d) korxonaning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi;

e) korxonada mavjud bo'lgan o'z aylanma mablag'lari kabi asosiy ko'rsatkichlar va bir necha qo'shimcha ko'rsatkichlar mavjud.

1. Aylanma mablag'(aktiv)larning kunlarda aylanishi (Ak.a.) aylanma mablag'lar bir marta aylanishi (ya'ni P-T...i/ch...T'-P'gacha) uchun necha kun ketganligini tavsiflaydi va quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$Ak.a. = \frac{Ao'.q. \times K}{S}$$

Bu yerda: Ao'.q. - Aylanma mablag'(aktiv)larning o'rtacha qoldig'i.

K - hisoblanayotgan davrning kunlar soni (90 kun, 180 kun, 360 kun)

S - sotuv hajmi.

Aylanma aktivlarning kunlarda aylanish sonining qisqarishi ular aylanishining tezlashuvidan, bu, o'z navbatida, sotuv hajmi va foydaning ko'payishidan, aksincha, holat esa korxonaning moliyaviy ahvolidan tangligidan dalolat beradi.

2. Aylanma aktivlarning aylanish koeffitsiyenti (Ka) ma'lum bir davr (1 yil, 6 oy, 1 oy) ichida aylanma aktivlari necha marta aylanganidan dalolat beradi va quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Ka = \frac{S}{Ao'.q.}$$

Aylanma aktivlar ma'lum bir davr oralig'ida qancha ko'p aylansa, uning samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi, ya'ni shuncha marta daromad olishga erishish mumkin. Har bir xo'jalik subyekti o'zida mavjud bo'lgan aylanma mablag'larning tezroq aylanishini ta'minlashi lozim. Bu esa korxonada tushumining ko'payishiga, uning mol yetkazib beruvchilar, byudjet, bank va boshqa subyektlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishga imkon yaratadi.

3. Aylanma aktivlarning samaradorligini ifodalovchi keyingi ko'rsatkich - korxonaning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi yoki **muxtoriylik koeffitsiyenti** (K_m)dir. Bu ko'rsatkich korxonaning moliyaviy jihatdan mustaqillik darajasini ko'rsatib, o'z mablag'lari manbalarini korxonada balansining jami passiviga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

$$K_m = \frac{O'zMM}{Bp}$$

O'zMM - o'z mablag'lari manbasi.

Bp - balans passivi.

Korxonaning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi 30 foizdan kam bo'lmasligi lozim. Agar bu ko'rsatkich 60 foizdan yuqori bo'lsa, kreditlash bo'yicha risk minimal bo'lishi mumkin.

4. Korxonada oborotida mavjud bo'lgan **o'z aylanma mablag'lari miqdori** korxonaning likvidligini ifodalashi mumkin.

Bu ko'rsatkich (HMA) quyidagicha aniqlanadi:

$$HMA = O'zMM - Ua$$

Bu yerda

Ua - uzoq muddatli aktivlar (110 balans qatori - 350 b.q.) (qoplanmagan zararlar).

Agar korxonaning uzoq muddatli aktivlari uning o'z mablag'lari manbasidan yuqori bo'lsa, bunday korxonalar «nolikvid korxonalar» deyiladi va ularga kreditlar berilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, aylanma mablag' (aktiv)lari xo'jalik subyektlari faoliyatining asosi bo'lib, bank tomonidan beriladigan kreditlarning aksariyat qismi aylanma aktivlarga yo'naltiriladi. Shu tufayli har bir xo'jalik subyekti aylanma aktivlarini to'g'ri tashkil qilmog'i, ulardan foydalanishda samaradorlikka erishmog'i lozim.

3-§. Mijozning kreditga layoqatliligi va uni baholashning manbalari

Kreditga layoqatlilik – bu mijozning moliyaviy faoliyatiga har tomonlama berilgan baho bo‘lib, u qarz oluvchining so‘ralayotgan kreditni (asosiy qarz summasi va u bo‘yicha foizlarni) o‘z vaqtida qaytarish va boshqa qarz majburiyatlarini to‘lay olish qobiliyatini ko‘rsatadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik subyektlarining, banklar faoliyatining tijoratlashuvi yuzaga keladi. Keyingi yillarda turli xil mulkchilik shakliga asoslangan korxonalar tashkil topmoqda. Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar qaysi mulkchilik shakliga asoslangan bo‘lishiga qat’i nazar iqtisodiy jihatdan to‘liq mustaqil bo‘lib, o‘z xarajatlarini o‘z daromadlari hisobidan qoplashlari lozim. Xo‘jalik subyektlari o‘z faoliyatlarini tashkil qilish va olib borishda iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lsalarda ular faoliyatini kengaytirish, yangilash va boshqa rivojlanish jihatlari ularda qo‘shimcha pul mablag‘lariga ehtiyojni yuzaga keltiradi va bu ehtiyoj zarur bo‘lganda bank kreditlari hisobidan qoplanishi mumkin. Shu sababli, bozor iqtisodiyoti sharoitida kredit va uning muhim elementlaridan biri kreditga layoqatlilikni baholashning o‘rni va roli muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki banklar ham bozor munosabatlarining mustaqil subyektlaridan bo‘lib, iqtisodiy jihatdan faoliyat natijalari uchun o‘zlari javobgar hisoblanadilar. Biz oldingi paragraflarda ta’kidlaganimizdek, banklarning maqsadi ham korxonalarinikiga o‘xshash bo‘lib, ular o‘z xarajatlarni o‘z daromadlari hisobidan qoplab yuqori foyda olishga intiladilar. Banklarning foyda bilan ishlashi ularning yanada keng tarmoqli faoliyat olib borishiga, mijozlarga ko‘rsatadigan xizmat turlari va sifatini kengaytirishga, ustav kapitalini oshirishga, bank xodimlarini moddiy rag‘batlantirishga, ko‘proq mablag‘ ajratishga, o‘z aksionerlariga ko‘proq dividendlar to‘lashga va bularning barchasi bankka bo‘lgan ishonchning yanada oshishiga imkoniyat yaratadi. Tijorat banklari faoliyatida qo‘ygan maqsadga erishish va bergan kreditlarining samara bilan bankka qaytib kelishini ta’minlashi uchun mijozning moliyaviy holatini uning kreditni o‘z vaqtida qaytara olish imkoniyatlarini tekshirib ko‘rish lozim.

Korxonalar va banklar uchun kreditga layoqatlilik ko‘rsatkichining ahamiyati muhimligini hisobga olib biz kreditga layoqatlilik ko‘rsatkichining iqtisodiy mohiyati to‘g‘risida fikr yuritmoqchimiz.

Iqtisodiy adabiyotlarda bu ko'rsatkichning mohiyati to'g'risida turli ta'riflarni uchratish mumkin. Ko'pgina mualliflar tomonidan kreditga layoqatlilikka, korxonalarining qarz majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajara olish imkoniyati sifatida ta'rif beriladi. Bizning fikrimizcha, bu ta'rif ko'proq korxonaning to'lovga layoqatliligiga berilgan ta'rifdir. Amaliyotda kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi ko'proq bankdan qarz oluvchi korxonaga faoliyatini ifoda qiladi. Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini ikki tomonlama ko'rib chiqish mumkin:

- **qarz oluvchi nuqtayi nazaridan kreditga layoqatlilik** - bunda kredit shartnomasini tuzish imkoniyati, olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytara olish qobiliyatini ifodalasa;

- **bank nuqtayi nazaridan** – bu ko'rsatkich korxonaga beriladigan kreditning hajmini to'g'ri aniqlay olish mas'uliyatini bildiradi.

Ba'zi iqtisodchilar qarz oluvchining kreditga layoqatlilik ko'rsatkichini baholashda birinchi o'ringa korxonaning daromad olish imkoniyatini qo'yishadi. Bizning fikrimizcha, daromad olish - korxonaning ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyat turining natijasi hisoblanib, shu natijaga erishish maqsadida korxonaga kreditga muhtojlik sezadi.

Agar qarzlarni to'lash miqyosida qaraydigan bo'lsak, kreditga layoqatlilikka nisbatan to'lovga layoqatlilik tushunchasi kengroqdir. Chunki to'lovga layoqatlilik jismoniy va yuridik shaxslarning barcha qarz va majburiyatlarini o'z vaqtida to'lay olish imkoniyatini ifodalaydi. Kreditga layoqatlilik to'lovga layoqatlilikdan farq qilib, ssuda bo'yicha qarzlarni o'z vaqtida to'lash imkoniyatini ko'rsatadi. Undan tashqari kreditga layoqatlilik to'lovga layoqatlilikdan to'lash manbalari bilan ham farq qiladi.

Korxonaga, tashkilotlar o'z qarz, majburiyatlarini sotishdan tushgan tushum yoki boshqa har xil tushumlar hisobidan amalga oshirsa, kredit bo'yicha qarzlarni to'lash, birinchi navbatda, mahsulotni sotish hisobidan tushgan tushumdan amalga oshirilishi belgilanadi. Bank kreditini to'lash bo'yicha muammolar yuzaga kelganda, ssudani to'lashning kafolatlik manbalari qo'l kelishi mumkin. Bular:

- ssuda bo'yicha garov sifatida olingan mulk;
- boshqa bank yoki korxonalarining kafolati;
- sug'urtalash hisobidan qoplash v.b.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, to'g'ri kredit bergan bank, korxonaga to'lovga layoqatli bo'lmagan holda ham bergan kreditni, to'liq yoki qisman qaytib olishni mo'ljallashi mumkin.

O'zining barcha ahamiyatiga qaramasdan bu ko'rsatkichlar ayrim ma'noda chegaralangan ahamiyatga ega. Birinchidan, ko'pgina ko'rsatkichlar, shu jumladan, moliyaviy ahvolni, kapitalning borligi va boshqalarni xarakterlovchi ko'rsatkichlar asosan o'tmish bilan bog'liq bo'lib, ular o'tgan davr ko'rsatkichlari asosida hisoblanadi, kelajakdagi kreditga layoqatlilikni rejalashtirish esa kelajakda ssudalarning qaytarilish imkoniyatlariga baho beradi. Ikkinchidan, odatda, bunday ko'rsatkichlar hisobot muddatiga qolgan qoldiq asosida hisoblanadi, vaholanki, ma'lum davrdagi oborotlar haqidagi ma'lumotlar ssudalarni qaytarish imkoniyatlarini to'laroq tasvirlaydi.

Umuman banklar faoliyati, ayniqsa, banklarning kreditlash bilan bog'liq faoliyati turli xildagi risklar bilan bog'liq. Mijozga kredit berishdan oldin uning moliyaviy ahvoli, kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish kredit riskini kamaytirib bank kreditlarining shartnomada belgilangan muddatlarda bankka qaytarilishini ta'minlaydi. Shuning uchun bank ssuda berayotganda kreditga layoqatlilikni o'rganishi, ya'ni qarz oluvchining moliyaviy holatini hamda uning kreditni o'z vaqtida to'liq qaytarib berish imkoniyatini baholashni o'ziga shart deb biladi. Shu bois bank o'ziga olishga tayyor bo'lgan risk darajasi u taqdim etayotgan kredit hajmi va kredit berish shartlarining qay darajada bajarilishiga bog'liq.

Bank nafaqat mijozning ma'lum kunlardagi to'lov qobiliyatini baholashi, shu bilan birga, uning kelajakdagi moliyaviy barqarorligini ham prognozlashi zarur. Moliyaviy barqarorlikni va kredit operatsiyalaridagi risk hisobini obyektiv baholash, bankka kredit resurslarini samarali boshqarish hamda foyda olish imkonini beradi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi korxonalarining to'lov qobiliyati va barqarorligini aniqlashda xalqaro standartlarga mos buxgalteriya hisobini yuritish zaruratinii tug'diradi va balansdagi aktiv va passivlarni qabul qilingan moddalar bo'yicha guruhlashtirilishi, to'lov qobiliyati va kreditga layoqatlilikni yetarli darajada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Bank risklarini kamaytirish va uning daromadini oshirishda kredit jarayonini to'g'ri tashkil qilish, mijozning kreditga layoqatliligini aniqlash muhim o'rin tutadi. Mijozga berilgan kredit o'z vaqtida qaytib kelishini xohlaydigan bank, avvalambor, mijozning kredit buyurtmasi va uning kredit tarixini mukammal o'rganib chiqishi lozim. Bu jarayon bank riskini oldini olishning ilk bosqichi hisoblanadi.

Qarz oluvchining kreditga layoqatliligini o'rganish va kredit berilgandan keyin kredit monitoringini muntazam olib borish bank riskini kamaytirish va uning daromadini oshirishning navbatdagi bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Kredit mexanizmi xo'jalik mexanizmining tarkibiy qismi bo'lib, u o'z ichiga kreditlash shartlarini, usullarini va kreditni boshqarish tamoyillarini oladi. Kredit mexanizmi yordamida bank tizimining kredit siyosati amalga oshiriladi.

Kreditlash jarayonini tashkil qilish kredit buyurtmasini ko'rib chiqishdan boshlanadi. Biz amaliyotda kredit buyurtmalarini ko'rib chiqishda nimalarga e'tibor berish zarurligini ta'kidlamoqchimiz.

Har bir mijoz faoliyatiga chuqur diqqat bilan munosabatda bo'lish, har bir bank xodimining faoliyat ko'rsatish qoidalarining ajralmas qismi bo'lishi kerak. Odatda, o'z mijozlariga diqqat bilan muomala qilmaydigan xodimlari bo'lgan bankning kelajagi bo'lmaydi. Bizning banklarimiz bilan mijozlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning aksariyat jihatlari bizga ma'lum bo'lganligi bois biz amaliyotimizda bank bilan mijoz o'rtasida mavjud kredit munosabatlarga to'xtalmasdan, jahon amaliyotida kredit jarayonining tashkil qilinish asoslariga qisqacha to'xtalamiz. Jahon amaliyotida kreditlash jarayonini tashkil qilishda bank xodimi mijozlarga kreditlash shartlari haqida ma'lumot beradi va bankning anketa savollariga javob berishni taklif qiladi. Chet el banklarida mijozlar bilan bo'lgan birinchi va undan keyingi uchrashuvlar natijasi hisobotlarda umumlashtiriladi. Bu hisobotlar ma'lum miqdorda savollarning standart yig'imini o'z ichiga oladi. Bunday hisobotga mijozning bankka har tashrifidan so'ng o'zgartirish kiritiladi va yangi ma'lumot bilan to'ldiriladi. Bu hisobotlar kredit inspektoriga kelgusida mijoz to'g'risida uchrashuvlari oldidan kerakli ma'lumotlarni beradi. Kelgusida mijoz kredit inspektori bilan bo'ladigan uchrashuvga olinadigan kredit, uning ishlatilish maqsadi, summasi, qaytarilish muddati va taqdim qilingan ta'minotini o'z ichiga olgan kredit buyurtma bilan keladi.

Ko'pgina davlatlarda nufuzli banklar kredit buyurtmasi bilan birga bir necha hujjatlarni ko'rib chiqadi, bularga:

1) Qarz oluvchi kompaniya (korxon) ta'sis hujjatlarining notarial tasdiqlangan nusxasi.

2) Moliyaviy hisobot, korxon balans va oxirgi uch yil uchun foyda va zarar hisobotini o'z ichiga oladi. Balans yil oxirigacha tuzilib, unda aktivlar, majburiyatlar va kapital tuzilmasi ko'rsatiladi. Foyda va

zararlar summasi, kompaniya daromadi va xarajatlari, sof daromadi, uning rezervga taqsimlanishi va chegirmalar, dividend to'lovlari va h.k.lar to'g'risida batafsil ma'lumot beriladi.

3) Kassa tushumlari va harakati to'g'risida hisobot. U ikki hisobot muddatida tuzilgan balanslarning solishtirilishiga asoslangandir va u har xil bo'limlar va fondlar harakatida bo'ladigan o'zgarishlarni ko'rishga yordam beradi. Resurslar holati, yetarliligi, ishlatilishi, foizlar uchun mablag'lar bo'sh vaqti va kassa tushumlarining yuzaga kelishi va h.k.ning umumiy holati ko'rib chiqiladi.

4) Ichki moliya hisoboti. Bu hisobot kompaniya moliyaviy holati, 1 yil, kvartal yoki oy davomida resurslarga bo'lgan ehtiyojining o'zgarishlarini aks ettiradi.

5) Ichki operativ hisob bo'yicha ma'lumotlar. Balans tuzish uchun ko'p vaqtni talab qiladi. Lekin kreditor bankka qarz oluvchi kompaniya to'g'risida ba'zi bir operativ hisobot ma'lumotlari kerak bo'lib qolishi mumkin.

6) Moliyalashtirishning prognozi. Bu hisobot kelgusi sotuvni baholash, xarajat, tovarni ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni, debitor qarzдорlik, zaxiralar qaytarilishi, naqd pulga ehtiyoj, kapital qo'yilma va h.k.larni o'z ichiga oladi.

7) Soliq deklaratsiyasi eng kerakli qo'shimcha axborot sifatida. Unda qarz oluvchi soliq to'lovchi sifatida boshqa hujjatlarga kirgizilmagan axborotlar bo'lishi mumkin.

8) Biznes-reja. Ko'pgina kredit buyurtmalari hali moliya hisoboti va boshqa hujjatlarga ega bo'lmagan ishni endi boshlayotgan korxonalarni moliyalashtirish bilan bog'liq. Bunday paytda qarz oluvchi kompaniya bankka kreditlanadigan loyiha maqsadi va uni amalga oshirish usullari haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi batafsil biznes-rejani taqdim etishi kerak.

Kredit inspektori mijozning kredit buyurtmasi va unga kiritilgan hujjatlarni yaxshilab o'rganib chiqadi. Bundan so'ng u qarz oluvchi bilan yana bir bor suhbatlashadi. Suhbat davomida kredit inspektori qarz oluvchi kompaniya ishlarini har tomonlama o'rganishi, u bankni qiziqtiradigan savollarga kerakli darajada ahamiyat berishi va javob olishi kerak.

Ko'zga ko'ringan chet el banklarining amaliyoti shuni ko'rsatadiki, kelgusi mijoz bilan suhbat aniq bir tartibda berilgan quyidagi savollarga bog'liq bo'lishi mumkin.

Bank kreditlashning birinchi bosqichida quyidagilarni aniqlashi kerak:

A. Qarz oluvchining ishonchliligi va kreditga layoqatliligi, uning hamkor sifatidagi faoliyati doimiyligi va samarasi.

B. Kredit buyurtmasining asoslanganligi va kredit qaytarilishining ta'minlanganlik darajasi. Bank kerak bo'lsa kredit taklifi bo'yicha o'z talablarini ishlab chiqishi va mijozni u bilan tanishtirishi mumkin.

D. Kredit taklifining bank kredit siyosati va kredit portfeli tuzilmasiga to'g'ri kelishi. Yangi kredit berish va kredit portfeli diversifikatsiyasi kredit riskining pasayishiga olib keladimi yoki yo'qmi degan savolga javob topishi lozim.

Bankning kredit berish bilan shug'ullanuvchi xodimlar yaxshi bilmaydigan iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalariga ssuda berishlaridan oldin bu sohaning xususiyatlarini chuqur o'rganishlari lozim. Bunday hollarda kredit taklifini baholash uchun nufuzli ekspertlarni jalb qilishlari mumkin. Ammo bu bankni qo'shimcha xarajat qilishga olib kelsa-da, kreditlash bilan bog'lik risklarning oldini olishi mumkin.

Har qanday ariza va qo'shimcha hujjatlar hamda suhbat natijalarini aniqlashning hal qiluvchi omili bo'lib, qarz xarakteri va kreditga layoqatliligini aniqlash hisoblanadi. Kredit inspektori qarz oluvchiga arizani tayyorlash davomida mijozning kreditni qoplashga loyiq qimmatli aktivlarini va daromad miqdorini, uning kredit tarixini ham o'rganishi lozim. Kredit inspektori qarz oluvchi daromadining faqatgina miqdoriga emas, balki barqarorligiga ham e'tibor berish kerak. Daromadning miqdori va doimiyligi uning faoliyati turg'unligining bilvosita ko'rsatgichi bo'lib, mijozlarning depozit hisoblaridagi o'rtacha bir kunlik qoldiq to'g'risidagi ma'lumotlar hisoblanadi. Bank depozit hisoblaridagi salmoqli qoldiqlarni bo'lishi mijoz moliyaviy ahvolidan ishonchliligidan, uning moliyaviy intizomligidan va olingan kreditlarni qaytarish borasidagi intilishlari jiddiyligidan dalolat beradi.

Tajribali kredit inspektori ahamiyat beradigan omillardan yana biri mijozning bir joyda uzoq va doimiy faoliyat ko'rsatishi, yashashi hamda mashg'ul bo'lishidir.

Kredit inspektorlari "qarzlarni piramidasi" deb ataluvchi holatning paydo bo'lishidan ehtiyot bo'lishi lozim. "Piramida" holati bu qarzdor 1 ta bank yoki firmadan olgan qarzini to'lash uchun boshqa kreditordan qarz olishi tushuniladi. Mijozning kredit kartochkalari bo'yicha qarzining kattaligi, ko'pligi o'zining hisobidan yozib berilgan

cheklarning tez-tez qaytib kelishiga inspektorlar katta e'tibor beradi. Bunday dalillar asosida mijozning haqiqiy moliyaviy ahvoli va uning pul mablag'larini boshqarish qobiliyati haqida xulosa qilinadi.

Kredit mexanizmining muhim elementlaridan biri bo'lgan - kreditga layoqatlilikdir. Korxonalarining kreditga layoqatliligini hisobga olgan holda kredit berish, kreditni o'z vaqtida qaytarishning muhim shartidir. Davlat mulkchiligiga asoslangan jamiyatda kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi kredit mexanizmida muhim o'rinni egallay olmaydi. Banklar faoliyatiga davlat yakka hukmronligi ularning mustaqil subyekt sifatida faoliyat ko'rsatishiga to'sqinlik qiladi va kredit resurslari markazlashgan tarzda, reja asosida tasdiqlanadi hamda taqsimlanadi. Eng xususiyatli tomoni shundaki, banklar beradigan kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini mustaqil belgilay olmaganlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi kredit berishda e'tibor qilinadigan asosiy ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Chunki tijorat banki o'z faoliyati natijasi uchun to'liq javobgar hisoblanadi. Kredit uchun foizni tijorat banklari o'z faoliyatidan kelib chiqib o'zlari belgilaydi hamda u banklarning asosiy daromad manbayi bo'lib qoladi.

Korxonaning kreditga layoqatliligini o'rganish tijorat bankiga kredit berish mumkinligini aniqlashga, uning miqdorini, foiz stavkasining darajasini belgilashga imkon beradi. Bundan tashqari, kreditga layoqatliligini aniqlash kreditni o'z vaqtida qaytarish ehtimolini, eng asosiysi bank riskini kamaytirishga imkon beradi.

Kreditga layoqatlilikni baholash korxonaning o'zi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu ko'rsatkichlarning tahliliga asoslanib, ular mol yetkazib beruvchilar, xaridorlar va boshqa banklar bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatishlari mumkin.

Ijobiy kreditga layoqatlilik ko'rsatkichiga ega bo'lgan korxonalar hech qanday to'siqlarsiz kredit olishlari va uning hisobidan tovar moddiy boyliklarni sotib olishi, salmoqli mablag'larni ishlab chiqarishni rivojlantirishga, oldindan olingan kreditlar bo'yicha turli to'lovlarni amalga oshirishi mumkin. Salbiy kreditga layoqatlilik ko'rsatkichiga ega bo'lgan korxonalar bankdan kredit ololmasada, o'z moliyaviy ahvolini yaxshilash, ishlab chiqarish, sotuv hajmini, o'z mablag'lari miqdorini, rentabellik ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha choralar ishlab chiqish lozimligi to'g'risidagi axborotga ega bo'lishi shart.

Kreditga layoqatlilikni tahlil qilishda ma'lumotlarning har xil manbalaridan foydalaniladi:

a) bevosita mijozlardan olingan materiallar;
b) mijoz haqidagi bank arxivida mavjud bo'lgan materiallar, uning kredit tarixi;

d) mijoz bilan ish yuzasidan aloqada bo'lgan shaxslar (uning mol yetkazib beruvchilari, kreditorlari, uning mijozlari, banklari va boshqalar) tomonidan berilgan ma'lumotlar;

e) xususiy va davlat agentliklari va tashkilotlarining hisobotlari va materiallari (kreditga layoqatlilik haqidagi hisobotlari, investitsiya bo'yicha ma'lumotnomalar v.b.).

Kredit berish bo'yicha sifat tahlili ham bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi:

a) qarz oluvchi obro'sini o'rganib chiqish;

b) kredit maqsadini aniqlash;

d) asosiy qarz va foizlarning qaysi manbalar hisobidan qoplanishini aniqlash;

e) qarz oluvchi tomonidan yo'l qshyilishi mumkin bo'lgan risklar darajasini baholash va boshqalar. Qarz oluvchining mavqeyi, kredit tarixi o'rganilishi bilan bir qatorda korxonah rahbarining shaxsiy va ish bilan bog'liq bo'lgan xislatlariga ham katta e'tibor beriladi.

4-§. Mijozning kreditga layoqatliligini baholashning asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalarining kreditga layoqatliligini aniqlashda banklar turli xil ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ko'rsatkichlar soni chegaralanmagan, ya'ni qarz oluvchining faoliyatidan kelib chiqqan holda, har bir tijorat banki o'z kredit siyosatida uni o'zi mustaqil belgilaydi. Respublikamizning aksariyat tijorat banklari tomonidan mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashda keng qo'llaniladigan ba'zi bir asosiy ko'rsatkichlar, ya'ni **moliyaviy koeffitsiyentlarni ko'rib chiqamiz**. Bular:

- **likvidlilik koeffitsiyenti;**

- **qoplash koeffitsiyenti;**

- **mustaqillik (muxtoriylik) koeffitsiyenti**, ya'ni o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti kiradi.

Mazkur koeffitsiyentlarni hisoblashdan oldin korxonaning balans likvidliligiga e'tibor berish lozim. Likvidlilik mijozning majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishini (qoplanishini) bildiradi. Likvidlilik va qoplash koeffitsiyentlari qarz oluvchining balans likvidliligini, ya'ni passivdagi

majburiyatlarni qoplash uchun aktivdagi pul mablag'larining yetarlilik imkoniyatlarini tasvirlaydi. Mijozning kreditga layoqatliligini hisoblashni uning balansini holati tahlil qilishdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

28-jadval

Korxonona balansi likvidligi tahlili (mln so'm hisobida)

Ko'rsatkichlar	01.01.14-y.	01.01.15-y.	O'zgarishi (+; -)
A	1	2	3
1. Likvid mablag'lar, shu jumladan	109627	138991	29364
a) pul mablag'lari	2474	11313	8839
b) tez sotiladigan talablar	25606	62286	36680
v) tez sotiladigan zaxiralar	81547	65392	-16155
2. Majburiyatlar	236136	250464	14328
Balans likvidligi	0,46	0,55	0,09
- (1q : 2q)			

Faoliyati tahlil qilinayotgan korxonaning 2014-yil boshida balans likvidligi 0,46 ga teng bo'lgan, ya'ni likvid mablag'lar hisobidan majburiyatlarni qoplash darajasi 46,0 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 2015-yilning boshiga kelib korxonaning moliyaviy ahvoli yaxshilanib, bu ko'rsatkich 0,55 ni, ya'ni likvidlik darajasi 0,09 ga oshib majburiyatlarning 55 foizidan ortig'ini likvid mablag'lar hisobidan qoplash imkoniyati yuzaga kelgan.

Bunda korxonona balansi likvidligini ijobiy baholash mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvid mablag'lari, qisqa muddatli majburiyatlardan kamida ikki barobar ortiq bo'lganda, uning moliyaviy ahvoli yaxshi hisoblanadi. Bu yuqori mezon chegarasidir. Xo'jalik subyektlarining likvid mablag'lari uning qisqa muddatli majburiyatlari hajmiga teng bo'lgan hollardagi ko'rsatkich quyi chegara sifatida olinadi.

Qoplash va likvidlik koeffitsiyentlari balansning aktiv va passivlarini solishtirish yo'li bilan hisoblanadi. Likvid mablag'lar o'zining tez pulga aylanishi darajasiga qarab 3 guruhga bo'linadi:

Birinchi guruh likvid mablag'larga:

- 1) pul mablag'lari, jumladan hisob-kitob varag'i;
- 2) valyuta hisob varag'idagi mablag'lari;
- 3) boshqa hisob varaqlardagi va kassadagi pul mablag'lari kiradi.

Ikkinchi guruh likvid mablag'lariga tez pulga aylanadigan talablar (bu talablarning muddati, odatda, 3 oydan oshmasligi lozim):

- ishonchli debitorlar va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblar;

- muddati 3 oygacha bo'lgan avans to'lovlar;

- budjet bilan hisob-kitoblar;

- korxonalar bilan qisqa muddatli xarakterga ega bo'lgan boshqa operatsiyalar;

- ishchi-xizmatchilar bilan hisoblashishlar;

- ta'sischi hamda boshqa debitorlar bilan hisob-kitoblar.

Ikkinchi guruh likvid mablag'larning aksariyat qismini yaqin 3 oy ichida to'lanish lozim bo'lgan debitorlar tashkil qiladi. Shuning uchun kredit berishda bu likvid aktivlarning haqiqatda 3 oy ichida pulga aylanish ehtimolini chuqur tahlil qilish lozim.

- 3 oy da to'lanishi lozim bo'lgan veksellar;

- xorijiy korxonalar bilan hisob-kitoblar.

Uchinchi guruh likvid mablag'lariga tez sotiladigan tovar moddiy qimmatliklarining zaxiralari bo'yicha talablari kiradi:

- ishlab-chiqarish zaxiralari va kelgusi davr xarajatlari;

- tugallanmagan ishlab-chiqarish;

- tayyor mahsulot;

- tovarlar;

- boshqa zaxiralar va xarajatlar kiradi.

Qisqa muddatli majburiyatlarni aniqlashda:

a) o'zgartirishlar kiritmasdan quyidagi ko'rsatkichlar olinadi:

- qisqa muddatli qarzlar;

- qisqa muddatli kreditlar;

- buyurtmachilardan tushgan avanslar.

Kreditorlar:

- mol yetkazib beruvchilar oldidagi qarzlar;

- budjetga qarzlar;

- ish haqi bo'yicha qarzlar;

- ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha qarz;

- mulk va shaxsiy sug'urtalash bo'yicha qarz;

- byudjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarz;

- shu'ba korxonalar bo'yicha qarzlar;

- uyushma korxonalar bo'yicha qarzlar;

- boshqa kreditorlar.

b) O'zgartirishlar kiritilib quyidagi ko'rsatkichlar olinadi (yaqin uch oy muddatga):

- uzoq muddatli qarzlar;

- uzoq muddatli kreditlar olinadi.

Uchinchi guruh likvid mablag'larini tahlil qilganda, tovar-moddiy boyliklarning haqiqatda ishlab chiqarish uchun zarurligiga e'tibor berish lozim. Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini hisobga olganda aylanma aktivlar tarkibiga:

- korxonada turib qolgan, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lmagan tovar moddiy boyliklar;

- ishlab chiqarishdan olib tashlangan tovarlar;

- talab bo'lmagan, sifatsiz tovar-boyliklar;

- qiyin sotiladigan tovarlar va boshqalar inobatga olinmasligi kerak.

Agar mijozning birinchi va ikkinchi guruh likvid aktivlari uning qisqa muddatli majburiyatlarini to'liq qoplasa, mijoz moliyaviy jihatdan likvidlilikka ega deb baholanadi.

Mijoz balansi va boshqa moliyaviy hujjatlarga asosan kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Likvidlilik koeffitsiyenti (KI) quyidagicha hisoblanadi:

$$KI = \frac{1 - \text{va } 2 - \text{guruh likvid mablag'lar}}{\text{qisqa muddatli qarz majburiyatlari}}$$

Likvidlilik koeffitsiyenti 1dan kam bo'lmashligi lozim. Likvidlilik koeffitsiyentining 1 ga tengligi likvid aktiv kreditlar va boshqa qisqa muddatli majburiyatlarni korxonaning o'z mablag'lari hisobidan to'lash imkoniga ega ekanligini ko'rsatadi. Qachonki qoplash koeffitsiyenti 1dan kichik bo'lsa, xo'jalik subyektining moliyaviy ahvolidan muammolar borligi, uning faoliyati barqaror emasligi to'g'risida xulosa qilish mumkin, chunki korxonada o'z majburiyatlarini qoplay olmaydi.

Qoplash koeffitsiyenti (Qq)ni hisoblashda barcha likvid mablag'larning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati olinadi. Qoplash koeffitsiyenti likvidli aktivlar qanchalik darajada qisqa muddatli majburiyatlarni qoplay olishi mumkinligini ifodalaydi. Agar korxonaning barcha likvid aktivlari uning qisqa muddatli majburiyatlarini 2 va undan ortiq barobar qoplasa, subyektning moliyaviy ahvoli shunchalik barqaror hisoblanadi. Ba'zi hollarda xo'jalik subyektlari faoliyatida ehtiyojdan ortiqcha tovar moddiy boyliklar (ayniqsa, mavsumiy korxonalarda) zaxiralarining yuzaga kelishi yaxshi ishlaydigan korxonalarda ham qoplash koeffitsiyentining past bo'lishiga olib kelishi mumkin.

$$Kq = \frac{1 - 2 - \text{va } 3\text{-guruh likvid mablag'lar}}{\text{qisqa muddatli qarz majburiyatlari}}$$

Qoplash koeffitsiyenti mijozning qisqa muddatli majburiyatlarini to'lash uchun barcha turdagi aylanma mablag'larning yetarli darajasini aniqlashga imkon beradi. Kreditga layoqatlilikning asosiy ko'rsatkichlari bo'lmish qoplash koeffitsiyenti korxonaning barcha likvid mablag'larini qisqa muddatli majburiyatlar nisbati sifatida aniqlanadi.

Qoplash koeffitsiyenti barcha qisqa muddatli majburiyatlarga qancha likvid mablag'lar to'g'ri kelishini ko'rsatadi yoki barcha likvid mablag'lar qay darajada qisqa muddatli majburiyatlarni qoplay olishi mumkinligini aks ettiradi.

Likvidlilik koeffitsiyenti qarz oluvchi o'z mablag'larini hisobidan qarzni qancha qismini to'lay olish qobiliyatini ko'rsatadi, ya'ni bu koeffitsiyentdan mijozning yaqin kelajakda operativ ravishda bankka qarz to'lab berish qobiliyatini prognozlash uchun foydalaniladi. Likvidlilik va qoplash koeffitsiyentlari qancha yuqori bo'lsa, mijozning kreditga layoqatliliigi shuncha yuqori bo'ladi.

Mijozning likvidlilik koeffitsiyenti pul mablag'larini va oson sotiladigan talablar bilan qisqa muddatli majburiyatlar orasidagi nisbat sifatida belgilanadi, ya'ni bunda tovar moddiy boyliklar zaxiralari hisob-kitobga qo'shilmaydi, balki faqat real likvid aktivlar hisobga olinadi.

29-jadval

Savdo korxonasini qoplash va likvidlik koeffitsiyentlarining tahlili (mln so'm)

Ko'rsatkichlar	01.01.2014-y.	01.01.2015-y.	O'zgarishi (+; -)
A	1	2	3
1. Likvid mablag'lar, shu jumladan	109627	138991	29364
a) pul mablag'larini	2474	11313	8839
b) tez realizatsiya bo'ladigan talablar	25606	62286	38680
d) tez realizatsiya bo'ladigan zaxiralari	81547	65392	-16155
2. Qisqa muddatli majburiyatlar	51107	61179	10072

3. Qoplash koeffitsiyenti $\frac{1(a + b + a)}{2} = 3$	2,2	2,3	0,1
4. Likvidlik koeffitsiyenti $\frac{1(a + b)}{2} = 4$	0,55	1,2	0,65

Likvidlilik koeffitsiyenti joriy majburiyatlarning qanchasi naqd pulning o'zi bilangina emas, jo'natilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan tushishi kutilayotgan mablag'lar hisobidan ham qoplanishi mumkinligini ko'rsatadi.

Savdo korxonasi kreditga layoqatlilikini baholashning asosiy ko'rsatkichlari bo'lgan qoplash va likvidlik koeffitsiyentlarini jadval ko'rinishida tahlil etamiz.

Savdo korxonasi moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilganda qoplash koeffitsiyenti 2014-yil boshida 2,2 ni va bir yildan keyin – 2015-yilning boshida 2,3 ni tashkil etib, bu ko'rsatkich bo'yicha mijoz birinchi sinfga taalluqli hisoblanadi. Likvidlik koeffitsiyenti ko'rsatkichi 2014-yil boshida 0,55 bo'lib, uchinchi sinf toifasiga kirgan, 2015-yilga kelib bu ko'rsatkich 1,2 ni tashkil etib likvidlilik darajasi bo'yicha korxonaning ikkinchi sinfga taalluqli bo'lganini ko'rsatmoqda. Xo'jalik subyektlari faoliyatini tahlil qilishda moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha ular turli sinflarga taalluqli bo'lib chiqsa, u holda bank xodimi korxonaning faoliyatining boshqa, qo'shimcha ko'rsatkichlarini ham tahlil qilib chiqqanidan keyin ushbu xo'jalik subyektining moliyaviy holatiga qarab kredit berish yoki bermaslik to'g'risida xulosasini shakllantirishi lozim bo'ladi.

Korxonaning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganligi, ya'ni muxtoriylik (mustaqillik) koeffitsiyenti korxonaning balansini passivining qancha qismi korxonaning o'z mablag'laridan tashkil topganligini ko'rsatadi va korxonaning moliyaviy jihatdan mustaqilligini aks ettiradi.

Moliyaviy mustaqillik yoki **muxtoriylik koeffitsiyenti (Km)** mijoz o'z mablag'larining barcha mablag'lar manbalari ichida tutgan salmog'ini, ya'ni korxonaning faoliyatining qancha qismi o'z kapitali hisobidan moliyalashtirilishini ko'rsatadi va quyidagi formula orqali aniqlanadi

$$Km = \frac{\text{O'z mablag'lari manbalari}}{\text{balans summasi}} * 100\%$$

Xo'jalik subyektlarining o'z mablag'lari manbalariga ustav fondi, rezerv fondi, boshqa tashkil qilingan fondlar, o'tgan va hisobot

yillaridagi taqsimlanmagan foyda, maqsadli tushumlar va foizlar, kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun rezervlar va kelgusi davr daromadlari kiradi.

O'z mablag'lari manbalari va uning hajmi qanchalik katta bo'lsa, mijozning o'z vaqtida qarz majburiyatlarini to'lash qobiliyati shuncha yuqori bo'ladi. Bank uchun kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari kredit shartnomasi tuzilayotganda risk darajasini aniqlash nuqtayi nazaridan muhimdir. Korxonani kreditlash uchun uning o'z mablag'lari manbalari bilan ta'minlanganligi 30 foizdan kam bo'lmasligi kerak. Agar bu ko'rsatkich 60% dan yuqori bo'lsa, kredit bo'yicha riskni minimal deb qarash mumkin.

Muxtoriylik koeffitsiyenti qancha yuqori bo'lsa, korxonaning moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi va bank kreditini o'z vaqtida qaytarish darajasi ham yuqori bo'ladi.

30-jadval

Savdo korxonasining muxtoriylik koeffitsiyentini tahlili (mln so'm)

Ko'rsatkichlar	01.01.2014-y.	01.01.2015-y.	O'zgarishi (+; -)
A	1	2	3
1. O'z mablag'larining manbalari	185029	189285	4256
a) ustav kapitali	169181	169181	-
b) rezerv kapitali	503	503	-
d) taqsimlanmagan foyda	15345	19601	4256
2. Majburiyatlar	236136	250464	14328
3. Muxtoriylik koeffitsiyenti (1:2x100)	78,3	75,5	-2,8

Savdo korxonasida muxtoriylik koeffitsiyenti 2014-yil boshida 78,3 foizni 2015-yil boshida esa kamayib 75,5 foizni tashkil etadi.

Bu ko'rsatkich bir yil davomida - 2,8 punktga kamaygan. Lekin shunga qaramasdan bu ko'rsatkichlar ijobiy darajadagi ko'rsatkichlar hisoblanadi va korxonaning birinchi sinf, moliyaviy jihatdan mustaqil bo'lgan korxonalar qatoridan o'rin olishi mumkin.

Yuqoridagi ko'rsatkichlarning natijasi me'yoriy talablar bilan taqqoslanadi va korxonaning moliyaviy ahvoli aniqlanib, kredit berish mezonlari belgilanadi. Kredit berish bo'yicha sinflarga ajratishda qator talablar hisobga olinadi.

Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlariga qarab mijozlar 3 sinfga ajratiladi va ularning sinfiga, ya'ni moliyaviy holatiga qarab kredit berishda turli yondashuvlar qo'llanilishi mumkin.

Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlariga qarab mijozlarni sinflarga ajratish bo'yicha talablar

№	Ko'rsatkichlar	I sinf	II sinf	III sinf
1.	Qoplash koeffitsiyenti (Kq)	$Kq \geq 2,0$	$2,0 > Kq \geq 1,0$	$1,0 > Kq$
2.	Likvidlilik koeffitsiyenti (Kl)	$Kl \geq 1,5$	$1,5 > Kl \geq 1,0$	$1,0 > Kl$
3.	Muxtoriylik koeffitsiyenti (Km)	$Km \geq 60\%$	$60\% > Km \geq 30\%$	$30\% > Km$

Kreditga layoqatlilikning har bir sinfdagi korxonalariga banklar har xil kredit munosabatlari tuza oladilar. 1-sinfga mansub qarz oluvchilarga bank kredit liniyasi ochishi, kontokorrent hisob raqami bo'yicha kredit berishi, boshqa qarz oluvchilarga nisbatan past foizlarda ishonchli kreditlar berishi, kreditlar bo'yicha ta'minlanganlik talab qilinmasligi mumkin.

2-sinfga mansub qarz oluvchilarga esa umumiy asoslarda va odatdagi tartibda, ya'ni majburiyatni muvofiq shaklda ta'minlanishi (kafolat, garov, kafillik) shartlari asosida kredit beriladi, agar uning qo'shimcha ko'rsatkichlari ijobiy holda bo'lsa, unda unga imtiyozlar berilishi mumkin, ammo ishonchli kreditlar berilmaydi. Agar qo'shimcha ko'rsatkichlar bo'yicha kamchiliklar bo'lsa, uning moliyaviy ahvoli no-barqaror deb topilishi va uni yaxshilash uchun choralar ko'rishning talab qilinishi, kredit bo'yicha garovni mustahkamlash, foiz stavkalarini oshirishi, ssudaning summasini va muddatini cheklash choralarini ko'rish mumkin.

Bank uchun 3-sinfga mansub korxonalarini kreditlash jiddiy risklar bilan bog'liqdir. Shuning uchun ular kamdan-kam holatlarda va yuqori turadigan korxonalar kafolati hamda mulkni garovga qo'ygan holatda eng yuqori foizlarda kreditlanadilar.

Agarda tahlil bo'yicha mijozning moliyaviy holatida qoplash koeffitsiyenti 0,5 dan ($k_k < 0,5$) kichik bo'lsa, likvid mablag'lari juda kam bo'lsa yoki umuman mavjud bo'lmasa va uning o'z mablag'lari miqdori ham kam bo'lsa, u nolikvid balansga ega bo'lgan, moliyaviy holati nochor korxonaga deb qaraladi va uni 4-sinfga kiritish mumkin va bunday korxonalariga, odatda, umuman kredit ajratilmaydi.

Mijozlarning kreditga layoqatlilikini baholashning muhim bir xususiyati shundaki, yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar korxonaning kreditga layoqatlilikini baholashning yakuniy ko'rsatkichlari hisoblanmaydi. Mijozlar faoliyati va ularning moliyaviy ahvolini yanada chuqurroq ko'rib chiqishda hamda kreditga layoqatlilikining asosiy

ko'rsatkichlari bo'yicha mijoz turli xil sinflarga taalluqli bo'lib chiqsa, u holda moliyaviy ahvoli haqida to'g'ri xulosaga kelish uchun kreditga layoqatlilik darajasini baholashning qo'shimcha ko'rsatkichlarini tahlil qilish lozim bo'ladi.

5-§. Kreditga layoqatlilikni baholashning qo'shimcha ko'rsatkichlari

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mijozning moliyaviy holatini baholashda aniq bir xulosaga kelish uchun kreditga layoqatlilikning asosiy ko'rsatkichlariga qo'shimcha sifatida kreditga layoqatlilikning qo'shimcha ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Korxonaning kreditga layoqatlilikning qo'shimcha ko'rsatkichlari asosan mijozning aylanma aktivlari holatini yanada chuqurroq tahlil qilishni ko'zda tutadi. Ma'lumki, qisqa muddatli kreditlar xo'jalik subyektlarining aylanma aktivlariga beriladi. Shuning uchun mijozning kreditni o'z vaqtida bankka qaytara olish qobiliyati ham uning aylanma aktivlaridan foydalanishidagi samaradorlik darajasiga qarab belgilanadi. Xo'jalik subyektlari aylanma aktivlardan qanchalik samarali foydalanayotgan bo'lsa va aylanma aktivlarning aylanish tezligi qanchalik yuqori bo'lsa, kreditdan foydalanish samarasi va uni o'z vaqtida bankka to'lash imkoniyati ham shunchalik yuqori bo'lishi mumkin. Biz aylanma mablag'larning samaradorlik ko'rsatkichlari to'g'risida oldingi paragraflarimizda kengroq to'xtalgan edik. Shu bois biz qisqacha bo'lsada kreditga layoqatlilikning qo'shimcha ko'rsatkichlarni keltirib o'tmoqchimiz. Bu ko'rsatkichlardan biri aylanma aktivlarning aylanish koeffitsiyenti hisoblanadi.

Aylanma mablag'larning **aylanishi koeffitsiyenti** (K_a) joriy aktivlarning aylanish tezligi va aktivlarga qo'yilgan mablag'larning pul mablag'lariga aylanish tezligini xarakterlab, u ma'lum davr (oy, kvartal, yil) ichida aylanma mablag'lari necha marta aylanganligini ifodalaydi:

$$K_a = \frac{\text{Realizatsiya qilingan mahsulot hajmi}}{\text{aylanma mablag'larning o'rtacha xronologik qoldig'i}}$$

K_a ni hisoblash aylanishni prognozlash va kreditlash muddatini aniqlashga imkon yaratadi. Aylanma aktivlarning aylanishi koeffitsiyenti aylanma aktivlarning harakati tezligini ifodalaydi va tahlil

qilinayotgan davrda mahsulotni sotishdan tushumlarning cheklanishi hamda aylanma aktivlarning o'rtacha qiymatini hisoblab borishga imkon yaratadi.

Shuningdek, aylanma **aktivlarning kunlarda aylanishini** ham hisoblash mumkin. Bu ko'rsatkich korxonaga aylanma mablag'larining bir marta aylanishi (P-T-l/Ch-T-P) uchun necha kun ketishini ko'rsatadi.

$$A_k = \frac{\text{Aylanma mablag'larining o'rtacha qoldig'i} \times 360 \text{ kun}}{\text{Realizatsiya hajmi}}$$

Aylanma aktivlar aylanishiga qancha kam kun ketsa, korxonaning foyda olishi, binobarin kreditni bankka to'lashi shuncha tez amalga oshiriladi.

Bu yerda aylanma aktivlarning o'rtacha qoldig'i, o'rtacha xronologik usulda aniqlanadi.

Endi aylanma mablag'larining aylanish sur'atlarini tahlil qilib, o'rganib chiqamiz.

Aylanma mablag'larining aylanish koeffitsiyenti aylanma mablag'larning harakatlanish tezligini tavsiflaydi va u tahlil etilayotgan davrda mahsulot sotishdan olinadigan tushumning aylanma mablag'lari o'rtacha qoldig'iga nisbati sifatida hisoblanadi. Bunda tahlil qilinayotgan davrdagi kunlar (chorak - 90 kun, yarim yillik - 180 kun, 9 oylik - 270 kun, yillik - 360 kun) olinadi.

32-jadval

Kichik korxonaga aylanma mablag'larning aylanishi tahlili (mln so'mda)

Ko'rsatkichlar	01.01.2014-y.	01.01.2015-y.	O'zgarishi (+; -)
1. Mahsulot sotish hajmi	234949	291256	56307
2. Aylanma mablag'larining o'rtacha qoldig'i	54813	69496	14683
3. Aylanish koeffitsiyenti $\left(\frac{P}{CO}\right)$	4,3	4,2	-0,1
4. Tahlil qilinayotgan kunlar	360	360	x
5. Kunlarda aylanishi SoxK ----- R	84	86	+2

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonada aylanma mablag'larining aylanish koeffitsiyenti birmuncha kamaygan, ya'ni 2014-yil boshida aylanma mablag'lari 4,3 marta aylangan bo'lsa, 2015-yil boshiga kelib ular 4,2 marta aylangan va oradagi farq - 0,1 martani tashkil etgan, ya'ni aylanma mablag'larning aylanishi sekinlashgan. Buni biz aylanma mablag'larning kunlarda aylanishida ham ko'rishimiz mumkin. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aylanma mablag'larini kunlarda aylanishi 2014-yilning boshida 84 kunni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yil boshiga kelib bu ko'rsatkich 86 kunni tashkil etib, oradagi farq 2 kunga ko'paygan. Aylanma mablag'larining aylanish ko'rsatkichlari barcha aylanma mablag'lari bo'yicha hamda tovar moddiy boyliklari va debitorlar bilan hisoblashishlar ham hisoblanadi.

Debitorlar bilan hisoblashishlarni tavsiflaydigan bo'lsak, u mahsulot sotish hajmi va boshqa debitorlar hamda sotib oluvchilar bilan hisoblashishlar holatini namoyon qiladi.

Aylanma mablag'larining aylanishini baholash bir nechta davrlar uchun aniqlanadi. Aylanma mablag'larining aylanishi tezlashsa, shunchalik aylanma mablag'lari iqtisod qilinadi, ular tezroq xo'jalik oborotidan bo'shaydi. Shu sababli aylanma mablag'larini kunlarda aylanishi tahlil qilish katta ahamiyatga ega.

Keyingi bosqichda korxonaning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari o'tgan davrlardan ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi. Bu korxonaning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari tendensiyalari o'zgarishini aniqlash imkonini beradi. Shundan so'ng tahlil natijasidan kelib chiqqan ko'rsatkichlari bitta yagona jadvalga umumlantirib, korxonani kreditga layoqatlilikka ko'rsatkichlariga baho berishimiz mumkin.

Mijozning moliyaviy ahvolini xarakterlovchi yana bir muhim ko'rsatkich – bu ularning o'z aylanma mablag'larining haqiqiy mavjudligini tasdiqlovchi ko'rsatkich hisoblanadi.

O'z aylanma mablag'larining mavjudligi ko'rsatkichi (O'AMM) quyidagicha aniqlanadi:

O'AMM= O'z mablag'lari manbalari - Uzoq muddatli aktivlar (110-330 balans qatorlari) - qoplanmagan zararlar;

Tahlil shuni ko'rsatadiki, korxonaning 2014-yil boshida o'z aylanma mablag'lari 58520 mln so'mni tashkil etib, 2015-yil boshida bu ko'rsatkich 77812 mln so'm bo'lgan va korxonaga likvid balansga ega. Undan tashqari o'z aylanma mablag'lari o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, bir yil davomida bu ko'rsatkich 19092 mln so'mga ortgan. Ammo uzoq muddatli aktivlar bir yil davomida - 15036 mln so'mga

kamaygan. Agarda asosiy vositalar o'z mablag'lari manbayidan ortiq bo'lsa, bu holda mijoz nolikvid balansga ega bo'ladi. Nolikvid balansli korxonalariga kredit berilishi mumkin emas.

33-jadval

Kichik korxonada bo'yicha o'z aylanma mablag'larining mavjudligi tahlili (mln so'm.)

Ko'rsatkichlar	01.01.2014-y.	01.01.2015-y.	O'zgarishi (+; -)
A	1	2	3
1. O'z mablag'larining manbalari	185029	189285	4256
2. Uzoq muddatli aktivlar	126509	111473	-15036
3. O'z aylanma mablag'larining mavjudligi (1-3)	58520	77812	19292

34-jadval

Kichik korxonada o'z aylanma mablag'larini umumiy aylanma mablag'larda salmog'i tahlili

Ko'rsatkichlar	01.01.2014-y.	01.01.2015-y.	O'zgarishi (+; -)
A	1	2	3
1. O'z aylanma mablag'lari	58520	77812	19292
2. Aylanma mablag'larining jami	109627	138991	29364
3. O'z aylanma mablag'larining umumiy aylanma mablag'larda tutgan salmog'i (1:2x100)	53,4	56,0	2,6

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonada o'z aylanma mablag'larining umumiy aylanma mablag'larida tutgan salmog'i 2014-yil boshida 53,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2015-yil boshida esa bu ko'rsatkich 56,0 foizni tashkil etgan, ya'ni yil davomida o'z aylanma mablag'larining salmog'i 2,6 foizga ortgan. Aylanma mablag'larida o'z aylanma mablag'lari salmog'ining ko'payishi ijobiy holat hisoblanadi.

Mijozning moliyaviy holatini yanada chuqurroq tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan ham foydalanish mumkin.

Mijozning qarzi mablag'lari salmog'i

$$\text{Qarzi mablag'lari ko'effitsiyenti} = \frac{\text{Qarzi mablag'lar}}{\text{Barcha mablag'lar}}$$

$$\text{Mijozning o'z mablag'lari salmog'i} = \frac{\text{O'z mablag'lari}}{\text{Barcha mablag'lar}}$$

O'z mablag'larining aylanuvchanligi koeffitsiyenti.

$$\text{O'zlik mablag'lar aylanuvchanlik koeffitsiyenti} = \frac{\text{Realizatsiyadan tushum}}{\text{O'z mablag'lari}}$$

Qarz mablag'lar aylanuvchanligi ko'rsatkichi.

$$\text{Qarz mablag'lar aylanuvchanlik koeffitsiyenti} = \frac{\text{Realizatsiyadan tushum}}{\text{Qarz mablag'lar}}$$

Firmaning o'z qarzdorlari (debitor) hisob raqamlari hisobidan qanchalik tez to'lovlarini amalga oshirishini ko'rsatuvchi koeffitsiyent.

$$\text{Debitorlik qarzlari aylanuvchanlik koeffitsiyenti} = \frac{\text{Realizatsiyadan tushum}}{\text{Debitorlik qarzlari}}$$

Firmaning qanchalik kreditorlar oldida o'z majburiyatlarini qoplay olishini ko'rsatuvchi ko'rsatkich:

$$\text{Kreditorlik qarzlari aylanuvchanlik koeffitsiyenti} = \frac{\text{Realizatsiyadan tushum}}{\text{Kreditorlik qarzlari}}$$

Asosiy vositalar aylanishini ifodalovchi ko'rsatkich:

$$\text{Asosiy aktivlar aylanuvchanlik koeffitsiyenti} = \frac{\text{Realizatsiyadan tushum}}{\text{Asosiy aktivlar}}$$

Har bir so'm o'zlik mablag'lariga to'g'ri keluvchi foyda miqdorini ko'rsatuvchi ko'rsatkich:

$$\text{O'zlik mablag'lar rentabelligining koeffitsiyenti} = \frac{\text{Foyda}}{\text{O'zlik mablag'lar}}$$

6-§. Rivojlangan davlatlarda mijozning kreditga layoqatliligini baholash usullari

Mijozning kreditga layoqatliligini tahlil qilish deganda mijozga berilgan kreditni ishlata olish va qaytarib bera olish imkoniyatini o'rganish tushuniladi. Dunyoning ko'p mamlakatlarida mijozning kredit layoqatliligi turlicha usullar yordamida aniqlanadi.

Xorijiy davlatlarda esa mijozning kredit reytingini baholashda moliyaviy koeffitsiyentlar bilan bir qatorda zamonaviy modellar va usullardan ham foydalangan holda kreditning risk darajasi hisob-kitob qilinib, mijozga kredit ajratish yoki ajratmaslik bo'yicha qaror qabul qilinadi. Ahamiyatli jihati shundaki, xorijiy banklar amaliyotida mijozning kreditga layoqatlilikni tahlil qilish, birinchi navbatda, kredit riskini aniqlash va to'g'ri baholashdan boshlanadi. Bunda kredit riskining asosiy ikkita komponentiga e'tibor beriladi. Bular – korxonada faoliyatida defolt holati (defolt riski)ning yuzaga kelishi ehtimoli va ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar miqdori hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar quyidagilarni anglatadi:

- **Defolt riski (Default risk)** – qarz oluvchining foiz yoki kredit asosiy summasini to'lay olmaslik ehtimoli.

- **Zarar hajmi (Loss severity / loss given default)** – Agar qarzdor defoltga uchrasa jami qarzning qaytarib bo'lmaydigan qismi nazarda tutiladi. Bu o'lcham odatda kreditning jami miqdoriga nisbatan foizda ifoda etiladi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlarga asoslanib qo'shimcha yana ikkita ko'rsatkich: kutilayotgan yo'qotishlar va qaytarish stavkasini aniqlash mumkin bo'ladi. Bunda:

Kutilayotgan yo'qotish = Defolt riski * Zarar hajmi (Loss severity / loss given default (%)).

Qaytarish stavkasi = 1 – zarar hajmi (koeff.)

Umuman olganda, jahon amaliyotida mijozning kreditga layoqatlilik darajasini baholashning uchta an'anaviy modellari mavjud:

- 1) mustaqil reyting agentliklari baholash modeli;
- 2) statistik usullar asosida baholash modeli;
- 3) to'g'ridan to'g'ri ekspert baholash modeli.

Mijozlar faoliyatini reyting baholashda ularning moliyaviy faoliyatiga doir bo'lgan barcha jihatlar inobatga olinadi, ayniqsa,

ularning qimmatli qog'ozlarining likvidiligiga ustivor e'tibor beriladi. Kredit reytinglari odatda korxonalar obligatsiyalari, aktiv bilan qoplangan qimmatli qog'ozlarga (ABS – assetbackedsecurities) va davlat obligatsiyalari uchun berilishi mumkin. Quyida kredit reytingi agentliklarining reyting ko'rsatkichlariga e'tibor qaratamiz. Bunday agentliklar odatda mijozlarning faoliyatini tahlil qilishda mijozlar faoliyatiga investitsion va spekuliyativ (chayqovchilik) baholarni beradilar. Investitsion baho mijozlarning moliyaviy holatiga turli bozor omillari ta'sir etmagan holdagi haqiqiy holatni ko'rsatadi. Investitsion baho korxonalar qarz berish imkoniyati borligini bildirsa, spekuliyativ bahoga ega bo'lgan korxonalar qarzni qaytara olmaslik riski yuqoriligi bilan izohlanadi.

35-jadval

Mijozlarning reyting kategoriyalari

Reyting kategoriyasi	Moody's Investors Service	Standard & Poor's	Reyting kategoriyasi	Moody's Investors Service	Standard & Poor's
Investitsion baho (Investment Grade)	AAA	AAA	Spekuliyativ baho (Speculative Grade)	Ba1	BB+
	Aa1	AA+		Ba2	BB
	Aa2	AA		Ba3	BB-
	Aa3	AA-		B1	B+
	A1	A+		B2	B
	A2	A		B3	B-
	A3	A-		Caa1	CCC+
	Baa1	BBB+		Caa2	CCC
	Baa2	BBB		Caa3	CCC-
	Baa3	BBB-		Ca	CC
			C	D	

Mijozlarni kreditlashda e'tibor investitsion baho va uning darajasi yuqori yoki pastligiga qaratiladi. Investitsion bahoning yuqori bo'lishi, o'z navbatida, korxonalar reytingining yuqori bo'lishi kreditlash bilan bog'liq riskning past bo'lishini ko'rsatadi. Bu holda mijoz past foizlarda kredit yoki pul bozoridan boshqa kapitalni o'z oborotiga muammolarsiz jalb qilishi mumkin.

Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozidan so'ng rivojlangan davlatlar banklari tomonidan amaliyotda yangi strukturaviy modellar qo'llana boshlandi. Strukturaviy modellar, biz yuqorida ta'kidlab o'tgan, kredit riski komponentlari (defolt ehtimoli, kutilayotgan yo'qotish) niyanada chuqurroq aniqlashda yordam beradi.

Defolt ehtimoli (probability of default)

Probability of Default = $1 - N(e_2)$

Bu erda:

$$e_2 = e_1 - \sigma \sqrt{T - t};$$

$$e_1 = \frac{\ln\left(\frac{A_1}{K}\right) + \mu(T - t) - \frac{1}{2}\sigma^2(T - t)}{\sigma\sqrt{T - t}};$$

T – kredit qaytarilishi lozim bo‘lgan vaqt;

t – hozirgi vaqt (yoki kredit olingan vaqt);

A_1 – korxonaning t - vaqtdagi aktivlari qiymati;

K – qarzni nominal qiymati;

μ - korxonada aktivlaridan olinadigan o‘rtacha yillik foydaning o‘sishi (%da);

σ – aktivlar foydasining o‘rtacha kvadratik cheklanishi (standard deviation).

$N(\cdot)$ - kumulyativ standart normal distributsiya funksiyasi

Yuqoridagi ko‘rsatkichlardan foydalangan holda biz qo‘shimcha ravishda quyidagi ko‘rsatkichlarni hisoblashimiz mumkin:

kutilayotgan yo‘qotish:

$$\text{expected loss} = KN(-e_2) - A_1 e^{-\mu(T-t)} N(-e_1)$$

Strukturaviy modellarning qo‘llanilishida asosiy qiyinchilik (korxonada aktivlarining o‘rtacha yillik foydasi o‘sishi) va σ (aktivlar foydasining o‘rtacha kvadratik cheklanishi) ko‘rsatkichlarni hisoblashda yuzaga keladi. Ushbu ko‘rsatkichlar korxonada aksiyalarining birjadagi ko‘rsatkichlariga asoslangan holda hisoblanadi.

Bunday baholashlarda, bir tomondan, son jihatdan moliyaviy koeffitsiyentlar orqali baholashga ustuvorlik berilsa, ikkinchi tomondan, sifat ko‘rsatkichlari (bank xodimlarining fikrlari)ni hisobga olishga e‘tibor qaratiladi. Shuningdek, xorijiy davlatlarda mijozning kreditga layoqatlilikini baholashning turli tizimlari ham mavjud bo‘lib, ular baholash ko‘rsatkichlarining soni va usullari bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Xorijiy davlatlar amaliyotida mijozning kreditga layoqatlilikini aniqlashda ko‘p qo‘llaniladigan ba‘zi modellar va usullarni quyidagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkin:

Xorijiy amaliyotda kreditga layoqatlilikni baholash modellari

Model	Mamlakat	Model mohiyati
5 yoki 6 Sllar	AQSh	Mijozning mavqeyi, biznesi turi va holati, kapitali, pul oqimi, ta'minoti, bozorga moslashuvchanligi
CAMPARI	AQSh, Yevropa davlatlari	Mijozning mavqeyi, kreditni qaytara olishi, kredit marjasi, daromadligi, kreditning maqsadi, miqdori, ta'minlanganligi
PARTS	Angliya	Kreditning maqsadi, miqdori, kredit va u bo'yicha foizlarni to'lash holati, kreditning muddati va ta'minlanganligi
Tahliliy baholash tizimi	Fransiya	Mijozning balansini tahlil qilish asosida uning faoliyatini baholash, Fransiya bankining kartoteka materiallari, mijozning moliyaviy hisobotlari asosida banklarda o'rnatilgan usullarda uning kreditga layoqatliligini baholash.
Skoring baholash	AQSh, Yevropa davlatlari	Mijozning kreditga layoqatliligi uning moliyaviy va ijtimoiy ahvoriga oid ko'rsatkichlar ballarda baholanadi

Angliya banklarida mijozning kreditga layoqatliligini aniqlashda savollar varag'idan foydalaniladi. Savollarga berilgan javoblar bank tomonidan mijozga kredit berish bo'yicha qaror qabul qilishga imkon beradi. Savollar-varag'ida quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

Avvalambor, qarz oluvchi (borrower)ga ta'rif beriladi. Uning oilasi, obro'-e'tibori, sofdilligi, bankka tanishligi, bank bilan munosabatlari.

Boshqaruv tarkibi malakasi – ma'lumoti, mutaxassislik bo'yicha staji, boshqara olish qobiliyati;

To'lovga qobiliyati – to'lov intizomiga rioya qilish, biznes talablariga resurslarning yetarligiga e'tibor beriladi. Keyin esa quyidagi asosiy ko'rsatkichlar tekshiriladi:

- **Purpose** (kredit maqsadi). Qonuniyligi, bankning kredit siyosatiga to'g'ri kelishi v.b.;

- **Amount** (kredit summasi). Kredit summasini hisoblashda aniqlik. Tasdiqlovchi hujjatlarning mavjudligi. So'ralgan kredit summasining yetariligi, kam yoki ko'pligi.

- **Repayment** (qaytarish). Kreditni qaytarish muddati, qaytarilish grafigi mavjudligi, qaytarilish manbasi – kelajak daromadlari,

qisqa muddatli kreditlar, aktivlarni sotish imkoniyati. Qarz oluvchining pul oqimlarini bashorat qilish.

- **Viability** (kreditlanayotgan loyihaning realligi). Loyiha yoki biznes uchun mazkur kreditning zarurligi, texnik-iqtisodiy asoslarning to'g'riligi va bajarilganligi. Mazkur kompaniya hisob varaqlari tahlil qilinganligi, qarz oluvchi balansining baholanganligi.

- **Risks** (risklar). Bank va kompaniya uchun risklar manbalarining mujassamlanligi, riskning oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish imkoniyatlari.

- **Security** (ta'minlanganlik). Ta'minotning mavjudligi, garovlar, sug'urta polisleri va boshqalarni tekshirish. Garov qiymati, garovning qayta baholashdan o'tgan yoki o'tmaganligi.

- **Profitability** (foydalilik). Kredit shartnomasida daromad va xarajatlar aniq ko'rsatilganligi. Foiz darajasining bank tortilgan riskka mos kelishi. Foiz darajasining xarajatlarda tutgan o'rni, mijozning uni qoplay olishi. Shuningdek, Angliyada yuqoridagi talablardan kelib chiqib, mijozning kreditga layoqatliligini aks ettiruvchi so'zlarning bosh harflaridan olingan "**PARTS**" tizimi asosida ham kredit oluvchilarning kreditga layoqatliligi baholanadi. Bular:

- **Purpose** (kreditning maqsadi);
- **Amount** (kredit summasi yoki miqdori);
- **Repayment** (to'lov, kredit summasi va uning foizlarini to'lash).
- **Term** (muddat).
- **Security** (ta'minot, garov).

AQShda uzoq yillar davomida, tijorat banklari mijozning kreditga layoqatliligini baholash va kredit riskini minimallashtirish maqsadida **5 S yoki "SI"** nomini olgan usullardan foydalanilgan. Bu usul asosida mijoz faoliyatini baholashning quyidagi mezonlari yotadi.

- **character** – mijozning obro'si yoki kredit tarixi. Ushbu bandda quyidagi holatlar inobatga olinishi joiz:

- o strategiya kuchliligi. Boshqaruv tomonidan kuchli strategiya ishlab chiqish qobiliyati;

o korxonada faoliyati tarixi. Boshqaruvning oldingi ishlab chiqilgan strategiyaga amal qilganligi, korxonada avvalgi bankrotlik, restrukturizatsiya yoki boshqa stress holatlari bo'lganligi;

o buxgalteriya va soliq siyosati. Korxonada tomonidan ishlatilayotgan buxgalterlik va soliq siyosatlarini qanday muammolarni yashirishi mumkinligi (masalan, kirimni tan olish muammolari yoki auditorlarni almashtirish ko'p uchrashi);

o noqonuniy faoliyat kuzatilganligi. Avval qayd etilgan qonunbuzarlik yoki normalarga ataylab rioya etilmaganlik mavjudligi;

o kreditor manfaati ustunligi. Kredit qaytarilmagan holatda turli usullar bilan korxonada rahbarlari manfaati ustun qo'yilgan holatlarni aniqlash;

- **capacity** – mijozning o'z vaqtida qarzni qaytarish qobiliyati. Ushbu band uchta darajaga bo'linib tahlil qilinishi mumkin:

o SEKTOR yoki industriya strukturasi. Ushbu bo'lim "Porterning 5 kuchi" usuli bilan tahlil qilinadi va bu usul quyidagi tayanch yo'nalishlarni tahlil qilishga qaratilgan bo'ladi. Bular:

▪ mavjud raqobatchilar o'rtasidagi raqobat;

▪ ushbu sektorda yangi korxonalar ochilib, bozor ulushining yanada bo'linishi xatarining mavjudligi;

▪ o'rni bosuvchi mahsulotlar paydo bo'lishi xatari;

▪ sotib oluvchilarning sotuvchiga ta'sir qila olish kuchi;

▪ homashyo yetkazib beruvchilarning ta'sir qilish kuchi.

o Sektor yoki industriya miqyosidagi tahlil:

▪ industriya siklligi. Sikllik industriyalar iqtisodiyotning holatiga bog'liq. Sikllik industriyadagi korxonalarining moliyaviy (foyda, kirim va pul oqimlari) indikatorlari notsiklik industriyalarga nisbatan volatil (*ingl.volatility*) o'zgaruvchan bo'ladi;

▪ industriyaning o'sish imkoniyatlari;

▪ industriya bo'yicha chop etilgan statistik ma'lumotlar. Ushbu ma'lumotlar davlatning statistika qo'mitalarida, mustaqil reyting agentliklari, investitsion banklar kabi tashkilotlar tomonidan chiqarilgan bo'lishi mumkin.

o korxonada miqyosidagi tahlil:

▪ korxonada moliyaviy natijalarining turli biznes sikllaridagi holati;

▪ korxonada boshqaruvining strategiyasi va uning bajarilishi;

▪ moliyaviy indikatorlar va koeffitsiyentlari tahlili (masalan, qoplash, likvidlilik va leveraj koeffitsiyentlari).

- **Capital** – qarz oluvchining kredit maqsadidagi ishtiroki.

Bunga misol uchun qarzidor ipoteka kreditini olgan bo'lsa va ushbu ko'chmas mulkning ma'lum qismini o'z mablag'iga moliyalashtirganini misol keltirish mumkin. Ushbu omil kreditning qaytarilishida katta rol o'ynashi mumkin.

- **Collateral** – kredit ta'minoti (kreditga layoqatliligi past bo'lgan qarzidorlar uchun zarur omil). Kredit ta'minotini tahlil qilayotganda asosiy omillar quyidagilar:

○ Nomoddiy aktivlar: patentlar yuqori sifatli nomoddiy aktiv bo'lib, ularni sotish va pul ko'rinishiga keltirish, odatda, ko'p vaqtni olmaydi. Gudvill past sifatli nomoddiy aktiv hisoblanib, u ta'minot bo'lishi mumkin bo'lgan aktivlar ro'yxatiga kiritilmaydi.

○ Amortizatsiya. Korxonaning o'rtacha yillik asosiy vositalar kirimi amortizatsiya qiymatidan past bo'lsa, bu boshqaruv tomonidan korxonaga yetarli investitsiya qilinmayotganligini bildiradi. Bu esa, o'z navbatida, korxonaning asosiy vositalari sifati pastligini va bu hol korxonaning kelajakdagi pul oqimlariga ta'sir ko'rsatishini bildiradi.

○ Inson va intellektual kapital. Bularni baholash qiyin hisoblanadi, ammo xorijiy davlatlarda bular korxonaning intellektual mulki bo'lishi va ularni ta'minotlar ro'yxatiga kiritish mumkin.

- **Covenants** – shartlar va majburiyatlar. Odatda, ikki turdagi shartlarni shartnomalarda kuzatish mumkin:

○ Tasdiqlovchi shartlar (affirmative covenants) – qarz oluvchining bajarishi majbur bo'lgan shartlar ro'yxati (o'z vaqtida kreditni va kredit bo'yicha foizlarni to'lash, zarur bo'lganida ta'minotni taqdim etish va h.k.).

○ Salbiy shartlar (negative covenants) – qarzorning nimalar qilishi mumkin emasligining qayd etilganligi (masalan, qo'shimcha kredit olishini yoki dividendlar to'lanishini man etish).

Bu usul bo'yicha, shuningdek, mijozning obro'si, mas'uliyat darajasi, qarzni to'lashga bo'lgan istagi va tayyorgarligi tekshiriladi. Dastavval, bank mijozning o'tmishda o'z majburiyatlariga qanday munosabatda bo'lganligi, qarzlarni to'lashdagi muammo va kamchiliklar bo'lganligi, kreditlanuvchi subyektning iqtisodiyotda va bozorda qanday mavqega ega ekanligini tekshiradi. Bunda bank qarzdor bilan suhbat olib boradi, arxivdan mijoz to'g'risidagi materiallarni olib tahlil qiladi, mijoz oldin munosabatda bo'lgan boshqa firma hamda banklar bilan maslahatlashadi va h.k.

Qarzdorning to'lov qobiliyati bo'yicha moliyaviy imkoniyatlari, kreditni to'lash qobiliyati, foyda va zararlar hamda kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar puxta tahlil qilinadi. Bu holda bank kreditni to'lash bo'yicha mijoz mablag'larining 3 manbasini chuqur o'rganib chiqadi. Bular:

- joriy kassa tushumlari;
- aktivlarni sotish imkoniyati;
- moliyalashtirishning boshqa manbalari (jumladan, pul bozori-dagi qarzlar).

Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan o'zgarishlar dunyo mamlakatlarida mijozlarning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlariga bo'lgan talablarni, ularni aniqlash tizimidagi ko'rsatkichlarni ham takomillashtirishni talab etganligi bois, oxirgi yillarda AQShda mijozni kreditlashda **6-Silar usulidan** keng foydalaniladi. Oltinchi **SI-Sontrol** bo'lib, u bank faoliyatiga oid qonunlarning, kreditning sifati va turiga oid qoidalarning mavjudligi, nazoratchilarga oid hujjatlar, kredit olish bo'yicha va qarzdorlik bo'yicha hujjatlarning, kredit buyurtmaning kredit siyosatiga monand tuzilganligi, ekspertlarning kredit jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha ma'lumotlari va boshqalarni o'z ichiga oladi

“SI”lar” qoidasiga asosan bank boshqa omillar, jumladan, firmalarning aksiyadorlik kapitaliga, uning tuzilishiga, aktiv va passivlarning boshqa moddalariga bo'lgan nisbatiga hamda kreditning ta'minlanganligiga, uning yetarlilik darajasiga, sifatiga va qarzni to'lay olmaganda, garovni sotish imkoniyati va uning likvidlilik darajasiga asosiy e'tiborini qaratadi. So'ngra, kreditga bo'lgan talabnomani qarab chiqqanda, umumiy shart-sharoitlar, jumladan: mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitini aniqlovchi va bank bilan birgalikda qarzdorning holatiga ta'sir etuvchi omillar: iqtisodiy ahvol, monand tovar bo'yicha boshqa ishlab chiqaruvchilar tomonidan raqobatning mavjudligi, soliqlar, xomashyoga narx-navolar va boshqalar ham tahlil etiladi.

6 “SI”lar bo'yicha mijozning kreditga layoqatligini baholash va kreditni qaytarish qobiliyatini aniqlashda, tahlil etiladigan mezonlarni yanada chuqurroq ko'rib chiqamiz.

37-jadval

Kreditlashning asosiy “6 SI” qoidasi asosida o'rganish obyektlari

Kreditlashning asosiy olti qoidasi asosida o'rganish obyektlari va rasmiylashtiriladigan hujjatlar					
Xarakter	Huquq	Pul mablag'lari	Ta'minot	Sharoit	Nazorat
Mijozning kredit tarixi	Mijozning va kafolatchilarning haqiqiyliigi	O'tgan yillardagi foyda, sotish hajmi va dividendlar	Aktivlarga ega bo'lgan huquqi	Mijozning tarmoqdagi o'rni va bozordagi kutilayotgan ulushi	Bank faoliyatiga oid qonunlar va kreditning sifati va xarakteriga qo'yilgan talablar
Boshqa kreditorlarning ushbu mijoz bilan ish tajribasi	Nizom, qarorlar, kelishuvlar va mijozning yuri-dik statusini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar	Rejalashtirilgan pul oqim-larining etariligi	Aktivlarni ishlatish muddati	Tarmoqda faoliyat ko'rsatayotgan boshqa korxonalar bilan mijoz faoliyatini taqqoslash	Nazoratchilar uchun tegishli hujjatlar
Kredit maqsadi	Ish tarixi, korxonaga kirishining yuri-dik statusi, bajarilayotgan operatsiyalar, mahsulot, asosiy mijozlar va ta'minotchilar bayoni	Likvid zaxiralarning mavjudligi	Ma'naviy eskirish ehtimoli	Mijoz va tarmoqning texnologik va iqtisodiy va-ziyatning o'zgarishiga sezuvchanlik darajasi	Kredit olish uchun tuzilgan hujjatlarning to'g'riligi va qarzni tan olish yuzasidan imzolangan hujjatlar
Biznes-reja tuzishda mijoz rejasi		Debitorlik va kreditorlik qarzlarni to'lash muddatlari, aylanma mablag'larining aylanishi	Aktivlarning qoldiq qiymati	Mahsulotning raqobatbar-doshligi	Bank kredit siyosatiga kredit buyurtmasi-ning mosligi

Bu usul bo'yicha mijozning qarzni to'lashga bo'lgan mas'uliyati va tayyorgarligi tekshiriladi. Dastavval, bank mijozning o'timshda o'z

majburiyatlariga qanday munosabatda bo'lganligi, qarzlarni to'lashda bo'lgan kamchiliklar, kreditlanuvchi subyektning iqtisodiyotda, bozorda qanday mavqega va obro'ga ega ekanligini tekshiradi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mijozga kredit reytingini o'rnatishda banklar mijozlarni turli sinflarga ajratishi mumkin. Bazel qo'mitasining baholashiga qaraganda, banklar kreditga layoqatlilikni baholashning o'rtacha 10 ta sinfidan foydalanadilar. Baholash tizimining bunday ko'pligi xalqaro talablardan kelib chiqqan holda, banklarning o'z ichki ko'rsatkichlarini o'rnatishidir. Har bir bank o'zining kredit siyosati va faoliyatidan kelib chiqib, kredit reytingi ko'rsatkichlarini mustaqil o'rnatishi mumkin.

Ko'rsatkichlar sonining ko'p yoki kam bo'lishi qo'yilgan maqsadga bog'liq bo'ladi. Odatda, kredit reytingini aniqlashda ko'p ko'rsatkichlardan foydalanadigan banklar o'zlarini kredit risklardan himoya qilish va ko'proq foyda olishni maqsad qilishadi.

38-jadval

AQSh banklarida mijozning faoliyatini baholashda tahlil etiladigan ko'rsatkichlar

1	Mijozning ta'sis hujjatlar, ustavi
2	Kredit byuro va boshqa manbalardan olingan axborotlar
3	Texnik hujjatlar
4	Auditorlik xulosa
5	Marketing bo'yicha axborot
6	Moliyaviy hisobotlar va buxgalteriya hisobining holati
7	Biznes-reja, texnik-iqtisodiy asos, moliyaviy mablag'lar
8	Mijozning likvidligi
9	Kapitalning aylanishi
10	Jalb qilingan mablag'lar miqdori
11	Rentabellik ko'rsatkichlari
12	Yagona me'yorlarning mavjudligi
13	Kreditni to'lash manbalarining mavjudligi
14	Kredit ta'minoti tahlili
15	Mijoz foydasi tahlili
16	Sotish mumkin bo'lgan aktivlarning hajmi

Ko'pgina xorijiy davlatlarda mijozning kreditga layoqatliligini baholashga yondashuvda **PARSER usuli** ham qo'llaniladi. Bu usul ham mijoz olishi mo'ljallanayotgan kreditning miqdori va uni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan savollarga javoblarni o'zida aks ettirishi lozim.

PARSER usuli bo'yicha mijozlarning kreditga layoqatliligiga baho berish.

P	person	Qarz oluvchi, uning faoliyati, obro'i va mavqeyi to'g'risida ma'lumot
A	amount	So'ralayotgan kredit miqdorini asoslash
R	repayment	Kreditni to'lash imkoniyati va shartlari
S	security	Kredit ta'minlanganligini baholash
E	expediency	Kreditning maqsadliligi
R	remuneration	Foiz stavka

Tijorat banklarining kreditlash amaliyotida tasnifiy baholash modeli ham qo'llanilib, odatda, u kreditni baholashning balli modeli (reyting uslubi) va bankrotlikni bashorat qilish (MDA – Multiple Discriminate Analysisga asoslangan statistik baholash) modellar asosida shakllangan.

Qarz oluvchilarning kompleks tahlil modeli "Olti SI" qoidasi, CAMPARI, PARTS, tahlilining baholash tizimi kabi modellarini o'z ichiga oladi va yarim empirik usullarga asoslanadi. Mijozning kreditga layoqatliligini aniqlashning tasnifiy modelida qarz oluvchilarni guruhlariga ajratgan holda, kreditni qaytara olish imkoniyatlari o'rganib chiqiladi.

Amaliyotda ko'proq kreditga layoqatlilikni aniqlashning ikki modeli, ya'ni balli baholash modeli va bankrot bo'lish ehtimolini bashorat qilish modellari keng qo'llaniladi. Balli baholash modeli qarz oluvchilarni yaxshi va yomonga, bashorat qilish modeli esa korxonalarni bankrotlikka uchrash yoki uchramaslik ehtimollarini aniqlab beradi.

Mijozning kreditga va to'lovga layoqatliligini baholashda uning bankrot bo'lish riskini ballarda aniqlash usuli 1968-yilda amerikalik iqtisodchi Edvard Altman tomonidan ishlab chiqilgan va mijozning bankrot bo'lish ehtimolini baholash modeli degan nomni olgan. Mazkur modelga binoan mijoz faoliyati bo'yicha balansning muhim ko'rsatkichlarining bir-biriga nisbati olinadi va ular shu ko'rsatkichlarga muvofiq koeffitsiyentlarga ko'paytiriladi. Mijozlarning bankrotlik ehtimolini ko'rsatuvchi Altman modeli 66 ta, shu jumladan, 33 ta moliyaviy barqaror, 33 ta bankrot holatidagi kompaniya faoliyatini o'rganish asosida ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur model korxonaning

moliyaviy ahvolini o'rganishning 98 foiz holatida aniq natija olish imkonini beradi.

Altman modelining eng sodda shakli ikki omilli model hisoblanib, unda ustivor e'tibor ikki asosiy ko'rsatkich – joriy likvidlilik va aktivlarda kredit mablag'larning salmog'ini aniqlashga qaratiladi hamda ular Z-hisob varag'i ostida barqaror korxonalar va bankrot korxonalar ajratiladi. Ushbu ko'rsatkichlar, muvofiq ravishda, hisob-kitoblar orqali aniqlangan koeffitsiyentlar (a, b, y)ga ko'paytiriladi. Aniqroq ifodalaydigan bo'lsak:

Ikki omilli model (Z_2) = a + b (joriy likvidlilik koeffitsiyenti) + u (aktivlarda qarz mablag'larning salmog'i).

Edvard Altmanning ikki omilli modeli korxonaning moliyaviy holatini har tomonlama ifodalaganligi bois yirik kompaniyalar faoliyatini o'rganishda, ko'p hollarda, uning besh omillik modeli (Z_5)dan foydalaniladi. Bu model to'g'ri diskriminant funksiyaga asoslangan bo'lib, korxonalar faoliyatining yalpi ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadigan koeffitsiyentlarda ifodalanadi, ya'ni:

$$Z_5 = 1,2 \cdot X_1 + 1,4 \cdot X_2 + 3,3 \cdot X_3 + 0,6 \cdot X_4 + 0,999 \cdot X_5$$

Bu yerda:

X_1 - oborot kapitali / korxonalar aktivlari miqdori;

X_2 – taqsimlanmagan foyda / korxonalar aktivlari miqdori;

X_3 – soliq olingungacha bo'lgan foyda / aktivlarning umumiy qiymati;

X_4 – xususiy kapitalning bozor qiymati / barcha majburiyatlarning balans qiymati;

X_5 – sotuv hajmi / korxonalar aktivlarining umumiy qiymati.

40-jadval

Altman modeli

Ko'rsatkichlar	Mos ko'rsatkichlarning nisbati	Koeffitsiyentlar
Index1	Sof aylanma aktivlar/Umumiy aktivlar	K1= +1,2
Index2	Rezervlar/Umumiy aktivlar	K2= +1,4
Index3	Yalpi foyda/Umumiy aktivlar	K3= +3,3
Index4	O'z (xususiy) kapital/Umumiy qarzdorlik	K4= +0,6
Index5	Umumiy aylanmalar/ umumiy aktivlar	K5= +0,9
Doimiy ko'rsatkich		-2,675

Bu model bo'yicha hisob-kitob qilishda har bir Index (ko'rsatkich) mos koeffitsiyentga ko'paytiriladi va chiqqan natijadan doimiy ko'rsatkich chegirib tashlanadi va ballarda baho ko'rsatkichi aniqlanadi.

Z5 ni aniqlash natijasi bo'yicha quyidagicha xulosalar shakllantiriladi:

$Z < 1,81$ – korxonaning bankrot bo'lish ehtimoli 80% dan 100% gacha bo'lishi mumkin;

$2,77 \leq Z < 1,81$ – bankrot bo'lish ehtimoli o'rtacha holda va uning ko'rsatkichi 35% dan 50% gacha bo'lishi mumkin;

$2,99 < Z < 2,77$ – korxonaning bankrot bo'lish ehtimoli past bo'lib, u o'lchami 15% dan 20% gacha bo'lishi mumkin;

$Z \leq 2,99$ – korxonaning moliyaviy holati barqaror, yaqin 2-3 yil davomida to'lovga layoqatlilik riski yuzaga kelmasligi mumkin.

Qisqacha qilib aytganda, $Z < 1,8$ – bankrot bo'lish ehtimoli juda yuqori; $Z > 3$ – bankrot bo'lish ehtimoli kam; $1,8 < Z < 3$ – bankrot bo'lish ehtimoli pastdan yuqorigacha bo'lgan oraliqda o'zgaruvchan; $Z < 2,675$ – bankrot bo'lish ehtimoli 2-3 yildan keyin yuzaga kelishi mumkin; $Z > 2,675$ – korxonaning moliyaviy holati barqaror hisoblanadi. Baholash ballari qancha yuqori bo'lsa, risk darajasi shuncha past bo'ladi. Altman modeli bir necha moliyaviy ko'rsatkichlarning natijalari bo'yicha yaxlit xulosani shakllantirish uchun (Z - hisob varag'ida) umumlashtiradi.

CAMPARI usuli Yevropa va Amerika banklari amaliyotida ijobiy baholangan usullardan hisoblanadi. Keyingi yillarda AQSh va ko'pgina Yevropa mamlakatlarida mijozlarning kreditga layoqatlilikini juda ko'p omillar asosida beriladigan kreditning risk darajasini o'zida jamlovchi CAMPARI usulidan foydalanilmoqda. Ushbu usulning asosiy elementlarini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

41-jadval

CAMPARI usuli bo'yicha mijozlarning kreditga layoqatlilikini baholash

C	Character	Qarz oluvchining shaxsiy sifatleri va mavqeyi
A	ability	Kreditni qaytara olish qobiliyati
M	Means marge	Kredit olish zaruriyati yoki Marja, daromadlilik darajasi
P	purpose	Kreditning maqsadi
A	amount	Kredit miqdori
R	repayment	Kreditni to'lash shartlari
I	insurance	Ta'minlanganlik, kreditni to'lamaslik riskini sug'urtalash

Kreditga layoqatlilikni baholashning CAMPARI usulida mijozning kredit buyurtmasi va boshqa hujjatlari ichidan mijozning faoliyati hamda uning mavqeyiga baho beruvchi eng muhim omillar ajratib olinadi va chuqur tahlil qilinadi. Bu usul mijoz faoliyatini kompleks tahlil qilish orqali uning moliyaviy ahvoriga baho berishga zamin yaratadi.

Ko'pgina G'arb mamlakatlarida mijozlarning to'lovga layoqatliligini baholash quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- Personal capacity - qarz oluvchining shaxsiy fazilatları (odilligi, maqsadining jiddiyligi, yaxshi ishchi sifatida tavsifi v.b.);

- Revenues – mijoz daromadi, oilaning yalpi daromadi tahlili. Bunda mijozning kreditni qoplash xarajatlari uning oylik daromadlarining 1/3 qismidan oshmasligi kerak;

- Material capacity – ssudaning ta'minlanishi, mijozning ko'chmas va boshqa mulklari tahlili.

Pul oqimi (cashflow) – mijozning xarajatlarini va majburiyatlarini qoplash uchun o'z resurslari - pul oqimining yetarliligi yoki yo'qligini o'lchaydi.

Rivojangan mamlakatlarda mijozni kreditlashning muhim jihati kredit berish jarayonining markazida subyekt (yuridik va jismoniy shaxs) - inson turadi. Masalan, Germaniyada qanday kredit olishdan qat'i nazar, qarz oluvchi o'zining shaxsiy fazilatları va to'lovga layoqatliligi to'g'risida bir qator hujjatlarni bankka berishi lozim. Kredit berish jumbog'ini yechishda **Germaniya banklarini** qiziqtiradigan muammolar quyidagilardan iborat:

- tadbirkorning shaxsiy xarakteri: xulq-atvori, qiliqlari, tashqi ko'rinishi, odati, ta'sirchan talaffuzi, odillik darajasi (iqtisodiy va moliyaviy holati to'g'risida ochiq so'zlashi), yoshi, oilaviy holati, jamoat ishlaridagi o'rni, mansabi va qiziqishlari;

- umumiy ma'lumoti: o'quv yurtini tugatganligi to'g'risidagi diplom nusxasi, malakasi, riskka qo'l urishi, iqtisodiyotga qiziqishi, rejalashtirish qobiliyati;

- jismoniy holati: sog'ligi holati, (oldingi kasalliklarini hisobga olgan holda), sport bilan shug'ullanishi;

- texnik bilim saviyasi: maxsus o'quv yurti, tajribasi, ishga ixtisoslashuvi;

- mulki: tashkilot ishlarida qatnashish darajasi, shaxsiy mulki, ko'chmas mulkka egalik qilishi, daromadning boshqa manbalari, kor-

xona daromadidan shaxsiy foydasi, shaxsiy qarzlari, soliq majburiyatlari, oila a'zolarining mulkiy holati, musobaqalarda ishtiroki v.b.

Savollarga javoblar bank bo'limida suhbat, telefon yoki anketani to'ldirish orqali aniqlanishi mumkin. Germaniya banklarida mijozning to'lovga layoqatliligini baholashda arizaning "Oylik daromad hisobi" bo'limi asosiy o'rin egallaydi. Mijozning kreditga layoqatliligini baholashda asosiy e'tibor uning bir oylik daromadi va bir oylik xarajati qancha ekanligiga hamda bir oyda mijoz ega bo'ladigan daromadga qaratiladi. Agarda mijozning daromadi kredit bo'yicha to'lovning 60 % va undan ortig'ini tashkil etsa, uning to'lov qobiliyati yaxshi deb baholanadi va unga kredit ajratiladi. Shuningdek, Germaniyada mijozning kreditga layoqatliligini aniqlashda mijoz faoliyati va uning moliyaviy natijalarini ballarda baholashga asoslangan "Kredit skoring usuli"dan foydalaniladi. Bu tizimga asosan 1,25 balldan yuqori ball yig'gan mijozlar kreditga layoqatli mijozlar deyilib, ularga kreditlar ajratilsa, 1,25 balldan kam ball yig'gan mijozlar kreditga layoqatsiz mijozlar deb qaraladi va ularga kreditlar ajratilmaydi.

Fransiya va Belgiyada tijorat banklari Markaziy bankdan individual ssudalarni to'lamaydiganlar haqida ma'lumot olish huquqiga ega. Lyuksemburgda bank sirini saqlash zaruriyati tufayli bu huquq ishlatilmaydi. Lekin mijozning, masalan, jamg'arma depozitini ssuda olingan bankka ko'chirish imkoniyati berilgan. Bulardan tashqari mijoz kreditni to'lay olmasa, bankka uning maoshidan kredit summasini akseptsiz shaklida undirib olish huquqi berilgan.

42-jadval

Fransiya banki modeli

Ko'rsatkichlar	Mos ko'rsatkichlarning nisbati	Koeffitsiyentlar
Index1	Kredit qiymati/Yalpi foyda	- 1225
Index2	O'z mablag'lari hisobidan investitsiyalarni qoplash darajasi	+ 2,003
Index3	Mijozning to'lovga layoqatliligi (Uzoq muddatli qarzlari/ Sof aktivlar)	- 0,824
Index4	Yalpi foyda normasi	+5,221
Index5	Olingan kreditlar muddati	- 0,689
Index6	Qo'shimcha qiymat/Aylanmalar	- 1,164
Index7	Mijozlarga berilgan kreditlar muddati	+0,706
Index8	Ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalar/ Umumiy investitsiyalar	+1,408

Fransiya banklari faoliyatida skoring baholashda boshqa ba'zi bir ko'rsatkichlardan foydalaniladi va bunda koeffitsiyentlar manfiy ko'rsatkichlarga ega bo'lishi ham mumkin.

Ushbu model bo'yicha har index (ko'rsatkich)ni koeffitsiyentlarga ko'paytirish orqali mijozning bankrot bo'lish ehtimoli riskini aniqlash mumkin. Fransiya banklari amaliyotida agar mazkur model bo'yicha aniqlangan ko'rsatkich $>0,125$ bo'lsa, mijozning moliyaviy ahvoli qoniqarli hisoblanadi, agarda olingan ko'rsatkich $<-0,125$ bo'lsa, mijozning moliyaviy ahvoli qoniqarsiz va uning bankrot bo'lish riski yuqori deb baholanadi.

Shuningdek, xorijiy banklar amaliyotida mijozning kreditga layoqatliligini tekshirishning to'g'ri va egri usullari mavjuddir. To'g'ri usullardan kam foydalaniladi. Bunda mijoz tomonidan to'plangan ballar, u olishga haqli bo'lgan ssuda summasiga tenglashtiriladi. Egri usullar esa juda keng tarqalgan. Uning mazmuni turlicha baholash ko'rsatkichlariga ma'lum ballar berishdan iborat. Buning natijasi mijozning kreditga layoqatlilik sinfini aniqlashga xizmat qiladi. O'z-o'zidan ayon bo'lib turibdiki, mijozning kreditga layoqatliligini baholashda ballar tizimidan foydalanish - eng obyektiv va iqtisodiy asoslangan qarorlarni qabul qilishga asos bo'ladigan jarayonidir. Yagona muammo shundan iboratki, bunda mijozning kreditga layoqatliligini baholash bo'yicha axborotlarning doimiy yangilanishi talab qilinadi, bu esa, o'z navbatida, bank uchun juda qimmatga tushishi mumkin. Shuning uchun uncha katta bo'lmagan banklar, odatda, axborot bazasining cheklanganligi va ko'p xarajatliligi tufayli mijozning kreditga layoqatliligini tahlil qilishda "koeffitsiyentlar" usulidan foydalaniladi.

Ba'zi davlatlarda mijozning kuchli va kuchsiz tomonlari, uning imkoniyatlari va riskini aniqlashda "SWOT" (**S** – **strong**, **W** – **weak**, **O**–**opportunities**, **T**–**threat**) metodidan foydalanadilar. Bunda mijozning to'lovga layoqatlililigining asosiy mezonlari, ya'ni:

- qarz olish uchun ariza beruvchilarning kuchli tomonlari;
- qarzdorning kuchsiz va bo'sh tomonlari;
- qarz oluvchining muvaffaqiyati uchun qaysi omillar muhimligini aniqlash;
- kredit berishdagi risk darajasi kabi ko'rsatkichlar o'rganib chiqiladi.

Jahon amaliyotida shuningdek, mijozning defolt yoki defoltoldi holatini baholash bo'yicha reyting sinflari mavjud. Bu sinflar jahon bank amaliyotida "o'tmaslar" degan nom bilan yuritiladi. Avstraliyada bank nazorati bo'yicha APRA tashkilotining talabiga asosan ko'pgina banklar 2-, 4-reyting sinfga kiruvchilarni "o'tmaslar" yoki kreditlanmaydiganlar, 5- 10 reyting sinfga kiruvchilarni "o'tganlar", ya'ni kreditlanadiganlar deb baholaydi. Yaponiyada umumqabul qilingan ko'rsatkichlardan tashqari o'z kapitali koeffitsiyenti (o'z kapitalining balans jamiga nisbati), qarz mablag'lari va o'z kapitalining nisbati, uzoq muddatli qarzdorlikning o'z kapitaliga nisbati, jalb qilingan kapitalning o'z kapitali va uzoq muddatli qarzdorlikga nisbati kabi ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Hozirda AQSh banklari individual shaxslarni kreditlashda turli xil yondashuvlar ishlab chiqmoqda. Har bir bank o'zining xususiy tizimi orqali mijozlarning kreditga layoqatligini baholamoqda. Ko'pgina Amerika banklari o'z amaliyotida mijozlarning kreditga layoqatligini baholashda ikki xil usuldan foydalanadilar:

- mijozni bank talablari yuzasidan tekshirib chiqadi va kredit berish yoki bermaslikni hal qiladi;

- kreditga layoqatlikni baholashda balli tizimi, matematik korrelyasion tahlil va omillar tahlilidan foydalaniladi.

Banklar mijoz balansining moddalari va bo'limlari orasidagi turli proporsiyalarni ta'riflovchi boshqa moliyaviy koeffitsiyentlarni ham hisoblaydi. Bu koeffitsiyentlarning me'yoriy kattaliklarini belgilaydi va mavjud kattaliklarni ular bilan solishtirib, natijalariga ko'ra mijozning kreditga layoqatligiga baho beriladi. Har bir koeffitsiyentga (uning normativga yaqinligiga qarab) berilgan ballar yig'indisiga qarab, mijozning moliyaviy holati yuqori, o'rta yoki past likvidlikka ajratiladi. Mijozning reytingi bo'yicha qaysi guruhga mansubligiga qarab bank kredit talablarini susaytirishi, kuchaytirishi yoki umuman kreditlashni rad etishi mumkin. Koeffitsiyentlarning me'yoriy chegarasi turli tarmoq, hudud va boshqalardagi korxonalar uchun turlicha bo'lishi mumkin. Qarz oluvchi moliyaviy holatini baholash bilan birga bank uning faoliyat jarayonini, ishlab chiqarish, mol etkazib beruvchilar va xaridorlar bilan munosabatlarini, korxonaga egalari bilan ishchilar o'rtasidagi, boshqaruvchi va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni ham o'rganadi. Shuningdek, bank foydalanilayotgan texnologiyalar, vositalar, ularning

yangiligini va raqobatbardoshligini o'rganadi, bozorlarni egallash imkoniyatlari va boshqalarni baholaydi. Keyingi paytlarda, ayniqsa, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda bank mijozlarining ma'naviy-axloqiy sifatlariga tobora ko'p e'tibor berilmoqda. Bu sifatlarning yetarli darajada aniq baholash imkonini beruvchi testlar va uslublar yaratildi. Ana shunday testlardan biri "Qizil signallar tizimi" bo'lib, u xorij banklar xodimlarining fikricha, mijozlarning ishonchligini aniqlashga imkon beradi. Bu tizim qarz oluvchining faoliyatiga baho beruvchi bir necha bo'limlardan iborat:

I. Qarz oluvchi tarixidan signallar

- Yaqin, o'tmishdagi moliyaviy ahvoli yoki noqobilligi.
- Qarz oluvchi ma'lumotlaridagi nomutanosibliklar va qarama-qarshiliklar.

II. Qarz oluvchini boshqarishga doir signallar:

- Qarz oluvchining ishonchli aloqalari mavjud, hamkorni qidirmoqda.

- Boshqaruvchining past ma'naviy sifatleri.

- Boshqarish uchun xodimlar, oila a'zolari, kompaniya muassislari orasida kurash.

- Boshqarishdagi tez-tez o'zgarishlar.

- Boshqaruvchining hovliqma xarakteri.

- Boshqaruvchilarning kreditlash jarayonini tezlashtirishga xarakat qilishlari yoki aralashishlari.

III. Aylanma aktivlar. Ishlab chiqarish faoliyatini aks ettiruvchi signallar:

- Mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar qatorining farqlari.

- Qarz oluvchining o'z debitorlari ustidan nazorati susayganligi.

- Qarz oluvchining bugungi kunda muammolarni boshidan kechirayotgan sohaga tegishligi.

- Balansning aktiv va passiv moddalari bo'yicha mutanosibligi.

IV. Kreditlashga tegishli signallar:

- Qarz oluvchi kredit maqsadini aniq ko'rsatmaydi.

- Qarz oluvchida qarzni to'lash bo'yicha aniq dastur yo'q.

- Kreditni to'lash bo'yicha zaxira mablag'lari yo'q.
- Qarz oluvchi maqsadi moddiy ta'minotga ega emas.
- Qarz oluvchining kredit savolnomasi yomon asoslangan.
- Qarz oluvchi bir vaqtning o'zida ham aktivlari, ham umumiy kapitali garoviga ssuda olishni mo'ljallagan.

- Kredit bevosita qiymat tashkil etiluvchi, ishlab chiqarish jarayoniga emas, balki muomala sohasiga yo'naltirilgan.

- Kreditni qaytarish muddati to'liq asoslanmagan.

V. Belgilangan normalarda chetlashish signallari:

- O'z xo'jalik faoliyati bo'yicha hisobot ma'lumotlarini taqdim etish davriyligidagi buzilishlar.

- Bank hisob varaqlarini yuritishdagi normalarda chetlashishlar.

- Kreditlash shartlarining qayta ko'rilishi; kreditni qaytarish sxemasidagi o'zgarishlar; ssudani cho'zish bo'yicha iltimoslar.

- Xo'jalik faoliyati moliyaviy ko'rsatkichlarini rejadan farqlanishi.

- Qarz oluvchining mahorati va hisob tizimlarida chetlanishlar.

Xorijiy banklar kredit berishda mijozlarning kreditga layoqatlilikni baholash bilan birga bank kreditdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini ham tekshiradi. Bank qarz oluvchining maqsadining haqqoniyligini, ularni (talab, taklif, sifat va miqdor, narxi, raqobatchilarning qarshiligi va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha) shakllanayotgan bozor konyunkturasiga mos kelishini baholaydi. Shu bilan birga, bank mijoz kredit so'ragan faoliyat turi bo'yicha daromad va xarajatlarni solishtiradi. Bank kreditdan foydalanish natijasida mijozning o'z xarajatlarini qoplashi va kreditning qaytarilishiga yetarli daromad olishga imkoni bo'lishiga e'tibor qaratadi. Ana shunday baholashlarga asosan bank kreditni berish (yoki uni rad etish) to'g'risidagi qaror qabul qiladi. Mijozning kreditga layoqatliligiga qarab, bank kredit bo'yicha foiz, muddat va summasini o'zgartirishi mumkin. Bu mezon qarz oluvchi bilan muhokama etiladi va kredit shartnomasida belgilab qo'yiladi.

Ko'rib chiqqanimizdek, turli mamlakatlarda mijozning kreditga layoqatliligini aniqlashda turlicha yondashuvlar bo'lsada, ularning asosiy maqsadi bank tomonidan beriladigan kreditlarning samarali ishlatilishi va ularning o'z vaqtida bankka qaytib kelishini ta'minlashdan iborat. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari mijozlarning kreditga

layoqatliligini aniqlashda, ba'zi bir ilg'or xorijiy tajribalarni o'z amaliyotiga joriy qilib borishlari, kreditlashda, birinchi navbatda, kredit riski darajasini inobatga olishi, uni to'g'ri aniqlash va hisob-kitob qilishga e'tibor qaratishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, inson (subyekt) omiliga e'tibor qaratish hamda kreditlashda differensial (mijozning kredit tarixi va moliyaviy barqarorligidan kelib chiqib) yondashuvni amalga oshirish bo'yicha banklar faoliyatining takomillashtirilishi ham mamlakatimiz iqtisodiyotining uzluksiz o'sish sur'atlarini yanada oshirishga zamin yaratadi.

AQShda mijozning kreditga layoqatliligini baholash va kredit riskini minimallashtirish maqsadida **5 "S"** nomini olgan usuldan foydalaniladi. Bu usul asosida mijoz faoliyatini baholashning quyidagi mezonlari yotadi:

- **customer character** – mijozning obro'si;
- **capacity to pay** – to'lovga layoqatliligi;
- **capital** – kapital;
- **collateral** – ssudaning ta'minlanishi;
- **current business conditions and goodwill** - iqtisodiy holati va uning kelajagi.

Bu usul bo'yicha mijozning obro'si, mas'uliyat darajasi, qarzni to'lashga bo'lgan istagi va tayyorgarligi tekshiriladi. Dastavval bank mijozning: o'tmishda o'z majburiyatlariga qanday munosabatda bo'lganligi, qarzlarni to'lashdagi muammo va kamchiliklar bo'lganligi, kreditlanuvchi subyektning iqtisodiyotda, bozorda qanday mavqega ega ekanligini tekshiradi. Bunda bank qarzdor bilan suhbat olib boradi, arxivdan mijoz to'g'risida materiallarni olib tahlil qiladi, mijoz bilan munosabatda bo'lgan boshqa firma va banklar bilan maslahatlashadi va h.k.

Qarzdorning to'lov qobiliyatida uning moliyaviy imkoniyatlari, uning kreditni to'lash qobiliyati, qarzdorning foyda va zararlari hamda kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar puxta tahlil qilish orqali aniqlanadi. Unda bank qarzni to'lash bo'yicha mijoz mablag'larining 3 manbasini chuqur o'rganib chiqadi. Bular:

- joriy kassa tushumlari (cash flow);
- aktivlarni sotish;
- moliyalashtirishning boshqa manbalari (jumladan, pul bozorida qarzlar).


"Besh "si"lar"ga qaytar ekanmiz, shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bank boshqa omillarga ham, jumladan, firmalarning aksiyadorlik

kapitaliga, uning tuzilishiga, aktiv va passivlarning boshqa moddalariga bo‘lgan nisbatiga, hamda kreditning ta‘minlanganligiga, uning yetarlilik darajasiga, sifatiga va qarzni to‘lay olmaganda garovni sotish imkoniyati va uning likvidlik darajasiga asosiy e‘tiborini qaratadi.

So‘ngra kreditga bo‘lgan talabnomani qarab chiqqanda umumiy shart-sharoitlar, jumladan: mamlakatdagi ishbiarmonlik muhitini aniqlovchi va bank bilan birgalikda qarzdorning holatiga ta‘sir etuvchi omillar: iqtisodiy ahvol, monand tovar bo‘yicha boshqa ishlab chiqaruvchilar tomonidan raqobatning mavjudligi, soliqlar, xomashyoga narx-navolar va boshqalar ham tahlil etiladi.

Tijorat banklarining kreditlash amaliyotida tasnifiy baholash modeli ham qo‘llanilib, odatda, u kreditni baholashning balli modeli (reyting uslubi) va bankrotlikni bashorat qilish (MDA – Multiple Discriminate Analysis ga asoslangan statistik baholash) modellar asosida shakllangan.

Kompleks tahlil modeli (“Olti Si” qoidasi, CAMPARI, PARTs, PARSER kabi yarim emperik usullarga asoslanadi).



16-rasm. Qarz oluvchilarning kreditga qobilligini baholash modeli

Mijozning kreditga layoqatliligini aniqlashning tasnifiy modelida qarz oluvchilarni guruhlarga ajratgan holda kreditni qaytara olish imkoniyatlari o‘rganib chiqiladi.

Ko'pchilik adabiyotlarda kreditga qobillikni aniqlashning ikki modeli kengroq tasniflanadi: ya'ni, balli baholash modeli va bankrot bo'lish ehtimolini bashorat qilish modellari. Balli baholash modeli qarz oluvchilarni yaxshi va yomonga, bashorat qilish modeli esa korxonalarni bankrotlikka uchrash yoki uchramaslik ehtimollarini aniqlab beradi.

CAMPARI usuli Yevropa va Amerika banklari amaliyotida ijobiy baholangan usullardan hisoblanadi.

AQShda mijozlarning kreditga layoqatligini baholashning balli tizimini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

43-jadval

Mijozlarning kreditga layoqatligini balli baholash tizimi (UNB USA)

Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlar miqdori				
	< \$ 10000 (5)	\$ 10000 – 20000 (15)	\$ 20000- 40000 (30)	\$40000- 60000 (45)	>\$60000 (60)
Ssudadan to'lash uchun oylik to'lov. Oylik sof daromad	>40% (0)	30-40% (5)	20-30% (20)	10-20% (35)	<10% (50)
Bank bilan munosabat (talab qilib olunguncha yoki jamg'arma hisob raqamlar)	Yo'q (0)	Faqat talab qilguncha h/r (30)	Faqat jamg'arma h/r (30)	Ikkala h/r (50)	Javob yo'q (0)
Kredit kvartaliga egalik	Yo'q (0)	1 yoki undan ortiq	Javob yo'q (0)		
Kredit munosabatlari tarixi	So'nggi 7 yildagi tartibbuzarliklar (10)		Ma'lumot yo'q (0)	Ssudalar o'z vaqtida qaytarilgan (30)	
Qarz oluvchining yoshi	<50 yosh (5)	>50 yosh (25)	Javob yo'q (0)		
Yashash joyi	Ijara (15)	O'z uyi (40)	To'liq egalik (50)	Javob yo'q (15)	
Bir manzilda doimiy yashash	<1 yil (0)	1-2 yil (15)	2-4 yil (35)	>4 yil (50)	Javob yo'q (0)
Bir ish joyda	<1 yil (5)	1-2 yil (20)	2-4 yil (50)	>4 yil (70)	Pension er (70)

Qarz oluvchilarni kompleks tahlil qilish modeli "Olti SI" qoidasi, CAMPARI, PARTs, tahlilining baholash tizimi kabi modellarini o'z ichiga qamrab olib, mazkur modellar quyidagicha tasniflanadi: AQShda mijozning kreditga layoqatligini baholash va kreditni qaytarish qobiliyatini aniqlashda minimal 6 "S" nomini olgan usuldan foydalaniladi. Bu usul asosida mijoz faoliyatini baholashning quyidagi mezonlari yotadi (31-jadvalga qaralsin).

Bu usul bo'yicha mijozning qarzni to'lashga bo'lgan mas'uliyati va tayyorgarligi tekshiriladi. Dastavval, bank mijozning o'tmishda o'z majburiyatlariga qanday munosabatda bo'lganligi; qarzlarni to'lashda qanday kamchiliklar bo'lganligi; kreditlanuvchi subyektning iqtisodiyotda, bozorda qanday mavqega va obro'ga ega ekanligini tekshiradi. Bunda bank qarzdor bilan suhbat olib boradi, uning kredit tarixini, mijoz to'g'risida materiallarni o'rganadi, boshqa firma va banklar bilan maslahatlashadi.

44-jadval

Kreditlashning asosiy olti qoidasi ("Olti C" qoidasi)

Kreditlashning asosiy olti qoidasi asosida o'rganish obyektlari va rasmiylashtiriladigan hujjatlar					
Xarakter	Huquq	Pul mablag'lari	Ta'minot	Sharoit	Nazorat
Mijozning kredit tarixi	Mijozning va kafolatchilar-ning haqiqiyliigi	O'tgan yillardagi foyda, sotish hajmi va dividendlar	Aktivlarga egalik huquqi	Mijozning tarmoqdagi o'rni va bo-zordagi kutilayotgan ulushi	Bank faoliyatiga oid qonunlar va kreditning sifati va xarakteriga qo'yilgan talablar
Boshqa kreditorlar-ning ushbu mijoz bilan ish tajribasi	Nizom, qarorlar, kelishuvlar va mijozning yuri-dik statusini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar	Rejalashtirilgan pul oqimlarining yetarliligi	Aktivlarni ishlatish muddati	Tarmoqda faoliyat ko'rsatayotgan boshqa korxonalar bilan mijoz faoliyatini taqqoslash	Nazoratchilar uchun tegishli hujjatlar
Kredit maqsadi	Ish tarixi, korxonaga egalaringning yuri-dik statusi, bajarilayotgan operatsiyalar, mahsulot, asosiy mijozlar va ta'minotchilar bayoni	Likvid zaxiralarning mavjudligi	Ma'naviy eskirish ehtimoli	Mijoz va tarmoqning texnologik va iqtisodiy vaziyatning o'zgarishiga sezuvchanlik darajasi	Kredit olish uchun tuzilgan hujjatlarning to'g'riligi va qarzni tan olish yuzasidan imzolangan hujjatlar
Biznes – reja tuzishda mijoz rejasi		Debitorlik va kreditorlik qarzlarni to'lash muddatlari, aylanma mablag'larning aylanishi	Aktivlarning qoldiq qiymati	Mahsulotning raqobatbardoshligi	Bank kredit siyosatiga kredit buyurtmasining mosligi

Angliya banklarida mijozning kreditga layoqatliligini aniqlashda savollar varag'i mavjud. Savollarga javoblar bankka kredit berish qarorini qabul qilishga imkon beradi. Quyida shunday savol-varaqning namunasini keltiramiz.

Avvambor, qarz oluvchi (borrower)ga ta'rif beriladi.

Uning oilasi, obro'-e'tibori, sofdilligi, bankka tanishligi, bank bilan munosabatlari.

Boshqaruv tarkibi malakasi – ma'lumoti, mutaxassislik bo'yicha staji, boshqara olish qobiliyati.

To'lovga qobiliyati – to'lov intizomiga rioya qilish, biznes talablariga resurslarning mosligiga e'tibor beriladi. Keyin esa quyidagi asosiy ko'rsatkichlar tekshiriladi:

- **Purpose** (kredit maqsadi). Qonuniyligi, bank kredit siyosatiga to'g'ri keladimi v.b.;

- **Amount** (kredit summasi) kredit summasini hisoblashda aniqlik. Tasdiqlovchi hujjatlar mavjudmi? So'ralgan summa yetarli, kam yoki ko'pligi.

- **Repayment** (qaytarish) – Kredit qachon qaytariladi? Qaytarilish grafigi mavjudligi. Qaytarilish manbasi – kelajak daromadlari, qisqa muddatli kreditlar, aktivlarni sotish. Qarz oluvchi pul oqimlarini boshorat qilish.

- **Viability** (kreditlanayotgan loyihaning realligi) – Mazkur kredit qanchalik zarur? Texnik-iqtisodiy asoslar bajarilganmi? Mazkur kompaniya hisob varaqlari tahlil qilinganmi? Qarz oluvchi balansi baholan-ganmi?

- **Risks** (risklar). Bank va kompaniya uchun risklar manbalarini mu-jassamlangligi riskning oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish mumkinmi?

- **Security** (ta'minlanganlik). Ta'minot taqdim etilmoqdami? U mavjudmi? Garovlarning sug'urta polislarini tekshirish. Garov qiymati qanday? Garovni qayta baholash bo'lib o'tadimi, qachon?

- **Prositability** (foydalilik) – Kredit shartnomasida daromad va xa-rajatlar aniq ta'riflanishi lozim. Foiz darajasi bank tortilgan riskka mos keladimi? Foiz darajasi xarajatlarni qoplaydimi?

Yuqoridagilarni o'zida ifoda qiluvchi "**Parts**" nomli qarz oluvchi qobiliyatini tahlil qilish usuli keng tarqalgan bo'lib, unda:

- **Purpose** - kreditning maqsadi;

- **Amount** - ssudaning hajmi;

- **Repayment** - qarzni to'lash;

- **Term** - muddati;

- **Security** - ssudaning ta'minlanganligi kabilar tahlil qilinadi.

Kreditga layoqatlilikni aniqlashning CAMPARI usuli quyidagicha tasniflanadi:

C – Character – reputatsiya, mijozning tavsifi;

A – Ability – kreditni qaytarishga qobillik;

M – Margin – marja, daromadlilik;

P – Purpose – kreditlarning maqsadli yo'nalishlari;

A – Amount – kredit miqdori (hajmi);

R – Repayment – kreditni qaytarish shartlari;

I - Insurance – ta'minlanganligi, kreditlarni qaytarmaslik riski sug'urtasi.

AQSh va qator g'arb mamlakatlarida mijozning kreditga layoqatliligini tahlil qilishda banklar uchun maxsus huquqiy norma va qonunlar mavjud. Mijozlar hisobotlarining banklar tomonidan tahlil qilinishi ikki xil ko'rinishga ega: ichki va tashqi. Tashqi tahlil shu qarz oluvchi faoliyatini boshqalar bilan solishtirishdan iborat. Ichki tahlil esa moliyaviy hisobotlarning turlicha qismlarini ma'lum vaqt oralig'ida solishtirishdan iboratdir.

Xorijiy davlatlar amaliyotida mijozning pul oqimi chuqur tahlil qilinadi.

Pul oqimi mijozning o'z xarajatlarini qoplash va qarzlarni o'z resurslari hisobidan to'lash qobiliyatining o'lchamidir.

Bunday tahlil turlicha olib boriladi, jumladan, bu maqsadda qarz oluvchining pul mablag'larining harakat hisobotidan foydalanishi mumkin.

Buning uchun mijoz pul mablag'larining harakati haqidagi hisobot tuziladi va u mijoz kelajakda moliyaviy aktivlarning o'sishi uchun o'zini pul mablag'lari bilan ta'minlay oladimi, qarz oluvchi faoliyatining o'sish sur'ati, tashqi manbalardan moliyalashtirish zarur bo'lgan miqdor, qarz oluvchi keyingi investitsiyalashdan paydo bo'lgan qarzini qoplash uchun ortiqcha pul mablag'lariga ega bo'ladimi degan savollarga javob berishiga imkoniyat beradi.

Bank amaliyotida mijozning kreditga layoqatliligini tekshirishning to'g'ri va egri usullari mavjuddir.

To'g'ri usullardan kam foydalaniladi. Bunda mijoz tomonidan to'plangan ballar, u olishga haqli bo'lgan ssuda summasiga tenglashtiriladi.

Egri usullar esa juda keng tarqalgan. Uning mazmuni turlicha baholash ko'rsatkichlariga ma'lum ballar berishdan iboratdir. Buning natijasi bo'lib mijozning kreditga layoqatliligining sinfini aniqlash xizmat qiladi. O'z-o'zidan ayon bo'lib turibdiki, mijozning kreditga layoqatliligini baholashda ballar tizimidan foydalanish - eng obyektiv va iqtisodiy asoslangan qarorlarni qabul qilish jarayonidir. Yagona muammo shundan iboratki, bunda mijozning kreditga layoqatliligini baholash bo'yicha axborotlarning yangilanishi talab qilinadi, bu esa o'z navbatida bank uchun juda qimmatga tushishi mumkin. Shuning uchun uncha katta bo'lmagan banklar, odatda, axborot bazasining cheklanganligi va ko'p xarajatligi tufayli mijozning kreditga layoqatliligini tahlil qilishda "koeffitsiyentlar" usulidan foydalaniladi.

Unda ko'rsatilishicha to'lovga layoqatli bo'lgan ixtiyoriy qarz oluvchiga kredit berish mumkin. AQSh kongressi "Teng kredit olish imkoniyati to'g'risida"gi (ECOA) – Equal Credit Opportunites Act) qonunni qabul qilgan. Bu qonunga muvofiq kreditorlar tomonidan kredit qarz oluvchilarning yoshi, oilaviy ahvoli, jinsi, dini va millatiga qarab ajratilmasligi kerak. Kredit haqiqatda mijozning kredit to'lay olish qobiliyatiga qarab ajratilishi lozimligi ko'zda tutilgan.

Mijozning to'lovga layoqatliligini aniqlashda va bank tomonidan anketa to'ldirishda asosiy mezonlarni belgilaydigan boshqa bir yuridik hujjat AQSh FRT tomonidan qabul qilingan "V" yo'riqnomasidir. Bu yo'riqnomada qaysi ma'lumotlar mijozni to'lovga layoqatliligini aniqlashda balli tizim qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatilgan, mijozga qarshi ishlatiladigan ma'lumot yig'ishdagi cheklovlar ham ko'rsatib o'tilgan.

Masalan, qarz oluvchi majburiyatlari bo'yicha javobgarligidan qat'i nazar o'z oilasi haqida anketaga ma'lumot yozishi kerak.

Kreditorlar esa kredit olish uchun arizani olganlaridan keyin 30 kun mobaynida mijozning kredit olish imkoniyati haqida unga xabar qilishi kerak.

Mijozlarning kreditga layoqatligini tekshirishning boshqa usullari ham mavjud. Mijozning kreditga layoqatliligi asosida mijozning faoliyatini xarakterlaydigan zarur axborotlarni yig'ish yotadi.

Ba'zi davlatlarda mijozning kuchli va kuchsiz tomonlari, uning imkoniyatlari va riskini aniqlashda "SWOT" (**S** – **strong**, **W** – **weak**, **O** – **opportunities**, **T** – **threat**) metodidan foydalanadilar. Bunda mijozning to'lovga layoqatliligining asosiy mezonlari:

- qarz olish uchun ariza beruvchilarning kuchli tomonlari;

- qarzdorning kuchsiz va bo'sh tomonlari;
- qarz oluvchining muvaffaqiyati uchun qaysi omillar muhimligini aniqlash;

- kredit berishdagi risk darajasi kabi ko'rsatkichlar o'rganib chiqiladi .

Ko'pgina g'arb mamlakatlarida mijozlarning to'lovga layoqatligini baholash quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- Personal capacity - qarz oluvchining shaxsiy fazilatlarini (odilligi, maqsadining jiddiyligi, yaxshi ishchi sifatida tavsifi v.b.);

- Revenues – mijoz daromadi, oilaning yalpi daromadi tahlili. Bunda mijozning kreditni qoplash xarajatlari uning oylik daromadlarining 1/3 qismidan oshmasligi kerak.

- Material capacity – ssudaning ta'minlanishi, mijozning ko'chmas va boshqa mulklari tahlili.

Ko'pincha mijozning pul oqimlari to'g'risida ma'lumot talab qilinadi.

Pul oqimi (cash flow) – bu mijozning xarajatlarini va majburiyatlarini qoplash uchun xususiy resurslarining yetariligi yoki yo'qligini o'lchaydi.

Rivojangan mamlakatlarda mijozni kreditlashning muhim jihati kredit berish jarayonining (yuridik va jismoniy shaxslarga) markazida inson turadi. Masalan, Germaniyada qanday kredit olishdan qat'iy nazar, qarz oluvchi o'zining shaxsiy fazilatlarini va to'lovga layoqatligini to'g'risida bir qator hujjatlarni bankka berishi lozim.

Kredit berish jumbog'ini yechishda **Germaniya banklarini** qiziqtiradigan muammolar quyidagilardan iborat:

- Tadbirkorning shaxsiy xarakteri: xulq-atvori, qiliqlari, tashqi ko'rinishi, odati, ta'sirchan talaffuzi, odillik darajasi (iqtisodiy va moliyaviy holati to'g'risida ochiq so'zlashi), yoshi, oilaviy holati, jamoat ishlarida o'rni, mansabi va xobbisi.

- Umumiy ma'lumoti: o'quv yurtini tugatganligi to'g'risidagi diplom nusxasi, malakasi, riskka qo'l urishi, iqtisodga qiziqishi, rejalashtirish qobiliyati.

- Jismoniy holati: sog'lig'i holati (oldingi kasalliklarini hisobga olgan holda), sport bilan shug'ullanishi.

- Texnik bilim saviyasi: maxsus o'quv yurti, tajribasi, ishga ixtisoslashuvi.

- Mulki: tashkilot ishlarida qatnashish darajasi, shaxsiy mulki, ko'chmas mulkka egalik qilishi, daromadning boshqa manbalari,

korxonada daromadidan shaxsiy foydasi, shaxsiy qarzlari, soliq majburiyatlari, oila aʼzolarining mulkiy holati, musobaqalarda ishtiroki.

Savollarga javoblar bank boʻlimida suhbat, telefon yoki anketani toʻldirish orqali aniqlanishi mumkin.

Nemis banklarida mijozning toʻlovga layoqatliligini baholashda arizaning “Oylik daromad hisobi” boʻlimi asosiy oʻrin egallaydi.

Hozirgi vaqtda Germaniyadagi barcha tijorat banklari individual shaxslarga berilgan ssudalar toʻgʻrisida Bundes bankning maxsus departamentiga maʼlumot berishlari shart. Bu bankning shu sohadagi faoliyatini nazorat qilishga imkoniyat yaratib beradi.

Fransiya va Belgiyada tijorat banklari Markaziy bankdan individual ssudalarni toʻlamaydiganlar haqida maʼlumot olish huquqiga ega. Lyuksemburda bank sirini saqlash zaruriyati tufayli bu huquq ishlatilmaydi. Lekin mijozning, masalan, jamgʻarma depozitini ssuda olingan bankka koʻchirish imkoniyati berilgan. Bulardan tashqari mijoz kreditni toʻlay olmasa, bankka uning maoshidan kredit summasini akseptsiz shaklida undirib olish huquqi berilgan.

Bular bilan bir qatorda mijoz obroʻsini baholash ham juda muhimdir. Buni baholashning bir yoʻli – **kredit skoring** yoʻlidir. Skoringni (ochko, ball yigʻish) har bir bank holati, vaziyatiga qarab oʻzlari ishlab chiqadilar.

Skoring - «scoring» - inglizcha ” **score**” soʻzidan olingan boʻlib, ochko yoki ballarni hisoblash degan maʼnoni bildiradi. Banklar faoliyatida esa skoringga kredit berish boʻyicha qaror qabul qilishning asosi, kreditlar boʻyicha risklarni baholash tizimining usuli sifatida qarash mumkin. Yanada aniqroq qilib aytganda, skoring bank tomonidan qator kompleks koʻrsatkichlar va statistik usullar asosida kredit oluvchi mijozning kreditga va toʻlovga layoqatliligiga baho berish orqali, uning kreditni toʻlay olish yoki olmaslik ehtimolini aniqlashdan iborat. Skoring baholash kompyuter dasturi orqali amalga oshirilib, u mijoz turmush tarzi va faoliyatining turli tomonlarini oʻzida aks ettiruvchi bir necha xil tasniflarni oʻzida mujassamlashtirgan matematik model va usullar majmuasi hisoblanadi. Skoringning ishlash prinsipi shundaki, mijoz tomonidan toʻldirilgan anketa maʼlumotlari asosida u toʻgʻrisida maʼlumotlar yigʻiladi. Mijozning bank xodimi tomonidan ishlab chiqilgan anketa savollariga bergan javoblarining har biri aniq ballar bilan baholanadi. Baholash mijozning kredit tarixi va

anketaviy statistik ma'lumotlari asosi kreditni qaytara olish ehtimoli bo'yicha matematik hisob-kitoblar hisoblanadi. Va ularning yig'indisiga qarab mijozga kredit berish yoki bermaslik bo'yicha qaror qabul qilinadi.

Mijoz ballarining yuqori bo'lishi uning kredit olish imkoniyatini oshiradi, aksincha, uning kredit olish imkoniyati kam bo'lishi ham mumkin. Mijozning kreditga layoqatliligini baholash bo'yicha skoring usuli, avvalo, AQShda, keyinchalik Yevropa davlatlari banklari amaliyotida qo'llanilgan bo'lsa, bugungi kunda MDH davlatlaridan Rossiyaning ko'pgina banklari, mikromoliyalash tashkilotlari o'z faoliyatiga bu usulni joriy qilmoqda. Mijoz faoliyatini skoring usulida baholash banklar tomonidan iste'mol kreditlari ajratishda ancha qo'l kelganligi sabab, skoring ilk bor jismoniy shaxslarning moliyaviy holatiga baho berishda, keyinchalik yuridik shaxslar faoliyatini baholashda qo'llanilgan.

Skoring baholash tizimining tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, skoring ilk bor 1936-yilda Xans Fisher (1881-1945-yy.) tomonidan o'simliklar dunyosida ularni qiyosiy ta'riflab, guruhlariga tasniflash uchun qo'llanilgan usul hisoblanadi. 1940-yillarda amerikalik iqtisodchi Devid Dyuran bu usulni kreditlarni tasniflashda qo'llab, ularni "yaxshi" va "yomon" kreditlarga ajratgan va *bu usul - kredit skoring (credit scoring)* usuli nomini olgan. 1950-yilning boshida San-Fransiskoda skoring bo'yicha birinchi Fair Issac nomli konsalting firma ochilgan bo'lsada, skoring tizimi bo'yicha mijozlarning faoliyatini baholash kredit kartalar muomalaga kiritilgandan keyin rivojlana bordi va u nafaqat mijozning moliyaqiy ahvoli, balki kredit riski darajasini ham baholash usuliga aylandi.

Devid Dyuran mijozga kredit ajratishda nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarga, balki uning ijtimoiy hayot ko'rsatkichlariga ham e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi hamda kredit olmoqchi bo'lgan subyektlarning ijtimoiy hayot ko'rsatkichlari, mijozning kreditga bo'lgan ehtiyoji va uni o'z vaqtida qaytarishi borasidagi mas'uliyati o'rtasida korrelyatsion bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Skoring baholashda mijoz faoliyatiga nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar asosida, balki ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha ham baho berilishi, kredit skoringni kreditga layoqatliligini baholashning boshqa tizimlaridan

ajratib turadi. Ijtimoiy ko'rsatkichlar qatoriga, odatda, xorijiy banklar amaliyotida mijozning yoshi, jinsi, kasbi, mijozning daromadi va oilasining umumiy daromadi, oila a'zolari, bolalari soni, uning qaramog'idagi oila a'zolarining soni, ko'char va ko'chmas mulkning mavjudligi, yashash joyi va muddati, bankdan olgan kreditlari, kredit kartochkalari, ish joyi va staji va boshqalar kiritilishi mumkin.

1937-yilda AQShda buyuk depressiya vaqtida Devid Dyuran o'zining Risk Elements in Consumer Installment Financing nomli tadqiqodida 37 firma tomonidan taqdim etilgan 7200 kredit qarzlarni "yaxshi" va "yomon" kredit tarixlarga tasniflagan. Bunda D.Dyuran "xi-kvadrat" (chi-square) ko'rsatkichidan foydalangan va mijoz faoliyatiga oid bo'lgan ia'lumotlar asosida uning faoliyatining risk darajasini aniqlagan va samaradorlik indeksini ishlab chiqqan. D.Dyuran kredit skoring modelini ishlab chiqishda mijoz faoliyatiga oid quyidagi koeffitsiyentlarni qo'lladi:

- yoshi: 20 dan yuqori bo'lgan mijozga har bir yil uchun 0,1 ball (maksimum- 0,30);

- jinsi: Ayol – 0,40; erkak – 0;

- yashash muddati: belgilangan aniq bir joyda yashagan har bir yili uchun 0,042 ball (maksimum – 0,42);

- ish: korxonada va tashkilotlarda ishlashi – 0,21 ball, boshqa sohalarda – 0 ball;

- kasbi: kichik risk bilan bog'liq kasb uchun – 0,55, yuqori riskdagi kasb uchun – 0, va 0,16 – boshqa kasblar uchun;

- bandligi – 0,059 – bir korxonada ishlagan har bir yili uchun (maksimum – 0,59);

- moliyaviy ko'rsatkichlari: 0,45 – bankda hisob raqami va mablag'lari mavjudligi uchun; 0,35 – ko'chmas mulkka egaligi uchun, 0,19 – hayoti sug'urta polisi uchun va h.k.

Bu koeffitsiyentlarni qo'llash bilan Devid Dyuran "yaxshi" va "yomon" mijoz o'rtasidagi chegarani 1,25 ball deb oldi. 1,25 balldan yuqori balli mijozlar kreditga layoqatli hisoblangan, bundan kam ball yig'ganlar esa kreditga va to'lovga layoqatsiz deb topilgan.

Kredit skoring mijozning kreditga layoqatlilikini baholashning zamonaviy usullaridan bo'lib, rivojlangan davlatlar amaliyotida keng

qo'llaniladi. Bugungi kunda skoring nafaqat moliyaviy holat yoki kredit risk darajasini, balki marketing kuzatuvlari olib borish, mijoz harakatlarini monitoring qilish, qarzdorlar bilan ishlash va boshqa sohalarda ham keng qo'llanilmoqda.

Mijozning kreditga layoqatliligini baholashda skoringdan foydalanish kredit ajratish bo'yicha qarorning tez qabul qilinishiga zamin yaratadi hamda kredit olish jarayonini maksimal darajada tezlashtiradi, kredit olish bo'yicha ma'lumotlarga ishlov berish to'liq avtomatlashtirilganligi bois, bu jarayonlarga inson omilining ta'siri minimallasadi. Bank xodimi va mijozning vaqti tejaladi, kredit olish va uning ta'minlanganligi bilan bog'liq hujjatlashtirish jarayonlari va soni qisqaradi. Shuningdek, kredit skoringda ta'minot masalasining dolzarbligi kamayadi, mijozlarning faoliyati va kredit tarixida shaffoflik shakllanadi. Bularning barchasida kredit va kreditlash jarayoni bilan bog'liq risk darajasi kamayadi.

Skoringning bir necha turlari bo'lib, ular nafaqat mijozning kreditga layoqatliligini baholashda, balki mijoz kredit olgandan keyin uning moliyaviy holatiga qarab kreditning qaytarilishi holati to'g'risida ham ma'lumot berishi mumkin. Shundan kelib chiqib, banklar o'z amaliyotida skoringning u yoki bu turini ko'proq qo'llashi mumkin.

45-жадвал

Skoring model turlari

Application Scoring	Kredit berishda mijozning kredit buyurtmasini birlamchi ko'rib chiqish bosqichidagi skoring
Behavioral Scoring	Kredit portfeli yoki alohida kreditni boshqarish bo'yicha qaror qabul qilish bilan bog'liq faoliyat yoki xatti-harakat skoringi
Collection Scoring	"Yomon" mijoz mavqeyidagi mijozlar bilan ishlash bo'yicha ustuvor yo'nalish va chora-tadbirlarni aniqlash skoringi
Fraud Scoring	Qarz oluvchi mijozlar tomonidan yo'l qo'yiladigan turli firibgarlik harakatlarini aniqlash va ularning oldini olish jarayonlari skoringi

Mijozga kredit berishda, uning kreditga layoqatliligini baholashda qo'llaniladigan - **application scoring** (buyurtma yoki murojaat skoringi). Skoringning bu turi keng tarqalgan bo'lib barcha banklar, mikromoliyalash tashkilotlari amaliyotida keng qo'llaniladi. Unda qarz oluvchi tomonidan to'ldirilgan birlamchi anketa ma'lumotlari yig'iladi

va kompyuter vositalarida ularga qayta ishlov berilib, mijozga kredit berish yoki bermaslik to'g'risida xulosa shakllantiriladi. Bu usulning mijoz uchun ijobiy tomoni shundaki, mikromoliyalash tashkilotlardan kreditlar olishda mijoz "onlayn" tizimida internet orqali ham kredit olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Skoringning keyingi turi kredit shartnoma shartlariga asoslangan – **collection scoring**dir. Bu tizimda vaqtida bankka qaytarilmagan – muammoli kreditlarni bankka qaytarish yoki qoplash bo'yicha bank xodimlarining chora ko'rish yo'nalishlari, kelajak rejalarini aniqlash va amalga oshirishga ustuvorlik beriladi.

Skoringning yana bir turi **behavioral scoring** "xatti-harakat skoringi" bo'lib, unda qarz oluvchining ma'lum bir davrda qabul qiladigan va amalga oshirgan qarorlari, moliyaviy harakatlari, pul oqimi va boshqa harakatlari asosida uning moliyaviy holatining o'zgarishi ehtimoli baholanadi, ya'ni kredit reytingi o'rnatiladi. Bu tizim mijozning moliyaviy holatidagi kutilayotgan o'zgarishlar, uning to'lovga layoqatlilik darajasining o'zgarishi istiqbollaridan kelib chiqib kredit munosabatlarini qayta ko'rib chiqish, kredit bo'yicha o'rnatilgan limitni o'zgartirish (kamaytirish yoki oshirish) borasida qarorlar qabul qilish yoki mijozga qo'shimcha xizmatlar paketini taklif qilishga asos bo'la oladi. **Fraud scoring** deb nomlangan skoring turida mijoz faoliyatida turli firibgarlik harakatlari bor-yo'qlik ehtimoliga statistik baho beriladi.

Skoring baholashda juda zarur va muhim bo'lgan omillar, ko'rsatkichlar, ikkinchi darajali hisoblangan ko'rsatkich va omillarni aniqlash ushbu tizimning asosini tashkil etadi. Masalan, Angliyada skoring tizimda mijozning yoshi, oila a'zolari, bolalari soni, ish joyi, u yerda necha yildan buyon ishlayotganligi, kasbi va daromadi, turmush o'rtog'i, uning kasbi, ish joyi va daromadi, uy-joyi, uning qiymati, yashash hududi va u yerda necha yil yashayotganligi, necha yildan buyon mazkur bankning mijozli ekanligi, telefoni, kredit karta, chek daftarchalarining mavjudligi va boshqalar inobatga olinadi. AQShda FICO (Fair Isaac Corporation) tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan skoring ballari mashhur bo'lib, uning qiymati 300 ball dan 850 ballgacha bo'lgan intervalda baholanadi. Bunda qarz oluvchining moliyaviy holati quyidagi shkaladagi ballar bilan baholanadi:

690 ball dan - 760 ball va undan yuqori bo'lsa - a'lo;

650 ball dan - 690 ballgacha o'rtacha standart daraja;

640 ball dan - 650 ballgacha yaxshi deb baholanishi va kredit ajratilishi mumkin. FICO bahosi quyidagi asosiy besh omil, ya'ni

to'lovlar tarixi – (35 %), qarz majburiyatlari (30 %), kredit tarixi va uning muddati (15 %), kredit olishga berilgan buyurtma yoki talab (10 %), bankda mavjud hisob varaqlar va kredit turlari (10 %) ta'siridan kelib chiqib shakllanadi.

Skoring bo'yicha aniqlangan baho - bu doimiy ko'rsatkich bo'lmaganligi bois uning miqdori o'zgarib turadi. Bu mijozning faoliyatiga, bankning mijoz to'g'risida yangi ma'lumotlarga ega bo'lishiga bog'liq. Mijoz faoliyatiga berilgan skoring bahoning past yoki yuqori bo'lishi – unga kredit berish yoki bermaslik hamda mijozning kreditni qaytara olishi yoki qaytara olmasligi to'g'risida qaror qabul qilishiga, kredit riski ko'lamini baholashga asos bo'ladi. Masalan, xorijiy banklar amaliyotida demografik skoring tushunchasi ham bo'lib, mijozlarning 35-40 yoshdagilari skoring bahoning yuqori bo'lishiga zamin yaratadi. O'z uy-joyiga ega bo'lishi skoring ko'rsatkichni yanada oshirsa, mijoz yoshining ulug' bo'lishi, oilada farzandlarning yoki qaramog'ida odamlarning ko'p bo'lishi skoring ballarining pasayishiga olib keladi va h.k.

Skoring tizimi bo'yicha mijoz faoliyatini baholash avtomatlashtirilgan bo'lganligi uchun u operatsion risk va xarajatlarni kamaytiradi, kredit buyurtmani ko'rib chiqish vaqtini qisqartiradi, bank faoliyatini kredit siyosati talablaridan kelib chiqqan holda tashkil qilishga yordam beradi. Skoringning ijobiy tomonlari bilan birgalikda ba'zi kamchiliklari ham mavjud.

Yuqoridagi ma'lumotlardan shuni ko'rish mumkinki, skoring usuli bo'yicha kredit ajratishda uning kamchiliklaridan ko'ra ijobiy tomonlari va qulayliklari ko'proq.

Xorijiy davlatlarda har bir bank mijozning moliyaviy holati, kreditga layoqatliligi, uning o'z majburiyatlarini to'lay olish qobiliyati, faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar darajasi, ularni qoplash olish imkoniyati va boshqa baholovchi ko'rsatkichlar tizimi asosida skoringni o'zi ishlab chiqadi. Shuningdek, har bir bankda skoring ballarni kamaytiruvchi, binobarin, kredit olish ehtimolini pasaytiruvchi “stop”signallar ham mavjud. Bular:

- tez-tez ish joyini o'zgartirish;
- ko'p bolalaik yoki qaramog'ida ko'p a'zolar bo'lgan oilalar;
- juda yosh yoki keksa yoshdagi mijozlar;
- keyingi paytlarda mijozning banklarga tez-tez murojaat qilishi;

- ba'zi mijozlarning faoliyat turlari, masalan, taksi haydovchilar, rieltorlar, ijtimoiy soha xodimlari, ish haqi sotuv hajmiga bog'liq bo'lgan menejerlar;

- tashqi ko'rinishiga e'tiborsiz, o'zini talab darajasida tutmaydigan insonlar v.b.

Skoring baholash kredit munosabatlarining ikkala subyekti bank uchun ham, mijoz uchun ham foydali tizimdir. Bank uchun kredit bilan bog'liq yo'qotishlarning oldini olsa, mijoz hech qanday qiyinchiliklarsiz, tezkor kreditni olish, undan foydalanish va to'lash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kredit skoring modeli birinchi bo'lib, amerika iqtisodchisi D.Dyuran tomonidan 1940-yillar boshida ishlab chiqilgandi. U ball hisoblashda quyidagi koeffitsiyentlarni qo'lladi:

- yoshi: 20 dan yuqori bo'lgan har bir yil uchun 0,1 bal (maksimum-0,3);

- jinsi: ayol – 0,4; erkak – 0;

- yashash muddati: berilgan joyda yashagan har bir yili uchun 0,042 ball (maksimum – 0,42);

- kasbi: kichik riskdagi kasb uchun – 0,55, yuqori riskdagi kasb uchun – 0, 0,16 – boshqa kasblar uchun;

- bandligi – 0,059 – bir koorxonada ishlagan har bir yili uchun (maksimum – 0,59);

- moliyaviy ko'rsatkichlari: 0,45 – bankdagi mablag'lari uchun; 0,35 – ko'chmas mulkka egaligi uchun, 0,19 – hayoti sug'urta polisi uchun va h.k.

Bu koeffitsiyentlarni qo'llash bilan Dyuran “yaxshi” va “yomon” mijoz o'rtasidagi chegarani 1,25 ball deb oldi. 1,25 balldan yuqori balli mijozlar kreditga layoqatli hisoblangan, bundan kam ball yiqqanlar esa kreditga layoqatsiz deb topilgan.

Kredit skoring modeli birinchi bo'lib, Amerika iqtisodchisi D.Dyuran tomonidan 1940-yillar boshida ishlab chiqilgandi. U ball hisoblashda quyidagi koeffitsiyentlarni qo'lladi:

-yoshi: 20 dan yuqori bo'lgan har bir yil uchun 0,1 bal (maksimum-0,3);

-jinsi: ayol – 0,4; erkak – 0;

-yashash muddati: berilgan joyda yashagan har bir yili uchun 0,042 ball (maksimum – 0,42);

-kasbi: kichik riskdagi kasb uchun – 0,55, yuqori riskdagi kasb uchun – 0, 0,16 – boshqa kasblar uchun;

-bandligi – 0,059 – bir korxonada ishlagan har bir yili uchun (maksimum – 0,59);

- moliyaviy ko'rsatkichlari: 0,45 – bankdagi mablag'lari uchun; 0,35 – ko'chmas mulkka egaligi uchun, 0,19 – hayoti sug'urta polisi uchun va h.k.

Bu koeffitsiyentlarni qo'llash bilan Dyuran “yaxshi” va “yomon” mijoz o'rtasidagi chegarani 1,25 ball deb oldi. 1,25 balldan yuqori balli mijozlar kreditga layoqatli hisoblangan, bundan kam ball yiqqanlar esa kreditga layoqatsiz deb topilgan.

Hozirda AQSh banklari individual shaxslarni kreditlashda turli yondashuvlar ishlab chiqmoqdalar. Har bir bank o'zining xususiy tizimi orqali mijozlarning kreditga layoqatligini baholashmoqda. Ko'pgina Amerika banklari o'z amaliyotida mijozlarning kreditga layoqatligini baholashda ikki xil usuldan foydalanadilar:

- mijozni bank talablari yuzasidan tekshirib chiqadi va kredit berish yoki bermaslikni hal qiladi;

- kreditga layoqatlilikni baholashda ball tizimi, matematik korrelyatsion tahlil va omillar tahlilidan foydalaniladi.

Banklar mijoz balansining moddalari va bo'limlari orasidagi turli proporsiyalarni ta'riflovchi boshqa moliyaviy koeffitsiyentlarni ham hisoblaydi. Bu koeffitsiyentlarning me'yoriy kattaliklarini belgilaydilar va mavjud kattaliklarni ular bilan solishtirib, so'ng solishtirish natijalariga ko'ra mijozning kreditga layoqatligi hisoblanadi. Har bir koeffitsiyentga (uning normativga yaqinligiga), berilgan ballar yig'indisiga qarab mijozning moliyaviy holati yuqori, o'rta yoki past guruh likvidlik bo'yicha ajratiladi. Mijozning reytingi bo'yicha qaysi guruhga mansubligiga qarab bank kredit talablarini susaytirishi, kuchaytirishi yoki umuman kreditlashni rad etishi mumkin. Koeffitsiyentlarning me'yoriy chegarasi turli tarmoq, hudud va boshqalardagi korxonalar uchun turlicha bo'lishi mumkin. Bunday baholashlar haqiqatga yaqinroq bo'lishi uchun uzoq muddat orasidagi mijozning moliyaviy ahvolini nazorat qilib borish, o'zgarishning aniq yo'nalishlarini, davrlarini, qonuniyatlarini aniqlovchi xususiy statistik ma'lumot bazasini yaratadilar.

Qarz oluvchi moliyaviy holatini baholash bilan birga bank uning faoliyat jarayonini, ishlab chiqarish, mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan munosabatlarini, korxonaga egalari bilan yollanma

ishchilar o'rtasidagi, boshqaruvchi va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni ham o'rganadi. Shuningdek, bank foydalanilayotgan texnologiyalar, vositalar, ularning yangiligini va raqobatbardoshligini o'rganadi, bozorlarni egallash imkoniyatlari va boshqalarni baholaydi. Keyingi paytlarda, ayniqsa, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda bank mijozlarining ma'naviy-axloqiy sifatlariga tobora ko'p e'tibor berilmoqda. Bu sifatlarning yetarli darajada aniq baholash imkonini beruvchi testlar va uslublar yaratildi.

Ana shunday testlardan biri "qizil signallar tizimi" bo'lib, u xorijiy banklar xodimlarining fikricha mijozlarning ishonchliligini aniqlashga imkon beradi.

"Qizil signallar tizimi" to'g'risida qisqacha to'xtalamiz. Bu tizim qarz oluvchining faoliyatiga baho beruvchi bir necha bo'limlardan iborat:

I. Qarz oluvchi tarixidan signallar:

- Yaqin, o'tmishdagi moliyaviy axvoli yoki noqobilligi.
- Qarz oluvchi ma'lumotlaridagi nomutanosibliklar va qarama-qarshiliklar.

II. Qarz oluvchini boshqarishga doir "signallar":

- Qarz oluvchining ishonchli aloqalari mavjud, hamkorni qidirmoqda.

- Boshqaruvchining past ma'naviy sifatleri.

- Boshqarish uchun xodimlar, oila a'zolari, kompaniya xo'jayinlari orasida kurash.

- Boshqarishdagi tez-tez o'zgarishlar.

- Boshqaruvchining hovliqma xarakteri.

- Boshqaruvchilarning kreditlash jarayonini tezlashtirishga harakat qilishlari yoki aralashishlari.

III. Aylanma aktivlar. Ishlab chiqarish faoliyatini aks ettiruvchi "signallar".

- Mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar qatoridagi farqlar.

- Qarz oluvchining o'z debitorlari ustidan nazorati susayganligi.

- Qarz oluvchining bugungi kunda muammolarni boshidan kechi- rayotgan sohaga tegishliligi.

- Balansining aktiv va passiv moddalari bo'yicha mutanosibligi.

IV. Kreditlashga tegishli "signallar":

- Qarz oluvchi kredit maqsadini aniq ko'rsatmaydi.

- Qarz oluvchida qarzni to'lash bo'yicha aniq dastur yo'q.

- Kreditni to'lash bo'yicha zaxira mablag'lari yo'q.
- Qarz oluvchi maqsadi moddiy ta'minotga ega emas.
- Qarz oluvchining kredit savolnomasi yomon asoslangan.
- Qarz oluvchi bir vaqtning o'zida ham aktivlari, ham umumiy kapitali garoviga ssuda olishni mo'ljallagan.

- Kredit bevosita qiymat tashkil etiluvchi, ishlab chiqarish jayroniga emas, balki muomala sohasiga yo'naltirilgan.

- Kreditni qaytarish muddati to'liq asoslanmagan.

V. Belgilangan normalarda chetlashish "signallari":

- O'z xo'jalik faoliyati bo'yicha hisobot ma'lumotlarini taqdim etish davriyligidagi buzilishlar.

- Bank hisob varaqlarini yuritishdagi normalarda chetlashishlar.

- Kreditlash shartlarining qayta ko'rilishi; kreditni qaytarish sxemasidagi o'zgarishlar; ssudani cho'zish bo'yicha iltimoslar.

- Xo'jalik faoliyati moliyaviy ko'rsatkichlarining rejadani farqlanishi.

- Qarz oluvchining mahorati va hisob tizimlarida chetlanishlar.

Kreditga layoqatlilikni baholash bilan birga bank kreditdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini ham tekshiradi. Buning uchun qarz oluvchining kredit olishdan maqsadini tasdiqlovchi hujjatlar ko'rib chiqiladi. Bank qarz oluvchining maqsadining haqqoniyligini, ularni (talab, taklif, sifat va miqdor, narxi, raqobatchilarning qarshiligi va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha) shakllanayotgan bozor konyunkturasiga mos kelishini baholaydi. Shu bilan birga, bank mijoz kredit so'ragan faoliyat turi bo'yicha daromad va xarajatlarni solishtiradi. Bank kreditdan foydalanish natijasida mijozning o'z xarajatlarini qoplashi va kreditning qaytarilishiga yetarli daromad olishga imkon bo'lishi lozim.

Ana shunday baholashlarga asosan bank kreditni berish (yoki uni rad etish) to'g'risidagi qaror qabul qiladi. Mijozning kreditga layoqatliligiga qarab bank kredit bo'yicha foiz, muddat va summasini o'zgartirishi mumkin. Bu parametr qarz oluvchi bilan muhokama etiladi va kredit shartnomasida belgilab qo'yiladi.

Ko'rib chiqqanimizdek, turli mamlakatlarda kreditga layoqatlilikni aniqlashda turlicha yondashuvlar bo'lsada, ularning asosiy maqsadi bank tomonidan beriladigan kreditlarning samarali ishlatilishi va ularning o'z vaqtida bankka qaytib kelishini ta'minlashdan iborat.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Aylanma aktivlar (mablag'lar)	O'z aylanma mablag'lari
Aylanma aktivlarlarning manbalari	Qisqa muddatli majburiyatlar
O'z mablag'lari	Qoplash koeffitsiyenti
Bank krediti	Likvidlilik koeffitsiyenti
Kreditorlar	Muxtoriylik koeffitsiyenti
Ishlab chiqarish zaxiralari	Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsiyenti
Kreditga layoqatlilik	Aylanma mablag'larning kunlarda aylanishi
To'lovga layoqatlilik	
Likvid mablag'lar	
Guruh likvid aktivlari	Aylanma mablag'lar rentabelligi

O'z bilimini tekshirish uchun savollar

- Kreditga layoqatlilik deganda nimani tushunasiz?
- To'lovga layoqatlilik deganda nimani tushunasiz va uning kreditga layoqatlilikdan farqi nimada?
- Kreditga layoqatlilikning asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlarini keltiring.
- Qoplash, likvidlilik koeffitsiyentlari qanday aniqlanadi?
- Muxtoriylik koeffitsiyenti nimani anglatadi, uning yuqori va past chegaralarini izohlang.
- Kreditga layoqatlilikning qo'shimcha ko'rsatkichlari nima uchun zarur?
- Xorijiy davlatlarda mijozning kreditga layoqatliligini baholashning qanday usullarini bilasiz?
- Mijozning moliyaviy hujjatlari asosida uning kreditga layoqatliligini baholang.
- Kredit olish uchun biznes-reja tuzing va kredit olishni asoslab esse yozing.

IX BOB. KREDITNING TA'MINOTI VA UNING SHAKLLARI

1-§. Kreditning ta'minlanganligi to'g'risida tushuncha

Kredit munosabatlari iqtisodiyotda mavjud aniq uslubiy asoslarga tayanadi. Uning asosiy elementlari bo'lgan ssuda kapitali bozori operatsiyalari ma'lum tamoyillar asosida olib boriladi. Bu tamoyillar kredit munosabatlari rivojlanishining birinchi bosqichida ko'zga tashlangan edi, keyinchalik esa ular umumdavlat va xalqaro kredit qonunchiligida yaqqol o'z aksini topdi. Iqtisodiy kategoriya sifatida kredit qaytib berishlik, kreditning muddatliligi, kreditning ta'minlanganligi, maqsadliligi va to'lovliligi kabi bir necha tamoyillarga ega.

Biz ko'rib o'tmoqchi bo'lgan tamoyil - kreditning ta'minlanganligidir. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik kodeksi", "Ipoteka to'g'risida"gi va "Garov to'g'risida"gi qonunlari kredit ta'minlanganligining huquqiy asoslari hisoblanadi. Bu tamoyil yordamida kreditning iqtisodiyotni rivojlanishida qiymat va moddiy ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlik ta'minlanadi. Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundaki, bunda xo'jalik aylanishida ishtirok etuvchi bank mablag'larining har bir so'miga muayyan miqdorda moddiy boyliklar qarama-qarshi turishi kerak. Banklar tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga berilgan har qanday kreditlar to'liq tovar-moddiy boyliklari bilan yoki ma'lum xarajatlar, xizmatlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Tarmoqlarga ta'minlanmagan kreditlarning berilishi bank kreditlarining bankka qaytib kelmasligiga asos bo'ladi. Bu o'z navbatida bankning likvidligiga va pul muomalasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar tomonidan beriladigan kreditlarning tovar moddiy-boyliklari va xarajatlar, xizmatlar bilan ta'minlangan bo'lishiga alohida e'tibor berilmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, banklar faoliyatidagi eng asosiy muammolardan biri, berilgan ssudalarning qaytarilmasligidir. Ushbu muammoni qisman hal etish, ya'ni mijoz tomonidan kreditni qaytara olmaslik riskini kamaytirish yo'llaridan biri mijoz mulkinging ma'lum qismini berilgan kredit uchun garov sifatida talab qilishdir.

Ta'minlanganlik tamoyilining asosiy maqsadi kreditning qaytib kelishini ta'minlashga qaratilgan. Shu bois bu tamoyil kredit riski va u bilan bog'liq yo'qotishlarning oldini olib, kreditning o'z vaqtida bankka qaytib kelishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining bank qonunchiligi tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar turli shakldagi ta'minlanganlikka ega bo'lishi lozimligini ko'zda tutadi. Kreditning ta'minlanganligi sifatida quyidagilar qabul qilinishi mumkin:

Garov.

Kafillik.

Kafolat.

Sug'urtalash.

O'tkazish (sessiya).

Kreditning ta'minoti sifatida bir yoki bir necha ta'minot shakli qabul qilinishi mumkin. Ta'minotning hajmi va turlari qarz oluvchining moliyaviy ahvoriga, ssudaning hajmiga, qarz oluvchining mavqeyiga, majburiyatlarni o'z vaqtida bajara olish imkoniyati va mas'uliyatiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 259-moddasiga asosan qarzdorning majburiyatlari garov, qarzdorning mulkini ushlab qolish, kafolat, va qonun bo'yicha yoki shartnomada ko'rsatilgan boshqa usul bilan ta'minlangan bo'lishi mumkin. Bu ta'minotning qaysi birini tanlash majburiyat turiga bog'liq Aksariyat hollarda kredit va qarz shartnomasini bajarish bo'yicha garov, kafolat qulay hisoblanadi. Qarz oluvchi kreditning ta'minlanganligi sifatida bir yoki bir necha turdagi ta'minlanganlikni qo'yishi va uni kredit shartnomasida ko'rsatishi mumkin. Kreditning ta'minlanganligi bo'yicha garov kredit shartnoma bilan birgalikda rasmiylashtiriladi va unga, albatta, ilova qilinishi lozim. Shuningdek, Fuqarolik kodeksining 738-moddasida qarz oluvchi qarz summasining qaytarib berilishini ta'minlash yuzasidan qarz shartnomasida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmasa, shuningdek, qarzning ta'minoti qarz beruvchi javobgar bo'lmagan vaziyatlarda yo'qotilsa yoki uning shartlari yomonlashsa, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, qarz beruvchi qarz oluvchidan qarz summasini muddatidan oldin qaytarishni va tegishli foizlarni to'lashni talab qilishga haqli ekanligi ko'rsatilgan.

Jahon amaliyotida bank ssudalarini ta'minlashning o'ta keng tarqalgan turlari-yer, uy-joy, qimmatli qog'ozlar, debitorlik qarzlari

yig'indilari, tegishli hujjatlar bilan birga taqdim etilgan tovarlar, sug'urta polisleri va boshqalar hisoblanadi.

Yer, uy-joy va boshqa ko'chmas mulk ta'minotning ishonchli va muhim obyekti hisoblanadi, ular hech qachon o'z qiymatini to'la yo'qotmaydi. Qimmatli qog'ozlar bank uchun ma'qulroq ta'minlash turi hisoblanadi. Chunki qimmatli qog'ozlarni fond bozorida osongina sotish mumkin, bankda saqlash uchun xarajatlar talab qilinmaydi. Shular bilan bir qatorda, ularni sotish va sotib olishda ortiqcha rasmiyatchilikning yo'qligi qimmatli qog'ozlarning ta'minlanganlik obyekti sifatida ahamiyatini oshiradi. Ayni vaqtda shuni esda tutish lozimki, agar ta'minlanganlik sifatida aksiya olinayotgan bo'lsa, uning kursi keskin tebranishi mumkinligini, kurs pasayganda zarar ko'rish mumkinligini, albatta, inobatga olish lozim.

Debitor qarzdorlik yig'iindisi deganda, bu yerda ochiq hisob varaqlar bo'yicha hisob-kitoblardagi qarzdorlik yig'indisi tushuniladi. Bu pul bankning mijoz jo'natgan tovarlari uchun xaridorlardan olishi lozim bo'lgan puldir. Bu turdagi ta'minlash obyekti jahon amaliyotida keng qo'llaniladi.

Xomashyo, materiallar va tayyor mahsulotlar ko'pchilik davlatlarda, xususan, respublikamizdagi kreditning keng qo'llaniladigan ta'minlanish obyekti bo'lib xizmat qiladi.

Sug'urta qilinuvchi sug'urta kompaniyasiga badal to'lab boradi. Sug'urta muddati tugashi bilan mablag' to'lagan shaxsga qaytarilishi mumkin. Bank sug'urta polisini yig'ilgan badallar yig'indisi miqdorida ta'minlanganlik uchun qabul qiladi.

Ishonchli kreditlar va ularning qaytarilishini ta'minlovchi birdan-bir garov shakli kredit shartnomasi hisoblanadi. Kredit shartnomasi shartlarining bajarilishini kredit ta'minlanganligining sharti sifatida qabul qilish, xorijiy banklar tomonidan cheklangan hajmda, ishonchga sazovor bo'lgan doimiy mijozlarni qisqa muddatda kreditlash jarayonida qo'llaniladi. O'rta va uzoq muddatli kredit berishda ham berilgan kreditlarni sug'urta qilish sharti bilan istisno tariqasida qo'llanilishi mumkin. Odatda, sug'urta qilish, qarz oluvchi hisobidan amalga oshiriladi.

Yaxshi ta'minlangan kreditlar. Bunday kreditlar zamonaviy bank kreditining asosiy turi sifatida ta'minlangan ssudalar hisoblanadi. Ta'minlanganlik sifatida qarz oluvchining har xil shakldagi mulki,

ko'proq ko'chmas mulki va uning ixtiyoridagi qimmatli qog'ozlar, boshqa mulk shakllari bo'lishi mumkin, qarz oluvchi o'z majburiyatlarini bajara olmagan hollarda, ta'minlanganlik asosi bo'lgan mulk bank ixtiyoriga o'tadi va bank uni sotib yetkazilgan zararlarni qoplash huquqiga ega bo'ladi. Bank tomonidan berilayotgan kredit miqdori taklif etilayotgan ta'minlanganlikning o'rtacha bozor narxidan past bo'ladi va mulk bahosi tomonlarning kelishuvchi natijasida aniqlanadi.

Kreditlar sifatli aktivlar bilan, aytaylik, yer yoki hukumatning qimmatli qog'ozlari, ya'ni davlat zayomlari bilan ta'minlangan bo'lsa, u holda ularning foiz stavkasi ta'minlanmagan kreditlarnikiga nisbatan past bo'lishi mumkin. Chunki bunda kreditni qaytarmaslik riski minimallashtirilgan bo'ladi. Xalqaro kreditlar oltin, olmos, platina kabi nodir metallar bilan ta'minlangan bo'lsa, ularning foiz stavkasi sezilarli darajada past bo'ladi.

Kreditning ta'minlanganligi uchun qabul qilinadigan mulk likvidligi yuqori, tez sotiladigan, oldin biror majburiyat bo'yicha garovga qo'yilmagan, korxonaga tegishli bo'lgan mulk bo'lishi lozim.

Bank ssudalarining tovar-moddiy boyliklar bilan to'liq ta'minlanganligi pul muomalasining barqarorligini ta'minlaydi, chunki bank mablag'larining aylanishi, ya'ni pullari naqd pulga va, aksincha, transformatsiyalanib turadi.

Kreditning ta'minlanganligi sifatida kafillik, kafolat, garov va boshqalar qo'llaniladi. Quyida biz shu ta'minlanganlik shakllarini alohida ko'rib chiqamiz.

2-§. Kafillik va uning ahamiyati

Kreditning ta'minlanganligi sifatida qabul qilinib, kredit majburiyatlari bajarilishi ta'minlashning keng tarqalgan usullaridan biri – kafillik hisoblanadi. Fuqarolik kodeksining 292-moddasiga muvofiq kafillik shartnomasi bo'yicha kafil boshqa shaxs o'z majburiyatini to'la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga oladi. **Kafillik** yoki kafolat deganda, uchinchi shaxsning moliyaviy kafolati yoki kafilligi bilan beriladigan ssudalarni tushunish mumkin. Bunda kredit boshqa bir tashkilotning kafolati asosida beriladi. Kafillik beruvchi korxonaga yoki muassasa, agar qarz oluvchi kredit shartnomasida ko'rsatilgan shartlarni vaqtida bajarmasa, shu tufayli

bank ko'rgan zararlarni qoplashga kafillik beradi va faoliyat davomida haqiqatda shunday ahvol ro'y bersa, o'z mablag'lari hisobidan zararni qoplab beradi. Moliyaviy kafillik beruvchi tomon sifatida huquqiy shaxslar, shuningdek, turli darajadagi davlat hokimiyati organlari, jismoniy shaxslar ishtirok qilishlari mumkin. Kafil bank – kreditor o'rtasida kafillik bo'yicha munosabatlarni rasmiylashtirish uchun **kafillik shartnomasi** imzolanadi. Amaliyotda kafillik shartnomasini tuzishning quyidagi holatlari uchraydi:

- bank-kreditor va qarz oluvchi o'rtasida kredit shartnomasi imzolanganidan keyin;

- kredit shartnomasi imzolanishidan oldin.

Bu tez-tez uchrab turadigan holat, bunda bank kreditni berishni rasmiylashtirishni faqatgina qarz oluvchi uchun kafillikni olgandan keyingina amalga oshiradi;

birgalikda, ya'ni kredit shartnomasi bilan birga uch tomonlama kafillik shartnomasini imzolash. Bu hujjatni bank-kreditor, qarz oluvchi va kafil rasmiylashtiradi.

Kafillik shartnomasi **yozma shaklda** tuzilishi kerak. Yozma shaklga rioya qilmaslik shartnomani qonuniy kuchga kirmasligidan dalolat beradi.

Kafillik shartnomasida qaysi majburiyatni bajarish uchun kafillik berilganligini aniqlashga imkon beruvchi shartlar ko'rsatilishi kerak. Kafillik to'liq (kreditning summasi va foizlarini o'z ichiga oluvchi) yoki qisman (masalan, faqat foizlar bo'yicha) bo'lishi mumkin. Shartnomada kafilning o'z majburiyatlarini bajarish bo'yicha tartib va shart-sharoitlari ko'rsatilishi kerak. Kafilning javobgarligi qonun bilan belgilanadi.

Kafillik bilan ta'minlangan qarzdorning majburiyatlarini bajarish paytida kafil va qarzdor, agar qonun yoki kafillik shartnomasi bo'yicha kafilning subsidiar javobgarligi ko'zda tutilmagan bo'lsa, kreditor oldida birgalikda javobgar hisoblanadilar.

Birgalikdagi javobgarlikda kreditor kreditni to'liq yoki qisman qarz oluvchi va kafildan birgalikda qoplashni talab qilishi yoki ularning biridan alohida holda talab qilishi mumkin. Kreditor hamkorlikdagi qarzdorlikning (qarz oluvchi yoki kafil) biridan to'liq qoniqmaganda, boshqa hamkor qarzdordan qoplanmagan qismini talab qilish huquqiga ega.

Kafil kreditor oldida qarz oluvchi kabi xuddi shunday hajmda javobgar bo'ladi, ya'ni foizlarni to'lash, qarzni undirish bo'yicha sud

xarajatlarini qoplash va kreditorning boshqa zararlarini qoplash bo'yicha javobgarlikka ega. Ammo shartnomada kafilning cheklangan javobgarligi kafillik summasini aniqlash yoki kafil to'lovni kafolatga olgan zararning bir qismini aniqlash orqali o'rnatilishi mumkin.

Bank kafil bilan o'z munosabatlarini o'rnatishda, kafillik shartnomasida qarz oluvchi bilan o'zaro javobgarlik to'g'risida ko'rsatma berilmagan bo'lsa, kafil subsidiar javobgarlikni o'ziga oladi. Bunday holda kreditor, birinchi navbatda, qarz oluvchiga qarzni undirish bo'yicha murojaat qiladi, va kafilning javobgarligi faqatgina kredit shartnomasi bo'yicha qarz qoplanmaganda yuz beradi.

Agar asosiy qarzdor kreditorning majburiyatlarini to'liq bajarishni rad etsa yoki kreditor belgilangan muddatda taqdim etilgan talabnoma bo'yicha javob olmasa, bunda talabnoma subsidiar javobgarlikni o'ziga oluvchi shaxsga taqdim etilishi mumkin.

Subsidiar javobgarlikni olgan shaxs (kafil) kreditor tomonidan taqdim etilgan talabnomani bajarishdan oldin asosiy qarz oluvchini bu haqda ogohlantirishi lozim. Agar subsidiar javobgarlikni olgan shaxsga da'vo qo'zg'atilgan bo'lsa, bunday holda u (kafil) asosiy qarz oluvchini bu ishda qatnashishga jalb etadi

Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki, kafil va qarz oluvchi o'rtasida munosabat kafil va kreditor o'rtasidagi munosabatga ta'sir qilmaydi.

Ba'zi paytlarda, qarz oluvchi va kreditor o'rtasidagi munosabat tugaydi hamda ular o'rtasida tuzilgan shartnoma bekor qilinadi. Ammo shu shartnomaga muvofiq kafil bank-kreditor bilan kafillik shartnomasini tuzgan bo'ladi. Qarz oluvchi qarzini to'lamagan holda kreditor kafildan solidar majburiyatni bajarishni talab etadi. Amaliyotda ba'zan kafil qarz oluvchi bilan munosabati tugaganligi to'g'risida axborot bergani holda majburiyatni bajarishni rad etadi. Bu dalillar sud tomonidan qabul qilinmaydi, sud faqat kafillik kreditor va kafil o'rtasidagi shartnoma sifatida ko'rib chiqishi va uning bajarilishi yuzasidan qaror qabul qilishi mumkin.

Qonun bo'yicha kafil nafaqat javobgarlikni oladi, balki aniq bir huquqlardan foydalanadi. Kafil kreditorga to'langan summadagi qarzlarni qarz oluvchidan talab qilishi huquqiga ega.

Majburiyatlarning kafil tomonidan bajarilishi uchun kreditor qarz oluvchiga bo'lgan talabini tasdiqlovchi hujjatlarni unga topshirishi va shu talabni ta'minlovchi huquqlarni o'tkazishi zarur. Qonunchilik bo'yicha kafil tomonidan ta'minlangan majburiyatni bajargan qarz

oluvchi bu haqda kafilga tezda xabar berishi lozim. Agarda bank kafilning mablag'ini asossiz oborotga olgan bo'lsa, kafil kreditordan asossiz olgan mablag'ini undirish bo'yicha talab qo'yishi yoki qarz oluvchiga bo'lgan regressiv talabini qo'yish huquqiga ega.

Kafillik aniq hollarda, ya'ni kafil tomonidan ta'minlangan majburiyatni to'xtalganda, kafil uchun javobgarlikni oshiradigan yoki boshqa nomaqbul hollarga olib keladigan majburiyatlar bo'yicha o'zgarishlar bo'lganda, kafillik bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha qarzni boshqa shaxsga o'tkazilishi bilan, agar kafil kreditorga yangi qarz oluvchi javob berishga rozilik bermagan bo'lsa, kreditor qarz oluvchi yoki kafil tomonidan taklif etilgan tegishli ijroni bajarishdan bosh tortsa, kafillik shartnomasida ko'rsatilgan muddat o'tishi bilan va boshqa hollarda kafillik to'xtalishi mumkin.

Shunday qilib, kreditni to'lashining kafili sifatida turli xildagi yuridik va jismoniy shaxslar qatnashishi mumkin.

Tijorat banklari kreditlari bo'yicha kafil sifatida o'z zimmasiga mas'uliyatni oluvchi subyekt ma'lum talablarga javob berishi lozim. Uning soliq va majburiy to'lovlardan yirik miqdorda qarzi bo'lmasligi, doimiy pul oqimiga hamda ijobiy auditorlik xulosasiga ega bo'lgan moliyaviy barqaror, mijozga berilayotgan kredit summasining 200 foizi miqdorida ko'chmas mulk yoki jihozlar (mini sex, zavod, avtomobil hamda boshqa transport vositalari)ga ega bo'lgan va bu mulklar kafil yuridik shaxsning nomiga rasmiylashtirilgan hamda uning balansida rasman aks ettirilgan yuridik shaxslar kafil bo'lishlari mumkin. Yuridik shaxs talab qilingan darajada mulkka ega bo'lmagan hollarda yuridik shaxs bankdagi jamg'arma va depozit hisob varaqlarida yoki qimmatli qog'ozlar shaklida (bankning o'z aksiyalari bundan mustasno) kafillikni ta'minlash mumkin bo'lgan pul mablag'iga ega bo'lsa hamda bu mablag'ni bankka undiruv qaratish huquqini bergan bo'lsa, sotilgan tovar (bajarilgan ish, xizmat)lar, omborxonadagi sotish uchun olib kelinayotgan import mahsulotlar bo'yicha mablag'lar kelib tushishi aniq bo'lgan va bunga, bankda shubha bo'lmaganda hamda bankda uni undirib olish uslubi mavjud bo'lganda, vaqtincha mablag'ga ega bo'lsada, kamida uch yil davomida bankda xizmat ko'rsatilgan va bank oldidagi o'z majburiyatlarini doimo bajarib kelgan, kelgusida kutilayotgan yoki sotilgan hosildan (mahsulot, ish, xizmat) mablag' manbalariga ega bo'ladigan bo'lsa, ular kafil sifatida kredit munosabatlarda qatnashishi mumkin.

Bank bir paytning o'zida kredit ta'minoti uchun **bir nechta yuridik va jismoniy shaxsning kafilligini** olishi mumkin. Bunday hollarda, shartnoma tuzishda bank majburiyatni kafillar o'rtasida teng taqsimlash sharti bilan yoki kafillarning bir biriga bog'liq bo'lmagan holda har biriga butun kredit majburiyatlarini yuklaydigan shartlar bilan shartnoma tuzishi mumkin. Bu kredit berilayotgan mijozning ishonchliligidan kelib chiqib hal qilinadi.

Mijoz tomonidan uchinchi shaxs kafilligi taqdim qilinganda, kafillik yoki kafolat xati beruvchi yuridik shaxsning, rahbar xodimlarining shartnoma imzolash vakolatlarini o'rganish (bunda, zarur holda imzolar namunasi va rahbarning lavozimga tayinlanganligi to'g'risidagi buyruqdan (qarordan) ko'chirma olinadi), kafillik beruvchi korxonaning uchinchi shaxs majburiyati yuzasidan kafillik berishga mulkdorlar (ta'sischilarning) roziligini tasdiqlovchi hujjat (ustavda va boshqa me'yoriy hujjatda shunday hujjatni ijrochi rahbarga imzolashga to'g'ridan to'g'ri vakolat berilgan bo'lmasa, korxonada mulkdorlari yoki ular vakolat bergan organ (vakillar) tomonidan yozma shaklda alohida rozilik olinadi), kafil (kafolatchi)ning moliyaviy faoliyatini ifodalovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar, jumladan, kafilning soliq va majburiy to'lovlar oldidagi hamda boshqa uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlariga doir ma'lumotlar o'rganilishi lozim. Ushbu ma'lumotlar kafil (kafolatchi)ga berilgan auditorlik xulosasi, uning moliyaviy balansi, kafilning keyingi davrdagi hisob varag'i holati, kafilga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan berilgan ma'lumotnomalar orqali va mumkin bo'lgan boshqa vositalar orqali olinadi. Agarda bank kreditlash uchun olishi kerak bo'lgan ma'lumotlar auditorlik xulosasida yetarlicha bayon qilinmagan bo'lsa, unda bank auditorlik hisobotini talab qilishi yoki mijoz va kafildan muzokaralar yo'li bilan qo'shimcha ma'lumot olishi mumkin. Bank kafillik shartnomasining amal qilish davrida kafil korxonani barcha yo'nalishlarda monitoring qilib borishi lozim. Bunday monitoring korxonada rahbari o'zgarishi, korxonaning qayta tashkil qilinishi, mulkdorlarning o'zgarishi, uning yangi qabul qilayotgan majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar, unga nisbatan qo'llanilayotgan iqtisodiy sanksiyalar, kafil tomonidan tuzilgan yirik bitimlar va boshqa shunga o'xshashlar bo'yicha amalga oshirilishi lozim. Mas'uliyati cheklangan va aksiyadorlik jamiyatlari bilan shartnoma tuzishda qonunda, bu jamiyatlarga yirik va daxldor shaxslar bilan bitim tuzishda belgilangan talablarga rioya qilinishi lozim. Kafillik shartnomasi qarzdor, kafil va kafillikni qabul qiluvchi bank ishtirokida,

yoza shaklda tuzilishi kerak. Kafillik beruvchiga boshqa bank xizmat ko'rsatayotgan bo'lsa, imkoni boricha unga xizmat ko'rsatuvchi bank ishtirokida tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi. Kafillik shartnomalarni tuzish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi Fuqarolik kodeksi asosida tartibga solinadi.

Fuqarolik kodeksida belgilangan norma talablaridan kelib chiqib, bank tomonidan kafilga qo'yiladigan talab uning solidar javobgarligini ko'zda tutadi, ya'ni kafil bank oldida qarzdor bilan baravar hajmda javob beradi, shu jumladan, foizlar to'laydi, qarzni undirib olish bo'yicha sud chiqimlarini va qarzdor majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli bank ko'rgan boshqa zararlarni to'laydi. «Tadbirkorlik faoliyati erkinliklari kafolatlari to'g'risida»gi qonunda kafil bo'lib to'lovga qobiliyatli yuridik va jismoniy shaxslar chiqishi mumkinligi ko'zda tutilgan. Kreditlash bo'yicha amaldagi tartibda yuridik shaxslardan auditorlik xulosasi talab qilingan holda, yakka tadbirkorlar va jismoniy shaxslarning to'lovga qobiliyatligi bank tomonidan umum qabul qilingan qoidalar asosida o'rganiladi. Jumladan, tadbirkorga xizmat ko'rsatuvchi bankdan hisob varag'idagi mablag'lari to'g'risidagi ma'lumotlar, jismoniy shaxsdan esa uning omonati (uning taklifi bilan) yoki ish haqi, boshqa daromadlari to'g'risidagi zarur hollarda, davlat soliq inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan jismoniy shaxsning daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim qilish so'raladi. Jismoniy shaxslarning kafilligi faqat jismoniy shaxslarga kredit berishda asosiy ta'minot sifatida olinishi mumkin, boshqa kreditlar bo'yicha jismoniy shaxsning kafilligi qo'shimcha yoki navbatdagi ta'minot sifatida qabul qilinadi.

Bank yoki boshqa moliya muassasalari tomonidan beriladigan kafolatlar ushbu tashkilotlarning bevosita birinchi rahbari yoki boshqa vakolatli shaxslari hamda bosh hisobchisi tomonidan imzolangan va muhrlangan bo'lishi talab etiladi, kafolat berish huquqi bank filiallar vakolatiga berilgan bo'lsa, u holda bunday vakolatni beruvchi yuridik shaxsning vakolatli boshqaruv organining shartnoma tuzishga ruxsati taqdim qilinishi lozim. Kafolat xatida kafolat beruvchining kredit va unga hisoblangan foizlarini ma'lum bir sabablarga ko'ra qarzdor tomonidan to'lanmay qolishi sodir bo'lganda, bankning birinchi talabiga muvofiq to'lab berilishi aniq aks ettirilishi talab etiladi.

3-§. Bank kafolati va uning kreditlashdagi o'рни

Tijorat banklari tomonidan bank kafolatlarini berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 299-310 moddalariga talablaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2012-yil 24-martdagi 10/1-son qarori bilan tasdiqlangan 761-sonli nizom talablari asosida olib boriladi.

Kafolat – kafolat beruvchi tomonidan qarz oluvchi o'z majburiyatlarini bajara olmagan taqdirda, muddati kelganda uning majburiyatlarini to'lab berish majburiyati tushuniladi. Qonunchilik hujjatlariga asosan bank, boshqa kredit muassasalari yoki sug'urta tashkilotlari (kafil) boshqa shaxs (prinsipal)ning buyurtmasiga ko'ra kafolat berishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 299-moddasi va Markaziy bankining ushbu sohaga oid me'yoriy hujjatlariga asosan **bank kafolati** – bank (kafil) boshqa shaxs (prinsipal)ning buyurtmasiga ko'ra kafil o'z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq prinsipalning kreditori (benefitsiar) pul summasini to'lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga to'lash haqida prinsipalga beradigan yozma majburiyatidir. Qonunchilik hujjatlariga asosan bank kafolatida keltirilgan kafil, prinsipal, benefitsiar so'zlarining mohiyatiga e'tiborimizni qaratamiz. Bank kafolatida **kafil** – o'z mijoz, ya'ni (prinsipal)ning yozma arizasiga ko'ra, prinsipal benefitsiar oldidagi majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kafolatga muvofiq ushbu majburiyatlarning bajarilishini o'z zimmasiga oluvchi bank, **prinsipal** esa bankka o'zining uchinchi shaxs (benefitsiar) oldidagi majburiyatlari bajarilishining ta'minoti sifatida kafolat berish to'g'risida ariza bilan murojaat qilgan shaxs, **benefitsiar** prinsipalning majburiyati bo'yicha kafolatni qabul qiluvchi kreditor hisoblanadi.

Kafolatga binoan bank (kafil) mijozning (prinsipal) iltimosiga ko'ra, bank o'z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq prinsipalning kreditori (benefitsiar) pul summasini to'lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga to'lash haqida prinsipalga yozma majburiyat beradi. Kafolat prinsipalning (mijozning) benefitsiar oldidagi o'z majburiyatini (asosiy majburiyatni) lozim darajada bajarishini ta'minlaydi. Kafolat berilgani uchun prinsipaldan bank tarif stavkalarida yoki kredit komissiyasi qarorida belgilangan miqdorda haq to'lanadi. Kafolat berilishida bank va prinsipal o'rtasida alohida yozma shartnoma

tuziladi. Bunda, bank kafolat berishdan oldin uning uchun undiriladigan haq to'g'risida mijozga tushuntirish berib, u bilan kelishib olinishi va bu shartnomada ko'rsatib o'tilishi kerak.

Kafolat asosiy qarz bo'yicha hisob-kitoblardan yoki kreditor va asosiy qarz oluvchi o'rtasidagi shartnomadan ajralgan holdagi mustaqil majburiyat hisoblanadi. Amaliyotda kredit tashkilotlari tomonidan beriladigan bank kafolatlarining turli xildagi ko'rinishlari mavjud. Bank kafolati (xuddi kafillik kabi) kredit majburiyatlarini qoplash vositasi hisoblanadi va u ancha qulay vosita bo'lib, moliyaviy yo'qotishlardan qochish maqsadida kreditorlar tomonidan keng foydalaniladi.

Bank kafolatini olish uchun mijoz (prinsipal) bankka yozma ravishda ariza (kafolat buyurtmasi) bilan murojaat qilishi kerak. Arizada so'ralgan kafolat turi, summasi va muddatlari hamda kafolat uchun qarama-qarshi ta'minot turi taklif qilinadi. Mijoz o'z arizasi bilan birga kafolatdan foydalanishning butun davrini o'z ichiga olgan pul oqimi tahlili ko'rsatilgan biznes-rejasini, davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) organi tasdiqlagan oxirgi hisobot sanasi bo'yicha buxgalteriya balansi moliyaviy natijalari haqida hisobot, muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqidagi ma'lumotnoma, shuningdek, 90 kundan ziyod qarzlarga doir solishtirish dalolatnomalari va oxirgi uch moliyaviy yil natijalari bo'yicha auditorlik xulosasi, kafolat ta'minotiga doir hujjatlar, shartnomalarni imzolash huquqini tasdiqlovchi hujjatlar, mijozning (prinsipalning) kreditori (benefitsiar) tomonidan talabnomasiga doir hujjatlarni taqdim etishi lozim. Bank ham o'z navbatida u bergan kafolat bo'yicha majburiyatni o'z vaqtida bajarishning ta'minotiga e'tibor qaratadi. Mijoz bankka likvidli mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yishi, kafolat bo'yicha majburiyatni bajarmaslik xatarining sug'urta qilinganligi to'g'risidagi sug'urta polisi va boshqa ta'minotni, ta'minot turlaridan birini taqdim etishi lozim.

Bank hujjatlar bankka kelib tushgan kundan boshlab yigirma bank kuni ichida kafolat berish yoki kafolat berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi va o'z qarori to'g'risidagi xabarnomani uch bank kundan kechiktirmay prinsipalga yuborishi zarur. Kafolat berish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilinsa, kafil va prinsipal o'rtasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kafillik shartnomasi tuziladi.

Shartnomada shartnoma tuzilgan sana va joy, shartnoma predmeti, shartnoma bahosi, bajarilish muddatlari, tomonlarning huquq va majburiyatlari, kafilning xizmatlariga haq to'lash miqdori va tartibi,

majburiyatlarining chegaralari, kafolatni chaqirib olish asoslari, shartnoma bo'yicha javobgarlik, uni bekor qilish va boshqa rekvizitlar ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasining banklarga oid qonun hujjatlariga, shu jumladan, Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy me'yorlarga rioya etmayotgan hamda kredit portfelida 6 foiz va undan yuqori miqdordagi to'lov muddati o'tgan yoki muammoli aktivlari mavjud bo'lgan tijorat banklari tomonidan kafolat berish taqiqlanadi. Undan tashqari tijorat banklari tomonidan berilgan jami kafolat va prinsipal tomonidan qoplanmagan benefitsarga to'lab berilgan mablag'lar summalarining yig'indisi birinchi darajali bank kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak.

Bank kafolatini olish xohishida bo'lgan mijoz (prinsipal) zarar ko'rib ishlamayotgan bo'lishi hamda likvid balansga ega bo'lishi, muddati o'tkazib yuborilgan kreditorlik qarzlarning mavjud bo'lmasligi, oxirgi uch moliyaviy yil natijalari bo'yicha ijobiy auditorlik xulosasiga hamda ijobiy kredit tarixiga ega bo'lishi lozim. Agarda mijoz bank kafolatini olgandan keyin shartnoma shartlarini buzsa, bank tomonidan kafolat chaqirib olinishi mumkin. Buning uchun bank kafolat berishda uning chaqirib olish mumkinligi yoki mumkin emasligini aniq belgilab qo'yishi va bu shartnomada aks ettirilgan bo'lishi lozim. Bank tomonidan berilgan kafolatda uning berilgan kuni va amal qilish muddati va agar bankning boshqa shartlari bo'lsa ular ham ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Bankda berilgan barcha kafolatlar bo'yicha ularning summasi, shartlari, muddati va turi to'g'risida alohida hisobot yuritiladi.

Kafolat Bosh bank tomonidan beriladi, kafolat berish masalasi Bosh bankning kredit qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqiladi va uning qarori asosida amalga oshiriladi. Aksariyat banklarda Bosh bank tomonidan bank filiallariga kafolat berish huquqining taqdim etilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ammo ba'zi banklarning Kredit qo'mitasi ma'lum turdagi kafolatlarni berish bo'yicha qaror qabul qilish vakolatlarni filial kredit komissiyalariga berishi mumkin. Bunday hollarda bank filiali kredit komissiyasi bank kafolati berish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilgandan so'ng, agarda, unga kafolat berish huquqi berilmagan bo'lsa, ko'rsatilgan hujjatlarni va, shuningdek, bank kafolati berish to'g'risidagi shartnomani imzolagan holda Bosh bank kredit qo'mitasiga hujjatlarni taqdim qiladi. Bank filiali va mijoz o'rtasidagi bank kafolati berish to'g'risidagi shartnomada uning kredit qo'mitasi roziligi olingandan

keyingina kuchga kirishi mumkinligi to'g'risidagi shart kiritilgan bo'lishi kerak.

Kafolatda nazarda tutilgan kafilning benefitsiar oldidagi majburiyati kafolat berilgan summani to'lash bilan cheklanadi.

Kafilning prinsipaldan kafolat bo'yicha benefitsiarga to'langan summalarni regress tartibida to'lashni talab qilish huquqi kafilning prinsipal bilan bajarish yuzasidan kafolat berilgan kelishuvda belgilab qo'yiladi.

Berilgan kafolat bo'yicha uning amal qilish muddati davomida prinsipialning moliyaviy ahvoli va kafolat berish bilan bog'liq bitimlarning ijrosi doimiy nazorat qilib boriladi. Prinsipial moliyaviy ahvoli yomonlashganda yoki u tomonidan kafolat berish to'g'risidagi shartnomaga rioya qilinmaganda, kafolat berish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha ta'sir choralari qo'llaniladi.

Bank tomonidan kredit (lizing) qaytmaslik xavfi yuzasidan boshqa banklarning kafolati qabul qilinishi mumkin. Bunday holatda, boshqa shartnomalar kabi berilayotgan kafolat shartlari kredit (lizing) shartnomasi shartlariga muvofiqligi va boshqa shartnomaning muhim shartlari bank tomonidan o'rganib chiqiladi. Boshqa banklarning kafolati kafolat bergan Bosh bankining vakolatli rahbarlari tomonidan tasdiqlangan (ma'qullangan) bo'lgandagina qabul qilinishi mumkin.

Tijorat banklari tomonidan berilgan kafolatlar bo'yicha prinsipalning moliyaviy ahvoli, kredit tarixi va prinsipal faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiyot tarmog'i holatini hisobga olgan holda, uning kreditga layoqatliligidan kelib chiqib belgilangan tartibda ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira shakllantirishi lozim. Prinsipalning kredit layoqatliligi "yaxshi", "standart", "substandart", "past" va "yomon" kabi tasniflanadi.

Kreditga layoqatliligi "yaxshi" deb e'tirof etilgan prinsipal berilgan kafolatlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira shakllantirilmasligi mumkin. "Standart" kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlariga ega bo'lgan prinsipal berilgan kafolat summasining 10 foizi miqdorida, "substandart" deb e'tirof etilgan prinsipal berilgan kafolat summasining 25 foizi miqdorida, kreditga layoqatliligi "past" deb e'tirof etilgan prinsipal berilgan kafolat summasining 50 foizi miqdorida, "yomon" kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlariga ega bo'lgan prinsipal berilgan kafolat summasining 100 foizi miqdorida ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira shakllantirilishi lozim.

Xalqaro talablarga muvofiq bank kafolatida prinsipal, garant va benefitsarlar nomlari, shartnoma shartlari, to'lanishi kerak bo'lgan maksimal summa, to'lov valyutasi nomi, kafolatning amal qilish muddati, to'lovni talab qilish usuli, majburiyat summasini kamaytirish imkoniyatlari kabi ma'lumotlar aks ettirilishi, shuningdek, kafolat matnida kafolatning chaqirilmaydigan xarakterda ekanligi to'g'risida ko'rsatilishi kerak.

Bank kafolati va kafillikning qo'llanishidan maqsad majburiyat (kreditni qoplash bo'yicha)ni bajarishni ta'minlash usuli bo'lganligi bilan ularning mohiyati umumiy tavsifga ega. Ammo bank kafolati va kafil o'rtasida quyidagi aniq farqlar mavjud:

1. Bank kafolati (kafillikdan farqli ravishda) asosiy majburiyatga bog'liq emas.

2. Majburiyat subyektlari bo'yicha. Qonun bo'yicha bank garantlari sifatida faqat kredit muassasalari va sug'urta tashkilotlari qatnashishi, kafil sifatida esa turli yuridik va jismoniy shaxslar qatnashishi mumkin.

3. Munosabatlarni o'rnatish shakli bo'yicha. Bank-garantlar bank-mijozlari bilan bank kafolati shartnomasini tuzadilar yoki ularga kafolat xati yuboradilar. Kafillilik munosabatlari esa bank-kreditor va kafil o'rtasida kafillik shartnomasi tuzilishi natijasida o'rnatiladi.

Tajribali **ingliz iqtisodchisi Kristofer A. Blumfeld kafolat berayotganda** kafolatlanayotgan shartnomaning mustahkamligiga ishonish hosil qilish, berilgan kreditni qoplash bo'yicha masalalarni yaxshilab ko'rib chiqish, bank-kreditor bilan kafolatni taqdim etish to'g'risida kelishish, bunda kafolat summasining aktivlar qiymatidan yuqori bo'lmasligiga e'tibor berishni maslahat beradi.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida bank kafolatining qator turlari qo'llaniladi.

Chaqirilmaydigan kafolat – kafolat chaqirilishi, bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi (agar oldindan kelishib olingan bo'lmasa) mumkin emas. Ammo ba'zi xorijiy davlatlar qonunchiligida chaqiriladigan kafolatni qo'llash ham ta'qiqlanmagan. Agar bank kafolati to'g'risidagi shartnomada: **“bank kafolati chaqiriladigan xarakterga ega”** deb aniq belgilangan bo'lsa, bunda garant xohlagan paytida bergan kafolatini bekor qilishi mumkin. Shuning uchun kreditorlar kafolat turiga juda e'tibor bilan qarashlari lozim.

Bank-kreditor, qarz oluvchi va garant o'rtasidagi munosabatlarda eng muhim jihati – bu bank kafolatining kuchga kirish vaqtini aniqlash hisoblanadi. Odatda, bank kafolati berilganiga qarz oluvchi garantga mukofot to'laydi. Bu omil amaliyotda kafolatning kuchga kirishida rol o'ynashi mumkin. Masalan, bank kafolati qarz oluvchi garantga kafolat summasidan aniq foiz hisobida komission mukofot o'tkazilgandan keyin yoki qarz oluvchining hisob raqamiga barcha kredit summasi o'tkazilgandan keyin yoki kredit shartnomasida ko'rsatilgan maqsadlar bo'yicha kredit ishlatilganda va boshqa hollarda kuchga kirishi mumkin.

Bank kafolatining ijro etilishi to'g'risidagi kreditor talabi, u tomonidan yozma shaklda kafolatda ko'rsatilgan hujjatlar bilan birga garantga taqdim etilishi kerak.

Kreditor va garant o'rtasidagi barcha munosabatlar bank kafolati shartnomasida aniqlanadi. Bu qoidaga rioya qilmaslik yoki yozma shaklda shartoma tuzmaslik shartnoma haqqoniy emasligidan dalolat beradi. Kafolat yoki ikki tomonlama shartnoma garant tomonidan kreditorga yuborilgan kafolat xati orqali rasmiylashtiriladi.

Kafolat xati – bank-kreditor va garant o'rtasida shartnomani tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Kafolat xati ssuda oluvchi tomonidan bankka kredit berish masalalari hal etilguncha topshirilishi lozim. Kafolat beruvchi, ssuda oluvchiga kafolat xatini berishdan oldin, kafolat xati haqida o'z bankiga ariza berishi lozim va ushbu arizada kafolat berish zarurligi va maqsadi haqida yoritish lozim.

Bank kafolati shartnomasida qaysi majburiyatni ijro etilishi uchun kafolat berilganligi, kimga (kreditor nomi) berilganligi va kim uchun (qarz oluvchi nomi) berilganligiga ko'rsatilishi kerak. Arbitraj sudlarining amaliyotidan kelib chiqqan holda, bank kafolati shartnomasida qaysi majburiyatni ijro etilishi uchun kafolat shartlari aniq ko'rsatilmagan bo'lsa, shartnoma tuzilgan deb hisoblanmaydi.

Umumiy qoida sifatida garant kreditor oldida subsidiar (qo'shimcha) javobgarlikni o'ziga oladi. Garantning va qarz oluvchining solidar javobgarligi bank-kreditorga nisbatan faqatgina qonunchilikda va shartnomada ko'rsatib o'tilganda belgilanadi.

Jahon amaliyotida bank-garantning kreditor oldidagi majburiyatlarining bajarilishi quyidagi hollarda:

- 1) kafolat berilgan summa kreditorga to'langanda;
- 2) belgilangan kafolat muddati tugagan paytda;

3)kreditor garantiya bo'yicha o'z huquqlarini rad etsa va ularni garantga qaytarsa;

4)kreditor garantni majburiyatlaridan xoli etish to'g'risida yozma ariza orqali kafolat bo'yicha o'z huquqlarini rad etganda, kafolat beruvchi o'z majburiyatlarini bajarishdan to'xtashi mumkin.

Garant kafolat to'xtatilganligi to'g'risida xabar olgandan keyin qarz oluvchiga bu haqda darhol ma'lum qilishi shart.

Garant qarz oluvchidan bank kafolati bo'yicha kreditorga to'langan summani regress tartibida qoplashni talab qilish huquqiga ega.

Xorij amaliyotida bank kafolati keng tarqalgan bo'lib, mustahkam raqobatchilik sharoitida bunday xizmat bozorida bank-garantlarning komission stavkasi garantiya (kafolat) summasidan 0,1-0,8% ni tashkil qiladi. Iqtisodiy va huquqiy nobarqarorlik, yuqori bank risklari sharoitlarida bu ko'rsatkich 4-10% ni tashkil qilishi mumkin. Chet el banklari tomonidan taqdim etilgan kreditlarning kafolati sifatida davlat (hukumat), vakolatli banklar, banklar konsortsiumi, alohida banklar va sug'urta kompaniyalari qatnashishi mumkin.

Bizning amaliyotimizda ham hukumatimiz kafolati orqali Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankidan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan, yirik chet el banklaridan tijorat banklarimiz kredit olishmoqda.

Kredit munosabatlarining asosiy hujjati bo'lgan kredit shartnomasi qarz oluvchining kreditni o'z vaqtida qaytarish majburiyatini ko'zda tutadi. Lekin amaliyot shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotdagi inflyatsiya jarayonlari ssudaning qadsizlanishiga, qarzdorning moliyaviy ahvolidan yomonlashuvi kreditni to'lash muddatining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun xalqaro bank amaliyotida kreditning qaytarilishini tashkil etishning mexanizmini ishlab chiqilgan. Bu mexanizm quyidagilarni o'zida mujassamlashtiradi:

- ssudani tushum (daromad) hisobidan qoplash tartibi;
- qoplash tartibini kredit shartnomasida mustahkamlab qo'yish;
- ssuda mablag'ini o'z vaqtida va to'laligicha qaytarilishini ta'minlashning turli shakllaridan va manbalaridan foydalanish.

Bank amaliyotida ssudalarni qoplash manbalari birlamchi va ikkilamchi manbalarga bo'linadi. Birlamchi manba sotuvdan kelgan tushum bo'lib, bu kreditni qoplashning asosiy manbasi hisoblanadi. Kredit ta'minotining ikkilamchi shakllari kredit qaytarilishining kafolat, garov va boshqa shakllari hisoblanadi.

Xorijiy bankirlar kredit shartnomasini tuzish imkoniyatlarini ko'rib chiqishda, avvalo, kreditni qoplashning birlamchi manbalarga tayanishni o'z faoliyatining "oltin qoidasi" deb hisoblaydilar.

Amaliyotda ko'p hollarda kreditning qaytarilishida ma'lum risklar mavjud bo'ladi. Bu risklarga turli omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu hollarda kafolat sifatida ikkilamchi manbalar ham talab qilinadi. Ular quyidagilar bo'lishi mumkin:

- mulk va huquq garovi;
- talablar va huquqlarni o'tkazish;
- kafolat va kafillik, sug'urta v.b.

Kreditlarni qoplashning ikkilamchi shakllaridan foydalanish ko'p mehnat talab qiladigan, uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Shunday bo'lsada, ushbu shakllardan bizning amaliyotimizda keng foydalaniladi.

4-§. Kreditning qaytarilishini ta'minlashda garovning ahamiyati

Mulk garovi – bu kredit ta'minotining eng ko'p tarqalgan shakllaridan hisoblanadi. Mulk garovi garov shartnomasi orqali rasmiylashtiriladi. To'lov majburiyati bajarilmaganda, bank ushbu garovni sotish orqali kreditni qoplashi mumkin.

O'z-o'zidan mulkni garovga qo'yish (ko'chmas mulk v.b.) kreditor – mulkini ushlab turuvchi shaxs, agar garov bilan ta'minlangan majburiyatlar bajarilmasa, ushbu mulkdan o'z xohishiga binoan foydalanish huquqiga egaligini bildiradi. O'zbekiston Respublikasida garov munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 264 -, 289-moddalar va O'zbekiston Respublikasining "Garov haqida" gi qonuni asosida boshqariladi. Garov asosida kreditor, agar qarzdor - garov qo'yuvchi shaxs garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmasa, qo'yilgan mulk asosida o'z manfaatlarini yo'lida undan foydalanish huquqiga egaligi va, shu bilan birga, boshqa kreditorlar oldida nisbatan afzalliklarga egaligini ta'minlaydi. Garovga qo'yilgan mulk nafaqat qarz mablag'larining qaytarilishini, balki uning foizlarini va boshqa ko'rilgan zararlarning qoplanishini ta'minlashi shart. Bundan tashqari garovga qo'yilgan mulkning bozor narxlarini tushib ketishini ham hisobga olish lozim. Yuqoridagilardan kelib chiqib, garovga qo'yilgan mulk berilayotgan kredit bahosidan yuqori bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan "Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomning

27-bandida garov ta'minotiga nisbatan qo'yiladigan talablar belgilab berilgan.

Garov asosida yuridik shaxslarning ham, jismoniy shaxslarning ham majburiyatlari ta'minlanishi mumkin. Garov shartnoma yoki qonun asosida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda garov shartnomasi keng tarqalgan bo'lib, qarzdor o'z xohishiga binoan, o'z mulkini kreditor bilan shartnoma tuzgan holda garovga qo'yadi. Garov asosida haqiqiy talab etilayotgan mablag' ta'minlanishi mumkin. Ya'ni ushbu garov shartnomasi orqali boshqa maqsadlarda, boshqa shartnomalarda foydalanish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan garov predmeti bo'lib, garovga qo'yuvchi shaxsning har qanday mulkni, shu bilan birga, qimmatli qog'ozlari va mulkka egalik huquqlari bo'lishi mumkin. Qonunga asosan garov predmetining egasi gapovga qo'yuvchi shaxs bo'lishi mumkin. Shuningdek, garovga qo'yuvchi shaxs nafaqat qarzdor, balki uchinchi shaxs ham bo'lishi mumkin. Mulkdan foydalanish huquqi, uning haqiqiy egasi singari, mulkka egalik qilish, foydalanish kabi huquqlarni, agar qonun va shartnomalarda ko'rsatilgan bo'lmasa, qarz beruvchi shaxsga beriladi.

Amaliyotda garovdan foydalanish uni qo'llashning maxsus mexanizmi bo'lishini ko'zda tutadi. Garov mexanizmi bu garov to'g'risidagi shartnomani tayyorlash, tuzish va ijro etish jarayonidir.

Garov mexanizmini amalga oshirish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

- garov predmetlarini va turlarini tanlash;
- garov predmetlarini baholash;
- garov to'g'risida shartnomani tuzish va amalga oshirish;
- garov undirishga murojaat qilish tartibi.

Garov predmetining miqdor va sifat jihatlariga umumiy va maxsus talablar mavjud bo'lib, sifat jihatiga bo'lgan umumiy talablar quyidagilardan iborat:

- garov predmeti qarz oluvchiga tegishli bo'lishi kerak;
- garov predmetlari pul qiymatiga ega bo'lishlari shart;
- garov predmetlari likvid bo'lishi, ya'ni realizatsiya qilinish xususiyatiga ega bo'lishlari kerak.

Garovning miqdoriga bo'lgan umumiy talab, bu garovga qo'yilgan mulk qiymatining berilgan kredit va unga hisoblangan foizlar summasidan ko'p bo'lishidan iborat.

Garovning sifat va miqdor jihatlariga bo'lgan maxsus talablari garov shakliga va risklilik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Tovar-moddiy boyliklarning garov predmeti bo'lishga maqbulligi 2 omil orqali aniqlanadi:

- boyliklarning sifati;
- kreditorni ularning saqlanishi ustidan nazorat qila olish imkoniyatiga bog'liq.

Tovar-moddiy boyliklarining sifat mezoni quyidagilar hisoblanadi: tez realizatsiya qilinishi, narxlarning nisbatan barqarorligi, sug'urtalash imkoniyati, saqlanish muddatining uzoqliligi. Shuning uchun tez eskiradigan tovarlar garovga qabul qilinmaydi.

1. Kredit shartnoma

KREDITOR ←————→ QARZDOR (BANK)

2. Garov shartnoma

Mulk berilsa	2. Garov shartnomasi Mulk o'zida saqlansa
Kreditorda garov	garovni berish yoki mulk egaligi, uni
Mulkini saqlash	o'zida saqlash saqlash va undan

Majburiyati va undan sharti bilan tuziladi foydalanishi mumkin
foydalanish huquqi
bo'lishi mumkin

16-rasm. Garov mexanizmi

Faqatgina ushbu mezonlarni aniqlash va ularga mos keladigan boyliklarni garovga qabul qilish emas, balki ularning saqlanishini ta'minlash ham muhimdir. Faqat shundagina qo'yilgan garov kreditning qaytarilishiga kafolat bo'lishi mumkin.

Garov predmetiga korxonalar va tashkilotlar; asosiy fondlar (bino, inshootlar, uskunalar), tovar-material buyumlari, tovar-transport hujjatlari (varrant, konosament, ombor hujjatlari, shartnoma v.b.), valyuta mablag'lari, qimmatbaho buyumlar va qimmatli qog'ozlarini kiritish mumkin.

Garov ikki shaklga bo'linadi:

- garov predmeti o'z egasida qolishi yoki garov predmeti garovga oluvchiga berilishi mumkin.

- garov obyekti o'z egasida qolgan holda quyidagi huquqlarga ega:

- garovga qo'yilgan mulkdan foydalanish va unga egalik qilish;

- garov bilan ta'minlangan, majburiyatlar bo'yicha qarz egasiga o'tkazish v.b.

Bu holatda garov beruvchi shaxs o'z hisobidan garov predmetining umumiy qiymatini sug'urtalashi, uning yaxshi saqlanishi ta'minlanishi

va mulkning ijaraga berilishi haqida garovga oluvchini ogohlantirishi lozim.

Garov predmetining o'z egasida qolishi quyidagi hollarda yuz beradi:

- oborotdagi tovarlar garovga qo'yilganda;
- ko'chmas mulk garovga qo'yilganda.

Oborotdagi tovarlarni garovga qo'yish garov vaqti kelganda, garov beruvchi o'z oborotidagi tovarlarining hammasini yoki qisman sotib, o'z qarzining summasini yoki undan ko'pini qaytarishi tushuniladi. Bunda garovga qo'yuvchi shaxs o'z tovar mahsulotlarining hisob-kitobini va to'g'ri saqlanishini ta'minlashi shart. Oborotdagi tovarlarni garovga qo'yishdan asosan savdo va ta'minot tashkilotlarida ko'proq foydalaniladi. Ko'chmas mulk garovi (ipoteka) - korxonalar, tashkilotlar, bino, inshoot va qurilmalarni, yerdan foydalanish huquqlarini garovga qo'yish tushuniladi.

O'z kreditlarini bino, inshoot va qurilma uskunalarini garovga olgan asosda berishlarida, banklar nafaqat ularning qanchalik tez sotilishini, balki kredit oluvchining foyda olish darajasini, ularning kreditni qaytarish sharoiti va muhitini ham hisobga olishlari lozim.

Bank, garov predmetini ushlab turuvchi subyekt sifatida, garovga qo'yilgan mulkning hujjatlari asosida uning haqiqiyiligini, holatini va uni saqlanayotgan muhitini tekshirishga haqlidir.

Agar garov predmeti garov beruvchi tomonidan sarflangan yoki ishlatilgan bo'lsa, unda garovga beruvchi shaxs ushbu mulkni qayta tiklashi yoki boshqa mulk bilan qoplashi lozim, aks holda bank-garov mulkini ushlab turuvchi subyekt sifatida berilgan kreditni o'z muddatidan oldin talab qilishga haqli hisoblanadi.

Garovga qo'yishning ikkinchi shakli - garovga qo'yilgan mulkni o'z egasida emas, balki uni ushlab turuvchi shaxsda qolishi hisoblanadi. Bu tur boshqachasiga «zaklad» deb ham yuritiladi va bank amaliyotida qulay garov turi bo'lib, unda ko'chmas mulk bo'lmagan mulk garovga qo'yiladi. Buning sababi shundaki, pul garov oluvchi (bank)ga berilishi lozim.

Ushbu shakl bank faoliyatida keng qo'llanilib, asosan garovga qo'yilgan mulk ko'chmas mulk bo'lib hisoblanmasa garov bankda bo'lishi kreditning ta'minlanishi tayinligini ko'rsatishi mumkin. Bunday garov shakli quyidagi turlarda bo'lishi mumkin:

- mustahkam (ishonarli) garov;
- xuquqiy garov.

Mustahkam (ishonarli) garov klassik jihatdan, tovar va boshqa mulkni kredit tashkiloti omborida yoki qarz oluvchi omborida bank nazorati ostida saqlanishi tushuniladi. Zakladga olingan qimmatbaho buyumlar o'z navbatida quyidagi talablarga javob berishi lozim: tez sotiladigan, sug'urtalash oson bo'lgan, bank nazorati ostida uzoq muddat saqlanishi mumkin bo'lishi lozim.

Albatta, ushbu mulklarni bank tomonidan nazorati turli xil qiyinchiliklarga va xarajatlarga olib keladi. G'arb mamlakatlarida ushbu xizmatlarni ombor tashkilotlari banklar uchun (xizmat) ko'rsatadi. U mulk va uning saqlanish bo'yicha to'laqonli nazorat olib borishi, undan tashqari bergan kreditining qaytishi imkoniyatlariga to'laroq ishonch hosil qilish mumkin. Bu garov turi 2 xil shaklda, ya'ni qattiq garov va huquq garovi shaklida bo'lishi mumkin.

Qattiq garov garovning klassik turi bo'lib, u tovar yoki boshqa mulkni bankka berishni va bank omborxonasida yoki qarz oluvchining omborida, lekin bank qulfi va qorovuli bilan qo'riqlab saqlanishi lozim. Garov yoki zaklad sifatida qabul qilinadigan qiymatlik talablarga javob beradigan - tez sotiladigan, uzoq saqlanadigan, o'z sifatini yo'qotmaydigan, sug'urtalanadigan bo'lishi va bank nazorati ostida bo'lishi lozim. Zaklad qabul qilish va uni saqlash bank uchun xarajat talab qiluvchi, uning faoliyatiga to'g'ri kelmaydigan holat bo'lganligi uchun u qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Ba'zi xorijiy davlatda bank uchun bu funksiyani maxsus tashkilotlar – omborchi kompaniyalar bajaradi.

Bunda faqatgina ombor hujjatlarining bo'lishi talab etiladi va omborchi kompaniyalar tomonidan yozib berilgan bu hujjat kreditning ta'minlanganligi hisoblanadi.

Bu hujjat asosida bank o'z kreditlarining ta'minlanganligini nazorat qiladi va ssudalar qaytarilmaganda ushbu hujjat orqali bank mulkni omborxonadan olib, sotib, o'z kreditlarini qoplashi mumkin.

Bank uchun qulay bo'lgan mustahkam (ishonchli) garov bo'lib tovar va turli transport hujjatlari hisoblanadi, shu bilan bir qatorda, qimmatbaho buyumlar va qimmatli qog'ozlar ham mustahkam garov sifatida qabul qilinishi mumkin. Birinchidan, ular garov beruvchi tomonidan kreditni ta'minlash maqsadida bankka beriladi, chunki ular hech qanday ortiqcha xarajatlarni talab etmaydi. Ikkinchidan, ular yuqori likvidligi, tez sotiluvchanligi bilan ajralib turadi. Bu esa bankka katta ahamiyat kasb etadi. Huquq garovi hozirda O'zbekiston uchun yangi bo'lgan garov shakli hisoblanadi. Garov sifatida turli mulkka huquqiy jihatdan

egalik qilish (mualliflik huquqlari, tovar belgilari, nou-xau, patent) hujjatlari bo'lishi mumkin.

Bunda faqatgina garovga qo'yilayotgan mulkka egalik qiluvchi shaxsgina garov beruvchi shaxs bo'lishi mumkin. Ijaraga olingan yoki egasi boshqa bo'lgan mulklar o'z egasining ruxsatisiz garov obyeksi bo'lishi mumkin emas.

Garov predmetining bankda saqlanishini ta'minlash bilan bir qatorda banklar yana boshqa majburiyatlarni ham bajarishlariga to'g'ri keladi. Masalan, garov mulkini ushlab turuvchi subyekt (bank) shartnomada ko'rsatilgan bo'lsa, garov beruvchi manfaatlariga mos kelgan holda mulkning hisob-kitobini olib borishi, majburiyatlar bajarilgandan so'ng garov beruvchiga mulkning qaytarilishini ta'minlashi lozim.

Garov predmeti kimda bo'lishidan qat'i, nazar, garov mulkini beruvchi yoki uni oluvchi subyekt mulkni turli xil tabiiy ofatlardan sug'urtalashi lozim. Nafaqat tabiiy ofatlardan, balki mulkning o'g'irlanishi yoki davlat organlari tomonidan garov mulkini beruvchi subyektning iqtisodiy faoliyatini to'xtatib qo'yilishidan ham sug'urtalanishi lozim. Mulkka zarar yetkazganda, bank garov mulkini ushlab turuvchi subyekt sifatida sug'urta qoplamasini o'z krediti hisobiga olishga haqlidir.

Garov predmeti har qanday hollarda ham sug'urta qilish mulkni beruvchi shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Garov shartnomasi yozma hujjat tarzida amalga oshirilishi lozim. Bu hujjatda garov predmetining shaklini, majburiyat shartlarini, majburiyat muddatini, mulkning hajmi va qiymatini, garov subyektlarining majburiyatlarini va garov shartlari bajarilmaganda nizolarni hal etish masalalari aks ettirilishi lozim.

Garov shartnomasida, shular bilan birga, ikkala tarafning nomlari va manzillari garovga qo'yilgan mulkning qayerda joylashgani ko'rsatilishi lozim. Agar yuqoridagi ko'rsatmalar, ko'rsatilmasa garov shartnomasi haqiqiy hujjat hisoblanmaydi. Garov shartnomasi tuzilgan vaqtdan boshlab garov huquqi paydo bo'ladi va garov mulkiga nisbatan garov huquqi ushbu mulk garovga berilgan vaqtdan boshlanadi. (O'z.Res. F.K. 270-s.).

Mulkning qanday shaklda bo'lishidan qat'i nazar, davlatning garov mulki ro'yxatdan o'tishi majburiy belgilangan. Ya'ni garov shartnomasi tuzilib, unga qo'l qo'yilgandan va notarial tasdiqlagandan so'ng,

garovga qo'yilgan mulk davlat garov organida ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Qarz oluvchi kreditor qo'ygan majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasa, kreditor qo'yilgan muddatda sudga murojaat etib, o'z kreditini undirishni talab qilishga haqli. Garov predmeti qonunda ko'rsatilgan asosida ommaviy savdo yo'li bilan sotiladi: mulkning boshlang'ich narxi sud qarori bilan belgilanadi. Eng yuqori bahoni to'lagan shaxsqa ushbu mulk sotiladi. Mulk sotilmagan vaqtda, bank va qarz oluvchi kelishib, bank o'z hisobiga olishi va talablarini qondirishi mumkin. Mulk qayta sotuvga chiqarilib sotilmay qolsa, kreditor mulkni 10% ga arzon qilib keyingi sotuvga chiqarishi mumkin. Agar garov oluvchi garovni sotish to'g'risidagi bildirishdan keyin mulk 1 oy davomida sotilmasa, garov oluvchi uni o'z ixtiyorida qoldirish huquqidan foydalansa, shartnoma tugatiladi.

Agar mulkning sotuvidan tushgan tushum kreditor talab qilayotgan summasidan yuqori bo'lsa, farq garov qo'ygan shaxsqa qaytariladi va agar tushum kreditor talab qilayotgan summasidan kam bo'lsa, unda qolgan summani qarzdorning boshqa mulkidan undirib olinishi mumkin.

Garov huquqi garov majburiyatlari bajarilganda quyidagi hollarda to'xtaydi:

- garov mulkining buzilishi, yo'qolishi yoki yo'q bo'lishi;
- garov predmetining erkin sotuvda sotilishi;
- garov mulkiga egalik qilish bankka o'tishi bilan.

Garov huquqini to'xtashining eng sodda normal holi, garov mulki orqali majburiyatlarning bajarilishi kerakli hujjatlar bilan tasdiqlanishi lozim. Majburiyatlar to'liq bajarilmasa garov shartnomasi o'z kuchida qoladi.

Masalan, kredit ta'minotini tekshirishning quyidagi jadvalini keltirish mumkin (mln so'm.):

46- jadval

Kredit ta'minotini tekshirish

Berilgan ssuda bo'yicha qarzdor majburiyati.	520
2. Shu sanada garovga qo'yilgan boyliklar qiymati.	700
3. Realizatsiyadagi yo'qotishlar riskini hisobga olib o'rnatilgan bank marjasi.	30 %
4. Garovning real qiymati	700-(30%,700 dan)-490
5. Ta'minotning ortiqchaligi (+), kamomadi (-).	490-520--30

Kredit ta'minotini tekshirish natijalariga ko'ra bank o'rnatgan marja tufayli garovdagi boyliklarning real hajmi ssuda qiymatidan 30 mln so'mga kamomad bilan chiqmoqda. Bunda bank qarzdordan garovdagi boyliklar qiymatini belgilangan summaga to'ldirib qo'yishni talab qiladi.

Talablar va mulkiy huquqlarni o'tkazish (sessiya). Ba'zi mamlakatlar amaliyotida kredit ta'minoti sifatida talab va mulkiy huquqlarni o'tkazish (sessiya) qo'llaniladi. Sessiya – bu qarzdor hujjati bo'lib, unga asosan qarzdor o'zining talablari yoki mulkiy huquqlarini kredit ta'minoti sifatida bankka o'tkazadi.

Amaliyotda sessiyaning 2 ta turi ishlatiladi: Ochiq va yashirin sessiya.

47- jadval

Garov predmeti sifatini baholash mezoni

Ishonchlik reytingi	Garovdagi mulk va ssuda qiymatining nisbati	Garov predmeti likvidiligi	Garov predmetini nazorat qilish imkoniyati	Misollar
A (yuqori)	100 % yoki undan yuqori	Tez sotiladi	Butunlay bank nazoratida	Bankdagi depozit
V	100 % dan kam	Narxlar tebranishi va realizatsiyada qiyinchiliklar bo'lishi mumkin		Bankka saqlash uchun berilgan, kotirovka qilinadigan qimmatli qog'ozlar
C	100 % dan kam		Nazorat qilishda muammolar bor	1. Kotirov-kalanmaydigan qimmatli qog'ozlar. 2. Tovar moddiy boyliklar.
D	100 % dan kam	Narx tushadi, sotishda muammolar bor	Nazorat qilishda muammolar bor	Tovar-moddiy boyliklar
E	100 % dan kam	Narx tushadi	Nazorat yo'q	Tovar-moddiy boyliklar

Ochiq sessiyada talabning o'tkazilganligi to'lovchiga ma'lum qilinadi. Yashirin sessiyada uchinchi shaxs ogohlantirilmaydi, majburiyatlarini qarz oluvchiga, qarz oluvchi esa uni bankka to'lab beradi. Shuning uchun mijozlarga o'z obro'sini saqlab qolishda yashirin sessiya afzalroq hisoblanadi. Lekin banklar bu sessiyaning riski yuqoriligi uchun uncha qo'llashmaydilar.

Talablar va mulkiy huquqlarni o'tkazish ta'minoti bo'yicha kredit berilganda, risklilik darajasini hisobga olib, kredit ta'minotining 40 % igacha berilishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda ham kafolat va kafilliklar kredit ta'minotining shakllaridan hisoblanadi. Bular ham garov kabi kreditor manfaatlarini yuridik va iqtisodiy tomondan himoya qiladi. Bularning garovdan farqli tomoni shuki, bunda javobgarlik qarzdorning emas, balki uchinchi shaxs – kafilning zimmasiga tushadi.

Kafolatlanayotgan majburiyatlarning subyektivi – garant sifatida moliyaviy jihatidan barqaror korxonalar, mablag'ga ega bo'lgan maxsus muassasalar, banklar ishtirok etishi mumkin.

AQShda uzoq muddat davomida "10*10" prinsipi qo'llanilgan. Bunda qarz oluvchi kreditni olishdan oldin 10% va olganidan keyin yana 10 %, jami 20 % miqdorida pulni bankka depozitga qo'yishi kerak bo'ladi. Lekin bu holatda kafolat kreditor manfaatlarini qisman himoya qilishga xizmat qiladi xolos.

Kafolatning boshqa bir turi bu qarzdor bilan yaqin aloqalarda bo'lgan barqaror moliyaviy korxonaga bo'lishi mumkin. Bunda garant korxonaga haqida ma'lumotlar kerak bo'ladi. Agar korxonaga ham shu bankning mijoz bo'lsa, uning kreditga layoqatligini hisoblash oson bo'lishi mumkin, lekin u boshqa bankda hisob varaq ochgan bo'lsa, uni kreditga layoqatligini hisoblashda qiyinchiliklar bo'ladi. Kafolat yoki kafillikning samaradorligi bir qator omillar bilan bog'liq:

Kafolat beruvchining moliyaviy holatini bank tomonidan real baholash.

Kredit berishdan oldin bank kafil bilan uchrashib, uni ushbu majburiyatni to'lashga tayyorligiga ishonch hosil qilish kerak.

Kafillar o'zlarining imkoniyatlari yetmaydigan summaga kafolat bermasligi lozim.

Garov mexanizmi, kafolat, kafillik va boshqalardan foydalanishda hozirgi amaliyotda quyidagi asosiy kamchiliklar mavjud:

kredit ta'minotining ikkilamchi shakllarini qayta baholash va mijozning kreditga layoqatligini baholashda, pul oqimini tahlil qilishdagi kamchiliklar;

garov obyektining sifati, uni saqlash va ishlatilishi, tartibi;

kafilning moliyaviy holati ustidan dastlabki va keyingi nazorat qilish mexanizmining yo'qligi;

garov shartnomasi shartlarining haqiqatdagi risk bilan mos kelmasligi;

garov shartnomalari va kafillik xatlarini rasmiylashtirishdagi, ularni haqiqiy emasligiga olib keladigan kamchiliklar.

Bu borada Germaniya tajribasi maqsadga muvofiqdir. Bu yerda banklar ta'minot samaradorligini baholashning 3 balli tizimidan foydalanadilar va unga mos ravishda kreditning yuqori chegarasini belgilaydilar. Misol tariqasida quyidagi jadvalni keltirish mumkin.

48-jadval

Ta'minot ikkilamchi shakllarining sifatini baholash

Kredit ta'minoti shakli	Yutuqlar	Kamchiliklar	Sifat reytingi ballda	Kreditning maksimal summasi, ta'minotga nisbatan
Ipoteka.	- narxning barqarorligi; - ko'p marta foydalanish mumkinligi; - saqlanishini nazorat qilish osonligi; - garov beruvchi tomonidan ishlatilish imkoniyati	o notarial tasdiq uchun qilinadigan yuqori xarajatlar. o baholashning qiyinligi	3	60-80%
Kredit bergan bankda mavjud bo'lgan qo'yilmalarning garovi	- kam xarajatlar; - yuqori likvid ta'minoti	Soliq huquqi bilan bog'liq muammolar bo'lishi mumkin	3	100%
Kafillik (kafolat)	- kafillik haqida yozma bitim - kam xarajatlar javobgarlikda 2-shaxsning ishtiroki	Kafilning kreditga layoqatligini tekshirishda muammo bo'lishi mumkin	2	Kafilning kreditga layoqatligiga ko'ra 100% gacha
Kredit ta'minoti shakli	Yutuqlar	Kamchiliklar	Sifat reytingi ballda	Kreditning maksimal summasi, ta'minotga nisbatan, %
Qimmatli qog'ozlar garovi	- kam xarajatlar. - narxlar o'zgarishiini nazorat qilishning qulayligi. - realizatsiyaning osonligi	Bozor narxi to'satdan tushib ketishi mumkin	2	Aksiyalar 50-60% ishonchli foiz keltiradigan qimmatli qog'ozlar 70-80%
Mol yetkazish yoki xizmatlar ko'rsatish bo'yicha ta-lablarni o'tkazish	- kam xarajatlar - ochiq tssessiyada tez foydalanish	o nazorat-ning intensivligi o soliq bilan bog'liq muammolar	1	20-40%
Mulka egalik qilish huquqini o'tkazish	- kam xarajatlar - likvidligi yuqori bo'lganda – tez sotilishi mumkinligi	baholash muammolari o nazorat qilish muammolari. o sudga murojaat qilishdan foylanish	1	20-50%

Yuqori samaradorlikni anglatadigan eng yuqori ballga ega bo'lgan ta'minot shakllari ipoteka va depozit quyilmalarining garovi hisoblanadi. Bu holatlarda kreditning maksimal chegarasi ham yuqori. Shu bilan birga, ipotekani baholashning qiyinligi kredit maksimal summasining biroz tushishiga sabab bo'ladi.

Kafillik (kafolat) va qimmatli qog'ozlar garoviga nisbatan past ball olingan. Kafilning kreditga layoqatliliigi yuqori bo'lganda kredit summasi 100%, shubhali bo'lganda esa kafillik shartnomasi yoki kafolat xatidagi sumмага nisbatan kamroq belgilanishi mumkin.

Ta'minlashning asosiy turlari mol-mulkni va qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yish hamda kafolatlardan iboratdir. Kredit bo'yicha olingan ta'minlanganlik (garov, mol-mulk v.b.) kredit summasi va u bo'yicha foiz stavkalarini to'lashga yetarli bo'lgandagina, kredit ta'minlangan deb baholanishi mumkin. Olingan kredit mablag'lari korxonada ishlab chiqarish zaxirasi, tugallanmagan ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot hamda mavjud moddiy boyliklarni ta'minlash uchun beriladi. Garov sharti bilan beriladigan kreditni rasmiylashtiradigan vaqtida tijorat banki qarz oluvchi bilan yozma shartnoma tuzadi. Shartnomada garov turi va uning bahosi, mohiyati, miqdori va garov bilan ta'minlanadigan majburiyatning bajarilish muddati hamda mol-mulk taraflarning qaysi birida ekanligi ko'rsatilishi shart. Agar kredit oluvchi kreditni o'z vaqtida qaytara olmasa, u holda garovni sotish choralari ko'riladi. Kredit, odatda, garovga qo'yiladigan mulk qiymatining 50 % idan 80 foizigacha miqdorida beriladi.

Shu o'rinda ta'minotning asosiy turlarini qayd etish lozimdir. Ya'ni ular:

qimmatli qog'ozlar va mol-mulk garovi;

uchinchi shaxsning kafilligi;

“O'zbekinvest”, “O'zagrosug'urta”, “Kafolat” va “Madad” sug'urta kompaniyalari, “O'zgosstraxnadzor” litsenziyasiga ega bo'lgan kreditni to'lay olmaslik riskini sug'urta qiladigan sug'urta kompaniyalaridir.

Quyidagi jadval orqali garovni baholash prinsiplarini ko'rishimiz mumkin.

Ba'zi davlatlarda kreditlashda ishonch shartnomasi ham qo'llanilishi mumkin. Ishonch shartnomasi - kreditor oldida ishonch bildiruvchi tomonidan qarz olgan shaxsning majburiyatlarini to'la yoki qisman o'z zimmasiga olishi tushuniladi. Bunda kreditor qarzdor o'z majburiyatlarini bajarmaganda, ishonch shartnomasi orqali talablarini

qondirishga erishishi mumkin. Chunki kreditor oldida qarzdor ham, ishonch bildiruvchi subyekt ham mas'uliyatga ega bo'ladi. Qarz oluvchi va ishonch bildiruvchi kreditor oldida bir qarzdor (birga ish olib boruvchi shaxs) sifatida javob beradilar.

49-jadval

Garovni baholash prinsiplari

Garov turi	Garovni baholash yoki bozor bahosi	Garov sifatida qiymati
Shaxsiy kafolat	Moliyaviy hisobot vositasidagi hujjatlarga bog'liq	0%
Sug'urta polisi yoki bank kafolati	Moliyaviy hisobot vositasidagi hujjatlarga bog'liq. Boshqaruv qarorida "ijobiy ro'yxat" ichida bo'lishi kerak	100% gacha
Xususiy uy (shaxsiy)	Ko'chmas mulk agentidan belgilangan bozor bahosi undan garov hududining realizatsiyasi shu zahotiy oq amalga oshmaganligi sababli 1 yil uchun hisoblangan foizlar ayriladi. Sud qarorida qabul uchun qoida bo'yicha 1 yil kutish kerak	3 ta qiymatdan eng kichigining maksimum 50 % i
Bo'sh yer (bog', uchastka)	Sotuv amalga oshmaganligi sababli hisoblangan foizlar ayriladi, sotib olish bahosi (xarid bir yildan ortiq bo'lmagan vaqtda qilingan bo'lishi kerak)	3 ta qiymatdan eng kichigining maksimum 50 % i
Biznes mulk (do'kon, mehmonxona, tsex, ofis)	Bank baholashning odatiy texnik jarayoni bilan mos holda baholash	3 ta qiymatdan eng kichigining maksimum 50 % i
Asbob-uskuna va texnologiya (asosiy vositalar)	Kompyuter texnologiyalari sotib olish bahosi. (Asbob-uskuna) – har yilgi amortizatsiyaning 70% ni, sotib olingan yilni qo'shib olgan holda	80 %
O'ayotni sug'urtalovchi polis	Narx ko'rsatilmaydi	0 %
Davlatning qisqa muddatli majburiyatlari	Birjadan tashqari bozorda xaridor tomonidan taklif qilingan narxdan 100%	90 %
Davlat obligatsiyalari	Toshkent, Seul, Tokio, Nyu-yorkdagi birja fondlarida yoki shu davlatlarga tegishli valyutalarda va hukumat chiqargan obligatsiyalar bo'yicha v.b.	90 %

Ishonch shartnomasi yozma ravishda tuziladi va notarial tasdiqlagan bo'lishi lozim, aks holda hujjat haqiqiy hisoblanmaydi.

Ishonch shartnomasi majburiyatlar bajarilganda, shartnomada ko'rsatilgan ishonch bildirish muddati tugaganda, qarz majburiyatlari boshqa shaxsga o'tkazilgan hollarda to'xtatiladi.

Qimmatli qog'ozlar garovi ostidagi kredit, ya'ni lombard krediti alohida ssuda hisob varag'idan tovar-moddiy qiymatliklar va xizmatlari uchun beriladi. Kredit berishda ta'minlanganlik sifatida davlatning qimmatli qog'ozlari va bank emitentlarning aksiya, obligatsiya, depozit

sertifikatlarini qabul qilishi mumkin. Lekin kredit berayotgan bank o'z qimmatli qog'ozlarini kreditning ta'minoti sifatida qabul qilmaydi. Bu kreditning o'ziga xos xususiyati shundaki, garov shartnoma tuzilgan kundagi nominal qiymat bo'yicha emas, balki garov sotilayotgan vaqtda yuzaga keladigan risklarni inobatga olib, uning muayyan qismi baholanadi. Qimmatli qog'ozlarning garov qiymati birja qiymatining 80 % idan, kotirovkalanmaydigan qimmatli qog'ozlar garov qiymati nominal qiymatining 60 % idan oshmasligi zarur. Lombard krediti beriladigan hollarda garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha olinadigan daromadlar qarz oluvchining muddatsiz hisob varag'iga qo'yiladi. Ssuda ta'minoti hujjatlarda uning egasi tomonidan bank foydasiga rasmiylashtiriladi.

Kredit ta'minoti sifatida bank qarz oluvchidan aksiya va obligatsiyalar qabul qilishi mumkin. Nomi yozilgan aksiya hamda obligatsiyalarni bankka topshirish ularga egalik qilish huquqining o'tganini tasdiqlovchi yuridik hujjatlarni rasmiylashtirish orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, bank zarurat tug'ilganda ularni sotish va kreditni qaytmasligidan ko'rilgan zararni qoplash huquqini qo'lga kiritadi.

Xorijiy banklar amaliyotda ssudalarni vekselar bilan ta'minlash keng qo'llaniladi. Veksel ta'minoti ostidagi kreditlar 2 xil ko'rinishda bo'ladi: vekselarni hisobga olish va ular bo'yicha ssudalar. Vekselarni hisobga olish banklarning kredit berishining bir usuli. Ssudalarning bu shakli hisob yoki diskont nomi bilan yuritiladi va qisqa muddatli xarakterga ega. Veksel hisobining mohiyati uning egasining indossamentiga ko'ra, uning bank tomonidan sotib olinishidir. Vekselning bank tomonidan sotib olinishi unga kreditorlik funksiyalarining o'tganligini bildiradi. Lekin banklar har qanday vekselarni ham hisobga qabul qilavermaydi, faqatgina to'lanishiga shubha qilmagan vekselarnigina qabul qiladi.

Vekselar hisobi bo'yicha bank foydasi vekselda ko'rsatilgan summa bilan uni sotib olish o'rtasidagi farqni anglatadi. Bu farq ma'lum darajada markaziy bank diskont stavkasi orqali aniqlanadigan ssuda foizi hisoblanadi. Zarurat tug'ilgan paytda bank o'z likvidligini yaxshilash uchun to'lov muddatini kutmasdan, uni Markaziy bankda qayta hisobdan o'tkazishi mumkin. To'g'ri, bunda u o'z foydasining bir qismini yo'qotishi mumkin.

Veksel ta'minoti ostidagi ssudalarning yana bir ko'rinishi – bu ularni garovga olish bo'yicha kreditdir. Bunda kredit hajmi veksel

bahosining 60-80% ini tashkil qiladi. Kreditni yoki u bo'yicha foizlarni vaqtida qaytarilmasligi vekselga egalik qilish huquqining bankka o'tishiga olib keladi. Kredit qaytarilganda esa veksel egasiga qaytariladi. Ssudalarni ta'minlashning yana bir ko'rinishi mavjud – moliyaviy talablar bilan, bularga ish haqini to'lash bo'yicha talablar, sug'urta shartnomalari bo'yicha to'lovlar va shu kabilar kiradi.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Ta'minlanganlik	Subsidiar
Garov	Sug'urtalash
Kafolat	Garov bahosi
Kafillik	Garov likvidiligi
	Sessiya

O'z bilimini tekshirish uchun savollar:

- Kreditning ta'minlanganligi deganda nimani tushunasiz va u nima uchun zarur?
- Ta'minlanganlikning qaysi shakllari mavjud?
- Bank kafolati deganda nimani tushunasiz?
- Kafolatning qaysi turlarini bilasiz?
- Garovning turlarini izohlang.
- Garovning baholash tartibini tushuntiring.
- Kafillik deganda nimani tushunasiz?

X BOB. KREDITLASH JARAYONLARI VA ULARNING BOSQICHLARI

1-§. Tijorat banklarining kredit siyosati va uning zarurligi

Kreditlashni tashkil etish kredit munosabatlarining ikki subyekti – bank va qarz oluvchining o‘zaro majburiyatlari hamda manfaatlarini uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Kreditor sifatida banklarning olib boradigan faoliyati ular uchun me‘yoriy bo‘lgan hujjat kredit siyosatida o‘z aksini topadi. Tijorat banklari kredit siyosatini mustaqil tuzadilar.

Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jihatlarni hisobga olgan holda o‘z kredit siyosatini shakllantirishi, bankning kreditlash faoliyati va kreditlarni boshqarishning asosi hisoblanadi.


O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000-yil 2-martdagi «Tijorat banklari kredit siyosatiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida»gi nizomiga asosan bankning kredit siyosatiga quyidagicha ta‘rif beriladi: Bankning kredit siyosati – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarining kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko‘rsatmalar bilan ta‘minlovchi hujjatdir. Tijorat banklarining kredit siyosati kredit menejmentini samarali olib borishning asosi hisoblanadi. Bu siyosat bank xodimlarining kredit berish, bankning kredit portfelini boshqarish bilan bog‘liq obyektiv standartlarini va mezonlarini aniqlab beradi. Kredit siyosatini to‘g‘ri tuzish va olib borish, barcha bo‘limlar tomonidan bu siyosat maqsadining aniq tushinilishi bank boshqaruviga kredit standartlarini to‘g‘ri olib borishiga, yuqori risklardan himoyalashga, bank imkoniyatlarini to‘g‘ri aniqlashga asos hisoblanadi.

Yaxshi ishlab chiqilgan kredit siyosati kredit riskini boshqarish va uni kamaytirishga yaxshi imkon beradi.

Kredit siyosatining zarurligi shundaki, bank katta yoki kichikligidan, unda kam yoki ko‘p xodim ishlashidan qat‘i nazar, bankda bu siyosat bo‘lishi lozim. Chunki bu siyosat kredit bo‘yicha unifikatsiyalashgan umumiy qoida va tamoyillar va operatsiyalar bajarilishining ketma-ketligini ta‘minlaydi. Bankning kredit siyosati bankning hamma xodimlari, bank rahbariyatigacha bir xil bo‘lishi lozim.

Shuning uchun ham kredit siyosati oldindan belgilab olingan qoida va yechimlar to'plami deyiladi.

Kreditlash siyosati va uning samaradorligi kredit narxлари to'g'ri belgilangan sharoitda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin.



17-rasm. **Bank siyosatining asosiy elementlari**

Kredit siyosati bank qanday kreditlar, qancha miqdorda, qanday shaklda, kimga, qaysi shartlar va muddatlarda berilishini belgilab beradi. Bankning kredit siyosati uning faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli holatlarning oldini olishga, buning uchun depozitlar va kreditlar o'rtasidagi nisbatning, bank majburiyatlari bilan kapitali o'rtasidagi va boshqa ko'rsatkichlarning me'yorda bo'lishini taqozo qiladi. Oqilona kredit siyosati beriladigan kreditlarning sifatini oshiradi. Shuning uchun kredit siyosatining asosiy maqsadi boshqaruv jarayoni, fondlarning yetarliligi, risklarning sifat darajasi bo'yicha turkumlari, kredit portfelining sifati, majburiyatlarning tarkibiy qismlarini ajratish kabi elementlarini o'z ichiga olishi lozim. Bank siyosati - bankning depozit siyosati, kredit siyosati, foiz siyosati, valyuta siyosati, mijozlarga kassa-hisob xizmatini ko'rsatish siyosati va boshqa bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha siyosati, banklarning likvidligini ta'minlash siyosati, kadrlar siyosati majmuasidan iborat. Kredit siyosati

bank siyosatining asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Buni biz yuqoridagi sxemadan ko'rishimiz mumkin.

Kredit siyosatining mazmunini chuqurroq o'rganish maqsadida uning nimalardan tashkil topganini ko'rib chiqamiz.

Bank kredit siyosatining mazmuni quyidagilardan iborat:

- bank kredit portfelini aniqlash va shakllantirish (kredit turlari, berilish va qaytarilish shartlari, qoplash muddatlari, miqdori va sifati) bilan bog'liq masalalar;

- bank raisining kredit faoliyati uchun javob beradigan o'rinbosari, kredit qo'mitasi raisi va kredit inspektoriga yuklangan vakolatlar ro'yxati (eng ko'p kredit summalari va turlari);

- bankning kredit berish sohasidagi huquqlari va axborot taqdim etish bo'yicha jami majburiyatlar;

- kredit arizalari bo'yicha tekshirish va qaror chiqarish tizimi bayoni;

- kredit arizasiga ilova qilinadigan zaruriy hujjatlar va kredit ishida saqlanadigan hujjatlar ro'yxati (qarzdorning moliyaviy hisoboti, kredit shartnomasi, garov, kafolat bo'yicha shartnoma va h.k.);

- mijozning moliyaviy ahvoli va kreditga layoqatlik ko'rsatkichlari tahlili;

- kredit hujjatlari saqlanishi va tekshirilishi uchun javobgarlik, kim va qanday holatda ularni olish huquqiga egaligi to'g'risida batafsil ma'lumotlar;

- kreditning ta'minlanganligi va uni qabul qilish, baholash va amalga oshirishning asosiy qoidalari;

- barcha kreditlar sifatini belgilaydigan me'yorlar bayoni;

- eng yuqori kredit imtiyozlarini belgilash va ko'rsatish (ya'ni kredit summalari va bank yalpi aktivlarining eng yuqori nisbati);

- bank xizmat ko'rsatadigan mintaqa, kredit qo'yilmalarining asosiy qismi joriy etiladigan tarmoq, iqtisodiyot sohasi yoki sektori;

- muammoli kreditlar tarkibi va tahlili, bunda muammolarning qanday hal etilishi ehtimollari ko'rsatiladi va h.k.

Kredit siyosati malakali tuzilib, barcha darajalarda me'yorda sifatli amalga oshirilsa, bu bank rahbariyatiga to'g'ri qarorlar chiqarish, ortiqcha risklardan xalos bo'lish, bank kreditlarini to'g'ri baholash

imkonini beradi. Shu bilan bir vaqtda kredit siyosati siyosiy, iqtisodiy va huquqiy shartlarni hisobga olgan holda ancha yumshoq bo'lishi zarur.

2-§. Kredit siyosatining mezonlari va o'ziga xos xususiyatlari

Har qanday tijorat banki kredit siyosatining maqsadi odatda quyidagilardan iborat bo'ladi: kredit qo'yilmalari hajmining o'sishi, risk yuqori bo'lgan operatsiyalarning oqilona diversifikatsiyasi, qisqa va uzoq muddatli kredit qo'yilmalari hajmini keskin ko'paytirish va ularning samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilishi. Shuningdek, kredit siyosati investitsion kreditlar salmog'ini oshirish, ustun darajada iqtisodiyotning real sektorini kreditlash, ishlab chiqarish korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash kabi asosiy yo'nalishlarni ham o'z ichiga qamrab olgan bo'lishi lozim.

Kredit siyosati bankning o'ziga xos «kredit tili»ni yaratadi va u bank faoliyati yomonlashganda hamda kredit vakolatlari va majburiyatlari o'zgarganda huquqni saqlab qolish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Qat'iy siyosat asosida berilgan kredit bank umumiy kreditlash faoliyatining rivojlanishi va kreditlarning samarali ishlatilishi uchun zamin yaratadi. Kredit siyosati qoidalariga rioya etish bankning asosiy maqsadlari, ya'ni foyda olishni ta'minlash, risklarni boshqarish, bank faoliyati me'yorlariga rioya etishga erishish imkonini beradi.

Kredit siyosatining mavjudligi, barcha darajalarda ishlab chiqilgan siyosatga rioya etish bank ssuda portfelini sifatli boshqarish uchun asos bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, uning mijozlari va aksiyadorlari foydasini ko'paytiradi va farovonligini oshiradi.

Tijorat bankining kredit siyosatida kredit portfelini boshqarishning asosiy yo'nalishlari qilib quyidagilar belgilab olinishi mumkin:

- kredit risklari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, ularni baholash va bartaraf etish;
- qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy ahvolini aniqlash, kredit riskini bashorat qilish;
- muammoli ssudalarni oldindan aniqlash va ularni so'ndirish choralarni ishlab chiqish;
- kredit qo'yilmalarni diversifikatsiya qilish, ularning likvidliligi va daromadlilikini ta'minlash;
- kredit olgan mijoz bilan doimiy aloqada bo'lib turish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, dehqon va fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Bank tomonidan, xo'jalik subyektlarining aylanma mablag'lari yetishmasligi, mavjud mablag'larning me'yordan ortiqcha tayyor mahsulot qoldiqlariga jalb qilinishi, mablag'larning tayyor mahsulot sifatida qotirib qo'yish sabablarini o'rganib borish, zararga ishlayotgan va bankrotlik alomatlarini ko'zga tashlanayotgan xo'jalik subyektlarining moliyaviy ahvolidan doimiy monitoringini tashkil qilish bank kredit siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Kredit siyosatida kreditlarni tasniflash tizimi aniq ifodalanishi lozim, kredit xodimlari kredit portfelidagi barcha ma'lum bo'lgan salbiy o'zgarishlar to'g'risida rahbariyatga xabar berishlari kerak. Qarz yoki garov ahvol yomonlashishini oldindan aniqlash, ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirish uchun juda muhimdir.

Kredit siyosati kreditlarning barcha toifalari bo'yicha «to'lovsizlik» tushunchasining aniq ifodalanishi, foizlarni o'stirmaslik mezonlari, shuningdek, bank boshqaruvi va kengashining tegishli hisobotlariga nisbatan talablarni o'z ichiga olishi lozim. Kredit siyosatida qarzlarni qaytarishga doir izchil, bosqichma-bosqich chora-tadbirlar ko'rilishini talab qilish, Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq kreditlarni hisobdan chiqarish tadbirlari ishlab chiqilishi lozim.

Kredit siyosatini ishlab chiqish va ijro etish yuzasidan javobgarlik bank kengashi va boshqaruvi a'zolariga yuklatilgan. Odatda, tijorat bankning kredit siyosati yo'nalishlari quyidagilardan tashkil topishi mumkin:

- bank o'rni va obro'sini moliyaviy barqaror banklar singari yaxshilash;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki me'yorlariga muvofiq darajada o'z kapitalining yetarliligini ta'minlash;

- bankning samaradorligi va barqarorligini qo'llab-quvvatlagan holda, uning daromadlarining maksimalashuvini ta'minlovchi aniq kredit va investitsiya siyosatini o'tkazish;

- strategik jihatdan muhim bo'lgan shahar va tumanlarda banklar tarmog'ini kengaytirish.

Tijorat banki foydaliligini hisobga olgan holda, xalqaro standartlar miqyosida, mijozlarga sifatli kredit xizmatini taqdim etishga intiladi. Shuning uchun bank-kredit siyosatining asosiy tamoyillariga quyidagilar kiritilgan:

- kreditlash to'g'risida qarorlar qabul qilishning barcha darajalar bo'yicha javobgarlikni taqsimlash;

- bank tomonidan amalga oshiriladigan kredit operatsiyalari uchun aniq belgilangan shartlarning mavjudligi;

- maxsus kreditlash tamoyillari – muddatlilik, to'lovlilik, qaytarib berishlilik, ta'minlanganlik va rentabellik asosida beriladigan kreditlarni majburiy nazorat qilish;

- bank boshqaruvining umumiy siyosati bilan maxsus faoliyat yo'nalishlari siyosati (ya'ni depozitlar bo'yicha, investitsiya bo'yicha, aktivlar va passivlarni boshqarish bo'yicha va h.k.)ning uzviy bog'liqligi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning faoliyatida xo'jalik subyektlarini kreditlash funksiyasi birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lganligi uchun banklar faoliyatining samaradorligi va likvidligini ta'minlashda, avvalombor, banklarning kredit siyosatini to'g'ri ishlab chiqishga e'tibor berish zarur. Banklar oladigan daromadlar uning aktiv operatsiyalari natijasida, asosan kredit operatsiyalar tufayli vujudga kelishi banklar tomonidan kredit siyosatini oqilona tanlash va o'tkazishni taqozo qiladi.

Kredit siyosati bank strategiyasining bir bo'lagi sifatida kredit bozorida bankning harakat qilishidan ko'zlangan maqsadini, tamoyillarini va yo'nalishlarini o'z ichiga oladi, taktik jihatdan esa moliyaviy yoki boshqa instrumentlarni, kredit bitimlarni amalga oshirishdan bankning maqsadlariga erishish yo'nalishlari va qoidalarini hamda kredit jarayonini tashkil etish tartiblarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida xulosa qilib aytganda, kredit siyosati kredit risklarini kamaytirish orqali bankning xavfsizligi, likvidligi va rentabelligini ta'minlash maqsadida kreditlash bo'yicha oldindan belgilangan qoida va yechimlar majmuasi asosida tashkil qilingan kredit portfelini boshqarish sohasidagi bankning strategiya va taktikasidir.

Kredit siyosati hay'ati kreditni qaysi sohalarga berish, kredit berishning umumiy tamoyillari, uni berishdagi cheklanishlar va boshqalarni ishlab chiqadi hamda ularning amalga oshirilishini nazorat qilib borishi lozim.

Xorijiy davlatlarning yirik banklarida yozma ravishda bankning kredit siyosati to'g'risida memorandum ishlab chiqiladi va barcha bank xodimlari o'z faoliyatini shu memorandum asosida olib borishlari zarur. Memorandumning tarkibi har bir bankning faoliyat xususiyatini hisobga olgan holda har xil bo'lsada, u bank faoliyatining asosiy yo'nalishlarini qay tariqada olib borishni o'z ichiga oladi. Memorandumda olib boriladigan siyosatning, asosan, ya'ni ko'proq ishonchli va foyda

keltiruvchi kreditlar berish, kreditlar berishda mavjud kredit resurslarni hisobga olish, beriladigan kreditlarning risklilik darajasini hisobga olish, kredit berishning oxirgi chegarasini belgilab berish va boshqalar ko'rsatiladi.

Hujjatda qaysi kreditlarni berish bank uchun foydali va qaysi kreditlarni berishdan bank saqlanishi lozimligi, bank xodimlariga kreditlar berish, kreditlarning sifatini nazorat qilish shakllari va boshqalar ko'rsatiladi.

Buning uchun quyidagilar aniqlanadi:

- bank uchun mas'ul bo'lgan kredit turlari;
- qanday kreditlar berishdan bank o'zini tutishi;
- ko'ngildagiday bo'lgan qarzlarning tarkibi;
- ko'ngilsiz qarzlarning tarkibi;
- bankning kreditlash bilan bog'liq faoliyati doirasi;
- bankning o'z xodimlariga kredit berish doirasidagi siyosati;
- qarzdorlikning har xil darajalariga ko'ra kreditlarning hajmini

qisqartirish;

- kredit riskini boshqarish, tekshiruv va nazorat doirasidagi bankning siyosati.

Masalan, Amerika banklarining memorandum sxemasi 5 bo'limni, ya'ni umumiy qoidalar, kreditlar kategoriyasi, kredit siyosatining har hil masalalari, kredit portfeli sifati ustidan nazorat hamda bank qo'mitalarini o'z ichiga oladi.

Kredit siyosati bo'yicha memorandum umumiy tavsiya va yo'llanmalarni o'z ichiga oladi va u bank xodimlarining amaliy ishbilarmonligini cheklab qo'ymaslikni ta'minlaydi.

Tijorat bankining kredit siyosati, kredit bozorini tahlil qilish va eng kichik kredit riskka ega bo'lgan bozorlarni aniqlash, mablag'larni depozitga jalb qilish, kreditlash jarayonida yuqori samaradorlikka erishish, bankning depozit va kredit portfelini boshqarishni optimallashtirish, muammoli kreditlar salmog'ini kamaytirish, bankning likvidligi va to'lovga layoqatliligini ta'minlash kabi masalalarni o'z ichiga olishi lozim.

Bankning kredit siyosatini olib borish, kredit portfelining samarali natijasini ta'minlashni ko'zda tutganligi uchun banklarning kredit portfelini tashkil qilishga ta'sir qiluvchi omillar ichida banklar xizmat ko'rsatish bozorining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan har bir bank o'zi tanlagan bozor sektoridagi asosiy mijozlarning qarzi mablag'iga bo'lgan talabini hisobga olishi kerak.

Bankning foiz siyosati kredit siyosatining asosiy bo'limi hisoblanadi. Bu siyosat turli kreditlar va qarzidorlar bo'yicha belgilanuvchi foiz stavkalarini aniqlashda foydalaniladigan quyidagi 3 omilni o'z ichiga oladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi.

2. Kredit resurslari (o'z va jalb qilingan mablag'lari) bahosi, muddati va manbalari.

3. Kreditlash va qarzidorlar turlari va yo'nalishlari.

Jalb qilingan kredit resurslarini boshqa tijorat banklari hamda markazlashtirilgan fondlaridan sotib olingan holda kreditlardan foydalanish uchun foizlar jalb qilingan resurslar summasiga bank (daromadi) marjasi qo'shish orqali aniqlanadi. Bu 3% dan 7% miqdorgacha bo'lishi lozim.

Garov ta'minoti bo'yicha talablar aniq va sifatli tasnifga ega bo'lishi kerak, ya'ni garovning likvidligi, uzoq muddat saqlashning mumkinligi; narxlarning nisbatan barqarorligi, garovga qo'yiladigan mulk, mulkning bozor talablariga mos kelishi v.b.

Favqulodda holatlar yuz beradigan bo'lsa, garov egasi garov mulkini o'z hisobidan uning to'liq qiymatini sug'urta qilishi kerak.

Garovga olingan mulk qiymati kredit summasiga nisbatan 20% yuqoriroq bo'lishi maqsadga muvofiq.

Tijorat banklarining kredit taqdim etishdagi asosiy vazifasi – omonatchilarning pullarini kimga ishonib topshirish mumkinligini hal etishdan iborat. Bu faoliyat o'ta muhim va o'ta ta'sirchan jarayon bo'lib, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish sarmoya tuzilmasidagi leverajni jiddiy oshirish imkonini beradi. Bank kreditlarni qachon, kimga va qanday shartlarda berishni aniq belgilab olishi shart.

Bank faoliyati doimo turli risklar bilan bog'liq. Shuning uchun kreditlar, depozitlar va boshqa majburiyatlar bilan o'z mablag'lari o'rtasida maqbul muvozanatni saqlash bankning eng muhim vazifalaridan biridir. Oqilona kredit siyosati bank kredit portfelini sifat jihatdan tartibga solish ko'lamini, mablag' olish imkoniyati, eng yuqori risk darajasi, ssuda portfeli manbalari va muddatlari bo'yicha mutanosibligini, bank majburiyatlari va aktivlari tuzilmasining mosligini hisobga olishi kerak.

Kredit siyosati bankning o'ziga xos «Kredit tili» ni yaratadi. Bu siyosat bank faoliyati yomonlashganda hamda kredit vakolatlari va majburiyatlari o'zgartirganda huquqni saqlab qolish uchun katta ahamiyat

kasb etadi. Kredit siyosatidagi har qanday cheklash to'liq hujjatlashtirilishi, asoslanishi va istisnolar ko'rsatilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, tijorat bankining kredit siyosati bankning kreditlashni amalga oshirishdagi maqsadi va strategiyasini, kredit berish jarayonida bank xodimlarining vakolat darajasi va mas'uliyatini, tijorat banki tomonidan beriladigan kreditlarning turlari va toifasi, bank krediti yo'naltiriladigan iqtisodiyot sohaslarini belgilab olish, kreditlash usullari, kreditlash ko'rsatkichlari, kreditlarni qaytarib to'lash shartlari va qoidalari, kreditning muddati, qarzdorlikni undirib olish bo'yicha chora-tadbirlar, yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar, mijozning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida ifoda qiluvchi qarzdorlarning faoliyatiga oid moliyaviy axborotlar, garov ta'minotiga va kredit monitoringiga qo'yiladigan talablar, foiz stavkalari bo'yicha bajariladigan operatsiyalar, ko'zda tutilmagan holatlar, kredit portfelini audit qilish bo'yicha talablar bank boshqaruvi va kengashiga taqdim qilinadigan hisobotlar bo'yicha talablarni o'zida ifodalash lozim.

3-§. Kredit paketini tashkil qilish va kredit berishni hujjatlashtirish tartibi

Bank mijozdan kredit olish uchun ariza qabul qilgach kredit paketini shakllantirish va uni tahlil qilishga kirishadi. Bu jarayon quyidagi bosqichda amalga oshiriladi:

1. Kredit olish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish va kelgusidagi qarz oluvchi bilan muloqotda bo'lish.

2. Kredit bahosini aniqlash.

3. Kredit shartnomasini tayyorlash.

Kredit olish uchun qarz oluvchi o'zining moliyaviy va ishlab chiqarish imkoniyatlarini quyidagi mazmunda tahlil qilishi lozim:

- o'z mahsulotini sotish bozori, unga talab va taklifni o'rganish;

- kredit olish uchun asos bo'luvchi tovar-moddiy boyliklarni yetkazib berish, ishlab chiqarish xarajatlari va tovarlarni sotish bo'yicha shartnomalar bilan ta'minlanganligi;

- kreditlanadigan tadbirning samaradorligi;

- qarz oluvchi hisob varag'iga pul mablag'larining kelib tushish davriyligi;

- kreditni va unga tegishli foizlarni to'lash manbalari;

- kredit uchun to'lanishi mumkin bo'lgan foiz hisob-kitobi va uning davriyligi;

- oldingi davr (yil, chorak, oy)dagi moliyaviy xo'jalik faoliyatining respektiv tahlili;

- joriy davr uchun biznes-reja.

Xo'jalik subyekti kredit olish uchun tahliliy va xomcho't ma'lumotlardan kelib chiqqan holda kredit olish uchun iltimosnomani tuzadi.

Kredit olish uchun arizada kredit olish zaruriyati, uning samaradorligi, qaytarilishi, to'lovligi va ta'minlanishi, shuningdek, o'z kapitali tarkibi va uning kreditlanayotgan tadbirdagi ishtiroki batafsil bayon qilinadi. Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

1. Pul oqimi tahlili ko'rsatilgan biznes-reja.

2. Oxirgi hisobot davri uchun buxgalterlik balansi, debitorlik va kreditorlik qarzlari va to'lov muddati 60 kundan oshgan qarzlarni qiyoslash dalolatnomalari talqini.

3. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot.

4. Aylanma mablag'larning aylanishi hisob-kitobi.

5. Boshqa kreditlar, qarz mablag'lari mavjudligi va boshqa banklarda saqlanadigan bo'sh mablag'larning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnoma.

6. Kapitali bilan ishtirok etganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma.

Kredit xodimi yoki kredit paketini o'rganuvchi shaxs yuqorida qayd etilgan hujjatlarni olgach, uch kunlik muddatda quyidagilarni aniqlaydi:

- subyektlarning kreditga va to'lovga qobiliyati, uning reyting bahosini, shuningdek, kredit maqsadlarining ustav faoliyatiga muvofiqi, kreditning turini aniqlaydi, bunda u majburiy tartibda likvidlilik, qoplash, muxtoriyat, qarz mablag'larini jalb qilish, foyda va aylanma mablag'lari aylanishi koeffitsiyentlarini o'rganib chiqishi lozim.

Kredit paketini tahlil qilishda nafaqat kredit bitimlarining turli sohalriga, balki rahbarning shaxsiy sifatlariga ham baho beriladi.

Taqdim etilgan hujjatlarni batafsil o'rganib chiqqach, bank xodimi kredit bitimini tuzish uchun xulosani rasmiylashtiradi. Bunda quyidagilar ko'rsatiladi:

- kreditning maqsadi, muddati va miqdori;

- kredit qaytarilishining ta'minlanishi;

- foiz miqdori v.b.

Bank xodimining xulosasi rahbar tomonidan imzolangan va hujjatlar ilova qilingan holda kredit qo'mitasiga ko'rib chiqish uchun yuboriladi. Qo'mita o'z vakolatlaridan kelib chiqqan holda uch kun mobaynida tegishli qaror qabul qiladi. Mazkur xulosa kredit qo'mitasi raisi tomonidan tasdiqlanadi. Shundan so'ng kredit shartnomasi tuziladi yoki kredit bitimini tuzish va ssuda berishdan bosh tortish sabablari ko'rsatilgan holda qarz oluvchiga yozma ravishda rad javobi beriladi.


Kredit shartnomasida quyidagilar ko'zda tutiladi:

- kreditning maqsadi va summasi;
- uni berish tartibi hamda to'lash tartibi va shakli;
- majburiyatlarni ta'minlash shakllari, foiz stavkalari, ularni hisoblash tartibi va to'lash shakli;
- kredit berish va uni to'lash vaqtida tomonlarning huquq va majburiyatlari;
- kredit berish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, hisob-kitob va hujjatlarning ro'yxati hamda ularning davriyligi;
- bank tomonidan joyida hisob yuritish, kreditning qaytarilishini ta'minlash yuzasidan tekshiruvlar o'tkazish imkoniyati va boshqa masalalar.

Bank kreditidan foydalanilgan vaqt uchun haq to'lash kredit narxini tashkil etadi, u hisobot oyi boshlangunga qadar bank bo'yicha yuzaga keladigan o'rtacha foiz stavkasi va marjani o'z ichiga oladi.

Kredit narxi Markaziy bankning «qayta moliyalash» stavkalarining me'yorlari bilan tartibga solinadi, hamda mahsulot va xizmatlar tannarxi darajasini hisobga olgan holda belgilanadigan chegara ko'rsatkichlaridan oshmasligi lozim. Amalda qayta moliyalash stavkasi «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi qonunning tegishli moddasiga muvofiq Markaziy bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Hozirgi kunda qayta moliyalashtirish foizi yiliga 9 foizni tashkil etadi. Bu foiz stavkasiga tijorat banklari 1,5 martagacha marja qo'yishi mumkin.

Kreditni berish va hujjatlashtirish tartibi markazlashtirilmagan va u tijorat banklari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Bunday tartibni shartli ravishda quyidagicha tasvirlash mumkin:



Variant «A»

Kredit va foizlarni o‘z vaqtida to‘lash.

Variant «B»

- kredit va foizini qoplash bo‘yicha qiyinchiliklar;
 - kreditni to‘lash bo‘yicha alohida tartib (kredit shartnomasini bekor qilish, kredit muddatini cho‘zish, mijozning bankrot bo‘lishi);
 - kreditning qaytib kelishi.

18-rasm. Kreditlash jarayoni

Kredit olish uchun ariza, qarzdor kredit xizmatlaridan foydalanish uchun munosib bankni tanlagandan so‘ng rasmiylashtiradi va taqdim etiladi. Bunda mijoz bankning kredit salohiyati hajmini, uning passivlari, bankning ishonchlilik darajasini, bankning ta‘sischilar tarkibi, uning tarmoq xarakteri va u yoki bu operatsiyalarga moslashuvi va ixtisoslashuvi, shuningdek, kredit bo‘yicha summa, foiz va kredit muddatlarini inobatga olishi mumkin. Iqtisodiy nobarqarorlik va doimiy ravishdagi kredit qaytarilmasliklar sharoitida banklar kreditni shu bankda hisob-kitob varag‘iga ega bo‘lgan qarzdorlarga berishni ma‘qul

ko'radilar, bu esa qarzdor tomonidan bankni tanlash imkoniyatini cheklaydi.

Kreditga layoqatsizlik riskini oldindan ko'ra bilish ko'pincha oson kechmaydi, chunki kerakli paytda mijozning faoliyatida kutilmagan moliyaviy qiyinchiliklar vujudga kelishi mumkin. Bu qiyinchiliklar mijozning qobiliyatsizligi tufayli uning mol yetkazib beruvchilari, xaridor va boshqa tashqi omillarning xatosi va muammosi bunga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun bank kredit operatsiyalarining har bir turi kreditning qaytmaslik riski bilan bog'liq bo'ladi. Bunday riskni pasaytirish uchun bank bo'lajak mijozning mavjud, o'tgan moliyaviy ahvoli bo'yicha kreditga layoqatliligini baholab, salbiy tomonlarni oldindan bilishga, mijozning kelajak muammolarini ko'rishga intiladi.

4-§. Kredit shartnomasining mazmuni va ahamiyati

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banki va mijoz o'rtasidagi kredit munosabatlar kredit shartnomasiga asoslanadi. Shu bois bank tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarni kreditlashni tashkil etishning asosiy xususiyatlaridan biri – bu har bir kredit bitimining shartnomaviy xarakterga ega ekanligidadir.

“Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunning 31-moddasida banklar va ularning mijozlari o'rtasidagi munosabatlari shartnomalar asosida amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, amaliyotda banklar va mijozlar o'rtasidagi har bir kredit munosabati shartnomaviy xarakterga ega.

Bank va qarz oluvchi o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasi kredit bitimining huquqiy-iqtisodiy shartlarini aniqlaydi. Va bu shartlar kredit munosabatlari ishtirokchilarining mavqeyidan qat'i nazar o'zaro manfaatlariga asoslangan bo'ladi.

Kredit shartnomasi yuridik hujjat hisoblanib, uning barcha punktlari bajarilishi tomonlar uchun majburiydir. Bu O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi bilan belgilab qo'yilgan.

Kredit shartnomasining mohiyati shundan iboratki, unga ko'ra bank (kreditor) shartnomada ko'rsatilgan shartlar asosida va unda belgilangan miqdorda qarz oluvchiga pul mablag'larini kreditga berish, qarz oluvchi esa kreditni va unga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida qaytarib berish majburiyatini oladi.

Kredit shartnomasida tomonlarning nomlanishi, shartnomaning amal qilish muddati, kredit bitimining predmeti va shartlari,

tomonlarning huquq va majburiyatlari, bu majburiyatlarni bajarilishining huquqiy kafolatlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Kredit shartnomasi, odatda, yozma shaklda tuziladi va kerakli shaxslar tomonidan imzolanadi. Yozma shaklda tuzilmagan kredit shartnomasi haqiqiy hisoblanmaydi.

Fuqarolik kodeksining 744-moddasiga asosan **kredit shartnomasiga** ko'ra, bir taraf – bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul mabalg'lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi.

Kredit shartnomasi:

- **ikki tarafdin shartnomadir**, ya'ni har ikki taraf tegishli huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi;

- **haq evaziga tuziladigan shartnomadir**, ya'ni qarzidor kreditorga kredit olganligi uchun foiz, marja, komissiya ko'rinishida haq to'lashi lozim;

- **konsensual shartnomadir**, ya'ni u kredit shartnomasi tarafdin tomonidan imzolanishi bilan oq tuzilgan hisoblanadi va kuchga kiradi, biroq berilgan kreditga foizlar shartnoma tuzilgan kundan emas, balki haqiqatda kredit mablag'laridan foydalanilgan davr uchun to'lanadi;

- **xo'jalik shartnomasidir**, chunki kredit shartnomasi asosan tadbirkorlik faoliyatiga mansub sohalarda tuziladi.

Kredit miqdori va uning qaytarilish muddati, foiz miqdori va uni to'lash muddati, kreditning maqsadi va boshqalar kredit shartnomasining muhim shartlari hisoblanadi.

Tijorat banki va mijoz o'rtasidagi kredit munosabatlari kredit shartnomasiga asoslanadi. Rivojlangan davlatlar bank tizimida har qanday kredit munosabatlari unda ishtirok etuvchi tomonlarning mavqeyidan qat'i nazar o'zaro manfaatli shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Kredit shartnomasida quyidagi asosiy shartlar ko'rsatiladi.

Kreditning maqsadi:

Tijorat banki uchun kreditning qanday maqsadlarga so'ralayotganligi muhim hisoblanadi. Shartnomada kreditning qaysi maqsad uchun ishlatilishi ko'rsatiladi va bu korxonalarining biznes rejasida o'z aksini topishi lozim. Biznes rejada ko'rsatilgan maqsad bo'yicha kredit summasi o'tkazilib beriladi va korxonaning keyingi faoliyati ham bank tomonidan kreditning shartnomada ko'rsatilgan maqsadlarga yo'naltirilishi nazorat qilib boriladi.

Kredit summasi.

Kredit shartnomasida kreditning summasi mijozning garovga qoʻygan mulkining 120 foizi miqdorida yoki kafolatlangan summa miqdorida belgilanib koʻrsatiladi. Tijorat banki mijoz arizasida koʻrsatilgan summani har tomonlama asoslab berishi kerak. Odatda, mijozlar oʻz imkoniyatlarini maksimal darajada baholab keladilar. Tijorat banklari kerakli hollarda kreditlanayotgan obyektini toʻla oʻrganib chiqish uchun mutaxassislarni jalb qilishi mumkin.

Kreditning foiz stavkasi.

Hozirgi kunda koʻpgina tijorat banklari qayta moliyalash stavkasini va jalb qilgan resurslarining bahosini hisobga olgan holda oʻzlarining kredit siyosatiga muvofiq mustaqil foiz stavkalarini oʻrnatadi.

Kreditni qaytarish muddati.

Shartnomaga asosan kreditdan foydalanish muddati kelganda, kredit olgan korxonada kreditni qaytarmasa, muddati oʻtgan qarz hisob raqamiga chiqariladi. Har oyning birinchi kuniga har oy uchun olinadigan foiz summasini oʻz vaqtida toʻlab bormasa, muddati oʻtgan foiz hisoblanib boriladi. Kredit uchun olinadigan foiz bir necha marta muddati oʻtgan foiz hisob raqamiga chiqsa, bank kreditni muddatidan oldin yopishga farmoyish beradi. Barcha ssuda operatsiyalari shu hisob raqam orqali olib boriladi. Kredit summasi bankning oʻz mablagʻlari hisobidan vakillik hisob raqami orqali toʻlab beriladi.

Respublikamizda qisqa muddatli kreditlash va, umuman, tijorat banklari tomonidan kredit berish “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida”gi qonunga asosan olib boriladi. Banklar tomonidan kredit berish kreditlashning asosiy tamoyillari kreditning maqsadlilikigi, kreditning taʼminlanganligi, muddatlilikigi, qaytarilishi, toʻlovlilikigi asosida amalga oshiriladi.

Kredit shartnomasi huquqiy jihatdan bir qator xususiyatlarga ega. Oʻzining huquqiy tabiatiga koʻra kredit shartnomasi tomonlarning maqsadlarini va shu maqsadlarning amalga oshirishini birlashtiradi. Maqsad sifatida kredit shartnomasi bankning maʼlum shartlar asosida ssuda berish roziligi va qarz oluvchining uni maʼlum davrdan soʻng qaytarib berishga tayyorligini aks ettiradi. Maqsadlarning bajarilishi sifatida kredit shartnomasi ssuda berish va toʻlash boʻyicha aniq harakatni koʻzda tutadi. Mijozning ssudani qaytarish boʻyicha majburiyatlari shartnomani imzolashdan oldin amalga oshirilgan boʻlsa ham, faqatgina ssuda olingandan soʻng paydo boʻladi. Kredit shartnomasi, shuningdek, kredit bitimining iqtisodiy shartlarini tartibga

soladi. U bir tomondan mijoz talabining to'laroq hisobini, ikkinchi tomondan esa bankni kredit riskidan saqlashning muvofiq mexanizmini ta'minlab beradi.

Kredit shartnomasi qarz shartnomasining bir turi hisoblansada, u qarz shartnomasidan farq qiladi. Bu farqni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

50-jadval

Kredit shartnomasi va qarz shartnomasining farqli jihatlari

Kredit shartnomasi (Fuqarolik kodeksining 744-748-moddalari)	Qarz shartnomasi (Fuqarolik kodeksining 732-743-moddalari)
Asosan banklar, boshqa kredit tashkilotlari kredit berishi mumkin	Barcha jismoniy va yuridik shaxslar boshqa shaxslarga qarz berishi mumkin
Bankdan kredit sifatida faqat pul mablag'lari beriladi	Qarz sifatida esa pul mablag'lari va boshqa ashyolar berilishi mumkin
Doimo yozma shaklda tuzilishi kerak	Ba'zi hollarda qarz shartnomasi og'zaki shaklda ham tuzilishi mumkin
Kredit shartnomasi konsensual shartnomadir	Qarz shartnomasi real shartnomadir, ya'ni u pul yoki ashyolar qarz oluvchiga topshirilishi bilan tuzilgan hisoblanadi
Kreditor tomonidan qarz oluvchiga, hatto shartnoma tuzilgandan keyin ham kredit summasi butunlay yoki qisman berilmasligi mumkin	Qarz beruvchi qarz oluvchiga qarz summasi-ni berishdan bosh tortishga haqli emas, chunki qarz summasi berilmagan taqdirda, qarz shartnomasi tuzilmagan bo'lib qoladi

Bank bilan mijoz o'rtasida kredit shartnomasini tuzishda barcha shartnomalar uchun zarur bo'lgan quyidagi asosiy talablar inobatga olinsa, maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin:

- barcha huquq va manfaatlarni to'liq himoya qilish imkonini beruvchi, barcha holat va vaziyatlar uchun to'g'ri keluvchi **universal shartnomalar shakli mavjud emas**. Barcha holat va vaziyatlarni o'z ichiga qamrab oladigan shartnoma shaklini ishlab chiqishning imkoni yo'q;

- shartnoma (bizning holatda kredit shartnomasi) **individual** xarakterga ega bo'lgan rasmiy yuridik hujjatdir;

- aniq kredit shartnomasini tuzishda, kredit olish uchun murojaat qilgan mijozlarga alohida (individual tarzda) yondashib, ularning huquqiy maqomi, tashkiliy-huquqiy shakli va kreditlanayotgan loyihaning xususiyatiga e'tibor berilishi maqsadga muvofiqdir.

Shartnoma tuzish jarayoniga yuridik va iqtisodiy jihatdan puxta, aniq, talab darajasida ijodiy yondashish kerak.

5-§. Kredit shartnomasining tarkibiy qismlari

Kredit shartnomasi tarkibi qonunda belgilanmagan. Kredit shartnomasini tuzishda bir qancha talablarni, jumladan, kreditning maqsadi, summasi, muddati, ta'minlanganligi, foizlari, kreditni qoplash tartibi va boshqalar aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Kredit shartnomasining tarkibi odatda quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

- kirish qism - umumiy holat – shartnoma predmeti – kredit berish maqsadi, shartlari - hisoblanish shartlari va tarkibi – tomonlarning huquq va majburiyatlari – boshqa shartlari – yuridik manzillari, rekvizitlari, tomonlar imzolari.

Har bir kredit shartnomasi shakliga ko'ra quyidagi to'rtta asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- mustahkam huquqiy asos;
- shartnoma tuzish erkinligi;
- tomonlarning o'zaro manfaatdorligi;
- shartnoma shartlarining kelishilganligi.

Kredit shartnomasining huquqiy asosini qonunlar, bank faoliyatiga oid boshqa yuridik va me'yoriy hujjatlar tashkil etadi.

Kredit shartnomasini tuzish erkinligi mijozni ssuda olmoqchi bo'lgan bankni tanlash erkinligida va bankning shu mijozga kredit berish masalasini yechish erkinligida o'z aksini topadi. Ikkala tomon shartnomaviy munosabatlarga o'z xohishlariga ko'ra kiradilar.

Tomonlarning bir-biridan o'zaro manfaatdorligi kredit shartnomasi shartlarini kelishish imkoniyatini bildiradi. Har bir tomon ham o'z manfaatlarini qondiruvchi optimal variantni topishga harakat qiladi.

Kredit shartnomasi tarkibini shakllantirishda, muhim va yordamchi shartlarning bor ekanligiga ahamiyat berish kerak.

Muhim shartlar deganda, biz kredit shartnomasini tuzish imkoniyatini aniqlovchi shartlarni tushunamiz. Ularga tomonlarning nomi, shartnoma muddati, predmeti va summasi, ssudani berish va qaytarish tartibi, ssudadan foydalanish bahosining darajasi, kredit qaytarilishning ta'minlanganligi, tomonlarning javobgarligi kiradi.

Qo'shimcha shartlar kredit qaytarilishini ta'minlashga, qo'shimcha garovni yaratishga qaratilgan bo'ladi. Ular aniq bir qarzdorlar uchun qo'llaniladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- qarzdorning aniq bir kreditga layoqatlilik darajasiga erishish majburiyati;

- hisob va hisobotning zaruriy holati;
- garovga qo'yilgan mulkning saqlanganligi;
- bank nazorat qoidalariga rioya qilishlik;
- bank ruxsatisiz korxonani qayta tashkil etishning ta'qiqlanganligi v.b.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganlarni hisobga olgan holda, kredit shartnomasining umumiy sxemasi quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- shartnoma maqsadi;
- bank huquqlari;
- qarz oluvchining huquqlari;
- bank majburiyatlari;
- qarz oluvchining majburiyatlari;
- shartnomaning amal qilish muddati;
- boshqa shartlar;
- tomonlarning yuridik manzili va imzolari.

Shartnoma boshlanishida ishtirokchilarning yuridik shaxs sifatidagi rekvizitlari: qarz oluvchi uchun – nomi, hisob-kitob varag'i raqami; bank uchun esa uning nomlanishi, ular tomonidan ish ko'ruvchi shaxslar mansabi, ismi, familiyasi, otasining ismi ko'rsatiladi. Bu bo'limda, shuningdek, mijozning huquqiy shaklini: u alohida korxonami yoki tashkilotmi (shirkat, korporatsiya) ko'rsatish kerak.

–“Shartnoma maqsadi” bo'limi kredit bitimi obyektining sifat va miqdor tavsifini aks ettiradi.

Kredit bitimi obyektining sifat tavsifi ssudaning maqsadli yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Shularga ko'ra kredit turi quyidagicha tavsiflanadi:

Maqsadiga ko'ra kredit:

- kundalik ishlab chiqarish talablarini;
- savdo-vositachilik ehtiyojlarini;
- investitsiya ehtiyojlarini;
- iste'mol ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'ladi.

Iqtisodiy tarkibiga ko'ra kredit:

- to'lovga mablag' yetishmasligi;
- tovar-moddiy boyliklarini shakllantirish;
- qimmatli qog'ozlarni sotib olish;
- ishlab chiqarish xarajatlari;
- ko'chmas mulk sotib olish va boshqalar uchun berilgan kreditlar.

Obyekt umumlashuviga ko'ra kredit:

- yiriklashgan;
- jamlangan (yig'ma);
- alohida ehtiyojga mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Shartnoma maqsadi bo'limida kredit bitimi obyekt, shuningdek, kredit summasi ko'rsatiladi. U kreditlashning miqdoriy chegarasini xarakterlaydi. Kredit agarda kredit liniyasi ochish tartibida berilayotgan bo'lsa, uning darajasi oylarga bo'lingan holda ko'rsatiladi.

Ikkinchi bo'lim ssudani berish va qaytarish tartibi va u bo'yicha bank huquqlarini o'z ichiga oladi. Yiriklashgan yoki jamlangan obyektни kreditlash sistematiك tarzda amalga oshiriladi va shuning uchun kredit berish ayni to'lovlar amalga oshirilayotgan paytda hisob-kitob varag'idan o'tmagan holda bajariladi. Kreditni qaytarish ham xuddi shunday sistematiك tarzda hisob-kitob varag'idan tomonlar kelishilgan muddatlarda amalga oshiriladi.

Kredit shartnomasida bankning quyidagi huquqlari belgilanadi:

- qarz oluvchidan kreditni ishlatishini nazorat qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan buxgalteriya va statistika hisobotlarini olish;
- berilgan kreditlar uchun foizlar olish;
- shartnoma shartlariga amal qilinmagan hollarda shartnomani bekor qilib, kredit berishni qisman yoki to'liq to'xtatish va berilgan kreditlarning muddatidan oldin foizlari bilan undirib olish;
- qayta moliyalash foizi o'zgartirish;
- shartnoma muddatini uzaytirish sabablarini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish;
- shartnomada ko'rsatilgan boshqa huquqlar;

- kredit bo'yicha qarzdorlik jadval bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikka o'tkazilgandan so'ng mijozning hisob raqamiga pul mablag'i bo'lganda va kelib tushgan holatda kreditning asosiy summasini qaytarish maqsadida mijozning roziligisiz uning hisob raqamidan chegirib olish. Bu holda bank qarz oluvchiga hisob raqamidagi mablag'lar kredit bo'yicha qarzni qondirishga qaratilishi to'g'risida yozma xabar beradi. Qarz oluvchining hisob raqamida mablag'i bo'lganda va mablag' kelib tushgan holda bank tomonidan kredit bo'yicha qarzdorlik mijozning roziligisiz memorial order bilan chegirib olinishi amalga oshiriladi;

- qarzdorning pul mablag'lari yetishmagan taqdirda kredit bo'yicha qarzlarni qarzdorning roziligiga ko'ra, uning likvidli mol-mulki

hisobidan yoki xo'jalik sudi orqali qarzdorning mol-mulkiga qaratish yo'li bilan undirish.

Qarz oluvchi to'lovga qobiliyatsiz deb belgilanganda, biznes-rejada ko'rsatilgan pul oqimlari tushumi muddatida ta'minlamay bank oldida qarzdorliklarni yuzaga keltirganda, u tomonidan kreditning ta'minlanishi bo'yicha majburiyatlari bajarilmaganda, kreditning asosiy qarzi yoki unga tegishli foiz to'lovlar ushbu shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda to'lanmaganda, qarz oluvchi tomonidan kreditning ishlatilishi majburiyatlari buzilganda, qarz oluvchi tomonidan hisobotlar muntazam taqdim etilmaganda yoki ular aniq bo'lmaganda, bank xodimlariga birlamchi hisobotlar va buxgalterlik hujjatlarini o'rganishga ruxsat berilmaganda, kafil tashkilotning moliyaviy holati yomonlashganda, tashkilotning tugatilishi yoki bankrot bo'lishi holati kelib qolganda, garovga olingan mulk saqlash holati talabga javob bermagan hollarda bank quyidagi huquqlarga ega:

- ushbu kredit shartnomasida qayd etilgan kreditni qarz oluvchiga to'liq yoki qisman berishni rad etishi;

- berilgan kredit va u bo'yicha foiz to'lovlarni muddatidan oldin undirish, shu jumladan, ushbu shartnomada belgilangan kredit ta'minoti hisobidan undirish;

- ta'minot turini boshqa likvid turiga almashtirilishini talab qilishi mumkin.

Alohida obyektlarni kreditlash esa o'zgacha mexanizmga ega bo'lib, u kredit shartnomasida belgilangan bo'lishi kerak. Masalan, kreditni berish va qaytarish to'liq summada yoki qismlarga bo'lib bajarilishi mumkin. Muvofiq tarzda kredit berish va qaytarishning summa va muddatlari ko'rsatilishi kerak. Ssudani berish mablag'lari to'g'ridan-to'g'ri to'lovlarni bajarishga yo'naltirish yo'li bilan, shuningdek, mablag'larni hisob-kitob qilish varag'iga o'tkazish yo'li bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Keyingi holatda ssudaning maqsadli yo'naltirilganligini ta'minlovchi mexanizm bo'lishi kerak. U o'z ichiga: a) mijozning ssudaning maqsadli yo'naltirilganligiga rioya etish majburiyati; b) berilgan mablag'larning maqsadli ishlatilishi ustidan bank nazorati shaklini oladi.

Kredit shartnomasining 3-bo'limida qarz oluvchining huquqlari ko'rsatiladi.

Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

- kredit shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda va muddatda kreditni olish;

- shartnomaga asosan yoki kreditor qarshi bo'lmasa, kreditni muddatidan oldin qaytarish;

- shartnomaga amal qilinmasa kredit shartnomasini bekor qilish;

- kredit shartnomasi muddatini uzaytirish va qayta moliyalash stavkasiga asosan kredit foizini o'zgartirishni talab qilish;

- kredit shartnomasida ko'rsatilgan boshqa huquqlar.

Kredit shartnomasining 4-bo'limida bankning majburiyatlari aks etadi. Bank majburiyatlariga mijozga ssuda varag'ini ochish, ssudalarni kerakli summa, ko'rinish va aniq muddatlarda berishni kiritish mumkin.

Bank majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- o'z vaqtida kreditni berish va pul hisob hujjatlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish;

- kredit shartnomasiga binoan kreditlarga foiz hisoblash;

- kreditni va unga foizlarni muddatidan oldin undirish hollarida qarzdorga ma'lumot berish;

- normativ hujjatlarning o'zgarishi to'g'risida mijozni xabardor qilib turish;

- shartnomada ko'rsatilgan boshqa majburiyatlar.

Bu majburiyatlarni bajarmaganda, bank mijozga jarima to'lashi ko'zda tutilgan bo'ladi (odatda, har bir kechiktirilgan kun uchun 0,01 foiz miqdorida). Shuningdek, bank kredit berishni to'liq yoki qisman to'xtatib qo'yish huquqiga egadir. Agar qarz oluvchi uni qaytara olmasligi to'g'risida ma'lumotlar bo'lsa, berilgan kredit bank tomonidan muddatidan ilgari undirilishining sabablari to'g'risida qarz oluvchiga yozma xabar beradi.

Qarz oluvchining hisob varag'iga mablag' kelib tushgan sana inobatga olingan holda berilgan kreditlar bo'yicha kunlik foiz to'lovlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarni kreditlash bo'yicha kiritiladigan o'zgarishlar bo'yicha qarz oluvchiga xabar berish v.b.

5-bo'lim mijozning majburiyatlariga bag'ishlanib, bu bo'limda quyidagi mijozlar kredit va foizlarning o'z vaqtida va to'liq ko'rsatilgan, qaytarilishiga yo'naltirilgan kreditlarning maqsadsiz ishlatilishi aniqlangan hollarda, maqsadsiz ishlatilgan summaning 25 foizi miqdorida jarima to'lash va ushbu shartnomaning 1-bandida ko'rsatilgan kredit summasining to'liq qaytarilishini;

qarz oluvchi korxonalar rahbari investitsiya loyihalarini (biznes-reja) texnik-iqtisodiy asoslanganligi, axborotning o'z vaqtida taqdim etilishi

va ishonchliligi, loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslash parametrlarini va beznes-rejalarni amalga oshirilishi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javob berishi, biznes-reja bo'yicha ko'zda tutilgan pul oqimlarini grafik bo'yicha tushishini ta'minlashi;

bankka garovga berilayotgan ko'chmas mulk va moddiy boyliklar sug'urta idoralarida sug'urtalangan va kredit shartnomasi yuridik kuchga ega bo'lishi uchun harakatdagi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan notarial idoralarda tasdiqlangan va davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lishi shart.

Bankka garovga berilayotgan ko'chmas mulk va moddiy boyliklarning yaxlitligini saqlash yuzasidan to'liq moddiy javobgar bo'lishi (kredit va unga hisoblangan foiz to'lovlar to'liq to'langunga qadar), ularni sotib yubormasligi va boshqa uchinchi shaxsga bermasligi shart. Kafolatchi tashkilotning moliyaviy holati yomonlashganda, tugatilishi yoki bankrotlik holatiga kelib qolish holatlari ro'y berganda, kredit ta'minotiga berilgan mulk holati yomonlashganda, bank talabiga binoan olingan kredit va foizlarni muddatidan oldin uzish yoki ta'minotini boshqa likvid ta'minotga almashtirish ko'zda tutilishi mumkin.

Kredit uchun foiz to'lovlar har oyning 20 sanasigacha to'lanadi.

Qarz oluvchi bankka quyidagilarni taqdim etadi:

Qarzlarning yuzaga kelish sanalari ko'rsatilgan debitor va kreditor qarzdorligi bo'yicha yoyilmasi ilova qilingan yillik va chorak balanslari.

Muddati o'tgan qarzlar bo'yicha solishtirma dalolatnomalar va bank nazorat funksiyasi uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar.

Birlamchi hisobotlar va buxgalterlik hujjatlariga ruxsat berilishi va bank talabiga ko'ra qarz oluvchi tegishli hujjatlardan zarurlarining nusxasi taqdim etilishi.

Kreditning maqsadli ishlatilishi yuzasidan bank xodimlari tomonidan tekshiruv o'tkazilishiga ruxsat berilishi, shuningdek, kreditning ishlatilishini joyiga chiqib tekshirish uchun ruxsat berilishi.

Ushbu kredit shartnomasi bilan huquqiy jihatdan bog'liq bo'lgan tovar-moddiy boyliklarining saqlanishi holati bo'yicha bank xodimlari tomonidan tekshiruv o'tkazishga ruxsat berilishi.

Agar kredit sug'urtalangan bo'lsa, har yil uchun sug'urta to'lovlarning o'z vaqtida to'lab borilishi.

Har yil uchun alohida kafil tashkilot moliyaviy holati to'g'risida yozma ma'lumot taqdim etish kabilar bo'lishi lozim.

Shuning uchun mijozning majburiyatlari to'g'ridan-to'g'ri kreditning tamoyillari, qoidalar va shartlariga amal qilishga bog'liqdir.

Mijoz majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- kreditdan belgilangan maqsadlarda foydalanishni ta'minlash;
- o'z vaqtida foizlarni to'lash va kreditni qaytarish;
- to'lovga layoqatliligi to'g'risida bankka ma'lumot berib turish;
- kreditni ta'minlash;
- berilgan kredit bo'yicha hal qilinishi lozim bo'lgan masalalarni echish uchun birlamchi buxgalteriya hisobotlari va hujjatlarini kerakli paytda kredit bo'limiga taqdim etish;
- 3-shaxsdan kredit olish to'g'risida bankni xabardor qilish;
- korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o'zgarishi hollarida bankni xabardor qilish;
- likvidatsiya paytida zudlik bilan kreditni (foizlari bilan) qaytarish;
- shartnomaga binoan boshqa majburiyatlar.

Kredit shartnomasining 5-bo'limida kredit qaytarilishini ta'minlovchi aniq usullari ko'rsatiladi. Ular quyidagicha bo'lishi mumkin:

- a) garovga qo'yilgan tovar-moddiy boyliklar;
- b) bank yoki sug'urta tashkilotining kafolati;
- d) uchinchi shaxsning kafilligi;
- e) sug'urta polisi.

Yuqorida keltirilgan kredit qaytarilishining kafolatini ta'minlovchi usullar kreditning barcha turlarida, qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini hisobga olgan holda ishlatiladi. Ular mijozga ishonch yetarli bo'lmaganda, ssudani pul tushumlari hisobiga qaytarishning yuqori riski mavjud bo'lganida qo'llaniladi.

5-bo'limda kreditdan foydalanganlik uchun bankka to'lanadigan foizlar darajasi aks etadi. Bu bo'limda quyidagi hollardagi foiz stavkasini belgilash, qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

- a) shartnomada ko'rsatilgan ssudadan foydalanish muddati davomida;
- b) ssuda prolongatsiya qilinganda;
- d) ssuda to'lashni kechiktirganda;
- e) mijozning kreditga layoqatliligining yomonlashganida yoki bitimning kredit riskini ko'paytiruvchi boshqa omillarning paydo bo'lishida.

Bundan tashqari kredit shartnomasida kreditga foiz hisoblash va uni undirish muddatlari ko'rsatilishi zarur. Inflyatsiya sharoitida kredit

shartnomasining yana bir punktida boshlang'ich o'rnatilgan foiz stavkalarining inflyatsiya o'sish darajalariga bog'liq holda o'zgartirish tartibi berilgan bo'ladi. Foiz stavkasini qayta ko'rib chiqishga asos bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasining o'zgarishi sabab bo'ladi.

Ba'zi hollarda kredit shartnomasida tomonlarning javobgarligi 6-bo'limda tomonlar olgan majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganda, O'zbekiston Respublikasi qonunlari oldida javobgar ekanligi va sanksiyalar berilgan bo'ladi.

«Shartnomaning qo'shimcha shartlari» degan bo'limda oldingi bo'limlarda ko'rsatilmagan boshqa shartlar belgilanadi. Ularga agar mijoz bu bankda hisob-kitob varog'iga ega bo'lmasa, summa va muddati ko'rsatilgan majburiy muddatli depozit ochish; kreditlash yoki kredit liniyasi limitining boshlang'ich o'rnatilgan summasini o'zgartirish tartibi; kredit shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibini kiritish mumkin.

«Kelishmovchiliklarni hal qilish» bo'limida quyidagilarni ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) tomonlar o'rtasida shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan kelishmovchiliklarni o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilish;

b) o'zaro kelishuv bilan hal qilish mumkin bo'lmagan kelishmovchiliklarni O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan respublika xo'jalik sudida hal qilish.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit shartnomasining yana bir bo'limi shartnomaning amal qilish muddati bo'lib, unda kredit shartnomasining amal qilish muddatini, ya'ni uning boshlanishi va oxirini belgilaydi.

Shartnomada, shuningdek, tomonlarning yuridik manzili (pochta manzili, hisob-kitob yoki vakillik hisoblari, telefon (faks) hamda muhrlar bilan tasdiqlangan imzolar aks etadi.

6-§. Kredit shartnomalarini qo'llash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi

Xorijiy banklar o'zlarining kredit shartnomalarini qo'llashning boy tajribasiga ega. Uni o'rganish O'zbekiston Respublikasi uchun katta amaliy ahamiyatga egadir. Turli mamlakatlarda tuziladigan kredit shartnomalarining asosiy xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

- huquqiy madaniyatning yuqori darajasi;

- kredit bitimi shartlarining batafsil xarakteri;
- kredit shartnomalari shakllarining tiplashganligi.

Yaponiyada kredit shartnomalar tuzish va ularni amalga oshirish sohasida bank yuristlari har doim advokat kontoralari bilan aloqa qiladilar va qiyin yuridik savollarga javob topadilar. Bank yuristlari bank xodimlarini yuridik jihatdan doimiy tarzda o'qitib turadilar.

AQShda eng batafsil kredit shartnomasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mijoz haqida umumiy ma'lumotlar;
- tuzilayotgan kredit bitimining asosiy parametrlari, summa, muddat va maqsadi;
- tasdiqlangan shartlar;
- inkor etiladigan shartlar;
- ssudalarni to'lash kafolatlari;
- shartnoma shartlarini bajarmaganlik uchun jazo choralari;
- to'lovga layoqatsiz va bankrot deb e'lon qilish mezonlari;
- bankka qarzni to'lamagan taqdirdagi bank huquqlari.

Germaniyada bir tizimdagi banklar uchun (xususiy, jamg'arma va h.k.) umumiy kredit shartlari o'rnatiladi. Ular kredit operatsiyalarining asosini tashkil etadi. Umumiy kredit shartlari mijozlarga yetkaziladi, kredit shartnomasida ular takrorlanmaydi, faqat qarz oluvchi unga rozi bo'lgan punkt yoziladi. Germaniyada kredit shartnomalari erkinlashgan xarakterga ega.


Kredit shartnomasining tipik shaklida quyidagi ko'rsatkichlar bo'ladi:

- tomonlarning to'liq nomlari va manzillari;
- olingan va olinayotgan kreditlar to'g'risida to'liq ma'lumotlar;
- yangi kreditning maqsadi;
- yangi kreditning shartlari;
- kredit uchun hisoblangan va undiriladigan foizlar summasini hisoblash tartibi;

- kredit qaytarilishining kafolati;
- boshqa shartlar;
- ma'sul shaxslarning muhrlar bilan tasdiqlangan imzolari.

Germaniyada bank va korxonada o'rtasida kredit shartnomasi quyidagi 3 bosqichda tuziladi:

- mijoz tomonidan kredit shartnomasi tarkibining shakllantirilishi;
- uning bank tomonidan ko'rib chiqilishi va xulosa berilishi;
- kredit shartnomasini imzolash.



19-rasm. Germaniyada kredit shartnomasini tuzish sxemasi

Banklarda kredit arizasini ko'rib chiqishning majburiyligi kredit shartnomasini tuzishning huquqiy asoslanganligi garovidir.

Xorijiy davlatlarda nafaqat kredit bitimini, balki mijozning o'zini ham chuqur o'rganish uning kredit riski omillariga doir majburiyatlarini aniqlashtirishga yordam beradi. Shuning uchun mijozning majburiyatlariga bag'ishlangan kredit shartnomasining bo'limi tarkibiga har bir ssudaning qaytib kelishiga qaratilgan aniq iqtisodiy va huquqiy shartlari kiritilgan.

7-§. Ssuda hisob varag'idan kredit berish va qaytarilish tartibi

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari alohida bir kredit muassasa singari o'zining kredit siyosatiga ega. Ya'ni har bir bank, qonun doirasida, o'zining bo'sh turgan mablag'larini o'zi xohlagan yo'nalishga, ko'proq daromad olishga yo'naltishi mumkin.

Mijoz ssuda olish uchun bankka belgilangan tartibda hujjatlar paketini rasmiylashtirib topshirganidan keyin kredit kommissiyasining qaroriga ko'ra kredit berish lozim deb topilib, bank va kredit oluvchi o'rtasida imzolangan kredit shartnomasiga asosan mijozga kredit beriladi. Buning uchun mijozga alohida ssuda hisob varag'i ochiladi.

Ushbu hisob raqamining debetida mijozlarga ssudalar beriladi. Bank tomonidan berilgan ssudalar qaytarilganda yoki muayyan ssudaning

maqomi o'zgarishi munosabati bilan boshqa turga o'tkazilayotganda va ushbu ssudalar bo'yicha ko'rilgan zarar qoplanayotganda tegishli ssuda hisob raqamlari kreditlanadi.

Berilgan ssudalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar uchun zaxiralar bankning foydasi hisobidan yaratiladi. Ushbu zaxiralar qarzdorning moliyaviy holatini berilgan ssudaning ta'minlanganligi va qaytmaslik risklarini baholash natijasida yaratiladi.

Demak, banklarda ssuda operatsiyalarini olib borish uchun quyidagi ssuda hisob raqamlari ochiladi:

12100-boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli ssudalar.

12300-hukumatga berilgan qisqa muddatli ssudalar.

12500-jismoniy shaxslarga va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan shaxslarga berilgan qisqa muddatli ssudalar.

12100-davlat korxonalariga berilgan qisqa muddatli ssudalar.

12900-qo'shma korxonalariga berilgan qisqa muddatli ssudalar.

13100-xususiy korxonalar va nodavlat korporatsiyalariga berilgan qisqa muddatli ssudalar.

Alohida ssuda hisob varaqlarning debet tomonida tegishli bank tomonidan korxonalar, tashkilot, jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar, kredit tomonida ularning qaytarilishi aks etadi. Yuqoridagi hisob varaqlarning barchasi bir qator subhisobvaraqlarni o'z ichiga olib, ularda muddatli, muddati o'tgan, qayta ko'rilayotgan ssudalar bo'yicha alohida-alohida hisob yuritiladi.

Agar xarid qilingan tovarning haqini darhol to'lash lozim bo'lsa-yu, lekin buning uchun firmaning o'z mablag'i yetmasa, bunday hollarda firmada bir martalik qarz mablag'lariga ehtiyoj paydo bo'ladi. Bu ehtiyojni qondirish uchun "kredit liniyasi ochilmagan" ssuda hisob varag'idan foydalaniladi. Bunday hisob varaqdan kredit berish bir marta ssuda berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunday ssudaning har biri bo'yicha bank alohida qaror qabul qiladi.

Korxonalar va tashkilotlarga yoki alohida olingan jismoniy shaxslarga ssuda hisob varag'i ochilgandan so'ng, ular bo'yicha ssudaning berilishi va qaytarilishi bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish mumkin. Har bir ssudaning berilishi kredit kommissiyasi farmoyishi asosida amalga oshiriladi, ya'ni kredit bo'limiga mijozga ssuda berish to'g'risidagi farmoyishni hisob operatsion bo'limi mas'ul ijrochilariga beradilar. Mas'ul ijrochilar farmoyishda ko'rsatilgan rekvizitlar asosida ssuda berish bo'yicha buxgalteriya provodkalarini bajaradilar. Ssuda hisob varaqlarining o'zi

muddatli, muddati o'tgan, qayta ko'rilayotgan kabi ssudalar bo'yicha alohida yuritiladi.

Quyida biz xususiy korxonalar va nodavlat korxonalariga ssuda berish provodkalarini bilan tanishib chiqamiz:

Xususiy korxonalar va nodavlat korporatsiyalariga berilgan „qisqa muddatli ssudalar“ nomli balans hisob raqami ochiladi. Bu hisob raqam bir qator subhisob raqamlarni o'z ichiga oladi.

13101-“Xususiy korxonalar va nodavlat korporatsiyalariga berilgan qisqa muddatli ssudalar”.

13105-“Xususiy korxonalar va nodavlat korporatsiyalariga berilgan muddati o'tgan ssudalar”.

13109-“Xususiy korxonalar va nodavlat korporatsiyalariga berilgan qisqa muddatli, shartlari qayta ko'rib chiqiladigan ssudalar”.

Ssuda berilayotganda korxonaning hisob-kitob hujjati to'lanayotgan bo'lsa, pul o'tkazilishi lozim bo'lgan mol sotuvchi yoki xizmat ko'rsatgan korxonaga hisob varag'iga ssuda summasi o'tkaziladi. Pul tushirilishi lozim bo'lgan korxonaga boshqa bank bo'limi xizmat ko'rsatsa, ssuda summasi ssuda berayotgan bankning vakillik hisob varag'i orqali tegishli bankka o'tkaziladi.

Ssuda berayotganda quyidagi buxgalteriya provodkasi amalga oshiriladi.

Debet 13101-Xususiy korxonalar va nodavlat korporatsiyalariga berilgan qisqa muddatli ssudalar.

Kredit 10301-bankning vakillik hisob varag'i yoki mahsulot sotuvchi korxonaga hisob varag'i.

13101 hisob varag'ida bank tomonidan xususiy firmalar, shirkatlar va jamoa xo'jaligi hamda korxonalar, nodavlat korporatsiyalar va shu kabi xususiy mulkchilik shakliga ega bo'lgan korxonalariga berilgan qisqa muddatli ssudalarning hisobi yuritiladi. Bu hisob raqam bo'yicha analitik hisob har bir qarzdor va ssuda turlari bo'yicha alohida shaxsiy hisob varaqlarda olib boriladi.

Ssuda oluvchi va bank o'rtasidagi tuzilgan kredit shartnomasiga binoan ssudaning qaytarish muddatlari belgilanadi. Ssudaning qaytarish muddati tugagandan so'ng ssuda qaytarish bo'yicha buxgalteriya provodkalarini quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

Debet 20208 - ssuda olgan xususiy korxonaning talab qilguncha saqlanadigan hisob varag'i.

Kredit 13101 - Xususiy korxonalar va nodavlat korxonalariga beriladigan qisqa muddatli ssudalar.

Bu buxgalteriya provodkasi mijozning talab qilguncha saqlanadigan depozit bo'yicha hisob varag'ida ssudani qaytarish uchun yetarli pul mablag'lari bo'lgan holda amalga oshiriladi. Agar qarzdorning qarzni qaytarishga mablag'i bo'lmasa, ssuda summasi 13101 - "Muddati o'tgan xususiy korxonalar va nodavlat korporatsiyalariga berilgan hisob varag'i"ga o'tkaziladi.

Bu operatsiya bo'yicha quyidagi buxgalteriya provodkasi amalga oshiriladi:

Debet 13105 - Xususiy korxonalariga berilgan muddati o'tgan qisqa muddatli ssudalar.

Kredit 13101 - Xususiy korxonalariga berilgan qisqa muddatli ssudalar.

Qaytarish muddati kelganda to'lanmagan va shundan so'ng 90 kun o'tgandan so'ng qaytib kelmagan ssudalar 13109 - "Xususiy korxonalar va nodavlat korporatsiyalariga berilgan qisqa muddatli shartlari qayta ko'rib chiqiladigan ssudalar" balans hisob varag'iga o'tkaziladi.

Korxonalar hisob varag'iga pul kelib tushgandan so'ng ssudani qaytarish bo'yicha buxgalteriya provodkalari bajariladi.

Shunday qilib, **kredit berilganda:**

Debet – 13 101.

Kredit – 10301.

Kredit qaytarilayotganda:

Debet – 20208.

Kredit – 13101 tariqasida bank provodkasi amalga oshiriladi.

8-§. Qisqa muddatli kreditning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlashda bank nazoratining roli

Tijorat banki o'zi xizmat ko'rsatayotgan mijozlar faoliyati to'g'risida doimiy axborotga ega bo'lishi, uning kredit qobiliyatini, to'lov intizomi ahvolini tahlil qilib borishi, ya'ni «ma'lumotlar banki»ni barpo etishi lozim. Kreditlash jarayonida kredit shartnomasi shartlarini bajarishga qarz oluvchi olingan kreditdan samarali foydalanishiga, uni o'z vaqtida va to'liq qaytarishiga, kreditdan foydalaniladigan butun davr mobaynida qarz oluvchi bilan yaqin aloqa saqlab turishga qaratilishi lozim. Shu maqsadda mijozning xo'jalik moliyaviy holati, uning tuzilgan shartnomalarga nomuvofiq mahsulot yetkazib berishi borasidagi o'z majburiyatlarini, ishlab chiqarish hajmlarini qanday bajarayotgani, yo'l qo'yayotgan behuda xarajatlar va yo'qotishlar, muomala chiqimlari, olayotgan foydasi, o'z aylanma mablag'lari ko'payishi dinamikasi,

tovar-moddiy boyliklar zaxiralari hamda aylanma mablag'lari aylanishining ahvoli tahlil qilib turiladi.

Bank har chorakda mijozning kredit qobiliyatini hisoblab chiqib, qarz oluvchi bo'yicha tutilgan maxsus yig'ma jildda bu ma'lumotlarni to'plab boradi.

Joyning o'zida buxgalteriya hisobi va hisobot ishlarining ahvoli, balans ma'lumotlarining to'g'riligi va debitorlik-kreditorlik qarzlarning holati, shuningdek, bankka berilgan garov holati tekshirib turiladi. Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashgan, u bank nazoratidan bo'yin tovlagan, hisobot ma'lumotlari noto'g'ri olib borilgan, buxgalteriya hisobi o'z holiga tashlab qo'yilgan hollar aniqlanganda «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunga muvofiq bank bundan buyon kredit berishni to'xtatishga hamda ilgari berilgan kreditlarni ta'minot sifatida qabul qilingan va kredit shartnomasi shartlarida ko'zda tutilgan majburiyatlar orqali, qarz oluvchining o'z mablag'lari hisobidan, muddatidan oldin undirib olishga haqli.

Garov to'g'risidagi shartnoma bo'yicha, bank garovga qo'yilgan mulkni mustaqil ravishda sotishi mumkin. Garov predmeti auksion orqali sotiladi. Ayni paytda qarz oluvchi bankka garovga qo'yilgan mulk oldindan ma'lum past narxlarda sotilishi uchun javobgarlik to'g'risida talab qo'yishga haqli. Agar auksion bo'lib o'tmagani e'lon qilinsa, bank garovga qo'yilgan mulkni dastlabki narxda o'z ixtiyorida qoldirishga haqli. Bunda bank qonunga muvofiq uning talablari oldida ustunlikka ega bo'ladigan da'volarni qoldirishga majbur.

Bunday hollarda bank majburiyati shu mulkning auksion uchun dastlab belgilangan narxi summasidan oshmasligi zarur.

Garov predmetini sotishdan oldin summa kreditini qoplash uchun yetarli bo'lmagan hollarda, bank, agar shartnomada boshqa shart ko'zda tutilmagan bo'lsa, etishmayotgan summani qarzdorning boshqa mulki hisobidan qonunda ko'zda tutilgan navbatdagi tartibda olish huquqiga ega.

Garov predmetini sotishdan tushgan summa qaytarilmagan kredit hajmidan ortiq bo'lsa, bank o'rtadagi bu tafovutni bir oy ichida qarz oluvchiga to'lashi shart.

Agar qarz oluvchi to'lov muddati kelgandan so'ng 90 kun ichida kredit shartnomasiga muvofiq qarzni to'lash bo'yicha majburiyatlarni bajarmasa, bank «Bankrotlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq to'lovga layoqatsizlik to'g'risida ish qo'zg'ash uchun xo'jalik sudiga murojaat qilishi kerak.

Tijorat banklari amaldagi nizomga muvofiq kredit portfeli sifatini muntazam ravishda tahlil qilib borishlari, har bir kredit bilan bog‘liq risk darajasini tasniflashlari hamda uni quyidagi 5 ta guruhdan biriga kiritishlari lozim:

- a) standart
- b) substandart
- d) qoniqarsiz
- e) shubhali
- f) umidsiz

Tijorat banki qarz bo‘yicha ehtimol tutilgan yo‘qotishlar uchun rezerv barpo etishi shart. Bu rezervga mablag‘lar amaldagi tartibga muvofiq kiritiladi. Qarzlilar bo‘yicha ehtimol tutilgan yo‘qotishlar uchun rezerv xo‘jalik organlarga berilgan kreditlar tahlili hamda bank faoliyatining risk darajasiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni belgilash asosida tashkil qilinadi. Rezerv hajmi amaldagi qarzidorlik risk hujjati yoki guruhiga bog‘liq bo‘ladi. Tijorat banklari rezerv hajmini hisobot oyining har birinchi kuni uchun amaldagi tartibga asosan hisoblab chiqadilar. Berilgan qarzlilar kiritilgan «risk guruhi» yomonlashgan taqdirda qarzlilar bo‘yicha ehtimol tutilgan yo‘qotishlar uchun rezervga ajratmalar har oyda o‘tkazib boriladi. Bank oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarmagan qarz oluvchiga nisbatan bank kredit shartnomasi shartlariga ko‘ra quyidagi huquqlarga ega:

- agar u kelishilgan muddatlarda bank tavsiyalarini bajarmasa, kreditlash to‘xtatilib, uni qaytarib olish to‘g‘risida ogohlantirilgan da‘vo xati yuborish;

- kreditdan foydalanganlik uchun foizlar o‘z vaqtida to‘lanmagan, shuningdek, kredit shartnomasida belgilangan muddatda qaytarilishi ehtimoldan uzoq bo‘lgan hollarda, qarz oluvchiga bankrotlik to‘g‘risidagi qonunda ko‘zda tutilgan jazo choralari qo‘llanishi haqida ogohlantirish berilgan da‘vo xati yuborilib, kredit bo‘yicha qarz qoldig‘ini muddatdan oldin undirib olish;

- qarz oluvchi hisob yuritish va buxgalteriya hisobi qoidalarining buzganligi aniqlansa, kreditlashni to‘xtatish va bu haqda soliq inspeksiyasiga xabar berish, shuningdek, undan hisob va hisobot qoidalari buzilish sabablari to‘g‘risida izoh berilishi, ularni tugatish yuzasidan qanday choralar ko‘rilayotgani bildirilishini talab qilish.

Kreditni o‘z vaqtida qaytarish borasidagi majburiyatlarni bajarayotgan qarz oluvchi o‘zining to‘lovga layoqatsizligi to‘g‘risida matbuotda e‘lon berishi, bank esa bu haqda soliq inspeksiyasiga xabar

qilishi kerak. Bank xo'jalik sudiga murojaat qilib, bundan buyon qarz oluvchi bankrot deb tanilishini so'rashga haqlidir.

Qarz oluvchi to'lovga layoqatsiz yoki bankrot deb e'lon qilinganda, unga yangi qarzlarni berish to'xtatiladi, ilgari berilgan kreditlar esa muddatidan oldin undirib olinadi. To'lovlar navbati «Bankrotlik to'g'risida»gi qonunga muvofiq belgilanadi. Qarz oluvchi bankrot deb e'lon qilingan vaqtdan boshlab uni quyidagilar bilan bog'liq operatsiyalari to'xtatiladi:

- mulkni begonalashtirish va berish;
- majburiyatlarni qoplash;
- hisob-kitobdagi xarajatlar;
- dividendlar, soliqlar, to'lovlar to'lash.

To'lovga layoqatsiz qarz oluvchining barcha qarz majburiyatlari tugagan hisoblanadi va unga yangi talablar bildirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Bunday qarz oluvchining barcha turdagi qarzlari penya va foizlar qo'yish to'xtatiladi. Uning mulkini sotib, pul undirish bo'lasidagi barcha cheklashlar bekor qilinadi. Mulkiy yoki moliyaviy tusdagi hamma talablar faqat tugatish jarayoni doirasida hal qilinadi. Bunda bank talablari ikkinchi navbatda qanoatlantiriladi.

Mulk yetarli bo'lmagani tufayli qondirilmagan qarz majburiyatlari qanoatlantirilgan hisoblanadi va belgilangan tartibda hisobdan chiqariladi. Kreditdan ko'zlanmagan maqsadlarda foydalanganlik uchun qarz oluvchi bankka kredit shartnomasida belgilangan hajmda jarima to'laydi.

Bank esa, o'z navbatida, tuzilgan shartnomaga muvofiq qarz oluvchini kredit resurslari bilan ta'minlashi shart.

Bank o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda qarz oluvchiga shartnomada ko'zda tutilgan miqdorda jarima to'laydi.

9-§. Kredit monitoringi va uning amalga oshirilishi

Nazoratdan farqli kredit monitoringi kreditlar holatini doimiy kuzatib borishini ko'zda tutadi.

Umuman, kreditlash operatsiyalari tijorat banklarining o'z kredit siyosatlarini asosida, Markaziy bankning kredit siyosatiga qo'yilgan talablaridan kelib chiqqan holda olib boriladi. Kredit monitoringi kredit siyosatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib mijozlarga berilgan kreditlarning qaytarilishini, qolaversa, banklarning asosiy daromad manbalaridan biri hamda eng riskli operatsiyasi bo'lgan kreditlash bankning raqo-

batbardoshligini, rentabelligini, qisqacha ifodalaganda, bankning kelajagini ta'minlaydi.

Kredit monitoringi berilgan kreditlarning qaytarilishi va uni ta'minlash borasida qabul qilinadigan ishlovlar va chora-tadbirlar tizimidir. Kreditlar kredit qo'mitasining qarori asosida, belgilangan me'yoriy shartlar asosida, alohida ssuda hisob raqamini ochish va ushbu hisob raqamdan qarz oluvchining to'lov topshiriqnomasi asosida moddiy tovar boyliklar uchun naqd pulsiz o'tkazish yo'li bilan qarz beriladi. Tijorat banklari tomonidan kreditdan foydalanishning butun muddati davomida doimiy monitoring amalga oshiriladi va u qarz oluvchi tomonidan uning loyihasi va kredit shartnomasi shartlarining amalga oshirilishiga har tomonlama ko'maklashishiga qaratilgan bo'lishi lozim.

Monitoring jarayonida kredit olgan mijozning xo'jalik moliyaviy faoliyati, uning tuzilgan shartnomalarga muvofiq mahsulot yetkazib bersh majburiyatlarini bajarishi, ishlab chiqarish hajmlari, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotishlar, muomala chiqimlari, foyda va daromad mutanosibligi, o'z aylanma mablag'lari mavjudligining dinamikasi, tovar-moddiy boyliklar zaxiralari ahvoli, aylanma mablag'larning aylanishi tahlil qilinadi. Bank qarz oluvchining kreditga layoqatligi bo'yicha doimiy monitoringni amalga oshiradi va uning ko'rsatkichlarini qarzdorning kredit paketiga tikib boradi.

Bulardan tashqari bankka taqdim etilgan garovning holati va kreditdan samarali hamda maqsadli foydalanishi kredit shartnomasida kelishilgan shartlarga muvofiq garov obyekti faoliyat joyining o'zida o'rganiladi.

Qurilishni moliyalashtirish uchun berilgan kreditlar bo'yicha bank monitoring jarayonida kreditlangan obyektida kredit shartnomasida qayd etilgan muddatlar va shartlar asosida bajarilgan ishlar hajmining nazorat o'lchovini amalga oshiradi.

Berilgan kreditlardan boshqa maqsadlarda foydalanganlik holati aniqlanganda, bank kredit shartnomasida belgilangan tartibda, kreditning maqsadga nomuvofiq ishlatilgan qismini qarz oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisob raqamidan muddatdan oldin undirib olish huquqiga ega. Qarz oluvchi tomonidan asosiy qarzni va unga hisoblangan foizlarni kredit shartnomasida kelishilgan muddatda qaytarilmasa, bank Fuqarolik kodeksining 280-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq mustaqil ravishda sudga murojaat etmasdan, garov predmetini tasarruf qilish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2000-yil 22-fevralda tasdiqlangan, 432-sonli «O'zbekiston Respublikasi banklarida

kredit hujjatlarini yuritish tartibi to'g'risida»gi nizomga asosan kredit monitoringi faoliyatida qo'llaniladigan hujjatlar keltirilgan. Unga ko'ra, tijorat banklari har bir berilayotgan yoki olinayotgan kreditlar bo'yicha kredit paketiga quyidagi hujjatlarni ilova qilish lozim:

- qarzdorning moliyaviy ahvoli va to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishi imkoniyatlarini tekshirish maqsadida tegishli shartnomalar tuzilganidan so'ng bank va qarzdor o'rtasida yuz bergan muammolarni aks ettiruvchi yozishmalar va hujjatlar;

- kredit ta'minoti sifatida berilgan mulkni tekshirish hujjatlari;

- qarzdor kafilining moliyaviy ahvolini aks ettirgan barcha hujjatlar;

- kreditning o'z vaqtida va to'liq qaytarilishini ta'minlovchi hujjatlar;

- qarzdor to'lovlarni amalga oshirmagan holda bank tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlarni tasdiqlovchi hujjatlar.

Kreditga doir xizmat ko'rsatuvchi bank o'tkazish to'g'risidagi shartnoma shartlariga muvofiq kreditning o'z vaqtida va to'liq to'lanishini aks ettiruvchi hujjatlarni kredit paketida yuritishi shart.

Kredit monitoringiga qo'yiladigan talablar quyidagilarni tashkil etadi:

- kredit siyosatida kreditlarni tasniflash tizimi aniq ifodalanishi lozim;

- kredit xodimlari kredit portfelidagi barcha ma'lum bo'lgan salbiy o'zgarishlar to'g'risida rahbariyatga xabar berishlari kerak;

- qarzdor yoki garov ahvoli yomonlashishini oldindan aniqlash ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirish uchun juda muhimdir.

Kredit siyosati kreditlarning barcha toifalari bo'yicha «to'lovsizlik» tushunchasining aniq ifodalanishi, foizlarni o'stirmaslik mezonlari, shuningdek, bank boshqaruvi va kengashining tegishli hisobotlariga nisbatan talablarni o'z ichiga olishi lozim. Hisobotlarda ahvolning yomonlashishi, yashirin sabablari va sog'lomlashtirish rejaları batafsil bayon etiladi. Siyosat qarzlarni qaytarishga doir izchil, bosqichma-bosqich chora-tadbirlar ko'rilishini talab qilishi kerak. Rahbariyat Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq kreditlarni hisobdan chiqarish tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Kredit monitoringi faoliyatining asosiy tamoyili quyidagilarga asoslanishi kerak:

- Turli xil ko'rinishdagi kreditlarning davriy nazorati. Bu nazorat asosan kichik hajmdagi kreditlar yuzasidan bo'lib, 30 kunlik, 60 kunlik, 90 kunlik nazoratlar shaklida bo'ladi.

Kredit nazorati bosqichlarining diqqat bilan qayta ko'rishni, ya'ni:

1. Mavjud kredit bo'yicha to'lovlar hisobi ma'lumotlarining ishonchliligi.

2. Kredit ta'minotining holati va sifati.

3. Huquqiy jihatdan kredit qaytarilishining ishonchli ma'lumot hujjatlarining to'liq bo'lishi lozim.

4. Mijozning bank krediti bo'yicha moliyaviy holatidagi o'zgarishlar va natijada kredit miqdorining ortishi yoki qisqartirilish darajasi.

5. Berilgan kreditning bank kredit siyosatiga va standartlariga mos bo'lishi.

6. Muammoli ssudalarning tez-tez tekshirilishi.

7. Iqtisodiy nobarqarorlik davrida kreditlarni tez-tez nazorat qilish v.b.

Hozirgi kunda kreditlash sohasida eng asosiy muammolardan biri kreditning to'liq qaytarilishidir. Bu o'rinda kredit monitoringi juda katta ahamiyatga ega. Kreditlarning to'liq qaytib kelmasligiga asosiy sabab, «kredit tanlovi»ning iqtisodiy tamoyilga mos tushmay qolishidir. Bu yo'qotishlar, xatolar bevosita kredit oluvchi subyekt haqida ma'lumotlarning yetarli emasligi yoki obyektiv emasligidan yuzaga keladi. Buning uchun xorij amaliyotida keng qo'llaniladigan va hozirda O'zbekistonda ham amaliyotga tatbiq qilinib borilayotgan kredit byurosi faoliyatini takomillashtirish, unda markazlashgan holda, mijozlar haqida to'liq ma'lumotlar bera oladigan axborotlar bazasini yaratish va uning ishonchli va obyektiv ishlashini shakllantirish banklar uchun, iqtisodiyot uchun, bir bank infrastrukturasi uchun katta foyda keltiradi. Tezkor ma'lumotlar asosida banklar hamda mijozlar vaqtdan yutadilar. Bu tezkor ma'lumotlar kredit xarajatlarini uchinchidan, bank faoliyati operativligini, barqarorligini, salohiyatini oshiradi va, albatta, kredit monitoringi ishlari ham qisman yengillashadi, xususan, muammoli kreditlarning kamayishi hisobiga.

Kredit monitoringi ishlarini yengillashtiradigan yana biror xususiy yechim kreditlarni berishda mijozning biznes loyihasidan kelib chiqqan holda, loyihaning marketing tadqiqotining haqqoniyligi, hayotga yaqinligi bo'lishi kerak, chunki yangi ishlab chiqariladigan tovarga talab qanchalik yuqori bo'lsa, loyihaning moliyaviy natijasi ham samarali bo'ladi. Bu esa kreditlarning to'liq qaytarilishini ta'minlaydi. Zotan, kredit monitoringining asosiy vazifasi mijozga kreditni qaytarishiga ko'maklashishdir.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Bank siyosati	Kredit paketi
Kredit siyosati	Biznes reja
Valyuta siyosati	Qayta moliyalash
Kredit memorandum	Ssuda hisob varag'i
Fond siyosati	Debetlash
Kredit menejmenti	Kreditlash
Kredit portfeli	Foiz miqdori
Kredit monitoringi	Bank majburiyatlari
Kredit	Mijoz huquqlari
Bank huquqlari	Bank nazorati

O'z bilimini tekshirish uchun savollar

- Kredit siyosatining mohiyati va maqsadini tushuntiring.
- Kredit siyosatini qaysi muassasa tuzadi, uning xususiyatlarini keltiring.
- Kredit siyosatining tarkibiy qismlarini sanang va tushuntiring.
- Kredit siyosatida asosiy e'tibor nimaga qaratiladi.
- Kredit siyosati qancha davrga tuzuladi va uni o'zgartirish mumkinmi?
- Agar kredit siyosatini o'zgartirish mumkin bo'lsa, u qanday amalga oshiriladi.
- Agar siz bankingiz uchun kredit siyosat ishlab chiqsangiz, qaysi omillarga asosiy e'tiborni qaratasiz?
- Mijoz kredit olishi uchun nima qilishi kerak?
- Kredit paketi deganda nimani tushunasiz, uning tarkibini gapiring.
- Kredit berish qoidasini ayting.
- Kredit qanday turlanadi?
- Kreditlashda bank nazorati qanday amalga oshiriladi?
- Kredit monitoringi nima va u qanday amalga oshiriladi?
- Tijorat banklarida kredit hujjatlarini yuritish qaysi me'yoriy hujjatga asosan olib boriladi?
- Kredit shartnomasi qachon va qay tartibda tuziladi?
- Kredit shartnomaning tarkibiy qisimlarini izohlang.
- Kredit shartnoma qachon o'z kuchini yo'qotadi?
- Kredit shartnoma bo'yicha xorijiy mamlakatlar amaliyoti to'g'risida gapirib bering.

XI BOB. TIJORAT BANKLARINING KREDIT PORTFELI VA UNING SIFAT TAHLILI

1-§. Tijorat banklarining kredit portfeli va uning iqtisodiy mohiyati

Tijorat banklari faoliyatining barqarorligi va raqobatbardoshligi ularning resurslarini to'g'ri tashkil qilish va ulardan oqilona foydalanishga bog'liq. Shuni ta'kidlash lozimki, tijorat banklarining depozit va kredit portfeli tashkil qilish, boshqarish, uni diversifikatsiya qilish bank faoliyatining samaradorligini ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti keng rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining kredit siyosatiga, ularning kredit portfeli va uning sifatiga, undan foydalanish darajasiga katta e'tibor beriladi, chunki banklar kredit portfeli to'g'ri tashkil qilinishi ularning samarali faoliyat ko'rsatayotganidan dalolat beradi. Banklar faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy o'rinni egallagani uchun ularning kredit portfeli to'g'ri tashkil qilish, banklarning samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun imkoniyat yaratib beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kredit operatsiyalarini olib borishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar banklar daromadining kamayishiga, ba'zi hollarda ularning sinib ketishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli banklarning kredit portfeli va uning sifatini nazorat qilib borish tijorat banklarining samarali faoliyatining garovidir. Aynan kredit portfeli oqilona boshqarish kredit risklarini kamaytirishning omili hisoblanadi.

Banklarning kredit portfeli, uning holati to'g'risida biron fikr bildirishdan oldin, dastlab kredit portfeli iqtisodiy mohiyatini tushunib olishimiz lozim. Berilgan kreditlarning o'z vaqtida banklarga qaytarilishi kreditlash jarayonining qay darajada tashkil qilinishiga, kredit berish va qaytarilishining muddatlariga rioya qilinishiga, ssudalar, ayniqsa, muddati o'tgan yoki uzaytirilgan kreditlar bo'yicha hisob-kitob operatsiyalarining to'g'ri olib borilishiga, ssudalar bo'yicha zararlarni qoplash rezervi miqdoriga, banklararo kredit va markazlashtirilgan kreditlar bo'yicha operatsiyalarning qonuniyligiga va kreditlarni to'g'ri turkumlash bo'yicha banklarda o'tkaziladigan analitik operatsiyalarning sifatli va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Banklar tomonidan bajariladigan barcha kredit operatsiyalari ularning kredit portfelida o'z ifodasini topishi, har bir bank kredit

portfelining sifatli bo'lishiga erishishi zarur. Bu esa kreditlarning o'z vaqtida qaytib kelishiga asos bo'lishi mumkin.

Tijorat banklari tomonidan kredit portfelining sifat bo'yicha tavsifi kreditlarning qaytarilishi va kredit riskini qisqartirishni ta'minlashda qo'llaniladi.

Kreditlarning belgilangan muddatda qaytarilishi quyidagi qator sabablarga bog'liq:

1. Alohida olingan banklarda kredit berish jarayonining tashkil qilish darajasi.

2. Ssudalar berilishi va qaytarilishi tartibiga amal qilish darajasi.

3. Ssudalar va, ayniqsa, muddati uzaytirilgan va muddati o'tgan ssudalarni hisobga olish jarayonining to'g'ri aks ettirilishi.

4. Ssudalarning to'g'ri tasniflanishi.

5. Ssudalar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga ajratilgan zaxiralar miqdori v.b.

Kredit portfelining mohiyatini ochib berishda quyidagi omillarni inobatga olish zarur. Bular:

- kreditlar bo'yicha risk darajasi;

- kredit berish obyektlari;

- kreditdan foydalanish muddati;

- kreditning hajmi va ta'minlanganligi;

- mijozning moliyaviy holati, mulk shakli v.b.

Kredit portfeli faqat normal kreditlarni emas, balki muddati o'tgan kreditlarni ham o'z ichiga oladi. Bu omillarni e'tiborga olish tijorat banklarining kredit portfelini shakllantirishda, ularning faoliyatini to'g'ri tashkil qilishda katta ahamiyatga ega. Kredit risklarining darajasi xorijiy banklar va bizning banklarimiz amaliyotida ham banklarning kredit portfelini ifodalovchi mezonlardan asosiy hisoblanadi. Aynan shu ko'rsatkichning darajasiga qarab, kredit portfelining sifati aniqlanadi. Banklarning kredit portfelini baholash va tahlil qilish bank menejerlariga ssuda operatsiyalarini samarali boshqarishga imkon beradi.

Banklarning kredit portfelini tashkil qilishning asosiy maqsadi bankning kredit siyosati sohasidagi strategiyasini ishlab chiqish, kreditlarning sifatini tahlil qilish va uni yaxshilash sohasida choralar ishlab chiqishdan iborat. Buning uchun bank berilgan kreditlarning belgilangan limitlarga mos kelishi, kredit resurslardan foydalanish samaradorligi, kredit risklarni kamaytirish va kreditlarning sifatini yaxshilash kabi ko'rsatkichlarning haqiqiy holatini tekshirib borish zarur.

Tijorat banklarining kredit portfelini tashkil qilish kreditlashni tashkil qilish tamoyillariga asoslangan bo'lishi lozim. Kreditning muddatligi, uning o'z vaqtida qaytarilishi va to'lovliligi kredit portfelining barqarorligini va sifatligini ta'minlashga asos bo'lishi mumkin.

Kredit portfelining sifatini doimiy ravishda nazorat qilish tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish garovidir. Ularning kredit portfelini oqilona boshqarish esa kredit risklarini kamaytirishning asosiy omillaridan hisoblanadi. Shuni qayd qilish lozimki, banklarning moliyaviy hisobotlari va boshqa qo'shimcha ma'lumotlari ulardagi aktivlar sifatining real holatini, shuningdek, kredit portfeli bo'yicha mavjud muammolarning bank daromadiga ta'sirini aks ettirishi lozim. Bunday ma'lumotlarning yo'qligi nafaqat bank aksiyadorlari yoki Markaziy bank va boshqa manfaatdor tomonlarni chalg'itib qo'ymasdan, balki bankning o'ziga ham risklarni boshqarish jarayonida zarar yetkazishi mumkin. Bankning kredit portfeli va uning sifati to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lmaslik, zarur hollarda oldindan choralar ko'rilmaslik natijasida muammoli kreditlar yuzaga kelishi mumkin. Muammoli kreditlar banklardagi risklarni minimal darajaga yetkazishga to'siq bo'lib turadi. Kredit portfeli sifati haqida obyektiv ma'lumotlarning yo'qligi bank rahbariyati tomonidan bankning kredit siyosatiga zarur o'zgartirishlar kiritilishiga ham xalaqit beradi.

Banklarning kredit portfelini tashkil qilishda:

- kredit risklari darajasini inobatga olgan holda kreditlarning sifatini baholash mezonlarini tanlash va ular asosida kreditning sifatini baholash usullarini ishlab chiqish, ssudalarning asosiy guruhlarini, ularning foiz stavkalar asosida aniqlash;

- kreditlarni tavsiflash (turkumlash);

- har bir kredit guruhi bo'yicha risk foizi darajasini aniqlash;

- har bir kredit va bank bo'yicha kredit riskining absolyut summasini aniqlash;

- tegishli ma'lumotlar asosida kreditlar bo'yicha zararlarni qoplash uchun yetarli rezerv summasini aniqlash;

- koeffitsiyentlar bo'yicha kredit portfelining sifatiga baho berish;

- kredit portfelining tarkibini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur.

Shunday qilib, tijorat banklarining kredit portfeli turli xil kredit risklariga asoslangan, muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlar miqyosidagi bank talablarining yig'indisi bo'lib, uni samarali boshqarish kredit risklarini va, umuman olganda, bank risklarini ka-

maytirishning muhim omili hisoblanadi. Banklarning kredit portfelini samarali tashkil qilish va uning sifatini tahlil qilish banklar faoliyatini olib borishda muhim o‘rin egallaydi.

2-§. Tijorat banklari kredit portfelining sifat tahlili

Kredit portfelini boshqarishda alohida olingan ssudalarning sifatini baholash mezonlarini ishlab chiqish va ularni baholash asosiy o‘rinni egallaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kredit munosabatlarining rivojlanishi berilgan kreditlar sifatini baholash mezonlarining kengayishiga olib keldi. Jahon amaliyotida banklar tomonidan berilgan kreditlarning sifatini baholashning 10 xildan ortiq yo‘nalishlari mavjud. Kreditning sifatini baholash kreditning maqsadi, uni to‘lash usuli, mijozning kreditga layoqatlilik darajasi, uning qaysi tarmoqqa taalluqli ekanligi va mulk shakli, mijozning bank bilan munosabatining xarakteri, bankning mijoz to‘g‘risida to‘liq axborotga ega ekanligi va uning yetarliligi darajasi, ssudalarning ta‘minlanganligi, hajmi va boshqa mezonlarga asoslanadi.

Bank aktivlarining sifatini aniqlashga ularning kredit portfelini o‘rnatilgan me‘yorlar asosida tavsiflab chiqish orqali erishilishi mumkin. O‘zbekistonda 1996-yil iyulidan boshlab Markaziy bank tasdiqlagan me‘yorlarga asosan tijorat banklari aktivlarini tavsiflash va ssudalar bo‘yicha yo‘qotishlarni qoplash uchun rezervlarni tashkil qilish amalga oshirilmoqda. Me‘yoriy hujjatlarga asoslanib banklar tomonidan berilgan kreditlar bo‘yicha qarzlarning sifati, mijozning kreditga layoqatlilik ko‘rsatkichlari, uning moliyaviy holati, kredit riskining darajasi, kelajakda kreditni qaytib berish imkoniyati, kreditning ta‘minlanganlik darajasi, kreditni to‘lash muddatidan necha kun o‘tganligi kabilarni inobatga olgan holda kreditlar guruhlariga tasniflanadi. Kreditlarni tasniflashdan asosiy maqsad qarz oluvchining to‘lay olish qobiliyatini hamda qarzning o‘z vaqtida qaytarilishi uchun pul oqimining holatini baholashdan iborat.

Tijorat bankining kredit portfeli sifatiga baho berganda, qarz oluvchining quyidagi jihatlariga alohida e‘tibor berish lozim. Bular:

- tarmoq (iqtisodiyot sektori) tendensiyasi va istiqboli;
- muayyan loyihaning texnik amalga oshiriluv va iqtisodiy raqobatbardoshligi;
- moliyaviy holati va kredit olishga qodirligi;

- kredit tarixi, kredit ta'minotining yomonlashuvi yoki likvidliligining pasayishi;
- muayyan loyihaning iqtisodiy jihatdan asoslanishi;
- rahbarning boshqarish qobiliyati (agar qarzdor yuridik shaxs bo'lsa) v.b.

Banklarning kredit portfelini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tasniflash mumkin:

- risklar bo'yicha;
- iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha;
- berilgan kreditlarning qaysi maqsadga yo'naltirilganligi bo'yicha;
- foydalanish muddati bo'yicha;
- mablag'ning hajmi bo'yicha;
- ta'minlanganlik shakli bo'yicha;
- mulkchilik shakli bo'yicha va boshqa yo'nalishlar bo'yicha.

Undan tashqari manbalariga va qarz oluvchining mintaqaviy o'rni va manzili bo'yicha ham tijorat banklarining kredit portfelini tasniflash mumkin. Tasniflash asosan milliy valyutada amalga oshiriladi. Ba'zi hollarda qayta moliyalashtirish va o'z mablag'lari hisobidan beriladigan kreditlar qattiq valyutada ham amalga oshirishi mumkin.

Tijorat banklari faoliyatida yuqorida keltirilgan risk turlarining barchasi uchrab turadi, lekin ularning faoliyatiga ko'proq ta'sir qiladigan risklar kredit riski, likvidlilik riski va foiz stavkasi riski hisoblanadi. Tijorat banklar faoliyatining asosiy qismi kreditlar berish va shu asosda foyda olishga yo'naltirilgan bo'lganligi uchun ular faoliyatida bu risklarning salmog'i ham yuqori bo'ladi.

Tasniflangan kreditlarning har qaysi guruhga kirishi darajasi tez sotiladigan aktivlar va yuqori likvid mablag'larning mavjudligi bilan belgilanadi.

Darslikning 4-bobida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 2015-yil 13-iyunda tasdiqlangan 14/5-sonli qaror asosida ishlab chiqilgan «Tijorat banlari aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida»gi nizomga asosan tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar (aktivlar) sifatiga ko'ra «standart», «substandart», «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» toifalarga tasniflanadi.

Kreditlar sifatining tahlili va tasnifi natijalari yuqorida keltirilgan mezonlarga asoslanadi va ushbu mezonlar tijorat banklarining kredit

portfeli va boshqa aktivlaridagi risklarni aniqlash va baholashda qo'llaniladi.

O'z muddatida to'lanishiga shubha tug'dirmaydigan kreditlar sifati «standart» deb tasniflanadi. Bunda qarz oluvchi moliyaviy holati barqaror hisoblanadi, u yetarli miqdorda kapitalga, yuqori daromadga ega, barcha mavjud majburiyatlarini, jumladan, olgan kreditini qoplash uchun yetarli pul mablag'lari oqimiga, shuningdek, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan strategik rejaga, bozorda raqobatdoshlik qobiliyatiga, yaxshi mahsulotni ishlab chiqarishga va o'z mahsulotini sotish bo'yicha marketing rejasiga ega bo'ladi. Ta'minoti bo'yicha kredit «yaxshi ta'minlangan»ga mos keladi. Ta'minot turlari qonuniy jihatdan to'g'ri va tasdiqlangan. Risk paydo bo'lganda, bank cheklovlarsiz ta'minot hisobidan kreditni undirib olish imkoniyatiga ega.

Sifati «standart» bo'lgan kreditlarda kreditning asosiy summasi va ular bo'yicha foizlarni muddati o'tmagan, ularning shartlari qayta ko'rib chiqilmagan bo'lishi, bunday kreditlarni to'lashda muammolar yuzaga kelmasligi shart. Tijorat bankining kredit portfelida mavjud bo'lgan **«standart» krediti uchun** bank zaxira kapitali tarkibida ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining **bir foizi miqdorida zaxira shakllantirishi lozim.**

Standart aktivlarga yaratiladigan zaxiralar tijorat banklari tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan so'ng qolgan sof foyda hisobidan tashkil qilinadi.

Kredit olgan mijozning moliyaviy holati barqaror bo'la turib, ba'zi bir salbiy oqibatlar natijasida uning moliyaviy ahvoli yomonlashib, kreditni va u bo'yicha foizlarni to'lay olmaslik ehtimoli yuzaga kelishi mumkinligiga shubha tug'lsa, tijorat banki bunday mijozlarga bergan kreditlarini «substandart» deb tasniflaydi. Bunda moliyaviy holati yoki ta'minotni nazorat qilish borasida bir muncha shubhalar bo'lgan, kredit hujjatlarida yetarlicha axborot bo'lmagan yoki ta'minot bo'yicha hujjatlari bo'lmagan «standart» deb tasniflangan aktivlarning sifati ham «substandart» deb tasniflanishi lozim. **«Substandart» deb tasniflangan kreditlar uchun** ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining **o'n foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.**

Agar bank tomonidan berilgan kreditlar bo'yicha quyida keltirilgan omillardan hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lsa, kreditlarning sifati «qoniqarsiz» deb tasniflanadi. Bular:

asosiy to'lov manbalari qarz to'lash uchun yetarli bo'lmasa; ta'minotni sotishdan kelgan tushum yetarli bo'lmasa; qarz oluvchining joriy moliyaviy holati yoki uning pul mablag'larining mo'ljallanayotgan oqimi majburiyatlarni qoplash uchun yetarli bo'lmasa; qarz oluvchining kapitali yetarli darajada bo'lmasa; ushbu sohaga nisbatan tendensiya va istiqbollar barqaror bo'lmasa; ta'minot qiymati asosiy qarz summasidan oshmagan, hech bo'lmaganda, asosiy qarzning to'lanmagan summasiga teng bo'lsa; asosiy qarz va foizlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lib, uning muddati 90 kundan oshmagan bo'lsa. Ushbu ko'rsatkichlardan bittasi mijoz faoliyatida yuzaga kelsa, uning olgan krediti bankning kredit portfelida qoniqarsiz kreditlar qatoriga kiritiladi.

Tijorat banki sifati **«qoniqarsiz» deb tasniflangan kreditlar uchun** ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining **yigirma besh foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.**

Quyida keltirilgan omillardan hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lsa, aktivlarning sifati «shubhali» deb tasniflanadi:

sifati «qoniqarsiz» deb tasniflangan kreditlarning hech bo'lmaganda biror ko'rsatkichini o'zida ifoda qilib, shuningdek, ayrim boshqa salbiy tavsiflari mavjud bo'lsa (bozorda oson sotiladigan ta'minotning mavjud emasligi yoki ta'minlanmagan aktivlarning mavjudligi yoxud qarz oluvchining bankrot deb e'lon qilinishi);

yaqin kelajakda aktivning qisman to'lanish ehtimoli mavjud bo'lsa; asosiy qarz va foizlar bo'yicha 90 kundan ortiq, lekin 180 kundan oshmagan, muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa kredit sifati «shubhali» deb tasniflanadi. **«Shubhali» deb tasniflangan aktivlar uchun** ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining **ellik foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.**

Agar mijoz tomonidan olingan kreditlar shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmasa yoki qaytmasligidan dalolat beruvchi omillar yoki alomatlar mavjud bo'lsa hamda qaytmaydigan yoki qiymati juda pastligi tufayli hisobini balansda aktiv sifatida yuritilishi maqsadga muvofiq emas deb baholanadigan aktivlar sifati «umidsiz» deb tasniflanadi. Quyida keltirilgan omillardan hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lsa, aktivlarning sifati «umidsiz» deb tasniflanadi:

aktivlarning undirilishi sud jarayonida bo'lsa;

qarzdor va lizing oluvchidan undirilgan, garovga qo'yilgan mol-mulkka bo'lgan huquqlardan foydalanish yo'li bilan tijorat banki tomonidan balansga qabul qilingan kundan boshlab uch oy muddatda sotilmagan va bank faoliyatini kengaytirish uchun sotib olingan binodan

ikki yil mobaynida foydalanilmagan hamda bank faoliyati uchun ortiq foydalanilmay qo'yilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida sotilmagan bo'lsa;

aktivlarning to'lash muddati uzaytirilgan bo'lsa;

asosiy qarz va foizlar bo'yicha 180 kundan ortiq kunga muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa. Tijorat banki sifati **«umidsiz» deb tasniflangan aktivlar uchun** ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining **yuz foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.**

Tijorat banki tomonidan ta'minotga olingan mulkni sotish orqali bunday qarzdorlikni bartaraf etish yoki uni qaytarish choralari qo'llanishi lozim. Sifati «substandart», «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplashga mo'ljallangan majburiy zaxiralar **maxsus zaxiralar** deyiladi.

Kredit portfelini berilgan ssudalarning ta'minlanganlik darajasiga qarab quyidagi turlarga, ya'ni:

- birinchi darajada ta'minlangan;
- boshqa ta'minotga ega bo'lgan;
- to'liq ta'minlanmagan;
- ta'minlanmagan ssudalarga bo'lish mumkin.

Birinchi darajada ta'minlangan kreditlar guruhiga to'liq ta'minlangan kreditlar kiradi Ular:

- O'zbekiston Respublikasi hukumati kafolati.
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kafolati.
- O'zbekiston Markaziy banki roziligi bilan birinchi sinf xorijiy banklari kafolati.

• Erkin ayirboshlanadigan valyutadagi garov.

• O'zbekiston Respublikasi davlat qimmatli qog'ozlari ko'rinishidagi garov.

• Standartlashtirilgan qimmatbaho metallar qo'yilmalari ko'rinishidagi garov kabilar bilan ta'minlanadi.

Boshqa ta'minotga ega bo'lgan ssudalar:

- mol-mulk garovi;
- qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi garov;
- boshqa huquqiy va jismoniy shaxslarning kafolat xati kabilar bilan ta'minlanadi.

To'liq ta'minlanmagan kreditlar guruhiga qisman ta'minlangan kreditlar kiradi (ssuda qiymatining 60% idan kam bo'lmagan miqdorda).

Ta'minlanmagan ssudalar guruhiga ta'minotga ega bo'lmagan yoki o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilmagan kreditlar kiradi.

Tijorat banklarining kredit portfelini bo'lib-bo'lib tasniflash ham mumkin. Bu holda aktivlar bir va undan ortiq turkum bo'yicha tasniflanishi mumkin.

Muammoli kredit ta'minotga ega bo'lsa va ushbu ta'minotning qiymati qaytarilmagan qarz miqdoridan kam bo'lsa, bu holda ushbu kredit (agar ta'minot uchun bozor mavjud bo'lsa) ta'minotning bozor narxiga teng bo'lgan miqdordagi qaytarilmagan qarz, substandart qarzning qolgan qismi esa shuhbali yoki ishonchsiz deb tasniflanadi.

Shuhbali yoki ishonchsiz deb tasniflangan muammoli kredit ta'minotga ega bo'lmasa, lekin ba'zi bir aniq omillar asosida yaqin kelajakda qisman qoplanish ehtimoli bo'lsa, u holda bunday ssuda yuqorida aytib o'tilgan qoplanish ehtimoli bo'lgan qiymatga teng bo'lgan to'lanmagan qarz miqdorida shuhbali deb, qarzning qolgan qismi esa ishonchsiz deb tasniflanadi.

Kredit portfelining sifat darajasini tahlil qilish quyidagi bosqichlar bo'yicha, ya'ni:

1-bosqich – ta'minlanganlik darajasi bo'yicha;

2-bosqich – kreditni haqiqiy to'lash holati bo'yicha;

3-bosqich – risk darajasi bo'yicha;

4-bosqich – kredit portfelining turkumlangan kreditlar tarkibi bo'yicha amalga oshirish mumkin.

Bunda kreditlar yuqoridagi belgilariga qarab guruhlariga birlashtiriladi va bir guruh bo'yicha barcha kreditlar yig'ib chiqilib, har bir guruhning hajmi to'g'risida axborot yig'iladi, ular tahlil qilinadi va yakunida butun kredit portfeli bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'linadi.

5-bosqichda kredit portfeli bo'yicha umumiy risk aniqlanadi. Bunda har bir kredit summasi bo'yicha risk darajasiga asoslaniladi.

Oldingi davr bilan hozirgi kundagi bankning kredit portfeli holati taqqoslanadi va salbiy natijaga ega bo'lingan bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi.

6-bosqich – kredit portfeli sifatiga qarab yetarli rezerv fondi tashkil qilinadi.

7-bosqich – kredit portfelining holati, tarkibi, unga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olib bankning kelajakdagi kredit siyosati ishlab chiqiladi. Bu siyosatga:

kredit resurslarini tashkil qilish va ularning qaysi maqsadga yo'naltirilganligi, qo'shimcha kafolotlar olish, kredit shartnomasining

bajarilishi ustidan oldindan va keyingi nazorat qilish, kreditlash jarayonini takomillashtirish va boshqalar lozim bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti keng rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining kredit portfelini tashkil qilish va undan foydalanish jarayoniga katta e'tibor beriladi. Chunki kredit portfelini to'g'ri tashkil qilish bankning samarali faoliyatini amalga oshirishning, uning kredit investitsiya siyosatini olib borishining asosi hisoblanadi. Sifatli va daromad keltiradigan qilib, mavjud resurslarni joylashtirish banklarning moliyaviy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tijorat bankining kredit portfeli sifati to'g'risida quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

51-jadval

Tijorat banki kredit portfelining sifat darajasi bo'yicha tasnifi

	1/1 2010-y.	1/1 2013-y.	1/1 2014-y.	1/1 2015-y.
Tijorat banklarining kredit qo'yil-malari, jami: - % da shu jumladan:	100	100	100	100
standart kreditlar	93,2	94,1	94,7	95,6
substandart kreditlar	4,6	4,1	3,6	3,6
qoniqarsiz kreditlar	1,2	1,4	1,3	0,5
shubhali kreditlar	0,7	0,2	0,2	0,2
umidsiz kreditlar	0,3	0,2	0,2	0,1

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tijorat bankining iqtisodiyot tarmoqlariga bergan kreditlarining asosiy qismini sifat darajasi bo'yicha standart kreditlar guruhiga kiritish mumkin. Agar 2010-yilda ularning salmog'i o'rtacha 93,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2015-yilga kelib kredit portfelida ularning salmog'i 95,6 foizni tashkil qilgan. Bankda kreditlarning sifati ijobiy tomonga o'zgargan. Ikkinchi o'rinda turuvchi kreditlar - substandart kreditlar bo'lib, ular salmog'i 2010-yilning boshida 4,6 foizni tashkil qilgan. Bankning substandart kreditlari pasayish tendensiyasiga ega. 2015-yilning boshiga kelib bu kreditlarning salmog'i 3,6 foizgacha kamayganini ko'rishimiz mumkin. Tijorat bankining kredit portfelida qoniqaril kreditlar, shubhali va umidsiz kreditlar salmog'i ham kamayib borgan. Bu hol bankda bank aktivlari bilan samarali ishlash evaziga standart kreditlar salmog'ining oshishiga zamin yaratgan. Bankning bu boradagi faoliyatini ijobiy baholash mumkin.

Tijorat banklari faoliyatida xavfli bo'lgan kredit qo'yilmalar - bu muammoli kreditlar shakliga kirgan qo'yilmalardir. Tijorat bankining

kredit portfelida sifati «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» deb tasniflangan kreditlar **muammoli kreditlar** deyiladi.

Muammoli kreditlar odatda qarz oluvchining kreditni to'lash uchun yetarli pul mablag'lari bo'lmagan holda yuzaga keladi. Ba'zi hollarda ular mijozning hisob varag'ida mablag'i bo'la turib, kreditni to'lashni xohlamaganda ham yuzaga keladi. Pul mablag'larining yetishmasligi ba'zida birdan yuzaga kelishi, ba'zi hollarda bunday ahvol asta-sekinlik bilan rivojlana borib yuzaga kelishi mumkin. Pul mablag'lari yetishmovchiligining ichki va tashqi belgilari bo'lishi mumkin. Kredit bo'limi xodimlari shu belgilar yuzaga kelishini birinchi bo'lib sezishlari va bankni kredit bo'yicha yo'qotishlardan saqlovchi chegara bo'lishlari lozim. Ular bank va mijoz manfaatini saqlab qolgan holda, bu moliyaviy qiyinchiliklardan chiqish yo'llarini ishlab chiqishga yordam berishlari, mijoz faoliyatida muammolar yuzaga kelgan vaqtdan boshlab mijozga yordam berishlari, ularga ta'sir ko'rsatishlari zarur. Buning uchun bank doimo mijozning faoliyatidan boxabar bo'lishi, o'zi uchun zarur axborotlarni yig'ib, tahlil qilib borishi ijobiy natija berishi mumkin.

Amaliyotda bankning kredit bo'limi xodimlari berilgan kreditlar ustidan yetarli nazorat olib bormasliklari bilan birga, mijozning inqirozli holati aniqlangandan keyin ham bu haqda bank boshqaruviga, kredit qo'mitasiga o'z vaqtida axborot bermasliklari yoki mijozning iltimosiga ko'ra ahvolning yaxshilanishini kutishlari kredit sifatining qoniqarsiz darajaga tushib ketishiga olib kelishi mumkin. Bularning barchasi, muammoli kreditning yanada muammolashuviga olib keladi.

Bunday hollarning oldini olish uchun kredit bo'limi faoliyati tez-tez ichki audit tomonidan tekshirilib turishi, muammoli kreditlar, ularning sabablari aniqlanib turilishi lozim.

Muammoli kreditlar aniqlanganda kredit bo'limi xodimi avvalambor, axborotlar, ma'lumotlar yig'ishi va ularga asosan inqirozning oldini oluvchi strategiya ishlab chiqishi lozim. Har bir muammoli kredit bo'yicha alohida, uning oldini olish yo'llarini ishlab chiqish zarur. Agar korxonalar samarali faoliyat olib boradigan bo'lsa, muammoli kredit sohasidan ham o'zi ijobiy natija bilan chiqishi mumkin. Aksincha, korxonalar faoliyati pastroq bo'lsa, u muammollarni osonlikcha yecha olmasligi mumkin. Shuning uchun kredit bo'limi xodimi muammoli kredit yuzaga kelganini aniqlaganidan keyin quyidagi ishlarni amalga oshirishi zarur:

- qarz oluvchining muammolarini tahlil qilish;
- mijozning moliyaviy ahvoli to'g'risida rahbariyatni xabardor qilish va bank boshqa bo'limlar bilan mijoz to'g'risida maslahatlashishi;

- mijozning umumiy tashkiliy asosi, yuqori tashkiloti to'g'risida ma'lumot yig'ishi;

- kredit hujjatlarini, kafolat, garov, veksel, shartnoma va boshqalarni ko'rib chiqish;

- muammoli holatdan chiqish rejasini ishlab chiqishi lozim.

Bank faoliyati doimo riskli operatsiyalar bilan bog'liq bo'lgani uchun, ular faoliyatida doimo muammoli kreditlar yuzaga keladi. Respublika tijorat banklari kredit portfelining tahlili shuni ko'rsatadiki, ba'zi bir banklarda bunday kreditlar salmog'i ancha yuqori. Bu kreditlarni boshqarish, ularni o'z vaqtida undirib olish ancha vaqt va mehnatni talab qiladi. Hozirgi vaqtda tijorat banklarida muammoli kreditlar bo'yicha ishlarni kredit bo'limi xodimlari olib boradi. Bu jarayonning ijobiy tomoni shundaki, kredit bo'limi xodimi shu kreditni berganligi uchun mijozni, uning moliyaviy ahvolini yaxshi bilishi mumkin. Ikkinchi tomondan shu bank xodimi yetarli nazorat olib bormaganligi sababli shunday muammoli kredit yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Shu sabab muammoli kredit yuzaga kelganligi yoki mavjudligi to'g'risida axborot aniqlangandan keyin muammoli kreditlar bilan ishlash bo'limi kreditni sog'lomlashtirish bo'yicha choralar ko'rishi, muammoli holatdan chiqish strategiyasini ishlab chiqishi lozim.

Muammoli kreditlar yuzaga kelish sabablari bo'yicha bir-biridan farq qilsada, ularning oldini olishda quyidagi yondashishlar qo'l kelishi mumkin:

- qarzni restrukturizatsiyalash dasturini ishlab chiqish;

- qo'shimcha hujjatlar va kafolatlar olish;

- qo'shimcha fondlarni to'xtatish yoki qo'shimcha inyeksiya qilish;

- garovni sotish;

- boshqa aktivlarni sotish;

- kafolat bo'yicha to'lovni talab qilish;

- boshqaruvni almashtirish;

- menejment ishlarini olib borish;

- huquqiy masalalarni ko'rib chiqish v.b.

Amaliyotdan ma'lumki, banklarning bankrot bo'lishida asosan uchta sabab bo'lishi mumkin. Bular kreditlarning qaytarilmasligi yoki boshqa aktivlarning yo'qotilishi, banklarning nolikvidliligi va banklarning asosiy faoliyatidan keladigan zararlardir. Bu omillarning har biri bank kapitalining kamayishiga olib keladi. Bank kapitalining me'yordan pastga tushishi bankning to'lovga layoqatsizligidan, uning aktivlariga nisbatan majburiyatlari oshib ketganligidan, boshqacha qilib aytganda, uning bankrotligidan dalolat beradi va bank litsenziyasidan mahrum bo'lishi mumkin.

Banklar muammoli kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga zaxiralar ajratishlari, zaxira fondining yetariligi eng kamida bir oyda bir

marta ko'rib chiqilishi kerak.

Quyidagi jadvalda kredtlarning sifat tasnifi bo'yicha zaxiralar normasi keltirilgan.

52-jadval

Kredtlarning sifati bo'yicha shakllantirilishi lozim bo'lgan zaxiralar normasi

Kredtlarning sifati bo'yicha sinflari	Ehtimoliy yo'qotishlar bo'yicha zaxiralar uchun ajratmalar normasi
Standart aktivlar	1%
Substandart	10%
Qoniqarsiz	25%
Shubhali	50%
Umidsiz	100%

Tijorat banki boshqaruvi qaroriga ko'ra, kredit qo'mitasining xulosasi bo'yicha va bank kengashi bilan kelishuviga binoan umidsiz deb topilgan kreditlar, ssudalar ehtimoliy yo'qotishlarga shakllantirilgan maxsus zaxira hisobiga, zaxira yetishmagan taqdirda, «taqsimlanmagan foyda» hisobiga balansdan chiqariladi.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Muammoli kreditlar	Substandart kreditlar
Kredit portfeli	Shubhali kreditlar
Yaxshi kreditlar	Kredit portfeli sifati
Ishonchsiz kreditlar	Risk koeffitsiyenti
Standart kreditlar	Qoniqarsiz kreditlar

O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

- Kreditning mohiyatini va tarkibini tushuntiring.
- Kredit portfelinin sifat darajasi deganda nimani tushunasiz?
- Kredit portfeli sifati jihatidan qanday turkumlanadi?
- Kreditlar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash uchun rezervlar qaysi manbalar hisobidan, qancha miqdorda tashkil qilinadi?
- Muammoli kreditlar qanday kreditlar va ularning yuzaga kelish sabablarini aniqlang.
- Muammoli kreditlarning oldini olish yo'llari bo'yicha o'z fikrlaringizni yozma ifodalang.

XII BOB. TIJORAT BANKLARINING FOIZ SIYOSATI

1-§. Tijorat banklarining foiz siyosati to'g'risida tushuncha

Tijorat banklari daromadlarining shakllanishi ularning foiz siyosati orqali amalga oshiriladi. Bank kredit bera turib mijozning faoliyatini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlab, uning foyda olishi uchun shart-sharoit yaratar ekan, demak, bu orqali o'zining maqsadli manfaatini ham amalga oshirgan bo'ladi. Bank boshqaruvida foiz siyosatini ishlab chiqish va boshqarish muhim o'rin tutadi. Tijorat banklarining **foiz siyosati** bank umumiy siyosatining muhim elementlaridan biri sifatida bankning pul mablag'larini jalb qilish va joylashtirish sohasida foizlar o'rnatish bilan bog'liq chora-tadbirlar majmuasidan iborat bo'lib, bankning likvidligi va rentabelligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Foiz siyosatiga kengroq ta'rif beradigan bo'lsak, u foiz stavkalarini boshqarish orqali iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar yig'indisidir. Shu bois, foiz siyosati bank operatsiyalarining samarali bo'lishini va bank faoliyatining barqarorligini ta'minlashning asosi hisoblanib, tijorat bankining sof foiz daromadini ko'paytirish va bank balansi likvidligini boshqarishga yo'naltiriladi.

Tijorat banklarining foiz siyosati va uni amalga oshirishga ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi.


Foiz siyosatiga ta'sir qiluvchi **tashqi omillarga** quyidagilarni kiritish mumkin:

- Moliya bozorining holati
- Mamlakatda mavjud inflyatsiya darajasi
- Banklararo raqobat va bank xizmatlariga bo'lgan talab
- Pul bozoridagi taklif
- Markaziy bankning pul-kredit siyosati
- Iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari

Foiz siyosatiga ta'sir qiluvchi **ichki omillarga** quyidagilar kiradi:

- Bank xizmatlarining ko'lam va turlari
- Bank mijozlarining tarkibi va moliyaviy holati

- Bank xodimlarining malakasi va tajribasi
- Bank resurs bazasining barqarorligi, miqdori, hajmi, muddati va h.k.



20-rasm. **Tijorat banki foiz siyosatini shakllantirish bosqichlari**

Banklarning foiz siyosati bankka jalb qilingan resurslar va ularni aktivlarga joylashtirish davomida ularning miqdori, muddati va foizlarida muvofiqlik bo'lishini ta'minlashga yo'naltiriladi. Jalb qilingan

mablag'lar va ularni aktivlarga joylashtirishda foizlarning nomutanosib bo'lishi, aktivlar bo'yicha olingan foizlar jalb qilingan mablag'lar bo'yicha foizlar to'lashga yetarli bo'lmasdan foiz riskini yuzaga keltirib yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Odatda, **passiv operatsiyalar bo'yicha foiz stavkalarini** shakllantirishda quyidagi omillarga, ya'ni:

- jalb qilingan resurslar bo'yicha foiz stavkalari muddati, hajmi, mijoz tavsifi, pul mablag'lari qaysi valyutada jalb qilinganligi v.b;

- Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi va majburiy rezerv me'yoriga;

- jalb qilingan mablag'lar bo'yicha real foiz stavka o'rnatilganligiga, ya'ni aktiv operatsiyalar bo'yicha o'rnatilishi mumkin bo'lgan foiz stavkasi va marja miqdorini hisobga olgan holda o'rnatilishiga bog'liq bo'ladi.

Tijorat banklarining resurslarni jalb qilish bo'yicha foiz siyosati ularning depozit siyosati singari quyidagi omillarga:

- resurslarni jalb qilish borasida qo'llaniladigan bank vositalari va usullariga;

- depozit munosabatlarining subyektlari (jismoniy va yuridik shaxslar)ga;

- resurslarni jalb qilish muddatlari (qisqa muddatli, o'rta muddatli yoki uzoq muddatli foiz siyosati)ga;

- mablag'larni jalb qilish maqsadlari (investitsiya uchun, kreditlash yoki joriy likvidlikni ta'minlash va h.k.)ga;

- jalb qilingan resurslar bo'yicha baho siyosati va amalga oshirilgan operatsiyalarning risklilik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Mablag'larni jalb qilish borasida tijorat banklarining foiz siyosati quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- bankka jalb qilingan mablag'larning miqdori va bankda saqlanish muddatiga qarab foiz stavkalarini differentsiatsiyalash tamoyili;

- jamg'armalar bo'yicha foizlarni differentsiatsiyalashda "ijtimoiylik" (bolalar, yoshlar, yosh oilalar, qariyalar uchun, davlat dasturlarida belgilangan yo'nalishlar bo'yicha imtiyozli jamg'armalar) tamoyili;

- bank faoliyatining rentabelligini ta'minlash tamoyili;

- jamg'armachilar mablag'larini saqlash va himoya qilish tamoyili v.b.

Aholi jamg'armalari bank resurslarining bir qismini tashkil etganligi bois ular bo'yicha foiz stavkalarini o'rnatishda jamg'armaning

miqdori va muddatiga e'tibor berish lozim. Chunki depozitlar bo'yicha foiz stavkalarining o'zgarishi kredit bahosining ham o'zgarishiga olib keladi.

Banklarnig mablag'larni jalb qilish borasidagi foiz siyosatining asosiy prinsipi-minimum xarajatlar bilan bank faoliyatini samarali olib borish uchun zarur bo'lgan optimal miqdor va muddatdagi passivlar tarkibini ta'minlashdan iborat.

Bankning foiz siyosatida mablag'larni jalb qilishda ularning qiymatiga o'z ta'sirini o'tkazuvchi boshqa omillar ham mavjud. Bular:

1. Markaziy bankning majburiy zaxiralariga ajratmalar normasi miqdori va ba'zi jalb qilingan mablag'larning turiga qarab bu normalarning turlichaligi.

2. Mijozlarni jalb qilish va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bankning operatsion xarajatlari darajasi.

3. Bank reklamasiga sarflanadigan xarajatlar.

4. Bank mablag'larining oborotdan chetlashtirilishi va daromad keltirmaydigan operatsiyalarga jalb qilinishi.

5. Jalb qilingan mablag'larning miqdori va muddati, ular bo'yicha foiz hisoblash va to'lash tartibi v.b.

Bank resurslarini joylashtirish sohasida bankning foiz siyosatida:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi miqdorini;

- resurslarni aniq vositalar (tijorat krediti, iste'mol krediti, banklararo kredit, majburiyatlarni to'lash v.b.)ga joylashtirishning bozor shartlariga rioya qilish;

- aktiv operatsiyalarning muddati, hajmi, qiymati, valyutasidan kelib qo'shimcha resurslarni jalb qilish bo'yicha bankning imkoniyatlari;

- bankning o'z mijozlari, yuridik va jismoniy shaxslar hamda boshqa banklar bilan hamkorlik munosabatlarini inobatga olish lozim.

Tijorat banklarining **aktiv operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalarini** shakllantirishda quyidagi omillarni, ya'ni:

• markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini;

• bozor konyunkturasini;

• jalb qilingan mablag'lar bahosini yoki mablag'larni jalb qilishga sarflangan xarajatlarni;

• bank mablag'i hisobidan moliyalashtiriladigan loyihaning jozibadorligi yoki risk darajasini;

• mijozning moliyaviy holati, likvidliligi kreditga va to'lovga layoqatliligi va boshqalarni inobatga olish lozim.

Tijorat bankining kredit siyosati “baho-foyda-foiz” mexanizmiga tayanadi. Kreditga talabning oshib borishi ssuda kapitaliga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi nisbatining o'zgarishiga olib keladi, ssudalar bo'yicha foiz stavkalar oshadi. Bu, o'z navbatida, kredilashning ko'lemi va hajmini ko'paytiradi, bank tomonidan qo'shimcha kredit pullar muomalaga chiqariladi, bankning likvidlilik kvotasi kamayadi. Odatda, bank foiz stavkasining yuqori va past chegaralari belgilanadi. Kredit bo'yicha foiz stavkaning yuqori chegarasi bozor munosabatlari asosida talab va taklifdan kelib chiqib shakllanadi. Foiz stavkasining past chegarasi bankning mablag'larni jalb qilish bilan bog'liq xarajatlari va kredit tashkiloti faoliyatini olib borishga ketgan sarflardan kelib chiqib belgilanadi.

Tijorat banklarining resurslarni joylashtirish bo'yicha foiz siyosatining asosiy tamoyili – aktivlarning balanslashtirilgan tarkibi va joylashtirilgan resurslarning minimal darajadagi riskiga erishgan holda bankning maksimal daromad olishini ta'minlashdan iborat bo'lib, u quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- mablag'larni joylashtirish yo'nalishi, muddati, mijozning moliyaviy holati, likvidliligi, to'lovga layoqati, ta'minot darajasiga qarab foizlarni differentsiyalash;

- bank operatsiyalarining (resurslarning real bahosidan kelib chiqib) rentabelligini ta'minlash;

- yuqori darajada likvidlilikga erishish va uni barqaror ushlab;

- aktiv operatsiyalarga joylashtirilayotgan mijozlar mablag'larining maksimal qayta kelishiga erishish tamoyillaridir.

Tijorat banklari foiz siyosatini amalga oshirishda foiz marjasini hisoblab boradi. **Foiz marjasi** foizli daromadlar va foizli xarajatlar o'rtasidagi farqni tashkil etadi yoki bank tomonidan jalb qilingan resurslar uchun amalga oshirilgan to'lovlar va joylashtirilgan mablag'lardan olingan foizlar o'rtasidagi farq foiz marjasi sifatida shakllanadi. Foiz marjasi bank bo'yicha umumiy hamda alohida olingan moddalar bo'yicha ham aniqlanishi mumkin. Foiz marjasining salmog'ini aniqlash uchun foiz marjasi koeffitsiyenti qo'llaniladi. Foiz marjasi koeffitsiyenti tijorat banki marjasining haqiqiy va yetarli bo'lgan miqdorini ko'rsatadi. Foiz marjasi miqdorining haqiqiy holati **foiz marjasi koeffitsiyenti (Khfm)** quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi va u bank foydasida foiz miqdorining hajmi qancha ekanligini ko'rsatadi:

$\mathbf{Khfm} = (Of - Tf) / A$ o'q yoki $\mathbf{Khfm} =$ (olingan foizlar - shu davrda to'langan foizlar) / daromad keltiruvchi aktivlarning o'rtacha qoldig'i.

Bu yerda:

Of – olingan foizlar.

Tf – to'langan foizlar.

A o'q – daromad keltiruvchi aktivlarning o'rtacha qoldig'i.

Shuningdek, banklarda foiz marjasining minimal yetarlilik darajasini ham aniqlash mumkin.

Bank tomonidan olingan marja uning xarajatlarini qoplashga yetarliligini foiz marjaning yetarlilik koeffitsiyenti (**Kfme**) orqali aniqlanadi.

$(\mathbf{Kfme}) = ((Xo - Tf) + (BAx - Bx)) / A$ o'q yoki $(\mathbf{Kfme}) =$ (Oper. xarajatlar – to'langan foizlar) + (boshqaruv appar. Xarajatlari - boshqa xarajatlar) / daromad keltiruvchi aktivlarning o'rtacha qoldig'i.

Bu yerda:

Ox – operativ xarajatlar,

Tf – to'langan foizlar,

Bax – boshqaruv apparati xarajatlari,

Bx – boshqa xarajatlar (bankning nokredit xarakterdagi operatsiyalari, MY inkassatsiya, turli to'lovlar va boshqalar bo'yicha xarajatlari),

Ao'q - daromad keltiruvchi aktivlarning o'rtacha qoldig'i.

Foiz marjasining yetarlilik koeffitsiyentini aniqlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, kelajakda foiz marjasi miqdorini prognozlash imkoniyatini beradi. Aktiv operatsiyalar bo'yicha foizlarning minimal miqdorini shakllantirishda, foiz marjasining yetarli miqdori asos qilib olinadi va ushbu miqdorga inflyatsiyani hisobga olgan holda resurslarning real qiymatini qo'shish orqali aniqlanadi.

Bank aynan kredit operatsiyalari bo'yicha ham haqiqiy foiz marjasini hisob-kitob qilishi mumkin. Tijorat banklarining kredit operatsiyalari bo'yicha foiz marjasi koeffitsiyenti (**Khfm kred. oper.**)ni quyidagi formula bo'yicha aniqlashimiz mumkin.

$\mathbf{Khfm\ kred.\ oper} = (Kf - Rtf) / K$ o'q yoki $\mathbf{Khfm\ kred.\ oper.} =$ (kredit bo'yicha olingan foizlar – kredit resurs bo'yicha to'langan foizlar) / shu davrdagi kredit qarzdorlikning o'rtacha qoldig'i.

Bu yerda: Kf – kreditdan olingan foizlar,

Rtf - kredit resurs bo'yicha to'langan foizlar,

K o'q - shu davrdagi kredit qarzdorlikning o'rtacha qoldig'i.

Tijorat banklarining foiz siyosati ular faoliyatining tijorat xarakteri bilan bog'liq bo'lganligi sababli foiz siyosati bankning foyda olishiga yoki foyda olish uchun barcha sharoitlarni yaratishga, depozitlar va kredit operatsiyalari bo'yicha foizlarni muvofiqlashtirish va ularni bankka foyda keltiradigan darajada o'rnatish orqali bank operatsiyalari va faoliyati rentabelligini ta'minlash, depozit va ssuda operatsiyalarining summalari, foizlari, muddatlari bo'yicha bir-biriga aloqadorligi va mutanosibligini ta'minlash, bank balansi likvidligini ta'minlash, foiz riskini minimallashtirish va boshqalarni ta'minlashga zamin yaratadi.

Tijorat banklari foiz siyosatining samaradorligi resurslarni jalb qilish va ularni joylashtirish borasida foizlarni optimal o'rnatish va ularni boshqarish orqali yuqori foyda olish bilan birga omonatchilar omonatlarining ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlanganligini ta'minlashdan iboratligi bilan belgilanadi.

Banklar foiz siyosatini amalga oshirishda omonatlar bo'yicha to'laydigan foizni ularning o'zlari taqdim etadigan ssudalar uchun oladigan ssuda foizidan pastroq qilib belgilaydi. Sodda qilib aytganda, olingan va to'langan foizlarning summalari o'rtasidagi farq banklar foydasining asosini tashkil etadi. Bank foydasiga boshqa turdagi operatsiyalardan ko'rilgan daromadlar ham kiradi. Bank foydaning bir qismini soliqlarni to'lashga, o'z xarajatlarini (bank xizmatchilariga, xodimlariga ish haqi to'lash, binolarni saqlash, idora chiqimlari, reklama xarajatlari, transport xarajatlari va boshqalar uchun mablag' sarflash) qoplashga ishlatadi, soliqlar to'lagandan qolgan qismi esa bankning sof foydasini tashkil etadi.


Ma'lumki, tijorat banklari yuqori foyda olish maqsadida o'zlarining foiz siyosatini yuritadilar. Ammo banklarda yuqori foyda olish imkoniyatlari keng bo'lsada, ular bu imkoniyatlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanishlari lozim. Chunki yuqori foyda olish doimo yuqori riskli jarayonlarni amalga oshirishni talab etadi. Yuqori risk ostida faoliyat olib borish hamma vaqt ham muvaffaqiyat keltirmasligi mumkin. Birinchidan, katta marja ortidan quvish mijozlardan mahrum bo'lib qolishga olib kelishi muqarrar, chunki ular haddan tashqari yuqori qo'yilgan foiz stavkali kreditlardan voz kechishlari mumkin. Ikkinchidan, banklararo raqobat sharoitida boshqa tijorat banklari bir qadar samaraliroq ishlar uchun ancha arzon kreditlar taklif etishlari mumkin. Foyda olish qoidasi tijorat banklari faoliyatining asosiy qoidalardan hisoblanadi va bunday maqsadni qo'ymagan bank bozor munosabatlari sharoitida to'laqonli faoliyat ko'rsata olmaydi. Bank

tijoratining bu qoidasi asosan “Arzonroq sotib olish, qimmatroq sotish” formulasi orqali amalga oshadi. Biroq bu qoidaga nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy jihatdan ham yondashish lozim.

2-§. Kredit bo'yicha foiz stavkalarining vujudga kelishi va unga ta'sir qiluvchi omillar

Barcha tovarlarga bo'lgani kabi kredit uchun ham narx (narxning asosini tashkil qiluvchi foiz stavkalari) talab va taklif asosida vujudga keladi. Buni sxematik tarzda quyidagicha ko'rishimiz mumkin.

Alohida kelishuvlar bo'yicha foiz stavkasi vujudga keladi.



21-rasm. Kredit bo'yicha foiz stavkasining shakllanish elementlari

Kredit bo'yicha foiz stavkalar pul bozorida kreditga bo'lgan talab va taklif asosida shakllanadi. Talab va taklifning darajasi kredit bahosining qimmat yoki arzon bo'lishiga asos bo'lishi mumkin. Kredit bahosining asosini u bo'yicha o'rnatilgan foiz stavka tashkil qiladi, lekin hamma vaqt ham kreditning foizi uning bahosini o'zida ifoda qilmaydi. Kreditning bahosi kredit bo'yicha foiz stavkasidan tashqari turli komission to'lovlar, ssuda hisob varaqlarini ochish, yuritish, kredit berish va to'lash bilan bog'liq boshqa to'lovlarni o'zida aks ettiradi. Ba'zi davlatlarda kreditning bahosi kreditning to'liq qiymati deb ham yuritiladi.

Tijorat banklari o'z foiz siyosati doirasida faoliyat olib borishi bilan birga ba'zi bir omillar bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini o'zgartirib turishni taqozo qilishi mumkin. Bu sohadagi tashqi omillarga:

1. Mamlakatdagi pul-kredit siyosatining holati ta'sir ko'rsatishi mumkin. Markaziy bank tomonidan foiz stavkalariga ta'sir o'tkazish orqali iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirilayotgan kreditlar hajmini ko'paytirishi yoki kamaytirishi, iqtisodiyot va pul muomalasining holatiga qarab kreditni arzonlashtirishi yoki qimmatlashtirishi mumkin. Foiz stavkalarini muvofiqlashtirish orqali Markaziy bank tijorat banklari bilan munosabatlarini kengaytiradi. Foiz stavkalarining kamayishi bank kreditlarining hajmini oshirishga zamin yaratadi, tijorat bankining Markaziy bankdagi zaxira mablag'larining hajmi ham ortadi. Foiz stavkasining oshirilishi bank kreditlari hajmining va tijorat bankning Markaziy bankdagi zaxira hisob varag'idagi mablag'larning kamayishiga olib keladi.

2. Kredit resurslari va xizmatlari bozoridagi raqobat ham kreditlar bo'yicha o'rnatiladigan foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatib, past foiz stavkalarda kredit berish orqali mijozlar sonini va ularga yo'naltiriladigan kreditlar hajmini oshirishga olib keladi.

3. Inflyatsiya baholar oshishi bilan xarakterlanadi va u, albatta, kreditlar bo'yicha foizlar o'zgarishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Inflyatsiya sur'atlaridan kelib chiqib berilgan kreditlar bo'yicha ularning inflyatsiyaga uchrash salmog'ini oldindan taxminiy hisob-kitob qilish va qadsizlanishning oldini olish choralarini ko'rish lozim. Bu chora berilgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini o'zgartirishni taqozo etadi. Chunki tijorat banklari bergan kreditlaridan oladigan foizlar bozor stavkasi darajasidan kam bo'lmasligi, inflyatsiya sur'atlaridan kutilayotgan qiymat qadsizlanishini qoplay oladigan, bank barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan darajada bo'lishi lozim.

4. Pul bozoridagi talab va taklif ham foiz stavkasining oshishi yoki kamayishiga olib kelishi mumkin. Foiz stavka oshganida kredit bo'yicha taklif ham oshadi, aksincha bo'lsa taklif kamayadi. Chunki foiz oshganda mijozlar kreditdan ko'ra o'zida mavjud resurslardan foydalanishga harakat qilishadi. Kreditga bo'lgan talabda aksincha holatni ko'rishimiz mumkin, ya'ni foiz stavkasi oshganda kreditga bo'lgan talab kamayadi, foiz stavkasi kamayganda kreditga talab oshadi. Erkin bozor munosabatlari sharoitida mazkur talab va taklif kreditning bozor qiymatini shakllantiradi. Agar kreditning bahosi bozor bahosidan yuqori bo'lsa pul mablag'lari bo'yicha taklif yuqoriligini, agar kredit bahosi bozor bahosidan kam bo'lsa bu pul mablag'larning yetishmovchiligini ko'rsatadi.

5. Valyutani ayirboshlash kursi xorijiy davlatlarda investitsiya va kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining yuqori bo'lgan hollarda milliy valyutadagi investitsiyalarning foiz stavkasini ham yuqori o'rnatish orqali milliy valyuta kursining tushib ketishining oldini olish mumkin. Shuningdek, bank risklari darajasi, kreditdan foyda olish, mijozlarning turi, faoliyati xususiyatlari, barqarorligi, ularning joylashuv o'rni va boshqalar ham kredit munosabatlarini o'rnatish va kredit bahosini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Kreditning asosiy sharti – bu kredit uchun haq to'lash. Bu haq kreditga berilgan mablag'ga nisbatan foiz hisobida olinganidan, uni kreditning foiz stavkasi deb yuritiladi. Kreditning foiz stavkasi pul bozorida amal qiladi. Bozorga chiqarilgan pulning narxi foizda belgilanadi. Boshqa tovarlardan farqli o'laroq kreditning narxi - bu uning mijozning moliyaviy mablag'ga bo'lgan ehtiyojini qondirishdek xususiyatidan foydalanilganlik uchun beriladigan haq hisoblanadi. Kredit kapital sifatida odatdagi to'lov yoki xarid vositasida ishlatiladi. Shuning uchun ham qarz oluvchi shaxs pul egasiga foiz stavkasini to'laydi.

Foiz stavkasining turi, miqdori yoki darajasi kredit shartnomasida belgilanadi. Foiz darajasi (FD) kredit foizining (Kf) berilgan kredit miqdoriga (Km) nisbati bo'yicha aniqlanib, foizlarda ifodalanadi:

$$FD = \frac{Kf}{Km} * 100\%$$

Kredit foizlari tijorat bank daromadining asosiy manbayi hisoblanadi va foiz stavkalari mamlakatning ssuda kapitallari bozoridagi talab va taklifdan kelib chiqib shakllanadi. Umuman olganda, foiz siyosati pul-kredit munosabatlarini muvofiqlashtirib turuvchi iqtisodiy usul hamdir.

Tijorat banklari kredit munosabatlarida foiz normasini hisoblaganda quyidagilarni e'tiborga olishi lozim:

- ta'minlangan ssudalar bo'yicha moliyaviy barqaror, kreditga layoqatli mijozlar uchun aniq muddatga beriladigan bazaviy foiz stavkasining darajasini;
- har bir kredit shartnoma shartlarini, mijoz faoliyatining xususiyatlari va boshqa jihatlarni inobatga olgan holda risk uchun qo'shimcha to'lovni.

G'arb mamlakatlarining pul-kredit munosabatlarida turli xil foiz stavkalarini qo'llaniladi. 1-darajali foiz stavkasi Markaziy bankning qayta moliyalash foiz stavkasi hisoblanadi. Bu muhim ahamiyatga ega. Stavkaning Markaziy bank tomonidan pasaytirilishi bozorda kredit resurslari taklifining ko'payishiga va arzonlashishiga olib keladi. Foiz stavkasini pasaytirishdan maqsad - investitsiya harakatini tezlashtirish, mamlakatning iqtisodiy o'sishiga turtki berishdan iborat.

Qayta moliyalash foiz stavkasining oshishi kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining ham oshishiga, ya'ni kreditning qimmatlashuviga, shu bilan birga, iqtisodiyotda investitsiyalar hajmining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Demak, Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati inflyatsiya darajasi hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarini hisobga olgan holda, mamlakatning pul-kredit tizimining holatiga qarab olib borilishi kerak.

Tijorat banklarining foiz siyosati ikki asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi. Birinchisi, bu bank resurslarini yaratishda mablag'larni jalb qilish jarayonida olib boriladigan foiz siyosati, ikkinchisi, banklar tomonidan resurslarni joylashtirish sohasida olib boriladigan foiz siyosatidir.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining foiz siyosati bank tizimiga taalluqli qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan. 1998-yilning 2-dekabrida qabul qilingan 558-sonli "Banklarning kredit va depozitlari bo'yicha foizlar hisoblash tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning nizomiga asosan olib boriladi.

Tijorat banklari foiz siyosatini o'zlari mustaqil ishlab chiqadilar va ular amalga oshiradigan operatsiyalariga foizlar o'rnatishda erkindirlar (ammo foizlar o'rnatish chegarasi Markaziy bank talablari doirasida bo'lishi lozim).

Qoidaga asosan kreditlar va depozitlar bo'yicha foizlar to'lash vaqtida emas, balki foyda ko'rish davrida hisoblanib, moliyaviy hisobotlarda davriylikka mos aks ettirilib borilishi lozim. Depozit va kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlarni ifodalash uchun har bir depozit turi va kredit bo'yicha alohida hisob varaqlari ochiladi.

Depozitlar va kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini, ularning summasi, ularni to'lash vaqti, davri, to'lash shartlari va boshqalar mijoz bilan bank o'rtasida kelishib olinadi va tuziladigan shartnomada aks ettiriladi. Kreditlar bo'yicha foiz stavkalar kreditning muddati, qarz oluvchi tomonidan tavsiya qilingan garov holati va qiymati, uning likvidililigiga, kredit resurslari bahosiga, kredit riskning darajasiga qarab tijorat banki

tomonidan mustaqil belgilanadi va u kredit shartnomasida aks ettiriladi. Kredit bo'yicha foizlar muddati kelganda, memorial order bilan rasmiylashtirilib, mijozning asosiy talab qilib olinguncha bo'lgan depozit varag'idan grafik bo'yicha undirib olinadi.

Foizlarni hisoblash quyidagi formula bo'yicha amalga oshirilishi mumkin:

$$\text{Foiz miqdori} = \frac{\text{summa} * \text{foiz stavka} * \text{amaldagi kunlar soni}}{360}$$

Mikrokreditlar bo'yicha O'zbekistonda foiz stavkalari Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo'lmagan miqdorda, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qayta moliyalash stavkasining 50 % miqdorida imtiyozli foiz stavkasi o'rnatilishi mumkin.

Ta'lim va iste'mol kreditlari bo'yicha foiz stavkalari tomonlar kelishuviga asosan suzib yuruvchi foiz shaklida, lekin qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo'lmagan summada belgilanadi.

Kredit bo'yicha foizlar har kuni hisoblanishi mumkin va quyidagi buxgalteriya operatsiyasi bo'yicha aks ettiriladi:

Dt 163XX - olish uchun hisoblangan foizlar.

Kt 40201-44900 – foiz daromadlari.

Foizlarni undirish shartnomada belgilangan tartibda va muddatda amalga oshiriladi va u quyidagi buxgalteriya o'tkazmasida ifodalanadi.

Dt – kassa, bankning vakillik hisob raqami yoki mijozning talab qilib olinguncha depozit hisob raqami.

Kt – 163XX - olinish uchun hisoblangan foizlar.

Depozit hisob varaqlari kredit qoldig'i bo'yicha to'lanadigan foizlarni hisoblash bankning moliyaviy holatidan qat'i nazar har kuni amalga oshirilish mumkin va uni quyidagi buxgalteriya o'tkazmasida ifodalash mumkin:

Dt – 50101-54900 – foiz xarajatlari.

Kt – 224XX - to'lash uchun hisoblangan foizlar.

Hisoblangan foizlarning to'lashini kredit shartnomada ko'rsatilgan muddat va summada - quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Dt 224XX - to'lash uchun hisoblangan foizlar.

Kt - bank vakillik hisob varag'i yoki mijozning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i.

Foiz stavkasi quyidagilarga bog'liq holda o'zgarib turadi:

1. Pul bozoridagi talab va taklifning nisbati, ya'ni bozorda qanday miqdorda qarz puliga talab bor va unga nisbatan qanday miqdorda qarz beriladigan pul chiqarilgan.

2. Moliyaviy resursning iste'mol qiymati, ya'ni uni ishlatishdan keladigan naf darajasi.
3. Qarzni to'lash muddati va sharti.
4. Inflyatsiya darajasi.
5. Pul egasining mablag'i daromad keltiradigan boshqa sohalarning nafillik darajasi.
6. Qarz berishning risk darajasi, ya'ni mablag'larning qaytib kelishi kafolati.

3-§. Foiz stavkasi va uning turlari

Foiz stavkasi kreditga berilgan mablag'lardan ma'lum bir miqdorda foydalanilganligi uchun to'lanadigan foiz to'lovlarining nisbiy ko'rsatkichidir.

Foizning bozorda yuzaga keladigan holat yoki o'zgarishlar banklarning foiz stavkalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, foiz stavkasining o'zgarimas va o'zgaruvchan - suzib yuruvchi turlari mavjud. Pul, kredit resurslar bozoridagi o'zgarishlarni inobatga olgan holda tijorat banklari tomonidan passiv yoki aktiv operatsiyalar bo'yicha qat'iy va suzib yuruvchi foiz stavkalari o'rnatiladi.

Qat'iy yoki o'zgarimas foiz stavka – qarz mablag'laridan foydalanish davrida qayta ko'rib chiqish huquqsiz o'rnatiladigan, o'zgarimaydigan stavkadir.

Suzib yuruvchi foiz stavka – kredit berilgan muddat ichida vaqti-vaqti bilan foiz stavkasi qayta ko'rib chiqiladigan o'rta va uzoq muddatli kreditlarga qo'llanadigan stavkadir. Kredit bo'yicha foiz stavkasining qaysi turi qo'llanilishi mijoz va bank o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasida aks ettirilishi lozim.

Suzib yuruvchi foiz stavkasi aksariyat hollarda uzoq va o'rta muddatli kreditlar berganda qo'llaniladi va u ikki qismdan iborat deb qarash mumkin. Birinchi qism pul-kredit bozori konyunkturasiga bog'liq ravishda o'zgaradigan harakatlanuvchi qismdir. Uning o'rnida, odatda, kredit resurslarini taklif etishning banklararo stavkalari LIBOR, PIBOR, FIBOR va boshqalar qatnashadi. Ikkinchi qismi qat'iy o'rnatilgan hajm qatnashadi. U tomonlar kelishuvining predmeti hisoblanib, u qoida bo'yicha kredit shartnomasining amal qilish muddatida o'zgarimaydi. Qayd qilingan qo'shimchanning hajmi kelishuv shartlari va risk darajasiga bog'liq.

G'arb mamlakatlarning pul-kredit sohasida foiz stavkalari turli xil ko'rinishda ma'lum qilingan. Bularga rasmiy foiz stavkalari, banklararo bozorda taklif etish stavkasi, "Praym-reyt" stavkalari, korxon va xususiy shaxslarga beriladigan, risk darajasi yuqoriroq bo'lgan ssudalar bo'yicha stavkalar kiradi. Ba'zi davlatlarning Markaziy banklari tomonidan tijorat banklariga beriladigan kreditlar bo'yicha rasmiy foiz stavkalari o'rnatiladi. Rasmiy yoki bazaviy foiz stavkaning ikki turi mavjud. Bu qimmatli qog'ozlarni qayta hisobga olish rediskontlash yoki hisob stavkasi va qayta moliyalash stavkasidir. Odatda, qayta moliyalash stavkasi hisob stavkasidan yuqori bo'ladi.

Chet el banklari amaliyotida tijorat banklarini qayta moliyalash Markaziy bank tomonidan vakillarni (trattalar) qayta hisobga olish yo'li bilan amalga oshiriladi, shuning uchun bu stavkalar hisob stavkalari nomini olgan.

Yetakchi banklar birinchi darajali banklarni yevrovalyutada kreditlashda, ularda o'z depozitlarini joylashtirib, kredit resurslarini taklif etishning (banklararo bozorda) stavkalaridan foydalanadilar. Bular bazaviy foiz stavkalar deb yuritiladi.

Bunday stavkalariga **LIBOR (LIBOR)** – "Banklararo kreditlar va depozitlar bozorida London taklif etish stavkasi" misol bo'la oladi. **LIBOR** stavkalari bir necha eng rivojlangan mamlakatlar valyutalari bo'yicha va davrlar (1 hafta, 1, 2, 3, 6, 9 va 12 oy) bo'yicha aniqlanadi. Ko'pdan-ko'p hollarda "Libor stavkasi" terminida funt sterlingdagi depozitlar bo'yicha stavka tushuniladi. Har bir yirik tijorat banki har ish kunining ertalab soat 11:00 da mavjud holat bo'yicha pul bozori konyunkturasi bog'liq ravishda stavkani qayd etadi. Shuningdek, yana bazaviy (rasmiy) foiz stavkalarining PIBOR - Parij foiz stavkasi, NIBOR – Nyu-York foiz stavkasi, MIBOR – Moskva foiz stavkasi kabi turlari ham xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladi. Eng ko'p qo'llaniladigan foiz stavka – bu **LIBOR (LIBOR)** bo'lib u nafaqat xalqaro bozorlarda, balki ba'zi mamlakatlarning ichki bozorlarida ham qo'llaniladi. Bazaviy foiz stavkalar jalb qilingan mablag'larning real bahosi, bu sohadagi bank xarajatlari, ssudalar bo'yicha foyda normasi va risk mukofotidan kelib chiqib o'rnatiladi.

Tijorat banklari moliyaviy holati ijobiy bo'lgan, birinchi darajali qarz oluvchilarga kreditlarni berishda "**PRAYM-REYT**" stavkalaridan foydalanadilar.

Va nihoyat, foiz stavkalarining keyingi darajasi – bu korxon va jismoniy shaxslarga beriladigan, risk darajasi yuqoriroq bo‘lgan ssudalar bo‘yicha stavkalaridir.

Foiz stavkalari yana nominal va real foiz stavkalariga bo‘linadi. **Nominal foiz stavkasi** joriy davrdagi bozor foiz stavkasi hisoblanadi, **real foiz stavkasi** inflyatsiya jarayonlari ta‘sirida pulning qadrsizlanish darajasini inobatga olib, nominal stavkaning qayta ko‘rib chiqilgan salmog‘i hisoblanadi.

Bank amaliyotida foizlarni hisoblashning turli xil metod va usullari mavjud bo‘lib, ko‘proq oddiy va murakkab foiz stavkalar qo‘llanadi.

Oddiy foizlar asosan qisqa muddatli kreditlashda foydalaniladi. Unda shartnoma bo‘yicha kelishilgan muddatlar, har chorak yoki boshqa aniq muddatda foizlar hisoblanadi va kreditorga to‘lab boriladi.

Hozirgi kunda tijorat banklari ko‘pincha oddiy usulda foiz stavkasini hisob-kitob qilishdan foydalaniladi. Bunda qarzni asosiy summasini hisobga olgan holda qarzdorning jami to‘lovlari hajmini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$T_s = B_q * (1 + k * f_s).$$

Bu yerda, T_s – boshlang‘ich qarzni hisobga olgan holda kredit bo‘yicha to‘lovlar summasi;

B_q – boshlang‘ich qarz;

f_s – foiz stavkasi;

k – ssudaning muddati, yillar (360 yoki 365 kun) yoki kunlar bo‘yicha kredit munosabatlarning davriyligi.

Masalan, xo‘jalik subyektiga 200 mln so‘m kredit, yillik foiz stavkasi 12 foizdan, 6 oy muddatga berilgan bo‘lsa, kredit bo‘yicha to‘lovlar summasi:

$T_s = 200\,000\,000 * (1 + 0,12 * 180 \text{ kun} / 365 \text{ kun}) = 211\,835\,616,4$ so‘mni tashkil etadi. Mijozning bank kreditidan foydalanganligi uchun to‘laydigan foiz summasi 11 835 616,4 so‘mga teng bo‘ladi.

Bankning mablag‘larni jalb qilishi bilan bog‘liq foiz stavkasini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin.

$$M_{tf} = D_s * F_s / 100 / 12 * D_m.$$

Bu yerda, M_{tf} – mijozga to‘lanishi kerak bo‘lgan foiz miqdori;

D_s – depozit summasi;

F_s – foiz stavkasi;

D_m – depozit muddati.

Buni quyidagi misol orqali ko‘rishimiz mumkin. Masalan, tijorat banki mijoz – jismoniy shaxsdan 3 000 000 so‘mni 20 foiz stavka bilan 3

oylik muddatli omonotga jalb qildi. Mijozga tegishli bo'lgan foiz miqdori

$$= 3\ 000\ 000 * 20 / 100 / 12 * 3 = 150\ 000 \text{ so'mni tashkil qiladi.}$$

Bank amaliyotida **murakkab foizlar** ham qo'llanishi mumkin. Ular odatda uzoq muddatli kreditlashda qo'llanilib, hisoblangan foiz summalari shartnoma muddati tugallanmaguncha kreditorga to'lanmaydi, balki qarzning asosiy summasini ko'paytiradi. Bizning bank amaliyotimizda murakkab foiz hisoblash metodi asosan yuridik va jismoniy shaxslarning depozit va omonat schyotlari bo'yicha qo'llanadi.

Bu usuldan foydalanganda hisoblangan mablag'lar hajmi qarzga qo'shiladi va ularga nisbatan foiz hisoblanib boriladi.

Foiz hisoblashning usullari ko'p jihatdan berilgan kreditning muddatiga bog'liq bo'ladi. Bularga muvofiq tarzda quyidagi murakkab foizlarni hisoblashning variantlari qo'llanadi:

$$O'f = (Bq * (1 + k * fs)) - Bq.$$

Yuqorida keltirilgan formulaga asosan o'sgan foiz ($O'f$) miqdorini aniqlashimiz mumkin.

$$O'f = (200\ 000\ 000 * (1 + 0,12 * 180 \text{ kun} / 365 \text{ kun})) - 200\ 000\ 000 = 11\ 835\ 616,4 \text{ so'mni tashkil etadi.}$$

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan me'yorlarga asosan

- **real foiz stavkasi** – bu aktivning foydalanish muddati davomida kutilayotgan kelgusi pul tushumi oqimlarini diskontlash uchun va aktivning boshlang'ich balans qiymatiga tenglashtirish uchun zarur bo'lgan foiz stavkasidir;

- **real foiz stavkasi usuli** esa aktivning (majburiyatning) xizmat muddati davomida diskontni yoki mukofotni foizli daromadga (yoki xarajatga) amortizatsiya qilish yoki kechiktirilgan foizli to'lovlarni (masalan, har oyda emas, har yili olinadigan yoki to'lanadigan) taqsimlash orqali o'zgarmas foiz stavkasini tan olishga olib keluvchi usuldir.

Banklar kreditlar, qarz qimmatli qog'ozlari va boshqa moliyaviy vositalar bo'yicha foizlarni hisoblab borishni quyidagi hollarda to'xtatadi:

1. Aktivlar Markaziy bank normativ hujjatlariga muvofiq substandart, shuhbali va ishonchsiz turlarga tasniflanganda.

2. Aktiv MKXSga muvofiq qadrsizlanganda.

3. Asosiy summani qaytarish yoki uning foizini to'lash muddati 90 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilgan holda (qaytarish muddati bir yilgacha bo'lgan foizli aktivlar bo'yicha).

4. Asosiy summani qaytarish yoki uning foizini to'lash muddati 90 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilgan holda (qaytarish muddati bir yildan ko'p bo'lgan foizli aktivlar bo'yicha).

Aktivlarga foiz "o'stirmaslik" maqomini bergan paytdan boshlab, banklar quyidagilarni amalga oshirishlari lozim:

1. Foizli daromadlarni balans hisob varaqlarida hisoblash to'xtatiladi.

2. Barcha hisoblangan, lekin olinmagan foizli daromadlar balans hisob varaqlaridan ko'zda tutilmagan holatlar hisob varaqlariga o'tkazilishi lozim va aktivga «o'stirmaslik» maqomi berilgandan so'ng keyingi foizlar hisoblanishi ko'zda tutilmagan holatlar hisob varaqlarida amalga oshiriladi.

3. Ushbu aktivlar bo'yicha barcha keyingi to'lovlar, birinchi navbatda, hisoblangan, lekin olinmagan foizli daromadlarni, keyin esa kreditning asosiy summasini qoplashga yo'naltiriladi.

Muddati o'tgan foizlarni kapitalizatsiyalash orqali asosiy qarz summasiga qo'shib hisoblashga yo'l qo'yilmaydi.

4-§. Bank marjasi va foiz stavkalariga ta'sir qiluvchi omillar

Bank kreditidan foydalanilganlik uchun haq to'lash **kredit bahosining asosini** tashkil etadi, kredit bahosi hisobot davr boshlangunga qadar bank bo'yicha yuzaga keladigan o'rtacha foiz stavkasi va marjani o'z ichiga oladi.

Bank oladigan va to'laydigan foiz o'rtasidagi farq foiz marja deb yuritiladi. Ya'ni foiz marja – bank aktivlaridan olinadigan foizli daromad va bank majburiyatlari bo'yicha to'lanadigan foizli xarajatlar o'rtasidagi farqdir. Foizli marjani foizlar bo'yicha keladigan sof daromad ham deb atashadi. U quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Mf = \frac{Df - Rf}{Ad} * 100\%$$

Mf – foizli marjaning hajmi.

Df – foizli daromadlar.

Rf – foizli to'lovlari bo'yicha xarajatlar.

Ad – foiz ko'rinishida daromad keltiradigan aktivlar.

Kredit narxi Markaziy bankning "qayta moliyalash" stavkalarining me'yorlari bilan tartibga solinadi hamda mahsulot va xizmat tannarxi darajasini hisobga olgan holda belgilanadigan chegara ko'rsatkichlaridan

oshmasligi lozim. Amalda qayta moliyalash stavkasi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonunning tegishli moddasiga muvofiq Markaziy bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Hozirgi kunda Markaziy bankning qayta moliyalashtirish foiz stavkasi oyiga 0,75 % ni, hamda yiliga 9 % ni tashkil etadi. Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi tijorat banklari tomonidan kreditlarga o‘rnatiladigan foiz stavkalarining eng past chegarasi hisoblanadi. Demak, joriy davrdagi qayta moliyalashtirish stavkasi orqali Markaziy bank tijorat banklari kredit narxining minimal miqdorini belgilaydi. Tijorat banklari o‘z kredit siyosati talablaridan kelib chiqib qayta moliyalash stavkasi asosida o‘z kreditlari bo‘yicha foiz stavkalarini o‘zi mustaqil belgilaydi.

Kreditlarning foiz stavkasiga ta’sir etuvchi omillarga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. Ulardan asosiylari quyidagilar:

1. Pul bozorida talab va taklifning nisbati, ya’ni bozorda qancha miqdorda kreditga talab bor va unga nisbatan qancha miqdorda qarzga beriladigan pul bo‘yicha taklif bor. Kreditga talabning oshishi foizlarning ham oshishiga, taklifning oshishi esa foizlarning kamayishiga olib keladi.

2. Qarzga olinadigan pulni ishlatishdan kutiladigan naf darajasi, aniqrog‘i shu pulning iste’mol qiymati. Kredit xo‘jalik subyekti faoliyati, ehtiyoji uchun juda zarur bo‘lsa, u bo‘yicha foiz ham yuqori bo‘lishi, aks holda u pasayishi mumkin.

3. Qarzni to‘lash muddati va sharti. Agar qarz uzoq muddatga berilib, uni sekin-asta yoki kichik-kichik summalarga bo‘lib, bemaol qaytarish shartiga kelishilgan bo‘lsa, bu holda bank qarzdordan yuqori foiz to‘lashni talab qilishi mumkin. Agar kredit qisqa vaqtga berilsa, uni bir yo‘la to‘lash shart bo‘lsa, qarzdor past foizni ma’qul ko‘radi. Demak, qarz qanchalik uzoq muddatga berilsa, shunchalik uni ishlatib daromad ko‘rish mumkin va shu hisobdan foiz to‘lash yengil bo‘ladi.

4. Kreditning qaysi valyutada berilishi. Agar kredit erkin konvertirlangan valyutada berilsa, foiz yuqori belgilanadi, agar u milliy valyutada berilsa, foiz nisbatan past o‘rnatiladi.

5. Inflyatsiya darajasi. Inflyatsiya yuz bersa, kreditga berilgan pul egasiga qaytib kelgunicha o‘z qadrini qisman yo‘qotadi. Bunda pul egasi yutqazadi. Shu sababli, yuqorida ta’kidlanganidek, foiz stavkasi inflyatsiya sur‘atlarini hisobga olib o‘rnatiladi.

6. Pulni kreditga berishdan ko‘ra boshqa yo‘l bilan ishlatishdan tushadigan daromad. Bunda pul egasining afzal ko‘rish prinsipi amal

qiladi. Agar aksiya dividendi yuqori bo'lsa, foiz pasayadi va, aksincha, agar aksiya dividendi past bo'lsa, foiz undan yuqori bo'lishi shart. Aks holda pul egasi (bank) uni qarzga bermay, aksiya sotib olishni afzal ko'radi.

7. Kredit berishning risk darajasi. Agar kreditning qaytib kelishi kafolatlansa, foiz past, agar bu xatarli bo'lib, qarz qaytishi shubhali bo'lsa, foiz stavkasi yuqori bo'ladi.

Tijorat banklarining foiz siyosati doimo risk bilan bog'liq. Shu bois banklarda foiz riski (interest rate risk) – depozitlar va qarzga olingan mablag'lar bo'yicha foizlarning kreditlar bo'yicha foizlardan oshib ketishi natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlarning oldini olish juda muhim hisoblanadi.

Foiz risklarini boshqarishda bankning aktivlari va passivlari muddatlarining mos kelishi muhim ahamiyatga ega. Aktiv va passivlarning muddatlari o'rtasidagi farq GEP deb ataladi. Bu usulning mohiyati shundaki, bankning aktivlari va passivlari foiz stavkalari, muddatlari to'lash muddatlari bo'yicha guruhlariga ajratiladi. Har bir muddat uchun GEP shu muddatdagi aktivlar va passivlar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

$$GEP = ASF - PSF,$$

bu yerda ASF – aktivlar bo'yicha sof foizlar; PSF – passivlar bo'yicha sof foizlar.

Agarda bankda aktivlarga nisbatan passivlar ko'p bo'lib va ular foizlar o'zgarishiga ta'sirchan bo'lsa, GEP salbiy bo'lishi mumkin. Foiz riskini foiz marjasi orqali baholash mumkin. Foiz marjasi – bu olingan foizlar va to'langan foizlar o'rtasidagi farqdan iborat. Foiz marjasi koeffitsiyenti ma'lum vaqtda uning haqiqiy darajasini ko'rsatadi va quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$K = \text{ma'lum davrda olingan foizlar} - \text{shu davrda to'langan foizlar} * 100 / \text{daromad keltiruvchi aktivlarning o'rtacha qoldig'i}$. Foiz risklarini boshqarishning bir necha konsepsiyalari mavjud. Ularni 39-jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

Har bir davlatda qayta moliyalash stavkasini boshqarish shu davlatning pul-kredit siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Muomalaga chiqariladigan pul massasi, iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltiriladigan kreditlar miqdori qayta moliyalash stavkasiga asoslanadi. Chunki qayta moliyalash stavkasining kamayishi pul qiymatining arzonlashuviga va muomalada pul massasining oshishiga, iqtisodiyot sohasiga ko'proq pul mablag'larini yo'naltirishni

rag'batlantirishga zamin yaratadi. Qayta moliyalash stavkasining oshishi kreditlar bahosining oshishiga, pul massasining kamayishiga ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun bu jarayonni inflyatsiyaga qarshi vosita sifatida ham qo'llash mumkin.

53 - jadval

Foiz riskini boshqarish konsepsiyalari

Jarayonlar	Takliflar
1. Past foiz stavkalarining oshishi kutilmoqda	<ul style="list-style-type: none"> - qarz mablag'larining muddatini uzaytirish; - investitsiyalarning muddatini qisqartirish; - o'zgarmas foiz stavkada beriladigan kreditlarni qisqartirish; - uzoq muddatli qarz olish; - investitsiyalar (qimmatli qog'ozlar shaklidagi)ning bir qismini sotish; - ba'zi riskli kredit liniyalarni yopish
2. Foiz stavkalarining maksimal o'sishi kutilmoqda	<ul style="list-style-type: none"> - qarz mablag'larning muddatini qisqartirib borish lozim; - investitsiyalarning muddatini uzaytirib borish kerak; - o'zgarmas foiz stavka bilan kreditlarning salmog'ini oshirib borish lozim; - qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish hajmini oshirib borish lozim
3. Juda yuqori foiz stavkaning tushishi kutilmoqda	<ul style="list-style-type: none"> - qarz mablag'larning muddatini qisqartirish; - o'zgarmas foiz stavkadagi kreditlarning salmog'ini oshirish; - investitsiyalar hajmini oshirish; - yangi kredit liniyalar ochish
4. Foiz stavkalari minimal darajaga tushganda	<ul style="list-style-type: none"> - qarz mablag'larning muddatini uzaytirib borish kerak; - investitsiyalarning muddatini qisqartirish kerak; - o'zgaruvchan foiz stavkadagi kreditlarni ko'proq berish kerak; - qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishni qisqartirish lozim

5-§. Xorijiy davlatlar banklarining foiz siyosati va foiz stavkalari

Jahon amaliyotida foiz stavkalari quyidagi guruhlariga bo'linadigan turli xil suzib yuruvchi foiz stavkalaridan foydalaniladi:

Rasmiy foiz stavkalari (hisob stavkasi yoki qayta moliyalash stavkasi) har bir davlatda Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Mana shu stavkalar bo'yicha Markaziy banklar tijorat banklariga kredit beradi. Markaziy banklarning kreditlash operatsiyalari tijorat veksellarini qayta hisoblash shaklida ham amalga oshiriladi.

Kredit resurslarini taqdim qilishning banklararo stavkalari eng ko'p qo'llaniladigan bazis stavka sifatida **LIBOR** – London banklararo

stavkasi hisoblanadi. Bundan tashqari Frankfurtdagi Mayneda (**FIBO**), Parijda (**PIBOR**), Madridda (**MIBOR**), Rimda (**RIBOR**), Stokgolmda (**STRIBOR**), Gonkongda (Gribor) kabi banklararo stavkalari ham mashhurdir.

“Praym–reyt” stavkasi (birinchi darajali stavka) – bu eng obro‘li qarz oluvchilarga beriladigan kreditlarga AQSh banklari tomonidan belgilanadigan stavkadir. U banklar tomonidan kreditlarga qo‘yiladigan qiymatining asosi bo‘lib xizmat qiladi va u rasmiy banklararo bozor stavkasidan 1 – 2 % ga yuqori bo‘ladi.

O‘rta va katta bo‘lmagan firmalar va xususiy shaxslarga beriladigan kreditlar stavkalari. Ular odatda “praym-reyt”dan ham yuqori bo‘ladi.

Bugungi kunda foiz siyosatiga turli mamlakatlarda turlicha yondashuvni ko‘rish mumkin. Dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri AQShda ipoteka inqirozining salbiy oqibatlaridan bank tizimini himoya qilish maqsadida qayta moliyalash stavkasi kamaytirildi. AQSh Federal rezerv tizimi (FRT) qayta moliyalash stavkasini 2 foizdan 1,5 foizgacha kamaytirgan bo‘lsa, Kanada, Angliya, Shvetsiya, Shveytsariya, Yevropa Markaziy banklari foiz stavkani 0,5 punktga kamaytirdi.

Federal funds rate (FED) – Federal fondlar bo‘yicha stavkalar AQShda asosiy yoki rezerv fondlar foiz stavkasi hisoblanadi. AQSh qonunchiligi bo‘yicha barcha banklar Federal rezerv tizimi (FRT)da o‘z rezervlarini saqlashlari lozim. FRT rezerv fondlar foiz stavkasi bo‘yicha boshqa banklardan overnajt (overnight) kreditlarini jalb qilishi mumkin, lekin bu stavka qayta moliyalash stavkasi (discount rate) hisoblanmaydi. Bu stavkaning darajasi davlat qimmatli qog‘ozlari bilan operatsiyalar yordamida nazorat qilib boriladi hamda u bilan banklar rezervlariga foizlar to‘lanadi. **AQShda Discount rate - Diskont stavka – qayta moliyalash stavkasi** rolini o‘ynaydi. FRT tomonidan banklarga berilgan kreditlarning foizlari diskont stavkasiga asoslanadi, boshqacha qilib aytganda, diskont stavka AQSh FRTning banklarga beradigan kredit resurslarining foiz stavkasi hisoblanadi. Bu stavkaning tushishi banklarga arzon resurslar jalb qilib, kreditlash hajmini oshirish imkoniyatini beradi. Bu pul taklifini oshirib, uning qiymati tushishiga olib keladi yoki, aksincha, holat yuz berishi mumkin. FRTning tijorat banklari bilan operatsiyalari REPO shaklida, ya‘ni qayta sotib olish majburiyati bilan sotish tariqasida amalga oshiriladi. Federal fond stavkasi va diskont stavkasining joriy darajasi AQSh FRTning Ochiq

bozorlar bo'yicha qo'mita (Federal Open Market Committee, FOMC)ning yig'ilishi qaroriga asosan qabul qilinadi va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

Refinancing tender rate (ECB) – Yevropa Markaziy banki (EMB) qayta moliyalash stavkasi bo'lib, u EMBning tenderida mablag'larni jalb qilish bo'yicha taklifning minimal stavkasi hisoblanadi. EMB pul tizimining likvidligini ta'minlash maqsadida har ikki haftada bir marta mablag'larni joylashtirish bo'yicha tender o'tkazadi. Tender o'tkazishda EMB birinchi o'rinda barcha banklardan ular uchun qulay bo'lgan foiz stavkasida qarz mablag'i olish bo'yicha buyurtmalarini qabul qiladi. Foiz stavka taklifining darajasiga qarab, avvalombor, yuqori foiz stavkada buyurtma berganlarning, keyin past foiz stavkadagi resurs olishni istaganlarning buyurtmalari amalga oshiriladi, ya'ni tijorat banklariga qayta moliyalash kreditlarni ajratadi. **Refinancing tender rate (ECB)** Yevropada asosiy foiz stavka hisoblanadi. **Deposits rate (ECB)** - EMBning depozitlar bo'yicha foiz stavkasi bo'lib, vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'lari mazkur foizda joylashtirilishi mumkin hamda bu foiz overnays foiz stavkalari bozorida eng past foiz chegarasini belgilab beradi.

54-jadval

Xorijiy davlatlar markaziy banklari foiz stavkalari

Markaziy banklar	Stavka nomlanishi	Foiz stavkasi
AQSh FRT	Federal Funds Rate	<0,25%
Yevropa Markaziy banki	Refinancing tender	1,25%
Angliya banki	Repo Rate	0,50%
Yaponiya banki	Discount rate	<0,10%
Kanada banki	O/N Lending rate	1,0%
Shveysariya Milliy banki	3Month Libor Rate	0,25%
Avstriya rezerv banki	Cash Rate	4,75%
Yangi Zelandiya rezerv banki	Official Cash Rate	2,50%

Marginal lending rate (ECB) - EMBning zayomlari bo'yicha foiz stavka bo'lib, EMB tizimidagi muassasalardan tijorat banklari o'z joriy likvidligini ta'minlash uchun kreditlar olishi mumkin. Marginal lending rate (ECB) – zayomlar bo'yicha eng oxirgi stavka overnays foiz stavkalari bozorida eng yuqori foiz chegarasini belgilab beradi. EMBning kreditlari ikki hafta muddatga REPO operatsiyasi asosida beriladi.

Repo rate – Angliya bankining REPO stavkasi – bu foiz stavka bo'yicha Angliya banki REPO operatsiyasida qimmatli qog'ozlar garovi ostida qisqa muddatli qarzlari beradi. Barcha bitimlar REPO bitimi, bo'lib, qayta sotib olish majburiyatiga asoslanadi. Repo rate Angliyada asosiy foiz stavkasi hisoblanadi. Foiz stavkasini o'rnatishda Angliya banki uchun iste'mol tovarlar bahosi indeksi asosiy indikator hisoblanib yilda 2,5 foizdan oshmasligi lozim. Asosiy foiz stavkalarining o'zgarishi bo'yicha Angliya bankining Pul siyosati qo'mitasi (Monetary Policy Committee) o'zining har oyda bo'ladigan yig'ilishida qaror qabul qiladi va u e'lon qilinadi.

3 month LIBOR range – Shveysariya uch oylik zayomlar bo'yicha foiz stavkalar xaridori bo'lib, Shveysariya Milliy banki qisqa muddatli foiz stavkalarni nazorat qilish maqsadida Shveysariya franki bo'yicha LIBOR uch oylik foiz stavkani 1% diapazonida o'rnatadi va ushlab turadi.

LIBOR - London Interbank Offered Rate – London banklararo stavka bo'lib, bu foiz stavka bo'yicha yirik banklar London pul bozorida kreditlarini joylashtiradi. LIBOR stavkasi turli vositalar bo'yicha har xil muddatlarga o'rnatiladi.

Hozirgi paytda eng muhim stavka **LIBOR** hisoblanib, yevrovalyuta bozoridagi birinchi darajali banklar o'rtasidagi kreditlashda eng ko'p qo'llaniladigan stavkadir.

Odatda, "**LIBOR** stavkasi" deyilganda, funt-sterling va AQSh dollaridagi depozitlar bo'yicha foiz stavkalari tushuniladi.

Funt-sterlingdagi **LIBOR** stavkasi har kuni ertalab 11:00 da (London vaqti) quyidagi banklar qat'iy stavkalarining o'rtacha arifmetik kattaligi sifatida hisoblanadi. Mana shu tamoyil asosida AQSh dollaridagi **LIBOR** stavkasi aniqlanadi, bunda Barklayz, Benk of Tokio, Bankers Trast, Neshnl Vestminster bank kabi banklarning qat'iy stavkalari ishlatiladi. Yevrokreditlar bo'yicha **LIBOR** stavkasi odatda 12 ta valyuta bo'yicha va bir necha davrlar bo'yicha (1 hafta, 1, 2, 3, 6, 9 oy va 1 yil) hisoblanadi.

Banklar kredit bo'yicha **foiz stavkalarini hisoblashda** turli xil usullardan foydalanishadi. Misol uchun, AQShda eng ko'p tarqalgan usullar bu - yillik foiz stavkasi usuli, oddiy foiz usuli, diskont stavka usuli, qo'shish usuli hisoblanadi.

Yillik foiz stavkasi usuli - kredit bo'yicha yig'ilgan to'lovlarni kredit summasiga bo'lgan nisbatini ko'rsatadi, ya'ni daromadlilik stavkasini ifodalaydi. Bu usul kreditning qanchalik tez

qaytarilayotganligi va qarzdor kreditlash muddati davomida haqiqatda qancha summa ishlatayotganligini ko'rsatadi.

Oddiy foizlar usuli ham haqiqatda ishlatgan kreditni ko'zda tutadi. Agar qarzdor kredit qaytarishni sekinlik bilan amalga oshirsa, oddiy foizlar usuli qarzdorlik qoldig'i pasayishini va tegishli to'lanadigan foiz stavkalarini aniqlab beradi. Bu usulni qo'llashda qarzdor kredit qaytarilishi muddati yaqinlashgan sayin foiz to'lovlarida xarajatlarni tejashga erishadi.

Diskont stavka usuli. Kreditlarning asosiy qismi kreditlash muddati davomida qisman foiz va qisman asosiy qarzni to'lashni ko'zda tutadi, biroq diskontlash usuli foizlarning avans to'lovini ham ko'zda tutadi. Bu holatda qarz oluvchi kelishilgan kredit summasini foizlarni chegirishdan so'ng oladi. Muddat tugashi bilan kelishilgan asosiy qarz summasini qaytarishi lozim.

Foiz oshirish usulida kredit qaytarish badallarini qarzdorga e'lon qilingunga qadar, foiz to'lovlari asosiy qarz summasiga qo'shib borilishi nazarda tutiladi. Kredit va foizlar muddat oxirida bir vaqtda qaytarilgan hollardagina, foiz oshirish stavkasi oddiy foiz stavkasiga teng bo'ladi. Har qanday boshqa holatda qarzdor shartnomada ko'rsatilgan stavkada emas, balki kredit bo'yicha yuqori bo'lgan real stavkani to'laydi.

Erkin bozor munosabatlariga asoslangan davlatlarda ssuda kapitalining bahosi va ularga to'lanadigan foiz stavkalari bozorda, raqobat muhitida vujudga keladi. Bunda ssuda kapitali auksioni boshlanadi. Bu auksionda kredit resurslari erkin, ochiq tarzda sotiladi. Ammo auksion bo'lganligi sababli, bu resurslarga narx sun'iy tarzda oshib ketishi mumkin. Ammo iqtisodiyoti uncha rivoj topmagan davlatlar uchun kredit resurslarining real bahosini aniqlash va bunda inflyatsiyani ham e'tiborga olish eng qulay usul hisoblanadi.

Xorijiy davlatlar banklari amaliyotida ham qat'iy belgilangan (fiksirlangan) va suzib yuruvchi foiz stavkalari qo'llaniladi. Qat'iy belgilangan (fiksirlangan) foiz stavkasi - bu kredit shartnomasi bajarilgunga qadar o'zgarmasdan qoluvchi foiz stavkasidir. Bu stavka tijorat banki uchun noqulay, chunki bunda bank o'z aktivlarining ma'lum qismini yo'qotishi mumkin. Masalan, bank 30 % stavkada bir yillik kredit berdi. Uch oydan ssuda kapitali bozorida bir yillik kapitallarning foiz stavkasi 35% ga ko'tarilsa, bu yerda bankning zarar ko'rishi aniq. Suzib yuruvchi foiz stavkasi bu ssuda kapitalidagi talab va taklifga qarab o'zgarib boradigan foiz stavkasidir. Suzib yuruvchi foiz stavkasini qo'llagan bank o'zini baholar o'zgarish riskidan himoya

qiladi. Masalan, ssuda bozorida Libor - 6 % bo'lsa, bank spredi - 1 % bo'lishi rejalashtirilgan bo'lsa, demak, kredit narxi - 7% ni tashkil etadi. Agarda ssuda bozorida Libor 5 % ga tushgan holda ham bank spredi 1 % ligicha qolishini inobatga olsak, kredit narxi 6 % ni tashkil qiladi. Bu holda tijorat banki ma'lum miqdorda foydaga ega bo'ladi.

Tijorat banklarining foiz siyosati doimo risk bilan bog'liq. **Foiz stavkasi riski (interest rate risk)** – bu foiz stavkalarining o'zgarishi natijasida moliyaviy yo'qotishlarning yuzaga kelishini anglatadi. Foiz riski bank tomonidan jalb qilingan depozitlar, qarzga olingan mablag'lar bo'yicha foizlarning kredit bo'yicha foizlardan oshib ketishi natijasida yuzaga keladi. Foiz riski kredit va depozitlarning foiz stavkalari va muddatiga bog'liq bo'ladi. Foiz stavkalari bo'yicha risklarning yuzaga kelishining quyidagi sabablarini keltirish mumkin. Bular:

1. Foiz stavkasini noto'g'ri tanlash (yuqorida ko'rib o'tganimizdek, o'zgarmas yoki o'zgaruvchan – suzib yuruvchi foiz stavkalardan birini tanlash).

2. Kredit shartnomasida foiz stavkasining o'zgarishi mumkinligini ko'zda tutmaslik.

3. Markaziy bank foiz siyosatining o'zgarishi.

4. Kredit muddatining boshidan oxirigacha bir xil foizning o'rnatilishi.

5. Bankda foiz siyosatining ishlab chiqilmaganligi yoki uning mukammal emasligi.

6. Kredit bahosi yoki foiz stavkasining noto'g'ri hisoblanganligi v.b.

Foiz siyosatini olib borishda tijorat banklari **GAP tahlil usulidan** oqilona foydalanishlari lozim. Bu usul foiz riskini o'lchash va tahlil qilish usullaridan hisoblanadi va bankning jalb qilgan mablag'lariga to'lanadigan foizlar bilan kreditga joylashtirishdan oladigan foizlari o'rtasidagi farqni ifodalaydi.

Foiz riskiga ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi. **Tashqi omillarga:**

- bozor konyunkturasining nobarqarorligi;
- foiz riskini boshqarishning huquqiy asoslari;
- siyosiy-iqtisodiy holat;
- bank xizmatlari bozoridagi raqobat;
- bank va mijoz o'rtasidagi munosabat;
- xalqaro ahvol va boshqalar kiradi.

Ichki omillarga:

- foiz riskini boshqarish bo'yicha bank strategiyasining mavjud emasligi;
- bank faoliyatidagi kamchiliklar, rejalarning yo'qligi yoki mukammal emasligi;
- foiz riskini xedjirlash dasturining yo'qligi;
- bank xodimlarining malakasi;
- foizlar o'zgarishini kuzatib borish bo'yicha monitoringning yo'lga qo'yilmaganligi v.b.

Foiz risklaridan himoyalaniş borasida xedjirlash, sug'urtalash, diversifikatsiyalash, muddatli bitimlar tuzish kabi choralardan foydalanish lozim.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Foiz siyosati	Preym-reyt"
Foiz turi	Marja
Foiz darajasi	Foizli marja
LIBOR	Yevrokredit
FIBOR	Diskont
PIBOR	Real foiz stavkasi
MIBOR	

O'z bilimini tekshirish uchun savollar

- Tijorat banklarining foiz siyosati deganda nimani tushunasiz?
- Foiz stavkasi qanday o'rnatiladi va qaysi omillarga bog'liq?
- Foiz darajasi qanday aniqlanadi?
- Kreditning bahosi deganda nimani tushunasiz va u qanday aniqlanadi?
- Oddiy foizlar qanday aniqlanadi?
- Murakkab foizlar qanday aniqlanadi?
- Bank marjasi qanday aniqlanadi va u qaysi omillarga bog'liq?
- Xorijiy davlatlar foiz siyosatining qanday xususiyatlarini bilasiz?
- Real foiz stavkasi qanday aniqlanadi va unga qanday omillar ta'sir qiladi?

XIII BOB. ALOHIDA KREDIT TURLARI VA USULLARI

1-§. Alohida ssuda hisob varag'idan kreditlash tartibi

Kredit - vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini m'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig'indisi bo'lganligi bois, jahon amliyotida turli xil bank kreditlaridan foydalaniladi.

Tijorat banklari xo'jalik yurituvchi subyektlarga ta'minot asosida yoki ta'minotsiz - blank kreditlari (ishonch kreditlari) deb nomlanuvchi kreditlarni berishi to'g'risidagi qaror qabul qilishi mumkin.

Tijorat banki tomonidan ta'minotsiz kreditlarni berish katta risk bilan bog'liq. Bank qarz oluvchining kredit tarixini yaxshi bilsa, uning faoliyati moliyaviy jihatdan barqaror va qarz oluvchining to'lovga layoqatligiga shubha bo'lmasa, bunday hollarda bank mijozga ishonch krediti berishi mumkin. Kredit qarz oluvchi tomonidan berilgan kredit buyurtmasi asosida ajratilib, kredit shartnomasi va muddatli majburiyatnoma bilan rasmiylashtirilishi hamda belgilangan muddatda to'lanishi shart.

Iшонch krediti belgilangan muddatda qaytarilmasa, qarz oluvchi o'zining moliyaviy holatini yaxshilash yuzasidan chora-tadbirlar qabul qilungga qadar uni berish, to'xtatib qo'yilishi lozim.

Ta'minlangan va ta'minotsiz ssudalar ssudaning maqsadiga ko'ra, u bo'yicha mijozga ochiladigan kontokorrent hisob varag'i overdraft bo'yicha hamda alohida ssuda hisob varaqlaridan beriladi.

Kreditni to'lash muddati kelsa va qarz oluvchida pul mablag'lari bo'lmasa, muddatida to'lanmagan ssudalarni hisob varag'idan undirib olishga taqdim etiladi, unga doir majburiyatlar esa ikkinchi kartotekaga joylashtirilib, kalendar navbati tartibida to'lanadi.

Tijorat banklari hozirgi kunda ko'pincha xo'jalik yurituvchi subyektlarga alohida ssuda hisob varaqlaridan **«kredit liniyasini ochmasdan»** yoki **«kredit liniyasini ochib»** kreditlar beradi. Kredit liniyasi – bu qarz oluvchi oldidagi yuridik tuzilgan bank majburiyati bo'lib, bunda qarz oluvchiga ma'lum muddat davomida belgilangan limit chegarasida kredit berishga kelishiladi. Kredit liniyadan kreditlar quyidagi maqsadlarga, ya'ni qarz oluvchining asosiy faoliyati bilan bog'liq tovar moddiy boyliklar, ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish,

amal qilish muddati 30 kun bo'lgan akkreditivlarni ochish uchun pul hisob-kitob hujjatlarini to'lashda kredit berishlari mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarga **«kredit liniyasini ochmasdan»** degan alohida ssuda hisob varag'idan kredit berish bir martalik ssuda berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bir marta ssuda berish to'g'risidagi qaror mavjud qoidalarda ko'zda tutilgan hujjatlar paketi asosida bank tomonidan har bir ssuda bo'yicha alohida qabul qilinadi. Kredit liniyasi ochilmasdan turib kreditlanayotgan bo'lsa, ularning obyekti tovar moddiy qimmatliklar uchun to'lovlar, akkreditiv ochish va boshqa hisob-kitoblarni amalga oshirish hisoblanadi. Bunda har bir to'lov maqsadli bajarish nuqtayi nazaridan tekshiriladi va kredit shartnomasi tuziladi.

Kreditga bo'lgan talab bank tomonidan xo'jalik yurituvchi subyekt bilan birgalikda kredit shartnomasi va paketdagi boshqa hujjatlardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Kredit liniyasi ochilmaydigan qarz hisob varag'i bo'yicha kreditlanganda, qarzning butun summasi ma'lum kunda o'tkaziladi va shu paytdan boshlab qarzning to'la hajmi asosida foizlar hisoblana boshlaydi. Kredit:

- majburiyatlarni qaytarish muddati kelishiga qarab qarz oluvchining hisob-kitob varag'idan ssudalar bo'yicha qarzlarni undirib olish yo'li bilan;

- qarz oluvchining hisob-kitob varag'idagi pul mablag'larining bo'sh qoldiqlarini to'lov topshiriqnomasi asosida ssuda hisob varag'iga o'tkazish yo'li bilan muddatidan ilgari;

- bank tomonidan kafolat, kafilliklar bo'yicha olingan majburiyatlardan, shuningdek, garov huquqini amalga oshirishdan tushgan mablag'lardan foydalanish yo'li bilan to'lanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarga **«kredit liniyasini ochish»** yo'li bilan kredit berish, kreditlashning oldindan belgilangan miqdori doirasida alohida ssuda hisob varag'idan amalga oshiriladi. Mazkur hisob varag'iga qarz olishning tovar moddiy boyliklar, asosiy faoliyatiga tegishli ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun pul hisob-kitob hujjatlari bo'yicha haq to'lanadi. Kredit liniyasi ochilganda esa kredit summasi to'lov turi, vaqtiga qarab, to'lov hujjatlariga ko'ra ma'lum muddat oralig'ida bo'lib-bo'lib o'tkazib boriladi. Bunda qarz foizi faqatgina qarzdor hisobiga to'langan summa bo'yicha hisoblab boriladi, ssudani rasmiylashtirish shartnomalarini har gal bank bilan muvofiqlashtirishga ehtiyoj qolmaydi.

Mazkur kredit qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlash, tayyorlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalariga, savdo, ta'minot va boshqa xo'jalik subyektlarga, odatda, umumiy asoslar va qoidalarga ko'ra beriladi.

Yuqorida qayd etilgan kredit berishning majburiy shartnomalaridan biri qarz oluvchining moliyaviy holati barqaror bo'lishidan iboratdir.

«**Kredit liniyasini ochish**» yo'li bilan ssudalar berish bankning kafolatli majburiyatnomasi bilan rasmiylashtirilishi lozim. Bunda bank vakillik hisob varag'ining holatidan qat'i nazar, kredit shartnomasida belgilangan doiralarda kredit miqdori, muddati va limitida qarz oluvchiga hech qanday to'siqlarsiz kredit berilishini kafolatlovchi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

Bankning kafolat majburiyatnomasi ikki nusxada tuziladi, ulardan biri kredit xodimining farmoyishiga ko'ra hisob yuritilishi uchun buxgalteriyaga beriladi va buxgalteriya bo'limida "91809-bank bergan majburiyatnoma" hisob varag'ida o'z ifodasini topadi, ikkinchisi qarz oluvchining kreditga doir hujjatlarida saqlanadi. «**Kredit liniyasini ochish**» kreditning miqdori, undan foydalanish muddati va uni to'lash davriyligi qarz oluvchining tovar yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan tuzgan shartnoma-bitimni tahlil qilish asosida belgilanadi, bu kredit shartnomasida aks ettirilishi lozim.

«Kredit liniyasini ochish»ga xizmat ko'rsatganlik uchun qarz oluvchi bankka foizlarni to'laydi. Foizlar kreditdan foydalanish darajasidan qat'i nazar kreditlash limitining barcha summasiga hisoblanadi. Bunda limitlashtirilgan summaning barchasini yoki bir qismini ishlatsa ham umumiy summaga nisbatan foiz to'laydi.

Kreditning qaytarilishi bank tomonidan belgilab beriladigan maxsus grafik bo'yicha mijozning hisob varag'idagi mablag'lardan amalga oshiriladi. Hisoblangan foizlar har oyda yoki belgilangan muddatlarda o'tkazib boriladi va shartnoma muddati tugaganda asosiy qarz summasi bankka qaytariladi. Agar kreditni muddatdan oldin qaytarish istagi bo'lsa, to'lov topshiriqnomasi orqali amalga oshiriladi. Agar ssuda o'z muddatida qaytarilmasa, unda hisob raqamga tushayotgan barcha mablag'lar ssudani qoplash uchun foydalaniladi.

Ochiq kredit liniyalari bank va mijoz o'rtasida o'tkazilgan kredit shartnomasida ko'rsatilgan barcha hisoblangan pul hujjatlarini kredit hisobidan to'lash imkoniyatini beradi.

Kredit liniyasi, asosan, bir yilga ochiladi, ba'zi hollarda undan qisqa muddatga ham ochilishi mumkin. Kredit liniyasi muddati davomida

mijoz ixtiyoriy vaqtda bank bilan qo‘shimcha muzokaralar olib bormasdan va rasmiyatchiliklarsiz ssuda olish imkoniyatiga ega. Ammo bank, agarda mijozning moliyaviy holati yomonlashgani haqida ma‘lumotga ega bo‘lsa, u belgilangan limit chegarasida ham ssuda berishdan bosh tortish huquqiga ega. Odatda, kredit liniyalari yaxshi obro‘-e‘tibor va barqaror moliyaviy holatga ega bo‘lgan mijozlarga ochiladi. Mijoz iltimosiga ko‘ra kredit limiti qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Kredit liniyalari tiklanadigan va tiklanmaydigan kredit liniyalariga bo‘linadi. Qayta tiklanmaydigan kredit liniyasi ochilganda, ssuda berilishi qoplangandan so‘ng bank va mijoz o‘rtasidagi munosabatlar to‘xtatiladi, qayta tiklanadigan (revolver) kredit liniyasida kredit belgilangan limit chegarasida avtomatik tarzda beriladi va to‘lanadi. Agarda kredit liniyasi mijozga bir shartnoma miqyosidagi ma‘lum bir tovarlar uchun to‘lashga ochiladigan bo‘lsa, u maqsadli kredit liniyasi deb ataladi.

Kredit liniyasida (bir) martalik kredit shartnomasiga qaraganda ikkala tomon uchun ham qulayliklari bor: qarzdor uchun – bu birmuncha aniqlashgan tijorat faoliyatining istiqboli, hujjatlarga ketadigan xarajat va vaqtni tejaydi. Bu qulayliklar kreditorga ham tegishlidir. Biroq shartnoma shartlari ikkala tomon orqali qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. Qarzdor u yoki bu sabablarga ko‘ra kredit liniyasidan to‘liq yoki qisman foydalanmasligi mumkin. Misol uchun, qarz oluvchining moliyaviy ahvoli sezilarli ravishda yomonlashsa va shartnomaning boshqa shartlarini bajarmasa, bank kelishilgan shartnoma muddati tugamasdan turib kredit berishni to‘xtashishi mumkin. Chet el amaliyotida (misol uchun, AQSh) kredit liniyasi 1 yil muddatga, ba‘zida 2 yillik muddatga ochiladi. Ko‘pgina shartnomalarda mijoz kompensatsion qoldiqni bankda joriy hisob varag‘ida kredit liniyasi summasining 20% idan kam bo‘lmagan miqdorda saqlash sharti mavjud bo‘ladi.

Agar kreditor qarzdor bozorida uzoq yillarga o‘rnashib olishga intilsa, u kredit liniyalarini uzoq muddatga taqdim etadi. Bunga misol bo‘lib, nemis banki ”Kreditanshtalt fyur Videraufbau” 10 yil muddatga ”Tadbirkorlikni rivojlantirish banki”ga ochgan kredit liniyasi hisoblanadi. Bu mablag‘lar kichik va o‘rta biznesni kreditlash uchun mo‘ljallangan.

Chet elda, avvalambor, AQShda, kredit liniyalarining bir necha turlari keng tarqalgan, shu jumladan, tiklanadigan va mavsumiy.

Tiklanadigan kredit liniyasini odatdagi kredit liniyasidan farqi shundaki, bunda ssuda berishning qat'iy majburiyati bo'ladi. Mijoz ma'lum muddatda qarz olish huquqi uchun komission haq to'laydi. Shu bilan birga tiklanadigan kredit shartnomasida, odatda, "Mijoz holatining yomonlashuvi to'g'risida" sharti ham bo'ladi. Bu shartda, agar qarzdorning moliyaviy holati qoniqarsiz bo'lib qolsa, bank-kreditor qarz berishni to'xtatadi.

Tiklanadigan kredit liniyasi ishlab chiqarish va sotish hajmini kengaytirish uchun aylanma mablag'lari yetmayotgan mijozlarga taqdim etiladi. Odatda, bunday kredit muddati 1 yildan oshmaydi. Kreditning bir qismini qaytargan qarzdor belgilangan limit chegarasida va shartnoma kuchga ega bo'lgan muddatda yangi ssuda olishi mumkin. Misol uchun, tiklanadigan kreditni ulgurji savdo qiluvchi mijoz olishi mumkin, bunda uning operatsiyalari kengayib boradi va shuning uchun u qo'shimcha moliyalashtirishga muhtoj bo'ladi.

Agar firmada ishlab chiqarishning mavsumiy tsikli yoki omborda tovar zaxiralarini shakllantirish zarurligi bilan bog'liq bo'lgan, vaqti-vaqtida aylanma mablag'larga ehtiyoj vujudga kelsa, bank mavsumiy kredit liniyasini taqdim etadi. Bunday kredit bahorda urug', o'g'it, qishloq xo'jaligi mashinalari, transport sotib olish uchun muhtoj bo'lgan fermerlarga berilishi mumkin. Yana bunday kredit oluvchi mavsumiy kiyim va poyafzal ishlab chiqaradigan tadbirkor ham hisoblanadi.

Kredit liniyasi ochilishi spetsifik operatsiyalarga bog'liq bo'ladi, bular orasida rezerv (kafolatli) krediti ("stendbay" krediti deb atashadi) bor. Bu kreditni zarur bo'lganda shartnomada kelishilgan muddat davomida olish mumkin. Undan boshqa kredit operatsiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun hamda balanslashmagan tashqi hisob-kitoblarni qoplash uchun foydalaniladi.

XVFGa a'zo mamlakatlarga, odatda, 1-3 yilgacha rezerv yoki kengaytirilgan kredit beriladi.

Ko'pincha "stendbay" krediti rezerv (kafolatli) akkreditiv orqali amalga oshiriladi. Bunday akkreditiv kafolatli kredit olayotgan kompaniya iltimosiga binoan, bank kreditor foydasiga ta'minlanganlik sifatida ochiladi. Akkreditiv mijozga xizmat ko'rsatadigan bankda ochiladi.

2-§. Kontokorrent hisob varaqdan kreditlash

Chet el iqtisodiy adabiyotlarida kontokorrent krediti kreditning klassik turi sifatida tavsiflanadi.

Kontokorrent krediti - bu kredit tashkiloti tomonidan milliy yoki chet el valyutasida beriladigan kredit bo'lib, o'rnatilgan kredit liniyasi doirasida, shartnomada kelishilgan maksimal summadan ortmagan miqdorda, mijoz tomonidan zarur hujjatlar taqdim qilinganda ajratiladi. Tushumlarni saldolash va mijoz hisob varag'idan to'lovlarni amalga oshirish kredit to'lovlarning hisob-kitoblari bilan birgalikda bankning yagona hisob varag'ida shartnomada ko'rsatilgan vaqt oraliqlarida amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash lozimki, bank kontokorrent kreditini faqat barqaror, majburiyatlarini o'z vaqtida bajara oladigan, bank bilan uzoq muddat davomida kredit munosabatlarida bo'lgan va ular bo'yicha masuliyatsizlikka yo'l qo'ymagan mijozlarga berishi mumkin.

Bank mijozni juda ko'p mol yetkazib beruvchi yoki mol sotib oluvchi sifatidagi hamkorlar bilan tijorat munosabatida bo'ladi. Bu mijozda har vaqt turli miqdorda qarz majburiyatlari yoki talabnomalari hosil bo'lishiga olib keladi. Bank mijozining to'lov oborotini tezlashtirish uchun uning joriy talabnomalari va majburiyatlari bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishni o'z zimmasiga oladi. Buning uchun mijozning hisob-kitob varag'i yopilib, unga aktiv-passiv kontokorrent hisob varag'i ochiladi (*ital. contocorrent*). Bu hisobvarag'ining kreditida har kungi barcha tushumlar va debetida mablag'larning sarflanishi (to'lanishi) hisobga olinadi. Lekin bunda mijozning majburiyatlari vaqtinchalik uning mablag'laridan yuqori bo'lsa va salbiy qoldiqni qoplash uchun hisob varag'ida mablag' bo'lmasa, mijoz bank bilan kontokorrent kreditining berilishi to'g'risida shartnoma tuzadi.

Bank amaliyotida bu kreditdan foydalanishning bir necha variantlari mavjud. Mijoz shartnomada kelishilgan summadagi kreditning hammasidan bir vaqtda foydalanishi yoki ehtiyoj yuzaga kelganda foydalanishi mumkin.

Kontokorent bo'yicha mijoz debet va kredit qoldiqlarga ega bo'lishi mumkin. Hisob varag'idagi debet qoldiq mijozning joriy to'lovlarni to'lashga pul mablag'lari mavjud emasligidan dalolat beradi hamda unga bu jarayonlarni amalga oshirish uchun bank tomonidan kredit berilishi mumkin. Kredit qoldiq esa mijozning mablag'i barcha majburiyatlarini to'lashga yetarli ekanidan va uning bo'sh mablag'lari bank ixtiyorida ekanligini ko'rsatadi. Bu hisob varag'i bo'yicha debet qoldiqda

shartnoma bo'yicha mijoz bankka, kredit qoldiqda bank mijozga kelishilgan summani to'lab berishi lozim.

Kontokorrent kredit turli xil shakllarda: naqd pul, o'tkazmali, veksellarni to'lab berish, qimmatli qog'ozlarni sotib olish va hokazo shakllarda mijozlarga berilishi mumkin. Kontokorrent hisob varag'idan kreditlash uchun an'anaviy shartlarga ega va kreditning ta'minlanganlik, kafolatlanganligi holda rasmiy shartnoma tuziladi. Ko'pincha, kontokorrent krediti bo'yicha tuzilgan shartnoma kompaniya ko'chmas mulkining ma'lum qismi hisobiga ipoteka bilan ta'minlanadi. Kontokorrent kreditining shartlari shartnomada batafsil yoritiladi. Kredit berish shartlari quyidagilarga bo'linadi:

- debitorlik krediti: chet el adabiyotlarida ular kredit uchun pul mablag'larini mobilizatsiyasiga ketgan xarajatday qaraladi;

- komission to'lovlar: chet el iqtisodchilari tomonidan kredit bergandagi risk va rozilikni olgani uchun to'lov sifatida harakterlanadi.

Adabiyotlarda «sof foiz» termini ko'p ishlatiladi, bu termin ssuda bo'yicha foizlar va komission to'lovlar summasini anglatadi. Debitorlik foizlari amalda ishlatib bo'lingan kredit summasidan hisoblanadi. Ularning hisob-kitobi asosida Markaziy bankning hisob stavkasi va unga qo'yilgan maxsus bank stavkasi yotadi.

Kontokorrent krediti bo'yicha foiz stavkalari chet el rivojlangan mamlakatlari bank amaliyotining eng yuqori foiz stavkalari safiga kiradi. Foiz stavkasini hisoblashda unga hisob stavkasi, nisbatan kichikroq qo'shimcha foiz stavkasi va turli kredit bo'yicha qo'shimcha komission to'lovlar kiritiladi. Bunda foizlarni hisoblashning ikki xil usulidan foydalaniladi:

- * debitorlik foizlari: foiz stavkasi va yillik 5 foizli foiz stavkasi amalda ishlatilgan kredit uchun;

- * kredit bo'yicha komission to'lovlar: kredit umumiy summasining 4 foizi agarda shartnomada ko'rsatilgan shart bo'yicha kredit to'liq ishlatilmasa;

- * debitorlik foizlarida: hisob stavkasiga ishlatilgan kredit summasining 2 foizi;

- * kredit bo'yicha komission to'lovlar: shartnomada ko'rsatilgan kredit umumiy summasining 4 foizi miqdorida olinishi mumkin.

Qarz oluvchi tomonidan foizni hisoblash usulini tanlash amalda ishlatilgan kreditning taxminiy o'rtacha summasiga bog'liq.

Shunday holat bo'lib qolishi mumkinki, taqdim etilgan kontokorrent kreditining miqdori mijozning majburiyatlari va talablari

o'rtasidagi salbiy saldoni qoplay olmay qoladi. Bunday sharoitlarda bank o'zining (maxsus) eng «ishonchli» mijozlariga maxsus bitim tuzmasdan ham uncha katta bo'lmagan kontokorrent kreditini ajratishga ruxsat beradi. Agar salbiy saldo shartnomada kelishilgan summadan ortib ketish hollari ro'y bersa, bank bu holatning sabablarini aniqlab, zaruriyat tug'ilsa, qarz oluvchi bilan yangi bitim tuzadi. Kontokorrent kreditini vaqtincha kengaytirish hisob varag'i egasining hisob varag'ida yuzaga kelgan saldosi qoplashga ketadigan xarajatlarining yanada oshishiga olib kelishi mumkin. Odatda, kontokorrent krediti bank tomonidan garov asosida beriladi. Garov sifatida ipoteka mijozning (to'lovga layoqatsizligi tufayli) uzoq muddatli talablaridan voz kechishi, garovga qo'yilgan mol-mulk va uchinchi shaxslar tomonidan berilgan kafolatlar xizmat qiladi.

Kontokorrent krediti bo'yicha hisob-kitoblar, ma'lum vaqt oraliqlarida, qoida bo'yicha, chorakda yoki yarim yillikda bir marta amalga oshiriladi. Bunda o'tgan davrdagi joriy to'lovlar va tushumlar aniqlanadi va kontokorrent kreditining amalda ishlatilgan summasi hisoblanadi.

Shuningdek, amaliyotda kontokorrent krediti uchun foiz hisoblashda zinama-zina usulidan ham foydalaniladi, unda foiz to'lovlari alohida har bir kredit summasidan emas, balki hisob varag'idagi mos saldodan undirib olinadi.

Foizlarni hisoblayotganda turli rivojlangan davlatlarda turli vaqt oraliqlari qo'llanilgani uchun ularning qanday usuldan foydanilishini hisobga olish kerak.

Shveysariya, Germaniya, Daniya, Shvetsiya va Norvegiyada foizlarni hisoblashda 360 kundan iborat yil va 30 kundan iborat oy olinadi.

Belgiya, Gollandiya, Ispaniya, Frantsiya va Italiyada «bank» yili 360 kundan iborat. Lekin oylar hisobida ularning amaldagi soni olinadi.

Angliya, Portugaliya va boshqa davlatlarda hisobot yili 365 kundan, oylar ham amaldagi kunlar sonidan iborat bo'ladi.

AQShda kontokorrent hisob varag'idan kredit foizini hisoblaganda yil 365 kundan iborat, pul va hisob-kitob operatsiyalarining oborotida esa asos qilib 360 kun olinadi, ikkalasi bo'yicha ham oylarni hisobga olganda, ularning amaldagi kunlar soni olinadi.

Kontokorrent hisob varag'ini ochish muddati bank va mijoz o'rtasidagi shartnomada kelishiladi. Shartnomada foiz stavkasi ham aniqlanadi. Foiz stavkalari debet va kredit operatsiyalari bo'yicha

turlicha bo'lishi, bunda kredit operatsiyalari bo'yicha foizlar, debetdagiga qaraganda pastroq yoki, aksincha, bo'lishi mumkin. Operatsiyalar bo'yicha foizlardan tashqari, kontokorrent bo'yicha bank xizmatlari uchun komissiya ham hisoblanadi. Bank uchun eng muhim bo'lgan shartlar bajarilmaganda sanksiya qo'lash, kontokorrent krediti bo'yicha qat'iy rejim o'rnatish yoki kreditlash usuli o'zgartirish mumkin.

Kontokorrent hisob varag'idan kreditlashni tashkil qilishning asosi - kreditning rejadagi miqdoridir. Unda kreditlashning obyekti aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojlar va ularning manbalari o'rtasidagi farq sifatida belgilanadi. Kreditga bo'lgan ehtiyoj quydagilardan tashkil topadi: aylanma aktivlar qoldig'i; ortilgan yuklar; muddati kelmagan to'lovlar; debitorlik qarzlari v.b. Bu farq hisob-kitobi yiliga yoki kvartallarga bo'lib, mijozning aylanma mablag'lar balansi asosida aniqlanadi.

Kelgusi yilda aylanma mablag'lar manbalarining ularning joylashuvidan ortib ketishi rejalashtirilgan bo'lsa, bunda bank bo'sh mablag'larning qoldig'ini muddatli depozitga qo'yishni tavsiya qiladi, qarz mablag'lariga ko'zda tutilmagan tarzda ehtiyojlar paydo bo'lsa, uni overdraft shaklida kreditlash mumkin.

Kreditning qaytarilishini ta'minlashni nazorat qilish bank tomonidan turli xil usullarda, avvalo, balansdagi aylanma mablag'larni rejalashtirilgani va amaldagilarini solishtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Nazoratning ikkinchi usuli har kvartalda kontokorrent krediti bo'yicha qarzni rejalashtirilgan kredit miqdori bilan taqqoslash hisoblanadi. Agarda chorak davomida o'rtacha qarzdorlik rejalashtirilgan kredit summasining 20 foizidan oshib ketsa, unda kreditning rejalashtirilgan miqdorining oxiriga chegaralari belgilab olinadi. Kontokorrent kreditida kredit uchun to'lovlar kredit resurslari uchun o'rtacha to'lov, bank xarajatlarini (qoplash uchun qo'shimcha to'lov), riskini va daromad hosil bo'lishini qoplash uchun qo'shimcha to'lov, shuningdek, ssuda aylanishining tezligi kamayganda, sekinlashganda jarima to'lovlar va boshqalardan tashkil topadi.

3-§. Overdraft bo'yicha kreditlash

Overdraft – bu bank tomonidan mijozlarini tezkor yoki operativ kreditlash shakllaridan biri bo'lib, mijozning hisob varag'ida pul mablag'lari mavjud bo'lmaganda beriladi. Overdraft krediti bank bilan

doimiy munosabatda bo'lgan, bank va boshqa xo'jaliklar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajaruvchi, moliyaviy jihatdan barqaror bo'lgan xo'jaliklarga berilishi mumkin. Overdraft kreditini berishda bank mijoz uchun alohida overdraft hisob varag'ini ochadi. Bu hisob varag'i kredit shartnomasi asosida ochiladi. Bugungi kunda overdraft krediti davr talabidan kelib chiqib dunyo davlatlarida keng qo'llanilmoqda. Kreditning bu turi, ayniqsa, kichik biznes, xususiyl tadbirkorlik subyektlari uchun muhim bo'lgan kreditlardan hisoblanadi. Bu kredit turida bank mijozning hisob yoki joriy varag'ida to'lovlarni amalga oshirishga pul mablag'lari yetarli bo'lmagan holda ushbu to'lovlarni to'lash uchun ajratadi.

Overdraft krediti belgilangan limit miqdorida tovar-moddiy qiymatliklari uchun hisob-kitob hujjatlarini, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar haqini va boshqalarni to'lashga yo'naltiriladi. Banklarning kredit siyosati bir xil bo'lmaganligi bois, ular tomonidan overdraft kreditlarini berishning ham turli shartlari mavjud. Overdraft kreditning ijobiy tomoni shundaki, bu kredit bankning ijobiy kredit tarixiga va mazkur bankda hisob varag'iga ega bo'lgan mijozlarga beriladi hamda mijozning pul mablag'lari bo'lmagan holda ham ushbu kredit hisobidan to'lovlarni amalga oshirish, soliqlarni, o'z bankidan olgan kreditlar bo'yicha foizlarni to'lashi (ba'zi banklarda bunga ruxsat berilmaydi) mumkin. Faqat bu kredit mijozning boshqa banklardan olgan kreditlarini to'lashga yo'naltirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Overdraft krediti bankning o'z mijoziga, bank kreditlari va ular bo'yicha foizlarni to'lashda qarzi bo'lmagan, muddati kechiktirilgan qarzlari mavjud bo'lmagan, kartoteka va sud jarayonlarida krediti bo'lmagan, ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonlari mavsum bilan bog'liq bo'lmagan, hisob varag'iga doimiy pul mablag'lari tushib turadigan kreditga layoqatli bo'lgan mijozlarga beriladi.

Qisqa muddatli kreditlash bilan overdraftning quyidagi asosiy farqlariga e'tibor berish lozim. Birinchidan, kredit hisob varag'idagi mablag' yetishmovchiligini qoplash uchun mijoz bilan kredit shartnomasida limit, miqdor, foiz stavkasi, muddati kelishilgan holda, ta'minotsiz beriladi hamda hisob-kassa xizmatini ko'rsatishga oid shartnoma bo'yicha muvofiqlashtirilib boriladi. Ikkinchidan, kreditning maqsadlilik ko'zda tutilmaydi, chunki bu kredit loyihalarni moliyalashtirish, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun emas, balki mablag'lar kelib tushishi va sarflanishi o'rtasidagi mablag' yetishmovchiligi bo'yicha qisqa muddatli farqni qoplash uchun beriladi.

Uchinchidan, overdraft oddiylik va tezkorlikka ega. Bank kreditining boshqa turlaridagidek, kredit paketi va uning uzoq tahlili, ta'minot talab qilinmaydi. Overdraft kreditining o'rtacha limiti mijozning oxirgi 3 oy davomida hisob varag'iga kelgan tushumlarning 20-30 foizini, ba'zi davlatlarda 40 foizini tashkil etadi. Kredit limitining miqdori har bir mijoz bo'yicha alohida bankning kredit qo'mitasi yig'ilishida belgilanadi.

Overdraft qimmat kreditlar qatoriga kiradi. Uning foiz stavkasi mijoz faoliyatining risk darajasi, kreditning muddati va mijozning pul oborotiga bog'liq bo'ladi. Masalan, ba'zi banklar tomonidan overdraft 7 kunga berilganda, foiz stavka yillik 20 % ni, agarda 1 oyga beriladigan bo'lsa 25% ni tashkil etadi.

Xo'jalikning asosiy faoliyatidan keladigan barcha mablag'lar uning hisob varag'iga yo'naltiriladi. Agarda mijoz faoliyati bo'yicha kelib tushgan mablag' korxonaning qarzidan yuqori bo'lsa, kredit qoldig'i hosil bo'ladi. Bu korxonada o'z mablag'iga ega ekanligidan dalolat beradi, hisob varag'ida debet qoldig'i hosil bo'lsa, korxonada bankdan overdraft kreditini olishi mumkin.

Overdraft kredit berish bo'yicha shartnoma 12 oygacha tuzilishi mumkin. Kredit shartnomalarini doimiy bajarib, moliyaviy jihatdan barqarorlikni saqlab qolgan xo'jaliklar uchun bu hisob varag'i oldingi yil limit miqdorida qayta tiklanishi mumkin. Overdraft bo'yicha har oyda pul mablag'larining harakati kredit va debet qoldiqlari bo'yicha hisoblanib, tahlil qilib boriladi.

Agar oy davomida mijozning moliyaviy ahvoli ijobiy hamda kredit qoldiq debet qoldiqdan ko'proq bo'lgan bo'lsa, kredit bo'limi xodimi mijoz bu kreditdan yana foydalanishi mumkinligi to'g'risida xulosani qabul qiladi. Qarz oluvchining moliyaviy ko'rsatkichlari salbiy bo'lsa, uning to'lovga layoqatliligi yomonlashgan va yaxshilanishi ehtimolidan uzoq bo'lgan hollarda, overdraft kreditini berishni to'xtatish va ilgari berilgan kreditlarni qoidalarda ko'zda tutilgan tartibda undirish masalasini ko'rib chiqadi.

Yevropa mamlakatlarida banklar korporativ mijozlar aylanma sarmoyasini moliyalashtirish, shuningdek, jismoniy shaxslarni vaqtinchalik kreditlash zarurati tug'ilganda overdraftdan keng foydalaniladilar. Overdraftning muhim afzalligi shundan iboratki, bu kreditga qaraganda ancha oddiy, engillikka ega bo'lgan kreditlash usulidir.

Odatda, bu kredit faol bo'lgan kompaniyalar uchun foydalidir. Overdraft an'anaviy ssuda o'rni qoplamaydi. Odatda, overdraft kreditlashning ancha riskli turi hisoblanadi. Banklar overdraftni qisqa muddatli kreditlarga qaraganda, yuqoriroq foizlar bo'yicha baholaydilar.

Overdraft bitimi mijoz va bank o'rtasida tuziladi. Bunda to'lov vositasi sifatida cheklar ham, to'lov kartochkalari ham qabul qilinishi mumkin.

Jahon amaliyotida overdraft kreditlar nafaqat yuridik shaxslarga, balki jismoniy shaxslarga ham beriladi. Masalan, jismoniy shaxsga ma'lum bir ishni amalga oshirish uchun o'z daromadlari yetarli bo'lmagan holda, u unga overdraft limiti berish to'g'risida o'ziga xizmat ko'rsatadigan bankka ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Overdraftlar portfelini tuzishda bank o'ta ehtiyotkor bo'lishi lozim. Overdraftlarni yuritish o'ta qat'iy moliya menejmenti olib borishni taqozo etadi. Bank likvidligi yuqori darajada ta'minlangan bo'lsa, u o'zi manfaatdor bo'lgan mijozlariga bu kreditni taklif etishdan qochmasligi darkor. Bank ham o'z tomonidan mijozning moliyaviy faoliyati, uning tuzilgan shartnomalarga muvofiq o'z majburiyatlarini, ishlab chiqarish hajmlarini qay darajada bajarayotgani, olayotgan foydasi, o'z aylanma mablag'larining ko'payish dinamikasi hamda aylanma mablag'lar ahvoli tahlil qilib turilishi zarur. Shundagina, bu turdagi kreditning samaradorligini ta'minlab, uning keng qo'llanilishiga sharoit yaratiladi.

4-§. Lombard krediti va undan foydalanish imkoniyatlari

Markaziy bank tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, tijorat banklariga ta'minlanganlik, muddatlilik, to'lovlilik, qaytarib berishlik shartlari asosida milliy valyutada lombard kreditini berishi mumkin. Lombard krediti qayta moliyalash shakllaridan biri bo'lib, ushbu kredit davlat qimmatli qog'ozlarini garovga qo'yish asosida beriladi.

Lombard krediti banklar arizalarini o'zgarmas lombard foiz stavkalari bo'yicha qondirish yo'li bilan, shuningdek, yuzaga kelgan o'zgaruvchan stavkalari bo'yicha banklar arizalarining auktsionlarini o'tkazish orqali beriladi.

Lombard kreditini olish uchun banklar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- majburiy rezerv talablarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi;
- belgilangan iqtisodiy normativlarga to'liq rioya qilishi;

- bank ustav kapitali miqdori qonunchilikda belgilangan me'yor talablaridan kam bo'lmasligi;

- Markaziy bank tomonidan berilgan kreditlar bo'yicha asosiy qarzni qaytarish va unga hisoblangan foizlarni to'lash borasida muddati o'tgan qarzdorlikning bo'lmasligi;

- oxirgi uch oy mobaynida avval berilgan qayta moliyalash kreditlari bo'yicha qarzlarni qaytarish muddatini kechiktirmagan bo'lishi;

- shuningdek, tijorat banki O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasining depozitariysida DEPO hisob varag'iga ega bo'lishi lozim.

Lombard krediti banklarga shartnoma asosida uch oygacha bo'lgan muddatga beriladi. Tijorat banklariga berilgan lombard kreditining muddati uzaytirilishiga ruxsat berilmaydi. Odatda, lombard krediti o'zgarmas foiz stavkasi bo'yicha berilayotganda Markaziy bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan va shartnoma tuzish sanasida amal qilayotgan Markaziy bank lombard stavkalari asos qilib olinadi.

Markaziy bankda lombard stavkasi o'zgartirilgan holda lombard kreditidan foydalanganlik uchun foizlarni qayta o'rnatilgan stavka bo'yicha hisoblash va undirish Markaziy bank boshqaruvining ushbu masala to'g'risidagi qarori kuchga kirgan vaqtdan boshlab tuzilgan shartnoma bo'yicha amalga oshiriladi. Bank lombard kreditini olish uchun tijorat banki Markaziy bankka o'zgarmas foiz stavka bo'yicha lombard kreditini olish to'g'risidagi belgilangan tartibda ariza taqdim etadi. Markaziy bank tomonidan arizaning to'liq va to'g'ri rasmiylashtirilganligi, mijozning depo varag'i holati, ta'minlanganlik va boshqa talablar tekshiriladi va Markaziy bank lombard kreditini berish yoki bermaslik to'g'risida qaror qabul qiladi.

Bank lombard krediti kimoshdi savdolarida qatnashish uchun tijorat banklari Markaziy bankka quyidagi hujjatlarni:

- lombard krediti kimoshdi savdosida ishtirok etish uchun ariza;
- bankning yetarli miqdordagi davlat qimmatli qog'ozlari mavjudligini tasdiqlovchi depozitariydagi DEPO hisob varag'i holati to'g'risidagi ko'chirmasidan nusxa taqdim etadi.

Markaziy bank belgilangan kunda kredit kimoshdi savdolarini o'tkazadi va unda ishtirok etgan banklarga savdolar natijalarini ma'lum qiladi.

Lombard kreditini berish to'g'risidagi shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish muddati kelganda, lombard kreditini

va unga doir foizlarni qaytarish bank tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Kreditning qaytarilishining ta'minoti sifatida banklar chet el valyutasi, xalqaro rezervlar toifasiga kiruvchi valyuta boyliklari va boshqa boyliklar, davlat qarz majburiyatlari (davlat qimmatli qog'ozlari, hukumat kafolatlagan boshqa qarz vositalari kabi aktivlarini garovga qo'yishi mumkin.

Lombard kreditining ta'minoti sifatida garovga olingan davlat qimmatli qog'ozlari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

a) Markaziy bankning lombard krediti berilayotganda Markaziy bank tomonidan garov sifatida qabul qilinadigan qimmatli qog'ozlar davlat qimmatli qog'ozlari ro'yxatiga kiritilgan bo'lishi;

b) ularning hisobi depozitariyda ochilgan DEPO hisob varag'ida yuritilishi;

d) bankka unga egalik qilish huquqi yoki boshqa mulkiy huquqlar asosida tegishli va bankning boshqa majburiyatlari bilan bog'lanmaganligi depozitariydan olingan DEPO hisob varag'ining ahvoli to'g'risidagi ko'chirma bilan tasdiqlanishi;

e) qimmatli qog'ozlar to'lovini amalga oshirish muddati lombard kreditini qaytarish muddati yetib kelgandan so'ng 10 kalendar kundan kam bo'lmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasining depozitariysida lombard kreditining ta'minoti sifatida garovga qabul qilinadigan davlat qimmatli qog'ozlarining depozitar hisobi yuritiladi. Bu jarayon bankning depozitariydagi DEPO hisob varag'ining "Garovga olingan" bo'limida aks ettiriladi.

Lombard kreditini auksion asosida berishda Markaziy bank banklar arizalarini tahlil qilish asosida har bir auksionga qo'yiladigan kreditning eng yuqori hajmiga limit belgilaydi. Tijorat banklari lombard krediti bo'yicha shartnoma belgilangan muddatlarda kreditni va hisoblangan foizlarni to'lash bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi uchun bank Markaziy bankka Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 0,05 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Bank tomonidan lombard kreditidan foydalanganlik uchun foizlarni hisoblash kredit berilgan kundan boshlab kredit summasini qaytarish kunigacha shartnomada belgilangan miqdor va tartibda amalga oshiriladi.

Bank tomonidan so'ralgan lombard kreditining summasi (shu jumladan, kreditdan foydalanish muddati uchun hisoblangan foizlar

summasi) garovga qo'yilayotgan qimmatli qog'ozlarning Markaziy bank belgilagan tuzatish koeffitsiyentiga to'g'irlangan bozor narxidan oshmasligi lozim. Bunda kreditlar bo'yicha foizlar faqat kreditdan foydalanilgan davr uchun hisoblanadi.

Lombard kreditini muddatidan oldin to'liq yoki qisman to'lov topshiriqnomasi asosida qaytarishi mumkin.

Agarda bank lombard kreditini qaytarishga doir o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmasa, qonun hujjatlariga muvofiq garovga olingan davlat qimmatli qog'ozlarini sotishdan tushgan tushum hisobiga qondiriladi.

Agarda qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan summa Markaziy bankning lombard krediti bo'yicha talablari hajmidan oshsa, ushbu summa qoldig'i Markaziy bank talablari qondirilganidan so'ng, davlat qimmatli qog'ozlari sotilgan kundan keyingi ish kunida qarzdor bankning vakillik hisob varag'iga o'tkazilishi lozim.

Agarda davlat qimmatli qog'ozlarini sotishdan olingan summa Markaziy bankning lombard krediti bo'yicha barcha talablarini qondirishga yetarli bo'lmasa, ko'rsatilgan qarzni qoplash debet memorial orderiga asosan qarzdor bankning vakillik hisob varag'idan undirib olinadi. Markaziy bankka lombard kreditiga doir qarzlarni qaytarish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Bunda birinchi navbatda, Markaziy bankning garovga olingan davlat qimmatli qog'ozlarini sotish bilan bog'liq xarajatlari qoplanadi, so'ngra hisoblangan foizlar summolari, asosiy qarz summasi va eng oxirida tegishli jarima summasi undirib olinadi.

Markaziy bank qarzdor bankdan uning garovga qo'yilgan davlat qimmatli qog'ozlarini kelishilgan narxda sotib olish huquqiga ega.

5-§. Tijorat banklari tomonidan revolver kreditlari berish tartibi va uning ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 653-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomga asosan tijorat banklari tomonidan to'qimachilik korxonalariga paxta tolasini sotib olish hamda ulgurji savdo korxonalariga aylanma mablag'larini to'ldirishga revolver kreditlari beriladi.

Jahon amaliyotida revolver kredit qayta tiklanadigan kredit liniyasi hisoblanadi. Mamlakatimizda ham bu kredit liniyasi to'qimachilik korxonalariga – paxta tolasini sotib olish uchun hamda ulgurji savdo

korxonalariga – aylanma mablag'larini to'ldirish uchun muntazam to'lovlarni amalga oshirish maqsadida ochiladi. Kredit tamoyillaridan kelib chiqib revolver krediti ham mijozlarga qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanishlik tamoyillari asosida beriladi. Revolver kreditlarini berish uchun qayta tiklanadigan kredit liniyasi bir yilgacha bo'lgan muddatga ochiladi. Revolver kreditlarini muddati o'tgan (90 kundan ortiq) kreditorlik qarzdorligiga ega bo'lgan korxonalariga berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Revolver kreditlari ta'minoti sifatida korxonaning oborotida yoki muomalada bo'lgan tovarlari va boshqa ta'minot turlari, ba'zi hollarda bir kredit bo'yicha bir necha ta'minot turlari qabul qilinishi mumkin. Qarz oluvchi tomonidan muomaladagi tovarlari bilan bog'liq risklar kredit liniyasi hamda unga hisoblangan foizlarning umumiy summasidan kam bo'lmagan miqdorda o'z hisobidan sug'urtalashi, shuningdek, ushbu kredit bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar sug'urta muddati uzaytirilishi lozim.

Revolver kreditlari bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida ilgari olingan kreditlar va hisoblangan foizlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lmagan hollarda beriladi va kredit bo'yicha foiz stavkasi miqdori, shuningdek, kredit shartnoma shartlari buzilgan hollarda qo'llaniladigan choralar kredit shartnomasida aks ettiriladi. Zarar ko'rib ishlayotgan, nolikvid balansga ega bo'lgan qarz oluvchilarga revolver kreditlar ajratilmaydi, ilgari berilgan kreditlar esa shartnomada ko'zda tutilgan tartibda muddatidan oldin undirib olinadi.

Revolver kreditini olish uchun qarz oluvchi kredit buyurtmasi bilan birga bankka:

pul oqimlari majburiy tartibda ko'rsatiladigan biznes-reja;

so'nggi hisobot davri uchun tegishli davlat soliq xizmati organi tomonidan balans qabul qilinganligi qayd etilgan buxgalterlik balansi, debitorlik va kreditorlik qarzlari haqidagi ma'lumotnoma, shuningdek, 90 kundan oshgan qarzdorliklar bo'yicha taqqoslash dalolatnomalari;

revolver kreditlari qaytarilishining bir yoki necha ta'minoti turlarini taqdim etilganligi haqidagi hujjatlarni taqdim qiladi.

Kredit shartnomasi tuzilgunga qadar bank o'z kredit siyosatining talablariga muvofiq mijozning kredit hujjatlari yig'ma jildini, qarz oluvchining kreditga layoqatligi, likvidliligi, kredit tarixi, uning rahbarining nufuzi va boshqa ma'lumotlarni tahlil qiladi. Kreditning ta'minoti bo'yicha olingan muomaladagi tovarlar yoki boshqa ta'minot turlari bo'yicha garov shartnomasi tuziladi. Kredit qaytarilmasligi

xatarining oldini olish maqsadida qarz oluvchi tomonidan garovga muomaladagi tovarlar taqdim etilganda, muomaladagi tovarlar 0,5 tuzatish koeffitsiyentini qo'llagan holda baholash qiymati bo'yicha garovga qabul qilinadi.

Garov shartnomasida bankning muomaladagi tovarlarni sotishdan qarz oluvchining barcha depozit hisob varaqlariga kelib tushayotgan mablag'larni, birinchi navbatda, aktseptsiz tartibda muddatida qaytarilmagan kredit hamda hisoblangan, ammo muddatida to'lanmagan foizlar to'loviga yo'naltirish mumkinligi belgilab olinishi mumkin.

Kredit hujjatlari yig'ma jildi to'liq tahlil qilinganidan keyin bankning (bank filialining) kredit qo'mitasi revolver kreditini berish yoki berishni rad etish haqida qaror qabul qiladi. Kredit berish rad etilgan taqdirda bank bu haqda qarz oluvchini 3 bank ish kunida yozma ravishda xabardor qiladi.

Revolver krediti berish haqida qaror qabul qilingan taqdirda bank bilan qarz oluvchi o'rtasida kredit shartnomasi tuziladi. Kredit shartnomasida kredit liniyasi limitining summasi, kredit bo'yicha amaldagi qarzdorlikka hisoblanadigan foiz stavkasi miqdori va foizlarni to'lash muddatlari, kreditni o'z vaqtida qaytarmaganlik uchun qo'shilgan penyalar summasi ko'rsatiladi.

Revolver kreditlari alohida ssuda hisob varag'idan ochilgan kredit liniyasi limiti doirasida qarz oluvchining to'lov topshiriqnomalari asosida to'lovlarni amalga oshirish yo'li bilan ajratiladi.

Tijorat banklari shartnomaning butun amal qilish davri mobaynida kreditdan foydalanishning doimiy monitoringini amalga oshiradilar.

Monitoring jarayonida qarz oluvchining moliyaviy-xo'jalik faoliyati, uning tuzilgan shartnomalarga (buyurtmalarga) muvofiq holda mahsulot yetkazib berishga oid majburiyatlarini bajarishi, ishlab chiqarish hajmlari, noishlab chiqarish xarajatlari, foydasi, o'z aylanma mablag'larining mavjudligi dinamikasi, tovar-moddiy boyliklar zaxiralari holati, aylanma mablag'larning aylanishi tahlil qilinadi. Bank qarz oluvchining ko'rsatkichlarini qarz oluvchining kredit hujjatlari yig'ma jildida tizimlashtirgan holda kreditga layoqatliligini doimiy monitoring qiladi. Revolver kreditni va uning hisoblangan foizlarini to'lash qarz oluvchi tomonidan talab qilib olinguncha depozit hisob varag'idan to'lov topshiriqnomalari asosida amalga oshiriladi.

Qarz oluvchi revolver kredit bo'yicha asosiy qarz va hisoblangan foizlarni kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddatda to'lama, bank muddati o'tgan qarzdorlik va hisoblangan foizlarni kredit shartnomasida

nazarda tutilgan hollarda qarz oluvchining asosiy va ikkilamchi depozit hisob varaqlaridagi mablag'lar hisobidan aktseptsiz tartibda undirib olishga haqlidir.

Berilgan kreditlardan boshqa maqsadlarda foydalanish holatlari aniqlangan taqdirda bank revolver kreditning maqsadga muvofiq holda foydalanilmagan qismini qarz oluvchining hisob varaqlaridan kredit shartnomasida nazarda tutilgan hollarda aktseptsiz tartibda muddatidan oldin undirib olishga haqlidir.

6-§. Iste'mol krediti, uning turlari va ahamiyati

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish asosida aholining turmush darajasi va farovonligini oshirish, aholining kundankunga o'sib borayotgan iste'mol ehtiyojini qondirish, bu borada moliya institutlari imkoniyatidan foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishda belgilangan vazifalarni hal etishda aholiga iste'mol kreditlari ajratish muhim o'rin tutadi. Iste'mol krediti aholida o'z iste'mol ehtiyojini qondirish uchun yetarli mablag'lari bo'lmaganda kredit hisobidan uni qondirishga imkon beradi. Iste'mol krediti bilan bog'liq munosabatlar 2006-yil may oyida kuchga kirgan "Iste'mol krediti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinadi. Mazkur qonunga asosan iste'mol krediti jismoniy shaxsga (iste'molchiga) uning iste'mol ehtiyojlarini qondirish maqsadida tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olish uchun beriladigan kreditdir. Iste'mol krediti 2 xil shaklda, ya'ni **moliyaviy iste'mol krediti va tovar iste'mol krediti** shakllarida beriladi.

Moliyaviy iste'mol krediti sotib olingan tovarlar (xizmatlar) haqini to'lash uchun pul mablag'lari tarzida banklar va boshqa kredit tashkilotlari tomonidan iste'molchiga beriladi. Iste'mol kreditining ikkinchi shakli bo'lgan **tovar iste'mol krediti** iste'molchiga iste'mol tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi korxonalar yoki realizatsiya qiluvchi tashkilotlar tomonidan sotib olingan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar haqini bo'lib-bo'lib to'lash tarzida beriladi.

Jismoniy shaxsning iste'mol ehtiyojlari uchun mo'ljallangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) iste'mol krediti obyektini hisoblanadi.

Iste'mol krediti iste'mol krediti shartnomasi bo'yicha to'lovlilik, muddatlilik va ta'minlanganlik shartlari bilan beriladi. Iste'mol kreditini olmoqchi bo'lgan mijoz kreditni qaytarib foiz bilan to'lash uchun

ma'lum daromadga ega bo'lishi lozim. Iste'mol krediti ko'proq ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lganligi uchun aholining o'z faoliyati natijasida olgan daromadlari, pensiya va boshqa daromadlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar bu kreditdan foydalanishlari mumkin.

Iste'mol krediti olish uchun mijoz iste'mol krediti beruvchi tashkilotga kredit buyurtmasini va o'z daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan boshqa hujjatlarni taqdim etadi.

Kredit buyurtmasida iste'molchining familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport ma'lumotlari hamda yashash joyi, iste'mol kreditining obykti, muddati, iste'molchining faoliyat turi va daromadlari, kredit ta'minoti va boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Iste'mol krediti beruvchi tashkilot kredit buyurtmasini olganidan so'ng iste'molchining daromadlari yetarililigini va kredit tarixini o'rganadi, kredit buyurtmasida bayon etilgan ma'lumotlarning bir-biriga mos kelishini, xatolar va noto'g'ri ma'lumotlar mavjud emasligi, iste'mol krediti va u bo'yicha foizlarni qaytarish imkoniyatlarini tahlil qiladi hamda kredit berish yoki kredit berishni rad qilish bo'yicha qaror qabul qiladi.

Kredit berish bo'yicha ijobiy qaror qabul qilinganda, mijoz va iste'mol kreditini beruvchi tashkilot o'rtasida kredit shartnomasi imzolanadi. Shartnomada iste'molchi va iste'mol krediti beruvchi tashkilot, iste'mol kreditining obykti to'g'risida ma'lumot, iste'mol kreditining umumiy summasi, foiz stavkasi, kredit ta'minoti, iste'mol krediti berish hamda uning summasini qaytarish tartibi va muddatlari, iste'mol krediti beruvchi tashkilot talab qilgan taqdirda, sotib olingan tovarning (ishning, xizmatning) qiymatini oldindan to'lash uchun bo'nak miqdori, taraflarning huquq va majburiyatlari, shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda taraflarning javobgarligi, shartnomaning amal qilish muddati, uni o'zgartirish va bekor qilish tartibi va boshqa shartlar nazarda tutilishi mumkin. Shartnoma yozma shaklda tuziladi. Iste'molchi tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi bank yoki sug'urta tashkilotining kafolati, uchinchi shaxslarning kafilligi, mol-mulk va qimmatli qog'ozlar garovi, shu jumladan, garov depoziti, banklarning omonat sertifikatlari va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullar bilan ta'minlanishi mumkin. Qarz oluvchi olinayotgan iste'mol krediti ta'minoti sifatida quyidagi ta'minot turlarini taqdim etishi mumkin:

• bank yoki sug'urta kompaniyasining kafolati va sug'urta kompaniyalari kreditni qaytarilmaslik xatarining sug'urtalanganligi to'g'risidagi sug'urta polislarini;

- yuridik va jismoniy shaxslarning kafilligi;
- mol-mulk garovi (ko'chmas va harakatlanuvchi mol-mulk);
- moliyaviy barqaror bo'lgan yuridik shaxslarning muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlari garovi.

Mijozning to'lagan boshlang'ich badali garov sifatida depozitga olinadi va bank ushbu depozitga olinayotgan kreditga o'rnatilgan foiz stavkasining yarmi miqdorida foiz to'lovini to'laydi. Masalan, mijoz bankdan yillik 12 % ustama to'lash sharti bilan kredit oldi. Uning boshlang'ich badal sifatidagi depozitga bank yillik 6 % miqdorida to'lov to'laydi.

Iste'mol kreditlari bo'yicha taqdim etilgan barcha ta'minot turlarining qiymati (miqdori) berilgan kredit miqdorining kamida 125% miqdorini tashkil etishi lozim.

Iste'molchining daromadlari hajmi, shuningdek, shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishining iste'molchi tomonidan taqdim etilgan ta'minoti iste'mol krediti summasini qaytarish va mazkur kredit bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lash uchun yetarli bo'lishi kerak.

Iste'mol krediti bo'yicha olingan tovarning sifatiga e'tirozlar bo'lgan holda iste'molchi bu tovarni boshqa xuddi shunday tovarga almashtirib olishga yoki iste'mol kreditini rad etib tovarning pulini qaytib olishga haqlidir.

Moliyaviy iste'mol krediti o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bank va boshqa kredit tashkilotlari tomonidan pul shaklida beriladi. Bunda:

* shartnoma iste'molchi tomonidan tovarni (xizmatni) sotib olishga doir shartnoma kuchga kirguniga qadar yoki kuchga kirganidan keyin tuzilishi mumkin;

* iste'molchi moliyaviy iste'mol krediti olish to'g'risida iste'mol tovarlarini (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi korxonani yoki realizatsiya qiluvchi tashkilotni oldindan yozma shaklda xabardor qilishi shart.

Moliyaviy iste'mol krediti berish O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlarini (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi korxonaga yoki realizatsiya qiluvchi tashkilotning bankdagi hisob varag'iga bank yoxud boshqa kredit tashkiloti tomonidan pul mablag'lari o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Moliyaviy iste'mol krediti naqd pulda berilmaydi.

Iste'molchi olingan iste'mol krediti summasini qaytarishni va mazkur kredit bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lashni muddatidan ilgari amalga oshirishga haqli. Bunday holda iste'molchi faqat iste'mol kreditidan haqiqatda foydalanilgan muddat uchun foizlar to'laydi. Iste'mol krediti kredit maqsadi, muddati va miqdoridan qat'i nazar 3 oydan 3 yilgacha bo'lgan muddatga beriladi. Iste'mol kreditining eng ko'p miqdori kreditning maqsadiga qarab belgilanishi mumkin. Iste'mol krediti bo'yicha yillik foiz miqdori iste'mol kreditining muddati va garov sifatida to'lanadigan boshlang'ich badal miqdoridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

55-jadval

Iste'mol kreditlarining maqsadi va maksimal miqdori

Kredit maqsadi	Kreditning maksimal miqdori
Qurilish materiallari va turar-joyni ta'mirlash bilan bog'liq xizmatlar to'lovi uchun	Eng kam oylik ish haqining 100 barobari
	Eng kam oylik ish haqining 150 barobari
	Eng kam oylik ish haqining 150 barobari
Mebel va inter'er jixozlari uchun	Eng kam oylik ish haqining 150 barobari
	Eng kam oylik ish haqining 150 barobari
	Eng kam oylik ish haqining 200 barobari
Tantana va to'y marosimlarini o'tkazish uchun	Eng kam oylik ish haqining 200 barobari
	Eng kam oylik ish haqining 200 barobari
	Eng kam oylik ish haqining 200 barobari
Maishiy, audio-video va ortexnikalar uchun	Eng kam oylik ish haqining 100 barobari
	Eng kam oylik ish haqining 150 barobari
	Eng kam oylik ish haqining 200 barobari
Davolanish uchun	Eng kam oylik ish haqining 100 barobari
	Eng kam oylik ish haqining 100 barobari
	Eng kam oylik ish haqining 100 barobari
Dam olish va sog'likni tiklash uchun	Eng kam oylik ish haqining 100 barobari

Bankning kredit uchun foizi kredit summasining 100% dan hisoblanadi. Bank dastlabki boshlang'ich badal summasiga yillik 2 foiz

miqdorida kredit oluvchiga foiz to'laydi. Bu summa kredit oluvchiningning daromadi hisoblanadi.

56-jadval

Iste'mol kreditlarining foizi stavkasi va boshdang'ich badalning bog'liqligi

Iste'mol tovarlari yoki ko'rsatilayotgan xizmatning qiymatiga nisbatan boshlang'ich badal	3 oydan 1 yilgacha bo'lgan muddatga yillik foiz miqdori	1 yildan 2 yilgacha bo'lgan muddatga yillik foiz miqdori	2 yildan 3 yilgacha bo'lgan muddatga yillik foiz miqdori
25-40%	14%	15%	16%
40-50%	13%	14%	15%
50% va undan yuqori	12%	13%	14%

Mijoz tomonidan boshlang'ich badal miqdorining kiritilishiga qarab tijorat bankining iste'mol krediti bo'yicha foiz stavkasi ham o'zgarishi mumkin. Albatta, uzoq muddatga olinayotgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalari nisbatan yuqori bo'lishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, iste'mol krediti aholining iste'mol ehtiyojini qondirish, turmush farovonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

7-§. Ta'lim kreditini berish tartibi va uning ahamiyati

Tijorat banklari tomonidan ta'lim kreditlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 26-iyundagi 318-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy o'quv yurtlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ta'lim kreditlari berish to'g'risida"gi nizomga muvofiq ajratiladi. Ta'lim kreditini olish uchun qarz oluvchi tijorat bankiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) ta'lim krediti berish to'g'risidagi ariza;

b) talaba va oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi to'lov-kontrakt asosida o'qish haqida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan shartnoma (kontrakt). Kontraktda o'qishning belgilangan muddati va bir yil uchun to'lov miqdori ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

d) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan qarz oluvchining yashash joyi to'g'risida berilgan ma'lumotnoma;

e) kreditni qaytarishning ta'minlanishi to'g'risida hujjat;

f) imtiyozli ta'lim kreditlari olish huquqiga ega bo'lgan chin yetimlar, "Mehribonlik uylari"da tarbiyalanganlar, bolalikdan I va II

guruh nogironlari, kam ta'minlangan oilalardan chiqqanlar tegishli tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadilar. Shuningdek tijorat banki qarz oluvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlardan ko'chirmalar ham olishi mumkin. Zarur holatlarda kredit berish to'g'risida xulosani tayyorlash uchun bank qarz oluvchidan qo'shimcha hujjatlarni talab qilish huquqiga ega.

Ta'lim kreditlari qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va undan maqsadli foydalanish shartlari asosida talabalarning o'zlariga, ularning ota-onalariga yoki vasiylariga berilishi mumkin.

Kredit ta'minlanganlik sharti asosida mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yish, bankning kafolati, uchinchi shaxsning kafilligi, sug'urta kompaniyasining qarz oluvchi kreditni qaytara olmasligi xavfi sug'urta qilinganligi to'g'risidagi sug'urta polisi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining kafilligi (faqat chin yetimlar va "Mehribonlik uylari"da tarbiyalanganlar, bolalikdan I va II guruh nogironlari va kam ta'minlangan oilalardan chiqqanlar uchun). Agar taqdim etilgan hujjatlar bank talablariga javob bersa, bank, qarz oluvchi va oliy ta'lim muassasasi o'rtasida kredit shartnomasi tuziladi.

Ta'lim kreditlari bakalavriyatga o'qishga qabul qilingan talabalarga 10 yilgacha, magistraturaga o'qishga qabul qilingan talabalarga 5 yilgacha bo'lgan muddatga beriladi. Kredit qarz oluvchining ssuda hisob varag'idan uning yozma topshirig'iga asosan oliy ta'lim muassasasining talab qilib olinadigan depozit hisob varag'iga o'tkaziladi. Ta'lim kreditlari bo'yicha mablag'lar kredit shartnomasida qayd etilgan shartlarda har yarim yilda o'qish uchun yillik to'lovning to'liq miqdorini ikki teng qismga bo'lish yo'li bilan o'tkaziladi. Bunda yangidan qabul qilingan talabalar uchun birinchi yarim yillikda o'qiganlik uchun boshlang'ich to'lov joriy yilning 1 oktyabrigacha, ikkinchi yarim yillik uchun navbatdagi kalendar yilning 15 martigacha to'lanadi. O'qishning ikkinchi yilidan boshlab kredit hisobiga to'lovlar har yarim yillik birinchi oyi (sentyabr va mart)ning 5-kunidan kechiktirilmay to'lanadi. Ta'lim krediti chin yetimlarga, "Mehribonlik uylari"da tarbiyalanganlarga hamda bolalikdan I va II guruh nogironlariga nol foiz stavkasida yoki foizsiz kredit, talabalarning qolgan toifalariga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo'lmagan o'zgaruvchi foiz stavkalarida beriladi. Ta'lim kreditlari bo'yicha foiz qo'shiladigan foizlar uchun to'lovlar miqdori Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi

o'zgarishiga qarab o'zgarishi mumkin. Kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan talabalar uchun kredit bo'yicha qo'shilgan foizlarning 50 foizi tuman Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'laridan to'lanadi. Qarzdor tomonidan kreditni qaytarish naqd pulda, shuningdek naqd pulsiz hisob-kitob yo'li bilan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar hisobidan amalga oshiriladi. Ta'lim kreditining foizi har oyda, asosiy qarzi esa talaba o'qishni bitirgandan so'ng 3 oydan keyin to'lanadi. Kredit oluvchi ta'lim kreditini muddatidan oldin ham qaytarishi mumkin. Kredit shartnoma shartlarining bajarilishi tijorat banki tomonidan monitoring qilib boriladi. Agarda ta'lim krediti va u bo'yicha foizlar shartnomada kelishilgan muddatlarda to'lanmasa bank undiruvni ta'minotga qo'yilgan mulkka yoki narsaga qaratadi va kreditni qaytarib olish choralari ko'radi.

8-§. Ipoteka kreditlari va ulardan foydalanish imkoniyatlari

Aholining keng qatlami, shu jumladan, yosh oilalar uchun uy-joy qurilishini va rekonstruksiya qilishni moliyalashtirish va ipoteka kreditlari berish O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida», «Bank va banklar faoliyati to'g'risida», «Ipoteka to'g'risida»gi qonunlari, «Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» va «Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari hamda banklar faoliyatiga oid boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Ipoteka krediti aholiga va yosh oilalarga kreditlanayotgan ko'chmas mulk obyektni garovga olish orqali uy-joy qurish, uni rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun beriladigan uzoq muddatli kredit, Ipoteka kreditlari jismoniy shaxslarga ularning yashash (ro'yxatdan o'tgan) joyidagi bank filiali tomonidan shartnoma asosida va qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, maqsadli foydalanish va muddatlilik shartlarida beriladi.

Aholiga va yosh oilalarga ipoteka kreditlari: uy qurish, uyni rekonstruksiya qilish, birlamchi va ikkilamchi uy-joy bozorlaridagi uyni yoki ko'p xonadonli uyda kvartirani sotib olish uchun beriladi. Bunda

kreditlanayotgan ko'chmas mulk obyekti – uy-joy O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo'lishi lozim.

Tijorat banklari tomonidan ipoteka kreditlarini berishning manbalari bankning kredit liniyalari, shu jumladan, imtiyozli kredit liniyalari, xalqaro va xorijiy moliya institutlarining ipoteka krediti uchun berilgan grantlari va investitsiyalari, o'z mablag'lari va jalb qilingan boshqa mablag'lar hisoblanadi. Ipoteka krediti berishda tijorat banki qarz oluvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi, ipoteka kreditini oluvchi 18 yoshga to'lgan bo'lishi, yosh oilalarga beriladigan ipoteka kreditlari bo'yicha ipoteka krediti olish uchun qarz oluvchi va uning erining (xotining) yoshi 30 yoshdan oshmagan bo'lishi, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy ro'yxatdan o'tgan bo'lishi, ish beruvchi bilan o'zaro munosabatlar hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan bo'lishi, oxirgi 12 oy mobaynida doimiy ish joyidan, yuridik shaxsni tashkil etmasdan, tadbirkorlik faoliyatidan yoki xususiy amaliyot bilan shug'ullanishdan doimiy daromadga yoxud qonun hujjatlarida ruxsat etilgan boshqa daromadlar manbayiga ega bo'lishi, dastlabki badal uchun sotib olinadigan turar joy/quriladigan turar joy/turar joyni rekonstruktsiya qilish qiymatining kamida 25% miqdoridagi mablag' mavjud bo'lishi, kredit tashkilotlaridan kreditlar bo'yicha to'lov muddati o'tgan qarzi bo'lmasligi, kreditni qaytarish bo'yicha oylik to'lov summasi qarz oluvchining/sherik qarz oluvchilarning soliqlar to'langanidan keyingi jami daromadining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi yoki qarz oluvchining oilasi jami daromadining 60 foizidan ortiq bo'lmasligi bo'yicha talablar qo'yadi. Ipoteka krediti berishda bankning ipoteka bilan ta'minlanganlik majburiyati bo'yicha huquqlari garov xati bilan tasdiqlanadi. Garov xati "Ipoteka to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni talablari asosida qarz oluvchi tomonidan tuziladi va ipoteka davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin qarz oluvchi hamda bank ishtirokida ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan rasmiylashtiriladi va bankka beriladi.

Ipoteka kreditining boshqa kredit shakllaridan farqli tomoni shundaki, qarz oluvchi ipoteka krediti olish uchun dastlabki badal mablag'iga ega bo'lishi kerak. Ushbu mablag'lar qarz oluvchining nomiga bankda ochilgan jamg'arma omonat hisob raqamida milliy yoki chet el valyutasida mavjud bo'lishi yoki qurilayotgan uy smeta qiymatining yoki rekonstruktsiya qilish qiymatining 25 foizidan kam bo'lmagan miqdorda bajarilgan qurilish-montaj ishlari yoki qarz

oluvchining o'z mablag'lari hisobiga sotib olingan qurilish materiallari tarzida bo'lishi mumkin.

Qarz oluvchi tomonidan boshlang'ich badalga kiritilgan pul mablag'lari miqdoridan kelib chiqib, kreditdan foydalanganlik uchun to'lovlar miqdori quyidagicha belgilanadi.

57-jadval

Ipoteka krediti bo'yicha boshlang'ich badal va foiz stavkalari

Uy-joy qiymatidan boshlang'ich badal	Yillik % - kredit muddati 10 yil	Yillik % - kredit muddati 5 yil
25%	19%	18%
30%	18%	17%
40%	17%	16%
50% va undan yuqori	16%	15%

Qarz oluvchi tomonidan boshlang'ich badal to'lanishiga qarab kreditning foiz stavkasi ham o'zgaradi. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, agar mijoz uy-joy qiymatidan boshlang'ich badalni qancha ko'p to'lasa, kreditning foiz stavkasi shuncha past bo'ladi. Masalan, mijoz uy-joy qiymatidan 50 foizini va undan ortiq qismini to'laydigan bo'lsa, ipoteka kreditining muddati 10 yil bo'lgan kreditning yillik foiz stavkasi 19 foizdan 16 foizgacha, kreditning muddati 5 yil bo'lganda 18 foizdan 15 foizgacha kamayganini ko'rishimiz mumkin.

Ipoteka krediti bo'yicha ta'minotga quyidagi majburiy talablar qo'yiladi. Bular: boshlang'ich badal mablag'ining miqdori quriladigan/rekonstruktsiya qilinadigan uy-joy loyixa umumiy qiymatining kamida 25 foizini tashkil etishi, ipoteka krediti hisobiga quriladigan/rekonstruktsiya qilinadigan uy-joy bo'yicha joy garovini rasmiylashtirish, garovga berilgan uy-joyni sug'urta qilishi lozim.

Ipoteka kreditining yana bir farqli jihati kreditning ta'minotida o'z aksini topadi. Ipoteka kreditida sotib olinayotgan yoki qurilayotgan uy-joy, xonadon bank kreditining ta'minoti bo'lishi mumkin. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ipoteka krediti ta'minoti bo'lib qurilayotgan uy, u joylashgan yer uchastkasi bilan birga ipoteka krediti hisobiga sotib olinadigan va belgilangan tartibda qarz oluvchi mulkiga o'tadigan uy u joylashgan yer uchastkasi bilan birga yoki ko'p xonadonli uydagi xonadon, qarz oluvchining mulki bo'lgan va ipoteka krediti hisobiga rekonstruktsiya qilinayotgan uy, u joylashgan yer uchastkasi bilan birga yoki qarz oluvchilar mulki bo'lgan boshqa uy-joy ham qabul

qilinishi mumkin. Ipoteka krediti miqdori, muddati va undan foydalanganlik uchun foiz stavkasi kredit resurslari manbayiga bog'liq holda belgilanadi va kredit milliy valyutada, 5 yildan 15 yilgacha muddatga beriladi.

Bank tomonidan o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lari hisobidan aholiga beriladigan ipoteka krediti miqdori:

-uy qurilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 2500 baravarigachani;

-uy sotib olish va ko'p xonadonli uydagi xonadonni sotib olish uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 2000 baravarigachani;

-uyni rekonstruktsiya qilish uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 1500 baravarigachani tashkil etadi.

Aholiga beriladigan ipoteka kreditlari bo'yicha bank bir yil muddatga kreditlashning imtiyozli davrini belgilashi mumkin. Imtiyozli davr o'rnatilgan holda berilgan kreditlar bo'yicha asosiy qarzni to'lash imtiyozli davr tugagandan keyingi oydan boshlanadi. Imtiyozli davr kredit bo'yicha foizlar hisoblash va undirishga tatbiq etilmaydi. Ipoteka kreditidan foydalanganlik uchun foizlar tijorat banklarining resurslari qiymatidan kelib chiqib mustaqil o'rnatiladi va u banklarning kredit siyosatidan kelib chiqib turlicha bo'lishi mumkin. O'rtacha olganda ipoteka krediti bo'yicha bank tomonidan yiliga 12-16 foizdan 20 foizgacha miqdorda, ba'zi mijozlar uchun bank kredit qo'mitasi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi qayta moliyalash stavkasidan kam bo'lmagan miqdorda foizlar belgilanishi mumkin.

Uyni yoki ko'p xonadonli uylardagi xonadonni sotib olish uchun bank tomonidan kredit berish qarz oluvchi nomiga alohida ssuda hisob raqami ochish hamda ushbu hisob raqamdan qarz oluvchining yozma topshiriqnomasi asosida turar joy egasi bo'lgan jismoniy shaxs-sotuvchining omonat hisob raqamiga pul mablag'larini naqd pulsiz shaklda memorial order vositasida o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Uy qurish yoki uyni rekonstruktsiya qilish uchun bank tomonidan kredit berish qarz oluvchiga alohida ssuda hisob raqami ochish hamda ushbu hisob raqamdan qarz oluvchining yozma topshiriqnomasi asosida 2 bank kuni ichida qurilish materiallari sotib olish uchun savdo tashkilotlari, ishlab chiqaruvchi korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning banklardagi talab qilib olinguncha

saqlanadigan depozit hisob raqamiga, bajarilgan qurilish-montaj ishlari uchun pudratchi qurilish tashkilotining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisob raqamiga shartnoma shartlari asosida naqd pulsiz shaklda memorial order vositasida o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Agarda uy qurish yoki uyni rekonstruksiya qilishni qarz oluvchining o'zi bajaradigan bo'lsa (xo'jalik usulida) kredit shartnomasida kelishilgan ipoteka krediti summasining 20 foizgacha bo'lgan summani hisob raqamidan qarz oluvchiga naqd pul shaklida berishga ruxsat beriladi. Ipoteka kreditlari qarz oluvchining bank plastik kartochkalariga o'tkazish yo'li bilan ham berilishi mumkin, bank plastik kartochkalaridan naqd pul berilishiga yo'l qo'yilmaydi. Qarz oluvchi bank kredit plastik kartochkasi vositasida amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida har oyda bankka terminallar cheklari, sotib olingan tovarlar uchun chakana savdo tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan berilgan schyotlar, kvitantsiyalar yuk xati yoki qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hujjatlar ilova qilingan holda hisobot taqdim etishi kerak. Bank hisobotga ilova qilingan hujjatlarni tahlil etish jarayonida bank kredit kartochkasi vositasida hisob-kitob qilish vaqtida kreditdan boshqa maqsadlarda foydalanilganini aniqlagan taqdirda bank kredit kartochkasi to'g'risidagi shartnoma bekor qilinadi, bank kredit kartochkasi hisob raqami yopiladi va bank kredit kartochkasi olib qo'yiladi. Kreditning boshqa maqsadlarda foydalanilgan qismi uchun kredit shartnomasida belgilangan miqdorda jarima solinadi va uni undirib olish choralari ko'riladi.

Ipoteka krediti bo'yicha asosiy qarzni to'lash va u bo'yicha foizlarni to'lash kredit shartnomasiga ilova qilingan jadvalga muvofiq undiriladi. Qarz oluvchi ipoteka kreditini ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiyalar, gonorarlar, dividendlar, foizlar va qimmatli qog'ozlar bo'yicha olinadigan boshqa daromadlar hisobidan naqd pulsiz shakldagi mablag'lar o'tkazish yo'li bilan, naqd pul topshirish yo'li bilan, pul mablag'larini qarz oluvchining bankdagi omonatlari bo'yicha hisob raqamlaridan o'tkazish yo'li bilan, pul mablag'larini bank plastik kartochkalaridan o'tkazish yo'li bilan, pul mablag'larini qarz oluvchining ish beruvchisi tomonidan moddiy yordam va ipoteka kreditini to'lash uchun ajratilgan boshqa mablag'lar hisobidan naqdsiz shaklda o'tkazish yo'li bilan va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa usullarda qaytarish mumkin. Qarz oluvchilar asosiy qarzni va hisoblangan foizlarni kredit shartnomasida belgilangan muddatdan oldin qaytarish huquqiga ega. Bank kreditdan

foydalanishning butun davri davomida doimiy monitoringni amalga oshiradi. Monitoring joyiga borgan holda amalga oshirilishi mumkin. Asosiy qarz va uning bo'yicha hisoblangan foizlar kredit shartnomasida belgilangan muddatlarda qaytarilmagan taqdirda, bank kreditlashni to'xtatib turadi hamda berilgan ipoteka kreditini va u bo'yicha hisoblangan foizlarni muddatidan oldin undirish choralari ko'radi, choralar samara bermagan holda O'zbekiston Respublikasining "Ipoteka to'g'risida" qonunida belgilangan tartibda undiruvni garovga qo'yilgan mulkka qaratadi.

9-§. Tijorat banklari tomonidan yosh oilalarga ajratiladigan kreditlar va ulardan foydalanish shartlari

Mamkakatimizda yoshlarning har tomonlama kamol topishiga katta e'tibor berilayotgani tijorat banklari faoliyatida ham namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda yoshlarning iqtisodiy tashabbuslari va tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun mikrokreditlar ajratish, ularning turmush faravonligini oshirish, uy-joy qurilishi, iste'mol ehtiyojlari qondirish uchun ipoteka va iste'mol kreditlari ajratish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Yosh oilalar uchun ipoteka krediti – yosh oilalar (har biri 30 yoshdan oshmagan, birinchi marta rasmiy nikohdan o'tgan yoshlar kiradi)ga sotib olinayotgan ko'chmas mulkni garovga olish orqali uy-joy qurish, rekonstruktsiya qilish va sotib olish uchun beriladi. Yosh oilalarga ipoteka kreditlari qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, maqsadli foydalanish va muddatlilik shartlari asosida 15 yildan kam bo'lmagan muddatga beriladi. Yosh oilalarga ipoteka kreditlarini quyidagi maqsadlarga yo'naltirishi mumkin:

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kelishilgan yakka tartibdagi va namunaviy loyiha asosida, qurilishning belgilangan normalari va qoidalariga rioya qilgan holda yakka tartibda uy-joy qurishga va rekonstruktsiya qilishga;

- yakka tartibdagi uy-joyini yoki ko'p xonadonli uydagi xonadonni sotib olishga.

Tijorat banklari tomonidan yosh oilalarga ipoteka kreditlar bankning o'z mablag'lari va jalb qilingan resurslari hisobidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo'lmagan foizlarda beriladi. Tijorat banklari

tomonidan yosh oilalarga beriladigan ipoteka krediti kredit resurslari manbasidan qat'i nazar quyidagi miqdordlarda beriladi:

yakka tartibdagi uy-joyni qurilishi va sotib olish uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 3000 baravarigacha;

yakka tartibdagi uy-joyni rekonstruksiya qilish, shuningdek, ko'p xonadonli uydagi kvartirani sotib olish uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 2500 baravarigacha berilishi mumkin.

Tijorat banklarining o'z mablag'lari hisobidan ham yosh oilalarga imtiyozli shartlar asosida ipoteka kreditlarini berishi mumkin. Yosh oilalarga beriladigan ipoteka kreditlari imtiyozli davr bilan foiz stavkasi Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasidan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

58-jadval

Yosh oilalarga ipoteka kreditlari berish me'yorlari

Uy-joy qiymatidan kelib chiqib to'langan boshlang'ich badal -%	Bankning yillik foiz stavkasi - %	Ipoteka kreditining muddati - yillarda
Eng kam miqdori 25%	9%	15 yilgacha

Yosh oilalarga beriladigan ipoteka kreditlari bo'yicha uch yillik (36 oy) imtiyozli davr belgilanadi. Ipoteka krediti olish uchun qarz oluvchi bankka standart hujjatlar paketini, kreditlash maqsadiga bog'liq ravishda kreditlanayotgan ko'chmas mulk obyekti bo'yicha hujjatlar, nikoh va bolalari to'g'risida guvohnomalar va boshqa zarur hujjatlarni taqdim etishi lozim. Bank zarur hollarda boshqa hujjatlarni talab qilib olishi mumkin.

Yosh oila a'zolari (er yoki xotin)ning ish beruvchisi bo'lgan yuridik shaxslar yosh oila tomonidan olinadigan uy-joy qurish, rekonstruksiya qilish va sotib olishga ipoteka krediti uchun dastlabki badalni bankka o'tkazib berishi mumkin. Bunda, badal summasi yosh oila a'zosi (eri yoki xotini)ning qaysi biri nomiga ipoteka krediti rasmiylashtiriladigan bo'lsa, uning nomiga bankda ochilgan jamg'arma omonat hisob varag'iga ish beruvchi tomonidan o'tkaziladi.

Yosh oilalarga mikrokredit va iste'mol kreditlarini berish va qaytarish tartibi

Yosh oilalarning iqtisodiy tashabbuslari va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga mikrokreditlar beriladi. Tijorat banklari tomonidan yosh oilalarga mikrokreditlarning berilishi,

monitoringi va qaytarilishi O'zbekiston Respublikasining «Mikromoliyalash to'g'risida»gi qonuni va banklarning ichki kredit siyosatlarini bilan tartibga solinadi. **Mikrokredit** – yosh oilalarga eng kam oylik ish haqining 1000 baravaridan oshmaydigan miqdorda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun beriladigan pul mablag'laridir. Yosh oilalarga mikrokreditlar quyidagi maqsadlarga beriladi:

oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish uchun;

mikrofirmalar, kichik korxonalar, oilaviy korxonalar, fermer xo'jaliklari, shuningdek, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklari dastlabki (boshlang'ich) sarmoyasini shakllantirish uchun;

yakka tartibdagi tadbirkorlik, mikrofirmalar, kichik korxonalar, oilaviy korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklarini kengaytirish va rivojlantirish uchun.

Tijorat banklarining o'z mablag'lari hisobidan oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish uchun yosh oilalarga foiz stavkasi Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasidan ortiq bo'lmagan miqdorda mikrokreditlar berishi mumkin.

Tijorat banklarining Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan yosh oilalarga mikrokreditlarning berilishi mumkin. Bunda bankning Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi hisobidan berilgan mikrokreditdan foydalanganlik uchun imtiyozli foiz stavkasi Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 50 foizi miqdorida o'rnatiladi.

Davlat maqsadli jamg'armalari kredit liniyalari hisobidan yosh oilalarga imtiyozli foiz stavkalari bo'yicha mikrokreditlar berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Iste'mol krediti to'g'risida»gi qonuniga asosan tijorat banklari tomonidan yosh oilalarga moliyaviy iste'mol kreditlari berilishi mumkin. Yosh oilalarga beriladigan moliyaviy iste'mol kreditlari olti oylik imtiyozli davr bilan foiz stavkasi Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasidan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi. Tijorat banklari amaliyotida iste'mol krediti bo'yicha o'rnatiladigan foiz stavkalar qarz oluvchi tomonidan tovar va xizmatlar qiymati bo'yicha to'langan dastlabki badal miqdoriga va kreditning muddatiga bog'liq bo'ladi.

Yosh oilalarga iste'mol kreditlari berish me'yorlari

Kreditga sotib olinadigan tovar va ko'rsatiladigan xizmatlar miqdori bo'yicha shakllantirilgan badal miqdori	Iste'mol kreditining muddati	Iste'mol kreditining % stavkasi
20%	3 oydan 3 yilgacha	9 %

Imtiyozli davr o'rnatilgan holda berilgan kreditlar asosiy qarzni to'lash bo'yicha imtiyozli davr tugagandan keyingi oydan boshlanadi. Imtiyozli davr kredit bo'yicha foizlar hisoblash va undirishga tatbiq etilmaydi. Bunda foizlar yosh oilaga kredit bo'yicha qarzdorlikning amaldagi qoldig'iga kunlik hisoblab boriladi va oyda bir marta undiriladi.

Mazkur kreditlarning maqsadli ishlatilishi ustidan tijorat banklari doimiy monitoring o'rnatadi. Bank tomonidan kreditdan boshqa maqsadlarda foydalanganlik uchun qarz oluvchiga nisbatan qo'llaniladigan javobgarlik choralarini kredit shartnomasida belgilanadi. Asosiy qarz va u bo'yicha hisoblangan foizlar kredit shartnomasida belgilangan muddatlarda qaytarilmagan taqdirda, bank qarz oluvchining majburiyatlarining bajarilmayotgani sabablarini aniqlaydi va muddatida qaytarilmagan kreditni qaytarishni ta'minlash choralarini ko'rishni talab qiladi.

Agar kreditni o'z vaqtida undirish bo'yicha ko'rilgan choralar zarur natijani bermasa va kreditning qarz oluvchi tomonidan o'z vaqtida va to'liq qaytarilmaslik xavfi vujudga kelsa, berilgan kreditni va u bo'yicha hisoblangan foizlarni muddatidan oldin undirib oladi. Ushbu shartlar kredit shartnomasida belgilangan bo'lishi kerak.

10-§. Tijorat banklari tomonidan sindikatlashgan kreditlarni berish tartibi

Yirik investitsion loyihalar, ya'ni umumiy qiymati tijorat banklarining birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshadigan investitsiya loyihalarini kreditlashda bir necha yirik banklar ishtirok etishi mumkin. Bir necha banklar tomonidan yirik investitsiya

loyihalarini birgalikda kreditlash **sinditsiyalashtirilgan kredit** deyiladi. Bunday yirik loyihani moliyalashtirish uchun ikki yoki undan ortiq banklar o'rtasida o'zaro kelishadi va **bank sindikatini** tashkil qilishadi. Sinditsiyalashtirilgan kreditlar qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish shartlari asosida kredit shartnoma bo'yicha faqat yuridik shaxslarga beriladi.

Sinditsiyalashtirilgan kredit berish muddati, foiz stavkasi miqdori yirik investitsiya loyihalarining qoplanish muddatiga, tomonlar o'rtasidagi kelishuvga asosan kredit shartnomasida belgilanadi. Zarar bilan ishlaydigan, nolikvid bo'lgan, samarasiz investitsiya loyihalarini taqdim qilgan mijozlarga sinditsiyalashtirilgan kreditlar berilmaydi.

Qarz oluvchi bankka yirik kredit berishni so'rab murojaat qilganidan keyin, bank (yetakchi bank) sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirishning mumkinligi to'g'risida kredit qo'mitasi qaror qabul qilgan taqdirda, bank bu loyihani moliyalashtirish uchun bank sindikatini tashkil qilish to'g'risida tashabbus bilan chiqib qaror qabul qiladi.

Sinditsiyalashtirilgan kreditni berishga xorijiy banklar va boshqa xorijiy moliyaviy institutlar jalb etilishi mumkin. Ishtirokchi banklar o'rtasida mazkur investitsion loyihani birgalikda kreditlash borasida bitim imzolanganidan keyin bank sindikati tuzilgan hisoblanadi va ushbu bitimni imzolagan barcha ishtirokchi banklar o'zlariga sinditsiyalashtirilgan kreditlash borasida majburiyat olgan hisoblanadilar.

Yirik investitsiya loyihaga sinditsiyalashtirilgan kredit olish uchun mijoz yetakchi bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

kredit buyurtmasi;

loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanishi;

qarz oluvchining bank hisob varag'iga pul tushumlari (pul oqimi) taxmini, albatta, ko'rsatilgan biznes-reja;

qarz oluvchining kreditga layoqatliligini aniqlash uchun soliq organlari tomonidan tasdiqlangan oxirgi 3 yillik moliyaviy hisoboti, kreditning ta'minoti va boshqa hujjatlarlarni taqdim qilishi lozim. Kreditning ta'minlanganligi sifatida mijoz mulkini, qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yishi yoki bank yoki sug'urta tashkiloti kafolatini, uchinchi shaxsning kafilligini olishi yoki sug'urta

kompaniyasining kredit bo'yicha sug'urta polisini taqdim qilishi mumkin.

Yetakchi bank ishtirokchi banklar bilan birgalikda tavsiya etilayotgan ta'minot turini tahlil qilishi shart va ular bilan kelishgan holda ularga eng qulay bo'lgan ta'minot shaklini tanlash huquqiga ega. Bank sindikati kredit jildidagi barcha hujjatlarni ko'rib chiqib kredit berish to'g'risida qaror qabul qilganidan, yetakchi va har bir ishtirokchi bankning sinditsiyalashtirilgan kreditdagi ulushi aniqlangandan keyin, yetakchi va ishtirokchi banklar va qarz oluvchi o'rtasida kredit shartnomasi imzolanadi. Kredit shartnomasi tuzilgandan so'ng, ishtirokchi banklarning ichki tartibida belgilangan tarzda tegishli mas'ul xodimi tomonidan buxgalteriyaga kreditning miqdori, muddati va foiz stavkasini ko'rsatgan holda, alohida ssuda hisob raqamini ochish to'g'risidagi farmoyishiga asosan ssuda hisob raqami ochiladi.

Kredit yig'ma jildi yetakchi bankda yuritiladi va unda saqlanadi. Kredit yig'ma jildining nusxasi har bir ishtirokchi bankda saqlanadi.

Ishtirokchi banklar tomonidan kreditlashni amalga oshirish kredit shartnomasida belgilangan maqsadlar va muddatlarda har bir ishtirokchi bank uchun belgilangan kalendar muddatida qarz oluvchining to'lov topshiriqnomalari asosida tovar-moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar va xizmatlar uchun ssuda hisob varag'idan naqd pulsiz shaklda to'lash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Kreditni qaytarish muddatlari pul oqimining kelib tushish istiqboliga qarab, bir necha bosqichda amalga oshirilishi mumkin. Kreditdan foydalanish tijorat banki tomonidan doimo monitoring qilib boriladi. Berilgan kreditlar maqsadsiz itshlatilganda ishtirokchi banklar yoki yetakchi bank kredit shartnomasida belgilangan tartibda, kreditning maqsadga nomuvofiq ishlatilgan qismini qarz oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisob varag'idan muddatidan oldin undirib olish huquqiga ega. Kreditni qaytarish muddati etib kelganda va qarz oluvchining pul mablag'lari mavjud bo'lmagan taqdirda, kredit muddati o'tgan ssudalar hisob varag'i orqali undirib olishga taqdim etiladi, u bo'yicha muddatli majburiyatnomalar esa 2-kartotekaga joylashtiriladi va qonunchilikda belgilangan tartibda undiriladi.

Qarzdorning to'lovga layoqatsizligi tufayli kreditni va uning foizlarini o'z vaqtida to'lay olmaganligi uchun mas'uliyat sinditsiyalashtirilgan kredit to'g'risidagi kelishuv asosida barcha ishtirokchi-banklar zimmasida bo'ladi.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Kredit liniya	Ipoteka kreditlari
Ochiq kredit liniya	Moliyaviy iste'mol krediti
Yopiq kredit liniya	Tovar iste'mol krediti
«Stend bay» kredit	Sindikatlashgan kredit
Kontokorent kredit	Mikrokredit
Overdraft kredit	Mikroqarz
Ta'lim krediti	Iste'mol krediti
Lombard krediti	Revolver kredit

O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

- Alohida ssuda hisob varag'idan kreditlash tartibini tushuntiring.
- Ochiq kredit liniyasidan kreditlashning xususiyatlari qanday?
- Yopiq kredit liniyasidan kreditlash xususiyatlarini gapiring.
- Overdraft bo'yicha kreditlash tartibi qanday?
- Kontokoorent bo'yicha kreditlashning xususiyatlarini keltiring.
- Tijorat banklari qanday trast operatsiyalarini bajaradi?
- Iste'mol krediti va uning turlarini ta'riflang?
- Ipoteka krediti va uni berish va to'lash qoidalarini tushuntiring.
- Revolver krediti qachon va kimlar uchun qo'llaniladi?
- Qaysi subyektlarga va qanday maqsadlarda sindikatlashtirilgan kreditlar beriladi?
- Ta'lim krediti va uning ijtimoiy ahamiyati to'g'risida tushuntiring.

XIV BOB. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH

1-§. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlashni tashkil qilish asoslari

Iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonlarini izchillik bilan o'tkazish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, bank tizimini tubdan mustahkamlash bu sohada ham islohotlarni faollashtirishni, banklarning kapitallashuvini oshirishni va bo'sh pul mablag'larni bank oborotiga jalb qilish hisobidan ularning kredit berish imkoniyatlarini kengaytirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni talab etadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz taraqqiyotida muhim o'rin tutgani sababli bu sohani rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor berib kelinmoqda. Keyingi yillarda jahon iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni va ahamiyati mustahkamlanib bormoqda. Xalqaro moliya tashkilotlarining tahlillariga ko'ra so'nggi 30 yilda rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 30 foizdan 70 foizgacha, ba'zi mamlakatlarda undanda yuqori ko'rsatkichlarga o'sgan, ish bilan band aholining 70-80 foizi mazkur sohada faoliyat olib bormoqda. Ko'pgina davlatlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, yangi ish o'rinlar yaratish, aholi bandligini ta'minlash, ishlab chiqarishga yangi texnologiya va innovatsiyalarni joriy qilish, davlat budjetini soliqlar bilan to'ldirishda kichik biznesdan dastak sifatida foydalanmoqda.

60-jadval

Ba'zi davlatlarda kichik biznesdan foydalanish imkoniyatlari

Kichik biznesdan foydalanish imkoniyatlari	Mamlakatlar
Ijtimoiy muammolar (ishsizlik, kambag'allik)ni bartaraf qilish dastagi	Albaniya, Braziliya, Hindiston
O'rta sinfni shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqororlikka erishish	Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Kanada, Ispaniya
Ressetsiyaning oldini olish	AQSh, Isroil
Yangi bozorlarga chiqish va eksport salohiyatni oshirish	Kanada, Meksika, Singapur, Yaponiya
Islohotlarning samarasi va izchilligini ta'minlash	Vengriya, Polsha, Xitoy, Chexiya

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, bizning respublikamizda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berilib, ayniqsa, kreditlash orqali ular faoliyatini moliyaviy jihatdan qo'llash davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olinib, bu sohada katta ustivorlik berilmoqda. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash hajmini oshirish, kreditlash shartlarini soddalashtirish, ularga bank xizmatlaridan foydalanish sohasida qo'shimcha imtiyoz va qulayliklar yaratish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Kredit resurslaridan, asbob-uskuna va materiallardan, o'z mahsulotini sotish bozorlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, yangi ish boshlayotgan tadbirkorlarga moliyaviy yordamni kuchaytirish, kichik biznes va tadbirkorlarni kreditlash, ularga mikrokreditlar ajratishning yaxlit tizimini yaratish borasida oxirgi yillarda qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Bu sa'y-harakatlarning samarasi o'zining natijalarini bermoqda. 2014-yilda mamlakatda yaratilgan yalpi ichki maxsulotining 56 foizi, sanoat mahsulotining 31,1 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga 2011-yilda 2010-yilga nisbatan berilgan kreditlar miqdori 1,5 barobarga oshirilib 4,0 trln so'mga yetkazilgan bo'lsa, 2012-yilda 5,3 trln so'm, 2013-yilda qariyb 7,0 trln so'm, 2014-yilda 9,2 trln. so'm miqdoridagi kreditlar kichik biznes sohasiga yo'naltirilgan. Joriy yilning 9 oyi ichida kichik biznesni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar hajmi 2014-yilning shu davriga nisbatan 1,3 barobar ko'payib, 2015-yilning 1-oktyabr holatiga ko'ra 9,6 trln so'mni tashkil etgani mazkur sohaning jadal rivojlanishiga imkon yaratmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining kredit olish jarayonlari ancha soddalashtirildi va banklar tomonidan talab qilinadigan hujjatlar soni qisqartirildi. Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari kredit olish uchun bankka quyidagi hujjatlarni taqdim qilishlari lozim:

- kredit olish haqida ariza (kredit buyurtmasi);
- pul oqimini ko'rsatuvchi biznes-reja;
- oxirgi hisobot sanasiga davlat soliq xizmati mahalliy idorasi tasdiqlagan buxgalteriya balansi;
- ta'minotning biror-bir turi bo'yicha hujjatlar;
- fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlaridan ko'rsatilgan faoliyat turi bilan shug'ullanayotganligini yoki shug'ullanish

imkoniyatiga ega ekanligini tasdiqlovchi ma'lumotnomani taqdim qiladilar. Faoliyatini endi boshlayotgan subyektlardan buxgalteriya balansi talab etilmaydi.

Mijozning kredit olish bo'yicha bankka taqdim qilgan hujjatlarini ko'rib chiqish muddati bugungi kunda 3 bank kunigacha qisqartirilganligi bois, bank shu muddat ichida mijozning hujjatlarini ko'rib chiqib mijozga kredit berish yoki bermasligi to'g'risida xabar berishi lozim. Kredit berish rad qilinganda bank mijozga rad qilish sabablarini ko'rsatgan holda yozma raddiya bildirishi lozim bo'ladi. Mijozning kredit hujjatlari va moliyaviy holati bank talablariga javob bersa, bank tomonidan kredit berish bo'yicha ijobiy qaror qabul qilinadi hamda mijoz va bank o'rtasida kredit shartnomasi imzolanadi. Bank va mijoz o'rtasida kredit shartnomasi imzolanlandan keyin, bank mijozga kredit berish to'g'risida qaror qabul qiladi va qarz oluvchini kreditlash bo'yicha alohida ssuda hisob varag'i ochiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit shu hisob varag'idan qarz oluvchining to'lov topshiriqnomasiga binoan tovar-moddiy boyliklar, xizmatlar va boshqa kredit obyektlari bo'yicha talablarni to'lash uchun naqd pulsiz o'tkazish yo'li bilan beriladi. Kreditlar maqsadlilik, muddatlilik, to'lovlilik, ta'minlanganlik va qaytarishlik tamoyillari asosida beriladi.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini milliy valyutada kreditlashda kichik biznes subyektlariga oborot mablag'larini to'ldirish uchun kreditlar 1 yilgacha muddat bilan beriladi, kichik biznesning barcha subyektlariga investitsiya loyihalarini moliyalash uchun kreditlar to'lash muddatini uzaytirish huquqisiz 5 yilgacha muddatga berilishi bo'yicha me'yor, bugungi kunda bekor qilinib investitsiya loyihalarini moliyalashtirish muddati tijorat banklarining kengashi tomonidan tasdiqlanadigan "Bankning kredit siyosati"da aks ettiriladigan bo'ldi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarga ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun beriladigan guvohnomada ko'rsatilgan faoliyat turi uchun 1000 minimal ish haqidan oshmagan miqdorda mikrokredit ajratilishi mumkin.

Ijobiy kredit tarixiga ega bo'lgan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan mikrokreditlar ajratilishi mumkin. Imtiyozli kredit berish jamg'armasi mablag'lari hisobidan kreditlar berish muddatlari kredit berilayotgan tadbirning o'zini qoplashiga bog'liq bo'ladi, chunonchi, xomashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar hamda boshqa ishlab

chiqarish zaxiralari xarid qilish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larni to'ldirishga kreditlar kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga, qoidaga ko'ra, 1 yil muddatgacha beriladi, investitsiya loyihalarini mablag' bilan ta'minlash uchun kreditlar kichik biznes va tadbirkorlikning barcha subyektlariga, bankning kredit siyosatidan kelib chiqib 5 yil muddatga berilishi mumkin. Jamg'arma mablag'lari hisobidan kreditlarning avval olingan kreditlarni yoki boshqa har qanday qarzlarni uzishga, ishlab chiqarish maqsadida foydalanilmaydigan shaxsiy mol-mulk sotib olishga berilishi mumkin emas.

Jamg'arma mablag'lari hisobidan berilgan kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash bo'yicha kredit berilgan kundagi belgilangan stavkasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda helgilanadi.


Kreditlar mijozning asosiy talab qilib olinadigan depozit hisob raqami bankda mavjud bo'lgan taqdirda beriladi. Bank o'zi bilan doimiy aloqaga, bank hisob varag'ida doimiy pul oqimiga, yaxshi nufuzga va yaxshi kredit tarixiga ega bo'lgan qarz oluvchilarga, blankli (ishonchli) kreditlar berishi mumkin. Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashda kreditning umumiy summasida qarz oluvchining garov ta'minotini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarini hisobga olish huquqi berildi.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini kreditlash uchun 2014-yil davomida barcha moliyalash manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar hajmi 2013-yilga nisbatan 1,3 barobarga oshib, 2015-yilning boshiga qariyb 9,2 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2015-yilning 9 oyida 9,6 trln so'mga teng bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

Tijorat banklari ajratgan kreditlarining maqsadli ishlatilishini doimiy monitoring qilib boradi. Monitoring jarayonida mijozning xo'jalik-moliyaviy faoliyati, uning tuzilgan shartnomalarga (buyurtmanomalarga) muvofiq mahsulot yetkazib berish majburiyatlarini bajarishi, ishlab chiqarish, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotishlar, muomala chiqishlari, foyda hajmlari, o'z aylanma mablag'lari mavjud bo'lishi dinamikasi, tovar-moddiy boyliklar zaxiralari ahvoli, aylanma mablag'larning muomalada bo'lishi tahlil qilinadi. Bank, qarz oluvchining kredit ishidagi ko'rsatkichlarni turkumlagan holda, uning kreditga layoqatliligini doimiy o'rganib boradi. Bankka berilgan ta'minotning holati, kreditdan kredit

shartnomasida qayd etilgan shartlarda samarali va maqsadli foydalanilishi joyida ham o'rganilishi mumkin. Mijoz tomonidan kredit va u bo'yicha foizlarni to'lashda kamchiliklarga yo'l qo'yilsa, bank tomonidan ularni bartaraf qilish choralari ko'riladi.

Kichik biznes sohasiga yo'naltirilgan kreditlar (trln. so'm)



22-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga ajratilgan kreditlar


Kredit qaytarilmagan hollarda bank yuqorida keltirilgan ta'minot shakllariga murojaat qilish va kreditni undirib olishi mumkin.

2-§. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini mikrokreditlash

O'zbekiston Respublikasining "Mikromoliyalash to'g'risida"gi qonuniga muvofiq tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatiladi, ya'ni ularga mikromoliyalash mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan oshmaydigan summada mikrokredit, mikroqarz, mikrolozing berish, shuningdek, boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishi mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga **mikrokredit** qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun **eng kam ish haqining ming baravari** miqdoridan oshmaydigan summada to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'laridir. Shuningdek, ularga muayyan maqsadlar uchun ishlatish shartlari asosida maqsadli mikrokredit, jismoniy shaxs bo'lgan qarz

oluvchiga **eng kam ish haqining yuz baravari** miqdordan oshmaydigan summada muddatlilik va qaytarish shartlari asosida, shartnomada nazarda tutilgan hollarda esa to'lovlilik sharti asosida **mikroqarz** ham berilishi mumkin.



23-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan mikro kreditlar

Agarda biz banklar tomonidan tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab quvvatlash uchun ajratilgan mikro kreditlar miqdoriga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning salmog'i ham yildan yilga o'sib borganini ko'rishimiz mumkin. Agar 2011-yilda mikro kreditlar hajmi 752,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda ularning hajmi ancha o'sib 2013-yilda 1 366 mlrd so'mni, 2014-yilda 1 907 mlrd so'mni tashkil tashkil etgan. 2015-yilning 9 oyi davomida mikro kreditlar hajmi 2 trln so'mdan oshib, bu ko'rsatkich 2014-yilning shu davriga nisbatan 1,3 barobardan ziyodga o'sdi. 2016-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar miqdori 2015-yilga nisbatan 1,3 barobardan ziyodga oshib 2017-yil 1-yanvar holatiga 15,9 trln. somni, shundan mikro kreditlar hajmi 1,3 barobarga oshib qariyb 3,3 trln. somni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini bozor talablari asosida olib borishi uchun sharoit yaratish, ularni zamonaviy asbob-uskuna, texnika va jihozlar bilan ta'minlash masqadida ularga mikrolozing xizmatlari ko'rsatishning huquqiy asoslari yaratilganligi va tijorat banklari tomonidan mijozlarga mikrolozing xizmatlarining ko'rsatilayotganligi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. **Mikrolozing** tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun **eng kam ish haqining ikki ming**

baravari miqdoridan oshmaydigan summada beriladi. Bunda bank lizing oluvchining topshirig'iga binoan uchinchi tarafdin mol-mulk olish hamda uni egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga shartnomada belgilangan shartlar asosida haq evaziga mikrolizing xizmatini ko'rsatadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari, mikroredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari o'z mablag'lari, shu jumladan olgan daromadlari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan keng ko'lamda mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatadilar.

Mikroreditlar quyidagi maqsadlarga ajratilishi mumkin:

- kichik (mini) uskunalarni xarid qilish;
- xomashyo va materiallarga birlamchi ishlov berish;
- aylanma mablag'larni to'ldirish;
- savdo faoliyatini tashkil etish;
- mehnat qurollari, xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar, yordamchi ashyolarni xarid qilish;
- xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati buyumlarini ishlab chiqarish;
- hunarmandchilikni rivojlantirish, kasanachilik mehnatini tashkil qilish;
- servis xizmati va maishiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirish;
- sog'liqni saqlash xizmatini rivojlantirish;
- sayyohlik (turizm) sohasini rivojlantirish;
- kichik ko'lamdagi ishlab chiqarishlarni tashkil qilish;
- tadbirkor faoliyati davomida foydalanish uchun yengil va yuk avtomashinalarini xarid qilish;
- ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdoni tashkil etish maqsadida bevosita foydalanish uchun ko'chmas mulk sotib olish va ta'mirlash;
- shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan xalq iste'moli mollarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasi bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari uchun.

Mikroreditlar olish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari – kredit olish uchun ariza, biznes-reja, moliyaviy hisobotlar (agar yuridik shaxs bo'lmasa talab qilinmaydi), garov ta'minoti va zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni taqdim qilishi lozim.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari tomonidan berilgan mikrokreditlar:

- xomashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar hamda ishlab chiqarish zaxiralari xarid qilish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larni to'ldirishga, shuningdek, savdo faoliyatini amalga oshirish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga 12 oygacha;

- asosiy vositalar xarid qilish va qarz oluvchi o'z faoliyatida kelgusida foydalanish maqsadida qilayotgan qurilishni moliyalashtirish uchun 3 yilgacha beriladi.

Kreditni turli risklvar va yo'qotishlardan himoyalash uchun tijorat banklari tomonidan berilgan mikrokreditlar bo'yicha ham mijozdan ta'minot talab qilinadi. Tijorat banki mijoz olgan mikrokreditlari bo'yicha ta'minot sifatida mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi, uchinchi shaxslar kafilligi va boshqa, qonunchilikda taqiqlanmagan ta'minot turlari qabul qilinishi mumkin.

3-§. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga dastlabki sarmoyani shakllantirish uchun beriladigan mikrokreditlar

O'zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblanib, o'z faoliyatini yuridik shaxs maqomini olgan holda tashkil etib, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan 6 oydan oshmagan xususiy korxonalar, mikrofirmalar (shu jumladan, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari) dastlabki sarmoyani shakllantirish uchun mikrokreditlash subyekti bo'lishi mumkin.

Dastlabki sarmoyani shakllantirishga mikrokredit olish uchun mijoz tijorat bankiga quyidagi hujjatlar taqdim etishi lozim:

- kredit maqsadi, muddati, ta'minoti aniq ko'rsatilgan ariza;
- pul oqimining tahlili ko'rsatilgan biznes-reja;
- Davlat soliq inspeksiyasi tomonidan qabul qilingan boshlang'ich yoki tezkor buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti, debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotnoma, shuningdek, 90 kundan ortiq muddatdagi qarzdorliklar bo'yicha solishtirish dalolatnomalari;

- kreditga layoqatlilik darajasini aniqlash uchun boshqa zaruriy hujjatlar;

- garov ta'minoti hujjalari;
- boshqa hujjatlar.

Mijozning barcha hujjatlari bank tomonidan qo'yilgan talablarga javob bersa bank mijoz o'rtasida kredit shartnomasi imzolanadi va mijozga kredit ajratiladi.

Tijorat banklari tomonidan dastlabki sarmoyani shakllantirish uchun beriladigan mikrokreditlar miqdori eng kam oylik ish haqining 300 barabarigacha miqdorda beriladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga dastlabki sarmoyani shakllantirish uchun beriladigan mikrokreditlar:

- xomashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar hamda ishlab chiqarish zaxiralari xarid qilish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larni to'ldirishga, shuningdek, savdo faoliyatini amalga oshirish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga 12 oy (1 yil) gacha; (aylanma mablag'larini to'ldirish uchun kichik tadbirkorlik subyektlariga berilgan mikrokreditlarni qaytarishning eng uzoq muddati, qaytarish muddatini uzaytirishni hisobga olgan holda 12 oydan oshishi mumkin emas);

- asosiy vositalar xarid qilish va qarz oluvchi o'z faoliyatida kelgusida foydalanish maqsadida qilayotgan qurilishni moliyalashtirish uchun 3 yilgacha.

Kreditning ta'minoti sifatida mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi, uchinchi shaxslar kafilliklari va boshqa qonunchilikda ta'qiqlanmagan ta'minot turlari qabul qilinishi mumkin.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga dastlabki sarmoyani shakllantirishga mikrokreditlar O'zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarini tamomlaganiga 1 yildan oshmagan, respublika hududida xususiy tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tganiga 6 oydan oshmagan, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari o'z biznesini boshlash uchun yetarli mablag'ga ega bo'lmagan holda ularga dastlabki sarmoyani shakllantirish uchun tijorat banklari mikrokreditlar ajratishi mumkin.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari dastlabki sarmoyani shakllantirishga mikrokredit olish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etishadi:

- kredit maqsadi, muddati, ta'minoti aniq ko'rsatilgan ariza;
- faoliyat turini tasdiqlovchi hujjatlar;
- tegishli ta'lim muassasasining ijobiy tavsifnomasi;
- kredit oluvchining yashash joyidan ijobiy tavsifnomasi;
- pul oqimining tahlili ko'rsatilgan biznes-reja;

• kreditga layoqatlilik darajasini aniqlash uchun boshqa zaruriy hujjatlar;

- garov ta'minoti hujjatlari;
- boshqa hujjatlar.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga dastlabki sarmoyani shakllantirish uchun eng kam oylik ish haqining 150 barobarigacha bo'lgan miqdorda mikrokreditlar beriladi.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga berilgan mikrokreditlar:

• xomashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar hamda ishlab chiqarish zaxiralari xarid qilish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larni to'ldirishga, shuningdek, savdo faoliyatini amalga oshirish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga 12 oy (1 yil)gacha; (aylanma mablag'larini to'ldirish uchun kichik tadbirkorlik subyektlariga berilgan mikrokreditlarni qaytarishning eng uzoq muddati, qaytarish muddatini uzaytirishni hisobga olgan holda 12 oydan oshishi mumkin emas);

• asosiy vositalar xarid qilish va qarz oluvchi o'z faoliyatida kelgusida foydalanish maqsadida qilayotgan qurilishni moliyalashtirish uchun 3 yilgacha berilishi mumkin.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga berilgan mikrokreditlar bo'yicha ta'minot turlari ancha soddalashtirilgan. Kredit boshqa turlaridagi kabi bu kredit turida ham an'anaviy ta'minot turlari mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi, uchinchi shaxslar kafilliklari va boshqa qonunchilikda taqiqlanmagan ta'minot turlari qabul qilinishi mumkin. Shuningdek, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari olgan bank kreditlari bo'yicha muqim ish bilan band bo'lgan va ish haqi shaklida doimiy daromadga ega bo'lgan ularning ota-onalari, qarindosh-urug'lari yoki boshqa jismoniy shaxslarning kafilligi ham kreditning ta'minoti sifatida qabul qilinishi mumkin.

4-§. Bankning imtiyozli kreditlash jamg'armasi hisobidan kichik biznes subyektlarini kreditlash

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 19-maydagi «Tijorat banklarining kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishini rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi 195-sonli qaroriga binoan tijorat banklarining Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari banklar foydasining 25 foizigacha miqdorini ajratish hisobiga shakllantirilishi va jamg'armaning berilgan kreditlari hisobiga olingan daromadlari

daromad (foyda) solig'idan 5 yil muddatga ozod qilinishi belgilab berildi. 2011-yilning "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinganligi munosabati bilan banklarda tashkil etilgan Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi hajmini oshirish borasida tegishli choralar ko'rildi. Imtiyozli kreditlash hajmini kengaytirishni rag'batlantirish maqsadida Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi resurslari hisobidan kredit berishdan olinadigan tijorat banklarining daromadlari bo'shaydigan mablag'larni mazkur jamg'armaning resurs bazasini oshirishga maqsadli yo'naltirish sharti bilan ular yuridik shaxslar foydasidan to'lanadigan soliقدan 2011-yil 1-apreldan, 2016-yilning 1-yanvarigacha ozod etildi.

Imtiyozli kreditlash jamg'armasidan kreditlar mahsulot yetishtirish (ishlab chiqarish) bilan shug'ullanuvchi dehqon va fermer xo'jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi. Jamg'arma mablag'ari ustuvor ravishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi yuqori texnologiyali va innovatsiya loyihalarini, uzoq va borish qiyin bo'lgan tumanlarda, shuningdek, mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan tumanlar va shaharlarda joylashgan ishlab chiqarish mikrofirmalarini, kichik korxonalarini, dehqon va fermer xo'jaliklarini moliyalashtirish uchun ajratiladi;

- kichik biznesning barcha subyektlari uchun imtiyozli resurslardan foydalanish imkoniyatini yaratish maqsadida, jamg'arma hisobidan kreditlar eng kam oylik ish haqining 2000 baravaridan ortiq bo'lmagan summada ajratilishi belgilandi. Bu turdagi kreditni olish uchun mijoz tijorat bankiga kredit olish uchun ariza, biznes-reja, moliyaviy hisobotlar (agar yuridik shaxs bo'lmasa talab qilinmaydi), garov ta'minoti va zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni taqdim qilishi lozim. Kredit hujjatlarini tahlil qilish chog'ida bank kredit shartnomasining har xil jihatlarini, qarz oluvchiniig kredit tarixini, uning rahbari nufuzini (oldingi ish joylari, layoqatliligi, ilgari olingan kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlay olishi va shu kabilarni) baholaydi.

Mijozning faoliyati va taqdim qilgan hujjatlari bank talablariga javob bersa, kredit berish to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin. Tijorat banklari Imtiyozli kredit berish jamg'armasi mablag'lari hisobidan kreditlar kredit shartnomasi asosida beriladi. Mijozga kreditlar uning talab qilib olinadigan depozit hisob raqami ochilgan bankdan beriladi. Kreditlar alohida ssuda hisob raqamidan qarz oluvchining tovar-moddiy boyliklar va boshqa quyida keltirilgan kredit obyektlari

uchun uning to'lov topshiriqnomasini naqd pulsiz to'lash yo'li bilan beriladi.

Jamg'arma mablag'lari hisobidan kreditlar:

- xomashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar hamda boshqa ishlab chiqarish zaxiralari xarid qilish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larni to'ldirishga kichik tadbirkorlik subyektlariga 1 yilgacha bo'lgan muddatda beriladi;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga kreditlar fermer xo'jaliklariga, shuningdek, yuridik shaxs bo'lgan dehqon xo'jaliklariga, kamida 2 yil muddatga beriladi;

- investitsiya loyihalarini mablag' bilan ta'minlash uchun kreditlar kichik tadbirkorlik barcha subyektlariga, shu jumladan, yuridik shaxs bo'lgan fermer va dehqon xo'jaliklariga to'lov muddatini kechiktirish huquqsiz 5 yilgacha muddatga berilishi mumkin. Imtiyozli kreditlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan kreditlar imtiyozli foiz stavkalarida beriladi. Jamg'arma mablag'lari hisobidan berilgan kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash bo'yicha kredit berilgan kundagi belgilangan stavkasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Zarar ko'rib ishlayotgan, nolikvid balansga ega bo'lgan qarz oluvchilarga jamg'arma mablag'lari hisobidan kredit berilmaydi, ilgari berilgan ssudalar esa belgilangan tartibda muddatidan oldin undirib olinadi.

Kreditning ta'minoti sifatida mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi, uchinchi shaxslar kafilliklari va boshqa qonunchilikda taqiqlanmagan ta'minot turlari qabul qilinishi mumkin.

Tijorat banklari kreditdan foydalanishning butun muddati davomida doimiy monitoring olib boradi. Monitoring qarz oluvchining buyurtmanomasini va kredit shartnomasi shartlarini amalga oshirishga har tomonlama ko'maklashishga yo'naltirilishi kerak.

Monitoring jarayonida mijozning xo'jalik-moliyaviy faoliyati uning **tuzilgan shartnomalariga** muvofiq, yetkazib berish majburiyatlarini bajarishi, ishlab chiqarish, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotishlar, muomala chiqimlari, foyda hajmlari, o'z aylanma mablag'lari mavjud bo'lishi dinamikasi, tovar-moddiy boyliklar zaxiralari qarz oluvchining kredit ishidagi ko'rsatkichlarni turkumlagan

holda kreditga layoqatlilik bo'yicha doimiy monitoringini amalga oshiradi.

Bankka berilgan garovning holati kredit shartnomasida qayd etilgan shartlarda samarali va maqsadli foydalanishi joyida o'rganiladi.

Berilgan kreditlardan maqsadli foydalanmaganlik holati aniqlangan taqdirda, bank kreditning belgilangan maqsadda foydalanilmagan qismini kredit shartnomasida belgilangan tartibda qarz oluvchining talab qilib olinadigan depozit hisob raqamidan muddatidan oldin undirish huquqiga egadir.

5-§. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini budjetdan tashqari jamg'armalarning kredit liniyalari hisobidan kreditlash

Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jag'armasi kredit liniyalari hisobidan oilaviy tadbirkorlik subyektlariga mikrokreditlar berilishi mumkin. Oilaviy tadbirkorlik jismoniy shaxslarning yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshiriladigan birgalikdagi faoliyati bo'lib, er-xotin tomonidan ularga birgalikdagi umumiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan umumiy mol-mulk negizida amalga oshiriladi. Oilaviy tadbirkorlik er-xotinning va ularga ko'maklashadigan oila a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Bu turdagi oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun ajratiladigan kredit miqdori eng kam oylik ish haqining 150 baravarigacha miqdorda beriladi. Kreditning foiz stavkasi imtiyozli bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/4 qismi miqdorida belgilanadi.

Oilaviy tadbirkorlik subyektlariga kreditlar kreditning an'anaviy tamoyillariga asosan qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz 2 yilgacha bo'lgan muddatga beriladi.

Qarz oluvchi kredit olish uchun tijorat bankiga ariza, biznes-reja, garov ta'minoti bo'yicha hujjatlarni taqdim qiladi. Mikrokreditni qaytarishda 6 oy imtiyozli davr belgilanadi va ushbu shart kredit shartnomasida qayd etiladi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga ajratilgan mikrokredit umumiy summasining 50 foizini naqd pul bilan 1,5 yil (18 oy) muddatga berishga ruxsat etiladi.

Kredit ta'minoti sifatida mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi, uchinchi shaxslar kafilliklari va boshqa qonunchilikda taqiqlanmagan ta'minot turlari qabul qilinishi mumkin.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar kredit liniyalari hisobidan kichik biznes subyektlari, dehqon va fermer xo'jaliklari ham kreditlar olishi mumkin. Ularga ishlab chiqarishni kengaytirish va faoliyatini rivojlantirish maqsadlari uchun mikrokreditlar beriladi. Kredit olish uchun bu subyektlar bankka kredit olish uchun ariza, biznes-reja, moliyaviy hisobotlar (agar yuridik shaxs bo'lmasa talab qilinmaydi), garov ta'minoti va zarur bo'lgan boshqa xujjatlarni taqdim qilishlari lozim.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar kredit liniyalari hisobidan kreditlar kichik biznes subyektlariga ularning namunaviy yoki yakka tartibda ishlab chiqilgan investitsiya loyihalariga hamda tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarini moliyalashga beriladi.

Bunda ajratilayotgan kredit mablag'lari xizmat ko'rsatish sohasida yangi tashkil etilayotgan korxonalarni faqat texnologik jihozlash maqsadlariga yo'naltiriladi.

Kredit yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik subyektlariga eng kam oylik ish haqining 200 baravarigacha hamda yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlariga eng kam oylik ish haqining 1000 baravarigacha beriladi.

Ushbu manba hisobidan berilgan kreditlar bo'yicha quyidagi foiz stavkalar o'rnatiladi:

- dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va kengaytirish, shu jumladan, qishloq xo'jaligi texnikasini sotib olish, fermerlik inshootlarini qurish, chorvachilik, parrandachilikni rivojlantirish uchun mikrokreditlar Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/3 qismi miqdorida;

- bevosita ishlab chiqarish sohasi, ya'ni mahsulotlar ishlab chiqarish, xomashyo va materiallarni tubdan qayta ishlash, hunarmandchilikni rivojlantirish, kasanachilik mehnatini tashkil etish, binokorlik materiallari ishlab chiqarish va qurilish maqsadlari uchun mikrokreditlar Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 40 foizi miqdorida;

- xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun, jumladan, aholiga maishiy, tibbiy, sayyohlik-ekskursiya va mehmonxona xizmati ko'rsatish, avtomobillar va boshqa texnika ta'miri bo'yicha xizmat ko'rsatish, transport xizmati ko'rsatishni rivojlantirish

uchun Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 45 foizi miqdorigacha.

Kredit muddati:

- Dehqon va fermer xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishga beriladigan mikrokreditlar, qoida tariqasida 2 yildan kam bo'lmagan muddatga beriladi.

- Budjetdan tashqari jamg'armalar kredit liniyalari hisobidan beriladigan boshqa barcha mikrokreditlar 3 yilgacha bo'lgan muddatga beriladi.

Dehqon va fermer xo'jaliklari va kichik biznes subyektlari kreditning ta'minoti sifatida mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi, uchinchi shaxslar kafilliklari va boshqa qonunchilikda taqiqlanmagan ta'minot turlarini garov sifatida rasmiylashtirishga taqdim qilishi mumkin.

Mikrokreditlarni quyidagi maqsadlarga ajratish man etiladi:

a) ilgari olingan kreditlarni yoki har qanday boshqa qarzlarni qaytarishga;

b) tamaki va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarishga;

d) savdo-vositachi korxonalar aylanma mablag'larini shakllantirishga;

e) savdo obyektlarini qurishni moliyalashga, aholiga har xil o'yinlar ko'rinishidagi xizmatlarni ko'rsatish va ular uchun uskunalar sotib olishga;

f) ishlab chiqarish maqsadlari uchun ishlatilmaydigan shaxsiy mulkni sotib olishga;

g) ma'muriy xarajatlarni to'lashga, shu jumladan, xizmat avtomobillari ta'minotiga.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan ochiladigan kredit liniyalar mablag'lari zamonaviy xorijiy texnologiyalar va asbob-uskunalar sotib olish uchun eksportga mo'ljallangan va import o'rmini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga yo'naltiriladi.

Jamg'armaning mablag'lari hisobidan qarz oluvchilarga xorijiy valyutada 7 yilgacha bo'lgan muddatga kreditlar berilishi mumkin. Buning uchun:

- investitsiya loyihasini moliyalashtirishda qarz oluvchining ulushi o'z mablag'lari hisobiga investitsiya loyihasi qiymatining kamida 25 foizini tashkil etishi kerak;

- investitsiya loyihasini moliyalashtirishda tijorat bankining o'z ishtiroki ulushi (kreditni qayta moliyalashtirish hisobisiz) uning qiymatining kamida 25 foizini tashkil etishi kerak;

- investitsiya loyihasi tarmoq yoki mintaqa tasdiqlangani modernizatsiya qilish|rivojlantirish dasturiga kiritilgan bo'lishi kerak;

- foiz stavkasi = 6 oylik Libor + 1% jamg'arma marjasi + Tijorat bankning marjasi;

- loyihaning qoplanuvchanligi = ko'pi bilan 7 yil;

- kreditlash muddati mobaynida loyihaning rentabelligi ichki normasi kamida yillik 8 foiz;

- loyiha bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish koeffitsiyenti = ishlab chiqarish faoliyatining ikkinchi yilidan boshlab kamida 1,5 yil;

- talab qilinadigan ta'minot = Kredit summasining 125 % i miqdorida ko'char yoki ko'chmas mulk shaklidagi garov, banklar va sug'urta kompaniyalari kafolati.

Loyihalarni ko'rib chiqish uchun quyidagi hujjatlari taqdim etilishi zarur:

- loyihaning texnik iqtisodiy asoslanmasi (biznes-reja);

- asbob-uskunani sotib olish shartnomalari;

- moliyaviy hisobotlar;

- garov ta'minoti hujjatlari;

- ta'sis hujjatlari;

- kompleks ekspertiza o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar.

Ish haqi uchun kredit ajratish:

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan, bank hisob varag'ida ish haqi to'lash uchun ma'lum muddatga mablag'larga ega bo'lmagan, ammo kredit beriladigan davr mobaynida aniq pul tushumi manbalariga ega bo'lgan, bank mijozlariga 60 kun muddatda qaytarish sharti bilan ish haqi uchun naqd pulda kredit ajratilishi mumkin. Ish haqi uchun ajratilgan kredit belgilangan tartibda 30 kungacha uzaytirilishi mumkin. Bu turdagi kreditni olishi uchun mijoz bankdan oldin olgan kreditlari bo'yicha shartnoma shartlarini buzmagani, kreditlar bo'yicha qarzdorlikka ega bo'lmagan bo'lishi lozim. Mijozning ish haqi uchun avval berilgan va so'ndirilmagan kreditlari bundan mustasno, chunki shartnoma bo'yicha mijozning kreditni so'ndirish muddati tugamagan holda unda kreditga ehtiyoj yuzaga kelishi mumkin. Mijoz ish haqiga kredit olish uchun bankka odatdagi standart hujjatlarni taqdim qilishi lozim. Ish haqi uchun kreditlar miqdori mijoz tomonidan o'z ishchilariga

bir oylik davr uchun beriladigan summadan kelib chiqib va unga hisoblaniladigan majburiy to'lovlar va ajratmalar (daromad solig'i, pensiya jamg'armasi, ijtimoiy sug'urta va boshqa ajratmalar) bo'yicha aniqlanadi. Ish haqi uchun kreditlar ma'lum ta'minot asosida beriladi. Ishonchli kredit tarixiga ega bo'lgan, bank bilan doimiy aloqada bo'lgan moliyaviy barqaror mijozlarga ish haqi uchun kredit ta'minotsiz ajratilishi ham mumkin.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Kichik biznes	Xususiy tadbirkorlik
Mikrokreditlar	Mikroqarzarlar
Dastlabki sarmoya	Boshlang'ich kapital
Oilaviy tadbirkorlik	Mikrolizing
Fermer, dehqon xo'jaligi	LIBOR stavka

O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

- Kasb-hunar kolleji bitiruvchilariga kredit berish tartibini tushuntiring.

- Kichik biznesni kreditlashning xususiyatlari qanday?

- Xususiy tadbirkorlikni kreditlashning qanday xususiyatlari bor?

- Imtiyoli kreditlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan kimlarga kreditlar beriladi?

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlashni tashkil qilish asoslarini keltiring?

- Budjetdan tashqari jamg'armalarning kredit liniyalari hisobidan kreditlash qanday amalga oshiriladi?

- Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga dastlabki sarmoyani shakllantirishga mikrokreditlar berish tartibi qanday?

XV BOB. TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN QISHLOQ XO'JALIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH

1-§. Qishloq xo'jaligi subyektlarini kreditlashni tashkil qilish asoslari

Mamlakatimizda iqtisodiyotning real sektorini, jumladan, qishloq xo'jaligini rivojlantirishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Bu borada qishloq xo'jaligi korxonalari va subyektlarining moliyaviy barqaror faoliyatini ta'minlashda tijorat banklari kreditlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'z navbatida, tijorat banklari qishloq xo'jaligi sohasi vakillarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ularning ishonchli hamkoriga aylanishga alohida e'tibor bermoqda. Tijorat banklari tomonidan mijozlarga qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida quyidagi kredit turlari taklif etilmoqda:

- uzum, meva-sabzavotchilikka hamda poliz ekinlari yetishtirishni ko'paytirish maqsadida shaxsiy-yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklariga urug'lik, ko'chat, mineral o'g'it va o'simliklarni himoya qilish bo'yicha turli vositalarni sotib olish uchun mikrokreditlar;

- sabzavot, kartoshka, poliz, meva va uzum mahsulotlarini xarid qilish, saqlash, ulgurji sotish va qayta ishlashga ixtisoslashgan tayyorlov tashkilotlari, shu jumladan, agrofimalarga shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklari bilan tuzilgan shartnoma qiymatining 30 foizi miqdorida bo'nak mablag'lar ajratish uchun kredit;

- hududlarda tovuqxonalar va muqobil yoqilg'ilar asosida ishlaydigan issiqxonalar tashkil etishga, baliqchilik va asalarichilikni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun kreditlar;

- chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida chorva mollari sonini hamda ularning mahsuldorligini oshirishga yo'naltirilgan loyiha va tashabbuslarni moliyalashtirish uchun kreditlar;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun kreditlar;

- joylarda suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida tomchilab sug'orish texnologiyalarini joriy etishni moliyalashtirishga ajratiladigan kreditlar;

- Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan parametrlarga binoan fermer va dehqon xo'jaliklari tomonidan xo'jalik uchun qishloq xo'jaligi texnikalarini sotib olish kreditlar va qishloq xo'jaligi korxonalarining ehtiyojidan kelib chiqib boshqa turdagi kreditlar berilishi mumkin. Undan tashqari, tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligi korxonalariga meva-sabzavot va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha mini-texnologiyalar va ixcham asbob-uskunalar sotib olish uchun fermer xo'jaliklariga imtiyozli kreditlar ajratiladi va lizing xizmatlari ko'rsatiladi.

Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini kreditlashda fermer xo'jaliklariga, shuningdek, yuridik shaxsni tashkil etgan dehqon xo'jaliklariga qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tashkil etishga oborot mablag'larini to'ldirish uchun kreditlar kamida 2 yil muddatga beriladi, kichik biznesning barcha subyektlariga, shu jumladan, yuridik shaxsni tashkil etgan fermer va dehqon xo'jaliklariga investitsiya loyihalarini moliyalash uchun kreditlar to'lash muddatini uzaytirish huquqisiz 5 yilgacha muddatga berilishi mumkin.

Qishloq xo'jalik faoliyati bilan bog'lanmagan fermer va dehqon xo'jaliklarining oborot mablag'larini to'ldirishga berilgan boshqa kreditlar bo'yicha bu muddatni uzaytirish hisobga olingan holda ulardan foydalanishning eng ko'p muddati 12 oy qilib belgilanadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishga mo'ljallangan aylanma mablag'larni to'ldirish uchun dehqon va fermer xo'jaliklariga berilgan kreditlarni qaytarishning eng uzoq muddati, qaytarish muddatini uzaytirishni hisobga olgan holda, 30 oydan oshishi mumkin emas, fors-major holatlari bundan mustasno. Fermer va dehqon xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan aylanma mablag'lari uchun berilgan boshqa kreditlar bo'yicha ulardan foydalanish muddati, qaytarish muddatini uzaytirishni hisobga olgan holda, 12 oy etib belgilanadi. Imtiyozli kreditlar berish jamg'armasi mablag'lari hisobidan kreditlar qarz oluvchilarga mahsulot yetishtirish (tamakichilik va alkogolli mahsulot ishlab chiqarishdan tashqari) bilan bog'liq bo'lgan, amaldagi qonunchilik bilan taqiqlanmagan va quyidagilarni nazarda tutuvchi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va kengaytirish uchun beriladi:

a) ishlab chiqarish binolarini qurish, texnika bilan jihozlash va rekonstruksiya qilish;

b) mashinalar, asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, urug'lik, mol va parrandalar sotib olish;

d) xomashyo va materiallar, shu jumladan, mollar uchun yem, omixta ozuqa, veterinariya preparatlari, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari, mineral o'g'itlar, yonilg'i-moylash materiallari va ekin maydonlariga ishlov berish bo'yicha mexanizatsiyalashtirilgan xizmatlar sotib olishga yo'naltiriladi.

Jamg'arma mablag'lari hisobidan berilgan kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash bo'yicha kredit berilgan kundagi belgilangan stavkasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi. Kreditlar mijozning asosiy talab qilib olinadigan depozit hisob raqami bankda mavjud bo'lgan taqdirda beriladi. Bank o'zi bilan doimiy aloqaga, bank hisob varag'ida doimiy pul oqimiga, yaxshi nufuzga va yaxshi kredit tarixiga ega bo'lgan qarz oluvchilarga, blankli (ishonchli) kreditlar berish mumkin. Kredit bo'yicha mol-muok va boshqa ta'minot turlari talab qilinadi. Kredit kredit shartnoma asosida garov shartnomasi mavjudligida ajratiladi.

Bankka berilgan garovning holati, kreditdan kredit shartnomasida qayd etilgan shartlarda samarali va maqsadli foydalanilishi ustidan bank doimiy monitoring o'rnatadi, zarur hollarda mijozning faoliyati joyiga borib o'rganiladi.

Tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligi sohasiga mikrokreditlar ham ajratiladi. Mikrokreditlar faqat yangidan ochilgan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan 6 oydan oshmagan davr mobaynida, kredit olish uchun tegishli xizmat ko'rsatuvchi bankka buyurtma bergan yuridik shaxs maqomini olib, faoliyat ko'rsatayotgan dehqon xo'jaliklariga eng kam oylik ish haqining 150 baravarigacha miqdorda hamda fermer xo'jaliklariga eng kam oylik ish haqining 300 baravarigacha bo'lgan miqdorda beriladi. Mikrokreditlar qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz 3 yilgacha bo'lgan muddatga beriladi. Mikrokredit bo'yicha foiz miqdori Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/6 qismini tashkil etadi. Foizlar ushbu kreditlar berilgan kundan boshlab hisoblanadi va 12 oy muddat o'tgach undiriladi.

Dastlabki (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirishga mikrokreditlar olish uchun mijoz tijorat bankiga quyidagi hujjatlarni taqdim qilishi lozim:

- qarzdor tomonidan imzolangan va kredit berilishidan oldingi sana qo'yilgan, kreditdan foydalanish maqsadlari bayon etilgan va kredit ta'minlangan holda garov mavzusi ko'rsatilgan ariza;

- imtiyozli kreditning butun muddati uchun pul oqimlari prognozi majburiy tartibda ko'rsatilgan biznes-reja;

- qarz oluvchi (yuridik shaxslar uchun) ro'yxatga olingan joydagi davlat soliq inspeksiyasining balans qabul qilinganligi to'g'risidagi yozuv mavjud bo'lgan oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi, debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi ma'lumotnoma, shuningdek, 90 kundan ortiq muddatdagi qarzdorlik bo'yicha taqqoslash dalolatnomalari.

Tijorat banklari tomonidan mijozning tegishli hujjatlari ilova qilingan kredit buyurtmasini 3 ish kunidan oshmaydigan muddatda ko'rib chiqishi lozim. Dastlabki (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirishga ajratilgan mikrokredit umumiy summasining 50 foizini naqd pul bilan 1,5 yil (18 oy) muddatga berishga ruxsat etiladi. Tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligi sohasiga mikrokreditlar:

- boshlang'ich sarmoyani shakllantirish uchun mikrokreditlar;

- yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan dehqon xo'jaliklari va yakkalar tartibdagi tadbirkorlar uchun eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha miqdorda;

- mikrofirmalar va dehqon xo'jaliklari uchun (yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan) eng kam oylik ish haqining 100 baravarigacha miqdorda;

- fermer xo'jaliklari uchun eng kam oylik ish haqining 200 baravarigacha miqdorda ajratiladi;

- mazkur subyektlar uchun mikrokreditlarning foiz stavkasi - yillik 3 foiz miqdorida, 18 oygacha bo'lgan muddatga beriladi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar kredit liniyalari hisobidan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan dehqon xo'jaliklariga mikrokreditlar eng kam ish haqining 200 baravaridan hamda yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlariga eng kam ish haqining 1000 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorida beriladi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan ishlab chiqarishni kengaytirish va faoliyatini rivojlantirish maqsadlari uchun kichik biznes subyektlarini mikrokreditlash bank marjasi qo'shib hisoblanadigan imtiyozli foiz stavkasi asosida amalga oshiriladi. Ushbu mikrokreditlarga doir imtiyozli foiz stavkasi Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasiga nisbatan qat'iy foizlarda belgilanadi. Ushbu mikrokreditlar uchun imtiyozli foiz stavkasi

kreditlanayotgan investitsiya loyihalarining yo'nalishidan kelib chiqqan holda quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

- dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va kengaytirish, shu jumladan, qishloq xo'jaligi texnikasini sotib olish, fermerlik inshootlarini qurish, chorvachilik, parrandachilikni rivojlantirish uchun yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan dehqon xo'jaliklariga eng kam oylik ish haqining 200 baravariga va yuridik shaxs maqomiga ega dehqon va fermer xo'jaliklariga eng kam oylik ish haqining 1000 baravarigacha miqdorida, Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/3 qismi (bugungi kunda yillik 4,67 foiz) bilan 3 yilgacha bo'lgan muddatga;

- mahsulotlar ishlab chiqarish, xomashyo va materiallarni tubdan qayta ishlash, hunarmandchilikni rivojlantirish, kasanachilik mehnatini tashkil etish uchun yakka tartibdagi tadbirkorlarga eng kam oylik ish haqining 200 baravaridan hamda mikrofirma va kichik korxonalariga eng kam oylik ish haqining 1000 baravari miqdorida, qayta moliyalash stavkasining 40 foizi (bugungi kunda yillik 5,6 foiz) bilan 3 yilgacha bo'lgan muddatga;

- xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun yakka tartibdagi tadbirkorlarga, jumladan, aholiga maishiy, tibbiy, sayyohlik-ekskursiya va mehmonxona xizmati ko'rsatish, avtomobillar va boshqa texnika ta'miri bo'yicha xizmat ko'rsatish, transport xizmati ko'rsatishni rivojlantirish uchun eng kam oylik ish haqining 200 baravaridan, mikrofirma va kichik korxonalariga eng kam oylik ish haqining 1000 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda, Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 45 foizi, 3 yilgacha bo'lgan muddatga ajratiladi.

- byudjetdan tashqari jamg'armalar kredit liniyalari hisobidan berilayotgan ushbu mikrokreditlar bo'yicha bank marjasi imtiyozli foiz stavkasining 50 foizi miqdorida belgilanadi.

- yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklariga eng kam ish haqining 200 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda beriladigan mikrokredit umumiy summasining 50 foizini naqd pul bilan 1,5 yil (18 oy) muddatga berishga ruxsat etiladi.

- yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklari va fermer xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va

rivojlantirish uchun eng kam ish haqining 1000 baravari miqdorigacha milliy valyutada ajratilgan mikrokredit umumiy summasining 50 foizini naqd pul bilan 1,5 yil (18 oy) muddatga faqat chorva mollari, parranda, ko'chat, urug'lik va yem-xashakni aholidan sotib olish uchun berilishiga ruxsat etiladi. Naqd pul bilan berilgan mikrokreditlarni qaytarish va ularning naqd pulda berilgan qismiga hisoblangan foizlar to'lovi faqat naqd pulda amalga oshiriladi.

- bunda sanoat yo'li bilan qayta ishlash asosida tayyorlangan chorva ozuqalarini sotib olish uchun mikrokredit hisobidan naqd pul berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

- kichik biznesning boshqa subyektlariga mikrokreditlar naqd pulsiz shaklda beriladi.

Imtiyozli kreditlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan dehqon va fermer xo'jaliklarini Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan (yillik 7 foiz) yuqori bo'lmagan foiz stavkasi bilan:

- xomashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar hamda boshqa ishlab chiqarish zaxiralari xarid qilish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larni to'ldirishga 1 yil muddatgacha;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga kamida 2 yil muddatga;

- investitsiya loyihalarini mablag' bilan ta'minlash uchun 5 yil muddatga ajratiladi.

Kredit ta'minlanganlik sharti asosida - mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi, bank yoki sug'urta tashkilotining kafolati, uchinchi shaxslar kafilligi, qarz oluvchining kreditni so'ndirmasligi xavfi sug'urtalangani to'g'risida sug'urta kompaniyasining sug'urta polisi va boshqa qonunchilik hujjatlarida ko'zda tutilgan ta'minot turlari garovi ostida beriladi.

Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar qaytarilishini ta'minlash sifatida kredit shartnomasi bo'yicha sotib olinadigan mini-texnologiyalar va ixcham asbob-uskunalar ular qiymatining 80 foizi miqdorida garov uchun qabul qilinishi mumkin. Imtiyozli kreditning mini-texnologiyalar va ixcham asbob-uskunalar garovi bilan qoplanmagan qismi uchun qarz oluvchi ta'minlashning yuqorida keltirilgan turlaridan foydalanishi mumkin.

2-§. Tijorat banklari tomonidan shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun mikrokreditlar berish tartibi

Tijorat banklari tomonidan shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, shuningdek, parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish hamda ixcham issiqxonalar tashkil etish uchun mikrokreditlar beriladi.

Aholi o‘z tomorqasida oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida oila ehtiyojlari uchun dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishi hamda oila ehtiyojidan ortiqchasini dehqon bozorlarida sotish bilan shug‘ullanib, oilasini daromad bilan ta‘minlashi mumkin. Oziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqishni kengaytirish va ichki bozorni to‘ldirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar oilaviy xo‘jalik faoliyatini rivojlantirish, bu borada tijorat banklari imkoniyatlaridan foydalangan holda shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga e‘tibor berilmoqda. Shundan kelib chiqib, tijorat banklari tomonidan shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, shuningdek, parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish hamda ixcham issiqxonalar qurish uchun mikrokreditlar ajratilmoqda. Tijorat banklarining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari faoliyatiga yo‘naltiriladigan kreditlari qaytarishlik, to‘lovlilik, ta‘minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish shartlari asosida beriladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun shaxsiy yordamchi xo‘jaliklariga eng kam ish haqining 100 baravarigacha bo‘lgan miqdorda mikrokreditlar ajratiladi.

Mikrokreditlar shartnoma asosida qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz:

mevali daraxtlar va uzum ko‘chatlari sotib olish uchun bir yillik imtiyozli davr bilan 3 yilgacha bo‘lgan muddatga;

urug‘liklar, mineral o‘g‘itlar va o‘simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalarini sotib olish, ixcham issiqxonalar tashkil etish hamda parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish uchun olti oylik imtiyozli davr bilan 2 yilgacha bo‘lgan muddatga beriladi.

Tijorat banki shaxsiy yordamchi xo‘jaliklariga ajratgan kreditlarining to‘lovlari bo‘yicha imtiyozli davrni belgilashi mumkin. Imtiyozli davr o‘rnatilgan holda berilgan kreditlar bo‘yicha asosiy qarzni to‘lash imtiyozli davr tugagandan keyingi oydan boshlanadi. Imtiyozli davrda kredit bo‘yicha foizlar hisoblanadi va undiriladi. Bunda foizlar

qarz oluvchiga kredit bo'yicha qarzdorlikning amaldagi qoldig'iga kunlik hisoblab boriladi va har oyda bir marta undiriladi.

Mikrokreditlardan foydalanganlik uchun Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi darajasidan yuqori bo'lmagan miqdorda foiz stavkasi belgilanadi.

Shaxsiy yordamchi xo'jalik yurituvchi jismoniy shaxslarga o'zlarini istiqomat qiladigan joydagi tijorat banklari filiallaridan mikrokredit berilishi mumkin. Mikrokredit olish uchun shaxsiy yordamchi xo'jalik yurituvchi jismoniy shaxs tijorat bankiga mikrokredit berish to'g'risida ariza, mahalla, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini Kengashi raisi tomonidan imzolangan, belgilangan tartibda berilgan sanasi va raqami qayd etilgan hamda gerbli muhr bilan tasdiqlangan tavsiyanoma va mikrokredit oluvchi shaxsiy yordamchi xo'jalik yurituvchi jismoniy shaxsda tomorqa uchastkasi mavjudligi hamda uning maydoni ko'rsatilgan ma'lumotnomani taqdim etadi. Mijozning kredit hujjatlari tijorat bank tomonidan 3 ish kunida ko'rib chiqib mijozga bank kreditini ajratish yoki ajratmasligi to'g'risida kredit qo'mitasining qarori qabul qilinishi lozim. Agarda mijozning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari yoki kredit hujjatlarida kamchiliklar mavjud bo'lib unga mikrokredit ajratish imkoniyati mavjud bo'lmasa, tijorat banki kredit hujjatlar ko'rib chiqilgan kunning ertasigayoq mijozga bu haqda yozma shaklda ma'lum qilishi shart.

Tijorat banki mikrokredit berish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilganda bank va qarz oluvchi o'rtasida kredit shartnomasi imzolanadi. Kredit shartnomada kreditning summasi, muddati, kredit uchun foiz stavkasi miqdori, kreditning maqsadi, kredit ta'minotiga oid ma'lumotlar, tomonlarning huquq va majburiyatlari, javobgarligi boshqa shartlar ko'rsatiladi. Kredit shartnomasi bilan birgalikda kreditning ta'minoti bo'yicha hujjatlar ham rasmiylashtiriladi.

Mijozga kredit berish uchun belgilangan tartibda ssuda hisobvarag'i ochiladi. Mikrokreditlar qarz oluvchining ssuda hisob varag'idan uning to'lov topshiriqnomasiga asosan, kredit shartnomasida belgilangan maqsadlar uchun tegishli tashkilotlarning bankdagi talab qilib olinguncha depozit hisob varag'iga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Olingan mikrokredit va u bo'yicha foizlar shaxsiy yordamchi xo'jalikni yurituvchi jismoniy shaxs bankka naqd pul topshirish, plastik kartochka orqali yoki bankdagi omonot hisob varag'idan pul o'tkazib berish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Tijorat banki berilgan mikrokreditdan foydalanish, uning maqsadli yo'naltirilishini, kredit foizi

va asosiy summasini shartnoma shartlariga asosan to'lab borish jarayonlarini monitoring qilib boradi. Kreditdan foydalanishda va uning to'lovlari bo'yicha mijoz tomonidan shartnoma shartlari buzilgan hollarda, tijorat banki kredit shartnomasida belgilangan tartibda kreditning maqsadsiz ishlatilgan qismini qarz oluvchidan muddatidan ilgari undirib olish huquqiga ega. Tijorat banki, birinchi navbatda, mijozdan mikrokredit bo'yicha foizlarni, keyin esa asosiy qarz summasini undirib oladi.

Mijoz olgan mikrokreditini kredit shartnomada belgilangan muddatlarda qaytarmasa, bank undiruvni mikrokreditning ta'minotiga qaratadi.

3-§. Tijorat banklari tomonidan shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga chorvachilikni rivojlantirish uchun imtiyozli maqsadli mikrokreditlar berish

Tijorat banklari tomonidan kam ta'minlangan oilalarning shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga chorvachilikni rivojlantirish uchun imtiyozli maqsadli mikrokreditlar berilishi mumkin. Mikrokredit qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish shartlari asosida beriladi. Bu xo'jaliklarga mikrokreditlar eng kam ish kaqining 80 baravarigacha bo'lgan miqdorda beriladi. Chorvachilikni rivojlantirish uchun kam ta'minlangan oilalarga mikrokreditlar shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaligi rahbarining kredit olish uchun bankka bergan arizasi, pasport nusxasi va mahalla, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini kengashlari tavsiyanomalariga asosan, tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnoma bo'yicha 3 yilgacha bo'lgan muddatga, qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz beriladi. Kredit naqd pulda yoki naqdsiz pul o'tkazib berish yo'li bilan Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi darajasidan yuqori bo'lmagan miqdordagi foiz stavkada ajratilishi belgilangan.

Bank mikrokreditning ta'minoti sifatida mol-mulk garovi, bank yoki sug'urta kompaniyasi kafolati, uchinchi shaxs kafilligi, qarz oluvchi tomonidan olingan kreditni qaytarilmaslik xatarining bank-benefitsiar foydasiga sug'urta qilinganligi to'g'risidagi sug'urta polisi va boshqa ta'minot turlarini qabul qilishi mumkin.

Mikrokredit shartnomasi tuzilgandan keyin qarz oluvchiga bankda ssuda hisob varag'i ochiladi. Qarz oluvchining to'lov topshiriqnomasiga

asosan mikrokredit shartnomada ko'rsatilgan summada pul o'tkazish yo'li bilan yoki naqd pul berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Shaxsiy yordamchi xo'jaligi yurituvchi jismoniy shaxs tomonidan mikrokreditlar va ularga hisoblangan foizlar bank kassasiga naqd pul topshirish yoki qarz oluvchining omonat hisob varag'idan pul o'tkazib berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Dehqon xo'jaligi mikrokreditning naqd pulda olingan qismi va unga hisoblangan foizlar to'lovini bank kassasiga naqd pul topshirish yo'li bilan amalga oshiradi. Tijorat banklari tomonidan qarz oluvchining mikrokreditdan samarali hamda maqsadli foydalanayotganligi monitoring qilib boriladi. Agarda farz oluvchi tomonidan olingan mikrokreditlar maqsadsiz ishlatilgan yoki shartnoma shartlaridan chetga chiqishlar aniqlansa bank tomonidan maqsadsiz ishlatilgan kredit summasi va u bo'yicha foizlar muddatidan oldin undirib olinadi. Bunda, birinchi navbatda, mikrokreditdan foydalanganlik uchun foizlar undiriladi. Qarz oluvchi mikrokredit va unga hisoblangan foizlarni kredit shartnomasida belgilangan muddatda qaytarmagan taqdirda bank undiruvni ta'minotga qaratadi va belgilangan tartibda kreditni undirib oladi.

4-§. Xorijiy mamlakatlarda qishloq xo'jaligini kreditlash tajribasi

Qishloq xo'jaligini kreditlash sohasida AQSh tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, banklar tomonidan qishloq xo'jalik subyektlariga turli xil kreditlar ajratiladi. Kreditlash jarayonida bank xodimlari nafaqat bank faoliyatini, balki qishloq xo'jaligi xususiyatlarini, bu sohada maxsus marketing tayyorgarlikka ega bo'lishi, fermer xo'jaliklari faoliyatini, uning mavsumiylik bilan bog'liqligini va boshqa jihatlarini har tomonlama mukammal bilishlari, muomala madaniyati yuqori bo'lishi asosiy shartlardan hisoblanadi. Barcha banklar yalpi aktivlarining 1 foizga yaqini qishloq xo'jaligiga ajratilgan kreditlarga to'g'ri kelsada, ushbu sohaga kreditlar ajratish AQSh mayda banklarining ustivor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Kichik bank (100 mln dollardan ortiq aktivga ega bo'lgan bank)lar tomonidan berilgan kreditlarning 50 foizdan ortig'i qishloq xo'jaligi kreditlari hisoblanadi. AQShda qishloq xo'jaligini kreditlash banklar va nobank tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Banklar odatda bergan kreditlarining

to'g'ri va maqsadli ishlatilishi ustidan fermer xo'jaliklariga borib, ko'zdan kechirish orqali nazorat olib boradilar. Banklar tomonidan fermerlar, ayniqsa, yangi faoliyat boshlayotgan fermerlar uchun o'quvlar maslahat xizmatlari tashkil etiladi. AQShda qishloq xo'jaligini kreditlashga jamiyat rivojlanishiga hissa qo'shish tariqasida qaraladi, chunki agrobiznesning rivojlanishi kichik shahar va hududlar infratuzilmasining rivojlanishiga, agrofimlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarining paydo bo'lishiga olib keladi. AQShda banklar tomonidan qishloq xo'jaligi subyektlariga berilgan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan kreditlar salmog'i 0,5 foizni tashkil qiladi.

Amerika banklaridan kredit olish uchun fermer bankka quyidagi hujjatlarni topshirishi lozim:

- federal soliqli to'laganligini tasdiqlovchi hujjat va biznes reja;
- sotib olinayotgan texnika yoki mulk bo'yicha boshlang'ich badal.

Boshlang'ich badal miqdori olinayotgan kredit summasi va maqsadiga bog'liq (masalan, ko'chmas mulk uchun 20 %, qora mollar uchun 25 % ni tashkil etadi) ;

- kredit tarixi;
- daromadlari to'g'risida deklaratsiya;
- ta'minotning mavjudligi v.b.

- taqdim qilingan hujjatlar asosida banklar mijozlarning moliyaviy holatini, ularning kreditga va to'lovga layoqatlilikini tekshirib chiqqandan keyin mijoz bilan kredit shartnomasi imzolanadi.

AQSh shtatlari va okruglarida banklar va ularning assotsiatsiyalari oborotdagi bo'sh mablag'larni 3-5 foiz stavkada jalb qilib, 6-9 foiz bilan kreditlashga yo'naltiradi. AQSh va boshqa rivojlangan davlatlarda kredit tashkilotlari qishloq xo'jaligi sohasiga o'zgarmas va o'zgaruvchan foiz stavkalarida, o'zgaruvchan foiz stavka o'zgarmas muddat bo'yicha yoki aralash foiz stavka (o'zgaruvchan va o'zgarmas)da kreditlar ajratadi. Kreditlarni o'zgarmas foiz stavkalarida taqdim etganda, kredit bo'yicha foiz stavkalariga inflyatsiya darajasi va boshqa omillar ta'sir ko'rsatmaydi. O'zgaruvchan foiz stavkada beriladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkasi moliya bozorining holatidan kelib chiqib o'zgarishi mumkin. Odatda, uzoq muddatli kreditlar bo'yicha o'zgaruvchan foiz stavkalar o'rnatiladi. Kredit va uning foiziga oid munosabatlar qishloq xo'jaligi korxonasi va kredit tashkiloti o'rtasida tuzilgan shartnomada aks ettiriladi.

AQShda qishloq xo'jaligi subyektlariga kreditlar turli muddatlarga beriladi. Masalan, fermalar uchun bino-inshootlar sotib olishga 20 yilga, yem-xashaklarni saqlash joylarini olish uchun 15 yilga, texnika-texnologiyalar uchun 10 yilga, omborxonalar uchun 8 yilga kreditlar ajratiladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ham AQSh banklari qishloq xo'jaligi sub'ektlarini kreditlash masalalariga ustuvorlik berilishi va kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining oshirilmaganligining sababi, qishloq xo'jaligida iste'mol tovarlarining asosiy qismining yaratilishida.

Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozigacha Amerika banklari tomonidan qishloq xo'jaligi subyektlari, fermerlarga berilgan kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkalar yillik 8 foizni tashkil etgan. Qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyatiga inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida tijorat banklari Federal rezerv tizimidan pul mablag'larini iqtisodiyotga yo'naltirish sharti bilan foizsiz qarzlarni olib, ularning aksariyat qismini fermer xo'jaliklari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirdi. Shu bois, 2011-yildan boshlab kreditlar bo'yicha foiz stavkalari 4 foizni tashkil qilmoqda.

AQShda 1916-yildan boshlab qishloq xo'jaligini kreditlashni muvofiqlashtirish masalalariga davlat siyosatining bir qismi sifatida e'tibor berila boshlangan. Shu vaqtdan boshlab AQSh Kongressi fermerlarni kreditlar tizimining asosi bo'lgan federal yerlar banklari tizimi (Federal Land Banks - FLBs)ni tashkil etgan. 1923-yildan boshlab o'rta muddatli kreditlash bo'yicha federal banklar tashkil etilgan. 1933-yilda qishloq xo'jaligi kooperativlarini kreditlash sohasida banklar tashkil etilgan.

Qishloq xo'jalik sohasiga davlatning aralashuvi past foizlarda kreditlar berish yoki fermerlar faoliyatini rivojlantirishga grantlar ajratishda namoyon bo'lgan. AQSh Qishloq xo'jaligi vazirligi tarkibida tashkil etilgan Fermerlar faoliyati bo'yicha ma'muriyat (FFM) va Tovar-kredit kooperatsiyasi qishloq xo'jaligiga kreditlar ajratuvchi nobank tashkilot bo'lib, kredit olish imkoniyatiga ega bo'lmagan, faoliyatini endi boshlagan, moliyaviy ahvoli nobarqaror bo'lgan fermerlarga kreditlar berish bilan shug'ullanadi. Fermerlar faoliyatini rivojlantirish uchun maqsadli dasturlarga kongress har yili fermerlar oladigan kreditlarning 8-10 foizi miqdorida resurslar ajratadi. Kreditlar fermerlarni rivojlantirish dasturlari ijrosini ta'minlashga, ko'p bolali oilalarni qo'llab-quvvatlashga, qishloq joylarida uy-joylar qurishga, fermerlarning ba'zi majburiyatlarini to'lashga yo'naltiriladi.

AQShda qishloq xo'jaligi sohasiga operatsion xarajatlar uchun qisqa muddatli kreditlar – chorva mollari, mineral o'g'itlar, urug'lik va boshqalar uchun 1 yildan 5 yilgacha muddatga, 5-5,5 foiz bilan, texnika sotib olishga 7 yilgacha, yer sotib olishga 40 yilgacha, o'rtacha 6-6,5 foiz stavkasi bilan ajratiladi. Uzoq muddatli kreditlashda fermerlarning moliyaviy ahvoli doimiy ravishda monitoring qilib boriladi va uning ahvolidan kelib chiqib kredit bo'yicha foiz stavkalar qayta ko'rib chiqiladi. Agar uning moliyaviy ahvoli yaxshilanadigan bo'lsa, u kreditlashning odatdagi tizimiga o'tkaziladi.

AQSh va qator rivojlangan davlatlarda agrar sohani davlat tomonidan boshqarishning muhim dastagi – imtiyozli kreditlash hisoblanadi. Imtiyozli kreditlarni ajratish davlat dasturlari va boshqa tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Imtiyozli kreditlashning asosiy tamoyili kreditning amaldagi foiz stavkasini yoki uning bir qismini byudjet mablag'lari hisobidan qoplab berishdan iborat.

Davlat iqtisodiyotning joriy talablaridan kelib chiqib istiqbolli tarmoqlar va ustivor yo'nalishlar rivojlanishini rag'batlantirish uchun imtiyozli kreditlash mexanizmidan foydalanadi. Bunday mexanizm qishloq xo'jaligining barcha sohalarini qamrab olishi bilan birgalikda ularning rivojlanishiga sharoit yaratadi va tarmoq rivojini rag'batlantiradi.

AQSh davlati iqtisodiy siyosatning joriy holatidan kelib chiqib imtiyozli kreditlash shartlarini o'zgartirib boradi. Kooperativ tashkilotlar, yangi texnika, texnologiyalar, ixtirolarni qo'llaydigan xo'jaliklar, yosh fermerlarga juda ko'p imtiyozlar asosida kreditlar beriladi. Bunday kreditlarni oluvchi xo'jaliklar davlat tomonidan qo'yilgan talablar va mezonlarga javob bera olishi lozim. Masalan, fermer xo'jaligining faoliyat ko'lami, qiymati, daromadlilik darajasi, imtiyozli kredit olishga talabgoming yoshi, uning kasbiy malakasi va tayyorgarligi va boshqalarga e'tibor qaratiladi.

Fermer krediti federal tizimi AQShda fermer xo'jaliklarini kreditlashtiruvchi asosiy bo'g'inlardan bo'lib qolmoqda. Qator vositachilar orqali fermerlarga kreditlar berish va boshqa moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish amalga oshirilmoqda. Bular:

- aholi mablag'larini depozit shaklida akkumulyasiya qiluvchi tijorat banklari;

- pul bozorining bo'sh pul fondlarini jalb qiluvchi, qishloq xo'jalik kredit kooperatsiyalari;

- davlat byudjetining mablag'lari hisobidan amalga oshiriluvchi okrug, mintaqa, federal darajadagi maxsus davlat dasturlari;
- a'zolarining jamoaviy majburiyatiga asoslangan kredit uyushmalar;
- tovar kreditlarini beruvchi yirik agrobiznes korxonalarini;
- trast funksiyalarini bajaruvchi sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari va boshqa iqtisodiy institutlar;
- ko'p sonli yakka tartibdagi kreditorlar.

Bu manbalarning barchasi AQSh Fermer krediti tizimi (FKT) va Fermerlarga xizmat ko'rsatish agentligi (USDA Farm Service Agency) tarkibiga kiradi. Yirik tijorat banklari qishloq joylarida joylashgan o'z filiallari va kichik banklar orqali fermerlarga kreditlar ajratadi. Amerika bankirlari assotsiatsiyasi (American Bankers Association) baholashicha 8681 turdagi banklar qishloq xo'jaligini kreditlash bilan shug'ullanadi.

Qishloq xo'jaligini kreditlashda Farm Credit Systemning roli katta bo'lib, bu o'ziga xos nodavlat tashkiloti bo'lsadik, faoliyati davlat (Government-Sponsored Enterprise - GSE) tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, ammo u davlat tomonidan kafolatlangan kreditlarni ajratmaydi. Fermer krediti tizimi tijorat tashkiloti bo'lib, uning maqsadi o'z faoliyatida foyda olishdan iborat. Shu bilan birgalikda, qonunlar bu tashkilotga, birinchi navbatda, qishloq joylaridagi korxonalar, tashkilotlar va fermerlarga xizmat ko'rsatish majburiyatini yuklaydi. Federal qonunchilikka muvofiq Fermer kredit tizimi soliqlar bo'yicha imtiyozlarga ega va bu, o'z navbatida, ularga kredit resurslar bozoridan arzon kreditlar olish imkonini beradi. Bugungi kunda AQShda fermerlar va rancho egalari beriladigan kreditlarning uchdan bir qismi Fermer krediti tizimi tomonidan ta'minlanadi. Fermer krediti tizimi AQSh hukumatining tarkibiy qismi bo'lgan Fermer krediti bo'yicha ma'muriyat (Farm Credit Administration - FCA) tomonidan muvofiqlashtiriladi. Farm Credit Administration - FCA FKT barqaror faoliyat olib borishi, uning boshqa moliya institutlari bilan raqobatdoshligini ta'minlash bo'yicha faoliyat olib boradi.

Fermerlarga xizmat ko'rsatish agentligi (USDA Farm Service Agency)ning muhim funksiyalaridan biri fermerlar tijorat banklaridan yoki FKTdan kredit olish olmagan sharoitda, ularga kreditlar berishi mumkin. Odatda, bunday kreditlar fermerlarning moliyaviy ahvoli yomonlashganda, tabiiy ofat va bozor konyunkturasi o'zgarishi natijasida fermerlar yo'qotishlar hamda talofat ko'rgan hollarda amalga oshiriladi. Ba'zi kreditlar subsidilashtirilgan kreditlar deyilib, ular

bo'yicha foiz stavkalari moliya bozorlaridagi foiz stavkalardan juda past miqdorda bo'ladi. Bunday kreditlar olish uchun:

- fermer moliyaviy holati to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumot taqdim etishi;

- olinadigan kredit va u bo'yicha foizlarni shartnomada kelishilgan muddatda va summada qaytarib to'lashi mumkinligini asoslashi lozim.

61-jadval

AQShda fermerlarga ajratiladigan kreditlarning qoidalari

Dastur nomi	Kreditning maksimal miqdori	Kreditlash shartlari	Kreditdan foydalanish maqsadi
Asosiy vositalarni sotib olishga	200 ming doll.	- 40 yilgacha; - agentlikning xarajatlariga asosan foizlar belgilanadi; - stavka 5%, agar 50% kredit boshqa kreditordan olingan bo'lsa	- yer sotib olish; - bino, inshootlar qurishga; - yer va suv resurslari holatini yaxshilashga
Faoliyatini boshlayotgan fermerlarga	Mulk qiymatining 40 % i	- 15 yil; - foiz stavka 4%	ferma yoki rancho sotib olish
Aylanma aktivlarni sotib olishga kredit	200 ming doll.	- 1 yildan 7 yilgacha; - foizlar agentlikning xarajatlariga asoslanadi; - foiz stavka - subsidiyalar berilishi mumkin	- qora mol, parranda, em-xashak, urug'lik, ximikatlar, uskunarlar sotib olishga; - yer va suv resurslarini yaxshilash; - ma'lum darajada mavjud qarzdorlikni qayta moliyalashtirish
Favqulotda kredit	Fermada 100% yo'qotishlar bo'lganda 500 ming doll. Barcha kreditlar bo'yicha	- aylanma mablag'lar uchun 1 yildan 7 yilgacha; - ko'chmas mulk bo'yicha yo'qotishlarni qoplash uchun 40 yilgacha; - foiz stavka 3,75%	- fermer xo'jaligining ba'zi elementlarini qayta tiklash; - tabiiy ofat bilan bog'liq ishlab chiqarish xarajatlarini to'lash; - fermer oilasi yashashi bilan bog'liq xarajatlarni to'lash; - fermer xo'jaligini qayta tashkil etish; - mavjud qarzdorlikni qayta moliyalashtirish
Agentlik kafolati ostida oborot aktivlarni sotib olish uchun kredit	899 ming doll.	- 1 yildan 7 yilgacha; - foiz stavkalari o'rtacha bozor stavkalaridan yuqori bo'lmagan holda; - subsidiyalar berilgan foiz stavka 4	- qora mol, parranda, em-xashak, urug'lik, ximikatlar, uskunarlar sotib olishga; - yer va suv resurslarini yaxshilash;

	foizdan past bo'lishi mumkin	-ma'lum darajada mavjud qarzdorlikni qayta moliyalashtirish
Agentlik kafolati	899 ming doll. - 40 yilgacha;	- yer sotib olish;
ostida asosiy vositalarni sotib olish	(inflyatsiyadan kelib chiqib o'zgartirishlar bo'lishi mumkin)	- foiz stavkalari o'rtacha bozor stavkalaridan yuqori bo'lmagan holda
		- bino-inshootlar qurish; - yer va suv resurslarini yaxshilash

AQShda qishloq xo'jaligiga beriladigan kreditlarning xususiyatlaridan kelib chiqib uch asosiy guruhga bo'lish mumkin:

- moliyaviy ahvoli qoniqarsiz bo'lgan, moliyaviy va moddiy resurslari yetarli bo'lmagan qishloq xo'jaligi korxonalari federal shtatlarning dasturlari asosida kreditlanadi;

- qishloq xo'jaligida to'liq va qisman band bo'lgan fermerlar tijorat banklari tomonidan kreditlanadi;

- yirik tijorat fermalar asosan FK'Tdan va sug'urta kompaniyalari orqali kreditlar olishi mumkin.

AQShda qishloq xo'jaligi korxonalari yalpi xarajatlarining 35-70% i kreditlar hisobidan moliyalashtiriladi. Ko'chmas mulk sotib olishda bitimning 70% miqdorida mashina, asbob-uskunalar sotib olishda 40% dan 70% gacha, chorva mollari sotib olishda 50%, oborot kapital bilan bog'liq xarajatlar 100 % gacha moliyalashtirilishi mumkin. Mashina, texnika vositalari, ko'chmas mulk sotib olish uchun uzoq muddatli kreditlar berilsa, oborot kapitalning ximikat, urug'lik, o'g'it, yoqilg'i va boshqa turlari uchun qisqa muddatli kreditlar beriladi va ularni to'lash muddati 30 kundan boshlanishi mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, Angliya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya va qator Skandinaviya davlatlari qishloq xo'jaligi korxonalarining asosiy kapitalida qarz mablag'larining hajmi yuqori darajaga ega.

Germaniyada qishloq xo'jaligiga imtiyozli agrar kreditlar Agrar kreditlar dasturi va investitsion rag'batlantirish dasturiga asosan yillik 1 foiz stavkasida yoki olingan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini 4-7 foizga tushirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Dehqon xo'jaligi	Byudjetdan tashqari jamg'arma
Fermer xo'jaligi	Kredit liniyasi
Oilaviy tadbirkorlik	Sug'urtalash
Kontraktatsiya shartnomasi	Yordamchi xo'jalik

O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

- Qishloq xo'jaligini kreditlash turlarini aytib bering.
- Budjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan kreditlash shartlarini keltiring.
- Kontraktatsiya summasini aniqlash va kontraktatsiya shartnomasini tuzish shartlari.
- Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sug'urta qilish tartibi.
- Chorvachilikni kreditlash va uning xususiyatlari.
- Qishloq xo'jaligini mikrokreditlash masalalari.

XVI BOB. TIJORAT BANKLARINING FAKTORING OPERATSIYALARI

1-§. Faktoring operatsiyalari mohiyati, maqsadi va belgilari


Faktoringning asosiy maqsadi — o‘z mijozlarining debitor qarzdorligini inkassatsiya qilish va ularga tegishli bo‘lgan to‘lovlarni ular hisobiga undirib berishdan iborat.

Faktoring savdo vositachilarning, keyinchalik esa savdo banklarining operatsiyasi sifatida XVI-XVII asrlarda vujudga kelgan. Faktoring operatsiyalari tovarlarni kreditga sotish, ya‘ni ular uchun to‘lovlarni ma‘lum kelishilgan muddatdan, keyin kechiktirib to‘lanishiga asoslangan tijorat krediti asosida vujudga kelgan. Ingliz tilidan “factor” so‘zi «makler, vositachi» degan ma‘noni anglatadi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, faktoring, shubhasiz, vositachilik bilan bog‘liq operatsiya hisoblanadi. Faktoringni vositachilik faoliyatining turi deb qarashning asosi shundaki, bunda faktoring kompaniyasi ma‘lum to‘lovlar evaziga mol yetkazib beruvchi korxonaga tovarlarni sotish yoki xizmatlarni ko‘rsatish orqali, unga tegishli bo‘lgan pul mablag‘larini mol sotib oluvchilardan undirib olish (debitor qarzdorlikni inkassatsiya qilish) huquqini oladi. Shu sabab faktoringga aylanma kapitalni kreditlashning bir turi sifatida ham qarash mumkin. Faktoring asosan kichik va o‘rta korxonalarning faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noto‘lovlarning oldini olish maqsadida qo‘llaniladi. Bunday operatsiyalar banklar, maxsus faktoring kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqacha qilib aytganda, faktoringda bank yoki faktoring kompaniyasi ma‘lum haq evaziga o‘z mijozining boshqa mijozga bo‘lgan yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar, xizmatlar uchun haq to‘lash majburiyatlari (qarzi)ni sotib oladi va zudlik bilan, eng uzog‘i 2-3 kun davomida talabning 60-85 foizini avans taraqasida o‘z mijozni, ya‘ni mol yetkazib beruvchi (xizmat ko‘rsatuvchi)ga to‘lab beradi. To‘lovning qolgan 30-10 foizini kelgusida shartnomaga asosan faktoring xizmatini ko‘rsatayotgan tashkilot (bank) xaridordan ushbu qarzlarni undirib olgandan keyin mijozga to‘lab beriladi va bank (faktor)ga tegishli bo‘lgan komissiya va foizlar ushlab qolinadi. Jahon amaliyotida faktoring deganda, tovarlar va xizmatlar uchun hisob-kitoblarni amalga

oshirish jarayonida bank (faktor) tomonidan mijozga ko'rsatiladigan bir qator boshqa komission-vositachilik xizmatlar ham tushuniladi. Faktoring operatsiyasini amalga oshirishda odatda uch subyekt qatnashadi. Bular:

- faktor-vositachi (tijorat banki yoki faktoring kompaniyasi);
- mol yetkazib beruvchi;
- mol sotib oluvchi.



24-rasm. Faktoring operatsiyasini o'tkazish jarayonlari

1 - bank (faktor) va mol yetkazib beruvchi o'rtasida faktoring xizmati bo'yicha shartnoma tuzish.

2 - mol yetkazib beruvchi (MYB) tomonidan mol sotib oluvchiga tovar jo'natish, xizmatlar ko'rsatish.

3 - MSO tomonidan yetkazib berilgan tovar va xizmatlarning hujjatlarni bank (faktor)ga berish yoki faktor tomonidan ularni (debitor qarzdorlik) sotib olish.

4 - bank (faktor) tomonidan MYBga tovar yoki xizmatlar haqini (60-85 foiz) to'lab berish.

5 - MYB va MSO o'rtasida tuzilgan shartnoma bo'yicha tovar va xizmatlarga to'lash muddati yetib kelganda, bank to'lovni MSOdan undirib oladi.

6 - bank (faktor) tomonidan komissiya to'lovlarini ushlab qolgan holda to'lovning qolgan qismi (15-40 foizi)ni MSOga o'tkazib berish.

Faktoring operatsiyasini amalga oshirganlik uchun komissiya to'lovi ikki asosiy omilga bog'liq bo'ladi:

birinchidan, MYBning faktoring operatsiyasiga jalb qilingan pul mablag'larining oboroti va summasiga;

ikkinchidan, faktoring uchun jalb qilingan kredit resurslarining miqdori va foiz stavkasiga bog'liq. Odatda, faktoring bo'yicha komissiya to'lovi bank (faktor) tomonidan mijozga to'lab berilgan pul mablag'lariga kunlik foiz stavka o'rnatish va uni undirish orqali amalga oshiriladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida ko'pgina mamlakatlarning iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan noto'lovlar faktoring operatsiyalarining ahamiyati va dolzarbligini yanada oshirdi.

Faktoring operatsiyasi pul mablag'larini undirish bo'yicha majburiyatni va to'lamaslik riskini o'zida ifodalaganligi bois, u riskli operatsiyalar qatoriga kiradi. U risk bilan bog'liq bo'lsada, lekin yuqori foydali bank biznesi, moliya marketingining samarali vositasi, iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy jarayonlarga mos bo'lgan bank operatsiyalarining integratsiyalashgan shakllaridan biri xisoblanadi. Faktoring operatsiyalari xalqaro iqtisodiy munosabatlarida ham qo'llanilib, uni xalqaro kreditning shakli sifatida qarash mumkin. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda eksporyorning importyorlarga bo'lgan pul talablari maxsus faktoring kompaniya tomonidan sotib olinadi (inkassatsiya qilinadi).

XX asrning 50-yillaridan boshlab, amerika banklari tomonidan to'lovlarning to'xtab qolishi, to'lay olmaslik, shuningdek, eksporyorlarning kreditlarga bo'lgan ehtiyojining o'sishi faktoring operatsiyalarining rivojlanishiga sabab bo'ldi.

1988-yilda xususiy xuquqni unifikatsiyalash Xalqaro instituti tomonidan qabul qilingan xalqaro faktoring to'g'risidagi konventsiyaga asosan quyidagi 4 ta belgidan kamida 2 tasini qondirgan operatsiya faktoring hisoblanishi mumkin. Bular quyidagilar:

1. Qarz majburiyatlarini oldindan to'lab berish shaklida kreditlashjarayonining yuzaga kelishi.

2. Mol yetkazib beruvchining buxgalteriya hisobi, ayniqsa, sotuv hisobining tizimli yo'lga qo'yilganligi va yuritilishi.

3. Mol yetkazib beruvchi qarzning inkassatsiya qilinganligi.

4. Mol yetkazib beruvchini kredit riskidan sug'urta qilish.

O'zbekiston Respublikasida faktoring operatsiyalari XX asrning 90-yillaridan boshlab tijorat banklari amaliyotida qo'llanilib kelinmoqda. "Banklar va bank faolimyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 4- moddasiga binoan uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarning bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish, uchinchi shaxslardan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish

huquqini olish va boshqalar banklar tomonidan faktoring operatsiyalarni amalga oshirishga huquqiy asos yaratib berildi.

Faktoring quyidagi funksiyalarni bajaradi.

1. Subyektning qarz majburiyatlarini kreditlash orqali uning joriy faoliyatini moliyalashtirish, faoliyatini qo'llab-quvvatlash, manfaatlarini himoya qilish.


2. MSOdan pul mablag'larini undirish.

3. MYBga berilgan kredit berish ustidan monitoring yuritish.

4. Kredit riskining oldini olish v.b.

2-§. Faktoringning turlari

Qadimda, aynan o'rta asrlarda savdogarlar guruhi ishlab chiqaruvchilar uchun noma'lum bozorlarda tovarlarni sotish bo'yicha vositachi sifatida ishtirok etgan va shu asnoda tovarli faktoringga asos solingan.



25-rasm. Faktoring va uning turlari

Xalqaro amaliyotda faktoringning quyidagi turlari mavjud:

- ochiq va yopiq faktoring;

- regress huquqi bilan (recourse factoring) va regress huquqsiz (non recourse factoring);

- moliyalashtiriladigan va moliyalashtirilmaydigan;
- ichki (domestic factoring) va xalqaro faktoring (international factoring) va boshqalar.

Bank ishi rivojlanishning ilk davrlarida faktoringning 2 ko‘rinishi shakllangan. Bular **ochiq yoki konventsion (disclosed factoring) va yopiq, cheklangan (undisclosed factoring) faktoring**lardir. Tarixan, birinchi marta ochiq faktoring vujudga kelgan.

Zamonaviy sharoitlarda ochiq faktoring mijozlarga moliyaviy xizmat ko‘rsatishning mukammal shakli hisoblanadi. **Ochiq faktoringda** debitor, ya‘ni MYB (tovar hujjatlarida ko‘rsatish orqali) to‘lovni amalga oshirishda bank-faktor qatnashishi to‘g‘risida MSOni ogohlantiradi va tovar pulini undirishga oid barcha hujjatlar (debitor qarz hujjatlari) bankka ishlab berish uchun topshiradi. **Yopiq faktoringda** hisob-kitoblarda bank ishtirok etishi, debitorning bank bilan faktoring xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida shartnomasi mavjudligi, mol yetkazib beruvchining to‘lov hujjatlari faktoring kompaniyasiga o‘tkazilishi to‘g‘risida MSOga xabar berilmaydi. MSO olgan tovar va xizmatlar uchun to‘lovlarni MYBning hisob varag‘iga amalga oshiraveradi. MYB esa jo‘natilgan tovar va xizmatlari uchun kelib tushgan to‘lovlarni bank yoki faktor hisobiga olgan kreditini to‘lash uchun o‘tkazib boradi. Faktoringning bu turi bank uchun xatarli hisoblanadi. Chunki mol sotib oluvchining ma‘lum sabablar bilan to‘lovni o‘z vaqtida amalga oshirmasligi bilan bog‘liq risk bankning zimmasiga tushadi. Yopiq faktoringning risklilik darajasi yuqori bo‘lganligi uchun uning narxi ochiq faktoringga nisbatan yuqori bo‘ladi.

Regress huquqi bilan faktoring (recourse factoring)da bank yoki faktoring kompaniya o‘z mijozining debitor qarzini regress huquqi bilan sotib olish bo‘yicha shartnoma tuzadi. Buning mohiyati shundaki, agar bank (faktor) mol sotib oluvchidan tovar hujjatlari bo‘yicha to‘lovni undira olmasa, u mol yetkazib beruvchiga bank to‘lab bergan mablag‘ (qarz)ni qaytarib bankka to‘lash to‘g‘risida talabnoma qo‘yishi to‘g‘risida kelishib oladi. Faktoringning bu turi bank riskini kamaytirishi bilan bir qatorda mol yetkazib beruvchi faoliyatida yuzaga keluvchi kredit riskni oshiradi. **Regress huquqsiz faktoring (non recourse factoring)**da bunday imkoniyat bo‘lmaydi. Faktoringning bu turida mol sotib oluvchi mol yetkazib beruvchining talablari bo‘yicha to‘lamagan taqdirda ham barcha xarajatlarni bank qoplab berishi lozim bo‘ladi. Shu sabab faktoringning bu turi xalqaro amaliyotda juda kam hollarda, qachonki, mol sotib oluvchining moliyaviy holati barqaror, to‘lovga

layoqatlilik darajasi yuqori, to'lamaslik riski minimal bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Shuning uchun faktoringning bu turi ishlab chiqarish korxonalarini mol sotib oluvchi tomonidan to'lamaslik riskidan himoya qiladi, ammo bank riskini oshirishi mumkin.

Moliyalashtiriladigan faktoringda mijoz, ya'ni MYB MSOdan muddati kelganda, olish lozim bo'lgan to'lovlarni undirish huquqini bank (faktor)ga beradi. Faktoringning moliyalashtiriladigan turida faktoring kompaniyasi oldindan to'lash sharti bilan yuklab jo'natilgan tovarlar, ba'zi hollarda hali jo'natilmagan tovarlar bo'yicha tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida MYBning tovar hujjatlari qiymatining 60–70 foizini tezlik bilan to'lash sharti asosida mijozdan tovar hujjatlari (schyot-fakturalar)ni sotib oladi. Ayrim hollarda MYB yuborgan tovarlari yoki ko'rsatgan xizmatlari qiymatining 80–90 %ini bankdan oladi, ya'ni bank o'z mijozining tovar va xizmatlar bo'yicha debitor qarzini to'lab berish yo'li bilan uning faoliyatini yuritishga kredit beradi. Jo'natilgan tovar yoki xizmatlar qiymatining 10–20 %i mijozga MSOdan mablag' undirilgandan keyin, komission to'lovlar va foizlarni chegirgan holda to'lab berilishi mumkin. Xalqaro amaliyotda bunday operatsiya uchun faktor – vositachi, odatda, shartnoma summasidan 0,75 %dan 3 %gacha komission to'lov va MYB bergan krediti uchun foiz stavkasini undirib oladi. Kredit MYB tovar hujjatlarini bankka bergan kundan to bank tomonidan MSOdan pul mablag'larini undirib olgungacha bo'lgan muddatga beriladi va xalqaro amaliyotda bu kreditning foiz stavkasi hisob stavkasidan 1–2 punktga yuqori bo'lishi mumkin.

Moliyalashtirilmaydigan faktoring bank-faktor tomonidan MYBning debitor qarzdorligini inkassatsiya qilishdan iborat. Faktoringning bu turida MYB jo'natilgan tovarlarning hujjatlarini bank-faktor orqali MSOga yetkazadi. Bank o'z navbati MYB va MSO o'rtasida tuzilgan, xo'jalik shartnomasida ko'rsatilgan muddatlarda va summada MSOdan mablag'ni MYB hisobiga undirish vazifasini bajaradi. Bunda bank MYBga undan sotib olgan tovar hujjatlarini ma'lum bir sanalarda to'lab berish bo'yicha majburiyat olishi mumkin.

Agar mol yetkazib beruvchi va mol sotib oluvchi, shuningdek, faktoring kompaniyasi bir mamlakat hududida joylashgan bo'lsa, bunday faktoring **ichki faktoring (domestic factoring)** deyiladi. Eksporyor va importyor va bank yoki faktor turli mamlakatlarda bo'lib, mamlakatlararo faktoring munosabatlari yuzaga kelsa, bu **xalqaro faktoring (international factoring)** hisoblanadi. Faktoringning bu

turida eksportyor bank yoki faktoring kompaniya bilan global tsessiya shartnomasini tuzadi va eksportyorning barcha yoki ba'zi importyorlaridan uning to'lovlarini undirish huquqini faktorga o'tkazadi.

Faktoringning u yoki bu turini qo'llash mol sotib oluvchining pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyoji va banklarda bank resurslarining yetarliligiga, faktoring operatsiyaning risk darajasiga bog'liq. Shu va boshqa sabablardan kelib chiqib faktoringning qiymati, u bo'yicha komission va foiz to'lovlarining miqdori past yoki yuqori bo'lishi mumkin.

3-§. Faktoring xizmati bo'yicha shartnoma va uning tarkibi

Dunyo amaliyotida faktoring xizmatlarining narxi 2 elementga bog'liq:

1) Xizmat ko'rsatish uchun haq – komission to'lov. U o'rtacha schyot-faktura narxining 0,5–3,0 %ini tashkil qiladi, ammo ba'zi hollarda bu to'lov 5 %gacha ham boradi.

2) Berilgan kredit mablag'lari uchun haq – bankning kredit bo'yicha foiz stavkasi. Uning miqdori mijoz tovar hujjatlarini bankka taqdim qilib, pul mablag'larini bankdan olgan kundan boshlab to mol sotib oluvchidan pul kelib tushishigacha bo'lgan vaqt ichidagi mijozning kundalik debet saldosi miqdoriga qarab belgilanadi. Ushbu davr mijozning bank kreditidan foydalangan davri – kreditning muddati hisoblanadi.

Faktoring xizmati mijoziga shartnoma asosida ko'rsatiladi. Shartnomada, albatta, bankning mol yetkazib beruvchiga regress huquqi borligi yoki yo'qligi ko'rsatiladi.

Regress huquqiga ega bo'lgan shartnomada bank mol yetkazib beruvchiga bergan uning hujjatlarini to'lab berish bo'yicha majburiyati va to'langan mablag'larini qaytib olish huquqiga ega va, aksincha, regress huquqiga ega bo'lmagan shartnomada bank to'lanmaslik riskini o'z zimmasiga oladi.

Jahon amaliyotida faktoring operatsiyalari bo'yicha chegaraviy summalarni belgilashning uch xil usuli mavjud:

1) Kreditlash limitini ajratish. Faktoring xizmati shartnomasida xizmatlarni ko'rsatishning limit chegarasi belgilanadi. Agar MYB tomonidan to'lanadigan summa belgilangan limitdan oshib ketsa, bank mol yetkazib beruvchiga barcha qo'shimcha mablag'larni qaytarib berish huquqiga ega. Mol yetkazib beruvchi to'lovga qobiliyatsiz bo'lsa,

u holda mol yetkazib beruvchining hisob varag'iga kelib tushadigan mablag'lar uning qarzdorlik summasi undirilgunga qadar bank hisobiga o'tkaziladi.

2) Har oylik yuk jo'natish limitini jo'natish. Mol yetkazib beruvchi mijoz qarzining miqdoridan qat'i nazar, shubhali qarzlardan sug'urtalanadi. Limit hafta, oy, choraklarda belgilanishi mumkin.

3) Alohida shartnomalar bo'yicha sug'urta. Bu usul alohida holatlarda, katta summalarda shartnomalar imzolanganda qo'llaniladi. Ba'zi hollarda tomonlar aralashgan usullarni ham qo'llashlari mumkin.

Faktoring xizmati to'g'risida bank mol yetkazib beruvchi bilan shartnoma imzolashdan oldin mol yetkazib beruvchi o'z bankiga mol sotib oluvchining rekvizitlarini – to'lovchining nomi va manzili, u bilan tuzilgan shartnoma shartlari, barcha qarzdorlik to'lovlari summasi va boshqa tur ma'lumotlarni taqdim etadi. Barcha ma'lumotlarni o'rganib chiqib bank kelishuv shartlari to'g'risida qaror qabul qiladi. Faktoring xizmatlari to'g'risidagi shartnoma yoki kelishuv, odatda, 1–4 yilga tuziladi. Ochiq faktoringda shartnoma yoki kelishuv to'liq xizmat amalga oshirilishiga, yopiq faktoringda esa faqat hisob-kitob hujjatlari hisobini (diskontlashga) yuritishga tuziladi.

To'liq xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma yoki kelishuv regress huquqi bilan tuziladi (ma'lum vaqtga, asosan, to'lov muddatidan so'ng 90 kun), alohida holatlarda esa mol yetkazib beruvchi bankning ishonchini qozongan bo'lsa, regress huquqi bo'lmasligi ham mumkin. Davlatlararo savdo-sotiq qiladigan korxonalariga xizmat ko'rsatishda eksport va import faktoringidan ham foydalaniladi.

Faktoring kelishuvida faktoring turidan tashqari, shuningdek, quyidagilar ko'rsatiladi:

- sotib oluvchilar, taqdim etiladigan majburiyatlar;
- taqdim etiladigan majburiyatlarning limit (nazorat) summasi;
- avans miqdori;
- ushlab qolishlar;
- majburiyatlarni to'lash muddatlari;
- faktoring operatsiyalarini bajargani uchun to'lov miqdori;
- yetkazib beruvchi tomonidan olinadigan qo'shimcha xizmatlar;
- faktoring operatsiyalari bo'yicha chegaraviy summa;
- regress huquqi;
- mol sotib oluvchi tomonidan to'lovni amalga oshirishning oxirgi muddati;

• to'lovchi to'lovni to'g'ri o'z vaqtida amalga oshirmaganda ko'riladigan choralar;

- shartnoma shartlarini buzganliklari uchun tomonlar javobgarligi;
- faktoring bo'limiga operatsiyalar bo'yicha shikoyat muddatlari;
- kelishuvning amal qilish muddati;
- kelishuvning bekor qilinish shartlari va boshqalar.

Faktoring shartnoma yoki kelishuvda bank va mijoz huquq va majburiyatlari ko'rsatib o'tiladi.

Bank majburiyatlari:

- unga taqdim etilgan qarzdorlik majburiyatlarini o'z vaqtida to'lash;

- mijozga hisob-kitoblarning xolati to'g'risida yoki yuzaga kelgan ma'lum to'lovchilar bilan qiyinchiliklar to'g'risidagi axborot taqdim etishi ko'rsatiladi.

Mijoz majburiyatlari:

* bankka barcha yetkazib bergan tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar haqidagi hujjatlarni, shuningdek, mol yetkazib beruvchi tovar va xizmatlarni aktseptlagani to'g'risidagi hujjatlarni, shartnoma shartlari hamda tovar miqdori va sifati to'g'risidagi hujjatlarni;

* tovar va xizmatlarni sotib oluvchilari bilan mavjud bo'lgan kelishmovchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishi;

* bankka nomaqbul o'zgarishlar to'g'risida o'z vaqtida ma'lumot berishi, ular bankning faktoring operatsiyalariga ta'sir etish doirasini belgilashi;

* arbitrajda ishlarni ko'rib chiqishda bank bilan birga ishtirok etishi lozim.

Faktoring operatsiyalari bank balansida aks ettirilib, debet tomonida bank yetkazib beruvchiga to'lagan summa, kredit tomonida esa mol yetkazib beruvchi bankka to'lagan summa aks ettiriladi.

Har yili bankning faktoring bo'limi ishlarni amalga oshirish bo'yicha keyingi moliyaviy yil uchun reja tuzadi. Unda keyingi yil uchun taxmin qilinayotgan faktoring operatsiyalar hajmi, rejalashtirilgan miqdorlar, kreditlarni taqdim etish va ularni to'lash shartlari, faktoring operatsiyalarini ko'paytirish uchun foydadan o'tkazmalar miqdori va boshqalarni rejalashtiradi.

Faktoring bo'limlari bosh bankda hamda bank filiallarida tashkil qilinishi mumkin. Uning faoliyati bank ma'muriyati tomonidan kuzatilib boriladi.

Faktoring mol yetkazib beruvchi uchun foydalidir. Birinchidan, u umumiy summaning asosiy qismini shu vaqtda oladi va o'zining xamkorlari, mol yetkazib beruvchilari, xodimlari bilan hisob-kitoblarni tezkor amalga oshiradi, uning mablag'i tejaladi, xarajatlari kamayadi. Ikkinchidan, bank to'lanmagan majburiyatlarni o'zi zimmasiga olishi bilan birga mol yetkazib beruvchining to'lamaslik riskini ham o'z zimmasiga oladi. Uchinchidan, mol yetkazib beruvchi kredit riskidan himoyalanaadi. U o'z faoliyati bo'yicha aniq muddatlarni belgilab, o'z rejalarini amalga oshirishi mumkin. To'rtinchidan, bank mijozga to'liq summani to'laguncha boshqa xil xizmatlarni ham ko'rsatadi: mijoz bank xizmatlari bo'yicha turli axborot, audit, sug'urta, statistika ma'lumotlar va boshqalardan xabardor bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Faktoring xizmatlari kichik biznes korxonlari faoliyatini olib borishda qulay keladi, chunki ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyati bo'la turib, ular mol sotib oluvchilardan mablag'larni o'z vaqtida ola olmasligi oqibatida moliyaviy qiyinchiliklarga uchraydilar. Faktoring esa mana shunday moliyaviy qiyinchiliklarni bartaraf qilishga zamin yaratadi.

Ammo barcha mol yetkazib beruvchilar ham faktoring operatsiyalari subyekti bo'la olmaydilar.

Debitorlari juda ko'p bo'lgan subyektlar, kreditga va to'lovga qobiliyatsiz deb topilganda, jismoniy shaxslardan va bankning boshqa moliyaviy talablariga javob beraolmaydigan subyektlar faktoring operatsiyalarini o'tkaza olmaydilar.

4-§. Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari va ularning o'tkazilish tartibi

Respublika tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalari «O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini olib borish tartibi» to'g'risidagi nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

Banklar tomonidan faktoring xizmatini ko'rsatishda sotib olingan majburiyatlarning to'lovini ta'minlash muddati 90 kundan oshmasligi va mol yetkazib beruvchi va to'lovchi 2-kartotekaga ega bo'lmasligi kabi shartlari qo'yiladi. Ushbu muddatda to'lovi amalga oshirilmagan majburiyatlarni qonunchilikda belgilangan tartibda undirib olish choralari ko'rilishi shart.

Faktoring operatsiyalari quyidagilar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin emas:

- byudjet tashkilotiga qo'yilgan talabnomalar;
- jismoniy shaxslarning qarz majburiyatlari bo'yicha;
- to'lovga layoqatsiz deb e'lon qilingan korxonalarining majburiyatlari;
- zarar ko'rib ishlaydigan korxonalar bo'yicha;
- nolikvid balansga ega bo'lgan korxonalar bo'yicha;
- kapital qo'yilmalarni moliyalash bo'yicha;
- tovar to'lovi va barter bitimlari bo'yicha;
- bajarilgan ishga bosqichma bosqich yoki tugashi bilan haq to'lanadigan bo'lsa;
- agar oldi-sotdi to'g'risidagi shartnomada to'lovchi shartda kelishilgan muddatda mahsulotni qaytarish huquqiga ega bo'lsa, shuningdek sotuvdan keyin xizmat ko'rsatish mavjud bo'sa faktoring qo'llanilmaydi.

Faktoring operatsiyalariga doir mablag'larni yetkazib beruvchining hisob raqamiga o'tkazilishi ikki nusxada memorial order bilan rasmiylashtiriladi, ulardan bittasi shu operatsiya amalga oshirilgan kunga tegishli kunlik hujjatlarga tikiladi, ikkinchi nusxasi esa mijozning hisob raqamdan ko'chirmasiga ilova qilinadi. Faktoring bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshirilganida to'lov talabnomasining yuqori qismida faktoring degan yozuv yoki muhr va oluvchi hisobraqamida faktoring hisob raqami ko'rsatilishi shart.

Aslida faktoring yuqori daromad keltiruvchi operatsiya bo'lishi bilan bir qatorda, o'ziga yarasha riskli operatsiya hisoblanadi. Bank shartnoma shartlariga muvofiq operatsiyalarni amalga oshirishi, yetkazib beruvchi va to'lovchi bilan amalga oshirilgan operatsiyalarning batafsil hisobini yuritishi, yetkazib beruvchini shaxsiy hisob varag'i holati to'lovchi tomonidan to'lov talabnomalari to'lanishi va qarzni qaytarilish holati to'g'risida muntazam ravishda hisobot tayyorlashi va muddati o'tkazib yuborilgan to'lov talabnomalarning tahlilini amalga oshirishi shart.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi paytda to'lov muddatlariga rioya qilish, hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning debitor va kreditor qarzdorliklarini imkon boricha kamaytirishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Bank faktorlar faoliyati, aynan tovar yetkazib beruvchilar va xaridorlar o'rtasidagi munosabatlarda to'lovlar xatari va muddatlilik

muammosini hal qilish, ushbu munosabatlarning barqaror bo'lishiga ko'maklashishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida banklar faktoring operatsiyalarini XX asrning 90-yillar o'rtalaridan amalga oshira boshladilar. Fuqarolik Kodeksining 42-bobi pul talabnomasi ostida mablag' bilan ta'minlash, Markaziy bankning yo'riqnomalaridan kelib chiqib banklar faoliyatida faktoring operatsiyalari qo'llash imkoniyatlari kengaya boshladi.

Markaziy bank tomonidan faktoring operatsiyalarini amalga oshirish uchun ro'yxat mol yetkazib beruvchining asosiy hisob raqami ochilgan bankdagina berilishiga ruxsat etilgan.

Factoring uchun bankning o'z mablag'lari manba bo'ladi, ya'ni banklar faktoring xizmatini o'z sarmoyasi hisobiga amalga oshiradi, faktoring muddati 90 kun qilib belgilangan va faktoring operatsiyalarning samaradorligini oshirish uchun ushbu operatsiya regress huquqsiz amalga oshirilishi, ya'ni bank mol yetkazib beruvchi hisobvarag'idan faktoring shartnomasi bo'yicha o'tkaziladigan summani qaytarib olishga haqli emas. Bu shart hozirgi kunda faktoring amaliyoti va uning samaradorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu operatsiya orqali nafaqat mol yetkazib beruvchi, balki mol sotib oluvchi ham ijobiy imkoniyatlarga bo'ladi. Bular:

- sifatsiz tovarni sotib olish riskini bartaraf etadi;
- mablag'lar aylanishini tezlashtiradi, raqobatbardoshligini yaxshilaydi;

- xarid hajmini ko'paytiradi.

Bundan tashqari faktoringning iqtisodiy afzalliklari:

- * likvidlilik va rentabelligini oshiradi va foydasini ko'paytiradi;
- * debitor qarzdorlik tezda pul mablag'iga aylanadi;
- * debitorlar tomonidan to'lovlar muddatlariga rioya qilishidan

mustaqil bo'ladi;

- * oborot hajmi kengayadi va daromadlilik oshadi;

- * o'z kapitalini iqtisodiy va moliyaviy rejalashtirish imkoniyati

kengayadi;

- * to'lay olmasligi riskini kamaytiradi.

Shu bilan birga faktoring maxsus jarayon bo'lib, bu sohada yuzaga keladigan risklarni boshqarishni talab qiladi.

Umuman, faktoring pul mablag'lari va sarmoyalar aylanishini tezlashtirish, qarzni undirib olish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish, banklar o'rtasida munosabatlarni osonlashtirishga yordam berib, pulning

hisob-kitob tizimini mustahkamlash, mamlakatda debitor va kreditor qarzdorlikni kamaytirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Faktoring	Sotib oluvchi
Debitor	Ochiq faktoring
Kreditor	Yopiq faktoring
Mol yetkazib beruvchi	Regress huquqi

O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

- Faktoring operatsiyalarini amalga oshirish tartibi.
- Kimlarga nisbatan faktoring qo'llash mumkin emas.
- Faktoring shartnomasini tuzish va uning elementlari.
- Faktoring xizmatlarini taqdim etish shartlari.
- Tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini o'tkazish.
- Faktoring operatsiyalarining kamchiliklari.

XVII BOB. TIJORAT BANKLARINING LIZING OPERATSIYALARI

1-§. Lizing operatsiyalari va uning asosiy elementlari

Tijorat banklari mijozlarga ma'lum komission to'lov, haq evaziga turli xizmatlar ko'rsatish orqali o'z daromadlarini oshirish imkoniyatiga ega. Shu bois bank xizmatlarining turi va hajmining oshishi bank foydasini oshirishning manbasi hisoblanadi. Bank xizmatlarining shunday turlaridan biri bu lizing bo'yicha xizmatlar hisoblanadi. Tijorat banklarining lizing operatsiyalarida banklar mashina, asbob uskuna, transport va ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi boshqa asosiy vositalarni sotib olishni moliyalashtiradi va lizing shartnomasi asosida ularni uzoq muddatga foydalanishga beradi. Boshqacha qilib aytganda, bank korxonaga yuqoridaga asosiy vositalarni sotib olishga kredit berish o'rniga o'zi ushbu vositalarni sotib oladi va o'zida mulk huquqini saqlab qolgan holda ularni ijarağa beradi. Bu holda bank kredit foizini emas, balki ijara yoki lizing to'lovini oladi.

“Lizing” inglizcha (leasing, ya'ni to lease – ijarağa berish) so'zdan olingan bo'lib, “ijara” yoki “ijarağa bermoq” ma'nosini bildiradi va moliyaviy xizmat – kredit turi hisoblanib, xo'jalik subyektlari va jismoniy shaxslar tomonidan asosiy vositalar, asbob-uskunalar, jihozlar, transport vositalari va boshqa asosiy fondlarni ijarağa berish va sotib olish bo'yicha operatsiyalar hisoblanadi. Lizing - ijaraning kreditga yaqinlashgan o'ziga xos ko'rinishidir. Iqtisodiy mohiyati bo'yicha lizing oddiy ijara tushunchasiga nisbatan keng tushunchadagi kategoriya hisoblanadi.

Aslida lizing bir vaqtning o'zida amalga oshiriladigan 3 operatsiya: ijara, kreditlash va korxonani texnik materiallar bilan ta'minlashning yagona kompleksidir.

Daslabki lizing tarqalishi 1852-yilda AQShdagi «Yunayted staytes lizing korporeyshin» birinchi lizing jamiyati tashkil qilinishi bilan bog'liq. O'zbekistonda lizing munosabatlari O'zbekiston Respublikasining „Lizing to'g'risida”gi qonuni bilan tartibga solinadi.

Mazkur qonunning 2-moddasiga asosan lizing moliyaviy ijaraning alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan

(sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi. Lizing munosabatlarini o'rnatishda lizing shartnomasi quyidagi talablardan biriga javob berishi kerak:

lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing obyektini lizing oluvchining mulki bo'lib o'tsa;

lizing shartnomasining muddati lizing obyektini xizmat muddatining sakson foizidan ortiq bo'lsa yoki lizing obyektining lizing shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati, uning boshlang'ich qiymatining yigirma foizidan kam bo'lsa;

lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing oluvchi lizing obyektini uning bozor qiymatidan past narxda evazini to'lab sotib olish huquqiga ega bo'lsa, bunda ana shu huquqni amalga oshirish kundagi lizing obyektini qiymati asos bo'ladi;

lizing shartnomasi davri uchun lizing to'lovlarining joriy diskontlangan (hisobga olingan) qiymati lizing obyektining lizingga topshirish paytidagi joriy qiymatining to'qson foizidan ortiq bo'lsa.

Lizing uch taraflama (sotuvchi – lizing beruvchi – lizing oluvchi) yoki ikki taraflama (lizing beruvchi – lizing oluvchi) lizing shartnomasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan, iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan, korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk **lizing obyektlari** bo'lishi mumkin.

Lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi **lizing subyektlari** hisoblanadi.

Lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchiga kelgusida topshirish maqsadida lizing obyektini mulk qilib oluvchi shaxs **lizing beruvchi** deb e'tirof etiladi.

Egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasi bo'yicha lizing obyektini olayotgan shaxs lizing oluvchi deb e'tirof etiladi.

Lizing beruvchi lizing obyektini kimdan olayotgan bo'lsa, shu shaxs sotuvchi deb e'tirof etiladi.

Lizing faoliyati investitsiya faoliyat turi bo'lib amalga lizing beruvchi o'z mablag'lari va (yoki) jalb etilgan mablag'lar hisobidan lizing obyektini sotib oladi va uni lizing shartnomasi asosida ma'lum shartlar bo'yicha lizing oluvchiga foydalanishga beradi. Lizing uning

uchta subyekti ishtirok etadigan to'g'ridan to'g'ri shaklda ham, lizing oluvchi va sotuvchi bo'lib bir shaxsning o'zi ishtirok etadigan qaytariladigan shaklda ham amalga oshirilishi mumkin. Lizing munosabatlari lizing shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Lizing shartnomasida bank (lizinga beruvchi), ijaraga oluvchi korxonasi (lizinga oluvchi) va asbob-uskunalami yetkazib beruvchi (ishlab chiqaruvchi korxonasi) ishtirok qiladi. Lizing shartnomasi yozma shaklda tuziladi va unda quyidagi muhim shartlar bayon etiladi:

- lizing obyektining miqdori, sifati, ro'yxati, kontrakt qiymati va boshqa ko'rsatkichlari va shartnomaning umumiy pul summasi;

- taraflarning lizing obyektini olish va berish bilan bog'liq majburiyatlari;

- lizing obyektini berish tartibi, shu jumladan, lizing obyektini yetkazib berish, montaj qilish va foydalanishga topshirish tartibi;

- lizing to'lovlarini to'lash shartlari, miqdorlari, muddatlari va tartibi;

- lizing obyektidan foydalanish, unga qarash, uni saqlab turish va ta'mirlash yuzasidan taraflarning majburiyatlari;

- shartnomaning amal qilish muddati;

- sotuvchi va lizing obyektini tanlash uchun mas'ul tarafning ko'rsatilishi;

- lizing obyektini sug'urta qilish;

- fors-major holatlar;

- lizing beruvchi qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishi, bunday xizmatlarsiz lizing obyektidan foydalanib bo'lmasa;

- lizing subyektlari tomonidan lizing shartnomasi shartlariga rioya etilishini nazorat qilish tartibi va boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin.

Lizing beruvchi va sotuvchi o'rtasida ikki taraflama lizing shartnomasi tuzilayotganida, qo'shimcha ravishda, lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Lizing oluvchi, lizingni beruvchi va lizingni sotuvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida bevosita mulk sotuvchiga mulkning sifati, butligi va uni yetkazib berish muddati haqida hamda sotuvchi tomonidan tegishli shartnomani bajarishdagi kamchiliklari uchun talablar qo'yish huquqiga egadir.

Lizing bitimining subyekti shartnomadagi tomonlar bo'lib, ular lizing tizimida bevosita qatnashadilar. Shu bilan birga, ularni bevosita va bilvosita qatnashuvchilarga ajratish mumkin.

Lizing bitimida bevosita qatnashuvchilar:

lizing firmalar va kompaniya (lizingga beruvchi va ijaraga beruvchi);

ishlab chiqarish (sanoat va qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq va transport korxonolari va aholi ijaraga oluvchi yoki lizingga oluvchilar);

Bitimdagi obyektни yetkazib beruvchilar (ishlab chiqarish, sanoat va tijorat kompaniyasi) kiradi.

Lizing bitimida bilvosita qatnashuvchilar:

- tijorat va investitsiya banklari (lizingga beruvchilarni kreditlash va bitimlarning kafolatlari bo'lib xizmat qiladi);

- sug'urta kompaniyalari;

- broker, vositachilik firmalari bo'lishi mumkin.

Lizing firmalari, kompaniyalari faoliyat harakteriga ko'ra universal va tor ixtisoslashgan bo'lishi mumkin.

Tor ixtisoslashgan kompaniyalar, odatda, bir turdagi tovarlar (yengil avtomashinalar va konteynerlar) yoki standart turdagi tovarlar guruhi (qurilish uskunalari, tekstil korxonolari uchun uskunalari) bilan ishlaydilar.

Universal lizing kompaniyalari har xil turdagi mashina, asbob-uskunalarni ijaraga beradilar.

Lizing firmalari, kam hollarda, mustaqil faoliyat olib boradilar. Ular, ko'p hollarda, lizing kompaniyalari yoki banklar tomonidan boshqariladi.


Banklarning lizing bozorida muhim rol o'ynashining o'ziga xos quyidagi bir qancha sabablari bor:

- * birinchidan: lizing biznesning barcha turlarida juda zarur vosita ekanligi va banklar esa katta pul resurslariga ega bo'lib, xo'jalik subyektlarining lizingga bo'lgan ehtiyojini qondira olishi;

- * ikkinchidan: lizing xizmatlarini o'zining iqtisodiy xarakteriga ko'ra kreditlash jarayoniga o'xshash va unga o'ziga xos muqobil ekanligi bilan izohlanadi. Moliyaviy bozordagi raqobat banklarni bu operatsiyalarni faollik bilan kengaytirishga undaydi. Bu esa banklarni lizing operatsiyalarni amalga oshiruvchi kompaniyalar qatorida faoliyat ko'rsatishga olib keladi. Shu bilan birga, banklar mustaqil lizing kompaniyalariga kredit berish orqali ular faoliyatini nazorat qila oladilar.

Lizing munosabatlarini, yanada aniqroq, quyida ko'rib chiqamiz. Lizing kompaniyasi (lizing beruvchi) xo'jalik subyekti yoki ishlab chiqaruvchi (lizing oluvchi)ning buyurtmasiga asosan o'z mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'lar hisobidan mulk (lizing obyektini) o'z

xususiy mulki sifatida ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)dan xarid qilib oladi. Sotib olingan mulk lizing beruvchi va lizing oluvchi o'rtasida tuzilgan lizing shartnomasiga asosan, lizing oluvchiga keyinchalik sotib olinishi sharti bilan ijaraga beriladi. Lizing oluvchi lizingga olingan mulkdan o'z faoliyatida foydalanib daromad oladi va olingan daromad hisobidan o'rnatilgan grafik bo'yicha lizing beruvchidan qarzini uzib boradi. Lizing shartnomasining muddati tugagach lizing to'lovlari to'liq to'lab berilgan bo'lsa, lizingga olingan mulk lizing oluvchining mulkiga aylanadi. Lizing jarayonlarini quyidagi sxemada ko'rishimiz mumkin.



26-rasm. Lizing amaliyoti va uning bosqichlari

Bu erda:

1. Lizing beruvchi va lizing oluvchi o'rtasida lizing shartnoma tuziladi.

2. Lizing beruvchi va mulkning sotuvchisi o'rtasida lizing obyektini xarid qilish bo'yicha shartnoma tuziladi.

3. Lizing beruvchi tomonidan lizing obyektining to'liq narxi to'lanadi.

4, 5. Mulq lizing beruvchi yoki lizing oluvchiga yetkazib beriladi.

6. Mulikka egalik huquqining sotuvchidan lizing beruvchiga o'tishi.

7. Lizing to'lovlarining to'lanishi.

8. Lizing to'lovlarining barchasi to'langandan keyin mulkka egalik huquqining lizing beruvchidan lizing oluvchiga o'tishi.

Lizing muddati deganda, lizing shartnomasining muddati tushuniladi. Lizing uzoq muddatli ijaraning o'ziga xos shakli bo'lganligi bois lizing shartnomasining muddatini aniqlashda lizing beruvchi va lizing oluvchi quyidagi holatlarni hisobga oladi:

Uskunaning ishlash muddati - bu e uskunaning mexanik-iqtisodiy ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi. Lizing shartnomasi muddati uskunaning, ijara beruvchining shartlarini hisobga olgan holda o'rnatiladi.

Uskunaning amortizatsiya muddati. Bu hukumat organlari tomonidan belgilanadi. Moliyaviy lizingda shartnoma muddati, odatda, amortizatsiya muddati bilan mos keladi.

Inflyatsiya jarayonlarining dinamikasi. Lizingga beruvchi tez o'suvchi inflyatsiya sharoitida o'zgarmas ijara to'lov ostida uzoq muddatga shartnoma tuzishi foydali emas yoki narxlarning tushish tendentsiyasiga ega bo'lgan davrda lizing beruvchi shartnomani uzoq muddatga tuzishga harakat qiladi.

Ssuda-kapital bozorining konyunkturasi va uning rivojlanish tendensiyasi. Lizing kompaniyalari bank kreditlarini keng ko'lamda ishlatadilar. Bank uzoq muddatli kreditlarining foizi lizing shartnomasida o'rnatiladigan foizlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Lizing qiymati. Lizing operatsiyalari qiyin jarayon bo'lib, bu lizing to'lovlarning qiymatini aniqlashni ko'zda tutadi. Qisqa va o'rta muddatli lizingda lizing to'lovlarning summasi ijaraga olinadigan tovarlar bozorining konyunkturasi orqali aniqlanadi.

Uzoq muddatli lizingda lizing to'lovlari shartnoma obyektining qiymati va lizing shartnomasining davom etish muddatiga asoslangan hisob-kitoblar orqali aniqlanadi. Ijara to'lovining tarkibiga quyidagi asosiy elementlar kiradi:

- amortizatsiya;
- shartnomani amalga oshirishda ijaraga beruvchi tomonidan jalb etiladigan resurslar uchun to'lovlar;
- ijaraga beruvchining ko'rsatadigan xizmatlari uchun olgan daromadini o'z ichiga olgan lizing marjasi (1-3%);
- risk miqdori, ya'ni ijaraga beruvchi o'ziga olgan turli xildagi risklarning miqdori.

Lizing kreditning bir turi bo'lishi bilan birga, uning kreditdan qator farqli jihatlari mavjud. Avvalo, lizing va kredit munosabatlari o'zining subyekti va objekti bo'yicha quyidagicha farq qiladi:

1. Kredit munosabatlarining ishtirokchilari – subyektlari kredit beruvchi (kreditor) va kredit oluvchi (qarzdor) ishtirok etsa, lizingda

yuqorida ta'kidlaganimizdek, sotuvchi, lizing beruvchi va lizing oluvchi ishtirok etadi.

2. Kredit munosabatlarining obyekti, asosiy vositasi pul mablag'lari hisoblansa, lizingning obyekti – asosiy vosita, texnika-texnologiyalar va boshqalar hisoblanadi.

3. Obyektga egalik huquqi bo'yicha - kreditga sotib olingan mulkka egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish huquqi kredit oluvchiga tegishli, lizingda esa lizing qiymati to'liq to'lanmaguncha mulk egaligi lizing beruvchi ixtiyorida bo'ladi, bu davrda lizing oluvchi faqatgina ushbu obyektidan foydalanish huquqiga ega.

4. Garov ta'minoti bo'yicha – kredit bo'yicha ta'minotning qiymati bank tomonidan belgilanadi (odatda kredit qiymatining 125%i hisobida), lizingda esa garov ta'minotining qiymatini har bir lizing kompaniyasi mustaqil ravishda o'rnatishi mumkin.

5. Muddati bo'yicha – kredit qisqa va uzoq muddatlarga beriladi, lizing esa asosan uzoq muddatlarga beriladi.

6. Lizing obyekti narxi lizing beruvchi tomonidan to'liq qoplanadi, kredit oluvchi esa kredit munosabatiga kirishishi uchun o'z mablag'lariga ega bo'lishi lozim.

7. Kreditda foizlarning to'lanishi har oyda ma'lum bir belgilangan stavkada amalga oshiriladi. Lizingda har oy yoki har chorakda amalga oshiriladi. Lizing to'lovlari lizing oluvchining daromadiga qarab bir-biridan farq qilishi mumkin.

2-§. Lizingning turlari

Lizingning turli shakllari mavjud. Qo'llanilish ko'lamini, mintaqasi bo'yicha lizing - ichki va xalqaro bo'lishi mumkin. Ichki lizingda lizing beruvchi, lizingni oluvchi va sotuvchi O'zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblanadilar.

Muddati bo'yicha lizinglar quyidagilarga bo'linadi:

uzoq muddatli (3 yilgacha) - haqiqiy lizing;

o'rta muddatli (1,5 yildan 3 yilgacha) – xayring;

qisqa muddatli (1 yilgacha) – renting.

Turi bo'yicha lizing moliyaviy va operativ (tezkor) lizingga bo'linadi.

Lizingda qatnashuvchi tomonlarning ishtirokiga qarab lizingning ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama turlari mavjud. Bu turlar bizning mamlakatimiz amaliyotida ko'p qo'llaniladi.

Ikki tomonlama (to'g'ridan to'g'ri) lizing, bunda mulk sotuvchisining o'zi lizing beruvchi bo'lib, ikkinchi tomondan lizing oluvchi ishtirok etadi



27-rasm. Ikki tomonlama lizing

1. Lizing beruvchi va lizing oluvchi o'rtasida shartoma tuzilishi.
2. Lizing beruvchi tomonidan mulk lizing oluvchiga yetkazib beriladi.

3. Lizing to'lovlarining to'lanishi.

4. Lizing to'lovlari to'lab bo'linganidan keyin mulkka egalik huquqining lizing beruvchidan lizing oluvchiga o'tkazilishi.

Lizingga beriladigan mulkka xizmat ko'rsatish hajmiga ko'ra:

Sof lizing, bunda mulkka xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha xarajatlarni lizing oluvchi o'z zimmasiga oladi. Bu holda uskunalariga xizmat ko'rsatish xarajatlari lizing to'lovlariga kirmaydi.

Xizmatli lizing - bunda barcha mulkka xizmat ko'rsatish (o'rnatish, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash v.b.) ishlarini lizing beruvchi o'z zimmasiga oladi. Lizing oluvchining xohishiga ko'ra lizing beruvchi o'z zimmasiga malakali mutaxassisni tayyorlash, marketing va tayyor mahsulotni reklama qilish, xomashyoni yetkazib berish kabi majburiyatlarni olishi ham mumkin. Ushbu ko'rsatib o'tilgan to'lovlarning barchasi lizing to'lovlariga kiritiladi.

Mulkdan foydalanish muddati va u bilan bog'liq amortizatsiya shartlariga ko'ra quyidagilar farqlanadi:

- xarajati to'liq qoplanadigan lizing (mulk to'liq amortizatsiya qilinadi), bunda shartnoma muddati mulkning normativ xizmat qilish muddatiga teng bo'ladi;

- xarajati noto'liq qoplanadigan lizing (mulk noto'liq amortizatsiya qilinadi), bunda shartnoma muddati mulkning normativ xizmat qilish muddatidan kamroq bo'ladi.


Moliyaviy lizingda lizingga beruvchi lizing oluvchining ko'rsatmasiga binoan ko'rsatilgan mulkni aniq sotuvchidan olib, mulkni unga lizing predmeti sifatida belgilangan to'lov asosida, belgilangan muddatga va belgilangan shartlar asosida vaqtinchalik egalik qilish va foydalanishga berishlilik tushuniladi.

Bunda lizing muddatining davomiyligi lizing predmetining umumiy amortizatsiyasi muddatiga teng yoki undan oshib ketishi mumkin.

Lizing shartnomasining amal qilish muddati tugashi bilan lizing predmeti lizing oluvchining ixtiyoriga o'tadi. Moliyaviy lizing to'g'ri va qaytadigan bo'ladi. To'g'ri lizing lizing oluvchi ega bo'lgan texnik imkoniyatini qayta jihozlashda qo'llaniladi.

Lizing beruvchi bu kelishuv bo'yicha 100% miqdorda olinadigan mulkni moliyalashtiradi.

To'g'ri moliyaviy lizing quyidagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi:



28-rasm. To'g'ri moliyaviy lizingni tashkil qilish bosqichlari

1-lizing kompaniyasi yoki bank, lizing oluvchi va sotuvchi bilan birgalikda uch tomonlama lizing shartnomasini tuzadi.

2-lizing beruvchi sotuvchiga asosiy vositalar qiymatini to'la to'lab beradi.

3-lizing oluvchiga asosiy vositalarini yetkazib berish.

4-lizing oluvchi lizing beruvchiga ijara to'lovlarini to'lab beradi.

Lizing kelishuvining mexanizmi quyidagicha: xo'jalik subyektiga asosiy vosita (belgilangan mulk) zarur. U sotuvchini (ishlab chiqaruvchi zavodni) topadi va lizing firmasiga asosiy vositaning qiymati, texnik ko'rsatkichlari va ishlatish usullari haqidagi ma'lumotni beradi.


Lizing kompaniyasi firma sotuvchiga asosiy vositalarining qiymatini to'lab beradi va uni lizingning oxirgi muddatida sotib olish

huquqi bilan xo'jalik subyektiga ijaraga berish to'g'risidagi shartnoma tuzadi. Bir vaqtning o'zida lizing firmasi sotuvchi bilan asosiy vositalarni sotib olish to'g'risida shartnomani ham tuzadi.

Asosiy vositalar xo'jalik subyektiga bevosita sotuvchi tomonidan kelib tushadi.

Lizing qabul qiluvchi lizing shartnomasiga asosan lizing firmasiga to'lovlarni amalga oshiradi.

Qaytariluvchan lizing ikki tomonlama lizing kelishuvi yoki moliyaviy lizingning bir turi bo'lib, unda lizing predmetini sotuvchi bir vaqtning o'zida lizing qabul qiluvchi sifatida ham namoyon bo'ladi. Qaytariluvchan lizingda, uskunalarga ega bo'lgan, lekin ishlab chiqarish faoliyati uchun yetarli mablag'i bo'lmagan korxonaga o'z mulkini lizing kompaniyasiga sotadi, u esa, o'z navbatida, ushbu uskunalarni shu korxonaning o'ziga lizingga beradi. Mohiyatan qaytariluvchan lizing operatsiyalari deyilganda, lizing qabul qiluvchining qo'shimcha moliyaviy resurslarini o'z asosiy fondlarini garovga qo'yish yo'li bilan jalb qilish tushuniladi. Bunga bir jihatdan kredit operatsiyalarining muqobili sifatida qarash mumkin. Lizing shartnomasiga ko'ra, tegishli muddat o'tgach, korxonaga o'z uskunalarni sotib olib, unga egalik huquqini qaytarib oladi.



29- rasm. Qaytariluvchan lizingni amalga oshirish jarayonlari

1. Lizing obyektini sotib olish haqidagi shartnomaning tuzilishi.
2. Lizing beruvchi va lizing oluvchi o'rtasida lizing shartnomasining tuzilishi.
3. Lizing to'lovlarining to'lanishi.
4. Mulikka egalik huquqining lizing beruvchidan lizing oluvchiga o'tishi (lizing to'lovlari to'liq amalga oshirilgandan keyin).

Agar lizing kompaniyasining lizing obyektini sotib olish uchun mablag'i yetarli bo'lmasa, bu holda tijorat bankini jalb etish orqali lizing oluvchi lizing obyektini sotib olishi mumkin.

Qaytariluvchan lizingning o'ziga xos jihati shundaki, lizing beruvchi lizing oluvchining mulkni olib shu vaqtning o'zida shu mulkni uning o'ziga lizingga beradi. Shunday qilib, korxonalar qaytariluvchan lizingda moliyaviy mablag'larga ega bo'ladi, qaytarish kafolati bo'lib, esa lizing beruvchiga berilgan o'zining shaxsiy mulki hisoblanadi. Bank amaliyotida qaytariluvchan lizingning mohiyati shundaki, bank korxonadan asbob-uskunalar sotib oladi va keyin unga bu asbob-uskunani lizingga beradi. Shunday qilib sotuvchi bir vaqtning o'zida lizing oluvchi hisoblanadi. Operativ lizing esa bu lizingning bir turi bo'lib, unda lizing beruvchi mulkni risk qilib sotib oladi va keyin uni lizing oluvchiga lizing predmeti sifatida belgilangan to'lov, belgilangan muddat va belgilangan shartlar asosida vaqtinchalik egalik qilish va foydalanishga beradi. Lizing muddati shartnoma asosida belgilanadi.

Lizing oluvchi operativ lizingni quyidagi 2 holatda tanlaydi:

lizing obyekti vaqtinchalik kerak bo'lganda, masalan, bir martalik ishlarni bajarishga yoki individual loyihani amalga oshirish uchun;

ijaraga berilayotgan mulk tez ma'naviy eskirishga uchraganda lizing oluvchi operativ lizingning muddati tugaganda, foydalayotgan texnika vositasidan yanada mukammalroq, foydaliroq mulk paydo bo'lganda qo'llashi mumkin.

Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, lizing to'g'ri investitsiyalarga kiradi, chunki lizing oluvchi lizing beruvchiga material va pul shaklida amalga oshirilgan investitsion xarajatlarni (chegirmalarni) va mukofotlarni to'lab berishi kerak. Investitsion xarajatlar va mukofotlar summasi lizing shartnomasining umumiy summasini tashkil etadi. Lizing to'lovlarning hajmi, shakli va davriyligi lizing shartnomasida belgilanadi. Shartnomada lizing to'lovlarni lizing predmeti ishlatilgan vaqtdan boshlab, 180 kundan oshmaydigan muddatga uzaytirilishi ko'zda tutilishi mumkin.

3-§. Lizing qiymati va uni hisoblash usullari

Lizing shartnomasining muhim qismi lizing to'lovlari tartibini o'rnatishi hisoblanadi. To'lovlar lizingga beruvchining xarajatlarini qoplashi va unga foyda keltirishi kerak. Shuning uchun lizing bo'yicha to'lovlar miqdori molk-mulk qiymatiga, ijaraga berilish vaqtiga, lizingning foiz stavkasiga, to'lov miqdori va ularni to'lashning grafigi va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

To'lovlar butun shartnoma muddati davomida bir xil miqdorda yoki inflyatsiya surati hisobiga ko'paytirilgan miqdorda to'lanishi mumkin.

Agar to'lovlar bir xil miqdorda to'lansa, ularni bir martalik miqdori murakkab foizlar formulasi bo'yicha hisoblanadi.

Lizing beruvchiga beriladigan mukofot tarkibiga lizing kelishuvini amalga oshirganlik xizmatlari uchun to'lov va lizing predmetini qo'lga kiritishga yoki qo'shimcha xizmatlarni bajarishga yo'naltirilgan shaxsiy mablag'lari uchun foizlar kiradi.

Lizing to'lovlarini hisoblashning 3 xil usuli bor:

fiksatsiya qilingan to'lov summasi usuli;

avans usuli;

minimal to'lovlar usuli.

Fiksatsiya qilingan to'lov summasi usuli

Agar lizing to'lovlari bir tekis amalga oshirilayotgan bo'lsa, to'lovlar summasi murakkab foiz formulasi asosida aniklanadi.

$$T = K \times R / [1 - 1 / (1 + R)]$$

Bunda:

T – lizing bo'yicha to'lovlar summasi, so'mda;

K – lizingga beriladigan asosiy vositalarning qiymati, so'mda;

R – to'lov vaqtiga foiz stavkasi.

Shuningdek, shartnomada belgilangan t – to'langan to'lovlar soni (birlikda) olinadi.

Misol:

lizingga beriladigan asosiy vositalarning qiymati 100 ming so'm. Lizing muddati – 8 yil. Foiz stavkasi (komission to'lovlarni hisobga olgan holda) – yillik 10%. Lizing bo'yicha to'lovlar bir tekis summada, yiliga 2 marta amalga oshiriladi.

To'lovlarni to'lash soni:

$$t = 8 \times 2 = 16$$

Yarim yilga foiz stavkasi:

$$R = 10 / 2 = 5\% \text{ yoki } 0,05$$

To'lovlar summasi:

$$T = 100 \times 0,05 / [1 - 1 / (1 + 0,05)] = 9,23 \text{ so'm}$$

8 yil ichida lizing oluvchi lizing beruvchiga 147,7 ming so'm to'laydi. (16x9,23).

Avans usuli

Bunda lizingni qabul qiluvchi lizing shartnomasini tuzayotganda lizingni amalga oshiruvchiga avansni to'laydi. Avans summasi ayirilib tashlangandan keyin lizing to'lovlarining qolgan qismlari (birinchi

usulga o'xshagan) lizing shartnomasining amal qilish muddati davomida hisoblanadi va to'lab beriladi.

Minimal to'lovlar usuli.

Bu usul bo'yicha lizing uchun to'lovlar quyidagi formula asosida bajariladi:

$$T=A+K+M+K^1+S$$

T – lizing to'lovlarining umumiy summasi;

A – lizing mulki bo'yicha amortizatsiya chegirmalari;

K – lizingni amalga oshirgan tomonidan kredit resurslarini ishlatganligi uchun to'lovlar, so'mda;

M – lizing shartnomasi bo'yicha lizingni amalga oshiruvchi tomonidan taqdim etilgan mulk uchun komission mukofotlar, so'mda;

K^1 - shartnoma asosida lizingni amalga oshiruvchi tomonidan lizingni qabul qiluvchiga taqdim etiladigan qo'shimcha xizmatlar qiymati.

S – qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), so'mda.

Misol:

lizingga beriladigan jihozning qiymati 400 ming so'm. Lizing muddati – 2 yil, amortizatsiya normasi – 15 %, kredit uchun foiz – 20 % yillik. Shartnoma bo'yicha kelishilgan stavkadagi lizing beruvchining komission mukofotlari – 4% (jihozlarning yillik qiymati bo'yicha) lizing beruvchi tomonidan lizing oluvchiga jihozlarni olib borib berish, montaj ishlari va xodimlarni o'qitish bo'yicha qo'shimcha 10 ming so'mlik xizmat ko'rsatadi. Jihozlarni realizatsiya qilishdan kelgan tushum uchun 20 % QQS stavkasi.

Yillik amortizatsiya chegirmalari summolari

$$A = 15\% \times 400 = 60 \text{ ming so'm.}$$

Lizing beruvchi tomonidan kredit resurslaridan foydalanganligi uchun to'lov quyidagicha hisoblanadi:

Lizingning birinchi yili – yil boshiga jihozlarning qiymati 400 ming so'm va yil oxiriga 340 ming so'm (400-60).

Kredit resurslarining o'rtacha yillik qiymati:

$$(400+340)/2=370 \text{ so'm.}$$

To'lov:

$$K=20\% \times 370=74 \text{ ming so'm.}$$

Lizingning 2 yili. Kredit resurslarining o'rtacha yillik qiymati:

$$(340+(340-60))/2=310 \text{ ming so'm.}$$

To'lov:

$$K=20\% \times 310=62 \text{ ming so'm.}$$

Komission mukofotlarning yillik summasi:

$M=4\% \times 400=16$ ming so'm.

Qo'shimcha xizmatlar uchun yillik to'lov:

$K=10/2=5$ ming so'm.

Lizingning birinchi yili, yillik tushum ($K+M+K$):

$74+16+5=95$ ming so'm.

Lizingning 2 yili. Yillik tushum ($K+M+K$):

$62+16+5=83$ ming so'm.

$QQS=20\% \times 83=16,6$ ming so'm.

Lizing to'lovining summasi (yig'indisi) – lizingning birinchi yili:

$T=60+74+16+5+19=174$ ming so'm.

Lizingning 2 yili:

$T=60+62+16+5+16,6=159,6$ ming so'm.

Lizing shartnomasi intellektual mulkka egalik qilish huquqini qo'lga kiritish (nou-xau, litsenzion huquq, tovar belgisi, markasi huquqi v.b.), montaj ishlarini amalga oshirishni, kafolat bergandan keyingi xizmat va ta'mirlash ishlarini va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Lizing shartnomasi qatnashchilari kelishuv asosida lizing predmeti bo'yicha tezlashtirilgan amortizatsiyani hisoblashni qo'llashlari mumkin. Bunda bir tekisda amortizatsiyani hisoblash usuli bo'yicha amortizatsion chegirmalar normasi 3 dan katta bo'lmagan tezlashtirilgan koefitsiyentga ko'payadi.

4-§. Lizing operatsiyalari bilan bog'liq risklari va ularni boshqarishning ahamiyati

Lizing operatsiyalari boshqa bank operatsiyalari kabi riskli operatsiya hisoblanadi. Lizing risklari turlari bo'yicha ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin.

Marketing riski – jami jihozlarga lizingga oluvchi topa olmaslik riski. U asosan operativ lizingga xos risk hisoblanadi. Bu riskning oldini olishda sug'urtalash usuli qo'llash, shartnoma uchun ommabop jihozlar va boshqa texnika turini ishlatish, lizing shartnomasining muddati tugagandan so'ng obyektning bozor konyunkturasini hisobga olgan holda mavjud obyektlarni sotish choralarini ko'rish lozim.

Baho riski - foydani yo'qotilish riski. Bu risk lizing shartnomasi muddatida lizing obyektining bahosi o'zgarishi, uning arzonlashuvi natijasida yuzaga keladi. Bunda lizing bo'yicha riskning minimal darajasi har bir lizing to'lovini amalga oshirishda (o'zgaraydigan) belgilangan summada o'rnatish, lizing to'lovlarining summasini shartnoma tuzila-

yotgan paytda bitim obykti qiymatining bozor qiymatidan kelib chiqqan holda belgilash orqali riskdan himoyalaniish mumkin.

Likvidlik riski - bunda moliyaviy yo'qotishlar vujudga kelishi mumkin. Bu moliyaviy yo'qotishlar lizingga beruvchining balans passivi bo'yicha majburiyatlarini qoplay olmasligi natijasida kelib chiqadi. Bu risk ssuda kapitali bozoridan jalb etilgan resurslar hisobiga to'lov muddati yetib kelmagan aktiv operatsiyalarni qayta moliyalashga qobiliyati yetmaganda vujudga keladi.

To'lay olmaslik riski - lizing oluvchi tomonidan lizing to'lovlari to'lay olmasligi. Bu riskni kamaytirish uchun ijaraga oluvchining moliyaviy holatini yaxshilab o'rganish, uchinchi shaxsdan kafolat olish, to'lay olmaslik riskini sug'urtalashi lozim.

Valyuta riski - bu valyuta kursining o'zgarishi natijasida pul mablag'larining yo'qotilishi;

Siyosiy va huquqiy risklar - bu o'zaro bog'liqdir. Bular xalqaro lizing operatsiyalarida yaqqol ko'rinadi.

Siyosiy risk - bu mamlakatda siyosiy ahvolning o'zgarishi, ish tashlash, davlat iqtisodiy siyosatining o'zgarishi moliyaviy yo'qotish xavfini keltirib chiqaradi.

Huquqiy risk - bu qonunlar va boshqa huquqiy me'yoriy aktlarning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlar.

Lizing jarayonlari va shartnomasi bilan bog'liq risklarni boshqarish bank va xo'jalik subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirishga zamin yaratadi. Bu borada lizing shartnomasi shartlariga rioya qilish muhim ahamiyatga ega.

Lizingga oluvchi o'zining grafigiga muvofiq, lizing to'lovi majburiyatini va mol-mulkni saqlash va asrab foydalanishni o'z zimmasiga oladi. Agar bu shartlar bajarilmasa, bank tezda lizing shartnomasini bekor qilishi mumkin. Shartnoma shartlariga rioya etmagan holda zarar yuzaga keladigan bo'lsa, lizing oluvchi zararni qoplashi lozim bo'ladi. Bundan tashqari, lizing oluvchi mol-mulkni qaytarishi yoki uni qoldiq qiymatini to'lashga majbur. Agar shartnoma lizing beruvchining aybi bilan bekor qilingan bo'lsa, lizing oluvchi lizing kelishuvida chegaralangan miqdorda jarima olish huquqiga ega. Shunday qilib, lizing uzoq muddatli kreditning alohida shaklidir. Uning lizing oluvchi uchun afzalligi shundaki, birinchidan, lizing to'lovi maqsulot tannarxiga qo'shiladi va soliq solinadigan foyda summasini

kamaytiradi. Ikkinchidan, lizingga berilgan mol-mulk bank balansida hisobga olinadi, lizing oluvchi korxonada balansini likvidligini saqlashga imkon beradi. Uchinchidan, lizing korxonaga asosiy fondlarni olish va ulardan foydalanishni boshlash imkoniyatini yaratadi va bunda oborotdan pul jalb qilinmaydi, lizing uchun to'lov esa lizingga berilgan asbob uskunalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar realizatsiyasidan tushum bo'yicha hisoblanadi. To'rtinchidan, lizing oluvchilar yangi texnika-texnologiyalarga ega bo'ladi, ishlab chiqarish hajmi va samaradorligi oshadi, subyektning moliyaviy ahvoli yaxshilanadi. Beshinchidan, lizing to'lovlari uskunalar o'rnatilib, sozlash ishlari yakunlanib, foydalanishga topshirilgandan keyingina to'lay boshlanadi, bunda lizing oluvchi to'lovni lizingga olingan uskunalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar realizatsiyasidan tushgan mablag'lardan amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayrim hollarda, kelishuvga ko'ra lizing beruvchi lizingga berilgan uskunalar texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash majburiyatini o'z zimmasiga olishi mumkin.

Oltinchidan, lizing oluvchi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sotishni ko'zda tutgan holda, kapital qo'yilmalarni moliyalash bo'yicha o'z xarajatlarini nazoratga olish imkoniyatiga ega bo'ladi, chunki lizing to'lovlari lizing oluvchining imkoniyatlari va xohishlarini e'tiborga olingan maxsus ishlab chiqarilgan jadval bo'yicha amalga oshiriladi.

Yettinchidan, lizing oluvchi lizing muddati davomida lizingga olingan uskunalar uchun mulk solig'ini to'lamaydi va lizing muddati tugagach, uskunalar ham qoldiq qiymati bo'yicha, eskirish miqdorini chegirib tashlagan holda o'z balansiga qabul qiladi.

Sakkizinchidan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, lizing oluvchi to'laydigan lizing to'lovlari qo'shimcha qiymat solig'iga tortilmaydi. Lizing oluvchi daromadining soliqqa tortiladigan bazasini belgilashda yalpi daromaddan lizingga olingan asosiy vositalarning amortizatsiya to'lovlari summasi, lizing bo'yicha foizlar chegirib tashlanadi.

Bank uchun lizing qulay faoliyat hisoblanib, unda nafaqat to'lov ta'minoti kafolatlangan, balki asbob-uskunalar o'zi shu davrdagi joriy operatsiyalar bo'yicha garov bo'lib xizmat qiladi, lizing shartnomasi shartlari bajarilmaganda esa o'ziga qaytarib olishi mumkin bo'ladi. Bu bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni kamaytiradi.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Faktoring	Lizing
Faktor	Lizing obyekt
Ochiq va yopiq (cheklangan) faktoring	Lizing subyekti
Regress huquqi	Lizing qiymati
	Xalqoro lizing

O'z bilimini tekshirish uchun savollar

- Faktoringning mohiyati, zarurligi va turlari.
- Tijorat banki faktoring operatsiyalarining ahamiyati.
- Ichki va xalqaro faktoring nima?
- Faktoring xizmati bo'yicha shartnoma va uning tarkibini tushuntiring.
- Tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini o'tkazish tartibi qaysi bosqichlarni o'z ichiga oladi?
- Tijorat banklarining lizing operatsiyalari va ularning turlarini izohlang.
- Lizingning ijobiy tomonlari, ahamiyatini izohlang.
- Lizing, faktoringning bir-biridan farqi, ijobiy tomonlarini ayting.

XVIII BOB. TIJORAT BANKLARINING YANGI XIZMAT TURLARI

1-§. Bank innovatsiyasining mohiyati va tarkibi.

Bank ishlashining samaradorligi va bozorda uning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan ularning faoliyatida qo'llaniladigan yangi bank mahsuloti va texnologiyalariga bog'liq. Yangi mahsulot va texnologiyalar o'zida innovatsiyani aks ettiradi.

Innovatsiya inglizcha innovation - yangilik kiritish, yangilik, novatorlik so'zining tarjimai «novatsiyaga investitsiya» ma'nosini bildiradi.

Novatsiya (lotincha novation - o'zgarish, yangilash) ilgari bo'lmagan yangilikni kiritishni anglatadi. Fuqarolik huquqiga asosan novatsiya tomonlarning o'rnatgan majburiyatlarini boshqasi bilan almashtirishni bildiradi. Bunday almashtirish natijasi yangilik kiritishdir.

Moliyaviy sferada amal qiluvchi novatsiya moliyaviy novatsiya hisoblanadi. Moliyaviy novatsiyaning bir qismi bank tomonidan bank mahsuloti va operatsiyalari shaklida tashkil qilinadi. Bu bank novatsiyasidir.

Bank mahsuloti deganda, bank xizmatining moddiy rasmiylashtirilgan qismi tushuniladi (kartochka, jamg'arma kitobchasi, yo'l cheki, elektron hamyon va h.k.). Bank mahsuloti buyum shakliga ega bo'lib, u moliyaviy bozorda sotishga mo'ljallanadi.

Bankning yangi mahsuloti birlik (yagona) shaklda yoki ko'plikda bo'lishi mumkin.

Birlikdagi mahsulot - bu individual mahsulot, u boshqa bank mahsulotlaridan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlariga ega. Masalan, ma'lum massadagi aniq qimmatbaho metaldan yasalgan aniq tanga, aniq ko'chmas mulk, aniq emitet bankning obligatsiyasi v.b. Birlikdagi bank mahsuloti o'zining aniq belgilangan xaridorlariga ega. Shuning uchun u aniq xaridorga hisoblanib chiqariladi.

Ko'plikdagi bank mahsuloti individuallikdan keskin farq qilmaydigan mahsulot. U o'ziga xos xususiyatlariga ega emas. Ko'plikdagi bank mahsuloti mahsulot yoki moliyaviy aktiv turi bo'yicha farqlanadi, masalan, bank depoziti, ichki zayomning barcha turlari

bo'yicha davlat obligatsiyalari v.b. Ko'plikdagi moliyaviy mahsulot iste'molchilarning va investorlarning keng qamrovi uchun chiqariladi.

Bank yangi mahsulotining keyingi xususiyati ularning limitlangan yoki limitlanmagan shaklda bo'lishidir.

Limitlangan bank mahsuloti - hajmi yoki miqdori qat'iy chegaralanmagan mahsulot. Bu hajm mahsulot ishlab chiqarayotgan vaqtda o'rnatiladi. Hajmining ko'lami bank ustav kapitali miqdori, iste'molchilar talabi va boshqa shu kabi omillar orqali aniqlanadi. Limitlangan bank mahsulotiga aksiya, obligatsiya, kredit shartnoma turlari va boshqalar kiradi. Bu mahsulot aniq xaridorni hisobga olgan holda chiqariladi.

Limitlanmagan bank mahsuloti hajmi chegaralanmagan mahsulot hisoblanadi. Limitlanmagan bank mahsulotlari – hisob-kitob va kredit plastik kartochkalar, turli bank xizmatlari v.b.

Yangi bank mahsuloti mulk va mulk huquqi shaklida ham bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, bank innovatsiyasi tarkibiga banklarda paydo bo'lgan yangi bank mahsulotlari kiradi.

Hozirgi paytda O'zbekiston bank tizimida ham bank xizmatlarining yangi turini joriy qilish, ya'ni axborot texnologiyalari asosida bank operatsiyalarini o'tkazish, mijozlarga plastik kartochkalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, bank va mijozlarni turli dasturiy ta'minotlar bilan ta'minlash, mijozlarga uyida xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Shaxsiy kompyuterni bank kompyuter tizimiga bog'lash quyidagi operatsiyalarni bajarish uchun imkoniyat yaratadi: joriy kun hisobi bo'yicha balansni olish, qoida va yo'riqnomalar bilan tanishish; tegishli davr mobaynida hisobdagi pul mablag'larining harakati to'g'risida hisobot olish; tovar va xizmatlar uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish; qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish. Yuqorida qayd etganimizdek, hozirgi paytda respublikamiz tijorat banklari «Bank - mijoz» tizimi bo'yicha o'z mijozlariga uylariga va ishxonalariga bank xizmatlarini ko'rsatishni taklif qilmoqda. Mijozlar - tizimdan foydalanuvchilar bankdan disket va parolni oladilar hamda shundan so'ng to'lov topshiriqnomasini to'ldirishlari va elektron imzo chekilgandan so'ng modem bo'yicha bankka yuborishlari mumkin. Bankda hujjatlar qabul qilinadi, tekshiriladi va kamchiliklar topilmasa, mijozning hisobidan pul mablag'lari avtomatik ravishda ko'chiriladi.

«Bank - mijoz» tizimi to'lov hujjatlarini bankka u'zatish, mijozning hisobidan ko'chirmalar olish, mijozlarning hisobiga pul mablag'larining kelib tushishi bo'yicha to'lov hujjatlarining nusxasini olish, bank bilan elektron matnli xabarlar orqali axborot almashinish, axborot tariqasidagi ma'lumotlarni olishimkonini beradi va uzatilayotgan ma'lumotlarning maxfiyligi, saqlanishini va xaqqoniy-ligini ta'minlaydi. Mijozlarga uylarida xizmat ko'rsatish tizimi chakana bank xizmatlarining asosiy shakliga aylanib bormoqda. Bank bo'limlari tomonidan mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlar, kredit va to'lov kartochkalari, bankomatlardan foydalanishga asoslangan xizmatlarni mijozlarga uylarida ko'rsatiladigan bank xizmatlarining yagona tizimini shakllantiradi. Respublikamiz bank tizimida mavjud bo'lgan zamonaviy yangi texnologiyalarga asoslangan bank dasturlari bank va mijozning avtomatlashtirilgan o'zaro aloqasi uchun belgilangan bo'lib, pul mablag'lari operativ boshqarishning o'sishiga va quyidagilarga imkoniyatlar yaratadi:

- mijozning har kuni bankka qat namasligi hisobiga o'z vaqtini va mablag'ini tejashga;

- manzilning uzoq yaqinligiga qaramasdan mijozning bankni o'zi ixtiyoriy ravishda tanlashiga;

- bank mijozlari bo'lgan fuqarolarga ularning uyida, yuridik tashkilotlarga esa ularning idoralarida avtomatlashtirilgan ish joyini tashkil qilgan holda bank xizmatini ko'rsatishga;

- operatsion va axborotlar sohasida mijozga ko'rsatiladigan xizmat doirasini kengaytirishga;

- bank buxgalterlarining mehnat unumdorligini oshirishga;

- amallar (operatsiyalar)ning yuqori tezlikda va sifatli ro'yxat qilinishini ta'minlashga.

- bank mijoz dasturiy majmuasining ishlashi bank bilan mijoz o'rtasida kommunikatsion aloqa tarmog'i orqali faylda ma'lumotlar almashinuviga asoslangan.

Bankning mijozlarga bank yangi xizmatlarini ko'rsatish borasidagi dasturlarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- elektron pul hisob-kitob hujjatlarini tayyorlash;

- so'rovnomalalar va xabarnomalarni shakllantirish;

- elektron imzo va ma'lumotlarni raqamlash;


- bank bilan modem aloqasi;

- ma'lumotlarni qabul qilish va uzatish;

- qabul qilingan ma'lumotlarni qayta ishlash;

- kerakli ma'lumot va hisobot shakllarini bosmadan chiqarish;
- ma'lumotlarni arxivlash.

Mijozlarning elektron pul hisob-kitob hujjatlarni bankning ma'lumotlar bazasiga kiritish quyidagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi:



30-rasm. Pul hisob- kitob hujjatlarini bankning ma'lumotlar bazasiga kiritish

Bank tomonidan yaratilgan dasturlar va boshqa yangi ta'minotlar bankning shaxsiy mulki hisoblanadi. Bank mijozlari ushbu dasturning asosiy foydalanuvchilari hisoblanib, ular munosabatlari tartibga solinishi uchun shartnoma tuziladi. Aloqa kanallari orqali mijoz bilan bank o'rtasidagi axborot almashinuvi shartnomada kelishilgan vaqtda amalga oshiriladi. Yangi amaliyot kuni boshlanishdan oldin mijoz o'tgan kun bo'yicha o'z depozit hisob varag'idagi harakatlar (oborotlar) va qoldiqlarni bank bilan taqqoslab (tekshirib) olishi shart. Agar harakatlar va qoldiqlar mos kelsa, mijozga yangi amaliyot kunini boshlash va hujjatlarni kiritish uchun ruxsat beriladi. Aks holda, ular o'rtasidagi farq sabablari aniqlanadi va mijoz axboroti bank axboroti bilan muvofiqashtiriladi. Shaxsiy hisob varaqlardagi harakatlar va qoldiqlarning taqqoslash natijalaridan qat'i nazar bank bilan mijoz o'rtasidagi axborot so'rovnomalari va xabarlar almashinishi amalga oshiriladi.

Bu tizim orqali hisob-kitob qilishda mijoz o'z hisob varag'idan mablag'larni faqat to'lov topshiriqnomasi shaklida amalga oshiradi.

Bankda mijozlardan aloqa kanallari orqali olingan elektron pul hisob-kitob hujjatlari, to'lovlar amalga oshirilgandan keyin ikki nusxada chiqariladi:

- bir nusxasi umumiy tartibda bankning kunlik hujjatlar yig'imasiga tikiladi;

▪ boshqa nusxasi esa taqqoslash uchun pul hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalarini olguncha bankda qoldiriladi.

Elektron to'lovlar tizimi orqali kelib tushgan pul hujjatlari ijro etilgandan so'ng mijozning pochta qutisiga joylashtiriladi. Kun davomida mijozlardan olingan barcha ma'lumotlar arxivlanadi va o'rnatilgan tartibda saqlanadi.

2-§. Plastik kartochkalar muomalasini tashkil etish va ular orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi

Plastik kartochkalari bir vaqtning o'zida depozit, hisob-kitob, kassa va kredit instrumenti funksiyalarini bajaradi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlar to'lov tizimida plastik kartochkali naqd pulsiz hisob-kitoblarda muhim o'rinni egallaydi.

Texnikaviy tomondan plastik kartochkalar magnitli va mikroprotsektorlilarga ajratiladi. Bizdagi ko'pchilikka ma'lum to'lov kartochkasi magnitli hisoblanadi, ma'lumotlar kartochkaning ichida bo'luvchi tor magnitli chiziqda saqlanadi

Kartochka tizimida magnitli kartochkalardan tashqari mikroprotsektorli yoki "smarkartochka"lar ham ishlatiladi.

Plastik kartochkalarining emitenti – plastik kartochkani chiqargan, mijozlarning hisob-kassa operatsiyalarini ro'yobga chiqaruvchi bank hisoblanadi.

Plastik kartochkaning egasi – jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lgan mijoz, bank emitent bilan shartnoma tuzadi (bankdagi hisob shartnomasi, bankdagi jamg'armasi, kredit shartnomasi v.h.), belgilangan chiqim limiti doirasida plastik kartochka ishlatilganda operatsiyani ro'yobga chiqaruvchi bo'lib jarayonlarda qatnashadi.

Jismoniy shaxslar turli plastik kartochkalarga ega bo'lishlari mumkin.

Hisob-kitob kartochkasi – bank kartochkasining turi bo'lib, bankda hisob raqamga ega bo'lgan shaxslarga plastik kartochka egasining emitent bilan tuzgan shartnomaga muvofiq belgilangan limitda pullik hisob-kitob bajarishga, tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishda ishlatiladi, naqd pul olinishi mumkin (bunday plastik kartochkalarni debet kartochkalar deb ham yuritiladi).

Kredit kartochkasi – bankning kredit kartochkasi bo'lib, bunda plastik kartochkaning egasi emitent bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq emitent tomonidan ajratilgan kredit liniyasi va xarajat limiti

chegarasi miqdori operatsiyalarni bajarishi mumkin, ya'ni tovar va xizmatlarni sotib olish yoki naqd pul mablag'larini olish operatsiyalarini bajarishi mumkin.

Banklar yuridik shaxslarga hisob-kitob va korporativ kredit kartochkalari berishi mumkin.

Bank kartochkasi schyotida vujudga keluvchi overdraft uning katta ki chikligi hamda kartochka turi qarab ruxsatli ruxsatsiz overdraft nazorat etilmaydigan debet kartochkalari bo'yicha yuzaga keladigan hamda yuqoridan ruxsat etilgan hajmda kredit kartochkalarida yuzaga keladi. Mijoz schyotidagi vositalar ro'yxati to'g'risidagi to'lov hujjatlarni olish kunida bajarilsa, ruxsatsiz overdraftni paydo bo'lishiga olib keluvchi ruxsatsiz overdraft summasi uzaytirilgan qarzlarning qarashiga asoslanadi.

Shuningdek, keng tarqatilgan maosh plastik kartochkalari mavjud. Bunday kartochkalar faqat so'mda ochiladi, qoldig'iga foizlar qo'shib boriladi. Maoshlik kartochkalar ish faoliyatini olib borayotgan fuqarolar uchun qonunga muvofiq markazlashgan va bank korxonalari ishtirokisiz amalga oshiriladi. Korporativ mijozlar bunda kassani muhim jihozlar bilan jihozlash xarajatidan ozod etiladi, yirik korxonalarda naqd pul bilan bo'ladigan ishlarga va maoshlarni odatiy tarqatishdagi xarajatlar kamayadi. Bunda banklar mijozlar bazasini kengaytirish, qo'shimcha resurslarni jalb etish, mijozlarning xizmat ko'rsatish tezligini oshirish imkoniyatlariga ega bo'ladi:

Xorijiy davlatlarda plastik kartochkalarning quyidagi asosiy turlari qo'llaniladi.

Xalqaro to'lov tizimidagi EUROPAY Int kartochkasi 3 xilda bo'ladi:

- Eurocard I Master Card Mass;
- Eurocard I Master Card Gold – shaxsiy odamlar uchun;
- Eurocard I Master Card Bizness – tashki lot va korxonalarining xodimlari uchun,

Eurocard I Master Card Mass kartochkasi ikki rejimda harakatda bo'ladi: debetli (Direct Debit) va oylik limitga asoslangan (Revoluing Credit).

Eurocard I Master Card Mass Direct Debit - bu «qimmat bo'lmagan» xalqaro to'lov plastik kartochkasidir. Xarajat hisob varag'ida bo'lgan qoldiq summasi doirasida bo'ladi. Kartochka egasi bankning mijoz bo'lishi mumkin. 3 oy ichida 500 AQSh dollari ekvivalenti miqdorida istalgan xorijiy valyutada puli bo'lgan mijozlarga

ochilishi mumkin. Bank kartochkasiga o'tkazilgan minimal miqdor – 1000 AQSh dollari bo'lishi kerak, shundan 500 AQSh dollari – olinmaydigan qoldiq bo'lishi lozim.

Eurocard I Master Card Mass Revaluing credit – avtomatik oylik qayta boshlanadigan (revlver kreditli) kredit kartochkasi. Kartochka bo'yicha chiqim operatsiyalari mijoz tomonidan belgilangan oylik summadan qayta boshlanadi. Kartochkaning egasi bankning xohlagan mijoz bo'lishi mumkin. 3 oy ichida 500 AQSh dollari ekvivalenti miqdorida istalgan xorijiy valyutada mablag'i bo'lgan mijozga shunday kartochkalar ochilishi mumkin. Bank kartochkasida o'tkazilgan minimal miqdor 3000 AQSh dollari bo'lishi kerak. Shundan 1500 AQSh dollari – olinmaydigan qoldiq bo'lishi lozim.

Eurocard I Master Card Gold – obro'li kredit kartochkasi bunda uning egasi 3000 AQSh dollari summasigacha kredit olishi mumkin. Kartochkaning egasi bankning doimiy mijoz bo'lishi mumkin. 6 oy ichida 1000 AQSh dollari miqdorida istalgan xorijiy valyutada mablag'i bo'lishi, bank kartochkasiga o'tkazilgan minimal miqdor 5000 AQSh dollar bo'lishi lozim.

Eurocard I Master Card Business – tashkilot va korxonalarining xizmatchilari uchun hisob-kitob kartochkasi, xodimlarga oylik berish, xizmat safari xarajatlarini to'lashda qo'llaniladi. Kartochkaning afzalligi xohlagan naqd pulsiz to'lov kontrakt to'lovlarini amalga oshirish mumkin. Kartochka bankning yuridik mijozlariga beriladi. 3 oy ichida 50000 AQSh dollari ekvivalentidagi xorijiy valyutada oylik pul aylanishiga ega bo'lgan mijozlarga ochilishi mumkin. Yuridik shaxslar o'z istaklariga binoan bunday kartochkalarining xohlagan miqdorini olishlari mumkin. Bunda maxsus kartochkani schyot ochiladi, barcha kartochkalar summasi limitiga teng bo'lgan summada. Minimal miqdor har bir kartochka uchun 100 AQSh dollarida olinmaydigan qoldiq bo'ladi kartochkalar bepul tayyorlanadi.

VISA CLASSIC – Visa Int to'lov tizimidagi eng yirik to'lov kartochkasi, dunyoning 20000 ga yaqin banklarini birlashtiradigan plastik kartochkaning eng ko'p tarqalgan turi hisoblanadi. Minimal miqdori – 3000 AQSh dollari. Shundan 1500 dollar ishlatilmaydigan qoldiq bo'lishi mumkin. O'zbekistonda visa kartani ochish uchun 100 dollar miqdorida o'z hisob raqamida qoldiqqa ega bo'lish zarur.

CIRRUS IMAESTRO – Europay to'lov tizimining debetli kartochkasi juda qulay. Bank kartochkasi hisob varag'idagi birinchi ochilishda 100 AQSh dollari ishlatilmaydigan qoldiq bo'ladi.

GLOBAL CALLING CARD – dunyoning kommunikatsiya, telekommunikatsiya kompaniyasi GLOBAL ONING telefon kartochkasi. Kartochka dunyoning 60 dan ko‘p davlatlaridan abonentni chiqarishga va 290 dan ko‘p davlatlardan so‘rov qilishda imkon beradi. Mehmonxonalardan va biznes-markazlardan telefon qilinganda, kartochka ko‘zga ko‘rinarli miqdorda tejashga imkon beradi, binobarin, so‘zlashish narxi GLOBAL ONE tariflariga asosan aniqlanadi. Kartochka 24 soat ishlaydi, so‘zlovchilar uchun to‘lov xalqaro kartochkalar Visa ki Eurocdlar Master Card orqali yozib boriladi. Har oyning oxirida mijoz o‘z qilgan qo‘ng‘iroqlari to‘g‘risida to‘liq hisobot oladi.

3-§. Bank hisob varaqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi. Internet banking xizmati

Jamoat telekommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanishi bank xizmatlari evolyutsiyasiga ko‘proq ta‘sir eta boshladi. Internet tarmog‘ining rivojlanishi ko‘pchilik uchun qulay bo‘lgan telekommunikatsiya xizmatlarini yaratmoqda. Ko‘p xizmatlarni amalga oshira oladigan butun jahon informatsiya supermagistralining tashkil topishi, www («butun jahon o‘rgimchak to‘ri») texnologiyasidan foydalanish, internetda informatsiya xizmatlaridan foydalanish va yetkazishni osonlashtirmoqda. Internetda moliyaviy xizmatlar ham joriy etildi. Ilg‘or banklar firmalar bilan birgalikda elektron pul hisobi texnologiyasini qayta ishlab chiqish, mijozlariga elektron bank xizmatlarini joriy qilish imkoniga ega bo‘lishdi.


Internet orqali pul o‘tkazishning xavfsiz tizimini tuzish, himoyalangan on line kanallarini foydalanuvchilarga taqdim etish, banklarda internet orqali o‘z mijozlariga xizmat ko‘rsatish tizimini yaxshilash va xavfsizlantirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Telekommunikatsiya infrastrukturasi texnologiyalarining rivojlanishi, internet tarmog‘ining kengayishi va undan elektron bank xizmatlarini ko‘rsatishda foydalanish banklar o‘rtasida mijozlarni jalb qilish, ularga elektron bank xizmatlarini ko‘rsatish sohasida raqobatning shakllanishiga asos bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida **bank hisob varaqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi**. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqaruvining “Bank hisob varaqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimlarida ishlash tartibi to‘g‘risida”gi nizomi asosida olib boriladi. U

bank va uning mijozni o'rtasidagi munosabatlarni avtomatlashtirishga mo'ljallangan bo'lib, mijozni autentifikatsiya qilish, elektron to'lov hujjatlarini kiritish, elektron to'lov hujjatlarini shifrlash va ularni bank axborot tizimlarida qayta ishlash uchun aloqa kanallari orqali uzatish, axborot xabarlarini qabul qilish-uzatish, hisobot shakllarini - shaxsiy hisob varaqlar, elektron to'lov hujjatlari, kiritilgan hujjatlarning ro'yxatini ko'rish va chop etish vazifalarini bajarish orqali pul mablag'larini boshqarishning tezkorligini hamda bank operatsiyalarining sifatli o'tkazilishini ta'minlaydi. Tizimdan foydalanish va tizim xizmatlari uchun haq miqdori bank va mijoz o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Mijoz va bankning aloqa kanallari orqali axborot almashinuvi shartnomada ko'rsatilgan vaqtda amalga oshiriladi. Mijoz bank hisob varaqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimida quyidagi sxema bo'yicha ishlaydi.



31-rasm. Bank hisob varaqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimi

Mijoz har kuni ish boshlashdan oldin, o'zining shaxsiy hisob varag'idagi avvalgi amaliyot kuni bo'yicha qolgan aylanma va qoldiqlarini tekshirib, barcha ma'lumotlar mos kelgan holda elektron to'lov hujjatlarini kiritishni boshlashi mumkin. Mijoz to'lovlarni to'lovchi sifatida amalga oshirishda faqat to'lov topshiriqnomalarini qo'llashi mumkin. Bundan tashqari, soliq organlari bevosita to'lovchining bankiga elektron ko'rinishda inkasso topshiriqlarini qo'yishi mumkin.

Mijoz topshirig'i bo'yicha qonun hujjatlarida ko'zda tutilmagan bo'lsa, tizim orqali uchinchi shaxslarning to'lovlarini amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi. Elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan elektron to'lov hujjati pul-hisob-kitob hujjatining asl nusxasiga tenglashtiriladi va u bilan bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi.

Tizim orqali yuborilgan pul-hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalari bankka taqdim qilinmaydi va mijozda saqlanadi hamda pul-hisob-kitob hujjatlari rasmiylashtirilishining to'g'riligi va jihatlari bo'yicha javobgarlik mijozga yuklatiladi. Hujjatlarni tizimga kiritish tugatilgandan so'ng yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxsning mas'ul xodimi hujjatning asl nusxasini uning elektron nusxasi bilan taqqoslab tekshirishi va elektron hujjatni o'zining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlashi kerak.

Bankda mijozlardan kelgan barcha axborotlar dasturiy ravishda deshifrlanadi, rekvizitlar bo'yicha nazorat qilinadi va qayta ishlash uchun bank amaliyot kuniga uzatiladi. To'lov amalga oshirilgandan so'ng elektron to'lov hujjatlari reyestr ko'rinishida chop etiladi va bankning kunlik hujjatlar yig'majildiga tikiladi.

Agarda mijozning hisobvarag'ida to'lov uchun mablag'lar yetarli yoki mavjud bo'lmasa, mijoz tomonidan tizim orqali bankka yuborilgan elektron to'lov topshiriqnomasi qayta ishlash uchun bank amaliyot kuniga qabul qilinmaydi va bu haqida mijozga xabar beriladi.

Internet-banking – bu mijoz tomonidan bank ofisida bajarishi mumkin bo'lgan standart operatsiyalarini Internet tarmog'i orqali amalga oshirish imkoniyatidir. Internet-bankingning amaliyotda qo'llanilishining ilk bosqichlari 1995-yilda Security First Network Bank tomonidan amalga oshirilgandir. Security First Network Bank mijozlarga Internet orqali o'z xizmatlarini birinchilardan bo'lib taklif etgan banklardan hisoblanadi.

Internet-banking quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- barcha turdagi kommunal to'lovlarni amalga oshiradi;
- pul o'tkazmalarini o'tkazish, shu jumladan, chet el valyutasini ham ixtiyoriy hisob varaqdan ixtiyoriy bankka o'tkazish;
- tovar uchun to'lovlarni o'tkazish (jumladan, Internet magazindan sotib olingan);
- chet el valyutasini sotib olish va sotish bo'yicha operatsiyalar;
- pul mablag'larini plastik kartochkadan yechib olish yoki uni to'ldirish;
- turli xil hisob varaqlar ochish va ularga pul o'tkazish;

- ixtiyoriy formatda hisob varaq holati to'g'risida ma'lumot olish;
- aniq vaqt bo'yicha to'lovlar to'g'risida ma'lumot olish;

Internetning bank sohasiga kirib kelishi va bu orqali zamonaviy bank xizmatlaridan biri bo'lgan Internet bankingning shakllanishi banklar faoliyatini yanada takomillashtiradi. Bank tizimida Internet tarmog'ini rivojlantirish, kuchli mutaxassislarni jalb etish va zamonaviy bank operatsiyalarini amalga oshirish birinchi galdagi vazifadir.

Rivojlangan davlatlar bank tizimida Internet bankingning amaliyotda qo'llanilishi, bank sohasida nihoyatda ko'p imkoniyatlarning vujudga kelishiga turki bo'lishiga olib keldi. Hozirda butun dunyo bo'yicha bunday xizmat turlarini taklif etadigan 400 dan ortiq banklar mavjuddir. Internet-banking – bu masofaviy banking turlaridan biri bo'lib, bank xizmatlarining bankdan tashqarida, o'zaro mijoz va bank xodimi o'rtasida amalga oshirilishi tushuniladi. Agar bu tizim butunlay avtomatizatsiyalashtirilgan bo'lsa, unda mijoz xohlagan vaqtda unga murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.


Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatishning 4 ta asosiy turi mavjud:

1. Internet banking;
2. PC banking;
3. Telephone banking;
4. Video banking.

RS bankingda mijoz o'zining personal kompyuteri orqali o'z hisob varag'iga kirishi mumkin. Bunda Internet orqali emas, balki modem orqali bank va mijoz o'zaro aloqada bo'ladilar. Video banking interaktiv muloqot sifatida bo'ladi va buning uchun «kiosk» deb nomlangan qurilmadan foydalaniladi. Ular odam gavjum joylarga o'rnatiladi.


Telephone banking masofaviy bankingning eng ommabop turi bo'lib, bu telefon orqali bank xizmatlarini ko'rsatishdir. Hozirda tijorat bank uchun eng qulay tizim hisoblanadi. G'arbda jahon global tarmog'i Internet orqali xizmat ko'rsatish, home banking texnologiyasining mantiqiy rivojiga bog'liq tarzda kelib chiqqan.

Masofadan turib uylarda bank xizmatlarini ko'rsatish 1980-yillardan boshlangan, ya'ni bu telefon tarmog'i orqali bank xizmatlaridir.



32-rasm. Mijozlarga masofadan bank xizmatini ko'rsatish sxemasi

1995-yilga kelib mijozlarga PS-bankingning yuqori sifatli darajada taklif etadigan birinchi banklar v.b. paydo bo'ldi. Shu asnoda telefon va RS-banking korporativ va xususiy mijozlar talablari asosida keng miqyosni egalladi. Shu yo'l bilan Internet-banking o'zining dastlabki rivojlanish yo'lini topdi. O'zbekistonda ham keyingi yillarda Internet-bankingni rivojlantirish sohasida qator yutuqlarga erishilmoqda. Internet-banking funksiyalarini quyida keltirilgan rasmda ko'rishimiz mumkin.




33-rasm. Internet-banking funksiyalari

Internet-banking RS-bankingdan bir qancha afzalliklari bilan ajralib turadi. Bundan tashqari mijoz Internet tarmog'i orqali o'z hisobvaraqlari bilan ishlayotganda unga maxsus dasturiy ta'minot talab etilmaydi, bu esa mijozga osonlik yaratadi. Mijoz o'z to'lovlarini yoki operatsiyalarni amalga oshirish uchun brouzer orqali standart web-formalarni to'ldirish bilan kifoyalanadi.

Hozirgi kunda Internet-banking tushunchasi butun dasturiy mahsulotlarni o'z ichiga qamrab olgan. Ularni shartli ravishda quyidagilarga bo'lish mumkin:

- mijozlar hisob varaqlarini boshqarish tizimi;
- to'lovlar va hisob-kitoblar tizimi;
- kartochkali protsessing tizimi;
- qimmatli qog'ozlar savdosi onlayn tizimi;

O'zbekistonda bugungi kunda bank, soliq va bojxona va boshqa qator tarmoqlarda elektron to'lov va murojaat tizimidan keng foydalanilmoqda.



34-rasm. Internet – banklar faoliyati turlari

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Bank yangi mahsulotlari
Plastik kartochkalar
«Bank mijoz» dasturi
«Home banking» tizimi
Bank innovatsiyalari
Elektron bank
Identifikatsiya kartochkasi
Internet

O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

- Banklarning mijozlar uylarida va ish joylarida xizmat ko'rsatishning qanday turlarini bilasiz?
- «Bank mijoz» tizimining mohiyati nimadan iborat?
- «Bank mijoz» tizimining ishlash tartibi qanday?
- Plastik kartochkalardan foydalanish tartibini tushuntiring.
- Elektron hamyon nima?
- Identifikatsiya kartochka nima uchun zarur?
- Internet orqali bank xizmatlarini bajarish mumkinmi?
- Bank innovatsiyalarining mohiyati va turlari to'g'risida gapirib bering.
- Bank innovatsiyalarining hayotiylik tsiklini tushuntiring.
- Bank innovatsiyalarini qanday qilib ijobiy boshqarish mumkin?
- Banklarning aholi pul jamg'armalarini saqlash bo'yicha qanday mahsulotlarni bilasiz?

XIX BOB. TIJORAT BANKLARINING TRAST VA FORFEYTING OPERATSIYALARI

1-§. Tijorat banklarining trast operatsiyalari

Ma'lumki, har bir kredit muassasasi amalga oshiradigan operatsiyalarning turi va tarkibi ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi. Ulardan misol uchun bankning hajmi va strategiyasi, shu'balararo aloqalarining rivojlanganligi, kerakli barcha ruxsatnomalarning mavjudligi, qo'shimcha daromad olishga bo'lgan intilish v.h. Shu jihatdan olib qaraganda, ko'p banklar «asosiy operatsiyalar» bilan bir qatorda, «boshqa operatsiyalar» deb nomlanadigan operatsiyalarni ham amalga oshiradilar. Ushbu operatsiyalar qatoridan trast operatsiyalari bevosita salmog'li o'rin egallaydi.

Trast xizmatlari - bu mijozga tegishli bo'lgan va boshqa aktivlarni boshqarish bo'yicha olib boriladigan operatsiyalardir.

Hozirgi paytda banklarning o'z mijozlari va bozor o'rtasida to'la huquqli vositachi agent sifatida ish olib borishi va natijada bir qator daromad manbalarini qo'lga kiritishi bois trast operatsiyalari ancha muhim ahamiyatga ega.

Trast tufayli bank quyidagi ba'zi bir imkoniyatlarni qo'lga kiritadi: qo'shimcha mablag'larni qo'lga kiritadi va ularni o'z manfaatida yo'lida joylashtiradi;

trast shartnomasi bo'yicha komissiya daromadlariga yoki tasarrufidagi qimmatbaho qog'ozlardan keladigan foydadan hissaga ega bo'ladi;

o'zga kapital bilan ish olib borish davomida bank faqatgina trast shartnomasi chegaralarida javobgar bo'ladi;

trast operatsiyalarining hisobi bo'yicha bankning balans hisob varag'iga teginmaydi, ammo ulardan keladigan daromad bankning umumiy daromadiga qo'shib ketadi.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, trast operatsiyalarini amalga oshirish bank personalidan ko'plab sohalarda: qonunchilik, investitsion faoliyatni yuritish hamda shaxsiy mulkni boshqarish borasida yuqori malakani talab qiladi.

Trast shartnomasida kutiladigan asosiy maqsad - bu bir tarafning ikkinchi taraf foydasini ko'zlagan holda ma'lum bir mulkni (pul mablag'lari, qimmatbaho qog'ozlar, mulkiy va boshqa huquqlar)

boshqarish vazifasini o'z zimmasiga olishi bo'yicha ikki taraflama ishonch munosabatlarini o'rnatishdan iborat.

Trastning obyekt sifatida qonun obyektlariga javob beradigan har qanday turdagi, shu jumladan, garovga qo'yilgan mulklar olinishi mumkin. Ya'ni, bu korxonalar va ularning aktivlari, mahsulotlar, yer maydonlari, ko'chmas mulk, pul mablag'lari, qimmatbaho qog'ozlar, valyuta moddiy boyliklari, mulkiy huquqlar bo'lishi kerak.

Trast operatsiyalari bo'yicha munosbatlar muassis va mulk egasi taraflaridan tuziladigan shartnomaning imzolanishidan so'ng boshlanadi.

Trast operatsiyalarini boshqarish aktivlarga egalik qilishining barcha yoki ba'zi bir qirralarini o'z ichiga olishi mumkin.

Ya'ni:

- saqlash;
- ishonchli shaxsning manfaatini ko'zlab chiqish (hissadorlar majlisi, ssuda v.h.);

- daromad va investitsiyalash faoliyatini boshqarish;
- aktivlar oldi-sotdisi;
- qog'ozlarni jalb qilish va to'lash, qimmatbaho qog'ozlari chiqarish va joylashtirish;

- huquqiy shaxsning tashkil etilishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishini amalga oshirish;

- mulkka bo'lgan egalikning o'tkazilib yuborilishi (sovg'a, meros va h.k. sifatida);

- mijozning shaxsiy bank schyotlarini, kassa va moliyaviy xo'jalik ishlarini yuritish hamda majburiyatlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;

- korxonaning qayta tashkil etilishi yoki bankrotlikka uchrashi vaqtlarida vaqtinchalik boshqaruvni o'z qo'liga olish v.b.

Jahon amaliyotida odatda, bank trast operatsiyalarini uch turga ajratishadi:

1. Xususiy shaxslarga ko'rsatiladigan trast xizmatlari.
2. Tijorat korxonalariga ko'rsatiladigan trast xizmatlari.
3. Notijorat tashkilotlariga ko'rsatiladigan trast xizmatlari.

Xususiy shaxslarga ko'rsatiladigan trast xizmatlari chet el banklari tomonidan keng taqdim etiladi. Ulardan shaxsiy mulkni boshqarish, vositachilik, o'z ta'minotiga olish v.b.

Meros bo'yicha tashkil etiladigan trastlar «meros trastlari» deyiladi va faqatgina mulk egasining vafotidan so'ng kuchga kiradi. Xususiy shaxslar, shuningdek, «hayot davomidagi trastlarni» tashkil etishi

mumkin. Bu yerda trast mulk egasini hayotligida ham ishlayveradi. Meros trastlari, ko'pincha, mulk egasi tarafidan o'z mulkini trast shaklida bo'lib berish niyati bo'lgan paytlarda tashkil etiladi.

Trastlarning har ikkala turi ham bank tomonidan trast shartnomasiga asoslangan holda boshqariladi. Trastni tashkil etuvchi investitsiyalar bo'yicha qat'iy yo'nalishlarni belgilab qo'yish bilan bir qatorda, bankka qarorlar qabul qilishda ma'lum bir darajada yengilliklar ham taqdim etilishi mumkin. Bu yerdagi asosiy maqsad daromad, ya'ni asosiy kapitalning saqlanib qolinishi hamda risk darajasi o'rtasidagi balansni saqlab qolishdan iborat.

Shuningdek, bank otaliq vazifasini ham bajarishi mumkin. Bu borada bank aktivlarning jamlanishi va saqlanishi, barcha da'volar bo'yicha javob berish, kerakli qarz va meros to'lovlarni amalga oshirish ishlarini o'z zimmasiga oladi. Shaxsiy trast xizmatlarining yana bir turi – bu «xususiy agentlik hisob varag'ini» olib borish hisoblanadi. Unga – asosan bank agent sifatida xususiy shaxsning asosiy aktivlari, moliyaviy ishlarini boshqarish va kunlik xarajatlarini amalga oshirish ishlarini o'z zimmasiga oladi. M.d. bank xususiy shaxs uchun maosh olish, foiz yoki dividendlar olish va to'lash, arenda va qarz majburiyatlarini, shaxsiy xarajatlarni to'lash ishlarini amalga oshirish mumkin.

Trastning ushbu turida bank xodimlari kerak bo'lganda o'z irodalariga muvofiq ish yuritishlari mumkin. Unda bu trast «boshqarish huquqiga ega ishonch schyoti» deb nomlanadi. Agar bunday huquq bank xodimlariga berilmagan bo'lsa, ular har bir operatsiyani amalga oshirish uchun ruxsat olishlari shart, ammo har ikkala holatda bank o'zining mijozini doimiy ravishda operatsiyalar haqida xabardor qilib turishlari kerak. Tijorat korxonalariga ko'rsatiladigan trast xizmatlarini 2 turga ajratsa bo'ladi: agentlik va kafillik. Agentlik trastlariga asosan bank firmaning xususiy agenti sifatida ish yuritib, ko'pincha, mijozning manfaatini ko'zlagan holda qimmatbaho qog'ozlarni chiqaradi, ular bo'yicha dividendlar to'laydi hamda hissadorlarning talablariga asosan ularni qaytadan moliyalashtiradi va muddati kelgan majburiyatlarning qarzini o'zadi. Kafillik operatsiyalari bo'yicha esa trastlar asosan katta kompaniyalarning ta'minlanmagan mablag'lari sotiladigan tijoriy qog'ozlar bozorining ishlashi bilan bog'liq. Banklardagi trast bo'limlari tijoriy qog'ozlarni sotib olish bo'yicha hisobini yuritadi, realizatsiya qilinadigan qimmatli qog'ozlarni investorlarga yetkazib berishni ta'minlash hamda muddati kelgan qimmatli qog'ozlarning egalariga

to'lovlar qilish ishlarini bajaradi. Qimmatli qog'ozlar emitentlari bankdan kafolat xatlarini oladi va bu o'z navbatida investorlarga bank tarafidan qarz majburiyatlarini, hatto emitentning qurbi etmagan holda ham to'lanishiga ishonch paydo bo'lishiga asos bo'ladi. Hozirda jahon miqyosida notijorat tashkilotlariga ko'rsatiladigan trast operatsiyalariga bo'lgan raqobat kuchayib bormoqda. Ular qatoriga asosan pensiya, korporativ va hukumat fondlari kiradi. Trast bo'limlari xuddi shu tashkilotlarning fondlarini boshqarishga intiladi. Bu jarayon 2 xil shaklda amalga oshirilishi mumkin: to'g'ridan to'g'ri va diskretion. To'g'ridan to'g'ri agent trastga ishonch tariqasida topshirilgan shaxsiy mulkning hamda ular bo'yicha hisobotlarning yuritilishi uchun javob beradi. Diskretion agent esa, aksincha, investitsion qarorlar qabul qiladi va aksariyat hollarda o'zining xohish-irodasiga qarab ish olib boradi. Trast faoliyatining eng asosiy masalalaridan biri – tijorat banklari mijozlarining qimmatli qog'ozlari portfelini boshqarishdan iborat. Kattakatta kompaniyalar, Masalan, pensiya fondlari, o'zlarining mablag'larini tijorat banklariga ishonib topshiradi. Ushbu katta kompaniyalar bo'yicha banklarga qat'iy qoidalar o'rnatiladi. Unga banklar rezervlarni ishonchlilik, diversifikatsiya, qaytarib berishlik, foydalilik va likvidlilik prinsiplariga amal qilgan holda joylashtiradi.

Aytib o'tilganidek, trast operatsiyalarini, odatda, maxsus bo'limlar amalga oshiradi. Bunda bankning kreditlash, depozitlar jalb qilish va boshqa ishlar bilan shug'ullanuvchi bo'limlari trast bo'limlaridan alohida ish olib boradilar. o'arbdagi ko'plab bankirlar trast bo'limlarini «dunyoning boshqa bir qismi» sifatida ko'radilar. Bundan asosiy maqsad trast xizmatlarini oddiy bank ishidan ajratib olishdir. Chunki trast bo'limining xodimlari o'z mijozining manfaatini ko'zlaydi, bankning manfaati bilan mijozning manfaati aksariyat hollarda bir-biriga mos ham kelmaydi.

Lekin shunga qaramasdan, trast bo'limlari o'zining faoliyati bilan bankka katta miqdorda qo'shimcha daromad keltiradi.

Trast bo'limining daromadlari bevosita va bilvosita daromad shaklida 2 ga bo'linadi:

bevosita daromodlar asosan xizmat uchun gonorar va komissiya to'lovlaridan iborat bo'ladi;

bilvosita daromadlarga esa xizmat uchun to'lanadigan qat'iy yoki o'zgaruvchan foiz stavkalari hamda trast aktivlarining hajmi va qiymatiga bog'liq ravishda belgilanadigan komissiya to'lovlari kiradi.

Ba'zi bir yig'img'lar taraflarning kelishuviga bog'liq bo'ladi. Agarda trast daromadlari aktivlarning qiymatiga bog'liq bo'lsa va bu aktivlar qimmatbaho qog'ozlar bo'lsa, bo'limning daromadi ushbu qog'ozlarga bo'lgan bozordagi narxlarning o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Chet el tajribasi shuni ko'rsatadiki, trast bo'limlari asosan bilvosita daromadlarga asoslangan holda ish yuritgandagina, bankka yaxshigina daromad keltirishi mumkin. Chunki gonorarlardan keladigan daromad o'zgarimas xarajatlarni faqatgina katta hajmlarga erisha olishi kerak. Buning sababi shundaki, bo'limning bilvosita xarajatlarini aniq bilib olish deyarli mumkin emas. Ushbu xarajatlarga, masalan, yuristlarga to'lanadigan gonorarlar, investitsiyalash sohasidagi izlanishlarga mablag' ajratish v.b. Gonorar va komission to'lovlardan tashqari trast faoliyati o'z ichiga jalb qilingan depozitlarni qimmatli qog'ozlarga qo'yish orqali olinadigan daromadlarni ham qamrab oladi.

1985-yildagi FRS (Federal rezerv tizimi)ning 156 bank bo'yicha olib borgan izlanishlari natijasida shuni aniqladiki, trast bo'limlari faoliyati bankning aktivlari bo'yicha o'rtacha daromadni 5 punktga, kapitaldagi foydani esa 8 punktga oshirgan. Shuning uchun tijorat banklari tomonidan trast operatsiyalarining keng qo'llanilishi banklarning faoliyatini yanada barqarorlashtirishi mumkin.

2-§. Banklarning forfeiting operatsiyalari

Banklar raqobatbardoshligining o'sishi, O'zbekistonning xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvining kuchayishi, eksport savdosiga davlat cheklovlarining kamayishi hamda o'zbek eksporti bilan bog'liq risklarning oshishi tijorat banklari taklif etadigan yangi bank xizmatlarining rivojlanishini taqozo etadi.

Mana shunday xizmatlardan biri forfeitinglashtirishdir. Forfeiting – bu xalqaro savdoni moliyalashtirishning muqobil shaklidir. Forfeiting inglizcha «forfeiting» so'zidan olingan bo'lib, huquqdan voz kechish degan ma'noni anglatadi. Forfeiting – bu tijorat banklari tomonidan (forfeyter) to'lov amalga oshirilmagan sharoitda eksportyorga nisbatan regress huquqini hisobga olmasdan eksport talabnomalarini sotib olishdir. Boshqacha qilib aytganda, kreditordan aylanmasiz asosda o'tkazma yoki oddiy vekselni aylanma hujjatlarda qayd etilgan qarz sifatida sotib olishdir. Qarzni sotib oluvchi (forfeyter) qarzdorlardan pul mablag'larini undirib olish imkoniyati bo'lmaganda, kreditorga nisbatan

regress talabi bilan chiqishi huquqidan voz kechishi to'g'risidagi majburiyatning o'z zimmasiga oladi. Sodda qilib aytganda, xaridorning sotuvchi oldidagi majburiyatining moliyaviy agent tomonidan sotib olinishi bankning forfeyting xizmati deyiladi. Bu tijorat majburiyati oddiy yoki o'tkazma veksel ko'rinishida bo'lib, regress huquqisiz beriladi. «Regress» deganda o'sha davrdagi hisob stavkasi orqali aniqlanadigan tratta yoki veksellarning egasi oldingi egasi to'lashni talab qilishi tushuniladi.

Forfeyting operatsiyasi ma'nosi jihatidan faktoring operatsiyasiga o'xshaydi. Faktoringdan farqli o'laroq, forfeyting tovarlar va xizmatlar sotuvidan kelib tushadigan tushumlaridan olish huquqini beruvchi bir martalik operatsiyadir. Boshqacha qilib aytganda, forfeyting tashqi iqtisodiy savdoni kreditlash bo'lib, importyor tomonidan aktseptlangan veksellarni eksportyoridan sotib olishdir.

Forfeyting tijorat kreditning bank kreditiga aylanish turidir.

Agarda beruvchi kompaniya birinchi sinfdagi mijoz bo'lmasa, u holda, tegishli majburiyatlarni hisobga olish uchun qo'shimcha ravishda kafolat berilishi zarur.

Odatda, eksportyor veksel (oddiy veksel) trattalarining tijorat turidan forfeytinglashga quyidagi tarzda o'tkazuvchi ishtirokchi sifatida qatnashadi:

A) ko'rsatilgan xizmatlar, yetkazilgan tovarlar uchun qayd etilgan to'lovlarni to'liq yoki qisman to'lovchi;

B) naqd pul bilan to'lash shartlari ostida barcha to'lovlarning majburiyatini va riskini moliyaviy vositachiga (forfeytor) o'tkazuvchi.

Forfeytingning predmeti barcha turdagi qarzdorlik bo'lishi mumkin, lekin o'zaro moliyaviy aloqalarda avallari ham qo'llanilgan, rasmiylashtirish oson bo'lgan oddiy va o'tkazma veksellar ko'proq ishlatiladi. Forfeyting shartnomalri asosida akkreditiv turdagi kreditorlar va debitorlar schyoti bo'lishi ham mumkin.

Kreditor (eksportyor, mol yetkazib beruvchi) kelishuvdan keyin (tijorat shartnomasi tuzilgandan keyin) forfeyterni shartnomani barcha ma'lumotlar bilan tanishtiradi. Bularga: valyuta, summa, kontragent, tovarlar turi, yetkazib berish shartlari, sug'urta, bank ta'minoti turi, bank garanti va boshqalar kirishi mumkin. Odatda, forfeyterga mijozni shartnomaning barcha shartlari bilan boxabar qilish va oxirgi qarorni qabul qilish uchun 3 ish kunidan oshmagan davr yetarli hisoblanadi. Shu davrdan boshlab kreditor (eksportyor, mol yetkazib beruvchi) forfeyterga kerakli komission to'lovlarni to'laydi. Xorij mamlakatlari

amaliyotda, ko'pincha, komission to'lovlar yillik majburiyatning 0,75% dan 1,25% gacha belgilanib, avans to'lovlari sifatida amalga oshiriladi. Og'zaki kelishuvlardan keyin tomonlar ikki tomonlama shartnoma imzolaydilar.

Forfeyting operatsiyalarining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bular:

- tashqi savdo operatsiyalari bilan o'zaro aloqa;
- voz kechilayotgan yoki o'tkazib berilayotgan qarzdorlik huquqi qisqa yoki o'rta muddatli to'lov majburiyatlari bilan rasmiylashtirilishi (masalan, oddiy veksellar, tijorat trattalari);
- kreditlash yuqorida qayd etilgan to'lov majburiyatlarini hisoblash orqali amalga oshirilishi;
- taklif qilingan (o'rnatilgan) foiz stavkalarining o'zgarmas ekanligi;
- forfeyting operatsiyalarining faqatgina EAV – (erkin konvertirlanadigan valyuta)larda amalga oshirilishi;
- o'rta muddatli kreditlashga taalluqligi;
- ko'pgina hollarda investitsiyaga mo'ljallangan tovarlar sotuvida qo'llanilishi bilan ajralib turadi.

Amaliyotda shu narsa aniq bo'ldiki, tijorat kreditni bank kreditiga transformatsiya (o'tkazish) qilish metodi bo'lmish forfeyting kreditor (eksportyor, mol yetkazib beruvchi)ga bir qator qulaylik (afzallik)lar yaratib berishi mumkin. Masalan: avvalombor, forfeytingda kredit bank operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan risklardan, veksellar va boshqa to'lov hujjatlaridan pul olishdagi risklardan qochish; ikkinchidan, valyuta kursi suzib yuruvchi yurishidan keladigan risklar (qattiq o'rnatilgan foiz stavkalari orqali) va qarzdor moliyaviy holati o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan risklar; uchinchidan, qimmat bo'lgan eksportni sug'urtalashdan qutulish.

Kreditor (eksportyor) uchun forfeytingning kamchiligi forfeyterga risklarni o'tkazgani uchun biroz qimmatroqqa tushushi mumkinligi hisoblanadi.

Forfeyting eng yangi tashqi savdoni kreditlashning turi hisoblanadi va boshqa operatsiyalarga nisbatan tez rasmiylashtirilishi, ayniqsa, investitsiyaga mo'ljallangan tovlarni eksport qilishda juda qo'l kelishi bilan qulaydir.

Aylanma majburiyatlarni sotib olish tegishli chegirmalar bo'lishini nazarda tutadi.

Forfeyting mexanizmida quyidagi ikki ko'rinisdagi bitimlardan foydalaniladi.

Moliyaviy bitimlarda – uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarni tez sotish maqsadi;

Ekspört bitimlarda – chet ellik xaridorlarga kredit bergan ekspörtorga naqd pul mablag'larining tushushiga ko'mak beishi.

Forfeytinglashtirishga tegishli asosiy aylanma hujjatlariga savdo traktarlari yoki veksellar kiradi, ammo nazariy jihatdan har qanday shakldagi qarzni forfeytirlash mumkin. Eng asosiysi bu qarzdorliklar mavhum majburiyatni talab etadi. Oddiy va o'tkazma veksellarning ustun tomonlarini shu bilan tushuntirish mumkinmi, ular savdoni moliyalashtirishda uzoq muddat ishlatishi mumkin va ularga bu operatsiyalarning oddiyligi xosdir. Forfeytirlashtirish uchun qulay bo'lgan boshqa kredit hujjatlariga debetor schyotlari va akkreditiv bo'yicha muddati to'lgan majburiyatlarni kiritish mumkin. Ular bu operatsiyalarning murakkabligiga qarab u yoki bu darajada o'xshashdir. Ularni amalga oshirish qatnashchilar tomonidan qarzdor mamlakatida ishlatiladigan huquqiy amaliyotni yaxshi bilishlarini talab etadi. Qarzlarni yopish muddatlari benefitsiar foydasiga yozilgan va qarzdorlarning maxsus roziligisiz qisman o'tkaziladigan schyotlar bitta hujjatda o'z aksini topadi, qarz hujjatlarining bu ikki turi ham hamma shartlarni to'liq bayon etishni talab etadi. Bu, o'z navbatida, ko'plab huquqiy va operatsion qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi va qoidaga ko'ra, forfeytor uchun debetor schyotlari va akkreditiv majburiyatlar kabi hujjatlarning jozibadorligini kamaytiradi, ammo forfeylashtirish bo'yicha operatsiyalar o'tkazish imkoniyatini yo'qotmaydi.

Xalqaro savdo va kredit banklaridagi u yoki bu to'lov vositasini tanlash ko'plab yuridik, iqtisodiy va siyosiy fikrlashga bog'liq va bu qoidalar umumiy qoidani ishlab chiqish imkoniyatini bermaydi.

Jahon bank amaliyotida forfeyting bitimlarining oshishi ekspörtorgalarga taalluqli tavakkalchiliklarning oshishi munosabati bilan moliyalashtirishning mos manbalarining kamchiligi bilan bog'liq. Forfeyting bir qator ustunliklarga ega bo'lib, bu uni o'rta muddatli moliyalashtirishning jozibasiga shakli sifatida namoyon etadi. Forfeytingning asosiy ustun tomonlaridan biri operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq barcha tavakkalchiliklarini forfeyter o'z zimmasiga oladi. Bundan tashqari, ayrim mamlakatlarning belgilangan foiz stavkalaridan voz kechishi, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda import tovarlarini to'lash uchun valyuta mablag'larining muntazam

yetishmasligi, siyosiy tavakkalchiliklar va bir qancha boshqa holatlar forfeyting operatsiyasining rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Forfeytingning asosiy shartlaridan biri, har qanday forfeylashtirilayotgan qarzar majburiy ravishda forfeyting uchun qulay bo'lgan shartsiz va chaqirib olinmaydigan bank kafolati yoki aval shaklida kafolatlanishi zarur. Agar import birinchi toifali qarz oluvchi va yetarli nufuzga ega bo'lsa, yuqoridagi shartga rioya etmasligi mumkin.

Forfeylashtirish muddati olti oydan to 5 yilgacha, ayrim holatlarda esa 7 yilgacha bo'lishi mumkin. Ammo har bir forfeyter asosan tegishli bitim uchun bozor shartlaridan kelib chiqqan holda o'zlarining doiralari belgilaydi.

Forfeylashtirish shartnomalari nisbatan AQSh dollarida, Shveysariya frankida yoki nemis markasida tuziladi, chunki forfeyter bozorda kam ishlatiladigan valyutalarda shartnoma tuzsa, uni qayta moliyalashtirish bo'yicha qiynchiliklarga duch kelishi mumkin.

Forfeyting bitimlarini tuzish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda, bitimni tayyorlash ishlari amalga oshiriladi, ya'ni eksportyor, uning banki, importyor tashabbuskor sifatida maydonga chiqadi. Eksportyor uchun forfeytorning kafolatga nisbatan talabini va importyor bilan oxirgi shartnomani tuzgungacha diskontning taxminiy miqdorini aniqlash zarur. Bu ma'lumotga ega bo'lmasdan eksportyor kontrakt bahosini aniq aniqlash imkoniyatiga ega bo'lmaydi va natijada kontrakt bahosiga kiritilgan moliyalashtirish uchun bir necha marta miqdori oshib ketishi yoki kamayishi mumkin. Ushbu bosqichda forfeyter eksportyorning arizasini ko'rib chiqadi. Unga bitimning harakterini (moliyaviy yoki tovar) aniqlash, oldinda turgan bitim to'g'risida valyuta, kontrakt, moliyalashtirish muddati, eksportyor va importyor to'g'risida ma'lumot yig'ish zarur. Eksportyorning kredit va to'lov layoqatliligini tahlil etish ham zarur. Shundan so'ng forfeyter forfeyterlashtirish bitimi uchun zarur bo'lgan qat'iy bahoni belgilaydi va eksportyor bilan o'zaro kelishuvga erishgandan so'ng hujjatlarni rasmiylashtirish yo'li bilan bitim tuzadi. Keyin eksportyor o'tkazma veksellar servisini tayyorlaydi yoki xaridordan oddiy veksellarni qabul qilib olish to'g'risida bitimni imzolaydi. Bundan tashqari, eksportyor o'zining veksellariga aval yoki kafolat olishi zarur.

Forfeytirlashtirishda veksellarni sotib olish butun kredit davomida bo'lak foizlarni (diskontlarni) ayirib tashlash orqali amalga oshiriladi. Eksportyor, shunday qilib, savdo bitimi bo'yicha o'zining kredit

operatsiyalarini amalda naqd pul bilan hisob-kitob operatsiyasiga aylantiradi, ya'ni eksportyor pul mablag'larini – mahsulotni yetkazib berishi bilanoq oladi. Bunday holatda, u faqat tovarlarni o'z vaqtida yetkazib berish, uning sifati hamda majburiyatlar bo'yicha hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish uchun javob beradi. Bu holat forfeylashtirishni eksportyor uchun eng qulay xizmat turi va nisbatan tijorat qayta moliyalashtirishlarining unga qimmat bo'lmagan hamda butun operatsiya davomida olinadigan, belgilangan foiz stavkalarining mavjudligi muqobil zamonaviy shakli ekanligini ko'rsatadi.

Forfeytinglashtirish tijorat kreditlarini qayta moliyalashtirish uslubi sifatida eksportyor uchun quyidagi qulayliklarni yaratadi:

- ehtimol tutilgan majburiyatlarning balans nisbatini soddalashtirish;

- likvidlilik holatini yaxshilash va tavakkalchilikni kamaytirish;

- qisman davlat yoki xususiy sug'urta bilan bog'liq va sug'urtalangan oldingi talablarni taqdim etishda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan likvidlilik bilan bog'liq yo'qotishlarni kamaytirish;

- foiz stavkalarining o'zgarishi, valyuta kurslarini va qarzlarning moliyaviy holatining o'zgarishi bilan bog'liq tavakkalchiliklarning mavjud emasligi. Kredit tashkilotlarining faoliyati bilan veksell va boshqa to'lov hujjatlari bo'yicha pul mablag'larini undirib olish bilan bog'liq tavakkalchilik va xarajatlarning yo'qligi.

Forfeytinglashtirish jarayonida bank – forfeyterlarda bir qator tavakkalchiliklar yuzaga keladiki, bularni ular regress huquqsiz o'z zimmlariga oladi. Ilgari ta'kidlanganidek, forfeytingning asosiy shartlaridan biri bank kaffolati yoki avaldir. Kafolatchi sifatida, odatda, xalqaro bozorda faoliyat ko'rsatuvchi importyor mamlakatning prezidenti bo'lgan va importyorning to'lov qobiliyatini tasdiqlaydigan bank bo'lishi kerak. Kafolat nafaqat forfeyterning tavakkalchiligini kamaytirish uchun zarur, balki ssuda qog'ozlarining ikkilamchi bozorida majburiyatlarni qayta hisobga olish uchun ham zarurdir. Kafolat va avallar mohiyatan sodda: ikkalasi ham qarzdor to'lovni to'lay olmay qolsa, tegishli sanada qandaydir summani to'lashni va'da qiladi. "Byurtshaft" majburiyatlarini ta'minot sifatida ishlatish biroz murakkabdir. Kafolatni berish vaqtida va'da bitimga tegishli barcha shartlar ifodalangan, kafolatchi tomonidan tasdiqlangan mustaqil hujjat shakliga aylanadi. Shunga alohida e'tiborni berish zarurki, kafolatda nafaqat to'liq summa, balki foizlarning har bir muddati va bu sanaga to'g'ri keladigan qoplash summasini ko'rsatishi zarur, chunki aynan

shu ma'lumotlar asosida diskontlashtirish bilan bog'liq sarf-xarajatlar hisoblanadi. Kafolat asosiy bitimdan ozod bo'lishi zarur, chunki amaliyotda importyorning iqtisodiy holatini taxmin qilib kafolatlar

62- jadval

Faktoringning forfeytingdan farqli jihatlari

Faktoring	Forfeyting
1. Operatsiyalar obyekti: schyot-faktura, talabnoma	1. Operatsiyalar obyekti: oddiy va o'tkazma vekssellar
2. Muddati: o'rta va qisqa muddatli kreditlash - 180 kun atrofida	2. Muddati: o'rta va uzoq muddatli kreditlash 180 kundan 10 yilgacha
3. Kredit miqdori: faktor imkoniyatiga qarab kredit miqdori chegaralangan	3. Kredit miqdori: kredit miqdori chegaralanmagan
4. Pul to'lash: faktor 70-90% pulni oldindan to'langanidan so'ng qolgan qismini (10-30%) pul tushganidan keyin komission xarajatlari va foizlarni ajratib to'lab beradi	4. Pul to'lash: forfeyter barcha pullar minus diskontini darhol to'laydi
5. Faktor yoki regress huquqi bilan yoki regress huquqli faktoring shartnomasi turi tuzilganiga qarab: iqtisodiy yoki siyosiy risklarni o'z ichiga oladi	5. Forfeyter barcha iqtisodiy va siyosiy risklarni o'z bo'yniga oladi.
6. Faktor tomonidan faktoring aktivlarini qayta sotish kelishib olinmagan	6. Forfeyter bilan forfeyting aktivlarni ikkilamchi bozorda sotish va sotib olish kelishib olingan
7. Qo'shimcha xizmatlar: faktoring kompaniyasi reklama, buxgalteriya hisobi, informatsiya, sug'urta va boshqa xizmatlarni qo'shimcha tarzda mijozga taklif qilishi mumkin	7. Qo'shimcha xizmatlar: forfeyter hech qanaqa qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishni taklif qilmaydi
8. Uchinchi shaxsdan kafolat: faktor uchinchi shaxsdan kafolat (kafillik talab qilmaydi)	8. Uchinchi shaxsdan kafolat: forfeyter uchinchi shaxsdan variant talab qiladi

beriladi, ammo forfeyter kafolatlar kafolat beruvchi bankning sof chaqirilmaydigan va shartsiz majburiyatlari bo'lishiga erishishi va eksportyor aylanmasiz hujjatlarga ko'proq ishonishi zarur.

Hozirgi kunda faktoring va forfeyting operatsiyalarini farqlash juda muhim. Forfeyting operatsiyalari faktoring operatsiyalarining bir turi hisoblanada, quyidagi o'ziga xos tomonlari mavjud:

Ikkala metod ham hozirgi kunda yaxshi bo'lib hisoblanadi, har birining o'z qulayliklari bor.

Faktoring operatsiyalari kichik va o'rta korxonalar uchun juda qulay. Kichik va o'rta korxonalar debitorlik qarzlarini tez olishda va kredit jalb qilishda qiynalishadi. Lekin faktoringning buxgalteriya hisobi, marketing, informatsiya, reklama va sug'urta xizmatlarini taklif qilishi kichik va o'rta korxonalarining e'tiborini faqat ishlab chiqarishga qaratishga olib keladi. Shuning natijasida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish rivojlanadi. Forfeyting esa yirik korxonalar uchun ko'proq qulay hisoblanadi. Chunki yirik korxonalar uzoq muddatli va ko'p mablag'ga muhtoj bo'ladilar

Opsion, fyuchers, svop

Hozirgi vaqtda xalqaro moliya bozorlarida spekulyativ o'yinlar: tovar narxlari, valyuta va qimmatbaho qog'oz kurslari, foiz stavkalari, risklarning xedjirlash asosi bo'lmish moliya instrumentlari keng qo'llanilmoqda. Ular qog'ozlarning hosilasi sifatida qatnashadi.

Forvard opsiioni – opsiyon sotuvchi kontragent va o'zgarmas narx asosida ma'lum valyutani xarid qilish huquqini (majburiyatini emas) kirituvchi xaridor o'rtasidagi kontrakt hisoblanadi. Shuningdek, ushbu kontrakt xaridori ma'lum valyuta summasini sotish huquqini ham kiritadi. Shu asnoda, opsiyon xususiyati shundaki, xaridor mustaqil ravishda qaror qabul qilish huquqini qo'lga kiritadi. Bunda huquqqa egalik qilish uchun opsiyon xaridori sotuvchiga mukofot – komission pullarini to'laydi. Operatsiya turiga ko'ra opsiyonlarni sotishga «put» («put») va xarid qilishga «koll» («call») turlarini ajratishadi; amalga oshirish prinsiplariga ko'ra Amerika yoki Yevropa opsionga ajratiladi.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Trast	Forfeyting
Meros trastlari	Forfeyting turlari
Trast agentliklari	Forfeyting
Trast bo'limi	operatsiyasi
Trast daromadlari	Kafillik operatsiyalari
	Trast shakli
	Trast xizmatlari

O'z bilimini tekshirish uchun savollar

- Tijorat banklarining trast operatsiyalari deganda nimani tushunasiz?
- Trast operatsiyalarning qanday obyektlari mavjud?
- Bank tarst operatsiyalarining qanday turlarini bilasiz?
- Tijorat banklarining forfeyting operatsiyalari qanday tashkil etiladi?
- Forfeytingning faktoringdan farqli tomonlarini sanang?
- Forfeyting va trast operatsiyalarining bank faoliyati uchun qanday ahamiyati bor?

XX BOB. TIJORAT BANKLARINING DAROMADLARI, XARAJATLARI VA FOYDASI

1-§. Tijorat banklarning daromadlari va ularning turkumlanishi

Tijorat banklarining daromadi bank faoliyatining kredit berish, diskont faoliyati, trast (ishonch) xizmati ko'rsatish, banklarning kafolatlash faoliyati, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, depozitlarni qabul qilish va ularning hisobini yuritish bilan bog'liq faoliyat, boshqa banklar bilan vakillik munosabatlariga asoslangan faoliyat, noan'anaviy xizmatlar ko'rsatish va boshqa faoliyat turlari natijasida shakllanadi.

Ushbu faoliyatlarning har bir turi bank ushbu operatsiyalarda qanday vaziyatda qatnashishiga qarab ajralib turadi. Yuqoridagi faoliyat turlarining ba'zilar aktiv operatsiyalarga kirsa, ba'zilar esa passiv operatsiyalarga kiradi. Bank daromadlarda har bir faoliyat turidan turlicha olinishi mumkin. Aktiv operatsiyalardan keladigan daromad umumiy daromadlarning asosiy qismini tashkil etadi.

Tijorat banklarning daromadlari va ularning manbalarini bank faoliyatiga qarab, tijorat banklari amalga oshiradigan operatsiyalar nuqtayi nazaridan tasniflash mumkin.

Kreditlash operatsiyalari vositasida daromadlarning shakllanishini ikki tarkibiy elementga bo'lish mumkin:

- mijozlarga, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarga kredit berish;
- bo'sh zaxira mablag'larini foiz hisobiga boshqa tijorat banklariga vaqtinchalik foydalanishga berish.

Kredit berishning ikkinchi turi banklararo kredit yoki boshqa bankdagi muddatli depozit shaklida ham bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda respublikamiz bank tizimida mijozlarni hamda boshqa banklarni kreditlash tijorat banklari daromadining asosiy qismini tashkil etadi. Ko'pgina banklar qisqa va uzoq muddatlarga mavjud mablag'larini kreditga berib, turlicha foiz stavkalar o'rnatgan holda daromad oladilar. Har bir bank foiz stavkalarini o'z kredit siyosatidan kelib chiqib belgilaydi va bu stavkalar bir-biridan farqlanishi mumkin. Biroq oradagi farq unchalik katta emas, chunki barcha banklar o'z foiz stavkalarini Markaziy bank belgilab bergan qayta moliyalash stavkasidan kelib chiqib belgilaydi.

Jahondagi yetakchi mamlakatlar bank tizimida kreditlashning ko'pgina turlari mavjud bo'lib, ular qay maqsadga yo'naltirilganiga qarab guruhlanadi. Xususan, ipoteka, lombard, overdraft, kontokorrent, iste'mol va boshqa ko'pgina kredit turlarini sanab o'tish mumkin.

Tijorat banklari daromadlarining keyingi manbasi – bu ular tomonidan amalga oshiriladigan faktoring operatsiyalaridan olinadigan daromadlardir.

Faktoring operatsiyalarining ikki xil turi mavjud:

- regress huquqi bilan;

- regress huquqsiz amalga oshiradigan faktoring.

Birinchi holatda bank to'lovchi tomonidan qoplanmagan majburiyatni mol yetkazib beruvchidan talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Ikkinchi holatda esa bank bunday huquqqa ega emas, shu bois risk yuqori va shunga yarasha foiz ham yuqori qo'yiladi.

Bank tomonidan faktoring operatsiyasi uchun oladigan foizlar, ya'ni mukofot ikki qismdan tashkil topadi, bular:

- to'lov amalga oshirilgunga qadar bank kredit resurslaridan foydalanganlik uchun foizlar;

- faktoring operatsiyasining turiga mos ravishda bo'ladigan risklar bilan bog'liq o'rnatiladigan komission mukofot bo'ladi.

Daromad manbasining ushbu turi foizli daromadlar guruhiga kiradi.

Trast (ishonch) va vakillik operatsiyalari bo'yicha bankka daromadning mijoz mulkini (ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar, hisob raqamdagi mablag'lar) boshqarish yoki ushbu mulkka doir ayrim maxsus topshiriqlarni bajarish orqali komission to'lovlar shaklida kelib tushadi. Vakillik, ya'ni agentlik xizmat turida bank va mijoz orasida operatsiyaning aniq turi belgilab berilgan bo'ladi. Xususan, joriy yilda mijoz mulkidan foydalanish evaziga kelgan daromad kelishuvga nisbatan past bo'lishi mumkin, bunda esa zarar bank tomonidan qoplanishi kerak. Shu bois trast xizmatlari uchun komission to'lovlar ham yuqoriroq bo'lishi mumkin. Yuqoridagi xususiyatga ko'ra, trast xizmati uchun komission to'lov ham quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- mulkni boshqarish uchun olinadigan o'zgaruvchan to'lov;

- trast ishi bo'yicha natijalarga mos ravishda bank oladigan fiksirlanuvchi komission mukofot.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalari ham bankka ma'lum daromad keltiradi. Faoliyatning ushbu turi quyidagi ikki qismdan tashkil topadi: bankning o'zi tomonidan qimmatli

qog'ozlar chiqarilishi va ularning bozorda sotilishi; boshqa emitentlar qimmatli qog'ozlari bilan bog'liq ikkilamchi bozordagi operatsiyalar hamda korxonalar va tashkilotlarni xususiyashtirish bilan bog'liq xizmatlar kiradi. Bank faoliyatining ushbu turida oladigan daromadi o'zi chiqargan va boshqa emitentlarning aksiyalar kursidagi farqlanish va xususiyashtirish jarayonlarida oladigan xizmat to'lovlaridan tashkil topadi.

Chet el bank tizimida qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalardan olinadigan daromadlar katta salmoqqa ega. Buning asosiy sababi investitsiya bozorining mukammal va to'liq faoliyat yuritishi hamda kapital aylanish mexanizmlarining puxta ishlab chiqilganligi deb ham qarash mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalar yordamida banklar investitsion faoliyatni amalga oshirishlari mumkin bo'ladi. Bu esa banklar uchun daromadlarning yangi manbalarini shakllantiradi. Undan tashqari, mablag'larning qimmatli qog'ozlar orqali moliyaviy investitsiya evaziga ishlab chiqarishga yo'naltirilishi iqtisodiyot o'sishining muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bankning kafillik faoliyati ham bankka pul shaklida daromad keltiradi. Bank mijozlarga kreditlarini olish uchun yoki hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun turli xil kafillik va kafolatlar beradi va evaziga pul shaklida komission mukofot oladi. Ba'zi hollarda mijoz uchun kafillik bank tomonidan obro'ni oshirish kabi maqsadlar uchun ham berilishi mumkin.

Mablag'larni depozitlarga jalb qilish va ularning hisobini yuritish quyidagi shakllarda daromad keltirish imkonini beradi:

- komission to'lovlar:

- hisob raqam ochish uchun;

- hisob raqam yuritish uchun;

- ma'lum davr uchun o'zgaruvchan to'lov;

- oborotdan komission haq (oborotdan foiz shaklida);

- hisob raqamda bo'lgan operatsiyalar haqida ko'chirma;

- hisob raqamni yopish;

- naqd pul berish yoki hisob-kitob bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish.

Banklarning daromadlari yuqoridagi faoliyat turlarining barchasidan yoki bir qismidan tashkil topishi mumkin.

Respublikamiz bank tizimida yuridik va jismoniy shaxslar mablag'larini banklar tomonidan depozitlarga jalb qilish bank xizmatlari orasida eng ko'p tarqalgan xizmat turidir. Barcha yuridik shaxslarning hisob raqamlari banklarda talab qilib olinguncha depozit shaklida bo'lib, banklar ularni yuritish yo'li bilan mijozlarga xizmat ko'rsatadi va uning evaziga daromad oladilar. Ya'ni, har bir operatsiya evaziga bank fiksirlangan foizlarni ushlab qoladi va shundan sezilarli darajada daromad ko'radi.

Bankning noan'anaviy xizmatlari bo'lgan lizing operatsiyalari, informatsion, konsultativ xizmatlarni ko'rsatish orqali ham banklar daromad oladi.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, bank daromadlarini shakliga ko'ra quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

-foizli daromad;

-ko'rsatilgan xizmatlar uchun komission to'lov;

-boshqa daromadlar – valyuta kurslaridagi farqlar, balans va bozor narxlarining farqlanishi v.b.

Tijorat banklarining yangi qabul qilingan buxgalteriya rejasini qarab chiqadigan bo'lsak, bu erda daromadlar quyidagicha tasniflanadi:



35-rasm. Tijorat banklari daromadlari tasnifi

Endi biz yana ham aniqroq qilib tijorat banklarining daromadlari tarkibini ko'rib chiqamiz.

2-§. Tijorat banklarining foizli va foizsiz daromadlari

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining daromadlari va xarajatlari «Markaziy bank to'g'risida»gi hamda «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga hamda Markaziy bank tomonidan qabul qilingan tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari hisobini yuritish va ularning daromad solig'ini hisoblash

to'g'risidagi me'yoriy hujjatlarga asosan tijorat banklari o'z daromadlari va xarajatlarini amalga oshiradilar.

Har bir tijorat bankining o'z faoliyatini olib borishdan maqsadi yuqori daromad olishga qaratilgan. Bu daromadlarning ko'paytirish yo'llarini tijorat banklari o'zlari mustaqil ravishda belgilaydilar.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari asosiy daromadlarini bajaradigan operatsiyalaridan oladi. Eng avvalo, bank oladigan daromad uning kredit operatsiyalaridan keladigan daromad hisoblanadi. Tijorat banklari mijozlarga ma'lum muddatga qat'iy belgilangan foizlarda kredit beradi. Bank bundan tashqari aholiga ko'rsatadigan xizmatlar uchun haq oladi.

Foizli daromadlar oldindan shartnoma asosida belgilangan foiz stavka bo'yicha hisoblanadi. Banklar o'z kapitalini tezroq ko'paytirish maqsadida, jalb qilingan mablag'lardan samarali foydalanish va ulardan ko'proq foyda olish maqsadida qisqa muddatli kreditga ko'proq mablag' yo'naltiradi. Chunki bu qisqa muddatli kredit juda oz fursatda yana bankka qaytib, u bo'yicha hisoblangan foizlar ham bank daromadini ko'paytirishga zamin yaratadi.

Banklar mijozlarning hisobidan ularning topshiriqlarini bajarish bilan bog'liq komission operatsiyalarni ham olib boradilar. Bunday komission operatsiyalar mamlakat ichida yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga pul o'tkazishda, bank o'z mijozlari uchun ularning hisob-kitob, joriy, valyuta, qarz va boshqa hisob varaqlarini ochish hamda yuritish bo'yicha ko'rsatadigan xizmatlar, naqd pul berish (olish), shuningdek, axborot, maslahat, ekspertiza hamda boshqa xizmatlar ko'rsatish orqali ham daromadini ko'paytiradilar.

Bundan tashqari, banklar investitsiya bo'yicha, ya'ni qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish yo'li bilan ham yuqori daromad oladilar.

Shuningdek, tijorat banklari qimmatli qog'ozlar chiqarish, joylashtirish, xarid qilish, sotish, hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga asosan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, qimmatli qog'ozlar bilan boshqa operatsiyalarni bajarish orqali daromad ko'radi.

Tijorat banklari bajaradigan operatsiyalaridan oladigan daromadlari tarkibiga yana bankning forfeyting (veksellar hisobini yuritish), faktoring (qarzlarni undirish, tovar va xizmatlarni qayta sotib, keyin ular uchun to'lovlarni undirishga doir huquqlarni qabul qilish), trast (ishonchga asoslangan) operatsiyalari ham kiritiladi. Bu operatsiyalarni tijorat banklari mijozning topshirig'iga ko'ra amalga oshiradilar va

operatsiyalarni amalga oshirgani uchun bank belgilangan tartibda daromad oladi.

63-jadval

**Aksioner tijorat bankida foizli daromadlarning
dinamikasi va tarkibi**

	01.01.2013-y	01.01.2014-y	01.01.2015-y
Yalpi daromad	100 foiz	100 foiz	100 foiz
Foizli daromadlar	33,7 foiz	45,2 foiz	48,4 foiz
Jumladan:			
Ssudadan olingan foizlar	92,8	94,2	91,2
Lizingdan olingan foyda va diskontlar	1,3	1,7	1,7
Qimmatli qog'ozlardan olingan daromad	5,9	4,1	6,7
Boshqa foizli daromadlar	0	0	0
Jami foizli daromadlar	100	100	100

Foizsiz daromadlar

Tijorat banklarinig foizsiz daromadlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bankka tegishli bo'lgan mulkni ijaraga berishdan tushadigan, jumladan, lizing operatsiyalari o'tkazishdan olinadigan daromadlar. Ushbu operatsiyalarda tijorat banklari temir seyflarni mijoz bilan kelishilgan shartnomaga binoan ijaraga beradi va mijozdan ushbu ijara uchun haq oladi. Banklar bundan tashqari mijozlarga lizing operatsiyalarini ham ko'rsatadi.

-Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan brokerlik operatsiyalari bo'yicha daromadlar. Bunda tijorat banklari qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisida ishtirok etadi. Natijada kurslar o'rtasidagi (olish narxi va sotish narxi o'rtasidagi) farq ham bank daromadining manbasi bo'lishi mumkin.

-Bankning qimmatli metallar bilan amalga oshirgan operatsiyalari bo'yicha daromadlar.

-Pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va boshqa boyliklar, bank hujjatlari inkassatsiya qilingani, tashilgani uchun haq. Bu boyliklarni inkassatorlar maxsus xaltachalarda bankka olib kelib topshiradilar va tijorat banklari mijozlardan ushbu xizmatlar uchun haq oladilar. Bu

mijozlarning boyliklarini har xil yo'llar bilan yo'qotishlarining oldini oladi.

-Menejment xizmati bo'yicha daromadlar.

-Tijorat banklari chet el valyutasida olib boradigan barcha operatsiyalardan, uning oldi-sotdisidan ham daromad oladi. Bunda tijorat banki ma'lum bir kursda chet el valyutasini sotib oladi va uni yuqoriroq narxda sotadi, ya'ni chet el valyutasidagi bank operatsiyalari bo'yicha sotilmagan musbat kurs tafovutlari bank, jumladan, ochiq valyuta pozitsiyasi bo'yicha sotilgan musbat kurs tafovutlari bank daromadlari safiga kiritiladi.

Kafolatlar va kafilliklar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishda ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlar;

- bankning boshqa xususiy mulklarining ijarasidan olingan daromadlar;

- bank mulklarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda;

- bank kassasidan chiqqan ortiqcha pullar, jumladan bank, kassasida turgan amaldagi mablag' qoldig'i bilan hisob hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlar orasidagi musbat tafovut;

- qarzdor zimmasiga yuklangan yoki u tan olgan jarimalar, penyalar, turli to'lovlar hamda shartnoma shartlarini buzganlik uchun qo'llaniladigan boshqa turdagi jazo choralari, shuningdek, bankka yetkazilgan zarar qoplamasi sifatidagi daromadlar hamda olingan boshqa jarima va penyalar. Mijoz shartnomada belgilangan to'lovni to'lay olmaganida har bir kechikkan kuni uchun bankka penyalar yoki jarimalar to'laydi.

Bank xodimlari tomonidan ularning aybi bilan bank ko'rgan zarar va chiqimlar o'rnini qoplash uchun to'lagan summalar ham bankning foizsiz daromadiga misol bo'la oladi.

Bankning avvalgi yillarda olingan, lekin hisobot yilida aniqlangan foydasi joriy yildagi operatsiyalarda tijorat banklari mijozlarga belgilangan summadan yuqori to'lasa bank kamchiliklarni topib uni qaytarib undirib olish, avvalgi yillardagi bajargan operatsiyalarga vositachilik haqi, bank foizlari joriy yilda undirib olinadi. Mijozlar ilgari bank ko'rgan zarar hisobiga o'tkazib yuborilgan qarzlarni qaytarishi va boshqa foizsiz daromadlar. Bu mablag'lar bankning foizsiz daromadlari safiga kiradi.

Tijorat banklari omonat bo'yicha to'laydigan foizni o'zlari taqdim etadigan ssudalar uchun oladigan ssuda foizidan pastroq qilib belgilaydi. Olingan va to'langan foizlarning summalari o'rtasidagi farq banklarning

yalpi foydasini tashkil etadi. Unga boshqa har xil operatsiyalardan ko'rilgan daromadlar ham kiradi. Bank yalpi foydasining bir qismini o'z xarajatlarini qoplashga, soliqlarni to'lashga yo'naltiriladi, qolgan qismi esa sof foydani tashkil qiladi.

Tijorat bankining daromadlari manbalari ichida aktivlari asosiy o'rinni egallaydi. Daromad keltirishiga qarab bank aktivlari: daromad keltiruvchi aktivlar va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo'linadi. (oldingi mavzuda ham bu haqda ta'kidlangan edi).

Daromad keltiruvchi aktivlarga quyidagilar kiradi:

- a) barcha berilgan kreditlar, jumladan, banklararo kreditlar;
- b) o'z investitsiyalari;
- d) xazina veksellari;
- e) davlat obligatsiyalari;
- g) qimmatli qog'ozlar.

Daromad keltirmaydigan aktivlarga esa:

- a) pul aktivlari guruhi;
- b) asosiy vositalar;
- d) kapital xarajatlar;
- e) barcha moddiy aktivlar va boshqa aktivlar;
- g) nomoddiy aktivlar.

Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilishda bir marta bo'ladigan daromadlarni alohida hisobga olish lozim. Bunday daromadlar neytral daromadlar deb atalib, ularga quyidagilar kiradi: bir martalik tushumlar; o'tgan davrdagi foizlar bo'yicha tushumlar.

64-jadval

Tijorat bankining faoliyat natijalari (ming so'm)

Manbalar	01.01.2014-y.	01.01.2015-y.
Daromadlar:		
Berilgan kreditlar bo'yicha foiz to'lovlar	106051	90408
Qimmatli qog'ozlar va valyuta operatsiyalaridan olingan daromadlar	3197	31879
Ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun komission to'lovlar	14365	144708
Boshqalar	32256	42478
Jami daromadlar	155869	309473
Xarajatlar	128062	205192
Foyda	27807	104281

Yuqoridagi 48-jadval raqamlaridan ko'rinadiki, tijorat bankining o'tgan bir yil davomidagi natijalarida berilgan kredit bo'yicha olingan daromadlar kamaygan bo'lsada, bank daromadlari qariyb ikki barobarga oshgan. Bu esa mijozlarning bankka bo'lgan ishonchini orttiradi.

Bank daromadlarini hisoblashning bir necha yo'llari mavjud. Ya'ni, har bir operatsiya bo'yicha daromad hisoblanadi. Xususan, kredit berish operatsiyalarida daromad qarzga berilgan summadan ma'lum foizlar ko'rinishida olinadi. Foizlar qanday to'lanishi va ularning qancha summani tashkil etishi shartnomada belgilab beriladi. Qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarda daromad o'zining va boshqa emitentlar aksiya kurslarining o'sishi natijasida yuzaga keladi. Bu yerda daromadni aniqlashda aksiyalar kursining ular kapital qiymatlaridan qancha farq qilishi orqali, ya'ni real kurs qiymatidan nominal qiymatni ayirish yordamida topiladi. Umuman, ushbu turdagi daromad haqida gapirganda, shuni aytish kerakki, bu yerda daromad aktivlar qiymatining o'sishida namoyon bo'ladi. Ya'ni, naqd pul shaklidagi daromad kelmasdan, balki bank yegalik qilayotgan aktivlar qiymati oshadi.

Bankning boshqa ko'pgina turdagi operatsiyalaridan daromad komission to'lovlar shaklida keladi. Ko'rsatilgan xizmat uchun mijoz bankka ma'lum summani to'laydi. Daromad miqdorini hisoblash mijoz bilan bank o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan amalga oshiriladi. Komission to'lovlar summasi ko'rsatiladigan xizmat turiga, xizmat ko'rsatish davrida bo'lishi mumkin bo'lgan riskka e'tibor qilgan holda belgilanadi. Banklar komission to'lovlarni ko'pincha passiv operatsiyalar, yuridik va jismoniy shaxslar hisob raqamlarini yuritish orqali oladilar.


3-§. Tijorat banklarining xarajatlari va ularning tarkibi

Bankning daromadlilikligi, birinchi navbatda, xarajatlarni kamaytirishga bog'liq. Bank ishi texnologiyasidagi muvaffaqiyatlar joriy xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi.


Odatda, banklar o'z zimmasiga operatsiya xarajatlari, ustama foizlarga ketgan mablag'lar, shuningdek, kredit riski bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun ajratmalarni oladilar.

Tijorat banki xarajatlarini quyidagicha tarkibiy qismlarga bo'lib keltirish mumkin:

Odatda, bank daromadlarining 2/3 qismi foizli xarajatlarga, berilgan sudadalar bo'yicha yo'qotishlarni qoplashga, soliqlarni to'lashga, kutilayotgan foydaga va sarmoyaning o'sishiga sarflanadi.



36-rasm. Bank xarajatlarning tasniflanishi shakli bo'yicha



37-rasm. Bank hisob varaqlari rejasi bo'yicha xarajatlar tasnifi

Xarajatlarga likvidlilikni saqlash, har qanday ustama foiz o'zgarishlari, passivlar tarkibi va xususiy kapital hajmi ta'sir qiladi. O'z navbatida, bank xarajatlari tarkibidagi o'zgarishlar aktivlar daromadligiga ham o'zgarishlar kiritishni talab qiladi.

Xarajatlarni to'g'ri hisoblash banklarga muqobil konservativ resurslar narxlarini taqsimlash va bank aktivlarini aniq baholash hamda xarajatlarni qoplab, aksiyadorlar uchun daromadlarni to'g'ri taqsimlash imkonini beradi. Xarajatlarni baholashga kreditlar ustama foizlarini belgilashning asosiy omili sifatida qarash kerak.

Foizli xarajatlar

Foizli xarajatlar - barcha majburiyatlar bo'yicha to'langan foiz summasidir.

Bizga ma'lumki, tijorat banklari kredit resurslari tashkil etishda mijozlarning bo'sh turgan pul mablag'larini talab qilib olinguncha depozitlar hamda muddatli depozitlarga qabul qiladi. Ushbu depozitlar uchun tijorat banklari mijozlarga belgilangan stavkada ma'lum foizlarni to'laydilar. Undan tashqari, tijorat banklari o'zlarining boshqa qarz majburiyatlari bo'yicha ham foizlar to'laydilar, shuningdek, qimmatli qog'ozlarining sotuv narxi bilan nominal qiymati orasidagi salbiy tafovut bo'lganida, ba'zi bir to'lanmagan foizlarni to'lashda ham banklarda foizli xarajatlar yuzaga keladi.

Banklar foizli xarajatlarning yana biri kredit va unga bog'liq operatsiyalardir. Banklar, eng avvalo, Markaziy bankdan, boshqa tijorat banklaridan, budjetdan tashqari fondlardan, bank bo'lmagan moliyaviy muassasalardan kreditlar olishi mumkin. Olgan kreditlar uchun to'lanadigan to'lovlar ham foizli xarajatlarga kiradi.

Banklar avvalgi yillar (hisobot yiliga nisbatan) hisobiga to'lagan foizlar va vositachilik yig'implari hamda o'tgan yillarda bank mijozlardan ortiqcha undirgan foizlar hamda vositachilik yig'implarini qaytarishi bilan bog'liq foizli xarajatlarni amalga oshiradilar.

Foizsiz xarajatlar

Foizsiz xarajatlarga xodimlarga to'lanadigan ish haqlari va qo'shimcha to'lovlar, uskuna yoki binolarni ijaraga olish, xarid qilish, shuningdek, boshqa operatsiya bilan bog'liq xarajatlar kiradi.

Banklar O'zbekiston Respublikasi Pensiya fondiga, O'zbekiston Respublikasi Aholini ish bilan ta'minlash davlat fondiga, O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy sug'urta fondiga qonunlarga muvofiq o'tkaziladigan majburiy ajratmalar, jumladan, bank xodimlariga mukofot hamda ko'p yil ishlaganlik uchun ularni rag'batlantirish bo'yicha xarajatlarni amalga oshiradilar. Bank nodavlat fondlarga, ixtiyoriy tibbiy sug'urta va ixtiyoriy sug'urtaning boshqa turlari uchun o'tkazgan ajratmalari, qonunlarga muvofiq bank mulkini va bank xodimlarini davlat sug'urtasidan o'tkazish bo'yicha to'lovlar ham bankning foizsiz xarajatlariga kiradi.

Bank asosiy fondlarni, jumladan, ularning bank faoliyatini amalga oshirishda foydalanadigan alohida qismlarini, xususan, tushumni inkassatsiya qilish uchun avtomobil transportini ijaraga olish bo'yicha xarajatlar qiladi.

Bank xodimlari va bank xodimlari bo'lmagan, ya'ni bank shtatida bo'lmagan xodimlarga, ular bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha bajarilgan ishlar uchun ish haqi to'lash xarajatlari, amaldagi qonunlarga muvofiq, navbatdagi va qo'shimcha ta'tillar pulini, shuningdek, tibbiy ko'riklardan o'tkazish kabi xarajatlari ham foizsiz xarajatlarga kiradi.

Bundan tashqari, banklarning foizga dahli yo'q xarajatlariga bank sohasida malakali kadrlar tayyorlashga sarflanadigan xarajatlari ham kiradi. Tijorat banklari oliy o'quv yurtlari bilan kelishilgan shartnoma va to'lov asosida bank sohasiga malakali kadrlar tayyorlash, bank xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash xizmatlari uchun haq to'laydi.

Bizga ma'lumki, banklarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish uchun banklar auditorlik firmalari bilan shartnomada kelishilgan narxlarda to'lovni amalga oshiradilar.

65-jadval

Tijorat banklari xarajatlarining taqsimlanishi yoki xarajatlari tarkibi

	2002-y.	2013-y.	2014-y.
I. Foizli xarajatlar jami	100	100	100
Depozitlar uchun foizlar	8,9	8,1	13,4
Banklararo kreditlar uchun foizlar	89,4	94,8	86,6
Qimmatli qog'ozlarga to'langan foizlar	0	0	0
Boshqa foizli xarajatlar	1,7	0,1	0
II. Foizsiz xarajatlar	100	100	100
Komission xarajatlar	11,2	10,8	11,2
Xorijiy valyuta operatsiyalaridan ko'rilgan zarar	0	0	0
Qimmatli qog'ozlardan ko'rilgan zarar	0	0	0
Ish haqi xarajatlari	22,4	21,3	24,5
Amortizatsiya xarajatlari	6,5	6,5	7,6
Soliqlar va boshqa majburiy xarajatlar	21,1	19,2	19,9
Boshqa foizsiz xarajatlar	29,9	37,2	30,7

Bankni boshqarish tizimida marketing va shunga o'xshash funksional xizmatlarni amalga oshirish uchun banklar tomonidan amalga oshirilgan xarajatlari bankning foizsiz xarajatlarida o'z ifodasini topadi. Axborot, kantselyariya xarajatlari, maxsus adabiyotlar, gazeta va jurnallarga obuna bo'lish xarajatlari, tijorat banki noishlab chiqarish

sohasi obyektlarini (uy-joy-kommunal xo'jaliklari, o'quv markazlari, bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, tibbiy, sog'lomlashtirish va boshqa muassasalar) saqlash, jumladan, shunday obyektlarni barcha turlarda ta'mirlashga qilinadigan, lekin ulardan foydalanish orqali olingan daromadlar (xonadon haqi, ota-onalar tomonidan bolalar bog'chasiga to'lanadigan badallar, yo'llanmalar to'lovlari v.b.) bilan qoplaydigan xarajatlar, shuningdek, yuqorida aytilgan obyektlardan ijara shartlarida foydalanganlik hollarida shu obyektlar bo'yicha to'lanadigan ijara haqi kabi xarajatlar bankning foizsiz xarajatlariga kiradi.

Banklar o'z xodimlari sog'lig'ini saqlash va ular dam olishini tashkil etish tadbirlari (davolanish va dam olish uchun yo'llanmalar, ekskursiya va sayohatlar yo'llanmalari, sport bilan shug'ullanish, madaniy va sport tomosha tadbirlariga borish uchun haq, dam olish xonalarini tashkil etish va saqlash bilan bog'liq va boshqa xarajatlar) uchun xarajatlarni amalga oshiradi.

Tijorat banklarining xarajatlarini tarkibiy jihatdan chuqurroq ko'rib chiqishimiz mumkin.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, bankning foizli xarajatlari ichida asosiy o'rinni banklararo kreditlar uchun foizlari egallaydi. Foizsiz xarajatlar ichida asosiy o'rinni ish haqi xarajatlari, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar egallaydi.

Bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklari moliyaviy natijalarini yakuniy holati foyda yoki zarar bilan tugallanadi.

Bank muassasalarining moliyaviy natijalari yakunida asosiy ko'rsatkich foyda hisoblanadi.

Bank muassasalarining asosiy ish prinsipi kamroq xarajat qilib, ko'proq daromad olishch hamda moliyaviy natijalar yakunida maksimal foyda olish hisoblanadi.

Bank tizimini erkinlashtirish munosabati bilan banklar davlat tasarrufidan chiqarilishi sababli xarajatlarni minimallashtirishga qaratilishini taqozo etmoqda. Bank faoliyati natijasini tahlil qilishda olingan barcha daromadlardan qilingan xarajatlar chegirib tashlash orqali oxirgi natija-foyda yoki zarar aniqlanadi.

Bank faoliyati asosan 2 ta asosiy moliyaviy hisobotlar, ya'ni buxgalteriya balansi hamda foyda va zararlar to'g'risidagi moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish orqali yakunlanadi.

Moliyaviy natijalarda bank xarajatlarining salmog'ini jadval ko'rinishida tahlil etsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

66-jadval

Aksionerlik tijorat banking foyda va zararlari tablili
(ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2014-y.	01.01.2015-y.	O'zgarishi (+,-)
1	Foizli daromadlar	176854,4	226859,2	50004,8
2	Foizli xarajatlar	208159,2	85248,8	-122910,4
3	Foizsiz daromadlar	286229,7	53698,3	-232531,4
4	Foizsiz xarajatlar	37117,7	22059,3	-15058,4
5	Operatsion xarajatlar	99117,7	70626,8	-28490,9
6	Ssudalar va bo'naklar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar	28584,1	24859,3	-3724,8
7	Daromad solig'i	13033,2	25911,7	12878,5
8	Hisobot davridagi sof foyda (zarar) (1-2+3-4-5-6-7)	77072,2	51851,6	-25220,6

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, banking yakuniy natijasi foyda bilan tugallangan. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, o'tgan yilda bank sof foydasi 77072,2 ming so'm bo'lgan bo'lsa, joriy yilda sof foyda 51851,6 ming so'mni tashkil etgan. Demak, joriy davrda bank foydasi o'tgan yilga nisbatan 25220,6 ming so'mga kamaygan. Banking daromadliligi, birinchi navbatda, xarajatlarni kamaytirishga bog'liq. Bank ishi texnologiyasidagi muvaffaqiyatlar, boshqalar bir xil sharoitda ishlasada, joriy xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Odatda, banklar o'z zimmasiga operatsiya xarajatlari, ustama foizlarga ketgan mablag'lar, shuningdek, kredit riski bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun ajratmalarni oladilar. Bank operatsiya xarajatlarini aniqlash oson emas. Chunki ular bank mahsulining keng turlarini aks ettiradi.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Bank daromadi	Daromad manbalari
Bank xarajati	Komission to'lovlar
Bank foydasi	O'zgaruvchan to'lovlar
Bankning sof foydasi	Daromad keltiruvchi aktivlar
Foizli daromadlar	Daromad keltirmaydigan
Foizsiz daromadlar	

Foizli xarajatlar
Foizsiz xarajatlar

aktivlar
Nostro, vostro hisob
raqamlari
Operatsion xarajatlar

O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

- Bank daromadlari nima va u qanday tashkil topadi?
- Bank xarajatlari nima va u qanday tashkil topadi?
- Bank foydasi nima va u qanday tashkil topadi?
- Bank sof foydasi nima va u qanday tashkil topadi?
- Foizli xarajatlar va ularning tarkibini tushuntiring.
- Foizsiz xarajatlar va ularning tarkibini tushuntiring.
- Foizli daromadlar va ularning tarkibini tushuntiring.
- Foizsiz daromadlar va ularning tarkibini tushuntiring.
- Bank xarajatlarini kamaytirishning omillarini sanang.
- Bank daromadlarini ko'paytirishning yo'llarini tavsiya qiling.
- Bank foydasi (sof foydasi)ni ko'paytirishning qanday yo'llari mavjud?

XXI BOB. TIJORAT BANKLARINING TO'LOVGA LAYOQATLILIGI VA LIKVIDLILIGI

1-§. Tijorat banklarining likvidliligi va to'lovga layoqatliligi haqida tushuncha

Tijorat bankining likvidligi - bu bankning barcha mijozlari va boshqa subyektlar oldidagi qarz va majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida to'lay olishidir. Bank likvidligi bank o'z kapitalining yetarliligi, uning optimal joylashtirilganligi va balansning aktiv va passiv qismlaridagi mablag'larning vaqt oralig'ida muvofiq kelishi bilan aniqlanadi.

Tijorat bankining likvidligi uning faoliyati asosini tashkil qiluvchi uch asosiy qism - bank kapitali, jalb qilingan mablag'lar va joylashtirilgan mablag'lar o'rtasidagi doimiy subyektiv mutanosiblikni saqlashdan iboratdir. Bu mutanosiblik esa yuqoridagilarning tarkibiy elementlarini operativ boshqarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tijorat banklarining moliyaviy holatiga baho berishda ularning foydaliligi, likvidligi va to'lovga qobiliyatligiga e'tibor qaratiladi. Aynan shu omillar bankning moliyaviy ahvoli qay darajada ekanligini belgilaydi. Banklarning likvidligi va to'lovga qobiliyatligi nafaqat bitta bank yoki bank tizimining barqarorligini, balki butun bir iqtisodiyotning muvozanatini ta'minlaydi. Bank tizimida, eng avvalo, banklarning likvidligi va to'lovga qobiliyatligi ko'rib chiqiladi, chunki foydalilik faqatgina bankning o'z manfaatini ifodalasa, likvidlik va to'lovga qobiliyatlik kengroq, ya'ni jamiyatning ko'pchilik qatlami, bank mijozlari manfaatlarini ko'zlaydi.

Bank likvidligi uning omonatchilar va kreditorlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida to'la-to'kis bajara olish qobiliyatidir.

"Likvidlik" atamasi lotincha "Liquidus" - oquvchan, suyuqlik ma'nosini anglatadi. Shularni hisobga olgan holda jahon banki nazariyasi va amaliyotida likvidlikka „zaxira” yoki «oqim» deb qaraladi. Likvidlik zaxira shaklida tijorat bankining mijozlari oldidagi o'z majburiyatlarini belgilangan vaqt mobaynida aktivlar tarkibini ularning hali ishlatilmagan zaxiralariga aylantirish yo'li bilan qoplashni ko'zda tutadi.

Likvidlik tijorat banki faoliyatida ma'lum vaqt mobaynida yuzaga kelgan noqulaylikning oldini olish, aktiv va passivlarning mos

moddalarini muvofiqlashtirish, qo'shimcha qarz mablag'larini jalb qilish, bank daromadlarini o'stirish yo'li bilan bank moliyaviy barqarorligini saqlash yo'llarini ta'minlashga qaratiladi. Shunday qilib, har bir tijorat banki o'z likvidliligini saqlash uchun harakat qilishi lozim. Bu bank faoliyatini tahlil qilish, prognoz qilish va ustav kapitali, maxsus fondlar va zaxiralar, jalb qilingan mablag'lar, aktiv - kredit operatsiyalarini amalga oshirishni tashkil qilishda ilmiy asoslangan kredit siyosat olib borish yo'li bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998-yil 2-noyabrdagi 421-sonli "Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida"gi nizomida likvidlikka bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o'sishini moliyalash bilan birgalikda depozitlar va qarz mablag'lari darajasining pasayishini samarali boshqarish deb ta'rif berilgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda to'lovga layoqatlilik likvidlikka nisbatan keng, ba'zi adabiyotlarda esa tor kategoriya sifatida qaraladi. Keng kategoriya sifatida o'rganilganda to'lovga layoqatlilik ichki va tashqi omillar doirasida ko'rib chiqiladi, likvidlik esa faqat ichki omillar doirasida qaraladi. Ba'zi qarashlarga ko'ra, likvidlik bankning dinamik holatini belgilaydi, to'lovga layoqatlilik esa ma'lum bir sanaga to'g'ri keluvchi holatini, ya'ni majburiyatlarini qoplay va to'lay olish qobiliyatini bildiradi.

Umuman, to'lovga layoqatlilik bankning zarur muddatlarda qarz va majburiyatlarini to'lay olish layoqatini bildiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, likvidligi bo'lmagan bank to'lovga layoqatli bo'la olmaydi. Amalda aynan likvidlik darajasi to'lovga layoqatsizlikning asosiy sababi bo'lib, banklarning bankrot bo'lishiga va bank tizimining beqarorligiga olib kelishi mumkin.

Tijorat banklarining likvidliligi uning balans tuzilmasi bo'yicha belgilanib, unda aktivlar passivga doir muddatli majburiyatlarni qoplash uchun o'z qiymatini tushirmagan holda yo'qotishlarsiz pul mablag'lariga aylantirilishi lozim. To'lovga layoqatsizlik esa faqat balans likvidliligiga bog'liq bo'lib qolmasdan, balki boshqa bir qator omillarga ham bog'liqdir.

Bazel qo'mitasi tashabbusi bilan yuzaga kelgan Bazel bitimi bank likvidligi bo'yicha umumiy qoidalarni belgilab berdi. Ushbu bitimga muvofiq, likvidlikni tahlil qilish banklarning o'z majburiyatlarini muddatidan va zarar ko'rmagan holda bajarish layoqatligini aniqlash zaruratini ko'zda tutadi. Banklarning likvidligi hamda to'lovga

layoqatligi banklarning umumiy moliyaviy barqarorligini ta'minlashga asos hisoblanadi. Bazel bitimi standartida ko'plab davlatlar o'z banki tizimi uchun likvidlilik me'yorlarini ishlab chiqqan.

O'zbekiston bank tizimida likvidlilikni ta'minlashning eng oddiy usuli bankning bir qism aktivlarini likvid shaklida, masalan, naqd pul, Markaziy bank va boshqa banklar vakillik hisob varaqalaridagi qoldiqlar, davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari shaklida saqlash hisoblanadi. Jahon banki materiallariga ko'ra to'lovga layoqatlilik o'z kapitalining ijobiy kattaligiga bog'liqdir. Bunga muvofiq to'lovga layoqatlilik bank kapitaliga asoslanadi. Umumiy likvidlilikni baholashda tijorat banklari asosiy likvidlilik, joriy likvidlilik va istiqbolli likvidlilikni bir tizimda tahlil qilishlari lozim.

Bank zarur bo'lganda yoki moliyaviy bozorda qarzlarni olish yoki banklararo bozordan kreditlarni olish hisobiga likvidlilikni ta'minlashi mumkin. Ba'zi hollarda tijorat banki balansi likvid bo'la turib, mijozlar talablari bajarilmasligi mumkin. Shuning uchun e'tiborni balans likvidliligiga emas, ko'proq bank likvidliligiga qaratish o'rinli bo'ladi.

Bankning moliyaviy barqarorligiga turli ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar ichida bankning moliyaviy bozordagi raqobatdoshligi, doimiy mijozlarning mavjudligi va bank amaliyotlarini o'tkazish hamda hisobini rasmiylashtirishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash omillari muhim o'rin tutadi. Bu esa samaradorlikni oshirishga va bankning ishonchli hamkor sifatida obro'sining mustahkamlanishiga imkon beradi.

Bankning ichki barqarorligi - bu tijorat banki faoliyatining barqaror, yuqori natijalarni ta'minlovchi passivlar va aktivlar tarkibining holati va moliyaviy natijalar dinamikasidir. Ichki barqarorlikka erishish asosida ichki va tashqi omillar o'zgarishiga faol javob berish tamoyili yotadi.

Tijorat bankiga nisbatan tashqi barqarorlik, ushbu bank faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiy muhit barqarorligi bilan belgilanadi. Tashqi barqarorlikka butun mamlakat miqyosidagi bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan boshqarish tizimi orqali erishiladi.

Banklarning moliyaviy mustahkamligini o'rganishdagi boshlang'ich jihat Markaziy bankning tijorat banklari faoliyatiga qo'yadigan tartibga soluvchi talablaridir.

Banklarning moliyaviy mustahkamligini oshirishga yo'naltirilgan ushbu talablarning samaradorligi mazkur mamlakat iqtisodiyoti, ishlab chiqarish va xizmat sohasining, jumladan, bank infratuzilmasining rivojlangan mamlakatlarda shakllangan tijorat banklari faoliyatini

tartibga solish va nazorat qilish tartiblarini o'rganish, O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tartibini takomillashtirishda juda muhim ahamiyatga ega.

Bankning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib boriladi:

Retrospektiv tahlil. Tahlilning ushbu yo'nalishida Markaziy bank tomonidan banklar uchun o'rnatilgan iqtisodiy normativlarga tijorat banklari tomonidan rioya qilinishini nazorat qilishga asoslangan moliyaviy barqarorlikning asosiy ko'rsatkichlari va belgilarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishning ushbu yo'nalishi quyidagi sohalar: likvidlilik, foydalilik, aktivlar sifati, kapitalning yetariligi va boshqarishning sifati tahlillaridan iborat.

Perspektiv tahlil. Moliyaviy barqarorlikni perspektiv tahlil qilishning maqsadi tijorat banki faoliyati samaradorligini prognoz qilish hisoblanadi.

Tijorat banki moliyaviy barqarorligini baholash moliyaviy resurslarning shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanish jarayonida namoyon bo'luvchi moliyaviy holatni tahlil qilishdan boshlanadi. Shunga muvofiq, moliyaviy tahlilning ketma-ketligi, barcha jarayonlarni bosqichma-bosqich ko'rib chiqishni, jumladan, moliyaviy resurslarning mavjudligi, ularning shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanishni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

To'lovga qobiliyatlikni nafaqat tashqi ko'rinish, balki ma'lum bir vaqtda va moliyaviy mustahkamlikning barcha omillari ta'sirida hosil bo'lgan ma'lum moliyaviy holatning natijasi deb qarash lozim.

Likvidlik keng ma'noda qarzdorning kreditor oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olishi hisoblanadi. Likvidlik iqtisodiyotning barcha sohaları uchun harakterli bo'lib, shu bilan birga o'ziga xos bank muammosi hisoblanadi. Chunki pul bir vaqtning o'zida bankning ham aylanma kapitali, ham faoliyati mahsuli bo'lib, korxonalar aktivi esa asosan natural buyum shaklida mavjud bo'ladi.

Bank likvidligi bu bankning o'z oldida turgan majburiyatlarini bajara olishi, mijozlarning kreditga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishi va omonatchilarning depozitlarni qaytarib olish bo'yicha talablarini qondira olish qobiliyatidir. Bundan tashqari, likvidlik bankning bozorda xavfsizligi va qarzlarini o'z vaqtida qaytara olishga qodirligini oshkor qiladi, bankka aktivlarni foydasiz sotish yoki banklararo bozorda mablag'larni jalb qilish bilan bog'liq bo'lgan foydani yo'qotish xavfidan qutulish imkonini beradi.

Bank likvidligining asosiy sharoitlaridan biri, uning aktivlari likvidligidir.

Likvid aktivlar - ularning yaxshi ma'lum bo'lgan bozor narxining shakllanishini ta'minlaydigan, doimiy ravishda sotiluvchi va sotib olinuvchi aktivlarning alohida turi bo'lib, banklar ularni qisqa muddat ichida sotib olishga tayyor bo'lgan xaridorni topishi mumkin. Bunday aktivlar qatoriga naqd pullar, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari, qisqa muddatli (yetti kungacha) banklararo kreditlar kiradi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR) davlatlari hukumatlari hamda fond bozori rivojlangan davlatlarining mashhur transmilliy kompaniyalarining qimmatli qog'ozlari ham yuqori likvidlikka egadir.

Nolikvid aktivlar deb, bozor narxini kotirovka bo'yicha aniqlash mumkin bo'lmagan va bu turdagi aktivlarning xarid narxi sotuvchi va xaridor o'rtasidagi kelishuv natijasida xususiy tarzda aniqlanadigan aktivlarga aytiladi. Bunday aktivlarning qiymati katta miqdordagi o'zgarishlarga uchrab turishi taqqoslashni qiyinlashtiradi. Bu turdagi aktivlarga, masalan, kreditlar, qimmatli qog'ozlar bozorida kotirovkaga ega bo'lmagan yoki kotirovkasi qiyin bo'lgan qimmatli qog'ozlar, asosiy vositalar va boshqalar kiradi. Tezda naqd pul miqdorini oshirish uchun nolikvid aktivlarni sotish zarur bo'lganda, bank ularni zarar ko'rgani holda sotishi mumkin.

Bank likvidligining yana bir jihati bankning to'lovga qobiliyatligi bo'lib, uning asosiy belgisi bankning o'z oldida turgan majburiyatlarini o'z vaqtida qondira olish qobiliyatidir.

“Likvidlik” va “to'lovga qobiliyatlilik” mazmuni, omillari va uni ta'minlovchi sabablarga ko'ra bir-biriga yaqin tushunchalardir. Likvidlik muammosi tashqi jihatdan to'lov majburiyatlarini bajarish jarayonida vujudga keladi va likvid mablag'lar yo'qligi bilan bog'liq qiyinchiliklar tug'ilganda namoyon bo'ladi.

Likvidlik nafaqat to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishni nazarda tutadi, balki o'zining tijorat manfaatlari bilan birga omonatchilar tomonidan ishonch bildirilgan mablag'larning saqlanishini ta'minlaydi.

Bankning to'lovga qobiliyatligi bankka qo'yilgan to'lovlar bo'yicha talablar ayni vaqtda qondira olish qobiliyatini bildiradi. To'lovga qobiliyatlilikni ma'lum moliyaviy holatning natijasi sifatida qaralishi mumkin.

Shu bilan birga, to'lovga qobiliyatlilik likvidlikka nisbatan ikkilamchidir. Chunki bankda to'lovga qobiliyatlilik muammosi sodir bo'lishi mumkin, ammo uning likvid balansi, bankning majburiyatlarini

o'z vaqtida bajara olishini ta'minlovchi qobiliyatini tiklash imkoniyatini beradi.

Bank likvidligi ko'proq bank balansining likvidligi bilan belgilanadi va uning mazmuni, mohiyati aktiv va passiv operatsiyalarning muddati bo'yicha mos kelishidan iborat. Bank balansining likvidligi ssuda va fond operatsiyalariga yo'naltirilgan mablag'larning xatarlilik darajasi, pul bozorining rivojlanish darajasi va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Bundan tashqari, passivlarning qisqa muddatliligi uzoq muddatli qo'yilmalarga ham sarflanishi imkoniyatlarini cheklab qo'ymaydi. Bankning har doim o'z tasarrufida ma'lum miqdorda "begona" pullari bo'ladi. Omonatlarning bankka doimiy oqib kelishi bilan birga ularning qaytarilib olinishi ham doimo sodir bo'lib turadi va bunda bank hisob varaqalarida doimiy turib qoladigan qarz mablag'lari miqdori barqaror hisoblanadi.

Tijorat banki likvidligini saqlab turish muammosini hal qilish uchun passivlar oqimi harakatchanligi va muddatiga ko'ra aktivlar oqimiga mos kelishi lozim.

Shunday qilib, tijorat banki likvidligi bankning ma'lum vaqtdagi to'lovga qobiliyatlilikini ta'minlovchi va bank likvidligining asosiy omili bo'lgan bank aktivlari va passivlarining nisbati bilan belgilanadi.

Bank likvidligini ta'minlovchi omillardan biri bank passivlarining sifatidir. O'zlik va jalb qilingan mablag'lar nisbati bankning ishonchliligi va faoliyati rivojlanishining istiqbolini harakterlab beradi. Jalb qilingan mablag'lar oqimining barqarorligi likvidlik muammosini hosil qilmasdan turib, qisqa muddatli resurslarni uzoq muddatli qo'yilmalarga yo'naltirish imkoniyatini beradi. Depozitlar bo'yicha ijro muddatining aniqligi balansning likvidligini boshqarish va likvid vositalarga bo'lgan ehtiyojni prognoz qilish imkoniyatini beradi. Bu esa bank barqarorligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Bank likvidligini ta'minlovchi omillardan biri bank tomonidan qarz olish, o'z aktivlarini sotish yo'li bilan yoki o'z majburiyatlarini bajarish uchun mablag' topa olish imkonini beradigan pul bozorining mavjudligidir. XX asrning 60-yillarida bu omilning roli nihoyatda ortdi. Bunga sabab, erkin muomalada bo'lgan federal depozit sertifikatlari, federal fondlarning qisqa va uzoq muddatli qimmatli qog'ozlari, REPO bitimlarining keng qo'llanilishi va buning natijasida balansda foyda keltirmaydigan va kam daromadli aktivlarning to'planishi bilan bog'liq

bo'lgan foyda yo'qotilishini minimallashtirish imkoniyatiga ega bo'linganligidir.

Tijorat banki moliyaviy barqarorligining yana bir komponenti bank faoliyatining foydaligidir.

Bank foydasining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, agar ishlab chiqarish sohasida xarajatlar o'zgaruvchan kapital va qisman qo'shimcha qiymat hisobidan qoplansa, banklarda esa muomala xarajatlari to'la, faqatgina qo'shimcha qiymat qismidan qoplanadi.

Foyda olish - bank faoliyati ko'lamini kengaytirish manbalaridan biridir. Agar bank ishida kapitalga daromad boshqa tijorat tashkilotlariga nisbatan past bo'lsa, kapital qo'llash foydaliroq bo'lgan boshqa sohalarga yo'naltiriladi.

Bundan tashqari, foyda rahbariyat faoliyatini rag'batlantiradi, chunki ular operatsiyalar hajmini oshirish va takomillashtirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmatlar sifatini oshirganliklari uchun foydaning bir qismini mukofot shaklida olishlari mumkin.

Bank foydasining eng muhim funksiyalaridan biri ko'zda tutilmagan yo'qotishlar holati uchun zaxiralar shakllantirishdir.

Tijorat bankinging zararsiz faoliyati uning moliyaviy asosini mustahkamlaydi va, aksincha, uzoq muddat mobaynida zarar bilan faoliyat ko'rsatish bankni bankrotlikka olib borishi mumkin.

Banklar muomala sohasi korxonasi sifatida o'z foydasini bank operatsiyalarining natijasi bo'lgan bank mahsulotini sotish asosida shakllantiradi. Bank faoliyatining foydalilik darajasi bank faoliyati harakteri, ixtisoslashuvi, uning kapitalining kattaligi, strukturasi va filiallarining mavjudligi hamda mustaqillik darajasiga bog'liq.

Bank faoliyatining foydaliligi rentabellikning muhim ko'rsatkichlari majmuyi bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlarga: kapitalga foyda me'yori, yalpi aktivlarning daromadliligi va foydaliligi, sof foiz marja, foizsiz yuk, aktivlar tizimi va "ishlovchi" aktivlar salmog'i, passivlar tizimi va to'planadigan passivlar salmog'i, ishlovchi aktivlarning daromadliligi, foizli tashlanma kiradi.

Ichki tahlil nuqtayi nazaridan faoliyatning moliyaviy ishonchliligi va rentabellik tahlili juda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston iqtisodiyotida mavjud bo'lib turgan ma'lum darajadagi inflyatsiya sharoitida foydalilik tahlilining dolzarbligi yanada oshadi.

Foydani kamaytirishga sabab bo'luvchi omillar quyidagilardir: balansning nolikvidligi, bunda likvidlik kamomadini to'ldirish uchun qo'shimcha kredit resurslarini jalb qilish zarurati tug'iladi;

depozitlarning barqaror emasligi; inflyatsiyaning o'sishi va bu orqali tartibga soluvchi talablar, jumladan, yuqori majburiy zaxiralar talabi ta'siri ostida bo'lgan foiz marjasining pastligi; daromad keltiruvchi aktivlarning noqulay strukturasi, jumladan, kam daromad keltiruvchi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar, foizsiz ssudalar salmog'ining yuqoriligi va to'lovli passivlar. Masalan, resurslar tarkibida bahosi yuqoriroq bo'lgan kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar salmog'ining yuqoriligi; foizsiz daromadlar va foizsiz xarajatlarning salbiy nisbati; ma'muriy-xo'jalik xarajatlarining maqsadga muvofiq bo'lmagan yuqori darajasi; kredit portfelida muddati o'tgan kreditlar salmog'ining yuqoriligi va berilgan kreditlarning foydalanish hamda qaytarilish muddatlarini uzaytirish bilan bog'liq yo'qotishlar; qimmatli qog'ozlar qiymatining tushishi; soliqlar darajasining yuqoriligi; muvozanatlashtirilmagan foiz siyosati; hajmi va miqdori jihatidan o'z kapitali miqdorini chegaralovchi asoslanmagan yuqori darajada xatarli bo'lgan bank faoliyatini yuritish.

2-§. Tijorat banklari likvidligini baholash

Tijorat banklarining likvidligini belgilovchi ko'pgina omillarni biz yuqoridagi paragraflarda ko'rib chiqqan edik. Undan tashqari, tijorat banklarining likvidlilik ko'rsatkichlari ma'lum me'yorlar asosida aniqlanadi. Barcha tijorat banklari joriy likvidlik me'yorlarini bajarishlari lozim, ular joriy aktivlarning (to'lov muddati 30 kungacha bo'lgan barcha likvidlik aktivlari, bank qo'yilmalarining bir marta bo'lsa ham muddati uzaytirilgan va yoki avval berilgan ssudalarni to'lash uchun, shuningdek, qaytarish muddati o'tib ketgan kreditlar istisno qilinadi) talab qilib olinguncha majburiyatlar summasi nisbatiga va ijro etish muddati 30 kungacha bo'lgan holda aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich 30 foizdan kam bo'lmasligi kerak, ya'ni bankning joriy likvidligi:

$$M_4 = \frac{KA}{OB}$$

KA- qaytarish muddati 30 kungacha bo'lgan joriy aktivlar va kreditlar

OB- qaytarish muddati 30 kungacha bo'lgan talab qilib olingunga qadar bo'lgan majburiyatlar.

Lahzali likvidlilik koeffitsiyenti. Bu koeffitsiyent bankning yuqori likvid mablag'larining (bular - bankning g'aznasidagi naqd pul mablag'lari va vakillik hisob varaqasidagi mablag'lar) joriy majburiyatlarga nisbati sifatida aniqlanadi va u bankning joriy

to'lovlarni tezkorlik bilan amalga oshira olish qobiliyatini ko'rsatadi. Bankning joriy majburiyatlariga talab qilib olingunga qadar bo'lgan depozitlar bo'yicha majburiyatlar, yaqin orada to'lanishi lozim bo'lgan boshqa banklardan olingan kreditlar bo'yicha majburiyatlar va boshqalar kiradi. Shunday qilib,

$$M_z = LA/JM.$$

Bu yerda:

LA - bankning pul shaklidagi aktivlari,

JM - bankning talab qilib olingunga qadar bo'lgan hisob varaqalari bo'yicha majburiyatlari.

Bu me'yor bank aktivlarining likvid qismi bankning eng nobarqaror resurslarini qanchalik darajada sug'uritalay olish imkonini ko'rsatadi. Shuning uchun maqsadli likvidlikni banklar har kuni tekshirib borishlari va uning minimal miqdori 0,25 dan kam bo'lmashligini ta'minlashlari lozim.

Qisqa muddatli likvidlik koeffitsiyenti to'lov muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan bank aktivlarining bankning muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan depozitlari va jalb qilingan mablag'lari va kapitaliga nisbati sifatida aniqlanadi, ya'ni

$$M_5 = A/D+K,$$

Bunda:

A - to'lash muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan bank aktivlari;

D - muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan jalb qilingan depozitlar va jalb qilingan resurslar;

K- bank kapitali.

Bu ko'rsatkichning hajmi 1 ga teng bo'lishi zarur.

Undan tashqari, tijorat banklari likvidligini aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlar tahlil qilinishi mumkin. Bular:

-Likvid aktivlar (zaxiraning ortiqcha qismi, erkin ayirboshlanadigan valyuta, DQMO lari, boshqa banklardagi vakillik hisob varaqlari)ning /jami aktivlari.

-Doimiy bo'lmagan majburiyatlar (yirik depozitlar, ma'lum manbalardan olingan qarzlar) /jami aktivlar.

-Yuqorida keltirilgan barcha ko'rsatkichlarning pasayishi bankning resurslar barqaror bo'lmagan manbalarga tayanganligi yoki bank portfelidagi yuqori likvidli aktivlar ulushining kamayganligini anglatadi.

-Kreditlar/Depozitlar — depozitlarning, ayniqsa, mayda omonatchilarga tegishli qismi odatda resurslarning barqaror manbayidir. Ko'rsatkichning juda yuqori qiymati (80 foizdan ortiq) va/yoki o'sishi

dastlabki muammolar bankdan chiqib ketadigan resurslar (banklararo bozorlardan olingan qisqa muddatli qarzarlar) manbalariga bo'lgan talabning pastligini bildiradi.

-Garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar /Jami qimmatli qog'ozlar — garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar umumiy ko'rsatkichi bo'lib, u likvidlilikka tezkor talablarni qoplash uchun qo'llanilmaydi.

AQSh da ham tijorat banklari likvidlilikini baholashda bir qator ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bular quyida keltirilgan formulalardir:

$$L_1 = \frac{\text{I-darajali zaxiralar (Kassa + MB dagi vakillik schyotlari)}}{\text{Depozitlar}};$$

$$L_2 = \frac{\text{I-darajali zaxiralar + II darajali zaxiralar (qimmatli qog'ozlar)}}{\text{Depozitlar}};$$

L_1 bank likvidligini ta'minlashi uchun 5-10 foizdan yuqori bo'lishi kerak.

L_2 da esa banklar 15-25 foizdan yuqori zaxira lar yig'ishlari kerak.

L_3 da kreditlarning umumiy aktivlarga nisbatan salmog'ini topib bank faoliyatiga baho berish mumkin.

Kreditlar

$$L_3 = \frac{\text{Kreditlar}}{\text{Umumiy aktivlar}} * 100 \text{ foiz}$$

L_3 ko'rsatkichi 60-70 foiz oralig'ida bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Asosiy depozitlar

$$L_4 = \frac{\text{Asosiy depozitlar}}{\text{Umumiy depozitlar}} * 100 \text{ foiz}$$

Bu ko'rsatkich banklarga qo'yilgan depozit qay darajada barqaror ekanligini aniqlab, bank faoliyatiga baho berishda yordam beradi.

L_4 koeffitsiyent 75 foiz yuqori bo'lishi lozim.

Bazel 3 talablarini joriy qilish bo'yicha 2016-yil 1-yanvardan likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti yuqori sifatli likvid aktivlarning kun davomida to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'lariga nisbati sifatida aniqlanadi.

Ko'pgina mamlakatlarda likvidlilik ko'rsatkichlari tijorat banklari balansining aktiv va passiv qismini tahlil qilish asosida baholanadi.

Frantsiyada tijorat banklarining likvidligini baholashda ishlatiladigan koeffitsiyentlari umumiy talab qilib olingunga qadar muddatli depozitlarning (3 oygacha bo'lgani) va boshqa resurslarning aktivlarga nisbati bilan aniqlanadi. U yerda bu koeffitsiyentning hisoboti nazorat organlariga har chorakda taqdim etiladi. Bu koeffitsiyent 60 foizdan kam bo'lmazligi kerak.

3-§. Tijorat banklari likvidligini boshqarish

Yuqorida aytilganidek, likvidlikni boshqarishni bajarish masalasi, talab etiladigan darajasi ushlab turilishi uchun tijorat banki mustaqil ravishda o'zining faoliyati va talablariga amal qilishi hamma tarmoqlardagi iqtisodiy asoslangan siyosatni o'tkazishi lozim.

Bu maqsadlarda tijorat banki doimo o'z kapitalini oshirib borishi boshqa korxonalar va tashkilotlardan jalb etilgan mablag' va o'z mablag'lari o'rtasidan optimal nisbatni ta'minlashi, bankning oborotida bo'lgan uzoq muddatli «ishonchli» va «arzon» kredit resurslarini shakllantirishga intilishi kerak. Kredit siyosatini to'g'ri ishlab chiqish, kredit resurslarini foyda keltiradigan sohalarga qo'yishi, resurslarini jalb etishda kredit qo'yilmalar hajmi va ularning muddatiga etibor berish, likvid aktivlarning hajmini oshirish bilan bank aktivlarining optimal strukturani shakllantirishiga erishish lozim. Shuningdek, hissadorlarning qonuniy talablarini bajarishga tayyor bo'lishi uchun shu mablag'larning keragidan ortiqcha xarajat qilishiga yo'l qo'yamasligi orqali bankning daromad va foydasini oshirishiga intilish zarur.

Bank likvidligini boshqarish nazariyalari tijorat banklarini tashkil etilishi bilan bir vaqtda paydo bo'ldi.

Hozirgi kunda to'rtta asosiy nazariya farqlanadi:

1. Tijorat ssudalari nazariyasi.
2. Joydan-joyga (aktivlarni) ko'chirish nazariyasi.
3. Kutiladigan daromad nazariyasi.
4. Passivlarni boshqarish nazariyasi.

Birinchi uchta nazariya bevosita aktivlarni boshqarish nazariyasi bilan bog'liq. Bank amaliyotida yuqoridagi nazariyalarning barchasi qo'llaniladi, lekin har xil banklarda ularning qaysigadir ko'proq e'tibor qaratiladi.

Likvidlik holatini boshqarishda 2 ta yo'nalishni ajratishimiz mumkin:

Birinchisi, zaxiralarni doimiy nazorat qilish siyosati. Bu shuni anglatadiki, bankda daromad keltirmaydigan aktivlarni oshishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Ikkinchisi, zaxiralarni bir darajada saqlab turishni qo'llab-quvvatlash siyosati, ya'ni majburiy zaxira normalari, jalb qilingan depozitlarga zaxiralar va h.k.

Likvid mablag'larga bo'lgan talabni rejalashtirishda naqd pullarni boshqarish, ya'ni mijozlarning talabini qondirish maqsadida majburiy zaxiralarni bir maromda saqlash lozimdir. Shularni inobatga olgan holda bank kassasidagi pullar kun davomida, ya'ni pul tushum va chiqim bitimlarini amalga oshirish natijasida o'zgarib boradi.

Bank amaliyoti shuni ko'rsatadiki, likvidlikning yetarli darajasini ta'minlanmasligi bank faoliyatidagi jiddiy kamchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunday holatning yuzaga kelishi odatda bankdagi depozitlarning yo'qotilishiga, bu esa naqd pul mablag'larining kamayishiga va bank aktivlaridaga o'ta likvid qimmatli qog'ozlarning sotilishiga sabab bo'ladi. Bank likvidligini boshqa banklardan olingan kreditlar hisobiga ham qondirish mumkin. Ammo boshqa banklar yuqori foiz stavkada kreditlar taqdim etadi yoki berilayotgan kreditlarga qo'shimcha ta'minot qo'yishni talab etishadi. Bu esa bank oladigan daromadning kamayishiga olib keladi.

Banklarning likvidlik muammosini hal qilish uchun likvidlikni boshqarishning bir qancha strategiyalari mavjuddir.

Bular:

1. Aktivlar hisobiga likvidlikni ta'minlash strategiyasi (aktivlarni boshqarish orqali likvidlikni boshqarish). Bu strategiyaga muvofiq bank aktivlarni tez sotiladigan qimmatli qog'ozlarga joylashtirishni nazarda tutadi. Agar likvid mablag'larga talab yuzaga keladigan bo'lsa, bank naqd pullarga bo'lgan talabni qondirguncha o'z aktivlarini sotadi. Odatda likvidlikni boshqarishning ushbu strategiyasi aktivlarning transformatsiyasi deb ataladi, chunki pul ko'rinishida bo'lmagan aktivlar naqd pulga aylanishi hisobiga likvid mablag'lar yuzaga keladi.

Likvid aktivlar uchta xususiyatga ega bo'lishi lozim:

-tez pulga aylanishi uchun o'z bozoriga ega bo'lishi;

-bozorlarda barqaror bahoga ega bo'lishi ;

-sotuvchi minimal risk orqali birlamchi investitsiyani qoplay olish imkoniyatining bo'lishi lozim.

Aktivlarni boshqarish orqali likvidlilikni boshqarish strategiyasi odatda mayda banklar faoliyatida qo'llaniladi, chunki ushbu likvidlilikni boshqarish metodi qarz likvid mablag'lari orqali aktivlarni transformatsiyalash strategiyasi likvidlilikni boshqarishning arzon yo'li hisoblanmaydi. Aktivlarning sotilishi bankning kelgusi daromadlarining yo'qolishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, ko'p aktivlarning sotilishi qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarda brokerlarga to'lanadigan komission xarajatlar bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, naqd pul mablag'lariga ega bo'lish maqsadida aktivlarning sotilishi bank balansining yomonlashuviga olib keladi, ammo bu aktivlar (misol uchun davlat qisqa muddatli obligatsiyalari)ning mavjud bo'lishi bankning moliyaviy faoliyati barqarorligidan dalolat beradi. Aktivlarning sotilishi lozim bo'lgan paytda bozorda qimmatli qog'ozlarning bahosi tushayotgan davrga to'g'ri kelishi bank kapitalining yo'qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Bank boshqaruvchilari kelgusi davr daromadlarini muqobil qiymatini minimallashtirish uchun, birinchi navbatda, minimal foyda potentsialiga ega bo'lgan aktivlar sotilishini ta'minlab berishi kerak. Xullas, likvid aktivlarning salmog'i oshib borgan sari bank daromadlarining qisqarishiga olib keladi.

2. Pul mablag'lariga talabni qondirish uchun likvid qarz mablag'laridan foydalanish strategiyasi (passivlarni boshqarish). Ko'pgina yirik banklar likvid mablag'larning manbasi sifatida ko'proq pul bozoridagi qarz mablag'laridan foydalanishadi. Odatda bu strategiyani passivlarni boshqarish deb ataladi. Bunda tijorat banklari o'zlarining likvid mablag'larga bo'lgan talablarini yirik miqdordagi depozit sertifikatlarini va boshqa banklardan olingan kredit mablag'lari orqali ta'minlashadi. Passivlarni boshqarish strategiyasi orqali ma'lum bir muddat uchun qarz mablag'lari hisobiga likvidlilik ta'minlanadi. Bu strategiyani yirik banklar amalga oshirishining asosiy sababi shundaki, banklarning o'z mablag'lariga nisbatan majburiyatlarining ortishi va bank balansida tez pulga aylana oladigan aktivlarning yetarli darajada bo'lmasligi, bankning to'lovga layoqatsiz bo'lish riski yuzaga kelishi mumkin hamda bank likvid mablag'larga bo'lgan talabini qondira olmay qolishi mumkin.

3. Aktiv va passivlarni boshqarish qarz likvid mablag'larini boshqarish strategiyasining riskligini va aktivlarda likvid mablag'larning yuqori bahosini hisobga olgan holda, banklar likvidlilikni boshqarishning aktiv va passivlarini boshqarish strategiyasini tanlaydilar. Bu strategiyaga muvofiq likvid mablag'larga kutilayotgan

talabning bir qismi tez sotiladigan qimmatli qog'ozlar va boshqa banklardagi depozit ko'rinishlarida saqlanadi, shu paytda likvid mablag'larga bo'lgan boshqa talablar bank korrespondentlari bilan ochilgan kredit liniyalari va boshqa mablag'lar orqali qondiriladi. Kutilmaganda yuzaga keladigan likvid mablag'larga talablar qisqa muddatli kreditlar orqali qoplanadi.

4. Tijorat banklari likvidligini samarali boshqarishda bank va uning atrofidagi muhitning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi, aniq ifodalangan va hujjatlashtirilgan likvidlikni boshqarish siyosatining mavjudligi.

5. Bankning turli bo'linmalarining muvofiqlashtirilganligi.

6. Bank likvidlik holatining monitoringi vazifalari yuklangan bo'linmaning mavjudligi.

7. Ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda bankning aktiv va passiv holatlarini tahlil qilish uchun axborot tizimining mavjudligi yetakchi omillaridan hisoblanadi.

Likvidlikni boshqarishda bank likvidlikni boshqarish siyosatini ishlab chiqish va likvidlikni boshqarish bo'yicha qarorlar bank kengashida doimo muhokama qilib borilishi va zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi lozim. Tijorat banklarining tarkibiy bo'linmalari:

- bank likvidlik holatining har kunlik kuzatuv;
- rahbariyatga bankning likvidlikka munosabati to'g'risida kundalik hisobotlarni tayyorlash, bunda likvidlikni qisqa muddatli rejalashtirish ham hisobga olinishi kerak;
- barcha bank bo'limlaridan kerakli bo'lgan axborotlarni olish vakolatiga ega bo'lishi lozim.

Kundalik hisobotlar yetti kunlik davr ichida likvidlikning qisqa muddatli kamayishini yoki ortiqchaligini aks yettirish uchun yetarli darajada batafsil bo'lishi hamda mablag'larni jalb etish va investitsiyalash bo'yicha talab qilingan tavsiyanomalar bilan ta'minlashi lozim. Ushbu bo'linma ma'lum davr ichida (oy, chorak, yil yakunlari bo'yicha) bank boshqaruvi kengashiga bankning likvidlik pozitsiyasi holati to'g'risida umumlashgan hisobotlar taqdim etishi kerak.

Tijorat banklari likvidligini baholashda bankning joriy likvidlik holati va mablag'larga kelajakda bo'ladigan ehtiyojini yetarli darajada baholash uchun:

- moliyaviy resurslarning eng yirik manbalari, tarmoq va geografik hudud bo'yicha resurslar manbalarining jamlanganligi;

-asosiy nomuvofiqliklarni aniqlash uchun aktivlar va passivlarni to'lash jadvali;

-likvid aktivlar va depozitlarning oldingi trendlari (dinamikasini aks ettiruvchi jadvallar);

-balansdan tashqari majburiyatlar;

-berilishi kutilayotgan kreditlar;

-aktivlarning daromadliligi va jalb qilingan resurslarning qiymati;

-iqtisodiyotning ahvoli, shu jumladan, asosiy iqtisodiy indikatorlar va foiz stavkalarining o'zgarishi taxminlari.

To'liq axborot va ma'lumotlar berilishi lozim.

Bank likvidligini boshqarishning samarali usuli aktiv va passivlarni boshqarishni o'z ichiga oladi.

Balansning aktiv qismida bank likvidligini boshqarish uchun sotilishi oson bo'lgan aksiyalarni, ya'ni DQMO ni xarid qilish yoki ularga egalik qilish yoxud zaxiralarni ko'proq tashkil qilish va sotilishi qiyinchilik tug'dirmaydigan pul mablag'lariga aylantirish ko'p vaqtni olmaydigan qisqa muddatli qo'yilmalarni amalga oshirish yo'li bilan erishish mumkin.

Banklarning likvidligini boshqarishda:

-joriy likvidlik holati;

-resurslarga bo'lgan talabning davriy o'zgarib turishi;

-resurslarga bo'lgan talablarning mo'ljallanayotgan o'zgarishlari;

-resurslar manbalari. Bank rahbariyati banklararo bozorda aktivlarni sotish va xarid qilishni yoki boshqa manbalarni tanlashi lozim;

-resurslarning qiymati;

-aktivlarning sifati kabi omillarni inobatga olish lozim.

Bank aktivlarining sifati ham bank likvidligiga ta'sir ko'rsatadi. Chunki bankda muammoli kreditlar, muddati o'tgan, foyda keltirmaydigan kreditlar salmog'ining yuqoriligi, pul mablag'lari harakatining kamligi bank likvidligining tushib ketishiga olib keladi.

Bank faoliyatining barqaror va likvid bo'lishi uning resurslarining manbalari va hajmiga, resurslarni tashkil qilishda diversifikatsiya usulidan foydalanganligiga ham bog'liq. Agar tijorat banki resurslarining asosiy qismini sanoqli yirik korxonalar mablag'lari yoki davlatning mablag'lari hisobidan tashkil qiladigan bo'lsa, bankning shu subyektlar depozitlariga qaramligini ko'rsatadi va subyektlar tomonidan turli xil budjet to'lovlarini amalga oshirish, ish haqi to'lash bo'yicha depozitdan mablag'lar olishi bankning likvidlik riski shuncha yuqori bo'lishiga olib keladi.

Undan tashqari, bank likvidligi bankning kapitali va foydaliligini hisobga olgan holda bankning umumiy moliyaviy holatiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Bankning moliyaviy holati yomon bo'lsa, talab qilinayotgan vositalarni yuqori narxda olish yoki banklararo bozorga kira olmasligi mumkin.

Balansdan tashqari majburiyatlar va shartnomalar, jumladan, ishlayotgan kredit liniyalar, akkreditivlar, qimmatli qog'ozlar va valyuta sotib olish uchun tuzilgan kelishuvlarning mavjudligi ham bank likvidligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tijorat banklarining likvidligini boshqarishda banklararo kreditlarning muddati 1 kundan bir necha oygacha davom etishi mumkin. Foiz stavkalari kontragent banklar o'rtasidagi bitim asosida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi yoki DQMolari bo'yicha stavkalarni asos qilib olgan holda belgilanishi kerak.

Ta'minotga ega bo'lmagan banklararo kredit bitimlarini tuzganda bir qarz oluvchiga beriladigan qarz me'yorlariga amal qilish kerak. Faqatgina overnayt operatsiyalari bundan mustasno, ular bo'yicha limit chegarasi bank kapitalining 25 foizi atrofida o'rnatiladi.

Banklararo kreditlarning ta'minoti sifatida DQMolari kabi yuqori likvidli va oson sotiluvchi qimmatli qog'ozlar qabul qilinishi mumkin. Ta'minot sifatida topshirilgan qimmatli qog'ozlar uchinchi shaxsning (tijorat banki yoki Markaziy bankda) eskrou hisob varag'ida joylashtirilishi yoki Markaziy bank daftarlarida ularning garovga olinganligi belgilanishi kerak.

Repo operatsiyalarida qo'llaniluvchi qimmatli qog'ozlar oson sotiluvchi va likvid vositalar, ya'ni DQMolari ko'rinishida bo'lishi kerak. Agar banklar boshqa qimmatli qog'ozlarni afzal deb bilsa, u holda qarz beruvchi tomon ularning yuqori likvidlik talablariga javob berishiga ishonch hosil qilishi va ularni o'zlarida saqlanishini ta'minlashi kerak. Bundan tashqari, tomonlar qimmatli qog'ozlarni uchinchi tomonda saqlash haqida kelishib olishi mumkin.

Repo operatsiyalari Markaziy bank talablariga rioya qilgan holda amalga oshirilishi lozim. Kelishuvda har bir tomonning huquq va majburiyatlari ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Kredit beruvchi tomon qimmatli qog'ozlarning to'lov muddatiga qarab garov qiymatining kredit qiymatidan kamida 10 foizga yuqori bo'lishini ta'minlashi kerak. To'lov muddati qancha yaqin bo'lsa, marja shunchalik katta bo'lishi zarur.

Ta'minot sifatida DQMolaridan foydalanilgan holda garov qiymatini, joriy diskont asosida aniqlash to'g'riroq bo'ladi. Kuponli qimmatli qog'ozlar qiymati ularning bozor narxi hamda hisoblangan foizlar miqdorida aniqlanadi.

Hozirgi vaqtda garov turi bo'yicha ma'lum cheklovlar o'rnatilmagan bo'lsada, banklar bozorda kotirovka qilinmaydigan qimmatli qog'ozlar va asosiy vositalar kabi garovning nolikvid shakllarini qo'llashda o'zlarining zimmalaridagi xatarni anglashlari lozim. Qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishining cheklanganligi va likvidligi korxonalar aksiyalarini garov sifatida qo'llanilishiga imkon bermaydi. Shu tufayli, davlat qimmatli qog'ozlardan tashqari boshqa qimmatli qog'ozlar garovi asosida berilgan kredit «ta'minlangan» bitim deb hisoblanmaydi.

4-§. Tijorat banklarining aktiv va passivlarini boshqarishning bank likvidligiga ta'siri

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining faoliyati foyda olishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank foydasining iqtisodiy mohiyati yangicha ijtimoiy-iqtisodiy tus olib bormoqda. Chunki tijorat banklarining foydasi bank kapitali to'planishining va bank rivojlanishining asosiy manbasidir.

Bank foydasining o'sib borishiga bir necha xil omillar mavjud bo'lib, bular: bankning rentabelligi, vaqtincha bo'sh mablag'larning samarali ishlatilishi, turli xil pulli xizmatlar ko'rsatish doirasini kengaytirish, foyda keltirmaydigan aktivlarni kamaytirish, foyda keltiruvchi aktivlarni ko'paytirish va boshqa omillar hisoblanadi.

Iqtisodiy rivojlanish bosqichida tijorat banklarining asosiy ish tamoyillaridan biri – yuqori darajada foyda olishga yo'naltirilgan va qaratilgan bo'ladi. Biroq bularning faoliyati doimo foyda ko'rish bilan bog'liq bo'lmasdan, ular foyliyatida zarar ko'rish ehtimoli ham uchrab tuishi mumkin. Banklar faoliyati ijobiy bo'lgan hollarda, ularning foyda olish va salbiy faoliyat natijasida banklarning zarar ko'rish ehtimoli yuqori darajada bo'ladi. Yuqorida aytilgan foyda keltiruvchi zaxiralarni amalda tatbiq qilish jarayonida bankning ish faoliyati iqtisodiy jihatdan risk bilan bog'liq bo'ladi.

Aktivlarni boshqarish deganda, o'z va jalb qilingan mablag'larni joylashtirish tartibi va yo'llari tushuniladi. Tijorat banklariga qo'llanilsa – bu naqd pullar, investitsiyalar, ssudalar va boshqa aktivlarga

taqsimlashdir. Mablag'larni joylashtirishda asosiy diqqat qimmatli qog'ozlarga, investitsiyalar va ssuda operatsiyalariga qaratiladi. Mablag'larning aniq yechimida shunday aktivlarni «sotib olish» kerakki, u bankka eng ko'p daromad olib kelsin. Biroq tijorat banklarida fondlarni boshqarish qator omillar orqali qiyinlashmoqda.

Bank tomonidan jalb qilingan mablag'larning ko'pchilik qismi mijozlarning birinchi talabi bilan to'lanishi kerak yoki ogohlantirish muddati juda qisqa bo'ladi. Shuning uchun bankni oqilona boshqarishning birinchi darajali shartlaridan biri bu jamg'armachilar talablarini qondirish xususiyatini ta'minlash hisoblanadi. Ikkinchi shart – bank mijozlarining kreditga bo'lgan talabini qondira oladigan yetarli mablag'larga ega bo'lish. Bunday kredit bera olish bank tijorat faoliyatining asosiy turidir. Mijozlarning kreditga bo'lgan talablarini qondira olmaslik bank tomonidan foydali operatsiyalarni yo'qotishiga, pirovardida esa sinish ehtimoliga olib keladi.

Banklarning mamlakatning asosiy pul massasini yetkazib beruvchi sifatidagi roli ularga jamiyat oldida katta mas'uliyat yuklaydi. Jamiyatning bank sistemasining to'lovga layoqatliligi, likvidliligi va barqarorligi to'g'risida ishonchsizlikka sababi bo'lmasligi kerak, jamg'armachilar esa istalgan bank ishonchli ekanligiga imoni komil bo'lishi kerak. Bank jamg'armachilari va uning aksiya ushlovchilari maqsadlarini bir-biriga taqqoslab bo'lmaydi. Shuning uchun bank o'z mablag'larini joylashtirayotganida hal etadigan asosiy masalalardan biri bu likvidlilik va foydalilik o'rtasidagi munosabatdir. Bir tomondan bank boshqaruv mablag'larni qimmatli qog'ozlarga joylashtirish orqali yuqori daromad olishga ko'z tutayotgan aksiyadorlarning bosimini his etsa, ikkinchi tomondan bank boshqaruvi bunday faoliyat bank likvidliligini sezilarli darajada yomonlashtirishini, bu esa jamg'armachilarga o'z mablag'larini ololmasligini va eski mijozlarning kreditga bo'lgan talabini qondira ololmasligini aniq biladi.


Bank mablag'larini turli aktivlarga joylashtirish yuqori likvidlilik darajasini ushlab turish va ma'lum yuqori daromad olish ehtiyojini belgilab beruvchi mavjud qonun va tartibga soluvchi aktlardan kelib chiqadi. «Likvidlik - daromadlilik» dillemmasini yechishga urinishlari aktivlarni boshqarishda 3 usulni keltirib chiqardi. Bu metodlardan birortasini ham yetuk deb hisoblab bo'lmaydi, chunki ularning har birining diqqatga sazovor va kamchilik tomonlari mavjud. Bir metodda alohida tijorat bankining aniq muammolarini yechish uchun qo'llash mumkin bo'lgan elementlar mavjud. Qo'llanish nuqtayi-nazaridan sodda

bo'lgan metod – bu umumiy fond mablag'lari metodidir (rool-of-funds approach). Bu metodni ko'pgina banklar mablag'lar ko'p bo'lgan davrda qo'llaydilar. Tijorat bank boshqaruvchisi joylashtirilishi uchun javobgar bo'lgan mablag'lar turli manbalardan: talab qilib olinguncha qo'yilmalar, jamg'arma, muddatli qo'yilmalar, shuningdek, bank o'z kapitalidan kelib tushadi. Ko'rib chiqilayotgan metod asosida bu resurslarni birlashtirish g'oyasi yotadi. So'ngra mablag'lar to'plami mos hisoblangan aktivlar turlari (ssudalar, davlat qimmatli qog'ozlari, kassadagi naqd pul va h.k.) o'rtasida taqsimlanadi. Umumiy fond mablag'lari metodida ma'lum aktiv operatsiyani amalga oshirishda, agarda ularning joylashtirilishi bank o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishishga yordam bersa mablag'lar qaysi manbadan kelib tushganligi ahamiyat kasb etmaydi. Bu metod sxematik ravishda 1-rasmda ko'rsatilgan. Bu metod bank boshqaruidan likvidlilik va daromadlilik prinsiplarini teng amal qilishini talab etadi. Shuning uchun mablag'lar shu prinsipga mos keladigan aktiv operatsiyalar turlariga joylashtiriladi. Mablag'larni joylashtirish orqali operativ bo'lim boshliqlariga likvidlilik va daromadlilik nisbatlari muammolarini hal etishga ko'mak beruvchi ma'lum prioritetlar asosida amalga oshiriladi. Bu prioritetlar bank ixtiyoridagi mablag'ning qaysi qismi daromad keltirish uchun birinchi yoki ikkinchi galdagi zaxiralarga joylashtirilish, ssuda yoki qimmatli qog'ozlar sotib olishga ishlatilishini ko'rsatib beradi. Mablag'larni yer uchastkalariga, imorat va ko'chmas mulkka investitsiyalash odatda alohida ko'rib chiqiladi.

Ikkinchi metodning vujudga kelishi – aktivlarni taqsimlash yoki mablag'larni konversiyalash (asset allocation or consersion of funds approach) – birinchi metod ba'zi kamchiliklarni bartaraf etish bilan bog'liq. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, umumiy fond mablag'lari pozitsiyasidan mablag'larni joylashtirishda haddan ziyod diqqat likvidlikka berilib, talab qilinguncha qo'yilmalar va asosiy kapital bo'yicha likvidlikka bo'lgan talab hisobga olinmaydi. Ko'pgina mutaxassislar fikrlari bo'yicha, bu kamchilik Amerika tijorat banklarining foyda normasi qisqarishining o'sib borishiga sabab bo'ldi.

Bu vaqt ichida talab qilinguncha qo'yilmalarga nisbatan kamroq likvidlilikni talab etuvchi muddatli va jamg'arma qo'yilmalar yuqori templar bilan o'sib bordi. Aktivlarni taqsimlash metodi umumiy fond mablag'lari metodi kamchiligini yengish imkonini berdi. Bu metod bankka zarur bo'lgan likvid mablag'lar miqdori fondlarni jalb qilish


manbalariga bogʻliqligini belgilab berdi. Sxematik ravishda bu 39 rasmda koʻrsatilgan.



38-rasm. Umumiy fond mablagʻlari modeli yordamida aktivlarni boshqarish

Mablagʻlar manbasi («dikvidlilik-daromadlilik markazlari»)

«Likvidlilik-daromadlilik markazlari» orgali mablagʻlarni joylashtirish



39-rasm. Aktivlarni taqsimlash modeli yordamida aktivlarni boshqarish

Bu metod orqali mablagʻlar manbalarini majburiy zaxiralar va ularning aylanish tezligi normalariga mos chegaralashga harakat qi-

linadi. Bu metodning asosiy ustun tarafi likvid mablag'lar va ssudalar hamda investitsiyalarga qo'shimcha mablag'lar qo'yish qismining qisqartirilishi va natijada foyda normasining ko'tarilishiga olib kelishidir.

Aktivlarni taqsimlash metodi-ning tarafdorlari foyda normasining oshishi oshiqcha likvid aktivlarni bartaraf etish hisobiga amalga oshiriladi.

Lekin, bu metod ham uning samaradorligini pasayishiga olib keladigan kamchiliklarga ega. Uning kamchiliklaridan biri, bu metod mablag'lar manbalari ularni qaysi yo'lda qo'llashdan qat'iy nazar mustaqil deb taxminlaydi, amalda esa bunday emas. Masalan, bankir amaliyotchilar ishchan firmalardan ko'p qo'yilma jalb qilishga harakat qiladilar. Chunki, bu firmalar odatda shu bankdan qarz oladilar. Bundan shu kelib chiqadiki, yangi qo'yilmalarni jalb qilish bilan birgalikda bank yangi qo'yilmachilar tomonidan bo'lgan kredit zayavkalarining bir qismini qoniqtirish majburiyatini oladi. Bu esa, yangi qo'yilmalarning bir qismi shu qo'yilma egalari kreditlash uchun yo'naltirilishi kerakligini anglatadi.

Ko'rib chiqilgan 2 metod bir muncha soddalashtirilgandir. Ularning qaror qabul qilishda asos bo'lib xizmat qiluvchi normativ yo'riqnomalar kompleksi sifatida emas, balki aktivlarni boshqarish bilan bog'liq muammolarni echish usullarini aniqlashda bank boshqaruviga yordam beruvchi umumiy sxema chegarasida qarash kerak. Ko'rib chiqilgan 2 metod aktiv va passivlar turli moddalari o'rtasidagi bog'liqlikni analiz qilishning ilmiy boshqarish soddas usullariga to'g'ri keladi.

Boshqarish va tahlil qilishning 3 usuli ilmiy metod, shuningdek informatsion texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq. Bu metod nisbatan murakkab matematik metodlar va informatsion texnologiyalar orqali boshqarish muammolariga yondashishni kasb etadi.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Tijorat bank likvidligi	Yuqori riskli aktivlar
Tijorat bank to'lovga layoqatliligi	Minimal riskli aktivlar
Bank aktivlari	Risk
Bank passivlari	Bank riski
Bank foydasi	Daromad keltiruvchi
Bank likvid mablag'lari	
Likvidlilik omillari	

Nolikvid aktivlar	aktivlar
Riskli aktivlar	Daromad
Kredit bahosi	keltirmaydigan
Kredit stavkasi	aktivlar

O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

- Tijorat banklarining likvidiligi deganda nimani tushunasiz va u qanday ataladi?
- Tijorat banklari to'lovga layoqatliligi va uning ko'rsatkichlari.
- Tijorat bankining to'lovga layoqatliligi qanday aniqlanadi?
- Daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan daromadlar nima, ularni ta'riflang.
- Banklarning likvidlilik darajasi qanday aniqlanadi?
- Tijorat banklar likvidiligi va to'lovga layoqatliligiga ta'sir qiluvchi omillar.
- Tijorat banklarining aktivlari va ularning risklilik darajasi.
- Tijorat banklarining daromadlarini sanang.
- Tijorat banklarining xarajatlarini keltiring.

XXII BOB. TIJORAT BANKLARI RISKLARI VA ULARNI BOSHQARISH USULLARI

1-§. Bank riski tushunchasi va uning turlari

Mamlakaitmizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonlari tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi bilan chambarchas bog'liq. Chunki tijorat banklari bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ularning barqarorligi davlat ahamiyatiga egadir.

Markazlashgan iqtisodiyot sharoitida barcha xo'jalik subyektlar faoliyati rejalashtirilgan bo'lib, asosiy maqsad rejani bajarishga qaratilgan, rejaning bajarilmagan qismi zarur hollarda yuqori tashkilot yoki budget mablag'lari hisobidan qoplab berilgan. Shuning uchun bu davrda risk degan tushuncha bo'lmagan. Bozor munosabatlarini tashkil qilish va olib borish butunlay boshqa tamoyillarga tayanadi. U tezkor taraqqiyot va rivojlanish, turli o'zgarishlar, raqobat, innovatsiya, islohotlar va boshqalarga asoslanadi. Bunday jarayonlar bozor munosabatlari sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan har bir subyektning ishiga ta'sir qiladi. Bu, ayniqsa, tijorat banklari faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki tijorat banklari faoliyatining o'zi riskli bo'lganligi uchun bozor munosabatida yuzaga keladigan islohotlar, o'zgarishlar, tebranishlar, inqirozlar va boshqa holatlarni birinchi bo'lib banklar seza boshlaydi.

Zamonaviy bank tizimini risksiz tassavur qilib bo'lmaydi. Bankning risksiz operatsiyasi yo'q, uning barcha operatsiyalari risk bilan bog'liq bo'lib, ularning darajasi operatsiya turiga qarab har xil bo'lishi mumkin. Binobarin, bank amaliyotida riskni umuman yo'q qilib bo'lmasada, uni oldindan ko'ra bilish va kamaytirish choralari ko'rish lozim.

Har qanday iqtisodiy faoliyat foyda olishga qaratilganidek, tijorat banklari faoliyatidan ham ko'zlangan natija – yuqori foyda olishdan iborat. Foydaga erishish jarayoni esa doimo risk bilan bog'liq bo'ladi. Shu tufayli tijorat banklari oldida turgan birinchi masala - bu risk va foydalilik o'rtasidagi optimal darajaga erishishdir. Bu, o'z navbatida, bank risklarini aniqlash, o'rganish va samarali boshqarishni talab qiladi. Bank faoliyatining risklilik darajasi boshqa xo'jalik subyektlari uchraydigan risklardan bir necha barobar yuqori. Tijorat banking

risksiz operatsiyasi mavjud emas, bankning barcha operatsiyalari risk bilan bog'liq.

Chunki xo'jalik subyektlari faoliyatida o'z mablag'lariga tayansa, tijorat banklari asosan jalb qilingan mablag'larga tayanib faoliyat olib boradi. Shu bois tijorat banklari o'z faoliyati bilan bir tomondan, o'z aksiyadorlari oldida javobgar bo'lsalar, ikkinchi tomondan, o'z mablag'larini ishonib topshirgan va bank xizmatlaridan foydalanayotgan mijozlar oldida majburiyatga egadirlar.

Shu tufayli bank riski, uning mohiyati, turlari, kelib chiqish sabablarini chuqur o'rganish banklar faoliyatini samarali boshqarishda muhim ahamiyatga ega.

Risk keng ma'noli, faoliyatning, jarayonlarning turli bosqichlarida uchrab turuvchi ko'p qirrali tushunchadir. Bank riskining mohiyati haqida ko'pgina mahalliy iqtisodchilar tomonidan bank tavakkalchiligi, kredit xavf-xatari, bank xatari, yo'qotishlar, ehtimollik, qaltislik, ikkilanish, noaniqlik kabi qator tushunchalar berilgan.

Biz ta'kidlaganimizdek, bank faoliyati har tomonlama risk bilan bog'liq bo'lib, bank "bergan krediti o'z vaqtida qaytib keladimi? Keyingi oyda depozitlar salmog'i oshadimi? Bank aksiyasining bahosi va bank foydasi oshadimi? Keyingi chorakda (oyda) foiz stavkalar qanaqa bo'ladi, ular bank foydasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?" kabi ehtimollar bilan bog'liq faoliyat olib boradi. Shu holatlarning tahlilini hisob qilgan holda, mablag'larni aktivlarga joylashtiradi: kreditlar beradi, investitsiya qiladi va boshqa sohalarga yo'naltirib, ijobiy natijaga erishishni maqsad qilib qo'yadi. Bank riski iqtisodiy risklar turkumiga kirib, bank bilan jismoniy va huquqiy shaxslar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga tayanadi. Bank faoliyatining tashkil etilishi va amalga oshirilishi, bank mablag'larining ma'lum tamoyillar asosida kreditga berilishi uning faoliyati risk bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Bu hol bank riskining obyektivligini ifodalasa, bank faoliyatiga boshqa omillarning ta'siri, ularning natijasini hisoblash imkoniyatining mavjudligi va bir turdagi riskning turli sharoitda bo'lishi, uni turlicha qabul qilish va hisoblay olish uning yuzaga kelishining subyektiv sabablari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlarida bank riski- tavakkalchiligi – bank faoliyatiga ta'sir qiluvchi iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy, siyosiy, texnologik ichki va (yoki) tashqi omillarga bog'liq bo'lgan holatlar natijasida bank faoliyatiga xos bo'lgan moliyaviy zararlar ko'rish va (yoki) bank

likvidligi (bank o'z majburiyatlarini vaqtida bajarish qobiliyati)ni to'liq yoki qisman yo'qotish xavfining mavjudligidir, deb ta'riflanadi.

Bank faoliyatida riskning yuzaga kelishi, uning salmog'i, ta'siri, shakli turli sabablar va noaniqliklarga bog'liq bo'ladi. Chunki tashqi va ichki muhit, obyektiv iqtisodiy va siyosiy jarayonlar va ulardagi bo'ladigan o'zgarishlar bank faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Bank faoliyatida risklarning yuzaga kelishining quyidagi sabablari mavjud:

- bozorni yaxshi o'rganmaslik;
- resurslarni jalb qilish va ularni joylashtirishda yuzaga keladigan nomutannosiblik;
- kreditlanadigan loyiha, obyekt va mijozlar to'g'risida, ularning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi ma'lumot va axborotlarning to'liq emasligi;
- mijozning kreditga layoqaliligi, moliyaviy ko'rsatkichlarining chuqur tahlil qilinmasligi, uning kredit tarixini o'rganmaslik;
- tarmoqlar faoliyati xususiyatining inobatga olinmasligi;
- subyektlar yoki mijozlarning mablag'lardan maqsadli va to'g'ri foydalanish bo'yicha ko'nikmalariga e'tibor qaratmaslik;
- bank xodimlarining malakasi va o'z kasbiga mas'uliyati sayozligi va boshqalar bank risklari yuzaga kelishining umumiy sabablaridan hisoblanadi.

Bank riski - bu bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida bank mablag'larining bir qismini yo'qotish yoki daromad ola olmaslik sharoitida ijobiy natijaga umid qilib bank operatsiyalarini (depozit, kredit, investitsiya, valyuta) o'tkazishdan iborat. Bankning barcha operatsiyalari risk bilan bog'liq bo'lsada, bank shu operatsiyalarni amalga oshirishda yuqori daromad olishga intiladi

Bankning depozitlar, jamg'armalar va boshqa jalb qilingan mablag'lar bo'yicha foiz to'lash, boshqa moliya-kredit institutlaridan jalb qilingan mablag'lar uchun foizlar to'lash, bank xodimlari uchun ish haqi to'lash va boshqa operatsion xarajatlari bilan bog'liq risklari quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: bozor iqtisodiyotida yuz berayotgan o'zgarishlar aholi jamg'armalari bo'yicha to'lanadigan foiz stavkalarini oshirishda, kredit resurslarining yetarli emasligi, kredit resurslarini sotib olish qiymatining oshishida, bank xodimlarining ish haqi bilan bog'liq xarajatlarni oshirish kabilarda o'z ifodasini topadi. Bank xarajatlarning me'yordan oshishi, daromad ola olmasligi bankka zarar olib keladi.

Bankning zarar ko'rishi, bank faoliyatida uchraydigan risklarning oldini ola olmaslik natijasida yuzaga keladi. Bank faoliyatida risklar kelajakda amalga oshiriladigan operatsiyalarni oldindan obdon tahlil qilmaslik, holatni yaxshi o'rganmaslik, mablag'larni samarali joylashtirmaslik, bozor imkoniyatlariga to'g'ri baho bermaslik, bank faoliyati uchun salbiy natijalarga olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa holatlarni oldindan seza olmaslik tufayli yuzaga kelishi mumkin. Zararlarning yuqori bo'lishi banklarda yo'qotishlar bo'lishiga olib keladi.

Yo'qotishlar bank foydasini kamaytiruvchi omil hisoblanib, u bank faoliyatining risklilik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Riskning hajmi bank amalga oshiradigan operatsiyalarning risklilik darajasiga, bankning risk sohasidagi strategiyasi sifatiga bog'liq bo'ladi.

Bank rahbariyatining foydani ko'paytirishga intilishi ehtimoliy zararlarni imkon qadar kamaytirish bilan birga kechadi. Ushbu ikki maqsad bir-biriga muayyan darajada zid bo'lib, bu bank ma'muriyati va uning omonatchilari manfaatlarining qarama-qarshiligi bilan bog'liqdir. Bank ma'muriyati foydani ko'patirishga intiladi va qo'shimcha foyda olish uchun risk qilishga tayyor turadi. Omonatchi uchun esa mablag'larining saqlanishi va bankka ishonch masalasi muhimroqdir. Daromadlilik va risk o'rtasidagi maqbul nisbatni saqlab turish bankni boshqarishning eng asosiy va murakkab muammolaridan biridir. Banklarni ba'zan «risk sotib oluvchi va sotuvchilar» deb atashlari bejiz emas. Zimmaga olinadigan risk va bank faoliyatidan ko'zlangan daromad o'rtasida muayyan aloqa mavjud: katta riskga ko'proq daromad olish ehtimoli xosdir. Deyarli risksiz, kam kafolatlangan daromad olishdan farqli ravishda, daromad qancha katta bo'lsa unga erishish ehtimoli ham shuncha kam, binobarin risk yuqori bo'ladi.

Bank risklarini boshqarishni samarali tashkil etish ularni muayyan belgilari bo'yicha aniq guruhlariga bo'lish bog'liq.

Risklarning ilmiy asoslangan tasnifi ularning har birining umumiy tizimdagi o'rnini belgilash, ularni boshqarishning samarali usullarini qo'llash imkonini beradi.

Maxsus adabiyotlarda risklarning, jumladan, bank risklarining turli xil tasniflarini uchratish mumkin. Biz shu paragrafda bank risklarning ilmiy asoslangan tasnifini keltirishni maqsad qilib qo'yganmiz. Risk turlari bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ular banklar faoliyatiga turli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bu holat risklarning oldini olish bo'yicha chora-

tadbirlar ishlab chiqish va riskning aniq bir turlarini tahlil qilish, ularning yuzaga kelishi sabablarini aniqlashni qiyinlashtiradi.

Shu bois bank risklarini quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha turlarga tasniflash mumkin:

1. Paydo bo'lish sabablari va ta'sir qilish harakteri bo'yicha.
2. Namoyon bo'lish shakllari bo'yicha.
3. Boshqarish imkoniyatiga qarab
4. Hisoblash usuliga qarab.
5. Yuzaga kelish va ta'sir vaqtiga qarab.
6. Yuzaga kelish sohasi va boshqalarga qarab.

Bank risklari paydo bo'lish sabablariga ko'ra sof va chayqovchilik risklariga bo'linadi. Sof risklar, ko'pincha, obyektiv xususiyatga ega bo'ladi va salbiy («0») natijaga erishish ehtimolini bildiradi. Bu risklarga tabiiy, ekologik, transport risklari, tijorat risklarining bir qismi kiradi. Chayqovchilik risklari iqtisodiy faoliyat, jumladan, bank faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. U ijobiy yoki salbiy natijaga erishish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Bu risklarga valyuta, fond, pul bozori faoliyati bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalar kiradi.

Namoyon bo'lish shakllariga ko'ra bank risklari tizimli yoki tizimsiz risklarga bo'linadi. Tizimli risklar bank tizimidagi umumiy vaziyat natijasida bankning moliyaviy ahvoli o'zgarishi ehtimoli sifatida ta'riflanadi. Tizimsiz yoki nomuntazam risklar bank tizimida umumiy ahvol barqaror saqlangan holda alohida olingan bankning moliyaviy ahvoli yomonlashish ehtimolini bildiradi. Bank riskining bu turlari, odatda, bir-biri bilan juda bog'liq bo'lganligi uchun amaliyotda bu turdagi risklarni bir-biridan ajratish juda qiyin.

Boshqarish imkoniyatiga ko'ra bank risklari ochiq va yopiq bo'ladi. Ochiq risklarni tartibga solib bo'lmaydi. Yopiq risklarni esa boshqarish mumkin. Yopiq risklar diversifikatsiya siyosatini o'tkazish yo'li bilan tartibga solinadi. Ya'ni bunda bank operatsiyalari umumiy hajmini saqlash maqsadida bir necha mijozlarga berilgan kreditlarni kichik summalarda keng miqyosda taqsimlash yoki yirik kreditlarni konsortsional asosda berish; depozit sertifikatlarini joriy qilish; qayta hisobga olish operatsiyalarini kengaytirish, kredit va depozitlarni sug'urtalash amalga oshiriladi. Banklarda mijoz tanlashga yuzaki qaralib, iqtisodiy nobaqaror va likvidligi past subyektlarni kreditlashga ustunlik berilganda balanslashmagan likvidlilik riski paydo bo'ladi.

Balanslashmagan likvidlilik riskining paydo bo'lishi bank boshqaruvi va xodimlari malakasi, bank faoliyati va nazoratini tashkil

qilish usullari, risklarni tartibga solishda qo'llaniladigan usullarning ishonchliligi, alohida bank operatsiyalari yoki ularning guruhlari bo'yicha risklar koeffitsiyenti shkalasiga bog'liq bo'ladi.

Bank faoliyati natijalariga ta'sir etish darajasiga ko'ra bank risklarini bir nechta toifalarga bo'lish mumkin. Eng asosiy belgilariga ko'ra ular kichik, o'rtacha va to'la risklarga bo'linadi. Bank riskining darajasi bank yo'qotishlariga olib boruvchi jarayonlarning ta'sir qilish darajasiga bog'liq bo'ladi. Ular foizlarda yoki muayyan koeffitsiyentlarda ifodalanadi. Chet el tijorat banklari, jumladan, Buyuk Britaniya banklari risklarni 5 toifaga ajratadi. Bular:

- A toifa - kichik yoki nol risk;
- B toifa - oddiy risk;
- D toifa - oshgan risk;
- E toifa - katta yoki yuqori risk;
- F toifa - nomaqbul risk.

Bizda risk toifalarining darajalanishi bank aktivlarining risk darajasini hisobga olgan holda guruhlash ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Hisoblash usuliga ko'ra risklarni jami (umumiy)ki ayrim risklarini ajratish mumkin. Umumiy risk bank riskining hajmi, uning daromadi va bank likvidligi me'yorlariga bog'liq ravishda baholanadi yoki taxmin qilinadi. Ayrim aniq risk alohida bank operatsiyasi yoki ularning guruhlari bo'yicha risk koeffitsiyentlari shkalasi asosida baholanadi.

Ta'sir vaqtiga ko'ra risklarni retrospektiv, joriy yoki istiqboldagi risklarga ajratish mumkin. Retrospektiv risklar bank faoliyatining o'tgan davrdagi turli risklarga bog'liqligini ifodalaydi va joriy hamda istiqboldagi risklarni baholashga yordam beradi.

Yuzaga kelish sohasiga ko'ra bank risklari tashqi va ichki risklarga bo'linadi. Tashqi risklar makromuhit darajasida yuzaga keladi. Ular bank faoliyati bilan bevosita bog'liq emas. Ichki risklar bankning faoliyati natijasida yuzaga keladi. Tashqi risklar darajasiga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Ular orasida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy-iqlim risklarini alohida ajratib ko'rsatish zarur. U urushlar, inqilob, milliyashtirish, chetga to'lovlarni ta'qiqlash, qarzlarni konsolidatsiyalash, embargo joriy qilish, importga litsenziyani bekor qilish, tabiiy ofatlar natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlarni o'ziga jamlaydi. Tashqi risklarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular bank faoliyati natijalariga ham bevosita, ham bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu bank oldida pul majburiyatlariga ega bo'lgan xo'jalik subyektlarining ushbu riskka aloqadorligi va munosabatiga bog'liq.

Tashqi risklar orasida, ko'pincha, ta'sir darajasi bog'liqligiga ko'ra siyosiy risklar, iqtisodiy risklar va tabiiy-iqlim risklari ajratib ko'rsatiladi. Siyosiy risklar mamlakatdagi siyosiy vaziyat va davlatning faoliyati bilan bog'liq. Iqtisodiy risklar mamlakatdagi umumiy iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqadi.

Tuzilish belgilariga ko'ra iqtisodiy risklar mulkiy, tarmoq va moliyaviy risklarga bo'linadi. Mulkiy risklar o'g'rilik, diversiya, terroristik akt, ekologik tanglik va boshqa sabablarga ko'ra mulkni yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq. Tarmoq risklari iqtisodiyot tarmoqlaridagi ahvolning o'zgaruvchanligi tufayli yuzaga keladi. Moliyaviy risklar pulning xarid quvvati o'zgarishi natijasida pul mablag'larini yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq. Unga pulning qadsizlanishi va deflyatsiya risklari kiradi. Tabiat-iqlim risklari tabiiy ofat va halokatlar: zilzila, suv toshqini, bo'ronlar, yong'in, epidemiyalar; odamlarning noo'rin faoliyati natijasida ekologik muvozanatning buzilishi va boshqalarga bog'liq.

Kelib chiqish hudidi va geografiyasiga qarab risklarni tuman, mintaqa, mamlakat riski va xalqaro riskka bo'lish mumkin. Xalqaro risk deganda, biz global muommalar bilan bog'liq, yer sharining ma'lum mintaqalarini yoki mamlakatlarni qoplab oluvchi riskni tushunamiz. Bunga 1997-yil kuzidagi Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi moliya bozorlari inqirozini, 2008-yilda boshlanib bugungi kungacha davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini misol keltirish mumkin.

Mamlakat riski, xalqaro bank amaliyotida va bank tashkilotlari, qo'shma banklar faoliyatida pul oqimi, kredit va hisob operatsiyalari sohasida bo'lgan risklar bilan bevosita bog'liq. Bu risklarning bo'lishi va ularning darajasi esa importyor yoki eksportyor davlatlar yoki kontragent mamlakatlardagi siyosiy-iqtisodiy barqarorlikka bog'liq. Har bir mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka asoslanib, shu mamlakatdagi risk darajasini baholay olish chet el kapitali ishtirokida tashkil topgan qo'shma banklar va bosh litsenziyaga ega bo'lgan bank tashkilotlari uchun dolzarbdir. Bank amaliyotida uning rahbariyati chet el kontragentlarining moliyaviy barqarorligiga noto'g'ri baho berish natijasida ancha xatolarga yo'l qo'yadilar. Shuning uchun biror davlat bilan uzviy iqtisodiy aloqani o'rnatishda, ayniqsa, kredit va hisob-kitoblar bilan bog'liq munosabatlarni olib borishda, undagi iqtisodiy-siyosiy barqarorlikni tahlil qilib risk darajasini aniqlash lozim.

Mamlakat riskini konvertirlangan risklar, transfert risklari yoki maratoriya to'lovlari bo'yicha risklarga turkumlash mumkin. Mamlakat

riskini prognoz qilish davlat qurilmasining tarkibi va sifat darajalarini tahlil qilishga, shuningdek, amaliy ma'lumotlar va nisbatlarni o'rganishga asoslangan miqdor ko'rsatkichlariga tayanishi kerak.

Mamlakat riskini baholashda asosiy ko'rsatkichlar sifatida quyidagi ko'rsatkichlarni tahlil qilish lozim:

- ◆ iqtisodiyotning samaradorligi (bunda davlat bo'yicha yalpi milliy mahsulotning o'rtacha yillik o'sishi hisoblanadi);

- ◆ siyosiy risk darajasi;

- ◆ jahon banki ma'lumotlariga asosan olingan kreditlar miqdori, ular bo'yicha qarzdorlik darajasi, kreditni qaytib to'lash jarayonining amalga oshirilish sifati, eksport hajmi, tashqi qarzlar, tashqi savdo oboroti v.b.;

- ◆ bank kreditlarini olish imkoniyati;

- ◆ qisqa muddatli kreditlash imkoniyati;

- ◆ uzoq muddatli kreditlash imkoniyati;

- ◆ fors-mojor holatlarining yuzaga kelishi;

- ◆ mamlakatning kreditga layoqatlilik darajasi;

- ◆ tashqi qarzlar bo'yicha to'lanmagan majburiyatlar v.b.

Riskning asosiy turlari bir-biri bilan bog'liq va amaliyotda ularni ajratish ko'pincha murakkabdir. O'z navbatida, siyosiy va iqtisodiy risklar ham ichki va tashqi bo'lishi mumkin.

Alohida olingan bank faoliyatiga sezilarli ta'sir qiluvchi risklar, bank faoliyatidan kelib chiquvchi risklar – bu ichki risklardir. Banklarning ichki risklariga bankning o'z faoliyati, uning mijozlari (uning qarzdorlari) yoki uning muayyan kontragentlari bilan bo'lgan faoliyatiga bog'liq risklar kiradi. Bank rahbariyatining tashabbuskorligi, faolligi, bank xodimlarining o'z ishiga layoqatliligi, optimal marketing strategiyasi siyosati va taktikasini tanlash kabi omillar ichki risk darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Ichki risklar bank operatsiyalarining harakteri, bank mijozlarining tarkibi va tijorat banklari faoliyatining turlari bo'yicha guruhlariga bo'linadi.

Bank operatsiyalari harakteriga ko'ra:

- ◆ balans operatsiyalari riski ;

- ◆ balansdan tashqari operatsiyalar riski ;

- ◆ moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog'liq risklarga bo'linadi.

O'z navbatida, balans operatsiyalari risklari bankning aktiv operatsiyalari riski, bankning passiv operatsiyalari riski va aktivlar va

passivlarni boshqarish sifati bilan bog'liq riskka bo'linadi. Bankning aktiv operatsiyalar riskiga kredit, hisob-kitob, kassa, bozor, valyuta, lizing, faktoring risklari, moliyalash va investitsiyalar bilan bog'liq risklar kiradi. Kredit riski mijoz tomonidan asosiy qarz summasini va kredit bo'yicha foizlarni to'lay olmaslik ehtimoli bo'lganda yuzaga keladi. Hisob-kitob risklari bankning kelishilgan shartnoma bo'yicha mijozning talabiga asosan hisob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkaza olmasligi sharoitida yuzaga keladi. Kassa risklari bank kassasi orqali o'tuvchi naqd pullarning saqlanishi bilan bog'liq xavfli holatlardan kelib chiqadi. Bozor riski bozor foiz stavkalarining nobarqarorligi oqibatida moliyaviy aktivlarning bozor qiymatining o'zgarishi sababli bankning aktiv operatsiyalaridan keluvchi daromadni o'zgarishi ehtimoli tufayli yuzaga keladi. Valyuta riski – valyuta almashtirish kursining o'zgarishi natijasida chet el valyutasida olib boriladigan operatsiyalar bo'yicha yo'qotishlar yoki yuqori foyda olish ehtimolini ifodalaydi. Lizing operatsiyalar bo'yicha risk ijarachining bankdan olgan mulkidan samarali foydalana olmasligi natijasida shartnomada ko'rsatilgan to'lovni o'z vaqtida amalga oshira olmasligi natijasida yuzaga keladi. Faktoring operatsiyalar bo'yicha risk bankning uchinchi shaxsdan sotib olgan qarzdorning majburiyatlari bo'yicha to'lovni o'z vaqtida amalga oshira olmaslik sharoitida yuzaga keladi. Investitsiya risklari bank sotib olgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha oladigan daromadlarining tushib ketishi yoki uni oshirish bilan bog'liq risklardir.

Banklar passiv operatsiyalar yordamida o'z aktiv operatsiyalarini amalga oshirish uchun resurslarni jalb qiladi. Tijorat banklarining passiv operatsiyalariga uning ustav kapitalini tashkil etish (oshirish) maqsadida foydadan chegirmalar, boshqa yuridik shaxslardan mablag'lar jalb qilingan kreditlar, depozit operatsiyalari kiradi.

Passiv operatsiyalar risklari asosan aktiv operatsiyalarni resurslar bilan ta'minlashda kelib chiqadigan muammolar bilan bog'liq.

Bankning passiv operatsiyalari bilan bog'liq risklar bankning omonatlar, depozitlar, boshqa moliya-kredit muassasalarning muddatidan oldin talab qilib olinmaydigan aniq muddatli kreditlari shaklida yetarlicha miqdorda resurs jalb eta olishi qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Balansdan tashqari operatsiyalar risklari, birinchi navbatda, mijozlarning majburiyatlari yuzasidan berilgan kafolatlar bo'yicha to'lash zarurati yuzaga kelishi ehtimoli bilan bog'liq.

Aktivlar va passivlarni boshqarish sifati bilan bog'liq risklarga to'lovga layoqatsizlik (yoki bankrotlik) riski, muvozanatlanmagan likvidlik riski, foiz riski, foyda ola olmaslik riski, suiiste'molliklar riski va boshqalar kiradi. Bankrotlik riski o'z kapitali va resurslarini yo'qotishi oqibatida o'z majburiyatlari bo'yicha to'lovga layoqatsiz bo'lishi va faoliyatini to'xtatish bilan bog'liq riskdir. Balanslashmagan likvidlik riski bankning resurs sifatida jalb qilingan mablag'lari bilan kreditga bergan mablag'lari summasi, muddati, foiz stavkasining darajasi bo'yicha mos kelmasligi tufayli yuzaga keladi. Foiz riski bankning kreditga bergan mablag'lari bo'yicha oladigan foiz stavkasiga nisbatan jalb qilgan resurslari bo'yicha yuqori foiz stavkalari to'lashga majbur bo'lgan holda yuzaga keladi. Foyda ola olmaslik riski bank resurslari yo'qotishi, ulardan samarali foydalana olmaslikni ifodalaydi. Suiiste'mol riski bank boshqaruvi yoki rahbariyati, xodimlari tomonidan bank faoliyati tamoyillariga oid moliyaviy qarorlar qabul qilinganda o'z manfaatini ko'zlash natijasida vujudga keladi.

Moliyaviy xizmatlarni amalga oshirishi bilan bog'liq risklar operatsion, texnologik risklarni, innovatsiyalar risklari, xavfsizlik risklari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Operatsion va texnologik risklarga bank texnika-texnologiyasida uchrab turadigan (sboy) axborotlarni yo'qotishlar (kompyuter tizimida yo'qotishlar, hujjatlarni yo'qotish, kompyuter tamagirligi, bank xodimlari faoliyatida xatolarga yo'l qo'yishi v.b.) kiradi. Innovatsiya riski ma'lum bir sabablar tufayli bankning innovatsiyaga yo'llagan mablag'lari mo'ljallagan samarani bermasa yoki yo'qotilgan bo'lsa yuzaga keladi. Bank xavfsizligi riski bu bank binosi, unda mavjud axborot, kompyuter tarmoqlarining xavfsizligi bilan baholanadi.

Bank risklari mijozlari tarkibiga ko'ra mijozlarining sohaviy tegishliligiga, mijozlar yuridik shaxslarning yaxlitlangan darajasiga va mijozlarning u yoki bu mulkchilik shakliga tegishliligiga bog'liq.

Risklar tijorat banklarining turlariga ko'ra ham guruhlariga bo'linadi. Universal tijorat banklari mijozlariga ular qaysi tarmoqqa tegishliligidan qat'i nazar, juda keng xizmat turlarini ko'rsatadi. Shuning uchun ular deyarli barcha risklarga uchraydi. Biroq universal tijorat banklarining faoliyati bozorning yuqori darajada diversifikatsiyalanishi bilan harakterlanadi, ya'ni ba'zi sohalardan ko'rilgan zarar boshqalaridan olingan foyda bilan qoplanishi mumkin. Tarmoq tijorat banklari biror soha, tarmoq bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun ular uchraydigan risklar (erkin bank operatsiyalari bo'yicha risklardan

tashqari) asosan, mijozlarining faoliyatida uchraydigan iqtisodiy (ya'ni bank uchun tashqi) risklarga bog'liq bo'ladi. Ixtisoslashtirilgan tijorat banklari o'z yo'nalishidagi maxsus bank operatsiyalari bo'yicha ham risklarga uchraydilar.

Ichki risklar bankning turi va xususiyatiga, uning faoliyati, xarakteriga hamda uning mijozlar tarkibiga bog'liq bo'ladi.

Bankning aktiv operatsiyalarining risklari foiz risklari darajasi bilan bog'liq bo'ladi. Bu risklar banklarning o'z faoliyati jarayonida yuzaga keladi.

Foiz risklarning boshqarilishi aktiv va passivlarni boshqarilishidan tashkil topadi. Foiz risklarni boshqarishning bir necha tamoyillari mavjud. Bular quyidagilar:

1. Bankning foiz marjasi qancha yuqori bo'lsa, foiz riski darajasi shuncha past bo'ladi.

2. Spred tamoyili. Bunda olingan aktivlar bo'yicha tortilgan o'rtacha stavka va to'langan majburiyatlar bo'yicha tortilgan o'rtacha stavka o'rtasidagi farq tahlil qilinadi. Tahlil uchun ma'lumotlar, odatda, bankning statistik hisobotidan olinadi.

3. Bankning o'zgarimas va suzib yuruvchi foiz stavkalari bilan balansdan tashqari aktiv va passivlarni tahlil qilishdan iborat.

Foiz risklarining darajasi quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- aktivlar tuzilishidagi o'zgarish, shu jumladan, kredit va investitsiyalarning hajmi, aktivlarning qayd qilingan va suzib yuruvchi foiz stavkalari, ularning bozordagi narxi dinamikasi.

- passivlar tuzilishidagi o'zgarish, ya'ni o'z va qarz mablag'larning mutanosibligi, muddatli va jamg'arma depozitlar, ularning muddati va foizlarining mosligi.

- foiz stavkasi dinamikasi.

Foiz risklari darajasini boshqarish va nazorat qilish uchun bank faoliyatining aniq bir holatiga bog'liq holda muhim strategiyalar ishlab chiqish lozim.

Tijorat banklari faoliyatida portfel risklariga ham e'tibor berish lozim.

Portfel risklari qimmatli qog'ozlarning alohida turlari hamda ssudalarning barcha kategoriyalari bo'yicha zarar ko'rish ehtimoli bilan belgilanadi. Portfel risklari moliyaviy, likvid risklar, tizimli va tizimsiz risklarga bo'linadi.

Moliyaviy risklar quyidagicha aniqlanishi mumkin: banklar, aksioner jamiyatlar, qo'shma banklar qancha ko'p qarz mablag'lariga

ega bo'lsa, ularning aksionerlariga, ta'sischilariga nisbatan riski shuncha yuqori bo'ladi. Shu bilan birga qarz mablag'lari moliyalashtirishning muhim va asosiy manbai hisoblanadi, chunki bu narsa qo'shimcha qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va sotishga qaraganda arzonroqqa tushadi. Qabul qilingan normalarga asosan qarzdorlar uchun o'z mablag'lari bilan jalb qilingan mablag'lar o'rtasidagi nisbat - qarzdorlik koeffitsiyenti (Kk) = 0,2 - 0,3 o'rtasida tebranib turishi lozim. Bu risk leveraj riski qimmatli qog'ozga qo'yilgan kapital bilan daromadning belgilangan darajasi o'rtasidagi nisbatga, daromadning belgilanmagan darajasi bilan va bankning asosiy va aylanma kapitalining hajmiga bog'liq bo'ladi.

Likvidlilik riski – bu moliyaviy aktivlarning operativ ravishda naqd pulga aylanish qobiliyati bo'lib, yirik ishlab chiqaruvchi va banklarning muomalada bo'layotgan aksiyalari ham bu xil risklardan unchalik xoli emas.

Tizimli risk aksiya bahosining o'zgarishiga uning daromadliliigi, obligatsiyalar bo'yicha joriy va kutilayotgan foiz, hamda kutilayotgan o'lchamda dividend va qo'shimcha foyda hajmiga bog'liq bo'ladi. U foiz stavkasini o'zgarishi riskni, umumbozor narxlari o'zgarishining riski va inflyatsiya riskini birlashtiradi.

Tizimsiz risklar bozorning holatiga bog'liq bo'lmaydi va aniq bir korxonada, bank xususiyati hisoblanadi. Uning tarmoq va moliyaviy turlari mavjud. Tizimsiz portfel riskning darajasiga muqobil sferada moliyaviy resurslarni qo'yish, tovarlar kon'yunkturasi, bozor fondlari kabi omillar ta'sir etadi.

Bankning faoliyat turiga qarab bank risklarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

a) kredit riski – qarzdorning shartnomada belgilangan shartlar bo'yicha bank oldidagi o'z moliyaviy majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik;

b) bozor riski – bankning qimmatli qog'ozlar portfelidagi instrumentlari narxlarining, shuningdek, chet el valyutasi va qimmatbaho metallar kurslarining salbiy o'zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik. Bozor riski fond, valyuta va foiz risklarini o'z ichiga oladi, bunda:

fond riski – qimmatli qog‘ozlar portfelidagi instrumentlarning bozor narxlaridagi salbiy o‘zgarish natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotish bilan bog‘liq tavakkalchilik;

valyuta riski – chet el valyutasi va qimmatbaho metallarning ochiq pozitsiyalari bo‘yicha shu chet el valyutalari kurslari va qimmatbaho metallar baholarining o‘zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotish bilan bog‘liq tavakkalchilik;

foiz riski – aktivlar, passivlar va ko‘zda tutilmagan holatlardagi instrumentlar bo‘yicha foiz stavkalarining salbiy o‘zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotish bilan bog‘liq tavakkalchilik;

d) likvidlilik riski – bankning o‘z moliyaviy majburiyatlarini to‘liq yoki qisman bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotish bilan bog‘liq tavakkalchilik. Bankning likvidlilik riski, asosan, aktiv va passivlarning so‘ndirilish muddatlarining o‘zaro nomuvofiqligi oqibatida yuzaga keladi. Bankning likvidlilik riskini boshqarish «Tijorat bankining likvidlilikini boshqarishga bo‘lgan talablar to‘g‘risida»gi nizom talablari asosida amalga oshiriladi;

e) operatsion risk – bankning ichki tizimlari, jarayonlari, axborot texnologiyalari, xodimlar harakatlarida yo‘l qo‘yilgan xatoliklar yoki tashqi tabiiy jarayonlar, shu jumladan, tabiiy ofatlar natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotish bilan bog‘liq tavakkalchilik;

f) mamlakat riski – bankning xorijiy hamkorlari tomonidan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy o‘zgarishlar sababli o‘z moliyaviy majburiyatlarining bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotish bilan bog‘liq tavakkalchilik;

g) huquqiy risk – bank tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar va tuzilgan shartnomalarga rioya qilinmaslik, ish jarayonida huquqiy xatoliklarga (noto‘g‘ri yuridik maslahat yoki hujjatlarni noto‘g‘ri tuzilishi) yo‘l qo‘yilishi, huquq tizimidagi kamchiliklar, hamkorlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning buzilishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotish bilan bog‘liq tavakkalchilik;

h) biznesda obro‘-e‘tiborni yo‘qotish riski – bankning moliyaviy barqarorligi to‘g‘risida omma ichida salbiy tasavvur yuzaga kelishi sababli, mijozlar sonining kamayishi, ko‘rsatilayotgan xizmat sifatining tushishi natijasida bankda zararlar yuzaga kelishi tavakkalchiligi;

i) firibgarlik riski – bankda xodimlar, mijozlar va boshqa hamkorlarning firibgarlik yoki boshqa jinoiy xatti-harakatlari oqibatida moliyaviy zararlar ko‘rish xatari. Bankdan naqd pul va boshqa

qimmatliklarning o'g'irlanishi hamda bank xodimlari tomonidan ataylab moliyaviy hisob va hisobotlarda zararlarni (vaqtincha yoki tekshirish orqali aniqlanguncha) yashirilishi natijasida bankning moliyaviy ziyon ko'rishini tushuniladi. Tijorat banklari faoliyatida muhim o'rin tutuvchi risk bu kredit riskidir. Shu bois bu risk turini kengroq ko'rib chiqamiz.

2-§. Kredit risklari va ularni hisoblash usullari

Bankning kredit faoliyati, uni boshqa nobank tashkilotlardan farqlovchi asosiy mezonlardan biridir. Jahon bank amaliyotida aynan kredit operatsiyalari orqali banklar foydasining asosiy qismi shakllanadi. Shu bilan bir vaqtda, kreditlarning, asosan, yirik kreditlarning qaytarilmasligi, banklar faoliyatida risklarning paydo bo'lishiga, ular, o'z navbatida, bank daromadlarining kamayishiga, ba'zi hollarda esa banklarning bankrot bo'lishiga ham olib kelishi mumkin.

Banklar faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, ularda mavjud risklarni minimallashtirish masalalaridan biri kredit risklari, ularning sifati va darajasini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Kredit riski deb, qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlarining bajarilmasligi, ya'ni kredit summasi (qisman yoki to'liq) va u bo'yicha foizlarning shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda to'lanmasligi tushuniladi. Shuning uchun kredit risklarini aniqlash va boshqarish har qanday tijorat bankining rivojlanishiga, daromadligi oshib uning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Kredit risklarining banklar uchun dolzarb muammoligi shundaki, kredit riski mavjud bo'lgan holda kreditor (bank)da qarz oluvchi tomonidan kredit shartnoma shartlarini, uning o'z majburiyatlarini belgilangan vaqtda bajara olish imkoniyatiga ishonchsizlik hosil bo'ladi. Ma'lumki, bank amaliyotida foyda asosan berilgan kreditlar bo'yicha olinadigan foizlardan tashkil topadi. Qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar bo'yicha foiz stavkasining yoki kreditning asosiy summasining o'z vaqtida to'lanmasligi yoki umuman to'lanmasligi bank foydasining kamayishi oqibatida, bankning kelajakdagi mablag'lari salmog'ining tushib ketishiga olib keladi. Shuning uchun banklar ular bergan mablag'larning qaytishi bilan bog'liq risklarni kamaytirishga harakat qiladilar.

Qarz oluvchi faoliyatida mavjud risklar darajasini banklar kredit bergunga qadar, keyinchalik kredit bergandan keyin, undan foydalanish

davomida aniqlashi mumkin. Riskni minimallashtirish maqsadida banklar kredit berishdan oldin riskni aniqlashga harakat qiladi.

Kredit riskining yuzaga kelishiga quyidagi holatlar:

a) turli xil makro va mikroiqtisodiy omillar, iqtisodiy qonuniylik va me'yorlardagi o'zgarishlar;

b) iqtisodiy va siyosiy muhitdagi o'zgarishlar, salbiy hollar, qarz oluvchining faoliyatidagi bo'ladigan moliyaviy nobarqarorlik tufayli olgan kreditlarini to'lashga mos pul oqimini tashkil qila olmasligi;

d) kreditning ta'minlanganligi uchun olingan garovning qiymati va sifati bo'yicha to'liq ishonchning yo'qligi;

e) yuqori bilimga ega bo'lgan bank xodimlar va mijozlarning kreditdan foydalanishdagi ko'nikmalarining yetarli emasligi;

f) qarz oluvchi subyektning mahalliy yoki davlat miqyosida obro'sining tushib ketishi, uning ishchanlik faoliyatida yuzaga kelgan o'zgarishlar va boshqa sabablar bo'lishi mumkin.


Kredit munosabatlarida banklar kreditga yoki qarzga berilgan summaning o'z vaqtida qaytib to'lanishini va mo'ljallangan foiz stavkalarini belgilangan vaqtda olishni kutadilar. Ular riskdan qochadilar, kredit berishgacha kreditlanadigan sohaning risk darajasi bilan qiziqadilar, uni aniqlaydilar va o'zlari uchun risk darajasi minimal bo'lgan hollarda kredit ajratish to'g'risida ijobiy qaror qabul qiladilar. Lekin kreditor tomonidan kutiladigan natija har doim ham u o'ylaganidek bo'lmasligi mumkin.

Banklar va bank xodimlari boshqa kreditorlarga nisbatan riskdan ko'p himoyalalanuvchi yoki qochuvchi bo'lishlari kerak. Buning sababi shundaki, bank boshqa kreditorlarga nisbatan o'z mablag'i bilan emas, balki jalb qilingan mablag'lar, ya'ni jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtincha, bankda turgan mablag'lari bilan ishlaydilar. Bankning kredit berish qobiliyati u jalb qilgan resurslarga bog'liq bo'ladi. Bank, o'z navbatida, bu jalb qilingan mablag'larni talab qilingan vaqtda mijozga qaytarib berish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bu imkoniyat esa bank faoliyatida mavjud risklarni o'z vaqtida aniqlash, ularning oldini olish choralarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Tijorat bankining kreditlash jarayonining sxemasini olib qaraydigan bo'lsak, mijozning kreditga layoqatliligini aniqlash bosqichida beriladigan kredit bo'yicha risk darajasini taxminan xomcho't qilish mumkin.

Kreditlash jarayonining 2,-3,-5-bosqichlarida kredit risklari va ularning darajasini aniqlash mumkin. Mijozning kreditga layoqatligi

bo'yicha risk kreditlashning boshlang'ich bosqichlarida bo'lmasligi mumkin, lekin uning faoliyati davomida kutilmagan moliyaviy qiyinchiliklarning paydo bo'lishi kredit riskining yuzaga kelishiga asos bo'ladi.



40-rasm. Tijorat banking kreditlash jarayoni

Kredit riskining vujudga kelishi ikki asosiy parametr-kredit beruvchi va qarz oluvchining o'z majburiyatlari, vazifa va funksiyalarini qay darajada bajarishiga bog'liq. Qarz oluvchi tomonidan tayyorlangan kredit paketini tahlil qilish va kredit berish bo'yicha loyiha tayyorlash

kreditlovchi bank uchun risk va uning turlarini aniqlab olish imkoniyatini beradi. Bu bosqichda kredit beruvchi:

1. Qarz oluvchining iqtisodiy, moliyaviy ahvoli, uning ishchanlik, ma'naviy qiyofasi, ishlab chiqarish imkoniyatlari, marketingi, moliyaviy boshqaruvi va boshqalarni.

2. Kreditga bo'lgan talabning qanchalik darajada to'g'ri asoslanganligi va shu asosning korxonaning real iqtisodiy holatidan kelib chiqqanligi.

3. Kreditning maqsadi bank manfaati uchun ham to'g'ri kelishi kabi savollarga to'liq va aniq javob olishi lozim. Masalan, bozor iqtisodiyotining hozirgi bosqichida yangi korxonalar, firmalar tashkil topayotgan va ular to'g'risida har doim ham aniq axborot mavjud emasligi sharoitida **birinchi savolga** javob berish juda muhim. **Ikkinchi savolning** kredit oluvchi tomon to'ldirishi, uning moliyaviy ahvoli, undagi hisob-kitoblar holati, auditorlik tekshiruvlar bo'yicha hisobotlar va xulosalar, korxonalar balansi, pul oqimi to'g'risida hisobot, daromadlari va boshqa ma'lumotlar bank uchun zarur hamda bu hujjatlarning mavjudligi korxonaning o'z moliyaviy resurslarini muvafaqqiyatli boshqarayotganligidan dalolat berishi mumkin.

Uchinchi savolda esa bank u berayotgan kredit uning kredit portfeliga mos keladimi yoki yo'qmi, shuni aniqlashi lozim. Agar bu beriladigan kredit bankning kredit portfelining yanada ko'proq diversifikatsiyalanishiga olib kelsa, bu bankning kredit portfeli riskini kamaytiradi. Agar bu kredit bir tarmoqqa kreditlarning yig'ilishini kuchaytiradigan, to'lash muddati bir vaqtda to'g'ri keladigan bo'lsa, kredit portfelining riski oshishi mumkin. Bunda bank xodimlari kredit berish, kreditni baholash sohasida yetarli bilimga egami, ular bozor o'zgarishlarini inobatga olgan holda bank ishining texnikasini bilishi, kredit berish bo'yicha oxirgi qarorni qabul qilmasada, u kreditni baholash jarayoniga javobgar hisoblanishi lozim.

Kredit riskning yuqori bo'lishi bank tomonidan pul bozoriga murojaat qilish va uning mablag'laridan ehtiyotkorlik bilan foydalanishga da'vat qiladi. Kredit risklarini tahlil qilish nafaqat qarz oluvchining moliyaviy holatini o'rganish, shuningdek, bankning ichki

faoliyatini yaxshilash uchun zarur axborotlar yig'ish imkoniyatini yaratadi. Kreditlarni risk darajasi bo'yicha guruhlarga bo'lish, ularni minimallashtirish yo'llarini ishlab chiqish, bank manfaatlarini himoya qilish va kredit risklarini kamaytirishga asos bo'lishi mumkin. Kredit risklarining vujudga kelishining asosiy sabablari kreditlarning bir soha, bir tarmoqqa ko'p ajratilishi, bir qarzdorga to'g'ri keluvchi riskka rioya qilmaslik tufayli ham bo'lishi mumkin. Kreditlarni risk darajasi bo'yicha bo'lish kredit qo'yilmalarning qaysi (qancha) miqdori normal risk yoki yuqorida, risk zonasida ekanligini ko'rsatishi mumkin.

Kredit riskining darajasini aniqlashda risk koeffitsiyentidan foydalanish mumkin.

67-jadval

Risk koeffitsiyentini aniqlash tartibi

Ko'rsatkichlar	Variantlar	
	birinchi variant	ikkinchi variant
1. O'z mablag'lari, mln so'm	10000	60000
2. Mumkin bo'lgan yo'qotishlarning maksimal summasi, mln so'm	6000	24000
3. Risk koeffitsiyenti	0,6	0,4

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, II variant bo'yicha kapital qo'yish riski, birinchi variantga nisbatan 1,5 marta kam ($0,6:0,4=1,5$). Risk tufayli yo'qotishlar hajmiga qarab risk darajasini aniqlash mumkin.

68-jadval

Risk zonalari

Yutuqlar	yo'qotishlar			
	yo'qotishlar bo'lishi mumkin bo'lgan risklar zonasi	kritik risk zonasi	halokatli risk zonasi	mumkin bo'lgan yo'qotishlar hajmi
risksiz zona - yuqori foyda				

0 foyda tushum mulk holati

Risksiz zonada yo'qotishlar yo'q, ya'ni uning o'lchami «0» ga teng, bu holda foyda darajasi yuqorida bo'ladi. Bo'lishi mumkin bo'lgan risk

– bu oldindan aniq bo‘lgan, yuqorida xavf tug‘dirmaydigan risk bo‘lib, uning hajmi sezilarsiz, doimo olinadigan foydadan past bo‘ladi. Kritik risk zonasi yo‘qotishlar bo‘lish xavfi borligini ifodalaydi, olinadigan foydadan bir qismining biron jarayon uchun yo‘naltirilganligini va shu mablag‘larning qaytib kelishida xavf borligini ifodalaydi.

Halokatli risk - aniq yo‘qotishlar muqarrarligini va bankning foydasi, mulki zarar bilan yakunlanishini ifodalaydi.

Banklar tomonidan beriladigan kreditlarning qaysi sohaga yo‘naltirilishi, ular bo‘yicha to‘lanmagan qarzlarning mavjudligi to‘g‘risida aniq tassavurga ega bo‘lish uchun banklar aniq axborotlarga ega bo‘lishi, doimiy hisob-kitoblar olib borishlari lozim. Kreditlarni risk darjasi bo‘yicha turkumlash kreditlar xavfli zonaga tushmasligining oldini olish, kredit risklarining salmog‘ini kamaytirishga imkoniyat yaratadi.

Yuqori riskli yoki spekulativ (yuqorida daromad keltiruvchi bo‘lsa ham) loyihalarni moliyalashtirish orqali bank o‘z omonatchilarining mablag‘larini xavf ostiga qo‘ymasligi lozim. Bu jarayonlarni bankning monitoring bo‘limlari tekshirib turishlari lozim.

Kredit riski tashqi omillarga (bozor holati bilan, iqtisodiy muhit holati bilan bog‘liq) va ichki omillarga (bankning o‘z faoliyatidagi kamchiliklar tufayli yuzaga keladigan yo‘qotishlar) bog‘liq bo‘ladi.

Tashqi omillarni boshqarish imkoniyatlari cheklangan bo‘lsa ham, ammo o‘z vaqtidagi harakatlar bilan bank ushbu omillarning ta‘sirini yumshatishi va yirik zararlarni bartaraf qilishi mumkin.

Bankda kredit riskining yuzaga kelishi, birinchidan, puxta ishlab chiqilgan kredit siyosati va unda qayd etilgan mijozlar bilan bo‘ladigan operatsiyalarga tegishli umumiy yo‘riqnomalarning mavjudligiga; ikkinchidan, ushbu yo‘riqnomalarni hayotga tatbiq etayotgan bank xodimlarining bilim darajasiga va harakatlariga, ya‘ni riskni boshqarish qobiliyati bank rahbarlarining omilkorligiga hamda aynan kredit shartnomasining shartlarini ishlab chiquvchi, kredit loyihalarni tanlab oluvchi bank xodimlarining malaka darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Tijorat bankining kredit risklarini boshqarish jarayonini bir nechta bosqichlarga ajratish mumkin. Bular:

- bankning kredit siyosatining maqsad va vazifalarini ishlab chiqish;
- ma'muriy yechimlarni qabul qilish tizimini va kredit riskini boshqarish ma'muriy tarkibini tashkil etish;
- qarzdorning moliyaviy holatni tahlil qilish;
- qarzdorning kreditlash tarixini, uning aloqalarini aniqlash;
- kredit shartnomasini ishlab chiqish va imzolash;
- kreditlarning qaytarilmaslik riskini tahlil qilish;
- barcha ssudalar portfeli bo'yicha qarzdorning kredit monitoringini yo'lga qo'yish;

-muddati o'tgan va shubhali kreditlarni qaytarish hamda garovni sotish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish v.b.

Kredit riskini boshqarish uchun bank xodimi ssudalar portfelinin sifatli tarkibi va tuzilishi ustidan doimo nazorat olib borishi kerak. U riskni bo'lib-bo'lib qo'yish siyosatini olib borish hamda kreditlarni bir nechta yirik qarzdorlarda to'planishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Aks holda, qarzdorlardan birining kreditni to'lay olmasligi bankning moliyaviy ahvolini qiyinlashtirishi mumkin.

Kredit riski likvidlilik riskiga va bankning to'lovga noqobilligi riskiga, shuningdek, bankning ma'muriy-xo'jalik xarajatlarini qoplay olmasligi bilan bog'liq risklarga olib kelishi mumkin, foiz stavkasi riski o'zicha mustaqil bo'lsada, u kredit riski va boshqa barcha risklar zanjirini chuqurlashtirib borishi mumkin.

Tijorat banklarining dolzarb muammolaridan biri, balans ma'lumotlari va kredit portfelinin tahlili asosida kredit risklarini boshqarish hisoblanadi. Kreditlarni risk sinflariga guruhlash, ularni tahlil qilish, ularni minimallashtirish va bank manfaatini himoya qilish usullarini ishlab chiqish kredit risklarini kamaytiradi. Ishlab chiqarishda pasayish bo'layotgan korxonalar va tarmoqlarda kreditning to'planishidan voz kechish, shuningdek, «hamma tuxumni bir savatga solmaslik kerak» degan donishmandlarning haqligina amal qilgan holda, bir qarz oluvchiga to'g'ri keluvchi riskning maksimal miqdoriga rioya qilish kredit riskini minimallashtirishga imkon beradi.

Banklar bergan kreditlarning o'z vaqtida qaytib to'lanmasligi berilgan kreditlar bo'yicha risklar paydo bo'lganligidan dalolat beradi.

Muddati o'tgan kreditlarning umumiy kredit qo'yilmalar summasiga nisbatini olish bilan kredit risklarning darajasini aniqlash mumkin. Bu ko'rsatkich jahon amaliyotida ham qo'llanilib, xalqaro bank amaliyotida uning qabul qilingan normasi 4-5%, lekin ba'zi hollarda 7% gacha bo'lishi mumkin.

Biz o'tkazgan tahlil materiallari shuni ko'rsatadiki, bizning respublika bo'yicha banklarning umumiy kredit qo'yilmalar hajmida muddati o'tgan kreditlarning salmog'i 3,08% ni tashkil etadi, bu g'arb mamlakatlari tijorat banklarining umumqabul qilingan me'yorlar chegarasidan chiqmaydi (4-5% gacha).

Mazkur holatda ishonchsiz kreditlarni qoplash uchun zarur bo'lgan rezerv fondlarini tashkil etish juda muhimdir, aks holda, riskli kreditlarning yuqori darajasi bankning o'z mablag'larining ma'lum qismi yo'qotilishiga xavf tug'diradi. Bu esa, o'z navbatida, bankning to'lovga layoqatsizligiga olib keladi. Ba'zi hollarda banklar bo'yicha kredit qo'yimlarining o'sish sur'atining pasayishi bir vaqtning o'zida kredit risklarining kelajakda pasayishi yoki barqarorlashuviga olib kelishi mumkin.

Kreditlar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash uchun tashkil qilinadigan rezerv (zaxira) fondlari kredit risklarining o'ziga xos amortizatori bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan kredit berishda asosiy e'tibor beriladigan soha – bu kreditning ta'minlanganligidir. Lekin kreditning ta'minlanganligi, riskni o'z-o'zidan yo'q deb hisoblashga asos bo'la olmaydi. Chunki, birinchidan, kredit bo'yicha ta'minlanganlikka olingan mulkning qiymati to'g'ri baholanganmi? Ikkinchidan, shu mulkning foydalilik darajasi, bozorda unga bo'lgan talab yoki umumiy qilib aytganda, ta'minlanganlik uchun qabul qilingan mulkning likvidlilik darajasi qanday? Ta'minlanganlik uchun qabul qilingan mulkning mana shu muhim tomonlarini inobatga olishning o'zi kreditlar bo'yicha risklarni hisoblashni birinchi o'rinda zarur qilib qo'yadi. Shuning uchun tijorat banklari o'z kredit siyosatlarida kredit risklarni hisoblash va boshqarishning boshqa yo'nalishlarini ham belgilab olishlari lozim.

Bank tomonidan kreditlash uchun foydalanilayotgan resurslarning bir qismi bankning mijozlari bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar, aksionerlar mablag'lari bo'lsada, ulardan qay darajada, qaysi sohada foydalanish bo'yicha qarorni bank qabul qiladi. Bank daromad olishni rejalashtirishi bilan bir qatorda, o'z faoliyatida ma'lum risklar ham mavjud ekanligini doimo hisob qilishi, kreditlashda, avvalambor, kredit oluvchi mijoz va uning faoliyatining hayotiyliigi, uning kreditga layoqatliligi, berilgan kreditning risklilik darajasini aniq ko'rib chiqqanidan keyingina kreditning ta'minlanganligini inobatga olishi lozim. Kreditning ta'minlanganligi uchun garovga olingan mulk kreditni qaytarib olishning oxirgi manbasidir.

Kredit riskining darajasini aniqlashdagi muhim ko'rsatkichlardan biri, bu korxonaning moliyaviy jihatdan mustaqilligini ifodalovchi koeffitsiyentdir.

Uning optimal ko'rsatkichi $K_m \approx 0,5$ ga teng bo'lishi mumkin. Bu ko'rsatkich qarz oluvchilarning o'z mablag'larining summasini korxonaning umumiy mablag'laridan katta bo'lishi lozimligini anglatadi. O'zbekiston hududida xo'jalik subyektlarini qisqa muddatli kreditlashda, asosan, bu ko'rsatkichning minimal miqdori 0,3 dan kam bo'lmasligi lozim.

Muxtorlik koeffitsiyenti hissadorlarning, aksiya egalarining va kreditorlarning manfaatlarini va, shu bilan birga, moliyaviy mablag'larning tarkibini ham ifodalaydi, ya'ni chetdan jalb qilingan kapital bilan o'z mablag'lari ta'minlanganligining nisbiy darajasini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich depressiya davrida korxonalami katta yo'qotishlardan saqlaydi va kredit olish uchun kafolat hisoblanadi. Bu ko'rsatkich orqali korxonaning moliyaviy ahvoriga baho berish mumkin.

Qoplash koeffitsiyenti (K_o) likvid mablag'lari summasining qisqa muddatli majburiyatlar summasi nisbatini o'zida ifodalaydi. Bu ko'rsatkich taxminan 2,0-2,5 dan kam bo'lmasligi kerak va qisqa muddatli majburiyatlarning har bir so'miga likvid mablag'larining 2 so'mdan ortiq qismi to'g'ri kelishini anglatadi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari amaliyotida bu ko'rsatkich I toifaga kiruvchi korxonalar uchun 2,0 va undan ortiq, II toifaga kiruvchi

korxonalar' uchun $1 > 2$, III toifa korxonalar uchun $0,5 > 1$ qilib belgilangan.

Absolyut likvidlilik koeffitsiyenti (K_{al}) qarzdorlik bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishni ta'minlaydi, ishlab chiqaruvchining harakatdagi aktivlar darajasini o'zida ifoda etadi. Absolyut likvidlik koeffitsiyentining eng mukammal ko'rinishi bu likvidlik koeffitsiyenti bo'lib (K_l), u yuqori va o'rta likvidlik mablag'lar summasi bilan qisqa muddatli qarzdorlik o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi banklari amaliyotida bu ko'rsatkich 1 toifa korxonalar uchun 1,5 dan yuqori, 2 toifa korxonalar uchun 1,0 dan 1,5 gacha, III toifa korxonalar uchun 1,0 dan kam qilib belgilangan.

Qarzdorlik koeffitsiyenti korxonaga aktivga qo'yilgan o'z mablag'lariga qancha jalb qilingan mablag'lar to'g'ri kelishini ifodalaydi. Zaruriyatga qarab uni quyidagicha guruhlab tahlil qilish mumkin:

$$\text{Debitor qarzdorlik koeff. } (K_{dq}) = \frac{\text{debitor qarzdorlik summasi}}{\text{o'z kapitalining summasi}};$$

$$\text{Kreditor qarzdorlik koeff. } (K_{kq}) = \frac{\text{kreditor qarzdorlik summasi}}{\text{o'z kapitalining summasi}};$$

$$\text{Jalbbqilingan kapitalaylanish koeff. } (K_{jk}) = \frac{\text{realizatsiyadan tushum}}{\text{o'z kapitalining o'rtacha summasi}} \times 100 \bullet$$

Bu koeffitsiyentlar ishlab chiqaruvchi faoliyatining tashqi qarzlarga qanchalik bog'liqligini ko'satadi. Ko'rsatkich qanchalik katta bo'lsa, uzoq muddatli majburiyatlar ham shunchalik ko'p bo'ladi va yuzaga kelgan vaziyat ham shunchalik riskli bo'ladi. Korxonaning o'z majburiyatlarini to'lay olmasligi esa korxonani inqirozga uchrashiga olib keladi.

Kredit riskini tahlil qilishlik uchun, avvalo, yuqorida ko'rsatib o'tilgan koeffitsiyentlar hisoblab chiqiladi va ularning optimal ko'rsatkichlari bilan solishtiriladi. Agar hisoblangan ko'rsatkichlar taxminan optimal ko'rsatkichlar bilan bir xil bo'lsa, u holda tahlilni davom ettirmasa ham bo'ladi. Ko'p hollarda ba'zi ko'rsatkichlar kredit riskining yuqoriligi haqida dalolat bersa, ba'zilari esa buning aksini

ko'rsatadi. Bu holda kredit riskiga baho berish qiyin bo'ladi va shu hollarda tahlil qilishni davom ettirish lozim bo'ladi. Ko'p hollarda optimal ko'rsatkichlardan uzoq bo'lgan koeffitsiyentlarning o'zining tarkiblariga ajratish mumkin.

Likvid mablag'larining yetishmasligi to'lovlarni o'z vaqtida oshirilmaligidan dalolat beradi va bu balans likvidligini pasaytiradi. Likvid mablag'larining etishmasligi amortizatsiya ajratmalaridan katta bo'lgan summadagi korxonada faoliyatidagi zararlar, o'tgan yillardagi va kutilmagan zararlar, likvid mablag'larining noto'g'ri baholanishi, kerakligidan ortiqcha summadagi mablag'larning kapital qo'yilmalariga yo'naltirilishi, uzoq muddatli investitsiyalarga keragidan ortiqcha qo'yilmalar sababli yuzaga kelishi mumkin.

Kredit riski minimal bo'lishi uchun korxonada likvid mablag'larining miqdori qisqa muddatli qarzdorliklardan taxminan ikki barobar katta bo'lishi kerak.

Kredit riskini kamaytirish borasida tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Bir qarzdor yoki o'zaro daxldor bo'lgan qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavvakalchilikning eng yuqori darajasi to'g'risida"gi nizomi talablariga rioya qilishlari lozim.

Mazkur nizom bo'yicha har qanday bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhining balansdan tashqari majburiyatlarini ham hisobga olgan holda, kreditlari jami summasi 1-bosqichli bank regulativ kapitalining 10 foizdan oshgan holati yirik kredit hisoblanadi va bu kredit bo'yicha yirik yo'qotish ehtimoli yuzaga keladi. Bir qarzdor yoki o'zaro daxldor qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi 1 darajali bank kapitalining 25 foizdan oshmasligi kerak. Ishonchli kreditlar uchun tavakkalchilikning eng yuqori darajasi 1-bosqichli bank kapitalining 5 foizidan, bankning barcha yirik kreditlarining umumiy hajmi 1-bosqichli bank kapitalidan 8 martadan oshmasligi lozim.

Tijorat banklar tomonidan ko'rsatilgan lizing xizmatlarining umumiy summasi (avializingdan tashqari) bank birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshib ketmasligi kerak.

Xalqaro bank amaliyotida kredit risklarining oldini olish bo'yicha qabul qilingan yo'riqnomalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, jahon amaliyotida kredit risklarining oldini olish bo'yicha quyidagi talablar qo'yilgan:

- biror-bir qarz oluvchi bankning asosiy kapitalining 10% ekvivalentidan ortiqcha mablag' ola olmaydi;

- bir tarmoqqa beriladigan kredit miqdori bankning umumiy portfelining 25% idan oshmasligi lozim;

- bir qarz oluvchiga to'g'ri keluvchi taxminiy risk (garovga qo'yilgan mulk baholangandan keyin) bankning asosiy kapitalining 1% i dan oshmasligi lozim;

- taxminiy (kutilayotgan) risk miqdori mijozdan olinishi kutilayotgan yillik foyda miqdorining 3 barobaridan oshib ketmasligi kerak.

3-§. Tijorat banklari faoliyatida risklarni boshqarish.

Banklar faoliyatida risklarni boshqarish risklarni minimallashtirish va oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank risklarini boshqarishdan asosiy maqsad bankning aktiv va passivlarini boshqarishda bankning foydasi va uning likvidlilik hamda xavfsizligi o'rtasidagi eng muqobil nisbatni ta'minlash, ya'ni risklar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni minimallashtirishdan iborat. Risklarni samarali boshqarish bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ko'p muammolarni hal qilishga yordam beradi. Risk darajasi turli sabab va omillarga qarab o'zgarib turadi. Shu sabab banklar ham bozor munosabatlari, mijozlarning sifati, talabi va boshqalardan kelib chiqib o'z aktivlari va passivlarining holati, bank xizmatlariga bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqib risklarni ham hisob-kitob qilib faoliyatini olib borishi kerak.

Risklarni boshqarish jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi: risklarni oldindan ko'ra bilish, ularning taxminiy hajmi va ta'sirini aniqlash, risklarning oldini olish yoki ularni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish, ular ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarning oldini olish v.b. Bu borada har bir bank

risklarni boshqarish sohasida o'zining strategiyasiga ega bo'lishi lozim. Agarda bank riskli operatsiyani amalga oshirishga qaror qilsa, u oldindan mazkur operatsiyada qanaqa risklar bo'lishi mumkinligini va ularni qaysi usullar bilan, qanday qilib boshqarishi mumkinligini ham bilishi lozim. Bizining respublikamizda tijorat banklari faoliyatida uchraydigan risklarni boshqarish bo'yicha Markaziy bankning 2011-yil 25 mayda tasdiqlangan "Tijorat banklarining bank tavakkalchiligini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizom talablari asosida olib boriladi. Bu hujjat Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining bank risklarini boshqarishiga qo'yiladigan minimal talablar bayon etilgan va bank risklarini boshqarish deganda, bank o'z faoliyatini yuritishi va bank operatsiyalarini o'tkazishida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklarni aniqlash, ularning oldini olish, bartaraf etish, kamaytirish va ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni boshqa moliyaviy vositalar orqali qoplash bo'yicha bank tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar majmuyi tushunilishi belgilab berilgan. Respublikada tijorat banklari tomonidan ular faoliyatida yuzaga keladigan risklarni boshqarishdan asosiy maqsad - bank omonatchilari va kreditorlari, aksiyadorlari manfaatlarini himoya qilish, bank tavakkalchiliklarini kamaytirish, bartaraf etish va oldini olish hamda bank faoliyatining yetarli darajadagi barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Risklarni boshqarishning quyidagi elementlari mavjud:

1. Bank risklarini boshqarish bo'yicha maxsus bo'lim yoki boshqarmalar tashkil qilish.
2. Risklarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish.
3. Risklarni minimallashtirishga ta'sir qiluvchi dastag'larni topish.
4. Risklarni tahlil qilish asosida qarorlar qabul qilish v.b.


Ushbu elementlar O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan banklar faoliyatida ham o'z aksini topgan. Bank risklarini boshqarish sohasida tijorat banklari quyidagi talablarni amalga oshirishlari zarur:

bank faoliyati va uning atrofidagi muhitning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi, aniq ifodalangan va hujjatlashtirilgan tavakkalchiliklarni boshqarish siyosatini ishlab chiqish;

bank tavakkalchiligini boshqarish vazifalari yuklangan tarkibiy bo'linmani tashkil etish;

bank tavakkalchiligini boshqarish bo'linmasini tajribali va malakali mutaxassislar bilan ta'minlash;

bank yangi xizmatlarni joriy qilishda, yirik bitimlarni tuzishda, xorijiy moliya institutlari bilan aloqa o'rnatishda, investitsiyalar kiritishda, chet el valyutasidagi mablag'larni aktivlarga joylashtirishda, yangi xodimlarni ishga qabul qilishda va boshqa bank tavakkalchiligi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bank operatsiyalari tavakkalchiligining yuzaga kelishi va uni bartaraf etish, oldini olish, kamaytirish nuqtayi nazaridan bank tavakkalchiligini boshqarish bo'linmasi bilan kelishuvni amalga oshirish v.b.




41-rasm. Kreditni boshqarishning birinchi qo'mitasi vazifalari

Banklarda kredit risklarini boshqarish muhim ahamiyatga ega. Jahon bank amaliyotida yirik tijorat banklarida kredit va u bilan bog'liq risklarni boshqarishni ularning maxsus ikkita qo'mitasi amalga oshiradi.

Ularning birinchisi va uning asosiy vazifalari quyidagi rasmda ko'rsatilgan.

Bank risklarini boshqarishda banklar faoliyatini chuqur bilish, ular bajaradigan operatsiyalarning samaradorligini aniqlay olish, bankning kredit, investitsiya, valyuta siyosati va boshqa faoliyat turlari bo'yicha optimal qarorlar qabul qilishga erishish, mijozlarning xo'jalik faoliyati va ularning moliyaviy ahvoli, tarmoqlar faoliyatining xususiyatlarini bilish mug'im ag'hamiyatga ega. Bank risklarini boshqarishda banklar diversifikatsiyalash, sug'urtalash, ta'minot bazasini mustahkamlash, mijozning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish kabi usullardan keng foydalanishi lozim. Shuningdek, tijorat banklari risklarning oldini olish uchun:

- o'z kapitalidan ortiq summaga risk qilmaslik;
- kam daromad olish imkoniyatida katta risk yoki umuman risk qilmaslik;



42-rasm. Kreditni boshqarishning ikkinchi qo'mitasi vazifalari

• har qanday bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlarga berilgan kreditlar summasi 1-bosqichli bank regulyativ kapitalining 10 foizdan oshirmaslik;

•bir qarzdor yoki o'zaro daxldor qarzdorlarga to'g'ri keluvchi riskning eng yuqori darajasi 1 darajali bank kapitalining 25 foizidan oshishiga yo'l qo'ymaslik. Hattoki, ishonchli kreditlar bo'yicha ham riskning eng yuqori darajasi 1-bosqichli bank kapitalining 5 foizidan, bankning barcha yirik kreditlarining umumiy hajmi 1-bosqichli bank kapitalidan 8 martadan oshirmaslikka erishishi lozim.

Yirik tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishdagi asosiy qiyinchiliklar kreditlanadigan sohani chuqur tahlil qilinmasligi, mijozlar bilan aloqani to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, nazoratning to'g'ri tashkil qilinmasligi, kredit jarayonlarini nazorat va audit o'tkazishdagi muammolarining to'g'ri hal qilinmasligida ko'riladi.

Kreditning risklarini boshqarishni vazifalarini amalga oshirishda bank boshqaruvchisi, kredit bo'limi, operatsion bo'lim boshliqlari, bosh iqtisodchi, buxgalterlarning faoliyati ahamiyatlidir. Chunki ular kreditni boshqarishning birinchi qo'mitasi a'zolari bo'lib, kreditni boshqarish vazifalarini amalga oshiradilar.

Tijorat banklarida kreditni boshqarishning ikkinchi qo'mitasining faoliyati va uning yo'nalishlari, vazifalari quyidagi rasmda ko'rsatilgan: Birinchi va ikkinchi qo'mitalar birgalikda o'ziga birlashtirilgan vazifalarni bajarib borish natijasida risklarning kamayishiga erishish mumkin.

Bank faoliyatining ishonchliligi uning faoliyatida yuzaga kelgan risklarni mohirona boshqarishi bilan belgilanadi. **Risklarni boshqarish** – bu riskni minimallashtirish bo'yicha qo'llaniladigan usul va vositalarning majmuasidir. Bank risklarini boshqarishning elementlari sifatida:

- riskni boshqarish subyektlarini;
- riskni aniqlashni;
- risk darajasini baholashni;

riskni monitoring qilishni olish mumkin.

Riskni boshqarish subyektlari - bular bank rahbariyati, riskni boshqarish boshqarmasi yoki bo'limi, kreditni bergan boshqarma yoki bo'lim, nazorat, monitoring bo'linmalari va yuridik bo'lim hisoblanadi.

Riskni aniqlash – mavjud va qo‘shimcha ma’lumotlarni olish orqali risk yuzaga kelgan joy-muhit, riskning salbiy ta’sir zonalarini aniqlanadi.

Risk darajasini baholash – bunda risk son va sifat jihatdan baholanadi.


Riskni sifat jihatdan baholashda riskning manbalari, unga ta’sir qiluvchi omillar aniqlanadi. Va riskni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilganda aynan shu omillarga e’tibor qaratiladi. Riskni sifat jihatdan tahlil qilish quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi.

Bular:

- risk darajasini baholash mezonlarini aniqlash;
- bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ba’zi risklarning darajasini aniqlash;
- haqiqatda yuzaga kelgan risklarning turlari va ularning ko‘lamini turli usullarni qo‘llagan holda aniqlash;
- kelajakda risklar kamayishi yoki oshishi imkoniyatlarini baholash.

Risklarni boshqarish usullarini 4 guruhga bo‘lish mumkin. Bular:

1. Risklarning oldini olish usullari.
2. Risklarni o‘tkazib yuborish yoki yo‘nalishini o‘zgartirish usullari.
3. Risklarni taqsimlash usullari.
4. Risklarni qabul qilish va undan keladigan yo‘qotishlarni minimallashtirish.



43-rasm. Riskni boshqarish strategisi yo‘nalishlari

Riskni boshqarishni amalga oshirishdagi usullar riskning oldini olish va undan keladigan yo'qotishlarni kamaytirishga qaratilgan bo'lib, u quyidagi yo'nalishlarga asoslanadi:

- Riskni o'z kapitali hisobidan qoplash choralarini ko'rish,
- Riskga asoslangan marja (foiz, ta'minot v.b.) darajasini aniqlash.
- Kredit portfeli sifatini nazoratga olish va uning diversifikatsiyasiga e'tibor qaratish.
- Riskning turlari bo'yicha ularning xavflilik darajasini aniqlash.
- Bank operatsiyalarini risk omilining ta'siri darajasidan kelib chiqib diversifikatsiyalash.
- Bankning riskli operatsiyalari bo'yicha limitlar o'rnatish.
- Zarur hollarda aktivlarni sotish.
- Alohida risklarni xedjirlash.
- Risklarni sug'urtalash.

Shuningdek, yana riskdan qochish, riskni cheklash, ushlab turish, riskni taqsimlash, qayta sug'urtalash, o'z-o'zini sug'urtalash kabi usullardan ham foydalanish mumkin.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering

Iqtisodiy risk	Ekspert baholash
Bank riski	Diskert tasodifiy miqdor
Kredit riski	dispertsiyasi
Sof va sun'iy risklar	Risksiz zona
Retrospektiv risk	Kritik risk zonasi
Ochiq va yopiq risklar	Halokatli risk zonasi
Mamlakat, jahon risklari	Foydalilik riski munozarasi
Portfel risk	Likvid risk
Moliyaviy risk	Tizimli va tizimsiz risk

O'z bilimini tekshirish uchun savollar

- Risk yuzaga kelishining sabablari nimalardan iborat?
- Bank risklarining qanday turlari mavjud?
- Bank risklari qaysi toifalarga bo'linadi?

- Sof risklarga qaysi risklar kiradi?
- Boshqarish imkoniyatiga ko'ra bank risklari qanday turlarga bo'linadi?
- Tashqi risklar darajasiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?
- Tuzilish belgilariga ko'ra iqtisodiy risklar qanday risklarga bo'linadi?
- Xalqaro risk deganda nimani tushunasiz?
- Risk darajasi nimani ifodalaydi?
- Bankning ichki risklariga qaysi risklar kiradi va unga ta'sir qiluvchi omillar?
- Diversifikatsiyalanish nimani anglatadi?
- Bank risklarini baholashning matematik usullari qaysilar?
- Kredit riski va uning yuzaga kelishi sabablari nima?
- Kredit riski qachon va qanday aniqlanadi?
- Banklar va bankirlar boshqa kreditorlarga nisbatan riskdan ko'p himoyalalanuvchi bo'ladi, bunga sabab nima?
- Tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish jarayonining bosqichlarini ayting.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat banklari to‘g‘risida ma‘lumot

Davlat banklari (3)

1. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki.
2. O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki.
3. “Asaka” aksiyadorlik tijorat banki.

Aksiyadorlik tijorat banklar (11)

4. “Ipoteka-bank” aksiyadorlik tijorat ipoteka banki.
5. “O‘zbekiston sanoat-qurilish banki” aksiyadorlik tijorat banki.
6. “Agrobank” aksiyadorlik tijorat banki.
7. Aksiyadorlik tijorat banki “Qishloq qurilish bank”.
8. "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki.
9. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki.
10. Aksiyadorlik tijorat “Aloqabank”.
11. “Ipak Yo‘li” aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki.
12. “Kapitalbank” aksiyadorlik tijorat banki.
13. “Asia Alliance Bank” aksiyadorlik tijorat banki.
14. “Invest Finance Bank” aksiyadorlik tijorat banki.

Xususiy banklar (8)

15. “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki.
16. “Turkiston” xususiy aksiyadorlik tijorat banki.
17. “Davr-bank” xususiy aksiyadorlik tijorat banki.
18. Xususiy aksiyadorlik-tijorat banki “Universal bank”.
19. “Ravnaq-bank” xususiy aksiyadorlik tijorat banki.
20. “Hi-Tech Bank” xususiy aksiyadorlik tijorat bank.
21. “Orient Finans” xususiy aksiyadorlik tijorat banki.

Chet el kapitali ishtirokidagi banklar (5)

22. Chet el kapitali ishtirokidagi “Savdogar” aksiyadorlik tijorat banki.


23. Chet el kapitali ishtirokidagi “HAMKORBANK” aksiyadorlik tijorat banki.

24. “KDB Bank O‘zbekiston” aksiyadorlik jamiyati.

25. "Uzbekistan-Turkish Bank" aksiyadorlik jamiyati.

26. Eron “Soderot” bankining O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahridagi shu’ba banki.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tarkibi



Pul muomalasi departamenti

Kredit tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash va tartibga solish departamenti

Banklarni inspeksiya qilish departamenti

Banklarning investitsiya portfelini monitoring qilish departamenti

Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish departamenti

To'lov tizimi va axborot texnologiyalari departamenti

Buxgalteriya hisobi, hisoboti va davlat byudjetining kassa ijrosi departamenti

Monetar siyosat departamenti

Xalqaro rezervlarni boshqarish departamenti

Xalqaro hisob-kitoblar va banklararo operatsiyalar departamenti

Valyutani tartibga solish va nazorat qilish departamenti

Xodimlar bilan ishlash departamenti

Axborotlashtirish bosh markazi

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazoratni muvofiqlashtirish boshqarmasi

Kredit axboroti milliy instituti

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlari boshqarmasi

Nobank kredit tashkilotlarini nazorat qilish va tartibga solish boshqarmasi

Bank tizimida metodologiya ishlarini muvofiqlashtirish boshqarmasi


Birinchi bo'lim

Markaziy bank O'quv markazi
Emissiya-kassa operatsiyalari boshqarmasi
Ichki valyuta bozorida operatsiyalar boshqarmasi
Valyuta ayirboshlash operatsiyalari
Maxsus boshqarma
Respublika valyuta birjasi
Moliya sohasini rivojlantirish agentligi
"Respublika inkassatsiya xizmati" DUK bosh direktori
"Davlat belgisi" davlat ishlab chiqarish birlashmasi (Qog'oz
fabrikasi, Bosma fabrika, Zarbxona)
Qimmatbaho metallar agentligi bosh direktori, Davlat asillik
darajasini belgilash palatasi

Respublika tijorat bankining tarkibiy bo'linmalari

G'aznachilik
Filiallar faoliyatini nazorat qilish va koordinatsiya markazi
Kredit operatsiyalar markazi
Metodologiya markazi
Bank operatsiyalari boshqarmasi
Qimmatli qog'ozlar boshqarmasi
Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi
Qurilish va kapitalni moliyalashtirish boshqarmasi
Yuridik boshqarma
Tashqi aloqalar boshqarmasi
Moliya boshqarmasi
Loyihalarni moliyalashtirish boshqarmasi
Kompyuterlashtirish va informatsiya boshqarmasi
Pul muomalasi boshqarmasi
Kadrlar boshqarmasi
Kichik biznes va tadbirkorlikni kreditlash boshqarmasi
Xavfsizlik boshqarmasi
Kassa boshqarmasi

Aksiyadorlik tijorat banki filialining tashkiliy tuzilishi



**Chet el valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirishga
litsenziya berish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish uchun
O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga taqdim etilishi lozim
bo'lgan hujjatlar
RO'YXATI**

1. Ariza: unda quyidagilar lozim:

- bankning ustavida ko'rsatilgan to'liq nomi;

- bankning pochta manzili;

- chet el valyutasida operatsiyalar o'tkazishga so'ralayotgan litsenziyaning turi (bosh litsenziya, ichki litsenziya);

- so'ralayotgan litsenziyaning amal qilish muddati.

2. Bankning chet el valyutasida operatsiyalarini amalga oshirishga tayyorligi.


3. Bankning chet el valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshiruvchi bo'linmalari tavsiflangan tashkiliy tuzilmasi (xodimlar malakasi, bo'limlarni ixtisoslashtirish va texnik jihozlashga oid ma'lumotlar).


4. Vakolatli bankning (chet el valyutasida operatsiyalar o'tkazish uchun bosh litsenziyaga ega bo'lgan) vakillik kelishuviga imzo chekishga roziligi to'g'risidagi xatning nusxasi.

5. Vakillik bitimlari tuzish mumkin bo'lgan chet ellik hamkorlar to'g'risida ma'lumotlar (bosh litsenziya olish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga murojaat qiluvchi banklar uchun).


O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlar tasnifi

BANK QIYMATLI QOG'OZLARI



BANK RISKLARI TASNIFI

Bank risklarining tasnifi



**Mahalliy va xorijiy amaliyotda qo'llaniladigan asosiy
terminlar lug'ati
(Glossariy)**

A

«Ayiqlar» - agar amaliyotda valyuta kursi tushushi kutilsa, valyuta kursi pasayishiga o'ynovchilar (ularni xalqaro valyuta bozorida «ayiqalar» deb atashadi) valyutani shartnoma tuzilgan davr (muddatli kurs) kursi bilan sotish to'g'risida muddatli shartnoma tuzadilar. Agar muddatli valyuta kursi tushsa, «ayiqalar» valyutani bozordan pasaygan kursda sotib olib, uni muddatli kurs bo'yicha sotadilar va kurslar o'rtasidagi farq miqdorida foyda oladilar.

Abekor - "Yevropa korporatsiyasi banklar uyushmasi"ning qisqacha nomi. Mazkur banklar xalqaro uyushmasi 1971-yilda tashkil qilingan bo'lib iqtisodiyot, moliya, bank ishi sohalarida ilmiy izlanishlarni olib borish hamda banklararo axborot almashuvini tashkil etish uchun xizmat qiladi.

Adresant - tovar yoki mulkini jo'natuvchi.

Adresat - tovar yoki mulkni qabul qiliuvchi.

Agent - bitimga u mutasaddi emas, dallol sifatida kirishadi. Bitim tuzishda u hech qanday moliyaviy riskni o'z zimmasiga olmaydi, biroq faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklardan mijozni himoyalaydi.

Agent-bank - 1) obligatsiya chiqarish topshirig'ini olgan tashkilot; 2) xalqaro kredit sindikatining vakolatli a'zozligiga ega bo'lgan bank.

Agentlik operatsiyalari - agent tomonidan agentlik xizmatlarini bajarish bilan, avvalo, mijozning topshirig'i bo'yicha tovarlar va xizmatlarni sotish yoki sotib olish bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni amalga oshirish.

Agrariylar - qishloq xo'jaligida ishlovchilar yoki undan daromad oluvchilar.

Agregirovalash - iqtisodiy ko'rsatlichlarni yagona guruhga birlashtirish yo'li bilan ularni kattalashtirish.

Agressiv qimmatli qog'oz - aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa ko'rinishdagi qimmatli qog'ozlar bo'lib, prognozlar, tendensiyalar

hamda fond bozoridagi konyunkturasiga asosan ularning kursini bir necha marta oshirish mumkin.

Ajio-konto - foyda va zararlarni aks ettiruvchi hisob raqam.

Akkreditiv (*lot. accredo* - ishonaman) - pul, hisob-kitob hujjati; bank majburiyati. 1) Tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan amalga oshiriladigan hisob-kitob turi bulib, unga mol sotib oluvchining arizasiga asosan unga akkreditiv ochiladi va jo'natilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar to'lash uchun hisob raqamidan mablag'lar deponentlashtiriladi. 2) Jahon amaliyotida jamg'arma bankining aholiga ko'rsatiladigan xizmat turlaridan biri; bank bo'limining tegishli bir shaxsga ma'lum miqdordagi summalarga akkreditiv ochishga beradigan buyrug'i. Bulardan tashqari akkreditiv turli korxonalarining mulkiy munosabatlarida, xalqaro hisob-kitoblarida keng qo'llaniladi.

A-konto - importyorning eksportyor bilan sotilgan tovarlar uchun oldindan to'lov o'tkazmasi.

Akselerator - daromadlar, iste'mol talabi, tayyor mahsulotning nisbiy o'sishi natijasida kelib chiqadigan investitsiyalar nisbiy o'shisining nisbati.

Aksept - to'lov kafolati yoki pul, tovar yoki hisob-kitob hujjatlariga rozilik.

Akseptlangan tratta - to'loviga rozilik berilgan o'tkazma veksel.

Akseptlangan veksel - to'loviga rozilik berilgan veksel.

Akseptlash - to'lovga rozilik berish.

Aksioner kapital multiplikatori - bank jami aktivlarining uning aksionerlik kapitaliga nisbati.

Aksiya (*frans. «action»*) - aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga muayyan hissa qo'shganlikka guvohlik beruvchi, uning egasiga foydaning bir qismini olish va ovoz huquqini, odatda, ushbu jamiyatini boshqarishda ishtirok etish huquqini beruvchi qimmatli qog'oz. Shuningdek, aksiya - o'z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyati tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz.

Aksiyador - aksiyani o'z hisobidan, ya'ni mavjud bo'sh mablag'lariga sotib olib, jamiyatning ustav fondini tashkil etishda ishtirok etuvchi korxonalar, tashkilot, bank va boshqa moliya tashkilotlari yoki alohida fuqarolar.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi - aksiyadorlik jamiyati, jumladan, aksiyadorlik tijorat banking oliy organi hisoblanadi va unda aksiyadorlarning vakillari va aksiyador korxonalarining rahbarlari ishtirok etadilar.

Aksiyadorlik jamiyati - ko'rsatilgan nominal qiymatga teng aksiyalarning muayyan miqdoriga bo'lingan, ustav fondiga ega bo'lgan hamda majburiyatlari bo'yicha faqat o'z mol-mulki bilan javobgar bo'ladigan jamiyat.

Aksiyaga dividendlar - moliyaviy menejmentda qo'llanadigan analitik koeffitsiyentlardan biri. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar, qarzdorlik majburiyatlari bo'yicha foizlar, soliqlarni chiqarib tashlangandan keyin qolgan sof foydani kompaniyaning so'ndirilmagan oddiy aksiyalarning o'rtacha soniga nisbati orqali hisoblanadi.

Aksiyalarning bonusli emissiyasi - aksiyalarni aksiyadorlar o'rtasida bepul tarqatish maqsadida muomalaga chiqarish.

Aktiv - 1. Buxgalterlik balansining xo'jalik mablag'larining holati aks ettiriladigan chap tomoni. **2.** Jismoniy yoki yuridik shaxsga tegishli mol-mulk yig'indisi: asosiy vositalar, ishlab chiqarish moddiy zaxiralari, nomoddiy aktivlar, pul mablag'lari, moliyaviy qo'yilmalar.

Aktiv kapital - majburiyatlar va qarzlardan bo'sh bo'lgan mablag'lar.

Aktiv obligatsiyalar - qimmatli qog'ozlar bozorida sotuvga qo'yiladigan va erkin muomalada bo'ladigan uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar.

Aktiv operatsiyalar - foyda olish va bank likvidligi (to'lovga qobiliyati)ni ta'minlash maqsadida bank resurslarini kredit tamoyillari asosida iqtisodiyot tarmoqlari va aholi ehtiyojlari uchun joylashtirilishi.

Aktiv operatsiyalar bilan bog'liq risklar - kredit, valyuta, foiz, likvidlilik, investitsiya risklari v.b.

Aktiv qoldiq (saldo) - savdo balansida tushumlar yoki daromadlarning xarajatlardan oshgan qismi.

Aktivlar daromadliligi - bank jami aktivlarining daromadliligi, soliqqa tortilgandan keyingi sof foydaning jami aktivlarga nisbati bilan o'lanadi.

Aktivlar va passivlarni muddati bo'yicha balanslashtirish - bu holat foiz spreadini normal ushlab foiz riskini kamaytirish imkonini beradi.

Allonj - vekselda birlashtirilgan qo'shimcha varaq, agarda vekselda indossament yozuvlari sig'masa, mazkur varaqqa yoziladi.

Alpari - valyuta kursining, obligatsiyalarining, qimmatli qog'ozlarning, veksellarning o'z nominal qiymati bilan ideal teng bo'lishi.

Amonko - defitsit, qarz, yetishmovchilik.

Amvol (arab.) - xususiy shaxsga qarashli mulk, mol-dunyo, kapital.

Anderreyter - sug'urta kompaniyalari va banklarda eng mas'ul moliya faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs yoki firma.

Anderreyting - obuna qilish; sotish maqsadida yangi chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish.

Annuitet - (*fran.* Annuité, *lot.* annuus - yillik, har yili) moliyaviy mablag'larni (asosiy qarz va u bo'yicha foizlarni) teng miqdorda aynan belgilangan muddatlarda to'lash grafigini ifodalaydi. Davlatning muddatli zayomlari annuitetning turlaridan biri, u bo'yicha har yili foizlar to'lanishi bilan birgalikda asosiy qarzdan ham tolab, qarz summasi qisqartirib boriladi. Bank amaliyotida annuitet kredini har oyda bir xil miqdorda to'lashda qo'llaniladi.

Annulyatsiya - qimmatli qog'ozning yo'qolishi natijasida uni bekor qilinishi jarayoni.

Autrayt - oddiy, muddatli valyuta bitimi, tomonlar qat'iy belgilab qo'ygan muddatda, shartlarda "forvard" kursi bo'yicha tovarlar butunlay sotib yuboriladi.

Outsorsing - *ingl.* outsourcing (outer - source - using) - tashqi resurs yoki manbadan foydalanish) – korxonaga yoki uning baʼzi faoliyat turini yoki funksiyalarini uzoq shartnoma asosida (1 yildan kam boʻlmagan muddatga) mazkur sohadagi boshqa kompaniyalarga berish orgali uning faoliyati uzluksizligini va samaradorligini oshirish.

Aval - veksel boʻyicha qarzdor shaxsga beriladigan kafolatnoma, bunday kafolatnoma vekselning yuz tomoniga rozilik imzosi yoki vekselga tirkov qogʻozi shaklida hujjatlashtiriladi. Aval uchun kafolatlovchi bilan kafillik berilgan shaxs bir xilda javobgar boʻladi.

Aval krediti - mijozning kafolatlangan majburiyatini qoplash uchun moʻljallangan bank krediti.

Avans - moddiy boyliklar berish, biror ishni bajarish yoki xizmat koʻrsatishdan avval beriladigan maʼlum bir miqdordagi pul toʻlovi.

Avanslashtirish - kelajak sarflar uchun mablagʻ ajratish, avanslashtirish.

Avers - tanga, medallarning old tomoni.

Aviaipoteka - ipoteka krediti, bunda kredit kafolati sifatida samolyot yoki boshqa uchar obyekt olinadi.

Avisto - nomsiz veksel, unda toʻlov muddatlari koʻrsatilmagan boʻlib, veksel toʻlovga ixtiyoriy paytda berilishi mumkin.

Avizo - bank xabaromasi. Hisob-kitob ishlari bajarilganligi haqida kelishuvlarning bir-biriga yuboradigan rasmiy xabari. Avizo banklararo hisob-kitoblarda keng qoʻllaniladi. Uning asosiy rekvizitlari: raqami, operatsiya yozilgan sana, tabiati, pul miqdori, toʻlovchi yoki kafillik beruvchining nomi.

Avuarlar - keng maʼnoda turli aktivlar (pullar, cheklar, vekselar): bu aktivlar hisobiga turli toʻlovlar amalga oshirilishi va aktiv egalarining qarzlari toʻlanishi mumkin.

Aylanma aktivlarning kunlarda aylanishi - korxonaga aylanma mablagʻlarining bir marta aylanishi uchun necha kun ketishini koʻrsatadi.

Aylanma akyivlarning aylanish koeffitsiyenti - joriy aktivlarning aylanish tezligi va aktivlarga qoʻyilgan mablagʻlarning pul

mablag'lariga aylanish tezligini ifodalab, u ma'lum davr (oy, kvartal, yil) ichida aylanma mablag'lari necha marta aylanganligini ifodalaydi.

B

«Buqalar» - valyuta kursining ko'tarilishiga o'ynovchilar («buqalar») esa valyuta kursi ko'tarilganda, valyutani keyinchalik shartnoma tuzilgan vaqtdagi kurs bo'yicha sotib olishga kelishilgan muddatli shartnoma tuzadilar. Kurs oshganda esa valyutani muddatli shartnomada belgilangan (oldingi) narx bo'yicha sotib oladilar va oshgan – yuqori narxda sotib foyda ko'radilar.

Bank - tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuyini amalga oshiradigan, ya'ni:

-to'lovlarni amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs. Demak, bank barcha riskni o'z zimmasiga olib, yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini jalb qilib, bank resurslarini tashkil qilgan holda, bu mablag'larni muddatida qaytarib berish, muddatlilik, to'lov va ta'minlash shartlari asosida o'z nomidan ularni joylashtiradi hamda yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi hisob-kitob va vositachilik operatsiyalarini olib boruvchi kredit muassasa.

- yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish;

Bank aktivlari - kredit, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog'ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag'lar, bo'lib - bo'lib to'lash shaklida sotilgan mulklar, balansdan tashqari moddalar (chaqirib olinmaydigan kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) hamda moliyalash bilan bog'liq barcha boshqa talablar sifatida ta'riflanadi.

Bank kafolati - bank (kafil) boshqa shaxs (prinsipal)ning buyurtmasiga ko'ra kafil o'z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq prinsipalning kreditori (benefitsiar) pul summasini to'lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga to'lash haqida prinsipalga beradigan yozma majburiyati. Bank kafil o'z mijozi uchun to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

Bank kengashi faoliyatining asosiy yo'nalishi - kredit siyosati va bankning boshqa rejalarini ko'rib chiqish, daromad, xarajatlar, foyda rejalarini tasdiqlash, shu'balarni ochish yoki yopish masalalarini ko'rib chiqish kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

Banklarning aktiv operatsiyalari - daromad olish maqsadida resurslarni aktivlarga joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar.

Banklarning brokerlik faoliyati - banklar mijozning topshirig'iga asosan qimmatli qog'ozlar bo'yicha ishonchli shaxs sifatida bitimlar tuzadi, topshiriq shartnomasini amalga oshiradi.

Banklarning depozitar faoliyati - qimmatli qog'ozlar sertifikatlarini saqlash bo'yicha xizmat ko'rsatish yoki qimmatli qog'oz huquqini o'tkazish va hisobini yuritish bo'yicha xizmat ko'rsatadi.

Banklarning dillerlik faoliyati - qimmatli qog'ozlarni o'zining hisobidan sotish, sotib olish bitimini amalga oshiradi.

Banklarning o'z mablag'lari - bankning ustav kapitali va unga tenglashgan mablag'lar, jumladan, zaxira kapitali, maxsus fondlar, moddiy rag'batlantirish fondi, boshqa har xil tashkil qilingan fondlar hamda taqsimlanmagan foydasi kiradi.

Banklarning passiv operatsiyalari - bank resurslarini shakllantirish, uning passiv hisob raqamlari yoki aktiv-passiv hisob raqamlaridagi pul mablag'larini ko'paytirish bilan bog'liq operatsiyalar.

Banklarning rezerv kapitali yoki **rezerv fondi** - foydadan ajratmalar hisobiga hosil bo'ladi va u ko'zda tutilmagan zararlar hamda qimmatli qog'ozlar kursining tushishi natijasidagi yo'qotishlarni qoplash uchun mo'ljallangan.

Bankni ixtiyoriy tugatish - kreditorlar va omonatchilar oldida majburiyatlar bajarilishini ta'minlash imkoniga ega bo'lgan bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan hollarda amalga oshiriladi.

Bankni majburiy tugatish - Markaziy bankning bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasini qaytarib olish to'g'risidagi qaroriga asosan amalga oshiriladigan jarayon.

Bankni moliyaviy rekonstruksiyalash (Financial restructuring of bank) - bankni moliyaviy sog'lomlashtirish (harakatsiz aktivlarni

hisobdan chiqarish, kredit siyosatini o'zgartirish, boshqaruv almashuvi v.b.).

Bankni qayta tashkil etish - aksiyadorlar umumiy yig'ilish qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ruxsati bilan amalga oshiriladigan jarayon.

Bankni tugatish - uning huquq va majburiyatlarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga o'tkazmasdan bank faoliyatini to'xtatishdan iborat.

Bankning jalb qilingan mablag'lari - depozitlar, jamg'armalar, qarzga olingan mablag'lar kontokorrent hamda korrespondent hisob varaqlarida o'z ifodasini topadi.

Bankning nomoddiy aktivlari - moddiy shakliga ega bo'lmagan, ammo bankning asosiy faoliyatida faol ishtirok etuvchi aktivlar.

Bankning o'z kapitali - bevosita bankning o'ziga tegishli bo'lgan mablag'lar.

Barqaror bo'lmagan mablag'lar - banklarga vaqti-vaqti bilan (davriy) kelib tushadigan mablag'lar.

Bir aksiyaga to'g'ri keluvchi foyda (Fully diluted earnings per share) - aksiyaga butunlay o'tkazilgan foyda koeffitsiyenti. Moliyaviy menejmentda ishlatiladigan, kelajakdagi aksiyalar soni o'zgarishini hamda holatlarini hisobga oladigan eng maksimum koeffitsiyentlardan biri.

Birinchi darajali kapital - regulyativ kapitalning 50 foizini yoki undan ortig'ini tashkil etishi lozim bolgan kapital. Ikkinchi darajali kapital miqdori I darajali kapital miqdoridan oshib ketsa, kapitalning oshib ketgan qismi kapital hisobiga olinmaydi yoki kiritilmaydi.

Birja indeklari - qimmatli qog'ozlarning birjadagi harakatini ifodalovchi ko'rsatkich.

Birja kotirovkasi - bu birjada sotiladigan qimmatli qog'ozlarning e'lon qilingan narxi.

Bosh litsenziya - tijorat banklariga O'zbekiston Respublikasi hududida hamda chet elda xorijiy valyutadagi operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beradi.

Bosh, asosiy faoliyat uchun to'lov (Fee generating activities) - komission to'lovlar uchun bank operatsiyalari, masalan, mijozning investitsiyalarini boshqarish, konsalting xizmatlari.

Broker - birjada bitimlar imzolashda sotuvchi va xaridor o'rtasidagi vositachi.

Brokerlik operatsiyalari - o'z mijozlarining topshiriqlariga binoan banklar komissioner sifatida harakat qilib, komission operatsiyalarni amalga oshirishi, ya'ni o'z nomidan mijozning hisobidan qimmatli qog'ozlar oldi - sotdisiga oid bitimlarni tuzishi.

D

Davlat qimmatli qog'ozlari - O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari.

Davomiylik indeksi - "dyuresheyn", foiz riski o'lchovi, yillarda ifodalanadigan indeks. Uni hisoblash uchun qarz majburiyatlari bo'yicha har kelgusi to'lovning haqiqiy qiymati va muddati hisoblanadi, qarz majburiyatlari haqiqiy qiymati summasida ko'rsatilgan to'lovlarning solishtirma og'irligi topiladi.

Debet - kelib tushadigan mablag'larni ifodalaydi, debet ko'payish, qo'shilish (+)ni, kredit kamayish (-)ni ifodalaydi.

Debet karta - jismoniy shaxslarni ish haqi, pensiya, stipendiya va boshqa pul mablag'lari o'tkaziladigan unga tegishli bo'lgan bank kartasi. Bankdagi hisob varag'ida mavjud mablag' chegarasida egasiga naqd pul olish va to'lovlarni amalga oshirishga imkon beruvchi plastik kartochkasi.

Debet yozuv - debet provodkasi buxgalteriya hisobi bo'yicha hisob raqamning debitida xo'jalik operatsiyalarini yozish.

Debitor qarzdorlik - korxonaning yetkazib bergan tovarlari va korsatgan xizmatlari bo'yicha boshqa subyektlardan olishi kerak bo'lgan mablag'lari miqdori.

Defitsitli moliyalash - davlat xarajatlari doimo daromadlaridan oshib ketadi, manfiy saldo qarz majburiyatlarini davlat emissiyasi yoki byudjetni bevosita kreditlash hisobiga qoplanadi.

Deflyator - deflyator, narxlarni inflyatsion o'sishiga ta'sirlarni to'g'rilaydigan, pul ko'rsatkichlarining nominal darajasini realga olib kelish koeffitsiyenti. Deflyator yordamida joriy bahoda hisoblangan iqtisodiy ko'rsatkichlar o'tgan davr bahosiga tenglashtiriladi.

Defolt (default) - shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajara olmaslik (kreditor, depozitlar va hokazolar bo'yicha), kasodga uchrash.

Degressiv amortizatsiya usuli - aktivlar eskirishi hisobining takomillashgan usuli, masalan, aktivlar 4 yil xizmat qiladi, 1 yilga 50% qiymati chiqariladi, 2 yilga qolgan 1 yildan chiqarilgan qiymatning 50% i, 3 yilga esa 1 yil va 2 yilga chiqarilgan qiymat qoldig'ining 50% i chiqariladi, 4 yilga qolgan qiymat chiqariladi.

Dekapitalizatsiya - moliyaviy zarar, inflyatsion qadrsizlanish va hokazo natijasida kapitalni yo'qotish.

Depozit ekspansiyasi - tijorat banki tomonidan o'z depozitlarining bir qismini resurslar jalb qilmasdan, o'z mijozlarini kreditlash orqali yaratish imkoniyati.

Depozit operatsiyalar - tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag'larini bankka jalb qilish bilan bog'liq operatsiyalar.

Depozit operatsiyalarining obyeksi - ehtiyojdan ortiqcha pul mablag'lari (qo'yilmalar).

Depozit sertifikati - bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'ozdir.

Depozitar operatsiyalar - hisobga olish registrilarida depozitar operatsiyalar standartlariga muvofiq bajariladigan operatsiyalar.

Depozitariy - qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisob-kitob, saqlash, foizlarni undirish va qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq boshqa xizmatlarni amalga oshiruvchi tashkilot.

Depozitlar sug'urtasi - omonatchilarning bank tomonidan ularning depozitlarini qaytarolmasligidan mumkin bo'lgan zararni sug'urtalash. Sug'urta voqeasi yuz berganda omonatchilar yo'qotgan summa qisman

yoki to'liq kompensatsiyalanadi. Depozitlarning sug'urtasi davlat, depozitlarni kafolatlash yoki tijorat banklarining qo'shma fondi va hokazolar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. AQShda depozitlarni sug'urtalash Federal sug'urta korporatsiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Umummilliy miqyosda faoliyat yuritayotgan va davlat nazorati yoki ta'siri ostida tashkil etadigan depozitlarni sug'urtalash tizimi, bank tizimini unga jamiyatning ishonchi pasayganda izdan chiqishi va omonatlarning ko'pchiligining oldini olishga yo'naltirilgan.

Depozitlarning sug'urta qoplamasi - omonatchiga bank tomonidan qaytarilmagan depozitdan zararni qoplash miqdori to'liq hajmda yoki depozitning nominal qiymatidan ulushda amalga oshirilishi mumkin.

Devalvatsiya - milliy valyuta kursining boshqa davlatlar valyutasiga nisbatan tushib ketishi.

Dezinflyatsiya - narxning sekin o'sishi bilan xarakterlanadigan inflyatsiya.

Dillerlik operatsiyalari - tashkilot o'z nomidan va o'z pul mablag'i evaziga amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Direktorlar kengashi - bankning boshqaruvini amalga oshiradi, shuningdek, bank boshqaruvini kuzatish va nazorat qilish mas'uliyati ham yuklatiladi. Direktorlar kengashi a'zolarining tarkibi va saylanish muddati tijorat bankining nizomi bilan belgilanadi.

Diskont - 1) diskont; 2) qimmatli qog'oz nominal qiymatining uning sotuvdagi narxidan oshishi; 3) oddiy yoki o'tkazma veksel hisobida (sotuvda) olinadigan foiz; 4) chegirma.

Diskont oyna - hisob oynasi. Tijorat banklarini ularning likvid mablag'lari yetishmaganida, eng avvalo, rezerv talablarini qoplash uchun Federal rezerv tizimining to'g'ri kreditlash chegaralari.

Diversifikatsiyalangan moliya tizimi - moliya institutlari turlari ko'pligi, operatsiyalarning diversifikatsiyalanganligi, moliya bozorlarining sezilarli kattaligi, pul instrumentlarining turli xil taklifi.

Dividend siyosati - korxonada sof foydasini aksiya bozor qiymatini maksimallashtirishni mo'ljallagan holda investitsiyalar va dividendlar o'rtasida taqsimlanishi bo'yicha siyosat.

Domino effekti yoki samarasi - domino effekt (masalan, qachonki bir bank bankrotligi boshqa barcha banklar tanazzuli bilan bog'lansa, unda bankrotlikning zanjirli reaksiyasi boshlanadi.

E

Egri (teskari) kotirovkalash - bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutalardagi miqdori o'rnatiladi, ya'ni bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutadagi bahosi ko'rsatiladi.

Eksport faktoring - faktor kompaniya tomonidan kliyent eksportchini kelgusi eksport tushumidan avanslashtirish bilan bir vaqtga mijozni valyuta va kredit risklaridan butunlay ozod qilish.

Eng yuqori darajadagi (maksimal) riskli aktivlar - qimmatli qog'ozlar sotish va sotib olish sotib olingan veksellar, trast hujjatlar va akkreditivlar tratalari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari, bankning to'lanmagan aksiyalari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari, sud jarayonida bo'lgan kreditlar, akkreditivlar, forvard va sotish va sotib olish (bank bilan va banklararo)lar kiradi.

Erkin «suzib» yuruvchi valyuta kursi - ma'lum valyutaga bo'lgan bozor talabi va taklifi ta'sirida o'zgarib turishi mumkin bolgan kurs. Masalan. AQSh dollari, Yaponiya iyenasi, Angliya funt sterlingi, Yevro kabi valyutalar jahon valyuta ayirboshlashida keng ishtirok etadi.

Eurocard I Master Card Business - tashkilot va korxonalarining xizmatchilari uchun hisob-kitob kartochkasi, xodimlarga oylik berish, xizmat safari xarajatlarini to'lashda qo'llaniladi.

Eurocard I Master Card Mass Direct Debit - «qimmat bo'lmagan» xalqaro to'lov plastik kartochkasi.

Eurocard I Master Card Mass Revaluing credit - avtomatik oylik qayta boshlanadigan (revlver kreditli) kredit kartochkasi.

F

“Forfeyting” - tijorat banklari tomonidan (forfeyter) to'lov amalga oshirilmagan sharoitda eksportyorga nisbatan regress huquqini hisobga olmasdan eksport talabnomalarini sotib olish.

«Forvard» kurs - muddatli valyuta bitimlarining kursi. Forvard kursi kelajakda valyutani aniq bir kunga yetkazib berish sharti bilan sotilish va xarid qilish bahosini o'zida ifoda etadi.

FAC - xalqaro savdoda tovarlarni yetkazish tartibini va to'lanishini aniqlashtiruvchi asosiy shartlardan biri. Ushbu shartga asosan sotuvchi tovarni kema bortiga yetkazib beradigan, qabul qiluvchi esa tovarni kemaga ortishga ketadigan xarajatlarni ko'taradi.

Faktor tahlil - iqtisodiyot va ishlab chiqarishni tekshirish uslubi bo'lib, bu asosda turli xil olimlarning faoliyati iqtisodiy faoliyat, uning samaradorligi tahlil qilinadi.

Faktoring - banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlarning korxonalar qarzlarini (yetkazib berilgan va bajarilgan xizmatlarga haq to'lash bo'yicha majburiyatlarini) o'z zimmasiga olish (sotib olish)dan iborat bo'lgan moliyaviy-tijorat xizmat turi.

Faktoring kompaniyasi - korxonalar va tashkilotlarning yetkazib berilgan mollar va bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lash bo'yicha majburiyatlarini o'z zimmasiga oluvchi kompaniya.

Faktoring operatsiya - bank yoki maxsus kompaniyalar tomonidan o'z mijozlari bo'lgan mol yetkazib beruvchining mol sotib oluvchiga bo'lgan yetkazib berilgan tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha talabini ma'lum haq evaziga sotib olinishi.

Faktoringning asosiy maqsadi - o'z mijozlarining debitor qarzdorligini inkassatsiya qilish va ularga tegishli bo'lgan to'lovlarni ular hisobiga undirib berishdan iborat.

Falsifikatsiya - qalbaki tovarlar, mahsulotlar.

FAO - uchunchi dunyo qishloq xo'jaligini rivojlanishini maqsad qilgan tashkilot. FAO texnik yordam va oziq-ovqat yordamini beradi, shuningdek, statistik ma'lumotlarni yig'adi. Jahon qishloq xo'jaligini rivojlantirish haqida bashoratlaydi.

Fasovka - oldindan fiksirlangan porsiyalarni tovarlarga ajratishda aniqlanadi.

Federal fondlar - banklarga depozitlarning bozor vositalari.

Federal rezerv notalari (Federal reserve notes) - Federal rezerv tizimi notalari, FRT biletleri, qog'oz pullar, kupyuradagi AQSh dollarlari, AQSHdagi naqd pullar.

Federal rezerv tizimi - AQSh 12 federal rezerv banklarni birlashmasi, AQSh markaziy banki funksiyalarini bajaruvchi tizim.

Shuningdek, FRTning a'zolari bo'lmish tijorat banklarining faoliyatini nazorat qiladi. FRT I bankomatlarini emissiya qiladi, federal byudjeti kassasiga xizmat qiladi.

Federal rezerv tizimi (AQSh) - (Federal Reserve System the Fed, Federal Reserve) - AQSh Markaziy bank funksiyasini bajaruvchi federal rezerv banklarning yagona tizimi.

Federal rezerv tizimining telegraf tarmog'i (Federal Reserve Wire Network - Fedwire) - ("Fed Uayr") federal rezerv banklari va ularning bo'linmalarida zaxira va kliring hisob raqamiga ega va banklar o'rtasida to'lovni amalga oshirish uchun FRTi tashkil qilgan kommunikatsion to'lov tizimi.

Federal rezerv tizimning tranzit punkti (Federal Reserve transit item) - Federal rezerv tizimi orqali bir bankdan boshqasiga to'lovni amalga oshirish, jo'natiladigan to'lov hujjati.

Federal sotuv fondlari (Federal Funds Sold) - tijorat banklari buxgalteriya balansi aktividagi bo'lim. Bu Federal rezerv tizimining zaxira schyotidagi ortiqcha vositalar hisobiga bir bankning boshqasiga bergan qisqa muddatli ssudalari.

Federal uy-joy qurilishi boshqarmasi kreditlari (FHA loan) - uy-joy qurilish federal boshqarmasi tomonidan kafolatlangan ssuda (FHA - Federal Housing Administration).

Fee (to'lov) - mukofot, komissiya, xizmat uchun to'lov (masalan, bank tomonidan mijozga taqdim etiluvchi mukofot, to'lov).

Fermer - qishloq xo'jaligi korxonalari, fermalarining egasi.

Fiasko - butunlay omadsizlik, baxtsizlik.

Fidusuar (Fiduciary) - trast bo'yicha ishonchli shaxs, vasiy, yuridik shaxs.

Fidutsiya - kelishuv, bitim, ishonchga kirish.

Fiksing - birjada ayni bir vaqtda o'rnatilgan baho yoki tovar baho katirovkasi.

Fiksirlangan protsent - obligatsiyaning nominal qiymatidan foiz, emitent obligatsiya egasiga to'lanishi kerak.

Fiksirlangan to'lovlar - davlat yoki mahalliy byudjetlar tomonidan korxonalariga belgilangan to'lovlar. Bunda korxonaning oladigan foydasi to'lov miqdoriga tegmaydi.

Fiksirlangan valyuta kursi - davlat tomonidan qat'iy belgilangan bozor o'zgarishlari ta'sir qilmaydigan valyuta kursi.

Filantrop - muruvvatli faoliyat yurituvchi inson.

Filial - korxonalar, tashkilot - mustaqil faoliyat yurituvchi tashkilotlarning qismi. Alohida joyda faoliyat yuritadi, lekin asosiy bosh korxonaning tartib-qoidalariga rioya qiladi.

Filling (Filling) - garovni ro'yxatga olish, garov to'g'risidagi kelishuvlardan biri. "Perfection"ga *qarang*. Davlat vakili ishtirokida maxsus ish arizasi tuzish bilan amalga oshiriladi. "Filling statement"ga *qarang*.

Filling offitser - garovni ro'yxatga oluvchi.

Filling statement - qarz hujjati bo'lib, garovning ro'yxatga olinganini ko'rsatuvchi va davlat vakili ishtirokida tuziladigan hujjat.

Firma - foyda topish maqsadini ko'zlab faoliyat yurituvchi yuridik shaxs-korxonalar, biron bir xo'jalik tashkiloti va h.k.

Firma diskonti - qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha mijozlarga operatsion xizmat ko'rsatishni ta'minlaydigan firma diskonti (brokerlik firmasi).

Fiskal siyosat - soliqqa tortishda davlat tomonidan qo'llaniladigan siyosat.

Flipper - aksiyani sotib olish bilan darhol uni sotuvchi, qisqa muddatli moliyaviy bitimlarini amalga oshiruvchi shaxs.

Float - 1) bank depozit hisob raqavida haqiqatda bo'lgan va jalb qilingan summa o'rtasidagi farq; 2) cheklar, inkassatsiya jarayonidagi mavjud cheklar; 3) chek yozilganidan boshlab, to u bank tomonidan to'lov qilinishigacha bo'lgan vaqtincha interval.

Flyuntuatsiya - almashuv kursining tebranishi.

FOB - xalqaro savdoda tovar yetkazish shartlaridan biri. Bunga ko'ra sotuvchi o'zining hisobidan tovarni kema bortiga yetkazib beradi va eksport to'lovlari to'laydi.

Foiz marjasi - foizli daromadlar va foizli xarajatlar o'rtasidagi farqni tashkil etadi yoki bank tomonidan jalb qilingan resurslar uchun amalga oshirilgan to'lovlar va joylashtirilgan mablag'lardan olingan foizlar o'rtasidagi farq foiz marjasi sifatida shakllanadi.

Foiz stavkasi riski (interest rate risk) - foiz stavkalarining o'zgarishi natijasida moliyaviy yo'qotishlarning yuzaga kelishini anglatadi.

Foizli marja - aktiv va passiv operatsiyalar foiz stavkalari o'rtasidagi farq.

Foizli xarajatlar - barcha majburiyatlar bo'yicha to'langan foiz summasi.

Fond - zaxira, jamg'arma, kapital. Muayyan maqsadlar uchun yo'naltirilgan pul va moddiy vositalar.

Fond birjasi - qimmatli qog'ozlar olib-sotiladigan savdo joyi.

Forfeyter - importyorning pul majburiyatini sotib olingan tovarlar haqi to'lashi uchun tovarlar jo'natilgandanoq eksportyor sotib oluvchi bank bo'lib, u o'zi tovarlar to'lovini eksportyorga muddatidan oldin, to'liq yoki bo'lib-bo'lib amalga oshiradi.

Forfeyting - eksportchilarni kreditlashning o'ziga xos shakli bo'lib, bu mol yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha talablar qo'yish huquqini olish, ushbu talabga doir operatsiyalarni bajarish va uni inkasso qilish xatarini qabul qilish.

Forfeyting operatsiyalari - ssuda operatsiyalarining bir turi, veksellar va boshqa moliyaviy hujjatlarni sotib olishni ko'zda tutadi. Forfeyting ko'proq eksportni kreditlashda qo'llanilib, tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha kelajak davrda to'lanishi lozim majburiyat va qarz talabnomalarini sotib olishda ishlatiladi.

Formuler - savdo hujjati, kelishuv, matn asosan oldindan tuzilgan, faqatgina ba'zi bir joylarni to'ldirish talab qilinadi. Shundan keyin u yuridik kuhga ega bo'ladi.

Fors-major - hech kutilmagan, odamlarning xohishiga bog'liq bo'lmagan holda yuz beradigan holat.

Forvard - imzolangandan so'ng 2 ish kuni davomida darhol hisob-kitob qilinadigan shakl.

Forvard bitimi - ma'lum muddatda yetkazib berish majburiyati bilan naqd tovar olishga kelishish.

Forvard farqlar - spot kurs asosida forvard kurslarni aniqlash uchun foydalaniladigan miqdor.

Forvard kurs autrayt = Spot kurs + (-) Forvard kurs (mukofoti) marjasi (Forward outright rate) = Spot kurs (Spot rate) + (-) Diskont (Forward points).

Forvard marjasi - naqd hisob-kitob marjalari va muddatli bitimlarining valyuta kurslari orasidagi farq.

Forvard opsioni - opsiyon sotuvchi kontragent va o'zgarmas narx asosida ma'lum valyutani xarid qilish huquqini (majburiyatini emas) kirituvchi xaridor o'rtasidagi kontrakt.

Forvard qoplamasi - sotuvchi yoki oluvchi o'zini kutilmagan valyuta kursining o'zgarishidan sug'urtalovchi shoshilinch bitim.

Forvard shartnoma (Forward contract) - forvard bitimi. Kelgusidagi sanaga qimmatli qog'oz yoki boshqa aktivni oldi-sotdi qilish bitimi.

Forvard shartnomasi - kelishilgan miqdordagi xorijiy valyutani bitim tuzilayotgan vaqtda, kelishib olingan kursda muayyan muddatdan so'ng yetkazib berish haqidagi shartnoma.

Forvard valyuta shartnomasi - kelajakdagi belgilangan muddatda aniq xorijiy valyuta summasini sotish yoki sotib olish bo'yicha banklararo bitimni bajarish majburiyati.

Foyda - daromadning xarajatlardan oshgan qismidan turli majburiyatlarni to'lagandan keyin qolgan summa.

FRA - xorijiy amaliyotda bank va firma o'rtasidagi shartnoma bo'lib, u muayyan vaqt oralig'ida aniq summaga o'zgarmas foiz stavkasini kafolatlaydi.

Franko (*italyan.* franko erkin) - savdo kelishuvlarida qo'llanuvchi atama, yetkazish punktlarini aniqlashda foydalaniladi.

Franko-bort - xalqaro savdoni tovarlar yetkazish shartlaridan biri, asosan, sotuvchi shartlarni o'z hisobidan kema bo'rtiga yetkazishi va eksport shartlarining bojlarini to'lashi kerak. Sotib oluvchi esa kemani

fraxtlashi, tovarlar to'lovini amalga oshirishini o'zi hisobidan bajarishi kerak.

Franshizalar (Franchises) - korxonada franshizasi, kelishuv asosida o'z faoliyatini yurituvchi. (masalan, asosiy kompaniya o'ziga tegishli bo'lmagan korxonaga o'zining firma belgisidan foydalanish huquqini beradi).

Franshizer (Franchisor) - bankka oid tovarlar va xizmatlarni yetkazish bo'yicha bankdan franshiza olgan shaxs.

Fraxt yuklari - suv yo'li bilan tashish bo'yicha to'lanadigan yo'l kira. Kemaga to'lanadi.

Fraxtlash - dengizga tashish uchun shartnoma tuzish.

Friksion ishsiz - vaqtincha ishsiz bo'lib, ishchining xohishiga ko'ra bir ishdan boshqasiga o'tish jarayoni.

Front office (Front office) - bevosita qimmatli qog'ozlarni qabul qilish, bitimlar tuzish va ularni bajarish bilan shug'ullanuvchi bo'limlar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha kompaniyalar.

Front-offis (banklarda) - HKKM (Hisob-kitob kassa markazlari)ning tarkibiy qismi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bank operatsiyalarini amalga oshirishda Markaziy bank mijozlari bilan bevosita muloqotda bo'lgan holda xizmat ko'rsatuvchi mas'ul xodimlar guruhi.

Fyuchers - bitim tuzilganidan so'ng muayyan vaqt o'tgandan keyin, mol yoki aksiya uchun shartnomada belgilangan narxda pul to'lashni ko'zda tutuvchi muddatli bitim turi.

Fyuchers foiz stavkalari (foiz fyuchersi) - moliyaviy fyuchers bo'lib, maxsus fyuchers bozorlari – fyuchers birjalarida savdo obyektini sifatida xizmat qiladi. Ular jahonning asosiy tijorat va moliyaviy markazlarida joylashgan.

Fyuchers shartnomasi (bitimi) - xomashyo mollari, oltin, valyuta, moliya va kredit vositalarini bitim tuzilgan paytda belgilangan narxda xarid qilish va sotishdan iborat bo'lgan muayyan vaqtdan (2 - 3 yilga qadar) keyin ijro etiladigan muddatli bitim shartnomasi (bitimi).

G

Gep-tahlil - bankning bozorda foiz stavkalar o'zgarishiga ta'sirchan bo'lgan aktivlari (kreditlar, qimmatli qog'ozlar v.b.) va passivlari (depozitlar, qimmatli qog'ozlar va b.) o'rtasidagi farq.

Giperinflatsiya - tovar va xizmatlar bahosining kun sayin oshishi, inflatsiya suratlarning oshishi natijasida pulning tez qadrsizlanishi.

Gudvill - xaridor tomonidan bank sotib olinayotganda, uning sof aktivlari qiymatidan yuqori to'lanadigan summa sifatida ta'riflanadi (barcha aktivlarning bozor narxi va barcha majburiyatlarning bozor narxi o'rtasidagi farq gudvillni tashkil qiladi) yoki barcha aktivlar va barcha majburiyatlarning bozor bahosi ortasidagi farq.

I

Ichki audit - subyektning iqtisodiy ahvoli, faoliyati to'g'risida muayyan korxonaning rahbariyatiga axborot tayyorlash. Ichki audit xizmati bankning tuzilishi, katta-kichikligi, joylashishi va bank muomalalarining miqdoriga qarab, bir-ikki kishidan iborat mustaqil bo'lim yoki ma'lum bir boshqarma shaklida tashkil qilinishi mumkin.

Ichki faktoring (domestic factoring) - mol yetkazib beruvchi va mol sotib oluvchi, shuningdek, faktoring kompaniyasi bir mamlakat hududida joylashgan bo'lsa, bunday faktoring ichki faktoring deyiladi.

Ichki konvertirlanish - chet el valyutasini milliy valyutaga ayriboshlash oldi sotdisining imkoniyati va teskarisi davlat ichkarisida.

Ichki litsenziya - tijorat banklariga O'zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasidagi operatsiyalarni to'la yoki cheklangan doirada amalga oshirish uchun berilgan huquq.

Ijaraga beruvchi - o'z mulkini ma'lum vaqtga boshqalarga foydalanishga beriladigan mulkdor, shu jumladan, chet el jismoiny va yuridik shaxs ham ijarachi bo'lishi mumkin.

Ikkinchi darajali yoki ikkinchi navbatdagi aksiyalar - to'lovi uzaytirilgan aksiya (dividendlar faqatgina aniq shart yuzaga kelgandagina to'lanadi).

Imtiyozli aksiya - aksiya egasi hissadorlar yig'ilishida ovozga ega bo'lmaydi, lekin dividendlarni qat'iy foiz stavkalarida faoliyat

natijasining yakunlariga qaramasdan kafolatli daromad olish imkonini beradigan qimmatli qog'oz.

Indeks - solishtirishning nisbiy ko'rsatkich yoki nisbiy ko'rsatkichlarning bir turi.

Indeksatsiya qilingan qarz - qiymatiga inflyatsiya darajasini qo'shib hisoblash orqali belgilangan qiymati aniqlangan qarz.

Indeksatsiya - majburiyatlar bo'yicha to'lovlarning narx - navo ko'rsatkichi bilan o'zaro nisbatini belgilash; pul talabnomalari va turli daromadlarining haqiqiy miqdorini inflyatsiya sharoitida saqlab qolish usuli.

Indeksatsiya qilinadigan depozit - qiymatiga inflyatsiya darajasini qo'shib hisoblash orqali belgilangan qiymati aniqlangan depozit.

Indossament - vekselning orqa tomonida yoki qo'shimcha varaqda aks ettirilgan o'tkazma yozuv bo'lib, bu yozuv orqali veksel egasi boshqa bir shaxsga vekselni hamda veksel bo'yicha undan to'liq foydalanish huquqini topshiradi.

Indossat - vekselga egalik huquqini qabul qilib oluvchi shaxs.

Inflyatsiya (*lot.*- «shishish, ko'pchish, ko'tarilish»). - Pulning qadrsizlanishi; pulni me'yyordan ko'p ishlab chiqarilishi oqibatida pul harakati kanallarida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi, tovar va xizmatlar bahosining o'sishi.

Initsiator bank - to'lov operatsiyasini boshlovchi bank.

Inkasso - hisob-kitoblar shakllaridan biri. Unga muvofiq bank o'z mijozining topshirig'iga ko'ra jo'natilgan tovarlar va xizmatlar uchun hisob-kitob hujjatlari asosida to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'larini haq to'lovchidan oladi hamda bu mablag'larini o'z mijozning bankdagi hisob raqamiga o'tkazadi.

Inkasso topshiriqnomasi - korxon va tashkilotlarning o'z hisobiga mablag' o'tkazishi lozim bo'lgan paytlarda tuziladigan hisob - kitob hujjati. Inkasso topshiriqnomasi bankka qo'yilayotganda, o'sha hujjatdagi summani tasdiqlovchi kerakli hujjatlarining asli yoki nusxasi bo'lishi shart.

Internet-banking - mijoz tomonidan bank ofisida bajarishi mumkin bo'lgan standart operatsiyalarini Internet tarmog'i orqali amalga oshirish imkoniyati.

Intervensiya - Markaziy bank va davlat xazinasining kredit, qimmatli qog'ozlar, milliy hamda xorijiy valyutalarga bo'lgan talab va taklifni tartibga solish yo'li bilan moliya-kredit hamda valyuta sohasiga aralashuvi.

Inventarizatsiya - material qiymatlar, pul mablag'lari va moliyaviy natijalarini tekshirish yo'li bilan haqiqiy holatini aniqlab beradigan usul.

Investitsiya - (*lot.* - «kiyintirmoq»). - 1. Biror ish, korxonaga sarmoya solish, mablag' sarflash. 2. Daromad olish maqsadida pul mablag'larini biror ishga qo'yish.

Investisiya portfeli - mablag'larni uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarga sarflash, orqali qimmatli qog'ozlar majmuasini shakllantirish, subyekt egaligiga yoki ixtiyorida bo'lgan qimmatli qog'ozlar majmuasi.

Investitsiya puli - investitsiyalar umumiy fondi.

Investitsiyalarni diversifikatsiya qilish - mablag'larni turli sohalarga sarflash. Mablag'larni bunday sarflash riskni kamaytirish maqsadida qo'llaniladi.

Ipoteka - bankning qarz oluvchiga uning mol-mulkini garoviga olish yoki boshqa garov hujjatlari asosida muayyan muddatga ssuda berishi. Qarzga pul mablag'lari olish maqsadida ko'chmas mulk, yer va qurilish binolarini garovga qo'yish. Bunga garovga qo'yilgan mulk qarz oluvchining tasarrufida qoladi.

Ipoteka banki - kredit muassasasi bo'lib, u ko'chmas mulkning garovi (yer, inshoot, binolar v.b.) hisobiga pul mablag'larini uzoq muddatli ssudalarga beradi, shuningdek, garovga qo'yiladigan ko'chmas mulkdan ta'minlanadigan garov varaqalari chiqaradigan banki.

Ipoteka krediti - ko'chmas mulkni garovga olib, uzoq muddatga beriladigan kredit. Aholining keng qatlami, shu jumladan, yosh oilalar uchun uy-joy qurilishini va rekonstruksiya qilish, sotib olishni moliyalashtirish uchun ajratiladigan kreditlar.

Ishonchsiz kreditlar - ishonchsiz deb turkumlangan aktivlar qaytishi mumkin bo'lmagan aktivlar deb qaraladi. Bunday aktivlar juda past qiymatga ega va ularni bank aktivlari sifatida hisobga yuritish maqsadiga muvofiq emas deb hisoblanadi. Bunday turkumlash bu aktivlarning hech qanday likvidatsiya bahosi yo'q degani emas, lekin banklarga bunday aktivlarni o'z balansida yuritish tavsiya etilmaydi va bu aktivlar likvidatsiya qilinishi kerak.

Iste'mol krediti - aholining iste'mol talab va ehtiyojlarini qondirishga beriladigan kredit. Bu kredit uy-ro'zg'or buyumlarini: radio-elektron va boshqa maishiy asbob-uskunalar, mebellar, interyer buyumlari, turar joyni ta'mirlash bilan bog'liq tovarlarni xarid qilish uchun 3 yilgacha muddatga beriladigan kredit.

Ixtisoslashgan banklar - ma'lum yo'nalishlarga xizmat ko'rsatib, o'z faoliyatini shu yo'nalishlarda yutuqlarga, samaradorlikka erishishga bag'ishlaydi. Bunday banklarga tarmoqlarga xizmat ko'rsatuvchi banklar, eksport-import operatsiyalarini olib boruvchi banklar, investitsiya banklari, ipoteka-zamin banklarini kiritish mumkin.

J

Jahon banki - rasman nomi – Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sishini rag'batlantirish uchun ularga qarz beradigan tashkilot.

Jahon bozori - xalqaro mehnat taqsimoti orqali bir-biriga bog'langan mamlakatlar o'rtasidagi barqaror oldi-sotdi munosabatlari.

Jahon valyuta tizimi - xalqaro pul-kredit munosabati bo'lib, jahon bozorining rivojlanishi natijasida tarkib topgan va davlatlar o'rtasida tuzilgan bitimlar bilan mustahkamlangan.

Jahon xo'jalik integratsiyasi - jahon xo'jaligida ishlab chiqarishning asosiy ko'rinishlaridan biri, mamlakatlararo ishlab chiqarish, savdo, valyuta munosabatlari va boshqa sohalarda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan u yoki bu mintaqadan davlatlar ittifoqining shakllanishi.

Jamg'arishga cheklangan moyillik - jamg'ariladigan daromadni har qanday ortiq ulushi foizda ifodalandi:

JCHM = jamg'arishdagi o'zgarishlar/daromaddagi o'zgarishlar

Jamg'arishga o'rtacha moyillik - umumiy daromadni foyizda ifodalangan jamg'ariladigan ulushi:

$$JO'M = \frac{\text{jamg'arish}}{\text{daromad}} \cdot 100$$

Jamg'arma - aholining kelajak ehtiyojlarini qondirish va kelajakda xarid qilish uchun saqlab qo'yilgan daromadlari.

Jamg'arma banki - kredit muassasasi bo'lib, uning asosiy vazifasi aholining pul mablag'lari va vaqtincha bosh pul mablag'larini jalb qilish va aholiga kredit berishdan iborat.

Jamg'arma depozit hisob varag'i - yuridik shaxslarning mablag'lari, ular muayyan maqsadni amalga oshirish uchun ma'lum pul summasini depozit hisob varag'ida to'plash.

Jamg'arma depozitlar - davriy badallar yordamida shakllantiriladigan jamg'arma depozitlarini jismoniy va yuridik shaxslarga, ular muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun aniq pul summasini depozit hisob varag'ida to'plash istagi bildirganda, ochiladigan depozitning bir turi.

Jamg'arma fondlari - ta'sis hujjatlariga muvofiq korxonaga yangi mulkni tashkil qilish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va shu singari maqsadlarni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar (foйда v.b.) tushuniladi.

Jamg'arma vositasi - pulning jamlangan boylik shakliga kirib, o'z egasi uchun kerak bo'lganda xarid etish vositasi bo'lib xizmat qila olish. Pul-qog'oz yoki tanga bo'lgani uchun boylik emas, balki o'zida mehnatni mujassamlashtirgani, unga hamma narsani xarid etish yoki uni jamlab saqlash mumkin bo'lgani uchun boylik.

Jamg'armachi - omonat kassasiga (bankka) puli (jamg'arma)ni qo'yuvchi shaxs.

Jamoa tadbirkorligi - fuqarolar guruhining jamlanma mulki asosida tashkil qilinadigan faoliyat.

Jarima - shartnomada kelishilgan shartlarni buzganligi uchun to'lanadigan to'lov.

Javob oboroti - boshqa banklar topshirig'i bo'yicha amallarni bajarish bosqichi. O'zbekiston Respublikasida bank tizimini qayta

tashkil qilishning birinchi bosqichida (1988-90-yy.). hamma maxsus banklari tijorat banklari maqomini qabul qildi.

Jeneva konvensiyasi - veksel va cheklarni ishlab chiqarish yuzasidan – xalqaro, har tomonlama amalga oshiriladigan bitim. 1930-31-yillarda tuzilgan.

Jenk - ishonchsiz obligatsiyalar.

Jenson sharti - sug'urtalovchi kema qiymatining 3 foizi summasidagi zararining qoplashini ko'zda tutuvchi shart.

Jirant - vekselni nomi korsatilgan shaxsning, veksel egasining mablag'ni o'chirish to'g'risidagi belgisi.

Jirat - veksel o'tkazayotgan shaxs.

Jiring - xususiy va qarzga olingan sarmoya o'rtasidagi nisbat.

Jiro - rivojlangan mamlakatlarda hisob-kitob cheklari vositasi sifatida foydalaniladigan naqd pulsiz hisob-kitoblar turi.

Jiro hisob raqami - naqd pulsiz hisob-kitoblar amalga oshiriladigan hisob raqam.

Jiro hisob-kitoblar - banklar hisob raqam egasi topshirig'iga ko'ra bir hisob raqamdan ikkinchisiga pul mablag'ini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradigan naqd pulsiz hisob-kitoblar.

Jiro o'tkazma - naqd pulsiz mablag' o'tkazmasi.

Jirobalans - naqd pulsiz hisob-kitoblar balansi.

Jirobank - mijozlar o'rtasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi birinchi banklar.

Jirobank depoziti - mijozlar o'rtasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi bankka saqlash uchun topshirilgan mablag'.

Jiroke - shu bankda joriy hisob raqami bo'lgan uchunchi shaxs bilan hisob-kitob qilish maqsadida hisob raqamini ochish.

Jobber - qimmatli qog'ozlar bozorida chayqovchi.

Joriy hisob varaq - banklardagi pul mablag'larini saqlash va hisob-kitoblarda amalga oshirishga xizmat qiluvchi hisob varaq turi.

Joriy nazorat - operatsiya o'tkazish jarayonida olib boradigan nazorat.

K

«**Koll-opsion**» (**call option**) - sotib olinadigan opsion. Koll-opsion – opsion egasiga kelajakda valyuta kursi oshib ketishi mumkin bo'lgan valyutani nisbatan past strayk-bahoda xarid qilish huquqini beradi.

«**Koll-put**» (**call-put-option**) - ikki yoqlama opsion. Put-koll opsion egasi bazis bahoda valyutani sotib olishi yoki sotishi mumkin.

«**Kross-kurs**» - ikki valyuta o'rtasidagi nisbat qandaydir uchinchi valyutaga nisbatan olingan kurslarida aniqlansa, bunday nisbat kross-kurs deb ataladi

Kabal kitoblar - qarz majburiyatlari jamlangan qo'lyozma kitob.

Kabala (*arab.* - tilxat majburiyati) - qarz majburiyatlari rasmiylashtirilgan yuridik akt.

Kabinet qimmatli qog'ozlari - AQShda past bozor oborotidagi qimmatli qog'ozlar.

Kadastr (*frans.* cadastre - ro'yxat) – davlatlarning iqtisodiy resurslari to'g'risidagi ma'lumotlarning tizimli, tanaffussiz nazoratlar orqali rasmiy tuzilgan ro'yxati. Kadastr o'z ichiga resurslar manbalari va obyektlarining joylashuvi, ularning hajmi, sifat xarakteristikasi kabilarni oladi. Yer kadastr, suv kadastr va boshqa kadastrlar mavjud bo'lib, ular tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliq va to'lovlarni o'rnatish, arenda, garov, sotuv uchun obyektlar qiymatining bahosini aniqlash uchun ishlatiladi.

Kaf (*ingl.* CAF Cost and freight – qiymat va fraxt) - tovarni joylash va to'lashning bazis shartlari.

Kafil - muayyan vazifalarni bajarish uchun kafillik beradigan va uning bajarilishini nazorat qiladigan shaxs, idora, tashkilot, davlat yoki davlatlar guruhi.

Kafillik - bir tomonlama majburiyat ko'rsatilgan shartnoma bo'lib, kafil ular vositasida kreditor oldida qarz oluvchining qarzini zarurat bo'lib qolganda, to'lab berish majburiyatini oladi. Bank kafillik beruvchining moliyaviy holatini hamda uning qobiliyatini tahlil etadi va ijobiy hal bo'lgandagina, kafillik shartnomasini kredit ta'minoti sifatida qabul qilishi mumkin.

Kafolat - kafolat beruvchi tomonidan qarz oluvchi o'z majburiyatlarini bajara olmagan taqdirda, muddati kelganda uning majburiyatlarini to'lab berish majburiyati tushuniladi. Qonunchilik hujjatlariga asosan bank, boshqa kredit muassasalari yoki sug'urta tashkilotlari (kafil) boshqa shaxs (printsipal)ning buyurtmasiga ko'ra kafolat berishi mumkin.

Kafolat xati - kafil bank orqali kreditor foydasiga qarzdorning qarzlarini o'z vaqtida butunligicha to'lashni o'z zimmasiga olganligiga kafolat beruvchi hujjat. Kredit olishdan oldin xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan kafolat xati bankka topshirilishi kerak. Kafolat xatini banklar yoki sug'urta idoralari berishi mumkin.

Kalendar yili - kalendar bo'yicha hisoblangan yil, shuningdek, hisob va hisobot yiliga mos keluvchi yil. U xo'jalik va moliyaviy yilga mos kelmasligi mumkin.

Kalkulatsiya (*lot.* calculatio - krem) - ishlab chiqarishda ish va xizmatlarni amalga oshirishda pul ko'rinishidagi xarajatlar chiqimlarining jadval shaklidagi buxgalteriya hisobi. Kalkulyatsiya asosan mahsulot tannarxini hisoblashga xizmat qiladi. Kalkulyatsiya bashorat, rejali hisob kalkulyatsiyalariga bo'linadi. Bank faoliyatining zarurligini hisoblash.

Kambio (*ital.* cambio - almashtirish) - qarzli xat, veksel.

Kambist - veksel operatsiyalari va savdo tangalari bilan shug'ullanuvchi shaxs.

Kameral mulk - feodalizm va dastlabki kapitalizmga qo'llanilgan davlat mulkining nomi.

Kansler g'aznachiligi – Buyuk Britaniyadagi Moliya Vazirligi.

Kapital (*frans.* inglizcha - kapital, *lot.* capitalis – asosiy) - tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishi uchun inson tomonidan yaratilgan, daromat keltiruvchi barcha narsalar va resurslar. Kapital atamasini iqtisodiyotga, ishlab chiqarishga moddiy va pul ko'rinishidagi kapital qo'yilmalar sifatida ham tushunishi mumkin. Bank mijozining aksionerlik kapitali, uning strukturasi, aktiv va passivlar orasidagi munosabatlar.

Kapital qo'yilma - asosiy vositalarni qayta ishlashga yo'naltirilgan jami iqtisodiy resurslar.

Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish - asosiy fondlarni yangilash, rekonstruksiya qilish va kengaytirish. Kapital qo'yilmalar asosan bank tomonidan amalga oshiriladi, bu qurilish kompleksi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda katta ahamiyatga ega.

Kapital qo'yilmalarning manbalari – hozirgi davrda, asosan, bu korxonalar, birlashmalarning o'z mablag'lari, byudjet mablag'lari va bank krediti hisoblanadi.

Kapital zaxiralar - soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan so'ng sof foyda hisobiga shakllangan zaxiralar. Zaxiralardan bank faoliyatida vujudga keladigan turli zararlarni, ular yuzaga kelishi bilanoq hech qanday cheklashsiz qoplash uchun foydalaniladi.

Kargo - kemada jo'natiladigan yuk.

Kargo reja - kemaga yukni joylash sxemasi.

Kartalizm – pulning nominalistik nazariyasi.

Kart-blansh (*frans.* carte blanche) - ishonch bildirilgan shaxs nomidan operatsiyalarni bajarishda beriladigan cheksiz vazifalar.

Kartel (*frans.* Cartel, *ital.* cartelio) - ishlab chiqaruvchilar yoki iste'molchilarning birlashuvi, yaqin profilli korxonalar, firma, kompaniyalarning ishlab chiqarish va sotuv hajmi, narx-navo kabilarda to'g'risida guruhlar kelishuvi.

Kartel huquqi - kartel kelishuvlarining ko'p turini inkor qiluvchi antimonopol kelishuvchilarning bir shakli.

Kartel kelishuv - kartelni tuzishda ikki yoki undan ortiq korxonalar, firmalar o'rtasidagi ishonchnoma.

Karyera (*frans.* carriere) - biror faoliyat sohasida muvaffaqiyatli ish yuritish.

Kasko (*ital.* casco) - transport vositalarini sug'urtalash.

Kasod - 1. Talab yoki xaridor yo'qligi bo'is, mollarning bozorda sotilmay qolishi natijasida zarar ko'rish. 2. Kasofat, zarar.

Kassa (*ital.* cassa lot. capsula) – naqd pul yoki boshqa qimmatliklar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi korxonalar, tashkilotlarning bir bo'lishi.

Kassa bitimlari kursi - kassa bitimlari bo'yicha birja bahosi.

Kassa hujjatlari – naqd pullarni qabul qilish va berish vaqtida tuziladigan hujjatlar.

Kassa imtiyoz - bank tomonidan mijozga berilgan shunday imkoniyatki, unda mijozga qisqa muddatda joriy hisob varaqning salbiy savdosiga ruxsat beriladi.

Kassa intizomi - korxonalar, tashkilot, muassasalar tomonidan naqd pulni bank muassasalariga topshirish va olish, sarflash, hisoblash hamda saqlash qoidalariga rioya qilish.

Kassa jurnali - kassa bo'yicha kirim va chiqim hujjatlariga asoslanib yuritiladigan hujjat. Naqd pullarning kirim va chiqimi ifodalangan hisob vedomastlari asosida tuziladi. Kassa jurnallarida mijozlarning shaxsiy hisob raqamlari, kassa rejasi, kassa prognozining kodi va summasi ko'rsatiladi. Kassa jurnali kassa kitobi deb ham yuritiladi.

Kassa operatsiyalari - naqd pullarni vaqtincha saqlash, qabul qilish va berish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar.

Kassa orderi - korxonalar, tashkilot, muassasalar kassalari tomonidan naqd pullarni berish va olish kassa operatsiyalarida rasmiylashtiriladigan va u asosida bajariladigan hujjat.

Kassa rejasi - kassaga kelib tushadigan pul hajmi va manbalarni ko'rsatuvchi reja.

Kastodi – savdo kompaniyalarining aksiyalarini saqlash majburiyati bo'yicha bank xizmati.

Kategoriya - (*grek.* kategoria - belgi) - ishchilarning professional darajasini va tovarlar sifatini aniqlovchi tartibli o'rin, razryad.

Kechki kassa - operatsiya kuni tugagandan keyin naqd pullarni qabul qilish uchun tashkil etilgan maxsus kassa.

Kelishilgan (shartnomali) baho - tovar sotuvchi va tovar oluvchi o'rtasidagi kelishilgan narx.

KEMEL (CAMEL) – banklarni boshqarish reyting tizimi. Bunda har bir harfning o'z ma'nosi mavjud. C – capital adequacy (sarmoya yetarliligi); A – asset quality (aktivlar sifati); M – management (boshqaruv); E – earnings (daromadlilik); L – liquidity (aktivlarni pulga aylanish qobilyati)ga ko'ra banklar baholanadi.

Kepakiy - chig'atoy xonlaridan Kepakxon (1318-1326) zamonida chiqarilgan oltin, kumush tanga.

Kerb (*ing.* Kerb – norasmiy birja) - savdo sessiyalaridan, birjaning yopilishidan keyin tuziladigan bitimlar.

Kesh - naqd pul, banknot va tangalarning qonuniy to'lov vositasi.

Kesh flou (Pul oqimi) - naqd pullarning kirimi yoki chiqimi summasi.

Keynschilik – jahonga mashhur iqtisodchi olim Keynsning makroiqtisodiy nazariya. Bunga ko'ra bandlik darajasi ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'ladi.

Kibus – jamoa xo'jaligi xususiyatlariga ega bo'lgan Isroildagi kooperativ qishloq xo'jaligi tashkiloti.

Kichik (minimal) riskli aktivlar - boshqa banklarning «Nostro» va «Vostro» vakillik hisob varaqlaridagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar, yevroobligatsiyalar, qisqa muddatli birinchi sinf ta'minlanganlikka ega bo'lgan kreditlar va boshqalar kiradi. Bu aktivlar bo'yicha risk darajasi 20 foizga teng.

Kichik korxona – mulkchilik shaklidan qat'i nazar sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni 40 kishigacha, qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarida 20 kishigacha, ilm - fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, chakana savdo va noishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlarida 10 kishigacha qadar bo'lgan korxon.

Kimoshdi savdo - ommaviy o'ziga xos savdo: belgilangan joyda savdoga qo'yilgan tovar yoki mulk mijoz tomonidan eng yuqori narxda sotib olinadi.

Kirim kassa hujjatlari - bank kassasiga naqd pullarni topshirish uchun e'lon, kirim kassa orderi, inkassator xaltalariga ilova qilingan qaydnomalar va kvitansiyalar kiradi.

Kirim kassasi - operatsiya kuni mobaynida naqd pullarni qabul qilish uchun tashkil etilgan maxsus kassa.

Klassifikator (*lot.* Classis – sinf, facere - qilmoq) - obyektlar (mahsulot, tovar)ning tizimli guruhi; ularning har birida maxsus shifr, kod mavjud.

Klassifikatsiya - obyektning sinflari guruhlari, klasslar nomi, mazmuni bo'yicha ajratish, bo'lish; har bir guruhda umumiy belgiga ega obyektlar bo'ladi. Masalan, iqtisodiyot tarmoqlar klassifikatsiyasi, soliqlar klassifikatsiyasi, tovarlar klassifikatsiyasi.

Klassik nazariya - fan sohasida keng tarqalgan va tan olingan, chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan iqtisodiy ta'limot. Iqtisodiyotda klassik nazariya Adam Smit va uning davomchisi David Rekardo ta'limoti deb yuritiladi. Bu ta'limotning davomi neoklassik nazariyada o'z ifodasini topgan.

Klauzula (*lot.* Clausula - xulosa) - qonun, shartnoma, kelishuv, merosning bandi, sharti, moddasi.

Klerk (*frans.* Clerc, *lot.* Clericu - ruhiy shaxs) - kontora xizmatchisi.

Kleym (*ing.* Clame - talab) - sotilgan mahsulotning yomon sifati borasida sotib oluvchining oluvchiga e'tirozi.

Kleymeniya - mahsulotga kleymni qo'yish.

Kleymo - tovar, buyum, narsalardagi belgi. Unda mahsulotning tartib raqami, ishlab chiqarilgan sanasi va boshqalar ko'rsatiladi.

Kliyentura - firma, bank, tashkilotlar mijozlarning yig'indisi.

Klirans - davlatdan yuklarni olib chiqish va kiritish, shuningdek, portga kemalarning kirishi va chiqishida bojxona organlarining qonuniy belgilangan talablarini bajarish.

Kliring (*ingl.* Clearing - tozalamoq) - davlatlar, kompaniyalar, tashkilotlar o'rtasidagi bir-biriga sotilgan tovarlar, qimmatli qog'ozlar va bajarilgan xizmatlar uchun to'lov balansi shartlari asosidagi naqd pulsiz hisob-kitoblar. Bank kliringi banklararo naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini o'zida aks ettiradi.

Kliring faoliyat - faoliyat, o'zaro majburiyatlarni aniqlash bo'yicha (yig'im, taqqoslash, qimmatli qog'ozlar bo'yicha bitim axboroti, korrektirovkasi va bular bo'yicha buxgalteriya hujjatlarini tayyorlash) va qimmatli qog'ozlar taklifi bo'yicha hisobot.

Kliring hisob-kitob - kliring asosidagi o'zaro hisob-kitoblar.

Kliring kelishuv - o'zaro savdoda muvozanatni ushlab maqsadida eksportdan daromad olishni ko'zda tutuvchi xalqaro savdo kelishuvi.

Kliring-bank - o'zaro milliy to'lov tizimining va hisob-kitob markazining a'zosi bo'lgan bank.

Koalitsiya (*lot.* Coalition - birlashish) - umumiy maqsadlarga erishish, masalalarni yechish uchun ixtiyoriy tuzilgan birlashma, uyushma.

Kod - tovar, narsa va predmetlarning shartli, qisqartirilgan ma'nosi, nomi, ularning shifri, simbolik ifodasi, bu obyektlar haqida informatsiyasi.

Kodifikatsiya - hujjatlar, materiallarni inforsion, hisob-statistik tartiblash, tizimlash.

Kodlashtirish - kodni o'zlashtirish.

Koll (*ing.* Call - talab qilmoq) – opsiyon (koll-opcion) – muddatining tugashigacha xohlagan vaqtda kelishilgan narxda tovarni, qimmatli qog'ozlarni, fyuchers shartnomalarini sotib olish huquqi.

Kollektiv (*lot.* Collectivus - jamlovchi) - bir tashkilot, korxonada ishlaydigan kishilar guruhi yoki umumiy fikrlar, qiziqishlar asosida birlashuvchi kishilar to'dasi.

Kollektor (*lot.* Collecto - yig'uvchi) ma'lum turdagi tovarlar yig'indisini ishlab chiqaruvchilar va ularning vazifasi bo'yicha taqsimlovchi muassasa, tashkilot.

Kolonial tovarlar - dunyoning boshqa joylaridan olib kelinadigan tovarlar.

Kolonializm - boshqa davlat hududini kolonizatsiyaga yo'naltirilgan davlat va katta korporatsiyalar iqtisodiy harakatining ideologik nazariya va amaliyoti.

Komission mukofot - tijorat operatsiyalari, bitimlarini amalga oshirish bo'yicha agent-vositachi ishi uchun haq; odatda, bitim summasidan foiz hisobida hisoblanadi.

Komissioner - kommission xizmatni amalga oshirish majburiyatini olgan shaxs, agent-vositachi.

Komitent - komissionerga ba'zi xizmatlarni bajarishni tayinlovchi shaxs.

Komitet (*frans.* Comite, *lot.* Committere - topshirmoq) - davlat, xo'jalik, jamoa faoliyatining biror-bir tarmog'ini boshqaruvchi boshqaruv organi.

Kommandit o'rtoqlik - mas'uliyati cheklangan aralash o'rtoqlik, ishonchga asoslangan hamkorlik.

Kommandit pay - kommandit o'rtoqlik hissadorining pul yoki mulk ko'rinishidagi badali.

Kommanditist - omonatchi. Kommandit o'rtoqlik a'zosi.

Kommersant (*frans.* commercant) - xususiy savdo, kommersiya bilan shug'ullanuvchi shaxs.

Kommersiya (*lot.* Commercium - savdo) - savdo, savdo-vositachilik faoliyati, tovar va xizmatlar sotilishida ishtirok qilish. Keng ma'noda tadbirkorlik faoliyati.

Kommersiyalizatsiya - iqtisodiyotda tijoratdan keng foydalanish, tijorat tashkilotlari miqdorini kengaytirish.

Kommivoyajer (*frans.* Commis voyageur) - savdo firmasida vositachi, u firma topshirig'iga ko'ra uning tovarlariga namunalar ko'rsatish, reklama qilish, kataloglar tarqatish orqali sotib oluvchilarni topadi.

Kommunal banklar - shahar mulki garovi ostidagi kreditlarni beradigan banklar.

Kommunal xizmatlar - kishilarning uydagi maishiy sharoitini ta'minlash va qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar.

Kommunikabellik (*lot.* Communication - aloqa, kontakt) - kishining ishga bog'liq aloqalar, munosabatlar o'rnatish qobiliyati.

Kommunikatsiya (*lot.* Communicato - aloqa) - muomula vositasi va axborotlar aloqalari, axborot almashinish jarayoni, kontakt aloqa liniyalari.

Kompakt (*lot.* compactus) - bitim, shartnoma.

Komponent (*lot.* Componens - tarkibiy) - tizimning tarkibiy qismi, elementi.

Kompaniya (*frans.* compagnie) – iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning, tadbirkorlarning birlashuvi.

Kompanon (*frans.* compagnon) - firma, korxonaning birgalikdagi egalari yoki egalaridan biri.

Kompensatsiya (*lot.* compencatio) - zararlarni qoplamoq.

Komponovka - umumiy obyektning alohida qismlarining strukturizatsiyasi, joylashuvi.

Komprodor (*isp.* Comprodor – sotib oluvchi) - mahalliy savdogar, rivojlanayotgan milliy bozor va bu bozorga kirib keluvchi chet el kapitali egalari o'rtasidagi vositachi.

Komprometatsiya (*frans.* compromettre) - reputatsiyaning buzilishi.

Kompromiss (*lot.* compromissum) - o'zaro imtiyozlar asosidagi kelishuv.

Kompyuterizatsiya (*lot.* computare) - boshqaruvda va, umuman, iqtisodiyotda, xo'jalikda kompyuter texnikasidan keng foydalanish jarayoni.

Kommunal xizmatlar - kishilarning uydagi maishiy sharoitini ta'minlash va qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar.

Konditsiya (*lot.* condicio) - standart yoki kelishuv shartlariga ko'ra tovar materiya, mahsulotga mos keluvchi me'yorlar, sifat ko'rsatkichlari talablari. Bu talablarga javob beradigan tovar kondinsion talablarga mos kelmasa, tovar konditsionmas deb yuritiladi.

Konditsion tovar - kelishuv shartlariga yoki standart (norma) me'yorlariga mos keluvchi tovar.

Kondominat (*lot.* con - birga va dominium - ega bo'lish) – qo'shma ega bo'lish, egalik qilish, biror-bir obyektga ega bo'lish, odatda, uy, ko'chmas mulklarga ega bo'lish.

Kondor - oltin bekor qilinmagan paytdagi Janubiy Amerika davlatlarining ba'zilarida muomalada bo'lgan oltin tangasi. Birinchi marta Chili davlatida chiqarilgan.

Konduit (*frans.* conduite – xulq, fe'l-atvor, xulq turlari) - birjada yangi qimmatli qog'ozlar chiqarilgan, tarqalgan paytdagi trest, bank bilan e'lon qilinmagan aloqalar.

Konduit moliyalashtirish - uchinchi shaxslar orqali loyihani moliyalashtirishga ko'maklashish uchun davlat tashkilotlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, moliyalashtirishga yo'naltirilgan xususiy sanoat kompaniyalari kreditlari asosida komissiya, odatda, tayinlanadi.

Konfirmatsion uy (savdo uyi) – mahalliy sotuvchilar va xorijiy iste'molchilar o'rtasidagi vositachi.

Konfiskatsiya (*lot.* confiscatio) – (pullar, mulk, qimmatli qog'ozlar, boshqa qimmatliliklar); sud organlari yoki vakil ma'muriy organlar qaroriga ko'ra mulk obyektlarining egalaridan majburiy tartib olinishi.

Konglomerat (*lot.* Conglomeratus - jamlangan) - bozor turli sektorlarida faoliyat yuritadigan, kopprofilashgan firmalar birlashmasi, uyushma shakllaridan biri. Konglomerat shartlariga ko'ra unga kiruvchi firmalar mustaqilligi yuqori darajada saqlanib qoladi va boshqaruv desentralizatsiyasi ham saqlanib qoladi.

Konglomerat birlashish - tog'ridan to'g'ri texnologik va savdo aloqalariga ega bo'lmagan shartlari asosida turli tarmoqdagi turli firmalarning birlashishi.

Konkurs (*lot.* concursus - to'qnashuv) - kreditorlarning to'lashga qurbi yetmayotgan qarzdorlarga da'volarni bildirish va qoniqish tartib-qoidasi.

Konkuyudent harakat (*lot.* Concludere - shartnoma tuzmoq) - faoliyat olib borayotgan shaxsning so'zsiz roziligini tasdiqlovchi harakat yoki faoliyat. Uning maqsadi bitim tuzish kelishuvini amalga oshirishdan iborat.

Konosament (*frans.* connaissement) – yuk tashuvchilarga berilgan, yukni qabul qilganlik va yukni belgilangan joyga yetkazish va yuk oluvchiga taqdim qilinganligini tasdiqlovchi hujjat. Konosamentda yuk tashuvchilar va transport agentliklari bilan korxonalar, firmalar o'rtasida yukni tashish to'g'risidagi kelishuv tuzilgan bo'ladi. Konosamentlar

quyidagicha bo'lishi mumkin: oluvchining ismi yozilgan, indosirlangan, ko'rsatilgan nasab to'g'ridan to'g'ri xarakterli, sof konosamentga bo'linishi mumkin.

Konsolidatsiyalangan schyot - 1. Bir necha turli o'zaro bo'g'liq xo'jalik subyektlarining faoliyatini va ular o'zi olib boradigan operatsiyalarni aks ettiruvchi schyot yoki hisob raqami. 2. Bir necha korporatsiyalarning birlashgan umumiy buxgalteriya hisoboti yoki katta va kichik kompaniyalar, firmalarning moliyaviy faoliyat natijalari hisoboti.

Konsolidatsiyalashgan qarz - uzoq muddatli zayomlar chiqarilishi, o'rta va qisqa muddatli kreditlar, oldinroq chiqarilgan zayomlar natijasida tashkil topgan davlat, kompaniya qarzining bir qismi.

Konsolidatsiya (*lot.* Consolidation – mustahkamlash, mustahkamlamoq) - ikki yoki undan ortiq firma, kompaniyalarning birlashishi, qo'shib ketishi.

Konsolidatsiyalangan hisob raqami - bir necha turli, o'zaro bo'g'liq xo'jalik subyektlarining faoliyatini va ular o'zi olib boradigan operatsiyalarni aks ettiruvchi schyot yoki hisob raqami.

Konsolidatsiyalashgan byudjet - hududiy birliklar, regionlar byudjetlarining yig'indisi.

Konsalting - innovatsiya, tovar va xizmatlar bozorini bashoratlash va kuzatishlar olib borish, firmalar yaratish va ro'yxatdan o'tkazish, tashqi iqtisodiyot aloqalari, moliya, iqtisodiy savollar keng doirasi bo'yicha ishlab chiqaruvchilar, xaridor va iste'molchilarga maslahat beruvchi maxsus kompaniyalar faoliyati.

Konsalting (maslahat) operatsiyalari - tijorat banklari o'zining mijozlariga va boshqa fond bozorining ishtirokchilariga, aholiga qimmatli qog'ozlarning muomalada bo'lishi, fond portfelini shakllantirish va qimmatli qog'ozlar bozorini tadqiq qilish va istiqbolini belgilash, huquqiy maslahatlar berish, kasbiy o'qitish va o'rgatish, qimmatli qog'ozlarni baholash, axborot xizmatlari ko'rsatish kabilar bo'yicha yordam va maslahat xizmatlarini ko'rsatadi.

Konsalting firma - yuqoridagi savollar bo'yicha maslahat beruvchi maxsus kompaniyalar.

Konsensus - (*lot.* Consensus - kelishuv) - bir necha tomonlarni qiziqtirgan operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha shartlarga rozilik, kelishuv.

Konsentratsiya (*lot.* Concentration - markaz atrofida to'plamoq) - bir necha firmalar yoki bitta firmaning bozorda, qo'lda ishlab chiqarish, kapitalning to'planishi.

Konsern (*ingl.* Conann - ishtirok etish, qiziqish) - bir necha korxonalarining qiziqishlari, shartnomalari, kapitali qo'shma faoliyatda ishtiroklari bilan yirik birlashishi.

Konservatsiya - ma'lum muddatga iqtisodiy jarayon faoliyat turining, obyekt ko'rinishining to'xtatilishi.

Konsignor - o'zining omboridan va o'z nomidan mukofot olish ovoziga konsignant tovarini chet davlatga sotuvchi agent, komissioner, vositachi.

Konsorsial bank - bir necha banklar, moliyaviy kompaniyalarga aksioner shaklidagi qo'shma ko'p millatli bank.

Konsorsium (*lot.* Consortium - qatnashish) - kapital talab qiladigan loyiha yoki qarzni birga joylashtirish maqsadida muddatli umumiy rozilik asosida birlashgan kompaniyalar, banklar.

Konsorsium garant - birlashgan kreditning qaytarilishiga kafolat beradigan bank konsorsiumi.

Konsument (*ingl.* consume - iste'mol qilmoq) - tovar va xizmatlar iste'molchisi.

Kontakt assignavovaniya - xususiy firmalarga uzoq muddatli hukumat buyurtmalari.

Kontango - birjadagi shunday holatki, bunda tovarning naqd narxi jo'natib qo'yish, muddatida eltib berish narxiga qaraganda past bo'ladi va jo'natib berish vaqtining o'tib borishi bilan narxi ko'tarilib boradi.

Kontingent (*lot.* Contangens - bir-biriga bog'liq) - bir guruh odamlarning yig'indisi.

Kontingent bitimlar - tashqi savdoda tovarlarni olib kirish, chiqish, tovar-yuklarni olib o'tishga kafolat bo'lib xizmat qiluvchi davlatlar o'rtasidagi bitim, shartnomalar.

Kontingentirlash - eksport va import kvotalarini o'rgatish bilan tashqi savdoni davlat tomonidan nazorat qilish.

Kontirovka - kredit va debet hisob raqamlarni ifodalovchi, buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan va hisob hujjatlaridagi summa.

Kontokfrent - mijozning debet-kredit hisob raqamlarida tushumlarni hamda summani qaytarishni amalga oshiruvchi yagona bank schyoti yoki hisob raqami.

Kontokorrent - bank bilan mijoz o'rtasidagi barcha operatsiyalarni hisobga oladigan yagona hisob raqami. Kontokorrent hisob varag'i ochilishi bilan mijozning hisob-kitob raqami yopiladi va barcha operatsiyalar kontokorrent hisob varag'i orqali amalga oshiriladi.

Kontokorrent hisob raqami - mijozning barcha tushumlari va chiqim operatsiyalarini aks ettiruvchi yagona bank schyoti.

Kontokorrent krediti (*ital.* conto corrente) - bankda kontokorrent schyo'tiga ega bo'lgan, ishonchli mijozlarga beriladigan kredit. Kredit tashkiloti tomonidan milliy yoki chet el valyutasida beriladigan kredit bo'lib, o'rnatilgan kredit liniyasi doirasida, shartnomada kelishilgan maksimal summadan ortmagan miqdorda, mijoz tomonidan zarur hujjatlar taqdim qilinganda ajratiladi.

Kontomat - bank kredit kartochkasi vositasi orqali pul olish mumkin bo'lgan avtomat qurilma.

Konto-seperato - alohida schyot.

Kontrabalans - buxgalteriya balansi tahlili va tekshiruvni olib borish maqsadida buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida tuzilgan jadval.

Kontrabanda (*ital.* contrabanda – hukumat farmoniga qarshi) - chegaradan noqonuniy tarzda tovar va boshqa qimmatliklarni olib o'tish, o'tkazish.

Kontrabroker - bitim tuzgan broker.

Kontragent - shartnoma bo'yicha belgilangan majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan shaxs yoki muassasa.

Kontrakt (*lot.* *contraetus*) - ikki yoki undan ortiq shaxslarning harakatlari, majburiyatlari, huquqlari, javobgarligi, shartlari belgilangan va ular o'rtasida tuzilgan yuridik majburiy kelishuv, bitim, shartnoma. Turlari: oldi-sotdi, kelgusi jo'natish, muddatli, ovmegatsion, ochiq kamet ostida, kompensatsion oddiy, fyuchers, shart, oldin bajarilmagan kontraktlar bo'lishi mumkin.

Kontrakt stavka – dengiz kemachiligida kema egasi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq firma tovari o'tkazilayotganda belgilangan imtiyozli fraxt stavka.

Kontraktant – kontrakt bo'yicha barcha majburiyatlarni oluvchi shaxs.

Kontraktatsiya - mahsulot ishlab chiqaruvchi, yetishtiruvchi korxonada, tashkilotlar o'rtasida tuziladigan shartnoma bitimi.

Kontraktiv hisob raqami - kompaniya xo'jalik vositalarining asosiy aktiv hisob raqamlarini (nazorat) tartibga soluvchi kontrar hisob raqamining ikki shaklidan biri.

Kontrar hisob raqamlar - asosiy scho'tlarda aks etadigan ko'rsatkichlar korrektirovkasida foydalaniladigan buxgalteriya hisobining qo'shimcha yordamchi schyotlari.

Kontrofaksiya (*frans.* *Contrefaction* – qo'lbola) - boshqa nom ostida mashhur firma, belgilarni qalbakilashtirish, tovarni bozorga olib chiqish, noqonuniy faoliyat olib borish.

Kontroferta - taklif qilingan shartnomaga, lekin boshqacha shartlarga rozilik.

Kontrogent (*lot.* *Contrahens* – kelishib oluvchi) - shartnoma tuzish mobaynida shartnomaning bajarilishi jarayonida, umuman, shartnoma majburiyatlari bilan bog'liq bo'lgan korxonada, tashkilot, shaxslar.

Kontrolming - firma, korxonada hisob va nazorat olib borish.

Kontropassiv hisob raqami - kompaniya xo'jalik vositalari asosiy passiv hisob raqamlarining korrektirovkasi uchun mo'ljallangan kontrakt hisob raqami ikki ko'rinishidan biri.

Kontropozitsiya - birjada qimmatli qog'ozlarning taklifiga talabning mos kelishi va teskarisi.

Konvension marketing - tovarlarga bo'lgan talab yo'qligida o'tkaziladigan marketing.

Konvension stavka - davlatlar o'rtasidagi kelishuvlar asosida o'rnatiladigan bojxona tariflari stavkasi.

Konvensiya (*lot.* Convention - kelishuv) - savdo, pul muomalasi, mehnat munosabatlari, soliq va bojlarni undirish, eksport va import mahsulotlariga narx-navoni shakllantirish qoidalariga binoan davlat hukumati darajasidagi xalqaro shartnomalar. Masalan, mualliflik huquqini himoyalash to'g'risidagi konvensiya, temir yo'l konvensiyasi, pochta-telegraf konvensiyasi.

Konvensiyali operatsiyalar - banklar, savdo-sanoat korparatsiyalari, tadbirkor shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan valyuta ayirboshlash va valyuta oldi-sotdisi.

Konvensiyali tarif - bojxona tarifi shakli. Bu stavka hukumatlar o'rtasidagi kelishuvlar asosida aniqlanadi va tomonlar kelishuvisiz amal qilish muddati davomida o'zgartirish mumkin emas.

Konvergensiya (*lot.* "convergens" - mos keluvchi) - turli xil iqtisodiy tizimlarning yaqinlashuvi, ular o'rtasidagi farqlarning yo'qolishi.

Konversiya (*lot.* Conversion) - ishlab chiqarish obyektlarining boshqalari o'rniga olish yoki biror-bir qimmatli qog'oz turining boshqa turlariga almashinishi.

Konvertirlanadigan qimmatli qog'ozlar - boshqa qimmatli qog'oz turlariga erkin almashaniladigan obligatsiya va aksiyalari, bu ayirboshlash konversion imtiyozlar shartlari asosida amalga oshirilishi lozim.

Konvertirlanadigan fondlar - o'zaro bog'liq fondlar. Bunday fond ishtirokchilari bir-birlaridan obligatsiyalar yoki aksiyadorlarni, ularning o'rniga boshqasini berish sharti bilan sotib oladilar.

Konvertirlanish - biror-bir valyutaning boshqasiga erkin o'tishi yoki ayirboshlanishi, milliy valyutaning chet el valyutasining amaldagi kurs bo'yicha boshqasiga ayirboshlanishi.

Konyunktura (*lot.* Conjunction – bog‘lamoq) - talab va taklif darajalari, bozor faolligi, narxlari, sotuv hajmi bilan xarakterlanadigan bozorda joylashgan iqtisodiy holat.

Kooperativ (*lot.* Cooperation - hamkorlik) - tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida hamkorlik asosida ixtiyoriy ko‘cha bilan tuzilgan, birlashgan korxonalar, tashkilotlar yig‘indisi.

Korbertizm - merkantilistik siyosatning bir turi; XVII asrda Fransiyada Kolber tomonidan olib borilgan.

Koreshok - kvitansion kitobchadan kvitansiyani yirtib olgandan so‘ng qolgan qarz qismi.

Korporativ belgilar - korporatsiya nomi, uning belgilari va savdo namunalari.

Korporativ plastik kartochka – yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan kartochka. Korporativ kartochkadan ish haqi va ijtimoiy xarakterdagi boshqa to‘lovlarni, shuningdek, naqd pul mablag‘larini to‘lash uchun foydalanish taqiqlanadi.

Korrektirovka (*lot.* Correctio - tuzatish) - qisman o‘zgarish, o‘zgartirish, tuzatish, loyihalar, reja, dastur, hisoblarga kiritilgan o‘zgarish, tuzatishlar.

Korrespondent (*lot.* Correspondare - xabar qilish) – ma‘lum hududda biror-bir bank yoki moliyaviy tashkilot manfaatlarini ularning hisobidan boshqa bank yoki moliyaviy tashkilotga himoya qiluvchi moliyaviy va tijorat topshiriqlarini bajaruvchi bank yoki moliyaviy tashkilot.

Korrespondent hisob raqami - korrespondent bitimga asosan kredit uyushmalari topshiriqlariga binoan ularning hisobidan o‘tkaziladigan va boshqalar hisobidan olib borilgan hisoblar aks etgan schyot.

Korrespondent shartnoma - korrespondent munosabatlararo ikki yoki undan ortiq kredit uyushmalari topshiriqlarini o‘zlarining hisoblaridan amalga oshirish uchun xizmat qiluvchi bitim kelishuv.

Korxonona – mehnatkashlar jamoasi mulkidan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqarib, uni iste‘molchilarga sotadigan yoki sanoat

xarakteridagi turli xizmat ishlarini bajaradigan yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik subyekti.

Kotirovka (*frans. caten*) - amalda bo'lgan qonunchilikka muvofiq birjada qimmatli qog'ozlar, xorijiy valyuta kursi va tovarlar narxi o'rnatilishi.

Kotirovkalash - qonuniy normalarga asosan va amaliyot jarayonlarida birjada chet el valyutasining kursini, qimmatli qog'ozlar kursini, yoxud tovarlar bahosining o'rnatilishi yoki qisqacha qilib aytganda, valyuta kursini o'rnatish.

Kovernot - sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalanuvchiga beriladigan sug'urta shartnomasini tasdiqlovchi hujjat.

Kredit (*lot. Credit* - u ishonadi) - qarzdand foydalanganligi uchun foiz, qaytarishlik shartlari asosida kreditor tomonidan qarz oluvchiga beriladigan pul yoki tovar shaklidagi ssuda. Asosiy kredit shakllari: qisqa muddatli, aval, akseptli, bank blankli, kiyimlar, kafolatli, davlat ipoteka, tijorat va h.k. Pul mablag'lari, tovar va xizmatlarini kelishilgan foizda qaytarish sharti bilan vaqtincha foydalanishi uchun pul yoki material mablag'lari berish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi (qarz, nasiya).

Kredit bahosi - kredit bo'yicha foiz stavkasi, kommission va boshqa to'lovlar yig'indisi.

Kredit biletleri - XIX–XX asrlarda Rossiya Markaziy banki tomonidan chiqarilgan, ayirboshlanmaydigan yoki maydalab berilmaydigan qog'oz pullari.

Kredit cheklovlari - tijorat banklari tomonidan ma'muriy va qonuniy, to'g'ri va egri yo'llar bilan kreditlash hajmlarini to'rt cheklovi.

Kredit ittifoqi - o'z manfaatlari yo'lida va a'zolarigagina kredit berish mumkin bo'lgan shaxslar yig'indisi, assotsiatsiya yig'indisi.

Kredit qamali (blokadasi) – kredit berishdan bosh tortish (davlatlar o'rtasida).

Kredit kartalari - bank yoki maxsus kredit (savdo) muassasasi tomonidan biror kishi nomiga berilgan pul hujjati, unda pul egasi joriy hisobidagi summa ko'rsatiladi.

Kredit liniyasi - kelishilgan yoki belgilangan limit doirsida qarz o'uvchiga kredit uyushmasi tomonidan yuridik rasmiylashtirilgan majburiyatning taqdim etilishi.

Kredit liniyasini ochib kredit olish - korxonaga ssuda hisob varag'i ochiladi va limit qo'yiladi. Agarda mijozning hisob varag'ida mablag' bo'lmasa, bank avtomatik tarzda kelib tushgan pul hisob-kitob hujjatlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshiradi.

Kredit liniyasini ochmasdan kreditlash - operatsiya bir marta kredit berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Kredit miqdori - qarzga beriladigan pul birligining hajmi.

Kredit muassasalari statistikasi - kredit-pul munosabatlaridagi muammolarni ma'lum bir vaqtda, ma'lum joyda hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davridagi holatini izlanish orqali xarakterlaydigan muassasa.

Kredit munosabatlarining subyeksi - banklar, xo'jalik subyektlari, aholi, davlat va boshqa subyektlar hisoblanishi mumkin.

Kredit obyeksi - har qanday pul emas, balki faqat vaqtincha bo'sh turgan, berilishi mumkin bo'lgan pullar va tovarlar.

Kredit pullari - kredit aloqalarida ishlatiladigan pullar (banknotlar, veksellar, cheklar, kredit kartochkalari). Kredit pullarni oltin o'rniga paydo bo'lgan, qarz beruvchi va qarzdor o'rtasidagi hamda bank vositasida amalga oshiriladigan, harakatlarda qo'llaniladigan pullar. To'lov-hisob mexanizmi negizida kredit munosabatlari rivojida vujudga kelgan pul shakli.

Kredit qiymati - qarz oluvchi qarz beruvchiga kreditdan foydalanganligi uchun beriladigan % summasi.

Kredit qoidasining buzilishi - ssudaning asosiy summasi yoki foizining o'z vaqtida to'lanmasligi, o'z vaqtida qaytarilmagan ssuda.

Kredit riski - berilgan kredit uchun foiz va qarzdor olgan kreditning qaytarmaslik riski.

Kredit siyosati - banklarning kredit faoliyati bo'lib, ssuda kapitalini joylashtirish bilan amalga oshiriladi. Kredit siyosatining elementlariga quyidagilar kiradi: kredit siyosatining maqsad va

vazifalari, kredit yo'nalishini tashlash, kredit operatsiyalarining amalga oshirish texnologiyasi, kreditlash tartibining nazorati.

Kredit siyosatining ichki omillari - kredit siyosatiga ta'sir etuvchi ichki manba omillarga: bank resurslarning baza va strukturasi tuzilmasi, kredit tashkilotlarining likvidligi, banklarning ixtisoslashganligi, maxsus o'qimishli xodimlar miqdori.

Kredit siyosatining maqsadi - mijozlar ehtiyojini qondirish va qo'shimcha foyda olish.

Kredit siyosatining tashqi omillari - siyosiy va iqtisodiy sharoit: bank qonunlarining rivojlanish darajasi, banklararo raqobat, bank infratuzilmasining rivojlanish darajasi kiritiladi.

Kredit siyosatining vazifasi - banklarning kredit tarkibini yaxshilash, ularning aylanishini tezlashtirish, ssudalar hajmini kengaytirish.

Kredit subyektlari - har xil bo'lishi mumkin. Bularga korxonalar, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholi kiradi.

Kredit sug'urtalash - ssuda olgan shaxslarning o'lim xavfi tug'ilganda, bank yoki kredit kassasi berilgan kredit bilan birgalikda sug'urtalash, sug'urta pulidan vafot etgan qarzdor qarzi to'lab boriladi.

Kredit tizimi - kredit uyushmalarining kredit munosabatlari, shakllari va usullari, kreditlash usullari, usullari tizimi.

Kreditga layoqatlilik – mijozning moliyaviy faoliyatiga har tomonlama berilgan baho bo'lib, u qarz oluvchining so'ralayotgan kreditni (asosiy qarz summasi va u bo'yicha foizlarni) o'z vaqtida qaytarish va boshqa qarz majburiyatlarini to'lay olish qobiliyatini ko'rsatadi. Xo'jalik subyektlari tomonidan kredit va u bo'yicha foizlarni o'z vaqtida va to'laligicha qaytara olish qobiliyati hamda moliyaviy ahvoli barqarorligiga beriladigan baho.

Kreditlash – kredit taqdim etilishi.

Kreditlash obyekti - qarzga olingan summa va uning qaysi obyekt - tovar-moddiy boyliklar, xarajatlar va hokazolarga yo'naltirilganligini anglatadi.

Kreditning ta'minlanganligi - ssudaning ta'minlanganligi kredit berilishiga asosan qarz oluvchining mulki, moddiy boyliklar zaxiralari,

ko'chmas mulki yoki ishlab chiqarish xarajatlari summasiga mos kelishi bilan belgilanadi. Bu, o'z navbatida, kreditni o'z muddatiga qaytarilishiga kafolat berilishini tasdiqlaydi. Kredit miqdori garovga qo'yilgan mulk qiymatining 50% dan 80% gacha miqdorida beriladi.

Kreditor - yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lib, u qarzdoridan qarzni qaytarish yoki boshqa majburiyatlarni talab qilish huquqiga ega bo'lgan subyekt.

Kreditor qarzdorlik - o'rnatilgan muddatlar bo'yicha korxonalar, tashkilotlardan pul mag'larining jalb qilinishi.

Krizis – tanglik, iqtisodiy holatning yomonlashuvi.

Krona (tangada tushirilgan “konona” suratidan kelib chiqqan) - Fransiya, Angliya va boshqa davlatlarda zarb qilingan qadimiy oltin tanga.

Kross-koeffitsiyent - bank passivlarining aktivlarga nisbati ko'rinishida aniqlanadigan bank ishonchliligini ifodalovchi mezon.

Kross bitimlar - raqobat asosida bir necha mijozlar shartnomalarining broker tomonidan bir vaqtning o'zida oldi-sotdisi.

Kross shartlari - qarz oluvchining boshqa shartlar bo'yicha majburiyatlari bajarilmaganda, shu shartnomaning bajarilmasligini ifodalovchi kredit shartnomasi sharti.

Kross-kurs - ikki valyuta o'rtasidagi nisbat kursi. Bunda kurs uchinchi valyuta kursiga asosan aniqlanadi.

Kuk koeffitsiyenti - rizq darchasi, kapitalining aktivlariga nisbatan tijorat banklarining, kredit uyushmalarining to'lovga qodirligini ifodalovchi koeffitsiyent.

Kulisa (*frans.* Coullisse - parda) - xususiy maklerlarning erkin qoidalari orqali tuzilgan norasmiy birja.

Kumulyativ aksiya (*lot.* Cumulatio - ko'payish) - olinmagan dividentlarning ko'payishi natijasidagi aksiya, ko'payib boruvchi aksiya.

Kunlik balans - yig'ma varaqalarga asoslanib tuziladigan hujjat. Balansning to'g'ri tuzilgani aktiv va passiv tomonlardagi summalarning tengligi bilan tasdiqlanadi.

Kupon (*frans.* coupon) - qirqib olingan talon ko'rinishidagi qimmatli qog'oz bo'yicha dividendlar, foizlar olish uchun taqdim qilinadigan qimmatli qog'ozning bir qismi.

Kupyura (*frans.* coupure) - pul birligi yoki qimmatli qog'oz namunasining umumiy nomlanishi.

Kurs (*lot.* cursus) - milliy pul birligidan ifodalangan boshqa davlat valyutasi yoki qimmatli qog'ozining birjaviy bahosi.

Kurslar kotirovkasi - bozor kurslari asosida mavjud muddatga chet el valyutasi yoki qimmatli qog'ozlar kursining rasman ro'yxatga olinishi.

Kurtaj (*frans.* curtage) - birjaviy bitimlarda qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi natijasida broker oladigan mukofot.

Kurte (*frans.* courtier) - makler, agent, valyutachi.

Kuzatish birligi - kuzatilayotgan to'planning birligi. Bu birlik ma'lum darajada mustaqillikka ega bo'lib, kuzatish jarayonida undan ma'lumot olinadi.

Kuzatish dasturi - o'rganilayotgan to'planning har bir boshlang'ich unsuri haqida kuzatish davomida qayd qilinishi lozim bo'lgan belgilar to'plami.

Kuzatish obyekti - o'rganilayotgan hodisa va jarayonlar to'plami.

Kvadriplikat - xalqaro savdo bitimlaridagi hujjatlar, shartnomalarning 4-nusxasidagi shtampi.

Kvalimetriya (*lot.* quails - sifat va metriya) - mahsulot sifatining miqdoriy bahosi uslublari to'g'risidagi fan.

Kvantifikatsiya (*lot.* Quantum - nechta) - sifatning miqdor, raqamlarda o'lchanishi, masalan, ballarda.

Kvazidavlat banki - hukumat tomonidan nazorat qilinadigan nodavlat, tijorat, xususiy bank.

Kvaziishsizlik - yashirin ishsizlik.

Kvazikorporatsiya (*ingl.* - qonunga binoan) faqat ba'zi masalalarda, sharoitlarda yuridik shaxsni tan oluvchi shaxslar birlashuvi.

Kvazinarx - tovarning real bozor qiymatini ifodalamaydigan narxi

Kvazipullar - tijorat banklaridagi muddatli va jamg'arma depozitlaridagi naqdsiz pul mablag'lari.

Kvaziraqobat - bir kompaniya bo'limlari, korxonalari o'rtasidagi raqobat.

Kviprokvo (*lot.* Quiproquo – biri boshqasining o'rniga) – birja ishida chalkashlik.

Kvitsaniya (*ital.* quitanza) – belgilangan shaklda pul, hujjatlar, qimmatliklar olinganligini ko'rsatuvchi rasmiy yozuv.

Kvota (*lot.* Quota - qism) – umumiy ish a'zolarining biriga keladigan ulush, pay qism.

Kvotirovaniya - tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish me'yorlari sifatida davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan ma'lum tovar turlarining importi va eksportiga miqdoriy cheklov.

L

Lahzali likvidlilik koeffitsiyenti - bankning yuqori likvid mablag'larining (bular - bankning g'aznasidagi naqd pul mablag'lari va vakillik hisob varaqasidagi mablag'lar) joriy majburiyatlarga nisbati sifatida aniqlanadi va u bankning joriy to'lovlarni tezkorlik bilan amalga oshira olish qobiliyatini ko'rsatadi.

Leveraj - bank jami aktivlarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasi.

Leveraj koeffitsiyenti - bank jami aktivlarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich. U birinchi darajali kapitalning nomoddiy aktivlar qiymati, jumladan, gudvillni chiqarib tashlagan holda umumiy aktivlar summasiga nisbati sifatida aniqlanadi.

LIBOR - London Interbank Offered Rate – London banklararo stavkasi bo'lib, bu foiz stavka bo'yicha yirik banklar London pul bozorida kreditlarini joylashtiradi. LIBOR stavkasi turli vositalar bo'yicha har xil muddatlarga o'rnatiladi.

Likvid aktivlar - 1. Foizli daromad keltirmaydigan, shu bilan birga o'z sohiblariga joriy va kredit majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni muntazam amalga oshirishga imkon beruvchi oson sotiladigan mablag'lar (qisqa muddatli davlat qimmatli qog'ozlari, yirik kompaniyalarning doimo xaridorgir aksiyalari va obligasiyalari, naqd pul); 2. Banklarning qisqa muddatli qo'yilmasi: ssuda, qimmatbaho qog'ozlar, faktoring operatsiyasi va boshqalar kiradi.

Likvid aktivlarni diversifikasiya qilish - sarflangan mablag'lar tavakkalchiligini eng kam darajaga yetkazish maqsadida tijorat banklari mablag'larini olishga qaratilgan kredit siyosati qoidalaridan biri.

Likvidlilik - 1. Qimmatli qog'ozning egasi uchun deyarli zarar keltirmagan holda tez sotilishi, pul mablag'lariga aylanishi qudrati; 2. Korxonalar, firmalar, banklar aktivlarining moliya-kredit majburiyatini va qonuniy pul talabnomalarini o'z muddatida uzluksiz to'lashga imkon beruvchi harakatchanligi.

Limit - chegara, cheklash.

Limitlangan bank mahsuloti - hajmi yoki miqdori qat'iy chegaralangan mahsulot.

Limitlanmagan bank mahsuloti - hajmi chegaralanmagan mahsulot.

Litsenziya - davlat tomonidan berilgan ruxsatnoma.

Litsenziyaning bekor qilinishi - tijorat banki tomonidan yo'l qo'yilgan qonun buzilishi holatiga nisbatan qo'llaniladigan qattiq huquqiy sanksiya bo'lib, qonun buzilish holatiga Markaziy bankning bildirilgan munosabati va bankning faoliyatini to'xtatish uchun asos hisoblanadi.

Lizing (Leasing, ya'ni to lease - "ijara" yoki "ijaraga bermoq") moliyaviy ijaraning alohida turi, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi.

Lizing obyekt - tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanadigan, iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar. Shu jumladan, korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk lizing obyektlari bo'lishi mumkin. Yer uchastkalari va boshqa tabiat obyektlari lizing obyektlari bo'la ololmaydi.

Lizingga berish - mashina, asbob-uskunalar, transport vositalarini, ishlab chiqarish binolarini, inshootlarini uzoq muddatli ijaraga berish. U ijaraning bir turi bo'lib, muayyan davrdan va ijara to'lovlarining

hammasi amalga oshirilgandan keyin ijaraga olingan narsa ijarachi mulkiga aylanadi.

Likvidlilik koeffitsiyenti - pul mablag'lari va oson sotiladigan talablar bilan qisqa muddatli majburiyatlar orasidagi nisbat sifatida belgilanadi, ya'ni bunda tovar moddiy boyliklar zaxiralari hisob-kitobga qo'shilmaydi, balki faqat real likvid aktivlar hisobga olinadi.

Lombard - ixtisoslashgan tijorat tashkiloti bo'lib, mijozning ko'char mulkini garovga olib, qisqa muddatli kreditlar berish va ularni saqlash bilan shug'ullanuvchi nobank tashkilot.

Lombard krediti - qayta moliyalash shakllaridan biri bo'lib, ushbu kredit davlat qimmatli qog'ozlarini garovga qo'yish asosida beriladi.

Lombard ssudasi - oson sotiladigan, ko'char mulkni garovga olib, qisqa muddatga beriladigan qarz.

M

Ma'muriy nazorat - bankning puxta o'ylangan tashkiliy tuzilmasining tasniflangan va aniq taqsimlangan vakolat va majburiyatlari, qaror qabul qilish va ular bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish tartibining birligi.

Maestro - daromad darajasidan qat'i nazar har qanday inson elektron to'lovlarni amalga oshirish uchun ushbu kartochkadan foydalanishi mumkin. U orqali xalqaro tizimlardagi «MasterCard», «Tsirrus» va Yevropa tizimi «ET» bankomatlaridan naqd pullarni olish mumkin.

Mahak toshi - kumush va oltinning tozaligini aniqlab beradigan qora tusli bir tosh.

Mahalliy byudjet - davlat byudjetining tegishli viloyat, shahar, tuman pul mablag'larining fondini tashkil etuvchi qismidir. Undagi daromad manbalari va tushumlar moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun yo'naltiriladi.

Majburiy investitsiya (Forced investments) - tijorat banklarining resurslarini davlat qimmatli qog'ozlariga majburiy investitsiyalash.

Majburiy ssudalar (Forced loans) - davlat byudjeti defitsitini sezilarli darajada oshishi bilan tijorat banklari rezervlariga talabning ko'payish siyosati Markaziy bankda rezerv hisob raqamlarning

ko'payishi, ularni majburiy ssuda sifatida ishlatilishiga olib kelishi mumkin.

Majburiy zaxiralar - majburiy bank rezervlarining me'yorini o'zgartirish siyosati - pul-kredit siyosatining vositalaridan biri. Majburiy bank rezervlarining me'yorini markaziy bank tomonidan belgilanadi va o'zgartiriladi. Agar u kamaytirilsa, ortiqcha bank rezervlari ortadi, bu esa pul taklifini multifikatsion ortishiga olib keladi. Majburiy bank rezervlari me'yorini ko'tarish yordamida davlat pul taklifini kamaytiradi, zero banklarning ortiqcha bank resurslarining qisqarishi pul miqdorining kamayishiga olib keladi.

Majburiy zaxiralar siyosati - MB tomonidan tijorat banklarining depozit bazasiga foiz darajasida o'rnatiladigan majburiy zaxiralar yaratish talabi. Majburiy zaxiralar siyosati, birinchi navbatda, tijorat banklarining kredit berish qobiliyatini susaytirib, muomaladagi pul massasini tartibga solishga xizmat qiladi.

Majburiyat - fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va h.k., yoxud muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa qarzdordan o'zining majburiyatlarining bajarilishini talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

Makler – vositachi, u fond va valyuta birja bitimlarini tuzishda qatnashadi, operastiyalarni mijoz hisobiga amalga oshiradi va bitim summasidan ma'lum miqdorda mukofot oladi.

Mamlakat xatari - mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy sharoitlarning hozirgi va kelajakdagi o'zgarish xatari korxonalar, tashkilot, firmalarga ta'sir ko'rsatadi. Bu, asosan, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi, tovar va xizmatlarni eksport qiluvchi korxonalar faoliyatiga katta ta'sir qiladi.

Maqsadlar dimmasi - davlatni moliya muassasalarining bir vaqtning o'zida muomaladagi pullar massasini va foiz stavkalari darajasini barqarorlashtira olish natijasida yuzaga keladigan muammo.

Marja - 1. Bankda, birja savdosida va sug'urtalash jarayonida foiz stavkalar, qimmatbaho qog'oz kurslari bahosi o'rtasidagi farqlar va boshqa ko'rsatkichlarni anglatish uchun qo'llaniladigan ibora. Bank terminologiyasida marja jalb qilinayotgan va berilayotgan qarzlarning summasini turli xil toifadagi qarz oluvchilarga berilayotgan kredit stavkasi va h.k. ni bildiradi. 2. Depozit, garov ta'minoti yoki valyutalar kursini yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan tebranishlar bo'yicha qo'shimcha ulushi. 3. Narxlar, kurslar, stavkalar o'rtasidagi farq. 4. Qarz oluvchi kredit qiymatiga qo'shib to'laydigan ustama. Bitim qatnashchilari olishlari mumkin bo'lgan daromadlari hajmini belgilovchi miqdor. Mohiyatan marja xaridor va sotuvchi narxlari o'rtasidagi farqni bildiradi. Shuningdek, jalb qilingan mablag'lar uchun to'lanadigan va joylashtirilgan kreditlar bo'yicha olinadigan foiz stavkalar o'rtasidagi farq.

Marjali ssudalar - qarz oluvchiga kredit qiymatiga ustama qo'shish evaziga beriladigan ssuda.

Markaziy bank - o'z sarf-xarajatlarini o'z daromadlari hisobidan amalga oshiruvchi, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa bo'lib, u davlat gerbi tushirilgan va nomi yozilgan muhriga ega. Markaziy bank – davlat banki bo'lib, mohiyatan banklar banki hisoblanadi. U davlatning butun iqtisodiy siyosatini tartibga solish, pul muomulasini pul emissiyasi vositasida boshqaradi.

Markaziy bank mijozlari - davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, ularning muassasalari va tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, shuningdek, Markaziy bankka qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

Markaziy bankning ochiq bozordagi siyosati - Markaziy bank tomonidan davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olish yoki sotishdan iborat bo'lgan pul-kredit siyosati usuli. Tijorat banklarining zaxiralarini oshirish yoki kamaytirish, bozor foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatish, davlat qimmatli qog'ozlarining kursini tartibga solish uchun qo'llaniladi.

Markaziy bankning tijorat banklarini qayta moliyalashtirish siyosati - bu to'g'ridan - to'g'ri kreditlash, veksellarni hisobga olish, qimmatli qog'ozlarni garovga olgan holda kreditlar berish va kredit auktsionlarini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Marketing - 1. Ishlab chiqarish va mahsulot sotishning muayyan iste'molchilar talablarini imkon qadar to'laroq qondirish hamda shu asosda yuqori foyda olishga qaratilgan majmuaviy tizim; **2.** Bozor talabiga asoslangan va foyda olishni maqsad qilgan korxonalarining maishiy va savdo faoliyatini boshqarish tizimi. Banklarda asosiy tovar sifatida pul mablag'lari va bank xizmatlari tushuniladi. **3.** Kompaniyalar tomonidan tovarni ishlab chiqarish va sotishni amalga oshirish tadqiqotlar va tadbirlar yig'indisi.

Marketing riski - jami jihozlarga lizingga oluvchi topa olmaslik riski, u asosan operativ lizingga xos risk hisoblanadi.

Market-meykerlik - fond bozorida emitentlarga ko'rsatiladigan xizmat turi.

Masofadan nazorat qilish - bank nazoratining bir turi bo'lib, muammolarning boshlang'ich davrini aniqlash maqsadida banklar tomonidan Markaziy bankka taqdim etiladigan hisobotlarning tahliliga va tijorat banklarining har kungi moliyaviy holatining monitoringiga asoslangan uslubi.

Mastercard Biznes - korporativ kartochkasi tashkilotlar xodimlariga berilib, ushbu tashkilotning maqsadlari yo'lida ishlatiladi.

Mastercard Gold - xalqaro debit/kredit kartochka, jismoniy shaxslarga mo'ljallangan. U yirik savdolarni amalga oshirish imkonini beradi. Kartochka egasiga u orqali tibbiyot, sug'urta, yuridik konsultatsiya kabi xizmatlardan foydalanish imkoniga ega. Ushbu kartochka xorijiy davlatlarga tez-tez borib turadigan mijozlarga mo'ljallangan bo'lib, dunyoning 29 mln dan ortiq punktida hamda 835 mingdan ziyod bankomatlaridan foydalanish mumkin.

Mastercard Standart - butun dunyoda tovar va xizmatlarni to'lash uchun qabul qilinadi. Bankomatlardan, naqd pullarni berish punktlaridan kartochkadagi qoldiqqa teng bo'lgan summani naqd ko'rinishida yechib olish, tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish, avia

biletlarni buyurtma qilish, mehmonxonalardagi nomerlarni bron qilish, masofadan turib o'quv yurtlariga pullarni to'lash mumkin.

Maxfiy kelishuv - ochiq kelishuvga kelmasdan firmalarning mahsulot ishlab chiqarish hajmi va ularning narxi bo'yicha maxfiy kelishib olish bilan bog'liq vaziyat.

Maxsus kassa - kassalar yirik korxonalarda har kuni tushum kelib tushish hollarida ochiladi.

Maxsus ssuda hisob varag'i - bu ssuda hisob varaqalar savdo bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga ochiladi.

Maxsus zaxiralar - «Standart», «Substandart», «Shubhali» va «Umidsiz» deb tasniflangan kredit va lizing operatsiyalari yoki boshqa alohida muayyan aktivlar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun zaxira tashkil qilinadi.

Me'yoriy tashqi naflik - tovar va xizmatlarni sotuvchi va xaridordan tashqari uchinchi taraf oladigan me'yoriy naf.

Memorial hujjatlar - naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirish uchun ishlatiladigan hujjatlar.

Memorial order - bu hujjat bank ichidagi operatsiyalarda ishlatiladi. Masalan, mijoz ssuda foizlarini so'ndirishida memorial order to'ldiriladi.

Menejerlar - korxon va kompaniya egalari bo'lmagan yollanma malakali boshqaruvchilar.

Menejment - xo'jalik faoliyatini samarali tashkil etish uchun boshqarish, rahbarlik qilish moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan unumli foydalanish san'ati usullari shakllari va vositalari majmuyidan iborat.

Mijoz - yuridik va jismoniy shaxslar, ular bank xizmatidan foydalanadilar.

Mijoz kartalaridan foydalanishda firibgarlik (Fraudulent use of cards by customers) - mijozlarning bank kartochkalaridan firibgarlik maqsadida foydalanish, undagi mablag'larni o'zlashtirish v.b.

Mijozning master fayli - asosiy fayl, xizmat ko'rsatuvchi bankda mijoz haqida kerakli ma'lumotlar yig'indisi.

Mikrofirma - mulkchilik shaklidan qat'i nazar, ish bilan band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ishlab chiqarish sohasida 10 kishigacha, savdo, xizmat ko'rsatish va boshqa noishlab chiqarish sohasi tarmoqlarida 5 kishigacha bo'lgan korxonalar.

Mikrokredit - qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'lari.

Mikrokredit tashkiloti - mikrokredit, mikroqarz, mikrolozning berish sohasida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi, O'zbekiston Respublikasi hududida bank hisob varaqlarini belgilangan tartibda ochishga haqli bo'lgan yuridik shaxs - nobank tashkilot.

Mikrolozning - tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining ikki ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada beriladi.

Mikroqarz - jismoniy shaxs bo'lgan qarz oluvchiga eng kam ish haqining yuz baravari miqdoridan oshmaydigan summada muddatlilik va qaytarish shartlari asosida, shartnomada nazarda tutilgan hollarda esa to'lovlilik sharti asosida mikroqarz ham berilishi mumkin.

Milliy bozor - muayyan davlat doirasida ishlab chiqarilgan, tovarlar muomalasi sohasini ifodalovchi tushuncha.

Milliy daromad - mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini belgilab beruvchi umumlashgan muhim ko'rsatkich. Yalpi ichki mahsulotning bir qismidan iborat. Yalpi ichki mahsulot qiymatidan ishlab chiqarish xarajatlarining chegirib tashlangan qismi. Mamlakatda yil davomida vujudga kelgan barcha daromadlar yig'indisi.

Milliy valyuta qadrsizlanishi - xorijiy valyutalarni sotib olishga oldingiga nisbatan ko'proq milliy valyuta birliklari zarurligini bildiradi.

Milliy valyuta tizimi - bir mamlakatda valyutaning amal qilishi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy va qonuniy munosabatlar yig'indisi.

Milliy valyutaning qimmatlashishi - xorijiy valyutalarni sotib olishga oldingiga nisbatan kamroq milliy valyuta birliklari zarur bo'lishini anglatadi.

Misqol - og'irlik o'lchovi. Sharq mamlakatlarida qimmatbaho buyumlarning og'irligi misqol bilan o'lchangan. Bir misqol Afg'onistonda - 4,6 g; Jazoirda - 4,27 g; Misr va Sudanda - 4,08 g; Turkiyada - 4,81 g; Xorazmda - 4,55 g; Buxoroda - 4,8 - 5 g. ga teng bo'lgan. Amir Temur davrida bir misqol 4,8 g. Vaznda oltin tangaga teng bo'lgan bu og'irlik o'lchovi Yaqin Sharqda hozir ham ishlatiladi.

Moliya birjasi - qimmatbaho qog'ozlar, valyuta oldi-sotdisi bilan savdo-sotiq qiluvchi tashkilot. U fondlar birjalari deb ham ataladi.

Moliya bozori (Financial market) - moliyaviy vositachilar orqali moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash sodir bo'adigan bozor. U o'z ichiga kapital bozori va pul bozorini oladi. Moliyaviy mablag'larni vaqtincha haq to'lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan bo'ladigan munosabatlar. Jamiyatda moliyaviy xizmatlar ko'rsatish, xususan, kreditlar berishdan iborat bo'lgan munosabatlar. Moliya bozori banklarda, fond birjasida va auksionlarda o'tkaziladi.

Moliya kapitali - bank kapitalining sanoat kapitali bilan qo'shilib ketishi natijasida vujudga keladigan kapital.

Moliya kompaniyasi (Finance company) - moliyaviy korxonalar. Kichik tashkilotlarga iste'mol ssudalari yoki kreditlarini berishga ixtisoslashgan korxonalar. Xalqaro amaliyotda moliyaviy korxonalar tushunchasi bank talablarini qoniqtirmaydigan, bank bo'lmagan, faqat alohida bank operatsiyalarini bajaruvchi kredit institut sifatida keng tarqalgan.

Moliya oligarxiyasi - (oligarxiya - ozchilikning idora etilishi) mamlakat moliyasiga bir guruh yirik korporatsiyalarning yuqori martabali boshqaruvchilari tomonidan hukmronlik qilishi.

Moliyalashtiriladigan faktoring - bunda mijozga MSO (mol sotib oluvchi)dan muddati kelganda olishi lozim bo'lgan to'lovlarni undirish huquqini bank (faktor) beradi.

Moliyalashtirilmaydigan faktoring - bank-faktor tomonidan MYB (mol yetkazib beruvchi)ning debitor qarzdorligini inkassatsiya qilishdan iborat. Faktoringning bu turida MYB jo'natilgan tovarlarning hujjatlarini bank-faktor orqali MSOga yetkazadi.

Moliyaning funksiyasi - moliya mohiyatining xo'jalik faoliyatidagi aniq ko'rinishi, uning ifodasi.

Moliyaviy aktivlar (Financial assets) – 1. Bank (tashkilot) vositalarini xususiy shaxsga pul mablag'lari, ssudalar, qimmatli qog'ozlar va boshqalar tarzida qo'yish. 2. Pul mablag'lari, ssudalar, qimmatli qog'ozlar va valyuta boyliklariga sarflangan bank yoki korxonaga mablag'lari.

Moliyaviy aktivlarni ostirish (Financial deepening) - kapital bozoridagi moliya institutlari, fond institutlari, xizmatlari miqdori va turining o'sishida namoyon bo'luvchi moliyaviy sektorning takomillashuvi va rivojlanish jarayoni.

Moliyaviy analitik (Financial analyst) - moliyaviy tahlilchi - korxonaning moliyaviy holati va operatsiyalariga baho beruvchi shaxs.

Moliyaviy barqarorlik (Financial stability) - moliyaviy barqarorlik aholining bank-moliya tizimiga ishonchi, milliy valyutaning barqarorligi, davlat moliyasining barqaror ahvoli, boshqa davlatlarga kapital oqimining yo'qligi, rivojlangan moliya bozorlari tizimi orqali samarali maqsadlar uchun asosiy moliyaviy mablag'larni qayta taqsimlash.

Moliyaviy chuqurlik (Financial depth) - iqtisodiyotning "moliyaviy chuqurligi", ishlab chiqarish hajmlari bilan taqqoslaganda moliyaviy tarmoqning kengligi (jamg'arma, investitsiya, munosabatlarni qayta taqsimlash). Davlat qanchalik rivojlangan va tez o'suvchi bo'lsa, iqtisodiyotning "moliyaviy chuqurligi" shuncha katta bo'ladi.

Moliyaviy firibgarlik (Financial swindle) - Ponzi sxemasi - qalbaki loyihaga investorlarni jalb qilish va birinchi investorlarga yuqori foizlarni keyinroq mablag' qo'yganlar hisobidan to'lash.

Moliyaviy hisob (Financial accounting) - tashkilot, bankning moliyaviy operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi. O'zida shunday ma'lumotlarni mujassam etadiki, ushbu ma'lumotlardan nafaqat bank (firma, korxonaga) faoliyatiga ichki rahbarlik qilishda foydalaniladi, balki chetdan foydalanuvchilarga ham tegishli ma'lumotlar ma'lum qilinadi.

Moliyaviy hisob standartlari bo'yicha kengash (Financial Accounting Standarts Board (FASB)) - moliyaviy hisob standartlari bo'yicha kengash buxgalteriya hisobi standartlarini korib chiqadi.

Moliyaviy indeksatsiya (Financial indexation) - pul qadrsizlanishining salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida moliyaviy aktivlar, pul daromadlari va boshqalarning indeksatsiyasi.

Moliyaviy institut (Financial institution) - moliyaviy institut, biznes (kompaniya, bank v.b.) bo'lib, u shaxslarning bo'sh moliyaviy resurslarini iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot maqsadlari uchun qo'yishga moliyaviy resursga talablar va shu resurslardan foydalanvchi shaxslarga qayta taqsimlashga ixtisoslashtirilgan.

Moliyaviy instrumentlar (Financial instruments) - moliyaviy instrumentlar (moliyaviy resurslar, depozitlar, ssudalar, qimmatli qog'ozlar, sug'urta polislari va boshqalarni qayta taqsimlashga xizmat qiluvchi moliyaviy mahsulotlar). Moliyaviy instrumentlarni qo'llash moliyaviy institutlarning asosiy faoliyati hisoblanadi.

Moliyaviy investitsion institutlar (Financial investment institutions) - investitsion turdagi moliyaviy institutlar (masalan, investitsion banklar, investitsion kompaniyalar, agentliklar v.b.).

Moliyaviy iste'mol krediti - sotib olingan tovarlar (xizmatlar) haqini to'lash uchun pul mablag'lari tarzida banklar va boshqa kredit tashkilotlari tomonidan iste'molchiga beriladigan kredit.

Moliyaviy koeffitsiyentlar (Financial ratios) - qoplash, likvidlik, rentabelilik, foydalilik, aktivlarni boshqarish, operatsion samaradorlik bilan korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyatini tavsiflovchi koeffitsiyentlar.

Moliyaviy leveraj (Financial leverage) - moliyaviy "richag" bo'lib, qarz majburiyati bilan kapital o'rtasidagi munosabatni aks ettiradi. Korxonada moliyaviy barqarorligi darajasini va korxonada kapitali bazasida shakllangan qarz vositalari hajmini tavsiflaydi.

Moliyaviy leveraj koeffitsiyenti (Financial leverage ratios) - aksiya kapitalining moddiy qismiga qarzning munosabati, aksiya kapitaliga qarzning munosabati, aktivlarda aksiya kapitalining ulushi v.b.).

Moliyaviy lizing - ijaraga oluvchi shaxsning ijaraga olingan asbob-uskunalarni ishlatishdan ko‘rilgan foyda ulushini hamda amortizasiyaning to‘la qiymatiga teng summani, lizing kompaniyasiga shartnomaning amal qilish davri mobaynida to‘lanishini ko‘zda tutuvchi ijara shartnomasi. Bunda ijaraga oluvchi shaxs shartnomaning amal qilish muddati tugagandan keyin asbob-uskunalarni qoldiq qiymati bo‘yicha sotib olish huquqini qo‘lga kiritadi.

Moliyaviy ma‘lumotlarni e‘lon qilish (Disclosure requirement) - moliyaviy ma‘lumotlarni butunlay e‘lon qilish, ochish, ma‘lumotlarni ochishni talab qilish, qimmatli qog‘ozlarga ommaviy takliflarni ilgari surish.

Moliyaviy menejment (Financial management) - korxonada, bank moliyaviy ahvolini bashoratlash, rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish va boshqalar tizimi.

Moliyaviy munosabatlar - pul jamg‘armalarining xarajati natijasida davlat va uning quyi va yuqori tashkilot idoralari, turli xo‘jalik yuritish shaklidagi korxonalar, firmalar, birlashmalar o‘rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar.

Moliyaviy natija - banklarda ma‘lum hisobot davrida, ma‘lum bir operatsiya jarayonida o‘ziga qarashli mablag‘ning oshishi yoki kamayishi tushuniladi.

Moliyaviy nazorat (Financial control) - banklarda moliyaviy nazorat o‘z ichiga moliyaviy hisobotlarni tayyorlash, bank departamentlari uchun byudjetni ishlab chiqish va boshqalarni oladi.

Moliyaviy nazorat departamenti (Financial control department) - moliyaviy nazorat bo‘yicha bank departamenti moliyaviy hisobotlarni tuzish, olib borish, ssuda portfeli ahvolini tahlil qilish bilan shug‘ullanuvchi departament.

Moliyaviy nobarqarorlik (Financial instability) - moliyaviy nobarqarorlik aholining bank-moliya tizimiga ishonchsizligi, boshqacha qilib aytganda, milliy valyuta qadrsizlanishining o‘shishi va davlat moliyaviy ahvolidagi buzilishi, yirik byudjet taqchilligi, inflyatsiyaning o‘shishi hamda taqchillikni qoplash uchun bosma stanoklardan foydalanish bilan tavsiflanadi. Moliyaviy nobarqarorlik jarayonida

kapitalning masshtabli chetga oqimi yuzaga keladi, moliya bozori tizimi orqali ishlab chiqarish maqsadlari uchun bo'sh pul mablag'larini qayta taqsimlash jarayoni butunlay buziladi. Investitsion jarayonlarni uzoq muddatli moliyalashtirish uchun manbalarning mavjud emasligi hisobiga investitsion krizisning rivojlanishi yuz beradi. Moliyaviy nobarqarorlik iqtisodiy va siyosiy nobarqarorlik bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Moliyaviy qiyinchiliklar (Financial distress) - subyekt moliyaviy ahvolining yomonlashuvi, moliyaviy ahvolning buzilishi (umuman, bank tizimi, muayyan bank yoki qarzdor faoliyatida ham yuzaga kelishi mumkin).

Moliyaviy qog'oz (Finance paper) - xuddi tijorat qog'ozlari kabi. Bunda emitent tomonidan tog'ridan to'g'ri vositachisiz investorga tijorat qog'ozlarining sotilishi tushuniladi. "Directly placed paper", "direct paper" kabi to'g'ridan to'g'ri qog'ozlarning joylashtirilishi.

Moliyaviy risk (Financial risk) - moliyaviy risk kategoriyasi o'z ichiga foiz, kredit, valyuta, likvidlilik risklari, opsiyon riski, balansdan tashqari bo'limlar riski va boshqalarni oladi va moliyaviy yo'qotishlarni aks ettiradi.

Moliyaviy rivojlanish (Financial development) - sog'lom va barqaror moliyaviy tizimning rivojlanishi, moliyaviy aktivlarning hissasi va hajmining o'sishi, borgan sari moliyaviy munosabatlarning jamiyat hayotiga chuqurroq kirib borish jarayoni.

Moliyaviy sarosima (Financial panic) - qimmatli qog'ozlar bahosiining keskin tushishi, bank sarosimasi - bankdan qo'yilmalarni butunlay chiqib ketishi, keskin va shov-shuv bo'lib valyutaning tushishi, o'tkir investitsion krizis v.b.

Moliyaviy sektor kreditlarini korrektilovkalash (Financial sector adjustment loan (FSAL)) - moliyaviy tarmoqni qo'llab-quvvatlash uchun ssuda, moliyaviy tarmoqni qayta qurish, yangi moliya institutlarini barpo qilish, bozor foiz stavkalarini kiritish va barqarorlashtirish, kredit subsidiyalarini kamaytirish maqsadida Jahon banki tomonidan beriladigan ssuda turlaridan biri.

Moliyaviy siyosat (Financial policy) - QQBda va sug'urta bozorida, moliyaviy valyuta munosabatlarida, soliq, byudjet sohasida davlat siyosati. Moliyaviy maqsadlar (moliyaviy tizim faoliyatini boshqarish) va umumiyqisodiy (moliyaviy tarmoq orqali ishlab chiqarish ahvoli va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish) maqsadlarini keltirib chiqaradi.

Moliyaviy supermarket (Financial supermarket) - bank va nobank moliyaviy xizmatlar supermarket - qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, sug'urtada brokerlik, birlashish va jalb qilish masalalari bo'yicha mijozga xizmat ko'rsatish v.b.

Moliyaviy tizim (Financial system) - keng moliyaviy instrumentlar va turli bozorlarga murojaat asosida milliy iqtisodiyotda bo'sh moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va taqsimlashni ta'minlovchi moliyaviy vositachilar tizimi.

Moliyaviy vositachiga beriladigan ssuda (Financial intermediary loan (FIL)) - milliy iqtisodiyotni kelajakda qayta moliyalashtirish maqsadida ayrim davlatlarning bank-moliya institutlariga Jahon banki tomonidan beriladigan ssuda turlaridan biri. Shuningdek, bu ssudadan mamlakatning aynan moliyaviy tarmog'ini rivojlantirish uchun foydalanish mumkin.

Moliyaviy vositachilar (Financial intermediaries) - moliyaviy vositachilikni bajaruvchi moliyaviy institutlar (tijorat banklari, jamg'arma institutlari, fondler v.b.).

Moliyaviy vositachilik yoki qayta taqsimlash (Financial intermediation) - bo'sh pul resurslarini qo'yilmalarga jalb qilish asosida kreditlash, investitsiya va boshqa obyektlarga qo'yiladigan resurslarni bir vaqtda yo'naltirish bilan bog'liq boshqa moliyaviy majburiyatlarni qayta taqsimlash. Bu faoliyatning o'ziga xos xususiyati past likvidli obyektlarga yuqori likvidli pul resurslarini jalb qilishdan foydalanish imkoniyati hisoblanadi.

Moliyaviy yordam (Financial support) - moliyaviy jihatdan rag'batlantirish, imtiyozli kreditlash, sun'iy kamaytirilgan mablag'lar qiymati v.b.

Molu jihat - naqd pul yoki mahsulot bilan to'lanadigan soliq. Molu jihat qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan natura shaklida daromadning 1/5 yoki 1/3 qismi hajmida olingan.

Monetar qoida - monetaristlar tomonidan ilgari surilgan qoida, unga binoan muomaladagi pul massasi, har yili YMM potensial o'shiga teng sur'atlarda oshib borishi kerak: pul massasi har yili izchillik bilan 3% dan 5% sur'atlarda oshib borish zarur.

Monetar siyosat - davlat siyosati bo'lib, davlat iqtisodiyotini amaldagi pul massasini tartibga solish yo'li bilan rivojlantirish va barqarorlashtirish.

Monetarizm - iqtisodiyot nazariyasidagi g'arbda keng tarqalgan neoklassik nazariyalarining biri. Monetarizm sof bozor iqtisodiyoti nazariyasi hisoblanib, uning bosh g'oyasi bozor mexanizmi iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi, bu mexanizmning asosiy vositasi pul degan xulosadan iborat.

Monitoring - bozorning ahvoli va rivojlanishining ustidan kuzatish. Qandaydir obyekt holatini har tomonlama baholash va uning faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida maxsus tashkil qilingan tizimli kuzatuv.

Monometalizm - pul tizimidagi mustaqil unsur bo'lib, bunda bitta metallga barcha tovarlar qiymatini o'zida aks ettiruvchi umumiy ekvivalent roli beriladi.

Monopoliya (*yun.* - tanho sotaman) iqtisodiyotning biron-bir sohasidagi tanho hukmronlik.

Monopolyadan chiqarish - raqobat munosabtlarini rivojlantirishga qaratilgan, davlat tomonidan tartib-qoidalarining joriy etilishi.

Monopsoniya - bozor holati, unda bozorda bir nechta o'zaro raqobat qiladigan korxonalar-tovar ishlab chiqaruvchilar bo'lib, xaridor esa tanho bo'ladi.

Muammoli aktivlar - sifati «Qoniqarsiz», «Shubhali» va «Umidsiz» deb tasniflangan aktivlar.

Muddati kechiktirilgan kreditlar - ayrim hollarda muddati yetib kelgunga qadar qarz oluvchi tomonidan iqtisodiy jihatdan asoslangan

holda bankka taqdim etilgan, yozma ariza asosida kreditni qaytarish muddatini kechiktirish to'g'risida qaror qabul qilinadigan ssudalar.

Muddati o'tgan ssudalar - bank va mijoz o'rtasida tuzilgan ssuda shartnomasiga ko'ra o'z vaqtida qaytarilmagan ssudalar. Bu toifadagi ssudalar muddatsiz hisoblanib, imkoniyat bo'lishi bilan undirib olinadi.

Muddatli depozit hisob varag'i - yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'lari. Tuzilgan shartnomaga asoslanib foizlar belgilangan muddatda to'lanadi.

Muddatli jamg'armalar - egalari tomonidan ma'lum muddatga, (1, 3, 6, 9 oyga; 1 yoki 1,5 yilga) qo'yiladigan jamg'armalar.

Muddatli kreditlar - amal qilish muddati o'tmagan ssudalar.

Muddatli marja - muddatli bitimlar bo'yicha narxlar va kurslar o'rtasidagi farq.

Muddatli omonatlar - mijoz tomonidan bankka ma'lum muddatga qo'yiladigan qo'yilmalar, ular bo'yicha mijozlarga bank tomonidan yuqori foizlar to'lanadi. Bankning foiz stavkalari qo'yilmaning muddati va miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Muddatsiz jamg'armalar - jamg'armalarga banklar tomonidan hech qanday muddat belgilanmaydi va ularning sohiblari xohlagan vaqtida jamg'armalarini istalgan miqdorida qaytarib olish huquqiga ega.

Mukammal bo'lmagan raqobat - sotuvchi va xaridorlarning soni cheklanganligi, bozorga kirish va chiqish qiyinligi, ayrim hollarda, umuman mumkin emasligi, bozor agentlari narx darajasi va ishlab chiqarish ko'lamiga ta'sir eta olish bilan xarakterlanadigan bozor strukturasi.

Mulk - ishlab chiqarish vositalari va ular yordamida olingan mahsulotga kishilarning huquqiy munosabatlari bilan belgilangan iqtisodiy munosabatlarning majmuasidir.

Mulk obyektlari - yer, yer osti boyliklari, ichki suvlar, suv havzasi, o'simlik va hayvonot dunyosi, imoratlar va inshootlar, asbob-uskunalar, moddiy va ma'naviy madaniyat buyumlari, pullar, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulklar, insonning unumli va ijodiy mehnat qilish qobiliyati.

Mulk subyektlari - davlat jamoatlari, ularning uyushmalari, jamoat va diniy tashkilotlar, fuqarolarning oilaviy va boshqa birlashmalari va h.k.

Mulkchilik - kishilar o'rtasida ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish va yaratilgan mahsulotni o'zlashtirish yuzasidan paydo bo'lgan, tarixan aniq bir shaklda namoyon bo'luvchi munosabatlar.

Mulkdor - butun mol-mulk egasi.

Mulkiy huquq - huquq bo'yicha iqtisodiy o'zaro munosabatlar, subyektlar tomonidan mol-mulkka, moddiy boyliklarga, pul mablag'lariga da'vogarlik qilish huquqi.

Mulkiy munosabatlar - ishlab chiqarish vositalari va ularning yordamida yaratilgan mehnat mahsulini o'zlashtirish borasida kishilarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlari.

Multiplikator samarasi - investitsiyalar va davlat sarflarining yalpi milliy mahsulot hajmini ortishgan ta'sirining kuchayishi.

Muomala - mehnat mahsulotlarini oldi-sotdi vositasida ayirboshlash munosabati.

Muomaladagi Federal rezerv notalari (Federal Reserve notes in circulation) - muomaladagi Federal rezerv tizimi notalari (aholi qo'lidagi va korxonalar kassasidagi notalar, bundan federal rezerv banklardagi va Moliya vazirligidagi pul biletleri qoldig'i mustasno).

Murakkab buxgalteriya provodkasi - bir nechta hisob varaq debetlanib, bitta hisob varaqning kreditlanishi.

Murakkab svodkalash - ma'lumotlarni dasturda ko'zda tutilgan belgilar asosida ayrim guruhlarga bo'lib o'rganish. Masalan, bank muassasasi tomonidan berilgan kreditlarni qisqa va uzoq muddatli kreditlarga ajratish.

Muxtoriylik koeffitsiyenti - mijoz o'z mablag'larining barcha mablag'lar manbalari ichida tutgan salmog'ini, ya'ni korxonada faoliyatining qancha qismi o'z kapitali hisobidan moliyalashtirilishini ko'rsatadi.

N

Nafaqa - fuqarolarga ma'lum bir yoshga yetganda, nogiron bo'lib qolganda, boquvchisini yo'qotganda, ko'p yillik xizmatlari uchun davlat tomonidan beriladigan doimiy pul to'lovlari.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar - korxonalar va tashkilotlar tomonidan tovar ayirboshlash, xizmatlar ko'rsatish va notovar operatsiyalar bo'yicha bir-biriga bo'lgan talab va majburiyatlarni, naqd pul ishlatmasdan, pul mablag'larini faqat hujjatlar orqali bir hisob varaqdan ikkinchi hisob varaqqa o'tkazish bilan amalga oshiriladigan hisob - kitoblar tushuniladi.

Naqd pulsiz oborot - pul oborotining bir qismi bo'lib, unda pullar harakati o'zaro talablar hisobiga kredit muassasalaridagi hisob varaqlar bo'yicha pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi va bunda naqd pullar ishlatilmaydi.

Narx dempingi - bozorda raqobatchilarini yengib chiqish maqsadida mollar va xizmatlar narxlarini sun'iy tarzda pasaytirish.

Narx-navo o'zgarishlarining eliminastiyasi - mollar va xizmatlar narxlarining o'zgarib turishiga barham berish.

Narx, baho - 1. Tovar qiymatining pulda ifodalanishi, xo'jalik mexanizmida amal qiluvchi iqtisodiy vosita. Bozor sharoitida narx qiymat o'lchovi, rag'batlantirish omili, daromadlarni qayta taqsimlash vazifalarini bajaradi. 2. Narsaning, buyumning pul bilan o'lchanadigan qiymati, bahosi.

NASD (National Association of Securities Dealers) - qimmatli qog'ozlar bo'yicha dillerlar milliy uyushmasi.

NASDAQ (National Association of Securities Dealers Automated Quotations) - qimmatli qog'ozlar bo'yicha dillerlar milliy uyushmasi avtomatik kotirovka tizimi. Ichki moliyalashtirilgan qimmatli qog'ozlar sotuvi tizimi.

NASDAQ ko'rsatkichi - xususiy savdoga ega birjadan tashqari kompyuter tizimining yetakchi ko'rsatkichi.

Natsionalizatsiya - xususiy shaxslarning mol-mulkini davlat foydasiga musodara qilish yoki davlat mulkiga aylantirish.

Negostiant - yirik xalqaro savdo operastiyalarini amalga oshiruvchi savdogar. Boshqa mamlakatlar bilan yirik savdo ishlarini bajaruvchi tijoratchi, savdogar.

Neoproteksionizm - chetdan mol keltirishni cheklab qo'yishning an'anaviy shakllariga qo'shimcha sifatida mamlakatlar joriy etadigan xalqaro savdo cheklovlari.

Netting - mijozning barcha pul talablarini uning barcha pul majburiyatlariga nisbatan hisobga olish orqali amalga oshiriladigan kliring usuli. Valyuta bitimlari miqdorini ularni yiriklashtirish hamda barcha savdo ishtirokchilari va birja bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish yo'li bilan qisqartirish.

NIKKET ko'rsatkichi - Yaponiya qimmatli qog'ozlar birjasida AQShning mashhur yirik kompaniyalari oddiy aksiyalarining maxsus ko'rsatkichi.

Nokorporativ omonat - korporatsiyaga qarashli bo'lmagan omonat.

Nolikvid aktivlar - korxonadagi keragidan ortiqcha yoki korxonaga uchun zarur bo'lmagan moliyaviy aktivlari, shuningdek, qiyin sotiladigan tayyor mahsulotlar.

Nomenklatura - buyumlar, narsalar ro'yxati.

Nominal - tovarda ko'rsatilgan narx.

Nominal foiz stavka - joriy davrdagi bozor foiz stavkasi.

Nominalizm - pulni mol sifatida inkor etib, uni xususiy qiymatga ega bo'lmagan shartli belgilar sifatida tavsiflaydigan iqtisodiy nazariya.

Normativ - minimal talab darajasida belgilangan, pul ko'rinishidagi oborot mablag'larining rejadagi miqdori.

Nostro hisob varag'i - bankning vakil bankdagi hisob raqami. Unda bankning xarajat va tushumlari aks ettiriladi.

Nostro overdrafti - bankning vakil banki hisob varag'idagi qoldiqdan ortiqcha olingan summa.

Nostro qo'sh valyutali hisob raqam - bankning vakil bankdagi, ham mahalliy, ham joriy valyutada yuritiladigan hisob raqam.

Notifikatsiya - veksel egasi vekselga norozilik bildirganligi haqida veksel beruvchiga yo'llaydigan bildirish xati.

Nou-xau - yangilik hisoblangan ilmiy, texnikaviy, moliyaviy-iqtisodiy bilimlar hamda ulardan amalda foydalanish bo'yicha muammolar yig'indisi.

Nullifikatsiya - hujjatning huquqiyiligini rad etish yoki huquqdan mahrum etish.

Numizmatika - tangalar va kartalarini tarixiy, iqtisodiy, madaniy yodgorliklar sifatida o'rganadigan fan. Tangalarni yig'ish bilan qiziqish.

Nyus-meykerlar - ijtimoiy-siyosiy voqealar jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatish, ilm-fan, iqtisodiyot, tadbirkorlik va boshqa soha arboblari.

Nyus-reliz - shartnoma tuzish paytida foydalaniladigan mol yoki kompaniya haqidagi ma'lumotlar.

O

Obligatsiya – (lot. «obligation» - «majburiyat») uning egasi qarz berganligidan guvohlik beruvchi va unga ushbu qimmatli qog'ozning nominal qiymatini unda ko'rsatilgan muddatda belgilangan foiz to'langan holda qoplash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz; emitentning qarz majburiyati qat'iy foiz stavkasi shaklida belgilangan qimmatli qog'ozning bir turi. Obligatsiya - emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qat'iy belgilangan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi. «Obligato» – lotin tilida «qarz olish» mazmunini bildiradi.

Ochiq bozor operatsiyalari bo'yicha Federal qo'mita (Federal Open Market Committee (FOMC)) - ochiq bozordagi operatsiyalar bo'yicha Federal qo'mita. Ochiq bozordagi operatsiyalar orqali yagona pul siyosatini o'tkazish va maqsadlarni aniqlash uchun Federal rezerv tizimi qoshida tashkil etilgan. "*Open Market*"ga qarang.

Ochiq bozordagi operatsiyalar - pul bozoriga ta'sir ko'rsatish maqsadida qimmatli qog'ozlarni Markaziy bank tomonidan sotib olish va sotish.

Ochiq faktoring - debitor, ya'ni MYB (tovar hujjatlarida ko'rsatish orqali) to'lovni amalga oshirishda bank - faktor qatnashishi to'g'risida MSONi ogohlantiradi va tovar pulini undirishga oid barcha hujjatlarni (debitor qarz hujjatlari) bankka tshlab berish uchun topshiradi. Bunda mijoz bankka o'zining sheriklari bilan bo'lgan bitimlarning kapitalini taqdim etadi va bank darhol ushbu hisobning 80 % summasini to'lab beradi. Mijoz sheriklaridan jami bitimning summasini olgandan so'ng faktor bankka olingan 80% kreditni foiz bilan to'lab beradi.

Ochiq faktoring operatsiyalari - faktoring kompaniyasining bitimdagi ishtiroki haqida qarzdorni xabardor qilgan holda to'lanmagan qarz talabnomalarini boshqaga o'tkazish.

Ochiq turdagi aksiya - egasi hissadorlik jamiyati hissadorlarining roziligsiz qo'ldan qo'lga o'tishi mumkin bo'lgan aksiyalar.

Ochiq valyuta pozitsiyasi - bankning shu xorijiy valyuta bo'yicha aktivlarining majburiyatlaridan oshgan summasi tushuniladi.

Oddiy aksiya - aksiya egasi hissadorlar yig'ilishida ovozga va faoliyati natijasi bo'yicha dividendlarni olish huquqiga ega bo'ladi.

Oddiy buxgalteriya provodkasi - bir hisob varaq debetlanib boshqa hisob varaqning kreditlanishiga aytiladi.

Oddiy hujjatlar - hujjatlarda faqat bitta operatsiya aks ettiriladi. Bu hujjatlarga: to'lov talabnomasi, to'lov topshiriqnomasi, akkreditiv ochish uchun ariza, kirim orderi, pul cheki va h.k. lar kiradi.

Oddiy ssuda hisob varag'i - ssuda bir maromda mijozning hisob varag'iga o'tkaziladi va shu hisob varaqda foizlar hisoblanadi va to'lanadi.

Oddiy svodkalash - olingan ma'lumotlarni guruhlarga bo'lmasdan, to'plam bo'yicha umumiy yakunlarni chiqarish. Masalan, berilgan jami kreditlarning (qisqa va uzoq muddatli) miqdorini hisoblab chiqishning o'zi kifoya. Shuning o'zi oddiy ma'lumotlarni yig'ish hisoblanadi.

Oddiy veksel - qarz oluvchi korxonaga qarz beruvchi korxonaga beradi va tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun unga to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Oilaviy plastik kartochna - shaxsiy kartochna egasining ishonchnomasi asosida foydalanuvchiga berilgan kartochna.

Omonatchi - o'zining kundalik ehtiyojidan ortiq pul mablag'larini jamg'arish uchun bankdagi hisob varaqqa omonat sifatida pul mablag'larini jamg'arish uchun bankdan omonat daftarchasini olgan shaxs.

Onkol ssudasi - birinchi talabga ko'ra qoplanadigan qisqa muddatli qarz.

Operativ hisob - ma'lum xo'jalik jarayoni va operatsiyalarini ular yuz bergan joyning o'zida kechiktirmay nazorat qilib boradi. Xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishda bu hisob yordamida rejalashtiriladigan ko'rsatkichlar bilan ham son, ham sifat jihatidan solishtiriladi.

Operativ lizing - shunday ijara munosabatlariki, bunda lizing obyektlari (mulk) amortizatsiya muddatidan kamroq muddatga ijaraga olinadi. Arendator (ijarachi) mulkni o'z ixtiyoriga ma'lum muddatga yoki bir ishlab chiqarish davriga oladi; odatda, shartnoma 5 yilga tuziladi. Bu muddat tugaganidan so'ng ijarachi to'lovni to'lashni to'xtatishga va mulkni ijaraga bergan egasiga topshirishga haqli yoki shartnomani yangitdan tiklash yoxud shartnomani tuzish vaqtidagi kelishilgan bahoda lizing obyektini sotib olishi mumkin.

Opsion - bitimda ishtirok etayotgan tomonlarning biriga qimmatli qog'ozlarning ma'lum bir miqdorini muayyan vaqt mobaynida belgilangan narxda sotib olish yoki kontragentga sotish huquqini beruvchi shartnoma. Kontragent esa mukofot evaziga ushbu huquqni amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Opsion cool - sotib olish huquqini beruvchi bitim.

Opsion put - sotish huquqini beruvchi bitim.

Opsion umumiy – ma'lum vaqt oralig'ida yoki opsion davrida o'zgarmas bahoda ma'lum aktivlar (aksiya, tovar, fyuchers va boshqalarni sotib olish va sotish huquqini beruvchi bitim).

Overdraft - chek bo'yicha olingan joriy hisob raqamdagi qoldiqdan ortiqcha summa. Bankdagi kreditning oshib ketishi. Bank mijozning hisob raqamidagi qoldiqdan ortiq mablag'ni hisobdan chiqarish yo'li bilan beriladigan qisqa muddatli kredit. Bank tomonidan mijozlarini tezkor yoki operativ kreditlash shakllaridan biri, mijozning hisob

varag'ida pul mablag'lari mavjud bo'lmaganda beriladi. Bank tomonidan mijozning bankdagi shaxsiy hisob-varag'ida pul mablag'larining yo'qligi yoki yetmagan vaqtida bank tomonidan kredit sifatida berishidir. Bunda mijoz overdraft limiti doirasida kartochkadan maqsadlari yo'lida foydalanishi mumkin. Hozirda bizning banklar tomonidan overdraft bo'yicha foiz to'lovlari yillik 14% ni tashkil etmoqda. Qarzni uzish muddati bir yil.

Overdraft hisob varag'i - mijozning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisob varag'i bo'yicha qisqa muddat ichida debetli qoldiq bo'lishiga ruxsat beriladi.

P

Passiv operatsiyalar - bankning resurslarini shakllantirish bo'yicha operatsiyalari.

«Put-opsion» (put option) - sotiladigan opsion. Sotish uchun yoki put-opsion egasi kelajakda kursi tushib ketishi mumkin bo'lgan valyutani nisbatan yuqori strayk bahoda sotish huquqini beradi.

Pul oqimi (Kesh flou) - naqd pullarning kirimi yoki chiqimi summasi.

Q

«Qoniqarsiz» sifatli aktivlar - asosiy qarz va foizlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik muddati 90 kundan oshmagan aktivlar.

Qarz (zayom) konversiyasi - zayom (qarz)ning dastlabki shartlarining o'zgarishi yoki obligatsiyalar almashinuvi.

Qarz koefitsiyenti – korxonada (bank) qarz mablag'lari bo'yicha majburiyatlarning aksionerlik kapitaliga nisbati orqali aniqlanadi.

Qarz majburiyatlari - qarz instrumentlari (obligatsiyalar, veksellar, deposit sertifikatlari v.h.). Qarz munosabatli qimmatli qog'ozlar, obligatsiya, veksell va hokazolar bo'lib emitentning investorga qarzdorligini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz.

Qarz majburiyatlari to'lovining oylik daromaddagi salmog'i – qarzdorlik koefitsiyenti. U korxonada qarzlari summasining aktivlar jamisiga nisbatan orqali hisoblanadi.

Qarzni reorganizatsiya qilish yoki qarzni qayta tuzish, tashkillashtirish - qarz shartini o'zgartirish, masalan, ssuda bo'yicha

foiz stavkani, kredit muddatining uzaytirilishi, so'ndirish manbalari o'zgartilishi v.h.).

Qat'iy yoki **o'zgarmas foiz stavka** - qarz mablag'laridan foydalanish davrida qayta ko'rib chiqish huquqsiz o'rnatiladigan, o'zgarmaydigan stavka.

Qayd etilgan valyuta kursi - xorijiy valyutada ifodalangan milliy pul birligining davlat tomonidan rasmiy o'rnatilgan bahosi bo'lib, unga valyuta bozorlaridagi talab va taklifning o'zgarishi ta'sir qilmaydi.

Qayta moliyalash - Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan pul kredit siyosati vositalaridan biri bo'lib, u banklarning likvidlik holatini qo'llab - quvvatlashda muhim o'rin tutadi.

Qimmatli qog'oz – o'zi bilan bog'liq mulkiy huquqlarni aks ettiradigan hujjat, u daromad manbasi bo'lib xizmat qiladi, fond bozorida muomalada yuritilishi va oldi-sotdi vositasi bo'lishi mumkin.

Qimmatli qog'oz hosilalari - bular shunday qimmatli qog'ozlarki, ularning foydasi yo ki zarari bir nechta bozor ko'rsatkichlari bilan, ya'ni bozor indekslari bilan bog'liq. Qimmatli qog'ozlar hosilalari – «opsion» yoki «fyucherslar» ko'rinishida bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlar - hujjatlar bo'lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi.

Qimmatli qog'ozlarning opsiioni - emissiyaviy qimmatli qog'oz, u o'z emitentining muayyan miqdordagi qimmatli qog'ozlarini unda nazarda tutilgan muddatda, qat'iy belgilangan narx bo'yicha sotib olishga bo'lgan huquqini tasdiqlaydi.

Qimmatli qog'ozlarning rivojlangan bozorlari - xalqaro moliya korporatsiyasi taklifida ularga 24 mamlakat bozori shug'ullanadi. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va hokazo bozorlar kiradi.

Qismlı rezervlar (Fractional reserves) - bank ularga jalb qilingan moliyaviy resurslardan ehtimoliy yo'qotishlar uchun qism ajrtadi, ya'ni

rezervlar Markaziy bankda naqd pul, likvid qimmatli qog'ozlar ko'rinishida hisobda turadi.

Qisqa muddatli kreditlash statistikasi - qisqa muddatga kreditlar berishda, uning ishlatilishi ustidan nazorat o'rnatish va qaytishini tekshirish.

Qisqa muddatli likvidlilik koeffitsiyenti - to'lov muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan bank aktivlarining bankning muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan depozitlari va jalb qilingan mablag'lari va kapitaliga nisbati sifatida aniqlanadi

Qisqa valyuta pozitsiyasi - aniq bir valyuta bo'yicha passivlar va majburiyatlar, aktivlar va talablardan yuqori bo'lsa, ya'ni xorijiy valyutani sotish, uni sotib olishdan yuqori bo'lsa, qisqa valyuta pozitsiyasi bo'ladi.

Qiymat riski - foiz risklarinig bir qismi. Foiz stavkalarining o'zgarishi natijasida muddatli majburiyatlardan keladigan to'lovlar oqimi ham o'zgaradi. Bularga mos ravishda muddatli majburiyatlarning bozor narxi ham o'zgaradi.

Qog'oz pullar (Fiat money) – qog'oz pullar (qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlanmagan pullar).

Qoplash koeffitsiyenti - barcha qisqa muddatli majburiyatlarga qancha likvid mablag'lar to'g'ri kelishini ko'rsatadi yoki barcha likvid mablag'lar qay darajada qisqa muddatli majburiyatlarni qoplay olishi mumkinligini aks ettiradi.

R

Rasman tan olingan bozor - davlat va o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan nazorat qilinuvchi bozor. Bunday bozorlar ishtirokchilari qatoriga maqomi va uslubi davlat nazorati ostida bo'lgan institutlar kiradi. Masalan, banklararo kredit institutlari, fond birjalari

Rasmiy foiz stavkalari - hisob stavkasi yoki qayta moliyalash stavkasi; har bir davlatda Markaziy bank tomonidan belgilanadi

Real foiz stavka - inflyatsiya jarayonlari ta'sirida pulning qadrsizlanish darajasini inobatga olib, nominal stavkaning qayta ko'rib chiqilgan salmog'i hisoblanadi.

Real kurs - real kurs bu nominal kurs - o'z mamlakatida ishlab chiqarilgan tovarlar bahosi, xorijiy tovarlar bahosi.

Regress huquqi bilan factoring (recourse factoring) - bank yoki faktoring kompaniya o'z mijozining debitor qarzini regress huquqi bilan sotib olish bo'yicha shartnoma tuzadi. Buning mohiyati shundaki, agar bank (faktor) mol sotib oluvchidan tovar hujjatlari bo'yicha to'lovni undira olmasa, u mol yetkazib beruvchiga bank to'lab bergan mablag' (qarz)ni qaytarib, bankka to'lash to'g'risida talabnoma qo'yishi to'g'risida kelishib oladi.

Regress huquqsiz faktoring (non recourse factoring) - faktoringning bu turida regress huquqidagidek imkoniyat bo'lmaydi. Faktoringning bu turida mol sotib oluvchi mol yetkazib beruvchining talablari bo'yicha to'lamagan taqdirda ham barcha xarajatlarni bank qoplab berishi lozim bo'ladi.

Regulyativ kapital - bank faoliyatini boshqarish va iqtisodiy me'yorlar hisob - kitobini o'tkazish maqsadida hisoblash yo'li bilan aniqlanadigan bank kapitali. O'zbekiston Respublikasi banklari faoliyatida ham regulyativ kapital I darajali kapital va II darajali kapitaldan tashkil topgan.

Remissiya - hisob raqam bo'yicha to'lanayotgan mablag' miqdorini kamayish tomonga yaxlitlashtirish.

REPO operatsiyasi - qimmatli qog'ozlarni keyinchalik yuqoriroq bahoda sotish (sotib olish) majburiyati bilan sotib olish (sotish).

Repo rate - Angliya bankining REPO stavkasi - foiz stavka bo'yicha Angliya banki REPO operatsiyasida qimmatli qog'ozlar garovi ostida qisqa muddatli qarzlarni beradi.

Revolver kredit - qayta tiklanadigan, ko'p marta qo'llaniladigan kredit liniyasi hisoblanadi.

Riskdan xoli bo'lgan aktivlar - naqd pullar va turli kassa hujjatlari, Markaziy bankdagi «Nostro», «Vostro» hisb varag'idagi mablag'lar, majburiy zaxira hisob varag'idagi mablag'lar, xazina veksellari, davlat obligatsiyalari, Markaziy bankning qimmatli qog'ozlari va obligatsiyalari kiradi.

S

«**Spot-kurs**» - naqd (kassa) bitimlarining kursi. Spot-kurs - bir mamlakat pul birligining shartnoma tuzilgan vaqtda oʻrnatilgan baho boʻyicha boshqa mamlakatlar pul birliklarida ifodalangan bahosi. Bunda valyutani valyuta bitimi tuzilgan kundan boshlab 2 ish kunida almashtirib berish shart hisoblanadi.

«**Standart**» **sifatli aktivlar** - qarz oluvchi moliyaviy holati barqaror boʻlib, u qarzlarni oʻz vaqtida toʻlaydi va bunday aktivlarning qaytarilishida muammolar kuzatilmaydi.

«**Substandart**» **sifatli aktivlar** - qarzdorning moliyaviy holati barqaror boʻlsada, lekin faoliyatida baʼzi bir salbiy holatlar yuzaga kelsa va u kamchiliklar bartaraf etilmasa, kredit olgan subyektning kreditni oʻz vaqtida toʻlashida shuhba paydo boʻladigan aktivlar.

Salbiy gep (Salbiy farq) - oʻzgaruvchan foiz stavkali bank majburiyatlarining oʻzgaruvchan foiz stavkasi bank aktivlaridan oʻsib ketishi.

Selektiv risk - qimmatli qogʻozlar turini notoʻgʻri tanlash bilan bogʻliq risk.

Sinditsiyalashtirilgan kredit - bir necha banklar tomonidan yirik investitsiya loyihalarini birgalikda kreditlash uchun ajratilgan kredit.

Soʻnggi qarzdor (Final borrower) - qarzlarni qatori ketma-ketligida oxirgi ssuda olgan shaxs.

Sotuvchi kursi - bankning valyutani sotish kursi.

Spred - aktivlar boʻyicha olingan oʻrtacha tortilgan stavka va majburiyatlar boʻyicha toʻlangan oʻrtacha tortilgan stavka oʻrtasidagi farq.

Suzib yuruvchi foiz stavka - kredit berilgan muddat ichida vaqti - vaqti bilan foiz stavkasi qayta koʻrib chiqiladigan oʻrta va uzoq muddatli kreditlarga qoʻllanadigan stavka.

Suzuvchi foiz stavkali nota (Floating rate note (FRN)) - obligatsiya turlaridan biri. Yaʼni foiz davriy koʻrib chiqiladi (masalan, bazaviy stavka: LIBOR + fiksirlangan marja). Bazaviy stavkaning oʻzgarishi bilan va obligatsiyalar boʻyicha foiz stavkasining oʻzgarishi yevrobozorda keng qoʻllaniladi.

Svop operatsiyasi - bir vaqtning o'zida chet el valyutasini har xil sanaga turli hisob - kitoblar shartida teng summaga sotib olish va sotish. Ya'ni svop – valyutani kelajakda sotib yuborish garovi bilan qandaydir vaqtga sotib olish.

T

Ta'lim krediti - oliy o'quv yurtlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ajratiladigan kredit.

Talab qilib olinadigan depozitlar - bankni oldindan ogohlantirmay mijoz tomonidan xohlagan vaqtda talab qilib olinadigan mablag'lar.

Taqsimlanmagan foyda - rezerv fondiga ajratmalar va dividendlar to'langanidan so'ng qoladigan foydaning bir qismi.

Tashqi konvertirlanish - milliy valyutaning xalqaro hisob-kitoblarda ishlatilish imkoniyati, chet el valyutasining milliy valyutaga erkin ayirboshlanishi va teskarisi.

Tashqi qarz konversiyasi - davlatning olgan tashqi krediti, shakli, qaytarish muddati, foiz stafkalari shartlarining o'zgartirilishi natijasida tashqi qarz majburiyati umumiy miqdorining qisqartirilishi.

Telephone banking - masofaviy bankingni eng ommabop turi bo'lib, bu telefon orqali bank xizmatlarini ko'rsatish.

Tijorat banki I darajali kapitali yetariligi - birinchi darajali kapitalning riskni hisobga olgan holda aktivlarning umumiy summasiga nisbati.

Tijorat banki umumiy kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti - riskka asoslangan kapitalning umumiy summasi (bu summa chegirmalarni hisobga olgan holda 1 - darajali kapital va 2 - darajali kapital yig'indisidan iborat)ning riskni hisobga olgan holda (yoki riskka tortilgan) aktivlarning umumiy summasiga nisbati. Bu summa chegirmalardan keyin riskni hisobga olgan holda balans va balansdan tashqari aktivlar yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Tijorat banking foiz siyosati - bank umumiy siyosatining muhim elementlaridan biri sifatida bankning pul mablag'larini jalb qilish va joylashtirish sohasida foizlar o'rnatish bilan bog'liq chora - tadbirlar

majmuasidan iborat bo'lib, bankning likvidligi va rentabelligini ta'minlashga yo'naltiriladi.

Tijorat bankining likvidligi - bankning barcha mijozlari va boshqa subyektlar oldidagi qarz va majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida to'lay olishi.

Tijorat banklarining nodepozit operatsiyalari - tijorat banklarining yirik pul bozorlaridan pul mablag'larini jalb qilish, qimmatli qog'ozlar, veksellarni, obligatsiyalar vositasini muomalaga qo'yish yo'li bilan mablag'larni jalb qilish sohasidagi operatsiyalari.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan aktiv operatsiyalari - bank o'z yoki jalb qilingan boshqa mablag'larini har xil qimmatli qog'ozlarni sotib olishga joylashtirilishi.

Tijorat banklarni qimmatli qog'ozlar bilan passiv operatsiyalari - bankning qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va ularni sotish evaziga bankka pul mablag'lari jalb qilish bilan bog'liq operatsiyalari.

To'liq ovoz huquqi (Full voting authority) - ovoz berishdagi jami huquq (trast hisob varag'ida joylashgan qimmatli qog'ozlarga egalik qiluvchiga trastni boshqarish huquqi beriladi, bu holda eng so'nggi kishiga o'zi mustaqil qaror qabul qilish huquqi beriladi).

To'liq to'lov (Full payment) - to'lov summasi, vositalarning hisob varaqdagi, teng miqdordagi qoldig'i (mablag'larni olishda qoldiq nol qolishi kerak).

To'lovning soxta oluvchisi (Fictitious payee) - agar hujjat mavjud bo'lmagan yoki mavjud summani olish huquqiga ega bo'lmagan shaxs nomiga rasmiylashtirilgan bo'lsa, mablag'larni (tijorat yoki qimmatli qog'ozlar bo'yicha) soxta oluvchi shaxs.

To'g'ri kotirovkalash - xorijiy valyuta birligining bahosi milliy valyutada ko'rsatilishi, ya'ni xorijiy valyutaning bir birligiga to'g'ri keladigan milliy valyuta miqdori ko'rsatilishi.

Tovar iste'mol krediti - iste'molchiga iste'mol tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi korxonalar yoki realizatsiya qiluvchi tashkilotlar tomonidan sotib olingan tovarlar, bajarilgan ishlar

yoki ko'rsatilgan xizmatlar haqini bo'lib - bo'lib to'lash tarzida beriladigan kredit.

Tranzit komission bitimlar - birjada qatnashish huquqiga ega bo'lgan banklar tomonidan boshqa, ya'ni bunday operatsiyalarda qatnashishga ruxsat berilmagan banklar va boshqa kredit institutlarining topshirig'iga binoan amalga oshiradigan operatsiyalar

Trassant - to'lovchi (tratta, inkassa qo'yiladigan shaxs); trassat, tratta yozilgan va tratta bo'yicha to'lashga majbur bo'lgan shaxs.

Trast operatsiyalari - bank jismoniy va yuridik shaxslardan pul mablag'larini ma'lum bir muddatga jalb qilib, shu muddat ichida ishonchga olingan mablag'ni yuqori foyda olib keladigan operatsiyalarga joylashtiradi, ularni boshqaradi, mijozning topshirig'i bo'yicha yo'naltiradi.

Trast xizmatlar - mijozga tegishli bo'lgan va boshqa aktivlarni boshqarish bo'yicha olib boriladigan operatsiyalar.

Treyder - ma'lum tovar (valyuta, qimmatli qogoz, xomashyo va boshqalar)ni sotish va sotib olishni taklif qiluvchi birja savdosi ishtirokchisi.

Tsessiya - qarzdor hujjati bo'lib, unga asosan qarzdor o'zining talablari yoki mulkiy huquqlarini kredit ta'minoti sifatida bankka o'tkazishi.

U

Uzun valyuta pozitsiyasi - agarda bankning sotib olgan valyutasi bo'yicha aktivlari va talablari uning shu valyuta bo'yicha passiv va majburiyatlaridan yuqori bo'lsa bankda mazkur valyuta bo'yicha holat uzun valyuta pozitsiyasi deyiladi.

Umumiy zaxiralar - bank faoliyati davomida umuman yoki biror - bir faoliyat turi (kreditlash, investitsiyalash) natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash (masalan, yaxshi kreditlar bo'yicha zarar ko'rib qolinsa) uchun, lekin ayrim muayyan operatsiyalar bo'yicha zararlarni qoplashga mo'ljallanmagan zaxiralar hisoblanadi.

«**Umidsiz**» aktivlar - shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan yoki qaytmasligidan dalolat beruvchi omillar yoki

alomatlar mavjud bo'lgan hamda qaytmaydigan yoki qiymati juda pastligi tufayli hisobini balansda aktiv sifatida yuritilishi maqsadga muvofiq emas deb baholanadigan, aktivlarning undirilishi sud jarayonida bo'lgan, qarzdor va lizing oluvchidan undirilgan, garovga qo'yilgan mol - mulkka bo'lgan huquqlardan foydalanish yo'li bilan tijorat banki tomonidan balansga qabul qilingan kundan boshlab uch oy muddatda sotilmagan va bank faoliyatini kengaytirish uchun sotib olingan binodan ikki yil mobaynida foydalanilmagan hamda bank faoliyati uchun ortiq foydalanilmay qo'yilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida sotilmagan, aktivlarning to'lash muddati uzaytirilgan, asosiy qarz va foizlar bo'yicha 180 kundan ortiq kunga muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lgan aktivlar.

Universal banklar - xilma-xil operatsiyalar bajarish, har xil xizmatlarni amalga oshirish xususiyatiga ega bo'lgan banklar.

Uzoq muddatli aktivlarning aylanishi (Fixed assets turnover ratio) - fiksirlangan aktivlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti, sotilgan aktivlarni netto fiksirlangan aktivlarga nisbati tariqasida hisoblanadi.

V

Vasiy - mas'ul shaxs bo'lib, vasiylik davrida bankni muvaqqat ma'muriyat boshqaradi.

Vasiylik - Markaziy bank tomonidan kompleks ma'muriy - huquqiy, tarkibiy, moliyaviy choralar ko'rish orqali tijorat bankining faoliyatini yaxshilash, qonun talablari asosida ish yuritilishini ta'minlash, agarda uni moliyaviy barqarorlashtirish iloji bo'lmasa bankni qayta tashkil etish yoki uni tugatishga tayyorlash uchun tayinlanadigan jamoa.

Valyuta (*ital.*- «qadrlanmoq, qiymat») - baho, qiymat belgisi bo'lib, mamlakatlarning milliy pul birligi hisoblanadi.

Valyuta arbitraji - valyutani sotish yoki sotib olish bo'lib, keyinchalik teskari bitim tuzib, valyuta kurslari farqi yordamida foyda olish maqsadida o'tkazishni ifodalaydi. Valyuta arbitraji turli valyuta bozorlaridagi valyuta kursining farqi yoki valyuta kursining vaqt mobaynida o'zgarishi hisobiga foyda olish maqsadida tuzilgan valyuta bitimi.

Vakolatli bank - chet el valyutasida operatsiyalar o'tkazish uchun bosh yoki ichki litsenziyaga ega bo'lgan bank va bu bank qonun talablariga muvofiq litsenziya shartlari asosida o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Valyuta pozitsiyasining umumiy summar holati (summasi) - barcha valyutalar bo'yicha uzun (qisqa) pozitsiyalar umumiy summasi tushuniladi.

VA-Bank - katta risk bilan bog'liq faoliyat, o'ta qaltis harakat qilish.

Valyuta bilan tartibga solish - davlatning xalqaro hisob kitoblari valyuta boyliklari bilan bitimni bajarish tartibini qat'iy belgilashga qaratilgan faoliyatdir. Davlat valyuta bilan tartibga solish yordamida valyuta operatsiyalarni xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarga kreditlar va qarzlarni berish valyutani olib kirish, olib chiqib ketish hamda chet elga o'tkazishni nazorat ostiga olish va shu tariqa milliy valyuta, to'lov balansining muvozanati va barqarorligini saqlashga harakat qiladi.

Valyuta bozori - moliya bozorining bir ko'rinishi. Bunday bozorda turli mamlakatlar valyutasi oldi-sotdi qilinadi. Bozorda korxonalar, firma, davlat idoradari va fuqarolar qatnashadi. O'zbekistonda valyuta oldi-sotdi qilish operatsiyalari bilan respublika Markaziy banki, Valyuta birjasi, respublika tashqi iqtisodiy milliy banki va shunday faoliyat uchun ruxsat berilgan banklar va boshqa tashkilotlar shug'ullanadi.

Valyuta birjasi - xorijiy valyuta oldi-sotdisini bozor narxlarini bo'yicha muntazam va tartibli ravishda boshqarish asosida amalga oshiriladigan birja.

Valyuta blokadasini - hukumat tomonidan o'z valyutasini boshqa davlatga chiqib ketmaslik uchun choralarini.

Valyuta munosabati - bir davlat valyutasining boshqasiga ayirboshlash. Valyuta munosabati ma'lum valyuta kursi asosida amalga oshiriladi.

Valyuta deklaratsiyasi - valyuta miqdori ko'rsatilgan hujjat: bojxonaga chegaradan valyuta olib o'tkazilayotganda ko'rsatiladigan hujjat-ariza.

Valyuta intervensiyasi - davlatning valyuta bozorida muammolarga milliy yoki chet el valyutasi kursini oshirish yoki tushirish maqsadida chet el valyutasining yirik summasini yoki oltinni sotish yo'li aralashuvi.

Valyuta kursi - bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birligida yoki xalqaro valyuta birliklarda ifodalangan bahosi.

Valyuta rezervi - biror mamlakatning valyuta mablag'lari yoki oltin jamg'armalari.

Valyuta siyosati - valyuta munosabatlarida iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy tadbirlar va shakllar yig'indisi. Bu vositalar yordamida xalqaro moliya-kredit tashkilotlari, davlatning moliya va bank muassasalari valyuta munosabatlarini taribga soladi.

Valyuta tizimi - valyutalar ularning o'zaro ayirboshlash va qo'llash qoidalari va normalari, to'lov vositasi sifatida qo'llanishi bilan bog'liq pul-kredit munosabatlarining yig'indisi.

Valyuta chegaralari - bir mamlakatda valyuta operatsiyalari bo'yicha cheklash tadbirlari. Ma'muriy va qonuniy tartibda belgilangan xorijiy valyutasi va boshqa valyutaga tegishli qimmatli narsalar bo'yicha operatsiyalarni cheklash uchun yo'naltiriladi

Valyuta qarzi - bir mamlakatning boshqa mamlakatlardan qarzga olgan valyuta qarzlari: valyuta qarzi davlat yoki tijorat korxonasiniki bo'lishi mumkin.

Valyuta konversiyasi - amal qilayotgan valyuta kursi bo'yicha bir valyutani ikkinchisiga almashtirish.

Valyuta operatsiyasi - chet el valyutasi oldi-sotdisi jarayoni.

Valyuta opsiioni - muddatli valyuta operatsiyaning bir turi bolib kelishilgan muddat ichida kelajakda belgilangan kurs bo'yivha xorijiy valyutaning muayyan miqdorini xarid qilish yoki sotish huquqini, tomonlarning biriga belgilangan mukofotni to'lagan holda berish bo'yicha kelishilib olingan ikki tomonlama shartnoma.

Valyuta pozitsiyasi - bank yoki dillerning talab va majburiyatlar nisbati. U ikki qismdan, ya'ni "uzun" va "qisqa" pozitsiyalardan iborat. "Uzun" pozitsiyada dillerning talablari aks etadi. Diller tomonidan valyuta sotib olinganida dillerda sotuvchiga nisbatan talablar hosil

bo'ladi. "Qisqa" pozitsiyada dillerning majburiyatlari aks etadi. Diller tomonidan valyuta sotilganida sotib oluvchi oldida dillerning majburiyatlari hosil bo'ladi. Agarda dillerning talablari majburiyatlardan ko'p bo'lsa, unda valyuta pozitsiyasi "uzun" pozitsiya bo'yicha ochiq hisoblanadi. Agarda dillerning majburiyatlari talablaridan ko'p bo'lsa, unda valyuta pozitsiyasi "qisqa" pozitsiya bo'yicha ochiq hisoblanadi. Dillerning talab va majburiyatlari o'zaro teng bo'lsa, unda valyuta pozitsiyasi yopiq hisoblanadi.

Valyuta revalvatsiyasi - xorijiy valyutalar yoki xalqaro valyuta birliklariga, oltinga nisbatan milliy valyuta kursining ko'tarilishi.

Valyuta savati - kursi har xil tendensiyalarga ega bo'lgan valyutalar yig'indisi.

Valyuta hisob varag'i - yuridik yoki jismoniy shaxslarning bankdagi chet el valyutasidagi hisob raqami.

Valyuta transferti - bir mamlakatning va chet el tijorat banklarining oldindan kelishilgan summadagi pulni va valyutani shartnomadagi kursi bo'yicha o'zaro almashtirish bo'yicha bank operatsiyasi.

Valyuta riski - chet el valyutasi oldi sotdi bitimlarini amalga oshirish jarayonida ularning kursi o'zgarishi bilan bogliq bo'lgan zarar ko'rish yoki yoqotishlar ehtimoli.

Valvatsiya - xorijiy valyutaning milliy pul birligida kursini belgilash. Buning balazariyasidan farqi shundaki, valivatsiyada kursning pasayishiga yoki oshishiga moyillik ko'zda tutilmaydi.

Valyuta brokeri - valyuta birliklarida bitim tuzish paytida vositachilik bilan shug'ullanadigan shaxs.

Valyuta devalvatsiyasi - milliy valyuta kursining xorijiy valyutaga nisbatan rasmiy tarzda pasayishi.

Valyuta dempingi - turli mamlakatlarning yagona pul-kredit siyosati asosida o'zaro bog'langan holda rivojlanishi.

Valyuta kliringi - yetkazib berilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymat tengligidan kelib chiquvchi muqobil talabnoma hamda majburiyatlarni o'zaro majburiy hisobga olish haqidagi hukumatlararo shartnoma, tashqi savdo va boshqa mamlakatlararo

iqtisodiy munosabatlar shaklida xalqaro to'lov bitimlari asosida amalga oshiriladigan hisob-kitoblar.

Valyuta laji - valyuta bozor kursining ularda qayd etilgan qiymatiga nisbatan oshib borishi.

Valyuta makleri - valyuta operatsiyalarida vositachilik bilan shug'ullanuvchi dallol.

Valyuta pariteti - ikki valyuta o'rtasida qonunan belgilanib, valyuta kursining asosi hisoblanadigan nisbat.

Valyuta svopi - xorijiy valyutani mamlakat valyutasi evaziga keyinchalik qayta sotib olish sharti bilan sotish.

Valyuta forvard bozori - muddatli valyuta bitimlari tuziladigan bozor.

Valyuta forvard kursi - valyutaning muddatli bitimlar bo'yicha kursi.

Valyuta fyuchersi - muayyan turdagi valyutani bitim tuzish paytida kelishib olingan kurs bo'yicha belgilangan kelgusi sanada sotib olish majburiyatini ko'zda tutuvchi valyuta bitimi.

Valyuta foiz xeji - foizlar o'rtasidagi farqdan olingan daromadni qayd qilish va shu vaqtning o'zida valyuta kurslarining ko'zda tutilmagan o'zgarishlaridan sug'urtalash imkonini beruvchi valyuta foiz bitimlari turi.

Valyuta zonasi - bir guruh davlatlarning kelishgan holda bir valyutadan foydalanishi. Valyuta guruhiga kiruvchi davlatlarda kelishilgan valyutada ichki, tashqi to'lovlar olib boriladi va rezervlar ham ushbu valyutada jamlanadi.

Valyuta kassasi - davlat hisob-raqamiga kelib tushadigan naqd, naqdsiz ko'rinishdagi va omonat ko'rishidagi xorijiy valyutalar yig'indisi.

Valyuta korzinas - bir necha davlatlar valyutalarining yig'indisi bo'lib, ushbu valyutalarga nisbatan milliy valyutaning o'rtacha tortilgan kursi aniqlanadi.

Valyuta kotirovkasi - mavjud me'yoriy hujjatlar asosida xorijiy davlatlar valyutalarining kursining aniqlanishi.

Valyuta likvidligi - davlatlarning tashqi qarzlarini to'liq va vaqtida to'lash qobiliyati.

Valyuta aferasi - valyutalar yordamida qilinadigan noqonuniy operatsiyalar.

Valyuta zaxiralari - davlatning konvertatsiyalanadigan valyutadagi zaxiralari va fondlari yig'indisi bo'lib, u davlatning to'lov qobiliyatini aniqlashga yordam beradi.

Valyutali kredit - pul ko'rinishidagi kreditlarning bir turi bo'lib, odatda, kredit berayotgan davlatning valyutasida beriladi. Ushbu kredit asosan tovarlarni sotib olishga va to'ov balansi passividagi saldoni qoplash uchun beriladi.

Valyuta koridori - davlat tomonidan belgilanib qo'yiladigan, valyuta kursi tebranib turadigan interval. U Markaziy bank tomonidan valyutalarni sotish yoki sotib olish orqali tartibga solinib turiladi.

Valyuta koeffitsiyenti - joriy hisob kitoblar uchun ishlatilayotgan kurs hisoblanib, unga ko'ra milliy xorijiy valyutadagi narxlar bo'yicha to'lovlar milliy valyutada olib boriladi.

Valyuta transferti - ikki davlat tijorat banklari o'rtasidagi oldindan kelishilgan jarayon.

Valyuta va qimmatli qog'ozlar konversiyasi - biror valyutaning (aksiyaning) boshqa bir valyuta (aksiya)ga ayirboshlanishi.

Varrantli zayom - varrant garovi asosida berladigan krediti turi.

Vaqtinchalik valyuta - vaqtincha amal qiluvchi pul birligi, pul belgilari, kredit vositalari.

Varrant - tovar omborlari tomonidan tovarni saqlab turish uchun qabul qilinganligi to'g'risida berilgan guvohnoma.

Vaqtinchalik opsion - aktivini ixtiyoriy paytda aniq bir muddatgacha yuborish yoki sotib olish huquqi.

Veksel - qat'iy belgilangan shakldagi to'lov bo'yicha bergan yozma qarz majburiyati. Veksel egasi muddat tugagandan so'ng belgilangan pul summani talab qilishga haqli.

Vekselni akseptlash - veksel qiymati to'lanishiga rozilik berish.

Veksel beruvchi - veksel yozuvchi yoki chiqargan shaxs.

Veksel oluvchi - vekselni qabul qilgan shaxs.

Veksel prolangatsiyasi - vekselni qoplovchi va veksel egasi o'rtasidagi o'zaro shartnoma bo'yicha vekselning amal qilish vaqtini uzaytirish.

Veksel brokeri - qimmatli qog'ozlar birjasida vekselar bo'yicha bitim tuzish paytida vositachilik qiluvchi shaxs yoki firma.

Vekselar portfeli - muayyan davr mobaynida bankda yoki korxonada jamlangan vekselar majmuyi.

Veksel egasining diskont bahosi bo'yicha joylashtirilgan daromadi - nominal bahosi va qarz summasi o'rtasidagi farq.

Veksel sotib oluvchining daromadi - vekselning nominal va sotish o'rtasidagi farq.

Vekselning yillik daromadliligi - qarz muddatidagi vekselning daromadliligini veksel berilgan sanadan uni qoplash sanasigacha bo'lgan kunlar soniga nisbatini yildagi kalendar kunlar soniga ko'paytirib hisoblanadi.

Venchurli moliyalashtirish - bunda kapital asosan mahsulotning yangi turini yaratish maqsadida yangi texnika va texnologiyalarga jalb etiladi.

Venchur biznesi - biznes turi bo'lib, ilmiy izlanishlarning natijalari hali amaliyotga tatbiq qilinmagan yangi texnika va texnologiyalarni amaliyotga qo'llab ko'rishni mo'ljallaydi. Bu biznes har doim yuqori risk bilan bog'liq bolib, riskli biznes sanaladi.

Vitse prezident - kompaniya yoki korporatsiyaning mansabdor shaxslaridan biri bo'lib, tashkilotning asosiy yo'nalishini belgilab beradi.

Vokfer - sotsial ta'minotning o'zgarishi.

Votirovat - ovoz berish yo'li bilan qaror qabul qilish.

Votum - ovoz berish yo'li bilsn qaror qabul qilish, fikr bildirish, qarshilik qilish.

Vostro hisob raqami - xorijda mahalliy valyutada yuritiladigan hisob varag'i.

Vspishka - qimmatli qog'ozlar taklifi bo'lib, bu qimmatli qog'ozlarni tezda tarqatishni ifodalaydi.

Valyuta transferti - ikki davlat tijorat banklari o'rtasidagi oldindan kelishilgan miqdordagi valyutalarni almashtirish operatsiyasi.

Veksel - veksel beruvchining yoxud vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda, veksel egasining vekselda ko'rsatilgan summani to'lab berishiga doir qat'iy majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz va to'lov vositasi hisoblanadi.

Video banking - bu interaktiv muloqot sifatida bo'ladi va buning uchun «kiosk» deb nomlangan qurilmadan foydalaniladi.

X

Xalqaro faktoring (international factoring) - eksportyor va importyor va bank yoki faktor turli mamlakatlarda bo'lib mamlakatlararo faktoring munosabatlari yuzaga kelsa, bu xalqaro faktoring (international factoring) hisoblanadi

Xayring - ijara mulki bo'yicha tuzilgan o'rta muddatli shartnoma.

Xaridor opsioni - bazis aktivini aniq 1 kunda aniq baho bo'yicha xariddan voz kechishi mumkinligi sharti bilan olish huquqi.

Xaridor kursi - bankning valyutani sotib olish uchun qabul qilingan valyuta kursi.

Xedjirlash - valyuta kursi yoki qimmatli qog'oz qiymatining kelgusidagi o'zgarishi xavf-xatari ehtimolini ko'zda tutuvchi bitimlar tizimi.

Xususiy veksel - korxonada, tijorat banki, moliyaviy guruhning qarzi majburiyatlari.

Xalqaro lizing - ko'pincha bu moliyaviy lizing (Moliyaviy lizing. *Qarang.*) bo'lib, bunda bir tomonda chet el hamkori (sherigi) turadi.

Xatar - qimmatli qog'ozlar (shu jumladan, investisiyalar) operatsiyalari bilan bog'liq yo'qotishlar va muqarrar ravishda ularga xos ehtimollar.

Xotira plastik kartasi - ma'lumotlarni xotirasida saqlovchi eng oddiy elektron kartochka.

Xususiy tadbirkorlik - jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan amalda o'zining shaxsiy mulki asosida tashkil etiladigan faoliyat turi.

Xorijiy o'tkazma vekseli (Foreign draft) - rezident bankdan chet el bank - korrespondent bankka yozilgan o'tkazma veksel.

Xorijiy portfel investitsiyasi (Foreign portfolio investment) - boshqa davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari texnologiyalar o'tkazmasdan, qo'shma korxonada tuzib, ichki kapital bozorida qimmatli qog'ozlar portfeli bilan investitsiyalashi.

Xususiy bank - ustav kapitalida muassislar (aksiyadorlar) bo'lgan jismoniy shaxslarning ulushi kamida ellik foizni tashkil etishi lozim bo'lgan bank.

Y

Yakuniy bank oborotlari - operatsiyalarning tugallangan bankdagi oborotlari.

Yaxshi kreditlar - bu asosiy qarz summasi va unga hisoblangan foizlar o'z vaqtida yoki muddatidan ilgari qaytarilgan ssudalar.

Yakka tartibdagi tadbirkor - yuridik shaxs maqomini olmasdan xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxs.

Yuqori likvidli aktivlar - kassadagi pullar, Markaziy bankdagi vakillik hisob varag'idagi qoldiq mablag'lar, Markaziy bankdagi rezerv hisob varag'idagi qoldiq mablag'lar, qimmatli qog'ozlarga aylantirilgan mablag'lar.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor, jismoniy shaxs - o'z riski asosida yakka tartibda mehnat faoliyatini tashkil etgan, bankda hisob-kitob hisob varag'iga ega bo'lgan va mustaqil faoliyat ko'satuvchi shaxs.

Yuqori likvidli aktivlar - bu kassadagi pullar, Markaziy bankdagi vakillik hisob varag'idagi qoldiq mablag'lar, Markaziy bankdagi rezerv hisob varag'idagi qoldiq mablag'lar, qimmatbaho qog'ozlarga aylantirilgan mablag'lar.

Yuqori riskli aktivlar - boshqa banklarga berilgan kreditlar, boshqalar uchun bank bergan garov va kafolatlar. Bu aktivlar bo'yicha risk 50 foizga teng.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor, jismoniy shaxs - o'z tavakkalchiligi asosida yakka tartibda

mehnat faoliyatini tashkil etgan, bankda hisob - kitob hisob varag'iga ega bo'lgan va mustaqil faoliyat ko'satuvchi shaxs.

Yombi (mo'g'ulcha yomba, xitoycha «yuane bao») - quyma kumush bo'lagi. Dastlab pul sifatida yirik savdo muomalalarida ishlatilgan. Birinchi marta Xitoyda paydo bo'lgan. Yaxlit quyma yoki tabiiy oltin, kumush.

“Yetakchi bahoning orqasidan ergashish” (Follow - the - leader pricing) - uslubi bo'yicha narx o'rnatish. An'anaviy bank xizmatlarida bahoni aniqlashga yondashish usullaridan biri. Yetakchi banklar tomonidan yangi narx o'rnatilishi bilan narxlarni o'zgarishining taxmin qilinishi.

Yopiq turdagi aksiya - aksiya egasi hissadorlarning roziligi bilan qo'ldan-qo'lga o'tish mumkin bo'lgan aksiyalar.

Yopiq valyuta pozitsiyasi - agar valyuta bo'yicha talablar va majburiyatlar teng bo'lsa, valyuta pozitsiyasi yopiq bo'ladi.

Yopilmagan Federal rezerv tizimi notalari (Federal Reserve notes outstanding) - ko'rsatkich muomaladagi pul biletlari va Moliya Vazirligidagi pul biletlaridan tashkil topadi.

Yillik foiz stavkasi usuli - kredit bo'yicha yig'ilgan to'lovlarni kredit summasiga bo'lgan nisbatini ko'rsatadi, ya'ni daromadlilik stavkasini ifodalaydi.

Yosh oilalar uchun ipoteka krediti - yosh oilalar (har biri 30 yoshdan oshmagan, birinchi marta rasmiy nikohdan o'tgan yoshlar kiradi)ga sotib olinayotgan ko'chmas mulkni garovga olish orqali uy - joy qurish, rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun beriladigan kreditlar.

Yopiq faktoring - hisob-kitoblarda bank ishtirok etishi, debitorning bank bilan faktoring xizmat ko'rsatish to'g'risida shartnomasi mavjudligi, mol yetkazib beruvchining to'lov hujjatlari faktoring kompaniyasiga o'tkazilishi to'g'risida MSOga xabar berilmaydi.

Yevro - Yevropa Ittifoqi davlatlarining pul birligi.

Yevrodollarlar - Yevropa banklarida dollarda qo'yilgan bank omonotlari.

Yevrokarta (Eurocard) – Yevropa bank tizimiga kiruvchi

davlatlarda ishlatish huquqini beruvchi (ishlatish mumkin bo'lgan) xalqaro kredit karta.

Yetkazib berish riski - tuzilgan bitimning sotuvchi yoki xaridor tomonidan bajarilishida moliyaviy instrumentlarni yetkazish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmaslik. Masalan, qimmatli qog'ozlar qisqa pozitsiyasi bilan sotuvda uning sotuvchi tomonidan yetkazilmasligi.

Z

Zararlar - ishlab chiqarish xarajatlarining daromaddan oshiq qismi.

Zararli kredit - qaytarilishning iloji bo'lmagan aktivlar. Bu aktivlarning amalda tugatish qiymati juda ham past. 365 kun va undan ortiq muddat ichida harakatsiz aktivlar va o'tlanmagan foizlar zarar sifatida baholanishi mumkin. Bunday qarzlarning 100 foiz qiymati kelg'usida balansdan chiqarib tashlanadi, deb taxmin qilinadi. Qarzning undirilish ehtimoli juda oz bo'lganidan ham bank uni aktivlarda va hisobga olib borishi mumkin.

Zararsizlik nuqtasi - umumiy xarajatlar umumiy daromadga teng bo'lgan nuqta. Ishlab chiqarish hajmi agarda bozor narxi zararsizlik nuqtasidan pasaysa, unda korxonalar, tabiiyki, tarmoqlarini tashlab boshqa tarmoqqa o'tib ketadilar. Bu nuqtada faqat yalpi mahsulotni ishlab chiqarishga o'tgan korxonalar faoliyat ko'rsatishlari mumkin bo'ladi yoki korxonalar tomonidan o'tkazilgan tahlil shu tarmoqda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga qisqa muddatda talabining ko'tarilishidagina korxonalar o'z faoliyatini davom ettirishi mumkin.

Zaxira kapitali - aksionerlik jamiyati hisobiga tashkil etiladigan va ko'zda tutilmagan har xil zararlarni qoplash, dividendlarni to'lash uchun saqlanadigan kapital.

Zaxiradagi valyuta - konverlashtirilgan valyutaga xalqaro zaxira vositali va boshqa mamlakatlar valyuta kursini muvofiqlashtirish vositasi sifatida foydalaniladigan valyuta.

O'

O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari - emissiyaviy qimmatli qog'ozlar bo'lib, ular emissiyaviy qimmatli qog'ozlar egalari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Davlat

byudjetiga pul mablagʻlari kiritganligini tasdiqlaydi va bu qimmatli qogʻozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida qatʼiy belgilangan daromad olish huquqini beradi. Gʻazna majburiyatlari butun aylanish davrida aniq chegaralangan foizni toʻlab berish majburiyatini guvohlovchi qimmatli qogʻozdir.

Oʻzgarmas, fiksirlangan foiz riski - kredit boʻyicha oʻzgarmas foiz oʻrnatilib, depozitlar va boshqa jalb qilingan mablagʻlar boʻyicha foiz oʻzgaruvchan boladi.

Sh

«Shubhali» sifatli aktivlar - sifati «qoniqarsiz» deb tasniflangan aktivlarga xos barcha xususiyatlarga ega boʻlib, mavjud sharoitda aktivlarning toʻliq qaytarilishini shubha ostiga va kam ishonchli qilib qoʻyadigan, «qoniqarsiz» aktivlarning hech boʻlmaganda birorta koʻrsatkichi, shuningdek, ayrim boshqa salbiy tavsiflari mavjud boʻlgan, yaqin kelajakda aktivning qisman toʻlanish ehtimoli mavjud boʻlgan, asosiy qarz va foizlar boʻyicha 90 kundan ortiq, lekin 180 kundan oshmagan, muddati oʻtgan qarzdorlik mavjud boʻlgan aktivlar.

3 month LIBOR range - Shveysariyada uch oylik zayomlar boʻyicha foiz stavkalar koridori boʻlib, Shveysariya Milliy banki qisqa muddatli foiz stavkalarni nazorat qilish maqsadida Shveysariya franki boʻyicha LIBOR uch oylik foiz stavkani 1% diapazonida oʻrnatadi va ushlab turadi.

Ch

Chaqa - mis, jez singari metallardan yasalgan mayda tanga pul.

Chaqirilmaydigan kafolat - kafolat chaqirilishi, bekor qilinishi yoki oʻzgartirilishi (agar oldindan kelishib olingan boʻlmasa) mumkin bolmagan kafolat.

Chiqim kassasi - operatsiya kuni mobaynida pullarni va boyliklarni berish uchun tashkil etiladigan kassa.

Chiqim kassa hujjatlari - pul olish uchun cheklar va chiqim kassa orderlari.

Chek - bankka berilgan farmoyishga ko'ra shaxsning joriy hisob varaqda ko'rsatilgan summani berish to'g'risidagi maxsus hujjat.

Cheklar inkassasi - bank o'z mijozining topshirig'iga ko'ra jo'natilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun chek asosida to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'larini haq to'lovchidan oladi hamda bu mablag'larni o'z mijozining bankdagi hisob raqamiga o'tkazadi.

Chek kliringi - cheklar bilan hisob-kitob qilish bo'yicha markazlashtirilgan holda o'zaro hisobga olish tizimi.

Chet el banki - chet el bankining filiali bo'lib, unda uning ustav kapitali to'liqligicha chet el banki tomonidan shakllantiriladi va u o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasida amalga oshiradi.

Chet el kapitali ishtirokidagi bank - chet ellik investorlarning ishtiroki bank ustav kapitali umumiy summasining kamida 30% ini tashkil etadigan bank. Bunday bankning ustav kapitalini shakllantirishda rezidentlar va norezidentlar, jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, norezident banklar ishtirok etishi mumkin.

Chet el banki vakolatxonasi - chet el bankining u joylashgan yerdan boshqa joyda ochilgan alohida bo'linmasi bo'lib, u bank va boshqa tijorat faoliyati bilan shug'ullanish huquqisiz bank manfaatlarini ko'zlab ish olib boradigan bank bo'linmasi.

Chet el banki vakolatxonasini akkreditsiyalash - chet el banki O'zbekiston Respublikasi hududida o'z vakolatxonasini ochishi va uning faoliyat olib borishi uchun ruxsatnoma olishi hamda vakolatxona boshlig'ini tayinlashi.

Cheklangan darajada «suzib» yuruvchi valyuta kurslarining o'zgarishi - ayrim valyutalar yoki bir guruh valyutalar (valyuta savati) kursi o'zgarishiga bog'liq. Misol uchun «uchinchi dunyo»ning ko'pchilik mamlakatlari o'z valyutalarini AQSh dollariga, Yevropa mamlakatlarning "EURO"sig'a va boshqa xorijiy valyutalarga bog'laydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2014. 73 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. T.: Norma, MCHJ, 2008. 416 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. T.: Adolat, - 520 b.
4. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida"gi qonuni. 1995-yil 21-dekabr, 154-1-son. O'zbekiston Respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to'plami. T.: O'zbekiston NMIU, 2011. 5-29 b.
5. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni. 1996-yil 25-aprel, 216-1-son. O'zbekiston Respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to'plami. T.: O'zbekiston NMIU, 2011. 29-47 b.
6. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonuni. 2003-yil 11-dekabr, 556-11-son. O'zbekiston Respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to'plami. T.: O'zbekiston NMIU, 2011. 55-69 b.
7. O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi qonuni. 2003-yil 30-avgust, 530-11-son. O'zbekiston Respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to'plami T.: O'zbekiston NMIU, 2011. 69-76 b.
8. O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi qonuni. 1998-yil 1-may 614-1-son. O'zbekiston Respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to'plami. T.: O'zbekiston NMIU, 2011. 185-213 b.
9. O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuni. 1999-yil 14-aprel, 756-1-son. O'zbekiston Respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to'plami T.: O'zbekiston NMIU, 2011. 226-238 b.
10. O'zbekiston Respublikasining "Iste'mol krediti to'g'risida"gi qonuni. 2006-yil 6-may, O'RQ-33-son. O'zbekiston Respublikasi

- bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to'plami. T.: O'zbekiston NMIU, 2011. 331-340 b.
11. O'zbekiston Respublikasining "Mikromoliyalash to'g'risida"gi qonuni. 2006-yil 15-sentyabr, O'RQ-50-son. O'zbekiston Respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to'plami. T.: O'zbekiston NMIU, 2011. 340-349 b.
 12. O'zbekiston Respublikasining "Ipoteka to'g'risida"gi qonuni. 2006-yil 4-oktyabr, O'RQ-58-son. O'zbekiston Respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to'plami T.: O'zbekiston NMIU, 2011. 349-398 b.
 13. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni. 2008-yil 22-iyul, O'RQ-163-son. O'zbekiston Respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to'plami. T.: O'zbekiston NMIU, 2011. 398 b.
 14. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni. 2000-yil 25-may, O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. T.: O'zbekiston NMIU, 2011. 7-34 b. 2012-y 2-may.
 15. O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni. 1998-yil 30-aprel, O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. T.: O'zbekiston NMIU, 2011. 52-68 b.
 16. O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni. 2004-yil 26-avgust, O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. T.: O'zbekiston NMIU, 2011. 68-86 b.
 17. O'zbekiston Respublikasining "Xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risida"gi qonuni. 1996-yil 29-avgust, O'zbekiston Respublikasining valyutani tartibga solishga oid normativ-huquqiy hujjatlari to'plami. T.: O'zbekiston NMIU, 2011. 18-24 b.

18. O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi qonuni. 2012-yil 26-aprel T.: O'zbekiston NMIU, 2012.
19. O'zbekiston Respublikasining "Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi qonuni. 2006-yil 2-sentyabr T.: O'zbekiston NMIU, 2006.
20. O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. T.: O'zbekiston NMIU, 2011. 726 b.
21. O'zbekiston Respublikasining valyutani tartibga solishga oid normativ-huquqiy hujjatlari to'plami. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2011. 453 b.
22. O'zbekiston Respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to'plami T.: O'zbekiston NMIU, 2011. 447 b.
23. Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 2015-yil 15-may.
24. Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 2015-yil 24-aprel.
25. Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 2007-yil 18-may.
26. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 10-noyabrdagi PF 4051-sonli «Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik subyektlarini qullab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. Toshkent, 2008. №46. B. 3-4.
27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 18-noyabrdagi PF-4053-sonli «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2008. № 47. B. 3-5.

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-noyabrdagi PF-4057-sonli «Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. T., 2008. № 48. B. 4.
29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-noyabrdagi PF-4058-sonli «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta‘minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida»gi farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. T., 2008. №49. B. 4-5.
30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi PF-4434-sonli “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni.
31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 5-avgustdagi PQ,-147-sonli “Banklardagi depozit hisob varaqlardan naqd pul to‘lovlarini uzluksiz ta‘minlash kafolatlari to‘g‘risida”gi qarori. O‘zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari. T.: GNPP Kartografiya, 2005. B. 19-22.
32. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 7-noyabrdagi PQ-726-sonli «Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo‘sh pul mablag‘larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. T., 2007. № 45. B. 21-23.
33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24-iyuldagi PQ-927 sonli “Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilish hamda uzlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. T., 2008. № 29-30. B. 21-23.
34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 19-apreldagi PQ-1325-sonli “Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 6-apreldagi PQ-1317-sonli “Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va uning investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. T., 2010. № 4. B. 9-12.
36. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli “2011-2015 yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh, qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi qarori.
37. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 11-martdagi PQ 1501-sonli “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit berishni ko‘paytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. T., 2011. № 4. B. 4.
38. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 26-martdagi PQ-1731-sonli “Ekspart qiluvchi korxonalarni rag‘batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga etkazib berishni kengaytirish borasida qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori.
39. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017. 6-son. 70-modda. 20-son. 354-modda.
40. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 20 dekabrdagi PF-4891-sonli "O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasining ichki erkin almashtirilishini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 1995 yil 27 iyundagi PF-1193-son Farmoniga o‘zgartish kiritish haqida"gi farmoni.
41. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni.

42. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 fevraldagi PQ-2768-sonli "Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kafolat jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida"gi qarori.
43. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017 yil 10 iyundagi 12/1-sonli "Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida”gi qarori.
44. Respublikada bank plastik kartochkalari asosida naqd pulsiz hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017. 6-son. 72-modda.
45. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017 yil 17 iyundagi 13/1-sonli "O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklariga ta‘minotsiz kreditlarni berish tartibi to‘g‘risid”gi nizom.
46. "GlobUzCard" banklararo universal chakana to‘lov tizimi faoliyati to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2017 yil 15 mayda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2884.
47. O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017. 12-son. 192-modda.
48. Mirziyoyev Sh.M. «Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak T.: O‘zbekiston, 2017. 104 b.
49. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz» T.: O‘zbekiston, 2016. 56 b.
50. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017. 46 b.
51. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga ko‘ramiz. T.: O‘zbekiston, 2017.

52. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: O'zbekiston, 2009. 56 b.
53. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. T.: O'zbekiston, 2005. 528 b.
54. Abdullaeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. T.: Moliya, 2008.
55. Abdullaeva Sh.Z. Pul muomalasi va kredit. T.: ILM ZIYO, 2014.
56. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya. 2011.
57. Abdullaeva Sh.Z., Ortiqov U.D. Bank resurslari va ularni boshqarish. T.: Iqtisod-Moliya, 2009.
58. Abdullaeva Sh.Z, Safarova Z. Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish. T.: Iqtisod-Moliya. 2007.
59. Бочаров В.В. Финансово-кредитные методика регулирования рынка инвестиций. М.: Финансы и статистика, 2014.
60. Лаврушин О.И. "Банковское дело. Учебник. М.: Финансы и статистика, 2012.
61. Лаврушин О.И. Банковские риски М. КНОРУС, 2007.
62. Наговицин А.Г. Валютная политика М. Экзамен, 2013.
63. Роуз П.С. Банковский менеджмент М. Дело, 1995.
64. Лаврушин О.И. Банковские риски М. КНОРУС, 2007.
65. Черкасов В.Е. Финансовый анализ в коммерческом банке. М.: ИНФРА-М, 2014.
66. Kotler F., Keller K.L. Marketing, Menedjment. 2006. 431-str.
67. Shelagh Hefferman Modern Banking. John Wiley and Sons, Ltd. USA: 2012. 717p.
68. Kent Matthews and John Thompson. The Economics of Banking. John Wiley and Sons, Ltd. USA: 2008. 295p.
69. David C.Kidwell, Richard L. Peterson, David W. Blackwell. Financial institutions, Markets and Money. New York, 2014. 751 p.

70. A History of Money and Banking in the United States. Murray N. Rothbard. Ludwig Von Mises Institute, 2002.
71. The theory of Money and Credit, Murray N. Rothbard. Ludwig Von Mises Institut 266 p.
72. The Mystery of Banking second edition, Murray N. Rothbard. Auburn, Alabama, 2008. 298-p
73. Modern Banking regulation. ShelaghHefferman. 2004.
74. The Law of Banking and Financial institutions. Richard Scott Carnell, Statutory Supplement, 2011.
75. The keys to Banking Law: A handbook for lawyers. Korol K. Spars, Harding C. Williams.
76. The Principles of Banking. John Wiley and Sons Singapore pte Ltd, 2012.
77. Bank asset and Liability Management. John Wiley and Sons Singapore pte Ltd, 2007.
78. Banking Regulation in the United States. Carl Felsenfel, David Glass.
79. An introduction to Banking. MooradChoudhry.
80. Bank Valuation and Value Based Management: Deposit and Loan Pricing Performance Evaluation and Risk. Jean Dermine, 514 p. 2014.
81. Commercial Banking: The management of Risk. James W. Kolari, Benton E. Gup, 2005. 530 p.
82. Community Banking Strategies: Steady Growth, Safe Portfolio Management and Lasting Client Relationships, Vince Boberski, 2010.
83. Banking Systems, Center for Financial Training. John Wiley and Sons, Ltd. USA 20012. 495 p.

Интернет сайтлари

- www.cbu.uz <<http://www.cbu.uz>> - O‘zR MBning rasmiy veb-sayti;
- www.ahbor.uz <<http://www.ahbor.uz>> - “Ahbor reyting” RAning rasmiy veb-sayti;
- www.minfin.uz <<http://www.minfin.uz>> - O‘zR Moliya Vazirligining rasmiy veb-sayti;
- www.bankir.uz <<http://www.bankir.uz>> - norasmiy veb-sayt;
- www.lex.uz <<http://www.lex.uz>> - O‘zR Milliy qonunchilik tizimining veb-sayti;
- www.uzreport.com <<http://www.uzreport.com>> - O‘zR Hisobotlar tizimining veb-sayti;
- www.bis.org <<http://www.bis.org>> - Xalqaro Bazel Qo‘mitasining rasmiy veb-sayti;
- www.wikipedia.org <<http://www.isda.org>> - Global internet tarmog‘i ensiklopediyasi;
- www.universalbank.uz
- www.state.us
- www.ser.uz
- www.nbu.com
- www.tfi.uz
- www.bir.uz
- www.bma.uz
- www.finance.uz
- www.review.uz
- www.gov.uz
- www.bankir.ru

SH. Z. ABDULLAYEVA

BANK ISHI

Darslik

Muharrir **O. Jumayev**

Badiiy muharrir **M. Odilov**

Kompyuterda sahifalovchi **Z. Ulug'bekova**

Nashr lits. AI' 174. Bosishga ruxsat etildi 20.07.2017.

Qog'oz bichimi 60x84 ^{1/16}. Shartli bosma tabog'i 42,1.

Hisob-nashr tabog'i 43,8. Adadi 200.

35-buyurtma.